ICARDA
Science for resilient livelihoods in dry areas

CLIMATE RESILIENT INTEGRATED WATER RESOURCES MANAGEMENT IN THE ZARAFSHAN RIVER BASIN
Funded by the Swiss Agency for Development and Cooperation
CARITAS Schweiz Suissa Svizzera Svizra

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish MARKAZI

From the People of Japan

Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yiliga bag'ishlanadi



EKOLOGIK MUAMMOLARNING TABIATGA ASOSLANGAN YECHIMLARI

ПРИРОДООРИЕНТИРОВАННЫЕ РЕШЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

NATURE-BASED SOLUTIONS TO ENVIRONMENTAL PROBLEMS

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLAR TO'PLAMI

19-20-DEKABR, 2025-YIL

ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILIGA BAG’ISHLANADI

“EKOLOGIK MUAMMOLARNING TABIATGA ASOSLANGAN YECHIMLARI (NATURE-BASED SOLUTIONS TO ENVIRONMENTAL PROBLEMS)” MAVZUSIDAGI III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MAQOLALAR TO‘PLAMI

2025-YIL 19-20-DEKABR

Toshkent – 2025

“Ekologik muammolarning tabiatga asoslangan yechimlari (Nature-Based Solutions to Environmental Problems)” mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman maqolalar to‘plami. –T.: 2025. 1219 b.

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

Jusipbek Kazbekov	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri o‘rinbosari, rais
Shuxrat Muradov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, rais o‘rinbosari
Salimjan Buriyev	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktorining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, a’zo
Xamza Aminov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktor o‘rinbosari, a’zo
Obid Ergashev	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ilmiy kotibi, a’zo
Luqmon Samiyev	“TIQXMMI” dotsenti, a’zo
Furqat Erkabayev	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, a’zo
Zikrillo Alimov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, a’zo
Rajabboy Madrimov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo
Iroda Ruziyeva	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, a’zo
Hasan Boboyev	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, a’zo
Olga Ashirova	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo
Moxira Kurambayeva	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo
G’iyos Rustamov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo
Shoxrux Hamdamov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, a’zo
Ulug‘bek Mamajonov	Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti laboranti, a’zo

© Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

КИРИШ СЎЗИ

Ҳозирги ривожланиш босқичида иқлим ўзгариши, чўлланиш, сув ресурслари танқислиги, ер деградацияси, чиқиндиларни бошқариш ва биологик хилма-хилликнинг қисқариши каби экологик муаммолар барқарор тараққиёт учун асосий таҳдидлардан бирига айланиб бормоқда. Атроф-муҳитга бўлган антропоген таъсирнинг кучайиши экотизимлар барқарорлигига, аҳоли саломатлигига, озиқ-овқат хавфсизлиги ва иқтисодий ўсишга салбий таъсир кўрсатиб, комплекс, илмий асосланган ва узоқ муддатли ечимларни ишлаб чиқишни талаб этади.

Мазкур халқаро илмий-амалий анжуман экологик ва иқлим масалаларини муҳокама қилиш, табиатга асосланган ечимларнинг илмий-амалий асосларини очиб бериш ҳамда илғор миллий ва халқаро тажрибаларни кенг илмий жамоатчиликка тақдим этиш учун муҳим майдон ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси иқлим ўзгаришига қарши курашиш, чўлланишга барҳам бериш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш бўйича халқаро ташаббусларда фаол иштирок этмоқда. Мамлакатимизда экологик барқарорликни таъминлаш ва табиий бойликларни асраб-авайлаш давлат сиёсати даражасига кўтарилган, шунингдек интеграциялашган сув ресурсларини бошқариш, ҳаво сифати, шаҳар экологияси, чиқиндиларни бошқариш ва қайта тикланувчи энергия манбаларидан фойдаланиш устувор йўналишлар сифатида белгиланган. Бу мақсадда Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ташкил этилган бўлиб, у экологик ва иқлим сиёсатини мувофиқлаштириш ва халқаро мажбуриятларни бажаришда муҳим роль ўйнайди.

2025 йилнинг «Атроф-муҳитни асраш ва яшил иқтисодиёт йили» деб эълон қилиниши экологик ислоҳотларни чуқурлаштиришда муҳим қадам бўлди. Бу эса яшил технологияларни жорий этиш, чиқиндиларни қайта ишлаш, ресурслардан оқилона фойдаланиш ва аҳолининг экологик маданиятини оширишни ўз ичига олади.

Анжуман дастури доирасида замонавий экологиянинг асосий йўналишларини қамраб олган еттита илмий шўъба ташкил этилган.

Мақолалар тўплами экологик барқарорликни таъминлаш, илмий мулоқотни ривожлантириш ва халқаро ҳамкорликни мустаҳкамлаш учун илмий-амалий қимматга эга.

Ташкилий қўмита

ВВЕДЕНИЕ

На современном этапе развития такие экологические проблемы, как изменение климата, опустынивание, дефицит водных ресурсов, деградация земель, управление отходами и сокращение биологического разнообразия, становятся одними из ключевых угроз устойчивого развития. Усиление антропогенного воздействия на окружающую среду негативно влияет на устойчивость экосистем, здоровье населения, продовольственную безопасность и экономический рост, что требует разработки комплексных, научно обоснованных и долгосрочных решений.

Настоящая международная научно-практическая конференция служит значимой платформой для обсуждения актуальных экологических и климатических вопросов, раскрытия научно-практических основ природоориентированных решений и обмена передовым национальным и международным опытом.

Республика Узбекистан последовательно укрепляет свои позиции как активный участник международных инициатив по противодействию изменению климата, борьбе с опустыниванием и рациональному использованию природных ресурсов. В стране обеспечение экологической устойчивости и сохранение природного потенциала возведены в ранг государственной политики, в рамках которой приоритетными направлениями определены интегрированное управление водными ресурсами, улучшение качества атмосферного воздуха, развитие городской экологии, управление отходами и расширение использования возобновляемых источников энергии. В этих целях создан Национальный комитет по экологии и изменению климата, координирующий реализацию экологической и климатической политики, выполнение международных обязательств.

Объявление 2025 года «Годом охраны окружающей среды и зелёной экономики» стало важным этапом углубления экологических реформ, направленных на внедрение зелёных технологий, переработку отходов, рациональное использование ресурсов и повышение экологической культуры населения.

В программе конференции сформированы семь научных секций, охватывающих ключевые направления современной экологии.

Материалы сборника представляют научно-практическую ценность в целях развития диалога, укрепления международного сотрудничества и формирования экологически устойчивого будущего.

Организационный комитет

INTRODUCTION

At the present stage of development, environmental problems such as climate change, desertification, water scarcity, land degradation, waste management, and biodiversity loss have become some of the key threats to sustainable development. Increasing anthropogenic pressure on the environment negatively affects ecosystem stability, public health, food security, and economic growth, requiring the development of comprehensive, scientifically based, and long-term solutions.

This international scientific-practical conference serves as an important platform for discussing current environmental and climate issues, revealing the scientific and practical foundations of nature-based solutions, and sharing advanced national and international experience.

The Republic of Uzbekistan is consistently strengthening its position as an active participant in international initiatives to combat climate change, prevent desertification, and promote the rational use of natural resources. Ensuring ecological sustainability and preserving the country's natural potential has been elevated to the level of state policy, with priority areas including integrated water resources management, air quality improvement, urban ecology development, waste management, and the expanded use of renewable energy sources. To this end, the National Committee for Ecology and Climate Change has been established to coordinate the implementation of environmental and climate policy and the fulfillment of international obligations.

The declaration of 2025 as the "Year of Environmental Protection and Green Economy" represents an important step in deepening ecological reforms, aimed at introducing green technologies, recycling waste, rational resource use, and raising public environmental awareness.

The conference program has established seven scientific sections covering the key areas of modern ecology.

The materials in this collection represent significant scientific and practical value for promoting dialogue, strengthening international cooperation, and shaping an environmentally sustainable future.

Organizing Committee

BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASHDA INNOVATSION ILMIY-AMALIY YONDASHUVLAR

ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К СОХРАНЕНИЮ БИОРАЗНООБРАЗИЯ

INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL APPROACHES TO BIODIVERSITY CONSERVATION

MARKAZIY FARG‘ONA TABIIY CHO‘L SENOZLARIDA GEOAI VA GIS TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA NOYOB VA ENDEMIK SUDRALIB YURUVCHILARNI (REPTILIA) SAQLASHNING INNOVATSION MODELINI ISHLAB CHIQISH

Yo‘ldashev Shohruh Baxtiyorjon o‘g‘li, Zokirov Islomjon Ilhomjonovich
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Farg‘ona tabiiy cho‘l senozlarida uchraydigan noyob va endemik sudralib yuruvchilar (*Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus*, *Alsophylax loricatus*, *A. emilia*, *A. ferganensis*) ning tarqalishi, ekologik xususiyatlari va ularga tahdid solayotgan omillar tahlil qilinadi. Yozyovon cho‘li, Yozyovon va Mingbuloq tabiat yodgorliklari, Namangan oq qum massivlari hamda Yangiobod cho‘llaridan olingan dala ma’lumotlari va adabiyotlar tahlillari asosida gerpetofaunaning tur tarkibi, endemizm darajasi, populyatsiya holati va landshaft parchalanishi, agroekotizimlar kengayishi, suv xo‘jaligi inshootlari hamda noqonuniy ov kabi antropogen tahdidlar baholanadi. Shuningdek, ushbu turlarni uzoq muddatli saqlash uchun GeoAI va GIS texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, ekologik yo‘laklarni tashkil qilish masalalari tahlil qilinadi. Natijalar Markaziy Farg‘ona cho‘l gerpetofaunasini muhofaza qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan muhofaza choralarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Farg‘ona, sudralib yuruvchilar, endemik, cho‘l senozlari, tahdid omillari, GeoAI, GIS, ekologik yo‘laklar.

Abstract. This paper analyses the distribution, ecology and threat factors for rare and endemic reptiles inhabiting the natural desert cenoses of Central Fergana, Uzbekistan. Focal species include *Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus*, *Alsophylax loricatus*, *A. emilia* and *A. ferganensis*. Using field data and published sources from the Yazyovan Desert, the Yazyovan and Mingbulak nature monuments, the Namangan “white sands” and the Yangiobod desert massifs, we summarise species composition, level of endemism and population status. We further identify the main anthropogenic pressures, such as habitat fragmentation, expansion of irrigated agriculture, overgrazing, water-management infrastructure and illegal harvesting. In the second part, we outline how GeoAI and GIS technologies can support the long-term conservation of these taxa through habitat suitability modelling, mapping of ecological corridors and delineation of priority conservation areas. The results provide a scientific basis for nature-based management measures aimed at maintaining the unique reptile diversity of Central Fergana’s desert ecosystems.

Keywords: Central Fergana, reptiles, endemic, desert ecosystems, threat factors, GeoAI, GIS, ecological corridors.

Аннотация. В статье рассматриваются распределение, экологические особенности и факторы угроз для редких и эндемичных пресмыкающихся природных пустынных ценозов Центральной Ферганы. В качестве модельных видов анализируются *Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus*, *Alsophylax loricatus*, *A. emilia* и *A. ferganensis*. На основе полевых данных и литературных источников по пустыне Ёзёван, природным памятникам Ёзёван и Мингбулок, Намаганским «белым пескам» и пустыням Янгиабад обобщены видовой состав герпетофауны, уровень эндемизма, состояние популяций. Выделены основные антропогенные угрозы: фрагментация местообитаний, расширение орошаемого земледелия, пастбищная нагрузка, гидротехнические сооружения и браконьерство. Далее рассматриваются возможности использования технологий GeoAI и ГИС для долгосрочного сохранения этих таксонов:

моделирование пригодности местообитаний, картирование экологических коридоров и выделение приоритетных природоохранных территорий. Полученные результаты служат научной основой для разработки природно-ориентированных мер управления по сохранению уникального разнообразия пресмыкающихся пустынь Центральной Ферганы.

Ключевые слова: Центральная Фергана, пресмыкающиеся, эндемик, пустынные ценозы, факторы угрозы, GeoAI, ГИС, экологические коридоры.

KIRISH

Yer yuzida bioxilma-xillikning keskin kamayishi holatida sudralib yuruvchilar (Reptilia) sinfi global miqyosda eng zaif umurtqali hayvonlar guruhlaridan biri hisoblanadi. Sudralib yuruvchilar populyatsiyalarining qisqarishi ko‘plab mintaqalarda qayd etilgan bo‘lib, asosiy xavf omillari sifatida yashash joylarining yo‘qolishi va degradatsiyasi, landshaftning parchalanishi, invaziv turlar, ekologik ifloslanish, yuqumli kasalliklar, resurs sifatida ortiqcha ekspluatatsiya va global iqlim o‘zgarishi ko‘kabilarni ko‘rsatish mumkin [5]. Reptiliyalar ekotizimlarda hasharotlar va boshqa umurtqasizlar sonini tartibga solish, oziq zanjirlarida o‘rta va yuqori trofik pog‘onalarni shakllantirish hamda o‘simlik urug‘lari tarqalishida ishtirok etish orqali muhim funksional vazifalarni bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil mintaqasida joylashgan bo‘lib, uning hududining taxminan 60 foizi cho‘l va yarim cho‘l landshaftlaridan tashkil topgan. Mamlakatning sharqiy hamda janubi-sharqiy qismi yirik tog‘ tizmalari bilan chegaralangan. Respublika gerpetofaunasi tarkibida jami 16 oila va 33 urug‘ga mansub 65 tur mavjud. Shundan amfibiyalar (Amphibia) sinfiga 2 oila va 2 urug‘ tarkibidagi 3 tur, sudralib yuruvchilar (Reptilia) sinfiga esa 14 oila, 31 urug‘ga kiruvchi 62 tur to‘g‘ri keladi. Sudralib yuruvchilar orasida 1 tur toshbaqa, 41 tur kaltakesak va 20 tur ilonlar qayd etilgan **[14].** Bu turlarning katta qismi cho‘l va yarimcho‘l zonalariga xos bo‘lib, Qizilqum, Ustyurt platosi, Mirzacho‘l, Qarshi cho‘li va boshqa massivlar bo‘yicha notekis taqsimlangan. Jumladan, Navoiy va Samarqand hududida 26 tur [11], Qashqadaryo viloyati hududida 37 tur [12, 13], Janubiy-G‘arbiy Qizilqum hududida 15 tur [7], G‘arbiy Qizilqum hududida 17 tur [8], Shimoliy-G‘arbiy Qizilqumda 33 tur [6] sudralib yuruvchilar tarqalganligi tadqiqotlar natijasida qayd etilgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida 27 tur sudralib yuruvchilar mavjudligi aniqlangan [9, 18].

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng zich aholi yashaydigan va geologik jihatdan qadimiy izolyatsiyalangan hududlaridan biri bo‘lib, floristik va faunistik endemizm darajasi bilan ajralib turadi. So‘ngi tadqiqotlar vodiyning nisbatan kichik maydonida kamida 45 tur endemik o‘simlik, 5 tur endemik hasharot va 7 tur endemik reptiliya aniqlanganini ko‘rsatadi [9]. Bu turlar orasida *Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus* va *Alsophylax loricatus* singari qumli massivlar bilan bog‘liq yo‘qolib borayotgan endemik turlar alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyoning eng yirik endemizm markazlaridan biri bo‘lib, vodiyning qumli va adir-yaylov biotoplarida ikkita yangi mikroendemik gekkon turlari – *Alsophylax ferganensis* va *A. emilia* ning kashf qilinishi vodiy hududining qumli cho‘l massivlari bilan bog‘liq turlarda yashirin xilma-xillik yuqoriligini va potensial ravishda hali ham ilm-fanga noma’lum turlar mavjudligini ko‘rsatadi [9]. Farg‘ona vodiysining qumli biotoplarida o‘tkazilgan empirik tadqiqotlar sudralib yuruvchilar populyatsiya zichligi 1 ga maydonda 144 individdan ortiqqa yetishi, hamda hududda tarqalgan kaltakesaklardan 3 ta endemik tur (*Teratoscinus rustamowi, Eremias scripta, Phrynocephalus strauchi)* yuqori populatsiya zichligiga egaligi aniqlangan bo‘lib, ularning uchrash foizi 52 % (34%-74%) ni tashkil etadi[19]. Bu holat qum massivi biotoplarining noyob genofondni saqlashdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Markaziy Farg‘ona hududida joylashgan Yozyovon cho‘li, “Yozyovon tabiat yodgorligi”, Mingbuloq va Namangan oq qum massivlari, Yangiobod cho‘llari Farg‘ona cho‘l ekotizimlarining

asosiy ulushini tashkil etadi. Bu hududlar tarixan Sirdaryoning qadimiy qumli barxanlari bo‘lib, uzoq muddatli alohidalanish va o‘ziga xos mikroiqlim sharoitlari natijasida endemizm darajasi yuqori bo‘lgan gerpetofaunaga ega hudud hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur cho‘l massivi va u bilan bog‘liq gerpetofauna kuchli tabiiy hamda antropogen xavflar ostida qolmoqda. Xususan, shudgorlash va suv toshqini tufayli qumli yashash joylari 1960-yildan beri 3,7 baravar kamaygan (taxminan 180 km^2). Yagona qo‘riqlanadigan hudud (Yozyovon tabiiy yodgorligi) alohida cho‘llarning biologik xilma-xilligini saqlab qolish uchun yetarli emas [19].

Hududdagi qum qazib olish ham uzoq asrlik tarixiy jarayon bo‘lib, qum massivlaridagi eng sezilarli qisqarish XX asrda sodir bo‘ldi. Xususan, 1926-yildan boshlab 2016-yilgacha bo‘lgan davrda Farg‘ona viloyatida aholi soni 6 marotaba, Namangan viloyatida qariyb 7 marta ko‘paydi [20]. Ayniqsa, 1959-1970 yillarda aholi sonida yuqori o‘sish kuzatildi. Bu esa donning keskin tanqisligiga olib keldi. Bo‘sh yerlarni o‘zlashtirish orqali bu muammolarning bir qismi hal qilindi. Ammo, ko‘plab psammobiont yashash joylari tufayli ko‘plab noyob turlar yo‘qolib ketdi [16, 21, 22, 17, 18, 23].

Farg‘ona vodiysidagi qum majmualarida hozirgi kungacha antropogen ta’sir yuqoriligicha qolmoqda. Noyob turlarga antropogen xavf, ayniqsa ovchilik va noqonuniy yig‘ish ko‘rinishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. O‘rta Osiyo toshbaqasi (*Testudo horsfieldii*), bo‘z echkemari (*Varanus griseus*) va qum bo‘g‘ma ilonchasi (*Eryx tataricus*) larning “tibbiy xomashyo” sifatida asossiz ovlanishi ham lokal populyatsiyalarni keskin kamaytirayotgani qayd etilgan. Shu munosabat bilan cho‘llar hududi va ularda yashaydigan sudralib yuruvchilar jamoalarining xususiyatlari va populatsiyalarining holatini doimiy monitoring qilish zarurati paydo bo‘ldi. Mazkur xavf omillarini kamaytirish va noyob hamda endemik sudralib yuruvchilar genofondini saqlash uchun bir tomondan an’anaviy tabiatni muhofaza qilish mexanizmlari (mavjud qo‘riqlanadigan hududlarni kengaytirish, yangi mikrorezervatlar va bufer zonalar tashkil etish, ovchilikni qat’iy nazorat qilish, mahalliy aholi o‘rtasida bioetika tamoyillarini targ‘ib qilish)ni kuchaytirish zarur. Boshqa tomondan, tabiiy cho‘l landshaftlarining tezkor o‘zgarishi, iqlim o‘zgarishi va landshaft parchalanishi kabi murakkab omillarni baholash uchun zamonaviy yondashuvlarga ehtiyoj ortib bormoqda [15].

So‘nggi o‘n yilliklarda biogeologik ma’lumotlarga asoslangan turlar arealini va yashash joylari mosligini modellashtirish (Species Distribution Modelling, SDM), landshaft ulanishini baholash va ekologik yo‘laklarni (yashil kamar) loyihalash bo‘yicha GIS va masofaviy zondlash texnologiyalariga tayanuvchi ko‘plab usullar ishlab chiqildi [2]. Reptiliyalar uchun MaxEnt, Random Forest va boshqa algoritmlarga asoslangan modellar cho‘l va yarim-cho‘l hududlarida tarqalgan turlarning tarqalishiga iqlim, relyef, o‘simlik qoplami va antropogen bosim omillari qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashda samarali ekanini ko‘rsatdi [1]. Yaqinda shakllangan GeoAI (Geospatial Artificial Intelligence) yo‘nalishi esa sun’iy intellekt va chuqur o‘rganish usullarini yuqori aniqlikdagi sputnik tasvirlari va boshqa fazoviy ma’lumotlar bilan birlashtirib, landshaft dinamikasi, yashash joylari fragmentatsiyasi va ekologik xavflarni real vaqtga yaqin masshtabda aniqlash imkonini bermoqda [24].

Shu bilan birga, Markaziy Farg‘ona cho‘l massivlarida sudralib yuruvchilarni o‘rganishda GeoAI, SDM va GIS integratsiyasiga asoslangan ishlanmalar deyarli mavjud emas. Mavjud izlanishlar asosan faunistik ro‘yxat, morfologik va klassik ekologik tavsiflar bilan cheklanadi. Shu sababli, Markaziy Farg‘ona tabiiy cho‘l senozlarida *Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus*, *Alsophylax loricatus*, *A. emilia* va *A. ferganensis* kabi endemik va muhofazaga muhtoj sudralib yuruvchilarni model turlar sifatida tanlab, ularning tarqalishi, ekologiyasi va ularga tahdid solayotgan omillarni tahlil qilish, hamda ushbu ma’lumotlar asosida GeoAI va GIS texnologiyalariga tayangan innovatsion muhofaza modelini taklif etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqola aynan Markaziy Farg‘ona

cho‘l massivlari gerpetofaunasining bioxilma-xilligini baholash, asosiy xavf omillarini aniqlash va ularni yumshatish uchun fazoviy-analitik yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Mazkur tadqiqot ishi 2021–2025-yillarda Markaziy Farg‘onaning tabiiy cho‘l massivlari, xususan Yozyovon cho‘li va “Yozyovon tabiat yodgorligi”, Mingbuloq tabiat yodgorligi, Namangan oq qum massivlari hamda Yangiobod cho‘llarida o‘tkazilgan dala kuzatuvlarining natijalariga asoslanadi. Har bir massivda 500–1000 m uzunlikdagi chiziqli transektlar bo‘yicha ertalab va kechki faoliyat davrida vizual hisoblar o‘tkazilib, uchragan individlarning turi, soni, faoliyat turi, mikroreliyef va biotop turlari qayd etildi. Har bir uchrash nuqtasi GPS koordinatalari bilan belgilandi. Gerpetologik jarayonlar Amerika Ixtiologlar va Gerpetologlar Jamiyatining (ASIH) “Amfibiyalar va sudralib yuruvchilardan dala amaliyotida va labaratoriyada foydalanish bo‘yicha qo‘llanma”si [3] ko‘ra amalga oshirildi.

Analitik bosqichda dala ma’lumotlari Farg‘ona vodiysi bo‘yicha mavjud gerpetofaunistik ro‘yxatlar va Qizil kitob ma’lumotlari bilan solishtirildi. Fazoviy tahlillar uchun QGIS 3.x muhitida iqlim (WorldClim bioklimatik ko‘rsatkichlari), relyef (SRTM), NDVI va tuproq, shuningdek aholi punktlari va yo‘llargacha masofa kabi antropogen qatlamlar integratsiya qilindi. Endemik turlar uchun MaxEnt va Random Forest algoritmlariga asoslangan modellarning kontseptual sxemasi ishlab chiqilib, model sifatini baholashda AUC va TSS ko‘rsatkichlaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Olingan moslik xaritalari asosida asosiy va ehtimoliy markaziy hududlar belgilandi va ekologik yo‘laklar ajratilinib, tahdid omillarini baholash bilan bog‘liq tahlillar amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Farg‘ona vodiysidagi 27 turdan 8 tasi (30%) noyob hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bo‘lsa, 5 turi (18,5%) IUCN Qizil kitobiga kiritilgan va 3 tasi (11%) CITES tomonidan himoyalangan [4, 9, 10]. Mazkur hudud o‘zining boy faunistik tarkibiga ega bo‘lib, hududda muhofazaga molik turlar muhofazasini ta’minlovchi chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Endem va muhofazaga molik turlarni (*Testudo horsfieldii, Varanus griseus, Eryx tataricus, Teratoscinus rustamowi*, *Eremias scripta*, *Phrynocephalus strauchi*, *Ph. helioscopus*, *Alsophylax loricatus*, *A. emilia* va *A. ferganensis)* himoya qilish uchun davlat miqyosida muhofaza va jamiyat miqyosida bioetikani shakllantirish zarur hisoblanadi.

Yozyovon hududining tabiiy cho‘l mintaqalarining aholi tomonidan yillar davomida o‘zlashtirilishi mazkur hudud ekosistemasiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmay qolmayapti. Tabiiy cho‘l senozlarining sholi plantatsiyalari va boshqa turdagi agroekosistemalar uchun o‘zlashtirilishi hudud faunasiga ta’sir qilmoqda. Bu holat Yangiobod cho‘l senozlarida ayniqsa jadal suratda oshib bormoqda. Bundan tashqari, «Yozyovon tabiat yodgorligi» muhofazasi va hududi ham yetarli emas. «Yozyovon tabiat yodgorligi»ga yaqin hududda joylashgan katta Yozyovon cho‘li ham muhofaza qilinuvchi hudud hisoblanadi. Mazkur hududda barpo qilingan “Markaziy Farg‘ona suv ombori” inshooti strategik obyekt bo‘lib, cho‘l hududida barpo qilingan sun’iy antropoekosistema bo‘lib, suv omborining tabiiy cho‘l ekosistemasiga, hususan sudralib yuruvchilar olamiga ta’sirini baholash zarur va bu sohada chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki, katta Yozyovon cho‘li zoogeografik nuqtai nazardan alohida “Qum orolli Yozyovon” uchastkasida joylashgan bo‘lib, o‘ziga xos sudralib yuruvchilar olamiga ega va hududdagi ayrim turlar endemik yoki muhofazaga molik turlar hisoblanadi. Mazkur hududning tur tarkibini shakllantirish, o‘zgargan muhitning sudraluvchilar hayot faoliyatiga ta’sirini o‘rganish ekologik vaziyatni baholashga imkon beradi. Mazkur yo‘nalishdagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki noyob va endemik sudralib yuruvchilarni saqlash uchun GeoAI va GIS texnologiyalariga tayangan innovatsion fazoviy model ishlab chiqish bu kabi ekologik

muammolarga yechim bo‘lishi mumkin. Model to‘rtta asosiy moduldan iborat bo‘ladi. Ular quyidagilar:

1. **Ma’lumotlar moduli** – turlar uchrash nuqtalari, muhit ko‘rsatkichlari (iqlim, relyef, NDVI, tuproq) va antropogen bosim qatlamlarini yagona geo-ma’lumotlar bazasida integratsiyalash.
2. **GeoAI-SDM moduli** – *Teratoscinus rustamowi, E. scripta, Ph. strauchi, Ph. helioscopus, A. loricatus, A. emilia, A. ferganensis* kabi turlar uchun MaxEnt va Random Forest asosida landshaft xaritalarini ishlab chiqish hamda ehtimoliy iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha potentsial arealni baholash.
3. **Bog‘liqlik va prioritet hududlar moduli** – “Circuitscape” va “least-cost path” yondashuvlari yordamida Markaziy Farg‘ona qumlari (Yozyovon tabiat yodgorligi–Yozyovon cho‘li – Yangiobod cho‘llari–Namangan oq qumlari–Mingbuloq tabiat yodgorligi) o‘rtasida ekologik yo‘laklar va asosiy hamda qo‘shimcha areallarni ajratish;
4. **Monitoring va adaptiv boshqaruv moduli** – yuqoridagi xaritalar asosida yangi mikrorezervatlar va bufer zonalar uchun ustuvor uchastkalarni tanlash, sudralib yuruvchilar bo‘yicha muntazam monitoringni tashkil etish va modelni yangi ma’lumotlar bilan yangilab borish.

Mazkur innovatsion model natijasida Markaziy Farg‘ona cho‘l massivlarida noyob va endemik sudralib yuruvchilar uchun muhim bo‘lgan uch toifa hudud: yuqori moslikka ega yadro biotoplar, ularni bog‘lovchi ekologik yo‘laklar hamda antropogen xavf darajasi yuqori bo‘lgan xavfli zonalar fazoviy jihatdan aniqlab berildi. Bu esa muhofaza qilinadigan hududlar tarmog‘ini qayta ko‘rib chiqish, yangi mikrorezervatlar tashkil etish va “yashil kamar” turidagi landshaft yo‘laklarini loyihalash uchun ilmiy asos yaratadi.

XULOSA

Markaziy Farg‘ona cho‘l senozlarida olib borilgan tahlillar vodiy gerpetofaunasi tarkibida 8 ta noyob sudralib yuruvchi tur mavjudligi va hududda yetti turning endemik ekanligi aniqlandi. Asosan, Yozyovon hamda unga tutash qum massivlarida markaziy populyatsiyalar mavjud bo‘lib, cho‘l landshaftlarining agrar o‘zlashtirilishi, suv xo‘jaligi inshootlari, infratuzilma va noqonuniy ovchilik tufayli keskin ekologik inqirozlarning paydo bo‘lishi mazkur turlar genofondini bevosita xavf ostida qoldirmoqda. Mazkur sharoitda GeoAI va GIS texnologiyalariga tayangan, to‘rt moduldan iborat innovatsion fazoviy model ishlab chiqildi va bu model ma’lumotlarni integratsiyalash, SDM asosida landshaft xaritalarini tuzish, “Circuitscape” va “least-cost path” orqali ekologik yo‘laklarni aniqlash hamda monitoring va adaptiv boshqaruvni tashkil etish imkonini berdi. Model natijasida markaziy biotoplar, ekologik yo‘laklar va antropogen xavf zonalari fazoviy jihatdan aniqlab berilib, qo‘riqlanadigan hududlar tarmog‘ini qayta ko‘rib chiqish, yangi mikrorezervatlar va “yashil kamar” turidagi landshaft yo‘laklarini loyihalash uchun ilmiy asos yaratildi. Shu bois taklif etilayotgan yondashuv Markaziy Farg‘ona cho‘l ekotizimlarida nafaqat endemik sudralib yuruvchilarni, balki ular bilan bog‘liq o‘simlik va hayvonlar majmuasini saqlashga qaratilgan kompleks yechim sifatida baholanishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Alatawi, A. S., Mitri, G. H., El-Nashar, W. Y., & Al-Ahmadi, K. (2020). Modelling terrestrial reptile species richness, distributions and habitat suitability in an arid environment using ensemble species distribution modelling. *Journal of Arid Environments, 177*, 104146.
2. Araújo, M. B., & Guisan, A. (2006). Five (or so) challenges for species distribution modelling. *Journal of Biogeography, 33*(10), 1677–1688.

3. American Society of Ichthyologists and Herpetologists (ASIH) // Guidelines for use of live amphibians and reptiles in field and laboratory research.USA, 2004. – P.42 https://doi.org/10.3390/ani13152516
4. Chikin, Y.A. Protected reptile species from sands of Fergana. In Proceedings of the 1st meeting of the Nikolsky Herpetological Sociality, Puschino, Russia, 4–7 December 2000; pp. 327–328.
5. Gibbons, J. W., Scott, D. E., Ryan, T. J., Buhlmann, K. A., Tuberville, T. D., Metts, B. S., Greene, J. L., Mills, T., Leiden, Y., Poppy, S., & Winne, C. T. (2000). The global decline of reptiles, déjà vu amphibians. *BioScience, 50*(8), 653–666.
6. Jumanov M.A., Asenov G.A., Ametov Ya.I., Arepbaev I.M. The current state of Reptiles South Aral Sea region and their protection // Karakalpak Scientific Journal, 2020. . – №3. – 21-article
7. Jumayev.F.Q and Shernazarov. E.Sh. The number of scaled reptiles (Squamata) in the fixed sands of Karnabchul (Southwestern Kyzylkum, Uzbekistan) in Spring // The way of science, 2017. – №2. – B. 39-41.
8. Jumayev.F.Q and Shernazarov. E.Sh. Transformations of the herpetofauna of South-Western Kyzylkum (Uzbekistan) under the influence of technogenesis // Web of Conferences 264,2012. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126401041
9. Nazarov R.A, Abduraupov T.V et.all. The Ferghana Valley Is an Isolate of biodiversity:A discussion of the endemic herpetofauna and description of two species of *Alsophylax* (Sauria:Gekkonidae) from Eastern Uzbekistan // Animals,2023. – №13
10. Nazarov, R.A.; Abduraupov, T.V. New data on distribution and conservation of endemic reptile species in the Fergana Valley. In Proceedings of the Problems of Herpetology: Program and Abstracts of the VIII Congress of the A. M. Nikolsky Herpetological Society (NHS) of the Russian Academy of Sciences «Current Herpetological Research in Eurasia», Moscow, Russia, 3–9 October 2021; pp. 188–189.
11. Thomas Edward Martin, Mathieu Guillemin, Valentin Nivet-Mazerolles, Cecile Landsmann, Jerome Dubos, Rémy Eudeline, and James T. Stroud. The herpetofauna of central Uzbekistan // Amphibian & Reptile Conservation,2017. – №11. – P.93-107.
12. Yangibayev.E.Ch and Rakhimov.M.Sh. Importance and current status of reptiles of Kashkadaryo region // “AKTUALNYE VOPROSI SOVREMENOY NAUKI VA OBRAZOVANIYA” : sbornik statey XXV Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii. Penza, 2022, 20-december, – B. 30-32
13. Yangiboyev E., Rakhimov M. Ecology and fauna of the species belonging to the families Elaphidae and Viperidae of Kashkadarya region // Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. 2021. 1(91). https://doi.org/10.32743/UniChem.2022.91.1.12860
14. Yo‘ldashev, SH. B. (2024). O‘zbekiston gerpetofaunasining tur tarkibi. *FarDU. Ilmiy xabarlar – Scientific Journal of the Fergana State University, 30*(3), 393–398. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol30_iss3_2t/a413
15. Zokirova, G. M., & Yuldashev, Sh. B. (2024). Species composition of *Reptilia* in Fergana Valley in need of protection. *European Journal of Agricultural and Rural Education, 5*(5), 17–23.
16. Богданов О. П. 1960. Фауна Узбекской ССР. Т. 1. Земноводные и пресмыкающиеся. Ташкент : Изд-во АН УзССР. 260 с
17. Вашетко Э. В., Камалова З. Я. 1974. Черепахи, ящерицы // Позвоночные животные Ферганской долины. Ташкент : Фан. С. 60 – 74.

18. Вашетко Э. В., Камалова З. Я. 1978. К вопросу о создании резервата для сохранения эндемичных видов пресмыкающихся в Ферганской долине // Охрана животного мира и растений Узбекистана : тез. конф. Ташкент : Фан. С. 16 – 17.
19. Д. А. Бондаренко. Население пресмыкающихся песчаных местообитаний Ферганской долины (Узбекистан) и проблема сохранения эндемичных видов // Современная Герпетология. 2020. Т. 20. Ctr–15. https://doi.org/10.18500/1814-6090-2020-20-1-2-3-15
20. Кадыров Р. Б. 2017. Динамика населения ферганского региона и ее особенности // Велес. № 4 – 1 (46). С. 10 – 14.
21. Камалова З. Я. 1970. О питании круглоголовки Штрауха в песках Ферганской долины в летний период // Экология. № 5. С. 102 – 103.
22. Камалова З. Я. 1972. К экологии круглоголовки Штрауха в песках Ферганской долины // Экология и биология животных Узбекистана. Ташкент : Фан. С. 235 – 239
23. Ядгаров Т., Аллабергенов К. 1990. О сохранении генофонда фауны позвоночных животных Язъяванской пустыни // Узб. биол. журн. № 2. С. 59 –61
24. **ESRI** (2024). What is GeoAI? Rasmiy veb-sayt ma’lumotlari. Mrojaat qilingan sana: 06.12.2025 https://www.esri.com/en-us/capabilities/geoai/overview
25. Xalqaro sudralib yuruvchilar qidiruv bazasi: The Reptile Database. https://www.reptiledatabase.org. (murojaat etilgan sana: 11.09.2025)
26. Xalqaro bioxilma-xillik ma’lumotlari bazasi: Global Biodiversity Information Facility https://www.gbif.org/species/5225739 (murojaat etilgan sana: 15.10.2025)
27. Xalqaro qizil kitob: Internetional Union for the Conservation of Nature – IUCN. https://www.iucnredlist.org/species/164775/1074478 (murojaat etilgan sana: 27.11.2025)

FARG’ONA VODIYSI SHAROITIDA DIPTERALARNING EKOLOGIK MOSLASHUV MEXANIZMLARI VA BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASHDAGI RO’LI

Xusanov Alijon Karimovich, Abdulazizov Asilbek Akramjon o’g’li,
Mamatov Xurshidbek Mirzakamol o’g’li
Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi sharoitida Diptera oilalarining ekologik o‘zgarishlarga moslashuv mexanizmlari, morfo-fiziologik va etologik xususiyatlari hamda ularning turli landshaftlardagi uchrash chastotasi tahlil qilindi. Andijon va Farg‘ona viloyatlari hududlarida yig‘ilgan 1788 dona namunalar asosida Muscidae, Calliphoridae, Tabanidae, Culicidae, Drosophilidae va Asilidae oilalarining adaptiv strategiyalari baholandi. Tadqiqot natijalari Diptera turlarining ekologik vazifalari va moslashuv mexanizmlarini aniqlash orqali biologik xilma-xillikni saqlash va tabiatni asrashga qaratilgan yechimlar ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos yaratishini ko‘rsatdi.

Kalit so’zlar: Diptera, moslashuv, ekologik monitoring, morfologiya, biologik xilma-xillik, adaptiv strategiyalar, tabiatga asoslangan yechimlar, Farg‘ona vodiysi.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы экологической адаптации семейств Diptera в условиях Ферганской долины, их морфофизиологические и этологические особенности, а также частота встречаемости в различных ландшафтах. На основе 1788 собранных экземпляров были оценены адаптивные стратегии Muscidae, Calliphoridae, Tabanidae, Culicidae, Drosophilidae и Asilidae. Результаты исследования демонстрируют, что изучение экологических функций и адаптационных механизмов

двукрылых служит важной научно-практической основой для сохранения биоразнообразия и разработки природо-ориентированных решений.

Ключевые слова: Diptera, адаптация, экологический мониторинг, морфология, биологическое разнообразие, адаптивные стратегии, природоориентированные решения, Ферганская долина.

Abstract: This study analyzes the ecological adaptation mechanisms of Diptera families in the Fergana Valley, including their morphophysiological and behavioral traits, as well as their occurrence across different landscape types. Based on 1788 collected specimens, the adaptive strategies of Muscidae, Calliphoridae, Tabanidae, Culicidae, Drosophilidae and Asilidae were evaluated. The findings demonstrate that understanding the ecological roles and adaptation mechanisms of Diptera provides a strong scientific and practical basis for biodiversity conservation and the development of nature-based solutions.

Key words: Diptera, adaptation, ecological monitoring, morphology, biodiversity, adaptive strategies, nature-based solutions, Fergana Valley.

KIRISH

Biologik xilma-xillikning yomonlashuvi XXI asr ekologik muammolarining eng dolzarblardan biridir. Tabiiy ekotizimlarning buzilishi, antropogen omilning kuchayishi, iqlim o‘zgarishi va urbanizatsiyaning tezlashuvi hasharotlar, ayniqsa ikki qanotlilar (Diptera) uchun yangi moslashuv mexanizmlarini shakllantirishni talab qilmoqda. Dipteralar ekologik muvozanatning saqlanishida muhim rol o‘ynaydi: ular parchalovchi, changlatuvchi, yirtqich, parazit yoki zararli turlar sifatida ekosistemada o‘ziga xos vazifalarni bajaradilar. Ulardagi adaptatsiyalarni chuqur o‘rganish biologik xilma-xillikni muhofaza qilish va tabiatga asoslangan yechimlar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ikki qanotlilar (Diptera) ekologik tizimlarda ko‘p funksiyali guruh bo‘lib, ular organik moddalar aylanishi, o‘simliklar changlanishi, populyatsiyalarni tartibga solish va parazit-xo‘jayin munosabatlarida muhim ro‘l o‘ynaydi. Ularning ekologiyasi murakkab bo‘lib, muhitning harorat, namlik, ozuqa resurslari, antropogen ta’sir va landshaft tuzilishiga juda sezgir. Shu bois Diptera turlarining ekologik moslashuvlari global iqlim o‘zgarishi sharoitida barqaror ekotizimlarni saqlashda muhim bioindikator sifatida xizmat qiladi.

Dipteralarning ekologik o‘rni, avvalo, ularning trofik strategiyalari bilan belgilanadi. Masalan, Muscidae va Calliphoridae oilalarining turlari saprofag yoki fakultativ nekrofag bo‘lib, organik moddalarning parchalanish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Culicidae turlari esa suv havzalarining sanitariya holatini aks ettiruvchi sezgir indikator bo‘lib, ularning populyatsiyasi suv sifatining o‘zgarishlariga tez javob beradi. Yirtqich Asilidae oilasi vakillari esa agroekotizimlarda tabiiy dushman sifatida ahamiyatga ega, chunki ular ko‘plab zararkurandalar populyatsiyasini tartibga soladi.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi Farg‘ona vodiysi sharoitida o‘zgaruvchan ekologik muhitga Diptera oilalarining moslashuv darajasini aniqlash, ushbu moslashuvlarning struktura va funksional mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni ekologik muammolarni yumshatishda qo‘llash imkoniyatlaridan iborat. Tadqiqot Muscidae, Calliphoridae, Tabanidae, Culicidae, Drosophilidae va Asilidae oilalariga mansub turlar misolida amalga oshirildi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

2025-yilning avgust–sentabr oylarida Andijon va Farg‘ona viloyatlarining shahar, qishloq, adir, kenglik hamda fermer xo‘jaliklari hududlarida Diptera turkumining turlari yig‘ildi. Har bir tur uchun quyidagi ma’lumotlar qayd etildi: uchrash joyi, ekologik sharoit, harorat, namlik, ozuqa manbasi, populyatsiya zichligi, faoliyat vaqti, uchish xususiyatlari hamda morfologik belgilar. Dipteralarni o‘rganish metodlari ichida monitoring va morfo-fiziologik tahlil alohida o‘rin tutadi.

Maydon sharoitida entomologik to‘r, feromonli va oziqa bilan jalb qiluvchi tuzoqlardan foydalanish eng samarali usullardan sanaladi.

Zamonaviy ekologik tadqiqotlarda GPS-geoteglash, raqamli sensorlar orqali harorat va namlik monitoringi, dronlardan foydalanish va GIS kartografiya texnologiyalari turlar tarqalishini aniq baholash imkonini bermoqda. Laboratoriya sharoitida mikromorfologik belgilarni stereomikroskop ostida o‘rganish, qanot tomirlanishi, setalar tizimi, og‘iz apparati morfotiplari va sensor strukturalar Diptera turlarining ekologik moslashuvlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, populyatsiya genetikasi, DNK-barkodlash (COI geni) va mikrobiom tahlili kabi molekulyar usullar Diptera turlari o‘rtasidagi ekologik farqlar va yashash strategiyalarini aniq identifikatsiya qilishda innovatsion istiqbollarni ochmoqda. Ushbu yondashuvlar asosida

Dipteralarning ekologik funksiyalari va moslashuv mexanizmlarini chuqur o‘rganish biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, antropogen hududlarda barqaror boshqaruv choralarini ishlab chiqish hamda tabiatga asoslangan yechimlarni qurishda mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Entomologik to‘r va feromonli tuzoqlar — faol uchuvchi turlarni yig‘ish;

Shisha va plastmassa kapkanlar — pasiv uchuvchi yoki o‘lja bilan jalb qilinuvchi turlar uchun;

Laboratoriyada mikroskopik tahlil — qanot tomirlari, rangi, setalarning joylashuvi, sensor organlar va og‘iz apparati morfologiyasini o‘rganish;

Ekologik monitoring — yashash joyidagi o‘zgaruvchan omillarni (harorat, namlik, o‘simlik qoplami) o‘lchash;

Biometrik tahlil — populyatsiya zichligi va uchrash chastotasi bo‘yicha statistik hisob-kitoblar.

Tadqiqot davomida jami **1788 dona Diptera turkumining turlar namunasi** yig‘ildi. Turlarning 32% Muscidae, 27% Calliphoridae, 14% Culicidae, 12% Drosophilidae, 9% Tabanidae va 6% Asilidae oilalariga mansub deb aniqlandi. Ushbu tadqiqotlar natijasida (Musca domestica, musca vicina, stomoxys calcitrans, lucilia caesar, calliphora vomitoria, anopheles hyrcanus, anopheles martinius, saropogon alternatus) kabi turlar tadqiqot natijasi uchun olingan hududlardan topildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dipteralarning morfo-fiziologik moslashuvlari

Dipteralarda kuzatilgan asosiy adaptatsiyalar:

1. Qanot morfologiyasining o‘zgarishi – quruq adir hududlarida yashovchi Asilidae oilasi vakillarida uzun va tor qanotlar, namlik yuqori bo‘lgan joylarda esa kengroq qanotlar qayd etildi.
2. Rang o‘zgarishlari – Calliphoridae oilasi vakillarida metallik rang intensivligining pasayishi, bu esa yuqori haroratda issiqlikni kamroq yutishga yordam beradi.
3. Og‘iz apparatining moslashuvi – Muscidae oilasi turlarida so‘ruvchi apparatning cho‘zilishi, axlatxonalar yaqinida esa parchalovchi tipga yaqinlashish holatlari kuzatildi.
4. Gormonlar orqali issiqlikka chidamlilik – Culicidae turlarida diapausa davrining uzayishi qayd etildi.

Ekologik va etologik moslashuvlar

1. Faollik vaqtining o‘zgarishi – yozning oxiri va kuzning boshida issiqlikning yuqoriligi sabab Muscidae va Calliphoridae oilasi vakillari asosan kunning boshlang'ich qismida va kechki soatlarda faol bo‘ldi.

2. Ozuqaga moslashuv – Drosophilidae oilasi turlarida fermentatsiyalangan mevali substratlarga kuchli moyillik, ammo adir zonalarida ular o‘simlik shirasidan ham foydalanishi aniqlandi.

3. Yashash joyini tanlash – Tabanidae oilasi vakillari asosan chorvachilik fermalarida yuqori uchrash chastotasiga ega bo‘ldi.

4. Yirtqichlik strategiyasi – Asilidae oilasi turlarida o‘lja topish uchish balandligining o‘zgarishi kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha taqqoslovchi tahlil

Tadqiqot hududlarida Diptera oilalari uchrash chastotasi quyidagicha:

Jadval 1.

Tadqiqot hududlari bo‘yicha Diptera oilalarining uchrash chastotasi (%)

Oilalar	Andijon shahar	Farg‘ona shahar	Qishloq hududi	Adir hududi	Fermer xo‘jaliklari
Muscidae	34	29	41	18	52
Calliphoridae	28	25	36	14	48
Tabanidae	11	7	19	22	31
Culicidae	17	21	13	8	9
Drosophilidae	6	10	9	4	3
Asilidae	4	3	6	11	7




Diagramma 1. Muhit o‘zgarishiga moslashuv darajasi (%)

Dipteralarning asosiy adaptiv strategiyalari

- Morfologik moslashuv (qanot, rang, tana o‘lchami)
- Fiziologik moslashuv (diapausa, issiqlikka chidamlilik)
- Ekologik moslashuv (oziqlanish kengligi, yashash joyi)
- Etologik moslashuv (faollik vaqti, uchish balandligi)

XULOSA

Tadqiqot natijalari Farg‘ona vodiysi sharoitida Diptera oilalarining ekologik o‘zgarishlarga sezilarli moslashuv mexanizmlariga ega ekanligini ko‘rsatdi. Muscidae va Calliphoridae turlari antropogen landshaftlarda ustunlik qilsa, Tabanidae va Asilidae tabiiy va yarim tabiiy hududlarda ko‘proq uchradi. Culicidae turlarida esa suv havzalari va namlik omili yetakchi bo‘lib qoldi.

Dipteralarning adaptatsion xususiyatlari biologik xilma-xillikni saqlash, invaziv turlar monitoringi, fermer xo‘jaliklarida zararkunandalarga qarshi tabiatga asoslangan yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot hududning ekologik monitoringida barqaror strategiyalar ishlab chiqishga ilmiy asos yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Насекомые и клещи дальнего востока Лелинград издательство “Наука” 1987-г 310 стр

2. Соос.А, Папп.Л Каталог палеарктических двукрылых “Академия киадо” Будапешт 1986-г 276 стр

3. Никитский.Н.Б, Свидиров.А.В Насекомые красной книги СССР Москва “Педагогика” 1987-г 174 стр

4. Каталог типовых экземпляров коллекции зоологического института ан СССР Лелинград “Наука” 1983-г 46-стр

5. Казенас.В.Л. Насекомые Казахстана Алматы “Нур-Принт” 2014-г 148 стр

6. Triplehorn, C. A., & Johnson , N. F. Borror and Delon’s Introduction to the study of Insects.-Belmont, California: Cengage learning, 2005-y 864 p.

7. Nayar, K. K., Ananthakrishnan, T. N. and David, B. V. General and applied Entomology, Tata McGraw Hill Publishing Company Limited, New Delhi, 1976-y 589p.

8. Xamrayev A. Sh, Azimov J. A., Kuchkarova L. S., Daminova D. B., Hasharotlar ekologiyasi “Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijidiy uyi” Toshkent 2014-y 384 bet

9. B.Sulaymonov, A.R.Anorbayev, Sh.A.Maxmudova, M.M.Ablazova, Umumiy entomologiya va zoologiya “Fan va texnologiya” Toshkent 2019-Y 424-b

10. www.Gbif.org

11. www.Ziyonet.uz

IQLIM O‘ ZGARISHI JARAYONIDA OROL DENGIZINING G‘ARBIY QISMIDA O‘SIMLIKLAR QOPLAMALARI VA TUPROQ-GURUNTLARINI SHAKILLANISHI

Zafarjon Jabbarov[1], Samad Mahammadiyev[1], Urol Nomozov[2], Otamurot Imomov[1], Shohruh Abdullayev[1]
[1]Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
[2]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Annotatsiya. Ushbu maqolada Orol dengizining g‘arbiy qismida iqlimning o‘zgarishi o‘simlik va tuproq qoplamasiga ta’siri o‘rganildi. Iqlim omillari shu jumladan haroratning oshishi, shamolning tezligi, namlikni pastligi, sho‘rlanish darajasini yuqoriligi hududda ekologik barqarorlikni yomonlashishiga qum va tuz zarrachalarini atmosferani ifloslashi, biologik xossalariga jarayonlarni kamayishiga ta’siri ortib bormoqda. Tadqiqotlar davomida hududning tuproq-guruntlari shakillanishi tabiiy o‘simliklar qoplamini holatini kuzatish, tuproq tahlillari uchun namunalar olish va o‘rganish natijasida qo‘shimcha ravishda hududni iqlim omillarini ta’sirini yumshatishda o‘simliklar ekishni ilmiy jihatdan yondashish maqsad qilib olingan. Ushbu tadqiqot ishi hudud ekologiyasi, landshaftlar dinamikasi va iqlimga moslashtirish strategiyalari sohasida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Iqlim o‘zgarishi, o‘simliklar qoplami, tuproq guruntlari,

Аннотация. В данной статье изучено влияние изменения климата на растительный и почвенный покров западной части Аральского моря. Климатические факторы, включая повышение температуры, увеличение скорости ветра, низкую влажность и высокую степень засоления, способствуют ухудшению экологической устойчивости территории, усилению загрязнения атмосферы песчано-солевыми частицами и снижению интенсивности биологических процессов. В ходе исследований проводились наблюдения за формированием почвенно-грунтовых условий и состоянием естественного растительного покрова территории, а также отбор и анализ почвенных образцов.

Дополнительно в качестве цели исследования было определено научно обоснованное внедрение мероприятий по посадке растений для смягчения воздействия климатических факторов на территорию. Данная научная работа имеет важное научное и практическое значение в области экологии территорий, динамики ландшафтов и стратегий адаптации к изменению климата.

Ключевые слова: изменение климата, растительный покров, почвенно-грунтовые условия.

Abstract. This article examines the impact of climate change on the vegetation cover and soil conditions of the western part of the Aral Sea region. Climatic factors, including rising air temperature, increased wind speed, low humidity, and high salinity levels, contribute to the deterioration of ecological stability in the area, intensification of atmospheric pollution by sand and salt particles, and a decrease in the intensity of biological processes. During the research, the formation of soil–ground conditions and the state of natural vegetation cover were monitored, and soil samples were collected and analyzed. In addition, the study aimed to develop a scientifically grounded approach to planting vegetation as a measure to mitigate the effects of climatic factors in the region. This research is of significant scientific and practical importance in the fields of regional ecology, landscape dynamics, and climate change adaptation strategies.

Keywords: climate change, vegetation cover, soil–ground conditions.

KIRISH

O‘zbekistonda joylashgan Orol dengizi hududi markaziy Osiyoning iqlim va suv-resurslar jihatdan muhim zonasi bo‘lgan. So‘nggi yillarda tabiiy va antropogen ta’sirlar tufayli hududning ekologik holati keskin ravishda o‘zgardi. Ayniqsa, dengiz sathining pasayishi natijasida tub hududi ochilib, yangi cho‘l Orolqum zonasi shakllandi. Bu o‘zgarishlar tuproq salohiyatining pasayishi, sho‘rlanish, chang-tuz bo‘ronlarining intensivligi oshishi, shuningdek, o‘simlik qoplamasining zaiflashishi kabi ko‘plab ekologik muammolarni yuzaga keltirdi.

Orol dengizi havzasining maydoni 1200000 km^2 dan 1300000 km^2 gacha bo‘lib, odatda «Orol dengizi havzasi» deganda faqat Amudaryo va Sirdaryo havzalarini hamda Orol dengizining suv yuzasini qamrab oluvchi «kichik havza» tushuniladi. [Ivanov, Y.N. va boshq. 1996]. Orol dengizining vegetatsiya davrida normallashtirilgan farq o‘simliklari indeksining o‘rtacha maydon vazni 0,09 dan 0,19 gacha bo‘lib, pasayish tendentsiyasini ko‘rsatadi; Kichik Orol dengizining ko‘l bo‘yida vegetatsiya davrida normallashtirilgan farq o‘simliklari indeksi 2014 yilgacha pasaygan va 2014 yildan keyin oshgan [Cui, M. Va boshq. 2023]. Orol dengizining qurishi 1960 yildan boshlandi va bugungi kunga kelib 3,2 mln gektar maydoni qurib, qumliklarga aylandi, shuningdek, sho‘rlanish ham avj oldi, bu esa o‘z o‘rnida o‘simliklar o‘sish-rivojlanishiga salbiy ta’sir qildi [Micklin, P. 2010; Micklin, P. va boshq. 2007]. Orol dengizi atrofida tuproqlarning sho‘rlanishiga, qurg‘oqlanishga chidamli o‘simliklardan biri bu *Licorice* bo‘lib, u turli tabiiy stresslarga chidamli o‘simlik hisoblanadi [Bekzod, A. va boshq. 2021; Jabborova, D. va boshq. 2023], shuningdek, *Chenopodium quinoa Willd* ham Orol dengizi qurigan tubining turli hududlarida stresslarga chidamli o‘simlikdir [Reimov, P. va boshq. 2014].

Orol dengizi atrofida ko‘p uchrovchi *Salicornia L.* o‘simligini o‘rganish, uning rizosferasidan bakteriyalarni ajratib, boshqa hududdagi o‘simliklarga qo‘llash stressli hududda yaxshi natija beradi [Vavrová, Ľ. Va boshq. 2010]. Orol dengizining qurishi undan uzoq bo‘lgan Xorazm viloyatidagi kuzgi bug‘doy va paxta o‘simliklarining o‘sish-rivojlanishi hamda hosildorligiga salbiy ta’sir qilgan [Matsui, K. Va boshq. 2019]. Orol dengizining qurigan tubi qumliklarida eng yaxshi moslashishi mumkin bo‘lgan, sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik bu qora saksovul (*Haloxylon aphyllum*) bo‘lib, natriyli sho‘rlanish bilan bog‘liq holda uning ildizi shakllanadi [Liu, Y. Va boshq. 2022]. Orol dengizining shimoliy hududlarida yerlarni

haydash tabiiy holda o‘sadigan o‘simliklarni keskin kamaytirgan, shu bois tabiiy o‘simliklarni qayta tiklash chorlarini ko‘rish dolzarb hisoblanadi [El-Ramady, H. Va boshq. 2024]. Orol dengizi atrofida *Elaeagnus angustifolia, Ulmus pumila, Morus alba, va Populus nivea x tremula* o‘simliklarini ekilishi sho‘rlanishning kamayishiga va biomassaning ko‘proq tushishi ta’sir qiladi [Hasanuzzaman, M. Va boshq. 2021]. Orol dengizining qurishiga ta’sir qiluvchi iqlim va antropogen omillari sifatida o‘rganilganda, 1920 yildan 1960 yilgacha suv satxi 0,04 km^2/yilga ortgan, 1960 yildan keyin esa keskin qisqarishi kuzatilgan, ko‘p faktorli omillarning ko‘rsatishicha Orol dengizining qurishida asosiy omil bu inson faoliyati hisoblanadi, ya’ni daryolardan suv olish (to‘g‘on sig‘imi > maishiy suv iste’moli > qishloq xo‘jaligi suv iste’moli), Orol dengiziga quyiladigan suvning 82% qismi qishloq xo‘jaligiga sarflangan [Duan, Z. va boshq. 2024; He, J. va boshq. 2022]. 1960 yildan boshlab irrigatsion sug‘orish jarayonini ortishi sababli Orol dengizining suvi kamayib bordi, 1989 yilda dengiz Katta va kichik orol dengiziga bo‘lindi va 2020 yilga kelib, suv yuzasi 10 barobarga qisqardi va Orolqum paydo bo‘ldi, va undan chang, tuz va qumning potensial manbai hisoblanadi, changning miqdori yiliga 1143 t/km dan 2684 t/km orasida kuzatiladi [Issanova, G. va boshq. 2023]. Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryodan keladigan suvni paxta etishtirishga sarflangani uchun uning qurishi kuzatildi, hozirda Orol dengizining to‘ldirish imkoniyati mavjud emas, biroq moslashish imkoniyati mavjud [Kayiranga, A. Va boshq. 2023; Lioubimtseva, E. 2023; Sanjeev, K. 2023].

Markaziy Osiyoda joylashgan Orol dengizining ohirgi qurishi 1960 yildan boshlangan bo‘lib, hozirgi kunga kelib uning 10% suvi saqlanib qolgan, va uning qurigan tubida jami 5 mln gektarda qumliklar paydo bo‘lgan [Jabbarov, Z. Va boshq. 2024; Mayar, M.A. va boshq. 2024],

Orol dengizining qurishi Markaziy Osiyo davlatlari, jumladan, O‘zbekiston va Qozog‘iston Respublikalari uchun jiddiy ekologik muammolarni keltirib chiqardi [Jabbarov, Z. Va boshq. 2024; Jabborova, D. va boshq. 2023].

MATERIALLAR VA USULLAR

2.1 Tadqiqot hududi.

Orol dengizi qurigan tubining g‘arbiy qismi 2022–2025-yillar davomida Orolbo‘yi mintaqasining quyidagi asosiy zonalarida olib borildi. 2022-2023 yillarda Mo‘ynoq tumanlari atrofidagi sho‘rlangan maydonida, 2023-2024 yillarda Orol dengizining sharqiy hududida, 2025-2026 yillarda Orol dengizining g‘arbiy qismida tadqiqot ishlari olib borildi. N 43.822858, E 58.861948 koordinata, N43.874990, E58.815666 koordinata, N 43.968414, E 58.740057 koordinata nuqtalaridagi tuproqlarni kesmalari tushirilib o‘simliklar qoplami va holatlari aniqlandi.


2.2 Tadqiqot usullari. Orol tubining g‘arbiy qismida tadqiqotlar olib borilib tuproq namunalarini olish ishlari GOST 17.4.4.02-84 va ISO 10381-1:2002 xalqaro standartlariga muvofiq amalga oshirilgan bo‘lib, o‘simliklar qoplami holati, o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash, iqlim parametrlari bilan tuproq va o‘simlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar aniqlandi. Morfologik kuzatuvlar natijasida tadqiqot hududining sho‘rlanish darajasi, namlik, organik modda miqdori, o‘simlik qoplama foizi, o‘simlik turlari xilma-xilligi, o‘simlik biomassalari aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot hududi Orol dengizining shimoliy, sharqiy, g‘arbiy hamda sharqiy qismida suv sathining pasayishi, iqlim omillarning ta’siri, tuproq-gruntlarini shakillanishi, o‘simliklar qoplami, hududlarda sho‘rlanish darajalari turlicha ekanligi aniqlandi. Orolni qurish jarayonlari sharqiy hududtan suv sathini pasayishi boshlanishiga boshqa qismlarga nisbattan relyefi jihatdan balantda joylashganligi (ya’ni suvni kamayishi past hududlarga siljishi). Orol dengizida suvining kamayib

ketishida iqlim omillarini o‘rni yuqori hisoblanadi bunda yillik yog‘in miqdorlarini kamayishi haroratning yuqori darajaga ko‘tarilishlari natijasida bug‘lanishning ortishi, shamolning tez va mavsumiy esib namlikni quritishlarini hisobiga sodir bo‘lmoqda va bundan tashqari asosiy suv bilan to‘ldirib turgan Amudaryo va Sirdaryo suvlarini qishloq xo‘jaligida foydalanishni orishi hisobiga Orol dengizga suvini yetib kelmaslik asosiy sabablardan hisoblonmoqda.


3.1 Iqlim parametrlaridagi o‘zgarishlar



1-rasm. Orol dengizida yillik yog‘in miqdorining taqsimlanishi, mm

Orol dengizida yillik yog‘in miqdori hozirgi kunga kelib, keskin kamaygan, 1960-1964 yillarda bu ko‘rsatkich 100-130 mm atrofida bo‘lgan, Orol dengizining turli hududlarida yog‘in miqdori turlicha bo‘lgan, ya’ni janubiy-sharqiy, janubiy hududlarida 100 mm ko‘rsatkichga teng bo‘lgan, sharqiy hududlarda 110 mm miqdorda yog‘in yoqqan, g‘arbiy hududlarda esa 110-130 mm atrofida yog‘in yoqqan, shimoliy hududlarda esa 120-130 mm atrofida yog‘in yoqqan, bugungi kunga kelib bu ko‘rsatkchilar 7-10 mm atrofigacha kamaygan, super arid mintaqasidagi ko‘rsatkichlardan ham ortib ketgan va qurg‘oqlanish maksimal ko‘rsatkichlarga teng bo‘lgan.


Havo harorati ko‘rsatkichlari ham Orol dengizining turli hududlarida turlichadir, bunga ko‘ra, yanvar oyida janubiy hududlarida −7 °C, sharqiy qismida −8-13 °C orasida, g‘arbiy qismida −7-13 °C, shimol qismida −12-13 °C, markaziy hududlarda esa −8-12 °C orasida sovuq harorat kuzatiladi (19-rasm). G.Kattayevaning (2024) ma’lumotiga ko‘ra 2012-2021 yillardagi o‘rtacha yanvar oyidagi harorat −4 °C ni tashkil qilgan [Kattayeva, G. diss. 2024].



2-rasm. Orol dengizi hududida o‘rtacha yillik havo harorati ko‘rsatkichlari, (yanvar, Jitomirskiy ma’lumoti) [Житомирский, О.М. 1964**].**

Bundan ko‘rinadiki, yanvar oyidagi o‘rtacha harorat − 7 °C dan − 4 °C gacha ortgan, ya’ni havo haroratining ortishi kuzatilgan.

Orol dengizining qurigan hududi uchun iqlim elementlarining statistik taxlil qilindi va quyidagi natijalar olindi (3-rasm).



3-rasm. Tadqiqot hududida o‘rtacha yillik harorat (A) va yog‘in (B) miqdorining o‘zgarish ko‘rsatkichlari

Statistik tahlillardan ko‘rish mumkinki, bu hududda yillar davomida haroratning ortishi va yog‘in miqdorining kamayish tendensiyasi kuzatilgan, bu Orol dengizining qurigan tubi hududida qumliklarning ochilib qolishi va tuzlarning miqdorini ortishi ro‘y beradi. Bu esa hududda o‘simliklar ekish va uni o‘stirish imkoniyatlarini cheklaydi.

3.2 Tuproq holatining o‘zgarishi

Tadqiqot hududi tuproq namligi kam ekanligini, tub yer osti suvlari darajasi kesmalar qazilganda pastga tushganligi tufayli yuzaki tuproqning namligi sezilarli darajada kamaygan, sho‘rlanish darajasi yuqori va sho‘r tuz miqdori ko‘z bilan ko‘rib o‘simlikllarni holatlarida ham sezilarli darajada, tuproq kesmasi qazilgan hududlarda har xil darajada ekanligi aniqlandi. Organik modda miqdori kamaygan, struktura zaiflashgan tuproq barqarorligi pasaygan. Bu holatlar iqlim o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ya’ni haroratni yuqoriligi, shamolni tezligi

shakillanayotgan tuproq-gruntlarida namlikni kamaytirib, degradadsiya jarayonlarini oshirib yubormoqda.



4-rasm. Orol dengizi qurigan tubi g‘arbiy qismi kesma-1

1-kesma dengiz sathidan 48 m balandlikda joylashgan, N 43.822858, E 58.861948 koordinata nuqtasidan tushirilgan.

- **0–0,5 sm.** Och kulrang, quruq, yengil qumoq mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rta zichlashgan. Yangi Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari uchraydi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **0,5–10 sm.** Och qo‘ng‘ir rangli, kam namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturasiz, biroz zichlashgan. Yangi yaralmalardan tuz kristallari uchramaydi. Ildizlar va hasharot izlari aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **10–24 sm.** Qo‘ng‘ir rangli, o‘rtacha namlangan, yengil mexanik tarkibli, palaxsimon strukturalarga ega, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari kuzatildi. Ildiz va qo‘shimcha belgilari yo‘q. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **24–32 sm.** Ko‘kish-kulrang, o‘rtacha namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturasiz, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari uchraydi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **32–40 sm.** Och qo‘ng‘ir rangli, o‘rtacha namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturasiz, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari mavjud. Ildizlar va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **40–56 sm.** Qo‘ng‘ir rangli, o‘rtacha namlangan, o‘rta qumoqli mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari kuzatildi. Ildizlar va qo‘shilmalar yo‘q. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **56–73 sm.** Kulrang, o‘rtacha namlangan, yengil qumoqli mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari uchraydi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **73–93 sm.** Och qo‘ng‘ir rangli, o‘rtacha namlangan, sochilma qumli mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari mavjud. Ildizlar va qo‘shilmalar yo‘q. Keyingi qatlamga o‘tishi sezilarli.
- **93–116 sm.** Och qo‘ng‘ir rangli, o‘rtacha namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari kuzatiladi. Ildiz va qo‘shimcha belgilar aniqlanmadi.



5-rasm. Orol dengizi qurigan tubi g‘arbiy qismi kesma-2

2-kesma dengiz sathidan 44 m balandlikda joylashgan, N43.874990, E58.815666 koordinata nuqtasidan tushirilgan.

- **0–1,5 sm.** Och kulrang, quruq, qum mexanik tarkibli, strukturasiz, o‘rta zichlashgan. Yangi yaralmalar uchramaydi. Ildizlar, hasharot izlari aniqlanmadi. Qo‘shilmalardan chig‘anoqlar mavjud, keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **1,5–17 sm.** Kul rangli, kam namlangan, yengil qumoqli mexanik tarkibli, changsimon bazan palaxsimon strukturali, o‘rta zichlashgan. Yangi yaralmalardan tomirsimon tuz yollari uchraydi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi asta-sekin.
- **17–122 sm.** Kul rangli, o‘rta namlangan, o‘rta qumoqli mexanik tarkibli, palaxsimon strukturalarga ega, o‘rtacha zichlashgan. Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari kuzatildi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi.



6-rasm. Orol dengizi qurigan tubi g‘arbiy qismi kesma-3

3-Kesma dengiz sathidan 43 m balandlikda joylashgan, N 43.968414, E 58.740057 koordinata nuqtasidan tushirilgan.

- **0–0,7 sm.** Och kulrang, quruq, qum mexanik tarkibli, changsimon strukturali, kam zichlashgan. Yangi yaralmalar uchramaydi. Ildizlar, hasharot izlari aniqlanmadi. Qo‘shilmalardan chig‘anoqlar mavjud, keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **0,7–14 sm.** Kul rangli, quruq, qum mexanik tarkibli, changsimon strukturali, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan tomirsimon tuz yollari uchraydi. Siyrak ildizlar mavjud, hasharot izlari yo‘q va qo‘shilmalardan chiganoqlar uchraydi. Keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **14–32 sm.** To‘q kul rangli, kam namlangan, yengil qumoqli mexanik tarkibli, palaxsimon strukturalarga ega, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan zang dog‘lari kuzatildi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi asta-sekin.
- **32–48 sm.** Och kul rangli, kam namlangan, qumli mexanik tarkibli, changsimon strukturalarga ega, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari va zang dog‘lari kuzatildi. Ildizlar, hasharot izlari va qo‘shilmalar aniqlanmadi. Keyingi qatlamga o‘tishi aniq.
- **48–116 sm.** Och kul rangli, kam namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturalarga ega emas, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari va zang dog‘lari kuzatildi. Siyrak ildizlar mavjud, hasharot izlari aniqlanmadi va qo‘shilmalardan kam miqdorda chig‘anoqlar uchradi. Keyingi qatlamga o‘tishi asta-sekin.
- **116-155 sm.** Kul rangli, kam namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturalarga ega emas, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari va zang dog‘lari kuzatildi. Ildizlar mavjud emas, hasharot izlari aniqlanmadi va qo‘shilmalardan kam miqdorda chig‘anoqlar uchradi. Keyingi qatlamga o‘tishi asta-sekin.
- **155–188 sm.** Och kul rangli, o‘rta namlangan, qumli mexanik tarkibli, strukturalarga ega emas, kam zichlashgan. Yangi yaralmalardan mayda tuz kristallari va zang dog‘lari kuzatildi. Siyrak ildizlar mavjud, hasharot izlari aniqlanmadi va qo‘shilmalardan kam miqdorda chig‘anoqlar uchradi

3.4 Natijalarni muhokama qilish

Natijalar ko‘rsatdiki, iqlim o‘zgarishi (namlik kamayishi, harorat amplitudasining oshishi, shamol kuchayishi) tuproq va o‘simlik tizimlariga sezilarli salbiy ta’sir qilmoqda. Tuproqlarni ustki qatlamlarini shamolni tezligini ta’sirida quruq havo natijasida uchirib ketishi o‘simliklar ildizini ochilib qolishi, chang to‘zonlar qum barhanlarini hosil qilinishi natijasida o‘simliklar qoplamini kamayishi kuzatilmoqda. O‘rganilayotgan hududlarni natijalarida 1-kesma tushirilgan

nuqtada o‘simliklar qoplamasi bilan yaxshi darajada qoplangan bo‘lib tuproq shakillanishlari tuproq erroziyasini ta’siri kam ekanligi, o‘simliklar qoplamasini ko‘pligini hisobiga namlik yuqori ekanligini ko‘rishimiz mumkin, bu esa bu hududta tuproqlarni shakillanishi jadalligi, tuproqda yashaydigan hayvonlar uchun qulay muhit va oziqa yaxshi shakillanganligi bilan ilmiy izohlanadi.Tadqiqot ishlari davomida mabul yerlarga o‘simliklar ekishlar tavsiyalar berish maqsad qilib olingan.

XULOSA

Orol dengizining g‘arbiy qismining suvini kamayishi bo‘yicha katta qismi zarar ko‘rgan, iqlimning o‘zgarishi yog‘ingarchilikni kamayishi quruq havoni ortishi natijasida chang to‘zon, tuz miqdorini atrof muhitni va Orol dengiziga yaqin hududlarda tirik organizmlarga sabiy ta’sirlarni ortishi kuzatilmoqda, bunga qarshi kurashishni yechimlari bo‘yicha hududga ilmiy jihatdan yondashib, iqlim omillari shu jumladan haroratning oshishi, shamolning tezligi, namlikni pastligi, sho‘rlanish darajasini yuqoriligi hududda ekologik barqarorlikni yomonlashishiga qum va tuz zarrachalarini atmosferani ifloslashi, biologik xossalariga jarayonlarni kamayishiga ta’siri ortib bormoqda. Tadqiqotlar davomida hududning tuproq-guruntlari shakillanishi tabiiy o‘simliklar qoplamini holatini kuzatish, tuproq tahlillari uchun namunalar olish va o‘rganish natijasida qo‘shimcha ravishda hududni iqlim omillarini ta’sirini yumshatishda o‘simliklar ekishni ilmiy jihatdan yondashish maqsad qilib olingan. Ushbu tadqiqot ishi hudud ekologiyasi, landshaftlar dinamikasi va iqlimga moslashtirish strategiyalari sohasida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Minnatdorchilik.

Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish agentligi tomonidan* FL-8323102111 *raqamli loyiha asosida moliyalashtirilgan va bajarilgan, buning uchun mualliflar minnatdorchilik bildiradi.

ADABIYOTLAR

1. Ivanov, Y.N. Review of the scientific and environmental issues of the Aral Sea basin // Y.N.Ivanov, V.E.Chub, O.I.Subbotina, G.A.Tolkacheva, R.V.Toryannikova. // The Aral Sea Basin. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 1996. – S. 9-21. https://doi.org/10.1007/978-3-642-61182-7_2.
2. Ismonov A.J., Dosaliev T.A., Mamajonova X.O. Orol dengizi markaziy qismi qurigan tubi tuproq-gruntlarining meliorativ holati // UzMU xabarlari. - 2022. - №3/2/1. – B. 52-55.
3. Cui, M. Analysis of NDVI trends and driving factors in the buffer zone of the Aral Sea // M.Cui, X.Zheng, Y.Li, Y.Wang. // Water. – 2023. – T. 15. – №. 13. – S. 2473. https://doi.org/10.3390/w15132473.
4. Bekzod, A. Transformation of vegetative cover on the Ustyurt Plateau of Central Asia as a consequence of the Aral Sea shrinkage // A.Bekzod, S.Habibullo, L.Fan, K.Li, X.Ma, Y.Li. //Journal of Arid land. – 2021. – T. 13. – №. 1. – S. 71-87.
5. Reimov, P. The present state of the south aral sea area // **P.**Reimov, D.Fayzieva. // The Aral Sea: The Devastation and Partial Rehabilitation of a Great Lake. – 2014. – S. 171-206.
6. Vavrová, Ľ. Comparison of different Bacillus subtilis expression systems // Ľ.Vavrová, K.Muchová, I.Barák. // Research in microbiology. – 2010. – T. 161. – №. 9. – S. 791-797.
7. Matsui, K. Soil properties that determine the mortality and growth of Haloxylon aphyllum in the Aral region, Kazakhstan // K.Matsui, T.Watanabe, M.Kussainova, S.Funakawa. // Arid Land Research and Management. – 2019. – T. 33. – №. 1. – S. 37-54.
8. Liu, W. Historical change and ecological risk of potentially toxic elements in the lake sediments from North Aral Sea, Central Asia // W.Liu, L.Ma, J.Abuduwaili. // Applied Sciences. – 2020. – T. 10. – №. 16. – S. 5623. https://doi.org/10.3390/app10165623.

9. Micklin, P. The Aral sea disaster // Annu. Rev. Earth Planet. Sci. – 2007. – T. 35. – №. 1. – S. 47-72. https://doi.org/10.1146/annurev.earth .35.031306.140120.

10. El-Ramady, H. Review of crop response to soil salinity stress: Possible approaches from leaching to nano-management // H.El-Ramady, J.Prokisch, H.Mansour, Y.A.Bayoumi, T.A.Shalaby, S.Veres. // Soil Systems. – 2024. – T. 8. – №. 1. – S. 11.

11. Hasanuzzaman, M. Regulation of reactive oxygen species and antioxidant defense in plants under salinity // M.Hasanuzzaman, M.R.H.Raihan, A.A.C.Masud, K.Rahman, F.Nowroz, M.Rahman, K.Nahar, M.Fujita. // International Journal of Molecular Sciences. – 2021. – T. 22. – №. 17. – S. 9326.

1. Jabbarov Z., Abdrakhmanov T., Tashkuziev M., Abdurakhmonov N., Makhammadiev S., Fayzullayev O., Nomozov U., Kenjayev Yu., Abdullayev Sh., Yagmurova D., Abdushukurova Z., Iskhakova Sh., Kovacik P. Cultivation of plants based on new technologies in the dry soil of the Aral Sea // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 497. – S. 03008. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202449703008.

12. Mayar,M.A., Hamidov A., Akramkhanov A., Helming K. Consideration of the environment in water-energy-food nexus research in the Aral Sea Basin // Water. – 2024. – T. 16. – №. 5. – S. 658. https://doi.org/10.3390/w16050658.

13. Micklin, P. The past, present, and future Aral Sea // Lakes & Reservoirs: Research & Management. – 2010. – T. 15. – №. 3. – S. 193-213. https://doi.org/10.1111/j.1440-1770.2010.00437.x.

14. Duan, Z. Effects of climate change and human activities on environment and area variations of the Aral Sea in Central Asia // Z.Duan, M.M.Afzal, X.Liu,·S.Chen, R.Du, B.Zhao, W.Yuan, M.Awais.// International Journal of Environmental Science and Technology. – 2024. – T. 21. – №. 2. – S. 1715-1728. https://doi.org/10.1007/s13762-023-05072-8.

15. He, H. Hamdi R., Luo G., Cai P., Zhang M., Shi H., Li C., Termonia P., De Maeyer P., Kurban A Numerical study on the climatic effect of the Aral Sea. // Atmospheric Research. – 2022. – T. 268. – S. 105977. https://doi.org/10.1016/j.atmosres.2021.105977.

16. Badescu V., Schuiling R.D Aral Sea; Irretrievable Loss or Irtysh Imports. // Water Resour Manage. – *2010*. – *T.* 24. – C. 597–616. https://doi.org/10.1007/s11269-009-9461-y.

17. Issanova, G. Environmental Conditions of the Aral Sea Region // G.Issanova, J.Abuduwaili, K.Tynybayeva. // Soil Cover of the Dried Aral Seabed in Kazakhstan. – Cham: Springer Nature Switzerland, 2023. – S. 11-24.. https://doi.org/10.1007/978-3-031-29867-7_2.

18. Житомирский, О.М. Климатическое описание района Аралского моря. / О.М.Житомирская. - Ленинград, - “Гимиз”, 1964. - 69 с.

19. Jabbarov Z.A., Maxammadiev S.Q., Zokirova F.N., AbdraxmonovT.A.,, Abdullaev Sh Orol dengizi qumliklarining shoo‘rlanish holati. O‘zbekiston zamini, 2022. - №4. - B. 22-27.

20. Jabbarov Z., Nomozov U., Abdullaev Sh., Rakhmatullaeva G., Abdukarimov J., Zakirova S. Changes in the vegetation of the dried Aral sea bed // Russian journal of Ecosystem Ecology Vol. 10(2), 2025. P.1-12. DOI 10.21685/2500-0578-2025-2-2.

21. Kayiranga, A., Anthropogenic activities and the influence of desertification processes on the water cycle and water use in the Aral Sea basin. // A.Kayiranga, X.Chen, D.Ingabire, T.Liu, Y.Li, V.Nzabarinda, F.O.Uchenna, H.Hirwa, E.Duulatov, W.Nthangeni. // Journal of Hydrology: Regional Studies.-2023. - №51.- C. 101598. https://doi.org/10.1016/j.ejrh.2023.101598.

22. Lioubimtseva, E. The Aral Sea disaster: revisiting the past to plan a better future // E.Lioubimtseva. // Biological and Environmental Hazards, Risks, and Disasters. – Elsevier, - 2023. – S. 435-447. https://doi.org/10.1016/B978-0-12-820509-9.00008-3.

23. Sanjeev, K. Environment problem of the Aral Sea basin in central Asia and its impact on society, economy and regional security. // K.Sanjaeev. // International Journal of Geography, Geology and Environment. – 2023. – T. 5. - № .1. – C. 211-226. DOI: https://doi.org/10.22271/27067483.2023.v5.i1b.191.

24. Kholdorov, S. Soil governance: A review of the current legislative framework for managing soil resources in Uzbekistan // S.Kholdorov, Z.Jabbarov, T.Shamsiddinov. // Soil Security. – 2023. – T. 13. – S. 100105. https://doi.org/10.1016/j.soisec.2023.100105.

25. Kattayeva, G. Orol dengizi qurigan tubi tuproq – grunt qoplamlarining genetik, ekologik – meliorativ xususiyatlari (G‘arbiy qismi misolida) / Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, TATI.- 2024. 154 b.

SURXON DAVLAT QO‘RIQXONASINING EKOTIZIM XIZMATLARI: 2024-YIL “TABIAT SOLNOMASI” MA’LUMOTLARI ASOSIDAGI BIOFIZIK BAHOLASH

[1]Doniyorova Xolniso Sobir qizi, [1]Samiyev Luqmon Nayimovich
[2]Turdiyev Rustam Yalg‘ashovich
[1]Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
[2]Surxon davlat qo‘riqxonasi direktori

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Markaziy Osiyoda qattiq rejimli (IUCN Ia kategoriyasi) qo‘riqxonada ekotizim xizmatlarining birinchi biofizik bahosini taqdim etadi. Tadqiqot faqat Surxon davlat qo‘riqxonasining (23 406,4 ga, O‘zbekiston) 2024-yilgi “Tabiat solnomasi”dagi uzoq muddatli monitoring ma’lumotlariga asoslanib, CICES v5.1 tasnifi bo‘yicha to‘qqizta asosiy ekotizim xizmatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanadigan biofizik ko‘rsatkichlar orqali baholadi. Qo‘riqxona 28 ta doimiy buloq va 11 ta yirik soyni saqlab turadi, global darajada “jiddiy xavf ostida” (CR) bo‘lgan ikkita juft tuyoqli hayvon – morxo‘r (Capra falconeri) va buxoro tog‘ qo‘yi (Ovis vi gnei bocharensis)ning O‘zbekistondagi eng yuqori zichlikdagi populyatsiyalariga ega, shuningdek, 12 239,8 ga tog‘ o‘rmonining 95 % ini yaxshi va o‘rtacha holatda ushlab turadi. Hududning 52,5 % o‘rmon qoplamasi tuproq eroziyasini boshqarish koeffitsiyentini (C-factor) 0,001–0,004 gacha tushirib, yillik tuproq yo‘qotilishini atigi 0,8–1,2 t ga^{-1} yil^{-1} darajasida ushlab turadi – bu mintaqadagi ko‘pchilik muhofaza hududlaridan ustun ko‘rsatkichdir. Natijalar Surxon davlat qo‘riqxonasi Markaziy Osiyo tog‘ qo‘riqxonalari orasida suvni tartibga solish, bioxilma-xillikni saqlash va iqlimni tartibga solish xizmatlarining yetakchi yetkazib beruvchisi sifatida belgilaydi. Madaniy xizmatlar esa qattiq rejim tufayli qasddan cheklangan. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, standartlashtirilgan “Tabiat solnomasi” ma’lumotlari xalqaro biofizik xaritalash tizimlari (CICES, IPBES, MAES) bilan to‘liq mos keladigan noyob va yuqori sifatli manba hisoblanadi hamda tog‘li qattiq qo‘riqxonalar uchun mintaqaviy biofizik benchmarkni birinchi marta taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: ekotizim xizmatlari, biofizik baholash, qattiq muhofaza rejimi, tog‘ ekotizimlari, Tabiat solnomasi, CICES v5.1, bioxilma-xillikni saqlash, suv tartibga solish, Markaziy Osiyo, Surxon davlat qo‘riqxonasi

Аннотация. Настоящее исследование представляет первую биофизическую оценку экосистемных услуг в заповеднике строгого режима (категория IUCN Ia) в Центральной Азии. Работа полностью основана на данных долгосрочного мониторинга из «Летописи природы» Сурханского государственного заповедника (23 406,4 га, Узбекистан) за 2024 год и оценивает девять ключевых экосистемных услуг с использованием прямых, количественно измеряемых биофизических показателей в соответствии с классификацией

CICES v5.1 без какой-либо монетизации. Заповедник поддерживает 28 постоянно действующих родников и 11 крупных ручьёв, содержит самые высокие в Узбекистане плотности популяций двух глобально критически угрожаемых видов парнокопытных — винторогого козла (Capra falconeri) и бухарского горного барана (Ovis vignei bocharensis), а также сохраняет 12 239,8 га горных лесов, из которых более 95 % находятся в хорошем и удовлетворительном состоянии. Лесистость территории 52,5 % обеспечивает коэффициент эрозионного контроля (C-factor) на уровне 0,001–0,004 и ежегодную потерю почвы всего 0,8–1,2 т га$^{-1}$ год$^{-1}$, что значительно превосходит большинство охраняемых территорий региона. Полученные результаты позиционируют Сурханский заповедник как лидера среди горных заповедников Центральной Азии по предоставлению услуг регулирования водного стока, поддержания биоразнообразия и регулирования климата, в то время как культурные услуги намеренно ограничены строгим режимом охраны. Исследование показало, что стандартизированный массив данных «Летописи природы» является уникальным и высококачественным источником, полностью совместимым с международными рамками биофизического картирования (CICES, IPBES, MAES), и впервые формирует региональный биофизический бенчмарк для горных заповедников строгого режима.

Ключевые слова: экосистемные услуги, биофизическая оценка, заповедник строгого режима, горные экосистемы, Летопись природы, CICES v5.1, сохранение биоразнообразия, регулирование водного стока, Центральная Азия, Сурханский государственный заповедник

Abstract. This study presents the first biophysical assessment of ecosystem services in a strict nature reserve (IUCN Ia) in Central Asia using long-term monitoring data. Based exclusively on the 2024 Chronicle of Nature of Surxon State Nature Reserve (23 406.4 ha, Uzbekistan), nine key ecosystem services were evaluated through direct, quantifiable biophysical indicators according to CICES v5.1, without any monetary valuation. The reserve sustains 28 perennial springs and 11 major streams, supports populations of two globally Critically Endangered ungulates (Capra falconeri and Ovis vignei bocharensis) with the highest recorded densities in Uzbekistan, and maintains 12 239.8 ha of mountain forest in good-to-moderate condition (95 % of forested area). Forest cover of 52.5 % results in a soil erosion control factor (C-factor) of 0.001–0.004 and soil loss of only 0.8–1.2 t ha^{-1} yr^{-1}, outperforming most regional protected areas. The findings establish Surxon as a leading provider of water regulation, biodiversity maintenance, and climate regulation services among Central Asian mountain reserves, while cultural services remain deliberately limited due to the strict protection regime. The study demonstrates that the standardised “Chronicle of Nature” dataset represents a unique, high-quality resource fully compatible with international biophysical mapping frameworks (CICES, IPBES, MAES) and provides the first regional benchmark for mountain strict reserves.

Keywords: ecosystem services, biophysical assessment, strict nature reserve, mountain ecosystems, Chronicle of Nature, CICES v5.1, biodiversity conservation, water regulation, Central Asia, Uzbekistan

KIRISH

Ekotizim xizmatlari konsepsiyasi hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilish va barqaror boshqaruvning asosiy ilmiy paradigmasiga aylandi (Daily, 1997; MEA, 2005). So‘nggi o‘n yillikda tadqiqotchilar monetizatsiyadan ko‘ra biofizik indikatorlarga asoslangan baholashga ko‘proq e’tibor bermoqda, chunki bu yondashuv: iqlim o‘zgarishi va landshaft degradatsiyasini modellashtirishda aniqroq, siyosat qarorlarida ishonchliroq ma’lumot bilan ta’minlaydi, mintaqaviy va global solishtirish imkonini beradi (Crossman et al., 2013; Schröter et al., 2014; Haines-Young & Potschin, 2018).

Markaziy Osiyoning tog‘li hududlari global bioxilma-xillikning issiq nuqtalaridan biri bo‘lib, ayni paytda eng kam o‘rganilgan mintaqalardan biridir (Myers et al., 2000; Critical Ecosystem Partnership Fund, 2017). Scopus bazasida “ecosystem services” AND (“Central Asia” OR “Uzbekistan” OR “Tajikistan” OR “Kyrgyzstan”) AND “mountain” so‘rovi bo‘yicha 2015–2025 yillarda atigi 112 ta maqola mavjud (2025 yil 1 dekabr holati). Ulardan faqat 11 tasi qattiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga (IUCN Ia–II kategoriya) bag‘ishlangan va hech biri biofizik ko‘rsatkichlarga asoslangan emas.

O‘zbekistonda holat yanada cheklangan. Scopus indeksli jurnallarda O‘zbekistonning tog‘li muhofaza hududlari bo‘yicha atigi 9 ta maqola bor (Groll et al., 2015; Mamatov et al., 2021; Sherov et al., 2022; Li et al., 2023; Toderich et al., 2024 va boshq.). Barcha ishlar yoki monetizatsiyaga (Sherov et al., 2022) yoki faqat bitta xizmatga (masalan, uglerod – Groll et al., 2015; suv – Mamatov et al., 2021) qaratilgan. Qattiq rejimli davlat qo‘riqxonalari (IUCN Ia) bo‘yicha hech qanday ish yo‘q.

Surxon davlat qo‘riqxonasi (23 406,4 ga) O‘zbekistondagi tog‘li qattiq qo‘riqxona bo‘lib, Ko‘hitang tog‘ tizmasining sharqiy yon bag‘rida joylashgan. U global ahamiyatga ega ikkita turning (Capra falconeri va Ovis vignei bocharensis) asosiy yashash joyi hisoblanadi va O‘zbekiston florasi turlari umumiy sonining 18,3 % ni o‘z ichiga oladi (Tabiat solnomasi, 2024). Shu bilan birga, qo‘riqxonaning ekotizim xizmatlari bo‘yicha hech qanday ilmiy ish chop etilmagan.

Ushbu tadqiqot quyidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan:

1. O‘zbekistonning qattiq rejimli tog‘li qo‘riqxonasida birinchi marta ekotizim xizmatlarining to‘liq biofizik va funksional bahosi;
2. Davlat qo‘riqxonalari uchun eng batafsil monitoring hujjati – “Tabiat solnomasi” (Chronicle of Nature) – dan xalqaro standartlarda foydalanishning namunasini ko‘rsatish;
3. Markaziy Osiyo tog‘larida CICES v5.1 asosida faqat biofizik indikatorlarga tayanadigan birinchi case-study.

Tadqiqotning maqsadi: Surxon davlat qo‘riqxonasining 2024-yilgi “Tabiat solnomasi”da to‘plangan birlamchi monitoring ma’lumotlaridan foydalanib, ekotizim xizmatlarini faqat biofizik va funksional ko‘rsatkichlar asosida aniqlash va ularning mintaqaviy ahamiyatini baholash.

Asosiy vazifalar:

1. Qo‘riqxonaning biofizik xususiyatlarini zamonaviy tasniflar asosida tavsiflash;
2. CICES v5.1 bo‘yicha Tabiat solnomasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanadigan ekotizim xizmatlarini aniqlash;
3. Har bir xizmat uchun biofizik indikatorlarni taklif qilish va ularni o‘lchash;
4. Olingan ko‘rsatkichlarni Markaziy Osiyo va global tog‘li muhofaza hududlari bilan solishtirish.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

2.1. Tadqiqot hududi

Surxon davlat qo‘riqxonasi (Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani), umumiy maydoni 23 406,4 ga, balandlik zonasi 850–3137 m (Ayribobo cho‘qqisi, 3137 m). Qo‘riqxona IUCN kategoriyasi Ia (strict nature reserve) bo‘lib, asosan Ko‘hitang tog‘ tizmasining sharqiy yon bag‘ridagi tog‘-o‘rmon va subalp ekotizimlarini qamrab oladi. Hudud 10 ta aylanma va 14 ta kvartalga bo‘lingan bo‘lib, 2021-yildan 7 ta alohida bo‘lim (Xatak, Xo‘janqo, Qizilolma, Shalqon, Kampirtepa, Sherjon, Vandob)ga birlashtirilgan.

2.2. Ma’lumotlar manbai

Barcha biofizik ko‘rsatkichlar quyidagi birlamchi manbadan bevosita olingan: Surxon davlat qo‘riqxonasining 2024-yilgi “Tabiat solnomasi” ga asoslangan bo‘lib, ichki hujjat 312 bet.

Ushbu hujjatda quyidagi standartlashtirilgan monitoring ma’lumotlari mavjud:

- abiotik omillar (meteorologiya, gidrologiya, fenologik kuzatuvlar);
- 10 ta doimiy sinnov maydonchasi (o‘simlik qoplami, fenofazalar);
- 9 ta belgilangan marshrut bo‘yicha umurtqali hayvonlarning bahorgi (25–27 may) va kuzgi (23–25 noyabr) hisobi;
- noyob turlarning (morxo‘r, buxoro tog‘ qo‘yi) alohida monitoringi;
- doimiy oqadigan buloq va soylarning ro‘yxati va holati.

Qo‘shimcha manbalar (faqat tasdiqlash uchun):

- O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 1–2 tom (2019);
- Sentinel-2A tasvirlari (2024-yil iyul–avgust, 10 m o‘lcham) – NDVI va o‘rmon qoplamini tasdiqlash uchun;
- GIS qatlami (qo‘riqxona chegarasi va kvartallari, 2024-yil yangilangan).

2.3. Ekotizim xizmatlarini tasniflash

Ekotizim xizmatlari faqat Common International Classification of Ecosystem Services v5.1 (CICES v5.1; Haines-Young & Potschin, 2018) bo‘yicha tasniflandi. Milliy Ecosystem Assessment (2005) faqat solishtirish uchun keltirildi. Jami 9 ta asosiy xizmat (3 ta ta’minlovchi, 4 ta tartibga soluvchi/qo‘llab-quvvatlovchi, 2 ta madaniy) tanlab olindi – bularning barchasi Tabiat solnomasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanadigan yoki kuzatiladigan indikatorlarga ega.

2.5. Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil

- Barcha ko‘rsatkichlar yillik o‘rtacha sifatida hisoblandi.
- Nisbiy ahamiyat 5 ballik Likert shkalasi bo‘yicha baholandi (1 = past, 5 = global miqyosda muhim) – 3 mustaqil ekspert (qo‘riqxona ilmiy xodimlari) tomonidan.
- Statistik ishonchlilik – takroriy hisoblar (bahorgi va kuzgi) o‘rtasidagi farq 12 % dan oshmagan.
- Xaritalar va GIS tahlili – QGIS 3.28 dasturida amalga oshirildi.

2.4. Biofizik indikatorlarni tanlash va o‘lchash usullari

Har bir ekotizim xizmati uchun tanlangan biofizik indikatorlar 2024-yil “Tabiat solnomasi”da to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchanadigan yoki standartlashtirilgan usullar bilan hisoblanadigan ko‘rsatkichlarga asoslangan.

Toza yuzaki suv ta’minoti xizmati (CICES 4.2.1.1) uchun asosiy indikator sifatida doimiy oqadigan buloq va yirik soylar soni qabul qilindi. 2024-yilda qo‘riqxona inspektorlari tomonidan yil davomida olib borilgan vizual va rejali kuzatuvlar natijasida 28 ta ser-suv buloq va 11 ta yirik soy (shu jumladan Tangi devolsoy, Bo‘g‘lida ra, Oqda ra, Shomu rod da ra, Iskandar da ra va boshqalar) ro‘yxatga olingan va ularning barchasi yil bo‘yi barqaror oqim ko‘rsatgan.

Dori o‘simliklari yetkazib berish xizmati (CICES 1.1.1.2) O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga (2019) kiritilgan dorivor o‘simlik turlari soni va ularning uchramasi bilan baholandi. 10 ta doimiy sinnov maydonchasida (har biri 100–500 m^2) 1×1 m kvadratlarda olib borilgan hisoblar 47 ta noyob dorivor turning mavjudligini tasdiqladi. Ayniqsa Kolpakovskiy gulsafsari, Kochi qatroni, Popov burmaqorasi va Eversman yersovuni kabi turlarning barqaror populyatsiyalari qayd etildi.

Global iqlimni tartibga solish (uglerod saqlash) xizmati (CICES 2.2.1.3) o‘rmon qoplamasi maydoni va sifati bilan ifodalandi. Sentinel-2 tasvirlari va yer usti verifikatsiyasi asosida 12 239,8 gektar (hududning 52,5 %) o‘rmon qoplami aniqlangan bo‘lib, ularning 95 % dan ortig‘i “yaxshi” va “o‘rtacha” holatda baholangan.

Suv oqimi tartibga solish va sel xavfini kamaytirish xizmati (CICES 2.1.1.1) o‘rmon qoplamining suv ushlab turish qobiliyati – ya’ni USLE/RUSLE modelidagi C-factor (cover-

management factor) bilan o‘lchandi. O‘rmonli uchastkalarda C-factor 0,001–0,004 oralig‘ida bo‘lib, o‘rmonsiz yerlarga nisbatan 200–300 baravar past qiymat ko‘rsatdi.

Tuproq eroziyasini oldini olish xizmati (CICES 2.2.3.1) doimiy kuzatuv punktlarida vizual va foto-fiksatsiya usuli bilan baholandi. 2024-yil natijalariga ko‘ra o‘rtacha yillik tuproq yo‘qotilishi 0,8–1,2 t ga^{-1} yil^{-1} darajasida – bu tog‘li o‘rmon ekotizimlari uchun global tavsiya etilgan chegaradan ancha past.

Bioxilma-xillikni saqlash xizmati (CICES 2.2.6.1) O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan umurtqali hayvon turlari soni bilan ifodalandi. 9 ta belgilangan marshrut bo‘yicha bahorgi va kuzgi hisoblar 24 ta turning mavjudligini ko‘rsatdi, shundan ikkitasi (Capra falconeri va Ovis vignei bocharensis) IUCN “Critically Endangered” toifasida.

Genetik resurslarni saqlash xizmati (CICES 2.2.6.2) floristik ro‘yxat va gerbariy materiallari tahlili orqali aniqlandi: 807 turdan 64 tasi (7,9 %) endemik yoki subendemik hisoblanadi.

Rekreatsiya salohiyati (CICES 3.1.1.1) tashrifbuyuruvchilar soni va belgilangan marshrutlar holati bilan baholandi. 2024-yilda 7 850 nafar tashrifbuyuruvchi (asosan ilmiy va nazorat maqsadida) qayd etilgan bo‘lib, 9 ta marshrut doimiy xavfsiz holatda saqlangan.

Ilmiy-ta’lim salohiyati (CICES 3.2.1.1) oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik shartnomalari va talabalar amaliyoti soni bilan o‘lchandi. 2024-yilda 4 ta OTM bilan amaldagi shartnomalar va 120 nafar talabaning yillik amaliyoti qayd etilgan.

Jadval 1.

Surxon davlat qo‘riqxonasida ekotizim xizmatlarini biofizik baholash uchun tanlangan indikatorlar (2024-yil “Tabiat solnomasi” ma’lumotlari asosida)

Ekotizim xizmati (CICES kodi)	Biofizik indikator	O‘lchash usuli (2021 yil)	Izoh
Toza yuzaki suv ta’minoti (4.2.1.1)	Doimiy oqadigan buloq va soylar soni	Qo‘riqxona inspektorlari tomonidan yil davomida vizual va rejali kuzatuv	28 ta buloq, 11 ta yirik soy
Dori o‘simliklari (1.1.1.2)	Qizil kitobga kiritilgan dorivor turlar soni va ularning uchramasi	10 ta sinnov maydonchasida kvadratlarda hisob	47 tur tasdiqlangan
Uglerod saqlash (2.2.1.3)	O‘rmon qoplamasi maydoni va holati	Aerotasvir + yer usti verifikatsiyasi	12 239,8 ga, 95 % yaxshi/o‘rtacha holat
Suv oqimi tartibga solish (2.1.1.1)	O‘rmon qoplamining suv ushlab turish qobiliyati (C-factor)	O‘rmon va o‘rmonsiz uchastkalarni solishtirish	C-factor 0,001–0,004
Tuproq eroziya oldini olish (2.2.3.1)	Eroziya darajasi (t/ga/yil)	Doimiy kuzatuv punktlarida vizual va foto-fiksatsiya	0,8–1,2 t/ga/yil
Bioxilma-xillikni saqlash (2.2.6.1)	Qizil kitob umurtqali hayvon turlari soni	9 marshrut bo‘yicha ikki mavsum hisob	24 tur, shundan 2 tasi CR
Genetik resurslar (2.2.6.2)	Endemik/subendemik o‘simlik turlari ulushi	Gerbariy va floristik ro‘yxat tahlili	64 tur (7,9 %)
Rekreatsiya salohiyati (3.1.1.1)	Tashrifbuyuruvchilar soni va marshrutlar holati	Kirish jurnali + marshrutlar monitoringi	7 850 kishi, 9 ta xavfsiz marshrut
Ilmiy-ta’lim salohiyati (3.2.1.1)	OTM hamkorligi va talabalar amaliyoti	Shartnomalar va amaliyot jurnallari	4 ta OTM, 120 talaba

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Quyida ekotizim xizmatlari faqat biofizik (biophysical) va funksional indikatorlar bilan ifodalangan.

Jadval 2.

Surxon davlat qo‘riqxonasining asosiy ekotizim xizmatlari – faqat biofizik ko‘rsatkichlar (2024-yil)

№	CICES v5.1 kodi	Ekotizim xizmati	Biofizik indikator (2024-yil “Tabiat solnomasi”dan)	Miqdoriy qiymat	Nisbiy ahamiyat*	Solishtirma (Markaziy Osiyo tog‘li qo‘riqxonalari)
Ta’minlovchi xizmatlar						
1	4.2.1.1	Toza yuzaki suv ta’minoti	Doimiy oqadigan soy va buloqlar soni + yillik oqim barqarorligi	28 ta ser-suv buloq, 11 ta yirik soy (Tangi devolsoy, Bo‘g‘lidara, Oqdara, Shomurod dara, Iskandar dara va boshq.)	Yuqori (4/5)	Chatqol (Mamatov et al., 2021) – 22 ta buloq
2	1.1.1.2	O‘simlikdan olinadigan xom ashyo (dori o‘simliklari)	O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan dorivor o‘simlik turlari soni	47 tur (shu jumladan: Kolpakovskiy gulsafsari, Kochi qatroni, Popov burmaqorasi, Eversman yersovuni)	Juda yuqori (5/5)	Zomin (Sherov et al., 2022) – 31 tur
Tartibga soluvchi va qo‘llab-quvvatlovchi xizmatlar						
3	2.2.1.3	Global iqlim tartibga solish (uglerod saqlash)	O‘rmon qoplamasi ulushi va archa o‘rmonlari holati	12 239,8 ga (52,5 % hudud), asosan archa va yong‘oq-arca o‘rmonlari, 95 % dan ortig‘i yaxshi va o‘rtacha holatda	Yuqori (4/5)	Gissar, Tojikiston (Kirchhoff et al., 2021) – 48 % o‘rmon
4	2.1.1.1	Suv oqimi tartibga solish va sel xavfini kamaytirish	O‘rmon qoplamining sel oldini olishdagi roli (C-factor)	O‘rmonli hududlarda C-factor = 0,001–0,004 (o‘rmonsizga nisbatan 200–300 baravar kam)	Juda yuqori (5/5)	Sary-Chelek (Mamasydykov et al., 2023) – C = 0,003
5	2.2.3.1	Tuproq hosil bo‘lishi va eroziya oldini olish	O‘rmon va tog‘ o‘tloqlarining tuproq himoya indeksi	98 % hududda eroziya jarayoni minimal (o‘rtacha 0,8–1,2 t/ga/yil)	Yuqori (4/5)	Romit qo‘riqxonasi – 1,5 t/ga/yil (Ahmadov et al., 2023)
6	2.2.6.1	Hayotni qo‘llab-quvvatlash (bioxilma-xillikni saqlash)	O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan umurtqali hayvonlar soni	24 tur (shu jumladan 2 ta CR: morxo‘r va buxoro tog‘ qo‘yi)	Juda yuqori (5/5)	Chatqol biosfera rezervati – 19 tur (Li et al., 2023)
7	2.2.6.2	Genetik resurslarni saqlash	Endemik va relikt o‘simlik turlari ulushi	807 turdan 64 tasi endemik yoki subendemik (7,9 %)	O‘rtacha-yuqori (4/5)	Ugam-Chatqol – 9,2 % (Groll et al., 2015)
Madaniy xizmatlar						
8	3.1.1.1	Jismoniy va tajribaviy foydalanish (ekoturizm salohiyati)	Tashrif buyuruvchilar soni va marshrutlar xavfsizligi	7 850 tashrifbuyuruvchi, 9 ta belgilangan marshrut, Zaraftsay petrogliflari mavjud	O‘rtacha (3/5)	Zomin – 28 000 tashrifbuyuruvchi (Sherov et al., 2022)

9	3.2.1.1	Ilmiy va ta’limiy ahamiyat	OTMlar bilan hamkorlik va talabalar amaliyoti	4 ta OTM bilan shartnoma, 120 talaba yillik amaliyoti, 10 ta doimiy sinnov maydonchasi	Yuqori (4/5)	Sary-Chelek – 3 ta OTM (Mamasydykov et al., 2023)

Nisbiy ahamiyat 5 ballik shkala bo‘yicha: 1 – past, 5 – global miqyosda muhim

4.2. Asosiy xulosalar

Suv tartibga solish va ta’minlash – qo‘riqxona Markaziy Osiyo tog‘li hududlari uchun eng muhim “suv minoralari”dan biri. 28 ta doimiy buloq va 11 ta yirik soy – bu mintaqada kamdan-kam uchraydigan barqaror gidrologik baza.

Bioxilma-xillikni saqlash xizmati global ahamiyatga ega: morxo‘r (Capra falconeri) va buxoro tog‘ qo‘yi (Ovis vignei bocharensis)ning O‘zbekistondagi eng yirik populyatsiyalari shu yerda saqlanmoqda. 2024-yilda bahorgi hisobda 120–140 bosh morxo‘r va 85–95 bosh buxoro tog‘ qo‘yi qayd etilgan.

O‘rmon ekotizimlari holati barqaror: 12 239,8 ga o‘rmonning 95 % dan ortig‘i “yaxshi” va “o‘rtacha” holatda. Bu Markaziy Osiyo tog‘dagi boshqa tog‘li qo‘riqxonalarga (masalan, Gissar – 48 %, Romit – 51 %) nisbatan yuqori ko‘rsatkich.

Madaniy xizmatlarning cheklanganligi qo‘riqxonaning qattiq rejimi (IUCN Ia) bilan to‘g‘ridan bog‘liq – bu xizmatning rivojlanishi uchun atrofda buffer zona tashkil qilish zarur.

Surxon davlat qo‘riqxonasining 2024-yil “Tabiat solnomasi” asosidagi biofizik tahlil Markaziy Osiyo tog‘li qattiq muhofaza hududlari uchun bir qator muhim xulosalarni berdi:

Suv ta’minoti va tartibga solish xizmati 28 ta doimiy buloq va 11 ta yirik soy tizimi qo‘riqxonani mintaqadagi eng muhim gidrologik “donor”ga aylantiradi. Bu ko‘rsatkich Chatqol biosfera rezervati (22 ta buloq; Mamatov et al., 2021) va Tojikistonning Romit qo‘riqxonasidan (19 ta buloq; Ahmadov et al., 2023) yuqori. O‘rmon qoplamining 52,5 % ni tashkil etishi va C-factorning 0,001–0,004 oralig‘ida bo‘lishi sel xavfini 200–300 baravar kamaytiradi – bu Markaziy Osiyo tog‘lari uchun eng yaxshi natijalardan biri hisoblanadi (solishtirish: Sary-Chelek – C = 0,003; Mamasydykov et al., 2023).

Bioxilma-xillikni saqlash xizmati 24 ta Qizil kitob umurtqali hayvoni (shu jumladan ikkitasi global CR darajasida) va 47 ta noyob o‘simlik turi qo‘riqxonani O‘zbekistonning eng muhim genofond omboriga aylantiradi. Morxo‘r va buxoro tog‘ qo‘yining populyatsiya zichligi (mos ravishda 0,51–0,60 va 0,36–0,41 bosh/km²) Tojikistonning Gissar qo‘riqxonasidagi ko‘rsatkichlardan (0,38 va 0,29 bosh/km²; Kirchhoff et al., 2021) yuqori. Bu qo‘riqxonaning qattiq rejimi (IUCN Ia) samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

O‘rmon ekotizimlari holati 12 239,8 ga o‘rmonning 95 % dan ortig‘i “yaxshi” va “o‘rtacha” holatda – bu Markaziy Osiyo tog‘ qo‘riqxonalari ichida eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri (Gissar – 48 %, Romit – 51 %). Archar va yong‘oq-arca o‘rmonlarining fenologik barqarorligi iqlim o‘zgarishiga qarshi yuqori chidamlilikni ko‘rsatadi.

Madaniy xizmatlarning cheklanganligi Yillik 7 850 tashrifbuyuruvchi va 9 ta belgilangan marshrut qo‘riqxonani rekreatsiya salohiyati bo‘yicha Zomin davlat qo‘riqxonasidan (28 000 tashrifbuyuruvchi; Sherov et al., 2022) ancha orqada qoldiradi. Bu farq qattiq rejim (IUCN Ia) bilan to‘liq izohlanadi va bioxilma-xillikni saqlash xizmati ustunligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Tabiat solnomasi”ning ilmiy salohiyati Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston (va sobiq Ittifoq) qo‘riqxonalarida 50 yildan beri to‘planayotgan “Tabiat solnomasi” xalqaro standartlarda (CICES v5.1) ekotizim xizmatlarini biofizik baholash uchun noyob va juda sifatli ma’lumotlar bazasidir. Bu tizim IPBES (2019) va EU MAES (Maes et al., 2018) talablariga to‘liq mos keladi va boshqa postsovet mamlakatlari uchun ham qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Surxon davlat qo‘riqxonasi 2024-yil “Tabiat solnomasi” ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan biofizik tahlil shuni aniq ko‘rsatdiki, ushbu qattiq rejimli (IUCN Ia) tog‘li qo‘riqxona Markaziy Osiyo miqyosida ekotizim xizmatlarining eng yuqori darajadagi yetkazib beruvchilaridan biridir.

- Suv ta’minoti va tartibga solish xizmati bo‘yicha 28 ta doimiy buloq va 52,5 % o‘rmon qoplamasi tufayli qo‘riqxona mintaqadagi eng barqaror gidrologik donorlardan biri hisoblanadi.
- Bioxilma-xillikni saqlash xizmati global ahamiyatga ega: Capra falconeri va Ovis vignei bocharensis turlarining O‘zbekistondagi eng yirik va barqaror populyatsiyalari shu yerda joylashgan.
- O‘rmon ekotizimlari holati va fenologik barqarorligi Markaziy Osiyo tog‘ qo‘riqxonalari orasida eng yuqori ko‘rsatkichlarni namoyish etmoqda.
- Madaniy xizmatlar qasddan cheklanganligi esa qattiq muhofaza rejimining bioxilma-xillik va tartibga soluvchi xizmatlar ustunligini ta’minlashdagi samaradorligini yana bir bor isbotlaydi.

Eng muhimi, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston va sobiq Sovet qo‘riqxonalarida 50 yildan beri to‘planib kelingan “Tabiat solnomasi” tizimi xalqaro standartlarda (CICES v5.1, IPBES, EU MAES) ekotizim xizmatlarini biofizik baholash uchun noyob, izchil va yuqori sifatli ma’lumotlar bazasidir. Ushbu tizimdan to‘g‘ri foydalanish Markaziy Osiyo va postsovet mamlakatlari uchun biofizik benchmarklar yaratishga imkon beradi.

Olingan natijalar birinchi marta Markaziy Osiyo tog‘li qattiq muhofaza hududlari uchun biofizik ko‘rsatkichlar bo‘yicha solishtirma ma’lumotlar bazasini shakllantiradi va kelgusida iqlim o‘zgarishi, landshaft degradatsiyasi va invaziv turlarning ta’sirini modellashtirish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, Surxon davlat qo‘riqxonasining yuqori biofizik salohiyati uning global muhofaza ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi va qattiq rejimning uzoq muddatli samaradorligini isbotlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ahmadov, A., Makhmudov, E., & Saidov, A. (2023). Biodiversity and ecosystem services of Romit State Nature Reserve, Tajikistan. *Biodiversity and Conservation*, 32(4), 1245–1267. https://doi.org/10.1007/s10531-023-02561-9
2. Critical Ecosystem Partnership Fund (CEPF). (2017). Ecosystem Profile: Mountains of Central Asia Biodiversity Hotspot. CEPF.
3. Crossman, N. D., Burkhard, B., Nedkov, S., Willemen, L., et al. (2013). A blueprint for mapping and modelling ecosystem services. *Ecosystem Services*, 4, 4–14. https://doi.org/10.1016/j.ecoser.2013.02.001
4. Daily, G. C. (Ed.). (1997). *Nature’s Services: Societal Dependence on Natural Ecosystems*. Island Press.
5. Gibbs, H. K., Brown, S., Niles, J. O., & Foley, J. A. (2007). Monitoring and estimating tropical forest carbon stocks: making REDD a reality. *Environmental Research Letters*, 2(4), 045023. https://doi.org/10.1088/1748-9326/2/4/045023
6. Groll, M., Opp, C., & Aslanov, I. (2015). Carbon stock estimation of selected watersheds in Uganda-Chatkal State Biosphere Reserve, Uzbekistan. *Journal of Mountain Science*, 12(5), 1148–1160. https://doi.org/10.1007/s11629-014-3349-6
7. Haines-Young, R., & Potschin, M. B. (2018). Common International Classification of Ecosystem Services (CICES) V5.1 and Guidance on the Application of the Revised Structure. Fabis Consulting Ltd. https://cices.eu
8. Kirchhoff, T., Brandt, J., & Hoheisel, D. (2021). Ecosystem services of Gissar State Nature Reserve, Tajikistan: a biophysical assessment. *Mountain Research and Development*, 41(2), R1–R11. https://doi.org/10.1659/MRD-JOURNAL-D-20-00054.1

9. Li, J., Wang, Y., & Zhang, Y., et al. (2023). Biodiversity conservation in Chatkal Biosphere Reserve, Uzbekistan: current status and challenges. *Global Ecology and Conservation*, 42, e02418. https://doi.org/10.1016/j.gecco.2023.e02418
10. Maes, J., Teller, A., Erhard, M., et al. (2018). Mapping and Assessment of Ecosystems and their Services (MAES): An analytical framework for ecosystem condition. Publications Office of the European Union.
11. Mamasydykov, M., Mamatov, S., & Kulenbekov, Z. (2023). Ecosystem services of Sary-Chelek Biosphere Reserve, Kyrgyzstan: biophysical indicators. *Ecological Indicators*, 146, 109845. https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2022.109845
12. Mamatov, S., Kulenbekov, Z., & Maier, A. (2021). Water-related ecosystem services of Chatkal State Biosphere Reserve, Uzbekistan. *Water*, 13(21), 3045. https://doi.org/10.3390/w13213045
13. Millennium Ecosystem Assessment (MEA). (2005). *Ecosystems and Human Well-being: Synthesis*. Island Press.
14. Myers, N., Mittermeier, R. A., Mittermeier, C. G., et al. (2000). Biodiversity hotspots for conservation priorities. *Nature*, 403, 853–858. https://doi.org/10.1038/35002501
15. Schröter, M., van der Zanden, E. H., van Oudenhoven, A. P. E., et al. (2014). Ecosystem services as a contested concept: a synthesis of critique and counter-arguments. *Conservation Letters*, 7(6), 514–523. https://doi.org/10.1111/conl.12091
16. Sherov, A., Mamanov, I., & Rakhimov, S. (2022). Monetary and non-monetary valuation of ecosystem services of Zomin State Nature Reserve, Uzbekistan. *Journal of Environmental Management*, 318, 115589. https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2022.115589
17. Surxon davlat qo‘riqxonasi. (2024). Tabiat solnomasi, II tom [Chronicle of Nature, Volume II]. Ichki hujjat, Sherobod.
18. Toderich, K., Shuyskaya, E., Rakhmankulova, Z., et al. (2024). Medicinal plants and ecosystem services of desert and semi-desert rangelands in Uzbekistan. *Land*, 13(2), 187. https://doi.org/10.3390/land13020187
19. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi, 1–2 tom. (2019). Toshkent: Chinor ENK.
20. IPBES. (2019). Global assessment report on biodiversity and ecosystem services. Intergovernmental Science-Policy Platform on Biodiversity and Ecosystem Services. https://doi.org/10.5281/zenodo.3831673

SAMARQAND VILOYATINING TURLI HUDUD TUPROQLARIDAN *AGROBACTERIUM TUMEFACIENS* BAKTERIYASINI AJRATIB OLISH

Udalova Marjona G‘ulomjon qizi, Xudoyorova Madina Mansur qizi
Eshbekova Guljahon G‘ofur qizi
Samarqand davlat Universiteti

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonning turli hududlaridan olingan tuproq namunalari asosida o‘simliklarda bakterial rak kasalligini chaqiruvchi *A.tumefaciens* bakteriyasini ajratib olish va identifikatsiya qilish ishlari olib borildi. Ushbu tadqiqotni Samarqand viloyatining 4 ta hududi: Samarqand shahri, Narpay, Urgut va Jomboy tumanlari hududlaridan olingan namunalar tarkibida *A. tumefaciens* bakteriyasi borligi o‘rganildi. Natijaga ko‘ra Samarqand shahar, Narpay va Urgut tuproq namunalarida natija chiqmadi faqat Jomboydan olib kelingan

tuproq namunalarida natija chiqdi. Bu natijalar kelajakda o‘simlik patologiyasi, qishloq xo‘jaligi mikrobiologiyasi va biotexnologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *A.tumefaciens*, bakterial rak, fitopotogen bakteriyalar, selektiv ozuqa, identifikatsiya, izolyatlar, infeksiya, o‘sma, transformatsiya, muhandislik.

Аннотация. В данном исследовании были проведены работы по выделению и идентификации бактерии A.tumefaciens, вызывающей бактериальный рак растений, на основе образцов почвы, взятых из различных регионов Узбекистана. В данном исследовании было изучено наличие бактерии A. tumefaciens в образцах, взятых из 4 регионов Самаркандской области: города Самарканда, Нарпайского, Ургутского и Джамбайского районов. Результаты не были получены в образцах почвы города Самарканда, Нарпая и Ургута, результаты были получены только в образцах почвы, привезенных из Джамбая. Эти результаты важны для будущих исследований в области патологии растений, сельскохозяйственной микробиологии и биотехнологических исследований.

Ключевые слова: *A. tumefaciens*, корончатый галл, фитопатогенные бактерии, селективная среда, идентификация, изоляты, инфекция, галлы, трансформация, инженерия.

Abstract. In this study, based on soil samples collected from various regions of Uzbekistan, the isolation and identification of *A. tumefaciens*, the bacterium that causes crown gall disease in plants, were carried out. The presence of *A. tumefaciens* was examined in samples taken from four districts of the Samarkand region: Samarkand city, Narpay, Urgut and Jomboy. According to the results, *A. tumefaciens* was not detected in soil samples from Samarkand city, Narpay and Urgut, while the samples collected from Jomboy showed a positive result. These findings are of great importance for future research in plant pathology, agricultural microbiology, and biotechnological studies.

Keywords: *A. tumefaciens*, crown gall, phytopathogenic bacteria, selective medium, identification, isolates, infection, tumor, transformation, engineering.

KIRISH

Agrobacterium tumefaciens - *Rhizobiaceae* oilasiga mansub gram-manfiy, tayoqcha shaklidagi tuproq bakteriyasi bo‘lib, o‘simliklarda bacterial rak kasalligining qo‘zg‘atuvchisi hisoblanadi [1]. Bu bakteriya avlodi har xil o‘simlik ildizlarida shish hosil qiladi va vakillari fitopatogen bakteriyalarga kiradi [2]. Bu kasallik patogenning o‘simlik hujayralari bilan o‘zaro ta’sir qilish va o‘zining dezoksiribonuklein kislotasining (DNK) bir qismini xo‘jayin hujayraga o‘tkazish qobiliyatidan kelib chiqadi. O‘ziga xos infeksiya usuli tufayli *A. tumefaciens* o‘simlik hujayralarining tabiiy genetik muhandisi hisoblanadi. Infeksiyani boshlash uchun bakteriyalar o‘simlikdagi jarohatlar orqali o‘simlik to‘qimalariga kirib boradi [3]. Asosiy muammo bu bakteriya toj o't kasalligi rivojlanishiga sabab bo'ladi.Bu kasallik zararli iqtisodiy muammo hisoblanadi va keng maydonlardagi o‘simliklarga ta’sir qiladi, chunki u shikastlanish joyidagi tuproqda yillar davomida aniqlanmaydi [4]. *A. tumefaciens*ni birinchi marta 1897-yil Fridianu Kavara o‘simlik o‘smalaridan ajratib olib o‘rganib boshlagan chunki u o‘sha paytda bakterial rak kasalligini o‘rganayotgan edi [5]. Keyinchalik 1907- yilda Smit va Taunsend tomonidan olib borilgan keying tadqiqotlar uni chindan ham ushbu kasallikka sababchi bakeriya ekanligini aniqladi. Keyingi yillarda olimlar uning DNK ni o‘simlik hujayralariga o‘tkazish qobiliyatini kashf etdilar, bu esa bakteriyaning o‘simliklar genetik muhandisligi va biotexnologiyasida muhim vosita sifatida qayta ishlatilishiga olib keldi. 1948-yil Artur Braun “o‘sma keltiruvchi prinsip” mavjudligini aniqladi va keyinchalik patogen bilan yuqtirilgan hujayralardan bakteriyasiz o‘smalar hosil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi. 1971- yilda Jozef Morel opinlarni aniqladi — bu molekulalar *Agrobacterium tumefaciens*ning oziqlanishi uchun ishlatiladi. 1975-yil Mark Van

Montagu va Jeff Schellning tadqiqotlari T-DNA bakteriyaning plazmididan o‘simlik xromosomalariga o‘tishini ko‘rsatdi.1977- yilda Chilton, Nester va ularning hamkasblari transformatsiyalangan o‘simliklarda Agrobacterium DNK sini aniqladilar.
1980- yili Schell va Nester genetik muhandislikda foydalanish uchun Ti plazmidini ishlab chiqdilar va o‘simliklarga yangi genlarni kiritish usulini yaratdilar. 1983- yilda esa Schell va Woo muhandislik qilingan genlar o‘simliklarda ifodalanishini ko‘rsatdilar, bu transgen o‘simliklarni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi. 2001- yili birinchi to‘liq *Agrobacterium* turi (C58) genomi ketma-ketligi nashr etildi, bu uning biologiyasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. [6].

Quyida bakteriyaning sistematikasi kelterilgan:

Bo‘lim: Proteobacteria- Proteobakteriyalar;
Sinf: Alphaproteobacteria- Alfaproteobakteriyalar;
Tartib: Rhizobiales- Rizobialar;
Oila: Rhizobiaceae- Rizobiaseylar;
Avlod: Agrobacterium- Agrobakteriya;
Tur: Agrobacerium tumefaciens [7].

Hozirgi kunda ba’zi manbalarda *A. tumefaciens* bakteriyasini “Rhizobium radiobacter,, deb ham atashmoqda. *A.tumefaciens* asosan chirindi miqdori yuqori bo‘lgan tuproqlarda qulay sharoitda yashashi mumkin. Chunki u o‘simlik ildizlari ajratmalari bilan oziqlanadi [8,9]. *Agrobacterium* kislotali tuproqlarda kam, neytral-ishqoriy tuproqlarda esa ko‘p uchraydi. Bu pH unga eng qulay sharoit yaratadi. U rizosferada, ya’ni o‘simlik ildizlari atrofida eng ko‘p bo‘ladi. Ayniqsa, mevali daraxt plantatsiyalarida, poliz ekinlari, uzumzorlar va bog‘larning tupqroqlarida [10]. Bundan tashqari, *Agrobacterium* ildiz, poya va barg kesmalarida tez o‘simta hosil qiladi. Bu bakteriyalarni labaratoriya sharoitlarida kalanchoe, sabzi, kabachki, kartoshka, pomidor, tamaki va boshqa sabzavot va mevalarga yuqtirib ularning virulentligini o‘rganish mumkin [11].


MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot uchun Samarqand shahar, Narpay, Urgut va Jomboy tumanlaridan tuproq namunalari olindi. Har bir hududdan turli xil o‘simliklar (yong‘oq navlari, pomidor, beda va tok) ildizi atrofidan 15-20 sm chuqur qismidan 10 grammdan 4 ta joydan namunalar steril paketlarda olib kelindi. So‘ngra labaratoriyada har bir tuproq namunalari suyultirib olindi. Dastlab probirkalarga 9 ml dan distirillangan suv va har bir namunadan 1 grammdan tuproq solindi, keyin hosil bo‘lgan suspenziya 10 marta va 100 marta suyultirib olindi [12].Bu bakteriyalni ekishda selektiv oziqadan foydalalaniladi (500 ml uchun: 500 ml distrillangan suv, 5 gramm achitqi ekstrakti, 10 gramm glukoza, 10 gramm kalsiy karbonat va 7,5 gramm agar) . So‘ng Laminar boksda har bir namunadan 0,1 ml dan olib LB ozuqasiga “gazon usuli,, da ekildi va termostatga 28 C^{o} ga 24-48 soatga qo‘yildi. So‘ngra 24-48 soat vaqt o‘tgach o‘sgan bakteriyalarni LB va laktoza agar (LA) ozuqasiga ekildi so‘ng yana termostatga 28C^{o} 24-48 soatga qo‘yildi. So‘ngra faqat LA ozuqasida o‘sgan bakteriyalarda Benedikt reaksiyasi (17.3 gr Natriy sitrat, 10 gr Natriy karbanat 60-70 ml 55 C^{o} darajadagi issiq suv, 1.73gr Mis kuporasi ($CuSO_4*5H_2O$) 10 ml) o‘tkazildi va 2-4 soatga qoldirildi [13].

LB agar ozuqasi tarkibi- 500 ml uchun:		LA ozuqasi tarkibi- 500 ml uchun:	
Agar	7,5 gramm	Agar	7,5 gramm
Triptofan	5 gramm	NaCI	2,5 gramm
Na CI	5 gramm	Pepton	5 gramm
Achitqi ekstrakti	2,5 gramm	Laktoza	5 gramm
Distrillangan suv	500 ml	Distrillangan suv	500 ml

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida Samarqand shahri, Narpay, Urgut va Jomboy tumanlarining turli qishloq xo‘jalik ekinlari o‘sadigan maydonlaridan jami 4 ta hudud bo‘yicha 16 ta tuproq namunasi yig‘ib olindi. Tuproq namunalarining har biri o‘simliklarning ildiz atrofi (pomidor, yo‘ng‘oq, beda, yantoq kabi o‘simliklar rizosferasi)dan olingan bo‘lib, ular tarkibida Agrobacterium turkumiga mansub bakteriyalar, xususan *A. tumefaciens* mavjudligini aniqlash maqsadida laboratoriya sharoitida tekshirildi. Tahlil jarayonida 16 ta tuproq namunalaridan jami 40 ta bakterial izolyatlar ajratib olindi va ularning har biri alohida diagnostik testlar asosida baholandi.Olingan natijalarga ko‘ra, faqat Jomboy tumanidan olingan tuproq namunalarida o‘simlik o‘smasini chaqiruvchi *A. tumefaciens* bakteriyasi aniqlangan bo‘lib, qolgan uch hudud — Samarqand shahri, Narpay va Urgut tumanlariga mansub tuproq namunalarida mazkur bakteriya uchramadi. Jomboy hududidan olingan izolyatlar orasidan 6 ta toza kulturada *A. tumefaciens* aniqlandi (S101, S401, S402, S404, S405 va S408 izolyatlar). Ushbu izolyatlar morfologik belgilar, rang o‘zgarishi va biokimyoviy reaksiyalari bo‘yicha *A. tumefaciens* ga xos xususiyatlarni namoyon qildi.Tuproq namunalarini aniqlash jarayonida Benedikt testi qo‘llanildi. Ushbu test bakteriyalar tomonidan ajratilgan ayrim metabolitlar ishtirokida rang o‘zgarishi orqali *A. tumefaciens* faoliyatini ko‘rsatadi. Test natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:



1-rasm. Tuproq namunalaridan ajratib olingan bakteriyalarni Benedikt testi asosida tekshirish:

A-Urgut tuproq namunasi: ko‘k rang o‘zgarmadi, A. tumefaciens aniqlanmadi; B- Jomboy tuproq namunasi: sariq rangga o‘tish kuzatildi, A. tumefaciens aniqlandi. C-Narpay tuproq namunasi: ko‘krang o‘zgarmadi, A. tumefaciens aniqlanmadi.

Benedikt testi natijalariga qo‘shimcha ravishda Jomboy tumani tuproqlarida o‘simliklarda kasallik qo‘zg‘atuvchi o‘smalar kuzatilganligi (ayniqsa Chandler va Paradox payvandtagi yong‘oq ildizlari atrofi) bu hududda *A. tumefaciens* faol tarqalganidan dalolat beradi. Shu bois Jomboy tumani tuproqlari yuqori darajada infektsiyalangan deb baholanishi mumkin.Aksincha, Samarqand shahri, Urgut va Narpay tumanlaridan olingan namunalar morfologik va biokimyoviy testlar bo‘yicha salbiy natija ko‘rsatdi. Bu hududlarda *A. tumefaciens* ning tabiiy tarqalishi past yoki ularning tuproq sharoiti bakteriya uchun qulay emasligini taxmin qilish mumkin. Shuningdek, ushbu hududlarda o‘simliklarda shish (o‘sma) tipidagi zararlanish holatlari qayd etilmagani laboratoriya natijalarini yana bir bor tasdiqlaydi.Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqotlar Jomboy tumanida Agrobacterium tumefaciens ning ancha faol tarqalganligini, boshqa hududlarda esa bakteriyaning mavjud emasligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar kelgusida tuproqni fitopatogenlar bo‘yicha monitoring qilish, o‘simlik kasalliklarini oldindan bashorat qilish va hududlar bo‘yicha xavf darajasini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu tadqiqot davomida Samarqand shahar, Narpay va Urgut tumani hududlaridan olingan tuproq namubalaridan *A. tumefaciens* ajratib olinmadi. Biroq Jomboy tumani tuproq namunasida

o‘tkazilgan selektiv ekish, morfologik kuzatuvlar va qo‘shimcha biokimyoviy testlar natijasida *A. tumefaciensga* xos belgilar aniqlandi va ushbu bakteriya muvaffaqiyatli ajratib olindi. Bu har bir hudud tuprog‘ining turli xil xususiyatlari fizik-kimyoviy tarkibi, pH ko‘rsatkichi yoki namlik darajasidagi farqlar sababli bo‘lishi mumkin

Tavsiyalar. Kelajakda kasallangan tuproqdan *A. tumefaciens* ni ajratib olib ularni virulentlik xususiyatlari, xarakteristikasi, biokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish lozim. Ajratilgan koloniyalarda vir genlari bo‘yicha PCR tahlil o‘tkazish bakteriyaning aniq identifikatsiyasini beradi va natijani mustahkamlaydi.Jomboy tuprog‘idagi pH, namlik, organik modda, chirindi miqdori aniqlanib, boshqa hududlar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanishi kerak. Bundan tashqari, ajratib olingan bakteriyani gen muhandisligi uchun inokulyant sifasida ishlatish mumkin, shuning uchun uning Ti-plazmasining holati tekshirilib o‘rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR.

1. History and current taxonomic status of genus Agrobacterium. Article. 2019 y.
2. X.M. Komilov , M.M.Rahimov, D,Yu. Odilbekova . Biotexnologiya asoslari. Toshkent. 2010-yil.
3. MARTEN H. RYDER, JOHN E. SLOTA, ANNA SCARIM,AND STEPHEN K. FARRANDE. Genetic Analysis of Agrocin 84 production and Immunity in Agrobacterium spp. Journal. 1987 y.
4. Matthew,A.E; and Abhaya M.D. *Agrabacterium tumefaciens* as an agent of disease. TRENDS in Plant Science. 2003 y.
5. Historical account on gaining insights on the mechanism of crown gall tumorigenesis induced by Agrobacterium tumefaciens. REVIEW article. Microbiol 2014 y.
6. Alpine. Bio. The history of Agrobacterium. 2024 y.
7. Spiers A.G Isolation and characterisation of Agrobacterium species . New Zealand Journal of Agricultural Reasearch. 1979 y.
8. “ Serial Dilution Protocols,, - American society for Microbiology (ASM).
9. Seasonal fluctuations and longterm persistence of pathogenic populations of Agrobacterium spp. In soils. Journal Microbiol 2002 y .
10. PubMed.ncbi.nlm.nih.gov sayti.
11. Agrobacterium tumefaciens Enhances Biosynthesis of Two Distinct Auxins in the Formation of crown Galls. 2019 y.
12. Isolation and Characterization of Agrobacterium Strains From soil: A laboratory Capstone Experiense. Journal of Microbilogy. 2016 y.
13. Eshbekova. G. Juglans regia L. ning Agrobacterium tumrfaciens ga chidamli mahalliy formalarini tanlash va mikroklonal ko‘paytirish nomli dissertatsiya ishidan. 2025- yil.

ФЛОРИСТИЧЕСКИЙ И ФАУНИСТИЧЕСКИЙ СОСТАВ СЕВЕРА ВОСТОЧНОГО ЧАСТИ ОСУШЕННОГО ДНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ (АКПЕТКИНСКИЙ МАССИВ)

[1]Аймуратов Рапат Парахатович, [2]Буриев Салимжан Самеджанович
[2]Тулаев Журабек Абдурахим угли
[1]Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук, Каракалпакское отделение Академии наук Республики Узбекистан
[2] Научно-исследовательский институт окружающей среды и природоохранных технологий

Аннотация. В статье исследован флористический и фаунистический состав осушенного дна Аральского моря на массиве Акпетки. По результатам исследования на изученной территории выявлено 31 вид высших растений, включая кустарники, полукустарники и многолетние травянистые растения. Фауна представлена 25 видами млекопитающих, 25 видами птиц и 9 видами пресмыкающихся.

Ключевые слова: осушенное дно Аральского моря; Акпеткинский массив; флористический состав; фаунистический состав; растительные сообщества; псаммофильные виды; галофиты; засоленные почвы; динамика растительности; млекопитающие; орнитофауна; рептилии; экологическая эволюция ландшафтов.

Аннотация. Мақолада Орол денгизининг қуриган туби Акпетки массивидаги флористик ва фаунистик таркиб тадқиқ этилган. Тадқиқот натижаларига кўра, ўрганилган ҳудудда дарахтлар, буталар, ярим буталар ва кўп йиллик ўтларнинг 31 тури аниқланди. Фаунанинг асосий қисмини 25 тур сут эмизувчилар, 25 тур қушлар ва 9 тур судралиб юрувчилар ташкил этади.

Калит сўзлар: Орол денгизининг қуриган туби; Акпеткин массиви; флористик таркиб; фаунистик таркиб; ўсимлик жамоалари; псаммофіл турлар; галофитлар; шўрланган тупроқлар; ўсимликлар динамикаси; сутемизувчилар; қушлар фаунаси; судралиб юрувчилар; ландшафтларнинг экологик эволюцияси.

Abstract. The article examines the floristic and faunistic composition of the dried bed of the Aral Sea in the Akpetki massif. According to the study results, 31 species of higher plants, including shrubs, subshrubs, and perennial herbaceous plants, were identified in the studied area. The fauna comprises 25 species of mammals, 25 species of birds, and 9 species of reptiles.

Keywords: desiccated Aral Sea bed; Akpetkin massif; floristic composition; faunistic composition; plant communities; psammophilous species; halophytes; saline soils; vegetation dynamics; mammals; avifauna; reptiles; ecological landscape evolution.

ВВЕДЕНИЕ

С прекращением стока Амударьи в Аралское море, с 1970 года общая площадь осушенного дна Аральского моря превысила 4 млн. гектаров. Наиболее чётко процессы современной эволюции ландшафтов - обсыхание, соленакопление, зарастание, снижение уровня грунтовых вод - проявляются на территории Акпеткинского массива. Ландшафты осушенного дна Арала были подробно описаны в ряде исследований.




Рисунок 1. Места исследований.

Акпеткинский массив расположен между Северо-Западным Кызылкумом и Аралкумом, в приморском районе Кокдарьи (рисунок 1). Поверхность почвы покрыта густым ракушником. Почвы представлены корковыми и пухлыми солончаками, отличающимися высокой степенью засоления и такыровидной структурой. В водной вытяжке верхнего горизонта содержание ионов сульфата и хлорида достигает 14,0–16,0 мг/экв. Преобладают соли натрия (1,3–2,6%), кальция и магния. Уровень грунтовых вод располагается ниже глубины 3 метров.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Выбор участка и картирование, изучение флоры и фауны. Определение видов растений, измерение их высоты, количества и состояния с использованием прямых замеров. Териофауна и орнитофауна исследованы путем визуальных наблюдений и учета, определено обилие и ландшафтное распределение видов. Анализ динамики: этапы формирования растительности и фауны исследованы с учетом исторических данных и полевых наблюдений [19, 20].

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Согласно данным [5], в первый год аридизации господствующим видом является солерос; на второй год появляется тамарикс. Продолжительность этой стадии составляет 4–5 лет. На 8–9 год однолетние растения полностью исчезают. Через 15–20 лет формируются черносаксаулово-астрагалово-климакоптеровые, тамарисково-тростниковые, жантаково-акбасовые сообщества. В настоящее время растительный покров представлен сведово-джингиловыми, однолетниково-джингиловыми, джингилово-тростниковыми, черносаксаулово-джингиловыми фитокоэнозами. Наблюдается смена растительности от солеросово-лебедовой к черносаксаулово-кустарниковой, что ведёт к формированию типичных пустынных сообществ.

Флористический состав включает 31 видов высших дикорастущих растений, среди них: кустарники - 3 вида, полукустарники - 3, многолетние травянистые растения - 24, деревья - 1 вид. Господствующими видами являются *Tamarix ramosissima*, *Tamarix hispida*, *Haloxylon aphyllum*, *Halostachys caspica*, *Climocoptera aralensis*, *Salicornia europaea*. Реже встречаются *Karelinia caspica*, *Phragmites australis*, *Salsola foliosa*, *Astragalus dendroides*.

Формирование растительного покрова севера восточного части осушенного дна Аральского моря изучено достаточно подробно [5]. На Акпеткинском массиве в первые 1–2 года после осушения формируется чистое солеросовое сообщество; затем появляются сведа и бассия. В течение последующих 4–5 лет изредка встречается *Tamarix pentandra*. В пониженных участках развиваются *Phragmites australis*, *Karelinia capsica*, позже — *Tamarix pentandra*, *Lycium ruthenicum*.

В настоящее время на полузакреплённых песках сформировались саксауловые леса с проективным покрытием 65–75%. С запада на восток после полосы саксаула располагается корково-солончаковый участок без растительности, а далее - пониженные территории с кустарниковыми тамарисковыми сообществами.

После осушения на Акпеткинском массиве развились тростниково-солеросовые сообщества (*Phragmites australis* + *Salicornia europaea*), затем - редкие тамарисковые сообщества с участием тростника (*Tamarix hispida* + *Phragmites australis*), солянково-псаммофильные сообщества и псаммофильные фитоценозы (*Haloxylon aphyllum* + *Tamarix pentandra*).

В настоящее время здесь сформировались закреплённые и полузакреплённые барханные пески с кустарниками и полукустарниками, между которыми расположены дюны. В перспективе возможно развитие чисто псаммофильных и галофильных типов растительности песчаных пустынь.

Почвы Акпеткинского массива представлены такыровидно-солончаковыми разновидностями (толщина солевой корки 0,3–1,2 см) с участием тамарикса, джузгуна и солянковых видов; закреплёнными и полузакреплёнными песками с саксаульными зарослями; участками с однолетними травянистыми растениями; суглинистыми, глинистыми и солеросово-сведовыми комплексами [14,18].

Растительный покров крайне разреженный: 75–95% территории остаётся без растительности. Флористический состав включает 31 вид высших растений (табл. 1).

Таблица 1

Флористический состав осушенного дна Аральского моря (Акпеткинский массив)

Виды	Высота растений, см	Обилие	Жизненность
Ephedra distachya	78	sol	уг
Calamagrostis dubia	70–150	sol	уг
Phragmites australis	120	sp	н
Aeluropus littoralis	20–30	sp	н
Eremopyrum orientale	5–15	cop	н
Atraphaxis spinosa	65–75	sol	н
Atriplex spinosa	50	sol	уг
Corispermum aralocaspicum	20	sol	н
Halostachys caspica	70–90	cop	н
Halocnemum strobilaceum	75–100	sol	н
Suaeda altissima	60	sp	н
Salsola dendroides	35–50	sol	н
Salsola nitraria	65	sol	н
Salsola foliosa	25	sp	н
Horaninovia ulicina	55	sol	н
Haloxylon aphyllum	235	cop	н
Malcolmia grandiflora	170	sol	н
Ammodendron conollyi	145–250	cop	н
Alhagi pseudoalhagi	90–100	sol	н
Peganum harmala	25–30	sp	н
Zygophyllum oxianum	25–80	sp	н
Nitraria sibirica	90–100	sol	н

Tamarix hispida	170	sol	н
Tamarix pentandra	145	sp	уг
Limonium otolepis	35–45	sol	уг
Convolvulus fruticosus	59–100	sol	н
Convolvulus erinaceus	35–75	sol	н
Heliotropium arguzioides	35–55	sol	н
Lappula spinocarpa	55	sp	н
Lycium ruthenicum	29–150	sol	н

Примечание: *sol – малочисленно, sp – небольшое количество, cop – обильно, уг – угнетённое состояние, н – нормальное состояние*

По характеру почвенно-растительного покрова изучаемого региона наблюдается формирование фаунистического комплекса, типичного для псаммофильных видов песчаных и гипсовых пустынь.

По данным [7,8], становление териофауны осушенной части Аральского моря происходит за счёт фаунистических комплексов млекопитающих Южного Приаралья, главным образом благодаря расселению типичных пустынных группировок и заселению новообразованных пустынных участков инкрозальными и эвритопными видами.

Согласно литературным источникам [9,13], на осушенной акватории Акпеткинского массива отмечено 16 видов грызунов, из которых лишь 3 являются многочисленными, 5 — обычными, остальные — редкими.

На осушенном дне в данный период зарегистрировано 11 видов мелких млекопитающих, включая: заяц-толай (Lepus tolai Pallas), гребенщиковая и полуденная песчанка (Meriones tamariscinus Pallas, Meriones meridianus Pallas), домовая мышь (Mus musculus L.). Из птиц встречаются: степной орёл (Aquila rapax Temminck), саксауловая сойка (Podoces panderi Fischer), жаворонок (Galerida cristata), ворона (Corvus corone L.). Из пресмыкающихся отмечены: степная черепаха (Testudo horsfieldii Gray), змея-стрела (Psammophis lineolatus), быстрая ящурка (Eremias velox), песчанная круглоголовка (Phrynocephalus interscapularis). Большинство перечисленных видов встречаются редко.

В последние годы на осушенной территории фиксируется 25 видов млекопитающих, среди них: 13 видов грызунов, 2 вида рукокрылых, 7 видов хищных, 1 вид копытных, 1 вид зайцеобразных.

После осушения первыми заселяют территорию малый тушканчик, тарбаганчик и домовая мышь. Через 15–20 лет появляются гребенщиковая, полуденная и большая песчанки, а затем - суслик и заяц-толай (табл. 2).

Таблица 2

Ландшафтное распределение млекопитающих (Акпеткинский массив)

Виды	**Восточная часть**	**Южная часть**	**Западная часть**
Hemiechinus auritus Gmelin	+	++	++
Pipistrellus pipistrellus Schreber	+	+	++
Eptesicus serotinus Schreber	–	+	+
Lepus tolai Pallas	+++	+++	+++
Spermophilopsis leptodactylus Lichtenstein	+	–	–
Sitellus (Colobotis) fulvus Lichtenstein	++	+	+
Allactaga (Allactaga) severtzovi Vinogradov	+	–	+
Allactaga (Allactaga) elater Lichtenstein	+++	+++	++
Allactaga (Allactaga) saltator Eversmann	–	–	+
Dipus sagitta Pallas	+++	+	++
Nesokia indica Gray	+	++	++
Mus musculus L.	+++	+++	+++

Cricetulus migratorius Pallas	+	+	+
Meriones tamariscinus Pallas	+++	+++	+++
Meriones meridianus Pallas	++	+++	+++
Rhombomys opimus Lichtenstein	+++	++	+++
Ellobius talpinus Pallas	++	++	++
Canis lupus L.	+	–	+
Canis aureus L.	++	+++	++
Vulpes vulpes L.	++	+	++
Vulpes corsac L.	++	+	++
Mustela nivalis L.	–	+	+
Mustela eversmanni Lesson	+	+	+
Felis chaus Guldenstaedt	+	+++	+
Sus scrofa	–	+	–

Примеч.: *+++ - многочисленно. ++ - обычно. + - редько. – - отсутствует.*

На осушенном дне нами описано 25 видов птиц. Основными фоновыми видами являются жаворонки, саксаульная сойка, пустынная каменка и др. (табл.3).

Таблица-3

Видовой состав и ландшафтное распространение птиц (Акпеткинский массив)

Научное название	**Восточная часть**	**Южная часть**	**Западная часть**	**Оседлые**	**Перелетные**	**Зимующие**	**категории**			**Статус**
							I	**II**	**III**	
Neophron percnopterus			+		+					
Gyps fulvus			+	+					+	UzRdB
Circaetus gallicus			+		+			+		UzRdB
Circus macrourus	+	+	+		+				+	UzRdB, LRdB
Charadrius alexandrinus		+			+					
Pterocles orientalis	+	+	+		+					
Syrrhaptes paradoxus			+			+				
Columba livia		+		+						
Cuculus canorus		+			+					
Apus apus		+			+					
Melanocorypha yeltoniensis	+	+	+		+					
Calandrella cinerea		+	+		+					
Eremophila alpestris	+	+	+		+					
Alauda arvensis			+							
Motacilla alba		+			+	+				
Phylloscopus collybita		+			+					
Oenanthe isabellina	+	+	+		+					
Oenanthe oenanthe					+					
Oenanthe deserti	+		+		+					
Hippolais rama		+			+					
Sylvia nana			+							
Podoces panderi	+	+	+	+						
Corvus monedula		+		+						
Corvus corone		+		+						

Corvus cornix		+			+					

Примечание: *Категории охраны: I — Виды, находящиеся под угрозой исчезновения, II — Уязвимые виды, III — Близкие к уязвимым видам, UzRdB — Красная книга Республики Узбекистан, LRdB — Международная Красная книга (IUCN Red List)*

В настоящее время на территории осушенного дна Аральского моря отмечено 9 видов пресмыкающихся. Основными обитателями региона являются такырная круглоголовка, быстрая ящурка, стрела-змея, а также степная агама, среднеазиатская черепаха, серый варан и др. (табл. 4).

Таблица- 4

Видовой состав и ландшафтное распределение пресмыкающихся (Акпеткинский массив)

Виды	Восточная часть	Южная часть	Западная часть
Testudo horsfieldi Gray	+	+	+
Teratoscincus scincus Schlegel	+	+	+
Agama sanguinolenta	+	+	+
Phrynocephalus helioscopus	–	–	+
Phrynocephalus interscapularis	+	–	–
Varanus griseus	+	–	–
Eremias velox	+	+	+
Psammophis lineolatus	+	+	+
Echis cf. rinatus	+	+	–

На осушенном дне моря продолжается смена растительного покрова, что сопровождается активным переселением животных из соседних территорий.

В последние годы на всей площади осушенного дна ведутся интенсивные геологоразведочные работы. В результате техногенного воздействия разрушается верхний тонкий (0,2–1,2 см) засоленный корковый слой почвы. Уже после прохождения одной автомашины или трактора верхняя корка полностью разрушается, оголяя сильно засолённый песчано-суглинистый горизонт. При слабом ветре на открытых участках в воздух поднимается солёная пыль, что приводит к формированию новых очагов солепылепереноса.

Следует подчеркнуть, что выполнение природоохранных требований должно находиться под строгим контролем сотрудников Национального комитета экологии и изменения климата Республики Узбекистан, поскольку геологоразведочные организации не всегда соблюдают экологические нормы.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На осушенной акватории Аральского моря описаны 24 вида млекопитающих, из них 2 - рукокрылые, 13 - грызуны, 1 - копытные, 1 – зайцеобразные, 25 видов птиц и 9 видов пресмыкающихся.

Отмечается тенденция миграции и расселения животных из прилегающих районов. Охране подлежат следующие виды животных: млекопитающие: кабан, камышовый кот, ласка, жёлтый суслик; птицы: белоголовый сип, змееяд, степной лунь, саджа и рептилии: степная черепаха, сцинковый геккон.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдреймов Т. Экология птиц тугайных ландшафтов низовьев Амударьи: автореф. дис. канд. биол. наук. — Ташкент, 1971.
2. Ажимуратов Х. Материалы к экологии водоплавающих птиц низовьев Амударьи // Материалы VI Всесоюзной орнитологической конференции. Ч. 2. - М.: Изд-во МГУ, 1974.

3. Акжигитова Н.И. Галофитная растительность Средней Азии и её индикационные свойства. - 1982.
4. Аметов М. Птицы Каракалпакии и их охрана. - Нукус: Каракалпакстан, 1981.
5. Аметов М. Редкие и исчезающие виды животных Каракалпакстана. - Нукус: Билим, 2002.
6. Бахиев А.Б. Экология и смена растительных сообществ низовьев Амударьи. - Ташкент: Фан, 1985. — 192 с.
7. Бахиев А.Б. Растительные индикаторы засоления почв и грунтовых вод в дельте Амударьи. - Ташкент: Фан, 1979.
8. Бондаренко О.Н. Определитель высших растений Каракалпакии. - Ташкент, 1964.
9. Гранитов И.И. Растительный покров // Устюрт Каракалпакии: его природа и хозяйство. — Ташкент: АН РУз, 1949. - С. 72–145.
10. Ережепов С.Е. Флора Каракалпакии, её хозяйственная характеристика, использование и охрана. - Ташкент: Фан, 1978.
11. Жалгасбаев Ж. Изменение растительности юга Приаралья с зарегулированием стока Амударьи // Тезисы докладов Всесоюзной конференции по проблемам изучения, охраны и рационального использования водных ресурсов. - М., 1983**.**
12. Shodmurodov Khabibullo1, Adilov Bekzod1, Raximova Tashkhonum1, Raximova Nodira1, Vokhidov Yusuf 3Some Notes on the Key Botanical Territories of Usturt (Uzbekistan) and the Influence of Oil ands Gaz Industries on Them. American Jornal of Plants Sciences. 2017, 8, 2811-2824.
13. Аимбетов, Н. К. Тлеумуратова, Б. С. Аймуратов Р.П. Динамика и потенциал природной среди Каракалпакстана. Монография Нукус – «Илим» 2017.-стр. 78-93.
14. Орел М.М. Турманова О. Тлеуов А. Почвенные условия осушенного дна Аральского моря при проведении фитомелиоративных работ. Вестник ККО АН РУз. Нукус, 2019 №3. С.57-64.
15.Аймуратов Р.П. Каирбаев А.Ш· Разработка методов закрепления соле-пылепереноса северо-западной части осушенного дна Аральского моря путем посева засухо-солеустойчивых растений в целях обеспечении экологической безопасности Южного Приаралья”.//Вестник ККО АН РУз. Нукус, 2023. №2
16. Aymuratov Rapat[1], Abduraimov Ozodbek[2], Shomuradov Habibullo[2], Abduraimov Azizbek[3], Adilov Bekzod[2] Poisonous Plants of the Karakalpak Part of the Usturt Plateau (UZBEKISTAN). American Journal of Plants Siences. 2024, 15, 83-94. https: // www.scirp.org/ journal/aips ISSSN Online:2158-2750 ISSSN Print:2158-2742
17. Р. П. Аймуратов, С.М.Мамбетуллаева, И.И.Юсупов. Орол денгизининг шимолий ғарбий қисмидаги қумликларда чўлга мос бўлган галофит ўсимликлар экотизимини ташкил этиш истиқоллари. Development Of Science 2025 / 11 Issue 11. Volume 2.https://devos.uz/article.php?id=2432 Юсупов. И. И., Мамбетуллаева. С. М., Аймуратов. Р. П., Мамбетуллаева С. М. & Айтмуратов Р. П.
18. Jumanov , M., Isayev, R., Alimbetov, A., Aseminova, D., Tajetdinov, M., Ubaydullayeva, E., … Matmuratov, M. (2024). AQPETKEY ARXIPELAGI TUPROQ MAKROFAUNASI DOMINANT TURLARINING BIOEKOLOGIYASI. Actual Problems and Prospects of the Study of the Fauna, 1(01). Retrieved from https://ojs.qarshidu.uz/index.php/mt/article/view/821
19. Мардонова Л., Хуррамов Ф. (2021 г) «Методическое Руководство по ведению государственного учета и мониторинга объектов животного и растительного мира Республики Узбекистан».
20. Мардонова Л., Хуррамов Ф. (2021 г) «Определитель основных видов диких животных, обитающых на охраняемых природных территориях Республики Узбекистан».

OZIQ – OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING PARADIGMASI

Akbarov Azizbek Abdusattarovich
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, Ekologik partiya fraksiyasi a’zosi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) texnologiyalarining ahamiyati, shuningdek, ulardan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish imkoniyatlari tahlil qilingan. GMO texnologiyalarining ekologik, biologik hamda ma’naviy jihatlari ko‘rib chiqilib, ularning inson salomatligi, tabiiy muhit va biologik xilma-xillikka ta’siri baholangan. Shuningdek, O‘zbekistonda bioxavfsizlikni ta’minlash, GMOni tartibga solish va monitoring qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tashkiliy-huquqiy choralar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, GMO, gen muhandisligi, qishloq xo‘jaligi, atrof-muhit, biologik xilma-xillik.

Аннотация. В данной статье проанализирована значимость технологий генетически модифицированных организмов (ГМО) в обеспечении продовольственной безопасности, а также возможности их применения для повышения урожайности сельского хозяйства и адаптации к изменениям климата. Рассмотрены экологические, биологические и этические аспекты ГМО-технологий, оценено их влияние на здоровье человека, природную среду и биологическое разнообразие. Кроме того, освещены организационно-правовые меры, реализуемые в Узбекистане по обеспечению биобезопасности, регулированию использования ГМО и осуществлению мониторинга.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, ГМО, генная инженерия, сельское хозяйство, окружающая среда, биологическое разнообразие.

Abstract. This article analyzes the significance of genetically modified organisms (GMOs) in ensuring food security, as well as the potential of their application to increase agricultural productivity and enhance resilience to climate change. The ecological, biological, and ethical dimensions of GMO technologies are examined, and their impacts on human health, the natural environment, and biological diversity are assessed. In addition, the article highlights the organizational and legal measures being implemented in Uzbekistan to ensure biosafety, regulate the use of GMOs, and conduct effective monitoring.

Keywords: food security, GMOs, genetic engineering, agriculture, environment, biodiversity.

KIRISH

Hozirgi kunda global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi jahon hamjamiyati oldida eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. Iqlim o‘zgarishi, aholi sonining ortishi, sug‘oriladigan yerlarning qisqarishi va su resurslarining cheklanganligi qishloq xo‘jaligida samarali va barqaror usullarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)dan foydalanish zamonaviy biotexnologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rilmoqda.

Mazkur maqolada GMO texnologiyalarining qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati, uning afzalliklari va ehtimoliy xavflari, shuningdek, O‘zbekistonda bioxavfsizlikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

GMO — bu **GENETIK MODIFIKATSIYALANGAN ORGANIZM,** bu organizmlarning (o‘simliklar, hayvonlar yoki mikroorganizmlar) genlari laboratoriya sharoitida inson tomonidan o‘zgartirilgan bo‘ladi.

GMO qanday yaratiladi – Gen muhnadisligi orqali bir oganizmdan olingan gen (masalan, zararli hasharotlarga chidamlilik genini) boshqa organizmga qo‘shiladi.

Masalan:

geni o‘zgartirilgan paxta – hasharotlarga chidamli qilib yaratiladi;

geni o‘zgartirilgan dukkakli o‘simliklar – suvsizlikka chidamli o‘sadigan qilib o‘zgartiriladi;

geni o‘zgartirilgan pomidor – uzoq muddat saqlanish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

GMO – gen muhandsiligi yordamida organizmga yangi xossalar (alohida gerbisidlarga, zararkunandalarga, kasalliklarga, iqlim o‘zgarishlariga, hosildorlik, kaloriyalik) va sifatlar (rangi, tarkibi, saqlash muddatlari davomiyligi, yetilish muddatlari va boshqalar) berish uchun genotipi o‘zgartirilgan o‘simlik yoki hayvonot organizmidir.

GMOning afzalliklari tomonilari o‘simlikning hasharotlar va kasalliklarga chidamli bo‘lishi, qiyin iqlim sharoitlariga moslashishi hamda hosildorlikni oshiradi.

Ma’lumki, oziq – ovqat mahsulotining sifati va havfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishilaridan biridir. So‘ngi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirlayotgan islohotlar qishloq xo‘jaligini tubdan diversifikatsiya qilish va aholini asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlash, ularni katta miqdorda eksport qilish imkoniyatini beradi.

Bu borada ko‘rilgan chora-tadbirlar tufayli qishloq xo‘jaligida oziq-ovqat ekinlari ekish qo‘llab-quvvatlanishi natijasida yurtimizning ko‘plab hududlari qisqa fursatda jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan meva va sabzavot yetishtirib eksport qila oladigan hududlarga aylandi.

Aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun ularning mazkur yo‘nalishdagi bir qator konstitutsiyaviy huquqlari, jumladan, iste’molchi huquqlari ustuvorligini ta’minlashning, ya’ni tashkiliy, ijtimoiy, iqtisodiy va xuquqiy shartlari yaratildi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan ma’qullangan “O‘zbekiston Respublikasining biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo‘yicha Kartaxen protokoliga qo‘shilishi to‘g‘risida (Monreal, 2019 yil 29 yanvar)”gi qonun loyihasi hamda ushbu qonun loyihasini yurtimizda ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Biologik xilma-xillik haqidagi Konvensiyaning bioxavfsizlik bo‘yicha Kartaxen protokoli qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 11 may kungi 275 – sonli qarori ushbu yo‘nalishidagi qadamlardan biri bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Kartaxen protokolining asosiy maqsadi mazkur bayonnoma tomonlarga atrof-muhit va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan geni modifikatsiyalangan organizmlar (GMO)larni xavfsiz topshirish, qayta ishlash, ulardan foydalanish va import-eksport sohasida himoyani ta’minlashda asosiy xalqaro hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

GMOning atrof - muhit va inson salomatligiga zararli ta’sirini baholash uchun BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) yordamida ishlab chiqilgan Biologik xilma-xillik to‘g‘risdagi Konvensiya va Bioxavfsizlik bo‘yicha Kartaxen protokoliga 2025 yil xolatiga dunyoning 173 ta davlat hamda xalqaro tashkilot sifatida Yevropa Ittifoqi (YeI) qo‘shilgan.

Genetik modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanish foydalanish biz uchun foydalimi yo zararli? Mutaxassislar o‘rtasida hozirgi kunga qadar ushbu sohada qarashlar turli-tuman bo‘lib hozirga qadar foydali tomonlari ko‘proq natijasini ko‘rsatayotgan bo‘lsa zararli tomonlarini ham o‘rganish ishlari olib borilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoda eng ko‘p yetishtirilayotgan GMO mahsulotlari quyidagicha ko‘rsatkichlarga ega;

2024 yil dunyo qishloq xo‘jaligi ma’lumotlarini taxlil qiladigan bo‘lsak soya - 98,9 mln.gektarda yetishtirilgan bo‘lsa ushbu maydonning 48,9%da, g‘o‘za – 66,2 mln.gektarning

32,7%da, makkajo‘xori – 25,4 mln.gektarning 12,6%da, lavlagi – 2 mln.gektarning 1 foizi GMO mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda **(1).**

GMO mahsulotlarini ishlab chiqarishda dunyoning bir qator mamlakatlari tomonidan taqiqlar qo‘yilgan. Buning asosiy sabablari qilib GMO mahsulotlar inson sog‘lig‘i, mahalliy qishloq xo‘jaligiga xavf solishi, ekotizimga ta’siri, tabiiy biologik xilma-xillikning kamayishi bo‘yicha tahdidlar borligi uchun ushbu mahsulotlarni ba’zi davlatlarga olib kirish yoki ishlab chiqarishga taqiqlar qo‘yilgan.

GMO mahsulotlarini foydali tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, 2024 yilda dunyoda 209.8 million gektar maydonga genetik modifikatsiyalangan (GMO) o‘simliklar yetishtirilgan. Bu 2023 yilga nisbatan 1.9% o‘sishni ko‘rsatadi (1).

Hozirgi kunda genetik modifikatsiyalangan (GMO) o‘simliklardan foydalanish dunyo bo‘ylab qishloq xo‘jaligida muhim iqtisodiy foyda keltirmoqda. 2020 yilda GMO texnologiyasidan foydalangan fermerlar $18.8 milliard qo‘shimcha daromad olgan, bu umumiy hosilning 5.9% oshishini anglatadi. 1996–2020 yillarda GMO texnologiyasidan foydalanish natijasida umumiy $261.3 milliard qo‘shimcha fermer daromadi kelib chiqqan. O‘rtacha hisobda, har bir gektar uchun $112 qo‘shimcha daromad olingan. Tarmoq bo‘yicha, 72% foyda hosildorlikning oshishi va 28% xarajatlarning kamayishi orqali kelgan **(1).**

Ma’lumotlarga qaraganda qishloq xo‘jaligiga GMO mahsulotlari kirib kelishi natijasida 1996–2018 yillar oralig‘ida GMO ekinlar ishlatilishi tufayli 776 mln.kg kamroq pestisid ishlatilgan va 8.6% umumiy kamayish deganidir. Bu esa o‘z navbatida atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatib karbonat angidrid gazlari atmosferaga chiqishi 27,1 mln.tonnaga kamayishiga erishilgan **(1).**

Har bir ixtironing foydali tomonlari bilan bir qatorda albatta salbiy tomonlari ham aniqlanishi mumkin.

GMO mahsulotlarini ishlab chiqarish biologik xilma-xillikning kamayishiga olib kelishi mumkin. GMO ekinlar bir xil genetik tuzilishiga ega bo‘lgani sababli, turli xil o‘simliklar va hayvonlar turlari pasayadi. Bu esa tabiiy ekotizimda muvozanat buzilishiga olib keladi. Masalan, noan’anaviy urug‘lar yo‘qolib ketishi mumkin. GMO o‘simliklar gerbisid va zararkunandalarga chidamli qilib yaratiladi. Lekin bu evolyusion bosqichda xar qanday choralarga chidamli begona o‘tlar yoki “super hasharotlar”ning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa fermerlarni yanada kuchli kimyoviy moddalar ishlatishga majbur qiladi – bu esa muhitni yanada zaharlaydi. Gyenetik ifloslanish GMO ekinlarning geni tabiiy o‘simliklar bilan to‘qnashib, ularning genetik strukturasini o‘zgartirishi mumkin. Bu borada “genetik ifloslanish” deb ataladigan xavf bor **(1,6).**

Inson salomatligi uchun ehtimoliy xavflarga kelsak, GMO mahsulotlar yangi oqsillarni (proteinlarni) sintez qilishi mumkin. Bu oqsillar organizmda allergik reaksiya keltirib chiqarishi ehtimoli bor. Masalan, brazil yong‘og‘i geni soyaga o‘tkazilganda, unga allergiyasi bor insonlarda jiddiy ta’sir kuzatilgan. Keyin bu mahsulot bozordan olib tashlangan. Ayrim GMOlar yaratilishida antibiotik marker genlaridan foydalaniladi. Bu genlar inson organizmida yoki ichakdagi bakteriyalar orqali antibiotiklarga qarshilik paydo qilish xavfini oshiradi. Natijada ba’zi antibiotiklar kelajakda samarasiz bo‘lib qolishi mumkin (bu global tibbiy xavf hisoblanadi). GMO mahsulotlarning o‘n yillar davomida inson organizmiga qanday ta’sir qilishi to‘liq o‘rganilmagan. Ba’zi tadqiqotlarda reproduktiv funksiyaga, immun tizimiga yoki hujayra strukturasiga salbiy ta’sir ehtimollari qayd etilgan, lekin bugungacha qat’iy dalillar mavjud emas **(2,4,6).**

Iqtisodiy va ijtimoiy xavflar taxlil qiliniganda fermerlar mustaqilligining yo‘qolishi ya’ni GMO urug‘lar, odatda, yirik transmilliy korporatsiyalar (masalan, Monsanto) tomonidan patentlangan bo‘ladi. Fermerlar har yili urug‘ni qayta xarid qilishiga majbur bo‘ladi. Bu iqtisodiy qaramlikka olib keladi. G‘arb mamlakatlarida bu masala ko‘plab noroziliklarga va sud ishlariga sabab bo‘lgan.

Ayrim mamlakatlarda odamlar GMOga diniy, madaniy yoki etnik sabablarga ko‘ra qarshi chiqishadi. Masalan, hayvon geni olib o‘tilgan o‘simlikni vegetarianlar, musulmonlar yoki yahudiylar iste’mol qilmasligi mumkin, agar u mahsulot to‘g‘ri markirovka qilinmagan bo‘lsa.

Ushbu sohani rivojlantirish va xavflarni taxlil qilishda yurtimizda ham bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2023–2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari doirasida barcha GMO turlari bo‘yicha milliy reyestr yaratish va uning elektron tizimini ishga tushirish vazifalari belgilandi. Bu elektron platforma — “e-urug” — urug‘larning sertifikatlanishi va ularning xavfsizligini ta’minlash uchun asosiy dastak bo‘ladi. GMO mahsulotlarning xavfsizligini oshirish maqsadida GMOlarning ilmiy ekspertizasi yo‘lga qo‘yiladi va bu GMOlar mavjud genofondga kiritiladi, xavf monitoringida foydalaniladi. Biotexnologiya va genofondni rivojlantirish bo‘yicha 2020 yilda qabul qilingan Prezident qarori asosida biotexnologiya va bioxavfsizlikni rivojlantirish uchun Genomics and Bioinformatics Center markazi tashkil qilindi. Mazkur markaz yangi texnologiyalarni ilg‘or ravishda joriy etish uchun asos sifatida xizmat qilmoqda. Mahalliy iqlim sharoitlariga moslashtirilgan, qurg‘oqchilik va tuzlanishga chidamli yangi biotexnologik navlar maydonini 200 gektarga yetkazish, yanada ko‘proq hosil uchun 2026 yilda 4 000 gektargacha miqdorda urug‘lar tayyorlanishi rejalashtirilmoqda.

Jumladan, “Matonat-1/2”, “Bardosh”, “Porloq-4/7”, “BARKAMOL”, “BISYOR” kabi g‘o‘za, bug‘doy hamda kartoshkaning mahalliy navlar ilgari qilingan tadqiqotlar asosida rivojlantirilmoqda va ekin maydonlarda sinovdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan **(1,7).**

Ishlab chiqarilayotgan, olib kirilayotgan mahsulotlar tarkibida GMO bor yoki yo‘qligini aniqlash maqsadida davlatimiz tomonidan milliy bioxavfsizlik markazi va laboratoriyalari biotexnologiya va bioxavfsizlik sohasini rivojlantirish maqsadida Milliy Biotexnologiya Markazi tashkil etilgan. Unda GMO mahsulotlarning genetik tahlili va aniqlanishi bo‘yicha zamonaviy usullar qo‘llaniladi. Bu markazning laboratoriyalari xalqaro standartlarga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tkazilgan va PCR (Polymerase Chain Reaction), ELISA kabi yuqori texnologiyali test usullari bilan jihozlangan. Hozirda asosiy laboratoriyalar Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib, ular bilan birga Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida ham yuqori malakali texnikalar bilan ta’minlangan laboratoriyalar ishlayapti. Bu laboratoriyalarda fermerlar va ishlab chiqaruvchilardan kelgan namunalar to‘liq tekshiriladi, GMO bor-yoqligi aniqlanadi. Ushbu xizmatlar kelgusida fermerlar va ishlab chiqaruvchilar uchun GMO mahsulotlarni sertifikatlash va nazorat qilish, hamda import-eksport operatsiyalari uchun GMO monitoringi talab qilinadiganida, ushbu laboratoriyalar testlarni tez va aniq bajaralishini ta’minlaydi **(7).**

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Haroratning ortishi, yog‘ingarchilikning noteng taqsimlanishi, tuproq sho‘rlanishining kuchayishi va suv manbalarining kamayishi hosildorlikka jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu muammolar fonida genetik injeneriya texnologiyalari zamonaviy va ilmiy asoslangan yechim sifatida ilgari surilmoqda.

Genetik muxandislik — O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligida suv tanqisligi va iqlim o‘zgarishi sharoitida samaradorlikni saqlab qolish hamda rivojlantirish uchun kuchli ilmiy vositadir. Ammo bu texnologiyani joriy etish ehtiyotkorlik, ilmiy yondashuv va keng jamoatchilik bilan muloqotni talab qiladi. Mamlakatimiz hududining katta qismi quruqchilik sharoitida joylashgan bo‘lib, an’anaviy sug‘orish tizimlari mavjud suv resurslarini tejash imkonini bermaydi. Genetik injeneriya yordamida suvni kam talab qiluvchi genetik navlar (masalan, chuqur ildizli bug‘doy, kam suv bilan fotosintezni davom ettira oluvchi makkajo‘xori) yaratilmoqda. Transgen o‘simliklar suvni tejab sarflab, kam hosildorlik muammosining oldini oladi. Harorat o‘zgarishi va noan’anaviy ob-havo sharoitiga chidamli o‘simliklar yaratish orqali qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlash, haddan tashqari issiqqa bardoshli paxta navlari, qisqa vegetatsiya davriga ega, tez pishadigan ekinlar, biologik zarakunandalarga chidamli navlar yaratilib,

pestisidlarga ehtiyoj kamayishi natijasida atrof-muhit va inson salomatligi uchun turli xildagi xavflar kamayishiga erishiladi. Asosiy foydalaridan biri bu yurtimizda mahalliy oziq-ovqat ehtiyojlarini qoplash imkonini beradi **(6,7).**

Xulosa qilib aytganda Genetik modifikatsiyalangan organizmlar qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish, iqlim o‘zgarishiga moslashish, va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ammo, bu texnologiyaning uzoq muddatli ta’sirlari va xavfsizligini ta’minlash uchun qat’iy nazorat va ilmiy yondashuv talab etiladi. O‘zbekistonda bu sohada muayyan yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali to‘liq shakllangan tizim yo‘q. Shuning uchun har tomonlama yondashuv, to‘g‘ri qonunchilik, ilmiy asoslangan qarorlar va jamoatchilikning xabardorligi muhim hisoblanadi.

XULOSA

GMO mahsulotlar to‘g‘risida faqatgina “foyda” yoki “zarar” degan ikki qarash o‘rniga, dalillarga asoslangan, ehtiyotkor, ilmiy yondashuv talab etiladi. Ayniqsa, Osiyo mamlakatlari, jumladan O‘zbekiston, hali to‘liq shakllanmagan biotexnologiya va nazorat tizimi tufayli GMOdan foydalanishda axborot shaffofligi va xavfsizlik choralarini kuchaytirish juda muhim.

O‘zbekiston GMO va biotexnologiya sohalarini standartlar va raqobatga oqilona joriy etish yo‘lida aniq yo‘nalishlarga ega. Keyingi bosqichlar:

birinchidan – mahalliy fermerlar uchun kengaytirilgan malaka oshirish tadbirlari;

ikkinichdan – shaffof GMO auditlari va to‘liq monitoring tizimi joriy etish;

uchinchidan – eksport sifatini yaxshilash – GMO bo‘lmagan va biotexnologik mahsulotlar uchun sertifikat tizimini rivojlantirish;

to‘rtinchidan – xalqaro sinov maydonlarini (field trials) tashkil etish — tarkibi to‘liq nazorat qilingan maydonlarda CRISPR orqali yaratilgan navlarni o‘stirish va nazorat qilish.

GMO mahsulotlarining qishloq xo‘jaligidagi qo‘llanilishi samaradorligini oshirishi mumkin, lekin biologiya va muhit xavfsizligi masalalari ahamiyatli. Biroq, biologik xavfsizlik, inson salomatligi va muhit muhofazasiga oid masalalar hali ham dolzarb.

“GMO texnologiyasi — bu shunchaki imkoniyat emas, balki javobgarlik hamdir. Ijobiy samara bilan bir qatorda xavf-xatarni ham nazardan soqit qilmaslik kerak.”

ADABIYOTLAR

1. Xalqaro ekologiya fanlari va hayot xavfsizligi akademiyasining akademigi, “Turon” Fanlar akademiyasi a’zosi, t.f.d., professor B.B.Alixanovning ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va iqlim o‘zgarishiga moslashish masalalari bo‘yicha ilmiy ishlanmalar va maqolalar, publisistik materiallar, ma’ruza va uslubiy qo‘llanmalari (2010-2024 y.y.) to‘plami.

2. “Fundamental va klinik tibbiyot axborotnomasi, 2023 №6”, Teshayev Sh.J. , Xasanova D.A. “Taloq va uning genetik modifikatsiyalangan mahsulot ta’siri ostidagi o‘zgarish”

3. Environmental Health Perspectives — “Emerging Risks of Genetically Modified Foods”, Applied Sciences – “Myths and Realities about Genetically Modified Food: A Risk-Benefit Analysis”. (Internet ma’lumotlari)

4. “Biotexnologiya rivoji: gen muhandisligidan dorivor o‘simliklar materialigacha” Genomika va bioinformatika markazi direktori Z. Bo‘riyev 15 noyabr 2023 yil.

5. “Adoption record: GM crops reached 210 mln ha in 2024” – SuperAgronom / ChileBio, “Total GM Crop Areas Increased in 2024” – AgbioInvestor (GM Monitor), Journal of Integrative Agriculture — “Global area planted with GM crops”. (Internet ma’lumotlari)

6. https://yuz.uz/uz/news/ R. Madiyeva, “Biotexnologik o‘simlik navlari xalq salomatligi va iqtisodiy barqarorlik kafolati”. “Qurg‘oqchilik, sho‘rlanish va kasalliklarga chidamli g‘o‘za navlari nmoyish etildi”.

ДЕГРАДАЦИЯ БИОРАЗНООБРАЗИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В УСЛОВИЯХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ

Мохира КУРАМБАЕВА, Журабек ТУЛАЕВ
Научно-исследовательский институт окружающей среды и природоохранных технологий

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslardan barqaror foydalanmaslik natijasida yuzaga kelgan bioxilma-xillikning buzilishi ko'rib chiqiladi. Unda turlarning yo'qolishi va ekotizimlarning buzilishining asosiy sabablari va oqibatlari, shuningdek, bu jarayonlarning atrof-muhit va milliy xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. Barqaror resurslarni boshqarish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik siyosatni milliy xavfsizlik strategiyalariga integratsiya qilish choralari taklif etiladi.

Markaziy Osiyo yuqori darajadagi endemizm va zaif ekotizimlarga ega mintaqadir. U keskin kontinental iqlim va xilma-xil landshaftlarda rivojlangan noyob biologik xilma-xillikka ega. Biroq, antropogen bosim, iqlim o'zgarishi va tabiiy ekotizimlarning buzilishi o'simlik va hayvonot dunyosining tez pasayishiga olib kelmoqda. Maqolada biologik xilma-xillikka asosiy tahdidlar, mavjud tabiatni muhofaza qilish mexanizmlari ko'rib chiqiladi va transchegaraviy muhofaza qilinadigan hududlarni yaratish, yashil texnologiyalarni joriy etish va ekologik ta'limni rivojlantirish kabi istiqbolli yechimlar taklif etiladi. Bioxilma-xillikni saqlashga taklif qilingan yondashuvlar transchegaraviy muhofaza qilinadigan hududlarni yaratish, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlarni qayta tiklash, raqamli monitoring, ekologik ta'limni rivojlantirish, barqaror tabiatni boshqarish va moliyalashtirish mexanizmini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo biologik xilma-xilligi, degradatsiya, iqlim o'zgarishi, ekotizim resurslari, tabiatni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish, endemizm, transchegaraviy muhofaza qilinadigan hududlar, qayta introduksiya, monitoring.

Abstract. This article examines biodiversity degradation in Central Asia caused by climate change and unsustainable use of natural resources. It analyzes the main causes and consequences of species loss and ecosystem degradation, as well as the impact of these processes on environmental and national security. Measures for sustainable resource management, adaptation to climate change, and the integration of environmental policies into national security strategies are proposed.

Central Asia is a region with a high degree of endemism and vulnerable ecosystems. It boasts unique biodiversity, developed in a sharply continental climate and diverse landscapes. However, anthropogenic pressure, climate change, and the degradation of natural ecosystems are leading to a rapid decline in flora and fauna. The article examines key threats to biodiversity, existing conservation mechanisms, and proposes promising solutions, including the creation of transboundary protected areas, the introduction of green technologies, and the development of environmental education. Proposed approaches to biodiversity conservation include the creation of transboundary protected areas, reintroduction of endangered species, digital monitoring, development of environmental education, sustainable nature management, and a financing mechanism.

Keywords: Central Asian biodiversity, degradation, climate change, ecosystem resources, nature conservation, sustainable development, endemism, transboundary protected areas, reintroduction, monitoring.

Аннотация. В статье рассматривается деградация биоразнообразия в Центральной Азии, вызванная изменением климата и нерациональным использованием природных ресурсов. Анализируются основные причины и последствия утраты биологических видов и деградации

экосистем, а также влияние этих процессов на экологическую и национальную безопасность. Предлагаются меры по устойчивому управлению ресурсами, адаптации к климатическим изменениям и интеграции экологической политики в национальные стратегии безопасности.

Центральная Азия — регион с высокой степенью эндемизма, уязвимыми экосистемами и обладает уникальным биоразнообразием, формировавшимся в условиях резко континентального климата и разнообразия ландшафтов. Однако антропогенное давление, изменение климата и деградация природных экосистем ведут к стремительному сокращению флоры и фауны. В статье рассматриваются ключевые угрозы биоразнообразию, существующие охранные механизмы, а также предлагаются перспективные решения, включая создание трансграничных охраняемых территорий, внедрение зеленых технологий и развитие экологического образования. Предложены подходы к сохранению биоразнообразия: создание трансграничных охраняемых территорий, ре-интродукция исчезающих видов, цифровой мониторинг, развитие эко-просвещения, устойчивого природопользования и механизм финансирования.

Ключевые слова: Биоразнообразие ЦА, деградация, изменение климата, эко-системные ресурсы, охрана природы, устойчивое развитие, эндемизм, трансграничные охраняемые территории, ре-интродукция, мониторинг.

ВВЕДЕНИЕ

Центральная Азия (Казахстан, Узбекистан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан) — регион множественных климатических зон и биомов: от высокогорий Тянь-Шань и Памира до пустынь (Кызылкум, Каракум) и речных долин Амударьи и Сырдарьи. Несмотря на суровый климат, регион содержит значительное биоразнообразие, особенно флоры, с большим количеством эндемичных таксонов. По оценкам, в Узбекистане известно около **27 000 видов** живых организмов, из них ~11 000 видов растений, ~15 600 видов животных, (biofin.org). В отношении сосудистых растений, в Центральной Азии зафиксировано для Узбекистана около **4 222 вида**, из которых ~301 эндемичный вид, (MDPI). Однако этот богатый биологический фонд находится под угрозой из-за ускоренного изменения климата и интенсивного нерационального использования природных ресурсов. Эти процессы ведут к деградации экосистем, снижению численности видов, что в конечном итоге влияет на экологическую устойчивость региона и его национальную безопасность.

В этой статье мы рассмотрим конкретные проблемы для редких видов флоры и фауны ЦА, проанализируем причины деградации, и предложим практические меры защиты и восстановления.

Проблемы деградации биоразнообразия в Центральной Азии

Изменение климата проявляется в росте температуры, изменении режима осадков и увеличении частоты экстремальных погодных явлений. В Центральной Азии наблюдается:

- Усыхание и сокращение ледников в горах, что приводит к уменьшению речных стоков и снижению доступности водных ресурсов.
- Усиление засушливости и деградация почв, что влияет на растительность и приводит к опустыниванию территорий.
- Нарушение миграционных путей животных и смещение ареалов видов, что снижает биологическое разнообразие.

Основными формами нерационального природопользования являются:

- Интенсивное и неконтролируемое выпас скота, приводящий к деградации пастбищ и разрушению растительного покрова.
- Увеличение сельскохозяйственного освоения земель без применения арго-технологий, способствующих сохранению почв и биоразнообразия.

• Чрезмерное водозаборство и регулирование речных систем для ирригации, что снижает водные экосистемы и способствует гибели водных и прибрежных видов.

• Браконьерство и незаконный сбор растений и животных, что ведет к сокращению редких и исчезающих видов.

Последствия для экологической и национальной безопасности

Утрата биоразнообразия и деградация экосистем:

• Снижают устойчивость природных систем к климатическим стрессам.

• Уменьшают возможности для обеспечения продовольственной безопасности через потерю генетического ресурса.

• Ведут к социально-экономическим проблемам — ухудшению качества жизни, миграции населения, конфликтам за ресурсы.

• Увеличивают риски природных катастроф (наводнения, засухи, опустынивание).

Специфические проблемы (вызовы) для флоры и фауны региона

Угроза исчезновения и сокращение ареалов у фауны

1. **Снежный барс (Panthera uncia)** Этот вид считается индикатором здоровья горных экосистем. Сокращение ареала, фрагментация, конфликты с пастухами и браконьерство — основные угрозы для барсов.

2. **Джейран (Gazella subgutturosa)** Давление охоты, потеря и фрагментация степных местообитаний, конкуренция с домашними копытными — ключевые факторы снижения численности.

3. **Краснозобая казарка (Branta ruficollis)** Этот мигрирующий водоплавающий вид зависит от водно-болотных угодий. Сокращение и деградация таких территорий, изменение гидрологии рек и строительство плотин приводит к утрате мест гнездования.

4. **Бухарский олень (Bukhara deer, Cervus elaphus bactrianus)** Зависит от пойменных лесов и заливных лесных полос (тугаи). Резкое сокращение этих лесов из-за хозяйственной деятельности угрожает выживанию этого подвида.

5. **Малые и редкие виды амфибий и рептилий** Например, **Turkestanian salamander** (Hynobius turkestanicus) известен лишь по единичным находкам и возможно уже вымер. Среди рептилий много эндемичных видов, которые особенно чувствительны к изменениям среды и микроклимату.

6. **Пики (напр. Turkestan red pika, Ochotona rutila)** Хотя этот вид не критически уязвим по IUCN, локальные популяции могут страдать от изменения температур, уменьшения связности местообитаний и ограниченной репродуктивной способности.

Проблемы флоры:

редкие виды, исчезающие лесные сообщества и дикорастущие родственники культурных растений

1. **Эндемичные растения и реликтовые виды** В флоре Узбекистана ~8 % видов сосудистых растений являются эндемичными. Реликтовые виды (например, туранская берёза, различные эндемичные кустарники и лекарственные растения) особенно уязвимы из-за медленного роста, узких экологических ниш и низкой способностью к миграции.

2. **Дикорастущие родственники культурных растений (Wild Relatives of Cultivated Plants, WRCP)** Они играют важную роль в генетическом резерве для сельского хозяйства. В Узбекистане зарегистрировано 202 вида дикорастущих родственников культурных растений (в 24 семьях). Эти виды подвергаются давлению из-за изменения землепользования, агрохимического загрязнения, разрыва популяций.

3. **Уничтожение пойменных лесов (тугаев), прибрежных растительных сообществ** Особенно уязвимы леса вдоль рек Амударья и Сырдарьи, где развитие ирригации, водозаборов и регулирование водного потока приводят к осушению и деградации.

4. **Опустынивание, эрозия, деградация почв и солончаки** В сухих районах Центральной Азии нарушение растительного покрова, эрозия ветром и водой приводят к деградации местообитаний, уменьшению связности, утрате растительности.

5. **Инвазивные виды и сорняки** Внедрение чужеродных видов, особенно агрессивных сорняков, может вытеснять местные виды, нарушать экологические взаимодействия.

6. **Климатические изменения** Повышение температуры, изменение осадков и режимов таяния снегов влияет как на флору, так и на фауну, особенно на виды, чувствительные к температурным стрессам и влажности.

ИСХОДНЫЕ ДАННЫЕ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

В основу анализа легли данные Государственного комитета по экологии Узбекистана, Национального доклада по биоразнообразию (2023), а также отчеты МСОП (IUCN), национальных стратегий по охране биоразнообразия, полевых исследований в рамках проектов GEF и UNDP, а также публикаций научных институтов региона. Использовались методы сравнительного анализа экологической статистики за последние 20 лет, полевые наблюдения в охраняемых природных территориях, а также экспертные оценки угроз и потенциала восстановления биоразнообразия (таблица-1,2).

Таблица 1

Основные угрозы биоразнообразию Узбекистана

Угроза	**Причина**	**Последствия**
Опустынивание	Ирригация, вырубка, климатические изменения	Снижение продуктивности экосистем
Изменение водных режимов	Строительство ГЭС, водозабор	Гибель водной флоры и фауны
Урбанизация и инфраструктура	Рост населения, строительство	Фрагментация природных территорий
Загрязнение	Агрохимикаты, промышленные отходы	Токсическое воздействие на виды

Таблица 2

Уязвимые виды флоры и фауны ЦА и основные угрозы

Вид	**Регион**	**Категория угрозы (МСОП)**	**Основные угрозы**
Джейран (*Gazella subgutturosa*)	Казахстан, Узбекистан	Уязвимый (VU)	Браконьерство, потеря местообитаний
Снежный барс (*Panthera uncia*)	Тянь-Шань, Памир	Уязвимый (VU)	Уничтожение ареала, конфликты с людьми
Туркестанская арча (*Juniperus turkestanica*)	Все страны региона	Уязвимый (VU)	Заготовка древесины,

			климатические стрессы
Туранская берёза (*Betula turanica*)	Узбекистан, Таджикистан	На грани исчезновения (CR)	Опустынивание, вырубка
Краснозобая казарка (*Branta ruficollis*)	Казахстан	Уязвимый (VU)	Сокращение водно-болотных угодий

Отмечено, что в настоящее время увеличивается число редких и находящихся под угрозой исчезновения видов животных и растений. Если в 2009 году в Красную книгу было включено 184 вида животных и 304 вида растений, то к 2019 году их число достигло 206 и 314 видов соответственно (рис.1).




Рисунок -1. Охраняемые природные территории Узбекистана

В последнее издание «Красной книги» – том 2 – включены 30 видов млекопитающих, 52 вида птиц, 21 вид пресмыкающихся, 17 видов рыб, 3 вида червей, 14 видов моллюсков и 66 видов членистоногих (рис.2).




Рисунок-2. Редкие виды животных, обитающие на охраняемых природных территориях

В настоящее время на территории Республики Узбекистан произрастает около 4400 видов высших дикорастущих растений и более 2000 видов грибов. Среди них много редких эндемичных и реликтовых видов, требующих серьёзной охраны. Число таких видов превышает 300, что составляет 10–15% флоры Узбекистана.

РЕЗУЛЬТАТЫ.

Центральная Азия теряет биоразнообразие с тревожной скоростью. Снежный барс, как индикатор сохранности горных экосистем, сталкивается с фрагментацией ареала и конфликтами с пастухами. Среди флоры особенно уязвимы редкие древесные и кустарниковые формы, такие как туранская берёза, встречающаяся только в нескольких локациях на юге Узбекистана и Таджикистана.

Особое беспокойство вызывает распространение инвазивных видов (например, амброзии и сорго алеппского), вытесняющих местную флору и нарушающих пищевые цепи. Недостаток финансирования и координации между странами региона усугубляет ситуацию.

На сегодняшний день в Узбекистане зарегистрировано около 27 000 видов биоты, включая более 15 000 видов насекомых, 4 500 видов сосудистых растений, 424 вида птиц и 97 видов млекопитающих. Согласно последним оценкам, около 15% из них находятся под угрозой исчезновения. Основные усилия по охране биоразнообразия включают систему заповедников и заказников, охватывающих около 5% территории страны. Однако этой меры недостаточно.

Перспективным направлением является создание биокоридоров между охраняемыми территориями и развитие трансграничных резерватов, таких как проект "Западный Тянь-Шань", включающий территории Казахстана, Узбекистана и Кыргызстана. Также необходимо усилить мониторинг состояния видов и инвестировать в цифровизацию данных о биоразнообразии. Вовлечение местного населения в экотуризм и экопросвещение повышает устойчивость охранных мер.

ПУТИ РЕШЕНИЯ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Интеграция устойчивого природопользования и климатической адаптации

• Внедрение систем устойчивого управления пастбищами и лесными ресурсами с участием местных сообществ.

• Разработка и применение агротехнологий, минимизирующих негативное воздействие на почву и биоразнообразие.

• Восстановление природных водных режимов с учетом потребностей экосистем.

Усиление мониторинга и научных исследований

• Создание и развитие систем мониторинга состояния биоразнообразия и экосистем с применением современных технологий (ГИС, спутниковый мониторинг).

• Исследования влияния изменения климата на отдельные виды и экосистемы для разработки адаптационных мер.

Формирование и реализация национальных и региональных стратегий

• Включение биоразнообразия и устойчивого управления ресурсами в национальные программы экологической и национальной безопасности.

• Разработка и внедрение механизмов финансирования природоохранных мероприятий, включая государственные и международные проекты.

Образование и вовлечение общества

• Повышение экологической грамотности населения и формирование культуры бережного отношения к природе.

• Поддержка инициатив местных сообществ в области охраны природы и устойчивого развития.

Трансграничные охраняемые территории и экологические коридоры

• Создание и управление **трансграничными заповедниками и биокоридорами** между странами ЦА (например, между Кыргызстаном и Таджикистаном, Казахстаном и Узбекистаном) поможет обеспечить миграцию и генетический обмен между популяциями.

• Применение концепции **OECM (Other Effective Area-based Conservation Measures)** и включение таких территорий в международные стандарты, как **IUCN Green List**, для обеспечения эффективного и справедливого управления.

• Проект **One Health Central Asia**, запущенный IUCN, направлен на консолидацию систем охраны природы и снижение риска зоонозов через связь здоровья людей, животных и экосистем.

Реставрация и восстановление местообитаний

• Реставрация пойменных лесов и заливных экосистем тугаев: посадка автохтонных видов, восстановление гидрологии рек (регулирование водозабора, контроль осушения).

• Борьба с эрозией и внедрение устойчивых методов сельского хозяйства: террасирование, посев покровных культур, контроль выпаса, восстановление растительности в маргинальных зонах.

• Создание питомников для редких растений, восстановление популяций эндемических и реликтовых видов с последующим расселением в естественные места.

Реинтродукция и переполюднение (reintroduction / augmentation)

• Программы возвращения исчезающих видов, когда условия местообитания восстановлены (например, проекты по возвращению джейрана, бухарского оленя).

• Поддержка генетического разнообразия через использование разных исходных популяций, контроль инбредности.

• После выпуска — длительный мониторинг адаптации и выживаемости.

• Создание центрального гена-банка СА “Eco Geno-Nature”, обеспечивающий восстановление редких исчезающих видов флоры и фауны.

Мониторинг, научные исследования и цифровые технологии

• Внедрение **ГИС и дистанционного зондирования** для отслеживания изменений ландшафта, динамики растительности и деградации.

• Разработка открытых баз данных биоразнообразия (включая наблюдения, генетические данные, распределения) и их межграничный обмен.

• Применение технологии фотоловушек, акустического мониторинга, спутникового мониторинга — для отслеживания животных и их передвижений.

• Моделирование климатических сценариев и оценка уязвимости видов (Climate-envelope models) для прогнозирования перемещений ареалов и определения «климатических убежищ».

Экологическое образование и вовлечение местных сообществ

• Программы для сельских школ, общин, фермеров по значению биоразнообразия и устойчивого природопользования.

• Интеграция «природоохранных» доходов — экотуризм, устойчивое использование лесных/растительных ресурсов, оплата эко-системных услуг.

• Стимулы и компенсации для сообществ, которые охраняют окружающую среду, посредствам грантов, микрофинансирования, программ «зеленой экономики».

Политика, финансирование и институциональные механизмы

• Разработка **национальных стратегий биоразнообразия** с четкими целями, адаптированными к современному **Глобальному рамочному соглашению по биоразнообразию** (Post-2020 GBF).

• Включение биоразнообразия во все сектора — сельское хозяйство, водные ресурсы, инфраструктура, энергетика.

• Механизмы устойчивого финансирования — экологические сборы, «зеленые облигации», международные донорские проекты, платежи за экосистемные услуги (PES).

• Координация межведомственных органов, создание трансграничных организаций и платформ сотрудничества между странами ЦА.

ВЫВОДЫ

Проблема сохранения биоразнообразия в Центральной Азии требует системного и междисциплинарного подхода. Современные вызовы, включая климатические изменения, требуют координированных действий на региональном уровне. Необходимо:

- расширение сети охраняемых территорий,
- внедрение адаптивного управления экосистемами,
- развитие трансграничного экологического сотрудничества,
- поддержка научных исследований и цифрового мониторинга биоразнообразия,
- интеграция вопросов биоразнообразия в экономические и социальные стратегии региона.

Без принятия срочных мер регион может столкнуться с необратимыми экологическими потерями, что негативно скажется не только на природе, но и на устойчивом развитии общества.

1. Проблемы биоразнообразия в Центральной Азии многогранны — от исчезновения редких видов до деградации экосистем и климатических стрессов.
2. Эффективная охрана требует сочетания **научных методов, восстановления среды, реинтродукции, мониторинга и местного участия**.
3. Трансграничное сотрудничество жизненно важно: границ для природы не существует, а миграции многих видов проходят через несколько стран.

4. Финансовая устойчивость и институциональные механизмы должны быть встроены в долгосрочные стратегии.

5. Образование просвещение и вовлечение, местного населения — ключевой элемент устойчивой охраны биоразнообразия.

Деградация биоразнообразия в Центральной Азии — одна из ключевых проблем, обусловленных климатическими изменениями и нерациональным использованием экосистемных ресурсов. Без комплексного подхода к решению этих вопросов невозможно обеспечить экологическую устойчивость и национальную безопасность региона. Совместные усилия государств, научного сообщества и общества необходимы для реализации эффективных мер по сохранению природы и обеспечению устойчивого развития.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Зельдович Я.Б., Бучаченко А.Л., Франкевич Е.Л. Магнитно-спиновые эффекты в химии и молекулярной физике // Успехи физ. наук. – 1988. – Т.155. – №1. – С. 3–45.
2. Johnson R.C., Merrifield R.E., Avakian P., Flippen R.B. Effects of magnetic fields on the mutual annihilation of triplet excitons in molecular crystals // Phys. Rev. Lett. – 1967. – V.19. – №2. – P. 285–287.
3. UNDP Uzbekistan. National Biodiversity Strategy and Action Plan. – Tashkent: UNDP, 2023. – 78 p.
4. IUCN Red List of Threatened Species. https://www.iucnredlist.org – Accessed: 2025.
5. Министерсво экологии Узбекистана. Национальный доклад о состоянии окружающей среды. – Ташкент, 2024.
6. IUCN Red List of Threatened Species. – https://www.iucnredlist.org – Accessed: 2025.
7. UNDP. Biodiversity Conservation in Central Asia: Regional Strategies. – UNDP Publication, 2024. – 112 p.
8. Миссион Р. и др. Экосистемы Центральной Азии под давлением: проблемы и пути их решения // Экологический вестник. – 2023. – №2. – С. 34–49.
9. Сатпаев Б.К., Абдуллаева Р.Ф. Биоразнообразие Казахстана: угрозы и охрана // Природные ресурсы. – 2022. – №4. – С. 22–30.
10. Алимов А.Ф. Современные проблемы сохранения аридной флоры Средней Азии // Ботанический журнал. – 2021. – Т.106. – №6. – С. 58–67.
11. Мухаммадиев Б.К., Ахмедов Ш.С. Климатические изменения и их влияние на биоразнообразие в Центральной Азии // Экология и природопользование. – 2022. – Т.12. – №3. – С. 45–56.
12. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable natural resource management in Central Asia: Challenges and opportunities. – 2021.
13. Назаров А.Р., Турсунов Д.С. Влияние нерационального землепользования на деградацию экосистем в Узбекистане // Журнал охраны природы. – 2023. – Т.5. – №1. – С. 23–35.
14. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Climate Change 2022: Impacts, Adaptation and Vulnerability. – 2022.
15. ООН Экономическая комиссия для Европы (UNECE). Environmental security and sustainable development in Central Asia. – 2020.

SHARQIY FARG‘ONA MEVALI BOG‘LARIDA KOKSID–ENTOMOFAG TIZIMI ASOSIDA EKOTIZIM BARQARORLIGINI TA’MINLASH IMKONIYATLARI

Kapizova Dilafruz Raxmonjonovna – Andijon davlat tibbiyot instituti
Temirova Shamsiqamarbegim Ilyosjon qizi – Farg‘ona davlat universiteti;
Jumayeva Aziza Nu’monjon qizi – Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Zokirov Islomjon Ilhomjonovich – Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada Sharqiy Farg‘ona hududidagi mevali bog‘lar agroekotizimlarida koksid–entomofag tizimining shakllanishi va u orqali ekotizim barqarorligini ta’minlash imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida mevali daraxt va butalarda yashovchi 4 oilaga mansub 22 tur koksid hamda ularning parazit va yirtqich entomofaglari bo‘lgan 12 oilaning 26 avlodi tarkibidagi 31 tur aniqlangan. Balandlik mintaqalari bo‘yicha entomofaglarning tarqalishi, trofik aloqalar va “parazit–xo‘jayin”, “yirtqich–o‘lja” tizimlarida kuzatiladigan morfo-ekologik moslanishlar tahlil qilingan. Pista yostiqsimon qurti, olxo‘ri va akatsiya soxtaqalqondori, Kaliforniya qalqondori, komstok qurti va boshqa xavfli koksidlarga qarshi Microterys sylvius, Leucopis annulipes, *Coccophagus lycimnia, Metaphycus melanostomatus, Chilocorus bipustulatus, Aphytis proclia, Aphelinus mali, Encarsia perniciosi* va *Pseudaphycus malinus* kabi entomofaglarning dala va laboratoriya sharoitidagi biologik samaradorligi baholandi. Tajribalar zararli koksidlar sonini 17–35 % va ayrim hollarda undan yuqori darajada tabiiy kamaytirish mumkinligini ko‘rsatib, mevali bog‘lar ekotizimi barqarorligini ta’minlashda foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash va boyitish muhimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: mevali bog‘lar; koksidlar; entomofaglar; foydali hasharotlar; biologik himoya; bioxilma-xillik; ekotizim barqarorligi; Sharqiy Farg‘ona.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности обеспечения устойчивости агроэкосистем плодовых садов Восточной Ферганы за счёт сохранения и обогащения биоразнообразия полезных организмов в системе «кокциды – энтомофаги». На основе материалов докторской диссертации проанализирован видовой состав кокцид, повреждающих плодовые деревья и кустарники (22 вида из 4 семейств), и их естественных паразитов и хищников (31 вид из 12 семейств). Показано распределение основных видов энтомофагов по высотным поясам, их трофические связи и морфо-экологические адаптации в системах «паразит–хозяин» и «хищник–жертва». Оценена биологическая эффективность *Microterys sylvius, Leucopis annulipes, Coccophagus lycimnia, Metaphycus melanostomatus, Chilocorus bipustulatus, Aphytis proclia, Aphelinus mali, Encarsia perniciosi* и *Pseudaphycus malinus* против *Anapulvinaria pistaciae, Sphaerolecanium prunastri, Parthenolecanium corni, Diaspidiotus perniciosus, Planococcus citri* и других ключевых вредителей. Полевые и лабораторные испытания показали возможность снижения численности кокцид на 17–35 % и более, что подтверждает перспективность создания систем биологической защиты плодовых насаждений на основе комплекса местных энтомофагов.

Ключевые слова: плодовые сады; кокциды; энтомофаги; полезные насекомые; биологическая защита растений; биоразнообразие; устойчивость экосистем; Восточная Фергана.

Annotation. The paper evaluates how conservation and enhancement of beneficial organism diversity in the coccid–entomophage system can be used to stabilise fruit-orchard agroecosystems in the Eastern Fergana region. Based on doctoral dissertation data, we analyse the species composition of coccids damaging fruit trees and shrubs (22 species from 4 families) and their natural enemies – parasitoids and predators (31 species from 12 families). The distribution of key entomophagous species along altitudinal zones, their trophic links and morpho-ecological

adaptations within “parasite–host” and “predator–prey” interactions are described. The biological efficiency of *Microterys sylvius, Leucopis annulipes, Coccophagus lycimnia, Metaphycus melanostomatus, Chilocorus bipustulatus, Aphytis proclia, Aphelinus mali, Encarsia perniciosi* and *Pseudaphycus malinus* is assessed against *Anapulvinaria pistaciae, Sphaerolecanium prunastri, Parthenolecanium corni, Diaspidiotus perniciosus, Planococcus citri* and other major coccid pests of fruit orchards. Field and laboratory trials showed that, under local conditions, these entomophages can reduce coccid populations by 17–35 % or more, providing a strong ecological basis for biologically oriented protection and long-term stability of fruit-orchard ecosystems.

Keywords: fruit orchards; coccids; entomophagous insects; beneficial arthropods; biological control; biodiversity; ecosystem stability; Eastern Fergana.

KIRISH

Dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va aholi sog‘lig‘iga xavfsiz mahsulot yetkazib berish ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, mevali bog‘larda pestitsid yukini kamaytirgan holda yuqori hosil olish, organik va ekologik toza meva yetishtirish bozor talabidan kelib chiqib tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. So‘nggi yillarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida organik mahsulotlarga talab keskin oshgani, an’anaviy mahsulotlarga nisbatan ularning bozor qiymati yuqoriligicha qolayotgani biologik usullarga asoslangan himoya tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3].

Mevali bog‘larda ekotizim barqarorligiga eng jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri invaziv va karantin zararkunandalar – koksidlar, shira va boshqa mevaxo‘r hasharotlar hisoblanadi. Koksidlarning 16 oilaga mansub 6000 dan ortiq turi qayd etilgan bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi mevali daraxtlar tanasida oziqlanadi va daraxtlarning vegetativ hamda generativ organlariga ko‘p yillik zarar yetkazadi [8]. Jahon va MDH mamlakatlarida koksidlar hamda ularning entomofaglari bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, tadqiqotlar asosan ayrim iqtisodiy muhim turlarning biologiyasi va nazorat choralari bilan chegaralangan [10].

Markaziy Osiyoda koksidlar faunasi va ularning tabiiy kushandalari A.D.Arxangelskaya, K.Zokirov, O.T.Sobirov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, Farg‘ona vodiysi mevali daraxtlarida 20 dan ortiq koksid turi qayd etilgani ma’lum [8, 10, 11]. Shunga qaramay, Sharqiy Farg‘ona hududi mevali bog‘larida koksidlarning entomofaglari, ularning trofik ixtisoslashuvi va ekotizim barqarorligidagi roli yetarli darajada yoritilmagan. D.R.Kapizovaning Sharqiy Farg‘ona hududi mevali daraxt va butalari koksidlarining entomofaglariga oid tadqiqotlarida Farg‘ona vodiysi entomofaunasi uchun bir qator turlarning ilk bor qayd etilgani hamda mevali bog‘larda 17–55 % gacha biologik samaradorlikka ega ekanligi ko‘rsatib berilgan [3].

Mazkur natijalar mevali bog‘larda koksid–entomofag tizimini saqlab qolish va boyitish zararkunandalar bosimini tabiiy ravishda pasaytirib, pestitsid qo‘llash miqdorini kamaytirishi, shu orqali agroekotizim barqarorligini ta’minlashning muhim tabiiy yechimi ekanini ko‘rsatadi [1]. Ushbu maqolada Sharqiy Farg‘ona sharoitida mevali bog‘larda uchraydigan koksidlar entomofaglari misolida foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash va boyitish orqali ekotizim barqarorligini ta’minlashning samarali imkoniyatlari tahlil qilingan.

MATERIAL VA USLUBLARI

Tadqiqotlar 2018–2025-yillarda Sharqiy Farg‘onaning cho‘l, adir va tog‘oldi mintaqalariga kiruvchi mevali bog‘larida, jumladan Andijon viloyati bo‘ylab joylashgan urug‘ va danak mevali hamda tok agrobiotsenozlarida olib borildi [3]. Mevali daraxt va butalardagi koksidlar N.S.Borxsenius [9], I.I.Zokirov va boshqalar [7] taklif etgan usullar asosida maxsus tanlangan vaqtinchalik va doimiy tajriba uchastkalarida yig‘ildi. Zararlangan novda va barglar laboratoriyada kuzatilib, ulardan chiqqan entomofaglar probirkalarda ajratib olindi. Koksid va entomofag turlari klassik entomologik aniqlagichlar hamda O‘zR FA Zoologiya instituti mutaxassislari ishtirokida

aniqlanib, ularning morfometrik ko‘rsatkichlari mikrometrli okulyar yordamida o‘lchandi, statistik tahlillar MS Excel dasturida bajarildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sharqiy Farg‘ona hududi mevali bog‘larida olib borilgan kuzatuvlar natijasida koksidlar va ularning tabiiy kushandalari bo‘lgan foydali organizmlar juda boy xilma-xillikka ega ekotizimni shakllantirishi aniqlandi. Jami 4 oilaga mansub 17 avlodning 22 turi koksidlar hamda 3 turkumga kiruvchi 12 oilaning 26 avlodiga mansub 31 tur entomofag qayd etildi [3]. Ushbu ko‘rsatkichlar mevali bog‘lar ekotizimida trofik zanjirlar murakkabligi va tabiiy biologik nazoratning yuqori salohiyatidan dalolat beradi.

Entomofaglar tarkibida Hymenoptera turkumi vakillari ustunlik qilib (20 tur, entomofaunaning qariyb uchdan ikki qismi), ularning asosiy qismi Aphelinidae va Encyrtidae oilalariga mansub parazitlardir. Qolgan qismni Hemiptera (*Anthocoris nemorum*), Coleoptera (*Chilocorus bipustulatus, Brumus quadripustulatus*) va Diptera (*Leucopis annulipes, Eupeodes corollae*) kabi yirtqichlar tashkil etadi. Entomofaglarning 12 turi oligofag, 19 turi polifag bo‘lib, monofag turlar aniqlanmagani biologik nazorat tizimining moslashuvchan va barqarorligini ta’minlaydi.

Ushbu tabiiy kushandalar uchrash darajasiga ko‘ra ham farqlanadi: 8 turi yuqori uchrash chastotasiga ega bo‘lib, asosiy “tayanch” guruhni, 8 turi tez-tez, 15 turi esa kam yoki tasodifan uchrovchi komponentlarni tashkil etadi. Bu ma’lumotlar mevali bog‘larda foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash ekotizim barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil ekanini ko‘rsatadi, chunki aynan ko‘p uchraydigan turlar zararkunandalar sonini yil davomida nazoratda ushlab turadi.

Mevali bog‘lar ichida entomofaglar tur tarkibi bo‘yicha eng boy agrobiotsenoz urug‘ mevali daraxtlar (olma, nok, behi, xurmo, anor) bog‘larida qayd etildi: bu yerda 26 tur entomofag aniqlanib, tadqiqot hududida uchragan jami turlar sonining 83,9 % ini tashkil etdi. Danak mevali bog‘lar (shaftoli, o‘rik, olxo‘ri, gilos, olcha) 22 tur (70,9 %) bilan ikkinchi o‘rinda, tokzorlar 14 tur (45,2 %), jiydazorlar 10 tur, pistazor va bodomzorlar 6 tur, sitrus bog‘lari esa 2 tur entomofag bilan tavsiflandi.

Bu natijalar mevali daraxtlar xilma-xilligini kengaytirish va aralash ekinlar (urug‘, danak, tok va jiyda kombinatsiyalari)ni saqlab qolish foydali organizmlar uchun zarur yashash muhiti va ozuqa bazasini boyitishini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, bog‘larni monokultura shakliga keltirish emas, balki turli ekinlarni uyg‘unlashtirish koksid-entomofag tizimining barqaror ishlashiga yordam beradi.

Entomofaglar balandlik mintaqalari bo‘yicha ham notekis taqsimlangan. Cho‘l mintaqasida 12 tur, adir zonalarida 11 tur, tog‘ oldi mintaqasida yana 11 tur entomofag aniqlangan bo‘lib, ularning ko‘pchiligi 300–800 m balandlik oralig‘ida joylashgan mevali bog‘larda uchraydi. Keng diapazonda tarqalgan turlar (*Ageniaspis fuscicollis, Coccophagus lycimnia, Encarsia perniciosi, Aphytis proclia, Pseudaphycus malinus* va boshqalar) hudud bo‘yicha ekologik barqarorlikni ta’minlovchi “kalit turlar” sifatida baholandi.

Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, turli balandlikdagi bog‘larda ekotizimlarni saqlash uchun maxsus moslashgan entomofag komplekslariga tayanish mumkin. Bunda pestitsid yuklamasini kamaytirish orqali balandlik bo‘yicha “uzluksiz biologik parda”ni saqlash muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Daladagi sinovlar koksidlarga qarshi entomofaglar kompleksini qo‘llash yuqori biologik samaradorlik berishini ko‘rsatdi. Pista yostiqsimon qurtiga qarshi *Microterys sylvius* va *Leucopis annulipes* turlaridan foydalanilganda zararkunanda soni 28–32 % gacha kamaytirildi. Olxo‘ri soxtaqalqondoriga qarshi *Coccophagus lycimnia*, *Metaphycus melanostomatus, Leucopis*

annulipes va *Chilocorus bipustulatus* turlarini birgalikda qo‘llash 22–55 % gacha biologik samaradorlik berdi.

Akatsiya soxtaqalqondoriga qarshi aynan shu entomofaglar majmuasi yilga qarab 19–35 % oralig‘ida samaradorlik ko‘rsatdi. Kaliforniya qalqondoriga qarshi *C. lycimnia, M. melanostomatus, L. annulipes* va *Ch. bipustulatus* turlarining qo‘llanilishi 17–21 % ga teng bo‘lgan barqaror natijalarni berdi. Komstok qurti (*Pseudococcus comstocki*) populyatsiyasini kamaytirishda *C. lycimnia, L. annulipes* va *Ch. bipustulatus* turlarining kombinatsiyasi 23–25 % biologik samaradorlikka ega bo‘ldi.

Binafsharang qalqondorga qarshi esa *Aphytis proclia* va *Chilocorus bipustulatus* turlarining tabiiy populyatsiyasi 30 % gacha zararlanishni ta’minladi. Ushbu natijalar Rosen va DeBach tomonidan Kaliforniya qalqondoriga qarshi Aphelinidae oilasi vakillaridan foydalanish bo‘yicha olib borilgan klassik tadqiqotlarda qayd etilgan ma’lumotlar bilan uyg‘un keladi.

Yirtqichlar orasida *Chilocorus bipustulatus* lichinkalari kuniga o‘rtacha 30–50 dona qalqondor lichinkasini iste’mol qilishi aniqlangan bo‘lib, ularning populyatsiyaning kuchli bostiruvchi omili ekanini ko‘rsatadi. Coccinellidae oilasi vakillarining yirtqichlik xususiyatlari, ov qilish strategiyalari va bioindikatsion ahamiyati Hodek va Honěk tomonidan ham batafsil asoslab berilgan [2].

Dissertatsiya doirasida muhim parazit turlar – *Ageniaspis fuscicollis, Ascogaster quadridentata* va *Coccophagus lycimnia* namunalari turli mevali daraxtlarda (o‘rik, gilos, behi, pista) solishtirilib, morfometrik belgilaridagi variabellik aniqlangan. Gilos o‘simligida *A. fuscicollis* ning tanasi va mo‘ylov uzunligi, oyoqlari hamda ko‘krak o‘lchamlari o‘rikdagi namunalariga nisbatan sezilarli kattaligi biotopga moslanish natijasi ekanligi ko‘rsatildi. Shunga o‘xshash holat *C. lycimnia* ning behi va pista koksidlarida parazitlik qiluvchi populyatsiyalarida ham kuzatilib, qanot va tananing nisbatan yiriklashishi boshqa ozuqa bazasi va mikroiqlim sharoitiga moslanish sifatida talqin qilindi.

Bu morfoekologik moslanishlar koksid-entomofag tizimi uzoq muddatli evolyutsiya mahsuli ekanini, shuningdek, foydali organizmlar populyatsiyasi barqaror bo‘lishi uchun mos yashash muhiti (turli mevali daraxtlar, qo‘shimcha nektar va polen manbalari, qishlash joylari)ni saqlab qolish zarurligini ko‘rsatadi. D.Kapizova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi sifatida “parazit-xo‘jayin” va “yirtqich-o‘lja” tizimida entomofaglarning morfoekologik moslanishlari tafsilotlari ham yoritilgan bo‘lib, bu bog‘ ekotizimida tabiiy nazorat mexanizmlarining mustahkamligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi natijalar asosida mevali bog‘larda ekotizim barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi yo‘nalishlar samarali hisoblanadi:

- urug‘ va danak mevali, tok, jiyda, pista va boshqa daraxtlarni uyg‘unlashtirgan aralash bog‘lar tizimini saqlash, chunki aynan bunday agrobiotsenozlarda entomofaglar soni eng yuqori bo‘ladi;
- cho‘l, adir va tog‘ oldi hududlarida kimyoviy ishlovlarni minimal darajaga tushirib, entomofaglar uzluksiz “biologik parda”sini saqlash;
- *Leucopis annulipes, Microterys sylvius, Coccophagus lycimnia, Metaphycus melanostomatus, Chilocorus bipustulatus* kabi turlarning laboratoriyada ko‘paytirilib, pest populyatsiyasi yuqori bo‘lgan maydonlarga qo‘shimcha chiqarilishini yo‘lga qo‘yish;
- gulli o‘simliklar polosalari va begona o‘tlarning ma’lum qismini saqlab, entomofaglar uchun nektar va polen manbalarini ko‘paytirish;
- keng ta’sir doirasiga ega insektisidlarni qo‘llashni cheklab, maqsadli, selektiv preparatlar va biologik himoya vositalarini integratsiyalashgan tizimda qo‘llash.

Shunday qilib, Sharqiy Farg‘ona mevali bog‘larida koksid-entomofag tizimi misolida ko‘rinadiki, foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash va boyitish – zararkunanda koksidlar

populyatsiyasini barqaror nazorat qilish, bog‘ ekotizimi barqarorligini mustahkamlash va kimyoviy bosimni kamaytirishning eng muhim va ekologik xavfsiz yo‘lidir [3].

Mahalliy natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan yaxshi uyg‘unlashadi. Masalan, Rosen va DeBach *Encarsia perniciosi* ning turli mamlakatlarda sitrus unsimon qurtlar populyatsiyasini samarali nazorat qiluvchi parazit ekanini ko‘rsatgan, keyingi molekulyar tadqiqotlar esa ushbu turning populyatsiyalari orasida sezilarli genetik xilma-xillik mavjudligini isbotlagan [2, 4, 5, 6]. Xuddi shuningdek, D.Kapizova Sharqiy Farg‘ona bog‘larida *A.fuscicollis, Aphytis proclia, Pseudaphycus malinus* singari turlarning biologiyasi va morfoekologik moslanishlarini yoritib, ularning koksidlar bilan “parazit–xo‘jayin” va “yirtqich–o‘lja” munosabatlari tabiiy ekotizim barqarorligini ta’minlovchi asosiy mexanizm ekanligi ko‘rsatgan [3].

Biroq entomofaglar salohiyatidan to‘liq foydalanish ularning yashash muhitini saqlash va kimyoviy omillar ta’sirini kamaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Janubiy Afrikada o‘tkazilgan tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan pestitsidlarning *Aphytis proclia* va boshqa parazit entomofaglar omon qolishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu holat uyg‘unlashgan zararkunandalar nazoratida selektiv preparatlardan foydalanish zarurligini taqozo etadi. Sharqiy Farg‘ona bog‘larida ham entomofaglar xilma-xilligini boyitish uchun pestitsid yuklamasini kamaytirish, bog‘lararo yashil yo‘laklar, gulzor va chekka polosalar tashkil etish, qishlovchi bosqichlar saqlanadigan biotoplarni (qalin po‘stloqli daraxtlar, butazorlar, begona o‘tli uchastkalar) asrash zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mevali bog‘larda “koksid–entomofag” tizimini tabiatga asoslangan yechim sifatida ko‘rsatib, ekotizim barqarorligini ta’minlashda foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash va boyitish eng maqbul chora ekanini namoyon etadi. Shu bois, maqolada taklif etilayotgan yondashuv – mahalliy entomofag turlari imkoniyatiga tayanilgan uyg‘unlashgan biologik kurash tizimini rivojlantirish – mevali bog‘larni koksidlar zararlanishidan himoya qilish bilan birga, bog‘ agroekotizimlarining uzoq muddatli ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Sharqiy Farg‘ona mevali bog‘larida shakllangan koksid–entomofag tizimi yuqori bioxilma-xillikka ega bo‘lib, jami 22 tur koksid va 31 tur entomofagdan iborat kompleks ekotizim barqarorligining asosiy omili ekanligi aniqlandi. Tadqiqotlar jarayonida ayrim parazit va yirtqich turlar O‘zbekiston, jumladan Farg‘ona vodiysi faunasi uchun ilk bor qayd etilishi, ularning trofik roli va tarqalish xususiyatlari mevali bog‘larni tabiiy himoya qilish salohiyatining yuqoriligini ko‘rsatdi. Laboratoriya va dala sharoitidagi sinovlar entomofaglar ishtirokida koksidlarni 17–55% gacha nazorat qilish mumkinligini ko‘rsatdi, bu esa kimyoviy pestitsidlarga qaramlikni sezilarli kamaytirish imkonini beradi. Tajriba bog‘larida biologik usullarni joriy etish natijasida zaharli kimyoviy ishlovlar hajmi qisqarib, iqtisodiy samaradorlik oshgani ham buni amalda tasdiqlaydi. Shunday qilib, mevali bog‘larda foydali organizmlar xilma-xilligini saqlash va boyitish, ularning yashash muhitini asrash va maqsadli ko‘paytirish ekotizim barqarorligini ta’minlashning eng muhim, tabiatga asoslangan va uzoq muddatli yechimi sifatida tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Eilenberg, J., Hajek, A., & Lomer, C. (2001). Suggestions for Unifying the Terminology in Biological Control. BioControl, 46(4), 387-400.

2. Hodek, I., & Honěk, A. (1996). Ecology of Coccinellidae. Kluwer Academic Publishers.

3. Kapizova D.R. Sharqiy Farg‘ona hududi mevali daraxt va butalari koksidlarining entomofaglari (faunasi, biologiyasi va morfoekologik xususiyatlari): biol. fan. fals. dokt. (PhD) ...diss. avtoref. –Farg‘ona, 2024. – 45 b.

4. Obrycki, J. J., & Kring, T. J. (1998). Predaceous Coccinellidae in biological control. Annual Review of Entomology, 43(1), 295-321.

5. Rosen, D., & DeBach, P. (1979). Biological control of California red scale. Annual Review of Entomology, 24(1): 1-16.

6. Xamrayev A.Sh. va boshq. O‘simliklarni biologik himoya qilish. –Toshkent, 2013. 336-b.

7. Zokirov I.I., Zokirova G.M. Zoologik tadqiqotlarda doimiy va vaqtinchalik preparatlar tayyorlash. Farg‘ona: FDU nashriyoti, 2024.

8. Архангельская А.Д. Кокциды средней Азии. –Ташкент, 1937. - 158 с.

9. Борхсениус Н.С. Сбор и изучение червецов и щитовок в помощь работающим на поле защитных лесных полосах. М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1950. 152 с.

10. Зокиров К. Фауна и биология червецов и щитовок (Homoptera, Coccoidea) и их энтомофагов культурных и диких полодовых растений в Ферганской долине.: Дисс. канд. биол. наук. -Ташкент, 1972. - 194 с.

11. Собиров О.Т. Фарғона водийси кокцидлари (Homoptera: Coccinea) фаунаси, морфологияси ва экологик хусусиятлари // Биол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс... –Тошкент, 2020. - 119 б.

A SPECIES OF MEDICINAL *FERULA* (KOVRAK) TYPE *PUCCINIA*, COMMON IN THE WESTERN TIEN SHAN REGION

Urinboev Islomjon Yunusali ugli
Fergana State Technical University

Annotatsiya. Maqolada, G‘arbiy Tyan-shan hududida tarqalgan dorivor *Ferula* turkumi o‘simliklarining 5 ta turida, *Puccinia* turkumi vakillarining 4 ta turi parazitlik qilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Tadqiqot hududida *F. tenuisecta* va *F. ugamica* kabi endemik turlar zang zamburug‘lari bilan zararlanishi kuzatilgan. Shuningdek, tadqiqot hududida tarqalgan *Ferula* turkumi o‘simliklarining mavsumiy rivojlanishi hamda *Puccinia* turlarining konspekti keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Xo‘jayin o‘simlik, endemik turlar, parazit, zang zamburug‘lari, patogen.

Аннотация. В статье приведены сведения о паразитировании 4 видов рода *Puccinia* на 5 видах лекарственных растений рода *Ferula*, распространенных в Западном Тянь-Шане, и о возбудителях этих болезней. На исследуемой территории отмечено поражение ржавчинными грибами эндемичных видов рода *F. tenuisecta* и *F. ugamica*. Представлены особенности сезонного развития растений рода *Ferula*, распространенных в исследуемой территории, и краткий обзор видов рода *Puccinia*.

Ключевые слова: Растение-хозяин, эндемичный вид, паразит, ржавчинные грибы, патоген.

Abstract. The article provides information on the parasitism of 4 species of *Puccinia* on 5 species of medicinal plants of the genus *Ferula* distributed in the western Tien Shan region and on pathogens. In the study area, endemic species such as *F. tenuisecta* and *F. ugamica* were observed to be infected by rust fungi. Also, the seasonal development of plants of the genus Ferula distributed in the study area and a synopsis of *Puccinia* species are presented.

Keywords: Host plant, endemic species, parasite, rust fungi, pathogen.

KIRISH

The genus *Puccinia* is the most abundant genus in the kingdom Basidiomycota, order Pucciniales, with over 4000 species [Cummins and Hiratsuka: 2003]. There are 446 genera and 3540 species of Apiaceae plants identified worldwide. They are mainly distributed in the northern temperate regions of the world [Mabberley: 1997]. More than 220 species of Apiaceae plants have been reported in Uzbekistan. [Feruza Mustafina et al., 2020].

Representatives of the Apiaceae family are a source of bioactive phytochemicals. As a result of studies conducted by foreign scientists, extracts and essential oils of representatives of this family have various biocidal: antifungal, antibacterial, insecticidal, herbicide and other effects. The biocidal activity of some species and their potential use for protecting agricultural products from phytopathogens, weeds, pests and food spoilage microorganisms have been proven. [Thiviya et al., 2022]. Plants of the Apiaceae family are widely used in Chinese medicine as traditional Chinese medicines for modern pharmacological purposes [Meiling Li et al., 2023].

The study and research of pathogens of higher plants distributed in Uzbekistan was first carried out by Zapromentov and his students (Zapromentov 1926). Later, scientific research was carried out by Lebedova in the Tashkent region (Lebedova 1951), Ahmedova in the Western Tien Shan region (Ahmedova 1966), and Ramazanova and other scientists (Ramazanova et al. 1986) on the study of rust fungi parasitic on higher plants distributed in different regions of Uzbekistan. Gafforov identified 15 species of *Puccinia* species parasitic on plants belonging to the Apiaceae family distributed in the Ugam-Chatkol mountains and the Zamin National Nature Park (Gafforov 2020). Currently, scientific research is ongoing by Gafforov (Gafforov et al. 2016) and his students on the study of rust fungi found in higher plants distributed in the northeast of Uzbekistan (Urinboev and Gafforov 2025).

As can be seen from the above data, *Puccinia* species are found on various plants worldwide and are distinguished as the most economically harmful species of biotrophic fungi. During our study, we aimed to analyze data on the distribution, bioecology and summary of *Puccinia* species found on plants belonging to the Apiaceae family distributed in Uzbekistan.

RESEARCH METHODS

During 2023-2025, scientific expeditions were organized to the natural landscapes and mountainous areas of Bostanlik, Parkent, Akhangaron and Angren districts of Tashkent region. Monitoring, route and short route methods were used to collect plants of the *Ferula* genus infected with *Puccinia* fungi.

Puccinia species found on plants of the genus *Ferula* distributed in Uzbekistan served as a source. Herbarium specimens of plants of the genus *Ferula* infected with *Puccinia* fungi were prepared. The place and time of collection of the collected herbarium specimens were determined. The species composition of the genus *Puccinia* was determined using scientific articles and identifiers. Plant specimens infected with *Puccinia* fungi were analyzed in the Mycology Laboratory of the Institute of Botany of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan and the Institute of Microbiology of the Chinese Academy of Sciences. At the same time, herbarium materials stored in the Tashkent Mycological Herbarium (TASM) fund were re-examined, morphological examination was carried out using 300M (HDCE-X5) and N-MBI-15 biolam and trinocular microscopes. The modern systematic nomenclature of the studied fungi was given based on the indexfungorum.org database, and the names of host plants were given based on the powo.science.kew.org database.

RESEARCH RESULTS AND THEIR DISCUSSION

As a result of the conducted scientific expedition work, literature analysis and re-examination of herbarium materials stored in the Tashkent Mycological Herbarium TASM fund, it was determined that 5 species of the *Ferula* genus: *F. karatavica, F. karataviensis, Ferula sp., F. tenuisecta and F. ugamica* distributed in the study area are infected with 4 species of the *Puccinia* genus: *P. doremae, P. libani, P. litvinovii* and *P. sogdiana*. The modern systematic nomenclature of the studied fungi was provided based on the indexfungorum.org database, and the names of the host plants were provided based on the powo.science.kew.org database (Table 1).

Table 1

***Puccinia* fungi parasitic on *Ferula* spp. plants distributed in the study area**

№	Types of fungi	Host plant	Researcher
1	*P. doremae*	*Ferula* sp.	Ramazanova et al.
2	*P. libani*	*F. karataviensis* (Regel & Schmalh.) Korovin	Ramazanova et al.
		F. karatavica Regel & Schmalh.	Ramazanova et al.
			Axmedova
3	*P. litvinovii*	*F. ugamica* Korovin	Ramazanova et al.
		Ferula sp.	Axmedova
			Lebedov
4	*P. sogdiana*	*F. karataviensis* (Regel & Schmalh.) Korovin	Ramazanova et al.
		F. tenuisecta Korovin	Ramazanova et al.
			TASM-734

During the conducted studies, it was noted that the development stages of the pathogens lasted from May in the spring to August in the summer. It was also observed that the species *F. tenuisecta* and *F. ugamica* are typical for the Western Tien Shan [Alexander Sennikov et al., 2020].

It was noted that the species *Ferula karatavica*, *F. karataviensis*, *F. tenuisecta*, and *F. ugamica* are plants rich in essential oils and honey, while the species *F. karatavica* and *F. karataviensis* are valuable as fodder plants.

As a result of the study, it was observed that the development phase of the parasitic *Puccinia* species in this genus lasts from the end of May in the spring season to August in the summer season. This is typical for the *Puccinia* genus, and it is noted that the favorable season for the development of representatives of this genus is the summer season.

Urediniospores round or elliptical, 25.1–34.5×23.2–24.6 µm, yellow. Teliospores elongated, united, remain under the epidermis for a long time, then form a black spot with a powdery appearance. Teliospores broadly elliptical, 26.64–48.0×19.98–30.2 µm, dark brown, slightly compressed, both ends rounded; with a distinct reticulate shell, golden yellow. (Fig. 1) (Ramazanova et al., 1986).




Figure 1. *Puccinia sogdiana* fungus identified on *Ferula tenuisecta*.

A) Appearance of *P. sogdiana* on a plant leaf; B) Telespores of the fungus

Summary of *Puccinia* species parasitic on plants in the genus *Ferula*

The following words have been abbreviated: Tashkent region – TR:. Angren district – AD:, Bostanlik district – BD:, Parkent district – PD:, Akhangaron district – AD:.

1. ***Puccinia doremae* Speschnew.**

Distribution: *Ferula* sp. (Apiaceae) – TR: 07.1898 (Ramazanova et al. 1986).

2. ***Puccinia libani* Magnus.**

Distribution: *Ferula karataviensis* (Regel & Schmalh.) Korovin (Apiaceae) – TR: PD: 07.1949 (Ramazanova et al. 1986), Sarisuyunsoy, 05.1950 (Ramazanova et al. 1986), Chatkal Reserve, 1951 (Lebedova 1951). *F. karatavica* Regel & Schmalh. (Apiaceae) – TR: PD: Chatkal Reserve, 1951 (Lebedova 1951).

3. ***Puccinia litvinovii* Tranzschel & Erem.**

Distribution: *Ferula ugamica* Korovin (Apiaceae) – TR: PD: 06-07.1949 (Ramazanova et al. 1986), BD: Sarisuyunsoy, 30.07.1961 (Ramazanova et al. 1986). *Ferula* sp. (Apiaceae) – TV: BTT: Aktash, 03.06.1938 (Ahmedova 1966), PKT: Chatkal Reserve, 1951 (Lebedova 1951).

4. ***Puccinia sogdiana* Kom.**

Distribution: *Ferula karataviensis* (Regel & Schmalh.) Korovin (Apiaceae) – TR: BD: Maydontol, 23.07.1955 (Ramazanova et al. 1986). *F. tenuisecta* Korovin (Apiaceae) – TR: OD: 23.08.1954 (Ramazanova et al. 1986). *F. karatavica* Regel & Schmalh. (Apiaceae) – TR: BD: Maydontol, 23.07.1955 (TASM-7324).

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

As a result of the conducted studies, it was found that the species of the *Puccinia* genus: *P. doremae, P. libani, P. litvinovii* and *P. sogdiana* - parasitize the species *F. karatavica, F. karataviensis, Ferula* sp., *F. ugamica*. Also, the species *F. tenuisecta* and *F. ugamica*, which are infected with pathogens, are recorded as endemic species for the Western Tien Shan (Uzbekistan). In addition, the host species *F. karataviensis*, *F. tenuisecta*, *F. ugamica* contain essential oil and honey; *F. karatavica*, *F. karataviensis* are valuable as fodder plants. When analyzing the seasonal development dynamics of representatives of this species, it was noted that pathogens occur in spring and summer. Future studies are recommended to compile GAT maps of the distribution of pathogens, conduct phylogenetic studies and develop measures to combat rust fungi.

REFERENCES

1. Ahmedova F.G. “Микофлора юго-западних отрогов Тян'-Шаня” //Author's thesis. diss. ... candy. biol. science Tashkent, 1966. 278, 257 p.
2. Cummins G.B & Hiratsuka Y. Illustrated genera of rust fungi. 3rd ed.: Amer. Phytopath. 2003. Soc., Minnesota: 240 pp.
3. Feruza Mustafina va boshq. The book of seeds: Apiaceae of Uzbekistan. Volume I. Preface, Introduction and Content July 2020, In book: The book of seeds: Apiaceae of Uzbekistan. Volume IPublisher: Baekdudaegan National Arboretum, Republic of Korea SBN 979-11-965681-3-9(96480).
4. Gafforov Y.Sh., “Species of *Puccinia* on apiaceae in Ugam-Chatkal and Zaamin National nature parks, Uzbekistan”, 2020.
5. Gafforov Y.Sh., Abdurazzokov A.A., Yarasheva M. & Y. Ono, “Rust fungi from the Fergana Valley, Chatkal and Kurama mountain ranges in Uzbekistan” 2016. *Stapfia*, *105*, 161-175.
6. Lebedova L.N. “Mycoflora and tree and shrub diseases of the SCP Gorko-lesnogo zapovednika of Uzbekistan”, 1951.
7. Mabberley D.J. The plant-book. 2nd Edition. Cambridge University Press, 1997. Cambridge: 857 pp.
8. Meiling Li, Li Wang, Mengfei Li and Janhe Wei, Apiaceae medicinal plants: A review of traditional uses, phy-tochemistry, bolting and flowering, and controlling approaches, May 2023, DOI: 10.20944/preprints202212.0272.v2.
9. Ramazanova S.S., Fayziyeva F.Kh., Sagdullayeva M.Sh., Kyrgyzboyev X.M., Gaponenko N.I., “Флора грибов Узбекистана” vol. 3. Tashkent: Fan 1986. pp. 183, 184, 187.
10. Sennikov Alexander et al. “Flora of Uzbekistan” Vol. 3. March 2020.
11. Thiviya P., Gunawardena N., Gamage A., Madhujith T., Merah O., “The Apiaceae family as a valuable source of biocidal components and their potential application in agriculture”, Horticulturae 2022, 8,614. DOI: 10.3390/horticulturae8070614.

12. Urinboev I.Y., Gafforov Y.Sh., “Shimoliy-sharqiy O‘zbekistonda tarqalgan *Puccinia* turkum turlarining bioekologik xususiyatlari”, Bulletin of the Khorezm Mamun Academy – 5-1/2025. Khiva pp. 72-78.
13. Zaprometov N.G. “Материали по микофлоре Средней Азии”. Vip. 1. Tashkent: 1926, p. 24.

ZARAFSHON DARYOSI MOLLYUSKALARI BIOXILMA-XILLIGIGA OG‘IR METALLAR, RADIOAKTIV ELEMENTLAR TA’SIRI VA ULARNING BIOINDIKATORLIGI

Izzatullayev Zuvayd[1], Suyarov Sulton Allaberdiyevich[1], Belyalova Leylya Enverovna[1]
Solijonov Xayrulla Xabibulla o‘g‘li[2]

[1]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
[2]Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institute

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida Zarafshon daryosining turli hududlarida tarqalgan *Sinanodonta puerorum* va *Sinanodonta orbicularis* turlariga og‘ir metallar (nikel, kobalt, mishyak, kadmiy, temir) hamda radioaktiv elementlar (^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K, ^{137}Cs) ning ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot Zarafshon milliy tabiat bog‘i va Ziyovuddin hududlarida olib borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mollyuskalar yoshining ortishi bilan chig‘anoqda og‘ir metallar to‘planishi ham oshadi. Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida 3 yoshli namunalarda chig‘anoq uzunligi 76 mm ni tashkil etgan bo‘lsa, Ziyovuddin hududida 71 mm ni tashkil etdi. Radioaktiv elementlar tahlili Jomboy, Oqdaryo va Paxtachi hududlarida o‘tkazildi va barcha ko‘rsatkichlar ruxsat etilgan normadan past ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari suv ekotizimlarining ekologik holatini baholashda mollyuskalardan bioindikator sifatida foydalanish imkoniyatini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *Sinanodonta puerorum, Sinanodonta orbicularis*, Zarafshon milliy tabiat bog‘i, Ziyovuddin, og‘ir metallar, radioaktiv elementlar, konxologik o‘zgaruvchanlik, bioindikator.

Аннотация. В данном исследовании изучено влияние тяжёлых металлов (никель, кобальт, мышьяк, кадмий, железо) и радиоактивных элементов (^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K, ^{137}Cs) на виды *Sinanodonta puerorum* и *Sinanodonta orbicularis*, распространённые в различных участках реки Зарафшан. Исследования проводились на территории Зарафшанского национального природного парка и в районе Зиёвуддин. Результаты показали, что с увеличением возраста моллюсков возрастает и накопление тяжёлых металлов в их раковине. В Зарафшанском национальном парке длина раковины трёхлетних особей составила 76 мм, тогда как в районе Зиёвуддин — 71 мм. Анализ радиоактивных элементов был проведён в районах Джамбай, Акдарья и Пахтачи, и установлено, что все показатели находятся ниже допустимых норм. Полученные результаты подтверждают возможность использования моллюсков в качестве биоиндиков при оценке экологического состояния водных экосистем.

Ключевые слова: *Sinanodonta puerorum*, *Sinanodonta orbicularis*, Зарафшанский национальный природный парк, Зиёвуддин, тяжелые металлы, радиоактивные элементы, конхологическая изменчивость, биоиндикатор.

Annotation. This study investigates the effects of heavy metals (nickel, cobalt, arsenic, cadmium, iron) and radioactive elements (^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K, ^{137}Cs) on *Sinanodonta puerorum* and *Sinanodonta orbicularis* species distributed across different sections of the Zarafshan River. The research was carried out within the Zarafshan National Nature Park and the Ziyovuddin area. The results indicate that the accumulation of heavy metals in mollusk shells increases with age. In the

Zarafshan National Nature Park, the shell length of three-year-old specimens reached 76 mm, whereas in Ziyovuddin it was 71 mm. The analysis of radioactive elements conducted in the Jomboy, Akdarya, and Pakhtachi districts showed that all values were below permissible limits. The findings demonstrate the potential use of mollusks as bioindicators for assessing the ecological condition of aquatic ecosystems.

Keywords: *Sinanodonta puerorum*, *Sinanodonta orbicularis*, Zarafshan National Nature Park, Ziyovuddin, heavy metals, radioactive elements, conchological variability, bioindicator.

KIRISH

Zamonaviy ekologik tadqiqotlarda suv ekotizimlarining holati va ularning antropogen omillar ta’siridagi o‘zgarishlari muhim global ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi. Gidrobiontlar, xususan mollyuskalar, suv muhitining kimyoviy tarkibi va ekologik holatining eng muhim bioindikatorlari hisoblanadi. Ular filtratsiya qilish jarayonida suvdagi turli moddalarni to‘plashi va uzoq muddat yashashlari sababli, ekotizimlarning uzoq muddatli monitoringi uchun ideal obyekt bo‘lib xizmat qiladi. Og‘ir metallar va radioaktiv elementlar suv ekotizimlarining eng xavfli ifloslantiruvchilari bo‘lib, ularning gidrobiontlar organizmlariga kirib, to‘planishi nafaqat ularning, balki butun ekotizim uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Suvda tarqalgan barcha organizmlar uchun suvning kimyoviy omillari hayotiy muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘sishi, rivojlanishi va reproduktiv qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1,8.] .

Zarafshon daryosi O‘zbekistonning muhim suv ekotizimlaridan biri bo‘lib, uning ekologik holati mintaqaning ekologik barqarorligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda daryo havzasida qishloq xo‘jaligi, sanoat va aholi tomonidan faol foydalanish natijasida suv sifatining yomonlashishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan, daryoning turli qismlarida suv sifati va gidrobiontlar holatini o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Og‘ir metallar (qo‘rg‘oshin, kadmiy, simob, nikel, kobalt) va kimyoviy moddalar (pestitsidlar, o‘g‘itlar) gidrobiontlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu moddalar ularning immun tizimini zaiflashtiradi va hatto genetik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasida suvda tarqalgan elementlarning ruxsat etilgan meyori (REM) quyidagicha belgilangan: Nikel (Ni^{+2}) 0,01 mg/l, Kobalt (Co^{2}) 0,01 mg/l, Mishyak (As^{2}) 0,05 mg/l, Kadmiy (Cd^{2}) 0,005 mg/l, Temir (Fe) 0,5 mg/l, Neft va neft mahsulotlari 0,05 mg/l [2,7,10.].

Ikkipallali mollyuskalar, xususan *Sinanodonta* turkumiga mansub turlar, o‘zlarining filtrlash faoliyati va sekin metabolizmi tufayli suv muhitidagi turli kimyoviy elementlarni to‘plashlari bilan ajralib turadi. Ularning chig‘anog‘i kimyoviy tarkibi suv muhitining uzoq muddatli holatini aks ettiradi va paleoekologik tadqiqotlarda ham qo‘llaniladi. Mazkur tadqiqotda Zarafshon daryosining turli hududlarida tarqalgan *Sinanodonta puerorum* va *Sinanodonta orbicularis* turlariga og‘ir metallar va radioaktiv elementlarning ta’sirini o‘rganish, shuningdek, ularning chig‘anoq morfometriyasidagi o‘zgaruvchanlikni aniqlash nazarda tutilgan [1, 3, 9.].

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotlar 2024-yil davomida Zarafshon daryosining turli hududlari, Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi (Jomboy tumani), Oqdaryo hududi, Ziyovuddin hududi va Paxtachi hududlarida olib borildi. Ushbu hududlar daryoning yuqori va quyi oqimini qamrab olgan holda tanlandi.

Namunalarni yig‘ish va tayyorlash. Mollyuskalar namunalari daryoning qirg‘oq qismlaridan va botiq qismlaridan qo‘lda va to‘r yordamida terib olindi. Har bir hududdan turli yoshdagi (3 va 6 yoshli) *Sinanodonta puerorum* turlari, shuningdek, *Sinanodonta orbicularis* turlari yig‘ildi. Mollyuskalarning yoshini chig‘anoqdagi o‘sish halqalari bo‘yicha aniqlandi. Jami Zarafshon daryosining Jomboy hududidan 25 ta, Oqdaryo hududidan 30 ta, Paxtachi hududidan 22 ta namuna terib olindi. Suv namunalari bir litrlik steril idishlarda to‘ldirildi va laboratoriyaga tashish uchun sovuq sharoitda saqlandi. Mollyuskalar chig‘anoqlari yuvib quritildi va keyingi

tahlillar uchun tayyorlandi. Har bir mollyuska chig‘anog‘ining morfologik o‘lchamlari shtangensirkul yordamida 0,1 mm aniqlik bilan olindi.

Og‘ir metallar tahlili. Suv va mollyuskalar chig‘anoqlaridagi og‘ir metallar (nikel, kobalt, mishyak, kadmiy, temir) va neft mahsulotlari miqdori Geologiya instituti laboratoriyasida zamonaviy masspektometr usuli yordamida aniqlandi. Suv namunalarida og‘ir metallar atomik absorbsion spektrofotometriya usuli bilan tahlil qilindi. Neft mahsulotlari infraqizil spektrofotometriya usuli yordamida aniqlandi. *Sinanodonta orbicularis* chig‘anog‘idagi radioaktiv elementlar (^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K, ^{137}Cs) miqdori Samarqand davlat universiteti Yadro fizikasi instituti laboratoriyasida aniqlandi [2,6,7.].


TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Zarafshon daryosining Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududidagi suvda Nikel (Ni^{+2}) 0,01 mg/l, Kobalt (Co^2) 0,01 mg/l, Mishyak (As^2) 0,06 mg/l, Kadmiy (Cd^2) 0,005mg/l, Temir (Fe) 0,5 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,06 mg/l. ga teng ekanligi aniqlandi. *Sinanodonta puerorum* 3 yoshdagi chig‘anog‘ida Nikel (Ni^{+2}) 0,02 mg/l, Kobalt (Co^2) 0,02 mg/l, Mishyak (As^2) 0,06 mg/l, Kadmiy (Cd^2) 0,006mg/l, Temir (Fe) 0,6 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,06 mg/l., chig‘anog‘i uzunligi 76 mm, chig‘anoq qabariqligi 26 mm ga ekanligini o‘rgandik (1-jadval va 1-rasm).

1-jadval

Zarafshon daryosi Zarafshon Milliy tabiat bog‘i hududi suvlarida va *Sinanodonta puerorum* chig‘anog‘ida elementlarning miqdori va o‘zgaruvchanligi (mg/l).

№	Namunalar olingan joy	Nikel (Ni^{+2})	Kobalt (Co^2)	Mishyak (As^2)	Kadmiy (Cd^2)	Temir (Fe)	Neft va neft mahsulotlari	ChU (mm)	ChQ (mm)
	REM	0,01	0,01	0,05	0,005	0,5	0,05		
1.	Suv	0,01	0,01	0,06	0,005	0,5	0,06		
2.	3 yoshdagi chig‘anog‘ida	0,02	0,02	0,06	0,006	0,6	0,06	76	29
3.	6 yoshdagi chig‘anog‘ida	0,02	0,03	0,06	0,006	0,7	0,06	162	67



1-rasm. Zarafshon daryosi Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududi suvlarida va *Sinanodonta puerorum* chig‘anog‘ida elementlarning miqdori va o‘zgaruvchanligi


Sinanodonta puerorum 6 yoshdagi chig‘anog‘ida Nikel (Ni^{+2}) 0,02 mg/l, Kobalt (Co^{2}) 0,03 mg/l, Mishyak (As^{2}) 0,06 mg/l, Kadmiy (Cd^{2}) 0,006 mg/l, Temir (Fe) 0,7 mg/l, Neft va neft mahsulotlari 0,06 mg/l. ga teng. *Sinanodonta puerorum*ning chig‘anog‘i uzunligi 162 mm, chig‘anoq qabariqligi 67 mm ekanligini aniqladik.

Zarafshon daryosining Ziyovuddin hududidagi suvda Nikel (Ni^{+2}) 0,02 mg/l, Kobalt (Co^{2}) 0,02 mg/l, Mishyak (As^{2}) 0,06 mg/l, Kadmiy (Cd^{2}) 0,006 mg/l, Temir (Fe) 0,6 mg/l, Neft va neft mahsulotlari 0,06 mg/l. ga teng ekanligi tahlil qilindi. *Sinanodonta puerorum* 3 yoshdagi chig‘anog‘ida nikel (Ni^{+2}) 0,02 mg/l, kobalt (Co^{2}) 0,03 mg/l, Mishyak (As^{2}) 0,07 mg/l, Kadmiy (Cd^{2}) 0,006 mg/l, temir (Fe) 0,6 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,07 mg/l., chig‘anog‘i uzunligi 71 mm, chig‘anoq qabariqligi 24 mm ga ekanligini o‘rgandik. *Sinanodonta puerorum* 6 yoshdagi chig‘anog‘ida nikel (Ni^{+2}) 0,03 mg/l, kobalt (Co^{2}) 0,03 mg/l, Mishyak (As^{2}) 0,07 mg/l, Kadmiy (Cd^{2}) 0,007 mg/l, temir (Fe) 0,7 mg/l, neft va neft mahsulotlari 0,07 mg/l. uchradi (2-jadval va 2-rasm). *Sinanodonta puerorum*ning chig‘anog‘i uzunligi 153 mm, chig‘anoq qabariqligi 62 mm ekanligini aniqladik.

2-jadval

Zarafshon daryosi Ziyovuddin hududi suvlarida va *Sinanodonta puerorum* chig‘anog‘ida elementlarning miqdori va o‘zgaruvchanligi (mg/l).

№	Namunalar olingan joy	Nikel (Ni^{+2})	Kobalt (Co^{2})	Mishyak (As^{2})	Kadmiy (Cd^{2})	Temir (Fe)	Neft va neft mahsulotlari	ChU (mm)	ChQ (mm)
	REM	0,01	0,01	0,05	0,005	0,5	0,05		
1.	Suv	0,02	0,02	0,06	0,006	0,6	0,06		
2.	3 yoshdagi chig‘anog‘ida	0,02	0,03	0,07	0,006	0,6	0,07	71	24
3.	6 yoshdagi chig‘anog‘ida	0,03	0,03	0,07	0,007	0,7	0,08	153	62




2-rasm. Zarafshon daryosi Ziyovuddin hududi suvlarida va *Sinanodonta puerorum* chig‘anog‘ida elementlarning miqdori va o‘zgaruvchanligi

O‘rganishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Zarafshon daryosining Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida suvda elementlarning uchrashi REM atrofida ekanligi *Sinanodonta puerorum* chig‘anog‘ida esa 3 yoshida kam 6 yoshida to‘planishi yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. Zarafshon daryosining quyi qismi Ziyovuddin hududida suv va mollyuska chig‘anog‘ida elementlarning

uchrashi ko‘proq ekanligi tahlil qilindi. Suvdagi elementlarning uchrashi tur chig‘anog‘ining o‘sishiga o‘z tasirini ko‘rsatishi aniqlandi. Masalan Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida 3 yoshda ChU 76 mm, ChQ 26 mm. Ziyovuddin hududida 3 yoshida ChU 71 mm. ChQ 24 mm. 6 yoshda Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida ChU 162 mm. ChQ 67 mm. Ziyovuddin qismida ChU 153 mm. ChQ 62 mm ekanliga o‘rganildi. Mollyuskalar yoshining oshib borishi bilan ularning chig‘anog‘ida elementlar to‘planishi ham ortishi kuzatildi.

Zarafshon daryosi o‘rta oqimi uchta qismidan Jomboy, Oqdaryo va Paxtachi hududlaridagi suvlardan *Sinanodonta orbicularis* turini terib uning chig‘anog‘ida ^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K va ^{137}Cs radioaktiv elementlarning uchrashini tahlil qilindi (3, 4, 5-rasmlar).




Radionuklid nomi	Aktivligi, Bk	Tasodifiy xatolik.,%	Solishtrma aktivlik, Bk/kg	Abs.pogr., Bk/kg	Nisbiy xatolik.,% (P=0.95)
Ra-226	< 3.43	-	< 173.2	-	-
Th-232	< 2.9247	0.33	< 147.7	11	-
K-40	< 22.844	0.35	< 1172	94	-
Cs-137	< 1.3249	-	< 66.92	-	-

Izoh: *Aeff = 59.1 ± 16.6 Bk/kg, Namuna olingan joy Zarafshon daryosi Jomboy hududi Mollyuska. Fon spektri: C:\ASW\fon-g\s-fon1.asw, Spektrni o‘lchash sanasi: 12.010.2023 16:29:20 Vaqti: 7198.90 s. Namuna massasi: 1200g; Namuna hajmi: 1.000 l.*

3-rasm. Zarafshon daryosi Jomboy hududida tarqalgan *Sinanodonta orbicularis* ning chig‘anog‘ida gamma-spektrlarini o‘lchash natijalari


Yarim o‘tkazgichli gamma – spektrometrlari atrof – muhitda sochilgan holda tarqalgan radioaktiv elementlar miqdorini aniqlash imkonini beradi. Aktivligi kichik bo‘lgan biologik namunalar mollyuskalar chig‘anog‘ida tabiiy radioaktivligini o‘lchashda olingan namunalarni quritish, maydalash, kukun qilish yo‘li bilan ularni bir jinsli holatga keltirish mumkin. Bu jarayon o‘lchashdan olinadigan natijalar aniqligini oshirishda muhim hisoblanadi. Mollyuskalar tabiiy radioaktivligini o‘lchash uchun chig‘anoq quritilib maydalanib bir jinsli kukun holiga keltirildi va o‘lchash uchun 1200 grammdan tortib olindi.



Radionuklid nomi	Aktivligi, Bk	Tasodifiy xatolik.,%	Solishtrma aktivlik, Bk/kg	Abs.pogr. ,Bk/kg	Nisbiy xatolik.,% (P=0.95)
Ra-226	< 3.5468	-	< 217.6	-	-
Th-232	< 2.9817	-	< 182.9	-	-
K-40	< 23.11	-	< 1401	-	-
Cs-137	< 1.3698	-	< 84.04	-	-

Izoh: Aeff = 59.1 ± 16.6 Bk/kg, Namuna olingan joy Zarafshon daryosi Oqdaryo hududi Mollyuska.Fon spektri: C:\ASW\fon-g\s-fon1.asw, Spektrni o‘lchash sanasi: 12.010.2023 16:29:20 Vaqti: 7198.90 s. Namuna massasi: 1200g; Namuna hajmi: 1.000 l

4-rasm. Zarafshon daryosi Oqdaryo hududida tarqalgan *Sinanodonta orbicularis* ning chig‘anog‘ida gamma-spektrlarini o‘lchash natijalari.



Radionuklid nomi	Aktivligi, Bk	Tasodifiy xatolik.,%	Solishtrma aktivlik, Bk/kg	Abs.pogr., Bk/kg	Nisbiy xatolik.,% (P=0.95)
Ra-226	< 4.2315	-	< 92.49	-	-
Th-232	< 3.0086	-	< 81.1	-	-
K-40	< 24.11	-	< 622.9	-	-
Cs-137	< 1.5269	-	< 35.77	-	-

Izoh: Aeff = 59.1 ± 16.6 Bk/kg, Namuna olingan joy Zarafshon daryosi Paxtachi hududi Mollyuska. Fon spektri: C:\ASW\fon-g\s-fon1.asw, Spektrni o‘lchash sanasi: 12.010.2023 16:29:20 Vaqti: 7198.90 s. Namuna massasi: 1200g; Namuna hajmi: 1.000 l

5- rasm. Zarafshon daryosi Paxtachi hududida tarqalgan *Sinanodonta orbicularis* ning chig‘anog‘ida gamma-spektrlarini o‘lchash natijalari.

Santyurina A (2008)., Bigaliyev A (2009)., Krishev A va b. (2014) lar ikkipallali va qorinoyoqli mollyuskalarning tabiiy radioaktivligi ko‘rsatkichlari to‘g‘risida adabiyotlarda ma’lumotlar keltirgan. Daryoning o‘rta oqimida tarqalgan *Sinanodonta orbicularis* turiga suv *Sinanodonta orbicularis*tabiiy radioaktivligi ta’siri va u orqali suvlarning radiatsiya balansi to‘g‘risida ma’lumotlar olish mumkin bo‘lgan imkoniyatlari o‘rganildi (3-jadval).

Zarafshon daryosi Jomboy tumani hududi chegara hududi mollyuskalari chig‘anog‘i tarkibidagi tabiiy radionuklid aktivligi ^{40}K – miqdori detektorning aniqlash chegarasidan kichik bo‘lib < 22,844 Bk/kg ni tashkil qiladi. Daryoning Oqdaryo chegara hududi mollyuskalari chig‘anog‘i namunasidagi tabiiy radionuklid ^{40}K miqdori ham fon darajasida bo‘lib detektorning aniqlash chegarasidan kichik < 23,11 Bk/kg miqdorni tashkil qiladi.

3-jadval

Turli biotoplarda tarqalgan *S.orbicularis* chig‘anog‘i tarkibidagi radioaktiv elementlarning solishtirma gamma-aktivligi ham chig‘anoq morfometrik belgilari.

Namunalar terilgan hududlar	*n*	Radioaktiv elementlar (Bk/kg)				Chig‘anoq o‘lchamlari (mm)			Massasi (g)
		^{40}K	^{232}Th	^{226}Ra	^{137}Cs	L	H	W	M
Jomboy	25	< 22,8	< 2,92	< 3,43	< 1,32	99,81 ± 0,6 (87,6–112,1)	66,47 ± 0,2 (56,0–77,1)	43,2 ± 0,2 (35,0–52,2)	241,6 ± 1,2 (231,0– 252,5)
Oqdaryo	30	< 23,1	< 2,98	< 3,55	< 1,36	99,0 ± 0,3 (87,6–109,4)	66,2 ± 0,4 (57,3–76,4)	42,6 ± 0,7 (33,1–51,6)	239,8±0,8 (227,4–251,6)
Paxtachi	22	< 24,1	< 3,00	< 4,23	< 1,52	96,35 ± 0,4 (84,1–110,6)	63,4 ± 0,1 (55,5–71,2)	41,2 ± 0,5 (29,0–51,4)	239,1±1,4 (228,1–249,8)

Daryoning Paxtachi hududida tarqalgan mollyuskalar chig‘anog‘i namunalari tarkibidagi radionuklidlar miqdori fon darajasida bo‘lib, tabiiy radionuklid ^{40}K miqdori < 24,11 Bk/kg ni tashkil qiladi. Ammo daryoning Jomboy, Oqdaryo va Paxtachi hududlarida chig‘anoqlarning namunalari tarkibidagi tabiiy radionuklid ^{40}K miqdori (yuqorida keltirilgan) ortib borganligini izohlash mumkin.

Toriy ^{232}Th- hamda uran oilasiga mansub ^{226}Ra- larning miqdorlari mos holda Jomboy tuman hududida < 2.9247; < 3.43, Oqdaryo hududida < 2.9817; < 3.5468, Paxtachi hududida < 3.0086; < 4.2315 Bk/kg ni, ni tashkil etdi. Bu esa daryo, ko‘l, baliqchilik xo‘jaliklari suv omborlaridagi organizmlarda uran-toriy oilasiga mansub radionuklidlarning belgilangan chegara qiymatidan yuqori emasligini ko‘rsatdi.

Texnogen radionuklid ^{137}Cs asosan atmosfera havosi tarkibida yomg‘ir, qor, chang zarralari tarkibida bo‘lib, asosan yog‘inlar natijasida daryo, suv omborlarining suvlari tarkibiga ma’lum miqdorda yig‘iladi. Shuning uchun biz tanlagan joylarning suvlari tarkibida bunday radionukiltidlar Zarafshon daryosi Jomboy hududida <1.3249, Oqdaryo hududida < 1.3698, Paxtachi hududida < 1.5269 Bk/kg ni tashkil qildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Zarafshon daryosi suvlarida og‘ir metallar miqdori daryoning yuqori qismidan quyi qismiga tomon ortib boradi. Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududida ko‘pgina elementlar ruxsat etilgan meyorga yaqin bo‘lsa-da, Ziyovuddin hududida nikel va kobalt 2 marta, mishyak, kadmiy va temir 1,2-1,4 marta yuqori ko‘rsatkichga ega. Mollyuskalar chig‘anog‘ida og‘ir metallarning to‘planishi suv tarkibidagi miqdordan 1,5-3 marta yuqori bo‘lib, bu ularning bioakkumulyatsion xususiyatini ko‘rsatadi. Mollyuskalar yoshining ortishi bilan (3 yoshdan 6 yoshga) chig‘anoqda elementlar to‘planishi 1,15-1,5 marta oshadi.

Og‘ir metallarning yuqori konsentratsiyasi mollyuskalarning morfometrik ko‘rsatkichlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ziyovuddin hududidagi 3 yoshli mollyuskalar chig‘anog‘i Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududidagilarga nisbatan 5-7% kichik o‘lchamlarga ega. Zarafshon daryosida radioaktiv ifloslanish darajasi yuqori emasligi qayd etildi. Tabiiy radionuklidlar (^{226}Ra, ^{232}Th, ^{40}K) va texnogen ^{137}Cs miqdori barcha hududlarda xavfsiz darajada va aniqlash chegarasidan past.

Daryoning yuqori qismidan quyi qismiga tomon mollyuskalar taksonomik xilma-xilligining sezilarli kamayishi (24 turdan 11 turgacha) kuzatildi, bu antropogen omillarning biologik xilma-

xillikka salbiy ta’sirini aks ettiradi. *Sinanodonta puerorum* va *Sinanodonta orbicularis* turlari Zarafshon daryosi ekotizimining suv sifati va ekologik holatini baholashda samarali bioindikator organizmlar sifatida ishlatilishi mumkin.

Gidrobiontlarni suv ifloslanishlaridan himoya qilish uchun Zarafshon daryosi bo‘ylab doimiy monitoring stansiyalarini tashkil etish va yiliga kamida 4 marta (fasllar bo‘yicha) suv va gidrobiontlar namunalarini olish tavsiya etiladi. Bu ifloslanish dinamikasini kuzatish va o‘z vaqtida choralar ko‘rish imkonini beradi.

Mollyuskalar populyatsiyasining zichligi, taksonomik tarkibi va morfometrik ko‘rsatkichlaridan suv ekotizimlarining ekologik holatini baholashda muntazam foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Zarafshon milliy tabiat bog‘i hududidagi nisbatan yaxshi ekologik holat va yuqori biologik xilma-xillikni hisobga olib, shunga o‘xshash muhofaza qilinadigan hududlarni boshqa hududlareda ham tashkil etish tavsiya etiladi.

Mahalliy aholi va tadbirkorlar orasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni ifloslanishdan asrash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boymurodov H., Zhabborova T., Tuinazarova I., Otakulov B., Egamkulov A. Aquatic ecosystems of the lower reaches of the Zarafshan River diversity and ecological groups of molluscs // E3S Web of Conferences. – 2021. –Vol. 262. – P. 12-14.
2. Lavanya S., Ramesh M., Kavitha C., Malarvizhi A. Hematological, biochemical and ionoregulatory responses of Indian major carp Catla catla during chronic sublethal exposure to inorganic arsenic // Chemosphere. 2011. Vol. 82, No. 7. P. 977-985.
3. Sladecek V. “System of Water Quality from the Biological Point of View” //Achieves für Hydrobiologie - Beiheft Ergebnisse der Limnologie. – 1973. – Vol. 7, No. 1. – P. 1-218.
4. Usero J., Izquierdo C., Morillo J., Gracia I. Heavy metals in fish (Solea vulgaris, Anguilla anguilla and Liza aurata) from salt marshes on the southern Atlantic coast of Spain // Environment International. 2003. Vol. 29, No. 7. P. 949-956.
5. Wang X., Sato T., Xing B., Tao S. Health risks of heavy metals to the general public in Tianjin, China via consumption of vegetables and fish // Science of The Total Environment. 2005. Vol. 350, No. 1-3. P. 28-37.
6. Zhang L., Wang W.X. Significance of subcellular metal distribution in prey in influencing the trophic transfer of metals in a marine fish // Limnology and Oceanography. 2007. Vol. 52, No. 5. P. 2008-2017.
7. Zhou Q., Zhang J., Fu J., Shi J., Jiang G. Biomonitoring: An appealing tool for assessment of metal pollution in the aquatic ecosystem // Analytica Chimica Acta. 2008. Vol. 606, No. 2. P. 135-150.
8. Иззатуллаев З.И. Ахмедова Г., Боймуродов Х.Т. Маматкулов О.Б., Нурмуродов А.Н., Хакимов Ш.Х. Радиоактивност моллюсков и рыб в бассейне реке Зарафшан. Илмий ахборотнома. Физика. – 2019. – № 3. – Б. 44 – 46.
9. Иззатуллаев З.И. Ахмедова Г.А, Боймуродов Х.Т. Эгамқулов А.Н., Нурмуродов А.Н. Радиоактивност моллюсков и рыб в бассейне реке Зарафшан // Экология и эволюция новые горизонты: Материалы международного симпозиума, посвященного 100-летию академика С.С. Шварца. – Екатеринбург, 2019. – С. 431-434.
10. Стеблевская Н.И., Полякова Н.В., Жадко Е.А., Чусовитина С.В. Микроэлементный состав тканей некоторых видов гидробионтов залива Петра Великого (бухта Северная). Вестник ДВО РАН. 2013. № 5. – С. 127-132.

ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЭНТОМОПАТОГЕННОГО ГРИБА КАК БИОЛОГИЧЕСКОГО АГЕНТА ДЛЯ КОНТРОЛЯ ЧИСЛЕННОСТИ ВРЕДИТЕЛЕЙ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЬТУР

Разикова Маликахон Фаррухжон кизи, докторант
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
Хўжамшукуров Нортожи Абдихоликович, профессор
Ташкентский химико-технологический институт

Аннотация. Энтомопатогенные микроорганизмы, включая грибы, играют важную роль как естественные регуляторы численности насекомых-фитофагов. Гриб *Metarhizium anisopliae* (Metsch.) Sor., впервые выделенный И.И. Мечниковым, является перспективным биологическим ресурсом для создания экологически безопасных биопрепаратов защиты растений. В последние годы разработаны препараты на основе *M. anisopliae var. acridum*, эффективно применяемые против саранчовых, однако в России такие средства пока не зарегистрированы. Для разработки аналогичных биоинсектицидов необходимо детальное изучение свойств *M. anisopliae*, в том числе его морфологической и функциональной изменчивости. Проведённые исследования показали, что морфовары, возникающие при спонтанной изменчивости коллекционных штаммов Р-72 и 85-69р, отличаются по структуре колоний, цвету мицелия и инсектицидной активности. Морфовары с пушистой структурой колоний проявляют более высокую вирулентность по сравнению с порошистыми.

Ключевые слова: Metarhizium anisopliae; энтомопатогенные грибы; биологический контроль; фитофаги; вирулентность; морфовары; ферментативная активность; биопестициды; микробные инсектициды.

Annotatsiya. Entomopatogen mikroorganizmlar, jumladan, zamburug‘lar, fitofag hasharotlar populyatsiyasining tabiiy regulyatori sifatida muhim rol o‘ynaydi. Birinchi marta I.I. Mechnikov tomonidan ajratib olingan Metarhizium anisopliae (Metsch.) Sor. qo‘ziqorini ekologik toza o‘simliklarni himoya qilish biopreparatlarini yaratish uchun istiqbolli biologik resurs hisoblanadi. So‘nggi yillarda chigirtkalarga qarshi samarali bo‘lgan M. anisopliae var. asosidagi preparatlar ishlab chiqildi. acridum hali Rossiyada ro‘yxatdan o‘tkazilmagan. Shunga o‘xshash bioinsektitsidlarni ishlab chiqish M. anisopliae xususiyatlarini, shu jumladan uning morfologik va funktsional o‘zgaruvchanligini batafsil o‘rganishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, P-72 va 85-69p kolleksiya shtammlarining o'z-o'zidan o'zgaruvchanligidan kelib chiqadigan morfovarlar koloniya tuzilishi, mitseliy rangi va insektitsid faolligi jihatidan farq qiladi. Yumshoq koloniya tuzilmalariga ega morfovarlar kukunsimonlarga qaraganda yuqori virulentlikni namoyon etadi.

Kalit so'zlar: Metarhizium anisopliae; entomopatogen zamburug'lar; biologik nazorat; fitofaglar; virulentlik;

Abstract. Entomopathogenic microorganisms, including fungi, play a crucial role as natural regulators of phytophagous insect populations. The fungus Metarhizium anisopliae (Metsch.) Sor., first isolated by I.I. Mechnikov, represents a promising biological resource for developing environmentally safe biopesticides for plant protection. In recent years, formulations based on M. anisopliae var. acridum have been successfully applied worldwide for the control of locust populations; however, such preparations are not yet registered in Russia. To develop efficient biological insecticides, a detailed investigation of the biological potential of M. anisopliae is required, including its morphological and functional variability. Studies have shown that

morphovars arising from spontaneous variability of the collection strains R-72 and 85-69r differ in colony morphology, pigmentation, and insecticidal activity. Morphovars with a fluffy colony structure exhibit higher virulence compared to powdery ones. To comprehensively assess the biological potential of the isolated morphovars, their enzymatic activity and resistance to ultraviolet radiation were examined.

Keywords: Metarhizium anisopliae; entomopathogenic fungi; biological control; phytophagous insects; virulence; morphovars; enzyme activity; biopesticides; microbial insecticides.

ВВЕДЕНИЕ

Энтомопатогенные микроорганизмы, включая грибы, являются важнейшими естественными факторами, регулирующими численность насекомых-фитофагов в природных экосистемах. Данный биологический ресурс открывает возможности использования природных энтомопатогенов в качестве основы для создания биологических средств защиты растений. Одним из наиболее изученных представителей этой группы является гриб *Metarhizium anisopliae* (Metsch.) Sor., который впервые был выделен И. И. Мечниковым из погибших особей жуков рода *Anisoplia*. Учёный предложил применять биомассу гриба, культивированного на питательных средах, в качестве экологически безопасного средства растительной защиты. Этот факт считается важной вехой в становлении микробиологического метода защиты растений [1].

Несмотря на историческую значимость открытия, недостаточная теоретическая и технологическая база в течение долгого времени сдерживала производство и практическое использование препаратов на основе данного гриба. Для создания эффективных биологических инсектицидов, способных заменить синтетические химические аналоги, необходимо глубокое исследование биологического потенциала *M. anisopliae* с целью рационального использования его свойств в биоконтроле популяций насекомых-фитофагов. Одним из факторов, определяющих изменение вирулентности энтомопатогенных грибов, является спонтанная изменчивость [2]. Поскольку такие процессы регулярно происходят в природных агроценозах, их изучение позволяет лучше понять механизмы возникновения эпизоотий в популяциях насекомых, когда особенно ярко проявляется потенциал гриба как биологического регулятора и элемента, способствующего сохранению биоразнообразия экосистем.

Ранее установлено, что в результате спонтанной изменчивости коллекционных штаммов Р-72 и 85-69р *M. anisopliae* формируются морфовары, различающиеся по структуре колоний и окраске воздушного мицелия [3]. При моноспоровых рассевах эти штаммы чётко дифференцируются на два морфологических подтипа, каждый из которых характеризуется специфическими особенностями роста, пигментации и спороношения. С практической точки зрения важно, что морфовары с пушистой структурой колоний (Р-72-1 и 85-69р-1) обладают более выраженной инсектицидной активностью по сравнению с

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В исследовании использовались коллекционные штаммы *Metarhizium anisopliae* (Metsch.) Sor. — Р-72 и 85-69р, предоставленные Институтом микробиологии РУзб. (Рис 1)

Морфовары Р-72-1, Р-72-2, 85-69р-1 и 85-69р-2 были получены в результате проявления спонтанной изменчивости исходных коллекционных штаммов. Культуры поддерживались методом периодических пересевов на скошенном агаре среды Сабуро. Пробирки с культурами хранили при температуре +5 ± 1 °С, осуществляя пересев на свежие питательные среды один раз в шесть месяцев.




Рис. 1. Коллекционные штаммы и морфовары Metarhizium anisopliae (Metsch.) Sor.
A-штамма P-72
B-штамма P-72-1
C-штамма P-72-2
D-штамма P-85-69p
E-штамма 85-69p-1
F-штамма 85-69p-2

Активность основных гидролитических ферментов определяли по стандартным методикам. Протеазную, липазную и амилазную активность измеряли по методике, предложенной В.В. Смирновым с соавторами [4]. Активность хитиназы оценивали по способности фермента расщеплять хитин до N-ацетилглюкозамина. Эстеразную активность определяли по классической методике, описанной в литературе [5].

Одной из характерных особенностей энтомопатогенных грибов, выгодно отличающей их от вирусных и бактериальных патогенов, является способность активно проникать в организм насекомого через кутикулу. Поскольку кутикула включает в свой состав белки, хитин и липиды, успешная инвазия гриба возможна лишь при наличии соответствующего комплекса гидролитических ферментов.

В литературе неоднократно отмечалась взаимосвязь между ферментативной активностью, культурально-морфологическими признаками и вирулентностью энтомопатогенных грибов, включая *Metarhizium anisopliae* [6]. Отбор изолятов с повышенной способностью продуцировать ферменты (протеазы, липазы, хитиназы, эстеразы и др.) может быть более информативным и практичным, чем классификация по морфологическим критериям. Следовательно, уровень ферментативной активности является важным биохимическим показателем, характеризующим биологический потенциал штаммов и морфоваров данного вида.

В рамках настоящей работы была исследована ферментативная активность коллекционных штаммов и выделенных морфоваров энтомопатогенного гриба *M.*

Таблица 1.

Ферментативная активность коллекционных штаммов и морфологических вариантов M. anisopliae

Штамм	Протеазная*	Эстеразная**	Липазная*	Амилазная*	Хитиназная**
P-72	5	0.38	3	17	61
P-72-1	12	0.78	11	24	80
P-72-2	4	0.11	3	8	23
85-69p	4	0.08	3	10	25
85-69p-1	7	0.08	6	12	20
85-69p-2	4	0.05	4	9	21
$НСР_{05}$	2	0.05	2	2	2

**Примечание: * — зона лизиса специфического субстрата, мм; ** — единицы активности в 1 мл культуральной среды.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Результаты показали, что морфологические различия между вариантами коррелируют с изменением ферментативной активности. Среди морфоваров обнаружены как варианты с повышенной активностью относительно исходных штаммов, так и с пониженной. Так, вариант Р-72-1 демонстрировал существенно более высокие показатели по всем видам активности: протеолитическая активность превышала уровень родительского штамма в 2,4 раза, эстеразная — в 2,1 раза, липазная — в 3,7 раза, амилазная — в 1,4 раза, а хитиназная — в 1,3 раза.

Для штамма 85-69р существенное увеличение ферментативной активности наблюдалось у морфовара 85-69р-1, в частности по протеазной (в 1,8 раза) и липазной (в 2 раза) активности. Согласно литературным данным [7], именно протеазы играют ведущую роль на ранних этапах инфицирования насекомого, обеспечивая первичное разрушение белковых компонентов кутикулы, тогда как хитиназы проявляют активность на более поздних стадиях инвазии.

Сравнительный анализ показал, что для морфоваров с пушистой структурой колоний наблюдается преобладающее повышение протеолитической активности по сравнению с хитинолитической. Особенно заметно возрастание липазной и эстеразной активности при переходе от штамма Р-72 к морфовару Р-72-1, что может свидетельствовать о его приспособленности к поражению насекомых с высоким содержанием липидов в кутикуле.

Высокая эстеразная активность морфовара Р-72-1 в сочетании с ранее установленной повышенной вирулентностью [8] указывает на возможное ускорение патогенеза при заражении хозяина данным вариантом. Различия в амилазной активности наиболее отчётливо проявляются между морфоварами Р-72-1 и Р-72-2, характеризующимися соответственно пушистой и порошистой структурой колоний.

Таким образом, по совокупности показателей наибольший интерес с точки зрения биологического ресурса для регуляции численности фитофагов представляет морфовар Р-72-1. Его преимущества обусловлены комплексом высоких значений протеазной, липазной и хитиназной активности, обеспечивающих эффективное проникновение гриба через кутикулу насекомого и развитие инфекции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Результаты, полученные в ходе исследования, показали, что различия во вирулентности штаммов и морфоваров энтомопатогенного гриба *Metarhizium anisopliae*, ранее описанные в литературе [8], определяются не только культурально-морфологическими особенностями, но и связаны с уровнем ферментативной активности. Наибольшее влияние на инсектицидные свойства изолятов оказывают протеазная, липазная и хитиназная активности.

Среди изученных образцов наибольшие значения всех исследованных ферментативных показателей продемонстрировал морфовар Р-72-1, который также характеризовался самой высокой степенью вирулентности по отношению к насекомым-фитофагам. Кроме того, данный изолят проявил наибольшую устойчивость к ультрафиолетовому излучению, что имеет важное значение для сохранения жизнеспособности и эффективности энтомопатогенных грибов в природных условиях.

Таким образом, установлено, что сочетание высокой ферментативной активности и устойчивости к абиотическим факторам внешней среды определяет значительный биологический потенциал штамма Р-72-1 *M. anisopliae* как перспективного агента биологического контроля насекомых-фитофагов. Полученные результаты дополняют существующие представления о физиолого-биохимических характеристиках энтомопатогенных грибов и расширяют научные основы их практического применения.

Рекомендуется применять изолят Р-72-1 для биоконтроля насекомых-фитофагов в открытом грунте, тепличных хозяйствах, а также при предпосевной обработке семян. Оптимальным является использование биопрепарата в форме сухой споровой массы с концентрацией не менее 1×10^8 спор/мл, с нормой расхода 250–350 мл/га при опрыскивании. Для повышения эффективности рекомендуется совмещать применение препарата с увлажнением почвы, исключая совместное использование с химическими инсектицидами в период 5–7 дней.

Производство биопрепаратов на основе M. anisopliae возможно методом твердой ферментации на зерновых субстратах (рис, кукуруза, пшеница) с последующим сушением при 28–32 °C. При себестоимости субстрата до 7 500 сум/кг и выходе сухой биомассы 0,62–0,83 кг/кг сырья экономическая эффективность производства препарата может достигать 110–145 тыс. сум/кг, что позволяет заменить импортные биоинсектициды

Список литературы

1. Lord J.C. From Metchnikoff to Monsanto and bey ond: The path of microbial control / J. C. Lord // J. Invertebr. Pathol. – 2005. Vol. 89. – P. 19–29.
2. Огарков Б.Н. Энтомопатогенные грибы Восточной Сибири / Б.Н. Огарков , Г.Р. Огаркова. – Иркутск : Изд-во Иркут . ун-та, 2000. – 134 с.
3. Serebrov V. Spontaneous variability of Metarhizium anisopliae strains as an approach for enhancement of insect activity / V. Serebrov, A. Maljarchuk,
M.V. Shternshis // Plant Sci. (Sofia). – 2007. – Vol. 44. – P. 244–247.
4. Смирнов В.В. Спороообразующие аэробные бактерии – продуценты биологически активных веществ / В.В. Смирнов , С.Р. Резник , И.А. Василевская . – Киев : Наукова думка , 1982. – 280 с.
5. Staeudinger M. Esterase. VIII. Histochemische el erophoretishe und quantitative Untersuchungen zum einfluss von phenobarbital auf die / M. Staeudinger, O. Diemling, C. Grossarth, T. Wienker // Histochemie. – 1973. – Hbd. 37. – S. 107–116.
6. Павлюшин В.А. Ферментативная активность и вирулентность энтомопатогенного гриба Beauveria bassiana (Bals.) Vuill. / В .А. Павлюшин // Микология и фитопатология . – 1977. – Т . 11. – С . 283–289.
7. Kang S.C. Purification and characterization of a nove l chitinase from entomopathogenic fungus, Metarhizium anisopliae / S.C. Kang, S. Park, D.G. Lee // J. Invertebr. Pathol. – 1999. – Vol. 73. – P. 276–281.
8. Serebrov V. Spontaneous variability of Metarhizium anisopliae strains as an approach for enhancement of insect activity / V. Serebrov, A. Maljarchuk, M.V. Shternshis // Plant Sci. (Sofia). – 2007. – Vol. 44. – P. 244–247.

CATHARANTHUS ROSEUS PLANT-DERIVED ENDOPHYTES: STUDY OF THEIR BIOLOGICAL DIVERSITY AND IDENTIFICATION OF BIOACTIVE SECONDARY METABOLITES

Norqo‘ziyeva Ozoda Shodmonqul qizi
Master’s degree student (1st year) in Microbiology at Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan.

Annotation: The study focuses on the isolation and identification of endophytic microorganisms from Catharanthus roseus (Madagascar periwinkle) and the assessment of their biological diversity. Endophytes are known to produce various bioactive secondary metabolites that play an essential role in plant protection and the development of new pharmaceutical

compounds. In this research, different endophytic strains were isolated, characterized, and analyzed for their ability to synthesize biologically active metabolites. The results highlight the potential of Catharanthus roseus endophytes as valuable sources of natural bioactive compounds useful for biotechnology and medicine.

Keywords: Catharanthus roseus, endophytes, biological diversity, secondary metabolites, bioactivity, biotechnology, natural compounds.

Anotatsiya: Ushbu tadqiqot Catharanthus roseus (Madagaskar vincasi) o‘simligidan ajratilgan endofitik mikroorganizmlarni aniqlash va ularning biologik xilma-xilligini baholashga bag‘ishlangan. Endofitlar turli xil biofaol ikkilamchi metabolitlarni sintez qilish xususiyatiga ega bo‘lib, ular o‘simliklarni himoya qilish va yangi farmatsevtik birikmalar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida turli endofit shtammlari ajratib olindi, ularning morfologik va biokimyoviy xususiyatlari o‘rganildi hamda biofaol metabolitlar sintez qilish qobiliyati tahlil qilindi. Olingan natijalar Catharanthus roseus endofitlarining biotexnologiya va tibbiyotda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan tabiiy biofaol moddalarning istiqbolli manbai ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Catharanthus roseus, endofitlar, biologik xilma-xillik, ikkilamchi metabolitlar, biofaollik, biotexnologiya, tabiiy birikmalar.

Аннотация: В исследовании рассматривается выделение и идентификация эндофитных микроорганизмов из растения Catharanthus roseus (барвинок розовый) и оценка их биологического разнообразия. Известно, что эндофиты продуцируют различные биологически активные вторичные метаболиты, играющие важную роль в защите растений и разработке новых фармацевтических соединений. В ходе работы были выделены и охарактеризованы различные штаммы эндофитов, а также проанализирована их способность синтезировать биологически активные вещества. Полученные результаты показывают потенциал эндофитов Catharanthus roseus как ценного источника природных биоактивных соединений, полезных для биотехнологии и медицины.

Ключевые слова: Catharanthus roseus, эндофиты, биологическое разнообразие, вторичные метаболиты, биологическая активность, биотехнология, природные соединения.

INTRODUCTION

Endophytic microorganisms are bacteria and fungi that live inside plant tissues without causing any apparent harm to their host. They are considered an essential component of the plant microbiome and play a significant role in promoting plant growth, enhancing resistance to pathogens, and producing biologically active secondary metabolites. These metabolites often possess antimicrobial, antioxidant, antitumor, and other pharmacologically valuable properties.

Catharanthus roseus (Madagascar periwinkle) is a well-known medicinal plant widely used for its alkaloids such as vincristine and vinblastine, which are used in cancer treatment. Recent studies have shown that endophytes associated with C. roseus can also produce similar or even novel bioactive compounds with potential pharmaceutical importance. Studying the diversity of endophytes from Catharanthus roseus and analyzing their metabolic potential is therefore of great scientific and practical interest. Understanding these microorganisms contributes to the discovery of new natural products and supports the development of environmentally friendly biotechnological processes for medicine and agriculture.

LITERATURE REVIEW

Endophytic microorganisms have gained significant scientific attention due to their ability to live symbiotically within plant tissues and produce bioactive compounds similar to their host plants. The term “endophyte” was first introduced by De Bary in 1866 to describe microorganisms inhabiting internal plant tissues without causing disease [1]. Since then, numerous studies have

revealed the diversity and ecological roles of endophytes in plant health and secondary metabolism [2, 3].

Catharanthus roseus (Madagascar periwinkle) is a well-known medicinal plant belonging to the family Apocynaceae. It is a natural source of pharmacologically important indole alkaloids, such as vincristine and vinblastine, used in cancer therapy [4]. Recent studies suggest that endophytes associated with C. roseus are capable of synthesizing the same or structurally similar alkaloids, indicating their biotechnological potential [5, 6]. According to Strobel and Daisy (2003), endophytes represent an untapped reservoir of novel bioactive secondary metabolites with antibacterial, antifungal, antiviral, and anticancer activities [7]. These microorganisms contribute to the ecological fitness of plants by enhancing stress resistance, nitrogen fixation, and protection against pathogens [8].

Research by Kusari et al. (2012) demonstrated that certain fungal endophytes isolated from C. roseus were able to produce vinblastine-like compounds in vitro [9]. Similarly, Zhao et al. (2010) and Suryanarayanan (2013) reported that the metabolic diversity of endophytes depends on the plant’s habitat, environmental conditions, and host genotype [10, 11].

Several studies have emphasized the importance of exploring endophytic diversity as a sustainable alternative source of natural products for pharmaceutical and agricultural applications [12, 13]. Modern techniques such as molecular identification, chromatography, and spectroscopic analysis have enhanced the understanding of endophyte-host relationships and metabolite production pathways [14, 15].

METHODS

Plant Material Collection. Healthy and disease-free leaves, stems, and roots of Catharanthus roseus were collected from the botanical garden of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan. Samples were placed in sterile polyethylene bags, labeled, and transported to the microbiology laboratory for further processing within 24 hours of collection.

Surface Sterilization of Plant Samples: Collected plant materials were thoroughly washed under running tap water to remove dust and debris. The samples were then surface sterilized using the following sequence:

1. Immersion in 70% ethanol for 1 minute.
2. Treatment with 2% sodium hypochlorite (NaOCl) solution for 3 minutes.
3. Rinsing three times with sterile distilled water to remove traces of disinfectant.

The final rinse water was plated on nutrient agar to check the effectiveness of surface sterilization.

Isolation of Endophytic Microorganisms: Sterilized plant parts were aseptically cut into small segments (0.5–1 cm) and placed on Potato Dextrose Agar (PDA) and Nutrient Agar (NA) plates supplemented with antibiotics to suppress bacterial contamination. The plates were incubated at 28 ± 2°C for 7–14 days. Emerging fungal and bacterial colonies from the plant tissues were sub-cultured on fresh media to obtain pure isolates.

Identification of Endophytes: The obtained isolates were identified based on their morphological characteristics (colony color, texture, growth rate, and spore formation) and microscopic features using lactophenol cotton blue staining. Molecular identification was carried out for representative strains using 16S rRNA (for bacteria) and ITS (Internal Transcribed Spacer) sequencing (for fungi).

Screening for Secondary Metabolite Production: Each pure endophytic isolate was inoculated into Potato Dextrose Broth (PDB) and incubated under shaking conditions (120 rpm, 28°C) for 10–14 days. After incubation, the culture broth was filtered and extracted using ethyl acetate. The organic phase was evaporated to dryness, and the crude extracts were tested for bioactivity.

Bioactivity Assays: Antimicrobial activity of the extracts was tested against pathogenic bacterial strains (Staphylococcus aureus, Escherichia coli, and Bacillus subtilis) using the agar well diffusion method. Zones of inhibition were measured in millimeters to evaluate bioactivity.

Chemical Analysis of Secondary Metabolites: The crude extracts showing significant bioactivity were subjected to Thin Layer Chromatography (TLC) and High-Performance Liquid Chromatography (HPLC) for the detection and partial characterization of secondary metabolites. UV–Visible spectrophotometry was also employed to determine the presence of alkaloids and phenolic compounds.

Data Analysis: All experiments were carried out in triplicate. The obtained data were analyzed using descriptive statistics, and results were expressed as mean ± standard deviation (SD). The correlation between endophytic diversity and metabolite production was evaluated statistically.

RESULTS AND DISCUSSION

A total of 25 endophytic isolates were successfully obtained from healthy leaves, stems, and roots of Catharanthus roseus. The frequency of endophyte occurrence was higher in leaf tissues (48%) compared to stems (32%) and roots (20%). Morphological and microscopic observations revealed that most isolates belonged to fungal genera such as Aspergillus, Penicillium, Fusarium, and Cladosporium, while a few bacterial isolates were identified as Bacillus and Pseudomonas species.

These results are in agreement with the findings of Kumar and Kaushik (2013), who reported a high diversity of fungal endophytes in C. roseus tissues [5]. The dominance of Aspergillus and Penicillium suggests their adaptability to the internal plant environment and potential metabolic versatility.Secondary Metabolite Production: Among the isolated endophytes, 12 fungal and 3 bacterial strains showed visible pigment production and strong growth in broth culture, indicating active metabolite synthesis. Ethyl acetate extracts from these isolates were subjected to antimicrobial screening.

The isolates Aspergillus niger (E4), Penicillium sp. (E7), and Bacillus subtilis (B3) exhibited significant antibacterial activity against Staphylococcus aureus and Escherichia coli with inhibition zones ranging from 14 to 23 mm. This demonstrates that endophytes associated with C. roseus are capable of producing potent bioactive metabolites similar to those found in the host plant.

Chemical Characterization of Extracts: TLC and HPLC analyses confirmed the presence of alkaloids, flavonoids, and phenolic compounds in several endophytic extracts. The UV–Vis spectra of Aspergillus niger (E4) extract showed peaks at 280 nm and 320 nm, typical of indole alkaloid structures, suggesting a similarity to C. roseus alkaloids such as vincristine and vinblastine. These results correlate with earlier studies by Kusari et al. (2012), who found endophytic fungi capable of producing vinblastine-like compounds [9].

Ecological and Biotechnological Significance: The study highlights that Catharanthus roseus hosts a diverse population of endophytic microorganisms with strong potential for biotechnological applications. Endophytes not only contribute to the plant’s ecological fitness by producing protective metabolites but also represent a renewable source of natural bioactive compounds. Their ability to synthesize pharmacologically important molecules without harvesting the host plant makes them a sustainable alternative for drug discovery.The variation in metabolite profiles among isolates suggests that endophytic diversity is closely related to their ecological niche and host tissue type. Further molecular and genomic studies are necessary to identify biosynthetic gene clusters responsible for secondary metabolite production and to optimize their yield under laboratory conditions.



1– rasm. Catharantus roseus guli va bargi tuzilishi.

CONCLUSION

In summary, the findings confirm that endophytic microorganisms from Catharanthus roseus exhibit remarkable biological diversity and metabolic activity. Some isolates demonstrated significant antimicrobial potential and contained bioactive compounds structurally related to known plant alkaloids. These endophytes could serve as promising candidates for future research in natural product discovery, pharmaceutical biotechnology, and sustainable bioresource development

References

1. Aly, A. H., Debbab, A., & Proksch, P. (2011). Fungal endophytes: unique plant inhabitants with great promises. Applied Microbiology and Biotechnology, 90(6), 1829–1845.

2. Bacon, C. W., & White, J. F. (2000). Microbial Endophytes. CRC Press.

3. Chutima, R., et al. (2010). Diversity and antimicrobial activity of endophytic fungi from medicinal plants in Thailand. Fungal Diversity, 41(1), 61–70.

4. De Bary, A. (1866). Morphologie und Physiologie der Pilze, Flechten und Myxomyceten. Leipzig: Wilhelm Engelmann.

5. Deshmukh, S. K., et al. (2020). Fungal endophytes: An emerging source of antimicrobial compounds. Frontiers in Microbiology, 11, 561

6. Kusari, S., Hertweck, C., & Spiteller, M. (2012). Chemical ecology of endophytic fungi: origins of secondary metabolites. Chemistry & Biology, 19(7), 792–798.

7. Kumar, S., & Kaushik, N. (2013). Endophytic fungi isolated from Catharanthus roseus and their potential for producing vinblastine and vincristine alkaloids. Applied Microbiology and Biotechnology, 97(3), 1303–1312.

8. Petrini, O. (1991). Fungal endophytes of tree leaves. In: Microbial Ecology of Leaves, Springer.

9. Porras-Alfaro, A., & Bayman, P. (2011). Hidden fungi, emergent properties: Endophytes and microbiomes. Annual Review of Phytopathology, 49, 291–315.

10. Schulz, B., & Boyle, C. (2005). The endophytic continuum. Mycological Research, 109(6), 661–686.

11. Singh, D. K., et al. (2019). Endophytic fungi: A promising source of bioactive metabolites. Frontiers in Microbiology, 10, 3073.

12. Strobel, G., & Daisy, B. (2003). Bioprospecting for microbial endophytes and their natural products. Microbiology and Molecular Biology Reviews, 67(4), 491–502.

13. Suryanarayanan, T. S. (2013). Endophyte research: Going beyond isolation and metabolite studies. Fungal Ecology, 6(6), 561–568.

14. Van Der Heijden, R., Jacobs, D. I., Snoeijer, W., Hallard, D., & Verpoorte, R. (2004). The Catharanthus alkaloids: Pharmacognosy and biotechnology. Current Medicinal Chemistry, 11(5), 607–628.

15. Zhao, J., Shan, T., Mou, Y., & Zhou, L. (2010). Plant-derived bioactive compounds produced by endophytic fungi. Mini-Reviews in Medicinal Chemistry, 10(9), 963–970.

TOSHKENT VILOYATIDA TARQALGAN *CROCOTHEMIS SERVILIA* (DRURY, 1773) NINACHISI (INSECTA: ODONATA) BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Samandarova Oygul Davlatnazar qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqola Toshkent viloyatida tarqalgan crocothemis servilia* (drury, 1773) ninachisi *biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. C. servilia* ninachisi *morfologik va biologik xususiyatlari haqida ma'lumot berilgan. Tadqiqot Toshkent viloyatida 2024-2025- yillar (bahor, yoz, kuz) da amalga oshirildi. Ninachi imogolarini kolleksiya materiali uchun yig’ishda ekspeditsion marshrut usulidan foydalanildi. Yig‘ilgan ninachilar asosan ichiga xloroform shimdirilgan paxta bo‘lakchasi solingan morilkalarda jonsizlantirildi.*

Kalit so’zlar: *lichinka, areal, o’rmon landshaftlari, noyob tur, Odonata, crocothemis servilia.*

Аннотация: *Статья посвящена изучению биологических и экологических особенностей стрекозы Crocothemis servilia (Drury, 1773), распространенной в Ташкентской области. Приведены сведения о морфологических и биологических особенностях стрекозы C. servilia. Исследования проводились в Ташкентской области в 2024-2025 годах (весна, лето, осень). Для сбора имаго стрекоз использовался экспедиционно-маршрутный метод. Собранных стрекоз преимущественно иммобилизовали в мориллах с помощью ватного тампона, смоченного хлороформом.*

Ключевые слова: *личинка, ареал, лесные ландшафты, редкие виды, Odonata, Crocothemis servilia.*

Abstract: *This article is devoted to the study of the biological and ecological characteristics of the dragonfly crocothemis servilia (drury, 1773), distributed in the Tashkent region. Information is provided on the morphological and biological characteristics of the dragonfly C. servilia. The research was carried out in the Tashkent region in 2024-2025 (spring, summer, autumn). The expedition route method was used to collect dragonfly imagoes for collection material. The collected dragonflies were mainly immobilized in morillas with a piece of cotton soaked in chloroform.*

Keywords: *larva, areal, forest landscapes, rare species, Odonata, crocothemis servilia.*

KIRISH

Ninachilar qadimiy, keng tarqalgan turkum vakillari bo'lib, hasharotlar sinfida alohida o'rin tutadi. [1, c. 280]. Ular suv va quruqlik biotsenozlarida muhim rol o'ynaydi. Biotsenozlarda katta o'rin egallagan ninachilar odamlar uchun bevosita yoki bilvosita ahamiyatga ega. Ninachilar qon so'ruvchi hasharotlarni, shuningdek, qishloq va o'rmon xo'jaligi zararkunandalarini ommaviy ravishda yo'q qiladi. Ninachilarning ayrim turlari zararli, chunki uy qushlarida kasallik keltirib chiqaradigan ba'zi parazitlarning oraliq xo'jayini sifatida, boshqalari baliq uchun ozuqa sifatida foydalidir, lekin ba'zi hollarda ular yosh baliqlarni yo'q qilgani uchun baliqchilikda ham zarar keltirishi mumkin. Bu ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin [2, c. 116].

Lichinka va imogo fazalarda ninachilar ko'p sonli qon so'ruvchi hasharotlarni yo'q qiladi: kunliklar, chivinlar. Ninachilar sutemizuvchilar uchun foydalidir, ammo parrandachilikda ular zararli bo'lishi mumkin, chunki ular trematodalarning rivojlanishida muhim omil hisoblanadi va ba'zi hollarda parrandalarning og'ir kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin [3, c. 133].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida 70 dan ortiq davlatlarda odonatologiya yo‘nalishida 700 dan ziyod yirik mutaxassislar faoliyat olib boradi. 1971 yilda odonatologik ilmiy tadqiqotlarning

samaradorligini oshirish hamda muvofiqlashtirish maqsadida Gollandiyaning Utrext universitetida Xalqaro odonatologlar jamiyati tashkil qilingan (SIO – The Societas Internationalis Odonatologica «Odonatologica» ilmiy jurnali ta’sischisi). Shuningdek, MDH miqyosida Rossiya Fanlar akademiyasida SIO ning Rossiya bo‘limi tashkil qilingan.

A.N.Bartenev XX asr boshlarida ninachilar faunasining o‘ziga xos xususiyatlari, geografik tavsiflari, bioekologik, gidrobiologik xususiyatlari haqidagi ilmiy tadqiqotlarga oid faoliyatini boshlaydi. Muallif 1911 yilda Primorya hududida uchrovchi 18 ta turning коллекциyasini zoologiya muzeyiga topshiradi. Ulardan quyidagilar: *Coenagrion hylas* (Trybom), *Nehalennia speciosa* (Charp), *Ophiogomphus obscurus* (Bart), *Sympetrum frequens* (Selys) Rossiyaning Uzoq Sharqida ilk bor uchraydi. Ninachi turlarining geografik tarqalish xususiyatlarini o‘rganish – odonatologiyada alohida yo‘nalish hisoblanadi. S.N.Borisov tomonidan Markaziy Osiyo hududlari Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonni janubiy qismida uchrovchi odonotofaunaning 3 ta kenja turkum, 10 ta oila, 31 avlodiga mansub 84 ta turi aniqlangan. Tadqiqotlar davomida ko‘plab yangi turlar qayt etilib turlarning rivojlanish bosqichlarini biologik xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan. Muallif keyingi ishlarida o‘rganilgan xududlarda ilk bor uchrovchi 9 tur ninachi lichinkalarini tavsiflagan. Hududlardagi ninachilar faunasi turlarining taksonomik tavsifi, экologik tarqalish xususiyatlari o‘rganilgan va har bir tur uchun tarqalish areali xaritalari tuzib chiqilgan. Bundan tashqari odaptiv moslanishlari va tarqalish qonuniyatlarini ochib berish hamda antropogen omil faoliyatini baholash bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan [4,5,6].

Doimiy tadqiqot va kuzatish joylarida ninachilarning oziqlanishi, ko‘payishi, rivojlanishi, miqdor zichligi, ayrim turlarining этologik xususiyatlari, миграциya harakatlari va rivojlanish jarayoniga alohida э’tibor berildi. Fenologik kuzatishlar yilning barcha mavsumlarida, bahor oylarida ninachilarni qishlovdan chiqqan davridan boshlab, ularni qishlovga ketgunga qadar bo‘lgan davrida olib borildi va unda quyidagi vaziyatlarga alohida э’tibor berildi:

- individlarni dastlabki uchrash vaqti;
- individlarni qishlovdan yoppasiga chiqishi (bunda joyning geografik o‘rni, relefi, biotop, o‘simlik qoplami va boshqalarga alohida э’tibor qaratildi);
- ninachilarni tuxum qo‘yishi, ularni keyingi rivojlanishi;
- mavsum oxirida kuzatilgan эng oxirgi individlar va boshqalar.

Ninachilarni hisobga olish har 6-7 kunda bir martadan, yilning bahor, yoz, kuz mavsumida uzлюксiz ma’lum ketma-ketlikda olib borildi. Bunda yo‘l bo‘ylab va aniq hudud bo‘yicha hisobga olish uslublaridan foydalanildi.

Ninachilarning mavsumiy rivojlanishi, ayrim turlar biologiyasi va ekologiyasini o‘rganishga oid kuzatish va amaliy tajribalar asosan Toshkent viloyati hududida olib borildi. Odonato faunani o‘rganish ikki bosqichda, jumladan, birinchi bosqichda Toshkent viloyati asosiy экotizimlari odonatofaunasi tur tarkibini aniqlash; ikkinchi bosqichda odonatofauna vakillarining экologiyasi va zoogeografik xususiyatlari, shuningdek, ularni ekotizimlar ozuqa zanjiridagi o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish vazifalari amalga oshirildi.

MATERIAL VA METODLAR

Tadqiqot Toshkent viloyatida 2024-2025-yillar (bahor, yoz, kuz) da amalga oshirildi. Toshkent viloyati o’ziga xos biogeografik hudud bo’lib, viloyatning shimoliy va shimoli-sharqiy qismlari G‘arbiy Tyanshan tog‘lari va uning tarmoqlari (Qurama, Piskom va Ugom tog‘lari) bilan band. Eng baland joyi Piskom tizmasidagi Manas tog‘i (4484 m). Chatqol va Qurama tog‘lari orasida Ohangaron daryosi kesib o‘tgan, Ohangaron platosi joylashgan. Viloyat hududining katta qismi Sirdaryo tomon qiyalanib boradigan tog‘ oldi tekisligi (Chirchiq-Ohangaron vodiysi) dan iborat. Iqlimi keskin kontinental. Qishi nam, nisbatan iliq, yozi issiq va quruq. Yanvarning o‘rtacha temperaturasi — 1,3°, −1,8°, eng past temperatura −34° (tekislikda), −38° (tog‘ etaklarida),

iyulnint o‘rtacha tempaturasi 26,8°, eng yuqori temperatura 43-47°. Daryolari Sirdaryo havzasiga mansub (Sirdaryo — o‘rta oqimi, uz. 125 km va uning irmoqlari — Chirchiq, Piskom va Ohangaron). Bular Tyanshan tog‘laridan boshlanadi va suvidan elektr energiya olishda va sug‘orish ishlarida foydalaniladi. Sug‘orish kanallari: Bo‘zsuv, Qorasuv, Dalvarzin, Toshkent va boshqa Tuyabo‘g‘iz suv ombori („Toshkent dengizi“), Chorvoq suv ombori, Ohangaron suv omborlari bor [8].

Ninachi imogolarini kolleksiya materiali uchun yig’ishda ekspeditsion marshrut usulidan foydalanildi. Ekspeditsion marshrut usuli – bunda uzunlik bo’yicha har 500 - 1000 metrda yurib, to’xtab, 6 m kenglikda bo’lgan maydondagi yetuk imagolar hisobga olinadi. Kuzatuvlar vaqti kunduzi 9:00 dan kech soat 17:00 gacha o‘tkazildi. Yig‘ilgan ninachilar asosan ichiga xloroform shimdirilgan paxta bo‘lakchasi solingan morilkalarda (hasharotlarning jonsizlantiradigan idish) jonsizlantirildi. [9]. Shu usulda morilkalar har ekskursiyadan oldin yangilandi. Morilkaga kengligi 1 sm, uzunligi 6 sm bo‘lgan filtr qog‘oz ham solinadi Filtr qog‘oz hasharotlar ajratadigan namni o‘ziga tortadi va ularning tana o‘simtalarini, oyoqlari, qanotlarini mexanik shikastlanishdan saqlaydi. Bir necha soatdan so‘ng yig‘ilgan hasharotlar yoyib yaxshilab quritildi. Quritilgan ninachilarni uzoq muddat saqlash uchun qog‘oz konvertlarga solindi [10]. Ninachi turlarni aniqlashda aniqlagichlar va internet saytlaridan foydalanildi [11].

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING TAHLILI

***Crocothemis servilia* (Drury, 1770) – Libellulidae** oilasi ***Crocothemis* Brauer, 1868 avlodiga mansub.** Ushbu tur 2 xil formada uchraydi. Ranglari sariq va olovrang tusda. May oyining 3-dekadasidan boshlab aktiv holatda uchratish mumkin (Xorazm viloyati uchun, 2021-2024 yy.) Lekin ba’zi adabiyotlarda ushbu turni O‘zbekistonda 1990-yildan keyin qayd etilmagan deb ta’kidlashgan (J.P.Boudot et al., 2021 y.) Toshkent viloyatining belgilangan barcha hududlarida ko‘p sonda uchratildi. Ushbu turni Borisov (2006) tekislik zonalarda keng tarqalgan tur deb e’tirof etgan. Shuningdek ushbu turni bivolting turlar sifatida qayd etgan. (Borisov S.N. 2006). O‘zbekiston bo‘ylab ko‘p tarqalgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Farg‘ona viloyati, Xorazm viloyati, Toshkent shahri, M.Sh.Axmedova 2021-2024 y.) **Erkagi:** Yorqin **qizil** rangda, orqa va qanotlarida qizg‘ish soyalar bo‘ladi. **Urg‘ochisi:** Sarg‘ish-jigarrang rangli **Uzunligi:** 35–40 mm atrofida **Qanotlarining yoyilishi:** 55–60 mm. Qorin qismi ingichka, erkaklarda to‘liq qizil rangga ega.Ko‘zlari katta va jigar-qizil tusli.Qanotlarining ildiz qismida ozgina sariq dog‘ bo‘lishi mumkin.Dum qismi (qorin oxiri) erkaklarda ancha yorqin qizil.



1-rasm: *Crocothemis servilia* (Drury, 1770); O’ngda urg’ochisi, chapda erkagi (original)

Yashash muhiti: Turg‘un yoki sekin oqimli suv havzalari: ko‘llar, hovuzlar, kanallar sug‘orish ariqlari, botqoqliklar, shahar atroflaridagi sun’iy suv havzalarida tez-tez uchraydi.

Nimfalar (lichinkalar) suvda yashaydi va mayda suv jonzotlari bilan oziqlanadi. Voyaga yetganlari hasharotlar — chivin, pashsha va mayda yengil uchuvchi qo‘ng‘izlarni tutadi. Issiq mavsumda faol, odatda mart–oktyabr oylarida uchraydi.

Ahamiyati: Chivinlar va boshqa zararli hasharotlar sonini kamaytirishda foydali. Ekotizim sog‘lig‘ining ko‘rsatkichidir — toza suv havzalariga ehtiyoj sezadi.

Crocothemis servilia (Drury, 1770) ning lichinkalari: morfologiyasi, ekologiyasi va hayot sikldagi o‘rni. Tashqi tuzilishi Tanasining shakli qisqa, keng, biroz yassilangan. Bu ularga suv tubida, o‘simliklar orasida yashirinish imkonini beradi. Tanisining o‘lchami, voyaga yetmagan nimfalar 2–3 mm, oxirgi instarlarda 18–22 mm gacha bo‘ladi. Rangi: Jigarrang yoki kulrang — bu kamuflyaj uchun mos rang. Ko‘zlari yirik, yon tomonlarda joylashgan; suv ostida ovni aniqlashda juda sezgir. Og‘iz apparati Odonatalarga xos bo‘lgan labium (mask) bilan qoplangan. Bu mask shiddat bilan oldinga otiladi va o‘lja (mayda qisqichbaqasimonlar, lichinkalar, chuvalchanglar)ni ushlaydi. Ko‘krak qismida kuyrik qanotlari yo‘q, lekin uch juft kuchli oyoqlari bor; ular yordamida suv tubida harakat qiladi va tosh-o‘simliklarga yopishadi. Qorin qismi 10 bo‘limdan iborat. Orqa tomondagi kichik tikonchalar himoya vazifasini bajaradi. Ichkaridagi rektal bo‘shliq orqali nafas oladi — suvni ichiga tortib chiqarish orqali kislorod oladi.

Fiziologik moslashuvlar: Nafas olishi C. servilia lichinkalari rektal traxeyal nafas olish tizimiga ega. Bu tizim ularga: past kislorodli suvda yashashga, tez suzish uchun suv oqimini "reaktiv harakat" sifatida ishlatishga imkon beradi. Reaktiv harakati suvni o‘pkasimon bo‘shliqqa tortib, keyin kuch bilan chiqarishi orqali lichinka orqaga tez harakatlana oladi — bu himoya va o‘lja quvish uchun juda samarali.

Ekologiyasi: Yashash joyi turg‘un va sekin oqimli suvlar: hovuzlar, ariqlar, botqoqliklar, sug‘orish kanallari, chuqur bo‘lmagan, suv o‘simliklari ko‘p bo‘lgan joylarni afzal ko‘radi. Toshlar, chirigan barglar ostida yashirinib yuradi. Oziqlanishi**:** Lichinkalar — faol yirtqichlar, zooplankton, suv hasharotlari lichinkalari (Diptera, Ephemeroptera), mayda chig‘anoq va qisqichbaqasimonlar, ba’zan boshqa kichik nimfalar bilan oziqlanadi. Oziq zanjiridagi roli mayda suv jonzotlari populyatsiyasini tartibga solishdan iborat. O‘zi esa baliqlar, yirik hasharotlar va amfibiyalar uchun oziq bo‘ladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqotlar Toshkent viloyati hududida *Crocothemis servilia* ning barqaror populyatsiyasi shakllanganini ko‘rsatdi. Mazkur tur antropogen o‘zgarishlarga nisbatan moslashuvchanligi, suv havzalarining turli tiplarida – ariqlar, hovuzlar, irrigatsiya tarmoqlari va sekin oqimli suv havzalarida muvaffaqiyatli rivojlana olishi bilan ajralib turadi. Maydonda olib borilgan kuzatuvlar ushbu ninachining fenologiyasi yuqori haroratli davrga kuchli bog‘liq ekanini, imago fazasida ayniqsa yoz oylarida faol bo‘lishini tasdiqladi.

C. servilia lichinkalarining tez rivojlanishi, oziqlanish manbalarining keng spektri hamda raqobatbardoshligi ularning turli ekologik sharoitlarda yashashiga imkon yaratadi. Shuningdek, suv havzalarining ekologik holati, suvning tozaligi va o‘simliklarning zichligi populyatsiyaning soni va barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Umuman olganda, Toshkent viloyatidagi *Crocothemis servilia* ning tarqalishi hududning iqlimiy va gidrologik sharoitlariga mos ekanligini, tur esa entomofaunaning muhim komponentlaridan biri bo‘lib, ekotizimlarda bioindikator sifatida katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Olingan natijalar hududiy monitoring ishlarini takomillashtirish, suv ekotizimlari holatini baholash va ninachilar biologik xilma-xilligini saqlash bo‘yicha muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yhati

1. Белышев Б. Ф. География стрекоз (Одоната) Бореалского фаунистического сарства / Б. Ф. Белышев, А. Ю. Харитонов // Издателство — Наука. — Новосибирск, 1981, 280.
2. Арабина И. П. Зообентос водоёмов Припятского заповедника / И. П. Арабина, Н. Н. Шаловенков, Л. Н. Песеская // Заповедники Белоруссии: Исследования. — Минск, 5. 198, 116–22.
3. Бартенев А. Н. / А. Н. Бартенев // Труды студ. кружка для исслед. Русской природы. Москов. ун-та 3. 1907, 133.
4. Kalkman, V. J., et al. Global diversity and distribution of dragonflies (Odonata). PLoS One, 2020, 15(5): e0234332.
5. Belyshev, B. F. Odonata faunasi va ekologiyasi. Novosibirsk: Nauka, 1973.
6. Dumont, H. J. The Dragonfly Fauna of the Palearctic Region. Leiden: Brill, 2013.
7. Kulyabov, G. A., & Haritonov, A. Y. Odonata turkumining Markaziy Osiyodagi tarqalishi va ekologiyasi. Entomologicheskoe Obozrenie, 2011, 90(4): 681–690.
8. «Toshkent» ensiklopediya, 2009. S. 104–109.
9. Abdusamatov, A. Sh., & Mamatqulov, R. N. O‘zbekistonda ninachilar (Odonata) faunasi va ekologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2015.
10. Dijkstra, K.-D. B., & Kalkman, V. J. A Field Guide to the Dragonflies of Asia. Singapore: NHBS Publishing, 2016.
11. https://www.gbif.org/species/1424201

OHANGARON DARYOSIDA TARQALGAN MIKROPLASTIK ZARRACHALARNING GIDROBIONT ORGANIZMLARGA TA’SIRI

Qurbon Nizom Abdurasul o‘g‘li, Aminov Xamza Xusanovich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Urinova Adolat Abduvasiyevna
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti[1]

Annotatsiya: Maqolada Toshkent viloyati hududidan oqib o‘tuvchi daryolarda tarqalgan mikroplastik sun’iy polimer vositalarning suv muhitida yashaydigan tirik organizmlarga u yoki bu tarzda ta’sir ko‘rsatishi bayon etilgan. Daryolarda tabiiy muhitning buzulishi natijasida u yerda yashaydigan gidrobiont organizmlarga ham salbiy ta’sirlar ko‘rsatmasligi ilmiy izlanishlar davomida kuzatilgan. Tadqiqotda daryolarda tarqalgan *Alburnus chalcoides aralensis* baliq turning ovqat hazm qilish sistemasi a’zolarida sun’iy tolali neylon polimerlari uchratilgan.

Kalit so‘zlar: plastik zarracha, polimerlar, Toshkent, daryolar, *Alburnoidus chalcoides aralensis,* gidrobiontlar.

Annotation: The article describes how microplastic synthetic polymer materials present in rivers flowing through the Tashkent region affect aquatic organisms inhabiting these waters. Scientific observations indicate that the deterioration of natural river ecosystems negatively influences the hydrobiont organisms living there. In the study, artificial nylon fibers were detected in the digestive system organs of the fish species Alburnus chalcoides aralensis occurring in these rivers.

Keywords: plastic particles, polymers, Tashkent, rivers, Alburnus chalcoides aralensis, hydrobionts.

Аннотация: В статье изложено воздействие микропластиковых синтетических полимерных частиц, распространённых в реках, протекающих по территории Ташкентской области, на живые организмы, обитающие в водной среде. В ходе научных исследований было установлено, что нарушение естественной среды в реках оказывает негативное влияние и на гидробионтные организмы, обитающие там. В исследовании в органах пищеварительной системы речной рыбы *Alburnus chalcoides aralensis*, распространённой в реках, были обнаружены искусственные волокнистые нейлоновые полимеры.

Ключевые слова: пластиковые частицы, полимеры, Ташкент, реки, *Alburnus chalcoides aralensis*, гидробионты.

KIRISH

Qattiq chiqindilarning to‘planishi atrof-muhitga tarqalgan kimyoviy modda va materiallarning ta’siri tufayli tobora xavotirli holatga kelmoqda va oxir-oqibat biota uchun salbiy oqibatlarga olib keladi. Ushbu chiqindilar orasida plastik so‘nggi o‘n yilliklarda tannarxining qulayligi, funksionalligi va dunyo miqyosida keng qo‘llanilishi bilan ajralib turadi.

Plastik 1860-yillardan boshlab takrorlanuvchi makromolekulalardan tashkil topgan sintetik polimerlardan ishlab chiqarilgan mahsulotlardan biri hisoblanadi. Uning sanoat sohasidagi qo‘llanilishi 1920-yillarda rivojlanib, ishlab chiqarish 1940-yillarda, xususan, 1970-2012 yillarda keskin oshganligi kuzatiladi. Natijada, qayta ishlashni rag‘batlantirishning yetishmasligi va noto‘g‘ri utilizatsiya jarayonlari atrof-muhitda plastik ifloslanishining oshishiga olib keladi0.

Mikroplastiklar (5 mm dan kichik bo‘lgan plastik zarrachalar) tobora ko‘proq chuchuk suv muhitlarida, jumladan daryolar, ko‘llar va suv omborlarida aniqlanmoqda. Ularning mavjudligi nafaqat ekotizimlarga, balki inson salomatligiga ham turli yo‘llar bilan jiddiy xavf tug‘diradi. Mikroplastiklarning inson organizmiga ta’siri asosan oziq-ovqat zanjiri, kimyoviy toksiklik, jismoniy zarar va nafas olish orqali yuzaga chiqadi.

Avvalo, mikroplastiklar planktonlardan tortib baliqlargacha bo‘lgan suv jonzotlari tomonidan yutiladi va oziq zanjiri bo‘ylab bioakkumulyatsiya hamda biomagnifikatsiya sodir bo‘ladi. Natijada, mikroplastiklar inson iste’mol qiladigan baliq va boshqa suv mahsulotlari tarkibiga kirib boradi **(Swain va boshq., 2025; Parmar va boshq., 2025; Prem va boshq., 2025; Ramasre va boshq., 2025)**. Bu jarayonlar esa inson tomonidan mikroplastiklar va ular bilan bog‘liq ifloslantiruvchi moddalarni yutish ehtimolini kuchaytiradi **(Parmar va boshq., 2025; Ramasre va boshq., 2025)**. Keyingi muhim xavflardan yana biri bu uning kimyoviy toksikligidir. Mikroplastiklar og‘ir metallar, pestitsidlar va barqaror organik ifloslantiruvchi moddalar kabi zararli kimyoviy birikmalarni o‘z yuzasiga adsorbsiyalashi va translokatsiyasini amalga oshirishi mumkin. Bu moddalar inson organizmiga o‘tishi bilan “kimyoviy otxona” effekti paydo bo‘lib, qo‘shimcha toksik ta’sirlarni keltirib chiqaradi **(Upadhyay va boshq., 2024; Huang va boshq., 2021).**

Xususan ushbu tadqiqotlar ustida Osiyo mamlakatlari mikroplastiklar bilan suv ifloslanishi bo‘yicha dunyoda yetakchilik qiladi **(Yang va boshq., 2022).**


Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Respublikamiz tabiiy suv havzalarida tarqalgan gidrobiont organizmlarni mikroplastik polimerlardan ualrni himoya qilish, tabiiy ekosistemani saqlab qolish bugungi kunning dolzarb muommolaridan biri hisoblandi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda daryolarda tarqalgan baliq turlariga mikroplastiklarning salbiy oqibatlarini tahlil qilish vazifasi maqsad qilib olingan.

MATERIAL VA METODIKA

Ilmiy manba sifatida Toshkent viloyati joylashgan Ohangaron va Chirchiq daryolarining o‘rta va quyi oqimlarida **(1-rasm)** tarqalgan Orol maybalig’ining nazorat ovlari davomida ovlangan turli yoshdagi 2 dona namunalaridan foydalanildi.

Bunda, ixtiologik materiallarni to‘plashda turli hil baliq ovlash vositalari ishlatildi: suv omborida – katakchalari 15-70 mm lik, uzunligi 25-50 m bo‘lgan to‘rlar, tortma (tor) to‘rlar; mayda baliqlarni ovlash uchun kichik katakchali sachok (matrap); daryoda – tortma (tor) to‘r, qarmoqlar va sachoklar yordamida; daryoning quyi oqimida qo‘zg‘almas to‘rlardan foydalanildi. Bundan tashqari, baliqchilar tomonidan tutgan baliqlari ham tahlil qilindi.

1-rasm Tadqiqot olib borilgan nuqtalar.



Tadqiqot doirasida daryoning yuqori oqimi to‘rasoy, ertoshsoy, arashansoy, sirt suvalari, kanallar va Tuyabo‘g‘iz suv omborida 2025 yil mart–avgust oylarida olingan.Namuna olish nuqtalarining geografik koordinatalari **1-jadval**da keltirilgan.

1-jadval

Baliq ixtiologik namunalar to‘plangan joylar va uning geografik koordinatalari

№	Sana	Hudud	Daryo	Uzunlik	Kenglik
1	13.03.2025	Oqqo'rg'on	Ohangaron	40.79625	68.84253
2	15.08.2025	Pop	Turasoy	41.27142	70.50566
3	15.08.2025	Ohangaron		41.17875	70.38567
4	18.08.2025	Yangihayot	Tuyabo'g'iz suv ombori	40.979720	69.296930

Suv namunalarini olish uchun qo‘lbola usulda tayyorlangan maxsus qurilma ishlatildi. Qurilmaning mikroplastik yig‘uvchi trubkalari silindrsimon shakl bo‘lib, boshqa o‘xshash qurilmalardan farqli ravishda, suvning yuqori 15 sm qatlamidan mikroplastiklarni to‘liq yig‘ib olish imkonini beradi.

Suv namunasi qirg‘oqdan, daryo oqimi yo‘nalishida 15 daqiqa davomida yig‘ilgan. Filtratsiya jarayonida yig‘ilgan barcha qattiq zarrachalar taxminan 100 ml hajmda konsentratsiyalangan, daryo suvi bilan yuvilgan va qopqoqli shisha idishlarga joylashtirilgan. Har bir joydan uchta takroriy namuna olingan va ular alohida tahlil qilinib, o‘rtacha qiymatlar statistik jihatdan qayta ishlangan.

Laboratoriya tahlillari: Namunalarning ifloslanishining oldini olish uchun ishlatilgan barcha materiallar va jihozlar zanglamaydigan po‘lat, shisha va alyuminiydan tayyorlangan. Ifloslanishning oldini olish maqsadida barcha reagent va eritmalar 1 mkm teshikchali membranali filtrlar orqali oldindan filtratsiya qilindi. Namuna tayyorlash jarayoni laminar oqimli shkafda amalga oshirildi.

Mikroplastiklarni ajratib olish: NOAA (AQSh Okean va Atmosfera Agentligi) protokoli asosida, o‘zgartirilgan ikki bosqichli jarayon qo‘llanildi:

Oksidlovchi hazm qilish bosqichi – 30% vodorod peroksid (H_2O_2) va 0,05 M Fe(II) eritmasi bilan 70 °C haroratda ikki marta ishlov berildi. Fe (II) katalizator sifatida peroksidning oksidlovchi kuchini oshirdi.

Zichlik bo‘yicha ajratish – qolgan qattiq fraksiya to‘yingan natriy xlorid (NaCl) eritmasida (~1.20 g/cm^3) 12 soat davomida ushlab turildi.

So‘ngra, zarrachalar vakuum filtratsiyasi yordamida 1 mkm teshikchali shisha tolali membranalarga yig‘ildi. Filtrlarda yig‘ilgan zarrachalar steril shisha Petri idishlarida saqlanib, mikroskopik va spektroskopik tahlil uchun tayyor holatda saqlandi. Har bir 3 namuna uchun “bo‘sh nazorat namunasi” (blank) ham tahlil qilindi. Nazorat filtrlarda 0 dan 1 tagacha tolalar topilgan. Agar laboratoriya ifloslanishi aniqlansa, o‘xshash morfologiyadagi tolalar tahlildan chiqarib tashlangan.

Zarrachalarni miqdoriy tahlil qilish va tavsiflash: Dastlabki vizual tahlil va zarracha sanash Raman spektroskopiyasi (μRaman) bilan aniqlanib, InVia Basic dispersiv Raman spektrometri (Renishaw, Buyuk Britaniya) va Leica DM 2500 M mikroskopi (Toshkent, O‘zbekiston) yordamida amalga oshirildi.

Mikroplastik zarrachalar o‘lchamiga (0.15-0.3 mm, 0.3-1 mm, 1-2 mm, 2-3 mm, 3-4 mm, 4-5 mm) va morfologiyasiga (shar, plyonka, tol/a, notekis bo‘lak) ko‘ra tasniflandi **(Frias & Nash, 2019)**.


Spektr o‘lchovi 785 nm to‘lqin uzunlikli yarim o‘tkazgich lazeri yordamida amalga oshirildi. Lazer quvvati 5-10% dan oshirilmagan. O‘lchov 1 soniya davomida, 200 ta skan asosida bajarildi. Spektral diapazon 100-1800 cm^{-1}, aniqlik 1 cm^{-1} bo‘lgan. Olingan Raman spektrlari plastik materiallarning jamoaviy spektr kutubxonasi (Public Spectra) bilan solishtirilib, polimer turlari aniqlangan

Olingan natijalar: Daryoda tarqalgan *Alburnus chalcoides aralensis* baliq turning ovqat hazm qilish sistemasida quyidagi turdagi mikroplastik zarrachasi mavjudligi kuzatildi **(2-jadval) (2-rasm)**

2-jadval

Baliq namunasining ovqat hazm qilish sistemasida kuzatilgan mikrozarrachalar

№	Naylon turi (shakli)	Kimyoviy nomi	Zichlik (g/cm^3)	Izoh
1	Neylon tolalari (bo‘shliqli)	-	0.83-0.95	Ichki porozlik tufayli zichlik past; to‘qimachilikda keng qo‘llaniladi.



2-rasm. Neylon tolalari

Jadvalda ko‘rinib turibdiki, baliq namunasining ovqat hazm qilish sistemasida turli xil usullar yordamida to‘qimachilik sanoatida keng qo‘llaniladigan neylon tolali mikroplastik zarrachali kuzatildi. Ammo ushu zarrachaning baliq namunalarining individual rivojlanish biologiyasiga qay darajada salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bizga no‘malumligicha qolmoqda. Keyingi ilmiy izlanishlarimizda baliq namunalarining qon tahlilini o‘tkazish va bir nechta vegetatsiya davrida iikkita-uchta bo‘g’inlarda uchraydigan o‘zgarishlarni kuzatishni maqsad qilganmiz.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Toshkent vioyatidan oqib o‘tuvchi Ohangaron daryosi suv hazlarida uchraydigan mikroplastik ifloslanishni baholash bo‘yicha birinchi yoki dastlabki tadqiqotlardan biridir turli xil polietilin vositalar natijasida paydo bo‘ladigan mikroplastik zarrachalarning suv gidrobiontlariga ekologik buzulishlar keltirib chiqarishini balki ularning ichki organlari va to‘qimalariga kirishi ham kuzatildi. Bu nafaqat hayvonot olami uchun salbiy ta’sirlarga olib kelishi qolaversa insonlar uchun turli xil patalogik holatlarni keltirib chiqarishi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chowdhury, S. R., Razzak, S. A., Hassan, I., (...), Hossain, M. M. (2023). Microplastics in Freshwater and Drinking Water: Sources, Impacts, Detection, and Removal Strategies. Water, Air, and Soil Pollution. https://www.scopus.com/pages/publications/85174456755
2. Ghosh, S., Sinha, J. K., Ghosh, S., (...), Bhaskar, R. (2023). Microplastics as an Emerging Threat to the Global Environment and Human Health. Sustainability (Switzerland). https://www.scopus.com/pages/ publications/85166242639
3. Gupta, D. K., Vishwakarma, A., & Singh, A. (2024). Microplastics in the Environment: Its Sources, Occurrence, Impact on Human Health and Environment. Lecture Notes in Civil Engineering. https://www.scopus.com/pages/publications/85174446650
4. Huang, W., Song, B., Liang, J., (...), Zhang, Y. (2021). Microplastics and associated contaminants in the aquatic environment: A review on their ecotoxicological effects, trophic transfer, and potential impacts to human health. Journal of Hazardous Materials. https://www.scopus.com/pages/publications/85095574268
5. Parmar, R., Thakur, S., Singh, A., (...), Rajpoot, S. (2025). Microplastics: understanding the interaction with the food web and potential health hazards. Journal of Environmental Engineering and Science. https://www.scopus.com/pages/publications/105006536632
6. Prem, P., Naveenkumar, S., & Kamaraj, C. (2025). The Effects of Microplastics on the Human Food Chain and Freshwater Ecosystem. Handbook of Microplastic Pollution in the Environment: Microplastic Pollution in Aquatic Environments. https://www.scopus.com/pages/publications/105008655379
7. Ramasre, J. R., Kashyap, N., Vishwakarma, A., (...), Wanjari, R. N. (2025). Microplastics in Aquatic Ecosystems: Ecotoxicological Impacts across the Food Web. Handbook of Microplastic Pollution in the Environment: Monitoring and Treatment of Microplastics and Policy Perspectives. https://www.scopus.com/pages/publications/105008661057
8. Shi, Y., Chen, W., Yang, S., (...), Lu, L. (2024). Freshwater microplastics governance and sustainable development: Pollution status, interactions, policies, and prospective studies. Desalination and Water Treatment. https://www.scopus.com/pages/publications/85201673866
9. Swain, P. R., Parida, P. K., Majhi, P. J., (...), Das, B. K. (2025). Microplastics as Emerging Contaminants: Challenges in Inland Aquatic Food Web. Water (Switzerland). https://www.scopus.com/pages/ publications/85215780934
10. Upadhyay, S., Sharma, P. K., Dogra, K., (...), Karmakar, R. (2024). Microplastics in freshwater: Unveiling sources, fate, and removal strategies. Groundwater for Sustainable Development. https://www.scopus.com /pages/publications/85192105564
11. Zhang, Q., Xu, E. G., Li, J., (...), Shi, H. (2020). A Review of Microplastics in Table Salt, Drinking Water, and Air: Direct Human Exposure. Environmental Science and Technology. https://www.scopus.com/pages/publications/85083003526

BIOXILMA-XILLIGI XAVF OSTIDAGI HUDUD SIFATIDA FARG‘ONA VODIYSIDA TARQALGAN AYRIM KAMYOB TURLAR TAHLILI

G‘ulomov Rustamjon Komiljon o‘g‘li, Xoshimov Xushbaxt Rustamjon o‘g‘li, Tog‘ayev Ibrohim Usamovich, Sheraliyev Abdurahmon
Namangan davlat univeristeti

Annotatsiya. *Astragalus rhacodes* Bunge (CR) – Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi, B1ab(ii,iii,iv). Oloy tizmasida o‘sadigan juda kamyob endemik tur. 2024-yilda Shoximardon (Yordon qishlog‘i)da olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlari natijasida Qiziltog‘ yonbag‘irlarida kichik subpopulyatsiyasi saqlanib qolganligi aniqlandi va 10 ta individ sanoqdan o‘tkazilgan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysi, IUCN, GeoCAT, Qizil kitob, muhofaza

Аннотация. *Astragalus rhacodes* Bunge (CR) – критически находящийся под угрозой исчезновения эндемичный вид, произрастающий в системе Алайского хребта и включённый в категорию B1ab(ii,iii,iv) по критериям IUCN. В ходе целевых полевых исследований, проведённых в 2024 году в Шахимардане (деревня Йордон), установлено, что на склонах Кызылтога сохранилась небольшая субпопуляция, состоящая из 10 особей. *Astragalus borissianus* Gontsch (DD) – эндемичный, крайне редкий вид Алайской системы гор, относящийся к категории «Недостаточно данных» (Data Deficient). Полевые исследования, проведённые в 2023–2024 годах в районах Шахимардона и Вадиля, не выявили существующих популяций этого вида.

Ключевые слова: Ферганская долина, IUCN, GeoCAT, Красная книга, охрана.

Abstract. *Astragalus rhacodes* Bunge (CR) is a critically endangered endemic species of the Alay mountain system, classified under the IUCN criteria B1ab(ii,iii,iv). Targeted field surveys conducted in 2024 in Shakhimardan (Yordon village) confirmed the presence of a small surviving subpopulation on the slopes of Qiziltog, consisting of 10 individuals. *Astragalus borissianus* Gontsch (DD) is an extremely rare endemic species of the Alay range, listed as Data Deficient. Field investigations carried out in 2023–2024 in the Shakhimardan and Vodil regions did not reveal any existing populations of this species.

Keywords: Fergana Valley, IUCN, GeoCAT, Red Data Book, conservation.

KIRISH

Farg‘ona vodiysi bo’ylab so‘nggi o‘n yillikda insonlarning atrof-muhitga ta’siri sezilarli darajada oshdi. Aholi punktlarining kengayishi, sanoat zonalarining ko’payishi, yaylov maydonlarini qisqarishi va boshqa omillar Farg’ona vodiysining kamyob va endem turlari populyatsiyasini zaiflashishiga olib keldi [1]. Vodiyning O’zbekiston qismida muhofaza etiladigan tabiiy qo’riqxonalarning yo’qligi va tabiat yodgorliklariga (vodiy hududini 0.1%) antropogen bosimni ortishi mavjud vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda. O’zbekiston “Qizil kitobi”ning so’ngi nashriga (2019) mazkur hududdan 57 yaqin tur ro’yxatga olingan. Bugungi kunda Farg’ona vodiysida (O’zbekiston qismi) muhofaza etiladigan davlat qo’riqxonalarining yo’qligi, vodiy bo’ylab muhofaza choralari bilan bog’liq zamonaviy strategiyalarni amaliyotga tadbiq etish va muhofazaga muhtoj turlarni xalqaro mezonlar (IUCN) asosida baholashni talab etadi.

Talabdan kelib chiqgan holda, 1) Bioxilma-xilligi xavf ostidagi Farg’ona vodiysida tarqalgan ayrim muhozafaga muhtoj turlarni kamyoblik maqomini xalqaro IUCN tamoyillari asosida baholash, 2) GeoCAT (Geospatial Conservation Assessment) xaritalarini tayyorlash, 3)

antropogen omillar tasiri bilan bog’liq masalalarni tahlil etish va O‘zbekiston “Qizil kitobi”ning navbatdagi nashriga xalqaro formatda qayta tavsiya etish tadqiqot vazifasi sifatida belgilangan.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotlar Namangan davlat univeristetida bajarilayotgan “**Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish**” (2025-2027) amaliy tadqiqot loyihasi (AL–9224104319-sonli) va “O’zbekiston Respublikasi Qizil kitobi holatini tanqidiy baholash. Jizzax, Samarqand va Farg’ona, Andijon, Namangan viloyatlarida tarqalgan turlar bo’yicha ma’lumotlar tayyorlash” (2023-2025) loyihasi doirasida amalga oshirildi [2, 3].

Hudud bo’ylab 2023-2025 yillar davomida (may-avgust) maqsadli va mashrutli dala tadqiqotlari olib borildi. Turning joylashuv koordinatalari GPS navigator (Garmin Gpsmap 64s navigator) yordamida aniqlandi. Gerbariy ma’lumotlarini olish uchun TASH, LE, FRU MW (https://www.plant.depo.msu.ru) fondlardan hamda Global bioxilma-xillik ma’lumotlar bazasidan (GBIF;https://www.gbif.org) foydalanildi. Taksonlarning nomenklaturasi Plants of the World Online (https://www. plantsoftheworldonline.org) katalogi bo’yicha keltirildi [4, 5, 6].

Kamyoblik maqomi IUCN [7, 8] metodologiyasining B (B2) va C (C2) mezonlari (EOO, AOO) asosida baholandi. Turning GeoCAT xaritasi Bachman metodik tavsiyalari asosida tayyorlandi [9]. Qo’riqlanadigan hududlar (WDPA; https://www.protectedplanet.net/en) xalqaro bazasidan foydalanildi [10].

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Olingan natijalarga ko’ra quyida keltirilgan o’simliklar O’zbekiston “Qizil kitobi”ning navbatdagi nashri uchun quyidagi 12 ta kategoriya bo’yicha yangi formatda baholash amalga oshirildi.

1. *Astragalus rhacodes* Bunge. Yulingan astragal. Астрагал оборванный

1

Oloy tizmasida o‘sadigan juda kamyob endemik tur. O‘zbekiston Qizil kitobining avvalgi nashrlarida (1998, 2006, 2009, 2019) tur 2-toifaga kiritilgan.

M **2. Tahdidlar.** O‘sish maydonlarida sanoat zonalari, bog‘dorchilik, chorvachilik va **a** rekreasion omillar (dam olish maskanlari, sanatoriya va boshqalar) ni tashkil etilishi asosiy tadidlar **q** hisoblanadi.

o

m

i

B(CR) – Butunlay yo‘q bo‘lib ketish arafasidagi, B1ab(ii,iii,iv).

o

‘

y

i

2

0

-

4

0

s

m

,

p

a

s

t

k



1-rasm. *Astragalus rhacodes* Bunge. tabiatdagi tasviri

4. Tarqalishi. Farg‘ona viloyati: Oloy tizmasida (Shoximardon, Sadkak, Qiziltog‘) tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida ham o‘sadi. Tarqalish maydoni (EOO) 54 km^2. Tur populyatsiyalari egallagan maydon (AOO) 12 km^2.

5. O‘sish muhiti. Dengiz sathidan 1200-1600 m balandlikdagi tog‘ yonbag‘irlarida, qizil qumtoshlarda, mayda jinsli va shag‘alli tuproqlarda.

6. Soni. Yakka-yakka holda yoki bir nechta tup o‘simliklardan tashkil topgan kichik to‘plar hosil qilib o‘sadi. 2024-yilda Shoximardon (Yordon qishlog‘i)da olib borilgan maqsadli dala tadqiqotlari natijasida Qiziltog‘ yonbag‘irlarida kichik subpopulyatsiyasi saqlanib qolganligi aniqlandi va 10 ta individ sanoqdan o‘tkazilgan.

7. Foydalanilishi. Foydalanilmaydi.

8. Madaniylashtirilishi. Toshkent botanika bog‘ida ekib o‘stirilgan.

9. Muhofaza choralari. Maxsus muhofaza chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

10. **Manbalar**. [11, 12, 13, 14, 15, 16].

11.Tuzuvchilar. G‘ulomov R.K., Xoshimov X.R.

12. Foto. G‘ulomov R.K., Xoshimov X.R.



2-rasm. *Astragalus rhacodes* Bunge. geocat xaritasi

2. *Astragalus borissianus* Gontsch. Boris astragal. Астрагал Бориса.

1

.

2. Tahdidlar. Chorvachilik, rekreasion omillar (dam olish maskanlari, sanatoriya va
M
oshqalar) turlarni populyatsiyasiga asosiy tahdid sifatida baholanadi.
á
yi 30 sm, deyarli poyasiz yoki juda qisqa poyali, barg qoldiqlari bilan o‘ralgan ko‘p yillik
q
‘simlik. Bargi 10-23 sm uzunlikda, bargchalari 10-13 juft, cho‘ziq, ellips shaklida yoki o‘tkir
n
ashtarsimon, uzunligi 7-15 mm, qattiq, yaproqchalarining har ikki tomoni yotiq oq tukli.
G
ulpopukchalari qisilgan, qisqa 6-8 gulli. Dukkagi bandsiz, cho‘ziq-tuxumsimon, 14-15 mm
i
4
O
‘
s
h
m
a
d
i
t
o
‘
g
‘
a
y
d
a
o
‘
s
a
d
i

E
1
2
8



3-Rasm. *Astragalus borissianus* Gontsch

7. Foydalanilishi. Foydalanilmaydi.


8. **Madaniylashtirilishi.** Madaniylashtirilmagan.

9. **Muhofaza choralari.** Maxsus muhofaza chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

10. **Manbalar** [12, 13, 14, 15, 16, 17].

11. **Tuzuvchilar.** G‘ulomov R.K. Xoshimov X.R.

12. **Foto.** Hasanov F.O‘.



4-Rasm. *Astragalus borissianus* Gontsch geocat xaritasi

XULOSALAR

Olingan natijalar “Bioxilma-xilligi xavf ostidagi hudud sifatida Farg‘ona vodiysi florasining raqamli platformasini ishlab chiqish” amaliy tadqiqot loyihasi (AL–9224104319-sonli)da belgilangan vazifalar ijrosini amalga oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini 2018-yil 1034-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ғуломов Р.К. Фарғона водийсида тарқалган *Phlomoides* Moench туркуми (таксономияси, географияси, экологияси ва муҳофазаси): автореф. дисс. PhD. –Тошкент: 2022. – б. 43.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 19-dekabrdagi 1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

4. Moscow university virtual herbarium (https://plant.depo.msu.ru, accessed on 25 Aprel 2024)

5. Global Biodiversity Information Facility. 2024. Free and open acces to biodiversity data. Retrieved aprel 30, 2024, available from https://www.gbif.org.

6. Plants of the World Online. 2024. Facilitated by the Royal Botanic Gardens, Kew. Retrieved Aprel 30, 2024, available from https://www.plant softheworld online.org/

7. International Union for the Conservation of Nature. 2019. Guidelines for Using the IUCN Red List Categories and Criteria; Version 14; Prepared by the Standards and Petitions Subcommittee. Retrieved September 6, 2023, available online: https://www.iucnredlist.org/resources/redlistguidelines

8. International Union for the Conservation of Nature. 2012b. IUCN Red List Categories and Criteria: Version 3.1. Second edition. Gland, Switzerland and Cambridge, UK: IUCN. Available at www.iucnredlist.org/technical-documents/ categories and criteria.

9. Bachman S, Moat J, Hill A, de la Torre J, Scott B (2011) Supporting Red List threat assessments with GeoCAT: geospatial conservation assessment tool. ZooKeys 150: 117-126. https://doi.org/10.3897/zookeys.150.2109

10. World Database on Protected Area. 2023. Retrieved Aprel 25, 2024, available from https://www.protectedplanet.net/en.

11. Шерматов Г.М. Секция Bucharica рода Astragalus // Определитель растений Средней Азии. Т. 6. Ташкент: Фан, 1981. – С. 220-222.

12. Красная книга Узбекской ССР. Ч. 2. Растения. Ташкент: Фан, 1984. – С. 150.

13. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения. Ташкент: Chinor ENK, 1998.

14. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: "Chinor ENK", 2006.

15. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: "Chinor ENK", 2009.

16. Красная Книга Республики Узбекистан: Редкие и исчезающие виды растений и животных: (в 2-х томах): Т.1. Растения и грибы. Ташкент: "Chinor ENK", 2019.

17. Абдуллаева М.Н. Секция Tropidolobus рода Astragalus // Определитель растений Средней Азии. Т.6. Ташкент: Фан, 1981. – С. 228-229.

БИОРАЗНООБРАЗИЕ ФАУНЫ МЕЛКИХ МЛЕКОПИТАЮЩИХ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИРОДНОЙ СРЕДЫ ПРИАРАЛЬЯ

Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна – доктор биологических наук, профессор, Директор Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук

Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна – доктор биологических наук (DSc), с.н.с., зав. лабораторией Экологии животного мира Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук

Абдинасырова Наргиза Абдрасулиевна – базовый докторант,

Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук

Байниязова Гулайым Саламатдин кизи – базовый докторант

Нукусский государственный педагогический институт

Annotatsiya. Maqolada Janubiy Orolbo‘yi tabiiy muhitining transformatsiyasi sharoitida mayda sut emizuvchilar faunasi bioxilma-xilligining hozirgi holati bo‘yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Orolbo‘yining barcha ekotizimlarida so‘nggi davrda mayda sut emizuvchilar jamoalarining xilma-xilligi, tuzilishida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, bu esa mayda sut emizuvchilar populyatsiyalarining zonal tarqalishi kontrastining oshishiga olib keldi.

Kalit so‘zlar: Bioxilma-xillik, fauna, mayda sut emizuvchilar, cho‘llanish, ekotizimlar degradatsiyasi, dinamika, biota, chidamlilik, adaptatsiya.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований по современному состоянию биоразнообразия фауны мелких млекопитающих в условиях трансформации природной среды Южного Приаралья. Во всех экосистемах Приаралья за последний период

времени произошли значительные изменения в разнообразии, структуре сообществ мелких млекопитающих, что привело к увеличению контрастности зонального распределения популяций мелких млекопитающих.

Ключевые слова: Биоразнообразие, фауна, мелкие млекопитающие, опустынивание, деградация экосистем, динамика, биота, устойчивость, адаптация.

Abstract. The article presents the results of research on the current state of biodiversity of the fauna of small mammals in the context of the transformation of the natural environment of the Southern Aral Sea region. In all ecosystems of the Aral Sea region, significant changes have occurred in the diversity and structure of small mammal communities over the past period, which has led to an increase in the contrast of the zonal distribution of small mammal populations.

Key words: Biodiversity, fauna, small mammals, desertification, ecosystem degradation, dynamics, biota, sustainability, adaptation.

ВВЕДЕНИЕ

Сохранение биоразнообразия и охрана природы являются важными аспектами устойчивого развития любого государства. В Республике Узбекистан, обладающей уникальными природными ресурсами, эти вопросы становятся особенно актуальными. Стратегия по сохранению и использованию биоразнообразия, утвержденная в 2019 году, основывается на Конституции Республики Узбекистан и законах охраны природы [1]. Целью стратегии является достижение сбалансированной и устойчивой формы развития, которая включает сохранение биоразнообразия.

Проблема состояния биоразнообразия фауны и ее динамика в условиях интенсивной аридизации и опустынивания региона Приаралья требует всестороннего углубленного изучения. В связи с этим необходимо провести инвентаризацию биоресурсов нашего региона и разработать меры и пути их охраны. В последние годы с интенсивным освоением территории плато Устюрта резко возросло влияние антропогенных факторов (строительство железных дорог, газопроводов и т.п.) на динамику ландшафта и растительных сообществ, видового разнообразия фауны и ее биопродуктивности [2].

Фауна мелких млекопитающих, как важный компонент экосистем, претерпевает существенные изменения в связи со сложившейся экологической ситуацией в регионе Приаралья. Взаимодействие и сравнительный анализ животного населения различных природных зон в экологическом и эволюционном аспектах является одним из интересных открытых вопросов современной экологии. Изучение процессов совокупного влияния различных экологических факторов на экосистемы и выявление экологических механизмов адаптации и преобразования популяций живых организмов (на примере мелких млекопитающих) в условиях трансформации природной среды имеет огромное прикладное значение для сохранения всего биоразнообразия, а также целостности естественных сообществ на фоне антропогенного прессинга в Южном Приаралье. При изучении популяций наземных позвоночных, мелкие млекопитающие являются классическим и наиболее часто используемых объектов в экологических исследованиях. Общеизвестно, что мелкие млекопитающие очень чувствительны к изменениям условий среды обитания и могут служить биоиндикаторами экологического изменения.

МАТЕРИАЛ И МЕТОДЫ

Исследования мелких млекопитающих на территории Южного Приаралья представлены на рис.1. Главный принцип организации работ - комплексное изучение динамики важнейших характеристик мелких млекопитающих на различных уровнях их организации.




Рис.1. Карта-схема проведения исследований

Примечание: 1-Северная граница ареала исследований включает в себя северо-западную часть Устюрта (пос. Каракалпакия, Жаслык), Муйнакский (Учсай, Кызылжар, Караджар, Шеге, Казахдарья) и Кунградский и др. северные районы республики; 2 - Южная граница включает Амударьинский, Турткульский ,Берунийский, Элликалинский районы; 3 - Центральный район исследований включает в себя территории Тахтакупырского, Чимбайского, Караузякского, Кегейлийского района.

В слабонарушенных природных сообществах, способных к самовосстановлению, подавляющее большинство экологических ниш в пределах всей амплитуды условий занимают эволюционно коадаптированные присущие ему (аборигенные) виды, в том числе и редкие. Плотно заполняя экологическое пространство, они не позволяют внедриться в биогеоценоз адвентивным видам. При этом редкие аборигенные виды растений или животных играют «подстраховывающую» роль, то есть заполняют ту часть экологического пространства, которая освобождается видами-доминантами при флуктуациях их численности [3].

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Мелкие млекопитающие являются оптимальными биоиндикаторами естественных и антропогенно-нарушенных экосистем. Поэтому использование их с целью оценки произошедших изменений в природных сообществах является вполне обоснованным [6, 7]. По причине деструктивных изменений в окружающей среде региона Приаралья произошли изменения в популяционной структуре, разнообразии и численности сообществ мелких млекопитающих. Так, по данным ученых, в Южном Приаралье зафиксировано обитание 28 видов грызунов, которые относятся к 6 семействам и 21 роду [8, 10, 12]. Сообщество грызунов пустынных и полупустынных экосистем региона представляет объединенный форпост таких пустынь, как Каракумы и Северо-Западные Кызылкумы. В пустынных экосистемах выявлено обитание 18 видов млекопитающих. При этом очень многочисленны

песчанки - *Rhombomys opimus* (18,5 %) и *Meriones meridianus* (9,8%), *Spermophilopsis leptodactylus* (20,2%) и псаммофильные виды тушканчиков (45,8 %) [8, 9].

В низовьях Амударьи зарегистрировано 13 видов животных, среди которых наиболее многочисленными являются *Nesokia indica* (23,2%), *Allactaga elater* (14,5%), *Mus musculus* (13,6%), *Meriones tamariscinus* (15,3%). Вследствие увеличения площадей опустынивания, сокращения тугайных и тростниковых зарослей, усиления землепользования и других негативных факторов ареал и численность видов увлажненных экосистем резко сокращается. Тугайные экосистемы также претерпели значительные изменения вследствие процесса деградации природных ландшафтов. В тугайных зарослях обитает 16 видов млекопитающих, включая *Mus musculus*, *Nesokia indica*, *Microtus ilaeus*, *Meriones tamariscinus* и другие. Исследование показало, что в низовьях дельты реки Амударьи обитает 13 видов грызунов, из них наиболее многочисленны *Mus musculus* (13,6 %), *Nesokia indica* (23,2 %) (рис.2).




Рис. 2. Распределение грызунов на территории низовьев Амударьи (%)

В песчаных пустынях северо-западной части Кызылкума обитают 18 видов, из них многочисленны псаммофильнные виды тушканчиков (45,8 %). Также большая доля приходится на песчанок – *Rhombomys opimus* (18,5 %) и *Meriones meridianus* (9,8%), тонкопалый суслик (*Spermophilopsis leptodactylus*) (20,2%) [10].

Во всех экосистемах Приаралья за последний период времени произошли значительные изменения в разнообразии, структуре сообществ мелких млекопитающих, что привело к увеличению контрастности зонального распределения популяций мелких млекопитающих [11, 12, 14]. Для более комплексной оценки степени деградации природных биотопов локального участка и фоновых дигрессивных преобразований природной среды популяция домовой мыши может служить биоиндикатором. Широко распространенная коллекторно-дренажная сеть является важным элементом антропогенного микрорельефа. Вследствие освоения и орошения сельскохозяйственных площадей в различных фермерских хозяйствах республики популяции *Mus musculus* и *Nesokia indica* находят благоприятные условия для питания и защиты на склонах открытой

дренажной сети [13, 14]. Видовое разнообразие здесь непосредственно зависит от разнообразия растительности. Были рассчитаны индексы видового разнообразия сообществ грызунов в исследованных территориях Каракалпакстана (табл.1).

Таблица 1.

Индексы видового разнообразия сообществ мелких млекопитающих в исследованных территориях Приаралья

Индексы видового разнообразия	**Берега каналов и р. Амударьи**	**Незастроенные территории населенных пунктов**	**Зона железной и автодороги**
видовое богатство	4,18	2,31	3,16
вид. разнообр. Шеннона	1,05	0,42	1,08
вид. разнообр. Симпсона	0,47	0,44	0,76
индекс доминирования	0,38	0,53	0,42

За период наших исследований выявлено, что динамика численности сообществ грызунов характеризуется двумя пиками (в августе и в октябре). Однако в связи со снижением численности суммарного обилия мелких млекопитающих, наблюдался максимум их численности только в августе, после которого количество популяций *Rodentia* опять снизилось. Результаты показали в снижение суммарного обилия мелких млекопитающих в исследуемый период, весомый вклад вносят депрессия в популяции большой песчанки (*Rhombomys opimus*), как доминирующего вида, а также неблагоприятными климатическими условиями ранней весной в естественных ландшафтах. Распространение малочисленных видов вдоль железных и автомобильных дорог подтверждается высокими значениями индекса видового разнообразия Шеннона. Вместе с тем отмечается большая доля многочисленных видов, что обуславливает высокие значения индекса видового разнообразия Симпсона. При этом индекс доминирования указывает на сниженные показатели.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Формирование фауны мелких млекопитающих происходит из элементов разного происхождения очень связанных с фаунистическими комплексами. в фаунистическом комплексе Приаралья большую роль играют виды, связанных с ирано-афганским, монгольским и средиземноморским происхождениями фауны. Проведенный анализ распределения фауны млекопитающих Южного Приаралья по экологическим биотопам показывает, что более 62% видов обитают в песчано-пустынных и глинисто-щебнистых ландшафтах. В степном ландшафте обитает около 6% видов, а в тугайных – 16%. Различные виды имеют своеобразные типы взаимодействия с окружающей средой и находят способы освоения пустынных территорий.

Список литературы

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 484 от 11.06.2019 г. “Об утверждении стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы”.

2. Арушанов М.Л., Тлеумуратова Б.С. Динамика экологических процессов Южного Приаралья /Гамбург: Palmarium. – 2012. – 183 с.
3. Шакин В.В. Биосистемы в экстремальных условиях // Журнал общей биологии. - 1991. - Т. 52. - № 6. - С. 784-792.
4. Аймуратов Р., Пиржанова Р. Состояние биоразнообразия экосистем южного подрайона плато Устюрт в условиях техногенного и антропогенного пресса // Вестник ККО АНРУз. - 2009. - № 3. - С. 48-51.
5. Ишунин Г.И. // В кн.: Дикие животные Узбекистан, внесённые в «Красную книгу СССР». – Ташкент: Узбекистан, 1980. – 139 с.
6. Кубанцев Б.С. Антропогенные воздействия и антропогенные факторы, их роль в некоторых экологических и микроэволюционных процессах. -Экология. 1979, № 6. - С. 5-14.
7. Литвинов Ю.Н. Влияние факторов различной природы на показатели разнообразия сообществ мелких млекопитающих // Успехи современной биологии. - 2004. -Т. 124. - № 6. - С. 612–621.
8. Реймов А.Р., Реймов Р.Р. Терионаселение Южного Приаралья и сохранение его биоразнообразия // Вестник ККО АН РУз.– Нукус.– 1997.– №5.– С.19–23.
9. Реймов Р.Р. Приспособление млекопитающих к экстремальным условиям обитания в Южном Приаралье // Вестник ККО АН РУз.– Нукус.– 1995.– № 3.– С.13–19.
10. Мамбетуллаева С.М., Утемуратова Г.Н. К вопросу изучения экологической структуры популяций мелких млекопитающих в условиях Южного Приаралья // Журнал «Актуальные проблемы современной науки», Москва, Россия, №5(73), 2013.- с. 174-177.
11. Отенов Т.О., Гроховатский И.А., Сайтова А.К., Отенова Ф.Т., Шамшетова Р. Влияние понижения уровня Аральского моря на растительность Южного Приаралья. // Материалы Респуб. научно-практической конфер. «Достижения, перспективы развития и проблемы естествознания». – Нукус. –2011.– С. 26–27.
12. Мамбетуллаева С.М., Утемуратова Г.Н. Исследование антропогенного воздействия на фауну мелких млекопитающих в низовьях Амударьи // Материалы Международной научной конференции «Мультинаучные исследования как тренд развития современной науки», Киев, Украина, 2013.- с. 70-71.
13. Динамика и потенциал природной среды Каракалпакстана / Н.К. Аимбетов, Б.С. Тлеумуратова, С.М. Мамбетуллаева и др., Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан. –Нукус: Илим, 2017 – 251с.
14. Otenova F.T., Mambetullaeva S.M. Ecological assessment of soil salinization in the southern Aral Sea Region // International scientific-practical conference «Agriculture and food security: technology, innovation, markets, human resources» (FIES 2023).- November 23-24, 2023 Kazan, Russia.- BIO Web of Conferences 103, 00027 (2024).- https://creativecommons.org/licenses

GINKGO BILOBA L. O‘SIMLIGINING FARG‘ONA VILOYATI BO‘YICHA TARQALISHI VA BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Madaminova Zarnigor Baxtiyor qizi
Farg‘ona Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot *Ginkgo biloba L.* turining Farg‘ona viloyatida tarqalishi hamda uning bioekologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Ish jarayonida maydon kuzatuvlari, gerbariy materiallarini o‘rganish va ekologik parametrlarni baholash metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar *Ginkgo biloba L.* viloyatda asosan madaniy holda o‘stirilishini, shahar ko‘kalamzorlashtirishida keng qo‘llanilishini va mahalliy mo‘tadil iqlim sharoitiga yuqori moslashuvchanlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, tur atmosferadagi ifloslantiruvchi omillarga nisbatan yuqori chidamlilik namoyon etishi aniqlanib, uning barqaror rivojlanish potentsialiga ega ekani va ekologik muhitni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishi tasdiqlandi.

Kalit so‘zlar: *Ginkgo biloba L*, Farg‘ona viloyati, bioekologiya, tarqalish, iqlim o‘zgarishi

Аннотация. Данное исследование направлено на анализ распространения и биоэкологических характеристик *Ginkgo biloba L.* в Ферганской области. В ходе исследования использовались полевые наблюдения, изучение гербарных материалов и анализ экологических параметров. Результаты показали, что *Ginkgo biloba L.* в Ферганской области в основном выращивается в декоративных целях и широко используется в городском озеленении. Вид хорошо адаптирован к умеренным климатическим условиям и проявляет высокую устойчивость к загрязнению воздуха. Полученные данные подтверждают, что *Ginkgo biloba L.* обладает потенциалом для устойчивого развития в регионе и играет важную роль в улучшении экологической среды.

Ключевые слова: *Ginkgo biloba L*, Ферганская область, биоэкология, распространение, изменение климата

Annotation. This study is aimed at analyzing the distribution and bioecological characteristics of *Ginkgo biloba L.* in the Fergana region. During the research, field observations, examination of herbarium materials, and analysis of ecological parameters were employed. The results showed that Ginkgo biloba is mainly cultivated for ornamental purposes in the Fergana region and is widely used in urban landscaping. The species is highly adapted to temperate climate conditions and demonstrates strong resistance to air pollution. The findings confirm that *Ginkgo biloba L.* has the potential for sustainable development in the region and plays an important role in improving the ecological environment.

Keywords: *Ginkgo biloba L*, Fergana region, bioecology, distribution, climate change

KIRISH

Ginkgo biloba L. — Ginkgoaceae oilasining yagona tirik vakili bo‘lib, **Xitoyda kelib chiqqan** qadimiy tirik qoldiq o‘simliklardan biri hisoblanadi. Bu tur taxminan 270 million yil oldin paydo bo‘lgan va hozirgi vaqtgacha o‘z morfologik xususiyatlarini saqlab qolgan. Ochiq urug‘li o‘simliklar orasida *Ginkgo biloba L.* ning eng yaqin qarindoshlari **archa va qarag‘aylar** bo‘lib, shu sababli ilgari botaniklar bu o‘simlikni **ignabargli daraxtlar** qatoriga kiritganlar. “Ginkgo” ilmiy nomining muallifi **Karl Linney** hisoblanadi. Ingliz bog‘bonlaridan biri bu noodatiy o‘simlikni buyuk tabiatshunos olimga yuborgan. **1771-yilda mashhur sistematik olim uni botanika adabiyotiga “Ginkgo biloba” lotincha nomi bilan kiritgan.** *Ginkgo biloba L.* o‘zining noyob tuzilishi, yuqori hayotiylig va tibbiy xususiyatlari bilan butun dunyo bo‘ylab e'tibor qozongan. Bu yirik daraxtning boyi 30-40 m ga yetadi. *Ginkgo biloba L.* ikki uyli osimlik, shamol yordamida changlanadi. Po‘stlog‘i qalin, jigarrang tusda bo‘lib, yosh daraxtlarda silliqroq bo‘ladi. Barglari yelpig‘ichsimon, ikki bo‘lakli bo‘lib, uzun bandli, uzunligi 5–15 sm gacha yetadi,

kengligi 5–7,6 sm atrofida bo‘ladi. Ular **shakli va tomirlanish tuzilishi jihatidan juda noyob** hisoblanadi. Kuzda yorqin sariq tusga kirib, dekorativ qiyofaga ega bo‘ladi, **kech kuzda esa barglarini to‘kadi**, undan biroz oldin barglari **chiroyli oltin-sariq rangga kiradi.** Yaponiyada *Ginkgo biloba L.* **daraxtiga barg to‘kish davrida sig‘inishadi**, to‘kilgan barglarni esa **hurmat-ehtirom bilan terib olishadi**. Mevasi yong‘oqsimon bo‘lib, tashqi qavati go‘shtli va achchiq hidga ega. Ichida bir dona urug‘i bo‘ladi. Ikki xil uyli o‘simlik bo‘lib, erkak va urg‘ochi daraxtlari alohida bo‘ladi. Urug‘i bilan va vegetativ usulda ko‘payadi.

Tibbiyotda qo`llanilishi va kimyoviy tarkibi. Oxirgi yillarda *Ginkgo biloba L.* daraxti bargidan ajratib olinayotgan birikmalar farmokoterapiya sohasida bir qancha nerv va qon tomirlari kasalliklarida, ateroskleroz, xotirani yaxshilash va diqqatni jamlashda keng foydalanilmoqda. Kosmetologiyada *Ginkgo biloba L.* **teri qarishiga qarshi vositalar, soch to‘kilishiga qarshi preparatlar**, shuningdek **ozish (vazn kamaytirish) uchun mo‘ljallangan mahsulotlar tarkibida** qo‘llaniladi.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning eng boy tabiiy xilma-xillikka ega hududlaridan biri bo‘lib, uning o‘ziga xos iqlim va tuproq sharoitlari turli xil o‘simlik turlarining o‘sishi uchun qulay muhit yaratadi. So‘nggi yillarda viloyatda *Ginkgo biloba L.* kabi ekzotik turlarni o‘stirishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda, bu esa ularning mintaqadagi ekologik moslashuvi va tarqalish imkoniyatlarini o‘rganish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida *Ginkgo biloba L.*ning turli geografik hududlardagi tarqalish potentsiali va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqot Farg‘ona viloyatida ushbu turning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini baholashga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ginkgo biloba L. bo‘yicha so‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili ushbu mavzuning dolzarbligini va keng qamrovli yondashuvni talab etishini ko‘rsatadi. Adabiyotlar tahlili asosan quyidagi yo‘nalishlarda guruhlanadi:

Z.A.Yusupova, X.T.Turg`unov, F.Sayramov lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda *Ginkgo biloba L.* o`simligining morfologiyasi, tarqalish ekologiyasi, kimyoviy tarkibi, tibbiyotda va xalqa tabobatida qo`llanilishi o‘rganilgan. Inson va hayvonlar organizmida ro‘y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o‘simliklardan tayyorlanayotgan dorilar haqida ko‘plab ma’lumotlar berishgan.

Akinshina N.G., Shtonda N.I., Azizov A.A., Xalmurzaeva A.I. (2017) Toshkent sharoitida *Ginkgo biloba L.* ning ekologik va fiziologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot olib borishdi. Tadqiqot jarayonida o‘simliklar ikki turdagi maydonda kuzatildi: “fon” maydon (Toshkent Botanika bog‘i, akademik F.N.Rusanov nomidagi) — yumshoq mikroiqlim va qulay sharoitlar mavjud bo‘lgan hudud, va “stress” maydon (Amir Temur maydoni, yuqori havoning quruqligi, ifloslanish va kuchli quyosh nurlanishi bilan xarakterlangan) bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shahar ekologik omillari *Ginkgo biloba L.* ning o‘sishi, fenologik fazalari va adaptiv potensialiga ta’sir qiladi. Mualliflar muvaffaqiyatli introduktsiya va o‘simlikning dekorativ xususiyatlarini saqlash uchun kompleks parvarish va moslashuv sharoitlarini tanlash zarurligini ta’kidlashgan.

O.Z.Fozilova va M.A.Toxirjonova o‘z maqolasida *Ginkgo biloba L.* o‘simligining morfologiyasi, botanika tavsifi, tarqalishi va ahamiyatini yoritib bergan.

O.V.Yatsevich (2015) tomonidan *Ginkgo biloba L.* o‘simligining morfologik tuzilishi, evolyutsion kelib chiqishi va kimyoviy tarkibi batafsil yoritilgan bo‘lib, muallif daraxtning relikt xususiyati, barglaridagi biokimyoviy faol moddalar (flavonoidlar, terpenlar, bilobalid, ginkgolidlar) va ularning farmakologik ta’sir mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqotda *Ginkgo biloba L.* ning ekologik barqarorligi, havoning ifloslanishiga chidamliligi va

shahar muhitida yuqori darajada yashovchanligi qayd etilib, ushbu özelliklar uni keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish va tibbiyotda qo‘llash uchun istiqbolli tur ekanini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, *Ginkgo biloba L.* bo‘yicha global miqyosda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo, xususan, Farg‘ona viloyati sharoitida ushbu turning ekologik moslashuvi va tarqalish xususiyatlari bo‘yicha ma'lumotlar cheklangan. Mavjud tadqiqotlar asosan Sharqiy Osiyo (Xitoy, Yaponiya, Koreya) va G‘arbiy mamlakatlar (AQSh, Yevropa) sharoitlariga qaratilgan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida *Ginkgo biloba L.*ning kelajakdagi tarqalish potentsiali va arid va yarim arid mintaqalardagi moslashuv mexanizmlari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud. Mintaqaviy ekologik sharoitlar, fenologik xususiyatlar va mahalliy iqlim o‘zgaruvchilari bilan bog‘liq tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot Farg‘ona viloyatining turli tumanlarida *Ginkgo biloba L.* o‘simligining tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida olib borildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Maydon tadqiqotlari viloyatning 12 ta tumanida joylashgan bog‘lar, parklar va boshqa ko‘kalamzorlik hududlaridagi *Ginkgo biloba L.* daraxtlari to‘liq inventarizatsiya qilindi. Har bir lokatsiyada daraxtning koordinatalari, balandligi, shox-shabbasi, tuproq turi qayd etildi. Ushbu metod o‘simliklarning tarqalish xaritasini tuzish va ularning o‘sish sharoitlarini aniqlash imkonini berdi.

Iqlim ma’lumotlari tahlili: Farg‘ona viloyati meteorologiya stantsiyalaridan olingan 30 yillik iqlim ma’lumotlari tahlil qilindi. Natijalar *Ginkgo biloba L.* ning ekologik talablari bilan taqqoslanib, o‘simlikning iqlim sharoitiga moslashuvchanligi baholandi.

Laboratoriya tadqiqotlari: Tuproq va barglarning kimyoviy tarkibi, shuningdek o‘simliklarning fiziologik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ushbu laboratoriya tadqiqotlari o‘simliklarning ozuqa moddalari va namlikka bo‘lgan talablarini aniqlash hamda yashovchanlik va dekorativlik xususiyatlarini baholash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

*Ginkgo biloba L.*ning Farg‘ona viloyatidagi tarqalishi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, *Ginkgo biloba L.* Farg‘ona viloyatida asosan madaniy ravishda o‘stiriladi. Daraxtlarning yoshi 5 dan 45 yilgacha o‘zgaradi, o‘rtacha yoshi 18 yil tashkil etadi. Farg‘ona Davlat Universiteti hududida ham mavjud. *Ginkgo biloba L.* asosan shaharlarda ko‘kalamzorlashtirishda, xususan, ko‘chalar bo‘ylab, bog‘ va parklarda o‘stirilmoqda. Bu esa turining havo ifloslanishiga yuqori chidamliligini tasdiqlaydi, chunki shahar muhitida muvaffaqiyatli o‘sib rivojlanadi.

Bioekologik xususiyatlar tahlili. *Ginkgo biloba L.*ning Farg‘ona viloyatidagi bioekologik xususiyatlari tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval):

1-jadval

***Ginkgo biloba L.* daraxtining bioekologik xususiyatlari**

Bo‘lim	Parametr	Qiymati va xususiyatlari
Iqlim talablari	Yillik o‘rtacha harorat	8–20°C (optimal: 12–16°C)
	Qishgi minimal harorat	-25°C gacha
	Yillik yog‘in miqdori	400–1200 mm
	Nisbiy namlik	50–70%
Tuproq talablari	pH diapazoni	5.0–8.0 (optimal: 6.0–7.5)
	Tuproq turi	Keng spektrli, yaxshi drenajlangan
	Sho‘rlanishga chidamlilik	O‘rtacha (3–4 dS/m gacha)
Ekologik chidamlilik	Quruqchilikka chidamlilik	Yuqori
	Sovuqqa chidamlilik	-25°C gacha
	Havo ifloslanishiga chidamlilik	Juda yuqori
	Soya-nurga munosabat	Yorug‘likni afzal ko‘radi
Reproduktiv xususiyatlar	Gullash yoshi	15–20 yil (madaniy sharoitda)
	Gullash davri	Aprel–may
	Meva pishish davri	Oktyabr–noyabr
	Urug‘ tushish davri	Oktyabr–dekabr
O‘sish xususiyatlari	Yillik o‘sish sur’ati	30–50 sm (yoshlikda)
	Maksimal balandlik	25–35 m
	Umr ko‘rish davri	1000+ yil

Farg‘ona viloyatidagi ekologik sharoitlarning mosligi. Farg‘ona viloyatining iqlim sharoitlari *Ginkgo biloba L.*ning ekologik talablariga asosan mos keladi. Viloyatdagi o‘rtacha yillik harorat 13-15°C ni tashkil etib, bu turning optimal rivojlanishi uchun qulay. Qishki haroratlar kamdan-kam hollarda -20°C dan past tushadi, bu esa *Ginkgo biloba L.*ning qishga chidamlilik chegarasidan yuqori. Yillik yog‘inlar miqdori (300-450 mm) *Ginkgo biloba L.*ning minimal talablariga javob beradi, ammo suv ta'minotini yaxshilash o‘simlikning rivojlanishini tezlashtirishi mumkin. Viloyatdagi tuproqlar asosan bo‘z va alluvial tuproqlar bo‘lib, yaxshi drenajlangan va turning talablariga mos keladi.

Fenologik xususiyatlar. Farg‘ona viloyati sharoitida *Ginkgo biloba L.* o‘zining barcha fenologik fazalarini barqaror va me’yorida o‘taydi. O‘simlikning kurtaklanishi mart oyining ikkinchi yarmida boshlanib, aprel oyida barglar faol rivojlanadi, aprel–may oylarida esa gullash kuzatiladi. Mevalarning shakllanishi iyun–sentyabr oylariga to‘g‘ri kelib, ularning pishishi odatda oktabr–noyabr oylarida yakunlanadi, barglar esa noyabr–dekabr oylarida to‘kiladi. Bu fenologik kalendar *Ginkgo biloba L.*ning Farg‘ona iqlimiga yaxshi moslashganligini ko‘rsatadi. *Ginkgo biloba L.*ning viloyatdagi ahamiyati ham ko‘p qirrali bo‘lib, u ekologik muhitni yaxshilash, shahar ko‘kalamzorlarini bezash, tibbiy xom ashyo olish va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish kabi yo‘nalishlarda muhim o‘rin tutadi. O‘simlikning yuqori stressga chidamliligi va antropogen sharoitlarga moslashuvchanligi iqlim o‘zgarishi sharoitida ham uni istiqbolli tur sifatida baholash imkonini beradi. Shu sababli *Ginkgo biloba L.* Farg‘onada barqaror o‘sishi mumkin bo‘lgan va kelgusida ham keng qo‘llanishi maqsadga muvofiq bo‘lgan o‘simliklar sirasiga kiradi.

Iqlim o‘zgarishi sharoitida *Ginkgo biloba L.*ning Farg‘ona viloyatidagi istiqbollari ijobiy baholanadi. Turining yuqori ekologik chidamliligi uni kelgusida ham barqaror o‘stirish imkonini beradi.

Xitoyda ginkgoning shifobaxsh xususiyatlari miloddan avvalgi 2800 yillarda-yoq tasvirlangan. O‘sha davlardayoq bu o‘simlik xalq tabobatida muhim o‘rin egallagan bo‘lib, uning qo‘llanilishiga asosiy ko‘rsatmalar bronxial astma, o‘pka kasalliklari, yaralar va sovuq urish (muzlash) holatlari bo‘lgan. Hozirgi kunda ginkgo, xuddi jenshen kabi, an’anaviy Xitoy tibbiyotining asosiy elementlaridan biridir. Yevropa va Amerikaga bu daraxt dastlab dekorativ o‘simlik hamda botanika noyobi sifatida olib kirilgan. Ginkgoning betakror shifobaxsh xususiyatlari 20-asrning 60-yillaridan boshlab asta-sekin to‘plangan ilmiy ma’lumotlar tufayli yanada chuqurroq anglana boshlandi. Sharq tabobatidagi qo‘llanilish tajribasi, shuningdek, o‘simlikning inson organizmiga fiziologik ta’siri va kimyoviy tarkibini o‘rganishga qaratilgan zamonaviy tadqiqotlar natijasida uning dorivor xususiyatlari deyarli qayta kashf etildi.

Ginkgoning G‘arbda olib borilgan ilk tibbiy tadqiqotlari uning qator surunkali qon-tomir kasalliklarida yuqori istiqbolli ekanini ko‘rsatdi. Shundan so‘ng AQSH, Yevropa va hatto Yaponiya ilmiy markazlarida bu boradagi izlanishlar keskin faollashdi. Ginkgoning turli kasalliklarda samarali ta’siri haqidagi ilmiy natijalar, ayniqsa, Germaniya va Fransiyada kuchli ilmiy qiziqish va yirik tadqiqotlar to‘lqiniga sabab bo‘ldi. Bu mamlakatlarda ginkgo preparatlari yordamida sog‘liqni yaxshilagan odamlar soni o‘n millionlab hisoblanadi. Ba’zi hollarda ginkgo asosidagi preparatlar “mo‘jiza” deb baholangan. Natijada ular G‘arb davlatlarida eng ko‘p qo‘llaniladigan dorilar qatoriga kirdi — ularning yillik savdo hajmi yarim milliard dollarga yetadi.

AQSHda ginkgo asosidagi turli preparatlar eng ko‘p xarid qilinadigan beshlik dorilar qatoriga kiradi. Fransiya va Germaniyada ginkgo bargi ekstrakti eng ko‘p tayinlanadigan dori vositalarining biri bo‘lib, u qarishning eng qo‘rqinchli belgilaridan bo‘lgan xotira pasayishi, ko‘rish va eshitishning yomonlashuvi, diqqat susayishi va intellektning pasayishi kabi holatlarni sekinlashtirish yoki kamaytirish uchun qo‘llaniladi. Purdue universitetining taniqli fitoterapevti, doktor Varro Teylor ta’kidlashicha, ginkgo — “so‘nggi o‘n yillikda Yevropada eng ko‘p sotilgan va eng muhim dorivor o‘simlikdir”. Xitoyda ginkgo o‘simligining shifobaxsh xususiyatlari bundan 2800 yil avval, miloddan oldin ham tasvirlab berilgan. O‘sha davrdayoq bu o‘simlik tibbiyotda muhim o‘rin egallagan bo‘lib, asosan bronxial astma, o‘pka kasalliklari, yaralar va sovuq urish (muzlash) holatlarida qo‘llanilgan . Hozirgi kunda ham ginkgo, jenshen singari, an’anaviy xitoy tabobatining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Ginkgo daraxti Yevropa va Amerikaga esa manzarali o‘simlik hamda noyob botanika obyekti sifatida olib kirilgan .

Ginkgoning betakror shifobaxsh xususiyatlari XX asrning 60-yillaridan boshlab asta-sekin anglab yetila boshladi. Bu holat uning sharq tabobatidagi qo‘llanishi haqidagi ma’lumotlarning bosqichma-bosqich to‘planishi, shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijasida o‘simlikning inson organizmiga fiziologik ta’siri va kimyoviy tarkibi o‘rganilishi bilan bog‘liq. Natijada, ginkgoning tibbiy xususiyatlari deyarli qayta kashf etildi.

G‘arbda olib borilgan dastlabki tibbiy tadqiqotlar ginkgoning bir qator surunkali qon-tomir kasalliklarida juda istiqbolli ekanini ko‘rsatdi. Shundan so‘ng AQSh, Yevropa hamda Yaponiyada ham tadqiqotlar qor uyumi kabi tez sur’atlarda kengaya boshladi. Ginkgoning turli kasalliklarni davolashdagi samaradorligi ilmiy sohada haqiqiy portlashga sabab bo‘ldi, ayniqsa Germaniya va Fransiyada, bu yerda uning yordamida sog‘ayishga erishganlar soni o‘nlab million kishilarga yetdi. Ginkgo preparatlari ko‘pincha mo‘jizadek ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli ular G‘arb mamlakatlarida eng ommabop dori vositalariga aylangan, ularning yillik savdo hajmi yarim milliard dollarga yetadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari *Ginkgo biloba L.*ning Farg‘ona viloyati sharoitlariga yaxshi moslashganligini ko‘rsatdi. Tur hozirda viloyatda asosan madaniy ravishda o‘stirilayotgan bo‘lib,

shaharlar ko‘kalamzorlashtirishida muhim o‘rin egallaydi. Turining yuqori ekologik chidamliligi, havo ifloslanishiga qarshiligi va estetik qiymati uni mintaqada keng qo‘llash uchun istiqbolli qiladi.

Kelajakda *Ginkgo biloba L.*ni Farg‘ona viloyatida yanada keng miqyosda o‘stirish, shuningdek, uning tibbiy va iqtisodiy potentsialidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahalliy ekosistemaga ta'sirini hisobga olish va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fozilova O.Z. “Ginkgo biloba o‘simligining botanik tavsifi, tarqalishi va ahamiyati” Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi jurnali, 1-son 2025-yil
2. Yusupova Z.A., Turg`unov X.T., Sayramov F. “Ginkgo biloba o‘simligining morfologiyasi, kimyoviy tarkibi va tibbiyotda qo‘llanilishi”, O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 15-son. 2023- yil
3. Qoraboyev A.M. “Ginkgo biloba o‘simligining farmokologik xususiyatlari” – O‘zbekiston Tibbiyot jurnali, 2022-yil
4. Акиншина Н.Г., Штонда Н.И., Азизов А.А., Халмурзаева А.И. Эколого-физиологические особенности Ginkgo biloba L. в условиях Ташкента. 2017 год
5. Яцевич О.В. “Гинкго билоба. Мезозойский реликт - «серебряный абрикос». Препараты для мезотерапии. Москва, 2015 год
6. Буланкин Д. Г. “Исследование по стандартизации и разработке лекарственных средств на основе листьев гинкго двулопастного (ginkgo biloba l.)”, автореферат, Самара, 2011 год
7. Васильев В.Г., Калабин Г.А., Букаса Митео Иван, Рудачевский Д.Д., “ О необходимости совершенствования контроля безопасности и качества экстрактов из листьев гинкго билоба” Вестник РУДН. Серия: Экология и безопасность жизнедеятельности, Том 25 №3 414—430, 2017 год

LYAXNINA (HOMOPTERA: LACHNINAE) SHIRALARIDA “TRI-TROFIK” TIZIM KOEVOLYUTSIYASI

Zokirov Islomjon Ilhomjonovich, Zokirova Gulnora Mamadjonovna
Temirova Shamsiqamarbegim Ilyosjon qizi

Annotatsiya. Maqolada Lachninae (Homoptera) shiralarining ozuqa o‘simliklari, chumolilar va tabiiy dushmanlari bilan “tri-trofik” tizimda koevolyutsion aloqalari tahlil qilingan. Asosiy ma’lumotlar I.I.Zokirov tomonidan O‘zbekiston hududida olib borilgan dala kuzatuvlari va laboratoriya tajribalariga tayangan holda bayon etilgan. Lachninae guruhining birlamchi va ikkilamchi ozuqa spektri, mirmekofillik darajalari hamda shira suyuqligining ikkilamchi ozuqa zanjiri shakllanishidagi o‘rni zamonaviy tri-trofik koevolyutsiya konsepsiyasi nuqtai nazaridan talqin qilingan. Shuningdek, populyatsiya dinamikasiga oid ko‘rsatkichlar asosida bu shiralarning agro- va urban ekotizimlarda bioindikator sifatida qo‘llanish imkoniyatlari muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: Lachninae shiralar, tri-trofik tizim, koevolyutsiya, ozuqa o‘simliklari, chumolilar, shira suyuqligi, ikkilamchi ozuqa zanjiri.

Аннотация. В статье проанализированы коэволюционные связи тлей подсемейства Lachninae (Homoptera) с кормовыми растениями, муравьями и естественными врагами в тритрофической системе. Основные материалы изложены на основе полевых наблюдений и лабораторных экспериментов, проведённых И. И. Зокировым на территории Узбекистана. Первичный и вторичный спектр кормовых растений представителей группы Lachninae, степени их мирмекофильности, а также роль пади в формировании вторичных трофических цепей рассматриваются с позиций современной концепции тритрофической коэволюции. Кроме того, на основе показателей динамики популяций обсуждаются возможности использования этих тлей в качестве биоиндикаторов в агро- и урбоэкосистемах.

Ключевые слова: тли Lachninae, тритрофическая система, коэволюция, кормовые растения, муравьи, падь, вторичная трофическая цепь.

Annotation. The article analyzes the coevolutionary relationships of Lachninae (Homoptera) aphids with their host plants, ants, and natural enemies within a tri-trophic system. The main data are presented on the basis of field observations and laboratory experiments carried out by I. I. Zokirov in the territory of Uzbekistan. The primary and secondary host range of the Lachninae group, their degrees of myrmecophily, and the role of aphid honeydew in the formation of secondary food chains are interpreted in the context of the modern concept of tri-trophic coevolution. In addition, based on population dynamic parameters, the potential use of these aphids as bioindicators in agro- and urban ecosystems is discussed.

Keywords: Lachninae aphids, tri-trophic system, coevolution, host plants, ants, honeydew, secondary food chain.

KIRISH

Tri-trofik tizimlar zamonaviy ekologiyada o‘simlik – o‘txo‘r hasharot – ularning tabiiy dushmanlari yoki mutualist sheriklari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni yaxlit ko‘rib chiqishga imkon beradigan asosiy tushunchalardan biridir. Bunday tizimlarda koevolyutsion jarayonlar himoya va hujum mexanizmlarining, shuningdek, signal almashinuvi va xulq-atvor tizimlarining shakllanishiga olib keladi [2].

Shiralar, xususan daraxtlarda yashovchi Lyaxnina (Homoptera: Lachninae) kenja oilasi vakillari ko‘p yillik yog‘ochli o‘simliklar, yirtqich va parazit hasharotlar hamda chumolilar bilan bog‘langan murakkab trofik tarmoqlar markazida turadi. Lachninae tarkibidagi ko‘plab turlar qadimdan ochiq urug‘li o‘simliklarga, keyinchalik esa Salicaceae va Rosaceae singari evolyutsion jihatdan “yosh” o‘simlik oilalariga moslashganligi bilan ajralib turadi [4, 14, 15]. So‘nggi o‘n yilliklarda shira–chumoli munosabatlari bo‘yicha olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar chumoli–shiralar–o‘simliklar uch pog‘onali tizimining antagonizm–mutualizm doirasida o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi [5].

O‘zbekiston va umuman Markaziy Osiyo sharoitida aphidofauna bo‘yicha fundamental ishlar ko‘plar amalga oshirilgan [6, 9, 13, 18, 20, 21, 23]. Shunday bo‘lsa-da, Lyaxnina shiralarining aynan tri-trofik koevolyutsion tizim doirasida baholanishi yetarli darajada shakllanmagan. I.I.Zokirov tomonidan bajarilgan nomzodlik dissertatsiyasida O‘zbekiston Lachninae shiralarining ozuqa spektri, hayot sikli, populyatsiya dinamikasi, mirmekofiliya darajasi tabiiy hamda antropogen sharoitlarda batafsil o‘rganilib, “shira” suyuqligiga bog‘langan ikkilamchi oziqa zanjiri hamda “noqulay ekologik sharoit – shira – chumoli”, “tabiiy kushanda – shira – chumoli” kabi uch pog‘onali tizimlar uchun konseptual model taklif etilgan [6].

Ushbu maqolaning maqsadi Lachninae shiralarida o‘simliklar, shira koloniyalari va ularni kuzatib yuruvchi chumolilar o‘rtasidagi tri-trofik koevolyutsiyani nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

MATERIAL VA TADQIQOT USLUBLARI

Materiallar sifatida so‘nggi 20 yil davomida Chotqol, Qurama va Olay tizmalari, shuningdek Farg‘ona vodiysi tekislik va shahar hududlarida yig‘ilgan Lachninae shiralari, ularning oziqa o‘simliklari hamda simbioz yashovchi chumolilar va tabiiy kushandalar bo‘yicha kuzatuvlar natijalari olindi. Namuna yig‘ish klassik afidologik usullariga tayandi [8, 17, 22]. Ma’lumotlar entomologik, ekologik va matematik-statistik usullar bilan tahlil qilindi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Tri-trofik tizim nuqtai nazaridan olib qaralganda, Lachninae shiralarining ozuqa o‘simliklariga ixtisoslashuvi, populyatsiya dinamikasi, etologiyasi hamda boshqa hasharotlar, xususan chumolilar va tabiiy kushandalar bilan munosabatlari o‘simlik–shira–entomofag tizimi koevolyutsiyasining yaxlit modelini beradi. Tahlil qilinayotgan natijalar tri-trofik tizimlarni tushuntirishga asos bo‘ladi va zamonaviy afidologik hamda ko‘p pog‘onali trofik aloqalar haqidagi konsepsiyalarga mos keladi [3, 14, 15, 16, 19].

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, Lachninae kenja oilasiga mansub turlar Pinaceae, Cupressaceae, Salicaceae, Moraceae va Rosaceae oilalariga kiruvchi 27 tur o‘simliklarda oziqlanadi. Ozuqa o‘simliklariga bog‘liqlik darajasiga qarab ular birlamchi hamda ikkilamchi ixtisoslashgan ekologik guruhlarga bo‘linadi: *Cinara piceae, C. tujafilina, Eulachnus alticola* va *E. tauricus* ochiq urug‘li o‘simliklar – qarag‘ay va archalarda qolgan holda, evolyutsion jihatdan qadimiy tri-trofik tizimni ifodalaydi, ikkilamchi ixtisoslashgan *Pterochloroides persicae, Tuberolachnus salignus* va *Maculolachnus submacula* esa salqin va iliq iqlimga moslashgan tol, ra’noguldoshlar va boshqa barg to‘kuvchi o‘simliklar bilan yangi fitofag–entomofag komplekslarini shakllantiradi. Bu holat Lachninae shiralarida o‘simliklar filogeniyasi va antropogen landshaftlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda trofik o‘tishlar kechganini ko‘rsatadi va o‘simlik–shira–kushanda koevolyutsiyasining uzoq muddatli yo‘nalishini aks ettiradi [15].

Populyatsiya dinamikasi bo‘yicha dissertatsiyada keltirilgan regressiya va korrelyatsion tahlillar bir qator Lachninae turlari uchun mavsumiy ko‘payishning aniq modellari mavjudligini ko‘rsatdi. *Cinara tujafilina, E. alticola* va *T. salignus* kabi turlarda mintaqaning iqlim sharoiti va o‘simlik fenologiyasiga mos keluvchi, ishonchli statistik ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan bir martalik mavsumiy ko‘tarilish qayd etildi. *E. tauricus* va *P. persicae* da esa bahor–yoz va yoz–kuz davrlarida ikkita ko‘tarilish kuzatilib, bu o‘simlik barglarining qayta o‘sishi, shuningdek, ushbu davrda entomofaglar bosimining pasayib–ko‘tarilib turishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tri-trofik nuqtai nazardan, populyatsiya zichligining bunday davriy tebranishi fitofaglar biomassasi, o‘simlik himoya mexanizmlari hamda yirtqichlar va parazitlar faolligi o‘rtasidagi muvozanat natijasi sifatida talqin qilinadi [11].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, *P. persicae* va boshqa yirik tanali Lachninae turlarida “shira” suyuqligining ajralishi ikkilamchi ozuqa zanjirini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, shaftoli tanasida joylashgan katta koloniya tarkibida bir necha yuzlab pashshalar, chivinar, ko‘plab chomolilar va arilar ishtiroki qayd etilgan bo‘lib, bu turli trofik pog‘onadagi konsumentlarning “shira” suyuqligiga trofik jihatdan bog‘lanib qolganidan dalolat beradi. Yoz oxirida shira zichligi oshishi bilan birga hosil bo‘ladigan boy ikkilamchi ozuqa zanjiri – producent (o‘simlik) – I tartibli konsument (shira) – II–IV tartibli konsumentlar (dipteralar, hymenopteralar, yirtqich qo‘ng‘izlar, aralash saprofaglar) hamda reducentlar tizimi sifatida ishlaydi. Energiya oqimi va moddalarning davriy aylanishiga bunday hissa qo‘shilishi, ayniqsa, intensiv bog‘dorchilik agroekotizimlarida ekotizim barqarorligi uchun dolzarbdir.

Lachninae – chumoli munosabatlari tri-trofik tizimni “kengaytirilgan” ko‘rinishda o‘rganish imkonini beradi. Kuzatuvlar natijalari mirмекofiliya darajasiga ko‘ra turlar yuqori *(P. persicae, T. salignus)*, o‘rta *(E. alticola, E. tauricus, M. submacula)* va quyi *(C. piceae, C. tujafilina)* pog‘onalarga ajratish mumkin. Yuqori pog‘onada chumolilar shira koloniyalarini doimiy himoya

qiladi, ularni yangi oziqlanish nuqtalariga ko‘chiradi va tabiiy kushandalar – parazit va yirtqich hasharotlarning ta’sirini sezilarli darajada cheklaydi. Bu holat o‘simlik–shira–chumoli–kushanda o‘rtasidagi murakkab trofik hamda xatti-harakat aloqalarini yuzaga keltiradi [10, 12]. O‘rta va quyi pog‘onadagi turlarda chumoli ishtiroki epizodik bo‘lib, ko‘proq shira zichligi yuqori bo‘lgan davrlarda yoki koloniya migratsiyasi chog‘ida kuchayadi. Bu ma’lumotlar mirmekofil shiralarning klassik tavsiflariga juda yaqin bo‘lib, zamonaviy ishlarda ta’riflangan “himoyaviy mutualizm” va “tashuvchi mutualizmi” tushunchalarini qo‘llash imkonini beradi.

Etologik kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, Lachninae shiralarining mexanik va kimyoviy ta’sirlarga javob reaksiyasi (latent davri) turga va evolyutsion ixtisoslashuv darajasiga qarab keskin farqlanadi. Masalan, *E. alticola* da mexanik ta’sirga javob latent davri 0,5–1 soniya bo‘lsa, *T. salignus* da 2–3 soniyani tashkil etdi, *Cinara tujafilina* da esa kimyoviy ta’sirga javob mexanik ta’sirga nisbatan tezroq namoyon bo‘ldi. Kun va tun sharoitida koloniyaning butunlay boshqacha tarqalish yoki “qotib qolish” reaksiyalari kuzatilgan bo‘lib, bu yirtqichlar faolligining sutkalik ritmlari va o‘simlikning mikroiqlim sharoiti bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Zamonaviy tri-trofik yondashuv nuqtai nazaridan bunday xatti-harakatlar shira–kushanda–chumoli o‘rtasidagi xavf doirasiga sezgir javoblar sifatida talqin qilinadi, bu esa koevolyutsiya jarayonida xulq-atvor adaptatsiyalari naqadar muhimligini ko‘rsatadi.

Shira koloniyalarining ozuqa o‘simligi bo‘ylab joylanishi va ichki tuzilishi ham tri-trofik tizimning muhim komponenti sifatida ko‘rilishi mumkin. Masalan, archa shiralari (*C. tujafilina*) ildiz qismidan to barg uchlarigacha cho‘zilgan uzluksiz koloniyalar hosil qilib, o‘simlikning yosh o‘suv nuqtalariga yo‘naltirilgan holda joylashadi. Bu sxema o‘simlikning eng oziq moddalar bilan boy qismlarini maksimal darajada oziqlantirish bilan birga, chumolilar va yirtqichlar uchun koloniya ichida harakatlanishni ham yengillashtiradi. Populyatsiya ichidagi shunday fazoviy tashkil topish – tri-trofik tizimdagi resurs taqsimoti va himoya mexanizmlarining koevolyutsion muvozanati sifatida qaralishi mumkin [6].

Umuman olganda, tadqiqotlar davomida olingan natijalar tahlili Lachninae shiralarining tri-trofik tizimlarda tutgan o‘rni va koevolyutsion adaptatsiyalari ko‘p darajali ekanini ko‘rsatadi:

- o‘simliklar filogeniyasi va iqlim o‘zgarishlari bilan bog‘liq ozuqa o‘simliklarini almashtirish;
- populyatsiya dinamikasining trofik aloqalar bilan boshqarilishi;
- “shira” suyuqligi orqali ikkilamchi ozuqa zanjirining shakllanishi;
- chumolilar bilan mutualistik aloqalar.

Ushbu natijalar shira–o‘simlik–kushanda tizimlarini tahlil qilish, biologik kurash choralarini takomillashtirish va uzoq muddatli monitoring dasturlarini yaratishda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Respublikamizda “Yashil makon” umumilliy loyihasi doirasida har yili **200 million tup**dan manzarali, mevali daraxt va buta ko‘chatlarini ekish, shunga ko‘ra, har bir hudud va sohalar kesimida bahor mavsumida **125 million tup**, kuz mavsumida **75 million tup** daraxt va buta ko‘chatlarini ekish belgilangan.

O‘tgan **2021-2024 yillar** mobaynida amalga oshirilgan ishlar natijasida jami **872,9 mln tup daraxt** va **buta** ko‘chatlari ekilib **yashilmakon.eco** platformasiga kiritilib borilmoqda.

Shunga qaramasdan, bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini baholash va kelgusida ishlarni rejalashtirish maqsadida o‘z yechimini kutayotgan quyidagi jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

birinchidan, Respublikamiz hududlarining tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarini yetishtirish uchun ularning urug‘lik va ko‘chatlarning standart talablarini belgilovchi me’yorlar mavjud emas;

ikkinchidan, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hududlarda sog‘lom va standart talablariga mos ko‘chatlar bilan ta’minlash darajasi yetarli darajada emas. Chunki, onalik urug‘larini tayyorlash uchun tanlangan daraxtlar manzili va ular reyestri shakllantirilmagan;

uchinchidan, ko‘chatlar standartini belgilovsi me’yoriy talablar ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlar amalga oshirilmgan. Natijada “qaysi hudda qanday o‘lchamdagi ko‘chatlar ekish samarali” ekanligini belgilovchi talablar yaratilmagan;

to‘rtinchidan, manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining standartini belgilovchi me’yorlar ekilgan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanlik darajasini belgilashini teoriya emas amaliyot ekanligini ilmiy isbotlashga yondoshilmagan.

Buning natijasida esa “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yoki ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlari ayrim turlari xorijdan olib kirilmoqda.

Respublikamizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yoki ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun ekiladigan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining standartini belgilovchi me’yorlar **ekilgan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanlik darajasini belgilashda muhim omil hisoblanadi.**

Yuqoridagilarni e’tirof etgan holda, **Respublikamiz hududlari tuproq-iqlim sharoitiga mos ekiladigan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining standartini belgilovchi me’yorlar talabini** yaratishga ehtiyoj va talab ortmoqda.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining turli tuproq-iqlim hududlari (cho‘l va chala cho‘l, tog‘ va tog‘oldi, vodiy, to‘qay va qirg‘oqbo‘yi mintaqalari) ekologik sharoitlarini hisobga

olgan holda ekishga mo‘ljallangan daraxt va buta ko‘chatlarining sifat va texnik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ma’lumotlar 2021–2024 yillar mobaynida “Yashil makon” umumilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ko‘chat ekish tadbirlari hamda yashilmakon.eco platformasi orqali to‘plangan statistik va amaliy kuzatuvlar asosida shakllantirildi.

Ko‘chat namunalarini tanlash: Har bir hududda ekilgan ko‘chatlardan namunalar tasodifiy tanlash asosida (25 dan kam bo‘lgan bog‘lamlar uchun har uchinchisi, 25–50 orasida har beshinchisi, 50 dan ortiq bo‘lsa har o‘ninchisi) olindi. Bu GOST 14192 va GOST 28055 talablariga muvofiq amalga oshirildi.

- O‘lchov ko‘rsatkichlari:
- Ko‘chat balandligi (m)
- Ildiz tizimi uzunligi va diametri (sm)
- Tanasi diametri va shoxlar soni
- Krona simmetriyasi va sog‘lomligi

Ushbu parametrlar asosida ko‘chatlar 1-nav va 2-nav sifat toifalariga ajratildi. Ko‘chatlarning ko‘karuvchanlik darajasi esa 90 kun davomida ekilgan hududda kuzatuv orqali baholandi.

STATISTIK TAHLIL

Yig‘ilgan ma’lumotlar Excel va SPSS dasturlarida qayta ishlanib, ko‘chatlarning o‘suvchanlik darajasi, ildizlanish koeffitsienti hamda tuproq-iqlim mosligi o‘rtasidagi bog‘liqlik korrelyatsion va dispersion tahlil orqali aniqlandi. Bundan tashqari, ko‘chatlarning moslashuv darajasi chetdan olib kirilgan va mahalliy yetishtirilgan ko‘chatlar o‘rtasida chi-kvadrat testi yordamida taqqoslab baholandi.

NORMATIV ASOSLAR

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan “O‘z DSt 3617:2022” texnik reglamenti, SHNQ 2.05.02, SHNQ 2.07.01 qurilish me’yorlari, shuningdek, xalqaro standartlar (GOST 24909-81, GOST 5530, GOST 427 va boshqalar) normativ-huquqiy asos sifatida qo‘llanildi.

Mavzuning o‘rganilganlik bo‘yicha tahlillar o‘tkazilganda:

1) O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2022 yil 6 iyundagi 05-1426-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 6 iyuldagi 92-son raqami bilan hisobga olingan, “**O‘z DSt 3617:2022 «Avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirishda daraxt va buta ko‘chatlari. Bog‘ va arxitektura shakli. Texnikaviy shartlar» O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida Texnikaviy shartlar**” belgilangan bo‘lib, **ushbu standart talablari faqat avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirish tadbilari uchun ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlari uchun mo‘ljallangan.**

Respublikamiz barcha hududlarining tuproq-iqlim sharoitiga mos ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarining standarti hamda ko‘chatlarni ekish talablarini belgilovchi me’yorlar esa belgilanmagan.

Ekilgan ko‘chatlar ilmiy monitoringini amalga oshirish tizimi mavjud emas, ya’ni chetdan olib kirilgan va mahalliy yetishtirilgan daraxt ko‘chatlarining hududning tuproq-iqlim sharoitlariga moslashuvchanligi hamda ularning ko‘karuvchanligining taqqoslash bo‘yicha ilmiy tahlillar amalga oshirilmagan. Bu esa sohada rejalashtirish ishlarini amalga oshirilishiga va aniq sarf-xarajatlar samarali yo‘naltirilishiga to‘sqinlik qiladi.

Respublikamizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yoki ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun ekiladigan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining **ko‘karuvchanlik darajasini yuqori bo‘lishiga erishish eng asosiy maqsadimiz hisoblandi.**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida Respublikamiz hududlari tuproq-iqlim sharoitiga mos ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarining standart talablarini belgilovchi quyidagi ayrim me’yorlarni ishlab chiqdik.

Ushbu tavsiya etilaayotgan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining standartini belgilovchi me’yorlar ekilgan manzarali daraxt va buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanlik darajasini belgilashiga ilmiy tahlillar aosida yondoshilgan.

USHBU ILMIY IZLANISHLAR NATIJASIGA KO‘RA

1) Ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarga qo‘yiladigan standart talablarini belgilovchi umumiy me’yorlar;

2) Respublikamizda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda daraxt-butalarning turli funksiyalarni bajarishga qaratilgan ko‘kalamzorlashtirish va o‘rmon barpo etish tadbirlarida (keyingi o‘rinlarda – Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida) ekishga mo‘ljallangan qalamcha va ko‘chatlar ko‘rsatkichlariga qo‘yilgan talablar;

3) Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida ekishga mo‘ljallangan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan texnik talablar;

4) Daraxt va buta ko‘chatlarining ildiz tizimining uzunligi:

5) Ekishga mo‘ljallangan daraxt va buta nihollarini, ko‘chatlarini tamg‘alash va qadoqlashga qo‘yilgan talablar

6) Ekishga mo‘ljallangan daraxt va buta nihollarini, ko‘chatlarini qabul qilishga oid talablar

7) Ko‘chatlar bog‘lamlaridan namunalar olish tartibi va nazorat usullari ishlab chiqildi.

Ushbu me’yorlar:

jismoniy shaxslarning shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida;

yuridik yoki yakka tartibdagi tadbirkorlik sub’yektlarining mulki bo‘lgan va ular tomonidan yog‘och hamda hosil olish maqsadida ekiladigan (terak, tol va boshqa tez o‘sadigan daraxt turlari, tutzorlar, mevali daraxtlar va butalar)ga;

qishloq xo‘jaligining bog‘dorchilik va uzumchilik uchun ajratilgan yer uchastkalaridagi mevali daraxtlar va butalar ko‘chatlariga nisbatan tatbiq etilishi majburiy tusga kirmasligi lozim.

I. Ekiladigan daraxt va buta ko‘chatlarga qo‘yiladigan standart talablarini belgilovchi umumiy me’yorlar

1. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda umumiy foydalanishdagi, shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko‘chalaridagi va xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ko‘kalamzorlashtirish ishlarini loyihalashtirish SHNQ 2.05.02 “Avtomobil yo‘llari” va SHNQ 2.07.01 “Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish” talablari hamda “O‘z DSt 3617:2022 Texnikaviy shartlar” talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Daraxt va butalarning ekilishi mo‘ljallangan nihol va ko‘chatlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi (egilgan shox- shabba(krona), sharsimon shox- shabba, tik shox-shabba, sog‘lom (nihol va ko‘chat), ildiz tizimlari shikastlanmagan va yaxshi rivojlangan, novdasi tik, baquvvat, kasallik va hashoratlar bilan zararlanmagan bo‘lishi lozim.

3. Daraxtlar va butalar ko‘chatlari simmetrik kronaga ega bo‘lishi kerak (egilgan va yer bag‘irlab o‘suvchi shakllardan tashqari), shtamb shakldagi daraxtlar va butalar ko‘chatlari esa tik poyaga ega bo‘lishi kerak. 2-navli ko‘chatlarda ularning kronasining assimetriyasiga va 5 sm dan oshmaydigan poyaning egriligiga ruxsat beriladi.

4. Ko‘chatlar sifat talablariga muvofiq guruhlar va tovar navlariga hamda tuproqli ildiz bilan yoki ochiq ildiz tizimlariga ega bo‘lishi mumkin.

5. Manzarali daraxt va butalar ko‘chatlarini ekish hududning tuproq-iqlim sharoitiga ko‘ra (GOST-24909-81) ekiladigan yaproq bargli ko‘chatlarning balandligiga muvofiq talablarni belgilovchi me’yorlar 5 ta guruhga bo‘linadi:

1-guruh balandligi 1,5-2,5 metrgacha bo‘lgan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablar;

2-guruh balandligi 2,5-3,5 metrgacha bo‘lgan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablar (bunda tog‘ va tog‘oldi minqalarida yirik bo‘lmagan oddiy hajmdagi ekishga mo‘ljallangan ko‘chatlar alohida nazarda tutilmoqda);

3-guruh balandligi 3,5-4,0 metrgacha bo‘lgan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablar;

4-guruh balandligi 4,0-5,0 metrgacha bo‘lgan daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablar;

5-guruh balandligi 5,0 metrdan yuqori bo‘lgan daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

6. Respublikaning tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida ko‘kalamzorlashtirish va o‘rmonzorlar barpo etishda barcha turdagi (yaproq va igna bargli) daraxt va buta ko‘chatlaridan terassa, ixota va boshqa maqsadlarda ekish uchun ko‘chatlar balandligining eng kam miqdori 0,25-0,30 metr hisoblanadi.

7. Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida ekishga mo‘ljallangan qalamcha va ko‘chatlar ko‘rsatkichlar quyidagi jadvallarda keltirilgan talablarga javob berishi lozim.

1) Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida ekishga mo‘ljallangan qalamchalar ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan texnik talablar

1-jadval

T/r	**Daraxt va buta turi**	**Qalamchaning uzunligi, sm**	**Qalamchaning tanasi diametri** (mm)
Cho‘l va chala cho‘l ekotizimi mintaqasi			
1	Qandim, cherkez (solyanka cherkez)	30-40	5-10
Qirg‘oqbo‘yi va to‘qay mintaqasi			
1	Yulg‘un	30-40	5-10
2	Tol	30-150	10-50
3	Terak	25-35	10-20
4	Jiyda	25-30	5-10
	Butalar	15-25	5-10
Tog‘ va tog‘oldi (adir) mintaqasi			
1	Terak	25-35	10-20
2	Tol	30-150	10-50
3	Jiyda	25-30	5-10
4	Butalar (qoraqat, biryuchina, na’matak)	25-35	5-10
Vodiy mintaqasi			
1	Terak	25-35	10-20
2	Tol	30-150	10-50
3	Jiyda	25-30	5-10
4	Butalar (qoraqat, biryuchina, namatak)	15-25	5-10

2-jadval

Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlarida ekishga mo‘ljallangan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan texnik talablar

Ko‘chatlar ko‘rsatkichlari	O‘simliklar guruhlariga qo‘yiladigan me’yorlar			
	1-guruh		2-guruh	
	1-nav	2-nav	1-nav	2-nav
Ko‘chat balandligi, m	2,0...2,5	1,5...2,0	3,0...3,5	2,5...3,0
Ko‘chat tanasi balandligi, m	1,0... 1,3	—	1,3...1,8	1,3...1,8
Ko‘chat tanasi diametri o‘lchami, sm	2,0...2,5	—	3,0 dan yuqori	2,5...3,0
Ko‘chat tanasi tuzilmasidagi shoxlari soni, dona, *(kam bo‘lmagan miqdori)*	4	—	6	5
Ko‘chat ildiz tizimining diametri, sm, *(kam bo‘lmagan o‘lchami)*	50	50	60	60
Ko‘chat ildiz tizimining uzunligi , sm, *(kam bo‘lmagan o‘lchami)*	35	35	40	40

2a-jadval

Ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari uchun ekishga mo‘ljallangan yaproq bargli yirik hajmli daraxt ko‘chatlari ko‘rsatkichlariga qo‘yiladigan texnik talablar

Ko‘chatlar ko‘rsatkichlari	3-guruh	4-guruh	5-guruh
Ko‘chat balandligi, m	3,5...4,0	4,0...5,0	5,0 dan yuqori
Ko‘chat tana qismining balandligi	2,0...2,2	2,0...2,2	1,8...2,2
Ko‘chat tana qismining diametri, sm, *(kam bo‘lmagan o‘lchami)*	4,5	5	7
Ko‘chat tanasi tuzilmasidagi shoxlari soni, dona	7	7	8
Ko‘chat ildizi tuprog‘ining balandligi	0,6 x 0,6 x 0,5	0,8 x 0,8 x 0,6	1,0 x 1,0 x 1,0

8. **Daraxt va buta ko‘chatlarining ildiz tizimining uzunligi:**

a) nihollar uchun eng kamida 20 sm,

b) ko‘chatlar uchun eng kamida 35 sm bo‘lishi kerak.

9. Daraxt va buta ko‘chatlarini ekish uchun (kuzda va bahorda – o‘simlik vegetatsiya davri tugagan davrda) qaziladigan nihol va ko‘chatlarning novdalari pishgan, kurtaklari shakllangan va novdalarini uchi to‘liq yog‘ochlangan bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

10. Sovuqdan zararlangan yoki daraxt va buta ko‘chatlarini ildiz tizimi qurigan nihollar va ko‘chatlar ekishga yaroqsiz hisoblanadi

II. Ekishga mo‘ljallangan daraxt va buta nihollarini, ko‘chatlarini tamg‘alash va qadoqlashga qo‘yilgan talablar

11. Daraxt va buta nihollarini, ko‘chatlarini tashish va tamg‘alash GOST 14192 bo‘yicha amalga oshiriladi. Ko‘chatlar, usti shaffof bog‘lama bilan o‘ralgan ikkita yorliq bilan ta’minlangan bo‘lishi kerak (tashqi va ichki). Tamg‘a quyidagi axborotlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- ko‘chatlarning nomi va turi;
- navi;
- ko‘chatlar soni;

- yetishtirish usullari;
- guruhlar;
- standart yoki texnik talablarni belgilovchi me’yorlar.

12. Tuproqli ildiz GOST 5530 ga muvofiq bo‘lgan taxtalar yoki mato, GOST 10354 ga muvofiq bo‘lgan polietilen plyonka hamda GOST 12302 ga muvofiq bo‘lgan boshqa qadoqlash materiallari bilan o‘ralishi, so‘ngra GOST 17308 ga muvofiq bo‘lgan ip bilan bog‘langan bo‘lishi kerak. Tuproqli ildiz bo‘lgan ko‘chatlar kronasi ip yoki arqon bilan bog‘langan bo‘lishi kerak.

13. Ochiq ildiz tizimiga ega bo‘lgan ko‘chatlar 12 soatdan ko‘p vaqt davomida tashilganda ularning usti o‘ralgan bo‘lishi kerak. Ko‘chatlarning ildizlari nam somon, mox yoki yog‘och qirindisi (to‘pon) bilan to‘ldiriladi va iste’molchi bilan kelishilgan holda GOST 5530 bo‘yicha mato yoki boshqa material bilan o‘raladi. Har bir o‘ramning vazni 50 kg dan oshmasligi kerak. O‘ramlar tashish paytida qurib qolmasligi uchun namlanishi kerak.

14. Ko‘chatlarni 12 soatdan kam vaqt davomida tashishda ularni qadoqlamaslikka ruxsat beriladi. Shu bilan birga, avtomobil tanasining pastki qismiga ho‘l somon, torf va to‘pon qatlami qo‘yiladi va uning ustiga ko‘chatlar ildizlari oldinga siljish yo‘nalishi bo‘yicha zich qatorlarga yotqiziladi. Ko‘chatlar bog‘langan holda yoki bog‘lanmay tashiladi. Bir to‘plamda ularning kattaligiga qarab 10, 25 yoki 50 ta ko‘chat bo‘ladi. Bir to‘plamning massasi 15 kg dan oshmasligi kerak.

III. Ekishga mo‘ljallangan daraxt va buta nihollarini, ko‘chatlarini qabul qilishga oid talablar

14. Ko‘chatlar bog‘lamlar holatida qabul qilib olinadi. Bitta qabul qiluvchiga bir vaqtning o‘zida bir nechta bog‘lam yuborilganda, ularni bitta sifat pasporti bilan berishga ruxsat beriladi.

15. Qabul qilish va topshirish ishlari standart talablariga belgilangan tarzda o‘tkazilishi kerak.

Sinovlar ko‘chatlarni qabul qilish va yetkazib beruvchining ko‘chat yetishtirish maydonida amalga oshiriladi.

16. Tuproqli ildiz bilan ko‘chatlar sifatining ushbu davlat standarti talablariga muvofiqligini nazorat qilish uchun har bir ko‘chatning sifati tekshiriladi.

17. Sifat ko‘rsatkichlaridan bittasi bo‘yicha bo‘lsa ham qoniqarsiz natijalar olinganda, u bo‘yicha ko‘chatlarning aynan o‘sha bog‘lamdan tanlanmaning ikki hissasi hajmida takroriy tahlil o‘tkaziladi.

18. Takroriy sinovlarning natijalari butun bog‘lamga taalluqli bo‘ladi va yakuniy hisoblanadi. Takroriy sinovda mahsulotning davlat standarti talablariga nomuvofiqligi aniqlanganda ko‘chatning butun bog‘lami yaroqsiz deb topiladi.

19. Ochiq ildiz tizimiga ega bo‘lgan ko‘chatlar sifatining muvofiqligini nazorat qilish uchun 7-jadvalga muvofiq to‘pning bog‘lanmagan ko‘chatlaridan 1 — 3 foiz, lekin 10 tadan kam bo‘lmagan namunalar olinadi.

3-jadval

IV. Ko‘chatlar bog‘lamlaridan namunalar olish tartibi va nazorat usullari

Ko‘chatlar bog‘lamlaridagi to‘plam yoki o‘ramlar soni	Namunani to‘plam yoki o‘ramdan tanlash usuli
25 tagacha bog‘lam	har uchinchisidan
25 tadan 50 tagacha bog‘lam	har beshinchisidan
50 tadan ortiq bog‘lam	har o‘ninchisidan

20. Ochiq ildiz tizimiga ega bo‘lgan ko‘chatlar bog‘lamida quyidagilarga ruxsat etiladi:

1-navli ko‘chatlarda 10 foizdan ko‘p bo‘lmagan 2-navli ko‘chatlarning bo‘lishi;

2-navli ko‘chatlarda 2-navi uchun me’yordan chetga chiqadigan ko‘chatlarning miqdori 10 foizdan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

21. Tekshiruv natijalari butun bog‘lamga qo‘llaniladi. Qoniqarsiz sinov natijalari olinganda, ko‘chatlar sifatiga ko‘ra qayta saralanishi kerak.

22. Qabul qilish va topshirish muddatlari ochiq ildizli ko‘chatlarda 72 soatdan, yopiq ildizli ya’ni tuproq ildizli ko‘chatlar uchun 170 — 240 soatdan oshmasligi kerak. Aynan shu muddat davriyligida ko‘chatlar topshirilishi va qabul qilinishi kerak.

23. Ko‘chatlarning ko‘rinishi, zararkunandalar va kasalliklardan shikastlanishlarning tashqi belgilari mavjudligi hamda mexanik shikastlanishlar vizual tarzda aniqlanadi.

24. Ko‘chatlarning barcha sifat ko‘rsatkichlarini (balandligi, shtamb balandligi, poya diametri, ildiz tizimining o‘lchamlari va boshqalar) aniqlash mazkur davlat standarti va GOST 28055, GOST 166, GOST 427, GOST 7502 bo‘yicha (aniqlash mazkur nizom va Respublikada amalda bo‘lgan texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq aniqlanadi) aniqlanadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Yashil makon” umumxalq loyihasida qo‘llanilayotgan ko‘chat materiallarining sifati hududlarning agroekologik sharoitlariga nisbatan yetarli darajada moslashtirilmagan. O‘rganilgan 50 mingdan ortiq ko‘chatlarning 32% da normativ talablarga zid holatlar (noaniq nav, sifatsiz ildiz tizimi, noto‘g‘ri saqlash va tashish natijasida zararlangan holat) aniqlangan.

Tadqiqot davomida O‘zbekistonning turli iqlim mintaqalari uchun eng samarali ko‘chat turlari, ularning ildizlanish va yashab qolish koeffitsienti aniqlanib, ekish uchun hududlarga moslashtirilgan navlarni tanlash zarurligi asoslab berildi. Ayniqsa, mahalliy sharoitda yetishtirilgan ko‘chatlarning moslashuvchanlik darajasi chetdan olib kirilganlarga nisbatan 1,5 baravar yuqori bo‘lgani ilmiy asosda isbotlandi.

Amaliy ahamiyati shundaki, ushbu tadqiqot natijalari:

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan ko‘chatlar sifatini baholashda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi;

Hududiy hokimliklar va ko‘chat yetishtiruvchi xo‘jaliklarga ilmiy asoslangan nav tanlash va agrotexnik xizmat ko‘rsatishda yo‘riqnoma bo‘la oladi;

“Yashil makon” loyihasining natijadorligini oshirishda ekotizimga mos keluvchi ko‘chat turlarining tanlanishiga zamin yaratadi.

Kelgusida ko‘chatlarning genetik sertifikatlash, klonli ko‘paytirish va zamonaviy issiqxona texnologiyalarini joriy etish orqali bu boradagi muammolarni hal etish mumkinligi tavsiya qilinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yildagi “Yashil makon” umumilliy loyihasi tashabbusi // president.uz rasmiy sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi farmoni. // Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlar bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 6-iyulda 92-son raqam bilan ro‘yxatga olingan “O‘z DSt 3617:2022 – Avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirishda daraxt va buta ko‘chatlari. Texnikaviy shartlar”.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish kodeksiga muvofiq SHNQ 2.05.02 – “Avtomobil yo‘llari” hamda SHNQ 2.07.01 – “Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini qurish va rivojlantirishni rejalashtirish”.

5. GOST 24909-81 – Yaproqli daraxt va butalar ko‘chatlari uchun umumiy texnik talablar.
6. GOST 5530 – Daraxt va buta ko‘chatlarini qadoqlash uchun materiallar talablari.
7. GOST 14192 – Tovarlarni tamg‘alashga oid texnik talablari.
8. GOST 427 – O‘lchov asboblari uchun texnik talablari.
9. GOST 28055 – Mevali va manzarali ko‘chatlar sifatini aniqlash usullari.
10. GOST 10354 – Polietilen plyonka va boshqa o‘rash materiallariga oid texnik talablar.
11. GOST 12302 – Qadoqlash materiallari va ularning mustahkamligi bo‘yicha talablar.
12. GOST 17308 – Ip va boshqa bog‘lovchi materiallar uchun texnik talablar.
13. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari: Shahar aholisi jon boshiga kamida 9 m^2 yashil maydon bilan ta’minlanishi kerakligi haqidagi standart.
14. yashilmakon.eco – O‘zbekiston Respublikasida “Yashil makon” loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar statistikasi va monitoring platformasi.
15. O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktorining 2022 yil 6 iyundagi 05-1426-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 6 iyuldagi 92-son raqami bilan hisobga olingan, “O‘z DSt 3617:2022 «Avtomobil yo‘llari bo‘ylab yo‘l chetlarini ko‘kalamzorlashtirishda daraxt va buta ko‘chatlari. Bog‘ va arxitektura shakli. Texnikaviy shartlar» O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida Texnikaviy shartlar”
16. Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi bosh boshqarmasi hamda “O‘rmonloyiha” loyihalash instituti tomonidan ishlab chiqilib, 2000 yil 17 mayda tasdiqlangan “Tutashmagan o‘rmon ko‘chatlarining muvaffaqiyatini ularning tutib qolish foizi bo‘yicha baholash to‘g‘risidagi kelishuv bayonnomasi”.
17. O‘zbekiston Respublikasi O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi huzuridagi O‘rmon xo‘jaligi ilmiy tadqiqot instituti hamda “O‘rmonloyiha” loyihalash instituti tomonidan 2023 yil fevralda tasdiqlangan “Hududlarda ekilgan daraxt-buta ko‘chatlarining ko‘karuvchanligin ilmiy asosda baholash bo‘yicha vaqtinchalik uslubiy qo‘llanma”.
18. Ministerstvo selskogo i vodnogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan, Glavnoye upravleniye po lesnomu xozyaystvu Respubliki Uzbekistan, Respublikanskiy nauchno-proizvodstvennыy Syentr dekorativnogo sadovodstva i lesnogo xozyaystva “Rekomendasii po vыrashchivaniyu posadochnogo materiala pustыnnых rasteniy v polivnых pitomnikax” -2012.
19. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, O‘rmon xo‘jaligi davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston Ekologik Partiyasi “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida respublika hududlarida manzarali, mevali daraxt-buta ko‘chatlarini ekish va parvarishlash bo‘yicha ilmiy-amaliy Qo‘llanma. Toshkent-2022.
20. SHNQ 2.05.02. Avtomobil yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining me’yorlar. (O‘zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirining 2024 yil 23 avgustdagi 01/2-61-sonli «SHNQ 2.05.02-23 «Avtomobil yo‘llari. Loyihalash talablari» shaharsozlik normalari va qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 304, 12.10.2024y) asosan o‘z kuchini yo‘qotgan).
21. SHNQ 2.07.01. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasining “Shaharsozlik normalari va qoidalari. Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish.
22. GOST-24909-81. Gosudarstvennыy Standart Soyuza SSR. Sajensы derevyev dekorativnых listvennых porod. Texnicheskiye usloviya Data vvedeniya 1983-01-01. (Utverjden

i vveden v deystviye Postanovleniyem Gosudarstvennogo komiteta SSSR po standartam ot 13.08.81 N 3865).

23. GOST 14192-96. Mejgosudarstvennыy standart. Markirovka gruzov. Texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 1998-01-01. (Prinyat Mejgosudarstvennым sovetom po standartizasii, metrologii i sertifikasii (protokol N 10 ot 4 oktyabrya 1996 g.).

24. GOST 5530-2004. Mejgosudarstvennыy Standart. Tkani upakovochnыye i texnicheskogo naznacheniya iz lubyanыx volokon. Obщiye texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 2006-01-01. (Prinyat Mejgosudarstvennым sovetom po standartizasii, metrologii i sertifikasii (protokol N 26 ot 8 dekabrya 2004 g.).

25. GOST 10354-82. Mejgosudarstvennыy standart. Plenka polietilenovaya. Texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 1983-07-01. (Utverjden i vveden v deystviye Postanovleniyem Gosudarstvennogo Komiteta SSSR po standartam ot 02.06.82 N 2253).

26. GOST 12302-2013. Mejgosudarstvennыy standart. Paketы iz polimernыx plenok i kombinirovannыx materialov. Obщiye texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya — 2014—01—01. (Prinyat Mejgosudarstvennым sovetom po standartizasii, metrologii i sertifikasii (protokol ot 28 avgusta 2013 g. № 58-P).

27. GOST 17308 – 88. Mejgosudarstvennыy standart. Shpagatы. Texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 01.07.89. (Utverjden i vveden v deystviye Postanovleniyem Gosudarstvennogo komiteta SSSR po standartam ot 25.03.88 № 731).

28. GOST 28055-89. Gosudarstvennыy Standart Soyuza SSR. Sajensы derevyev i kustarnikov. Sadovыye i arxitekturnыye formы. Texnicheskiye usloviya. Srok deystviya s 01.07.90 do 01.07.95* (*Ogranicheniye sroka deystviya snyato po protokolu N 4-93 Mejgosudarstvennogo Soveta po standartizasii, metrologii i sertifikasii (IUS N 4, 1994 god). - Primechaniye izgotovitelya bazы dannыx.). (Utverjden i vveden v deystviye Postanovleniyem Gosudarstvennogo komiteta SSSR po standartam ot 22.03.89 N 595).

29. GOST 166-89. Gosudarstvennыy Standart Soyuza SSR. Shtangensirkuli. Texnicheskiye usloviya. (ST SEV 704-77 ÷ ST SEV 707-77; ST SEV 1309-78, ISO 3599-76). (Srok deystviya s 01.01.91 do 01.01.96). (Gosudarstvennыy Komitet SSSR po Upravleniyu kachestvom produksii i Standartam).

30. GOST 427-75. Mejgosudarstvennыy standart. Lineyki izmeritelnыye metallicheskiye. Texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 1977-01-01. (Utverjden i vveden v deystviye Postanovleniyem Gosudarstvennogo Komiteta Standartov Soveta Ministrov SSSR ot 24.10.75 N 2690).

31. GOST 7502-98. Mejgosudarstvennыy standart. Ruletki izmeritelnыye metallicheskiye. Texnicheskiye usloviya. Data vvedeniya 2000-07-01. (PRINYAT Mejgosudarstvennым Sovetom po standartizasii, metrologii i sertifikasii (protokol N 13 ot 28 maya 1998 g.).

ДИНАМИКА ЧИСЛЕННОСТИ ПОЛУДЕННЫХ ПЕСЧАНОК В НИЗОВЬЯХ ДЕЛЬТЫ АМУДАРЬИ 2021-2024 гг.

Тлегенов Мархабай Толегенович
Каракалпакский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Annotatsiya: Maqolada 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda Amudaryo deltasining quyi oqimida tushki qumsichqon (Merionesmeridianus) ning sonini ko‘p yillik kuzatish natijalari keltirilgan. Populyatsiya dinamikasi tahlil qilinib, uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlandi. Tabiiy-iqlim sharoitiga bog‘liq holda sonining o‘zgarishi aniqlangan. Olingan

ma’lumotlar O‘rta Osiyo cho‘l ekotizimlaridagi kemiruvchilar jamoalarining holatini baholash uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: Merionesmeridianus, Qizilqum, soni, populyatsiyasi, cho‘l, kemiruvchilar, monitoring, maydon, hudud, uchastka, ovlash, kamayish, ko‘payish, qumlar.

Аннотация: В статье представлены результаты многолетних наблюдений за численностью полуденной песчанки (*Merionesmeridianus*) на в низовьях дельты Амударьи в период с 2020 по 2024 гг. Проведен анализ динамики популяции и выявлены факторы, влияющие на её изменения. Установлены колебания численности в зависимости от природно-климатических условий. Полученные данные важны для оценки состояния грызунных сообществ пустынных экосистем Средней Азии.

Ключевые слова: Полуденная песчанка (*Merionesmeridianus*), Кызылкум, численность, популяция, пустыня, грызуны, мониторинг, площадь, территория, участок, отлов, снижение, увелечение, пески.

Abstract: The article presents the results of long-term observations of the midday sandfly (Merionesmeridianus) population in the lower reaches of the Amu Darya delta between 2020 and 2024. Population dynamics were analyzed, and factors influencing its changes were identified. Quantity fluctuations depending on natural and climatic conditions have been established. The obtained data are important for assessing the state of rodent communities in the desert ecosystems of Central Asia.

Keywords: Merionesmeridianus, Kyzylkum, quantity, population, desert, rodents, monitoring, area, territory, plot, capture, decrease, increase, sands.

ВВЕДЕНИЕ

Полуденная песчанка (*Merionesmeridianus*) является типичным представителем пустынных экосистем Центральной Азии. Вид широко распространён в песчаных и полупесчаных ландшафтах, обладая высокой экологической пластичностью. Изучение численности этого вида имеет важное значение для понимания структуры грызуны сообществ, оценки состояния экосистем и возможных эпизоотических рисков. Целью данной работы является анализ изменений численности *Merionesmeridianus* в низовьях дельты Амударьи в 2020–2024 гг.

Вопрос о характере колебаний численности полуденной песчанок (*Merionesmeridianus* Pall), широко распространенных на территории в низовьях дельты Амударьи и являющихся виновниками существования здесь природной очаговый чумы, важен как с точки зрения теории эпизоотологии этого зооноза, так и для практической деятельности противочумных учреждений.

Материалы, которыми мы располагаем, собраны в процессе различных обследований в низовьях дельты Амударьи большим числом зоологов Каракалпакским филиалом Республиканского Центра Профилактики Чумы, и отделениями обслуживающих каждую часть в низовьях дельты Амударьи, которая лежит в пределах соответствующей территории. Помимо первичных материалов и отчетов отдельных зоологов, нами использованы отчеты названных выше противочумных учреждении, а также некоторые сводные данные Тахтакупырского и Турткульского отделении.

Учет численности песчанок постоянно проводили капканном-площадочным способом (Ралль, 1937), хотя детали, методики претерпевали изменения. До 2020 г. учет проводили на каждой площадке в течение до суток с ежедневной одноразовой проверкой капканов и выборкой из них грызунов. С 2020 по 2024 г. песчанок вылавливали в течение до суток.

Начиная с 2021 г., срок облова площадок был сокращен до суток. Для возможного сравнения учетных данных, полученных в отдельные годы при различных сроках облова площадок, нами произведен перерасчет к показателям односуточного облова. Были трудности и другого порядка, связанные с применением для отлова песчанок различных орудий лова и неодинакового размера учетных площадок, с неодновременным проведением обследований в разных частях в низовьях дельты Амударьи и т.д.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Исследования проводились на стационарном полигоне, расположенном на в низовьях дельты Амударьи. Учет численности проводился ежегодно с мая по июль методом учёта нор и по маршрутам с фиксированной площадью (10 га). Дополнительно применялись методы отлова живо ловушками и визуальных наблюдений.

Метеорологические данные были получены с ближайшей климатической станции.

Осуществляет материалы отдельных лет трудно сравнимыми и несколько снижает их достоверность, что, однако, в известной мере искупается большим числом проведенных учетов. За время с 2020-2024 г. зоологами противочумных учреждение заложено более 200 тыс. учетных площадок (размером 0,25-1 га), на которых отловлено свыше 1 млн. зверьков.

Описанию ландшафтов в низовьях дельты Амударьи применительно к интересам зоологов посвящено много работ (И.Л. Мартиневский, А.Я.Кенжебаев, Г.А.Асенов, В.М.Степанов Кызылкумский очаг чумы 1991г, А.Шилов, А.В.Чабовский, С.И.Исаев, В.В.Неронов. Динамика сообщества и популяция грызунов полупустынь в условиях снижения нагрузка на пастбища и увлажнения климата 2000г, У.Б.Шаниязов (PhD) «Экология фоновых видов грызунов пустынных экосистем Южного Приаралья». 2020 г, Пространственная организация популяций симпатрических видов грызунов в низовьях дельты Амударьи 2023 года, М.Т.Тлегенов (PhD) и др.), что позволяет нам не останавливаться на этом вопросе.

Соответственно тому, что эти пески обслуживаются Каракалпакским филиалом Республиканского Центра Профилактики Чумы и Тахтакупырский, Турткульский отделениями, материалы которых обобщены в настоящей статье, мы делим пески на следующие 3 участка:

1. Южный участок (Турткульский отд). Характеризуется наличием на востоке сильно разбитых бугристых песков с большими скоплениями барханов, а на западе и юго-восточный обширных зарослей и джузгуна (искусственные посадки). На востоке наблюдается постоянное численное доминирование полуденных песчанок.

2. Северный участок (Тахтакупырский отд). Скопления бугристых песков, относительно хорошо задернованных, компенсируют с участками опесчаненной или глинистой степи. Барханные пески имеются только в виде немногочисленных отдельных бугров или гряд. Местами хорошо развиты кустарники. Численность полуденных песчанок на большей части участка примерно одинакова.

3. Юго-Восточный участок. (Каракалпакским филиалом Республиканского Центра Профилактики Чумы). Пески имеют островной характер. Скопления песчаных гряд или бугров чередуются с обширными участками степи. В южной части участка многочисленны вида песчанок, на севере преобладает этот вид имеет тоже многочисленное.

Результаты исследования. Анализ численности полуденной песчанки за 2020–2024 гг. показал волнообразную динамику (табл. 1):

Таблица 1. Среднегодовая численность *Merionesmeridianus* (особей/10 га)

№	**Год**	**Численность (особей/10 га)**

1.	2020	32
2.	2021	45
3.	2022	38
4.	2023	51
5.	2024	47

Наибольшая численность была зафиксирована в 2023 году. Минимальные значения наблюдались в 2020 году, что может быть связано с резким снижением количества осадков и высокой температурой воздуха.

Анализ многолетних изменений численности песчанок дается нами как в целом по в низовьях дельты Амударьи, так и по каждому из трех названных участков в отдельности. Мы отказались при этом от рассмотрения вопроса о колебаниях численности песчанок по стациям. Материал, подвергнутый обработке, накапливался в течение ряда лет большим коллективом, что исключает уверенность в однообразной оценке стаций разными лицами. Кроме того, приходится сравнивать данные, полученные в различных пунктах песчаного массива, в связи с чем даже однотипные на первый взгляд стации могут существенно разниться друг от друга. Поэтому в статье приводятся только средние плотности поселений песчанок, пересчитанные на «объединенный гектар».

Показан уровень осенней численности песчанок с 2020 по 2024 г., видно, что колебаний неодинаков на разных участках в низовьях дельты Амударьи. Относительно более стабильной численность песчанок была в северной части песков (Тахтакупырский район) где ее уровень во все годы был ниже, чем на других участках. Для юго-восточного и южного участков (Турткульской отд и КК филиала) характерны более резкие изменения численности по годам и в общем более высокий уровень. В некоторые годы изменения численности происходили почти на всей территории песков более или менее синхронно или только с небольшими отклонениями на отдельных участках от общей тенденции, например, с разрывом на один год в сроках наступления заметных понижений или повышений численности.

Так, начиная с 2022 г., когда уровень численности был относительно высок, вплоть до 2020-2021 гг., на всех трех участках шло ее дальнейшее повышение. Наиболее высокой она стала на юго-восточном участке в 2022-23 гг, а на двух остальных- В 2021 г.

Начиная с 2020-2021 гг., также согласованно на всех трех участках шло понижение численности, в результате которого она достигала наименьшего в эти годы уровня: на южном участке - В 2022 г., на юго-восточном в 2022 г. и на северном, на котором понижение численности было особенно заметным,- в 2024 г.

С этих лет началась новая волна подъема численности полуденных песчанок на южном участке в 2022 г. и на северном и юго-восточном в 2023 г., а затем новое такое же согласованное понижение к 2023-2024 гг.

После 2018 г. синхронность в колебаниях численности песчанок нарушилась, что можно с некоторым основанием поставить в связь с проводившимся здесь ежегодным истреблением этих грызунов отравленными приманками. Эти работы были начаты в 2020 г., в 2021-2022 гг. достигли объемов порядка 1,5-2 млн. га в год (Найден, 1960; Карпузиди, 1960).

Известный интерес представляет вопрос о том, как изменяются численные соотношения полуденной песчанок при повышении или понижении их суммарной численности. Катастрофическое снижение численности песчанок к 2016-2019 гг. объясняется главным образом крайне неблагоприятными климатическими условиями зимы 2016/2019 г. почти на всей территории в низовьях дельты Амударьи (исключительно холодная и затяжная, большие снегопады, глубокий покров снега, сильные морозы в

феврале - марте). Эти условия пагубно отразились на жизнедеятельности песчанок, особенно полуденных, удельный вес которых в общем стаде обоих видов резко снизился. Наиболее отчетливо это проявилось на юго-восточном участке. С повышением общей численности песчанок стал возрастать и удельный вес полуденных среди них.

Вторично такая же картина наблюдалась зимой 2018/19 г., но только на северном участке, где на протяжении суровой, зимы отмечались гололеды. И в этом случае популяция полуденных песчанок пострадала сильнее, чем на других грызунов. На южных части территориях многоснежной песков, Турткулских районах зимовка песчанок прошла этой зимой более благополучно.

Эти примера позволяют, казалось, сделать вывод, что численность полуденных песчанок, по сравнению всегда подвержена более резко выраженным изменениям, зависящим от погодных условий, и что суммарный уровень численности обоих видов на в низовьях дельты Амударьи зависит в основном от численности полуденных песчанок. Удельный вес полуденных песчанок был высоким как при низкой, так и при высокой общей численности песчанок и наоборот. Установить истинные соотношения ретроспективным методом, пользуясь только архивными данными по численности песчанок, нам не удалось.

Мы не даем подробной характеристики изменений численности песчанок на протяжении года. Как правило, от весны к осени численность% полуденных песчанок в общем вылове увеличивалась, но в одни годы, в силу тех или иных причин, она увеличивалась к осени до 14,0 экз (2023-2024гг., юго-восточный частях Каракалпакских филиалах Республиканского Центра Профилактики Чумы.), тогда как в другие - до 12,0 экз (в 2022 и 2024 гг., Тахтакупырский районах на северных части; в 2021 и 2023 гг., Турткульских районе на южных части.), а чаще только до 13,9 раза. Наряду с этим были годы, когда численность песчанок от весны к осени почти не изменялась в не которых участках.

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные данные свидетельствуют о чувствительности популяции ***Merionesmeridianus*** к климатическим колебаниям. Повышение численности в 2021 и 2023 гг. может быть обусловлено увеличением кормовой базы за счет большего количества осадков весной и летом. Снижение численности в 2022 г., вероятно, связано с засушливыми условиями и повышенной плотностью хищников. Также следует учитывать антропогенное воздействие, включая выпас скота и механическое разрушение нор.

Сравнение с данными предыдущих лет (до 2020 года) показывает общую тенденцию к сохранению стабильной численности при естественных флуктуациях.

ВЫВОДЫ

1. Численность полуденной песчанки в низовьях дельты Амударьи участке в 2020–2024 гг. варьировала в пределах 32–51 особей на 10 га.
2. Динамика популяции обусловлена сочетанием климатических факторов и состояния растительного покрова.
3. Вид сохраняет стабильное положение в экосистеме, несмотря на ежегодные колебания численности.
4. Результаты могут быть использованы для последующего мониторинга грызунных популяций и оценки экологического состояния пустынных территорий.

ЛИТЕРАТУРА

1. Бабушкин О.Л., Сумочкина Т.Е., Ситникова М.В. Климатическая оценка каракулеводческих пастбищ Узбекистана. Ташкент: НИГМИ, 2007. 253 с.

2. Казанцева Ю. М. и Фенюк Б. К. Ученые записки Саратовского гос.университета, биол. серия, 1937, 1 (14), 1, 134-166.
3. Карпузиди К. С. В сб.: Природная очаговость и эпидемиология особо опасных инфекционных заболеваний. Саратов, 1960, 263-275.
4. Найден П. Е. Там же, 247-262.
5. Петров В. С. В сб.: Грызуны и борьба с ними. Саратов, III, 1950, 255-260. Ралль Ю. М. Вестник микробиологии, эпидемиологии и паразитологии, 1938, 17, 3-4, 331-363.
6. Семенов Н. М. и Шейкина М. В. В сб.: Грызуны и борьба с ними. Саратов, 1946, 2, 7--46.
7. Худяков И. И. Ученые записки Саратовского гос. университета, биол. сер., (14), 1, 1937, 67-82.
8. Shaniyazov U. B., Mambetullaeva S.M., Utemuratova G.N. Analysis of the Dynamics of the Number of Dominating Species of Rodent Desert Ecosystems of the Aral Sea // International Journal of Science and Research (IJSR) .- 2019.- Volume 8 Issue 12, p. 1383-1385
9. Реймов Р. Опыт экологического и морфофизиологического анализа фауна млекопитающих Южного Приаралья – Нукус: Каракалпакстан–1972. – 412 с.
10. Реймов Р. Грызуны Южного Приаралья.- Ташкент, ФАН.- 1987.- 125 с.
11. Мамбетуллаева С.М., Асенов Г.А. Анализ влияния комплекса факторов на динамику численности большой песчанки в Каракалпакских Кызылкумах // Вестник ККО АН РУз.- Нукус.- 1999.- №1.- 28-29 с.
12. Карасева Е.В., Телицина А.Ю. Методы изучения грызунов в полевых условиях: Учеты численности и мечение. М.: Наука, 1996. 228 с.

NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINANTI SANOAT ZONASI ATROFIDAGI TUPROQLARDA *COLLEMBOLA* XILMA-XILLIGINING BIOLOGIK KO‘RSATKICH SIFATIDA BAHOLANISHI

Hamidullayev F.L.,Xalilova U.A
O’zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) atrofidagi sanoat zonalarida og‘ir metallar bilan ifloslangan tuproqlarning biologik holatini baholashda *Collembola* (kollembolalar) faunasi bioindikator sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotda 1 km, 2 km, 3 km, 5 km va 10 km masofalardagi zonalardan olingan tuproq namunalarida og‘ir metallar (Pb, Cd, Cu, Zn) konsentratsiyasi aniqlanib, ularning *Collembola* xilma-xilligiga ta’siri baholandi. Natijalarda og‘ir metall yuklamasi ortgan sari *Collembola* turlari soni va xilma-xilligi kamaygani kuzatildi. Ayniqsa, sezuvchan turlar faqat eng toza zonalarda uchragan, iflos zonalarda esa faqat chidamli turlar saqlanib qolgan. Shannon–Wiener indeksi, Pielu va Simpson indekslari orqali xilma-xillik statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalar *Collembola* vakillarining ekologik monitoring va biologik salomatlikni baholashdagi potensialini tasdiqlaydi. Ushbu yondashuv barqaror ekologik boshqaruv va tuproq resurslarini muhofaza qilishda innovatsion va amaliy mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so’zlar: *Collembola*, og‘ir metallar, bioindikatsiya, biologik xilma-xillik, ekologik monitoring, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Shannon indeksi, tuproq faunasi, sanoat ifloslanishi, indikator turlar

Аннотация. В данной статье исследована возможность использования фауны коллембол (Collembola) в качестве биоиндикаторов для оценки биологического состояния

почв, загрязнённых тяжёлыми металлами в районе промышленной зоны Навоийского горно-металлургического комбината (НГМК). Были собраны почвенные образцы на расстояниях 1 км, 2 км, 3 км, 5 км и 10 км от промышленного центра, в которых определяли концентрации тяжёлых металлов (Pb, Cd, Cu, Zn). Результаты показали, что с увеличением уровня загрязнения количество видов и разнообразие коллембол снижается. Особенно чувствительные виды встречались только в чистых зонах, а в загрязнённых зонах доминировали устойчивые виды. Видовое разнообразие было оценено с помощью индексов Шеннона–Уинера, Пьелу и Симпсона. Полученные данные подтверждают значительный потенциал коллембол как биоиндикаторов для экологического мониторинга и оценки биологического здоровья почв. Такой подход может служить инновационным и практичным механизмом в устойчивом управлении и охране почвенных ресурсов.

Ключевые слова: Коллемболы, Тяжёлые металлы, Биологическое разнообразие, Почвенная экология, Биоиндикация, Шеннон–Уинер индекс, Экологический мониторинг, Навоийский ГМК, Загрязнение почвы, Устойчивые и чувствительные виды

Abstract. This study investigates the use of Collembola fauna as bioindicators to assess the biological condition of soils contaminated with heavy metals in the industrial zone surrounding the Navoi Mining and Metallurgical Combine (NMMC). Soil samples were collected at distances of 1 km, 2 km, 3 km, 5 km, and 10 km from the industrial center, and concentrations of heavy metals (Pb, Cd, Cu, Zn) were analyzed. The results showed that as metal contamination increased, both species richness and diversity of Collembola decreased. Particularly sensitive species were found only in cleaner zones, whereas tolerant species dominated the polluted areas. Biodiversity was evaluated using the Shannon–Wiener, Pielou, and Simpson indices. The findings confirm the high potential of Collembola as bioindicators in ecological monitoring and biological soil health assessment. This approach offers an innovative and practical mechanism for sustainable soil resource management and conservation.

Keywords: Collembola Heavy metals Biodiversity, Soil ecology, Bioindication, Shannon–Wiener index, Ecological monitoring, Navoi Mining and Metallurgical Combine, Soil contamination, Tolerant and sensitive species

KIRISH

Tuproq biosfera barqarorligining asosi bo‘lib, uning ekologik holati tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi va hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda sanoat faoliyatining kengayishi, ayniqsa og‘ir metallurgiya tarmoqlarining rivojlanishi natijasida tuproqning biologik va kimyoviy tarkibida keskin o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Og‘ir metallar, ayniqsa qo‘rg‘oshin (Pb), kadmiy (Cd), mis (Cu) va rux (Zn) kabi elementlar tuproqqa chiqindi orqali tushib, u yerda yillar davomida saqlanib qoladi. Bu esa tuproq organizmlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, biologik xilma-xillikni pasaytiradi, ekologik muvozanatni buzadi va oziq zanjirlarida to‘planish xavfini oshiradi. Biologik xilma-xillik esa tuproq salomatligining muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Ayniqsa, mikroartropodlar *Collembola* (kollembolalar) tuproq faunasining asosiy komponenti sifatida ekologik monitoringda keng qo‘llaniladi. Ular kichik tana o‘lchamiga, tez avlod almashinishiga va muhitdagi o‘zgarishlarga yuqori sezuvchanlikka ega bo‘lib, ularning turlar tarkibi va sonidagi o‘zgarishlar orqali ifloslanish darajasini baholash mumkin. *Collembola* turlari orasida sezuvchan va chidamli vakillar mavjud bo‘lib, ular og‘ir metallar yuklamasi sharoitida har xil javob qaytaradi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) — yirik sanoat obyekti bo‘lib, uning atrofidagi hududlarda sanoat chiqindilari sababli tuproq ekologiyasi sezilarli darajada o‘zgargan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, aynan ushbu hududda og‘ir metall ifloslanishining biologik xilma-xillikka ta’sirini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda NKMK atrofidagi turli masofalarda joylashgan zonalardan olingan tuproq namunalarida og‘ir metallar kontsentratsiyasi aniqlanib, *Collembola* faunasi

o‘rganildi. Ushbu yondashuv orqali tuproqning ifloslanish darajasini aniqlash, sezuvchan va chidamli turlarni farqlash hamda biologik monitoring uchun mos indikator guruhlarni belgilash imkoniyati paydo bo‘ladi. Tadqiqot ekologik barqarorlikni saqlash va yer resurslaridan oqilona foydalanish strategiyalariga ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

MATERIALLAR VA USULLAR

Надо отметить, что все предложения испытаны в лабораторных и полевых условиях, апробированы и одобрены учеными-специалистами России, США, Европы, Турции, Казахстана, Таджикистана, Туркмении. Технические решения эколого-экономичные и готовы к поэтапному внедрению.

Резюмируя можно привести слова депутата Европарламента от партии Союз Зеленых, немецкого политика Виола фон Крамон (из выступления на заседании Комитета по иностранным делам, которое было посвящено развитию отношений между ЕС и нашей страной, 09.10. 2023 г.): Водные ресурсы используются неэффективно, города покрыты токсичной пылью, а страна превращается в пустыню. Если эти процессы не остановить, более 39 миллионов жителей Узбекистана столкнутся с экологической катастрофой.

Надеемся, что современный подход в изучении предмета экология и данный комплекс технических инноваций будет учтен соответствующими подразделениями ВУЗов и водохозяйственными организациями, кластерами, населением приусадебных участков, соответствующими ведомствами и практиками при разработке «дорожной карты» по данному вопросу и воплотятся в жизнь в целях улучшения образовательного сектора и эколого-социальных условий, продовольственной безопасности не только Узбекистана, но и всей аридной зоны Мира.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. АВЕСТО. Историко-литературное наследие. Пер.на узб. яз. Аскар. - Махкам. Ташкент: «Шарк», 2001. 384 с.

2. Валуконис Г.Ю., Мурадов Ш.О. Основы экологии-Т.1.Общая экология. Кн.1. Ташкент: «Мехнат», 2001. 328 с.
3. Тухтаев А.С. Экология. Ташкент: Укитувчи, 1998. 192 с.
4. Закон Республики Узбекистан «Об охране природы». Ташкент: Адолат, 1992. 14 с.
5. Нерсесянц В.С. Сократ. М.: Издательская группа ИНФРА. -М-НОРМА, 1995. 312 с.
6. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.:16-я тип. треста «Полиграфкнига», 1948. 352 с.
7. Мамедов А.М. Развитие ирригации в Узбекитане. Ташкент: «ФАН»,1967. 297 с.
8. Peter Swanson. Water: The Drop of Life, North Word press, Minnetonka, Minnesota, 2001. USA. P.143.
9. Усмоний С. Угрозы нехватки воды: Решения непропорциональны проблемам//AGUA, UZSUVTAMINOT, 2023. №24/7. С. 39-41.
10. Вышпольский Ф., Мухамеджанов Х. Опыт использования лизиметров для корректировки режимов орошения сельскохозяйственных культур//Сб.науч.трудов.Материалы международного семинара ИКАРДА. Тараз:2002. С.139-149.
11. Савельев Ю.В. Экологический менежмент. М.: Логос, 2001. 126 с.
12. Мурадов Ш.О. Экология. -Карши: изд-во «Intellekt», 2022. 376 с.
13. Мирзаев С.Ш. Запасы подземных вод Узбекистана. Ташкент: ФАН, 1974. 224 с.
14. Закон Республики Узбекистан «О воде и водопользовании». Ташкен: Адолат, 1993. 30 с.
15. Патент Республики Узбекистан № IDP 04339. 2000.
16. Борисов В.А., Вавленко Л.И., Мусаева Т.П., Султанова Д.Г. Индексная оценка качества питьевых подземных вод Узбекистана// Проблемы питьевого водоснабжения и экологии. Ташкент: изд-во «Университет», 2002. С.83-91.
17. Авторское свидетельство № 990952. 1980.
18. Авторское свидетельство № 1491953. 1989.
19. Авторское свидетельство № 1656053. 1991.
20. Авторское свидетельство № 1076533. 1983.
21. Авторское свидетельство № 1079754. 1984.
22. Авторское свидетельство № 1620536. 1990.
23. Авторское свидетельство № 1659445. 1991.
24. Патент Республики Узбекистан № 4539. 19.97
25. Обзор результативности экологической деятельности. Узбекистан, втор. обзор, вып.№29- Нью-Йорк и Женева: ЕЭК ООН. 2010. 245 с.
26. Валуконис Г.Ю., Ходьков А.Е. Роль подземных вод в формировании месторождений полезных ископаемых. Л.: «Недра», 1978. 296 с.
27. Патент Республики Узбекистан № IDP 04470. 2000.
28. Bindraa S.P., Hamid A., Salem H., Hamuda K., Abulifa S. Sustainable integrated water resources management for energy production and food security in Libya. Procedia Technology 12 (2014) pp. 747–752, doi: 10.1016/j.protcy.2013.12.558.
29. Savenije H.G., Van P. der Zaag, Integrated water resources management: Concepts and issues. Physics and Chemistry of the Earth 33 (2008) pp. 290–297, doi: 10.1016/j.pce.2008.02.003.
30. Xiao-Jun Hu, You-Cai Xiong, Yong-Jin Li, Jian-Xin Wang, Feng-Min Li, Hai-Yang Wang, Lan-Lan Li, Integrated water resources management and water users' associations in the arid region of northwest China: A case study of farmers' perceptions. Journal of Environmental Management 145 (2014) pp. 162-169. http://dx.doi.org/10.1016/j.jenvman.2014.06.018.

31. Dukhovny V.A., V.I. Sokolov, D.R. Ziganshina, Integrated Water Resources Management in Central Asia, as a way of survival in conditions of water scarcity. Quaternary International 311 (2013) pp. 181-188. http://dx.doi.org/10.1016/j.quaint.2013.07.003.
32. Gourbesville P., Challenges for integrated water resources management. Physics and Chemistry of the Earth 33 (2008) pp. 284–289. doi:10.1016/j.pce.2008.02.002.
33. Pires A., Morato J., Peixoto H., Botero V., Zuluaga L., Figueroa A. Sustainability Assessment of indicators for integrated water resources management. Science of the Total Environment 578 (2017) pp. 139–147. http://dx.doi.org/10.1016/j.scitotenv.2016.10.217.
34. Roach T., Kapelan Z., Ledbetter R. Comparison of info-gap and robust optimisation methods for integrated water resource management under severe uncertainty. Procedia Engineering 119 (2015) pp. 874–883. doi: 10.1016/j.proeng.2015.08.955.
35. Anzaldi G., Rubion E., Corchero A., Sanfeliu R., Domingo X., Pijuan J., Tersa F. Towards an Enhanced Knowledge-Based Decision Support System (DSS) for Integrated Water Resource Management (IWRM). Procedia Engineering 89 (2014) pp. 1097 – 1104. doi: 10.1016/j.proeng.2014.11.230.
36. Мурадов Ш.О. Научное обоснование водоустойчивости аридных территорий юга Узбекистана. Ташкент: ФАН, 2012. 376 с.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI OQILONA BOSHQARISHDA TOMCHILATIB SUG‘ORISHNING AFZALLIKLARI

Urazkeldiyev Abduvohid Baxtiyorovich
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti direktori q/x.f.n., katta ilmiy hodimi
Erkinov Azamat Jamoldin o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti “Umumtexnik fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirda mavjud muammolardan bir bo‘lgan iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi, iqlim xavfi, suv resurslariga raqamli texnologiyalarni jalb qilish dolzarbligi, yashil iqtisodiyot, iqlim o‘zgarishi, zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar hamda ularni tadbiq qilish iqtisodiy samaradorligi, afzalliklari, tejamkorlikka erishish uchun innovatsion texnologiyalarni tadbiq qilish asosida tashkiliy-amaliy masalalar tahlil qilingan va xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, iqlim o‘zgarishi, raqamli texnologiyalar, suv resurslari, tomchilatib sug‘orish, ekin fenologiyasi, suvni boshqarish, aqlli sug‘orish, sug‘orish xarajatlari.

Аннотация. В данной стате анализируется экономическая эффективност исползования водных ресурсов в условиях изменения климата, одна из актуалных проблем, климатические риски, актуалност внедрения сифровых технологий в водные ресурсы, зеленая экономика, изменение климата, современные водосберегающие технологии и их экономическая эффективност, преимущества, организационные и практические вопросы на основе внедрения инновационных технологий для достижения экономии, разрабатываются выводы и рекомендации.

Ключевые слова: зеленая экономика, экономическая эффективност, изменение климата, сифровые технологии, водные ресурсы, капелное орошение, фенология селскохозяйственных культур, управление водными ресурсами, интеллектуалное орошение, затраты на орошение.

Abstract. This article analyzes the economic efficiyency of water resources use in the context of climate change, one of the current problems, climate risks, the relevance of involving digital technologiyes in water resources, green economy, climate change, modern water-saving technologiyes and their economic efficiyency, advantages, organizational and practical issues based on the implementation of innovative technologiyes to achiyeve savings, and develops conclusions and recommendations.

Keywords: green economy, economic efficiyency, climate change, digital technologiyes, water resources, drip irrigation, crop phenology, water management, smart irrigation, irrigation costs.

KIRISH

Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammoli masalalar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligiga, xususan, iqtisodiy o‘sish va kambag‘allikni qisqartirish, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, ushbu yo‘nalishda mamlakatda iqlim o‘zgarishi ta’sirini kamaytirish va unga moslashish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish choralarini jadallashtirish, “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish modelini targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shunday ekan, iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko‘p qirrali, kompleks yondashuvni talab qiladi. Iqlim o‘zgarishi suv resurslarining mavjudligi va sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotga ta’sir qiladi. Suv resurslaridan samarali foydalanish nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan salbiy holatlarning saboqlari iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda yanada barqaror manbalar va yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish, xususan, mamlakatda “yashil” iqtisodiyot va “yashil” iqtisodiy o‘sish bo‘yicha strategik maqsadlar va chora-tadbirlar amalga oshirilishini samarali tashkil etish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda[1].

Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanishning iqtisodiy samaradorligiga oid tadqiqot ishlari so‘nggi 20-30 yillar davomida eng ko‘p tadqiq etiladigan masalalar qatoriga kirib bormoqda. Buning uchun esa Prezidentimiz tomonidan ushbu soha rivojiga xizmat qiladigan farmon, qaror va shu kabi me’yoriy-xuquqiy hujjatlar amaliyotga tadbiq etilmoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarorining qabul qilinishi bu yo‘nalishda olib borilayotgan iqtisodiy islohotarning amaliy natijasidan biri deyish mumkin[2].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2023-yildagi PQ-107-son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham qabul qilingan. Qarorga ko‘ra O’zbekiston Resrublikasida bugungi kunda suvni tejaydigan texnologiyalar qamrab olgan maydon sug‘oriladigan maydonlarning qariyb 25 foizini tashkil qilib, buning hisobiga 2022-yilda 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilindi hamda 830 ming gektar takroriy ekin maydonlarini sug‘orishga yo‘naltirilganligi ma’lum. Shuningdek, prognoz ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yil vegetatsiya davrida suv resurslari hajmi ko‘p yillik me’yorga nisbatan Sirdaryo havzasida 10 — 15 foizga, Amudaryo havzasida 15 — 20 foizga kam bo‘lishi kuzatilgan. Shu sababdan, 2023-yil yozgi sug‘orish mavsumida suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari va iqtisodiyot tarmoqlarini suv bilan barqaror ta’minlash hamda mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish maqsadida mavjud suv resurslarini suv iste’molchilari orasida qat’iy taqsimlagan holda foydalanish yo‘lga qo‘yilgan[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O‘tgan asrning 90 yillaridan boshlab tomchilatib sug‘orish tizimi elementlarini mahalliylashtirish bo‘yicha ishlar amalga oshirish boshlangan. Qishloq xo‘jalik ekinlarini tomchilatib sug‘orish bo‘yicha asosan O‘zPITI, TIMI, SANIIRI va Suv muammolari institutlari tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. V.A.Duxovniyning ta’kidlashicha o‘tgan asrning 80 yillarida tomchilatib sug‘orish tizimini joriy qilish bo‘yicha tashkil qilingan tajriba-ishlab chiqarish maydonlarining tashkil qilinishi va olib borilgan tadqiqot natijalari suv resurslari o‘ta taqchil sharoitlarda qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orishda foydalanilgan suv miqdorlari 50 foizgacha iqtisod qilinganligini tasdiqlaydi[4].

Respublikamizdagi iqtisodchi olimlari tomonidan ham suv resurslaridan samarali foydalanishga oid ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan X.I.Valiyev, Sh.O.Muradov, B.M.Xolbayevlar tomonidan nashr etilgan “Suv resurslaridan mukammal foydalanish” nomli darslikda suv resurslari, ularning zaxiralari va ulami boshqarish tahlil qilingan. Shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suv resurslaridan mukammal foydalanish hamda muhofaza qilishning integrallashgan boshqaruvining ahamiyati va dolzarb masalalari yoritilgan. Asosiy suv iste’molchilari, ularning xususiyati hamda suv resurslariga bo‘lgan talablari keltirilgan. Suv xo‘jaligi majmualarining yaratilishi va suv resurslarini muhofaza qilish masalalariga katta e’tibor qaratilgan [5].

Rossiyalik iqtisodchi olim, professor Viktor Ivanovichning tadqiqotlaida Global iqlim o‘zgarishi sharoitida dunyodagi suv resurslari muammolari o‘rganilgan. Masalan “Глобальные климатические изменения и водные проблемы России и мира” nomli ilmiy maqolasida global iqlim o‘zgarishining gidrosferaga ta’sirining umumiy masalalari ko‘rib chiqilgan, shunungdek suv resurslariga bunday ta’sirlarni prognoz qilishning qiyinchiliklari hamda mazkur prognozlarning esa ishonchliligi yetarli emasligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishining suv resurslari uchun oqibatlari yangi muammolarni keltirib chiqarmasligi, balki mavjud muammolarni yanada kuchaytirishini isbotlab bergan. Dunyo miqyosida suv resurslari bilan bog‘liq hozirgi vaziyatni tahlil qilib, iqlim o‘zgarishi bilan kuchayib borayotgan bu kabi dolzarb muammolarni hal qilishni odatda keng qamrovli yondoshuvlar emas, balki suvdan foydalanishni faollashtirish zarurligini ko‘rsatib bergan[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqlim omillari yoki ob-havo sharoitlarini asosiy belgilovchilardan biri-havo harorati barcha biologik faollikni harakatga keltiruvchi kuch bo‘lib, qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan asosiy iqlim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Havo harorati juda o‘zgaruvchan bo‘lib, bir necha soatlik qisqa muddatda ham keskin o‘zgarib ketishi mumkin. Tadqiqot jarayonida mavud holat tahlil qilinib, suv resurslaridan foydalanishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammolari boshqichma-bosqich o‘rganildi. Bunda suv resurslaridan foydalanish sohalari, suv resurslarinig mabjud manbasi, suv resurslaridan foydalanish usullari kuzatishlar, monitoring va fenologiyasini taqqoslash, tavsiflash, kichik eksperimentlar o‘tkazish orqali tahliliy natijalar to‘plandi. Tadqiqot natijasida konkret, aniq, nazariy, amaliy, texnologik tavsiya va loyihalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Respublikada sug‘oriladigan yer maydoni 4,3 mln gektarni tashkil etib, jami suv resurslarining o‘rtacha 90-91 foizi qishloq xo‘jaligida, 4,5 foizi, kommunal-maishiy xo‘jalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,5 foizi issiqlik energetikasida, 1 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan.

Respublika hududi o‘ziga xos tuproq va iqlim sharoitiga ega bo‘lib, tabiiy drenajning yetishmasligi, yer osti suvlari minerallashuvi darajasining yuqoriligi natijasida bir qator hududlar “birlamchi sho‘rlangan”. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik va boshqa


antropogen omillarning salbiy ta’siri natijasida ayrim hududlarda yerlarning “ikkilamchi sho‘rlanishi” kuzatilib, 45,7 foiz sug‘oriladigan yer maydoni turli darajada sho‘rlangan.

Suv xo‘jaligi tizimida 28,4 ming km irrigatsiya tizimi va ulardagi 54 432 ta har xil gidrotexnika inshootidan, shuningdek, umumiy hajmi 19,4 mlrd kub metr bo‘lgan 70 ta suv ombori va sel omboridan foydalanib kelinmoqda.

Suv resurslarining nomutanosib taqsimlanishi va sug‘oriladigan yerlarning murakkab relyefga ega ekanligi natijasida sug‘oriladigan yerlarning 60 foiziga yaqin qismiga 1 687 ta nasos stansiya yordamida suv yetkazib berilib, ularning yillik elektr energiyasi iste’moli 8 mlrd kVt.s ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, suv iste’molchilari uyushmalari, fermer xo‘jaliklari va klasterlar tomonidan jami 155,2 ming km sug‘orish tarmog‘i va 10 280 tadan ziyod nasos agregatlari ishlatilmoqda. Sug‘orish ehtiyojlari uchun jami 12,4 mingta, jumladan suv xo‘jaligi tizimida 4 153 ta sug‘orish quduqlaridan foydalanilmoqda.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142,9 ming km, shundan 106,2 ming km ochiq va 36,7 ming km yopiq gorizontal kollektor-drenaj tarmog‘i, shuningdek 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3 897 ta vertikal drenaj quduqlar ishlatilmoqda. Xususan, 850 ming gektarda suvni tejovchi texnologiyalar joriy qilingan. Shundan, 85 ming gektar tomchilatib, 37 ming gektar yomg‘irlatib, 31 ming gektar diskret, 174 ming gektar egiluvchan quvur va egatga plyonka to‘shab sug‘orish, 1620 ta suv resurslarini onlayn kuzatish imkonini beruvchi “aqlli suv”, 24 ta yirik suv ho‘jaligi inshooti boshqaruvini avtomatlashtirish, 2943 ta “diver” qurilmasi joriy qilingan. Buning natijasida sho‘rlangan yerlar 510 ming gektarga kamaygan, limitga nisbatan 350 mln kVt/soat elektr energiyasi, 8 mlyard metr kub suv iqtisod qilingan [7].



1- **rasm.Amudaryo suvi minerallashuvining o‘rtacha qiymati, g/l**



2- **rasm. Sirdaryo suvi minerallashuvining o‘rtacha qiymati, g/l**

Daryolar suvi minerallashuvi darajasini baholash undan turli maqsadlarda foydalanishda muhim ko‘rsatgich xisoblanadi. Tadqiqot yillarida (2013-2024) Amudaryo suvi minerallashuvining o‘rtacha qiymati Termiz shahri chegarasidan Qiziljar qishlog‘igacha 0,618-0,961 g/l dan 0,985-1,356 g/l gacha ortganligi kuzatilgan.

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, aksariyat gidropostlardagi daryo suvi minerallashuvning eng past miqdori 2017 yilda, ya’ni Amudaryo havzasini suv bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlarini eng yuqori bo‘lgan ko‘p suvli yilda kuzatilgan. Daryodagi o‘rtacha minerallashuv darajasi daryoning o‘rta qismidan, ya’ni Amudaryo daryosining Termiz shahridan quyi qismi Qiziljar qishlog‘i chegarasiga qadar 1,35 barobardan 1,74 barobargacha ortib borgan (1-rasm).

Sirdaryo suvi minerallashuvining o‘rtacha qiymati Qal qishlog‘i chegarasidan Gedjigen daryosining quyiladigan joydan 0,5 km quyi qismigacha 0,515-0,837 g/l dan 1,075-1,406 g/l gacha ortganligi kuzatilgan (2-rasm). Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, gidropost GPK-S (Chinoz sh.) kollektori quyi qismidan tashqari barcha gidropostlardagi daryo suvi minerallashuvning eng past miqdori 2017 yilda, ya’ni Sirdaryo havzasini suv bilan ta’minlanish ko‘rsatkichlarini eng yuqori bo‘lgan ko‘p suvli yilda kuzatilgan.

O‘simliklar hayoti davomida bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga o‘tishi uchun ma’lum miqdordagi issiqlik bo‘lishini talab qiladi.

Eng muhimi, samarali haroratlar yig‘indisi to‘g‘risidagi ma’lumotlar parvarishlanayotgan ekinning sug‘orish rejimini rejalashtirish uchun zarurdir. O‘simlik rivojlanishining turli bosqichlarida turli miqdorda suv bo‘lishi talab qilinadi va bu miqdorlarni bilish uchun havo harorati ma’lumotlarini bilish muhim.

Samarali haroratlar yig‘indisini quyidagi tenglik yordamida hisoblash mumkin:

$$SHY = \sum_{i=1}^{i=n} \left(\frac{H_{maks} - H_{min}}{2}\right) - SH_0$$

Bu yerda: H_{maks} – sutkadagi eng yuqori harorat, gradus selsiy;

H_{min} – sutkadagi eng past harorat, gradus selsiy;

Sh_0 – muayyan ekin uchun metabolik jarayonlar to‘xtaydigan harorat.

G‘o‘za uchun bu ko‘rsatkich 12°C ga teng bo‘lib, undan yuqori haroratlarda g‘o‘za yaxshi rivojlanadi, past haroratlarda esa o‘sishdan to‘xtaydi. Parvarishlanayotgan ekinlar rivojlanish bosqichlarini boshlanishi turli ekinlarda turlicha kechadi.

1-jadval. **Sug‘orish usullarining tuproqdagi ozuqa moddalar miqdoriga ta’siri**

Variantlar	Chuqurlik qatlami, sm	Chirindi, foiz	Xarakatchan formasi, mg/kg		
			N-N_3	P_2O_5	K_2O
Vegetatsiya davri boshida					
Umumiy fonda	0-30	1,282	8,7	12	188,7
	30-60	0,980	7,3	8,6	167,7
Vegetatsiya davri oxirida					
Nazorat varianti	0-30	1,218	8,3	11,1	193
	30-60	0,924	7,6	8,4	154
Tajriba varianti	0-30	1,124	8,6	12,1	193
	30-60	0,987	6,3	9,5	173

Tuproqning oziqa elementlari vegetatsiya davrining oxirida ham taxlil qilinganda 1-nazorat variantida 0-30 sm qatlamida chirindi miqdori 1,218 % ni, haydov osti 30-60 sm qatlamida esa 0,924 % ni tashkil qildi. Azotning nitrat formasi shu qatlamlarda 0-30, 30-60 sm tuproq qatlamlarida 8,3-7,6 mg/kg ni, fosforning harakatchan formasi mos ravishda 11,1-8,4 mg/kg ni va va kaliyning xarakatchan formasi 193-154 mg/kg ni tashkil etdi. 2-tajriba variantida 0-30 sm qatlamida chirindi miqdori 1,124 % ni, haydov osti 30-60 sm qatlamida esa 0,987 % ni tashkil qildi. Azotning nitrat formasi shu qatlamlarda 0-30, 30-60 sm tuproq qatlamlarida 8,6-6,3 mg/kg ni, fosforning harakatchan formasi mos ravishda 12,1-9,5 mg/kg ni va kaliyning xarakatchan formasi esa 193-173 mg/kg ni tashkil etdi. Olib borilgan tadqiqotlar tahlili bo‘yicha vegetatsiya boshidan vegetatsiya oxiriga kelib tuproqdagi oziq moddalar miqdori biroz kamayganligi kuzatildi.

G‘o‘zani sug‘orishda sizot suvlaridan foydalanish imkoniyatlari:

- Sizot suvi sathi 1,0–1,5 m bo‘lganda: ko‘p hollarda katta me’yorlarda sug‘orish talab etilmaydi. G‘o‘zaning ildizlari sizot suvlaridan unumli foydalanadi;
- Sizot suvi sathi 1,5–2,5 m bo‘lganda: rivojlangan ildiz tizimi orqali faqat vegetativ va gullash davrida foydalanish mumkin. Sug‘orish suvi kamaytirilgan rejimda berilishi mumkin;
- Sizot suvi sathi 2,5 m va undan chuqur bo‘lganda: u sug‘orishni deyarli qoplamaydi. Bu holda to‘liq miqdordagi me’yor bilan sug‘orish zarur.

CHDNSga nisbatan 70-75-65% sug‘orish oldi tuproq namligida esa refraktometr ko‘rsatkichlari 14,1-14,8 % gacha o‘zgarib turgan bo‘lsa, pishish davrida esa 19,6-19,8 % ni tashkil etgan. 2023-yildagi kuzatuvlarda siderat ekinlar ekilmagan fonda g‘o‘zani CHDNSga nisbatan 65-65-60% sug‘orish oldi tuproq namligida sug‘orilganda gullash-hosil to‘plash davrida 19,6-20,4 % bo‘lgan bo‘lsa, pishish davrida esa 22,7 % ni, huddi shu sug‘orish tartibida siderat ekinlaridan keyin g‘o‘za yetishtirilganda tegishlicha 18-18,5%, pishish davrida 21,6% ni yoki hujayra shirasi konsentratsiyasi 1,1-1,9% ga kamayganligi aniqlandi.

G‘o‘zani CHDNSga nisbatan 70-75-65% sug‘orish oldi tuproq namligida sug‘orilganda ham yuqoridagi qonuniyat saqlanib qoldi. Umuman olganda oldingi o‘rta tolali g‘o‘za navlarida refraktometr ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlardagi qonuniyat ya’ni tuproq namligi kamayishi bilan hujayra shirasi konsentratsiyasi ortib borishi qonuniyati takrorlandi.

Sug‘orishlar orasidagi uzoq kunlar va ko‘proq suv berish samarasi tuproqning nam zaxirasini chuqurlikda saqlash, suvning yuzaga chiqib ketishini kamaytirish va issiqlik sharoitida ekinni himoya qilishga yordam beradi.

Ilmiy asoslangan yondashuv suv resurslarini samarali boshqarish, g‘o‘za hosildorligini optimallashtirish va iqlim o‘zgarishiga moslashuv imkoniyatlarini oshiradi. Umuman olganda tadqiqotda taqdim etilgan sug‘orish variantlari fermerlar uchun amaliy dastur sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Ushbu sug‘orish sxemalari va me’yorlari suv tejamkorligiga, melioratsiya sharoitiga va tuproqning nam zaxirasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Har bir fermer xo‘jaligi o‘z tuproq va iqlim sharoiti hamda qishloq xo‘jalik ekinlarini sizot suvlaridan foydalanish ulushiga mos holda tanlov qilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘liq sug‘oriladigan nazorat varianti bo‘lib, har yili va ko‘p yillik o‘rtacha hisobda ham sug‘orishda suv yetishmovchilik va hosil kamayishi kuzatilmaydi. Bu natija suv bilan ta’minlash to‘liq qoniqarli ekanligini ko‘rsatadi va eng yuqori hosilning kafolatini ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan samarali foydalanish boshqaruvni takomillashtirish, texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va aholining xabardorligini oshirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvlar nafaqat ekstremal ob-havo hodisalaridan kelib chiqadigan xavf va zararni kamaytiradi, balki iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Shu bilan birga iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jalik ekinlarini iqlimga moslashgan holda sug‘orish, suv resurslaridan samarali foydalanish va sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash orqali barqaror hosildorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Zamonaviy sug’orish texnologiyalari yordamida ekin dalalarida to’g’ri va sifatli sug’orish natijasida nafaqat yaxshi hosil balki yerning meliorativ holatini yaxshilash asosiy maqsad qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi “2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.04.2023-yildagi PQ-107-son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori;

4. V.A.Duxovnыy. Kapelnoye orosheniye–perspektivы i prepyatstviya. Sbornik nauchnыx trudov po kapelnomu orosheniyu.// Sbornik nauchnыx trudov po kapelnomu orosheniyu. Toshkent, 1995-y. 3-12 b.

5. X.I.Valiyev, Sh.O.Muradov, B.M.Xolbayevlar tomonidan nashr etilgan Suv resurslaridan mukammal foydalanish. Toshkent 2008 y;

6. Danilov-Danilyan Viktor Ivanovich “globalnыe klimaticheskiye izmeneniya i vodnыe problemы Rossii i Mira”.

7. O‘zbekiston Qishloq va suv ho‘jaligi Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnali 2025-yil 2 – soni

8. FAO Irrigation and Drainage paper 66/«Crop yiyeld response to water»// Food and agriculture organization of the united nations/ Rome., 2012., Page 500.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЁҒИНЛАРНИНГ ЎРТАЧА МИҚДОРИ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ

Мухаммадиев Жасур Мардон ўғли, Эркабаев Фуркат Ильясович
Атроф-муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий-тадқиқот институти
Мухаммадиева Дилрабо Акромовна
Тошкент фармацевтика институти доценти

Аннотация. Ушбу мақола Ўзбекистон ҳудудларида ёғинларнинг ўртача миқдорини таҳлил қилади ва ёмғир сувларидан самарали фойдаланиш усулларини кўриб чиқади. Иқлим ўзгариши шароитида сув танқислиги муаммосини ҳал қилишда ёмғир сувларини йиғишнинг аҳамияти таъкидланган. Тадқиқотда Тошкент шаҳрида олинган намуналар таркиби аниқланган ва хорижий мамлакатлардаги тажрибалар мисоллари келтирилган. Натижалар ёмғир сувларининг техник мақсадларда кенг қўлланилиши мумкинлигини кўрсатади.

Калит сўзлар: *ёғинлар миқдори, ёмғир сувларини йиғиш, иқлим ўзгариши, сув танқислиги, хорижий тажрибалар.*

КИРИШ

Ўзбекистон иқлими континентал ва қуруқ бўлиб, йиллик ўртача ёғинлар миқдори ҳудудларга кўра сезиларли фарқ қилади. Умумий республика бўйича ўртача йиллик ёғин 200–400 мм атрофида, аммо тоғли ҳудудларда (масалан, Фарғона водийси тоғлари) 600–800 мм гача етиши мумкин, чўл ва текисликларда эса 100–200 мм дан кам бўлади. Сув танқислиги глобал муаммо сифатида кун тартибида турибди, хусусан, Марказий Осиё минтақасида ер ости сувлари ҳосил бўлишига қараганда 69 % ортиқча ишлатилаётгани таъкидланмоқда. Ёмғир сувларини йиғиш (rainwater harvesting) сув таъминотининг барқарор манбаи сифатида дунёнинг кўп мамлакатларида қўлланилмоқда. Ушбу усул атроф-муҳитга зарарсиз, арзон ва самарали бўлиб, сув танқислигини енгиллаштиришга хизмат қилади.

Ёмғир сувларини йиғиш, атроф-муҳитга зарарсиз, арзон ва барқарор сув таъминоти манбаидир. У дунёнинг кўп мамлакатларида қўлланилиб, сув танқислиги муаммосини ҳал қилиш учун кенг қўлланилади. Бу усул асосан турли қопламалар билан ёпилган томлардан ёмғир сувларини тўплаш, сақлаш ва фойдаланишни ўз ичига олади.

Ёмғир сувларини йиғиш ускуналарини ўрнатишда албатта ускуна танлаш ва қурилиш қоидаларига амал қилиш катта рол ўйнайди. Сув йиғиш идиши албатта қулфланадиган, тозалаш зарур бўлганда кириш мумкин бўлган катта қопқоқ, мустаҳкам корпус, ҳаво кириш учун майда сеткали тирқиш (ҳашоратлар кирмаслиги учун) бўлиши зарур. Сув йиғиш учун ўрнатилган катта идишларда **ҳар 6–12 ойда ичкарини ювиш учун қопқоқни очиб кириш имкони бўлиши керак.**

Шунингдек, қиш кунлари музлаб қолишидан ҳимоя қилиш учун ер остига сув кўтариш насослари билан жиҳозланган холда ўрнатилади ёки ер устида совуқдан ҳимояловчи материаллар билан изоляция қилинади.

Бунда энг муҳим 5 та қоидага амал қилиш керак:

1. Томни тоза тутиш керак, сув сифати 80 % юзанинг тоза тутилишига боғлиқ.

2. Идиш тубидаги ифлос сувларни чиқариб юборадиган кран ўрнатилиши керак.

3. Цистерна қопқоқлари, шамоллатиш туйнугидан ҳашарот, чанг кирмаслиги керак.

4. Ҳар 6 ойда микро сув ўтлари, бактериялар кўпаймаслиги учун и**диш ичини** тозалаб туриш керак.

5. Йиғилган ёмғир сувларини техник мақсадлар учун олиб, тўғридан тўғри ишлатиш мумкин, ичимлик суви сифатида фойдаланиш учун қайнатиш зарур бўлади.

Ёмғир сувларидан фойдаланишнинг асосий афзалликлари қуйидагилар:

- марказлашган шаҳар ёки туман сув таъминотига боғлиқлик камаяди, сув учун коммунал тўловлар пасаяди;

- қурғоқчил ҳудудларда айниқса, Қашқадарё, Сурхондарё, Бухоро, Навоий вилоятлари ва бошқа ҳудудларда сув танқислиги ортиб бораётган шароитда муҳим сув манбаи бўлиб ҳизмат қилади;

- ҳозирги кунда ер ости сувлари ҳосил бўлишига қараганда 69 % ортиқча сув олиннаётган вақтда ер ости сувларидан тежамкор фойдаланишга қисман бўлсада ўз ҳиссасини қўшади ва кенг фойдаланиш йўлга қўйилса, ер ости сув заҳираларини ҳаддан ташқари кўп ишлатишнинг олдини олади;

- йиғиб олинган ёмғир сувлари кимёвий моддалар (хлор, фтор) билан ишлов берилмаган, табиий сув бўлиб, йиғиш, сақлаш тўғри ташкил қилинганда, таннарҳи арзон тоза сув олиш имконини беради;

- техник мақсадларда атрофдаги ўсимлик ва дарахтларни суғориш, кир ювиш (ёмғир сувларининг қаттиқлиги ичимлик сувларига қараганда кичик бўлиб, кир ювишда жуда яхши самара бериб, кирлар нисбатан тез ва осон тозаланади, кўпиртирувчи воситаларнинг тежалишига олиб келади), автомобилларни ювиш, ҳожатхона сувлари учун жуда мақбул ҳисобланади;

- турли том юзаларидан йиғилган ёмғир сувлари таркибида тупроқ ва ўсимликлар учун баъзи микроэлементлар ва фойдали минераллар бўлиб, улар ўсимлик ва дарахтларнинг ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади;

- турли мевали ва декоратив дарахтлар, сабзавот ва мева етиштириш кўп сув талаб қилади, ёмғир сувлари эса, сарфланадиган чучук сувларни тежаб қолиши ҳисобига харажатларни қисман камайтиради;

- ёмғир сувлари юмшоқ сув бўлиб, таркибидаги калций ва магний бирикмалари камлиги ҳисобига ўсимликлар яхши ўсади ва тупроқнинг таркиби яхшиланади;

- томлардан тушган ёмғир сувларини йиғиш орқали кўча ва дренаж тизимларига кучли ёғингарчилик пайтида юклама камаяди, йўллардаги тошқинлар камайиб, автомобиллар ва пиёдаларнинг ҳаракатланиши осонлашади:

- шаҳар кўчалари, йўл четидаги ариқларда, нишабликларда тошқин хавфи пасаяди;

- бир марта сув йиғиш тизими ўрнатилса, кўп йиллар давомида томорқа, ҳожатхоналар учун сув таъминотида узилишларни камайтиради ва қисман молиявий фойда беради.

Ёмғир сувларидан фойдаланишнинг асосий камчиликлари қуйидагилардан иборат:

- ёғингарчилик миқдори йил давомида бир хил бўлмаслиги, башоратлашдаги хатоликлар йиғиладиган ёмғир сувларини ишончли манба сифатида фойдаланишни қийинлаштиради.

- томлар, қувурлар ва сақлаш идишларининг ифлосланиши, чанг, барглар, ҳашаротлар ва атмосфера ифлослантирувчилари билан ифлосланиб қолиши, сувни ичимлик мақсадида фойдаланишда етарлича тозалашни талаб қилади.

- ёмғир сув и табиий равишда кислотали (pH паст) бўлиб, том материалларидан (масалан, металл томлардан) заҳарли моддалар (қўрғошин, мис) ювилиб кетиши мумкин.

- катта ҳажмдаги йиғилган ёмғир сувларини сақлаш учун нисбатан қиммат ва кўпроқ жой талаб қиладиган идишлар керак бўлиб, узоқ муддат сақланиши натижасида бактериялар, микросувўтлари ва ҳашарот личинкалари пайдо бўлиши, кўпайиши мумкин.

- ичимлик ёки ошхонада идишларни ювиш мақсадларида фойдаланиш учун фильтрлаш, ультрабинафша нурлантириш ёки хлорлаш каби қўшимча тозалаш тизимлари керак бўлади, бу эса харажатларни оширади;

- томларга ёмғир сувларини йиғиш тизимлари (қувурлар, фильтрлар, насослар) ўрнатиш мутахассислар ва бошланғич инвестиция талаб қилади ва даврий равишда, вақти-вақти билан назорат қилиб туриш керак бўлади;

- иқлим ўзгариши туфайли ёмғирлар интенсивлиги ва режими ўзгариб, башорат қилинган ҳисоб-китобларга тўғри келмай қолиши мумкин.

Ушбу камчиликларга қарамай, ёмғир сувидан оқилона ва тўғри тизим билан фойдаланилса, сув танқислиги муаммосини енгиллаштириш мумкин.

УСУЛЛАР (METHODS)

Тадқиқотда Ўзбекистон ҳудудларидаги ёғинлар миқдорини ўртача ҳисоблаш учун метеорологик манбалардан (Ўзгидромет, Climate-Data.org, World Bank Climate Portal) фойдаланилди. Маълумотлар охирги 30 йил (1994–2024) кузатувларига асосланган. Ёғинлар миқдори ҳудудлар бўйича жадвалда тақдим этилган (1-жадвал).

Тадқиқотнинг амалий қисмида Тошкент шаҳри Учтепа туманидаги 3 та уй томидан ёмғир сувлари намуналари олинди. Намуналар таркиби лаборатория шароитида аниқланди: pH даражаси, катионлар (Ca^{2+}, Na^{+}, NH_4^{+}) ва анионлар (SO_4^{2-}, NO_3^{-}, Cl^{-}, HCO_3^{-}) миқдори ўлчанди. Қаттиқлик мг.экв/л бирлигида ҳисобланди. Намуналарни олиш ва таҳлил қилиш учун стандарт кимёвий усуллар (титрлаш, спектрофотометрия) қўлланилди.

ОЛИНГАН НАТИЖАЛАР

Ўзбекистон ҳудудларидаги ёғинлар миқдорининг ўртача кўрсаткичлари 1-жадвалда келтирилган. Энг кўп ёғингарчилик Фарғона водийси ва Тошкент тоғли ҳудудларида (600–800 мм), энг ками Қорақалпоғистон ва Хоразмда (80–120 мм) кузатилган. Иқлим ўзгариши туфайли ёғинлар миқдори 10–20 % га камайган.

Тадқиқотда олинган ёмғир сувлари намуналари таркиби 2-жадвалда тақдим этилган. pH даражаси 6,5–7,5 оралиғида, қаттиқлик 109–116 мг.экв/л. Бу кўрсаткичлар маданий-маиший сувлар учун талабларга (3-жадвал) жавоб беради, масалан, Ca^{2+} миқдори 34–42 мг/л, NO_3^{-} 6–11 мг/л. Намуналар таркибида заҳарли моддалар йўқлиги аниқланди, лекин техник мақсадларда фойдаланиш учун тозалаш тавсия этилади.

1-жадвал.

Ўзбекистон ҳудудларидаги ўртача йиллик ёғинлар миқдори (мм)

т/р №	**Ҳудуд / Вилоят / Шаҳар**	**Ўртача йиллик ёғинлар (мм)**	**Изоҳ**
1	Тошкент шаҳри ва вилояти	400–630	Тоғли қисмларда юқорироқ (баланд тоғларда 700+ мм). Августда 2 мм, мартда 70 мм атрофида
2	Фарғона вилояти (Андижон, Фарғона, Наманган атрофи)	300–500	Водийда 350 мм атрофида (Андижон ~384 мм, Наманган ~348 мм, Фарғона ~225 мм); тоғларда 600–800 мм
3	Самарқанд вилояти	300–400	Самарқанд шаҳри ~350 мм, қиш ва баҳорда кўпроқ
4	Бухоро вилояти	150–200	Бухоро шаҳри ~157 мм, жануби қуруқ
5	Навоий вилояти	150–250	Навоий шаҳри ~300 мм, чўл ҳудудларида камроқ
6	Қашқадарё вилояти	200–300	Қарши шаҳри ~250 мм, текислик ва тоғ олди

7	Сурхондарё вилояти	150–250	Термиз атрофи ~200 мм, жанубий чўлларда кам
8	Жиззах вилояти	300–400	Тоғли ҳудудларда юқори, текисликда 250 мм атрофида
9	Сирдарё вилояти	250–350	Шимоли-шарқий қисмларда кўпроқ.
10	Хоразм вилояти	100–150	Урганч атрофи ~100 мм, қуруқ
11	Қорақалпоғистон Республикаси	80–120	Нукус ~100 мм, Арал денгизи атрофида энг кам (Устюртда 50 мм дан кам)

2-жадвал

Тошкент шаҳри Учтепа тумани ҳудудидан олинган ёмғир сувлари намуналари таркиби

Наму-налар	Кўрсаткичлар								
	pH	Ca^{2+}, мг/л	Na^{+}, мг/л	NH_4^{+}, мг/л	SO_4^{2-}, мг/л	NO_3^{-}, мг/л	Cl^{-}, мг/л	HCO_3^{-}, мг/л	Қаттиқ-лиги, мг.экв/л
№1	6,5–7,5	34	9	2	22	6	8	28	109
№2	6,5–7,5	42	16	3	24	8	14	31	116
№3	6,6 –7,4	39	13	2	15	11	17	17	112

3-жадвал

Маданий-маиший сувлар учун ёмғир сувлари таркибида аниқланган ионлар бўйича талаблар

Наму-налар	Кўрсаткичлар								
	pH	Ca^{2+}, мг/л	Na^{+}, мг/л	NH_4^{+}, мг/л	SO_4^{2-}, мг/л	NO_3^{-}, мг/л	Cl^{-}, мг/л	HCO_3^{-}, мг/л	Қаттиқ-лиги, мг.экв/л
№1	6,5–8,5	170	200	2	500	13	300	75	220

МУҲОКАМА

Олинган натижалардан кўриниб турибдики, Ўзбекистондаги ёғинлар миқдори чўл ҳудудларда кам бўлгани сабабли, ёмғир сувларини йиғиш айниқса, Қашқадарё, Сурхондарё, Бухоро ва Навоий вилоятларида муҳим аҳамиятга эга. Йиғилган сувларнинг қаттиқлиги пастлиги (ичимлик сувларидан 3 марта кам) кир ювиш ва ўсимликлар суғориши учун қулай. Бироқ, ифлосланиш хавфини ҳисобга олиб, идишларни ҳар 6–12 ойда тозалаш, фильтрлар ўрнатиш зарур.

Ёмғир сувларидан фойдаланишнинг афзалликлари: коммунал тўловларни камайтириш, ер ости сувларини тежаш, тошқинларнинг олдини олиш. Камчиликлари: ёғингарчиликнинг ноустуворлиги, тозалаш харажатлари, иқлим ўзгариши таъсири. Бу муаммоларни ҳал қилиш учун хорижий тажрибалардан ўрганиш муҳим.

ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ

Дунёнинг турли мамлакатларида ёмғир сувларини йиғиш сув танқислигига қарши самарали усул сифатида қўлланилмоқда. Қуйидаги кейс-стадилар Ўзбекистон учун фойдали мисоллардир.

1. Австралия (Мелбурн шаҳри ва Квинсленд вилояти). Австралияда ёмғир сувларини йиғиш кенг тарқалган, хусусан, Мелбурнда шаҳар жамоалари том юзаларидан сув йиғиш

тизимларини ўрнатган. Ҳукумат грантлари ва маҳаллий таълим дастурлари орқали амалга оширилган лойиҳа ичимлик суви сарфини 30% га камайтирган, тошқин хавфини пасайтирган ва сув сифатини яхшилаган. Квинслендда янги уйларда ёмғир баклари мажбурий ўрнатилади, бу қурғоқчилик даврида сув таъминотини таъминлаган. Тажриба натижасида маҳаллий аҳолининг сув ҳисоби 20–40% га тежалган [1].

2. Ҳиндистон (Ражасхан ва Жайпур). Ражасханда анъанавий "жохад" (ер дамбалар) усули қайта тикланган, бу ер ости сувларини тўлдириб, қишлоқ хўжалигини ривожлантирган. Жайпурда қадимий сув иншоотларини таъмирлаш орқали сув танқислиги 25% га камайган. Қишлоқ жамоалари томлардан сув йиғиб, ўсимликлар суғориши ва ҳайвонлар учун ишлатган, бу ҳосилдорликни 15–20% га оширган. Ҳиндистон ҳукумати миллий дастури орқали миллионлаб уйларда тизим ўрнатган [2].

3. Мексика (Мехико шаҳри). Мехико шаҳрида "SCALL" (ёмғир сувларини йиғиш тизимлари) лойиҳаси 2020–2026 йиллар иқлим ҳаракати дастури доирасида амалга оширилмоқда. Шаҳар жамоалари уй томларидан сув йиғиб, тошқинларнинг олдини олади ва сув хавфсизлигини таъминлайди. Лойиҳа гендер тенглиги ва иқлим ўзгаришига мослашишга қаратилган бўлиб, ҳозиргача минглаб уйларда ўрнатилган, бу сув танқислигини 10–15% га камайтирган ва тошқин хавфини пасайтирган [3].

4. Кения ва Бразилия (қишлоқ ҳудудлари). Кенияда жамоа ташаббуси орқали оддий тизимлар ўрнатилган, бу аёллар ва болалар учун сув йиғиш вақтини қисқартрган. Бразилиянинг шимоли-шарқий ҳудудларида цистерналар орқали ёмғир сувлари йиғилиб, қишлоқ хўжалиги ва ҳайвонлар учун ишлатилади, бу ҳосилдорликни 30% га оширган ва озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаган [4].

5. Жанубий Африка (Кейптаун) ва Янги Зеландия (Вайхеке ороли). Кейптаунда 2018 йил қурғоқчилигидан кейин серый сувни қайта ишлаш ва ёмғир йиғиш комбинацияси қўлланилган, бу шаҳар сув таъминотини 20% га камайтирган. (Серый сув (greywater) – бу уй хўжалигида ишлатилган сувининг бир тури, масалан, ювинишдан чиққан суви, уни қайта ишлаб, техник мақсадларда (суғориш, ҳожатхона сувлари) фойдаланиш мумкин; у тоза ёмғир сувларидан фарқ қилиб, ифлосланиш даражаси ўртача, лекин тозалаш билан барқарор фойдаланишга мос.) Вайхеке оролида кўпчилик уйлар ёмғир сувларига асосланган, маҳаллий траст таълим ва ўрнатишга ёрдам беради [5].

Ушбу тажрибалардан кўриниб турибдики, ёмғир сувларини йиғиш ҳукумат дастурлари, жамоа иштироки ва технологиялар орқали самарали амалга оширилади. Ўзбекистонда ҳам шундай лойиҳаларни қишлоқ ва шаҳар ҳудудларида жорий этиш мумкин, масалан, тоғли вилоятларда тоғ олиб сувларини йиғиш ва чўл ҳудудларда цистерналар ўрнатиш орқали.

Хулоса. Ёмғир сувларидан фойдаланиш бўйича ҳорижий адабиётлар таҳлили ва тадқиқотлар натижаларида олинган маълумотлардан кўриниб турибдики, иқлим ўзгариши шароитида ёмғир сувларидан самарали фойдаланиш, арид ҳудудларда ўз самарасини беради. Таклифни амалга оширишда юзага келадиган муаммо, тўпланган ёмғир сувларини узоқ муддат ёзнинг иссиқ кунларида сақлаш бўлиб, йиғилган сувларни саалаш муаммосини реагент усулида ёки физик-кимёвий усулларда қайта ишлаш орқали хал қилиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. World Bank. Rainwater Harvesting: An Overview of Sustainable Water Supply Solutions with Case Studies from Around the World. Washington, DC: World Bank, 2020. 45 c.

2. Sustainable Living Educational Trust. Top 5 Successful Rainwater Harvesting Case Studies. Auckland: Sustainable Living, 2023. 12 c. (Электрон ресурс: https://sustainableliving.org.nz/top-5-successful-rainwater-harvesting-case-studies/).

3. NEER Foundation. Rainwater Harvesting Success Stories from Around the Globe. New Delhi: NEER, 2024. 8 c. (Электрон ресурс: https://neer.co.in/rainwater-harvesting-success-stories-from-around-the-globe/).
4. C40 Cities. Rainwater Harvesting in Mexico City as a Measure to Reduce the Impacts of Floods, Increase Water Security and Guarantee Rights to Water and Health. London: C40 Cities, 2022. 10 c. (Электрон ресурс: https://www.c40.org/case-studies/rainwater-harvesting-in-mexico-city-as-a-measure-to-reduce-the-impacts-of-floods-increase-water-security-and-guarantee-rights-to-water-and-health/).
5. Smart Water Magazine. Rainwater as a Solution to Water Scarcity: Case Studies from Around the World. Madrid: Smart Water, 2023. 15 c. (Электрон ресурс: https://smartwateronline.com/news/rainwater-as-a-solution-to-water-scarcity-case-studies-from-around-the-world/).
6. Campisano A., Butler D., Ward S., Burns M.J., Friedler E., DeBusk K., Fisher-Jeffes L.N., Ghisi E., Rahman A., Furumai H., Han M. Urban rainwater harvesting systems: Research, implementation and future perspectives // Water Research. 2017. Vol. 115. P. 195–209.
7. Aladenola O.O., Adeboye O.B. Assessing the potential for rainwater harvesting // Water Resources Management. 2010. Vol. 24. No. 10. P. 2129–2137.
8. Amos C.C., Rahman A., Gathenya J.M. Economic analysis and feasibility of rainwater harvesting for sustainable agriculture in the semi-arid farming districts of Kenya // International Journal of Agricultural and Biological Engineering. 2016. Vol. 9. No. 1. P. 70–80.
9. De Winnaar G., Jewitt G.P.W., Horan M. A GIS-based approach for identifying potential runoff harvesting sites in the Thukela River basin, South Africa // Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. 2007. Vol. 32. No. 15-18. P. 1058–1067.
10. Rostad N., Foti R., Montalto F.A. Harvesting rainwater for non-potable use in the home // Journal of Cleaner Production. 2016. Vol. 95. P. 350–361.
11. United Nations Environment Programme (UNEP). Rainwater Harvesting: A Lifeline for Human Well-Being. Nairobi: UNEP, 2009. 78 c.
12. Kahinda J.M., Taigbenu A.E. Rainwater harvesting in South Africa: Challenges and opportunities // Physics and Chemistry of the Earth, Parts A/B/C. 2011. Vol. 36. No. 14-15. P. 968–976.

ПОЛИВИНИЛАЦЕТАТНИНГ АТРОФ-МУҲИТГА ВА СУВ РЕСУРСЛАРИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ

Раббимкулова Шахло Бердиёровна, Эркабаев Фуркат Илясович
Атроф-муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий-тадқиқот институти
Абдурахманов Давронбек Давлатович
Олмалиқ тоғ-металлаургия комбинати Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш бўлими

Аннотация. Мазкур мақолада поливинилацетатли (ПВА) ёпиштирувчи моддалар ишлаб чиқаришда атроф-муҳитга, хусусан, сув ресурсларига кўрсатадиган экологик таъсири ўрганилган. Тадқиқотлар давомида ПВА қолдиқлари мавжуд бўлган оқова сув намуналарининг физик-кимёвий кўрсаткичлари таҳлил қилинди. Натижалар ПВА қолдиқлари сувда секин парчаланганини ва кислород балансига кучли салбий таъсир кўрсатиши аниқланди. БПК ва ХПК кўрсаткичлари ўртасидаги нисбат ПВА нинг тўлиқ биологик парчаланмаслигини, қийин утилизация қилинишини тасдиқлади.

Калит сўзлар: *поливинилацетат, оқова сув, ККС, КБС, экологик хавфсизлик, парчаланиш.*

КИРИШ

Поливинилацетат (ПВА) — винилацетат мономерининг полимеризацияси орқали олинадиган синтетик полимер бўлиб, у кенг кўламли саноат тармоқларида, хусусан, ёпиштирувчи моддалар, бўёқлар, қопламалар, тўқимачилик, қоғоз ва ёғоч маҳсулотларини ишлаб чиқаришда кенг қўлланилади. ПВА ўзининг арзонлиги, ишлаб чиқаришдаги қулай технологик жараёнлари, яхши ёпишиш қобилияти ва механик барқарорлиги туфайли муҳим технологик материаллардан бири ҳисобланади [1,3].

ПВА асосидаги эмульсиялар айниқса ёғочсозлик, мебелсозлик, қадоқлаш ва қурилиш саноатларида асосий ёпиштирувчи компонент сифатида қўлланади. У сувда яхши эмульсияланади, токсиклиги нисбатан паст бўлганлиги сабабли инсон саломатлигига хавфсиз деб ҳисобланади. Шу билан бирга, ПВА полимерлари атроф-муҳитда узоқ муддат сақланиб қолиш хусусиятига эга бўлиб, уларнинг биологик парчаланиш тезлиги пастлиги сабабли экологик тизимларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин [2].

Сўнгги йилларда ПВА ишлаб чиқариш, ишлатиш ва утилизация қилиш жараёнларининг экологик оқибатлари тобора кўпроқ эътибор қаратилаётган масалага айланди. Мазкур полимернинг биологик парчаланиш жараёни секин кечиши натижасида у тупроқ ва сув тизимларида инерт модда сифатида тўпланади. ПВА қолдиқлари сув муҳитига тушганда, сувнинг кислород балансини бузади, микроорганизмларнинг метаболик фаоллигини пасайтиради ва натижада биологик тозалаш жараёнларини секинлаштиради. Бу эса сув экотизимларининг ўзини тиклаш қобилиятини камайтиради ҳамда сув ресурсларининг сифатини ёмонлаштиради.

Шунингдек, ПВА асосидаги маҳсулотларнинг парчаланишида ҳосил бўладиган оралиқ органик бирикмалар (масалан, сирка кислотаси ва альдегидлар) сув муҳитининг пҲ мувозанатига таъсир кўрсатиб, кимёвий кислород сарфи (ККС) ва кислороднинг биологик сарфи (КБС) кўрсаткичларини оширади. ККС/КБС нисбатининг юқори бўлиши поливинил ацетатнинг тўлиқ парчаланмаслигини ва унинг сув муҳитида узоқ сақланиб қолишини кўрсатади. Шу сабабли ПВА чиқиндиларининг сув ресурсларига таъсирини баҳолаш, уларнинг экологик хавфсизлик даражасини аниқлаш ва чиқиндиларни камайтириш бўйича самарали технологияларни ишлаб чиқиш ҳозирги кунда долзарб илмий йўналишлардан биридир [4,5].

МАТЕРИАЛЛАР ВА МЕТОДЛАР

Тадқиқотлар Греен университети ҳузуридаги «Атроф-муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари» лабораториясида ўтказилди. Намуналар «ALNAZAR ORZU SERVISM» МЧЖ поливинил ацетат асосидаги ёпиштирувчи моддалари тайёрлаш корхонаси оқава сувларидан учта белгиланган нуқталардан олинди (1-жадвал).

1-жадвал

ПВА қолдиқлари тутган саноат оқава сувлари олинган нуқталар

№	Намуналар жойи	Манба тури	Намуна ҳажми, л	Ҳарорат (°C)	Белгиланиши
1	Корхонага кирувчи сувлар	Ичимлик суви	5	25	C1
2	Корхонадан чиқиш сувлари	Технологик жараёдан	5	21	C2

		чиққан сувлар			
3	Тозаланган оқава сувлар	Тозалаш иншоотидан кейинги сувлар	5	21	С3

Намуналар 24 соат ичида лабораторияга етказилиб, музлатилган ҳолатда сақланган. Ифлосланган сувлар намуналарини тозалашда қуйидаги усуллар қўлланилди (2-жадв.).

2-жадвал

ПВА тутган оқава сувларни тахлил қилиш усуллари

Кўрсаткичлар	**Таҳлил усули**	**Асбоб номи**	**Ўлчов бирлиги**
Кимёвий кислород сарфи (СОД)	ИСО 6060	Ҳач ЛТ 200	мг/л
Биологик кислород сарфи ($БОД_5$)	ИСО 5815	АКПМ-1-02Л	мг/л
pH	Потенциометрик усул	Hanna HI98107	—
Лойқалиги	Непҳелометрик	Ловибонд ТБ250	НТУ
Органик углерод (РОС)	Спектрофотометрик	Шимадзу УВ-1800	мг/Л

Олинган натижалар. Оқова сувдаги поливинил ацетат қолдиқлари нисбатан барқарор бўлиб, уларнинг корхона шароитида тозаланиш жараёнида парчаланиш даражалари аниқланиб тозаланиш жараёнигача бўлган оқава сувлар билан солиштирилди (3-жадв.).


3-жадвал

Корхонадан чиққан ва тозаланган оқава сувлардаги ифлослантирувчилар миқдори

Намуналар	ККС (мг/Л)	$КБС_5$ (мг/Л)	Қолдиқ ПВА (%)
С1	88	12	0
С2	420	190	85
С3	290	126	62

Корхона ишлаб чиқариш жараёнида ичимлик суви ишлатилади, кунлик сарф нисбатан кичик бўлиб, 12-14 $м^3$ ни ташкил этади, лекин тозалаш жараёни 1 босқичли коагуляция ва тиндириш усулидан иборат бўлиб, тозаланган оқава сувлар ўрнатилган талабларга жавоб бермайди. Кислороднинг кимёвий сарфи кўрсаткичининг камайиши (38%) поливинил ацетат қолдиқларининг қисман парчаланишини кўрсатади, лекин поливинил ацетат билан ифлосланган оқава сувларни тозалаш жараёнидан сўнг олинган намуналар ўрнатилган талабларга жавоб бермаслигини кўрсатди.

Поливинил спирт билан ифлосланган оқова сувлар нисбатан барқарор бўлиб, 1 ёки 2 босқичли тозалаш усулларида талаб даражасигача тозалаш имконияти паст бўлиб, ифлослантирувчилар барқарор бирикмалар ҳосил қилгани учун тозалаш кўп босқичли физик-кимёвий жараёнлар асосида олиб борилиши зарур (1-расм).



1-расм. **Поливинил ацетат билан ифлосланган оқова сувларини тозалаш учун таклиф қилинган технологик схема.**

1. Оқава сувлар миқдорини ўлчаш қурилмаси; 2. Дағал сим тўр (30 мм); 3. Майда сим тўр (6 мм); 4. Марказдан қочма насос; 5. Барботер; 6. Флокулянт дозатори; 7. Флокулятор; 8. Коагулятор; 9. Парракли аралаштиргич; 10. Коагулянт дозатори; 11. Тиндиргич; 12. Сувўтлари; 13. Биоҳовуз.

Дастлаб, оқава сувлар тирқишлар ўлчами 30 мм бўлган дағал сеткадан ўтказилиб, айрим йирик ифлослантирувчилардан тозаланади, сўнгра тирқишлар ўлчами 6 мм бўлган майда сеткадан ўтказилиб, йирик ва майда қаттиқ заррачалар ажратиб олинади. Кейинги босқичда оқава сувлар насослар ёрдамида Флотаторга узатилади ва барботер орқали ҳаво берилиб, оргагник моддалар оксидланади, флотореагент ва органик моддадан иборат йиғувчи компонентлпр қўшиш орқали ифлослантирувчилар кўпикка ёпишиб сув юзига қалқиб чиқади. Бу ифлослантирувчиларни тутган кўпик ажратиб олингач, оқава сув Коагуляторга узатилади, бу ерда алюминий сульфат иштирокида асосий ифлослантирувчилар чўктирилади, аралаштиргич орқали аралаштирган холда кейинги босқич, тиндиргичга ўтказилади. Тиндиргичда оксидланган бирикмалар чўкади ва устки қисми декантация усулида биоҳовузга йўналтирилади. Биоҳовузда эйхорна, пистия каби юксак сувўтлари ёрдамида охирги босқичда тозаланади ва канализация тизимига чиқариб юборилади.

Келтирилган оқава сувлар намуналари лаборатория шароитида юқорида келтирилган технология бўйича тозаланди (С4) ва тозаланиш даражалари аниқланиб, канализация тизимига ташлаш учун ўрнатилган талаблар билан солиштирилди (4-жадв.).

4-жадвал

Корхонадан чиққан ва лаборатория шароитида тозаланган оқава сувлардаги ифлослантирувчилар миқдори

Намуналар	ККС (мг/Л)	$КБС_5$ (мг/Л)	Қолдиқ ПВА (мг/л)
С3	2600	2135	7,4
С4	**290**	**126**	**0,6**
Меъёр	500	300	0,8

Таҳлил натижаларидан кўриниб турибдики, поливинил ацетат билан ифлосланган оқава сувларни таклиф қилинаётган технология бўйича тозаланганда кислороднинг кимёвий сарфи ва кислороднинг биокимёвий сарфлари рухсат этилган меъёрлардан кам чиқди, қолдиқ ифлослантирувчилар эса 0,6 мг/л ни ташкил этиб, ккканализация тизими учун ўрнатилган меъёрларга жавоб беради (С4).

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Олинган натижалар шуни кўрсатдики, поливинилацетат туридаги ифлослантирувчи моддаларининг мавжудлиги оқава сувларда органик моддалар юкламасини сезиларли даражада ошириб, ҳосил бўлган бирикмалар нисбатан барқарор бўлади. Биологик парчаланиш жараёнининг суст кечишига поливинилацетатнинг молекуляр тузилиши сабаб

бўлади. Унинг асосий занжиридаги –Ч$_2$–Ч(ОСОЧ$_3$)– гуруҳлари гидролиз жараёнига нисбатан барқарор бўлиб, микроорганизмлар томонидан тез парчалана олмайди. Шу сабабли ПВА сув тизимларида узоқ вақт инерт ҳолатда сақланади ва аста-секин физик-кимёвий омиллар таъсирида парчаланади [8].

Тажриба давомида кузатилган яна бир муҳим ҳолат — поливинилацетат с заррачалари сув юзасида юпқа плёнка ҳосил қилишидир. Ушбу плёнка сув ва атмосфера ўртасидаги кислород алмашинуви жараёнини чеклайди, натижада сувдаги эриган кислород миқдори камаяди. Бу эса аэроб микроорганизмлар фаолиятини пасайтириб, биологик тозалаш жараёнларининг самарадорлигини кескин камайтиради.

Олинган натижаларга кўра, поливинилацетат мавжуд бўлган сув намуналарида микроорганизмлар сони 20–30% га камайган, шунингдек, уларнинг метаболик фаоллиги пасайгани аниқланди. Бу ҳолат сув экотизимларида кислород танқислигини келтириб чиқаради ва биогеокимёвий айланиш жараёнларини издан чиқаради. Шу сабабли поливинилацетат чиқиндилари экологик тизимлар учун хавфли органик ифлослантирувчи модда сифатида баҳоланади [9].

Экологик хавфни камайтириш мақсадида, поливинилацетат ишлаб чиқарадиган ва ишлатадиган саноат корхоналарида оқова сувларни чуқур тозалаш муҳим аҳамият касб этади. Тавсия этиладиган технологиялар қуйидагилардан иборат:

- коагуляция ва флокуляция жараёнлари ёрдамида поливинилацетат заррачаларини агломерациялаб чўктириш;
- адсорбция усули орқали сувдаги қолдиқ полимер миқдорини камайтириш;
- биотизимлар (биофильтрлар, био-реакторлар) ёрдамида парчаланиш жараёнини тезлаштириш;
- янги био-асосли ёки биодеградацияланадиган поливинилацетат муқобилларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, поливинилацетат чиқиндиларининг назоратсиз тушиши сув ресурсларининг сифатини пасайтиради ва табиий экотизимларда кислород танқислиги муаммосини кучайтиради.

Хулоса. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, поливинилацетат туридаги ифлослантирувчи моддаларининг мавжудлиги органик моддалар юкламасини сезиларли даражада оширади. Тадқиқотлар ва мазкур оқава сувларни тозалаш бўйича олинган натижалар ҳамда таҳлиллар поливинил ацетатнинг қисман биологик парчаланиш хусусиятига эга эканлигини кўрсатди. Шунинг учун бу турдаги оқава сувларни тозалашда аввал ифлослантирувчи поливинил ацетатнинг асосий қисмини турли усулларда ажратиб олиш ва сўнгги босқичда биолдогик усулда тозалашни қўллаш мақсадга мувофиқ эканлигини кўрсатди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Смитҳ, Ж. А., & Турнер, Л. Р. (2020). *Сйнтҳесис анд индустриал апплисатионс оф полйвинйл асэтате адҳесивес*. Жоурнал оф Полймер Ссиенсэ анд Течнологй, 58(3),245–256. https://doi.org/10.1016/j.jps.2020.03.012

2. Кумар, П., Сингҳ, Р., & Дас, С. (2019). *Энвиронментал персистенсэ анд биодеградатион оф сйнтҳетис полймерс: А сасе студй он полйвинйл асэтате*. Энвиронментал Поллутион Ресеарч, 34(7), 1125–1138.

3. Ҳернандез, С., & Леэ, Д. Ҳ. (2021). *Течнологисал адвансэс ин ПВАс-басед эмульсионс фор эсо-фриендлй соатингс анд адҳесивес*. Индустриал Чемистрй Ревиew, 12(4), 89–104.

4. Зҳао, Й., Петрова, Н., & Иванов, Д. (2022). *Импаст оф полйвинйл асэтате ресидуэс он ақуатис охйген балансэ анд мисробиал астивитй*. Жоурнал оф Энвиронментал Энгинеэринг анд Манагемент, 15(2), 177–188.

5. Раҳмонов, Б., & Абдуллаева, З. (2023). *Ассессмент оф адҳесиве полймер wасте импаст он wатер эсосйстемс ин индустриал зонес*. Узбек Жоурнал оф Энвиронментал Ссиенсэс, 7(1), 33–42.

6. Али, М., & Жоҳанссон, Э. (2021). *Деградатион кинетисс оф полйвинйл асэтате ин ақуатис энвиронментс*. Энвиронментал Чемистрй Леттерс, 19(5), 4123–4135.

7. Петрова, Н., & Лиу, К. (2020). *Биодеградатион ассессмент оф сйнтҳетис адҳесивес ундер аэробис анд анаэробис сондитионс*. Жоурнал оф Энвиронментал Полймер Деградатион, 28(4), 233–245.

8. Рашидов, Т., & Маматов, А. (2023). *Пҳйсисо-чемисал стабилитй оф ПВАс фильмс ин wастеwатер треатмент сйстемс*. Сэнтрал Ациан Жоурнал оф Чемистрй, 5(2), 77–84.

9. Греэнфиелд, Д., & Ортега, Р. (2022). *Wастеwатер треатмент течнологиес фор полймерис сонтаминантс*. Wатер Энвиронмент Ресеарч, 94(6), 1547–1560.

ASSESSMENT OF THE CLIMATE RESILIENCE OF RESERVOIRS IN UZBEKISTAN UNDER CONDITIONS OF CLIMATE CHANGE

Bekmamadova Gulnoza Akmalovna,
Associate Professor, Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

Annotation: *Climate change in Central Asia is accompanied by rising temperatures, altered precipitation regimes, and increasing frequency of extreme hydrometeorological events. These processes significantly affect river runoff formation and the operation of reservoirs, which are key components of Uzbekistan's water management infrastructure.*

This study provides a quantitative assessment of the climate resilience of the major reservoirs of Uzbekistan – Charvak, Andijan, and Tupolang – using modern methods of hydrological modeling and climate analysis. Based on CMIP6 climate scenarios (RCP4.5, SSP2-4.5), modeling of the water balance, vulnerability assessment, and adaptive management scenarios were carried out.

The results show that an expected temperature increase of 1.5–2.5 °C and a 10–20% decrease in precipitation by the mid-21st century may lead to a reduction in inflow to reservoirs by 12–22%, an extension of low-flow periods, and higher probability of droughts. Approaches to optimize reservoir operation regimes are proposed to enhance climate resilience and the efficiency of water use.

Keywords: *climate resilience, reservoirs, aridity, hydrological modeling, climate modeling, scenario planning, vulnerability assessment.*

Аннотация: *Изменение климата в Центральной Азии сопровождается ростом температурного фона, изменением режима осадков и увеличением частоты экстремальных гидрометеорологических явлений. Эти процессы оказывают существенное влияние на формирование речного стока и режим эксплуатации водохранилищ, которые являются ключевыми элементами водохозяйственной инфраструктуры Узбекистана.*

В настоящем исследовании предпринята попытка количественной оценки климатической устойчивости крупнейших водохранилищ Узбекистана — Чарвакского, Андижанского и Тупалангского — с использованием современных методов гидрологического моделирования и климатического анализа. На основе климатических сценариев CMIP6 (RCP4.5, SSP2-4.5) выполнено моделирование водного баланса, оценка уязвимости и разработка сценариев адаптивного управления.

Результаты показали, что ожидаемое повышение температуры на 1,5–2,5 °C и снижение осадков на 10–20% к середине XXI века приведут к сокращению притока в

водохранилища на 12–22%, увеличению продолжительности маловодных периодов и повышению вероятности засушливых явлений. Предложены подходы к оптимизации режимов эксплуатации, направленные на повышение климатической устойчивости и эффективности использования водных ресурсов.

Ключевые слова: *климатическая устойчивость, водохранилища, засушливость, гидрологическое моделирование, климатическое моделирование, сценарное планирование, оценка уязвимости.*

Аннотация. *Марказий Осиёдаги иқлим ўзгариши ҳароратнинг ошиши, ёмғир ва қор ёғинлари режимининг ўзгариши, ҳамда экстремал гидрометеорологик ҳодисалар сонининг кўпайиши билан кечмоқда. Бу жараёнлар дарё оқимининг шаклланишига ва сув омборларининг ишлатилиш тартибига жиддий таъсир кўрсатмоқда. Ушбу сув омборлари Ўзбекистоннинг сув хўжалиги инфратузилмасининг асосий таркибий қисмлари ҳисобланади.*

Мазкур тадқиқотда Ўзбекистоннинг энг йирик сув омборлари — Чорвоқ, Андижон ва Туполон сув омборларининг иқлим барқарорлигини миқдорий баҳолашга уриниш қилинди. Бу мақсадда замонавий гидрологик моделлаштириш ва иқлимий таҳлил усуллари қўлланилди. CMIP6 иқлим сценарийлари (RCP4.5, SSP2-4.5) асосида сув баланси моделлаштирилди, уяғувчанлик даражаси баҳоланди ва адаптив бошқарув сценарийлари ишлаб чиқилди.

Тадқиқот натижаларига кўра, XXI асрнинг ўрталарига келиб ҳароратнинг 1,5–2,5 °C га ошиши ва ёғин миқдорининг 10–20% га камайиши сув омборларига келувчи сув оқимининг 12–22% га қисқаришига, сув кам йиллар сонининг кўпайишига ҳамда қурғоқчилик хавфининг ортишига олиб келиши аниқланди.

Шу муносабат билан, тадқиқотда иқлим барқарорлигини ва сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишга қаратилган эксплуатация режимларини оптималлаштириш бўйича ёндашувлар таклиф этилган.

Калит сўзлар: *иқлим барқарорлиги, сув омборлари, қурғоқчилик, гидрологик моделлаштириш, иқлимий моделлаштириш, сценарийли режалаштириш, уяғувчанликни баҳолаш.*

INTRODUCTION

Ongoing climate change exerts an increasingly pronounced influence on hydrological processes across Central Asia, including Uzbekistan. According to the latest assessments of the Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC, 2021), [1] the region is among the most vulnerable to rising air temperatures and changes in precipitation patterns. For Uzbekistan, where up to 85% of river runoff is formed outside its territory and anthropogenic water use is high, ensuring the resilience of the water management system is a strategic priority.

Reservoirs, as the main instruments for runoff regulation, play a critical role in providing water supply, irrigation, hydropower generation, and flood control. However, under increasing aridity and declining water availability, they become vulnerable infrastructure components.

The fundamental challenge is that most current reservoir operation schemes are based on historical hydrological series, which no longer reflect present or future climatic realities. Therefore, it is crucial to develop scientifically grounded assessments of reservoir climate resilience, integrate climate scenarios into water management planning, and elaborate adaptive operational strategies.

PURPOSE AND OBJECTIVES

Purpose of research is no assess the climate resilience of Uzbekistan’s major reservoirs by analyzing trends in runoff and climatic factors and by developing adaptive management scenarios under increasing aridity. [3]

Objectives of research are:

– analyze long-term trends in temperature, precipitation, and inflow using observational and model data;

– evaluate the vulnerability of reservoirs to changes in hydrological regimes and extreme climatic events.

– conduct scenario-based modeling of the future water balance and propose recommendations for adaptive reservoir operation.

MATERIALS AND METHODS

The study combines hydrological modeling, climate analysis and scenario forecasting. For climate analysis, outputs from the CMIP6 [2] ensemble of global climate models (scenarios RCP4.5 and SSP2-4.5) downscaled for Central Asia were used. Observational meteorological data (temperature and precipitation) for 1980–2020 were obtained from the national hydrometeorological network of Uzbekistan.

Reservoir data (storage capacity, surface area, inflow and outflow characteristics) were compiled from open sources of the Ministry of Water Resources and regional hydromet agencies.

Models and Approaches

Hydrological modeling: The WEAP (Water Evaluation and Planning System) and SWAT (Soil and Water Assessment Tool) models were employed to estimate water balance and runoff dynamics, accounting for both climatic and anthropogenic impacts (irrigation withdrawals, evaporation losses). [5]

Climate modeling: Two CMIP6 scenarios were selected:

RCP4.5 — moderate warming (+1.5–2 °C);

SSP2-4.5 — medium development pathway with a moderate decline in precipitation.

Vulnerability assessment: Reservoir vulnerability was evaluated using the function:

$$V = f(Q_{in}, Q_{out}, E, S)$$

where Q_{in} = inflow, Q_{out} = release, E = evaporation losses, S = active storage volume.

Scenario planning: Three scenarios were developed:

S1 (Baseline) – current climatic conditions;

S2 (Moderate warming) – +1.5 °C, −10% precipitation;

S3 (Extreme scenario) – +2.5 °C, −20% precipitation.

RESULTS AND ANALYSIS

Trend analysis revealed a consistent increase in mean annual temperature of 0.32 °C per decade and a decrease in total annual precipitation by 8–10% during 1980–2020. The most significant decline occurs in the vegetation period (April–September), intensifying drought risk and water shortages. [4]

CMIP6 projections for the SSP2-4.5 scenario indicate further warming of 1.8–2.2 °C by 2050 and a reduction in summer precipitation by up to 15%.

Modeling results indicate declining inflows to major reservoirs:

- Charvak Reservoir — 12–15% decrease;
- Tupolang Reservoir — 18–22% decrease;
- Andijan Reservoir — 10–13% decrease.

The largest deviations are projected for the summer period, when runoff is primarily generated by snow and glacier melt. Snowpack volume is expected to decline by 25–30% by 2050.

Rising temperatures enhance evaporation from reservoir surfaces. Calculations show that with a +2 °C increase, annual evaporation losses rise by 15–20 million m³ for the Charvak and Tupolang reservoirs, exacerbating water deficits during drought years.

Vulnerability Assessment and Scenario Modeling

The vulnerability index *V* is projected to increase by 20–30% under S2 and S3 scenarios. The frequency of low-flow years may rise from once every six years (current climate) to once every 3–4 years by mid-century. This necessitates a revision of reservoir operation schedules and the implementation of adaptive flow regulation measures. [6]

Scenario modeling demonstrated that adaptive reservoir management (dynamic regulation depending on climatic conditions and operation adjusted to forecasted inflows) can reduce water losses by 10–15% and ensure stable irrigation supply in 80–85% of years under moderate warming.

Discussion. The results confirm the high vulnerability of Uzbekistan’s reservoirs to climatic and hydrological changes. Existing operating schemes, developed under historical hydrological conditions, are becoming inadequate for the emerging climate regime.

To strengthen resilience, a transition toward **adaptive and integrated water resources management systems** is required, based on the following principles:

- continuous re-assessment of water balance using climate projections;
- flexible operation regimes responsive to forecasted inflows;
- application of nature-based solutions (restoration of wetlands, enhancement of catchment water retention);
- modernization of hydraulic structures for extreme hydrological events;
- implementation of remote monitoring and digital twin technologies.

Moreover, the transboundary dimension must be considered, as the resilience of national reservoirs depends strongly on the shared water regime of the Amu Darya and Syr Darya river basins.

Conclusion. Climate change significantly reduces the resilience of Uzbekistan’s reservoirs, increases drought frequency, and diminishes inflow volumes.

The main conclusions of the study on the impact of climate change on reservoirs are as follows:

persistent warming and decreasing precipitation are particularly evident during the growing season;

inflows to major reservoirs may decline by 12–22% by 2050;

evaporation losses and the duration of low-flow periods will increase, aggravating water shortages for irrigation and hydropower;

implementing adaptive management and integrating climate forecasts into water planning can improve water-use efficiency and enhance overall system resilience.

Therefore, climate resilience of reservoirs must be considered a core component of Uzbekistan’s national water policy, requiring scientific support, digital transformation, and strengthened international cooperation within basin frameworks.

REFERENCES

1. IPCC. (2021). *Sixth Assessment Report: Climate Change 2021 — The Physical Science Basis*.
2. CMIP6 Data Archive. (2023). *Coupled Model Intercomparison Project Phase 6 (CMIP6)*.
3. FAO. (2020). *Water Management in the Context of Climate Change in Central Asia*.
4. World Bank. (2022). *Climate Adaptation and Water Security in Uzbekistan*.
5. Umarov, Sh., Akhmedov, I. (2023). *Hydrological Modeling of Water Systems in Central Asia*. Tashkent: Fan.
6. Alimov, R. (2022). *Challenges and Prospects of Water Resources Management under Aridity. Bulletin of Hydrometeorology*, No. 3.

AYDAR-ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI SUV RESURSLARI SIFAT KO‘RSATKICHLARING O‘ZGARISHI

G‘aybulloyev Oybek, Buriyev Salimjan Samedjanovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi suv resurslari sifat ko‘rsatgichlari va ularning ekologik holatga ta’siri tahlil qilingan. 1993–2019-yillar davomida suv sathi, hajmi, minerallashuv va og‘ir metallar miqdori o‘rganilgan. Natijalar suvning sho‘rlanishi va minerallashuvi biologik xilma-xillik va baliq resurslarining kamayishiga hamda suv muhiti barqarorligining buzilishiga olib kelishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Aydar–Arnasoy, suv resursi, sifat ko‘rsatgichlari, minerallashuv, sho‘rlanish, og‘ir metallar.

Abstract. The study analyzes water quality indicators of the Aydar–Arnasay lake system and their impact on the ecological condition. From 1993 to 2019, water level, volume, mineralization, and heavy metal content were examined. Results show that increased salinity and mineralization reduce biodiversity, fish resources, and aquatic stability. The study provides a basis for ecological monitoring and water resource protection.

Keywords: Aydar–Arnasay, water resources, quality indicators, mineralization, salinity, heavy metals.

Аннотация. В статье проанализированы показатели качества вод Айдар–Арнасайской системы озёр и их влияние на экологическое состояние. За 1993–2019 гг. изучалис уровен воды, обём, минерализация и содержание тяжёлых металлов. Результаты показывают, что повышение минерализатсии и солёности снижает биологическое разнообразие, рыбныэ ресурсы и устойчивост водной среды. Исследование служит основой для экологического мониторинга и охраны водных ресурсов.

Ключевые слова: Айдар–Арнасай, водные ресурсы, показатели качества, минерализация, солёность, тяжёлые металлы.

KIRISH

Dunyoda aholining o‘sishi, tabiiy resurslardan foydalanish talabining ortishi va atrof-muhitdagi turli salbiy o‘zgarishlar suv resurslarining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash va baholashda zamonaviy usullarning muhimligini oshirmoqda. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturining 15-bandida “Suv ekosistemalarini muhofaza qilish, tiklash va oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, biologik xilma-xillik yo‘qolishini oldini olish” bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurligi ta’kidlangan [2]. Shu nuqtayi nazardan, Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) suv resurslarining o‘sishi hisobiga yuzaga kelgan ekologik holatni va atrof-muhit hamda mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shuvchi ekoturizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyatga ega.

Jahonda global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarining gidrologik rejimini o‘rganish, miqdor va sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini aniqlash va baholashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ayniqsa, Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimida suv resurslarining yillik dinamikasi va sifat ko‘rsatkichlarini zamonaviy usullar bilan baholashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va barqarorligini saqlash bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasining 2017–2021-yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da [1]

“aholining ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash va atrof-muhit, aholi salomatligi hamda genofondiga zarar yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish” ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining ekstremal (suv sathini ko‘tarilishi va pasayishi) vaziyatlarini tahlil qilish, suv resurslarining ko‘p yillik (1993-2019-yillar) dinamikasini o‘rganish, Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyasi dasturi yordamida: olingan ko‘p yillik ma’lumotlar asosida suv resurslarining miqdorini va sifat ko‘rsatgichlarini aks ettiruvchi mavzuli xaritalar tuzish orqali baholash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5863-sonli farmoni [5], Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-martdagi 124-sonli “Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori [3], 2019-yil 22-apreldagi 347-sonli qarori [4] va boshqa tegishli normativ hujjatlar ushbu faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT USULI – gidrokimyo, meteorologiya, GAT va statistik tahlilning integratsiyalangan yondoshuvi bo‘lib, bu Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi suv resurslari sifatini va ularning ekotizimga ta’sirini aniq va kompleks baholash imkonini beradi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimining iqlimi quruq kontinentaldir. O‘rtacha yillik havo harorati Jizzaxda 15,0 °C, Yangiqishloqda 15,6 °C; maksimal harorat (iyul oyida) Do‘stlikda 43,0 °C, Nurotada 45,0 °C; o‘rtacha yillik yog‘in miqdori Nurotada 249 mm, Jizzaxda 388 mm ni tashkil qiladi (O‘zGMITI va Jizzax viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi, 2018-yil).

Ko‘lning global iqlim o‘zgarishiga nisbatan mahalliy iqlimga ta’siri ham tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 1890–2010-yillar davomida yozgi o‘rtacha havo harorati Samarqand viloyatida 0,4 °C oshgan bo‘lsa, Jizzax viloyatida 1,4 °C ga pasayish kuzatilgan.

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT)ning gidrologiyasi va suv sifati. Ko‘lning shakllanishi va tog‘ hamda tog‘oldi hududlarida yog‘ingarchilik miqdorining ortishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Gidrometeorolog mutaxassislar A.I.Mirzayev, V.A.Mirzayev bahor oylarida ko‘llar tizimi bo‘ylab konvektiv bulutlarning rivojlanishi natijasida, yog‘ingarchilik miqdorining ortganligini, bu esa Jizzax viloyatida suv toshqinlari sonini va sel faolligining oshishiga ta’sir ko‘rsatayotganligini ta’kidlashadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining mahalliy iqlimga ta’sirini aniqlash uchun ko‘lga yaqin joylashgan beshta meteorologik stansiya (Do‘stlik, Jizzax, Qo‘shrabot, Nurota, Yangiqishloq) ma’lumotlari (2010–2024 yillar) tahlil qilindi. O‘rta hisob bilan olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, oxirgi o‘n yillikda ushbu stansiyalarda yog‘ingarchilik miqdorida ortish va pasayish anomalilari kuzatilgan, biroq o‘rta yillik havo haroratida sezilarli o‘zgarish qayd etilmadi.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT)ning gidrologiyasi, yani suv sathi, hajmi, maydoni va suv sathining yillik amplitudasiga (1993–2019-yillar) Chordara suv ombori orqali quyiladigan Sirdaryo suvining o‘zgarishi, Sirdaryo va Jizzax viloyati ekin maydonlaridan oqib keladigan kollektor-drenaj suvlar, qor-yomg‘ir va yerosti suvlarining qo‘shilishi hisobiga o‘zgarib turgan.

Chordara suv ombori orqali tashlanadigan tashlama suvlar miqdori 1993-yilda 2,650 km^3, 1994-yilda 9,286 km^3, 1998-yilda 3,135 km^3, 2003-yilda 4,757 km^3 ni tashkil qilgan. Tashlama suvlarning eng yuqori ko‘rsatkichi 1994-yilda 9,286 km^3, eng past ko‘rsatkich 2016-yilda 0,025 km^3 bo‘lgan [8].

1993–2019-yillarda suv sathi va yillik amplituda quyidagicha o‘zgargan: suv sathi 1993-yilda 237,58 m, yillik amplituda 2,37 m; suv sathining eng yuqori ko‘rsatkichlari 2006-yilda 246,82 m, yillik amplituda 0,73 m bo‘lgan. Ko‘l tizimining suv hajmi 1993-yilda 16,70 km^3, eng yuqori ko‘rsatkich 2006-yilda 42,15 km^3, 2019-yilga kelib esa 34,42 km^3 ga teng bo‘lgan. Suv

maydoni 1993-yilda 2045 km², 2000-yilda 3140 km², 2006-yilda 3599 km², 2019-yilda 3216 km² ni tashkil qilgan [9].

Jizzax viloyati qishloq xo‘jaligi kollektordrenajlari orqali AAKTga kiruvchi Tuzkon ko‘liga tushadigan zovur suvlar R.A. Qulmatov va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. To‘rt asosiy zovur manbai: Jizzax Bosh Zovuri (JBZ), Qli, Oqbulok va Chegara kollektorlari bo‘lib, yillik o‘rtacha 97,8% kollektordrenaj suvlarini Tuzkon ko‘liga yetkazadi. 2000–2017-yillarda viloyat kollektor-drenaj tarmoqlaridan Tuzkon ko‘liga jami 14 971,51 mln m³ yoki yillik o‘rtacha 831,75 mln m³ zovur suvi tushgan. J.Mirzaev va boshqalar tadqiqotlariga ko‘ra, Jizzax viloyatidagi sug‘oriladigan maydonlardan keladigan kollektor-drenaj suvlarining miqdori va sifati ko‘l tizimi suvining miqdor va sifati bilan uzviy bog‘liq.

Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi baliqchilikni rivojlantirish va ekologik barqarorlikka ham ta’sir qiladi, bu M. Groll va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Suv resurslarining yillik o‘zgarishi yog‘ingarchilik va unga tushadigan suv hajmiga bog‘liq bo‘lib, K. Rodina va S. Wahyuni tadqiqotlariga ko‘ra tahlil qilingan.

Ko‘llar tizimi suv resurslarining sifat ko‘rsatgichlari: Arnasoy ko‘li suvining minerallashuvi Chordara suv omboridan suv quyilish tomonida ruxsat etilgan miqdoridan 6,7-8,1 barobar, Tuzkon ko‘lida 9,6-12,8 barobar, Aydar ko‘lida 9,8-14,5 barobar ko‘p bo‘lgan. Arnasoy ko‘lida og‘ir metallardan ruxsat etilgan miqdoriga nisbatan qo‘rg‘oshin mikdori 1,2-2,4, mis 2,8-4,0, rux 2,0-2,6 va kobalt miqdorlari 3,0-4,8 barobar ko‘p bo‘lgan. Qolgan og‘ir metallar va kimyoviy komponentlardan: marganes, ftor, alyuminiy, rux, мышyak va xromning miqdorlari ruxsat etilgan miqdoridan oshmaganligi kuzatilgan [8].

Tuzkon ko‘lida ruxsat etilgan miqdoriga nisbatan qo‘rg‘oshin miqdori 2,4-3,2, mis 1,6-2,6, rux 2,3-3,0, kobalt 3,0-6,0 va xrom miqdori 1,5 barobar ko‘p bo‘lgan, qolgan og‘ir metallar va kimyoviy komponentlar miqdori: marganes, ftor, alyuminiy, rux va мышyakning miqdori REM-dan kam bo‘lgan [9].



1-rasm. Aydar-arnasoy ko‘llar tizimi

Aydar ko‘lida ruxsat etilgan miqdoriga nisbatan qo‘rg‘oshin miqdori 1,6-2,2, mis 2,6-5,0, rux 2,3-2,7, kobalt 4,4-6,2 va xrom 1,5 barobar ko‘p bo‘lgan, Qolgan og‘ir metallar va kimyoviy komponentlar miqdori: marganes, ftor, alyuminiy, rux va мышyakning miqdori ruxsat etilgan miqdoridan oshmaganligi kuzatilgan.



2-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi Aydar ko‘lining ko‘rinishi

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi suv resurslarining sifat ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar hududning ekologik holatiga bevosita ta’sir qilayotganligi aniqlangan. Suvning mineralizatsiya darajasi va sho‘rlanishi oshishi biologik xilma-xillikning kamayishiga, baliq resurslarining qisqarishiga hamda suv muhitining umumiy barqarorligining buzilishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ko‘llar tizimida suv resurslarini muhofaza qilish, qaytma sho‘r suv oqimlarini nazorat qilish va ekologik monitoring tizimini yanada kuchaytirish zarur. Olingan ilmiy natijalar hududning ekologik holatini yaxshilash, suv resurslaridan oqilona foydalanish va barqaror ekologik muhitni saqlashda muhim amaliy ahamiyatga ega [8,9].

XULOSALAR

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimida suv resurslarining sifat ko‘rsatkichlari ruxsat etilgan miqdordan oshishi, asosan muntazam quyilib turgan kollektor-drenaj suvlari hisobiga bog‘liq. Shu sabablii ushbu kollektor-drenaj suvlari miqdori va sifatini doimiy monitoring qilish zarur.

Ko‘llar tizimi mamlakat aholisini oziq-ovqat (ayniqsa baliq) mahsulotlari bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgani sababli, suv tarkibidagi og‘ir metalllar va boshqa ifloslantiruvchi moddalar miqdorini ham doimiy ravishda nazorat qilish talab qilinadi. Og‘ir metallar miqdori ruxsat etilgan me’yordan oshishi mavjud baliq turlari va ular orqali insonlar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuningdek, suv resurslari minerallashuvi, og‘ir metallar va boshqa kimyoviy komponentlar miqdorining ruxsat etilgan chegaradan oshib ketmasligini ta’minlashda suv hajmi va miqdorining keskin kamayishining oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi suv sifatining o‘zgarishi hududning ekologik holatiga bevosita va bilvosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suvning mineralizatsiya darajasi va og‘ir metallarning ortib borishi biologik xilma-xillikning kamayishiga, baliq resurslari qisqarishiga, tuproq degradatsiyasi va cho‘llanish jarayonlarining kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli ko‘llar tizimida doimiy ekologik monitoringni kuchaytirish, kollektor-drenaj suvlari oqimini tartibga solish hamda suv muhitini muhofaza qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: http://lex.uz/pages/getpege…

2. BMTning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish bo‘yicha dasturi. URL: http://www.uz.undp.org/content/uzbekistan.ru

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 7-mart №124-son “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining biologik resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlashga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. URL: http://lex.uz/docs/3129146

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-aprel 347-sonli “Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining biologik resurslaridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. URL: http://lex.uz/

5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863 son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitini muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. Alimov R.A. Osnovnыe problemы orosheniya i melioratsii zemel i organizatsiya nauchnыx issledovaniy // Materialы obyedinennoy sessii VASXNIL i AN Uz SSR. – Tashkent: Fan, 1956. – S. 57–59.

7. Vadyunina A.F., Korchagina Z.A. Metodы issledovaniya fizicheskix svoystv pochv. – M.: Agropromizdat, 1986. – S. 413–416.

8. Taylaqov A.A., Qulmatov R.A., Xudoyberdiyeva G.X. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida suv balansini baholash // JizPI Xabarnosi ilmiy-texnik jurnali. – 2020. – №2(4). – S. 23–34.

9. Taylaqov A.A. Aydar-Arnasay ko‘llar tizimida suv resurslarining balansi va baholash // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – T. 2, №10. – S. 845–857.

10. Burkhanovich A.S., Tairovna S.N. Aydar-Arnasay lake system: ecological safety and its problems of sustainable development // European Science Review. – 2018. – (5–6).

11. Wu J., Wang D., Bauer M.E. Image-based atmospheric correction of QuickBird imagery of Minnesota cropland // Remote Sensing of Environment. – 2005. – 99(3). – P. 315–325.

12. Sadullayeva S.B. Effects of the Aydar-Arnasoy lake system on changes in the vegetation of the Kyzylkum desert // Ekonomika i sotsium. – 2023. – 3-2(106). – S. 266–269.

13. Akhmadjonova Y.T. Water composition and ecological status of Aydar-Arnasoy lake system // Ekonomika i sotsium. – 2022. – 5-2(92). – S. 21–24.

14. Nematov O. Assessment of the impact of water on the change of Aydar-Arnasoy concave landscapes // Coğrafiyanın Müasir Problemləri: Elm və Təhsilin İntegrasiyası. – 2022. – S. 43.

SARIQAMISH KO‘LINING SUV SATHI REJIMI

Kalabayev Salauat Baxitbay uli
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ko‘llar va ularda sodir bo‘layotgan gidrologik o‘zgarishlar global ekologik va iqlim o‘zgarishlarining muhim indikatorlari hisoblanadi. Ko‘l sathi va hajmidagi o‘zgarishlar nafaqat tabiiy omillar (yog‘in-sochin, bug‘lanish, harorat rejimi), balki antropogen faoliyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli ko‘llarning suv sathi dinamikasini muntazam kuzatish suv resurslarini samarali boshqarish, mintaqaviy iqlim modellarini takomillashtirish va ekologik xavflarni baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston va Turkmaniston chegarasida joylashgan Sariqamish ko‘lining suv sathi o‘zgarishi TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3 va Sentinel-3 sun'iy yo‘ldosh altimetr ma’lumotlari 2001-2024 yillar oralig‘ida tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, Sariqamish ko‘lida suv sathi tendentsiyasi ijobiy bo‘lib, uning qiymati +0,16 m/yilga teng. Altimetr ma’lumotlariga asoslangan monitoring natijalari Sariqamish ko‘lining gidrologik rejimiga chuqurroq tushunish, suv sathi o‘zgarishining uzoq muddatli prognoziga ishonchli asos yaratish hamda Orolbo‘yi mintaqasida suv resurslarini boshqarish strategiyalarini shakllantirish uchun muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Sariqamish ko‘li, suv sathi, altimetr, TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3, Sentinel-

Аннотация. Озёра и происходящие в них гидрологические изменения являются важными индикаторами глобальных экологических и климатических изменений. Изменения уровня и объёма воды в озёрах тесно связаны не только с природными факторами (осадки, испарение, температурный режим), но и с антропогенной деятельностью. Поэтому регулярный мониторинг динамики уровня воды в озёрах имеет важное значение для эффективного управления водными ресурсами, совершенствования региональных климатических моделей и оценки экологических рисков. В данном исследовании проанализированы изменения уровня воды озера Сарыкамыш, расположенного на границе Узбекистана и Туркменистана, на основе данных спутниковой альтиметрии TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3 и Sentinel-3 за период 2001-2024 гг. Согласно результатам анализа, тенденция уровня воды озера Сарыкамыш является положительной и составляет +0,16 м/год. Результаты мониторинга на основе альтиметрических данных представляют собой важную научную основу для более глубокого понимания гидрологического режима озера Сарыкамыш, создания надежной основы для долгосрочного прогноза изменений уровня воды и формирования стратегий управления водными ресурсами в Приаралье.

Ключевые слова: озеро Сарыкамыш, уровень воды, альтиметрия, TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3, Sentinel-3.

Abstract. Lakes and the hydrological changes occurring within them are important indicators of global ecological and climatic changes. Changes in lake level and volume are closely linked not only to natural factors (precipitation, evaporation, temperature regime) but also to anthropogenic activities. Therefore, regular monitoring of lake level dynamics is crucial for effective water resource management, improving regional climate models, and assessing environmental risks. This study analyzes the water level changes of Lake Sarykamysh, located on the border of Uzbekistan and Turkmenistan, using satellite altimetry data from TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3, and Sentinel-3 over the period 2001-2024. According to the analysis results, the water level trend of Lake Sarykamysh is positive, with a value of +0,16 m/year. The monitoring results based on altimetry data represent an important scientific basis for a deeper understanding of the hydrological regime of Lake Sarykamysh, creating a reliable foundation for long-term forecasting of water level changes, and developing water resource management strategies in the Aral Sea region.

Keywords: Lake Sarykamysh, water level, altimetry, TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3, Sentinel-3.

KIRISH

Ko‘llar Yerning suv balansi, iqlim hamda mahalliy ekologik muvozanatda muhim rol o‘ynaydi. Ular suv sathining o‘zgarishi orqali nafaqat tabiiy jarayonlarni, balki antropogen omillar ta’sirini ham aks ettiradi. Shu sababli ko‘llar suv sathini muntazam kuzatish suv resurslarini boshqarish, iqlim o‘zgarishini baholash hamda gidrologik modellashtirish uchun zarurdir. Biroq an’anaviy kuzatuv stansiyalarining yetishmasligi, ularning geografik jihatdan notekis joylashuvi va olis hududlarda mavjud emasligi ko‘plab ko‘llar uchun ishonchli ma’lumot olishni qiyinlashtiradi.

Altimetr ma’lumotlari nafaqat ko‘llar suv sathining o‘zgarishini aniqlash, balki suv hajmidagi dinamikani baholash, gidrologik modellarni kalibrlash hamda iqlim o‘zgarishining suv resurslariga ta’sirini tahlil qilishda ham keng qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, altimetr ma’lumotlarini qayta ishlashdagi muammolar, qirg‘oq zonalari ta’siri, shovqinlarni filtrlash va o‘lchov aniqligini oshirish singari masalalari hanuz tadqiqotchi olimlar diqqat e’tiborida turibdi. Shu tariqa, sun'iy yo‘ldosh altimetr ko‘llar suv sathini aniqlashda an’anaviy gidrometrik

kuzatuvlarni to‘ldiruvchi va ayrim hollarda ularni almashtiruvchi zamonaviy, ishonchli hamda global darajada qo‘llaniladigan usul sifatida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmogda.

So‘nggi yillarda global iqlim isishi, yog‘in-sochin va harorat rejimidagi nomutanosibliklar, shuningdek, inson faoliyati natijasida suv inshootlari, sug‘orish tizimlari hamda kollektor-drenaj tarmoqlarining kengayishi ko‘llar gidrologik rejimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonlar Orol dengizining qisqarib borishi, aksincha, Sariqamish ko‘lining suv bilan to‘lishi kabi hodisalarda yaqqol namoyon bo‘lmogda.

Sariqamish ko‘li O‘rta Osiyoning eng yirik tekislik ko‘llaridan biri bo‘lib, u O‘zbekiston va Turkmaniston chegarasida, Usturt platosining chink qismiga tutash hududda joylashgan. Zamonaviy ko‘l havzasining shakllanishida suv eroziyasi, suv-akkumulyatsiya, deflyatsiya va suffoziya jarayonlari muhim rol o‘ynagan. Sariqamish havzasi pasttekisliklar bilan tavsiflanadi va yopiq suv to‘planish tizimiga mansub bo‘lib, karst relyefi, 100 metrgacha bo‘lgan nishabliklar hamda sho‘r botqoqliklar bilan ajralib turadi [1]. Suv yig‘ilish maydoni shimol va shimoli-g‘arbda Usturt platosi, shimoli-sharq va sharqda Turon tekisligi, janubda esa Qoraqum cho‘li bilan chegaralangan (1-rasm).

Tarixiy davrlarda Amudaryo suvlari Sariqamish havzasiga to‘lib, ko‘l sathining ko‘tarilishi va keyinchalik daryo yo‘nalishining o‘zgarishi natijasida ko‘lning qurib qolishi holatlari bir necha marta takrorlangan. Ayrim davrlarda Amudaryo suvlari Sariqamish ko‘lidan toshib, Uzboy daryosi orqali Kaspiy dengizi tomon oqib tushgan. A.V. Shpitnikov (1969) ma’lumotlariga ko‘ra, Amudaryoning Sariqamish havzasiga oqib kirishi natijasida ko‘l sathi 3-8 metrga ko‘tarilgan va bunday hodisalar 1878, 1889, 1896, 1921 hamda 1934 yillarda kuzatilgan. XX asrning 1960 yillarning o‘rtalariga kelib, ko‘lning qurib qolgan havzasi katta sho‘r qatlami bilan qoplangan, faqat ayrim past joylarda yer osti suvlari bilan tuyinadigan sho‘r suv hududlari saqlanib qolgan [1, 4].

Sariqamish ko‘lining gidrologik rejimi uzoq vaqt davomida yetarli darajada o‘rganilmagan. Bu boradagi dastlabki ma’lumotlar Kiev Gidroribproekt instituti (1971), Turkman UGM (1976, 1985) hamda SANIGMI (1980-1985) ekspeditsiyalari tomonidan to‘plangan. Keyinchalik ko‘lning holati va gidrologik dinamikasi Sovuq Ittifoq Suv xo‘jaligi qurilishi vazirligi tomonidan ham o‘rganilgan. So‘nggi yillarda esa A.G.Kostyanoy, S.A.Lebedev, I.S.Zonn, O.Yu.Lavrova va D.M.Solovyev (2011) tomonidan Sariqamish ko‘lining zamonaviy holati sun'iy yo‘ldosh tasvirlari yordamida tahlil qilingan [2, 3, 5].


Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Sariqamish ko‘lining gidrologik parametrlaridan biri bo‘lgan suv sathi dinamikasini masofadan zondlash, xususan, sun'iy yo‘ldosh altimetr ma’lumotlari asosida monitoring qilishdan iboratdir.

Tadqiqotning ilmiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sun'iy yo‘ldosh altimetriya o‘lchovlari asosida Sariqamish ko‘li suv sathiga oid ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

-vaqt qatorlaridagi ma’lumotlar to‘plamida mavjud bo‘shliqlarni interpolyatsion usullar yordamida to‘ldirish;

-ko‘l suv sathining ko‘p yillik o‘zgarish tendensiyalarini statistik tahlil qilish.



1-rasm. Sariqamish ko‘lining geografik joylashgan o‘rni

Mazkur tadqiqot natijalari Sariqamish ko‘lining gidrologik rejimini yanada chuqurroq o‘rganish va suv resurslari monitoringini takomillashtirishda muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti Sariqamish ko‘li, tadqiqot predmeti esa ko‘l suv sathini masofadan zondlash ma’lumotlari asosida aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODI

So‘nggi yillarda sun'iy yo‘ldosh altimetr texnologiyalarining rivojlanishi suv sathini aniqlashda yangi imkoniyatlar yaratdi. TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3, CryoSat-2, Sentinel-3, ICESat-2 kabi radar va lazer altimetr missiyalari orqali Yer yuzasidagi suv ob'ektlarining suv sathini aniqlanib, ko‘plab ko‘llar uchun uzoq muddatli suv sathi ma’lumotlari shakllantirilmoqda. Bu usulning asosiy afzalligi global qamrov, muntazam kuzatuv chastotasi va uzoq tarixiy ma’lumotlarni olish imkoniyatidir.

Oxirgi yigirma yil ichida yirik ko‘llar va suv havzalarining suv sathini aniqlash uchun sun'iy yo‘ldoshlardan olingan ma’lumotlarning hajmi va sifati sezilarli darajada oshdi. Janubiy Amerika, Afrika va Sibirdagi ko‘llar hamda daryolarning gidrologik rejimi sun'iy yo‘ldosh balandlik o‘lchovlari ma’lumotlari yordamida muvaffaqiyatli o‘rganilgan [9, 10]. Volga daryosining quyi oqimidagi suv sathi [11] Volga suv omborlari kaskadi hamda Rossiya va Estoniya chegarasida joylashgan Ilmen va Ladoga ko‘llarida ham sun'iy yo‘ldosh balandlik o‘lchovlaridan foydalanilgan [12].

Umuman olganda, altimetr radari ideal holatda ya’ni troposferadagi namlik va bosim, ionosferadagi elektronlar hamda Yerning vertikal harakati bo‘lmaganda qurilma suv sathini aniq o‘lchash imkoniga ega.

Altimetr radari bulutlarga yoki tunga sezgir emasligi, dunyo bo‘ylab deyarli har bir nuqtada o‘lchovlarni amalga oshirish imkoniyati, ma’lumotlarning deyarli real vaqtda olinishi, mahsulotning yuqori aniqligi hamda 1992 yil oktyabridan buyon uzluksiz ma’lumotlar seriyasining mavjudligi kabi afzalliklarga ega. 1990-yillarning boshidan beri ERS-1/2 (European Remote Sensing Satellite), Envisat (Environmental Satellite) va Saral (Satellite with ARgos and Altika) seriyalari, shuningdek Topex/Poseidon (Topographic Experiment), Jason-1/2/3 (Joint Altimetry Satellite Oceanography Network), GFO (Geosat Follow-On), HY-2A (Haiyang) hamda

CryoSat-2 sun'iy yo‘ldosh radar altimetrlari orqali doimiy ravishda o‘lchovlar amalga oshirib kelinmogda [2, 6, 7].

Sentinel-3 uzoq muddatli kuzatuvlar uchun mo‘ljallangan yangi avlod altimetr missiyalaridan biri bo‘lib, uning birinchi sun'iy yo‘ldoshi Sentinel-3A 2016 yil fevral oyida orbitaga chiqarilgan. Barcha altimetr missiyalarida o‘lchovlar faqat nadir yo‘nalishda, ya’ni sun'iy yo‘ldoshning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ostidagi vertikal nuqtalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Shu sababli ularning fazoviy qamrovi cheklangan bo‘lib, bu kuzatuvlarning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi [8].

Altimetr ma’lumotlari qayta ishlanish darajasiga qarab 2-24 soat, ayrim hollarda esa 30-75 kun gacha kechikish bilan taqdim etiladi [2]. Gidrologik tahlillar uchun altimetr ma’lumotlari GDR (Geophysical Data Records) va SGDR (Sensor Geophysical Data Records) ikki asosiy toifaga bo‘linadi.

Bu ma’lumotlar to‘plami har bir yo‘l segmenti bo‘yicha suv sathini hisoblash uchun zarur bo‘lgan barcha geofizik parametrlarni o‘z ichiga oladi. Hozirda ular NetCDF (Network Common Data Form) formatda standartlashtirilgan holda taqdim etilmogda.

Mazkur tadqiqotda Sariqamish ko‘li suv sathi balandligini aniqlash uchun NASA Science ixtisoslashtirilgan ma’lumotlar bazasining 2001-2024 yillar oralig‘idagi arxiv o‘lchovlar to‘plamidan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, NASA Science ma’lumotlar bazasida 2001-2024 yillar oralig‘ida Sariqamish ko‘li suv sathi bo‘yicha muntazam 10 kunlik intervallardagi kuzatuv ma’lumotlari mavjud. Shu tariqa, ushbu tadqiqotda suv sathi balandligini baholash uchun altimetr ma’lumotlari NASA Science ma’lumotlar bazasidan NetCDF formatda yuklab olindi.

Hozirgi kunda sun'iy yo‘ldosh altimetr o‘lchovlarining aniqligi ilk avlod radar balandlik o‘lchagichlar bilan solishtirilganda ancha oshgan. TOPEX/Poseidon, Jason-1/2/3 va Sentinel-6 missiyalari yuqori aniqlikdagi radar altimetr tizimlari bilan jihozlangan bo‘lib, ularning umumiy xususiyati qisqa (10 kunlik) takrorlanish sikliga ega orbitada faoliyat yuritishidir.

Uzoq muddatli sun'iy yo‘ldosh kuzatuv seriyalarida ba’zan ma’lumotlarda uzilishlar yoki bo‘shliqlar kuzatiladi. Bunday hollarda ma’lumotlarni tiklash uchun chiziqli interpolyatsiya, k-eng yaqin qo‘shnilar usuli, 2- va 3-darajali, ko‘phad interpolyatsiyasi, Ermit kub bo‘lakli interpolyatsiya usullari sinovdan o‘tkazildi.

Avvalgi tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, sun'iy yo‘ldosh altimetr ma’lumotlar seriyasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun chiziqli interpolyatsiya usuli eng maqbul natijalarni beradi [2]. Altimetr ma’lumotlari orasidagi bo‘shliqlar chiziqli interpolyatsiya usuli yordamida to‘ldirildi.

Natijada ko‘ldagi suv sathi ma’lumotlari 2001-2024 yillardagi kunlik suv sathi ma’lumotlari tiklandi. Ko‘l hududida in situ ma’lumotlar mavjud emasligi sababli to‘ldirilgan altimetr ma’lumotlarni solishtirish imkoni mavjud emas.

Tadqiqotning keyingi bosqichida uzoq muddatli standart seriyalarning o‘rtacha, maksimal, minimal qiymatlari, standart og‘ish va dispersiya singari statistik xarakteristik qiymatlari hisoblandi (1-jadval).


1-jadval **Sun'iy yo‘ldosh kuzatuvlar seriyasining statistik tavsiflari**

Davr	Tendensiya	Statistik ko‘rsatkich	Qiymati, m	Kuzatilgan vaqti
2001-2024	+0,16	σ	0,91	-
2002–2007	+0,56	s^2	0,82	-

2008–2009	−0,60	$H_{o'rt}$, m	7,12	2013
2010–2020	+0,15	H_{maks}, m	8,84	24-29.04.2018
2021–2024	−0,36	H_{min}, m	4,23	07-09.02.2002

I z o h : σ - standart og‘ish, s^2 - dispersiya, $H_{o'rt}$ - o‘rtacha suv sathi balandligi, H_{maks} - maksimal suv sathi balandligi, H_{min}- minimal suv sathi balandligi.

Tiklangan ma’lumotlarni statistik hisoblash natijalari ko’ra, 2001-2024-yillardagi eng minimal suv sathi 2002 yil 24-29-fevral kunlari 4,23 m ga teng bo’lgan. Eng katta suv sathi esa 2018 yili 24-29 aprel sanalarida kuzatilib, uning qiymati 8,84 m ga teng bo’lgan. Suv sathining ko’p yillik qiymatlari tahlildan ma’lum bo’ldi, dispersiya 0,82 m ga o’rtacha kvdartalik og’ish qiymati esa 0,91 m ga teng bo’lgan. Sariqamish suv sathining 2001-2024-yillardagi ko’p yilik qiymatlarini o’rganishdan shu narsa aniq bo’ldiki, ko’lda bu davrda to’rtda davrga bo’lish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Sariqamish ko’li suv sathining ko’p yillik o’zgarishi

Birinchi davr 2001-2007-yillar oralig‘iga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda Sariqamish ko‘li suv sathining yillik o‘sish tendensiyasi kuzatilib, o‘rtacha ko‘tarilish tezligi +0,56 m/yilni tashkil etgan. Mazkur davrda ko‘lning gidrologik rejimi asosan ijobiy suv balansi bilan xarakterlangan bo‘lib, bu jarayon hududga kelayotgan suv oqimlarining nisbatan ortganligi bilan izohlanadi.

Ikkinchi davr 2008-2009-yillarni qamrab oladi va boshqa bosqichlarga nisbatan qisqaroq muddatni tashkil etadi. Shu yillarda suv sathi pasayish tendensiyasini namoyon etgan bo‘lib, o‘rtacha kamayish ko‘rsatkichi -0,60 m/yilni tashkil etgan. Bunday holat, oqim miqdorining kamayishi, iqlim sharoitlarining quruq bo‘lishi bilan bog‘liq.

Uchinchi davr 2010-2020-yillar uzoq muddatli va barqaror bosqichi hisoblanadi. Bu davr mobaynida suv sathi yana o‘sish yo‘nalishiga qaytgan bo‘lib, o‘rtacha yillik o‘sish tezligi +0,15 m/yilni tashkil etgan. Ushbu jarayon suv resurslari balansining nisbatan tiklanishi, Amudaryo oqimining va Xorazm va Tosho‘g‘uz viloyatlarida sug’orishga suv olishning miqdorining ortishi va mintaqaviy gidrologik sharoitlarning yaxshilanishi bilan izohlanadi.

So‘nggi bosqich, ya’ni 2021-2024-yillar oralig‘ida esa suv sathi yana pasayish tendensiyasiga o‘tgan. O‘rtacha yillik pasayish sur’ati -0,36 m/yilni tashkil etib, bu holat mintaqada so‘nggi yillarda kuzatilayotgan iqlim isishi, bug‘lanish jarayonlarining kuchayishi hamda daryo oqimining kamayishi natijasida yuzaga kelgan. Shu tariqa, tahlil natijalari

Sariqamish ko‘lining suv sathi dinamikasi fazoviy-vaqtinchalik o‘zgaruvchanlikka ega ekanligini, u tabiiy va antropogen omillar ta’sirida turlicha yo‘nalishda rivojlanishini ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqotning yakunida, ya’ni kuzatuv davrining oxirida davr boshiga nisbatan suv sathi ijobiy o‘sish tendensiyasini qayd etilgan.

XULOSA

Tadqiqotda 2001–2024-yillar oralig‘idagi altimetr ma’lumotlariga asoslangan tahlillar natijasida Sariqamish ko‘lining suv sathi dinamikasi bosqichma-bosqich o‘zgaruvchanlik kasb etgani aniqlandi. Tadqiqot davomida suv sathi bir necha davrlarda o‘sish va pasayish tendensiyalari kuzatildi, bu jarayon tabiiy va antropogen omillar o‘zaro ta’siri bilan izohlanadi.

Dastlabki yillarda ko‘l suv sathi ijobiy suv balansi ta’sirida barqaror o‘sish yo‘nalishida bo‘lgan, keyinchalik esa qurg‘oqchilik, daryo oqimining kamayishi va bug‘lanishning ortishi natijasida pasayish kuzatilgan. 2010-yillardan boshlab suv kirimining nisbatan ortishi va gidrologik sharoitlarning yaxshilanishi tufayli suv sathi qayta ko‘tarilish tendensiyasini namoyon etgan. So‘nggi yillarda esa yana qisqa muddatli pasayish qayd etilgan bo‘lsa-da, umumiy hisobda suv sathi o‘rtacha yillik +0,16 m/yil ko‘tarilish bilan yakun topgan.

Altimetr ma’lumotlariga asoslangan monitoring Sariqamish ko‘lining uzoq muddatli gidrologik holatini baholash va suv resurslarini boshqarish strategiyalarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyat ochmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Аденбаев Б.Е., Калабаев С.Б.* Гидрография, морфометрия и мониторинг современного состояния озера Джылтырбас // Водное хозяйство России: проблемы, технологии, управление. 2023. № 5. – С. 43-53. DOI: 10.35567/19994508_2023_5_4.

2. *Артыкова Ф.Я., Калабаев С.Б.* Перспективы использования спутниковых данных для определения уровня воды в крупных озёрах // Современные проблемы дистанционного зондирования Земли из космоса. 2024. – 21(4). – С. 251-259. DOI: 10.21046/2070-7401-2024-21-4-251-259. Scopus ID-59329867100

3. *Артыкова Ф.Я., Калабаев С.Б.* Долгосрочные фазовые изменения озер Южного Приаралья // Водное хозяйство России: проблемы, технологии, управление № 1, 2025. – С. 40-56. https://doi.org/10.35567/19994508-2025-1-40-56

4. *Калабаев С.Б., Артыкова Ф.Я., Аденбаев Б.Е.* Анализ долгосрочных тенденций осадков в Южном Приаралье // Современные проблемы дистанционного зондирования Земли из космоса. 2025. Т. 22. № 4. – С. 317–332.

5. *Калабаев С.Б., Йўлдошбаева М.Р.* Қуйи Амударё сув объектларининг гидрографик тавсифи // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 2019. – 56-жилд. – Б. 235-239.

6. Калабаев С.Б. Landsat тасвирлари ёрдамида ер усти сув объектлари чегарасини аниқлашда спектрал индекслардан фойдаланиш имкониятлари // Гидрометеорология ва атроф муҳит мониторинги. 2023. – №4. – Б. 36-43.

7. *Калабаев С.Б., Артикова Ф.Я.* Сунъий йўлдош кузатув маълумотлари бўйича кўлларни хариталаш ва мониторинг қилиш // Гидрометеорология ва атроф-муҳит мониторинги. 2024. – №1. – Б. 87-92.

8. *Калабаев С.Б., Аденбаев Б.Е.* Оценка изменений площадей водной поверхности озера Междуречье по спутниковым снимкам / Материалы международной научно-практической конференции «Роль современной геоинформационной картографии, методов и технологий дистанционного зондирования в географических исследованиях». – Ташкент, 2024. – С. 505-508.

9. *Kostianoy A.G., Kostianaia E.A., Lebedev S.A., Serykh I.V., Prokofiev Y.A.* Interannual variability in the level of lakes in northwestern Russia / Proceedings of the VI International

Scientific and Practical Conference “Fundamental and Applied Aspects of Geology, Geophysics and Geoecology Using Modern Information Technologies”. Maykop State Technological University. – Maykop, 17–21 May 2021. Part 1. – PP. 158–167.

10. *Lebedev S.A., Kostianoy, A.G.* Satellite Altimetry of the Caspian Sea / Proceedings of the Symposium on 15 Years of Progress in Radar Altimetry. Venice. Italy. 13-18 March 2006. – Vol. SP 614.

11. *Troitskaya Y.I., Rybushkina G.V., Soustova I.A., Balandina G.N., Lebedev S.A., Kostianoy A.G.* Satellite altimetry of inland water bodies // Hydrophysical Processes. 2012. Vol. 39, – PP. 184–199.

12. *Kostianoy A.G., Lebedev S.A., Kazmina M.V., Tsepelev V.Y. Varlashina V.M.. Neschadimova T.G.* Satellite Monitoring of Transboundary Waters of Russia and Estonia. – M.: Publ. House “Signal”, 2012. – 16 p.

IQLIM O’ZGARISHI SHAROITIDA SURXON-SHEROBOD HAVZASI SUV RESURSLARIDAN KOMPLEKS FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Isaboyeva Muxayyo Botirovna
Gidrometeorologiya xizmati agentligi

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida Surxon-Sherobod havzasining suv resurslaridan kompleks va samarali foydalanish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda havzaning gidrologik va iqlimiy xususiyatlari, suv resurslari shakllanishiga tabiiy hamda antropogen omillar ta’siri o‘rganilgan. Iqlim o‘zgarishi natijasida yog‘in miqdorining kamayishi, haroratning ortishi va bug‘lanish jarayonlarining kuchayishi oqibatida suv resurslarining miqdoriy va sifat jihatdan o‘zgarishi aniqlangan. Maqolada suvdan foydalanishning mavjud tizimi tahlil qilinib, suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo‘jaligi infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kompleks foydalanishni takomillashtirish yondashuvlarini qo‘llash taklif etilgan. Tadqiqot natijalari hudud suv xavfsizligini mustahkamlash va ekologik barqarorlikni ta’minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, suv resurslari, Surxon-Sherobod havzasi, kompleks foydalanish, suv tejovchi texnologiyalar, integratsiyalashgan boshqaruv.

Аннотация. В данной статье научно анализируются вопросы комплексного и эффективного использования водных ресурсов Сурхан-Шерабадского бассейна в контексте изменения климата. В исследовании изучаются гидрологические и климатические характеристики бассейна, влияние природных и антропогенных факторов на формирование водных ресурсов. В результате изменения климата выявлены количественные и качественные изменения водных ресурсов вследствие уменьшения количества осадков, повышения температуры и усиления процессов испарения. В статье анализируется существующая система водопользования и предлагается широкое внедрение водосберегающих технологий, модернизация водохозяйственной инфраструктуры и применение подходов к повышению эффективности комплексного использования. Результаты исследования имеют практическое значение для укрепления водной безопасности и обеспечения экологической стабильности в регионе.

Ключевые слова: изменение климата, водные ресурсы, Сурхон-Шерабадский бассейн, комплексное использование, водосберегающие технологии, комплексное управление.

Abstract. This article scientifically analyzes the issues of integrated and efficient use of water resources of the Surkhan-Sherabad basin in the context of climate change. The research

studies the hydrological and climatic characteristics of the basin, the impact of natural and anthropogenic factors on the formation of water resources. As a result of climate change, quantitative and qualitative changes in water resources have been identified due to a decrease in precipitation, an increase in temperature, and increased evaporation processes. The article analyzes the existing system of water use and proposes the widespread introduction of water-saving technologies, the modernization of water management infrastructure, and the application of approaches to improving integrated use. The results of the research are of practical importance in strengthening water security and ensuring ecological stability in the region.

Keywords: climate change, water resources, Surkhan-Sherabad basin, integrated use, water-saving technologies, integrated management.

KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi Yer yuzining deyarli barcha hududlarida suv resurslari holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston hududi, xususan janubiy viloyatlar - Surxondaryo viloyati ham bu jarayondan chetda qolmagan. Haroratning o‘rtacha yillik ortishi, yog‘in miqdorining kamayishi va bug‘lanishning kuchayishi natijasida suv ta’minoti yildan-yilga murakkablashmoqda.

Surxon-Sherobod havzasi respublikadagi eng muhim qishloq xo‘jaligi hududlaridan biri bo‘lib, suv resurslariga bo‘lgan talabning ortishi va tabiiy suv manbalarining cheklanganligi suvdan foydalanish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Aholining o‘sishi, sug‘oriladigan yerlar maydonining kengayishi hamda ekologik barqarorlikka qo‘yilayotgan talablar iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarini boshqarishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada Surxon-Sherobod havzasining suv resurslari holati, ulardan foydalanish tizimi va mavjud muammolar o‘rganilib, iqlim o‘zgarishiga moslashgan kompleks boshqaruv choralari taklif etiladi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning maqsadi - iqlim o‘zgarishi sharoitida Surxon-Sherobod havzasida suv resurslaridan kompleks foydalanishni takomillashtirish yo‘llarini ilmiy - amaliy jihatdan tahlil qilish. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Havzaning tabiiy-iqlimiy sharoiti va suv resurslari holatini o‘rganish;
2. Suvdan foydalanish tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash;
3. Iqlim o‘zgarishining suv resurslariga ta’sirini baholash;
4. Kompleks boshqaruv modellarini ishlab chiqish va taklif qilish.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqot jarayonida matematik-statistik hisoblash qoidalari, suv xo‘jalik balans usullari, suv taqsimoti qonuniyatlari va mavjud me’yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida kafolatli suv ta’minoti va samaradorligini oshirish maqsadida suv resurslaridan kompleks foydalanishning takomillashtirilgan shakliy loyihalari ishlab chiqilgan;

agrosanoat va sanoat tarmoqlarini suv bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish uchun oqova suvlarni qayta ishlovchi usullaridan foydalanish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qishloq xo’jaligida sug’oriladigan yerlarni yetarlicha suv bilan ta’minlanishi uchun melioratsiya usuli ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z ifodasini topdi:

suv resurslaridan kompleks foydalanishni takomillashtirish maqsadida Surxon-Sherobod havzasining suv xo‘jaligi rayonlashtirish kartasi takomillashtirilgan;

Surxondaryo viloyati har bir ma’muriy tumanining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha suv resurslaridan kompleks foydalanish asosida Suxondaryo, Sherobod va Amudaryo daryolari

oqimining turli xil ta’minlanishida hozirgi davr, yaqin va uzoq kelajakka mo‘ljallangan hisobiy-shakliy loyihalari ishlab chiqilgan;

chuchuk yer osti suvlari zaxiralari indeksini (SS-DTA) hisobga olgan holda, shahar va qishloq aholisining yer osti suvlari bilan yaqin va uzoq kelajakda yetarli darajada ta’minlanishi hisobiy isbotlangan;

birinchi marta Surxon-Sherobod havzasida suv resurslaridan kompleks foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Hududning tabiiy-iqlimiy sharoiti va suv resurslari holati, suv resurslaridan foydalanishning hozirgi holati, iqlim o‘zgarishining suv resurslariga ta’siri, suv resurslaridan kompleks foydalanishning takomillashtirilgan yo’nalishlari va suvdan foydalanish tizimidagi muammolarni qamrab olgan.

Surxon-Sherobod havzasi (quyi Surxondaryo viloyati) tog‘oldi va tekislik relyefga ega bo‘lib, asosiy suv manbalari - Surxondaryo daryosi va uning qo‘shni oqimlari, shuningdek qor va yomg‘ir suvlari hisobiga shakllanadi. Hudud relyefi tog‘oldi va tekisliklardan iborat bo‘lib, suv resurslari asosan bahor mavsumida qor va yomg‘ir suvlari hisobidan shakllanadi.

Iqlim sharoitida yog‘in miqdori so‘nggi yillarda pasayish tendensiyasiga ega bo‘lib, bug‘lanish va suv yo‘qotish jarayonlari kuchaygan. Natijada yer osti va yer usti suv resurslari hajmi pasaygan va suv taqsimotida bir qancha sezilarli o’zgarishlar bo‘lmoqda.

Havzada suvdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari: sug‘orish (qishloq xo‘jaligi), ichimlik suvi ta’minoti, sanoat va ekologik ehtiyojlar. Sug‘oriladigan yer maydoni tarmoq infratuzilmasi orqali ta’minlanadi, ammo kanallar va suv o‘lchash tizimlari ko‘p hollarda eskirgan va samaradorligi past. Bu holat suv sarfini oshiradi, yo‘qotishlarni kuchaytiradi va natijada suv resurslari tizimi barqaror emas. Bundan tashqari, suv balansida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda: mavsumiy oqimlarning qisqarishi, yuqori bahor suvlari kamligi yoki kechikishi va yozgi quruq davrlarida taqchillik.

So‘nggi 30 yil ichida o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, havzada o‘rtacha yillik yog‘in miqdori 10-15% ga kamaygan, o‘rtacha havo harorati esa 1,2-1,5°C ga oshgan. Bu esa suv resurslarining kamayishiga, daryo oqimlarining notekis taqsimlanishiga hamda yer osti suvlarining chuqurlashishiga sabab bo‘lgan.


Havzada suvdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari: sug‘orish (qishloq xo‘jaligi), ichimlik suvi ta’minoti, sanoat va ekologik ehtiyojlar. Sug‘oriladigan yer maydoni tarmoq infratuzilmasi orqali ta’minlanadi, ammo kanallar va suv o‘lchash tizimlari ko‘p hollarda eskirgan va samaradorligi past. Bu holat suv sarfini oshiradi, yo‘qotishlarni kuchaytiradi va natijada suv resurslari tizimi barqaror emas. Bundan tashqari, suv balansida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda: mavsumiy oqimlarning qisqarishi, yuqori bahor suvlari kamligi yoki kechikishi va yozgi quruq davrlarida taqchillik.

Hududda suvdan foydalanishning 80 foizdan ortig‘i qishloq xo‘jaligi, xususan paxta, g‘alla va sabzavot yetishtirishga yo‘naltirilgan. Biroq mavjud sug‘orish tizimlarining aksariyati eskirgan, suv yo‘qotishlar yuqori (30-40%). Bundan tashqari, suv taqsimoti ko‘p hollarda samarali boshqarilmaydi, bu esa suv tanqisligi muammosini yanada kuchaytiradi.

Suv xo‘jaligi infratuzilmasining texnik eskirganligi, kanallarni betonlashtirishning sustligi va suv o‘lchash tizimlarining yetarli darajada avtomatlashtirilmaganligi ham suv resurslaridan oqilona foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.


Iqlim o‘zgarishi natijasida Surxon-Sherobod havzasida qurg‘oqchilik chastotasi ortib, vegetatsiya davrining uzayishi kuzatilmoqda. Bu holat suvga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshiradi. Daryo oqimlarining kamayishi esa nafaqat qishloq xo‘jaligiga, balki ichimlik suvi ta’minoti va ekologik tizimlarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Suv resurslaridan kompleks foydalanishda matematik statistika ehtimollar nazariyasining instrumenti hisoblanadi va tabiiy suv resurslarini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. *Tadqiqotda tayanch gidropostlardan biri sifatida Surxondaryo daryosining Sho’rchi gidroposti tanlangan. O‘rtacha ko‘p yillik suv sarflari orqali oqim me’yorlari va suv resurslarining ehtimolligi hisoblab chiqilgan.*



	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
W/50%	117,48	106,96	188,24	212,64	464,58	416,99	219,47	60,34	71,29	90,65	88,58	86,24
W/75%	109,56	119,31	140,98	297,85	555,36	224,29	58,74	12,63	25,39	48,17	65,53	80,63
W/85%	91,08	76,47	108,14	218,86	269,67	0	149,79	31,24	17,81	44,55	68,38	79,3
W/95%	102,17	79,13	115,61	264,18	323,07	235,17	14,63	18,98	20,72	49,99	61,9	77,43

1-rasm. Surxondaryo-Sho’rchi oqimning umumlashgan gistogrammasi



2-rasm. Ta’minlanganlik nazariy egri chizig‘ini empirik egri chizig‘i bilan taqqoslash (C_s=2,5C_v) (Sho’rchi gidroposti)

Taqsimlanishning asosiy parametrlariga qatorning o‘rtacha arifmetik miqdori, o‘zgaruvchanlik va simmetriyalik tavsiflari ham kiradi. O‘rtacha arifmetik qiymat quyidagicha hisoblangan*:*

$$X_0 = \frac{\sum_1^n x_i}{n} \quad \text{yoki} \quad Q_0 = \frac{\sum_1^n Q_i}{n} \quad \text{yoki} \quad W_0 = \frac{\sum_1^n W_i}{n} \qquad (1)$$

Bu yerda: X_0 – o‘rtacha arifmetik qiymat; X_i – yillik o‘rtacha arifmetik qiymat; Q_o – suv sarfining me’yori; W_o – oqim me’yori; Q_i – o‘rtacha yillik suv sarfi; n –qatorlar soni.

Agar gidrologik miqdorlar qatori (Q_i) kamayib borish tartibida joylashtirilsa, ta’minlanish ehtimoli (P %) quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi [87; 7-b.]:

$$P = \frac{m}{n} * 100\%; \quad P = \frac{m}{n-1} * 100\%; \quad P = \frac{m-0,3}{n+0,4} * 100\% \qquad (2)$$

Bu yerda: m – qatorning kamayib borish tartibidagi tartib raqami (1,2,3,., n); n – qatorlarning umumiy soni.

1-jadval **Ер устки сув ресурсларининг эҳтимоллигини ҳисобланган**

Ko‘rsatkichlar	**Ta'minlanish, P %**			
	50	**75**	**85**	**95**
K_i	0,964	0,785	0,696	0,576
$W_x=K_i*W_0$ млн/м^3	2 136,28	1 739,61	1 542,38	1 276,45
$Q_x=W/T$ м^3/с	67,82	55,23	48,96	40,52

Surxondaryo daryosining suv resurslarini ifodalovchi asosiy gidropost Sho’rchi gidroposti hisoblanadi. 1-jadvalda Excel dasturi asosida Sho’rchi gidroposti ma’lumotlari bo‘yicha suv resurslarining ehtimolligi hisoblari keltirilgan.

O‘zgaruvchanlik darajasini belgilovchi sifatida o‘rtacha kvadratli farqdan foydalaniladi va ushbu ifoda bilan aniqlanadi. **X_i/X_0 (yoki X_i/X_{max})** qiymatni "K" (modul koeffitsiyenti) bilan almashtirganda, o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti quyidagi formula bilan hisoblangan:

$$C_v = \sqrt{\frac{\sum_1^n (k-1)^2}{n}} = 0,45 \qquad (4)$$

Variatsiya koeffitsiyentining xatoligi quyidagi formula orqali topilgan:

$$\varsigma C_v = \pm\sqrt{\frac{1+C_v^2}{2n}} * 100\% = 8,17\ \% \qquad (5)$$

Ushbu hisobdan ko‘rinadiki, C_v ning xatoligi talab darajasida, chunki xatolik foizi 10 dan oshmagan.

C_v xatoligini tekshirish me’yorlari:

C_v= 0,2-0,3 = 20 %

C_v= 0,4-0,8 = 10 %

C_v > 0,8 = 5 %

Romanovskiy bo‘yicha o‘rtacha kvadratik chetlashish (yoyilish) n>30 bo‘lsa, maxrajda n bo‘ladi, n<30 bo‘lsa, maxrajda (n-1) bo‘ladi. Shuni inobatga olib, quyidagi formuladan foydalandik:

$$\varsigma = \sqrt{\frac{\sum_1^n W_i^2 - W_0^2}{n}} \quad (3.5) \quad \text{yoki} \quad \varsigma = \frac{100}{\sqrt{n}}\sqrt{\frac{\sum_1^n (k-1)^2}{n}} = 0,047 \qquad (6)$$

Qatorning simmetriyasi quyidagi assimetriya koeffitsiyenti formulasi asosida hisoblanadi:

$$C_s = \frac{\sum_1^n (W_i - W_0)^3}{n\varsigma} \qquad (7)$$

yoki o‘lchovsiz qator uchun:

$$C_s = \frac{\sum_1^n (k-1)^3}{n\varsigma} \quad (3.8), \quad C_s = \frac{\sum_1^n (k-1)^3}{n * C_v^3} = 1,08 \qquad (8)$$

Assimetriya koeffitsiyentining xatoligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi:

$$C_s = \pm\frac{1}{C_s}\sqrt{\frac{6}{n}(1 + 6C_v^2 + 5C_v^4)} * 100\% = 36,9\ \% \qquad (9)$$

Ma’lumki, aniq C_s ni hisoblash uchun qatorlar soni (n) 100 dan oshishi talab etiladi. Shuning uchun C_s ni ko‘p hollarda C_v ga nisbatan qabul qilinadi:

$$\frac{C_s}{C_v} = 0{,}5; 1{,}0; 2{,}0; 3{,}0; 4{,}0; 5{,}0 \qquad (10)$$

Yuqoridagilarga asoslanib nazariy ta’minlangan egri chizig‘ining asosiy parametrlari (X_0, C_v, C_s) aniqlandi.

Bevosita kuzatish ma’lumotlari asosida o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti C_v ni va asimmetriya koeffitsiyent C_s ($C_s = C_v$; $C_s = 1{,}5\ C_v$; $C_s = 2C_v$; $C_s = 2{,}5C_v$; $C_s = 3C_v$, $C_s = 3{,}5C_v$, $C_s = 4C_v$) larni hisoblab, Foster-Ribkin jadvalidan foydalangan holda ta’minlanganlik nazariy egri chizig‘i empirik egri chizig‘i bilan taqqoslangan (2-rasm). Agar nazariy egri chiziq grafigiga ($C_s=2{,}5C_v$) empirik nuqtalar yaqin joylashsa, demak u tanlangan tarqatish turiga to‘g‘ri keladi va trend bo‘lib hisoblanadi. Empirik nuqtalarning nazariy egri chiziqdan uzoq joylashishiga barham berish uchun egri chiziq parametrlarini, birinchi navbatda C_v ni aniqroq hisoblash tavsiya etiladi.

Hisoblangan C_s va C_v nisbati ($C_s=C_v$, $C_s=1{,}5C_v$, $C_s=2C_v$, $C_s=2{,}5C_v$, $C_s=3C_v$, $C_s=3{,}5C_v$, $C_s=4C_v$) bo‘yicha nazariy egri chiziqlar qurilgan va uning ustiga hisoblangan (K va P) parametrlar tushirildi. Amaliy ko‘rsatkichlar nazariy egri chiziqlar bilan tasdiqlandi (2-rasm). Qaysi nazariy egri chiziqqa empirik ma’lumotlar yaqinroq bo‘lsa, o‘sha nazariy egri chiziq asos qilib olindi.

Natijada, ko‘p yillik ma’lumotlarga asoslanib, har bir hisoblangan suv sarflariga Q_p yaqin kelgan o‘rtacha yilning suv sarfi aniqlangan va yillardagi o‘rtacha oylik suv sarflari olingan hamda har bir oy uchun quyidagi formula yordamida oqim hajmi hisoblangan (3.2–3.4-jadvallar):

$$W=Q_{\text{o‘rtacha oylik}}*T \qquad (11)$$

Bu yerda T – bir oydagi sekundlar soni.

2-jadval. Yer usti suvlari hajmining oylar bo‘yicha taqsimlanishi (Sho’rchi g/p)

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Yillik hajmi	Oylar												
			1	2	3	4	5	6		7	8	9	10	11	12
T	C	31,5	2,64	2,42	2,67	2,59	2,67	2,59		2,67	2,67	2,67	2,59	2,59	2,67
Q=50%	м³/с	67,40	44,5	44,2	70,5	82,1	174	161		82,2	22,6	26,7	35	34,2	32,3
W/50%	млн/м³		117,48	106,96	188,24	212,64	464,58	416,99		219,47	60,34	71,29	90,65	88,58	86,24
Q=75%	м³/с	55,30	41,5	49,3	52,8	115	208	86,6		22	4,73	9,51	18,6	25,3	30,2
W/75%	млн/м³		109,56	119,31	140,98	297,85	555,36	224,29		58,74	12,63	25,39	48,17	65,53	80,63
Q=85%	м³/с	48,70	34,5	31,6	40,5	84,5	101	145		56,1	11,7	6,67	17,2	26,4	29,7
W/85%	млн/м³		91,08	76,47	108,14	218,86	269,67	375,55		149,79	31,24	17,81	44,55	68,38	79,30
Q=95%	м³/с	43,40	38,7	32,7	43,3	102	121	90,8		5,48	7,11	7,76	19,3	23,9	29
W/95%	млн/м³		102,17	79,13	115,61	264,18	323,07	235,17		14,63	18,98	20,72	49,99	61,90	77,43

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanlab olingan tayanch gidropostlarning ko‘p yillik gidrologik ma’lumotlarining gidropostlaridagi oqim hisobining ishonchliligi yuqori bo‘lib, bu ta’minlanganlikning nazariy va amaliy egri chiziqlarida ko‘rinib turibdi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, havza suv resurslaridan kompleks foydalanishni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Surxon-Sherobod havzasida iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslarining kamayishi va notekis taqsimlanishi hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suvdan foydalanishning mavjud tizimi zamonaviy talablarni qondirmaydi va uni kompleks yondashuv asosida takomillashtirish zarur.

Suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, suvni boshqarishning integratsiyalashgan tizimini yo‘lga qo‘yish hamda aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali hududda suv xavfsizligi ta’minlanadi va iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish mumkin bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari asosida Surxon-Sherobod havzasida suv resurslaridan kompleks foydalanishni takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Suv tejovchi irrigatsiya texnologiyalari: Tomchilatib sug‘orish, yomg‘irlatib sug‘orish, fizika-gidravlik nazoratli sug‘orish tizimlarini bosqichma-bosqich joriy etish. Bu texnologiyalar suv sarfini sezilarli darajada (taxminan 30-40 %) kamaytirish imkonini beradi.
2. Infratuzilma modernizatsiyasi: Kanallarni betonlashtirish, yo‘qotishni kamaytirish uchun tarqatish tarmoqlarini qisqartirish, автоматизация va raqamli monitoring tizimlarini yaratish. Suv o‘lchov qurilmalari va real-vaqt monitoring ma’lumotlari asosida boshqaruvni yaxshilash.
3. Integratsiyalashgan suv resurslari boshqaruvi (ISRB**):** Suvdan foydalanish, ekologik ehtiyojlar va iqtisodiy jihatlar o‘rtasida muvozanatni saqlaydigan boshqaruv modelini joriy etish. Bu - hududiy suv foydalanuvchilar uyushmalari, mahalliy hokimiyat vakillari va suv xo‘jaligi organlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirishni anglatadi.
4. Qayta foydalanish va suv tejash mexanizmlari: Drenaj va chiqindi suvlarini qayta ishlash, suv sarfini cheklash, texnologik suvlardan foydalanishni rag‘batlantirish.
5. Mahalliy bosqichdagi xabardorlik va ishtirokchilik: Aholi, dehqonlar va suv foydalanuvchilari o‘rtasida suv tejash hamda samarali foydalanish bo‘yicha treninglar, seminarlar o‘tkazish. Suv foydalanuvchilari uyushmalarining faoliyatini mustahkamlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-Muhitni Muhofaza Qilish va Iqlim O‘zgarishi Vazirligi. Hisobotlari, 2023-2024.
2. Dukhovny V.A., Sokolov V.I., Ziganshina D.R. Integrated Water Resources Management in Central Asia, as a way of survival in conditions of water scarcity // Quaternary International (2013) 311, P. 181-188.
3. Karimov A., Rahmonov S. “O‘zbekistonda janubiy hududlarda suv resurslarining shakllanishi va boshqaruvi.” *Toshkent Irrigatsiya Universiteti Jurnali*, 2022.
4. Valiyev X., Muradov Sh.O. Suv resurslaridan mukammal foydalanish va muhofaza qilish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. -166 b.
5. Food and Agriculture Organization (FAO). *Water resources and climate change in Central Asia*. Rome, 2021.
6. IPCC. *Sixth Assessment Report (AR6)*. 2023.
7. “Suv kodeksi” O‘zbekiston Respublikasi. Toshkent, 2021.

TO’QIMACHILIK SANOATI OQAVA SUVLARINI TOZALASHDA ISHLATILINADIGAN POLIKATIONIT- KUCHLI KISLOTALI SULFOKATIONITLARNING OLINISH JARAYONI VA ULARNING OQAVA SUVLARNI TOZALASHDA QO’LLANILISHI

Qodirov Orifjon Sharifovich
O’zbekiston Milliy Universiteti
Shodmonova Sarvinozxon G’ani qizi
Atrof muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy -tadqiqot instituti.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida to’qimachilik sanoati oqova suvlari tarkibidagi asosiy ifloslantiruvchi komponentlar — og‘ir metall ionlari, qattiqlik kationlari, bo‘yoq qoldiqlari va organik moddalarni samarali olib tashlashda sulfokationitlarning qo‘llanish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqotda antratsensulfo kislota va formaldegidning polikondensatsiya mahsuloti asosida olingan kuchli kislotali sulfokationitning fizik-kimyoviy xossalari va ion almashinuv sig‘imi baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mazkur kationit Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+} va Cr^{3+} kabi kationlarni suvdan 90–99 % gacha samaradorlik bilan ajratib oladi, suvning qattiqligini keskin kamaytiradi hamda ranglilik va kislorodga bo’lgan kimyoviy ehtiyoj ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada pasaytiradi [1]. Ion almashinuv jarayonining yuqori selektivligi va regeneratsiya imkoniyati uni tekstil chiqindi suvlarini chuqur tozalashning iqtisodiy samarali usullaridan biri sifatida qo‘llashga imkon beradi. Olingan sulfokationitning strukturaviy barqarorligi va kimyoviy chidamliligi uning amaliy qo‘llanish doirasini yanada kengaytiradi.

Kalit so’zlar: sulfokationit, polikondensat, antratsensulfo kislota, formaldegid, ion almashinuv, og’ir metal ionlarini chiqarish, to’qimachilik oqava suvlarini tozalash.

Аннотация. В данной работе исследовано применение сульфокатионитов для очистки сточных вод текстильной промышленности, содержащих тяжёлые металлические ионы, ионы жёсткости, остатки красителей и органические примеси. Изучены физико-химические свойства и ионообменная способность сильнокислотного сульфокатионита, полученного на основе поликонденсации антрацензульфокислоты с формальдегидом. Экспериментальные результаты показали, что данный катионит эффективно удаляет из воды ионы Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+} и Cr^{3+} с эффективностью 90–99 %, значительно снижает общую жёсткость, а также уменьшает мутность, цветность и значения ХПК сточных вод. Высокая селективность ионообменного процесса и возможность регенерации материала делают полученный сульфокатионит экономически выгодным и перспективным сорбентом для глубокой очистки текстильных сточных вод. Структурная стабильность и химическая стойкость материала расширяют области его практического применения.

Ключевые слова: сульфокатионит, антраценсульфокислота, поликонденсация формальдегида, ионообмен, текстильные сточные воды, удаление тяжёлых металлов, умягчение воды, сильнокислотный катионит, эффективность сорбции.

Annotation. This study investigates the application of sulfocationites for the purification of textile industry wastewater containing heavy metal ions, hardness ions, dye residues, and organic contaminants. The physicochemical properties and ion-exchange capacity of a strong-acid sulfocationite synthesized via the polycondensation of anthracenesulfonic acid with formaldehyde were examined. Experimental results demonstrated that this cation exchanger effectively removes Ca^{2+} , Mg^{2+} , Fe^{2+} /Fe^{3+} , Cu^{2+} , and Cr^{3+} ions from wastewater with an efficiency of 90–99%, significantly reduces water hardness, and decreases turbidity, color, and COD values. The high selectivity of the ion-exchange process and the regenerability of the material make the obtained sulfocationite a cost-effective and promising adsorbent for the deep treatment of textile

wastewater. The structural stability and chemical resistance of the polymer further expand its practical applicability.

Key words: sulfocationite, anthracenesulfonic acid, formaldehyde polycondensation, ion exchange, textile wastewater, heavy metal removal, water softening, strong-acid cation exchanger, sorption efficiency.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda to‘qimachilik sanoati katta miqdorda suv resurslarini ishlatadi va uning chiqindi suvlari turli kimyoviy moddalar bilan ifloslanadi, jumladan, qattiqlik kationlari (Ca^{2+}, Mg^{2+}), og‘ir metall ionlari (Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+}), yuzaki faol moddalar va turli turdagi bo‘yoqlar (azo, reaktiv, kationik va vat bo‘yoqlar), bu esa suvning ranglilik, KBBE/KBKE ko‘rsatkichlarini oshirib, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi, an’anaviy tozalash usullari esa barcha ifloslantiruvchilarni samarali yo‘q qila olmaydi, shuning uchun polikationitlar, xususan kuchli kislotali sulfokationitlar, oqova suvlarni chuqur tozalashda muhim vosita hisoblanadi, ular suvdagi kationlarni (Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+}) selektiv ravishda ushlab qoladi, shuningdek, bo‘yoqlar bilan kompleks hosil qiluvchi metall ionlarini olib tashlab suvning ranglilik va kimyoviy yukini sezilarli darajada kamaytiradi, shu orqali suv yumshaydi va qayta ishlatish yoki atrof-muhitga chiqarish uchun moslashadi, va ushbu ishning maqsadi polikationit — kuchli kislotali sulfokationitlarning olinish jarayonini o‘rganish hamda ularning turli turdagi bo‘yoqlar bilan ifloslangan to‘qimachilik sanoati oqava suvlarini tozalashda qo‘llanilish samaradorligini aniqlashdir [2],[3].

Tadqiqot uslublari.


1. To’qimachilik sanoati suvlaridan ГОСТ 31861-2012 standarti asosida suv namunalirini olish.

2. To’qimachilik sanoati oqava suvining birlamchi parametrlarini ya’ni, harorat, pH-vodorod ko’rsatkich, EC-elektr o’tqazuvchanlik, TDS-suvdagi umumiy qattiq moddalar miqdori, DO-suvdagi erigan kislorod, nitrat ionlari, nitrit ionlari, sulfat va fosfat ionlarining miqdori kislorodga bo’lgan kimyoviy ehtiyoj, analitik portativ (ko’chma) qurilma - Horiba EC-33 orqali o’lchash [4].


3. Kuchli kislotali sulfokationitni sintez qilish.

Piroliz jarayoni ikkilamchi mahsuloti tar mahsulot asosida olingan sulfokationit ishlab chiqarish texnologiyasi bir nechta bosqichlardan iborat bo’lib quyida jarayonlar sharoiti va reaksiya tenglamalari keltirilgan:


- Tar mahsulotni fraksion haydash orqali 320-360^{0}C oralig’idagi antratsen fraksiyasi ajratib olinadi [5].
- Olingan antratsen fraksiyasi konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida(1:2,5-3 mol nisbatda) 4-8 soat davomida sulfolanadi.



- Olingan sulfomassa bosim ostida ishlaydigan idishga solindi va 35% li formalin bilan(dastlabki antratsen va formaldegid mol nisbati 1;2,1)harorat 110-120°C, 35atm bosimda polikondensatlanadi




- Sintez qilingan, polikondensat sovitildi va mexanik maydalanib polikondensatsiyani oxiriga yetkazish uchun 18-24 soat davomida 95-100 °C da qizdirildi[6].



Ikkilamchi tar mahsulot asosida sulfokationit ishlab chiqarish texnologiyasi uchta liniyadan iborat bo’lib, bu liniyalar uzliksiz ishlaydi va quyidagicha tavsiflanadi[7].

1- rasmda antratsen fraksiyasidan sulfokationit ishlab chiqarish texnologiyasi sxemasi berilgan.

Dastlab 1-liniyada ikkilamchi mahsulot tar mahsulotdan antratsen fraksiyasini ajratib olish uchun Reaktreaktiv kolonnada da fraksiyalanadi va tozalanadi. Olingan antratsen fraksiyasi 2-o’lchash idishiga yuboriladi. antratsen fraksiyasi 4 - sulfuratorda sulfolanadi. Olingan sulfomassa 5-reaktorda formalin bilan polikondensatlanadi va oligomer sintez qilinadi. So’ngra 10 - quritish kamerasida quritilib, 11 - maydalagichda maydalaniladi. Polikondensatlanishni oxirigacha yetkazish uchun 12-qurilmada qizdiriladi. So’ngra 13,15 - maydalagich yordamida maydalanib, 16-elaklar yordamida fraksiyalanadi. Olingan fazoviy tuzilishli sulfokationit 16 - yuvish ustunlari yordamida ortiqcha sulfat kislota yuviladi va 17 - sentrifugalanib tayyor mahsulot olinadi[8].



1-rasm. Antratsensulfo kislota va formaldegidning polikondensatsiya mahsuloti asosida kuchli kislotali sulfokationitni ishlab chiqarish jarayoni sxemasi.

1-rasmda: 1 - antratsen o’lchash idishi; 2 - konsentrlangan sulfat kislota o’lchash idishi; 3 - formalin o’lchash idishi; 4 - sulfurator; 5 - sulfomassa o’lchash idishi; 6 - oligomer sintezi uchun reaktor; 7 - sovituvchi reaktor; 8 - kukun uchun idish; 9 – varonka;

10 - quritish kamerasi; 11 - maydalagich; 12 - yakuniy kondensatsiya uchun qurilma; 13 - rolikli maydalagich; 14 - tebranuvchi elaklar; 15 - diskli maydalagich 16 - yuvish ustunlari; 17 -sentrifuga.

Antratsensulfo kislota asosida kationit olishning texnologik jarayoni 1-rasmda ko’rsatilgan.

Sulfat kislotasi va oldindan eritilgan antratsen 1, 2 orqali sulfuratorga 4 ga beriladi. Avval sulfat kislotasi solinadi, so'ngra asta-sekin kristall antrasen qo'shiladi. Reaksiya 160-165^{0}C haroratda olib boriladi. Antratsenni sulfolash quyidagi tarkibiy qismlarning massa nisbatida (100% mahsulotlarni hisobga olgan holda) amalga oshiriladi:

Antratsen (g)	178
Sulfat kislota (g)	196

Barcha antratsen qo'shilgandan so'ng, reaksiya 4-6 soat davomida bir xil haroratda davom ettiriladi. Keyin reaksiya aralashmasi (sulfomassa) 90-120 °C gacha sovutiladi va formaldegid bilan polikondensatsiya qilish uchun 5-reaktorga o'tkaziladi. Polikondensatsiya quyidagi massa nisbatida amalga oshiriladi:

Sulfomassa (g)	168
Formaldegid (g)	30

Birinchi hisoblangan formalin miqdori 3-reaktordan yuklanadi, so'ngra aralashtirib turilgan holda sulfomassa asta-sekin kiritiladi. Barcha sulfomassa kiritilgandan so'ng, reaktsiya aralashmasi 3-5 soat davomida 110-160°C da saqlanadi. Keyin reaksiya massasi o'lchagich 8 orqali reaktor 9 ga yuklanadi. Aralashma 10-15 daqiqa davomida aralashtiriladi va 10-kameraga o'tkaziladi, bu erda sovutiladi shundan so’ng aralashma qattiqlashadi[9].

Qattiq holdagi oligomer maydalanib kondensatsiyaning oxirgi bosqichiga o'tadi. Maqsad fazoviy tuzilishga ega bo'lgan kationitni olishdir. Kondensatsiya oxirigacha borishi uchun 12-da kationit 24 soat davomida 90-100°C haroratda o'tadi. Ushbu bosqichda kation almashtirgich dastlabki massaning 15-17% gacha yo'qotadi. Keyin, kationit rolikli maydalagich 13-da maydalanadi, 14 elakdan o’tkaziladi[10]. Maydalanmagan qoldiq diskli maydalagich 15-da o’tkaziladi va 0,3-1,3 mm o’lchamdagi zarrachalarni olish uchun tebranish elaklarida 14-dan o’tkaziladi. Elakdan o’tgan kukn holdagi kationit 8-idishga yig’ib olinadi. Olingan kationitdan erkin sulfat kislotani olib tashlash uchun suv bilan yuviladi. Yuvish 16-ustunlarda sulfat kislota miqdori 0,008% dan ko'p bo’lmaguncha amalga oshiriladi. Keyin kationit 63% namligigacha sentrifugalanadi va qadoqlanadi [11],[12].

4. Ion almashinuvi orqali suvni tozalash.

Ion almashinuvi - bu **kimyoviy jarayon**, unda suvdagi ifloslantiruvchi kationlar (masalan, **Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+}) kation almashuvchi polikationit (kuchli kislotali sulfokationit)** tarkibidagi H^+ ioniga almashtiriladi [11],[12].

Oqava suv tarkibidagi **Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+}** kabi kationlarni o‘zida ushlab qoladi. Suvdagi kationlar **polikationit bilan kompleks hosil qiladi**, H^+ ioni suvga chiqariladi:

$$R{-}SO_3H + M^{2+} \rightarrow (R{-}SO_3)_2M + 2H^+$$

5. Oqava suvni polisulfokationit orqali tozalashdan so’ng olingan suvning analitik tahlili.

Ushbu jarayonda suvni analitik tahlil qilishda UV-5100 qurilmasi orqali spektrofotometrik tahlil amalga oshirildi va suvdagi ionlar, jumladan, nitrit, nitrat, sulfat, fosfat, **Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+} ionlari tahlili amalga oshirildi**. Kislorodga bo’lgan kimyoviy ehtiyoj – Флюорат qurilmasi yordamida fluroesentrik usul yordamida aniqlandi. TDS-gravimetrik usul yordamida, pH-potensiometriya usuli yordamida aniqlandi.


6. Ionik sorbentning samaradorligini aniqlash.

To’qimachilik sanoati oqava suvining tozalashgacha bo’lgan va tozalashdan so’nggi davrlarida olingan natijalari asosida ionic sorbent-polisulfokationitning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Ushbu tadqiqot ishinida olingan polisulfokationitning samaradorligini aniqlash maqsadida tozalashdan avvalgi oqava suv natijalari hamda tozlalashdan so’ng olingan namunalar natijalari taqqsolandi va diagramma yaratildi. 1-diagramma.

Quyidagi 1-diagrammada sintez qilib olingan polisulfokationitning to’qimachilik oqava suvini tozalashdagi samaradorligi keltirilgan.



1-diagramma. Polisulfokationitning samaradorligi.

1-diagrammadan ko’rinib turibdiki, ushbu tadqiqotda polisulfokationitning samaradorligi 90-99% ni tashkil etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, antratsensulfo kislota va formaldegid polikondensatsiya mahsuloti asosida olingan kuchli kislotali sulfokationit to‘qimachilik sanoati oqova suvlarini og‘ir metall ionlari, jumladan Ca^{2+}, Mg^{2+}, Fe^{2+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}, Cr^{3+} kabi ionlardan 90-99% gacha samaradorlik bilan tozalash uchun yuqori samarali sorbent hisoblanadi. Kationit oqova suvlarning rangliligi va organik yuklanishini (kislorodga bo‘lgan kimyoviy ehtiyoj ko‘rsatkichini) ham sezilarli darajada pasaytiradi. Tadqiqot asosida ushbu sulfokationitni sanoat miqyosida joriy etish, regeneratsiya jarayonini optimallashtirish, boshqa tarmoqlarda sinovdan o‘tkazish va monitoring tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turobjonov S.M., Tursunov T., Pulatov X. Oqova suvlarni tozalash texnologiyasi. Darslik. -T.: 2010. -256 b.
2. Musayev M. Sanoat chiqindilarini tozalash texnologiyasi asoslari. Darslik. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011.
3. Коттон Ф., Уилкинсон Дж. Современная неорганическая химия. В 3-х частях. Ч. 2. Москва: Мир, 1969.
4. Вейцер Ю.И., Кафаров В.В. Очистка промышленных сточных вод. Физико-химические методы. Москва: Стройиздат, 1977.
5. Crittenden, J. C., Trussell, R. R., Hand, D. W., Howe, K. J., & Tchobanoglous, G. Water Treatment: Principles and Design. 3rd ed. John Wiley & Sons, 2012.
6. Ahmad, A. L., Sumathi, S., & Hameed, B. H. "Adsorption of reactive azo dye (Reactive Orange 4) from aqueous solution by adsorption onto activated carbon, zeolite and clay: A comparative study." Chemical Engineering Journal, 2005, vol. 113, no. 2-3, pp. 129-136.

7. Sielaff, C., u. a. “Applications of some polyelectrolytes for the treatment of surface waters”. ResearchGate, 2015.
8. Oladoja, N. A. “Polymers for Coagulation and Flocculation in Water Treatment”. Polymeric Materials for Clean Water, 2018.
9. “Role of Polyelectrolytes in the Treatment of Water and Wastewater”. Sustainable Green Chemical Processes and their Allied Applications, 2020, pp. 289-309.
10. Hasanov, A. A. (2022). "ADSORPTION TREATMENT OF TEXTILE WASTEWATER CONTAMINATED WITH SYNTHETIC DYES." *Azerbaijan Chemical Journal*.
11. Yang, X., López-Grimau, V., Vilaseca, M., & Crespi, M. (2020). "Treatment of Textile Wastewater by CAS, MBR, and MBBR: A Comparative Study from Technical, Economic, and Environmental Perspectives." *Water*.
12. Holkar, C. R., et al. (2018). "A review on the textile wastewater treatments: Methods, technologies, and current status." *Applied Water Science*.
13. Jain, R., et al. (2020). "Physicochemical methods for the treatment of textile wastewater: an overview." *Environmental Science and Pollution Research*

ASSESSMENT OF CHANGES IN THE QUANTITY AND QUALITY INDICATORS OF WATER RESOURCES IN THE AMU DARYA AND SYR DARYA RIVER BASINS UNDER CLIMATE CHANGE CONDITIONS

Gapporov Khairillo Lutpillaevich[1], Kulmatov Rashid Anorovich[2]
[1]Independent researcher, Ph.D. , [2]Professor of the National University of Uzbekistan, Ds.

Abstract. Currently, as a result of climate change and anthropogenic factors, depletion and pollution of water resources have become one of the main environmental problems. This paper is designed to ascertain the volume and quality of water resources within the Uzbekistan territory of the Amu Darya and Syr Darya, assesments of the concentration of heavy metals in the river water, evaluate the mineralization and quantity of collector-drainage waters generated in this region, and comprehensively evaluate the primary factors contributing to the pollution of the river water.

In the Amu Darya and Syr Darya basins, the level of water supply to Uzbekistan during the vegetation period has decreased by an average factor of 1.03 in 2020–2024 compared to 2010–2014. For the inter-season vegetation periods, water supply has decreased by an average factor of 1.08 in 2020–2025 compared to 2010–2015.

The mineralization level of the Amu Darya water has increased from the middle to the lower reaches by a factor ranging from 1.34 to 1.90, while in the Syr Darya, it has increased from the upper to the middle reaches from 1.54 to 2.34.

In the Amu Darya, the average concentration of copper ions increased from 1.1 to 1.5 times, zinc ions from 1.1 to 7.3 times, and chromium (VI) from 1.1 to 1.8 times from the middle to the lower reaches. In the Syr Darya, copper ion concentration increased from 1.4 to 2.6 times, zinc ions from 1.7 to 7.1 times, and chromium (VI) from 1.1 to 2.3 times from the upper to the middle reaches.

In the collectors of the Amu Darya basin, the total volume of collector-drainage waters ranges from 6.01 to 9.2 km^3 per year, with mineralization levels between 1.33 and 6.17 g/L. The amount of salts formed annually varies from an average of 19.0 million tons to 27.8 million tons. In the collectors of the Syr Darya basin, the total annual volume of collector-drainage waters ranges from 11.4 to 16.5 km^3, with mineralization levels from 0.62 to 4.31 g/L. The annual amount of salts formed ranges from an average of 12.6 million tons to 20.1 million tons.

Key words: *Amu Darya, Syr Darya, heavy metals, collector- drainage waters, mineralization, quality changes..*

Annotasiya. Bugungi kunda jahonda iqlim o‘zgarishlari va antropogen omillar ta’siri natijasida mavjud suv resurslarining kamayishi va ifloslanishi asosiy global ekologik muammolardan biriga aylandi.

Ushbu makola Amudaryo va Sirdaryoning O‘zbekiston qismidagi suv resurslarining miqdori, sifati va daryo suvi tarkibidagi og‘ir metallar miqdori, mazkur hududda hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi va miqdorini aniqlash hamda daryo suvi ifloslanishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillarni baholashga bag‘ishlangan.

Amudaryo va Sirdaryo havzasida vegetasiya davri uchun 2010-2014 yillarga nisbatan 2020-2024 yillarga kelib, O‘zbekistonni suv bilan ta’minlanish darajasi o‘rtacha 1,03 barobarga kamaygan bo‘lsa, vegetasiya davrlari oralig‘i mavsumi uchun 2010-2015 yillarga nisbatan, 2020-2025 yillarga kelib, suv bilan ta’minlanish darajasi o‘rtacha 1,08 barobarga kamaygan.

Amudaryo suvining minerallashuv darajasi o‘rta qismidan quyi qismiga qadar 1,34 barobardan 1,90 barobargacha ortib borgan bo‘lsa, Sirdaryoning yuqori qismidan, o‘rta qismiga qadar 1,54 barobardan 2,34 barobargacha ortgan.

Amudaryoning o‘rta qismidan quyi qismiga qadar mis ioni miqdorining o‘rtacha qiymati 1,1 barobardan 1,5 barobargacha, rux ioni miqdori 1,1 barobardan 7,3 barobargacha, xrom (VI) miqdori 1,1 barobardan 1,8 barobargacha ortgan, Sirdaryoning yuqori qismidan o‘rta qismiga qadar mis ioni miqdorining o‘rtacha qiymati 1,4 barobardan 2,6 barobargacha, rux ioni miqdori 1,7 barobardan 7,1 barobargacha, xrom (VI) miqdori 1,1 barobardan 2,3 barobargacha ortib borgan.

Amudaryo havzasi kollektorlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining umumiy miqdori yiliga 6,01-9,2 km3, minerallashuvi 1,33-6,17 g/l ni tashkil kilib, hosil bo‘layotgan tuz miqdori yillik o‘rtacha 19,0 mln. tonnadan 27,8 mln. tonnagacha o‘zgarib turgan. Sirdaryo havzasi kollektorlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining umumiy miqdori yiliga 11,4-16,5 km3, minerallashuvi 0,62-4,31 g/l ni tashkil kilib, hosil bo‘layotgan tuz miqdori yillik o‘rtacha 12,6 mln. tonnadan 20,1 mln. tonnagacha o‘zgarib turgan.

Kalit so‘zlar: Amudaryo, Sirdaryo, og‘ir metallar, kollektor-zovur suvlari, minerallashuv, sifat o‘zgarishlari, miqdor o‘zgarishlari, baholash.

Аннотация. В настоящее время сокращение и загрязнение имеющихся водных ресурсов под воздействием глобальных климатических изменений и антропогенных факторов превратилось в одну из основных мировых экологических проблем.

Данная статья посвящена определению количества и качества водных ресурсов в узбекской части Амударьи и Сырдарьи, содержанию тяжёлых металлов в речной воде, уровню минерализации и объёму коллекторно-дренажных вод, формирующихся в данном регионе, а также оценке основных факторов, вызывающих загрязнение речной воды.

В вегетационный период уровень обеспеченности Узбекистана водой в бассейнах Амударьи и Сырдарьи в 2020–2024 годах по сравнению с 2010–2014 годами уменьшился в среднем в 1,03 раза, а в межвегетационный сезон обеспеченность водой в 2020–2025 годах по сравнению с 2010–2015 годами снизилась в среднем в 1,08 раза.

Уровень минерализации воды Амударьи от среднего течения к нижнему течению увеличился от 1,34 до 1,90 раза, тогда как в Сырдарье — от верхнего течения к среднему течению — рост составил от 1,54 до 2,34 раза.

От среднего течения Амударьи к её нижнему течению средние показатели содержания ионов меди увеличились от 1,1 до 1,5 раза, содержания ионов цинка — от 1,1 до 7,3 раза, а концентрация хрома (VI) — от 1,1 до 1,8 раза. От верхнего течения Сырдарьи к её среднему течению средняя концентрация ионов меди возросла от 1,4 до 2,6 раза,

содержание ионов цинка — от 1,7 до 7,1 раза, а концентрация хрома (VI) — от 1,1 до 2,3 раза.

Общий объём коллекторно-дренажных вод, формирующихся в бассейна Амударьи, составляет 6,01–9,2 км³ в год, их минерализация — 1,33–6,17 г/л, а годовое количество образующихся солей изменяется в среднем от 19,0 млн тонн до 27,8 млн тонн. В коллекторах бассейна Сырдарьи общий объём формирующихся коллекторно-дренажных вод составляет 11,4–16,5 км³ в год, их минерализация — 0,62–4,31 г/л, а годовой объём образующихся солей варьируется в среднем от 12,6 млн тонн до 20,1 млн тонн.

Ключевые слова: *Амударья, Сырдарья, тяжёлые металлы, коллекторно-дренажные воды, минерализация, изменения качества, изменения количества, оценка.*

INTRODUCTION

Global climate change, population growth, the expansion of economic sectors, and their increasing annual demand for water have led to a growing shortage of water resources. Preventing the pollution and scarcity of water resources and ensuring their rational and efficient use has become one of the most urgent issues of today.

It is known that the Aral sea basin (ASB) includes five Central Asian countries, Uzbekistan, Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan, and Turkmenistan, covering a total area of 3,882,000 km², with an irrigated land area of 7.95 million hectares [1,2]. The water resources of ASB countries mainly consist of those in the Amu Darya and Syr Darya river basins, with an average multi-year surface water volume of 126 km³ and an additional 14.7 km³ of groundwater reserves [3–6].

Water scarcity and the degradation of water and land resources are observed in all ASB countries, negatively impacting the sustainable development of these nations [7–9]. Due to climate change, rising air temperatures are increasing evaporation rates in river basins, and in high-altitude areas, the accelerated melting of snow and glaciers is further reducing available water resources [10–13].

In the ASB countries, the agricultural sector accounts for the majority of water consumption, followed by industrial and municipal water use [14,15].

From irrigated lands across the ASB, an estimated 55.0–60.0 million tons of salts are discharged annually into collector-drainage networks, contributing to the pollution of water resources. The salt composition includes high levels of calcium bicarbonate, calcium, magnesium, sodium sulfate, and sodium chloride [16–18].

The impact of agricultural activities on the quality of the Amu Darya and Syr Darya water resources has been studied. It has been established that the main cause of negative effects is the continuous use of mineral fertilizers and pesticides in agriculture. As water flows from the upper to lower reaches of the rivers, increases in mineralization and concentrations of various substances in the water have been observed [19–26].

Assessments have been conducted on the quantity and quality of collector-drainage waters in the Syr Darya basin, the impact of agricultural activities on water quality, soil salinization in irrigated areas, the hydroecological condition of the Syr Darya delta, and the concentrations of heavy metals in the Syr Darya River [19].

Due to the discharge of collector-drainage waters formed after agricultural irrigation, along with insufficiently treated industrial and domestic wastewater into the rivers, the mineralization level of water resources, as well as the concentrations of heavy metals and other pollutants, has increased and this process continues to this day [27–31].

Several studies have been carried out to analyze the level of river water pollution in various regions of Uzbekistan. Within the territory of Uzbekistan, the concentrations of heavy metals such as Hg, Cr, Cd, Co, U, Zn, Sc, Fe, Br, Au, and Sm in the Amu Darya and Syr Darya rivers have

been studied using neutron activation and radionuclide methods. In river waters, heavy metals are found in the form of cationic, anionic colloidal, and neutral compounds. For most of the metals studied, the neutral and colloidal forms accounted for approximately 40% [29].

Alongside the pollution of the Syr Darya river, elevated concentrations of nitrates, salts, and heavy metals have also been identified in its waters. The average concentration of copper consistently exceeded the permissible limits [32].

In the Small Aral Sea and the downstream Syr Darya river, the concentrations of several metals, including rare earth elements, have been examined. High levels of Al, As, Cd, Pb, and U were detected. Meanwhile, concentrations of B, Ba, Cr, Cu, Se, and Ni in the river water were found to be below the standards set by the World Health Organization [33].

Research has also been conducted to develop improved methods for accurately estimating water consumption in irrigated oases of Central Asia using remote sensing technologies [34].

The influence of irrigation practices on the volume of water resources in Central Asia has been studied, including an analysis of the spatial dynamics of water resources across the region from climate and water sources to agricultural fields. This research utilized satellite data from GRACE(FO) to measure changes in terrestrial water storage (TWS), as well as MODIS-derived data on snow cover [35].

The aim of this research is to evaluate the changes in the quantity and quality of water resources in the Uzbekistan sections of the Amu Darya and Syr Darya, two main rivers of the ASB countries. It also seeks to assess the spatiotemporal dynamics of heavy metal concentrations in river water, determine the mineralization and volume of collector-drainage waters generated in this region, identify the main factors contributing to river water pollution, and provide recommendations for the protection of these water resources.

RESEARCH OBJECT AND METHODS

The object of the study is the territory of Uzbekistan, specifically the middle and lower reaches of the Amu Darya (*Figure 1a*) and the middle reaches of the Syr Darya (*Figure 1b*) rivers .




5. Урожайность хлопчатника на капельном орошении в контроле составила 27,2 ц/га и по мере увеличения пред поливные влажности от 70 до 80% от НВ отмечается повышение урожайности на 2,2-6,8 ц/га, когда как на посевах дискретного орошения она составляла 1,1-3,0 ц/га.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. О мерах по дальнейшему ускорению организации внедрения водосберегающих технологий в сельском хозяйстве, Документы 11 декабря 202013438 Постановление Президента Республики Узбекистан. // Экономическое обозрение №4 (232) 2019

2. Бамбурова Jl. С. Интенсификация производства томатов в открытом грунте (Обзорная информация). М., 1986. - 56 с.

3. Капельное орошение (Пособие к СНиП 2.06.03-85 «Мелиоративные системы и сооружения»). М.: Союзводпроект, 1986. - 149 с.

4. Кравцова Г.М., Павлов Ф.И., Мустафаев Т.М. Капельный полив//Ж. Картофель и овощи. 1985. -№ 1.

5. Нестерова Г. С., Зонн И. С. Вейцман Е. А. Капельное орошение. -М.: ВНИИИТЭИСХ, 1973. С. 38-50.

6. Ходяков Е.А. Режим капельного орошения сельскохозяйственных культур при капельном и внутрипочвенном способах полива. Монография//ВГСХА. Волгогра, 2002. - 144 с.

7. Доспехов Б. А. Методика полевого опыта. - М: Колос, 1979. -416 с.

8. Лактаев Н. Т. Полив хлопчатника. – М.: Колос, 1978, 176 с.

9. Комилов Ф.К., Пулатов Я.Э. Влагообеспеченность и густота стояния посевов кукурузы при капельном орошении в условиях Центрального Таджикистана // Доклады ТАСХН. -Душанбе, 2012. -№4. -С.45-50.

10. Пулатов Я.Э. Капельное орошение тонковолокнистого хлопчатника с использованием пленочной мульчи в условиях Центрального Таджикистана Материалы Республиканской научной конференции (13-14 декабря 2002). -
Душанбе 2002. –С.75-77.

INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MAQSADLARIDA SUV RESURSLARINI MATEMATIK STATISTIKA USULIDA BAHOLASH

Muradov Shuhrat Odilovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, t.f.d., professor
To‘rayev Ulug‘bek Murtazoyevich
Qarshi davlat texnika universiteti, t.f.f.d., (PhD)
Mengliqulova Munisa Ergash qizi
Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich magistranti
Inoyatov Ikrom Shaxrilloyevich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
Анарбеков Ойтуре Бердибекович
КАРИТАС Швейцария лойихасиниг катта техник маслахатчиси

Annotatsiya: Pachkamar gidropostining ko‘p yillik gidrologik ma’lumotlari asosida matematik statistika usullaridan foydangan holda tahlil amalga oshirildi, daryo oqimining hudud va vaqtda barqarorligi hamda o‘zgaruvchanligini tavsiflovchi kompleks gidrologik model yaratildi. Ekstremal holatlarning o‘zgaruvchanligi, ehtimollik tavsiflari va ta’minlanganlik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi, vaqt qatorlarining bir xilligi Romanovskiy mezoni orqali tasdiqlandi. Foster–Ribkin taqsimot ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan modul koeffitsientlarning hisobiy qiymatlari nazariy ehtimollik taqsimotlari qonunlari bilan yuqori darajada mos kelishi aniqlanib, kuzatuvlarning sifati va prognoz modellarini tuzishda ishonchliligi asoslab berildi. Mavsumiy dinamikani tahlil qilish natijasida bahor–yoz davrida oqimning keskin oshishi, kuz–qish mavsumida esa minimal qiymatlarga qaytishi aniqlandi, bu esa havzaning iqlim omillariga yuqori sezgirligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqilgan statistik model suv resurslarini uzoq muddatli boshqarish, ekstremal gidrologik vaziyatlarni prognozlash, ta’minlanganlik darajalarini asoslash

hamda sug‘oriladigan hududlarda suv taqsimoti strategiyalarini optimallashtirish uchun ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Olingan natijalar Pachkamar gidroposti ma’lumotlarining amaliy va nazariy ahamiyatini tasdiqlaydi hamda ularni suv resurslarini integrallashgan boshqarish shakily loyihalarini ishlab chiqishda muhim axborot manbai sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Pachkamar gidroposti, matematik statistika, tavsifli sarflarni hisoblash, suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish.

Annotation: Based on long-term hydrological data from the Pachkamar Hydrological Station, a comprehensive analysis was performed using methods of mathematical statistics, resulting in the development of an integrated hydrological model that characterizes the spatial and temporal stability and variability of river discharge. Variation and probabilistic characteristics of extreme states, as well as reliability indicators, were calculated, while the homogeneity of the time series was confirmed using the Romanovsky criterion. The calculated modular coefficients obtained from the Foster–Ribkin distribution parameters demonstrated a high degree of consistency with theoretical probability distribution laws, which substantiates the high quality and reliability of observations for developing predictive models. The analysis of seasonal dynamics revealed a sharp rise in discharge during the spring–summer period and a return to minimum values in autumn–winter, indicating the high sensitivity of the basin to climatic factors. The developed statistical model provides a scientific and methodological basis for long-term water resources management, forecasting extreme hydrological events, determining reliability (supply) levels, and optimizing water allocation strategies in irrigated areas. The results confirm both the practical and theoretical significance of the hydrological data from the Pachkamar Hydrological Station and allow their consideration as an important information source for designing integrated water resources management schemes.

Keywords: Pachkamar Hydrological Station, mathematical statistics, characteristic discharge calculation, integrated water resources management.

Аннотация: На основе многолетних гидрологических данных гидропоста Пачкамар выполнен анализ с применением методов математической статистики, получена комплексная гидрологическая модель, характеризующая пространственно-временную устойчивость и изменчивость речного стока. Рассчитана вариация, вероятностные характеристики экстремальных состояний и показатели обеспеченности, однородность временных рядов подтверждена критерием Романовского. Расчётные модульные коэффициенты, полученные по показателям распределения Фостера–Рибкина, продемонстрировали высокую степень согласованности с теоретическими законами распределения вероятностей, что обосновывает высокое качество наблюдений и их надёжность для построения прогностических моделей. Анализ сезонной динамики показал резкое увеличение стока в весенне-летний период и возвращение к минимальным значениям в осенне-зимний сезон, что указывает на высокую чувствительность бассейна к климатическим факторам. Разработанная статистическая модель формирует научно-методическую основу для долгосрочного управления водными ресурсами, прогноза экстремальных гидрологических ситуаций, обоснования уровней обеспеченности, а также оптимизации стратегий распределения воды на орошаемых территориях. Полученные результаты подтверждают, как практическую, так и теоретическую значимость данных гидропоста Пачкамар и позволяют рассматривать их в качестве важного информационного источника для разработки схем интегрированного управления водными ресурсами.

Ключевые слова: гидропост Пачкамар, математическая статистика, расчет характерных расходов, интегрированное управление водными ресурсами.

KIRISH

Suv resurslari har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik omil bo‘lib, ularni boshqarish, taqsimlash va muhofaza qilish jarayonlari ilmiy asoslangan qarorlarni talab etadi. Hozirgi davrda iqlim o‘zgarishi, global isish, aholining ko‘payishi, sanoat va qishloq xo‘jaligining kengayishi sharoitida suv tanqisligi masalasi yanada keskinlashib bormoqda. Bunday vaziyatda suv resurslarini integrallashgan boshqarish tamoyillariga asoslangan yondashuv, gidrologik kuzatuvlarning aniqligi va ilmiy tahlillarning ishonchliligini oshirish nihoyatda dolzarbdir. Tog‘oldi mintaqalardagi Pachkamar gidroposti, daryo havzasining gidrologik rejimini aniqlashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi [1].

O‘zbekiston suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha mustahkam normativ-huquqiy asosga ega. O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi (2025-yil) [13] mamlakatdagi barcha suv resurslarini davlat mulki ekanini belgilab, ularni boshqarishning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslarini aniq belgilab berdi. Kodeksda har bir daryo havzasida suvni hisobga olishning aniq metodologiyalari joriy etilishi, gidropostlar faoliyati to‘liq raqamlashtirilishi va suv taqsimoti jarayoni shaffof bo‘lishi ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan [13]. Bundan tashqari, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi [14], “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunlari, PF-4947-sonli Harakatlar strategiyasi, shuningdek suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyalari suv resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, suv ehtiyojini prognozlash, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish va gidromonitoringni mustahkamlashga qaratilgan [15]. 2025-yilda O‘zbekiston Prezidenti ekologiya va suv barqarorligi sohasi bo’yicha nutqida suv resurslarini boshqarish masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidlab: “Iqlim o‘zgarishi sharoitida suv har bir hududimizning eng muhim strategik boyligiga aylanmoqda. Har bir tomchi suv hisobda bo‘lishi, har bir hudud suvdan oqilona foydalanishi shart. Buning garovi — aniq gidrologik ma’lumotlar va ilmiy asoslangan boshqaruvdir”dedi. Shuningdek, davlat rahbari suv inshootlarini modernizatsiya qilish, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish va gidrologik monitoringni raqamlashtirishning ahamiyatini alohida qayd etib: “Biz suvni isrof qilmasligimiz va ilmiy yondashuv asosida boshqarishimiz — kelajak avlodlar oldidagi eng muhim burchimizdir” deya ta’kidladilar.

Bu yondashuv suv xo‘jaligi tizimida ilmiy tadqiqotlar, gidrologik hisob-kitoblar va gidropostlar faoliyatining ahamiyatini yanada oshiradi [6]. Ayniqsa Pachkamar gidroposti kabi yirik kuzatuv punktlari suv oqimining yillik va mavsumiy o‘zgaruvchanligini tahlil qilish, suv taqsimoti rejimini shakllantirish va havza bo‘yicha integrallashgan boshqaruvni takomillashtirishda asosiy manba hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi — Pachkamar gidroposti gidrologik ma’lumotlari asosida suv resurslarining mavjudligi, ularning ko‘p yillik o‘zgarish tendensiyalari, ekstremal holatlar va suvdan integrallashgan foydalanish imkoniyatlarini baholashdir [1]. Ushbu ilmiy natijalar suv xo‘jaligi amaliyoti, havzaviy boshqaruv organlari, ekologik tahlil markazlari va boshqa mutaxassislar faoliyatida muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, matematik statistika ehtimollar nazariyasining instrumenti hisoblanadi va tabiiy suv resuruslarini tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Quruqlik gidrilogiyasida hodisalar va jarayonlar ko‘p hollarda bir qancha omillarga bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Masalan yillik oqim shu davr davomidagi yog‘ingarchilik miqdoriga,alohida fasllar bo‘yicha yog‘in miqdoriga, havoning haroratiga, bug‘lanishiga va hokozalarga bog‘liq bo‘ladi *[$Y = f((X_y, (X_{qish}, t_0$ t....)]. Bu omillarning har biri o‘z navbatida,bir qator omillar ta’siri bilan aniqlanadi.Gidrologiyada statistik qonuniyatlarni tadbiq etish, gidrologik rejim tavsiflarini (Q_{max}, Q_{min}, $Q_{o‘rt}$, X, ...) tasodifiy miqdorlar yig‘indisi deb qarashga asoslangan [1].*

Ehtimollik nazariyasining cheklangan teoremalari, gidrologik qatorlarning tasodifiy miqdorlar yig‘indisi hisoblanadi.Bu teoremalarning asosiy holati katta sonlar qonuniga bog‘liq

bo‘lib, bir xil hodisalar ko‘p qaytarilganda, ularning o‘rtacha qiymati umuman tasodifiy bo‘lmay qoladi va yetarlicha aniqlik bilan prognoz qilish imkoni tug‘iladi [2].

Tabiiy hodisalardagi qonuniyatlarni o‘rganish va yoritishda matematik statistika usullaridan foydalaniladi.Ehtimollar nazariyasining xulosalari, albatta, uzoq davom etadigan ba‘zi kuzatishlar,daryoning ma’lum oqim tezligining paydo bo‘lish ehtimoloni aniqlash mumkin, ma’lum vaqt oralig‘ida va shu ma’noda ushbu xulosalar biz uchun foydali bo‘lib chiqadi.

Biroq, meteorologik va gidrologik kuzatuvlar ketma-ketligini har qanday o‘rganishda, ularga matematik statistika usullarini qo‘llashdan oldin, hodisaning fizik mohiyatini o‘rganish, mavjud sabablar va omillari bilan bo‘liq holda uning mexanizmini yoritib berish kerak, bu ta’sir ostida ma’lum hodisa yuzaga keladi va shakllanadi [2].

Tadqiqotda tayanch gidropost sifatida O‘radaryoning Pachkamar gidropostini tanlangan. *Taqsimlanishning asosiy parametrlariga qatorning o‘rtacha miqdori, o‘zgaruvchanlik va simmetriyalik tavsiflari ham kiradi. Oqimning o‘rtacha qiymat quyidagicha hisoblangan*:

$$X_0 = \frac{\sum_1^n X_i}{n} \quad \text{yoki} \quad Q_0 = \frac{\sum_1^n Q_i}{n} \quad \text{yoki} \quad W_0 = \frac{\sum_1^n W_i}{n} \qquad (1)$$

Bu yerda:

X_0 – *o‘rtacha qiymat;*

X_i – *yillik o‘rtacha qiymat;*

Q_o – *suv sarfining me’yori;*

W_o – *oqim me’yori;*

Q_i – *o‘rtacha yillik suv sarfi;*

n –*qatorlar soni.*

Statistik qatorning o‘zgaruvchanligi turlicha tavsiflar bilan baholanadi. Ulardan eng oddiysi amplituda ko‘rinishida:

$$\mathbf{A=X_{max}-X_{min}}\ , \qquad (2)$$

Bu yerda: A – statistik qatorning o‘zgaruvchanligi, X_{max} – qatordagi maksimal qiymat, X_{min} – qatordagi minimal qiymat

Gidrologik tavsiflarning ta’minlanganligi, ularning boshqa har qanday miqdorlaridan oshib ketish ehtimolidir. Agar gidrologik miqdorlar qatori (Q_i) kamayib borish tartibida joylashtirilsa, ta’minlanish ehtimoli (P %) quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi .

$$P = \frac{m}{n} * 100\%; \quad P = \frac{m}{n-1} * 100\%; \quad P = \frac{m-0,3}{n+0,4} * 100\% \qquad (3)$$

Bu yerda: P– taminlanish koeffitsienti;

m – qatorning kamayib borish tartibidagi raqami (1,2,3,., n);

n – qatorlarning umumiy soni.

$P = \frac{m}{n-1} * 100\%$ formulasi maksimal suv sarflarining empirik ta’minlanganligini hisoblash uchun S.N.Kriskiy va M.F.Menkel tomonidan ishlab chiqilgan.

$P = \frac{m-0,3}{n+0,4} * 100\%$ formulasi o‘rtacha yillik suv sarflarining empirik ta’minlanganligini hisoblash uchun N.N.Chegodayev tomonidan tavsiya qilingan.

$P = \frac{m}{n} * 100\%$. *Kuzatuv yillari qatorlari soni ko‘p bo‘lganda ushbu formuladan foydalaniladi (n> 70) [1].*

O‘radaryoning Pachkamar gidropost ma’lumotlari bo‘yicha suv resuruslarining ehtimolligi hisoblari keltirilgan.

O‘zgaruvchanlik darajasini belgilovchi sifatida o‘rtacha kvadratli farqdan foydalaniladi va ushbu ifoda bilan aniqlanadi. O‘rtacha kvadratli farqning o‘rtacha arifmetik miqdorga nisbati o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (variatsiya), deb ataladi.

X_i/X_0 (yoki X_i/X_{max}) qiymatni "K" (modul koeffitsiyenti) bilan almashtirganda, o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti quyidagi formula bilan hisoblangan:

$$C_v = \sqrt{\frac{\sum_1^n (k-1)^2}{n}} = \sqrt{30.03}/96 = 0{,}56 \qquad \textbf{(4)}$$

Bu yerda: *K– modul koeffitsienti*
Cv–o‘zgaruvchanlik koeffitsienti
Wmax–maksimal suv sarfi

Variatsiya koeffitsiyentining xatoligi quyidagi formula orqali topilgan:

$$\varsigma C_v = \pm\sqrt{\frac{1+C_v^2}{2n}} * 100\% = \sqrt{\frac{1+0.56^2}{2*96}} * 100\% = 8{,}2\ \% \qquad \textbf{(5)}$$

Ushbu hisobdan ko‘rinadiki, C_v ning xatoligi talab darajasida, chunki xatolik foizi 10 dan oshmagan.

C_v xatoligini tekshirish me’yorlari:

C_v= 0,2-0,3 = 20 %
C_v= 0,4-0,8 = 10 % (6)
C_v > 0,8 = 5 %

Romanovskiy bo‘yicha o‘rtacha kvadratik chetlashish (yoyilish) n>30 bo‘lsa, maxrajda n bo‘ladi, n<30 bo‘lsa, maxrajda (n-1) bo‘ladi. Shuni inobatga olib, quyidagi formuladan foydalandik:

$$\varsigma = \sqrt{\frac{\sum_1^n W_i^2 - W_0^2}{n}} \ \textbf{(6)}\text{, yoki } \varsigma = \frac{100}{\sqrt{n}}\sqrt{\frac{\sum_1^n (k-1)^2}{n}} = \frac{100}{\sqrt{96}} * \sqrt{30.03}/96 = 5.7 \qquad \textbf{(7)}$$

Qatorning simmetriyasi quyidagi assimetriya koeffitsiyenti formulasi asosida hisoblanadi:

$$C_s = \frac{\sum_1^n (W_i - W_0)^3}{n\varsigma} \qquad \textbf{(8)}$$

yoki o‘lchovsiz qator uchun:

$$C_s = \frac{\sum_1^n (k-1)^3}{n\varsigma} \qquad \textbf{(9)}, \qquad C_s = \frac{\sum_1^n (k-1)^3}{n * C_v^3} = 31.11/96 * 0.56^3 = 1{,}84 \qquad \textbf{(10)}$$

Assimetriya koeffitsiyentining xatoligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi:

$$C_s = \pm\frac{1}{C_s}\sqrt{\frac{6}{n}(1 + 6C_v^2 + 5C_v^4)} * 100\% = \frac{1}{1{,}84} * \sqrt{6}/96(1 + 6 * 0.56^2 + 5 * 0.56^4) * 100\% =$$

21,6 % **(11)**

Ma’lumki, aniq C_s ni hisoblash uchun qatorlar soni (n) 100 dan oshishi talab etiladi. Aks holda C_s ni ko‘p hollarda C_v ga nisbatan qabul qilinadi:

$$\frac{C_s}{C_v} = 0{,}5;\ 1{,}0;\ 2{,}0;\ 3{,}0;\ 4{,}0;\ 5{,}0 \qquad \textbf{(12)}$$

Yuqoridagilarga asoslanib nazariy ta’minlangan egri chizig‘ining asosiy parametrlari (X_0,C_v, C_s) aniqlandi.

A.Foster 1923-yili ta’minlanganlik egri chizig‘i ordinatalarining jadvalini tuzishga muvaffaq bo‘lgan, buning uchun C_v va C_s qiymatlaridan foydalaniladi. Foster tuzgan jadvalga keyinchalik S.I.Ribkin aniqlik kiritgan va bu jadval Foster-Ribkin jadvali, deb ataladi [2] .


Bevosita kuzatish ma’lumotlari asosida hisoblangan o‘zgaruvchanlik koeffitsiyenti (C_v =0.56) ni *Interpolyatsiya usulida* $C_s$ni= X **C_v,** (1; 1,5; 2; 2,5; 3; 3,5; 4.) nisbatlari uchun modul koeffitsiyenti (**K**) miqdorlarni aniqlandi. Ushbu Foster-Ribkin jadvalidan foydalangan holda ta’minlanganlik nazariy egri chizig‘i empirik egri chizig‘i bilan taqqoslangan. Amaliy ko‘rsatkichlar nazariy egri chiziqlar bilan taqqoslandi. (1-rasm).

Tanlangan (C_s=3C_v) nazariy egri chiziqdan P=50, 75, 85, 95 % ga teng modul koeffitsiyentlar aniqlangan. Har bir oqimni xarakterli taminlanishga nisbatan aniqlangan nazariy

egri chiziq modul koeffitsiyentni amaliy oqim meyoriga ko‘paytirib tegishli suv oqimini aniqlangan.

$$W_p=K_i \cdot W_0 \quad \textbf{(13)}$$

Bu yerda K_i – qabul qilingan nazariy egri chiziqdan olingan modul koeffitsiyent qiymatlari.



1-rasm. Nazariy va amaliy egri chiziqlar ($C_s=3C_v$)

Natijada, ko‘p yillik ma’lumotlarga asoslanib, har bir hisoblangan suv sarflariga Q_p yaqin kelgan jadval o‘rtacha yilning suv sarfi aniqlangan va yillardagi o‘rtacha oylik suv sarflari olingan hamda har bir oy uchun quyidagi formula yordamida oqim hajmi hisoblangan [1] (1-jadval):

$$W=Q_{o‘rtacha\ oylik}*T \quad \textbf{(14)}$$

Bu yerda T – bir oydagi sekundlar soni.

1-jadval

Yer usti suv resurslarining ehtimolligi

Ko‘rsatkichlar	Ta’minlanish, P %			
	50	**75**	**85**	**95**
K_i	0,871	0,68	0,495	0,355
$W_x=K_i*W_0$ mln/m^3	143,1053	111,724	81,3285	58,3265
Qp=W/T, T=31,5*10^6	4,54	3,55	2,58	1,85


Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tanlab olingan tayanch gidroposti ko‘p yillik gidrologik ma’lumotlarining oqim hisobining ishonchliligi yuqori bo‘lib, bu ta’minlanganlikning nazariy va amaliy egri chiziqlarida ko‘rinib turibdi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, tumanda suv resurslarini integrallashgan holda boshqarishni amalga oshirish mumkin [5].

2-jadval

Yer usti suvlari hajmining oylar bo‘yicha taqsimlanishi

Ko‘rsat kichlar	O‘lchov birligi	Yillik hajmi	Oylar											
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
T	s	31,5	2,64	2,42	2,67	2,59	2,67	2,59	2,67	2,67	2,67	2,59	2,59	2,67
Q=50% 1970-yil	m^3/s	4,55	5,39	4,00	5,32	14,04	4,75	3,73	3,32	2,96	2,25	2,13	3,04	3,67
W/50%	mln/m^3		14,23	9,67	14,21	36,35	12,68	9,67	8,87	7,91	6,02	5,51	7,87	9,81
Q=75% 1995-yil	$м^3/с$	3,54	3,68	4,57	5,61	7,28	6,10	2,43	1,64	1,19	1,76	2,86	2,21	3,14
W/75%	mln/m^3		9,71	11,07	14,97	18,85	16,29	6,30	4,38	3,18	4,69	7,40	5,72	8,38
Q=85% 1974-yil	m^3/s	2,57	2,89	2,97	3,70	6,62	3,91	2,70	1,23	0,90	0,90	1,40	1,77	1,89
W/85%	mln/m^3		7,64	7,18	9,87	17,14	10,44	6,99	3,27	2,40	2,40	3,63	4,59	5,04
Q=95% 2000-yil	m^3/s	1,79	1,28	2,50	2,69	2,58	3,07	1,69	0,81	0,62	0,83	1,49	1,73	2,21
W/95%	mln/m^3		3,39	6,05	7,18	6,68	8,18	4,38	2,17	1,65	2,22	3,86	4,48	5,89

Hisoblangan ma’lumotlarga asosan, oqimning umumlashgan gistogrammasi tuzilgan (2-rasm).



2-rasm. Daryo oqimining umumlashgan gistogrammasi

XULOSA

Pachkamar gidropostida yig‘ilgan ko‘p yillik gidrologik kuzatuvlar qatori matematik statistika usullari asosida tahlil qilinishi, ushbu hududning suv resurslari rejimini chuqur o‘rganish, mavjud gidrologik jarayonlarning qonuniyatlarini aniqlash hamda suv resurslarini barqaror boshqarish bo‘yicha ilmiy asoslarni shakllantirish imkonini berdi. Tadqiqot davomida suv sarflari qatorining statistik barqarorligi, mavsumiy dinamikasi, yillik oqimning o‘zgaruvchanlik darajasi,

ta’minlanganlik ehtimollari, ekstremal holatlar va ularning ehtimollik taqsimotlari puxta o‘rganilib, oqimning statistik modeli ishlab chiqildi [1]. Uzoq muddatli variatsion tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, yillik suv sarflarining o‘zgarishi tasodifiy tebranishlar bilan birga, hududning fizik-geografik sharoitlari bilan bog‘liq barqaror va tizimli qonuniyatlarga ega. O‘rtacha yillik suv sarfi mintaqaning gidrologik rejimini tavsiflovchi asosiy integral ko‘rsatkich bo‘lib, daryo oqimining umumiy sig‘imi, qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash darajasi va gidromeliorativ tadbirlarning samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Variatsiya koeffitsiyenti (C_v) oqimning o‘zgaruvchanlik darajasini aniqlashda asosiy mezon bo‘ldi. C_v qiymatlarining nisbatan yuqoriligi daryo oqimining iqlimiy omillarga sezgirligini, suv sarflarining yillik farqi keskin ekanini ko‘rsatdi. Romanovskiy mezonlari bo‘yicha amalga oshirilgan tahlil, kuzatuv qatorlarining statistik barqarorligini tasdiqladi, bu esa Pachkamar gidroposti ma’lumotlaridan prognozlash va matematik modellashtirish jarayonlarida ishonchli foydalanish mumkinligini anglatadi [6].

Foster–Ribkin jadvali asosida ta’minlanganlik darajalari bo‘yicha modul koeffitsiyentlarning aniqlanishi, oqimning ekstremal qiymatlarini baholash imkonini berdi. 50 %, 75 %, 85 % va 95 % ta’minlanganlik darajalari bo‘yicha olingan suv sarfi qiymatlarining amaliy egri chiziqlar bilan yuqori darajada mos kelishi, kuzatuv ma’lumotlarining aniqligi va nazariy taqsimotga yaqinligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, 75–85 % ta’minlanganlik oralig‘idagi aniq natijalar sug‘oriladigan hududlar uchun suv taqsimlash rejalarini takomillashtirishda alohida ahamiyatga ega.Oylik va mavsumiy taqsimot tahlili bahor-yoz davrida suv sarflarining sezilarli darajada ko‘payishi, kuz-qish davrida esa minimal qiymatlarga tushishini ko‘rsatdi. Ushbu mavsumiylik tog‘ mintaqalaridagi qor va muzliklarning erishi, yog‘inlar taqsimoti, harorat va bug‘lanish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Suv sarflarining bunday mavsumiy tebranishi suv omborlaridan foydalanish, suv zahiralarini shakllantirish va mavsumiy suv tanqisligini yumshatish bo‘yicha boshqaruv qarorlarining ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.Tadqiqot jarayonida qurilgan oqim gistogrammasi gidrologik rejimning barqarorligi va taqsimot xususiyatlarini vizual tasdiqladi.

Gistogramma aprel oyiga to‘g‘ri keladigan aniq ifodalangan bahorgi toshqin maksimumini hamda uzoq davom etadigan yoz–kuz kam suv davrini ko‘rsatadi. Oqimni miqdori yilning suvligiga sezilarli darajada bog‘liq: suvi kam bo‘lgan yillarda (W/85–95%) oqim hajmlari 30–70% gacha kamayadi, ayniqsa bahorning asosiy davrida. Barqaror suv boshqaruvini ta’minlash uchun bahorgi suvlarni jamlash va kam suv mavsumida suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish zarur.

Bu esa suv toshqinlari va qurg‘oqchilik yillaridagi ekstremal holatlarni matematik modellashtirish orqali oldindan baholash imkoniyatini kengaytiradi.

Olingan natijalar Pachkamar gidroposti bo‘yicha mavjud kuzatuvlar ilmiy jihatdan yuqori aniqlikka ega ekanini ko‘rsatdi. Ushbu ma’lumotlar suv resurslarini integrallashgan boshqarish tizimini joriy etish uchun zarur bo‘lgan asosiy gidrologik parametrlarga aniqlik kiritadi. Suv ta’minotining ehtimollik bo‘yicha baholanishi, statistik taqsimotning ishonchli aniqlanishi hamda oqimning barqaror va beqaror davrlarining belgilanishi, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish, meliorativ tizimlarni optimallashtirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, ushbu natijalar hududda suv tanqisligi xavfining kelajakdagi ehtimolini baholash, suv resurslarini uzoq muddatli prognozlash va strategik boshqaruv bo‘yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Pachkamar gidropostida olib borilayotgan kuzatuvlar tizimining yetarlicha aniqligi, gidrologik modellashtirish va suv xo‘jaligi rejalashtirish ishlarida yuqori ishonchlilikni ta’minlaydi. Umuman olganda, matematik statistika usullari asosida olib borilgan mazkur gidrologik tahlillar, Pachkamar gidroposti ma’lumotlarining ilmiy qiymati yuqori ekanini, ular suv resurslarini miqdoriy va sifat jihatdan baholash, ekstremal holatlarni prognozlash, ta’minlanganlik darajalarini aniqlash va suv

resurslarini optimal boshqarish bo‘yicha muhim, barqaror va keng qamrovli ilmiy manba ekanini to‘liq tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muradov Sh.O., To‘rayev U.M. Suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish (Qashqadaryo viloyati misolida). Monografiya. Qarshi. “ILM-FAN -MA’NAVIYAT” nashriyoti, 2025. 159 bet.
2. Сирлибоева З.С. Гидрологик ҳисоблашлар. – Тошкент 2001. – 115 б.
3. Джалалов А.А. Экологические аспекты управления водными ресурсами на реках – механизмы лимитирования и регулирования // Интегрированное управление водными ресурсами. Часть 2. НИЦ МКВК. – Ташкент. 2001. – С. 4-18.
4. Мурадов Ш.О. Научное обоснование водоустойчивости аридных территорий юга Узбекистана. Монография. – Ташкент: Фан, 2012. – 376 с.
5. Мурадов Ш.О., Тўраев У.М. Саноат корхоналари ва қишлоқ хўжалигида сув ресурсларидан мукаммал фойдаланиш ва муҳофаза қилиш – ичимлик суви муаммосини ечишдир // “Экология хабарномаси” журнали. – Тошкент. 2018, № 6. – Б. 20-22.
6. Мурадов Ш.О., Тураев У.М., Турдиева Ф.А., Раджабова Д.А., Тураева Б.Б. Маркетинг и менеджмент экологических проблем аридных территорий в период изменения климата // Теория и практика экономики гражданской защиты на страже безопасности жизнедеятельности современного общества. Материалы III Международной научно-практической конференции. – Москва, 2023. – С. 259-265.
7. Чуб В.Е. Водные ресурсы бассейна реки Кашкадарьи. Актуальные проблемы обеспечения водоустойчивости // Материалы республиканской научно-технической и методической конференции. – Карши, 2010. – С. 16-21.
8. Шикломанов И.А. Развитие орошения в мире и его влияние на водный баланс // Современные проблемы гидрологии орошаемых земель. Ч. 1. – М.: МГУ, 1981. – С. 3-15.
9. Юнусов Г.Х., Трофимов Г.Н. Оценка основных характеристик стока рек бассейна Кашкадарьи в современных условиях // Фан-техника тараққиёти ва география: илмий-амалий анжуман материаллари. – Самарқанд, 2007. – Б. 53-55.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6024-son Farmoni.
11. Муравская М.Л. Правовые аспекты интегрированного управления водными ресурсами на основе бассейнового принципа // Журнал зарубежного законодательства и сравнительного правоведения. NOTA BENE (ООО "НБ-Медиа") (2013) 4, С. 726-731.
12. Свинцов И.П. Рациональное природопользование в аридных регионах России // Мелиорация и водное хозяйство. – М., 2005. №1. – С. 3-6.
13. O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi. – Toshkent, 2025
14. “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020 (oxirgi o‘zgartirishlar bilan).
15. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. PF–4947-son Farmon, 2017-yil 7-fevral.

COMPREHENSIVE ASSESSMENT OF THE ECOLOGICAL IMPACT OF GROUNDWATER LEVEL MANAGEMENT IN FERGANA REGION AND A SUSTAINABLE LAND-WATER SYSTEM MODEL

Samiev Lukmon Naimovich
Prof., department of Hydraulics and hydroinformatics, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Faculty of Hydromelioration,
Akromov Jamoliddin Ikromjon ugli
PhD student, Research Institute of Environment and Nature Conservation Technologies
Jalilova Khumora Abdumumin kizi
PhD student, department of Hydraulics and hydroinformatics, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers – National Research University, Faculty of Hydromelioration

Abstract. This study is devoted to a comprehensive assessment of the dynamics of groundwater level and its impact on agro-ecological systems in the case of Fergana region. Within the framework of the study, data from monitoring wells, land reclamation statistics, Sentinel-2 NDVI data, Landsat-8 LST (Land Surface Temperature) and soil salinity maps were analyzed in an integrated manner for the period 2014–2023. Based on GIS and remote sensing technologies, a map of ecological risk zones related to groundwater level and the spatial distribution of land degradation intensity were developed.

The results showed a sharp increase in salinity, plant stress and land degradation processes in areas with groundwater levels shallower than 1.5 m. A negative correlation was found between the depth of groundwater and NDVI, confirming that shallow groundwater layers have a negative impact on plant vegetation. In the ecological risk maps compiled based on GIS, it was found that high and very high degradation zones are mainly located in irrigated lowland areas.

Also, the reconstruction of drainage systems and the introduction of water-saving irrigation technologies were evaluated as effective measures to stabilize groundwater levels, improve the physical and chemical state of the soil, and restore plant cover. The results of the study create a scientific and practical basis for sustainable management of land and water resources in the Fergana region and the rehabilitation of degraded areas.

Keywords: groundwater, land degradation, Fergana region, NDVI, GIS analysis, soil salinity, water resources management, agroecology, remote sensing

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot Farg'ona viloyati misolida yer osti suvlari sathining dinamikasi va uning agroekologik tizimlarga ta'sirini kompleks baholashga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida 2014–2023 yillar uchun monitoring quduqlaridan olingan ma'lumotlar, yerlarning meliorativ holati statistikasi, Sentinel-2 NDVI ma'lumotlari, Landsat-8 LST (Yer yuzasi harorati) va tuproq sho'rlanish xaritalari kompleks tahlil qilindi. GIS va masofadan zondlash texnologiyalari asosida yer osti suvlari sathi va yerlarning degradatsiyasi intensivligining fazoviy taqsimlanishi bilan bog'liq ekologik xavf zonalari xaritasi ishlab chiqildi.

Natijalar yer osti suvlari sathi 1,5 m dan kam bo'lgan hududlarda sho'rlanish, o'simliklar stressi va yerlarning degradatsiyasi jarayonlarining keskin oshganligini ko'rsatdi. Yer osti suvlari chuqurligi va NDVI o'rtasida salbiy korrelyatsiya aniqlandi, bu esa sayoz yer osti qatlamlari o'simliklariga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. GIS asosida tuzilgan ekologik xavf xaritalarida yuqori va juda yuqori degradatsiya zonalari asosan sug'oriladigan pasttekislik hududlarida joylashganligi aniqlandi.

Shuningdek, drenaj tizimlarini rekonstruksiya qilish va suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish yer osti suvlari sathini barqarorlashtirish, tuproqning fizik-kimyoviy holatini yaxshilash va o'simlik qoplamini tiklash bo'yicha samarali choralar sifatida baholandi. Tadqiqot natijalari Farg'ona viloyatida yer va suv resurslarini barqaror boshqarish va degradatsiyaga uchragan hududlarni tiklash uchun ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, yer degradatsiyasi, Farg'ona viloyati, NDVI, GIS tahlili, tuproq sho'rlanishi, suv resurslarini boshqarish, agroekologiya, masofaviy zondlash

Аннотация. Данное исследование посвящено комплексной оценке динамики уровня грунтовых вод и его влияния на агроэкологические системы на примере Ферганской области. В рамках исследования были комплексно проанализированы данные мониторинговых скважин, статистика мелиорации, данные Sentinel-2 NDVI, данные Landsat-8 LST (температура поверхности земли) и карты засоления почв за период 2014–2023 годов. На основе ГИС и технологий дистанционного зондирования была составлена карта зон экологического риска, связанная с уровнем грунтовых вод и пространственным распределением интенсивности деградации земель.

Результаты показали резкое увеличение засоленности, стресса растений и процессов деградации земель на территориях с уровнем грунтовых вод менее 1,5 м. Была обнаружена отрицательная корреляция между глубиной залегания грунтовых вод и NDVI, что подтверждает негативное влияние неглубокого залегания грунтовых вод на растительный покров. На картах экологического риска, составленных на основе ГИС, установлено, что зоны высокой и очень высокой деградации преимущественно расположены на орошаемых равнинных территориях. Также реконструкция дренажных систем и внедрение водосберегающих технологий орошения были оценены как эффективные меры по стабилизации уровня грунтовых вод, улучшению физико-химического состояния почв и восстановлению растительного покрова. Результаты исследования создают научно-практическую основу для устойчивого управления земельными и водными ресурсами в Ферганской области и реабилитации деградированных территорий.

Ключевые слова: грунтовые воды, деградация земель, Ферганская область, NDVI, ГИС-анализ, засоление почв, управление водными ресурсами, агроэкология, дистанционное зондирование

INTRODUCTION

The level of ground water and its changes are one of the most sensitive and decisive factors of the ecological stability of areas located in arid and semi-arid zones. The Central Asian region, including the territory of Uzbekistan, is characterized by a socio-economic system based on irrigated agriculture, and any changes in the groundwater regime in this region directly affect land resources, agricultural productivity, soil quality and the general ecological state. In recent decades, as a result of global climate change, overuse of water resources, aging and mismanagement of irrigation systems, environmental problems related to ground water have become more acute. In particular, the rise in groundwater levels and the increase in their mineralization in the plains of Central Asia are leading to increased soil salinity, reduced crop yields, and landscape degradation.

Anthropogenic pressure on groundwater is increasing year by year as the area of irrigated land in Central Asia expands. In particular, the groundwater regime is being disrupted as a result of the construction of large hydraulic structures regulating river flows, violations of irrigation standards, and insufficient development of drainage systems. The ecological disasters in the Amu Darya and Syrdarya basins, which were previously studied as classic examples of the region, including the Aral Sea disaster, clearly demonstrated the importance of groundwater management problems. Researchers such as Qosimov et al. 2018, Micklin et al. 2014, and Karimov et al. 2020 have systematically analyzed the impact of groundwater level changes on climate and land

resources in Central Asia and emphasized the need to consider this problem as a global environmental threat.

The Fergana Valley is one of the most densely populated and intensively irrigated regions of Central Asia, and its natural and geographical conditions are very sensitive in terms of ecological stability. The closed relief system of the valley, the presence of alluvial-deposit plains, and the limited water discharge in the lower reaches make the runoff regime very sensitive. The runoff level in this area is often in the range of 1–3 meters, which is considered a dangerous zone for the agroecosystem. In most irrigated areas of the Fergana region, soil salinization is activated due to the approach of runoff to the surface, and fertility is sharply decreasing. Tursunov et al. 2017 and Dukhovny et al. 2015, who studied soil degradation issues in Uzbekistan, identified the Fergana Valley as one of the highest risk zones.

Although intensive irrigation systems were initially introduced as a means of increasing productivity, in the long term they have caused many secondary environmental problems. In particular, due to the excessive supply of water, the technical inadequacy of collector-drainage systems, and poor monitoring of groundwater content, the groundwater level rises and the soil structure begins to deteriorate. As a result of this process, salts rise to the surface through capillary rise and a highly mineralized environment appears in the root zone of crops. As noted in the studies of Gelashvili et al. 2019 and Rakhimov et al. 2021, salinity levels have sharply increased in areas where the groundwater level does not fall below 2 meters in the Fergana Valley, and this is also clearly reflected in vegetation indices.

This approach allows us to present groundwater management not only as a land reclamation issue, but also as an integrated system that ensures ecological stability. In this regard, this study offers a new, comprehensive and systematic approach to the problem of runoff water in the conditions of Central Asia and is of significant scientific and practical importance for densely irrigated regions such as Fergana region.

Natural conditions. Fergana region is located in the eastern part of the Republic of Uzbekistan, in the southeastern part of the Fergana Valley, and its total area is approximately 6.8 thousand km^2. The region borders the Republic of Kyrgyzstan to the north, Andijan and Namangan regions to the west and south, and some areas of Tashkent region to the southeast. Geographically, the region belongs to the Syrdarya basin, and its relief is mainly composed of plains and alluvial-delta deposits. The central part of the region consists of lowlands located close to rivers and irrigation systems, while the eastern and southeastern parts have hilly areas and foothill zones. These geomorphological features play an important role in the formation of the runoff regime.

The climate of the Fergana region is sharply continental, with hot and dry summers and relatively mild and short winters. The average annual air temperature is around 13–14 °C, in July the average temperature rises to 27–30 °C, and in some years it reaches 40–43 °C. The average temperature in January ranges from –2 °C to +3 °C. The annual precipitation averages 150–200 mm in the plains of the region, and 250–350 mm in the foothills. The bulk of the precipitation falls in the spring and autumn months, while natural precipitation is very low during the growing season, and agriculture relies entirely on irrigation. Therefore, anthropogenic water impact becomes one of the main factors in the formation of runoff.

The distribution of groundwater in the region is uneven, mainly in the central and western parts of the valley, namely in the Margilan, Fergana, Kuva, Toshlok and Oltiariq districts, the level is observed very close to the surface. In the foothill and foothill zones, the groundwater level is relatively deeper (4–6 meters). The territorial distribution of groundwater levels is conditionally systematized below.




Figure 1. Study area. Spatial distribution of land degradation intensity

The map of the study area systematically reflects the geographical location of the Fergana region and the main hydrogeological features related to runoff. The map composition clearly defines the boundaries of the region, the main irrigated areas are represented by green colors, and areas with high runoff levels are represented by light blue gradients. Also, the directions of runoff distribution, sources of nutrition (irrigation networks, foothill infiltration zones) and ecological hazard areas are indicated by separate symbols.

METHODOLOGY

This study used a comprehensive, multi-source, and integrated methodological approach to assess groundwater levels and their environmental impacts in Fergana region. The methodology combines field observations, statistical data analysis, remote sensing technologies, and GIS-based spatial modeling. This approach allows for the identification of complex relationships between groundwater levels and environmental indicators and the scientific assessment of regional differences.

Remote sensing data formed the third important information base of the study. To assess the ecological state of vegetation, NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) was calculated based on Sentinel-2 satellite images. Multispectral channels with a spatial resolution of 10 meters were used to calculate the NDVI index, and images of the 2018–2023 growing season were analyzed. This index was used as the main indicator to determine the level of plant stress and degradation in areas with high groundwater levels.

As a methodological basis for the study, a conceptual and statistical model was developed to assess the cause-and-effect relationships between groundwater levels and ecological indicators. This model allows for a quantitative and qualitative assessment of the impact of groundwater level management on the natural environment.

The main idea of the model is based on the analysis of the interaction of the ecological components associated with it, taking the groundwater level as the main factor. The first main link was established between the groundwater level and soil salinity. In this case, the mechanism of salt accumulation in the upper soil layer as a result of the capillary rise of groundwater located near the surface was systematically analyzed. This link was assessed using a regression model and correlation analysis.

This methodology allows for the assessment of the problem of groundwater not only as a reclamation issue, but as a complex ecological system and serves as a reliable scientific platform for the development of sustainable land and water management strategies in the Fergana region.

RESULTS

Groundwater level dynamics. Analysis of data from monitoring wells in the study area for the period 2014–2023 showed that the groundwater level in Fergana region is unstable and changes

based on seasonal and annual cycles. The average groundwater level fluctuated from 1.7 to 2.4 meters during the observation period, with a sharp increase in groundwater levels observed, especially in years with increased irrigation intensity. As a result of the hydrological optimum conditions observed in 2017 and 2020, it was found that the groundwater level decreased by an average of 1.6 meters during periods of high water supply, while in 2021–2023, the level decreased relatively and stabilized around 2.2–2.5 meters against the background of water resource shortages and heat waves.

The analysis within the vegetation period showed that from April to July, due to intensive irrigation, the groundwater level rises sharply and falls to an average of 1.5–1.8 meters. Starting from August–September, as a result of reduced water supply and high evaporation rates, the groundwater level begins to slowly decrease. The deepest levels usually fall in February–March, when the level averages 2.4–2.8 meters.

According to the results of the territorial analysis, it was determined that areas with a groundwater level below 2 meters account for approximately 38–41 percent of the irrigated land of the region. This zone was assessed as an ecologically hazardous area, since at this level the process of soil salinization is significantly activated. Especially in the low-lying parts of the Toshlok, Kuva, Oltiariq, and Margilan districts, areas with water levels around 1.2–1.8 meters occupy a large area and pose a serious threat to the stability of the agroecosystem.




Figure 2. Interannual dynamics of groundwater level (2014-2023)

This graph reflects the multi-year changes in the groundwater level in Fergana region for the period 2014–2023. The graph shows the mean, minimum and maximum levels separately, allowing to assess the long-term trend of the groundwater regime. According to the results, during the study period, the groundwater level gradually deepened, that is, the level decreased from about 1.6 m to 2.4 m. This is mainly due to the partial reconstruction of drainage systems, the introduction of water-saving technologies in irrigation, and the optimization of water consumption.

The difference between the minimum and maximum values indicates that the groundwater level in the region is subject to significant fluctuations under the influence of climatic and anthropogenic factors. In some years, as a result of increased irrigation intensity in the spring-summer season, the groundwater level has approached the surface, increasing the ecological risk. The results show that long-term monitoring of groundwater levels serves as an important scientific basis for sustainable land resource management.

Ecological impact assessment. The impact of groundwater levels on ecological components was assessed based on soil salinity, vegetation status, biomass density, and landscape degradation

indicators. As a result of the analyses, the ecological situation by groundwater levels was summarized in the following zonal description.




Figure 3. Seasonal variation of groundwater level during vegetation period

This graph shows the seasonal changes in the groundwater level in the Fergana region from March to October. The graph shows that the groundwater level rises sharply in April to July and reaches its lowest values (approximately 1.5–1.7 m) in June to July. This is explained by the intensive use of irrigation water during the growing season and the infiltration of water through the soil into the groundwater layer. In August to October, the groundwater level decreases relatively and returns to the range of 2.2–2.5 m. This is due to the decrease in the water supply regime and the active processes of evaporation and transpiration. Taking into account this seasonal dynamics is important in predicting the ecological risks associated with groundwater. In particular, levels between 1.5–2.0 m are a major factor increasing the risk of salinization, plant stress, and secondary degradation. In the experimental areas, it was found that in areas with groundwater levels of 1.5 meters and above, the soil electrical conductivity increased on average to 2.5–3.8 dS/m, and vegetation indices were recorded in the range of 0.32–0.41 on average. On the contrary, in areas with groundwater levels of 3 meters and deeper, the electrical conductivity was observed at the level of 1.2–1.7 dS/m, and the NDVI was in the range of 0.55–0.68. This indicates a significant inverse proportional relationship between groundwater levels and plant development.

This diagram shows the statistical relationship between groundwater depth and NDVI (Normalized Difference Vegetation Index). According to the results, NDVI values show a tendency to decrease as the groundwater depth deepens. This is explained by the level of water supply to plants and the soil moisture regime.

At groundwater depths between 1.0–1.5 m, water saturation in plants was high, and in some places even supraoptimal conditions were created, but this also increased the risk of salinization. At depths deeper than 2.5–3.0 m, plants experienced moisture deficiency and a decrease in the vegetation index was observed. This relationship confirms the need for an agroecological approach to groundwater management, not just a hydrological one.

Also, in areas with high groundwater levels, the biological activity of the soil decreased by an average of 30–40%, and a slowdown in microbiological processes was noted. In these areas, the deterioration of root zone aeration and limited oxygen exchange are considered the main reasons.

4.3. Risk zones based on GIS

As a result of GIS spatial analysis, ecological risk zones related to groundwater levels were identified in the Fergana region and divided into three main categories: high risk zone, medium risk zone, and relatively stable zone. High risk zones are located in the irrigated lowlands of the central and western parts of the region, with a total area of approximately 120 thousand hectares.

Degradation zones are mainly formed in areas where the groundwater level is less than 2 m and drainage networks are not sufficiently active. In these areas, soil salinization, erosion of vegetation cover and microrelief degradation are significant, and a decrease in vegetation indices was detected through spatial analysis. Based on these risk zones, an ecological stability map was developed, which can be used as a key visual and analytical tool in formulating sustainable management strategies.

As part of the study, measures for the restoration and reconstruction of existing drainage systems were modeled. According to the results, it was found that the optimized location of drainage collectors at an average interval of every 400–600 meters allows reducing the level of soil salinity by 0.7–1.1 meters. This can provide a 28–35% reduction in soil salinity during one growing season.

The impact of water-saving irrigation technologies. The modeling results of drip irrigation technology have shown that, compared to traditional flow irrigation, infiltration losses in the soil are reduced by 40–50% and the seasonal rise in the groundwater level is sharply reduced. As a result, the groundwater level can decrease by 0.6–0.9 meters.

Very high degradation zones are mainly located in the southeastern regions, where groundwater is located in the shallow layer and salinity levels are high. Moderate degradation zones cover areas that have been partially reclaimed but are not yet fully stabilized. Low degradation zones reflect relatively healthy ecological areas. This map serves as an important visual and analytical basis for developing regional planning and ecological rehabilitation strategies.

An average increase of 0.12–0.18 units in the NDVI index was observed in areas where drip irrigation was introduced, which indicates an increase in biomass production by 20–25%. At the same time, water use efficiency increased by 1.5–2 times, and the water balance was stabilized.

Positive infraecological changes. As a result of the implementation of management measures, a softening of the microclimate in the region was also noted. The surface temperature in intensively saline areas decreased by 1.8–2.4 °C, and the soil moisture regime stabilized. As a result of the restoration of vegetation cover, wind erosion decreased and the intensity of dust emission decreased.

This study was aimed at a comprehensive assessment of the dynamics of the runoff water level and its impact on agroecological systems in the conditions of the Fergana region. The results clearly show that regional and seasonal changes in the depth of groundwater are one of the main hydroecological factors activating land degradation processes. It was found that the average groundwater level decreased from 1.6 m to 2.4 m between 2014 and 2023, which was confirmed by the partial reconstruction of drainage systems and the introduction of water-saving irrigation technologies. At the same time, in some areas with high irrigation intensity, the groundwater level is still shallower than 1.5 m, which poses an ecological risk. It was found that the groundwater level undergoes significant seasonal fluctuations during the growing season: in the spring-summer months, the level rises, increasing the risk of salinization and plant stress, and in the fall, it relatively decreases. These results indicate the need to adapt the irrigation regime to the phases of vegetation and optimize water distribution. The negative correlation between NDVI and groundwater levels confirmed that as groundwater levels become shallower, plants become stressed and vegetation intensity decreases. In particular, it was found that groundwater layers shallower than 1.5 m create physiologically unfavorable conditions for plants, reduce productivity, and lead to a decrease in biomass.

The results of the management measures showed that the reconstruction of drainage systems is the most effective tool for reducing runoff levels. At the same time, drip irrigation technology increases the efficiency of water resource use, prevents runoff from rising, and improves plant

health. As a result of the widespread introduction of these technologies, significant positive changes were noted in NDVI and biomass indicators.

CONCLUSION

This study was aimed at a comprehensive analysis of the level of groundwater and its impact on agro-ecological systems in the conditions of the Fergana region and formed important scientific conclusions for the sustainable management of land and water resources. The results of the study confirmed that the dynamics of groundwater directly affect not only hydrogeological processes, but also soil degradation, the state of vegetation cover, land fertility and overall agro-ecological stability.

Multi-year analyses conducted on the basis of data from 2014 to 2023 showed that seasonal and annual changes in groundwater levels are closely related to intensive irrigation, the technical condition of drainage systems and climatic factors. It was found that in some irrigated areas, the shallow location of groundwater levels below 1.5 m leads to increased soil salinity, the release of salts into the root zone as a result of capillary rise, and, as a result, to stress of crops. This is manifested in a decrease in crop yields, a decrease in biological activity, and a deterioration in soil structural properties. Environmental risk and degradation maps compiled using remote sensing data and GIS technologies made it possible to identify spatial differences within the region. The study found that the most ecologically dangerous zones mainly correspond to irrigated lowland areas, where soil salinization, a decrease in the vegetation index, and high LST indicators are observed. Such areas pose a real threat to agro-ecological sustainability in the long term and can lead to a decrease in agricultural production potential.

The study assessed the modernization of drainage systems and the introduction of water-saving irrigation technologies as effective measures to regulate the level of runoff. While the reconstruction of drainage systems allowed to lower the groundwater level by an average of 0.7–1.0 m, drip irrigation not only reduced water consumption, but also increased the vegetation activity of plants, providing positive changes in NDVI and biomass indicators. This once again confirms the need for the widespread introduction of innovative irrigation technologies for the rational use of water resources and maintaining the stability of agroecosystems.

REFERENCES

1. Hassan, S. M., & Abdelhady, A. A. (2018). Groundwater rise and soil salinization in irrigated arid lands. *Agricultural Water Management*, 201, 42–53.
2. Qureshi, A. S., McCornick, P. G., Sarwar, A., & Sharma, B. R. (2010). Challenges and prospects of sustainable groundwater management in the Indus Basin. *Irrigation and Drainage*, 59(5), 533–547.
3. Li, Z., et al. (2019). Groundwater dynamics and vegetation response in arid agricultural regions. *Journal of Hydrology*, 573, 798–810.
4. Forkutsa, I., et al. (2009). Modeling of groundwater dynamics and soil salinity in irrigated lands of Central Asia. *Agricultural Water Management*, 96(3), 551–559.
5. Samiev, L., Qurbanov, H., Xusanova, J., Djalilov, S., Jalilova, K. (2023). Development of technology for reuse of collector trench waters. *E3S Web of Conferences*, 365, 03031.
6. Arifjanov, A., Kaletova, T., Abduraimova, D., Samiev, L., Jalilova, K. (2022). Evaluation of the hydraulic efficiency of the sprinkler irrigation system. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 1112(1), 012131.
7. Khamidov, M., et al. (2015). Irrigation management and salinity control practices in Uzbekistan. *Irrigation Science*, 33, 43–56.
8. Zhao, W., et al. (2020). Monitoring groundwater–vegetation interactions using satellite data. *IEEE Journal of Selected Topics in Applied Earth Observations and Remote Sensing*, 13, 5072–5084.

9. Aybek, A., Luqmon, S., Abduraimova, D., Jalilova, K**.** (2025). Selecting an effective sprinkler irrigation system spacing: Based on isodensity contour mapping, Voronoi-like connection and hotspot clustering models. *Water Conservation and Management*, 9(3), 446–454.
10. Arifjanov, A., Samiev, L., Abduraimova, D., Jalilova, K. (2024). Sustainable green development: Water-saving irrigation technologies. *E3S Web of Conferences*, 574, 05002.
11. Shiklomanov, I., & Rodda, J. C. **(**2003). *World Water Resources at the Beginning of the 21st Century*. Cambridge University Press.
12. Tilstra, J., et al. **(2019**). Land degradation assessment using NDVI and LST indicators. *Environmental Monitoring and Assessment*, 191(4), 236.
13. Mirzabaev, A., et al. (2016). Economics of land degradation in Central Asia. *Land Degradation & Development*, 27(2), 457–470.
14. Chen, Y. N., et al. (2010). Response of vegetation to groundwater variations under arid climate. *Journal of Arid Environments*, 74(12), 1583–1593.
15. Ghassemi, F., Jakeman, A. J., & Nix, H. A. **(1995**). *Salinisation of Land and Water Resources*. UNSW Press.
16. Samiev, L., Jalilova, K., Jalilov, S., Xusanova, J., Mamatova, D. (2023). Draft sprinkler irrigation system design development. *E3S Web of Conferences*, 365, 03024.

CHIRCHIQ DARYOSI SUVINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI ASOSIDA EKOLOGIK HOLATINI BAHOLASH

Xo‘jamova Intizor Mahmadamin qizi
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti
Toshturdiyev Nurbek Nurali o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola Chirchiq daryosining ekologik holatini G‘azalkent stvori bo‘yicha 2013–2021-yillar va so‘nggi yillik suv sifati ma’lumotlari asosida baholaydi. Tadqiqot davomida suvning asosiy ko‘rsatkichlari — erigan kislorod, BPK$_5$, XPK, shuningdek ammoniy, nitrit va nitrat azoti tahlil qilindi. Natijalar ayrim yillarda organik yuklama va azot birikmalar miqdorining oshganini, mavsumlar bo‘yicha esa ko‘rsatkichlarning sezilarli o‘zgarishini ko‘rsatadi. Erigan kislorodning barqaror darajada saqlanishi suvning o‘z-o‘zini tozalash jarayonlari davom etayotganini bildiradi. Tadqiqot shuningdek, suv sifati monitoringi va gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar asosida ekologik holatni baholashning ahamiyatini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Chirchiq daryosining G‘azalkent qismida ekologik holat o‘rta darajada baholandi va ifloslanishni kamaytirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi..

Kalit so‘zlar: Chirchiq daryosi, suv sifati, ekologik baholash, kislorod, BPK$_5$, XPK, azot birikmalari, suv ifloslanishi, gidrokimyoviy tahlil, monitoring.

Annotatsiya: V dannoy state otsenivayetsya ekologicheskoye sostoyaniye reki Chirchik na uchastke Gazalkentskiy stvor na osnove dannыx nablyudeniy za 2013–2021 godы i poslednix godovыx pokazateley kachestva vodы. V xode issledovaniya analizirovalis osnovnыe pokazateli vodы — rastvoryonnыy kislorod, BPK$_5$, XPK, a takje formы azota: ammoniy, nitrit i nitrat. Rezultatы pokazali, chto v nekotorыe godы uvelichivalas nagruzka organicheskix veщestv i soderjaniye soyedineniy azota, a v techeniye sezonov nablyudalis znachitelnыe kolebaniya pokazateley. Stabilnыy uroven rastvoryonnogo kisloroda svidetelstvuyet o prodoljayuщixsya protsessax samoochiщeniya vodы. Issledovaniye takje podchyorkivayet vajnost monitoringa kachestva vodы i gidroximicheskix pokazateley dlya otsenki ekologicheskogo sostoyaniya. V

selom ekologicheskoye sostoyaniye uchastka reki Chirchik v rayone Gazalkenta otsenivayetsya kak srednee, i danы rekomendatsii po snijeniyu zagryazneniya.

Klyuchevые slova: reka Chirchik, kachestvo vodы, ekologicheskaya otsenka, kislorod, BPK$_5$, XPK, soyedineniya azota, zagryazneniye vodы, gidroximicheskiy analiz, monitoring.

Abstract: This article assesses the ecological status of the Chirchiq River at the G‘azalkent gauging station based on 2013–2021 monitoring data and the most recent annual water quality measurements. The study focused on key water quality parameters — dissolved oxygen (DO), biochemical oxygen demand (BOD_5), chemical oxygen demand (COD), and nitrogen forms: ammonium, nitrite, and nitrate. The results indicated that in some years the organic load and nitrogen compounds increased, while seasonal variations showed significant fluctuations in these parameters. The stable level of dissolved oxygen reflects ongoing natural self-purification processes in the river. The study also highlights the importance of continuous water quality monitoring and hydrochemical analysis for evaluating the ecological condition. Overall, the ecological status of the Chirchiq River at the G‘azalkent section is assessed as moderate, and recommendations for reducing pollution are provided.

Keywords: Chirchiq River, water quality, ecological assessment, dissolved oxygen, BOD_5, COD, nitrogen compounds, water pollution, hydrochemical analysis, monitoring.

KIRISH

Chirchiq daryosi — O‘zbekiston shimoli-sharqiy qismida joylashgan, uning suvlari Sirdaryo havzasiga kiruvchi yirik o‘ng qirg‘oq irmoqlaridan biridir. So‘nggi tadqiqotlar bo‘yicha, uning suv havzasi va kimyoviy yuklamasi nafaqat tabiat — geologik jarayonlar natijasida, balki kuchli antropogen ta’sir ostida ham shakllanmoqda.

2024-yilda chop etilgan bir tadqiqotda, Chirchiq–Ohongaran havzalarida qazilgan va yuzaki suvlar kimyoviy tahlili asosida, daryo suvidagi ikki asosiy manba — geogen (tog‘ jinslarining eroziya va ob-havo yurishi) va antropogen (qishloq xo‘jaligi va sanoat chiqindilari) yuklama aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki: yuqori tog‘ segmentlaridan kelayotgan suvlar ko‘proq Ca–HCO_3 tipidagi erigan ionlarni o‘z ichiga olsa, quyi, tekisliklar orqali oqayotgan suvda Na^+, K^+, SO_4^{2-}, Cl^- va NO_3^- ionlarining miqdori sezilarli darajada oshadi — bu esa agro-kimyoviy, mineral göt-qaytish va sanitar/higiyena yuklamasining ko‘rsatkichidir [1]. Shu ma’noda, Chirchiq daryosi faqat tabiiy geologik jarayonlar ta’sirida emas, balki intensiv qishloq xo‘jaligi va mineral-tuzli eriyotgan yerlar bilan ham bog‘liq ifloslanish jarayonlarining qulay platformasiga aylanmoqda. Bundan tashqari, nafaqat kimyoviy tarkib, balki organik yuklama va umumiy suv sifati ko‘rsatkichlari ham daryo ekologik holatini aniqlashda muhim hisoblanadi. 2018-yilda e’lon qilingan tadqiqotda MAXAM-Chirchik korxonasi hududidan keyin Chirchiq daryosi bo‘yicha o‘tkazilgan monitoringda, ammoniy (NH_4^+), nitrit (NO_2^-), nitrat (NO_3^-) azotlari bilan birgalikda Biochemical Oxygen Demand (BOD) va Chemical Oxygen Demand (COD) ko‘rsatkichlari sanitariya-gigiyena normativlaridan oshgani qayd etilgan [2]. Bu holat daryo suvida organik va azotli ifloslanishning mavjudligini va inson hamda suv organizmlari salomatligi uchun potensial xavfni ochib beradi — ayniqsa, aytib o‘tish joizki, Bu ko‘rsatkichlar aquatik fauna, floraga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, suvning o‘z-o‘zini tozalash qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

Shuningdek, 2024-yilda o‘tkazilgan kimyoviy-gidrogeologik tahlillar natijasida, Chirchiq–Ahangaran havzasidagi suvda metal va iz elementlar (masalan, Zn, Mo, Sb, Pb, Ni, U, As, B) ham sezilarli konsentratsiyada aniqlanganligi qayd qilingan [1]. Bu — daryo suvining faqat makroionlar yoki oziqa moddalari bilan balki metal va toksik elementlar bilan ham ifloslanish ehtimolini ko‘rsatadi; shuning uchun suv sifati monitoringi keng ko‘lamli bo‘lishi zarur. Biroq mazkur tadqiqatlar (kimyoviy yuklama, erigan load tahlillari) bilan bir vaqtda, biologik monitoring ham o‘tkazilishi muhim: masalan, 2022–2023-yillarda daryo bo‘yida baliq fauna bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, faqat tabiiy — autoxton turlari emas, balki XX-asr ikkinchi yarmida

aklimatizatsiya qilingan invaziv turlar ham uchrayotganini ko‘rsatgan [3][4]. Bu holat daryo ekologiyasining jadal o‘zgarganligini, faunada ham stress va strukturaviy o‘zgartirishlar sodir bo‘layotganligini bildiradi. Shu bilan birga, biologik xilma-xillik kamayishi, ekotizimlarning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy manbalar — kimyoviy-gidrokimyoviy tahlillar, organik/azot yuklamasi monitoringi, iz elementlar analizi va biologik fauna kuzatuvlari — birgalikda Chirchiq daryosining kompleks ekologik bahosini berishga imkon beradi. Hozirgi tadqiqot esa aynan shu ilmiy materiallar asosida, 2013–2021-yillardagi doimiy monitoring ma’lumotlari hamda so‘nggi yillik suv sifati tahlillarini tahlil qilib, ekologik holatni baholash, trendlarni aniqlash va tavsiyalar berishga qaratilgan.

TADQIQOT USLUBLARI

Chirchiq daryosining gidrokimyoviy rejimi va yuzaki suv sifati O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati (Uzgidromet) tomonidan muntazam ravishda 9 ta kuzatuv stvoridan baholanadi [5]. Tadqiqot doirasida, suv sifati va ekologik holatini batafsil baholash maqsadida faqat bitta asosiy stvor — G‘azalkent tanlandi. Ushbu stvor daryo yuqori oqimi va pastki oqimlar o‘rtasidagi ekologik holatni aks ettirishga eng mos joy sifatida tanlangan bo‘lib, shahar, qishloq xo‘jaligi va sanoat chiqindilarining umumiy ta’sirini hisobga oladi [6].

Tanlangan stvorda suv sifati monitoringi quyidagi gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha amalga oshirildi: erigan kislorod (DO), biokimyoviy kislorod iste’moli (BPK_5), kimyoviy kislorod iste’moli (XPK), azot birikmalari — ammoniy (NH_4^+), nitrit (NO_2^-) va nitrat (NO_3^-). Har bir parametr bo‘yicha suvning ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya (PDK) me’yorlariga nisbatan baholash amalga oshirildi, natijada ayrim hollarda me’yor oshishi yoki oshmasligi aniqlangan. Shu orqali G‘azalkent stvori asosiy indikator sifatida daryo ekologik holatini aniqlash imkonini berdi.

Monitoring jarayonida suv namunalari muntazam ravishda olingan va laboratoriyada xalqaro standartlar bo‘yicha tahlil qilingan. Olingan natijalar gidrokimyoviy parametrlar bo‘yicha ekologik xavf darajasini aniqlash, antropogen yuklamaning suv sifati va daryo ekotizimiga ta’sirini baholash imkonini yaratdi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv kelajakda suv resurslarini barqaror boshqarish, suv sifati monitoringini rivojlantirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [5][6]. Ushbu me’yorlar suvning ekologik holatini baholashda asosiy gigiyenik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. XPK va BPK qiymatlarining oshishi suvda organik moddalar ko‘pligini, neft mahsulotlari hamda fenollarning me’yoridan yuqori bo‘lishi esa kimyoviy ifloslanishning kuchayganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ammoniyli, nitratli va nitritli azot shakllari konsentratsiyasi suvning biologik o‘zgaruvchanligi va undagi azot aylanishi jarayonlarining buzilgan-buzilmaganini baholash imkonini beradi. Misning me’yoriy chegaradan ortishi esa og‘ir metall bilan ifloslanishni bildiradi. Keltirilgan chegaraviy qiymatlar tadqiqot davomida olingan natijalarni solishtirish hamda suv sifatining sanitariya-gigiyena talablariga mosligini aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval

Suvning asosiy nazorat qilinadigan ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Me’yor (REM)
1	XPK (kimyoviy kislorod sarfi)	15 mg O_2/dm^3
2	BPK (biologik kislorod sarfi, 5 sutka)	3,0 mg O_2/dm^3
3	Neft mahsulotlari	0,05 mg/dm^3
4	Fenollar	0,001 mg/dm^3
5	Mis (Cu)	1,0 mkg/dm^3
6	Ammoniyli azot	0,39 mg/dm^3
7	Nitratli azot	9,1 mg/dm^3
8	Nitritli azot	0,02 mg/dm^3

G‘azalkent stvori tanlanishining asosiy sababi shundaki, u daryo suvining aholi, sanoat va qishloq xo‘jaligi faoliyatidan ta’sirlangan holatini to‘liq aks ettiradi. Shuningdek, bu stvor orqali suv sifati parametrlari vaqt bo‘yicha kuzatilib, PDK me’yorlaridan oshish holatlari aniqlanadi va ekologik holat tahlil qilinadi. Natijada daryo bo‘yicha ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.


Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Ushbu bo‘limda G‘azalkent stvori bo‘yicha 2013–2021 yillar orasida olingan gidrokimyoviy ma’lumotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida suvning asosiy sifat ko‘rsatkichlari — erigan kislorod, biokimyoviy kislorod iste’moli (BPK_5), kimyoviy kislorod iste’moli (XPK), azot birikmalari (ammoniy, nitrit, nitrat) — aniqlanib, ularning PDK me’yorlaridan oshgan yoki oshmaganligi baholandi. Natijalar olingan ma’lumotlar asosida daryo ekologik holatining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash, antropogen yuklamaning suv sifati va ekotizimga ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi [7]. Maqola davomida me’yoriy talablarga gidrokimyoviy ko‘rsatkichlar nisbatan baholandi va gidrokimyoviy holatning umumiy tavsifi berildi. Shu orqali suv sifati o‘zgarishining asosiy sabab va manbalari aniqlandi, ekologik xavf darajasi baholanadi hamda kelajakda suv resurslarini barqaror boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

2-jadval

Chirchiq daryosi (G‘azalkent stvori) suvining 2013–2021-yillardagi o‘rtacha gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari (mg/dm³)

Parametrlar	2013-y	2014-y	2015-y	2016-y	2017-y	2018-y	2019-y	2020-y	2021-y
Kislorod	9,62	9,52	9,53	9,58	9,45	9,43	9,56	9,63	9,50
Biokimyoviy kislorod iste’moli (BPK_5)	0,39	0,40	0,37	0,39	0,45	0,48	0,40	0,40	0,40
Kimyoviy kislorod iste’moli (XPK)	3,19	3,47	3,35	2,40	2,83	3,73	3,18	2,82	4,06
Azot ammoniy	0,01	0,04	0,02	0,02	0,02	0,04	0,02	0,03	0,02
Azot nitrit	0,003	0,002	0,005	0,001	0,003	0,005	0,008	0,005	0,006
Azot nitrat	0,51	0,47	0,46	0,84	0,73	0,40	0,41	0,51	2,01

Chirchiq daryosi (G‘azalkent stvori) suvining 2013–2021-yillardagi o‘rtacha gidrokimyoviy ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Erigan kislorod darajasi 9,43–9,63 mg/dm³ oralig‘ida bo‘lib, suvning kislorod bilan to‘yinish holati yuqori ekanligini ko‘rsatadi, bu esa daryo ekotizimi uchun qulay sharoit mavjudligini bildiradi [8].



1-rasm. 2013–2021-yillardagi Chirchiq daryosi (G‘azalkent stvori) suvi gidrokimyoviy parametrlarining o‘zgarishi

Biokimyoviy kislorod iste’moli (BPK_5) o‘rtacha 0,37–0,48 mg/dm³ ni tashkil qilgan bo‘lib, ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya (3,0 mg O_2/dm³) bilan solishtirganda sezilarli darajada pastdir. Shu bilan birga, kimyoviy kislorod iste’moli (XPK) 2,40–4,06 mg/dm³ oralig‘ida bo‘lib, PDK me’yori (15 mg O_2/dm³) bilan solishtirganda ham ancha pastdir. Bu natijalar suvning organik va kimyoviy ifloslanish darajasi minimal ekanligini va daryoning biologik barqarorligini tasdiqlaydi [8]. Azot birikmalariga kelsak, ammoniyli azot 0,01–0,04 mg/dm³, nitritli azot 0,001–0,008 mg/dm³, nitratli azot esa 0,40–2,01 mg/dm³ oralig‘ida o‘zgarib, ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya me’yorlaridan past bo‘ldi. Bu esa suvda qishloq xo‘jaligi yoki sanoat oqova suvlaridan keladigan azot ifloslanish xavfi mavjud emasligini ko‘rsatadi [9].

Shu bilan birga, barcha parametrlar bo‘yicha G‘azalkent stvori suv sifati ekologik jihatdan xavfsiz hisoblanadi. Erigan kislorodning yuqori darajasi, BPK_5 va XPK ko‘rsatkichlarining pastligi, shuningdek azot birikmalarining me’yoriy qiymatdan oshmasligi daryo ekologiyasining barqarorligini va suvning biologik va kimyoviy jihatdan toza ekanligini bildiradi. Bu natijalar asosida, kelajakda daryo suv sifati monitoringi davom ettirilishi, antropogen yuklamalar kamaytirilishi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim [8][9].

G‘azalkent stvori bo‘yicha 2021–2024-yillar orasidagi SII indeksi qiymatlari Chirchiq daryosining suv sifati va ekologik holatining vaqt bo‘yicha o‘zgarishini baholash imkonini beradi. Ushbu baholash davomida suv sifati sinfi aniqlanadi, SII indeksining kattaligi orqali suvdan foydalanish imkoniyati va ekologik xavf darajasi baholanadi. Keyingi qismda, har bir yil bo‘yicha SII qiymatlari va suv sifati tahlili keltiriladi.

4-jadval

Chirchiq daryosi (G‘azalkent stvori) SII indeksi, 2021–2024-yillar

Yil	Oylar											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
2021	1,3	1,4	1,5	1,3	1,3	1,1	1,3	0,6	1,3	1,9	3,1	3,9
2022	0,9	1,6	1,2	0,4	0,8	0,9	0,9	0,6	0,6	0,6	0,7	0,8
2023	1,1	0,8	0,8	1,4	1,7	1,3	0,8	0,5	0,31	0,6	0,5	0,4
2024	0,56	0,43	0,7	0,6	0,52	0,58	0,45	0,4	0,4	0,63	0,31	0,95

Chirchiq daryosining G‘azalkent stvori bo‘yicha 2021–2024-yillar davomida olingan SII indeksi natijalari suv sifati va ekologik holatning o‘zgarishini baholash imkonini beradi. Ushbu

davrda daryoda gidrokimyoviy parametrlar monitoringi asosida o‘rtacha SII qiymatlari hisoblandi va ularning suv sifati sinflariga mosligi aniqlanadi.

2021-yilda SII indeksi o‘rtacha 1,7 ga teng bo‘lib, bu III sinf – o‘rtacha ifloslangan suvga mos keladi [11]. Oylar bo‘yicha kuzatilgan o‘zgarishlar, yil boshida 1,1–1,5 oralig‘ida bo‘lgan indeksning yil oxiriga kelib 3,1–3,9 ga yetishi, suv sifatining IV sinfga yaqinlashganini ko‘rsatadi. Bu esa yil oxirida daryoga organik va nitrat ifloslanishining ortganligini bildiradi.

2022 va 2023-yillarda o‘rtacha SII qiymatlari mos ravishda 0,8 bo‘lib, II sinf – toza suv darajasiga mos keladi [11]. Shu yillarda suv sifati barqaror bo‘lib, ekologik holat yaxshilangan, antropogen yuklamalar kamaygan va qisqa muddatli ifloslanish cho‘qqilari kuzatilgan. Oylar bo‘yicha indekslar 0,31–1,7 oralig‘ida bo‘lib, daryo suvining ko‘pchilik oylarda ichimlik va sanoat maqsadlarida ishlatilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

2024-yilda o‘rtacha SII qiymati 0,55 bo‘lib, I–II sinf – juda toza yoki toza suv sinfiga yaqinlashadi [12].

Oylar bo‘yicha SII indeksi 0,31–0,95 oralig‘ida bo‘lib, daryoda organik va kimyoviy ifloslanish minimal ekanligini bildiradi. Shu tarzda, G‘azalkent stvori suv sifati barqaror va ekologik xavfsiz bo‘lganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, 2021–2024-yillar davomida G‘azalkent stvori suv sifati umumiy trend bo‘yicha yaxshilanishni ko‘rsatadi. 2021-yilda yil oxirida kuzatilgan o‘rtacha SII oshishi qisqa muddatli ifloslanishlar bilan izohlanadi, keyingi yillarda esa daryoda ekologik barqarorlik ta’minlangan. Shu natijalar daryo monitoringi va gidrokimyoviy kuzatuvlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Chirchiq daryosi G‘azalkent stvori bo‘yicha 2013–2024-yillar davomida olib borilgan gidrokimyoviy monitoring va SII indeksi tahlillari daryo suvining ekologik holati, ifloslanish darajasi va foydalanish imkoniyatini aniqlashga imkon berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 2013–2021-yillar davomida kislorod miqdori barqaror bo‘lib, BPK_5 va XPK ko‘rsatkichlari PDK me’yorlarida saqlangan. Ammoniy, nitrit va nitrat kabi azot birikmalari qiymatlari ko‘pchilik oylar bo‘yicha PDK chegarasida yoki undan past bo‘lib, suv sifati ekologik jihatdan xavfsizligini ta’minlagan. 2021–2024-yillar davomida SII indeksi natijalari suv sifati trendini aniq ko‘rsatdi. 2021-yilda o‘rtacha III sinf (o‘rtacha ifloslangan) darajasida bo‘lib, yil oxirida o‘sish kuzatilgan. 2022 va 2023-yillarda SII indeksi II sinf – toza suv sinfiga mos kelgan bo‘lsa, 2024-yilda o‘rtacha qiymat 0,55 ga teng bo‘lib, I–II sinf – juda toza yoki toza suv sinfiga yaqinlashdi. Bu natijalar daryo suvining ekologik barqarorligini va inson faoliyati ta’sirining kamayganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, suvdan ichimlik, sanoat va qishloq xo‘jaligi maqsadida foydalanish imkoniyati ortganligi aniqlanadi.

Tavsiyalar:

1. **Doimiy va keng qamrovli monitoringni takomillashtirish** – gidrokimyoviy parametrlar (kislorod, BPK_5, XPK, azot birikmalari) va SII indeksini muntazam kuzatish orqali suv sifati va ekologik holat o‘zgarishlarini tizimli baholash.
2. **Sanoat va qishloq xo‘jaligi oqova suvlarining ekologik nazoratini kuchaytirish** – chiqindi suvlarni tozalash tizimlarini modernizatsiya qilish va me’yorlarga mos ishlashini ta’minlash orqali daryoga kiradigan ifloslanishni kamaytirish.
3. **Qishloq xo‘jaligi faoliyatining ekologik barqarorligini oshirish** – mineral o‘g‘itlar va pestitsidlar miqdorini optimallashtirish, sug‘orish tizimini samarali boshqarish orqali azot birikmalari konsentratsiyasini kamaytirish.
4. **Suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik boshqaruvni joriy etish** – suv taqsimoti va daryo bo‘yidagi faoliyatni boshqarish orqali suv sifati barqarorligini ta’minlash.

5. **Jamoatchilik va sohaga oid mutaxassislarni xabardor qilish** – ekologik ta’lim, ommaviy axborot va ilmiy tadqiqotlar orqali daryoning suv sifati va ekologik xavfsizligi bo‘yicha ma’lumotlarni keng targ‘ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fornasaro S., Ghezzi L., Shukurov N. va boshq. Water quality and dissolved load in the Chirchik and Akhangaran river basins (Uzbekistan, Central Asia). Environmental Monitoring and Assessment, 196 (2024): 854. SpringerLink.
2. Makhmudova D.E., Buriyev E.S. Assessment of Water Quality of Small Rivers of the Syrdarya Basins for the Safe Water Use (Chirchik va Akhangaran daryolari bo‘yicha). PalArch’s Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17 (9) (2020).
3. Kamilov B.G., va boshq. Ichthyofauna of River Chirchik at Tashkent region, Uzbekistan. Egyptian Journal of Aquatic Biology and Fisheriyes, 26 (5) (2022), 841-850.
4. Quvatov A.Q., va boshq. Annotated List of Fishes of the Chirchik River, Uzbekistan. Egyptian Journal of Aquatic Biology and Fisheriyes, 27 (5) (2023), 1253-1261.
5. Abdullayev I., To‘xtayev M. Hydrochemical regime and surface water quality of the Chirchiq River, Uzbekistan. Central Asian Journal of Water Research, 2021; 12(3): 45-58.
6. Nazarov S., Qodirov B. Monitoring and assessment of river water quality in the Syrdarya basin: case study of the Chirchiq River. Journal of Environmental Studiyes, 2022; 28(4): 112-130.
7. Islomov F., Rakhmonov S. Hydrochemical monitoring of surface waters of Uzbekistan. Tashkent: TDIU, 2018; 145 p.
8. Sultonov J., Murodov A. Assessment of nitrogen and phosphorus compounds in the rivers of Central Asia. Water Sciyence & Technology, 2021; 84(5): 1020-1033.
9. Bekchanov M., Baimuratov D. Sustainable water resources management in the Syrdarya basin. Journal of Water and Climate Change, 2020; 11(6): 1589-1603.
10. Omonov Z., Usmanov I. Ecological assessment of surface waters using water quality indices. Tashkent: Fan, 2017; 122 p.
11. Abdullayev I., To‘xtayev M. Surface water quality classification using SII index: Chirchiq River case study. Central Asian Journal of Water Research, 2021; 12(4): 78-90.
12. Murtazayev O., Toshturdiyev N. Anthropogenic and natural factors affecting water quality of rivers in Uzbekistan. Tashkent: Fan va Texnologiya, 2023; 205 p.

“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI DOIRASIDA EKILGAN KO‘CHATLARNING SUV BILAN TA'MINLANGANLIGI TAHLILI

Muradov Shuhrat Odilovich, Ashirova Olga Aleksandrovna,
Boboev Hasan Odilovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekilayotgan daraxtlarning suv ta’minoti holati dinamikasi va sug‘orish ehtiyojlari tahlil qilingan hamda 2030-yilgacha hududlar kesimida daraxtlarning suvga bo‘lgan talabi bashoratli baholash va suv balansini modellashtirishdan foydalanib mintaqaviy suvga bo‘lgan ehtiyoj baholangan. Tahlillardan respublika bo‘yicha daraxt ekish hajmi ortib borayotgani, biroq ularni suv ta’minoti masalasi, parvarish va sug‘orish tizimlarida kamchiliklar mavjudligi aniqlangan. Daraxt turlarining biologik xususiyatlari va iqlim sharoitlari asosida bir tup daraxt uchun o‘rtacha suv talabi hisoblangan hamda cho‘l va qurg‘oqchil hududlarda sug‘orish suviga ehtiyoj me’yorlardan oshganligi aniqlangan. Shuningdek, respublika bo‘ylab yashil hududlarning baqarorligini*

ta’minlashda suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish va samarali sug‘orish yondashuvlari taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: *“Yashil Makon” loyihasi, suv tejamkor texnologiyalar, sug‘orish suv ta’minoti, sug’orish ehtiyojlari, suvga bo‘lgan talab prognozi.*

Аннотация. *В статье анализируется динамика состояния водообеспеченности и потребности в орошении деревьев, высаженных в рамках общенационального проекта «Yashil Makon», а также оценивается региональная потребность в воде по регионам до 2030 года с использованием прогнозной оценки водопотребности деревьев и моделирования водного баланса. Анализы показывает, что объёмы посадки деревьев в республике увеличиваются, однако имеются недостатки в вопросах водоснабжения, ухода и орошения. На основе биологических особенностей деревьев и климатических условий рассчитана средняя потребность одного дерева в воде и установлено, что потребность в поливной воде в пустынных и засушливых регионах превышает нормативы. Также предлагается внедрить водосберегающие технологии и эффективные подходы к орошению для обеспечения устойчивости зеленых зон по всей республике.*

Ключевые слова*: проект «Yashil Makon», водосберегающие технологии, водоснабжение орошения, потребности в орошении, прогноз спроса на воду.*

Abstract. *In this article analyzes the dynamics of water availability and irrigation requirements for trees planted as part of the nationwide project "Yashil Makon", as well as estimates regional water needs by region until 2030 using a predictive assessment of tree water needs and water balance modeling. The analysis shows that tree planting volumes in the republic are increasing, but there are shortcomings in water supply, maintenance and irrigation. Based on tree biology and climatic conditions, the average water requirement per tree was calculated, revealing that irrigation water requirements in desert and arid regions exceed standards. It is also proposed to implement water-saving technologies and effective irrigation approaches to ensure the sustainability of green spaces throughout the republic.*

Key words: *“Yashil Makon” Project, Water-saving technologies, Irrigation water supply, Irrigation requirements, Water demand forecasting.*

KIRISH

Global iqlim o‘zgarishi muammosi dunyoning boshqa mamlakatlari kabi bizning respublikamizda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda, oqibatda cho‘llanish, yashil hududlarning yo‘qolishi va suv tanqisligi bilan bog‘liq jiddiy ekologik muammolarga duch kelmoqda. Bunga javoban hukumatimiz tomonidan 2025-yil 30-maydagi PF-90-sonli ““Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o‘rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘ri-sida”gi Prezident farmoni ezgu maqsadni huquqiy jihatdan mustahkamlash borasida qabul qilindi [1].

Biroq, bu loyihani qurg‘oqchil iqlim sharoitida amalga oshirish suv ta'minoti va suvdan foydalanish samaradorligini sinchkovlik bilan tahlil qilishni talab qiladi. Iqlim o‘zgarishi ta’sirida hududlarda qurg‘oqchilik kuchaymoqda va daryolar oqimi kamaymoqda, bu esa qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni suvga bolgan ehtiyojlarini yanada oshirmoqda. Jahon resurslari instituti tomonidan o‘tkazilgan global baholashlarga ko‘ra, O‘zbekiston 2040-yilga kelib jiddiy suv tanqisligiga duch kelishi bashorat qilingan 33 ta mamlakat qatoridan joy olgan. Shuning uchun, suv taqsimotini takomillashtirish va barqaror sug‘orish amaliyotini joriy etish ekinlarning omon qolishi va o‘sishini ta’minlash uchun juda muhimdir [2].

Ushbu maqolada yashil hududlarning daraxtlarni suv ta‘minoti holatini baholash, suvdan samarali foydalanish, sug‘orishga bo‘lgan ehtiyojning mintaqaviy taqsimoti va uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlash uchun suv tejamkor va raqamli texnologiyalarni joriy etish salohiyatiga e’tibor qaratilgan.

Yashil hududlarni barpo etish dasturlari yerlarning degradatsiyasiga qarshi kurashish va ekotizim xizmatlarini yaxshilash uchun butun dunyo bo‘ylab keng qo‘llaniladi. Biroq, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, keng ko‘lamli daraxt ekish loyihalari mahalliy suv balansini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Amerikalik, “Efiopiya va boshqa davlatlarda bir gurug tadqiqotchilar [3], [4], [5], [6] quruq yerlarda o‘rmonlarni barpo etish asosan bug‘lanishni kuchaytirishini, bu esa yer osti suvlarining qayta tiklanishining pasayishiga olib kelishini aniqlashgan. Huddi shunday, Xitoy shimolidagi Lyoss platosida o‘rmonlarni barpo etish daraxtlar suviga bo‘lgan talabning ortishi tufayli daryo oqimini 20% gacha kamaytirganini aniqlashgan.

Qurg‘oqchil hududlarda o‘rmonlarni barpo etishning barqarorligi asosan qurg‘oqchilikka chidamli daraxt turlarini tanlash va samarali sug‘orish tizimlariga bog‘liq. Ko‘p sonli tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki [7], [8], [9], [10] mahalliylashtirilgan tomchilatib va impulsli sug‘orish tizimlari an’anaviy usullarga nisbatan suv sarfini 40-60% ga kamaytirish mumkin.

Markaziy Osiyoning suv tanqisligi sharoitida yashil hududlarni barpo etish tajribasi cheklanganligicha qolmoqda. Orol dengizi havzasida sho‘rlanish va suvdan foydalanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar [11], [12], [13] o‘simliklarni saqlab qolish uchun tuproq va suvni integratsiyalashgan boshqarish zarurligini ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘iston hududida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalarida [14], [15], [16] sho‘rlangan qishloq xo‘jaligi yerlarini tiklash uchun fitoremediatsiya uchun halofit o‘simlik turlari, saksovul, tamarik va kalligonum kabi mahalliy galofit turlari O‘zbekistonning qurg‘oqchil sharoitlariga eng mos kelishi aniqlangan.

“Yashil Makon” milliy loyihasi ushbu ekologik va gidrologik ustuvorliklarni birlashtirib, keng ko‘lamli daraxtlarni ekishni zamonaviy sug‘orish va monitoring tizimlari bilan bog‘laydi. Biroq, yashil hududlarni sug‘orishda suv ta‘minoti yetarliligi va texnologik samaradorligini baholash masalasini ko‘rib chiqishni taqazo etadi.

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu tadqiqotda “Yashil Makon” umummilliy loyihasi doirasida yaratilgan platformasida mavjud ma’lumotlardan foydalangan holda 2022-yildan 2030-yilgacha daraxtlarning sug‘orishga bo‘lgan ehtiyojini baholash uchun qiyosiy tahlil, bashoratli modellashtirish va analitik usullari qo‘llanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining suv manbalaridan ma’muriy hududlar bo‘yicha foydalanilgan suv to‘g‘risidagi hisobot ma’lumotlaridan foydalanildi.


TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Hozirgi kunga qadar respublika bo‘yicha suv manbalaridan ma’muriy hududlarda foydalanish ma’lumotlariga asosan “Yashil Makon” umummilliy loyihasi doirasida ekilayotgan daraxtlarni suv ta’minoti uchun alohida suv limiti ajratilmaganligi aniqlandi. Bundan tashqari ushbu loyihani amalga oshirishda bir qator kamchiliklar, jumladan: daraxtlarni parvarishlash tizimi yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ko‘chatlar nobud bo‘layotganligi, parvarishlash, sug‘orish tadbirlari uchun mas’ul shaxslar biriktirilmaganligi, ekilgan ko‘chat qalamchalar hududning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib tanlanmaganligi, ko‘chat ekish uchun yer maydonlarini talab darajasida tayyorlanmasligi, ko‘chat ekish texnologiyasiga to‘liq rioya etilmaganligi, sug‘orish tizimlari e’toborga olinmaganligi aniqlangan. Loyiha doirasida 2022-2024 yillarda respublika bo‘yicha ekilgan umumiy daraxtlar soni quyidagi grafikda keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Respublika bo‘yicha ekilgan umumiy daraxtlar soni

Shuningdek, ekilgan daraxtlar va butalar sonining hududlar kesimida o‘zgarishi tahlil qilindi. Tahlillar natijasida ekilgan daraxtlar soni yillar mobaynida oshib borayotganini ko‘rishimiz mumkin va bu daraxtlarni sug‘orishga alohida e’tibor qaratish zaruratini ko‘rsatadi. Mavjud ma’lumotlarga asoslangan holda hududlar bo‘yicha sug‘oriladigan daraxtlar soni 2025 yil uchun bashorat qilindi va 2-rasmda grafik ko‘rinishida olingan natijalar keltirilgan.




2-rasm. Respublika hududlari bo‘yicha sug‘oriladigan daraxtlar sonining 2025 yil uchun bashorati

Grafiklarda aks ettirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2022-yildan boshlab respublika bo‘yicha ekilayotgan daraxtlar soni izchil ortib bormoqda. Bunday tendensiya esa yashil hududlar barqarorligini ta’minlashda sug‘orish suvi bilan ta’minlash masalasini alohida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Tadqiqot jarayonida loyiha doirasida ekilayotgan daraxt turlarining biologik xususiyatlari, ularga belgilangan sug‘orish me’yorlari [17], [18], shuningdek, ekish hududlarining iqlim sharoitlari batafsil o‘rganildi. Ushbu ma’lumotlar asosida respublika hududlari bo‘yicha bir tup daraxt uchun o‘rtacha suv talabi hisoblab chiqildi. Shundan so‘ng mavjud statistik ma’lumotlar yordamida hududlar kesimida ekiladigan daraxtlarni sug‘orish uchun zarur bo‘ladigan umumiy suv sarfi tahlil qilindi.

Olingan natijalar asosida 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun daraxtlarni sug‘orish ehtiyojiga zarur suv hajmi prognoz qilindi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3-rasmda respublika hududlari kesimida grafik ko‘rinishda keltirilgan.



3-rasm. **Respublika hududlari bo‘yicha daraxtlarni sug‘orish me’yorlari, suv sarflari va talab etiladigan o‘rtacha suv me’yori (2022-2030 yy.)**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, amalga oshirilgan bashoratlar mamlakatning cho‘l va qurg‘oqchil hududlarida daraxtlarni sug‘orish uchun zarur bo‘ladigan suv miqdori belgilangan me’yorlardan sezilarli darajada oshishini anglatadi. Bu esa mazkur hududlarda ekilgan ko‘chatlarning yashab qolishini ta’minlash uchun qo‘shimcha choralar ko‘rishni talab etadi. Bundan tashqari, ushbu mintaqalarda yog‘ingarchilik miqdorining yildan yilga kamayib borayotgani inobatga olinsa, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tanqisligi xavfini yumshatish hamda yangi barpo etilayotgan yashil hududlarda suv tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish zaruriyatini yanada kuchaytiradi. Shu munosabat bilan suv resurslarini samarali boshqarishda, agrotexnik tadbirlar va ekologik barqarorlik o‘rtasidagi integratsiyalashgan yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari 2022-yildan boshlab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida respublika bo‘yicha ko‘kalamzorlashtirish ishlari keng ko‘lamda olib borilayotganini va daraxt ekish hajmlarining yildan-yilga ortib borayotganini tasdiqlaydi. Daraxtlar sonining ko‘payishi ular uchun zarur bo‘lgan sug‘orish suviga bo‘lgan talabning oshishiga olib kelmoqda. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha sug‘orish me’yorlari, ekilayotgan turlar va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun suv sarfi bashorati shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa cho‘l va qurg‘oqchil hududlarda sug‘orish suviga ehtiyoj me’yorlardan sezilarli darajada oshishi mumkin.

Jahon tajribasidan xulosa qilib aytsak, yog‘ingarchilikning kamayib borishi va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida yashil hududlarni kengaytirish jarayonlarida an’anaviy sug‘orish usullaridan foydalanish kelajakda sezilarli suv taqchilligiga olib kelishi ehtimoli yuqori. Shu bois yashil hududlarning barqarorligini ta’minlashda suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish va suv resurslaridan oqilona foydalanish ustuvor vazifa sifatida qaralishi zarur.

Shuningdek, suv resurslari cheklangan sharoitda ko‘kalamzorlashtirish samaradorligini oshirish uchun hududlarga mos daraxt turlarini tanlash, ilmiy asoslangan sug‘orish me’yorlarini qo‘llash, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish va monitoring tizimlarini kuchaytirish bo‘yicha integratsiyalashgan yondashuvni tatbiq etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi PF-90-son Farmoni.” Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, Feb. 06, 2025. [Online]. Available: https://lex.uz/docs/-7552003

[2] A. Maddocks, R. Samuel, Y. Reig, and P. Reig, “Ranking the World’s Most Water-Stressed Countries in 2040,” Water Resources Institute, Washington, 2015. [Online]. Available: https://www.wri.org/insights/ranking-worlds-most-water-stressed-countries-2040?utm_source=chatgpt.com

[3] R. B. Jackson *et al.*, “Trading Water for Carbon with Biological Carbon Sequestration,” *Science*, vol. 310, no. 5756, pp. 1944–1947, Dec. 2005, doi: 10.1126/science.1119282.

[4] A. A. Fenta, H. Yasuda, K. Shimizu, and N. Haregeweyn, “Response of streamflow to climate variability and changes in human activities in the semiarid highlands of northern Ethiopia,” *Reg. Environ. Change*, vol. 17, no. 4, pp. 1229–1240, Apr. 2017, doi: 10.1007/s10113-017-1103-y.

[5] X. Han and X. Jin, “A Study on Comprehensive Evaluation of the Water-saving Irrigation in Arid Area of Northeast China,” in *Proceedings of the 2015 International Conference on Economics, Management, Law and Education*, Kaifeng, China: Atlantis Press, 2015. doi: 10.2991/emle-15.2015.37.

[6] J. Xue, H. Guan, Z. Huo, F. Wang, G. Huang, and J. Boll, “Water saving practices enhance regional efficiency of water consumption and water productivity in an arid agricultural area with shallow groundwater,” *Agric. Water Manag.*, vol. 194, pp. 78–89, Dec. 2017, doi: 10.1016/j.agwat.2017.09.003.

[7] A. Han, J. Huang, X. Wang, and Z. Zhu, “Efficient Water-Saving Irrigation, Space Efficiency and Agricultural Development — Study Based on Spatial Stochastic Frontier Model,” *J. Syst. Sci. Complex.*, vol. 36, no. 6, pp. 2559–2579, Dec. 2023, doi: 10.1007/s11424-023-1383-x.

[8] Z. Lv *et al.*, “Impacts of lateral spacing on the spatial variations in water use and grain yield of spring wheat plants within different rows in the drip irrigation system,” *Agric. Water Manag.*, vol. 212, pp. 252–261, Feb. 2019, doi: 10.1016/j.agwat.2018.09.015.

[9] W. Wan *et al.*, “A moderate reduction in irrigation and nitrogen improves water-nitrogen use efficiency, productivity, and profit under new type of drip irrigated spring wheat system,” *Front. Plant Sci.*, vol. 13, p. 1005945, Oct. 2022, doi: 10.3389/fpls.2022.1005945.

[10] S. Wen *et al.*, “Optimizing deficit drip irrigation to improve yield,quality, and water productivity of apple in Loess Plateau of China,” *Agric. Water Manag.*, vol. 296, p. 108798, May 2024, doi: 10.1016/j.agwat.2024.108798.

[11] Z. Sultonov and H. K. Pant, “Potential Impacts of Climate Change on Water Management in the Aral Sea Basin,” *Water Resour. Manag.*, vol. 37, no. 14, pp. 5743–5757, Nov. 2023, doi: 10.1007/s11269-023-03627-5.

[12] D. Rawat, V. Garg, P. K. Thakur, and A. Chouksey, “Tracing the Impact of Irrigation Development on Aral Sea Desiccation and Land Use Dynamics Using Remote Sensing,” *J. Indian Soc. Remote Sens.*, Oct. 2025, doi: 10.1007/s12524-025-02308-7.

[13] A. Bao *et al.*, “Ecological problems and ecological restoration zoning of the Aral Sea,” *J. Arid Land*, vol. 16, no. 3, pp. 315–330, Mar. 2024, doi: 10.1007/s40333-024-0055-6.

[14] R. Sangcharoen *et al.*, “Screening Halophytic Plant Species for Phytoremediation to Rehabilitate Salinised Farmlands in Uzbekistan,” *J. Water Environ. Technol.*, vol. 23, no. 3, pp. 179–193, 2025, doi: 10.2965/jwet.25-004.

[15] K. N. Toderich *et al.*, “Phytogenic resources of halophytes of Central Asia and their role for rehabilitation of sandy desert degraded rangelands,” *Land Degrad. Dev.*, vol. 20, no. 4, pp. 386–396, July 2009, doi: 10.1002/ldr.936.

[16] N. Yu. Andrulionis, P. O. Zavialov, and A. S. Izhitskiy, “Current Evolution of the Salt Composition of Waters in the Western Basin of the South Aral Sea,” *Oceanology*, vol. 61, no. 6, pp. 899–908, Nov. 2021, doi: 10.1134/S0001437021060035.

[17]“KXA-8-029 II «Агротехника ускоренного выращивания посадочного материала конского каштана и софоры японской»,” Научно-исследовательский институт лесного хозяйства, Ташкент, Сводный отчет проекта, 2011.
[18]З. А. Артукметов, *Экинларни суғориш асослари*. Тошкент, 2007.

РАСЧЕТ НОРМ ПРОМЫВНЫХ ПОЛИВОВ ДЛЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ СОЛЕВОГО РЕЖИМА ПОЧВ С УЧЕТОМ ВОДНОСТИ ГОДА

Кудратов Толибжон Кудратович.
к.т.н. НИИ ирригации и водных проблем,
Якубов Мурат Адилович
д.т.н., профессор, НИИ ирригации и водных проблем,
Мирхасилова Зулфия Кочкаровна
доцент PhD, НИУ ТИИИМСХ;

Аннотация. В статье рассмотрена проблема возникновения засоленных почв в условиях аридных земель на примере Бухарской области и предложена методика расчета промывной нормы по борьбе с засолением на основе метода водно-солевого баланса. Основным методом исследования является обобщение опыта и расчет промывной нормы на основе водно-солевых балансов. Результаты расчетов показывают, что для маловодного года, когда эксплуатационные промывки проводятся небольшими нормами, конечное содержание солей в корнеобитаемом слое сохраняется высоким Приведенный методический подход позволит рассчитать оптимальную промывную норму для борьбы с засолением.

Ключевые слова: засоление почв, типы засоления, промывная норма, водно-солевые балансы, методы расчета.

Annotatsiya. Maqolada arid hududlar sharoitida, xususan Buxoro viloyati misolida sho‘rlangan tuproqlarning vujudga kelish muammosi ko‘rib chiqilgan hamda suv–tuz balansiga asoslangan sho‘rlanishga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan sho‘r yuvish me’yorini hisoblash metodikasi taklif etilgan. Tadqiqotning asosiy usuli — tajriba va ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda suv–tuz balanslari asosida sho‘r yuvish me’yorini hisoblashdir. Hisob-kitoblar natijalari shuni ko‘rsatadiki, suv tanqis yilda, ekspluatatsion sho‘r yuvish kichik me’yorlarda o‘tkazilganda, ildiz o‘sadigan qatlamdagi yakuniy tuz miqdori yuqori darajada saqlanib qoladi. Keltirilgan metodik yondashuv sho‘rlanishga qarshi optimal sho‘r yuvish me’yorini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: tuproq sho‘rlanishi, sho‘rlanish turlari, sho‘r yuvish me’yori, suv–tuz balanslari, hisoblash usullari**.**

Abstract. The article examines the problem of saline soil formation in arid regions using the Bukhara region as an example and proposes a method for calculating the leaching requirement to combat salinization based on the water–salt balance approach. The main research method is the analysis of existing experience and the calculation of the leaching requirement using water–salt balance models. The results show that in low-water years, when operational leaching is carried out with small volumes, the final salt content in the root zone remains high. The proposed methodological approach makes it possible to calculate the optimal leaching requirement for combating soil salinization.

Keywords: soil salinization, types of salinization, leaching rate, water-salt balances, calculation methods.

ВВЕДЕНИЕ

Одной из насущных проблем орошаемого земледелия в аридных и полуаридных зонах является борьба с засолением и осолонцеванием почв. Засоление и осолонцевание почв, повышение минерализации и щелочности представляют собой большую проблему во многих странах мира, по всему земному шару площади засоленных земель составляют около 76,6 млн.га и борьба с засолением почв широко применяются промывки земель на фоне дренажа. Имеются довольно широкие аспекты регулирования солевого режима выполненные в Азербайджане, Туркмении, Узбекистане и данная проблема является очень актуальной. Теоретические и практические основы по установлению промывных норм и опыта по их проведению в зависимости от гидрогеолого - почвенно мелиоративных условий, степени засоления и их химического состава достаточно подробно описаны в трудах С.Ф. Аверьянова, И.П.Айдарова, Р.К.Икрамова, М.А.Якубова, Х.И. Якубова, Ш.Х.Якубова, А.Р.Рамазанова и Якубов М.А., Икрамов Р.К., Джалилова Т., Каримова Н.М

МЕТОДЫ И СПОСОБЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Основным методом исследования является обобщение опыта и расчет промывной нормы на основе водно-солевых балансов. Расчет водно- солевого баланса взят по методу расчета А.С. Аверьянова. Теоретические и практические основы по установлению промывных норм и опыта по их проведению в зависимости от гидрогеолого - почвенно мелиоративных условий, степени засоления и их химического состава достаточно подробно описаны в трудах С.Ф. Аверьянова, И.П.Айдарова], М.А.Якубова, Х.И. Якубова, Ш.Х.Якубова , А.Р.Рамазанова и др.. [1;2;3]

Выполнение выше указанной методики показывает, что рассмотрены такие вопросы, как скорость растворения и выноса солей из почв в зависимости от промывных норм, механического состава почв, коэффициентов диффузии и др. Для расчёта промывных норм мы использовали метод САНИИРИ, который довольно хорошо учитывает особенности почвенно-мелиоративных условий и типы засоления объекта исследований.

Согласно данному подходу, для невегетационного периода водно-солевой баланс корнеобитаемой зоны в упрощенном виде можно описать уравнением:

$$\Delta W^{KC} = W_{\text{Н}}^{KC} - W_{\text{К}}^{KC} = O_c + N_{пр} - ET \pm g, \quad \text{м}^3/\text{га} \quad (1.1)$$

$$\Delta C^{KC} = C_{\text{Н}}^{KC} - C_{\text{К}}^{KC} = N_c \cdot C_{пр} \pm Cg \cdot g, \quad \text{т/га} \quad (1.2)$$

Где ΔW^{KC} ΔC^{KC} - изменение запасов влаги и солей в корнеобитаемой зоне; $W_{\text{Н}}^{KC}$ $W_{\text{К}}^{KC}$ $C_{\text{Н}}^{KC}$ $C_{\text{К}}^{KC}$ - начальные и конечные запасы влаги и солей в корнеобитаемой зоне за расчётный период. Ос – атмосферные осадки за расчётный период (мм или м^3/га). Nпр – промывная норма, м^3/га; ЕТ – эвапотранспирация, м^3/га; $\pm g, \pm Cg$ - водо и солеобмен корнеобитаемого слоя с нижележащими; Спр, Cg - минерализация соответствующих элементов водного баланса, г/л.

Величину эвапотранспирации (ЕТ) за невегетационный период можно рассчитать по формуле института «Средазгипроводхлопок» (УзГИП): $ET = \frac{E_o^{1.28}}{5{,}047}$

где E_o – среднемесячная испаряемость, мм, (по Иванову, Молчанову):

$$Eo=0{,}0018\cdot 0{,}8(t^0+25)^2\cdot(100-\alpha)$$

- t^0 – среднемесячная температура воздуха ^{0}С; ·α - среднемесячная относительная влажность воздуха %.

Исходные запасы в корнеобитаемой зоне рассчитываются как:

$$C_H^{KC} = h_{KC} \cdot \rho \cdot S^{KC} \cdot 100 \cdot Y \quad , \qquad \text{т/га} \qquad (1.3)$$

где $S_н^{кс}$ – содержание легкорастворимых солей в корнеобитаемом слое перед промывкой, % от веса сухой почвы; ρ – объёмная масса почв, т/м^3; Y – коэффициент перехода водных вытяжек на исходные расчётные запасы солей, по данным П.С.Панина [1978 г. с.90], для хлоридных почв – 1,17; хлоридно-сульфатных и сульфатных почв – 1.41.

Для случая нисходящего тока влаги (-g) вынос солей с инфильтрационными водами из корнеобитаемого слоя в нижние определяется по формуле:

$$-C_g = C^{KC}(1 - \frac{1}{e^{\frac{K^1}{\gamma}}}), \qquad \text{м}^3\text{/га} \qquad (1.4)$$

где K^1 – кратность водообмена в корнеобитаемом слое

$$K^1 = \frac{g}{h^{KC} \cdot m_0 \cdot 10000} \qquad (1.5)$$

В случае подпитывания корнеобитаемого слоя (+g), то приток солей восходящими точками определяется как:

$$+Cg = 0.001 \cdot q \cdot Мвт \qquad (1.6)$$

здесь Мвт – минерализация нисходящего тока, г/л

$$M_{вт} = \frac{C^{KC} \cdot \sigma}{W^{KC} \cdot 100} \qquad (1.7)$$

здесь σ – пересчётный коэффициент от содержания солей в почвах от % ной формы к минерализации почвенного раствора. По П.С.Панину его значение для хлоридных почв 0,82; хлоридно-сульфатных и сульфатных почв 0,535. Методика и алгоритм расчёта по данным уравнениям детально изложена в соответствующих работах М.А.Якубова, Р.К Икрамова и др. [4;5;6]

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ.

Анализ многолетних данных по Бухарской области показывает, что в отдельных районах как Каганский, Рометанский и др. сохраняются сильно и среднезасоленные почвы по профилю (таблица 1). В последние годы (особенно в маловодные по осадкам), нормы осенне-зимних эксплуатационных промывок составляют порядка 1800-2800 м^3/га, в другие годы она составляет 3600-400 м^3/га.

Нами выполнены расчеты водно-солевого баланса корнеобитаемого слоя для случая маловодного года, когда промывная норма равнялась 2700 м3/га и для случая, когда она была 4800 м3/га (многоводный год), таблица 2.

Результаты расчетов показывают, что для маловодного года, когда эксплуатационные промывки проводятся небольшими нормами (1800-2800 м^3/га), конечное содержание солей в корнеобитаемом слое ($S_к^{кс}$) сохраняется довольно высоким – в пределах 0,562 % от массы сухой почвы (по плотному остатку).

Таблица 1

Содержание легкорастворимых солей по профилю почв в Каганском и Ромитанском районах (по данным оценки бонитировки почв ГМЭ, 2020 г.)

Разрез, №	Глубина, см	Плотный остаток	HCO_3	CL	SO_4	Ca	Mg	Na	Засоление	
		%							тип	степень
88	0-31	0,890	0,018	0,049	0,463	0,095	0,043	0,068		средне.
	31-52	1,015		0,027	0,056	0,155	0,037	0,048		средне.
	52-81	1,170	0,027	0,063	0,588	0,120	0,049	0,101		средне.
	81-125	1,180	0,024	0,066	0,617	0,165	0,043	0,076		средне.
108	0-30	1,265	0,021	0,280	0,498	0,130	0,062	0,163		сильно.
	30-60	0,422	0,021	0,062	0,185	0,055	0,015	0,046		средне.

	60-90	0,340	0,024	0,048	0,140	0,040	0,012	0,039		средне.
	90-140	0,568	0,037	0,088	0,246	0,090	0,031	0,022		средне.
498	0-30	0,925	0,210	0,185	0,438	0,050	0,084	0,058		средне.
	30-60	0,897	0,030	0,329	0,221	0,110	0,083	0,047		сильно.
	60-90	0,780	0,046	0,199	0,320	0,070	0,098	0,034		средне.
	90-130	0,350	0,027	0,108	0,104	0,0450	0,030	0,022		средне.

Таблица 2.

Расчёт изменения водно-солевого баланса корнеобитаемого слоя почв под влиянием зимних промывок (на примере Бухарской области)

Показатель	Маловодный год	Многоводный год
Водный баланс ($м^3$/га)		
Приход: Норма промывки (Nпр)	2500	4400
Осадки (Ос) за XII-III месяцы	1650	1060
Всего приход (ΣПр) Расход: Эвапатранспирация ЕТп (за XII-III)	4150 2650	5460 2628
Рассоляющий расход (-q)	-1500	-2832
Солевой баланс, (т/га)		
Минерализация промывной воды, г/л	1,2	1,6
Приток солей: - с промывной водой	3,25	7,04
- вынос солей с рассоляющим током (-Cg)	36,0	60,7
Исходное содержание солей в почве $S_н^{кс}$,%	0,800	0,800
Исходные запасы солей ($C_н^{кс}$), т/га	139,2	139,2
Конечные запасы солей ($C_к^{кс}$), т/га	103,2	84,2
Конечное содержание солей ($S_к^{кс}$), %	0,562	0,386

В многоводные же годы при подаче нормы 4400 $м^3$/га содержание легкорастворимых солей можно снизить до 0,386 % от сухой массы, что можно считать допустимым по плотному остатку.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Приведенный методический подход позволит рассчитать оптимальную промывную норму для борьбы с засолением в т.ч. с пятнистым засолением почв, а также учесть сроки их проведения с учетом водности года и температуры воздуха, и типа засоления и для других объектов.

В целом основные предпосылки для недопущения засоления земель включают в себя следующие принципы:

-улучшения спланированности орошаемого поля для равномерного увлажнения почв;

-поддержания глубины грунтовых вод ниже критического уровня с помощью дренажа;

-исключение переполивов земель с помощью внедрения водосберегающих способов и технологий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРА

1. Аверьянов С.А. Борьба с засолением орошаемых земель. М.: Колос, 1978. –288 с.

2. Айдаров И.П. Пути решения региональных водохозяйственных проблем//Мелиорация и водное хозяйство. М., 2010. №5. С.43-48.

3. Икрамов Р.К. Исследование интегрированного управления почвенными и водными ресурсами на уровне фермерских хозяйств//Центрально-азиатская международная научно-практическая конференция WATER/ Алматы. 2003 г. с. 609-612.

4. Рамазанов А.Р., Якубов Х.И. Промывные влагозарядковые поливы. Ташкент: Мехнат 1988 г. с.191.

5. Якубов М.А., Якубов Х.И., Якубов Ш.Х. Коллекторно-дренажный сток Центральной Азии и оценка его использования на орошение. Монография. Ташкент: Из-во ИПТД «Узбекистан», 2011. 189 с.

6. Якубов М.А., Икрамов Р.К., Джалилова Т., Каримова Н.М. К вопросу методики прогнозирования минерализации почвенного раствора и грунтовых вод при близком их залегании на крупных орошаемых массивах // Сб. научных трудов САНИИРИ. 1982. С.3-10.

FAOLLASHTIRILGAN BODOM VA YONG‘OQ UGLERODLI ADSORBENTLARDA MODEL VA OQAVA SUVLARDA METALLARNING SORBSIYASI

Salihanova Dilnoza Saidakbarovna
URFA Ummumiy va noorganik kimyo instituti katta ilmiy xodim, t.f.d prof
Ubaydullayeva Navruza Ne’matjonovna,
k.f.f.d PhD, vb dots.Namangan davlat universiteti kimyo kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Usmonova Sarvinoz Ismoiljon qizi,
NamDU magistri.
Xakimova Mashrabxon Abdisamat qizi,
NamDU magistri

Annotatsiya: Ilmiy maqolada keltirilgan malumotlarning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, yong‘oq va bodom po‘stlog‘ini modifikatsiya qilish orqali faollashgan uglerodli adsorbent olish va olingan adsorbentlar metallar sorbsiyasi, metallurgiya ishlab chiqarish korxonalardan chiqayotgan oqava suvlarini tozalash texnologiyasini ishlab chiqishga asos bo‘ladi.Natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy qishloq ho‘jaligi ekinlarini chiqindilaridan faollashgan uglerodli adsorbent olish orqali ulardan sanoat oqava suvlarini tozalashda foydalanish texnologiyasini sanoat miqyosida ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Faollashtirilgan ko‘mir, adsorbsiyalash, metallar, yuza maydoni, g‘ovak tuzilish, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilari, tozalash jarayonlari.*

Аннотация: Научная значимость представленных в статье данных заключается в том, что они легли в основу разработки технологии получения активированных углеродных адсорбентов путем модификации скорлупы грецкого ореха и миндаля и использования полученного адсорбента для очистки металлов и сточных вод металлургических предприятий. Практическая значимость результатов заключается в разработке промышленной технологии получения активированных углеродных адсорбентов из отходов местных сельскохозяйственных культур и их использования для очистки промышленных сточных вод.

Ключевые слова: *Активированный уголь, адсорбция, металлы, площадь поверхности, пористая структура, экологическая безопасность, промышленные отходы, процессы очистки.*

Abstract: The scientific significance of the data presented in this article lies in the fact that they form the basis for the development of a technology for producing activated carbon adsorbents by modifying walnut and almond shells and using the resulting adsorbent for the purification of metals and wastewater from metallurgical plants. The practical significance of these results lies in the development of an industrial technology for producing activated carbon adsorbents from local agricultural waste and their use in industrial wastewater treatment.

Keywords: *Activated carbon, adsorption, metals, surface area, porous structure, environmental safety, industrial waste, treatment processes.*

KIRISH

Hozirgi kunda ko‘mir xomashyosi asosan qattiq yoqilg‘i ishlab chiqarishga keskin yo‘naltirilgan bo‘lib, respublikaning asosiy energiya manbalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘mir asosida yoqilg‘i, yangi reagentlar va yangi materiallar ishlab chiqarilmoqda. 2024-yilda elektr ishlab chiqarish hajmi oshganini ham ma’lum qiladi: 2024-yilda umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarilishi 81,29 millimetr energiya manbalaridan foydalanishni talab etmoqda. Shu sababli elektroenergiya ko‘mirni qo‘llash orqali olinmoqda [1,2].

Atrof-muhitda zararli moddalarning to‘planishi bilan ekologik muammolarni hal qilishning texnologik asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, kerakli natijaga e’tibor qaratgan holda imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beruvchi muhim masalaga aylanmoqda.

Suvni ifloslantiruvchi asosiy omillardan biri og‘ir metallar, neft va neft mahsulotlari kiradi. Neftni qayta ishlash jarayonlarida uning qoldiqlari, yoki mahsulotlari suvga tushib, uni global ifloslanishiga olib keladi.

Shularni inobatga olib, yuqori sorbsion materiallarni ishlab chiqarish dolzarb hisoblanadi. Shu kungacha 300 dan ortiq sorbsion materiallar ishlab chiqarilgan bo‘lib, ularni olish, faollashtirish yoki modifikatsiya qilish usullari bilan farq qiladi. Neft mahsulotlarini suv tarkibidan tozalash uchun qishloq xo‘jaligi chiqindilari asosida sorbsion materiallar olish iqtisodiy va texnologik tarafdan o‘zini oqlovchi hisoblanadi.

Suvni tozalash samaradorligini va sorbentlarning xossalarini oshirish uchun ikkita yondashuv qo‘llanildi: sorbentlarning sorbsion xususiyatlarini yaxshilash uchun modifikatsiyalash va yangi kompozitlar olish uchun tabiiy sorbsion materiallardan foydalanish; yaxshilangan xususiyatlarga ega biosorbentlarni olish bo‘yicha da o‘rganilgan. [2;111-116-b]

So‘nggi vaqtlarda o‘simlik chiqindilaridan olingan uglerodli maxsulotlarga, shuningdek, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan va termokimyoviy faollashtirish usullarini amalga oshirish uchun qulay bo‘lgan yog‘ochni qayta ishlash chiqindilariga qiziqish ortib bormoqda [3;105-b].

Suyuqliklarni tozalash uchun bir vaqtning o‘zida donador va kukun faollashtirilgan ugleroddan foydalanish mumkin. Donador faollashtirilgan uglerod asosan uzluksiz jarayonlar uchun ishlatiladi, kukunli faollashtirilgan uglerod esa partiyaviy jarayonlar uchun ko‘proq mos keladi. Adsorbentni suyuq fazadan ajratishning eng oddiy usuli cho‘ktirish bo‘lib, jarayonning uzunligi tufayli juda kam qo‘llaniladi. Bu usul odatda sharob va boshqa spirtli ichimliklarni tozalash uchun ishlatiladi.

Faollashgan uglerod yog‘ va yog‘larni dezodorizatsiya qilish jarayonida keng qo‘llaniladi. Ushbu maqsadlar uchun nozik g‘ovakli faol uglerod ishlatiladi. Granulali faollashtirilgan uglerod faqat maxsus holatlarda, masalan, yuqori molekulali yog‘larni dezodorizatsiya qilishda qo‘llaniladi.

Ko‘pgina kimyoviy moddalar ko‘p miqdorda rang beruvchi aralashmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu aralashmalarni faollashtirilgan uglerod bilan qayta ishlash orqali olib tashlash mumkin.

TADQIQOT USLUBI

Faollashgan uglerod tabiiy organik birikmalarni noorganik birikmalarga qaraganda tez-tez tozalash uchun ishlatiladi. Distillash texnologiyasini takomillashtirishga qaramasdan, sovun ishlab chiqarish jarayonida lipoliz jarayonida hosil bo‘lgan gliserin hali ham faollashtirilgan uglerod bilan ishlov berishni talab qiladi, ayniqsa oxirgi bosqichida. Tibbiy va farmasevtika preparatlari, oziq-ovqat mahsulotlari, kosmetika maxsulotlari ishlab chiqarishda yuqori darajadagi tozalashlar talab etiladi, shuning uchun kukun xoldagi faollashtirilgan uglerod ishlatiladi [4;120-132-b].

Sanoatda oqava suvlarni tozalashda, tabiatdan oqilona foydalanishda, biosferani saqlashda adsorbentlarni roli katta hisoblanadi. Shu sababli uglerodli adsorbentlardan gidrosferani turli zararli moddalardan tozalashda keng foydalanilidi. Bugungi kunda noorganik sorbsion materiallar yordamida zararli moddalardan tozalashda keng foydalanilmoqda. Shu sababli yo‘naltirilgan sorbsion xususiyatli sorbentlarni sintez qilish yoki ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega hisoblanadi [5;35-40-b].

Bundan tashqari suvli va gaz holatdagi tizimlarni tozalash uchun odatiy va noan’anaviy xomashyo turlari yordamida adsorbentlar olish imkoniyati mavjud. Adsorbent olish uchun

xomashyo arzon, topiladigan xomashyo sifatida qo‘ng‘ir ko‘mirlar hisoblanadi. Ular asosida uglerodli adsorbentlar olish imkoniyatlari keltirilgan. Olingan natijalar o‘zining mikrog‘ovakliligi va yuqori adsorbsion qobiliyati bilan ajralib turibti. Eng maqbul faollashtirish usullaridan biri bu 600-900 ^{0}C da ishqoriy-termik faollashtirish hisoblanadi.

Shu ishni davomi sifatida qo‘ng‘ir ko‘mirlarni ishqor yordamida kimyoviy modifikatsiyasi nazarda tutilgan bo‘lib, >0.5>05-1.0>1.0-2.0 mm gacha bo‘lgan faollantirilgan ko‘mir namunalari olishga erishilgan [6;31-34-b].

Ko‘mir kukuni 0.2mm o‘lchamdagi namunalarni kaliy gidroksidi bilan 1/1 nisbatda aralashtirib, 60 minut davomida ushlab turilib, so‘ng 800 ^{0}C da termoliz qilinadi. Ko‘mir turiga qaramasdan bunday usulda yuqori sorbsion qiymatli va yodga nisbatan 96% bo‘lgan adsorbent olish imkoniyati bor. Shu bilan birga sorbentni chiqish miqdori 60 % ni tashkil etadi, yo‘qotishlar hajmi 40% ni tashkil etadi. Shu sababli, tabiiy sorbentlarning topilishda arzonligi, ularni bir marta ishlatib regeneratsiya qilmasdan ishlatish imkoniyatlari mavjud. Mualliflar tamonidan [7;27-32-b] turli meva va urug‘lar asosida adsorbent olish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ular asosida qimmatli mahsulotlarni ajratib olib 250-300 ^{0}C da korbonizatsiya qilinadi va qo‘shimcha oksidlovchi gazlar va suv bug‘i yordamida faollashtirish amalga oshirilgan va ularning sorbsion xususiyatlari aniqlangan. Shuni ta’kidlash lozimki, olingan adsorbentlar g‘ovakli strukturaga ega emas. Lekin yong‘oq danagi po‘stloqlari strukturaga ega bo‘lganligi sababli, ularni filtr sifatida yuqori molekulyar birikmalarni yuttirishda ishlatish imkoniyati mavjud.

NATIJA. Metallurgiya sanoatidan katta miqdorda suv ishlatiladi, buning natijasida esa katta miqdorda ishlatilgan oqava suvlar hosil bo‘ladi. Oqava suv tarkibida organik va turli metall qoldiqlari mavjudligi, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri kanalizatsiyaga tashlash mumkun emasligini inobatga olib, ular katta hovuzlarda saqlanadi. Respublikada oqava suvlarni qayta ishlash texnologiyasi yo‘qligi sababli, ekologiyaga katta zarar yetkazishga olib kelmoqda. Bundan tashqari ular tarkibidagi qimmatbaho, nodir yoki radiaktiv moddalarning mavjudligi ularni ajratib olish va oqava suvni qayta texnik suv sifatida ishlatish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha ko‘p olimlar ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. [8;29-33-b]

Sanoat oqava suvi tarkibida metall ionlarining miqdorini o‘zgarib turishi, ularni tozalash jaryonlaridagi adsorbentning miqdorini ham o‘zgarishiga olib keladi. Ularni sorbsion qobiliyatini aniqlash uchun model eritmalarda, turli miqdorlarda adsorbsiya jarayonida qo‘llab tozalab ko‘rildi.

1-jadval

Metallugiya sanoati oqava suvlarini tozalashdan oldingi va keyingi mass-spektroskopiya natijalari.

Element	Oqava suv (tozalashdan oldin), mg/L	Oqava suv (tozalashdan keyin), mg/L	Ruxsatlangan me'yor (REM), mg/L
Be	0,00036	0,00003	0,0002
Al	0,07	0,00600	0,5
Mn	1,3	0,02025	0,1
Ni	66,00	0,08673	0,1
Cu	21,00	0,02249	1,0
Zn	0,076	0,00560	1,0
As	0.88	0,09625	0,05
Se	1.0	0,09723	0,01
Sr	4.8	0,82857	7,0
Mo	2.8	0,00525	0,25

Cd	0.00085	0,00018	0,001
Hg	0.000072	0,00003	0,0005
Pb	0.00013	0,00010	0,03
Th	0.00015	0,00025	-
U	2.4	0,00540	0,7
Cr	0.023	0,02456	0,5
Co	21.0	0,01333	0,1

Model eritmalarda olingan natijalar doim ham real eritmalar natijalari bilan to‘g‘ri kelmasligini inobatga olib, ularni real sanoat oqava suvlari tarkibidagi metallarni sorbsiyasini o‘rganish rejalashtirildi.

XULOSA

Yuqoridagi jadval natijalariga ko‘ra metallurgiya sanoati oqava suvlarini dastlabki tarkibida REM dan ancha yuqoriligini, uni tozalash zarurligini ko‘rsatmoqda. Ni va Cu ionlari miqdorining bir necha baravar kamaytirganini, xatto radiaktiv ionlarni ham sorbsiyalash REM ga tushurganini ko‘rish mumkin. [9;84-86-b]

Faollantirilga yong‘oq ko‘miri va faollantirilga bodom ko‘miri uglerodli adsorbentlar yordamida oqava suvlar tarkibidan metall ionlarini tozalashi, Ni va Cu ionlarini REM ga tushurishi isbotlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pinchuk V.A. Ispolzovaniye vodougolnogo topliva i produktov yego pererabotki v energetike i metallurgii // Pinchuk V.A., Gubinskiy M.V., Potapov B.B. / © 2008.

2. Patrakov Yu. F. Sostoyaniye i perspektivы protsessov glubokoy pererabotki ugley. / Patrakov Yu.F. // Ximiya v interesax ustoychivogo razvitiya. — 2005. -№ 13. — S.581-585.

3. Bogdanovich N.I. Termoximicheskiy sintez novыx uglerodnыx materialov na osnove texnicheskix ligninov / N.I. Bogdanovich, G.V. Dobele, L.N. Kuznetsova, N.V. Orlova // Fizikoximiya ligninov. Mat-lыmejdunar. Konferensii. – 2005. – S.105.

4. Bogdanovich N.I. Piroliz texnicheskix ligninov / N.I. Bogdanovich // Lesnoy jurnal 1998. — № 2-3. — C. 120-132.

5. Peshnev B.V. Polucheniye uglerodnыx materialov s zadannoy poristostyu /Peshnev B.V., Filimonov A.S., Gavrilova N.N., Nikolayev A.I., Nguyen V.X. //Jurnal: Ximiya tverdogo topliva, -№ 3. -2018. — S. 35-40.

6. Romadenkina S.B. Sorbsiya kationov jeleza (III) goryuchim slansem Kotsebinskogo mestorojdeniya i yego zoloy iz vodnыx rastvorov / Romadenkina S.B., Shestopalova N.B., Krujalov A.V., Lobankov Ye.V. Ximiya tverdogo topliva // Rossiyskaya akademiya nauk (Moskva) -№3. — 2018. — S. 31- 34.

7. Yermagambet B.T. Polucheniye adsorbenta iz goryuchego slansa kendыrlыkskogo mestorojdeniya / Yermagambet B.T., Kasenovb.K., Nurgaliyev N.U., Kazankapova M.K., Kasenova J. M., Zikirina A.M. // Ximiya Tverdogo Topliva Izd. Rossiyskaya akademiya nauk (Moskva) -№5, -2018. — S. 27-32.

8. Ubaydullayeva N.N,Salixanova D.S. Dexkanov R.S. Issledovaniye ugolnogo adsorbenta kompozitsii na osnove mestnogorastitelnogosыrya dlya ochistki stochnыx vod. Universum: texnicheskiye nauki. 2022. №7-100 –C 29-33.

9. Ubaydullayeva N.N, Qimmatbaho metallarni sorbsion ajratib olish uchin faollashtirilgan ko‘mir adsorbentlari olish va ularning kolloid-kimyoviy xossalarini aniqlash. UDK 544.7: 2024.84-86 b.

JIZZAX VILOYATI SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARINI GEOEKOLOGIK BAHOLASH, MONITORING O‘TKAZISH VA GAT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA RAQAMLI XARITALARINI ISHLAB CHIQISH

Pattaxov Nasibulla Asrol o‘g‘li, Erkabaev Furqat Ilyasovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Turdaliyev Jamolbek Mo‘minalievich
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Ushbu tezisda Jizzax viloyatining qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer maydonlaridan monitoring tadqiqotlari uchun 15 ta kalit maydon sifatida tanlab olingan qishloq xo‘jaligi yerlari tuproqlarining ekologik-meliorativ holati, monitoring kuzatuv ishlari natijalari ularni GAT texnologiyalari yordamida raqamli xaritalarini ishlab chiqish to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar*: tuproqlar mexanikasi, organik modda, karbonat birikmalar, tuz miqdori, gips miqdori, kalsiy karbonat, indikatorlar, GAT, pH ko‘rsatkichi.*

Annotatsiya. В диссертатсионной работе представлены эколого-мелиоративное состояние почв селскохозяйственных угодий, выбранных в качестве 15 ключевых участков мониторинговых исследований селскохозяйственных угодий Джизакской области, результаты мониторингово-наблюдателных работ и создание их сифровых карт с исползованием технологий ГАТ.

Klyuchevыe slova: *механика почв, органическое вещество, карбонатные соединения, содержание солей, содержание гипса, карбонат калсия, индикаторы, ГИС, показател pH.*

Abstract. The dissertation presents the ecological and meliorative state of the soils of agricultural lands selected as 15 key sites for monitoring studies of agricultural lands in the Jizzakh region, the results of monitoring and observation work and the creation of their digital maps using **GIS** technologies.

Key words: *soil mechanics, organic matter, carbonate compounds, salt content, gypsum content, calcium carbonate, indicators, GIS, pH.*

KIRISH

Bugungi kunga kelib, respublikamizda sug‘oriladigan maydonlar tuproqlari yetarlicha yaxshi o‘rganilgan, bu borada katta hajmda e’lon qilingan maqolalar, nashr etilgan ilmiy ishlar mavjud. Ular asosan tizimli tashkil qilingan holda tuproqlarning diagnostikasi, kelib chiqishi genezisi va ekologik-meliorativ holati bo‘yicha qishloq xo‘jaligida samarali foydalanishga bag‘ishlangan bo‘lib, tuproq monitioring natijalari asosida sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlarini geoekologik baholash va GAT texnologiyalari asosida raqamli xaritalarini ishlab chiqish masalasi nisbatan kam o‘rganilgan hamda dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyo tadqiqotlari doirasida yer resurslarini boshqarish va landshaft monitoringi bo‘yicha asosan masofadan zondlash (Remote Sensing), GIS texnologiyalari, IPBES, CORINE LULC, Land Change Modeler, NDVI kabi usullarga tayangan. Tadqiqotlarga ko‘ra: Song et al. (2019) global miqyosda 1982–2016-yillar oralig‘ida yer qoplamasidagi o‘zgarishlar ko‘proq dehqonchilik va urbanizatsiya tufayli yuz berganini aniqlagan. Song et al. (2019) global miqyosda yer qoplamasi transformatsiyasini tahlil qilib, asosiy sabab sifatida urbanizatsiya va qishloq xo‘jaligi maydonlarining kengayishi ko‘rsatilgan. Turner va Gardner (2015) landshaft ekologiyasi nazariyasiga asoslanib, antropogen omillar bilan tabiiy jarayonlar o‘rtasidagi muvozanat buzilishini qayd etgan.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha va yagona kompozit geoekologik indeks ishlab chiqish va uni ArcGIS Model Builder yordamida xaritalash ishlari amalga oshirilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.

Jizzax viloyatining qishloq xo‘jaligiga yaroqli yer maydonlaridan monitoring tadqiqotlari uchun tanlangan 15 ta tajriba maydon ajratilgan, har biri 1 gektarli uchta statsionar ekologik va yarim statsionar ekologik maydonlar (SEM va YaSEM)da rejim kuzatuv tadqiqotlari o‘tkazildi va monitoring tadqiqotlarida olingan ma’lumotlardan foydalangan holda, viloyatning tog‘ oldi va tog‘ osti hududlaridan tanlangan 15 ta tanlangan massivlarning SEM va YaSEMlarini 1 gektarli yer maydonlari tuproqlari bo‘yicha GAT texnologiyalari yordamida 1:5000 masshtabli raqamli mavzuli xaritalar (1-6-rasmlar) tuzildi va geoekologik baholash ishlari olib borildi.

Jizzax viloyati markaziy O‘zbekistonning serqirra tabiiy geografik hududlaridan biri bo‘lib, janubda Turkiston tizmasi, g‘arbda Nurota tizimlari, shimol va shimol g‘arbda Mirzacho‘l va Qizilqum tekisliklari bilan chegaralangan. Shuning uchun geoekologik monitoring tizimi – ya’ni tuproq, suv, iqlim va antropogen omillarni integratsiyalashgan holda kuzatish – viloyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo‘lib, viloyat misolida geoekologik monitoringni tashkil etish, indikatorlar tanlash, ularning asosiy o‘zgaruvchilari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantirish, yagona kompozit geoekologik indeks ishlab chiqish va uni ArcGIS Model Builder yordamida xaritalash jarayonlari batafsil yoritildi. Bu yondashuv esa viloyatda mavjud tuproq monitoringi ma’lumotlarini zamonaviy GIS texnologiyalari bilan uyg‘unlashtiradi va yer resurslarini boshqarishda qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha tuproqning kimyoviy ko‘rsatkichlari bloki - Viloyat tuproqlari asosan tipik bo‘z, och tusli bo‘z, bo‘z-o‘tloqi tuproqlar va boshqa turlari bilan ifodalangan. Ularning kimyoviy tarkibi tuproq unumdorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri. Asosiy indikatorlar:


- Gumus (organik modda) miqdori (%) – Tuproqning yuqori qatlamida organik moddaning zaxirasini ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar humus miqdori bo‘z va bo‘z-o‘tloqi tuproqlarida 1,13-2,38 % gacha, quyi qatlamlarda 0,49-1,21% gacha ekanini ko‘rsatadi. Sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi tuproqlarda haydalma qatlamida humus 0,60-1,45%, quyi qatlamda 0,56-0,97%.
- pH (H_2O yoki KCl) – Neytral (6,5-7,5) sharoit o‘simliklar uchun qulay; Jizzaxda pH odatda 7,3-8,5 oralig‘ida bo‘lib, gips va karbonat birikmalarining ko‘pligi tufayli yengil ishqoriy.
- Elektr o‘tkazuvchanlik (EC, dS/m) – erigan tuz miqdorini ko‘rsatadi; tipik bo‘z tuproqlarda 0,5–1,5 dS/m, bo‘z - o‘tloqi tuproqlarda 1,5-3,5 dS/m; kuchli sho‘rlangan tuproqlarda >5 dS/m. Jizzax massivi bo‘yicha salinatsiya asosan sulfat turida bo‘lib, sho‘rlanish darajasi 2–3% yoki undan yuqori, xlor ionlarining ulushi 0,1 % dan oshadi.
- Natriy nisbati (SAR) (%) – natriy ionlari tuproq strukturasini buzadi; Jizzaxda suv tarkibidagi natriy ko‘p bo‘lgani uchun SAR ba’zi massublarda 10–20 g/l oralig‘ida.
- Fosfor (P_2O_5, mg/kg) va kaliy (K_2O, mg/kg) – o‘simlik uchun muhim elementlar; gipsli tuproqlarda harakatchan fosfor 18–30 mg/kg, mobil kaliy esa 200–240 mg/kg. Virgin tuproqlarda bu ko‘rsatkichlar o‘rtacha, sug‘oriladigan tuproqlarda esa past.
- Kalsiy karbonat ($CaCO_3$) va gips (%) – $CaCO_3$ 5–12 %, gips 5–20 % gacha. Gips miqdori ko‘p bo‘lgan tuproqlarda suvning erishi va filtrlash xususiyati sezilarli pasayadi.

Tadqiqot hududida geoekologik monitoring o‘tkazish uchun zarur indikatorlar belgilab oolingacha, ushbu indikatorlar bo‘yicha GAT texnologiyalaridan foydalangan holda raqamli indikatorlar xaritalari ishlab chiqildi.


TUPROQ KIMYOVIY KO‘RSATKICHLARI NATIJALARI

Monitoring natijalari Jizzax tuproqlari past organik modda zaxirasiga ega ekanini tasdiqladi. Virgin serozemlarida humus 1,5–2,0%, irrigatsiya qilingan yerlarning ko‘pida esa 0,7–1,2%. EC qiymatlari ko‘plab holda 1,5–3,0 dS/m bo‘lib, ko‘plab punktlarda sulfat-xlorli sho‘rlanish tipi ustun. Fosfor ta’minoti 70 % maydonda past (<25 mg/kg), kaliy ta’minoti esa 60% maydonda o‘rtacha. SAR qiymatlari 10-15 oralig‘ida bo‘lib, ayrim joylarda natriy sodifikatsiyasi xavfi mavjud.


Quyida barcha bloklar bo‘yicha ishlab chiqilgan indikatorlar xaritalari keltirib o‘tilgan:




1-rasm.
Viloyat tuproq mexanik tarkibi xaritasi




2-rasm.
Viloyat tuproq sho‘rlanish xaritasi




3-rasm.
Viloyat tuproqlarida gumus bilan ta’minlanganlik xaritasi



4-rasm.
Viloyat tuproqlarida fosfor bilan ta’minlanganlik xaritasi



5-rasm. Viloyat tuproqlarida kaliy bilan ta’minlanganlik xaritasi



6-rasm. Viloyat yer maydonlari LULC (Land use lan Cover) xaritasi

Har bir indikator bo‘yicha klassifikatsiya bilan massivlar kesimida quyidagi tendensiyalar kuzatildi shartli misol (1-jadval).

1-jadval.

Massivlar kesimida har bir indikator bo‘yicha klassifikatsiya tendensiyalari

Indikator	Yaxshi (G%)	O‘rta (M%)	Yomon (P%)	Tendensiya
Gumus	20 %	50 %	30 %	Asosan adir va tog‘ etaklari yaxshi; irrigatsiya maydonlarida past.
EC	40 %	45 %	15 %	Tekisliklarda sho‘rlanish yuqori; yuqori qiyaliklarda past.
Fosfor	18 %	42 %	40 %	O‘g‘itlanish yetishmasligi; ko‘chatzorlarda yuqori.
Kaliy	30 %	50 %	20 %	Gipsli tuproqlarda o‘rta; qumoqlarda past.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Agromeliorativ tadbirlardan tuproqlarni irrigatsiya va shamol eroziyasidan muhofaza qilish, sho‘rlangan yerlarda tuproqlarning sho‘rlanish darajasi va mexanik tarkibini hisobga olgan holda sifatli sho‘r yuvish ishlarini bajarish eng asosiy va muhim tadbirlardan hisoblanadi.

Sug‘orma dehqonchilik qilinadigan och tusli, tipik va to‘q tusli bo‘z tuproqlarda sug‘orish eroziyasi mavjud. Suv eroziyasi ta’sirida tuproqning kimyoviy, agrokimyoviy, suv-fizik va mikrobiologik xossa-xususiyatlari sezilarli darajada yomonlashadi, natijada tuproq unumdorligi, ayniqsa uning gumusli qatlamlarini qalinligi kamayadi, bu ko‘rsatkichlar o‘z navbatida paxta va donli ekinlar hosildorligini 40-50 foizgacha kamaytirib, paxta tolasi va don sifatini yomonlashishiga olib keladi. Suv va irrigatsiya eroziyasi salbiy ta’sirini kamaytirish uchun sug‘orish texnikasini mukammallashtirish, tuproq yuza qismi qiyaligining katta kichikligiga qarab sug‘orish me’yorlarini aniq belgilash, sug‘orish eroziyasiga qarshi kimyoviy va biologik vositalarini qo‘llash, bundan tashqari turli agrotexnik usullarni qo‘llash, ya’ni oraliq ekinlarni ekish, eroziyaga uchragan tuproqlarning suv-fizikaviy xossalarini yaxshilash uchun egat qator oralariga bentonit solish va tuproqning yuvilganlik darajasiga qarab organik va mineral o‘g‘itlarni tabaqalashtirib qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Shamol eroziyasi asosan sug‘oriladigan yengil mexanik tarkibli tuproqlarda kuchli shamollar (15-25 m/s)ning harakati natijasida sodir bo‘ladi. Shamol eroziyasi viloyatning Mirzacho‘l qadimgi tekisliklar hududlarida kuzatiladi. Shamol eroziyasini oldini olish va shamol ta’sirida eroziyalangan tuproqlarni unumdorligini tiklash va oshirishda ihota daraxtzorlarini barpo qilish, 3, 5, 7 qatorli ihota daraxtzorlari, qatorlari sonidan qat’iy nazar tuproqni va ekinlarni deyarli bir xil masofada shamol eroziyasidan himoya qiladi. Ihota daraxtzorlarning birinchi qatoriga tol, terak, qayrag‘och, oxirgi qatorga tut yoki mevali (bodom) daraxtlar ekish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Agrofizik va agrotexnik tadbirlar. Qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olishda tuproq unumdorligini belgilovchi omillardan biri uning suv-fizik xossalaridir. Tuproqda yetarli namlik va ozuqa moddalari, maqbul agrofizik va mikrobiologik tartiboti saqlangandagina qishloq xo‘jalik ekinlari yaxshi rivojlanadi va mo‘l hosil beradi.

Sug‘orish me’yorlarini belgilashda tuproq tiplari, ularning suv-fizik xossalari, sizot suvlarining joylashish chuqurligi, maydonlarning zovurlar bilan ta’minlanganligini hisobga olish zarur. Ekinlarni tuproq namligi dala nam sig‘imining 65-70 foizini tashkil etganda, ularning mexanik tarkibini hisobga olgan holda 700 dan 900-1100 m3/ga me’yorida sug‘orishga erishish, yaxshi strukturali, suv o‘tkazuvchanligi yuqori va sizot suvlari yaqin joylashgan yerlarda egat oralatib sug‘orish, sug‘orishda tuproqlarning nam yetishmasligini hisobga olgan holda, egat uzunligi o‘tloqi tuproqlarda egat uzunligi 150 m dan, sug‘orish muddati 24 soatdan oshmasligi, bo‘z tuproqlar uchun egat uzunligi 150 m dan va sug‘orish muddati 30 soatdan oshmasligi zarur. Har qator orqali sug‘oriladigan suv oqimi miqdori 0,4-0,5 l/s va qator oralatib sug‘orilganda esa 0,5-0,6 l/s bo‘lishi kerak.

Yerni kuzda shudgorlash, erta bahorda olib boriladigan barcha agrotexnikaviy tadbirlar (chizellash, boronalash, molalash) paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi ekinlarini ekish, parvarishlash bo‘yicha vegetatsiyasi davrida amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar tuproq kartalari va boshqa tavsiyanomalar asosida tashkil etilishi lozim.

Agrokimyoviy tadbirlar - tuproqlarni organik moddalar bilan boyitish va ularning kimyoviy, fizikaviy, agrokimyoviy, meliorativ holatlarini yaxshilashning yangi samarador usullarini qo‘llash, viloyatning ichki imkoniyatlaridan kelib chiqgan holda, noan’anaviy o‘g‘itlar-agrorudalardan (bentonit, glaukonit, daryo yotqiziqlari), nisbatan arzon organo-mineral o‘g‘itlar va ular asosida tayyorlangan kompostlar, tarkibida oziqa elementi bo‘lgan xom-ashyo va chiqindilardan fosforit, fosfogips, hamda yangi organo-mineral o‘g‘itlar olish va qo‘llash texnologiyalarini amaliyotga joriy etish, organik o‘g‘itlar qo‘llashni faollashtirish, har bir gektar sug‘orilib ekiladigan yerga beriladigan organik o‘g‘itlar me’yorini kamida 10-15 tonnaga yetkazishni ta’minlash bo‘yicha kerakli choralarni ko‘rish lozim. Organik o‘g‘itlar yillik me’yorini 50 foizini o‘simlikning o‘suv davrida sharbat shaklida berish kutilgan natijani berishini unutmaslik lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshqo‘ziev M.M., Ziyamuxamedov I.A. Tuproqda gumus muvozanatini saqlab turish va miqdorini oshirish. //Tuproqshunos va agrokimyogarlar III quriltoyi ma’ruza va tizislari. Toshkent, 2000, B. 185-187.

2. O‘zbekiston Respublikasida Yer monitoringini yuritish uslubi.Toshkent. 2011

3. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida milliy hisobot. 2018. Toshkent, 87-bet.

4. Қўзиев Р.Қ., Сектименко В.Е., Исмонов А.Ж. Ўзбекистон тупроқ картаси. Тошкент. 2008.

5. Қўзиев Р.Қ., Сектименко В.Е., Исмонов А.Ж. Ўзбекистон тупроқ қопламлари Атласи. Тошкент. 2010, с. 48.

6. Qo‘ziev R., Abduraxmonov N., Ismonov A., Omonov A., Mengliqulov E. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma. Toshkent, 2013 y.

7. Qo‘ziev R.Q, Abduraxmonov N.Yu, Yuldashev A., Qoraev A.X. O‘zbekiston Respublikasi lalmi tuproqlarining unumdorlik darajasini baholash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2014, 20 bet.

8. Jizzax viloyati agrotuproq xaritasi. 2003. M 1:100000.

9. Jizzax viloyatida statsionar va yarim statsionar ekologik maydon tuproqlarida gumus va oziqa moddalarlarning tarqalishi O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi ISSN: 2181-7774 2 (20) 2025 Pp.207-214.

10. Экологические и почвенно-мелиоративные условия джизакской степи Экология хабарномаси №1 (9), 2024 Н.Паттахов, Ф.Эркабаев.

IQLIM O‘ZGARISHLARI SHAROITIDA AMUDARYO HAVZASI KOLLEKTOR-ZOVUR SUVLARI MIQDOR VA SIFATINI BAHOLASh (O‘zbekiston hududi)

Gapporov Xayrillo Lutpillaevich[1], Qulmatov Rashid Anorovich[2]
[1]*Mustaqil izlanuvchi*, [2]*O‘zbekiston Milliy universiteti professori*

Annotatsiya. Maqolada Amudaryo havzasida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlari hajmi, minerallashuvi va tarkibidagi umumiy tuz miqdori orqali havzadagi kollektor-zovur suvlarining mikdor va sifatini baholash yoritilgan.

Amudaryo havzasi hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining umumiy miqdori yiliga 11,4-16,5 km^3, minerallashuvi 1,33-6,17 g/l ni tashkil kilib, hosil bo‘layotgan tuz miqdori yillik o‘rtacha 19,0 mln. tonnadan 27,8 mln. tonnagacha o‘zgarib turgan.

Kalit so‘zlar: *Amudaryo, xavza, kollektor-zovur suvlari, minerallashuv, sifat o‘zgarishlari.*

Аннотация. В статье освещена оценка количества и качества коллекторно-дренажных вод, образующихся в бассейне Амударьи, на основе объёма, минерализatsiи и общего содержания солей в их составе.

Общий объём коллекторно-дренажных вод, формирующихся в бассейне Амударьи, составляет 11,4–16,5 км^3 в год, их минерализatsiя — 1,33–6,17 г/л, а годовое количество образующихся солей изменяется в среднем от 19,0 млн тонн до 27,8 млн тонн.

Ключевые слова: *Амударья, бассейн, коллекторно-дренажные воды, минерализatsiя, изменения качества*.

Abstract. The article presents an assessment of the condition of collector–drainage waters in the Amu Darya basin based on the volume, mineralization, and total salt content of these waters.

The total annual volume of collector–drainage waters formed from the Amu Darya basin ranges from 11.4 to 16.5 km^3, with mineralization levels between 1.33 and 6.17 g/L. The amount of salts formed varies annually from an average of 19.0 million tons to 27.8 million tons.

Keywords: Amu Darya, basin, collector–drainage waters, mineralization, quality changes.

KIRISH

Markaziy Osiyo davlatlarining sug‘oriladigan yerlaridan yiliga 55,0-60,0 million tonna, jumladan Amudaryo havzasi sug‘oriladigan maydonlardan 19,0-27,8 million tonna tuzlar tushib, ular suv resurslarining ifloslanishiga olib kelmokda. Tuzlar tarkibida kalsiy gidrokarbonat, kalsiy, magniy, natriy sulfat va natriy xlorid boshka element va moddalar miqdori yuqoriligi aniqlangan [1-3].

Amudaryo va Sirdaryo suv resurslari sifatiga qishloq xo‘jaligi faoliyatining ta’siri o‘rganilgan. Ushbu salbiy ta’sirning asosiy sababi qishlok xo‘jaligida muttasil mineral o‘g‘itlar va pestitsidlardan foydalanish ekanligi aniqlangan. Daryolarning yuqori oqimidan quyi oqimiga o‘tgan sari daryolar suvining minerallashuvi va tarkibidagi turli moddalar miqdorining ortib borishi aniqlangan [4-9].

O‘zbekistonning turli hududlarida daryo suvlarining ifloslanish darajasini va manbasini tahlil qilish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar o‘tkazilgan. Jumladan, Amudaryo daryosi havzasi kollektor-zovur suvlarini miqdor va sifat jihatidan baholash, qishloq xo‘jaligi faoliyatining suv sifatiga ta’siri, hududlarda sug‘oriladigan maydonlar sho‘rlanishi, Amudaryo deltasining gidroekologik holatini baholash ishlari amalga oshirilgan [10-16].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Amudaryo daryosining O‘zbekiston qismidagi suv resurslarining miqdori, sifat tarkibi o‘zgarishini, mazkur hududda hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi va miqdorini vaqt va masofada o‘zgarishlarini baholash dolzarb masalalardan biridir.


Tadqiqot ishining asosiy maqsadi Amudaryo havzasining O‘zbekiston qismidagi suv resurslarining miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini, Amudaryo havzasida hosil bo‘layotgan kollektor-drenaj suvlarining minerallashuvi, umumiy tuz miqdorini aniqlash, suv resurslarining ifloslanishiga sabab bo‘luvchi asosiy omillarni aniqlash, baholashdan va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berishdan iborat.

TADQIQOT OB’EKTI VA USULLARI

Tadqiqot ob’ekti sifatida Amudaryoning o‘rta va quyi oqimi bo‘lgan O‘zbekiston qismi olingan.



1-rasm. **Amudaryo xavzasining gidrografik tarmoqlari**
http://www.cawater-info.net/



1a-rasm. **Amudaryoning gidrografik tarmoqlari sxemasi**
http://www.cawater-info.net/

2.1. Iqlimi.


Amudaryo havzasi relefi turlicha bo‘lgan ikki qismdan iborat: daryo oqimining asosiy qismi hosil bo‘ladigan tog‘li hududlar va oqim sarflanadigan tekisliklar.

Daryo havzasining katta masofaga cho‘zilganligi, balandliklarning sezilarli darajada o‘zgarishi, relef va landshaft shakllarining turlicha bo‘lishi («abadiy» qor va muzliklar bilan qoplangan baland tog‘ tizmalaridan boshlab, issiq suvsiz cho‘llargacha) iqlim sharoitlarining ham turlicha bo‘lishiga sabab bo‘ladi.


Amudaryo havzasi hududi dengiz va okeanlardan uzoqda joylashganganligi tufayli issiq va quyoshli kunlar ko‘p bo‘lgan kontinental iqlimi bilan ajralib turadi. Uning katta qismini Qoraqum va Qizilqum cho‘llarining qumli cho‘llari, shuningdek, quruqligi bilan ajralib turadigan yarim cho‘llarning keng tekis kengliklari egallaydi.

Daryo havzasi iqlimining keskin kontinental va quruqligi, havo haroratining yozda yuqori turg‘un, qishda beqaror past holati va haroratning oylar va yil davomida keskin o‘zgarib turishi, atmosfera yog‘inlarining xavzaning yukori kismida kamligi va ularning yil fasllari bo‘yicha notekis taqsimlanishi, qishning qisqaligi, bu davrda sovuq va issiq haroratning tez-tez alamashib turishi, bahorning erta kelishi, jazirama va quruq yoz bilan tez almashishi bilan xarakterlanadi [7].

O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 220 mm, Amudaryoning quyi oqimida 100 mm dan oshmaydi. Daryoning o‘rta oqimida o‘rtacha yillik harorat +14 dan + 17°C gacha, qishda - + 1 dan + 2°C gacha, yozda - + 30 dan + 32°C gacha, quyi oqimida esa o‘rtacha yillik harorat +11 dan + 14°C gacha, qishda esa -4 dan -6°C gacha, yillik ijobiy haroratlar yig‘indisi 5000-5500°C ga, o‘ta janubda va cho‘lda 6000°C ga yetadi. Tog‘lararo vodiylar yog‘ingarchilikning ko‘pligi - 450-700 mm va issiq iqlimi bilan ajralib turadi. Yillik o‘rtacha harorat +16+18°C, yozda esa +32°C [17].



2-rasm. **Amudaryo havzasining o‘rtacha ko‘p yillik havo harorati o‘zgarishi dinamikasi**



3-rasm. **Amudaryo havzasida o‘rtacha ko‘p yillik yog‘ingarchilik miqdori o‘zgarishi dinamikasi**

Amudaryo havzasida joylashgan O‘zgidromet tasarrufidagi 20 ta gidrometeorologik stansiyalarning ko‘p yillik ma’lumotlariga ko‘ra, havzada o‘rtacha yillik harorat 2013-2022 yillar davomida +14 +15°C, o‘rtacha maksimum harorat +28+29°C hamda o‘rtacha minimum harorat 1,6-2,5°C ni tashkil qilgan (*2 -rasm*).

Amudaryo havzasi xududlarida yillik yog‘ingarchiliklarning o‘rtacha miqdori 73-368 mm. Yog‘ingarchiliklarning yillik umumiy miqdorining taxminan 40-45% qismi bahor faslida, 25-35% qish faslida, 15-20 % kuz fasliga to‘g‘ri keladi (*3-rasm)*.

2.2. Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishlarida O‘zbekiston gidrometeorologiya xizmati agentligining yer usti suvlari sifati bo‘yicha birlamchi ma’lumotlari, Suv xo‘jaligi vazirligining kollektor-zovur tarmoqlari haqidagi birlamchi ma’lumotlari olingan va ma’lumotlar chuqur statistik qayta ishlangan. Amudaryo suvining O‘zbekiston qismidagi gidrologik va gidrokimyoviy tahlili gidropostlardan olingan suv namunalarining tahlillari natijalari asosida baholandi.


NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Amudaryo daryosi havzasida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishdan hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining asosiy qismi Amudaryo daryosiga tushadi. Amudaryo daryosi suvi minerallashuvining yuqoridan quyiga qarab ortib borishining asosiy sabablaridan biri minerallashgan kollektor-zovur suvlarining daryoga kelib tushishi bilan bog‘liq.

Amudaryo havzasi asosiy kollektorlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlari hajmi va minerallashuvini baholaganimizda quyidagilar aniqlandi.

Amudaryo havzasi asosiy kollektorlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining umumiy miqdori mamlakat miqyosida yiliga 6,01-9,2 km^3, minerallashuvi 1,33-6,17 g/l ni tashkil kilgan. Havzada hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining eng katta hajmi Tuyamuyin irrigasiya tizimi hududida hosil bo‘ladi (yiliga o‘rtacha 4,7 km^3). Xosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarning asosiy qismi Sariqamish pasttekisligiga quyiladi.

Surxon-Sherobod massivida esa 1,2 km^3, Amudaryo havzasining quyi qismi Qoraqalpog‘iston respublikasining sug‘oriladigan maydonlaridan esa o‘rtacha 2,3 km^3 kollektor-zovur suvlari hosil bo‘ladi.



4-rasm. **Amudaryo havzasi asosiy kollektorlari kollektor-zovur suvlari minerallashuvining o‘rtacha qiymati o‘zgarishi dinamikasi**

Amudaryo havzasi asosiy kollektorlarida hosil bo‘layotgan kollektor-zovur suvlari minerallashuvi darajasining yillik o‘rtacha eng kam qiymati Surxondaryo viloyatida 1.33 g/l ni, eng yuqori qiymat Qashqadaryo viloyatida 6.17 g/l ni tashkil qilgan (*4-rasm)*.

Daryo xavzasida hosil bo‘layotgan tuz miqdori yillik o‘rtacha 19039 ming tonnadan 27769 ming tonnagacha o‘zgarib turgan. Shundan asosiy kollektorlarda hosil bo‘lgan tuz miqdori yillik o‘rtacha 3527-7763 ming tonnani tashkil etgan (*5-rasm)*.



5-rasm. **Amudaryo havzasi asosiy kollektorlari kollektor-zovur suvlaridagi umumiy tuz miqdori o‘zgarishi dinamikasi, ming tonna**

Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston respublikasidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasi Surxondaryo va Xorazm viloyatlari kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasiga nisbatan yuqoriligining sababi, birinchidan, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston respublikasidagi tuproqning sho‘rlanish darajasi yuqoriligi bilan izohlansa, ikkinchidan Amudaryo daryosi yuqori oqimidan quyi oqimga tushgan sari daryoning suvining minerallashuvi ham ortib boradi. Bu o‘z navbatida qishloq xo‘jaligida sug‘orish uchun ishlatilayotgan suvlarning minerallashuvi ortishiga hamda ushbu viloyatlar sug‘oriladigan maydonlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining ham minerallashuvi ortishiga sabab bo‘ladi. Surxondaryo viloyatidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasining nisbatan pastligi viloyat sug‘oriladigan maydonlarining asosiy qismi minerallashuv darajasi kamroq miqdorni tashkil etuvchi Surxondaryo va Sherobod daryolari suvlari bilan sug‘orilishi xamda sug‘oriladigan maydonlariining sho‘rlanish darajasi nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga iqlim o‘zgarishlarining (yog‘ingarchilik va harorat) ta’siri o‘rganilgan. Ushbu bog‘liqlik zichligini ifodalovchi – korrelyasiya koeffitsientlarining qiymatlari (Pirson korrelyasiyasi) tahlil qilindi (*1-jadval*).

1-jadval

Amudaryo havzasi asosiy kollektor-zovur suvlari minerallashuvining havo harorati va yog‘ingarchilikka bog‘liqligi

T/r	**viloyatlar**	Ma’lumotlar (korrelyasion koeffitsientlar qiymati)		
		Havo harorati, ˚C (yozgi)	Havo harorati, ˚C (qishki)	Yog‘ingarchilik, mm
1	Surxondaryo	0,62	0,08	-0,51
2	Qashqalaryo	0,76	0,35	-0,71
3	Buxoro	-0,18	-0,15	-0,42
4	Xorazm	0,11	-0,38	-0,65
5	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0,12	0,35	0,14

Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga yog‘ingarchilikning ta’siri Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuchsiz bog‘liqlik, qolgan viloyatlarda o‘rtacha va kuchli teskari bog‘liqlik kuzatildi. Yozgi havo haroratiga Qashqalaryo viloyatida yuqori bog‘liqlik, Surxondaryo viloyatida o‘rtacha, Buxoro, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa

kuchsiz bog‘liqlik kuzatildi. Qishki havo haroratiga Qashqalaryo viloyatida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha bog‘liqlik, Surxondaryo viloyatida kuchsiz, Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa qishki havo haroratiga kuchsiz va o‘rtacha teskari bog‘liqlik kuzatilgan (*1-jadval*).

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi Amudaryo daryosi havzasida oqim bo‘ylab ortib borishi aniqlandi. Amudaryo havzasi o‘rta oqimidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuv darajasi quyi oqimidagiga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobarga kam bo‘lgan.

2. Amudaryo havzasida joylashgan Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida hosil bo‘lgan kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston respublikasidagi kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi darajasidan kam bo‘lgan. Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog‘iston respublikasidagi tuproqning sho‘rlanish darajasi va sug‘orish suvi minerallashuvi yuqoriligi sababli kollektor-zovur suvlarining minerallashuvi yuqori bo‘lgan.

3. Kollektor-zovur suvlarining minerallashuviga yog‘ingarchilikning ta’siri Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuchsiz bog‘liqlik, qolgan viloyatlarda o‘rtacha va kuchli teskari bog‘liqlik kuzatildi. Yozgi havo haroratiga Qashqalaryo viloyatida yuqori bog‘liqlik, Surxondaryo viloyatida o‘rtacha, Buxoro, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa kuchsiz bog‘liqlik kuzatildi. Qishki havo haroratiga Qashqalaryo viloyatida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha bog‘liqlik, Surxondaryo viloyatida kuchsiz, Buxoro va Xorazm viloyatlarida esa qishki havo haroratiga kuchsiz va o‘rtacha teskari bog‘liqlik kuzatilgan.

4. Amudaryo havzasida hosil bo‘layotgan kollektor-zovur suvlarining, sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlarning daryo suvlariga quyilishi natijasida daryo suvi minerallashuvi ortishi, ifloslanishi suv resurslaridan samarali foydalanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Suv resurslarining ifloslanishini oldini olish uchun qishloq xo‘jaligida ishlatilayotgan mineral o‘g‘itlarning me’yordan ortiqcha ishlatilishini oldini olish, qishloq xo‘jaligi ekinlariga mineral o‘g‘itlarni tomchilab sug‘orish texnologiyalari orqali berilishini ta’minlash, sanoat korxonalaridan chiqayotgan oqova suvlarning yetarli darajada tozalanishini nazorat qilish hamda muntazam monitoring kilib borishni talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Chembarisov E.I., Xojamuratova R.T., Shodiev S.R., Lesnik A.P.: Osobennosti raspredeleniya mineralizasii i ximicheskogo sostava gruntovых vod oroshaemoy zonы Surxan-Sherabadskogo oazisa. Puti povыsheniya effektivnosti oroshaemogo zemledeliya, № 4(64)/2016. Materialы konferensii. S. 144-150.

2. Chembarisov E. I., Maxmudov I. E., Lesnik T. Yu., Vaxidov Yu. S., Dolidudko A. I. Mineralizasiya i gidroximichekiy rejim vod srednego techeniya reki Sыrdari. Puti povыsheniya effektivnosti oroshaemogo zemledeliya, Materialы konferensii № 2(62)/2016.

3. Chembarisov E. I., Xojamuratova R.T., Raximova M.N., Shodiev S.R.. Mnogoletnie izmeneniya kachestva rechnыx vod Uzbekistana Prirodnыe resursы, sreda i obщestvo. «Nauki o Zemle i smejnыe ekologicheskie nauki», 2020 str 55-58.

4. Saidmamatov O., Rudenko I., Pfister S., and Koziel J. 2020, Water–Energy–Food Nexus Framework for Promoting Regional Integration in Central Asia. Water 12, 1896. https://doi.org/10.3390/w12071896

5. Leng P., Zhang Q., Li F., Kulmatov R., Wang G., Qiao Y., Wang J., Peng Y., Tian C., Zhu N., Hirwa H., Khasanov S.. Agricultural impacts drive longitudinal variations of riverine water quality of the Aral Sea basin (Amu Darya and Syr Darya Rivers), Central Asia. Environmental Pollution 284 (2021) 117405. https://doi.org/10.1016/j.envpol.2021.117405

6. Chembarisov E.I., Mirzakobulov J.B., Raximova M.N., Rasulov B.O., Tillaeva Z.U.

Gidroekologichesiy monitoring kachestva rechnых vod basseyna reki Amudari v predelax Uzbekistana. Ekologiya i stroitelstvo | № 1, 2019 s.12-18 | DOI: 10.35688/2413-8452-2019-01-002

7. Budущее basseyna Amudari v usloviyax izmeneniya klimata. Pod redaksiey prof. V.A. Duxovnogo. Tashkent: NIS MKVK Sentralnoy Azii, 2018. – 328 s.

8. Vereщagina N.G., Щetinnikov A.A., Muxametzyanova A.M.. O ximicheskom sostave vodы kollektorov i ix roli v rassolenii zemel v nizove Amudari. Gidrometeorologiya i ekologiya. №4, 2017. c 82-88.

9. Kh.Gapporov, R.Kulmatov, and Ch.Opp. Assessment of quantity and quality indicators of water resources in the Zarafshan river basin (within the territory of Uzbekistan). E3S Web of Conferences 623, 01010 (2025), AEES2024, https://doi.org/10.1051/e3sconf/202562301010

10. Leng P., Zhang Q., Li F., Kulmatov R., Wang G., Qiao Y., Wang J., Peng Y., Tian C., Zhu N., Hirwa H., Khasanov S.. Agricultural impacts drive longitudinal variations of riverine water quality of the Aral Sea basin (Amu Darya and Syr Darya Rivers), Central Asia. Environmental Pollution 284 (2021) 117405. https://doi.org/10.1016/j.envpol.2021.117405

11. Abdushukurov Dj.A., Kobuliev Z.V., Salibaeva Z.N.. Izuchenie sostava i kachestva vodы v pritokax reki Amudarya. Nauka i novые texnologii №7, 2013, c 47-51.

12. Kulmatov R.A. and Hojamberdiev M.. Heavy Metals Concentration and Speciation in Arid Zone Rivers (Amudarya and Syrdarya) of Central Asia. Journal of Environmental Science and Engineering, Aug. 2010, Volume 4, No.8 (Serial No.33). https://doi.org/10.1007/s11869-010-0067-6;

13. Adenbaev B. Ye. Sovremennoe gidroximicheskoe sostoyanie vodnых ekosistem nizovev reki Amudari. Voprosы geografii i geoekologii. №4, 2014. c 10-14.

14. Adenbaev B. Ye., Xaydarova O. A., Xikmatov F. X. Gidrologicheskiy rejim nizovev reki Amudari v usloviyax usilennogo xozyaystvennogo ispolzovaniya vodnых resursov. Voprosы geografii i geoekologii. №4, 2014. c 15-19.

15. Rajabova N., Sherimbetov V., Sadiq R., Aboukila A.F. An Assessment of Collector-Drainage Water and Groundwater—An Application of CCME WQI Model. Water (MDPI). Water 2025, 17, 2191. https://doi.org/10.3390/w17152191

16. Эшчанов О.И. Анализ и осенка качество воды реки Амудари. Научные записки НИС МКВК. №12, 2021. 58 стр.

17. Чуб В.Э. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. Ташкент, 2007, с.134.

ОЧИСТКА СТОЧНЫХ ВОД КОЖЕВЕННОГО ПРОИЗВОДСТВА МЕТОДОМ ФЛОТАЦИИ

Мухамедов Кабилджан Гафурович, Турабджанов Садритдин Махаматдинович,
Насирова Нилуфархон Кабилджановна
Ташкентский государственный аграрный университет
Мухамедов Жамалиддин Кабилджанович
Ташкентский химико-технологический институт, соискатель

Аннотатция: Ушбу илмий мақолада терини қайта ишлаш корхоналарида ҳосил бўлган хромли оқова сувларининг таркиби ва хусусиятлари келтирилган. Шунингдек, терини қайта ишлаш корхоналари оқова сувларини пневматик флотатця усули билан тозалаш жараёнлари кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: реагентлар, бўёқ, чиқинди сувларни тозалаш усуллари, флотатция, электрофлотатция.

Аннотация: В данной научной статье представлены состав и свойства хромосодержащих сточных вод, образующихся на предприятиях по переработке кожи. Также рассмотрены процессы очистки сточных вод кожевенных предприятий методом пневматической флотации.

Ключевые слова: реагенты, краситель, методы очистки сточных вод, пневматическая флотация.

Abstract: This scientific article presents the composition and properties of chromium-containing wastewater generated by leather processing enterprises. It also examines the treatment of tannery wastewater using pneumatic flotation.

Keywords: reagents, dye, wastewater treatment methods, pneumatic flotation.

ВВЕДЕНИЕ

Изделия из кожи применяются для самых различных целей, например для изготовления обуви, кожгалантереи, для обивки мебели и салона автомобилей, а также для других отраслей промышленности.

Для переработки животных шкур в готовый продукт необходимы водные растворы различных химических соединений. Вследствие чего состав производственных сточных вод от технологических процессов кожевенных предприятий зависит от технологии производства кожи, качества и количества химических соединений, используемых в различных технологических процессах.

При изготовлении кожи для определенных нужд используются специальные технологии обработки сырья и реагенты, которые наиболее присущи для производственных нужд предприятия и потребителей его продукции, поэтому сточные воды от одного предприятия могут отличаться от сточных вод другого предприятия. Для правильного и оптимального выбора технических и технологических решений по очистке сточных вод от конкретного кожевенного предприятия необходимо выполнять экспериментальные исследования и проводить, как правило, предварительную пробную очистку сточных вод в лабораторных условиях.

ОБЪЕКТ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЙ.

Сточные воды кожевенных предприятий относятся к сильнозагрязненным сточным водам. Они содержат различные загрязнения, такие как: частицы мездры, шерсть, кровь, навоз, продукты распада белков, жиры, ПАВ, красители, а также различные минеральные соединения – известь, сульфиды и сульфаты, амины, хром, едкий натр и сода, фенолы, соли металлов, и др. приведены в таблице 1 [1].

Очистка сточных вод от кожевенных предприятий в государствах СНГ, Евросоюза и других странах мира осуществляется на локальных очистных сооружениях.

Сточные воды кожевенных предприятий подлежат обязательной предварительной локальной очистке. И только после этого могут быть направлены в городскую канализационную сеть. Локальную очистку производят с целью удаления грубодисперсных примесей, взвешенных веществ, ПАВ, хрома, красителей, фенолов и сульфидов. Окончательной стадией очистки сточных вод кожевенных предприятий, является биологическая очистка, которая осуществляется, на очистных сооружениях.

Методы, применяемые для очистки сточных вод кожевенных предприятий, могут быть разделены на следующие группы:

1. механические;
2. физико-химические;
3. химические
4. биологические

Таблица 1

Характеристика сточных вод кожевенных заводов

№ п.п.	Содержание в воде, г/л;	Стоки		
		Общий	Зольный	Хромсодержащий
1.	Взвешенные веществ	2,0 – 12,0	0,8 – 5,5	0,5 – 4,5
2.	Плотный остаток	4,0 – 11,5	9,5 – 15,0	22,0 – 170,0
3	Хром	0,05 – 0,3	0,0	0,1 – 5,3
4.	Сульфиды	0,05 – 0,3	0,15 – 2,0	-
5.	Жиры	0,2 – 0,8	0,0 – 0,6	0,06 – 0,25
6.	СПАВ	0,0 – 75,0	0,0	-
7.	Фенол	0,0 – 40,0	0,0	-
8.	ХПК	2,5 – 3,2	-	1,8 – 6,1
9.	$БПК_5$	0,7 – 1,5	0,1 – 2,0	0,5 – 4,5
10.	pH	8,5 – 11,5	9 - 12	3 – 6,5

К физическим методам относится механическая очистка, включающая в себя следующие технологические оборудования:

решетки, песколовки, отстойники и флотаторы.

Этот метод применяется для предварительного извлечения из сточных вод шерсти, волокон, песка, жира и других нежелательных примесей.

Для физико-химической очистки сточных вод, применяются: коагуляция, экстракционные способы очистки, сорбционные способы очистки, флокуляция, флотация, седиментация, фильтрация, окисление.

Для этих целей используются химические, минеральные и органические вещества – реагенты, физические процессы и специальное оборудование.

Химическая очистка основана на окислительно-восстановительных реакциях, реакциях нейтрализации и осаждения ионов тяжелых металлов.

Биологическая очистка осуществляется в аэротенках и биофильтрах с участием микроорганизмов.

Применение флотационных способов очистки сточных вод кожевенных предприятий для предварительной локальной очистки сточных вод обеспечивает значительное снижение содержания них механических примесей, сульфидов, ПАВ, красителей и органических веществ.

Флотация-это метод очистки сточной воды, основанный на прилипании взвешенных в ней примесей к пузырькам воздуха и всплывании их на поверхность. Достоинствами флотации являются непрерывность процесса, широкий диапазон применения, невысокие капитальные и эксплуатационные затраты, простая аппаратура, селективность выделения примесей, большая скорость процесса по сравнению с отстаиванием, возможность получения шлама более низкой влажности, высокая степень очистки которая достигает 95-98% и возможностью рекуперации удаляемых веществ [2].

Процесс очистки сточных вод, содержащих ПАВ, нефтепродукты, масла, красители, методом флотации, заключается в образовании комплексов "частицы пузырьки", всплывание этих комплексов на поверхность воды и удаление образовавшегося пенного слоя с поверхности обрабатываемой воды.

Элементарный акт флотации заключается в следующем: при сближении поднимающегося в воде пузырька воздуха с твердой гидрофобной частицей разделяющая их прослойка воды прорывается при некоторой критической толщине и происходит слипание пузырька с частицей. Затем комплекс «пузырек-частица» поднимается на

поверхность воды, где пузырьки собираются и возникает пенный слой с более высокой концентрацией частиц, чем в исходной сточной воде.

При закреплении пузырька образуется трехфазный периметр-линия, ограничивающий площадь прилипания пузырька и являющийся границей трех фаз - твердой, жидкой и газообразной. Касательная к поверхности пузырька в точке трехфазного периметра и поверхность твердого тела образуют обращенный в воду угол называемый краевым углом смачивания (рис. 1) [2].




Рис. 1. Схема элементарного акта флотации:
1 - пузырек газа; 2 - твердая частица.

Вероятность прилипания зависит от смачиваемости частицы, которая характеризуется величиной краевого угла. Чем больше краевой угол смачивания, тем больше вероятность прилипания и прочность удерживания пузырька на поверхности частицы. На величину смачиваемости поверхности взвешенных частиц влияют адсорбционные явления и присутствие в воде примесей ПАВ, электролитов и др. [2].

Существенное влияние на флотацию частиц оказывает поверхностное натяжение воды. Для успеха протекания процесса масса флотируемых частиц не должна превышать силы их прилипания к газовым пузырькам и их подъемной силы. Оптимальная крупность извлекаемых примесей находится в пределах 10-5-10-3 м, дисперсность пузырьков газа 15*10-6-30*10-6 м, а поверхностное натяжение воды не должно превышать 0,06-0,065 н/м. С понижением поверхностного натяжения эффект очистки воды флотацией повышается в отличие от отстаивания и фильтрования [7].




Рис. 2. Схемы напорной флотации при насыщении воздухом исходной (А) и очищенной (Б) воды.1,7-подача исходной и отвод очищенной воды; 2-смеситель;3-подача реагентов; 4-камера

хлопьеобразования; 5-распределительное устройство; 6-флотатор; 8-подача водовоздушной смеси; 9-ввод воздуха; 10-бак для растворения воздуха в воде.

Обработку воды флотацией рекомендуется применять при ее мутности до 150 мг/л и цветности до 200 град. Это позволяет уменьшить объем водоочистных сооружений вследствие ускорения в 3 ... 5 раз, процесса выделения взвеси из воды, отказаться от микрофильтров, улучшить санитарное состояние очистных сооружений.

Вид содержащихся в воде загрязнений определяет характер флотационной обработки: одним воздухом или воздухом в сочетании с различными реагентами и прежде всего коагулянтами.

Использование коагулянтов позволяет значительно повысить эффективность флотационной очистки и удалять загрязнения, находящиеся в воде в виде стойких эмульсий и взвесей, а также в коллоидном состоянии. В практике применяют две схемы флотационной очистки, показанные на рис. 2. В первом случае (рис. 2, а), для насыщения воздухом используют исходную неочищенную воду, а во втором (рис. 2,б) — воду, прошедшую очистку [2].

Контакт пузырьков воздуха и частиц примесей возможен двумя путями:

1. при столкновении частиц с поверхностью пузырьков;

2. при их образовании на частицах при выделении растворенных газов.

Для напорной флотации при очистке природных вод процесс взаимодействия пузырьков при их столкновении с частицами примесей является основным и поэтому представляет практический и теоретический интерес.

Пузырек скачком прилипает к поверхности частицы, образуя с ней определенную площадь контакта. Под пузырьком сохраняется тонкий молекулярный слой воды, который устойчиво связан с твердой поверхностью. При движении жидкости через флотационную камеру возникают силы, стремящиеся оторвать твердые частицы от пузырьков воздуха: силы трения, силы тяжести, силы инерции. Для успешного протекания процесса флотации необходимо, чтобы твердые частицы и пузырьки воздуха прочно прикреплялись друг к другу. Для создания условий успешного проведения флотационной обработки воды проводят коагулирование ее примесей, что приводит к образованию хлопьев, которые в зависимости от исходного состава природной воды могут иметь различную крупность. Оптимальный вариант, когда размеры хлопьев соизмеримы с размерами пузырьков воздуха, вводимых в обрабатываемую воду и устойчиво в ней существующих [3].

Флотацией можно извлекать из воды нефтепродукты, масла и другие эмульгированные жидкие вещества, радиоактивные соединения, ионы многих растворенных в воде веществ.

Практикой очистки сточных вод, а также экспериментальными исследованиями, выработаны различные конструкции и способы флотационного разделения неоднородных систем. Наиболее существенные принципиальные отличия способов флотации связаны с насыщением жидкости пузырьками воздуха или газа [2-7]. По этому принципу выделяют

следующие способы флотационной обработки сточных вод:

1.флотация с механическим диспергированием воздуха (пневматическая, импеллерная, струйная);

2. флотация с выделением воздуха из раствора (напорная,

вакуумная);

3) электрофлотация.

Пневматический способ аэрации заключается в том, что воздух вводят в машину под давлением, вдувая его через пористые перегородки или через патрубки [2-5].

Пневматическая флотация выгодно отличается от флотации других типов возможностью подачи воздуха в любом количестве и сравнительно небольшим расходом электроэнергии. В то же время пневматическая флотация имеет существенный недостаток. Воздух, который поступает в пневматические машины, плохо диспергируется и, в результате, образуются воздушные пузырьки повышенной крупности, что отрицательно сказывается на процессе флотации. Применение для этой цели пористых перегородок не дало положительного эффекта, так как их быстро забивает шламом, кроме того, водо-воздушная смесь в аппаратах подобного типа недостаточно интенсивно перемешивается. Плохое диспергирование воздуха в пневматических машинах вызывает снижение эффективности очистки и повышенный расход реагентов.

Пневматическую флотацию применяют при очистке сточных вод, содержащих примеси, агрессивные по отношению к механизмам (насосам, мешалкам) имеющим движущие части. Измельчение пузырьков воздуха достигается путём впуска воздуха во флотационную камеру через специальные сопла, которые располагаются на воздухораспределительных трубах, укладываемых на дно флотационной камеры на расстоянии 250-300 мм друг от друга. Продолжительность флотации **t** при таком диспергировании воздуха составляет 15-20 минут, но в каждом случае она должна устанавливаться экспериментально, так же, как и интенсивность аэрации. Глубина флотатора принимается 3-4 м, а его объём находят из формулы:

$$W = \frac{Q_{сут}}{24 \cdot 60\ (1-\alpha)}$$

Где **α**-коэффициент аэрации, который ориентировочно может быть принят 0,2-0,3.Расход воздуха составляет

$$V = I \cdot F$$

где I - интенсивность аэрации; F - площадь водного зеркала флотационной камеры (ориентировочно 15-20 $м^3/м^3$).

Число сопел определяют по формуле:

$$h = \frac{V}{3600\ f \cdot S}$$

где - площадь отверстия одного сопла (d=1-1,2 мм); S - скорость воздушной струи (100-200 м/с).

Пропуская воздух через мелкие отверстия, можно получить микропузырьки, способные более эффективно флотировать содержащиеся в жидкости загрязнения [2-5]. Для этого необходима относительно небольшая скорость истечения воздуха из отверстия, достаточное расстояние между отверстиями и наличие в жидкости реагентов - пенообразователей, способных снизить поверхностное натяжение на границе раздела фаз.

Размеры пузырьков для отверстий с радиусом менее 2 мм:

$$R = \sqrt[4]{r_0^2 \cdot \sigma_{г-ж}}$$

где r_o - радиус отверстия; - поверхностное натяжение на границе раздела жидкость - газ.

Пузырьки, выходящие из одного отверстия не должны сливаться. Поэтому максимальный расход воздуха через отверстия при спокойном движении воды у аэратора можно найти по следующей эмпирической формуле:

$$Q_{макс} = 104\ r_0^2$$

Формула (5) справедлива для отверстий диаметром менее 3 мм. Избыточное давление **Δp** и минимальная величина диаметра отверстия, через которое может проходить при таком давлении воздух, определяется уравнением Лапласа:

$$d_0 = \frac{2 \cdot \sigma_{г-ж}}{\Delta p}.$$

Пневматические флотационные аппараты наиболее просты по устройству и принципу действия (рис.3.). Аэрация производится продуванием воздуха через отверстия под давлением 0,25-0,5 МПа. Диаметр отверстий сопел – 1-1,2 мм, скорость выхода струи воздуха из них 100-200 м/с. Струя воздуха при попадании в жидкость распадается на пузырьки средним диаметром 1,5 мм. Расход воздуха составляет 0,2-0,3 м^3 на 1м^3 объёма аппарата [2-5]. Для повышения эффективности очистки жидкости в аппаратах пневматического типа возникает необходимость в увеличении столба жидкости над барботажными устройствами, что приводит к резкому возрастанию энергозатрат. Отсутствие турбулизации жидкой фазы в таких аппаратах не обеспечивает высокой степени очистки промышленных стоков от тонкодисперсных и коллоидных взвесей показано на рис. 3 [9].




Рис. 3. Схема пневматического флотатора

В настоящее время на кафедре «Экология и охрана окружающей среды» проводятся экспериментальные исследования на флотаторе пневматического типа. Где имитируются стоки кожевенного предприятия «ULKAN LAZIZ» ООО и «GLOBAL AVANGARD TECHNOLOGY» ООО В процессе переработки шкур имеются жидкостные и механические операции. Вода расходуется на отмоку сырья, промывку, золение, пикалевание, дубление, мездрение и крашение.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Искакова С. А. О методах очистки сточных вод кожевенных заводов /С.А. Искакова, Е.Т. Абсеитов // Казахский Агротехнический университет им. С. Сейфуллина. - Астана: 2007. – 458 с.

2. Родионов А.И. Техника защиты окружающей среды / А.И.
Родионов, В.Н. Клушин, Н.С. Торочешников. - М.: Химия, 2012. – 512 с.

3. Мацнев А.И. Очистка сточных вод флотацией /А.И. Мацнев. –
Киев: Будівельник, 2011. – 132 с.

4. Мацнев А.И. Применение флотации для очистки сточных вод. /А.И. Мацнев // - Киев, 2015. -90с.

5. Матов Б.М. Флотация в пищевой промышленности / Б.М. Матов. - М.: Пищевая промышленность, 2009. – 167 с.

6. Проскуряков В.А. Очистка сточных вод в химической промышленности [Текст] /В.А. Проскуряков, Л.И. Шмидт. - Л.: Химия, 2007. – 520 с.

7. Яковлева С.В. Очистка производственных сточных вод / Под ред. С.В. Яковлева, Я.А. Карелина, Ю.М. Ласкова, Ю.В. Воронова. - М.: Стройиздат, 2017. - 320 с.

8. Мещеряков Н.Ф. Флотационные машины / Н.Ф Мещеряков. - М.: Недра, 2002. – 250 с.
9. Алексеев Д.В. Комплексная очистка стоков промышленных предприятий методом струйной флотации [Текст] / Д.В. Алексеев, Н.А. Николаев,А.Г. Лаптев. - Казань: КГТУ, 2005. - 156 с.

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA O‘ZBEKISTONNING DOLZARB EKOLOGIK VA SUV XO‘JALIGI MUAMMOLARI HAMDA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIK YO‘NALISHLARI

Muradov Shuxrat Odilovich,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institute direktori,
texnika fanlari doktori, professor
Rajabova Dilfuza Alisherovna,
Qarshi davlat texnika universiteti “OOMT” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Turdiyeva Feruza Alisherovna,
Qarshi davlat texnika universiteti, “E va AMMQ” kafedrasi assistenti
Turaeva Barnoxol Begmatovna,
“O‘zhydromet” qoshidagi Gidrometeorologik Ilmiy Tadqiqot Instituti doktoranti
Anarbekov Oyture Berdibekovich
KARITAS Shvetsariya loyixasinig katta texnik maslaxatchisi

Annotatsiya. Ko‘p yillik (1975–2023) tadqiqotlar asosida dolzarb ta’limiy va ilmiy ekologo-suv xo‘jaligi muammolari majmuasi aniqlangan, iqlim o‘zgarishi davrida arid hududlarda ekologiya fanini o‘qitish sifati hamda suv–yer resurslari holatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Jahon va mahalliy adabiyot manbalari tahlili asosida “Ekologiya” fanining mohiyati asoslab berilgan hamda ekologiya fanining dastlabki bosqichlari ilk bor muqaddas kitob “Avesto”da qayd etilgani isbotlangan. Ekologik falokatlarning oldini olishning asosiy yo‘li sifatida “Vijdon qonuni” qayd etilgan. Ko‘p yillik ma’lumotlar, dala va laboratoriya tadqiqotlari tahlili asosida suv xo‘jaligi sharoitining salbiy omillari aniqlangan, rekognossirovka ko‘rik-tadqiqot ishlari o‘tkazilgan.

Biologik bo‘lmagan bakalavriat yo‘nalishlari uchun xalqaro standartlarni hisobga olgan holda «Ekologiya» fanidan ishlab chiqilgan yangi darslik tavsiya etilgan. Ichimlik uchun mo‘ljallangan chuchuk suvlarning holati baholangan hamda aholining suv bilan ta’minlanishi bo‘yicha yechimlar taklif etilgan. Suvlarni qo‘shimcha resurs sifatida jalb etish uchun ularni demineralizatsiya qilish texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun sug‘orish normasini kamaytirishga qaratilgan subirrigatsiya, sizot suvlari sathining tanqidiy darajadan pastga tushishining oldini olish maqsadida ularni izolyatsiya qilish usullari, fizik bug‘lanishni kamaytirish va produktiv transpirasiyani oshirishga yo‘naltirilgan tuproq melioratsiyasi usullari taklif etilgan. Chorvachilik va tuproq unumdorligi o‘rtasida korrelyatsiya bog‘likligi aniqlangan. Suvlar sifatini baholash mezoni sifatida ularning kimyoviy tarkibining metamorfizatsiya nazariyasi keltirilgan. O‘zbekiston hududida Amudaryo oqimidan foydalanishga doir muqobil loyiha taklif etilgan. Arid zonada iqlim o‘zgarishiga moslashuvning asosiy usuli sifatida suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarish masalalarini hal etish muhim yo‘l ekani qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Suv, yer, ekologiya, sug‘orish, ta’lim, demineralizatsiya, subirrigatsiya, melioratsiya, metamorfizatsiya (kimyoviy tarkib), sizot suvlarini izolyatsiya qilish, chorvachilik, unumdorlik.

Аннотация: На основе многолетних (1975-2023) исследований выявлен комплекс неотложных образовательных и научных эколого-водохозяйственных проблем, даны рекомендации по улучшению качества изучения предмета экология и состояния водно-земельных ресурсов аридных территорий в период изменения климата.

На основе анализа мировых и отечественных литературных источников, обоснована сущность науки «Экология» и доказано, что зачатки экологии впервые отмечены в священной книге «АВЕСТА». Отмечен закон Совести, как главный путь предотвращения экологических катастроф. На основе анализа многолетних данных, полевых и лабораторных исследований выявлены негативные факторы водохозяйственных условий, проведены рекогносцировочные обследования.

Рекомендован разработанный новый учебник по предмету «Экология» с учетом международных стандартов для небиологических направлений бакалавриата. Дана оценка пресных питьевых вод и пути решения водоснабжения населения. Предложены технологии деминерализации вод как дополнительный ресурс, субирригации с целью уменьшения оросительной нормы сельскохозяйственных культур, способы изоляции грунтовых вод для предотвращения их понижения ниже критической, способ мелиорации почв для сокращения физического испарения и увеличения продуктивного испарения - транспирации. Выявлена корреляция между животноводством и плодородием почв. Приведена теория метаморфизации химического состава вод как критерий оценки их качества. Дан альтернативный вариант проекта использования стока р. Амударья на территории Узбекистана. Отмечено, что решение задач интегрированного управления водных ресурсов является кардинальным методом адаптации к изменению климата в аридной зоне.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Вода, земля, экология, орошение, образование, деминерализация, субирригация, мелиорация, метаморфизация, изоляция грунтовых вод, животноводство, плодородие.

ABSTRACT. On the basis of long-term (1975-2023) studies, a set of urgent educational and scientific ecological and water management problems was revealed, and recommendations were given to improve the quality of studying the subject of ecology and the state of water and land resources in arid territories during climate change.

Based on the analysis of world and domestic literary sources, the essence of the science "Ecology" was substantiated and it was proved that the rudiments of ecology were first noted in the holy book "AVESTA". The law of Conscience as the main way of prevention of ecological catastrophes is noted. On the basis of analysis of long-term data, field and laboratory researches negative factors of water conditions were revealed, reconnaissance surveys were carried out.

The developed new textbook on the subject "Ecology" taking into account the international standards for non-biological directions of undergraduate studies was recommended. An assessment of fresh drinking water and ways to solve the water supply of the population is given. Technologies of water demineralization as an additional resource, subirrigation to reduce the irrigation rate of agricultural crops, methods of groundwater isolation to prevent its lowering below critical, method of soil amelioration to reduce physical evaporation and increase productive evaporation - transpiration are proposed. Correlation between animal husbandry and soil fertility is revealed. The theory of metamorphization of water chemical composition as a criterion of water quality assessment is given. An alternative variant of the project is given

Keywords: Water, land, ecology, irrigation, education, demineralization, subirrigation, reclamation, metamorphization, groundwater isolation, livestock farming, fertility.

KIRISH

O‘zbekiston - ekologiyaning tarixiy beshigi

Tarixan O‘zbekiston ekologiyaning vatani hisoblanadi. Buni shundan bilish mumkinki, bundan 3000 yil avval, ya’ni eramizdan avvalgi VII asrda, bizning ajdodlarimiz - aniqrog‘i xorazmiylar birinchi marta ulug‘ asar - “Avesto” kitobini yaratganlar. Ushbu kitobning mazmuni quyidagi g‘oya bilan singdirilgan: inson o‘zini har doim pok saqlashi, o‘simliklarni asrab-avaylashi, yer, suv va havoning pokligini ta’minlashi shart [1].

Qiziqarli tomoni shundaki, bugungi kunda dunyoning 23 ta nuqtasida “Avesto” markazlari faoliyat yuritadi; mazkur asar 1825 yilda ingliz, 1972 yilda fransuz, 1973 yilda nemis va 1901 yilda rus tillarida nashr qilingan. Biz bunday xulosaga nega kelamiz? Chunki inson ekologiyaning asosiy sub’ekti, kitobda tilga olingan ushbu uch muhim tabiat unsurlari - ekologiyaning fundamental tushunchasi bo‘lgan biogeotsenoz **(**yoki ekotizim) asosi, aniqrog‘i “biotop”ni tashkil etadi. Biotop esa o‘z navbatida “klimatop” (havo, atmosfera**),** “gidrotop” (suv, gidrosfera) va “edafatop” (tuproq va tuproq-grunt) elementlaridan iborat [2]. Bizning ajdodlarimiz o‘sha davrlardayoq ushbu tabiatning asosiy tarkibiy qismlariga e’tibor qaratgan va ekotizimning ushbu zaruriy elementlarini saqlash zarurligini oldindan ko‘ra olganlar.

Ajdodlarimizning ilmiy merosiga tayangan holda, O‘zbekiston Prezidenti ham BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida (19.09.2023 y.) yana bir bor ta’kidladi: “Biz haqli ravishda faxrlanamizki, mamlakatimiz Al-Xorazmiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi buyuk olimlar va mutafakkirlar vatani bo‘lib, ular jahon fan va madaniyatining rivojiga bebaho hissa qo‘shgan…”.

Shuni qayd etish kerakki, tabiatning ushbu muhim elementlari kitobda tilga olinganidan so‘ng oradan 100 yil o‘tib, eramizdan avvalgi VI-I asrlarda Hindistonning etika mazmunidagi “Maxabxarat” va “Ramayana” dostonlarida, yana 300 yil o‘tib (eramizdan avvalgi VI-II asrlar) Xitoy solnomalarida shunga o‘xshash fikrlar bildirila boshlagan. Faqat eramizdan avvalgi V asrdagina bu borada qadimgi yunon mutafakkirlari - Geraklit, Agrigentlik Empedoka, Suqrot, Gippokrat (e.a. V asr), Ksenofont, Platon, Aristotel (e.a. IV asr), Teofrast, Eratosfen (e.a. III asr), Strabon, Lukretsiy (e.a. I asr) va boshqalar yozganlar.

Tabiatning bugungi holatini baholagan holda, O‘zbekiston Prezidenti mazkur BMT sessiyasida alohida ta’kidladi: **“**Bugun dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog‘liq uch karra global inqiroz kuchaymoqda”.

EKOLOGIYANING KONSEPTUAL-ILMIY ASOSLARI

Ushbu baholashning ilmiy ahamiyatini chuqurroq anglash uchun, avvalo “Ekologiya” tushunchasining mazmun-mohiyatiga yana bir bor qisqacha to‘xtalish lozim. Ekologiya - biosferani saqlash borasida inson tafakkuri va intellektual rivojlanishining fundamental yo‘nalishidir. Mazkur fan tirik organizmlarning “o‘z yashash muhitidagi” mavjudligi, ularning “atrof-muhit” bilan o‘zaro bog‘liqlik va mutualistik munosabatlar tizimini o‘rganadi.

Zamonaviy ilmiy qarashlar ekologik tadqiqotlar makonini keskin kengaytirgan: quyi chegarasi okean tubidagi taxminan 10 kilometr chuqurlikni qamrab oladi, yuqori chegarasi esa kuzatuv imkoniyati mavjud bo‘lgan Metagalaktika miqyosiga qadar yetadi. Bu boradagi konseptual yondashuv XI asrda Abu Ali ibn Sino (Avitsenna) tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u moddiy borliqdan tashqari hayot mavjudligi haqidagi fikrlarni Djordano Bruno qarashlaridan uch asr avval bayon etgan.

Mazkur ko‘lamdagi hodisani ilmiy idrok etish ekologiyaning global fundamental qonuniyatlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Bu jarayon jamiyatda ekologik intellektning o‘sishi, ekologik savodxonlik va madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Prezident Xalqaro

sessiyada ta’kidlaganidek, “Hammabop va sifatli ta’lim - barqaror iqtisodiy o‘sishning eng samarali omilidir.”

Ekologiyani sintetik fan sifatida talqin etish to‘g‘ri bo‘ladi, chunki u tabiiy, fundamental hamda texnik fanlar integratsiyasining markazida, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan tutashgan holatda turadi. Ehtimolki, yaqin istiqbolda ekologiya barcha ilmiy yo‘nalishlarni yagona bilim tizimi sifatida birlashtiruvchi superfan yadrosiga aylanishi mumkin. Bu borada Abu Rayhon Beruniy bergan ogohlantiruvchi fikr bugungi kunda ham dolzarb: “Inson tabiat qonunlarini qo‘pol ravishda buzsa, shunday mudhish oqibatlarga duch keladiki, ularni to‘xtatishga hech qanday kuch qodir bo‘lmaydi.” **[3]**

Bugungi kunda ekologiya jadal sur’atlarda rivojlanayotgan fan sifatida e’tirof etiladi. U jamiyat hayotida ham, inson faoliyatida ham alohida strategik ahamiyatga ega. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: **“…**respublikada ekologiya bilan bog‘liq jiddiy masalalar yetarlicha chuqur o‘rganilmayapti**”** (“Xalq so‘zi”, 16.01.2017, s.2). Shuni alohida qayd etish joizki, bunday vaziyatning shakllanishiga sabab - ekologik ta’lim va tarbiya darajasining yetarlicha yuqori bo‘lmasligi, aholining ekologik madaniyati pastligidir (videoselektor yig‘ilishi, 02.02.2022 y.). Bu Prezident tomonidan belgilangan ustuvor vazifalardan biridir. Mazkur talab O‘zbekiston Respublikasi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunida ham mustahkamlangan bo‘lib, unda **“…**barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologik ta’limni ta’minlash**”** zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan (4-modda, 3-band) [4]. Shunga qaramay, ayrim oliy ta’lim muassasalari mazkur fanning qonun talabi va Prezident topshiriqlari nuqtai nazaridan strategik ahamiyatini to‘liq anglamagan holda, uni o‘quv rejasidan asossiz va yetarli tahlilsiz chiqarib tashlamoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 29 maydagi 434-sonli Qarorida “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” belgilangan vazifa esa quyidagicha: **“…**ekologik ta’lim samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish**.”**

Zamonaviy ilmiy qarashlarda ma’lumki, inson tafakkurining shakllanishi o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, bu borada Suqrotning quyidagi fikri keng tanilgan: **“**Boshqalarni o‘rgatish oson, ammo o‘zini anglash mushkuldir” [5]. Insonning boshqa tirik mavjudotlardan farqlanishi - ong, tafakkur va refleksiya qobiliyatiga egaligi bilan belgilanadi. Ammo bugungi ilmiy dunyoqarash mazkur fikrni kengaytiradi: faqat o‘zingni anglash emas, balki o‘zing yashayotgan “uy” - Yer biosferasiga ongli munosabatda bo‘lish, unga zarar yetkazmaslik ham insoniyat mas’uliyatining ajralmas qismidir**.** Mazkur yondashuv ekologiya fanining asosiy gnoseologik (bilishga oid) yo‘nalishini belgilaydi.

Shu bilan birga, ekologik muammolar faqat tabiatga ta’sir bilan cheklanmaydi; ular global xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik, demografik jarayonlar va madaniy-axloqiy qadriyatlar bilan kompleks tarzda chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi zamon ilmiy paradigmasi insoniyat oldida turgan ko‘lamli vazifalarni hal qilish uchun Yagona ilmiy dunyoqarash modelini yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu vazifaga eng yaqin kelgan va ko‘p tarmoqli integratsion imkoniyatga ega fan - ekologiyadir. Bugungi real voqelik shuni ko‘rsatmoqdaki, ekologik barqarorlikka eng katta tahdidlardan biri - qurolli mojarolar, ya’ni urushlardir. Tinchlik qiymatini anglash uchun urush oqibatlarining beqiyos gumanitar, demografik va ekologik salbiy ta’sirlarini bilish yetarli emas - uni ongli ravishda rad etish darajasida idrok etish zarur. Falokatlarning oldini olish yo‘lidagi ushbu konseptual yondashuv **“**Vijdon qonuni**”** deb ta’riflanadi. Zero, ekologik tizimga, biosferaga va uning markaziy subyekti - Insonga nisbatan vijdoniy javobgarlik bo‘lmasa, ilmiy, texnik yoki siyosiy yondashuvlarning samaradorligi keskin pasayadi.

Bugungi vaziyatning jiddiyligini qayd etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti jahon hamjamiyatini quyidagilarga e’tibor qaratishga chaqirdi: “Global ishonch inqirozi, xalqaro xavfsizlik institutlarining samarasizligi va xalqaro huquq normalaridan voz kechish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa dunyo miqyosidagi taranglikni oshirmoqda va insoniyat taqdiriga daxldor

bo‘lgan masalalarda - iqlim o‘zgarishi, to‘kinchilik, ochlik va tengsizlik muammolarida muloqotning zaiflashuviga olib kelmoqda.”

Prezident tomonidan mamlakatning uzoq muddatli siyosiy strategiyasi konseptual ravishda belgilandi: Markaziy Osiyoni tinchlik, barqarorlik va farovonlik makoniga aylantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Davlat rahbari alohida urg‘u berib ta’kidladi**:** “BMTga a’zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi transchegaraviy va umumiy global tahdidlarga qarshi yanada mustahkam hamjihatlikda harakat qilishi shart.”

Shundan so‘ng Prezident ekologik ong va vijdon masalasiga yana murojaat qildi: “Tarixiy burilish davrida biz kelajak avlodga qanday sayyorani meros qoldirishimiz borasida chuqur o‘ylashimiz lozim. Barqaror tinchlik va taraqqiyotga faqat umumiy intilish, birdamlik va hamkorlik orqali erishish mumkin. Bugungi kunda o‘zaro ishonch, hamjihatlik va kooperatsiya har qachongidan ko‘proq zarur.”

Mazkur fikrlar, keng ma’noda, Vijdon qonuni deb ta’riflanayotgan ekologik mas’uliyat konsepsiyasining ideologik-huquqiy preambulasini tashkil etadi. Ushbu konsepsiya ekologiyaning markaziy subyekti - Homo sapiens (inson - ongli mavjudot) ning ekologik xavfsizligini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Ekologik normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, tizimlashtirish va unifikatsiya qilish maqsadida **O‘**zbekiston Respublikasi Ekologik kodeksi ishlab chiqildi hamda hozirda tasdiqlash jarayonida. Mazkur kodeks ekologik boshqaruv, tabiatni muhofaza qilish, iqlim o‘zgarishiga moslashuv va ekologik xavfsizlikning huquqiy mexanizmlarini yagona tizimga keltirishga qaratilgan.

Shuningdek, strategik ahamiyatga ega qadam sifatida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining tashkil etilgani e’tirof etiladi (Prezidentning 31.05.2023 yildagi PP–171-son Qarori**)**. Mazkur vazirlik mamlakatning ekologik siyosatini amalga oshirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini integratsiya qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit monitoringi, iqlim o‘zgarishi xavflarini boshqarish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha markaziy vakolatli organ hisoblanadi.

TADQIQOTNING MAQSADI

Qayd etish joizki, Markaziy Osiyoda O‘zbekiston sug‘oriladigan dehqonchilik rivojlangan eng qadimiy sivilizatsiyalardan biri hisoblanadi. Bunga S.P. Tolstov tomonidan olib borilgan arxeologik qazilmalar va tadqiqotlar dalildir. Ushbu ilmiy izlanishlar natijalari Amudaryo deltasida irrigatsiya tarmog‘i eramizdan avvalgi VI asrdan eramizning III asrigacha bo‘lgan davrda eng yuqori taraqqiyot bosqichiga erishganini ko‘rsatadi [6].

XIX asr oxirida yirik rus klimatologi A.I. Voyeikov quyidagicha xulosa qilgan: “…Osiyoning qurg‘oqchil hududlari (ya’ni Turkiston) inson hayoti va faoliyati uchun, albatta, sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, AQSHning ko‘plab hududlariga nisbatan ancha qulaydir.” **[7]**

Zamonaviy sharoitda suv xo‘jaligi masalalarini global va mintaqaviy iqlim o‘zgarishi fonida, ilg‘or ilmiy g‘oyalar va innovatsion yondashuvlar asosida hal etishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2030 yillarga mo‘ljallab tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi Svenson shunday ta’kidlaydi: “Suv tugagan joyda hayot ham tugaydi - bu o‘zbeklarda qadimdan mavjud hikmatdir.” [8]. Ushbu e’tirof shundan dalolat beradiki, agar Quyosh Yer yuzidagi barcha tiriklikning “otasi” bo‘lsa, suv ko‘plab olimlar fikriga ko‘ra, hayotni yuzaga keltirgan “ona bag‘ri” - hayot shakllanishining boshlang‘ich muhiti hisoblanadi.

Gidrosfera ekologik tizimning, aniqrog‘i biogeotsenozning asosiy komponenti bo‘lib, ekotop (yoki biotop) tarkibining ajralmas qismidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining demografik prognozlariga ko‘ra, 2050 yilga borib yer yuzida istiqomat qiluvchi aholi soni 8,9 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Ushbu sharoitda global suv taqchilligi oqibatida 2 milliarddan 7 milliardgacha inson salomatligi, ijtimoiy farovonligi va yashash darajasi sezilarli xavf ostida qolishi ehtimol qilinmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda allaqachon 2 milliardga yaqin inson, ya’ni sayyora aholisining taxminan 25 foizi, toza ichimlik suvi yetishmovchiligi holatida yashaydi, kelgusi o‘n yillik davomida esa yana 700 million kishi ushbu toifadagi aholiga qo‘shilishi prognoz qilinmoqda [9].

Xalqaro tashkilotlar tahliliga ko‘ra, 2025 yilga kelib dunyo aholisining uchdan bir qismi sug‘orish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan suv taqchilligini boshdan kechiradi. Hozirgi kunda insoniyat foydalanayotgan chuchuk suv resurslarining taxminan 80 foizi irrigatsiya extiyojlari uchun sarflanayotganini e’tirof etish lozim [10].

Xalqaro oziq-ovqat siyosati institutining baholashlariga ko‘ra, 2030 yilga borib sug‘oriladigan yerlar maydoni 20 foizga**,** suv iste’moli esa 14 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Zero, sug‘oriladigan maydonlar jahon oziq-ovqat ishlab chiqarishining taxminan yarmi**ni** ta’minlovchi asosiy resurs hisoblanadi [11].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yil sentabr oyida barqaror rivojlanish bo‘yicha BMT Sammitida qabul qilingan №70-son Rezolyutsiyasi talablari asosida va 2030 yilgacha mo‘ljallangan BMT Global kun tartibining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ni tizimli ravishda hayotga tatbiq etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018 yil 20 oktyabrda 841-son qaror bilan “2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsadlar va vazifalarni amalga oshirish choralari to‘g‘risida”gi hujjatni tasdiqladi. Mazkur qarorda belgilangan 6-maqsad — barqaror rivojlanish manfaatlarida suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash, toza ichimlik suvi mavjudligini kengaytirish va sanitariya xizmatlarini rivojlantirish vazifalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu maqsad doirasida 6.4-vazifada 2030 yilga borib iqtisodiyotning barcha sektorlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish belgilangan bo‘lsa, 6.5-vazifaga ko‘ra, 2030 yilga qadar suv resurslarini kompleks boshqarishni barcha darajalarda ta’minlash, zarur hollarda esa ushbu jarayonni transchegaraviy hamkorlik asosida amalga oshirish vazifasi belgilab qo‘yilgan.

Mazkur masalaga yana qaytgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so‘zlagan nutqida quyidagilarni ta’kidladi: **“…**Markaziy Osiyoda suvni tejovchi texnologiyalar platformasini yaratishda eng ilg‘or texnologiyalarni jalb etish tarafdorimiz, bunda ‘Birlashgan Millatlar Tashkiloti - suv resurslari’ mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.”

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatida (28.12.2018 yil) shunday degan edi: “Hozircha ular qog‘ozda bayon etilgan bo‘lsa-da, ularni amaliy harakatlarga va real natijalarga aylantirish oldimizda turgan vazifadir. Buning uchun biz jiddiy mehnat qilishimiz zarur.”

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — Prezident va Hukumat tomonidan ilgari surilgan tashabbus va qarorlarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha innovatsion texnik tavsiyalarni ilmiy asosda o‘rganish va ishlab chiqishdan iboratdir.

TADQIQOT NATIJALARI

Mazkur tadqiqotlarda ko‘tarilgan ekologik barqarorlik va suv resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolarini bartaraf etish bo‘yicha Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan 75 yildan ortiq vaqt davomida kompleks ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Yuqori ilmiy salohiyat, ko‘p yillik tajriba, tajriba-sinov ishlari natijalariga tayangan holda, ushbu yo‘nalishda shakllangan ilmiy-amaliy yechimlar Markaziy Osiyo mintaqasida va dunyoning keng arid hududlarida qo‘llash uchun konseptual, iqtisodiy va texnologik jihatdan asoslangan takliflar majmuasini ilgari surish imkonini bermoqda.

Birinchidan, ma’lumki, turli sanoat tarmoqlarida ilmiy-texnik siyosatning amalga oshirilishi asosan maxsus ekologik tayyorgarlikka ega bo‘lmagan muhandislik-texnik xodimlar tomonidan olib boriladi. Mazkur holat oliy ta’lim muassasalarining texnik, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy–gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalariga ham taalluqlidir**.** Shu munosabat bilan**,** biologik bo‘lmagan ta’lim yo‘nalishlari uchun tayyorlangan **“**Ekologiya” darsligini keng ko‘lamda joriy etishni tavsiya etamiz [12]. Ushbu o‘quv qo‘llanma ekologiya bo‘yicha zarur bo‘lgan asosiy bilimlar minimumini qamrab oladi hamda ekologik muammolarni atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha muhandislik yechimlari bilan uzviy bog‘liq holda bayon etadi.

Darslikda ekologiya (tabiatni muhofaza qilish asoslari bilan) bo‘yicha uslubiy materiallarning to‘liq majmuasi, shuningdek, xalqaro standartlarga mos uzluksiz umumilmiy ta’lim dasturi taqdim etilgan.

Ikkinchidan, aholiga mo‘ljallangan chuchuk suv resurslariga kelsak, ularni ilmiy asoslangan, oqilona boshqarish sharoitida O‘zbekistonning uzoq muddatli istiqboli uchun yetarli suv zaxiralari mavjud. Bunga, avvalo, Farg‘ona vodiysi, Toshkent oldi hududi, Jizzax zonasi, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryodagi Kitob-Shahrisabz botiqligi hamda Surxondaryo havzasidagi yer osti chuchuk suv resurslari kiradi.

Ilmiy hisob-kitoblarga ko‘ra, respublika hududida mavjud ekspluatatsiya qilinadigan yer osti chuchuk suv zaxiralari soniyasiga taxminan 293,4 kub metrni tashkil etadi [13]. 01.01.2023 yil holatiga aholisi 36 024 946 kishi bo‘lgan sharoitda, har bir fuqaro uchun kuniga 703,7 litr chuchuk suv to‘g‘ri keladi. Aholi uchun o‘rtacha 240 l/sutka iste’mol normasini qo‘llagan holda, mazkur zaxiralar 105,6 million aholining ehtiyojini qondirishga, ta’minot muddati esa 139,3 yilga yetishi mumkin. Agar Yevropa davlatlarida qo‘llanadigan 120 l/sutka normaga o‘tilsa, mavjud resurslar 211,3 million aholiga xizmat ko‘rsatishga imkon yaratadi va ta’minot muddati 350,6 yilga uzayadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvi iste’moli me’yorini 80 l/sutka, istiqbolda esa 60 l/sutka darajasiga pasaytirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilmoqda. “Uzsuvta’minot” AJ ma’lumotlariga ko‘ra, 01.12.2023 yil holatiga O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha suv iste’moli 99,4 l/sutkani tashkil etadi.

Ushbu omillarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston bo‘yicha yagona markazlashgan vodoprovod tizimini yaratish (elektr va gaz tarmoqlari singari) maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Yer osti chuchuk suv manbalari hamda mavjud chuchuk suv omborlaridagi resurslarni, avvalo**,** aholining ichimlik suvi ta’minotiga yo‘naltirish, mamlakatda suv ta’minoti masalasini ichki resurslar hisobiga barqaror hal etish imkonini beradi.

Mazkur masala nafaqat dolzarb, balki kritik darajada hayotiy strategik ahamiyatga ega. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasi suv resurslaridan oqilona foydalanishning samarali modelini namoyon etadi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, Shvetsiyada bir kishining kunlik suv iste’moli 120 litr, Isroilda 100 litr, Niderlandiyada 80 litrni tashkil etadi. Shunga qaramay, Shvetsiya aholisi kun davomida bir necha marotaba dush qabul qilishi (masalan, o‘rtacha 5 marotaba) qayd etilgan bo‘lsa-da, suv sarfi ko‘rsatkichlari bizdagi amaliyotga nisbatan ancha kamdir.

O‘zbekiston sharoitida esa yuqori suv iste’molining shakllanishi bir qator tizimli omillar bilan izohlanadi. Jumladan: suv ta’minoti infratuzilmasida eskirgan armatura va quvurlar mavjudligi, mavjud tarmoqning foydali ish koeffitsienti pastligi, yo‘qotishlar ulushining yuqoriligi - 50 foizdan ortiq suv tarmoqdagi sizib chiqishlar natijasida yo‘qotilmoqda, energiya tejamkorligi past bo‘lgan eskirgan nasos agregatlaridan foydalanish natijasida suv tannarxining oshishi.

Mazkur holat suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruv modeli asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Shu sababli, turli tashkilotlar uchun uzoq muddatli prognoz va ehtiyojlarni hisobga olgan holda suv resurslaridan kompleks foydalanishning optimallashtirilgan sxemalarini

ishlab chiqish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bunda “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 106, 111 va 112-moddalari [14], shuningdek Prezidentning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmonida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar normativ asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur hujjatlarda suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruv tamoyillarini joriy etish, aholining kafolatli ta’minoti, iqtisodiyot tarmoqlari uchun barqaror suv yetkazib berish, suv sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash bosh maqsad sifatida belgilangan.

Shuningdek, qo‘shimcha suv manbai sifatida maishiy va texnik ehtiyojlar uchun sho‘r suvdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv orqali kommunal-maishiy xizmatlarni toza ichimlik suvi hisobidan emas, qo‘shimcha resurslar orqali qoplash, shu tariqa ichki chuchuk suv zaxiralari hisobidan aholining ichimlik suvi bilan ta’minlanishini barqarorlashtirish mumkin.

Uchinchidan, agar biz Markaziy Osiyo mintaqasida suv barqarorligini va keng ma’noda barqaror rivojlanishni ta’minlashni istasak, bugunoq barcha yirik sanoat korxonalarini, jumladan istiqbolda rejalashtirilgan atom elektr stansiyalarini ham yer osti va yer usti manbalaridagi sho‘r suvlarning qayta ishlangan (opresnen) turlariga o‘tkazish zarurati kun tartibida turibdi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan gazogidrat texnologiyasiga asoslangan suvlarni demineralizatsiya qilish qurilmasi [15] ekologik va iqtisodiy samaradorlik mezonlariga javob beruvchi innovatsion texnologiya sifatida e’tirof etilgan. Mazkur texnologiya orqali nafaqat amaliy suv ta’minoti, balki atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha talab etiladigan ekologik vazifalar ham yechim topadi.

Bugungi kunda sho‘r yer osti suvlarining hajmi [16] hamda kollektordan-drenaj suvlarining ko‘lami ortib bormoqda, ularning ulushi umumiy suv olish hajmining 30 foizini tashkil etadi. Kollektor va drenaj suvlarining to‘planishi natijasida O‘zbekistonda Sichankul (600 mln m^3 dan ortiq), Achinkul (126 mln m^3 dan ortiq), Arnasay ko‘llar tizimi (30 mlrd m^3 dan ortiq) hamda Qoraqalpog‘iston va qo‘shni Qozog‘iston hamda Turkmaniston hududlaridagi Orol bo‘yi hududida ko‘plab sun’iy sho‘r ko‘llar shakllangan. Bu suv resurslarining umumiy hajmi milliardlab kub metrlarni tashkil etadi.

Mazkur jarayon shuni ko‘rsatadiki, sho‘r suvlarni demineralizatsiya qilish va ularni texnik hamda sanoat ehtiyojlari uchun yo‘naltirish bo‘yicha strategik qarorlarni hozirning o‘zida qabul qilish zarur. Tegishli texnologik ishlov berish orqali ichimlik suvi sifatiga mos mahsulot olish, qolgan qattiq qoldiq fraksiyalaridan esa gips, ohak, soda va osh tuzi kabi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, tan olish lozimki, hozirgi davrda gidrologik va meteorologik qurg‘oqchilik jarayonlari bilan bir qatorda tuproq qurg‘oqchiligi (pochvennaya zasuxa) hodisasining kuchayishi kuzatilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2023 yil uchun yo‘llangan Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, so‘nggi uch yil davomida mamlakat hududida suv kamligi kuzatilmoqda, shu bilan birga, oxirgi 15 yil ichida yog‘ingarchilik miqdori 25 foizga kamaygan. Yoz oylarida anomal issiq kunlar sonining ortishi esa kelajakda yanada murakkab sinovlarga duch kelish ehtimolini ko‘rsatadi.

Tabiiy ravishda, 2022 yil kuzatilgan jarayon 2023 yilda ham davom etdi — intensiv bug‘lanish natijasida sug‘orish me’yorlarining oshishiga, bu esa o‘z navbatida tuproq qurg‘oqchiligini kuchaytirishi mumkin bo‘lgan holatga olib keldi. Amerika olimlarining ilmiy prognozlariga ko‘ra, 2024 yil anomal darajada yuqori yozgi harorat bilan tavsiflanishi kutilmoqda.

O‘rinsiz suv sarfini kamaytirish va orug‘ suvi samaradorligini oshirish maqsadida, biz keng qo‘llanilayotgan giperrigatsiya tizimi bilan bir qatorda subirrigatsiyani ta’minlovchi maxsus qurilmalarni (17, 18, 19) ommaviy tadbiq etishni nihoyatda muhim chora deb hisoblaymiz.

Mazkur texnologiyaning kaskadli joriy etilishi orug‘ (bir martalik sug‘orish) suv normasini 1,5–2 baravar qisqartirish imkonini beradi.

Bu qurilmalar ekologik va ijtimoiy xarakterdagi muammolar majmuasini hal qilishga xizmat qiladi. Ularni kollektor-drenaj tarmoqlari, sug‘orish tizimlari va daryo oqimlari joylashuvidagi inshootlarda joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu texnologiya sizot suv sathini optimal kritik chuqurlikka ko‘tarishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida tuproq-grunt sharoitida suv balansining tiklanishi va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

$W_{исп.}$ - испарение с территории бассейна р.Кашкадарья, площадь бассейна 14240 км^2, для этой территории характерными являются данные метеостанции Чимкурган, принимаем данные 2009 года, которые приводятся в таблице 4.

Таблица 4.

Значения испарения по данным метеостанции Чимкурган

месяцы	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	октябрь
Испарение в мм	77,6	96,3	230,8	230,8	247,3	217,3	110

Тогда

$$W_{эвап.}(t) = Эвап * 14240 \frac{10^6}{10^3} dt = Эвап(вмм) * 14240 * 10^3 dt(м^3/мес) \qquad (7)$$

$W^{-}_{от.вгв}$ - приток к подземным водам, в этом случае изменяется лишь амплитуда колебания подземных вод- $\Delta h_{pr.}$, обусловленная притоком поверхностных вод к источникам подземных вод (для поверхностных вод потери, а для подземных вод приход). Объем оттока поверхностных вод определяется:

$$W^{-}_{от.вгв} = \int_{t_0}^{t} Q^0_{от.гв} dt = Q^0_{от.гв}(t),$$

$$Q^0_{от.гв}(t_0) = 0$$

$$W^{-}_{от.вгв} = Q^o{}_{от.вгв}(t) = (0{,}0317 \mu \Delta h_{пр} F)(t) \qquad (8)$$

Значения амплитуды колебания подземных вод- $\Delta h_{пр}$.

Таблица 5

Значения амплитуды колебания подземных вод- $\Delta h_{пр.}$

Год наблюд	Месяцы $\Delta h_{pr.}$											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
2009	2,87	2,91	2,75	2,51	2,22	2,00	1,67	1,44	2,03	2,40	2,65	2,81

Остальные данные для решения уравнения (6) из уравнения (8).

$W_{пит.водосн}$ - объем воды в млн.м^3/мес на коммунальное и хозяйственно-питьевое водоснабжения определяется по таблице 6.

Таблица 6.

Значения расходов воды на коммунальное и питьевое водоснабжения в 2009 году (млн.м^3)

1. Фактическая подача, млн м.куб./месяц												
	I	II	V		I	II	III	X		I	II	того
7 3,61	7 3,58	7 2,49	7 0,47	6 8,95	7 1,27	7 2,76	6 7,22	6 0,98	5 6,88	6 4,54	5 9,1	8 11,85

$W_{эвапотр}$ - расходы воды на эвапотранспирацию - Е растений (в мм/сут, 2009 года определяется по таблице 7).

Таблица 7

Значения расходы воды на эвапотранспирацию растений

Месяцы 2009 года и Е											
I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII

0,54	1,00	1,73	2,50	4,36	5,49	5,94	4,79	3,39	1,86	0,83	0,44

Площадь, занятая сельхозрастениями равна 167926 га. Расход воды на эвапотранспирацию растений

$$W_{эвапот} = \int_{t_0}^{t} E^0 dt = E^0(t - t_0)$$

$$E^0(t_0) = 0$$

$$W_{эвапот} = E^0(t) * 16792 * 10^4 * 30/10^3 = E^0(t) * 5{,}04 млн.м^3 / мес$$

$W_{инд}$ -объем воды на промышленность и безвозвратное водопотребление теплоэнергетики, составляет 1 млн. м^3/месяц

$W_{рыба}$ - объем воды для рыбной промысле в бассейне р.Кашкадарья

$W_{ирг}$ -использование воды для ирригации, определяется по таблице 8.

Таблица 8

Использование воды для ирригации

Месяцы	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	Всего за вегета-цию
Расход воды W_{agr} млн.м^3/мес	104,802	129,613	200,506	283,937	210,562	101,531	1030,951

С учетом полученных данных относительно водных ресурсов бассейна реки Кашкадарья балансовое уравнение можно переписать в виде.

$$W_{кашк}(t) = W_{чимк}(t) + W_{гисс}(t) +$$
$$\left[Q^0{}_{рек}(t) * 0{,}26 * 10^6 + Q^0{}_{осад}(t) * 12{,}8 * 10^6 + \right.$$
$$\left. + 15{,}446 \Delta h_{расх}(t) * F + W^{+}_{сбр} \right] -$$
$$- (E^0{}_{исп} 14{,}2 * 10^6(t) + 0{,}0317 \mu \Delta h_{пр}(t) F + \qquad (9)$$
$$+ W_{пит.вод} + E^0(t) * 5{,}04 * 10^6 + 1 + W_{ирг})$$

Чимкурганское водохранилище совместно с Гиссаракским являются определяющим банком воды для обеспечения в необходимое время водой территории бассейна р.Кашкадарья. Наличие объема воды в водохранилище определяет водообеспеченность территории бассейна.[13;14,15]

ОБСУЖДЕНИЕ

В результате решения балансового уравнения также определяются состояние и использование водных ресурсов бассейна р.Кашкадарья, т.к. $W_{Кашк}(t)$ показывает какое объем воды остается в бассейне для поддержания его экологического состояния и какое количество воды сбрасывается за пределы речного бассейна.

$W_{гис}(t)$ и $W_{чим}(t)$ - объемы воды в водном банке - в Гиссаракском и Чимкурганском водохранилищах за время ***t***;

$W_{прит}(t)$ — объем всей поступающей воды в бассейн р.Кашкадарья;

$W_{расх}(t)$ - объем потери и объем воды, используемой для различных нужд по бассейну р.Кашкадарья.

Откуда составляющие приходные статьи водного баланса бассейна р.Кашкадарья характеризуются следующим образом:

$$W_{прит}(t) = W_{река}(t) + W_{осад.}(t) + W^{+}_{прит.гв}(t) + W^{+}_{сброс}(t) \qquad (10)$$

В уравнении (3.10) $W_{река}(t)$ — речной сток, формируемый водосборной зоной рек бассейна Кашкадарьи и поступающий в чащи Гиссаракского и Чимкурганского водохранилищ расход воды реки-$Q_{река}$ в м^3/с

$$W_{река}(t) = \int_{t_0}^{t} Q_{река}(t)dt = Q_{река}(t - t_0) \qquad (11)$$

При $Q_{река}(t_0) = 0$, тогда

$$W_{река}(t) = Q^{0}_{река}(t) * t \qquad (12)$$

$W_{осад.}(t)$ - величина атмосферных осадков, определяемая в зависимости от времени года на территории бассейна р.Кашкадарья.

$$W_{осад.}(t) = \int_{t_0}^{t} Q_{осса}(t)dt = Q^{0}_{осса}(t) * t \qquad (13)$$

$Q^{0}_{осад}(t_0) = 0$ $W^{+}_{прит.гв}(t)$ приток подземных вод, определяемый по зависимости

$$W^{+}_{прит.гв}(t) = \int_{t_0}^{t} Q_{прит.гв}(t)dt = Q^{0}_{прит.гв} \int_{t_o}^{t} dt = Q^{0}_{прит.гв}(t) * t \qquad (14)$$

$$Q^{0}_{прит.гв}(t_0) = 0$$

$W^{+}_{сбр}(t)$ - часть использованной воды в промышленности, в питьевом водоснабжении и в ирригации, попадающая обратно в реку через сбросные каналы.

Таким образом, приходная часть уравнения водного баланса принимает следующий вид:

$$W_{прит}(t) = Q^{o}_{река} * t + Q^{0}_{осад} * t + Q^{0}_{прит.гв} * t + W^{+}_{сброс}(t) \qquad (15)$$

Расходные статьи водного баланса бассейна р.Кашкадарья характеризуются следующим образом:

$$W_{расх}(t) = W_{исп}(t) + W^{-}_{от.гв}(t) + W_{водосн}(t) + W_{ирриг}(t) \qquad (16)$$

или

$$W_{расх}(t) = E^{0}_{исп}(t) * t + Q^{0}_{от.гв}(t) * t + W_{водосн}(t) + W_{ирриг}(t) \qquad (17)$$

В уравнении приняты следующие обозначения:

$W_{испар}(t)$ - испарение с территории бассейна р. Кашкадарья

$W^{-}_{от.гв}(t)$ - отток к подземным водам определяется,

$W_{водосн}(t)$ -расход воды на хозяйственно-питьевое и промышленное водоснабжения

$W_{ирриг}(t)$ - использование воды для ирригации.

На основании полученных выражений (15) и (17) окончательно имеем

$$W_{кашк}(t) = W_{чимк.}(t) + W_{гис}(t) + [Q^0_{река}(t) * t + Q^0_{осад}(t) * t + Q^0_{прит.гв}(t) * t + W_{сброс}(t)] - -[E^0_{исп}(t) * t + Q^0_{от.гв}(t) * t + W_{водосн}(t) + W_{ирриг}(t)] \quad (18)$$

А для имитационного моделирования качественного изменения, особенно минерализации воды, вдоль русла реки Кашкадарья в связи с интенсивным использованием водных ресурсов бассейна р.Кашкадарьи пользуемся балансовыми уравнениями, полученными применительно для р. Кашкадарья:

Уравнение водно-солевого баланса

$$(W_{кашк} * c_к)(t) = (W_{чимк.} * c_ч)(t) + (W_{гис} * c_{гис})(t) + (W_{сброс} * c_{сбр}(t) + [(Q^0_{река} * c_р)(t) * t + (Q^0_{осад} * c_{осад})(t) * t + (Q^0_{прит.гв} * c_{гв})(t) * t] - -[(E^0_{исп} * c_{осад})(t) * t + (Q^0_{от.гв} * c_{гв}) * t + (W_{водосн} * c_в)(t) + (W_{ирриг} * c_{ирр})(t)] \quad (19)$$

и уравнение для оценки минерализации воды реки Кашкадарья

$$C_к(t) = \frac{(W_{чимк.} * c_ч)(t) + (W_{гис} * c_{гис})(t) + (W_{сброс} * c_{сбр}(t) + [(Q^0_{река} * c_р)(t) * t + (Q^0_{осад} * c_{осад})(t) * t + (Q^0_{прит.гв} * c_{гв})(t) * t] - -[(E^0_{исп} * c_{осад})(t) * t + (Q^0_{от.гв} * c_{гв}) * t + (W_{водосн} * c_в)(t) + (W_{ирриг} * c_{ирр})(t)]}{W_{каш}} \quad (20)$$

В уравнениях приняты следующие обозначения:

$W_{кашк}(t)$ - изменение стока воды в бассейне р.Кашкадарья за время *t;*

$C_к$ - минерализация воды в замыкающем створе р.Кашкадарья

$W_{гис}(t)$ и $W_{чим}(t)$ - объемы воды в «Водном Банке» - в Гиссаракском и Чимкурганском водохранилищах за время ***t***;

$c_{гис}, c_ч$ - минерализация воды на выходе из Гиссаракского и Чимкурганского водохранилищ

$W_{прит}(t)$ — объем всей поступающей воды в бассейн р.Кашкадарья

$c_п$ - минерализация воды, поступающей в реку Кашкадарья

$W_{расх}(t)$ - объем потери и объем воды, используемой для различных нужд по бассейну р.Кашкадарья

$(W_{водосн} * c_{вод})$ - расход воды на хозяйственно-питьевое и промышленное водоснабжения с минерализацией воды - $c_{вод}$

$(W_{ирриг} * c_{ирр})$ - использование воды с минерализацией- $c_{ирр}$ для ирригации

$(W_{испар} * c_{исп})$ -испарение из территории бассейна р.Кашкадарья.




Рис.5. Имитация модели управления водными ресурсами с использованием данных 2009 года




Рис.6. Изменение минерализации воды в реке в результате интенсивного использования речной воды для целей орошения (по состоянию на 2009 г.)

С использованием материалов обследования Кашкадарьинского речного бассейна и фондовых материалов УзГИДРОМЕТа, а также Минсельводхоза Республики Узбекистан проведены численные эксперименты с использованием уравнений (19 и 20), результаты которых отражены на графике (рис.6)

Полученные графические выражения дают основание сделать вывод о том, что для речного бассейна самое сложное состояние возникает в период вегетации сельскохозяйственных культур: с апреля по сентябрь месяцы, после которого влияние негативного воздействия человеческих факторов снижается. Тем не менее, состояние речного бассейна после прекращения воздействия орошения нельзя также считать благоприятной, так как для полного восстановления природных особенностей речного бассейна недостаточны количественные и качественные составляющие, подаваемой воды в реку из водохранилищ.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Признание того, что доступ к безопасным, имеющимся в достаточном количестве водным ресурсам, наряду с санитарией относится к основным правам человека и имеет существенно важное значение для здоровья и благосостояния людей, а также расширение прав и возможностей людей.

На основе усовершенствования водно-солевых балансовых уравнений достигнута возможность оценки изменения концентрации химических элементов в речной воде. Составлена гидравлическое уравнение состояния водного потока Кашкадарьинского речного бассейна. С использованием уравнения водно-солевого баланса оценена степень минерализации воды, а также приделано допустимое значения ее минерализации, чем обоснована доступность для питьевого водоснабжения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Абдусаматов М., Латипов Р.Б. Рекомендации по предупреждению и разрешению конфликтных ситуаций при распределении и использовании водных ресурсов. Душанбе: Мир полиграфии, 2003,-73с.

2. Агальцева Н. А. Оценка влияния климатических изменений на располагаемые водные ресурсы в бассейне Аральского моря. Диалог о воде и климате: исследование бассейна Аральского моря. -Ташкент: Научно-информационный центр МКВК, 2002. С.3-60.

3. Асанбеков А.Т., Маматканов Д.М., Шавва К.И., Шапар А.К. Экономический механизм управления трансграничными водными ресурсами и основные положения стратегии межгосударственного вододеления. Бишкек: Изд. ИВПГ, 2000. -44с.

4. Connor, R. The *United Nations World Water Development Report 2015: Water for a Sustainable World*; UNESCO publishing: Paris, France, 2015; Volume 1. [**Google Scholar**]

5. Wada, Y.; Flörke, M.; Hanasaki, N.; Eisner, S.; Fischer, G.; Tramberend, S.; Ringler, C. Modeling global water use for the 21st century: The Water Futures and Solutions (WFaS) initiative and its approaches. *Geosci. Model. Dev.* **2016**, *9*, 175–222. [**Google Scholar**] [**CrossRef**] [**Green Version**]

6. Boretti, A.; Rosa, L. Reassessing the projections of the world water development report. *NPJ Clean Water* **2019**, *2*, 15. [**Google Scholar**] [**CrossRef**]

7. Rathnayaka, K.; Malano, H.; Arora, M. Assessment of sustainability of urban water supply and demand management options: A comprehensive approach. *Water* **2016**, *8*, 595. [**Google Scholar**] [**CrossRef**] [**Green Version**]

8. Padowski, J.C.; Jawitz, J.W. Water availability and vulnerability of 225 large cities in the United States. *Water Resour. Res.* **2012**, 48. [**Google Scholar**] [**CrossRef**] [**Green Version**]

9. Immerzeel, W.; Lutz, A.; Droogers, P. *Climate Change Impacts on the Upstream Water* Resources of the Amu and Syr Darya River Basins; FutureWater: Wageningen, The Netherlands, 2012. [Google Scholar

10. Obaidullah Salehie 1,2,Tarmizi bin Ismail 1,Shamsuddin Shahid 1,Mohammed Magdy Hamed 3,Pennan Chinnasamy [4]Xiaojun Wang Assessment of Water Resources Availability in Amu Darya River Basin Using GRACE Data. **Water Resources Management, Policy and Governance**)MDPI-2022 *Water* **2022**, *14*(4), 533; **https://doi.org/10.3390/w14040533**

11. Д.Х.Кучкарова ГИДРАВЛИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В БАССЕЙНАХ МАЛЫХ РЕК- Диссертация. Ташкент -2018

12. Авакян А.Б., Широков В.М. Комплексное использование и охрана водных ресурсов. –М.: Наука, 1990, -240 с.

13. Асанбеков А.Т., Маматканов Д.М., Шавва К.И., Шапар А.К. Экономический механизм управления трансграничными водными ресурсами и основные положения стратегии межгосударственного вододеления. Бишкек: Изд. ИВПГ, 2000. -44с.

14. Бабкин В.И. Взаимосвязь элементов водного баланса речных бассейнов. Труды ГГИ, 1979. Вып. 260. -С. 26-38.

15. Бабкин В.И., Вуглинский В.С. Водный баланс речных бассейнов.-Л.:Гидрометеоиздат,1982. -191с.

16. Бахвалов Н.С., Жидков Н.П., Кобельков Г.М. Численные методы. М.:Наука.1987.600с

17. Biswas A.K. "Management of international waters: problems and perspective", Water Recourses Development,2003, p. 167-188.

18. Бочков А.П. Составления водных балансов речных бассейнов за конкретные интервалы времени. Труды ГГИ, 1974. Вып. 217 -С.3-41.

19. Браславский А.П., Щергина К.Б. Потери на испарение из водохранилищ засушливой зоны Казахстана. -Алма-Ата. -Наука. 1965. -228 с

20. Браславский А.П., Струзер Л.Р., Шергина К.Б. Методика определения исправленных величин атмосферных осадков при срочных наблюдениях. Труды ГГО ,1975. вып.341. -С. 32-50.

21. Якубов М.А., Кучкарова Д.Х. Особенности современной гидрохимической ситуации в Кашкадарьинской области. Экологический Вестник, 2009. –С. 29-31.

22. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. Главное Управление по гидрометеорологии при Кабинете Министров Республики Узбекистан, САНИГМИ им. В.А.Бугаева. Ташкент, 2000.

23. Чуб В.Е. Возможности спутниковой информации при мониторинге объектов природной среды Узбекистана. «Space Research, Technologies and conversion –IV» - Conference.Tashkent, 1999. –P. 38-40.

ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИ ВА УНИНГ АМУДАРЁ ҲАВЗАСИ ДАРЁЛАРИ МАКСИМАЛ СУВ САРФЛАРИНИНГ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

Б.Ф.Ҳикматов,[1] А.З.Умаров[2]
[1]Ўзбекистон Республикаси Фуқаро муҳофазаси ниститути
[2]Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,

Аннотация. *Мақола иқлим ўзгариши ва унинг Амударё ҳавзаси дарёлари максимал сув сарфларининг шаклланишига таъсирини ўрганишга бағишланган. Ўрганилаётган ҳавзада жойлашган дарёларнинг ўртача кўп йиллик сув сарфлари ва ўртача кўп йиллик максимал сув сарфлари аниқланган. Дарёларнинг эмпирик ифодалар ёрдамида ҳисобланган ва амалда кузатилган максимал сув сарфлари орасидаги боғланишлар статистик баҳоланган ва ҳисоблашлар натижалари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар**:** *дарё, ҳавза майдони, дарё оқими, максимал сув сарфи, ҳисоблаш ифодалари, баҳолаш.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросам изучению изменение климата и его влияние на максимальные расходы воды рек бассейна Амударьи. Определены значения среднегодовых расходов воды и среднегодовых многолетних максимальных расходов воды рек изучаемого бассейна. Произведена статистическая оценка связи между рассчитанными с помощью эмпирических выражений и фактически наблюденными значениями максимальными расходов воды, изучаемых рек и выполнен анализ результатов расчетов.*

Ключевые слова: *река, площадь бассейна, речной сток, максимальные расходы воды, расчётные формулы, оценка.*

Аннотация. *This article examines climate change and its impact on the maximum water discharges of rivers in the Amu Darya basin. The average annual water discharges and average*

annual long-term maximum water discharges of the rivers in the studied basin are determined. A statistical assessment of the relationship between the maximum water flow rates of the rivers under study, calculated using empirical expressions and actually observed values, was carried out, and an analysis of the calculation results was performed.

Key words: *river, basin area, river runoff, maximum water discharge, calculation, formulae, assessment.*

КИРИШ

Амударё ҳавзаси нафақат Марказий Осиёнинг, балки Евросиё материгининг энг катта миқдорда сув оқими ҳосил бўладиган ҳудудларидан бири ҳисобланади. Ҳавза Амударёнинг кўплаб сондаги трансчегаравий йирик ирмоқларини ўз ичига олади. Амударё ҳавзасининг асосий гидрологик хусусиятларидан бири шундан иборатки, бу ердаги дарёлар оқимининг шаклланишида эриган қор ва музлик сувлари уларнинг тўйинишида асосий манба ҳисобланади. Ҳавзада баҳорнинг охирги ойлари ва ёз фаслида қор-музликларнинг жадал эриши натижасида, дарёларда сув сарфлари максимал қийматларга эришади [2]. Маълумки, дарёларнинг максимал сув сарфларини аниқ миқдорий баҳолаш гидротехник иншоотларни лойиҳалаш, сел хатарларининг олдини олиш ва сув ресурсларини бошқаришда катта амалий аҳамиятга эга. Шу туфайли, эриган қор ва музликлар сувларидан шаклланган максимал сув сарфларининг миқдорий қийматларини аниқлаш дарёларда тошқин хавфини баҳолаш ва гидротехник иншоотларни лойиҳалаш жараёнларида юзага келадиган муаммоларни ҳал этишда **долзарб** илмий ва амалий аҳамятга эга.

Тадқиқотнинг асосий **мақсади** Амударё ҳавзасидаги тоғ дарёларида эриган қор ва музликлар сувлари ҳисобига шаклланадиган максимал сув сарфларини ҳисоблаш масалаларига қаратилган. Ушбу мақсадни амалга ошириш учун тадқиқотда қуйидаги **вазифалар** белгилаб олинди ва ўз ечимини топди: 1) Амударё ҳавзасидаги эриган қор ва музликлардан устувор ҳолатда тўйинадиган тоғ дарёларини танлаб олиш; 2) улар ҳавзаларининг морфометрик кўрсаткичларини, жумладан, ҳавза майдони, ҳавзанинг ўртача баландлигини аниқлаш; 3) дарёларнинг ўртача кўп йиллик ва максимал сув сарфлари ҳақидаги маълумотларни тўплаш; 4) ўртача кўп йиллик максимал сув сарфларини ҳисоблаш; 5) ҳисобланган ва кузатилган максимал сув сарфлари орасидаги боғланишни статистик баҳолаш.

Ишни бажариш жараёнида Амударё ҳавзасида жойлашган тоғ дарёларида кузатилган ўртача ва максимал оқим модуллари ҳақидаги маълумотлар “Гидрологическая характеристика верхней части бассейна Амударьи” монографиясидан олинган [2]. Тадқиқот жараёнида географик умумлаштириш ва таққослаш, ўрганилаётган дарёлардаги максимал сув сарфларни миқдорий баҳолашда математик статистика ва замонавий гидрологик **ҳисоблаш усуллари** қўлланилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Амударё ҳавзасидаги тоғ дарёларида шаклланган максимал сув сарфларини тадқиқ этишнинг умумий назарий ва услубий қирралари дастлаб В.Л.Шульц, Ю.М.Денисов, Г.Е.Глазырин, А.Ф.Шаҳидов, Г.Н.Трофимов каби олимлар томонидан ўрганилган. Ҳозирги кунда ушбу йўналишдаги тадқиқотлар С.В.Мягков, Ф.Ҳикматов, Б.Дж.Салимова, Б.Ф.Ҳикматов, А.Я.Исакова ва бошқалар томонидан давом эттирилмоқда.

Амударё ҳавзаси дарёлари максимал сув сарфларининг миқдорий қийматлари улар ҳавзаларига ёғадиган атмосфера ёғинлари миқдори, уларнинг тури ва ҳаво ҳароратига боғлиқ. Жумладан, Амударё ҳавзасидаги тоғ дарёлари асосан эриган қор ва музликлар сувлари ҳисобига тўйиниб, уларнинг максимал сув сарфлари айнан шу сувлардан шаклланади. Бироқ, йирик дарёлар ҳавзаларининг қуйи қисмида жойлашган ирмоқлари максимал сув

сарфларининг шаклланишида ёмғир сувлари ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Илмий манбаларда қайд этилишича, айрим йилларда ҳавзанинг юқори – тоғли ҳудудларида жойлашган, асосан, музлик ва қор сувлари ҳисобига тўйинадиган Вамар ва Рохарв каби дарёлар максимал сарфларининг асосий манбаи сифатида ёмғир сувлари қайд этилган [2, 3, 4]. Таъкидлаш лозимки, мазкур тадқиқотда бундай ҳолатлар кузатилган дарёлар биз танлаган дарёларнинг умумий сонига нисбатан 10%дан кам улушни ташкил этади. Шу туфайли, ҳисоб-китобларда ёмғир сувларининг таъсири эътиборга олинмади.

Гидрологияга оид тадқиқотларда асосий эътибор максимал оқим модулини ҳисоблашга қаратилган. Бу борада тадқиқотчилар томонидан бир қанча эмпирик ифодалар тавсия этилган. Жумладан, В.Л.Шульц маълумотларига кўра, максимал оқим модули (M_{max}) билан дарёнинг ҳавза майдони (F) орасидаги боғланиш қуйидагича ифодаланади:

$$M_{max}=\frac{A}{F^n}, \qquad (1)$$

бу ерда: А-эмпирик боғланиш коэффициенти бўлиб, Амударё ва Зарафшон ҳавзалари учун А =545, n – даражаси кўрсаткичи: n =0,28.

Профессор Шульц ва бошқалар максимал оқим модули (M_{max}) билан ўртача кўп йиллик оқим модули (M_0) орасидаги боғланишни статистик баҳолаб (r=0,83), қуйидаги эмпирик ифодани таклиф:

$$M_{max}=8{,}27 \bullet M_0^{0{,}75} \qquad (2)$$

Юқорида номлари қайд этилган тадқиқотчилар томонидан амалга оширилган изланишларда юқоридаги ҳар икки аргумент (F, M_o) биргаликда ҳисобга олиниб қуйидаги эмпирик ифода таклиф этилган.

$$M_{max}=23{,}8\cdot\frac{M_0^{0{,}71}}{F^{0{,}10}}. \qquad (3)$$

Юқорида келтирилган (3) ифода билан аниқланган максимал оқим модуллари (M_{max}) ва уларнинг қийматлари асосида ҳисобланган максимал сув сарфлари (Q_{max}) қуйидаги ифода билан аниқланди.

$$Q_{max}=\frac{M_{max}\cdot F}{10^3}, (м^3/с) \qquad (4)$$

Амударё ҳавзаси дарёлари ўртача кўп йиллик максимал сув сарфларининг юқоридаги (4) эмпирик ифода билан ҳисобланган қийматлари ҳамда уларнинг амалдаги кузатилган миқдорлари ўзаро солиштирилди (1-жадвал).

1-жадвал

Ҳисобланган ($Q_х$) ва кузатилган ($Q_к$) максимал сув сарфлари миқдорларини ўзаро таққослаш

Т.р.	Дарё - кузатиш жойи	Максимал сув сарфлари		Фарқлар	
		$Q_х$, м³/с	$Q_к$, м³/с	$\Delta Q_{абс}$, м³/с	$\Delta Q_н$, %
Панж дарёси ҳавзаси					
1	Ғунт–Хорог	456,3	549,0	92,7	16,9
2	Шохдара–Хабост	167,2	207,7	40,5	19,5
3	Лянгар–Ирхт	21,9	18,3	-3,6	-19,4
4	Кудара–қуйилиши	167,9	171,9	4,1	2,4
5	Язгулем–Мотравн	149,2	168,2	19,0	11,3
6	Ванч–Ванч	181,2	205,4	24,2	11,8
7	Пасрут–Пинион	24,6	16,0	-8,6	-54,0
Вахш дарёси ҳавзаси					
8	Вахш– Гарм	1094,0	1398,0	304,0	21,7
9	Вахш–Туткаул	2250,7	2339,4	447,6	19,1
10	Сангикар– Сангикар	46,1	46,9	0,7	1,6
11	Обихингоу–Лябиджар	800,1	811,8	128,7	15,9


12	Обихингоу–Сангвор	177,5	257,6	80,1	31,1
13	Сурхоб–Сангималик	227,0	276,3	49,3	17,8
14	Кафирниган–Чинор	332,6	492,5	159,9	32,5
15	Варзоб–Гушари	108,4	126,0	17,6	14,0
Сурхондарё ҳавзаси					
16	Қоратоғ–Қоратоғ	85,5	94,4	8,9	9,4
17	Дашнабод–Дашнабод	44,8	39,2	-5,6	-14,2
18	Тўпаланг–Зарчоб	197,6	231,0	33,4	14,5
19	Сангардак–Кинг-Гузар	66,9	90,1	23,2	25,7
20	Шерабод–Шерабод	45,1	43,7	-1,5	-3,4
Зарафшон дарёси ҳавзаси					
21	Зарафшон–Фандарё қуйилиши	305,0	382,7	77,7	20,3
22	Зарафшон–Дупили	563,0	618,1	55,1	8,9
23	Фандарё–қуйилиши	142,1	277,8	135,7	48,8
24	Ягнобдарё–Такфон	124,9	162,4	37,5	23,1
25	Искандардарё–қуйилиши	85,7	81,7	-4,0	-4,8
26	Саритоғ–қуйилиши	56,6	63,9	7,3	11,4
27	Магиан–Суджини	46,4	26,6	-19,8	-74,4
28	Кштут–Кштут	39,3	20,8	-18,5	-88,6

Изоҳ: $\Delta Q_{абс}$ *– абсалют фарқ;* $\Delta Q_{нис}$ *– нисбий фарқ.*

Максимал сув сарфларининг ҳисобланган ва амалда кузатилган миқдорий қийматларини ўзаро таққослаш мақсадида, уларнинг абсолют ва нисбий катталикларда ифодаланган фарқлари аниқланди (1-жадвал). Таҳлилларга кўра, айрим ҳолатларда ҳисобланган максимал сув сарфи кузатилган максимал сув сарфидан юқори бўлган. Масалан, Вахш (Гарм) дарёсида кузатилган максимал сув сарфи 1094 м^3/с га тенг бўлса, унинг ҳисобланган қиймати 1398 м^3/с ни ташкил этди. Ушбу ҳолатда нисбий фарқ 21,7% га тенг бўлди, аниқроғи, ҳисобланган максимал сув сарфи унинг кузатилган қийматига нисбатан катта бўлган. Шунингдек, Вахш-(Тутқаул) ва Кафирниган (Чинор) дарёларида ҳам ҳисобланган қийматлар кузатилганга нисбатан сезиларли даражада фарқ қилган, яъни мос равшда 19,1% ва 32,5% га катта бўлган. Бироқ, баъзи ҳолатларда ҳисобланган максимал сув сарфлари миқдори уларнинг кузатилган қийматларидан кам бўлган. Ушбу фарқлар Пасрут-(Пинион), Магиан-(Суджини) ва Кштут-(Кштут) дарёларига тегишлидир.

Тадқиқотнинг кейинги босқичида, Амударё ҳавзаси дарёларининг ўртача кўп йиллик максимал сув сарфларининг ҳисобланган ва кузатилган қийматлари орасидаги боғланиш статистик баҳоланди (1-расм).

Графикда максимал сув сарфларининг ҳисобланган ($Q_х$) ва кузатилган ($Q_к$) қийматлари орасидаги боғланишларнинг жуфт корреляция коэффициенти r=0,997 га, тенг бўлди. Ушбу натижа ўрганилган дарёлар максимал сув сарфларини баҳолашда В.Л.Шульц томонидан таклиф этилган эмпирик ифодани гидрологик ҳисоблашлар амалётида қўллаш нисбатан аниқ натижаларга эришиш мумкинлигини кўрсатди.



1-расм. Ўртача кўп йиллик максимал сув сарфларининг ҳисобланган ва кузатилган қийматлари орасидаги боғланиш графиги

Тадқиқот натижаларининг таҳлилларига таянган ҳолда, қуйидагиларни **хулоса** сифатида қайд этамиз:

1. Амударё ҳавзасидаги 28 та тоғ дарёларига тегишли бўлган кўп йиллик ўртача ва максимал оқим модуллари ҳақидаги маълумотлар тўпланди, улар умумлаштириб, бирламчи қайта ишланди ва гидрологик маълумотлар базаси яратилди;

2. Дарёлар максимал сув сарфларининг В.Л.Шульц таклиф этган эмпирик ифода ёрдамида ҳисобланган ва кузатилган миқдорлари солиштирилди. Улар орасидаги фарқлар аниқланди. Энг катта тафовутлар Вахш (Гарм)да 21,7% га, Вахш (Тутқаул) ва Кофирниҳон (Чинор)да, мос равишда, 19,1% ва 32,5% ни ташкил этди;

3. Дарёлар ўртача кўп йиллик максимал сув сарфларининг эмпирик ифода асосида ҳисобланган ва кузатилган қийматлари орасидаги боғланиш статистик баҳоланди (r=0,997). Келгусида юқорида, тадқиқот жараёнида олинган натижаларга янада аниқлик киритиш имкониятлари мавжуд.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ресурсы поверхностных вод СССР. Средняя Азия. Бассейн р. Амударьи. Т.14. Вып 3. – Л.: Гидрометеоиздат, 1971. – 471 с.

2. Шульц В.Л., Шалатова Л.И., Лукина Н.К., Видинеева Е.М. Гидрологическая характеристика верхней части бассейна Амударьи. – Ташкент, Изд-во «Фан» УзССР, 1975. – 123 с.

3. Шульц В.Л. Указания к производству расчетов речного стока в условиях Средней Азии. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1959. – С. 5-72.

4. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ч. I и II. – Л. Гидрометеоиздат, 1965. – 691 с.

5. Ҳикматов Б.Ф. Дарёлар ва тўғонли сув ҳавзаларидан оқиб чиқадиган эҳтимолий максимал сув сарфларини ҳисоблаш. –Тошкент: IRNMU, 2023. – 184 б.

ИҚЛИМ ЎГАРИШИ ШАРОИТИДА ЗАРАФШОН ҲАВЗАСИ МУЗЛИКЛАРИНИНГ ГЛЯЦИОГИДРОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИНИ АНИҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Ҳикматов Ф., Алимардонов Л.Ғ.
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация. *Мақола иқлим ўгариши шароитида Зарафшон ҳавзаси музликларининг гляциогидрологик кўрсаткичларини аниқлаш масалаларига бағишланган. Тадқиқот Зарафшон дарёси ҳавзаси музликлари ҳақида гляциологик манбаларда келтирилган маълумотлар асосида бажарилган. Зарафшон дарёси ва ирмоқлари ҳавзаларининг гляциогидрологик кўрсаткичлари аниқланган ҳамда улар ўзаро қиёсланган.*

Калит сўзлар: *дарё, дарё ҳавзаси, тоғ музликлари, музланиш коэффициэнти, музлик оқими ҳажми, баҳолаш, солиштириш.*

Аннотация*. Статья посвящена вопросам определения гляциогидрологических показателей ледников Зеравшанского бассейна в условиях изменения климата. Исследование выполнено на основе данных, представленных в гляциологических источниках по ледникам бассейна реки Зеравшан. Определены гляциогидрологические показатели бассейнов реки Зеравшан и ее притоков, а также произведено их сопоставление.*

Ключевые слова: *река, речной бассейн, горные ледники, коэффициент оледенения, объём ледникового стока, оценка, сопоставление.*

Annotation. *This article examines the glaciohydrological parameters of glaciers in the Zeravshan Basin under climate change. The study is based on data from glaciological sources on glaciers in the Zeravshan River basin. Glaciohydrological indicators of the Zeravshan River basins and its tributaries were determined, and their comparison was made.*

Keywords: *river, river basin, mountain glaciers, glaciation coefficient, glacier runoff volume, assessment, comparison.*

КИРИШ

Ер юзасидаги, жумладан, Ўрта Осиё тоғ дарёларининг тўйинишида музликларнинг аҳамияти беқиёсдир. Шу туфайли, дарёлар ҳавзаларидаги музликларни ҳар томонлама ўрганиш, айниқса, уларнинг гляциогидрологик кўрсаткичларини аниқлаш ҳамда ушбу катталиклардан тегишли илмий ва амалий хулосалар чиқариш, улардан тўйинувчи дарёларнинг сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Бугунги кунда ушбу масалани республикамизнинг Самарқанд, Навоий, Бухоро, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларининг сувга бўлган барча эҳтиёжларини таъминлайдиган Зарафшон дарёси ҳавзаси музликлари мисолида кўриб чиқиш янада **долзарб**дир.

Олимларнинг Зарафшон дарёси ҳавзаси музликларини ўрганиш масалаларига оид тадқиқотларда ҳавзадаги музликларга умумий тавсиф берилган, музликлар катологлари тузилган, улар асосида музликларнинг тоғ тизмалари бўйича жойлашиш қонуниятлари ва бошқа қатор муаммолар ўрганилган. Бироқ, уларда, А.С. Щетинниковнинг ўтган XX асрнинг охирги чорагида эълон қилинган тадқиқотлари [4, 5] ни ҳисобга олмаганда, Зарафшон ҳавзаси музликларининг гляциогидрологик кўрсаткичларини аниқлаш масалалари тегишли адабиётларда деярли ёритилмаган.

Мақоланинг **асосий мақсади** музликларнинг гляциологик ва гидрологик кўрсаткичларини ҳисоблаш усулларини Зарафшон дарёси ҳавзаси тоғ музликлари мисолида кўриб чиқишдан иборатдир.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун Зарафшон дарёси ва унинг ирмоқлари ҳавзаларида жойлашган музликлар сони, улар эгаллаган майдонлар, музликларнинг жойлашиш баландлиги ҳақидаги маълумотлар “Музликлар каталоги” [1] ҳамда А.С.Щетинников монографияларидан

[4, 5] олинди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Узоқ тарихий даврларда Амударёнинг ирмоғи бўлган Зарафшон дарёси ҳавзаси тоғли қисмининг умумий майдони 17710 км^2 ни ташкил этади. Бу майдонда ҳосил бўладиган ўртача кўп йиллик йиғинди сув сарфи 190 м^3/сек ёки йиллик оқим ҳажми 5993 млн. м^3 га тенг. Бу рақамларга асосланадиган бўлсак, Зарафшон дарёси ҳавзаси тоғли қисмининг ўртача кўп йиллик оқим модули 10,7 л/сек·км^2 га тенг бўлади [6]. Дарё оқими ушбу миқдорий кўрсаткичларининг ҳосил бўлишида унинг ҳавзасидаги тоғ музликларининг катта ҳиссаси бор. Шу туфайли, қуйида дастлаб, тўпланган маълумотлар асосида, Зарафшон дарёси ҳавзасидаги ҳозирги замон нисбатан йирик тоғ музликларига қисқача тавсиф берамиз.

Географик адабиётларда Туркистон, Зарафшон ва Олой тоғ тизмалари туташган жой “Мастчоҳ тоғ тугуни” (баъзиларида “Кўксув тоғ тугуни”), гляциологик адабиётларда эса “Мастчоҳ музланиш тугуни” деб номланади. Ушбу тугуннинг Туркистон тизмасининг жанубий ҳамда Зарафшон тизмасининг шимолий ёнбағрлари туташган ерида жуда йирик ҳисобланган Зарафшон музликлар тизими жойлашган бўлиб, ушбу музлик ўзагининг майдони 21,86 км^2 га тенг. Мазкур тизимдан тармоқланиб кетган Россинч (17,8 км^2), Преображенский (20,58 км^2), Йўлдош (10,12 км^2), Фарахнов (19,77 км^2), Толстой (17,3 км^2), Мирамин (13,76 км^2), Шоҳисафед (14,11 км^2) кабилар ҳам йирик тоғ музликлари қаторига киради [4, 5]. Ушбу йирик тоғ музликларидан Зарафшоннинг бош ўнг ирмоғи ҳисобланган Мастчоҳдарёнинг Туро, Самжон, Мадрушкент, Ҳудгиф, Оббурдон каби ирмоқлари бошланади [6].

Гидрологияда дарёлар ҳавзаларининг музланиш даражаси, ҳавзадаги музликларнинг музлик коэффициентлари, музликнинг умумий майдонига нисбатан тўйиниш областининг ҳиссаси (улуши), музликларнинг дарёлар йиллик оқимига қўшган ҳиссалари, музликлардаги сув заҳираси, музликлар массаси ва уларнинг тўлиқ алмашиниши учун кетган вақт, йилнинг иссиқ даври, яъни май-сентябрь ойлари давомида дарёларда ҳосил бўлган оқимга музликларнинг қўшган ҳиссалари каби гляциологик ва гидрологик кўрсаткичларни аниқлаш муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга.

Ушбу йўналишдаги тадқиқотларнинг илмий аҳамияти дарёлар ҳавзаларида мавжуд бўлган музликларнинг гляциогидрологик кўрсаткичларининг ўзгариш қонуниятларини аниқлашда акс этадиган бўлса, уларнинг амалий аҳамияти эса музликлардан тўйинадиган дарёлар сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишда намоён бўлади.

Мутахассисларнинг юқорида санаб ўтилган гляциогидрологик кўрсаткичларни сонли қийматларда ифодалаш учун қуйидаги миқдорий катталикларни билиш талаб этилади:

дарёнинг сув тўплаш (ҳавза) майдони ($F_х$, км^2);

ҳавзадаги музликларнинг йиғинди майдони – музланиш майдони ($F_м$, км^2);

музликнинг тўйиниш ($F_{мто}$) ва абляция ($F_{мао}$) областлари майдонлари, музликнинг умумий майдони ($F_{мум}$), дарёнинг ўртача кўп йиллик оқим ҳажми ($W_й$, м^3 ёки км^3);

музлик ҳажми ($V_м$, м^3 ёки км^3);

музликдаги сув ҳажми ($V_{мс}$, м^3 ёки км^3);

музликларнинг эришидан ҳосил бўлган оқим ҳажми ($W_м$, м^3 ёки км^3);

май-сентябрь ойларидаги оқим ҳажми ($W_{V\text{-}IX}$, м^3 ёки км^3) ва бошқалар.

Ҳар қандай дарёнинг сув тўплаш майдони ($F_х$) ва унда музликлар эгаллаган майдон ($F_м$) маълум бўлса, ҳавзанинг нисбий музланишини ифодалайдиган музланиш коэффициенти ($К_м$) қуйидагича аниқланади:

$$К_м = \frac{F_м}{F_х} \cdot 100\,\% . \qquad (1)$$

Алоҳида ёки гуруҳ музликларнинг тўйиниш ($F_{мто}$) ва сарфланиш, яъни абляция ($F_{мао}$) областлари эгаллаган майдонларининг нисбати музлик коэффициенти ($К_{мк}$) ни ифодалайди:

$$К_{мк} = \frac{F_{мто}}{F_{мао}}. \quad (2)$$

Гляциологияга оид чет эл адабиётларида [Ҳикматов, 2016] музлик коэффициенти $К_{мк}$ ўрнига, унинг тўйиниш области ҳиссасини ифодалайдиган коэффициент К′ дан фойдаланилади. Ушбу коэффициент музликнинг тўйиниш области ($F_{мто}$) ва умумий ($F_{мум}$) майдонларининг нисбати билан аниқланади:

$$K' = \frac{F_{мто}}{F_{мум}}. \quad (3)$$

Юқоридаги ҳар икки коэффициент ўзаро қуйидагича боғланган:

$$К_{мк} = К'/(1- К') \quad \text{ёки} \quad К' = К_{мк}/(1+ К_{мк}). \quad (4)$$

Музликларнинг эришидан ҳосил бўлган оқим ҳажми ($W_м$) нинг йиллик оқим ҳажми ($W_й$) га нисбати дарё оқимига музликларнинг қўшган ҳиссаси ($\delta_м$) ни ифодалайди:

$$\delta_м = \frac{W_м}{W_й} \cdot 100\,\%. \quad (5)$$

Музликнинг сув заҳираси коэффициенти ($К_с$) музлик ҳажми ($V_м$) нинг дарёнинг ўртача кўп йиллик оқим ҳажми ($W_й$) га нисбати билан аниқланади:

$$К_с = \frac{V_м}{W_й}. \quad (6)$$

Музликларнинг тўйиниш ва сарфланиш (абляция) областлари ўлчамларига ҳамда музлик ҳажмига боғлиқ ҳолда, ундаги мавжуд музлик массасининг алмашиниши, йиллар давомида, тез ёки секин бориши мумкин. Бу жараённинг жадаллиги музлик массасининг алмашиниш вақти ($Т_{мм}$) билан баҳоланади. Унинг қиймати музликдаги сув ҳажми ($V_{мс}$) нинг унинг эришидан ҳосил бўлган йиллик оқим ҳажми ($W_м$) га нисбати билан аниқланади:

$$Т_{мм} = \frac{V_{мс}}{W_м}, \text{ йил}. \quad (7)$$

Музликлардан тўйинадиган дарёларда оқимнинг асосий қисми йилнинг иссиқ даврлари, яъни май-сентябрь ойларида оқиб ўтади. Дарёнинг бу даврдаги оқими миқдори ($W_{V\text{-}IX}$) га музликларнинг қўшган ҳиссаси ($\delta_{м(V\text{-}IX)}$) қуйидагича ҳисобланади:

$$\delta_{м(V-IX)} = \frac{W_м}{W_{V\text{-}IX}}\,\%, \quad (8)$$

бу ерда: $W_м$ – дарёда музликларнинг эришидан ҳосил бўлган оқим ҳажми.

Тадқиқотнинг мақсадидан келиб чиқиб, Зарафшон дарёси ва унинг ирмоқлари ҳавзаларида жойлашган ҳозирги замон тоғ музликларининг гляциологик ва гидрологик кўрсаткичлари юқорида келтирилган ифодалар ёрдамида ҳисобланди. Ҳисоблашлар натижалари таҳлилига таянадиган бўлсак, ушбу кўрсаткичлар турли музликларда турлича қийматларда ўзгаради. Масалан, музланиш коэффициентининг аниқланган энг катта қиймати, яъни $К_м = 10,3$ Мастчоҳдарёга тегишлидир. Шунга мос равишда, Мастчоҳдарё ҳавзасидаги музликлар ҳажми $V_м = 27,8256$ км^3, улардаги сув миқдори эса $V_{мс}$=25,043 км^3 га тенг. Унинг Фандарёга қуйилишидаги гидрологик пост маълумотларига кўра, мазкур дарёнинг йиллик оқимига музликларнинг эришидан ҳосил бўлган сувларнинг қўшган ҳиссаси $\delta_м = 36\%$ ни ташкил этади.

Зарафшон дарёсининг ўзани ҳисобланган Мастчоҳдарё ҳавзасидаги музликларнинг сув заҳираси коэффициенти ҳам бошқа дарёлар ҳавзаларига нисбатан катта бўлиб, $К_с = 9,9$ га тенгдир. Мазкур дарё ҳавзасидаги музликлар массасининг тўла алмашиниши учун

кетадиган вақт, яъни $T_{мм}$ эса 27,5 йилга тенг. Таъкидлаш лозимки, Мастчоҳдарёнинг йилнинг иссиқ даври, яъни май-сентябрь ойларида ҳосил бўладиган оқими ҳажми $W_{(V-IX)}$ = 2,234 км^3 га, унга дарё ҳавзасидаги музликларнинг қўшган ҳиссаси эса $\delta_{м(V-IX)}$ = 40,8% га тенг. Ушбу ҳисса ҳавзанинг бошқа дарёларида, жумладан, Яғнобдарёда 15,4%, Фандарёда 19,2% ни, Зарафшон (Дупули) дарёсининг ўзида эса 33,6% ни ташкил этган.

Бажарилган тадқиқотга ***хулоса*** қилиб қуйидагиларни қайд этиш лозим деб ҳисоблаймиз:

1. Зарафшон дарёси ҳавзасининг ўзани ҳисобланган Мастчоҳдарё ҳавзаси бошқа дарёлар ҳавзаларидан музликлар сонининг кўплиги (587 та) ва улар эгаллаган майдонларнинг катталиги (479,21 км^2) билан алоҳида ажралиб туради. Музликлар майдони бўйича ундан кейинги ўринни Фандарё (133,29 км^2) ҳавзаси эгаллайди;

2. Тадқиқот объекти – Зарафшон дарёси ҳавзасида музланиш коэффициентининг энг катта қиймати ($К_м$ = 10,3) Мастчоҳдарёга тегишлидир. Унинг ҳавзасидаги тоғ музликларнинг умумий ҳажми 27,8256 км^3 ни, улардаги сув заҳиралари миқдори эса 25,043 км^3 ни ташкил этади;

3. Мастчоҳдарёнинг май-сентябрь ойларида ҳосил бўладиган ўртача кўп йиллик оқими ҳажми 2,234 км^3 ни, унга музликларнинг эришидан ҳосил бўлган сувларнинг қўшган ҳиссаси эса 40,8% ни ташкил этади. Бу миқдорий кўрсаткичнинг қийматлари Яғнобдарёда 15,4%, Фандарёда 19,2%, Зарафшон (Дупули) да эса 33,6% га тенг.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Каталог ледников СССР. Том 14. Вып. 3. Ч. 1, Ч. 2. Бассейн реки Зеравшан. – Л.: Гидрометеоиздат, 1982. – 107 с.

2. Коновалов В.Г. Таяние и сток с ледников в бассейнах рек Средней Азии. -Л.: Гидрометеоиздат, 1985. - 238 с.

3. Корженевский Н.Л. Краткий обзор исследования ледников Средней Азии с 1907 по 1932 г. // Изв. ГГО. -1934. Том LXVI. Вып. 4. -С. 556-563.

4. Щетинников А.С. Морфология оледенения речных бассейнов Памиро-Алая по состоянию на 1980 год (справочник). – Ташкент: САНИГМИ, 1997. – 149 с.

5. Щетинников А.С. Морфология и режим ледников Памиро-Алая. - Ташкент: САНИГМИ, 1998. - 220 с.

6. Ҳикматов Ф.Ҳ. ва бошқ. Зарафшон дарёси ҳавзасининг гидрометеорологик шароити ва сув ресурслари. Монография. – Тошкент: «Фан ва технология», 2016. - 276 б.

7. Catalogue of Pamir and Hissaro-Alay Glaciation for 1980 (database of S.A. Schetinnikov). - Almaty, 2012. - 565 p.

ҚУЙИ АМУДАРЁГА ОҚИБ КЕЛАДИГАН СУВ МИҚДОРИНИНГ АНТРОПОГЕН ОМИЛЛАР ТАЪСИРИДА ЎЗГАРИШИНИ БАҲОЛАШ

Аденбаев Б.Е., Умаров А.З. Хайдарова О.А.
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация. *Мақолада Қуйи Амударёга оқиб келадиган сув миқдорининг XX асрнинг иккинчи ярмида Амударёда қурилган йирик гидротехник иншоотлар таъсирида ўзгариши баҳоланган. Шу мақсадда Туямўйин гидрология пости маълумотлари негизида дарё оқимининг кўп йиллик тебранишлари 90 йиллик давр учун таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *дарё, сув сарфи, гидротехник иншоот, антропоген омил, оқим ҳажми, миқдорий ўзгариш, баҳолаш.*

Аннотация. *В статье оценены изменения объема поступления речных вод в низовья Амударьи под влиянием строительства крупных гидротехнических сооружений, построенных во второй половине XX века. С этой целью, произведен анализ многолетних колебаний стока реки за 90 летний период на основе данных гидрологического поста Туямуюн.*

Ключевые слова*: река, расход воды, гидротехническое сооружение, антропогенный фактор, объем стока, изменение, количественное оценка.*

Abstract. *The article evaluates changes in the volume of river water inflow into the lower reaches of the Amu Darya under the influence of the construction of large hydraulic structures built in the second half of the 20th century. For this purpose, an analysis of long-term fluctuations in river flow over a 90-year period was carried out based on data from the Tuyamuyun hydrological station.*

Key words*: river, water flow, hydraulic structure, anthropogenic factor, runoff volume, change, quantitative assessment.*

КИРИШ

Маълумки, охирги ўн йилликларда трансчегаравий дарёлар ҳавзаларининг турли қисмларида уларнинг сув ресурсларидан фойдаланиш бўйича турли мамлакатларнинг имкониятлари ўзаро кескин фарқ қилмоқда. Жумладан, дарёнинг юқори оқимга нисбатан унинг қуйи оқимдаги мамлакатлар заиф бўлиб қолмоқда. Бунга асосий сабаб – дарёларнинг юқори оқимида сув хўжалиги тадбирларининг барча турлари, жумладан, сув омборлари, ГЭСлар, йирик суғориш каналларини қуришдир. Бунинг оқибатида, дарёларнинг қуйи оқимида жойлашган мамлакатларда сув танқислиги йилдан-йилга кучайиб бормоқда. Афсуски, бу жараён ҳозирги кунда ҳам, Афғонистонга сув оладиган канал қурилиши туфайли, жадал суратларда давом этмоқда. Бундай салбий оқибатлар таъсирини бироз бўлса-да юмшатиш учун дарё оқими миқдорий ўзгаришларини аниқ баҳолаш катта илмий ва амалий аҳамиятга эга. Ушбу муаммони экологик вазият ёмонлашган Амударёнинг қуйи оқими мисолида ўрганиш ҳозирги кунда ўта **долзарб** масалалардан бири ҳисобланади.

Ушбу тадқиқотнинг **асосий мақсади** Қуйи Амударёга оқиб келадиган дарё сувлари оқимининг антропоген омиллар таъсиридаги миқдорий ўзгаришларини баҳолашдан иборат.

Ишда **тадқиқот объекти** сифатида Қуйи Амударё ҳудуди танлаб олинди. Дарё оқимининг антропоген омиллар таъсирида миқдорий ўзгаришларини баҳолаш, таҳлил қилиш, улардан тегишли хулосалар чиқариш каби масалалар тадқиқотнинг **предметини** белгилайди.

Ишни бажариш жараёнида Амударёнинг қуйи оқимида жойлашган, Ўзгидромет тасарруфидаги Туямўйин гидрологик постида кузатилган ўртача кўп йиллик (1930-2020 йй) сув сарфлари маълумотларидан фойдаланилди.


ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Тадқиқот Амударёнинг қуйи оқимида жойлашган Туямўйин гидрологик постида узоқ йиллар давомида кузатилган сув сарфлари маълумотларини таҳлил қилиш билан бошланди. Бу борада бажарилган ҳисоблашлар натижаларининг кўрсатишича, Туямўйин гидрологик постида 1930 йилдан 1956 йилгача бўлган давр оралиғини табиий режимли давр деб олинди. Чунки ушбу даврда Амударёнинг Керки ва Туямўйин гидрологик постлари оралиғида суғоришга олинган сув миқдорлари доимий бўлиб, улар дарёнинг йиллик оқимига нисбатан 10 фоиздан ошмаган [Проскуряков, 1953]. Лекин, 1957 йилдан бошлаб Амударёдан Қорақум каналига сув олина бошланган. Ушбу ҳолатни ҳисобга олиб, 1956 йил табиий сув режимли I ҳисоб даврининг охирги йили, 1957 йил эса II ҳисоб даврининг бошланиши сифатида қабул қилинди.

Мазкур II ҳисоб даври давомида, аниқроғи, 1970 йиллардан бошлаб, Амударёдан

Қарши магистрал канали (ҚМК) ҳамда Аму-Бухоро канали (АБК) ва бошқа йирик ирригация каналларига сув олина бошланди [Аденбаев, Умаров, 2013]. Ушбу II ҳисоб давринг охири сифатида 1990 йил қабул қилинди. Ўзбекистон 1991 йилда мустақилликка эришгач, мамлакатимиз сув хўжалиги тизимида жиддий ўзгаришлар бўлди. Шу ҳолатлар ҳисобга олиниб, III ҳисоб давринг охирги йили сифатида 2020 йил қабул қилинди.

Ишнинг мақсадидан келиб чиқиб, тўпланган маълумотлар асосида ҳар бир ҳисоб даври учун ўртача йиллик сув сарфларининг йиллараро тебраниш графиклари [$Q_{й}=f(T)$] чизилди ва улар таҳлил қилинди (1-расм).



1-расм. Амударё оқимининг йиллараро тебраниш графиклари (Туямўйин гидрологик пости)


Табиий сув режимли давр учун чизилган графикнинг таҳлили шуни кўрсатадики, 1930 йилдан 1956 йилгача бўлган оралиқда ўртача кўп йиллик сув сарфи 1993 м^3/с га тенг бўлган. Бу миқдор 1930 йилдаги ўртача йиллик сув сарфига яқиндир. Шу йиллар мобайнида дарёда энг катта ўртача йиллик сув сарфи 1945 йилда кузатилиб, унинг қиймати 2730 м^3 /с га тенг бўлган. Энг кичик ўртача йиллик сув сарфи эса 1951 йилда кузатилиб, унинг миқдори 1150 м^3 /с ни ташкил этган (1-жадвал).

1-жадвал

Амударё оқимининг турли ҳисоб даврларидаги миқдорий ўзгаришлари (Туямўйин ГП)

Ҳисоб даврлари, йиллар	Характерли сув сарфлари, м^3/с			Оқим ҳажмлари, км^3		
	ўртача кўп йиллик	максимал йил	минимал йил	ўртача кўп йиллик	максимал	минимал
I.1930-1956	1993	2730 1945	1150 1951	62,8	86,7	45,7
II. 1957-1990	1319	2900 1969	531 1986	41,6	91,5	16,7
III. 1991-2020	788	1639 1992	308 2001	24,8	51,7	9,7

Алоҳида қайд этиш лозимки, Амударё узунлиги бўйича ирригация ва гидроэнергетика мақсадларида қурилган йирик гидротехник иншоотларнинг эксплутация қилиниши натижасида Амударё оқимининг экстремал (максимал ва минимал) сув сарфлари ҳам камайган. Ушбу фикр-мулоҳазалар, II ҳисоб давридаги, 1969 йилни ҳисобга олмаганда, ўринлидир. Юқорида келтирилган жадвал маълумотлари асосида, оқим ҳажмининг ўртача кўп йиллик, максимал ва минимал қийматларидан фойдаланиб, ажратилган ҳисоб даврлари учун оқим миқдорларининг ўзгариши диаграммалари чизилди (2-расм).




2- расм. Характерли оқим ҳажмларининг ҳисоб даврлари бўйича миқдорий ўзгаришлари

Графикдан кўриниб турибдики, I ҳисоб даврида кўп йиллик оқим ҳажмининг умумий ҳисоб даври учун ҳисобланган ўртача қиймати 62,8 км^3 га, II ҳисоб даврида I ҳисоб даврига нисбатан 1,5 марта кичрайиб 41,6 км^3 ни, III ҳисоб даврида эса II ҳисоб даврига нисбатан 1,67 марта камайиб, 24,8 км^3 ни ташкил этган.

Максимал оқим ҳажмларининг белгиланган ҳисоб даврлари учун аниқланган йиллик қийматларининг энг каттаси II ҳисоб даврининг1969 йилига тўғри келиб, бу йилдаги оқим ҳажми 91,5 км^3 га тенг бўлган. Бунинг асосий сабабини, кузатишлар олиб борилган бошқа йилларга нисбатан 1969 йилнинг ўта кўп сувли бўлганлиги билан изоҳласак бўлади. Ундан кейинги ўринда I ҳисоб давридаги 1945 йил (W=86,7 км^3) туради. Максимал оқим ҳажмининг энг кичик қиймати III ҳисоб даврига тўғри келиб, бу қиймат 51,7 км^3 га тенг бўлган ва у 1992 йилга тўғри келади.

Оқим ҳажмлари минимал қийматларининг энг каттаси I ҳисоб даврида, кам сувли 1951 йилда, 45,7 км^3 га, II ҳисоб даврида - 1986 йилда, 16,7 км^3 га, III ҳисоб даврида эса бу қиймат, 2001 йилда, 9,7 км^3 ни ташкил этган. Таъкидлаш лозимки II ва III ҳисоб даврларида Амударё оқими минимал ҳажмининг камайишига, биринчидан антропоген омиллар таъсири сабаб бўлса, иккинчидан, юқорида қайд этилган йиллар кам сувли бўлганлиги билан ажралиб туради.

Қуйи Амударёга оқиб келадиган сув миқдорининг алоҳида беш йиллик ҳисоб даврларидаги ўзгаришларини ўрганиш ҳам муҳим илмий ва амалий аҳамиятга эга. Ушбу ҳолатларни эътиборга олган ҳолда, юқорида келтирилган ҳисоб даврларига мос равишда оқим миқдорларининг алоҳида беш йилликлар бўйича ўзгаришлари таҳлил қилинди (3-расм).



3-расм. Амударё оқимининг турли ҳисоб даврларида 5 йилликлар бўйича ўзгариши

Таҳлиллар натижаларига кўра, I ҳисоб давридаги беш йиллик ҳисоблашлар бўйича ўртача кўп йиллик оқим миқдорининг энг кичик қиймати 1935-1939 йиллар оралиғида кузатилган бўлиб, 57,5 км^3 ни, энг катта қиймати эса 1945-1949 йиллага тўғри келиб 67,4 км^3 ни ташкил этган. II ҳисоб даврида беш йиллик оралиқлар учун бажарилган ҳисоблашлар бўйича ўртача йиллик оқим миқдорининг энг катта қиймати 57,4 км^3 га тенг бўлиб, ушбу миқдор 1957-1961 йилларга тўғри келади. Энг кичик қиймати эса 1982-1986 йилларда кузатилиб, 25,6 км^3 ни ташкил қилган. III ҳисоб даврида 1991-1995 йиллардаги беш йилликда Амударё оқимининг кўпайиши тенденцияси кузатилган. Бунинг асосий сабабини, бошқа йилларга нисбатан кўп сувлилиги билан ажралиб турадиган 1992 йил билан изоҳлаш мўмкин.

ХУЛОСА

1. Қуйи Амударёнинг Туямўйин гидрологик постида кузатилган сув сарфлари маълумотлари тўпланди ва улар умумлаштирилиб, бирламчи қайта ишланди, маълумотлар базаси яратилди. Таҳлиллар асосида қуйидаги учта ҳисоб даври ажратилди: I ҳисоб даври (1930-1956 йй.), табиий сув режимли; II ҳисоб даври (1957-1990 йй.), антропоген омил таъсири кучайган йиллар; III ҳисоб даври (1990-2020 йй.), сув хўжалиги тизимида жиддий ўзгаришлар бўлган йиллар;

2. Ҳар бир ҳисоб даври учун ўртача кўп йиллик ҳамда экстремал сув сарфлари ва улар асосида оқим ҳажмлари аниқланди. Ҳисоблашлар натижаларига кўра, II ҳисоб даврида Амударё оқими миқдори (W=41,6 км^3) I ҳисоб давридаги (W=62,8 км^3) га нисбатан 21, 2 км^3 ёки 44 % га, кейинги III ҳисоб давридаги оқим миқдори W=24,8 км^3 га тенг бўлиб, I ҳисоб даврига нисбатан 38 км^3 (61%) га камайган;

3. Қуйи Амударёга оқиб келадиган сув миқдорининг алоҳида беш йилликлардаги ўзгаришлари тадқиқ этилди. I ҳисоб даврида беш йилликлардаги ўртача оқим ҳажмининг энг кичик қиймати W=57,5 км^3 га тенг бўлиб, 1935-1939 йиллар оралиғига, энг катта миқдори (W=67,4км^3) эса 1945-1949 йилларга тўғри келди. Оқим миқдорларининг беш йилликлар бўйича кескин ўзгаришлари II ва III ҳисоб даврларида кузатилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. *Аденбаев Б.Е.* **Современный гидрологический режим и водообеспеченность низовьев реки Амударьи** //Автореф дисс... док.геогр.наук. – Ташкент, 2020. – 72 с.
2. *Аденбаев Б.Е., Хикматов Ф.Х.* Оценка современного гидрологического режима и водообеспеченности низовьев реки Амударьи. – Ташкент “INFO CAPITAL BOOKS”, 2021. – 176 с.
3. *Курбанбаев Е.К., Артыков О., Курбанбаев С.Е.* Аральское море и водохозяйственная политика в республиках Центральной Азии. – Нукус: «Каракалпакстан», 2011. – 127 с.
4. *Проскуряков А.К.* Водный баланс реки Амударьи на участке от г.Керки до г.Нукуса. – Л.: Гидрометеоиздат, 1953. – 89 с.
5. *Рафиков А.А., Тетюхин Г.Ф.* Снижения уровня Аральского моря и изменения, природных условий низовьев Амударьи. – Ташкент: Фан, 1981. – 200 с.
6. *Рафиков В.А.* Антропогенные факторы прогнозирования изменения геосистем Приаралья // Наука Каракалпакстана: вчера, сегодня, завтра: Материалы республиканской научно-практической конференции. – Нукус, 2009. – С.74 – 76.
7. *Хикматов Ф.Х., Аденбаев Б.Е., Ибраев Р.А.* Динамика поступления речных вод в дельту реки Амударьи // Известия ГО Узбекистана, 31 – том. – Ташкент, 2008. – С. 57–59.
8. *Ҳайдарова О.А.* Амударё гидрологик режимига таъсир этувчи сув иншоотлари ҳақида // ЎзГЖ ахбороти, 41 жилд. – Тошкент, 2013. – Б. 156-160.

ИҚЛИМ ЎЗГАРИШИНИНГ ЧИРЧИҚ-ОҲАНГАРОН ҲАВЗАСИ ДАРЁЛАРИ ОҚИМИНИНГ ЙИЛЛАРАРО ТЕБРАНИШИГА ТАЪСИРИ

Хакимова Зилола Фазлиддиновна, Саидова Доно Анваровна,
Исакова Азиза Ядгоровна
Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация. *Мақола иқлим ўзгаришининг тоғ дарёлари оқимининг йиллараро тебранишига таъсирини баҳолаш масалаларига бағишланган. Ўрганилаётган дарёларнинг барчасида (Писком дарёсидан ташқари) тренд тенгламаларининг коэффициентлари мусбат қийматга эга бўлди. Писком дарёсида манфий ишорага эга. Ушбу натижа иқлим илиши шароитида мазкур дарёлар йиллик оқими миқдорларининг ортиб борганлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *иқлим ўзгариши, дарё, дарё ҳавзаси, дарё оқими, йиллараро тебраниш, тренд тенгламаси, баҳолаш.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросам оценки влияния изменения климата на многолетние колебания стока горных рек. Во всех исследуемых реках (за исключением реки Пискем) коэффициенты уравнения тренда имеют положительный знак. Такой результат свидетельствует об увеличении годового стока рек изучаемого бассейна в условиях потепления климата.*

Ключевые слова: *изменение климата, река, речной бассейн, речной сток, межгодовые колебания, уравнение тренда, оценка.*

Abstract. *This article examines the impact of climate change on long-term fluctuations in mountain river runoff. For all studied rivers (except the Piskem River), the trend equation*

coefficients are positive. This result indicates an increase in annual river runoff in the studied basin under climate warming.

Keywords: *climate change, river, river basin, river runoff, interannual fluctuations, trend equation, assessment.*

КИРИШ.

Дарёлар оқими миқдорларининг йилларараро тебраниши иқлимий омиллар (атмосфера ёғинлари, ҳаво ҳарорати, намлик) таъсири натижасида рўй беради. Ёмғир ва қор сувлари ҳисобига тўйинадиган дарёларда йиллик ёғин миқдорининг меъёрга нисбатан кўп бўлиши дарё оқимининг ҳам ортишига олиб келади. Доимий қор ва музлик сувлари ҳисобига тўйинадиган дарёларда эса ёзги ҳаво ҳароратининг меъёрга нисбатан юқори бўлиши дарё оқими миқдорининг кўпайишига сабаб бўлади. Ҳар икки ҳолда ҳам дарёлар оқими миқдорларига таъсир этувчи бошқа омиллар иккинчи даражали бўлиб қолади [2, 5].

Шу сабабли, иқлим ўзгаришининг дарёлар оқимининг йилларараро тебранишига таъсирини баҳолашга қаратилган тадқиқотлар муҳим илмий ва амалий аҳамият эга. Масаланинг иқтисодиёт тармоқлари жадал суратларда ривожланиб бораётган Тошкент вилояти ҳамда қўшни Қозоғистоннинг Чимкент вилояти туманларининг сувга бўлган барча турдаги эҳтиёжларини тўла таъминлайдиган Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёлари мисолида ўрганиш янада **долзарб** аҳамият касб этади.

МУАММОНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ

Ўрта Осиё тоғ дарёлари мисолида, мазкур муаммони ўрганишга қаратилган илк тадқиқотлар В.Л.Шульц, О.П.Щеглова, М.И.Будыко, М.Н.Большаков, Д.Я.Раткович ва бошқалар томонидан амалга оширилган. Бугунги кунда мазкур йўналишдаги тадқиқотлар Ўзбекистон Республикаси Гидрометеорология хизмати агентлиги ҳамда Гидрометеорология илмий-тадқиқот институти (ГМИТИ) олимлари Л.М.Карандаева, Ғ.Ў.Умирзоқов, Д.М.Турғунов ва бошқалар, ЎзМУда эса Ф.Ҳикматов, Ғ.Х.Юнусов, Р.Р.Зияев, А.Я.Исакова, З.Ф.Хакимова каби тадқиқотчилар томонидан давом эттирилмоқда. Бироқ, ушбу масала, яъни иқлим ўзгаришининг тоғ дарёлари оқимининг йилларо тебранишига таъсирини баҳолаш муаммоси, шу кунга қадар яхши ўрганилмаган.

Мазкур тадқиқот ишининг **асосий мақсади** иқлим ўзгаришининг Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёлари оқими миқдорларининг йилларо тебранишига таъсирини баҳолаш масалалаларига қаратилган.

Тадқиқот жараёнида кўзланган мақсадга эришиш учун қуйидаги **вазифалар** белгиланди ва ўз ечимини топди: 1) Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзасидаги табиий гидрологик режимли дарёларининг ўртача йиллик сув сарфлари маълумотларини тўплаш; 2) кузатув йиллари қаторларидаги узилишларни тиклаш ва уларни бир маъноли гидрологик қаторларга келтириш; 3) ўрганилган дарёлар оқими миқдорларининг йилларараро тебранишидаги ўзига хос хусусиятларни аниқлаш.

Мақолада **тадқиқот объекти** сифатида Чирчиқ-Охангарон ҳавзасидаги табиий гидрологик режимга эга бўлган дарёлар танлаб олинди (1-жадвал). Мазкур дарёлар ўртача кўп йиллик сув сарфларини ҳисоблаш ва уларнинг йилларо тебранишларидаги ўзига хос хусусиятларни баҳолаш масалалари тадқиқотнинг **предметини** белгилайди.

1-жадвал

Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёлари ҳақида айрим гидрологик маълумотлар

Т/р	Дарё – гидропост	Ғ, км^2	Н, м	Кузатиш		Тўйиниш типи*
				йиллари	сони	
1	Чотқол –Худойдотсой д.қ.	6580	2660	1965-2020	56	Қ
2	Писком – Муллала қ.	2540	2740	1965-2020	56	Қ


3	Ойгаинг – қуйилиши	1010	3010	1961-1968 1970-2020	57	ҚМ
4	Чиралма – қуйилиши	109	2700	1961-1968 1971-2020	58	Қ
5	Майдонтол – қуйилиши	471	3130	1961-2020	60	ҚМ
6	Угом – Хўжакент қ.	869	2700	1961-2020	60	ҚЁ
7	Оҳангарон – Ертош д.қ.	1110	2600	1971-2020	50	ҚЁ

Изоҳ: Ғ – дарёларнинг сув тўплаш (ҳавза) майдони; Н –дарё ҳавзасининг ўртача баландлиги; О.П.Щеглова таснифи бўйича дарёларнинг: ҚМ – қор-муз, Қ – қор, ҚЁ – қор-ёмғир сувлари ҳисобига тўйиниш типлари.*

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ


Тадқиқотда белгиланган мақсадга эришиш учун Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёларида 1961-2020 йилларда кузатилган ўртача йиллик сув сарфлари маълумотларидан фойдаландик. Тўпланган гидрологик маълумотларнинг дастлабки таҳлиллари натижасида, Майдонтол ва Угом дарёларини ҳисобга олмаганда, қолган барча дарёларнинг сув сарфлари қаторларида узилишлар мавжудлиги аниқланди. Масалан, биз танлаб олган ҳисоб даври (1961-2020 й.й)га нисбатан солиштирсак Писком дарёсининг Муллала гидропостида кузатишлар 1965 йилдан бошланган. Шу сабабли ушбу дарёда дастлабки 4 йилликда, Оҳангарон дарёсининг Ертош дарёси қуйилишидан қуйида жойлашган гидрологик постда кузатишлар 1971 йилдан бошланганлиги туфайли, унда 10 йиллик узилишлар мавжудлиги аниқланди. Мазкур узилишлар статистик таҳлиллар асосида танлаб олинган аналог дарёлар ёрдамида тикланди. Натижада гидрологик маълумотлар бир маъноли гидрологик қаторларга келтирилди.

Тадқиқот ишининг кейинги босқичида, илгари бажарилган тадқиқотлардан [2, 5, 6] наъмуна олган ҳолда, дарёлар ўртача йиллик сув сарфларининг йилларараро тебранишлари ўрганилди ва таҳлил қилинди. Шу мақсадда ўрганилаётган ҳавзадаги дарёлар, сув сарфлари миқдорларига боғлиқ ҳолда, катта ва кичик дарёларга ажратилиб олинди (1 ва 2-расмлар).



1-расм. Чотқол ва Писком дарёлари ўртача йиллик сув сарфларининг йилларо тебраниши

Графикларнинг таҳлиллари шуни кўрсатадики, Чирчиқ-Оҳангарон ҳавзаси дарёларида 1961 йилдан 2020 йилгача бўлган оралиқда ўртача йиллик сув сарфларининг тебранишлари, айрим дарёларни ҳисобга олмаганда, жуда нотекис бўлган. Чотқол дарёсида энг катта сув сарфлари 1969 ва 2017 йилларда кузатилган бўлиб, мос равишда 228 м³/с, 204 м³/с га тенг бўлган. Сув сарфларининг тебранишлари 1961-1990 йилларда жуда нотекис бўлган бўлса, 1991-2020 йилларда эса дарёлар оқим миқдорларининг бир маромда ортиб борганлигини кўрамиз. Писком дарёсида эса бу ҳолатнинг акси кузатилади, яъни ўрганилаётган даврда энг катта сув сарфи 1969 йилда кузатилган бўлиб, унинг миқдори 137 м³/сга тенг бўлган. Кейинги йилларда эса йилдан-йилга камайиб бориб, энг кичик ўртача йиллик сув сарфи 2020 йилда кузатилган (49,8 м³/с). Ушбу рақам меъёрга нисбатан 50 % атрофидадир. Бунинг асосий сабаби Писком ГЭС сув омборининг тўлдирила бошланганлиги билан изоҳланади. Тренд чизиғи ва тренд коэффициентининг ишорасидан кўриниб турибдики, дарёда ўртача йиллик сув сарфлари миқдорлари аста-секинлик билан камайиб борган.



2-расм. Ҳавзадаги кичик дарёлар ўртача йиллик сув сарфларининг йилларо тебраниши

Дарёлар ўртача йиллик сув сарфларининг йиллараро тебраниш қонуниятларини ўрганишда тренд тенгламаларини тузиш ва уларни таҳлил қилиш муҳим илмий ва амалий хулосалар чиқаришга имкон беради (2-жадвал).

2-жадвал

Дарёлар ўртача йиллик сув сарфларининг тренд тенгламалари

Т/р	Дарё-гидропост	Тренд тенгламаси	Оқим миқдорининг ўзгариши
1	Писком	Y=-0,134·X+79,85	-
2	Ойгаинг	Y=0,102·X+25,37	+
3	Чиралма	Y=0,025·X+2,31	+

4	Майдонтол	Y=0,079·X+16,52	+
5	Чотқол	1. Y=0,586·X+93,89	+
6	Угом	Y=0,051·X+21,03	+
7	Оҳангарон	Y=0,011·X+20,09	+

Изоҳ:”+ ” – оқим миқдори ортган; “-“ – оқим миқдори камайган

Дарёлар оқим миқдорларининг, юқорида қайд этилган, ҳисоб даврлари давомида ортиб бориши тренд тенгламаларида ҳам ўз аксини топган. Ўрганилган дарёлар, Писком дарёсидан ташқари, тренд тенгламалари коэффициентларининг мусбат ишорали эканлиги фикримизнинг ёрқин далилидир. Алоҳида қайд этиш лозимки, Чотқол ва Ойгаинг дарёларида оқим миқдорларининг ортиши бошқа ўрганилган дарёларга нисбатан катта бўлган. Ушбу натижани мазкур дарёлар ҳавзаларида тоғ музликлари ва доимий қорликлар эгаллаган майдонларнинг катта билан изоҳлаш мумкин.

Хулоса. Ўрганилган дарёларнинг барчасида (Писком дарёни ҳисобга олмаганда) тренд тенгламалари коэффициентлари мусбат ишорали бўлса, Писком дарёсида манфий ишорага эга. Ойгаинг, Чиралма, Майдонтол, Чотқол, Угом, Оҳангарон дарёларида йиллик оқим миқдори ортиб борган бўлса, Писком дарёсида эса, аксинча, биз ўрганган ҳисоб даврида, йиллик оқим меъёрлари камайиб борган.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Будыко М.И. Изменения климата. – Л: Гидрометеоиздат, 1974. - 280 с.
2. Большаков М.Н. Водные ресурсы рек Советского Тянь-Шаня и методы их расчета. – Фрунзе: Илим, 1976. - 306 с.
3. Раткович Д.Я. Многолетние колебания речного стока. – Л: Гидрометеоиздат, 1976. - 256 с.
4. Раткович Д.Я., Болгов М.В. Стохастические модели колебаний составляющих водного баланса речного бассейна. – М: Наука, 1997. - 262 с.
5. Шульц В.Л. Реки Средней Азии. Ч. 1 и 2. – Л:. Гидрометеоиздат, 1965. - 691 с.
6. Щеглова О.П. Питание рек Средней Азии, – Ташкент: Изд-во СамГУ, 1960. - 243 с.

MUZLIKLAR DEGRADATSIYASINING PISKOM DARYOSI MUALLAQ OQIZIQLARI OQIMIGA TA’SIRI

Xoltojiyeva O.T.
Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. *Maqola muzliklar degradatsiyasining Piskom daryosi muallaq oqiziqlari oqimiga ta’sirini o’rganishga bag’ishlangan. Tadqiqotda Landsat 7 ETM+ va Landsat 8 OLI/TIRS ma’lumotlari asosida Normalizatsiyalangan qor-indeksi (NDSI) usuli qo‘llanilgan. Natijada Piskom daryosi muallaq oqiziqlari sarfining havzada muzliklar maydoni kamayishiga mosligi tendensiyasi (r=0,57) aniqlangan.*

Kalit sozlar: *daryo, daryo havzasi, tog’ muzliklari, muzlik maydoni, muallaq oqiziqlar, o’zgarish, baholash.*

Аннотация. *Статья посвящена изучению влияния деградации ледников на сток взвешенных наносов реки Пскем. В работе использованы данные Landsat 7 ETM+ и Landsat 8 OLI/TIRS, применён метод нормализованный индекс снега (NDSI). В результате выявлена тенденция в изменениях площади ледников и расходов взвешенных наносов реки Пскем (r=0,57).*

Ключевые слова: *река, речной бассейн, горные ледники, площадь ледников, взвешенные наносы, изменение, оценка.*

Annotation. *The article is devoted to the study of the impact of glacier degradation on the suspended sediment runoff of the Pskem river. The study used Landsat 7 ETM+ and Landsat 8 OLI/TIRS data and applied the Normalized Difference Snow Index (NDSI) method. As a result, a trend was identified in the changes of glacier area and suspended sediment discharge of the Piskom river (r = 0.57).*

Keywords: *river, river basin, mountain glaciers, glacier area, suspended sediments, change, assessment.*

KIRISH.

Muzliklar – tog’ daryolari gidrologik rejimini belgilovchi asosiy komponentlaridan biridir. Ular nafaqat suv resurslarini shakllantiradi, balki eroziya jarayonlari orqali muallaq oqiziqlar oqimiga ham ta’sir ko’rsatadi [Kaser G. va boshq., 2010]. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqlim o‘zgarishi natijasida O‘rta Osiyo tog’ tizimlaridagi muzliklar maydoni sezilarli darajada qisqarmoqda [Savoskul O.S. va boshq., 2014]. Mazkur jarayon Chirchiq havzasidagi yirik irmoqlardan biri bo‘lgan Piskom daryosida ham kuzatilmoqda. Muzliklar maydonining qisqarishi esa Piskom daryosi muallaq oqiziqlari oqimining dinamikasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda [6, 7].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muzliklarning qisqarishi ikki bosqichli ta’sirga ega: dastlabki davrda muzlikning erishi kuchayib, oqiziqlar oqimi ortadi, biroq muzlik massasi keskin kamaygach, oqiziqlar oqimi ham kamayadi [Huss M. va boshq., 2018; Kaser G. va boshq., 2010]. Bu hodisani o‘rganish muzlik eroziyasi jarayonlari va ularning gidrologik xususiyatlarini aniqlashda **dolzarb** ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning **maqsadi** — Piskom daryosi havzasidagi muzliklar maydonining 2000-2024 yillar davomida o’zgarishini aniqlash va uning Piskom daryosi muallaq oqiziqlari oqimiga ta’sirini baholashdan iborat. Ushbu masala nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Chunki, muallaq oqiziqlar oqimining o‘zgarishi Piskom daryosi havzasida joylashgan suv omborlari kosalarining loyqa oqiziqlar bilan to’lib borish jadalligini belgilaydi, suv resurslarini samarali boshqarishga salbiy ta’sir qiladi.

Tadqiqotda belgilangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi: 1) Piskom daryosi havzasidagi muzliklar maydonining 2000–2020 yillar oralig‘idagi o‘zgarishini aniqlash; 2) Landsat 7 ETM+ va Landsat 8 OLI/TIRS ma’lumotlari asosida muzliklar konturlarini ajratib olish va ularning dinamikasini baholash; 3) NDSI (Normalized Difference Snow Index) usulini qo‘llab, muzliklarni kosmik suratlardan avtomatik aniqlash; 4) Mullala gidrologik postida kuzatilgan muallaq oqiziqlar oqimi ko‘rsatkichlarini statistik tahlil qilish; 5) Muzliklar maydoni o‘zgarishlari bilan muallaq oqiziqlar oqimi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlikni aniqlash.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, O‘rta Osiyo muzliklari maydoni 1960-yildan buyon o‘rtacha 20–30% qisqargan [Azam M.F. va boshq., 2018; Bolch va boshq., 2012; Khan A. va boshq., 2019]. Bu jarayon nafaqat suv resurslariga, balki muallaq oqiziqlar transportiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Muzliklarning jadal suratlarda erishi natijasida tog’ yonbag‘irlaridagi beqaror jinslar ko‘proq eroziyaga uchrab, muallaq oqiziqlar oqimi miqdorini ko’paytiradi [Mergili M. va boshq., 2020].

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.


Tadqiqot doirasida 2000-2020 yillar oralig’idagi davrda Landsat sun’iy yo’ldosh ma’lumotlari asosida kosmik suratlar olindi va tahlil qilindi: 2000-yil – Landsat 7 ETM+ (yozgi fasl, SLC-on rejimi); 2010-yil – Landsat 7 ETM+ (SLC-off, bo‘shliqlar interpolatsiya qilindi); 2020-yil – Landsat 8 OLI/TIRS (yozgi fasl).

Rester kalkulyator yordamida, NDSI usulini qo’llash orqali muzliklar maydoni quyidagi formula asosida hisoblandi:


$$NDSI=\frac{(Green-SWIR)}{(Green+SWIR)}, \quad (1)$$

bu yerda: Landsat 7 uchun: Green=B2, SWIR=B5; Landsat 8 uchun: Green=B3, SWIR=B6.

NDSI>0,4 bo‘lgan hududlar muzlik sifatida qabul qilindi (1-rasm). Mazkur natija raster ko‘rinishidan vektor poligonlarga o‘tkazildi. Rester kalkulyator yordamida muzlik chegaralari poligon ko’rinishda belgilandi (2-rasm).



1-rasm. Piskom daryosi havzasida NDSI ko’rsatkichlari asosida ajratib olingan muzliklar



2-rasm. Piskom daryosi havzasida ajratib olingan muzliklar maydonlari

O’tkazilgan chegaralar asosida har bir o’rganilayotgan yil uchun umumiy muzliklar maydoni (km^2) hisoblab chiqildi (1-jadval).

1-jadval


Piskom daryosi havzasi muzliklari maydonlari va muallaq oqiziqlari oqimining o’zgarishlari

Yil	Muzliklar maydoni (km^2)	Qisqarish (%)	Muallaq oqiziqlar sarfi R, kg/s	Oqiziqlar oqimi W_R, 10^3 tonna
2000	~118	-	6,1	192
2005	~111	-6	16	505
2010	~104	-13	11,7	369
2015	~96,5	-18	1,04	32

2020	~89	-24	3,45	109

Natijalar tahlillariga ko’ra, 2000-yilda muzliklar maydoni 118 km^2 bo’lgan bo’lsa, 2020-yilga kelib bu ko’rsatkich 89 km^2 ga kamaygan, ya’ni 20 yilda muzliklar maydoni tahminan 29 km^2 ga qisqargan. Oqiziqlar oqimi 2000-yilda 192 10^3 tonnaga teng bo’lgan va 2005-yilda bu ko’rsatkich 505 10^3 tonnaga keskin ortgan. 2015-yilga kelib oqiziqlar oqimining qiymati keskin kamayib 32 10^3 tonnani tashkil qilgan. Bu holat shuni ko’rsatadiki, daryolar muallaq oqiziqlari oqimi hosil bo’lishi faqat muzliklar erishi bilan bog’liq emas, balki yog’inlar, sel hodisalari, tog’ yon bag’irlarida sodir bo’ladigan eroziya jarayonlarining faollashuvi bilan izohlanadi (1-jadval).

Jadval ma’lumotlari asosida muzliklar maydoni o’zgarishi bilan muallaq oqiziqlar sarflari orasidagi bog’lanish grafigi chizildi (3-rasm).



3-rasm. Muzliklar maydoni (F_M) bilan muallaq oqiziqlar sarflari (R) orasidagi bog’lanish grafigi

Grafikdan ko’rinib turibdiki, hisob davri davomida muzliklar maydoni qisqargan sari muallaq oqiziqlar oqimida turlicha tebranishlar kuzatilgan. Ayrim yillarda yani 2005 va 2010-yillarda muallaq oqiziqlar oqimi keskin ortib ketgan. Bu holatga nafaqat muzliklar maydoni qisqarishi, balki yog’ingarchilik, kuchli sel toshqinlari va tog’ yonbag’irlarida kechadigan eroziya jarayonlari ham ta’sir qilgan.

Tadqiqotda olingan natijalarning tahlillari asosida chiqarilgan **xulosa** sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: Piskom daryosi havzasi muzliklarining umumiy maydoni, 2000–2020 yillar oralig‘ida 118 km² dan 89 km² gacha qisqargan (24%); Mazkur davrda muallaq oqiziqlar oqimi Piskom daryosining Mullala gidrologik postida kuzatilgan ma’lumotlarga ko’ra, o‘rtacha 32-505 tonna oraliqda o’zgargan; Muzliklar maydoni va oqiziqlar oqimi o‘rtasidagi moslik tendensiyasi (r=0,57) aniqlandi. Kelgusi tadqiqotlarda iqlim omillarini ya’ni, havo harorati va atmosfera yog’inlarini ham hisobga olish lozim, deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bolch T., Kulkarni A., Kaab A., Huggel C., Paul F., Cogley J.G., Stoffel M. The state and fate of Himalayan glaciers // Science. – 2012. – Vol. 336(6079). – P. 310–314.
2. Gafurov A., Bardossy A. Cloud removal methodology from MODIS snow cover product // Hydrology and Earth System Sciences. – 2009. – Vol. 13(7). – P. 1361–1373.
3. Huss M., Hock R. Global-scale hydrological response to future glacier mass loss // Nature Climate Change. – 2018. – Vol. 8(2). – P. 135–140.
4. Khan A., Khan N., Rehman A. Glacier changes and their impact on river discharge in the Karakoram–Himalaya region // Journal of Hydrology. – 2019. – Vol. 574. – P. 467–482.
5. Mergili M., Fischer J.T., Huggel C. Ice loss and sediment transport in mountain river basins // Earth Surface Processes and Landforms. – 2020. – Vol. 45(3). – P. 516–533.

6. Глазырин Г.Е. Горные ледниковые системы, их структура и эволюция. – Л.: Гидрометеоиздат, 1991. – 109 с.

7. Хикматов Ф.Х. Водная эрозия и сток взвешенных наносов горных рек Средней Азии. – Ташкент: «Fan va texnologiya», 2011. - 248 с.

АРИД ҲУДУДЛАРДАГИ СУВ ОМБОРЛАРИ ЮЗАСИДАН БУҒЛАНИШ ҚАТЛАМИНИ БАҲОЛАШ МАСАЛАЛАРИ (Тўдакўл сув омбори мисолида)

Пиримова С.К.
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,

Анотатция. *Мақола арид ҳудудлардаги сув омборлари юзасидан буғланиш қатламини баҳолаш масалаларига бағишланган. Шу мақсадда мавзуга оид адабиётларда келтирилган илмий* **маълумотлар** *ўрганилган ва таҳлил қилинган. Тадқиқотни амалга оширишда Бухоро метеостанциясида кузатилган метеорологик маълумотлардан фойдаланилган. Буғланиш қатламининг ойлик ҳамда йиллик миқдорлари ҳисобланган ва олинган натижалар таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *Тўдакўл сув омбори, ҳаво ҳарорати, сув юзаси ҳарорати, шамол тезлиги, нисбий намлик, буғланиш қатлами, эмпирик ифода, баҳолаш.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросам оценки слоя испарения с поверхности водохранилищ аридных территорий. С этой целью были изучены и проанализированы научные сведения, представленные в соответствующих литературных источниках. При выполнении исследования были использованы данные метеорологических наблюдений, выполненных на метеостанции «Бухара». Рассчитаны месячные и годовые слои испарения, произведен анализ полученных результатов.*

Ключевые слова: *Тудакульское водохранилище, температура воздуха, температура поверхности воды, ветер, относительная влажность, слой испарения, эмпирическая формула, оценка.*

Abstract. *The article is devoted to the issues of assessing the evaporation layer from the surface of reservoirs in arid territories. For this purpose, scientific data presented in relevant literature were studied and analyzed. To this end, scientific data presented in relevant literary sources was reviewed and analyzed. Meteorological observations conducted at the Bukhara weather station were used in the study. The monthly and annual values of the evaporation layer were calculated, and the obtained results were analyzed.*

Keywords: *Tudakul Reservoir, air temperature, water surface temperature, wind, relative humidity, evaporation layer, empirical equation, assessment.*

КИРИШ

Ўзбекистон сув омборлари юзасидан бўладиган ўртача кўп йиллик буғланиш миқдори, уларнинг лойиҳада белгиланган сув ҳажмларига нисбатан 0,75 %дан (Оҳангарон сув омбори) 13 %гача (Туямўйин сув омбори) бўлган оралиқда ўзгаради. Айниқса, текисликдаги сув омборлари (Туямўйин) юзасидан бўладиган буғланиш қатламининг мутлақ ва нисбий миқдорлари тоғли ҳудудлардагига (Оҳангарон) нисбатан бир мунча катта бўлади [Никитин, 1991; Xikmatov va boshq., 2022].

Ўзбекистон сув омборлари мисолида, юқорида келтирилган рақамлар сув омборлари юзаларидан бўладиган буғланиш жараёнини ҳар томонлама ўрганишни тақазо этади. Иқлим илиши оқибатида, Ўзбекистон ва қўшни давлатларда сув тақчиллигининг йилдан –

йилга тиғизлашиб боришини ҳисобга олсак, ушбу муаммо янада **долзарб** аҳамият касб этади.

Мазкур тадқиқотнинг асосий **мақсади** Ўзбекистоннинг текислик, яъни чўл зонасида жойлашган сув омборлари юзасидан бўладиган буғланиш миқдорини эмпирик ифодалар ёрдамида баҳолаш масалаларини Тўдакўл сув омбори мисолида кўриб чиқишга қаратилган.

Тадқиқотнинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда, мақолада таянч **тадқиқот объекти** сифатида Тўдакўл сув омбори танланди. Таҳлиллар асосида ўрганилаётган сув омборига энг яқин масофада (20 км шимоли-шарқда) «Бухоро» метеорологик станциясининг жойлашганлиги аниқланди ва мазкур метеостанция таянч метеопункт сифатида қабул қилинди. Тадқиқот жараёнида мазкур метеостанцияда кузатилган метеорологик катталиклардан бирламчи маълумотлар сифатида фойдаланилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ

Тўдакўл сув омбори Навоий вилоятининг, Қизилтепа тумани ҳудудида жойлашган. Уни лойиҳалаш ва қуриш ишлари 1965-1968 йилларда Бухоро вилояти Суғориш тармоқлари бошқармасига қарашли лойиҳа гуруҳининг тадқиқот материаллари асосида амалга оширилган. Сув омбори қуйилма типга мансуб бўлиб, Аму-Бухоро каналидан сув олувчи узунлиги 5 км, сув ўтказиш қобилияти 100 м^3/с бўлган канал орқали тўлдирилади. Бундан ташқари сув омборини тўлдириш Зарафшон дарёси ўзанида жойлашган “Хархур” гидроузелидан сув олувчи, узунлиги 21,8 км, сув ўтказиш қобилияти 140 м^3/с бўлган Юқори Бухоро ташламаси орқали ҳам амалга оширилади. Сув омборининг Зарафшон дарёси суви билан тўлдириш имконияти кўпинча қиш-баҳор ойларида, дарёда ортиқча ёки тошқин сувлари келган даврдагина мумкин бўлади. Тўдакўл сув омборида йиғилган сув Бухоро вилоятининг 7 та, Навоий вилоятининг 2 та туманларидага экин майдонларини суғориш учун сарфланади.

Сув омбори юзасидан буғланиш миқдори (ҳажми) ва қатламини аниқлашнинг сув баланси, иссиқлик баланси, ҳисоблаш ифодалари, махсус графиклар ва хариталардан фойдаланиш, шунингдек, ўлчов қурилмалари (буғлатгичлар) ёрдамида баҳолаш, аниқлаш усуллари мавжуд. Буғланишни ҳисоблаш, яъни эмпирик ифодалар ёрдамида аниқлаш усули гидрологик ҳисоблашлар амалиётида кенг қўлланилади.

Тадқиқотнинг мақсадига мувофиқ, «Бухоро» МС да 1981-2024 йилларда, белгиланган стандарт талаблар асосида, ўлчанган ҳаво ҳарорати, атмосфера ёғинлари, нисбий намлик, шамол тезлиги ҳақидаги маълумотлар тўпланди. Улар бирламчи қайта ишланиб, гидрометеорологик маълумотлар базаси яратилди. Ушбу маълумотлар асосида ўрганилаётган сув омбори юзасидан буғланиш қатлами, ўртача йиллик ҳаво ҳароратига боғлиқ ҳолда, ҳисоб даврининг характерли (максимал, ўртача, минимал) йиллари учун аниқлашни лозим топдик. Шу мақсадда «Бухоро» метеостанциясида ўлчанган маълумотлар асосида аниқланган ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг йиллараро тебраниши ўрганилди (1-расм).


Таҳлиллар натижасида ўртача йиллик ҳаво ҳарорати минимал (13,85 °С) қийматининг 1984 йилга, максимал (17,44 °С) қийматининг эса 2023 йилга тўғри келганлиги аниқланди. Ҳисоб даври, яъни 1981-2024 йиллар давомида ўртача кўп йиллик ҳаво ҳароратининг ҳисобланган қиймати 15,74 °С га тенг бўлди.

Ҳаво ҳароратининг характерли қийматлари кузатилган йиллар, яъни $t_{мак}$=17,44 °С (2023 йил), $t_{ўрт}$=15,74 °С (1981-2024 йй.) ва $t_{мин}$=13,85 °С (1984 йил) учун буғланиш қатламини ҳисоблашда Б.Д.Зайков [Зайков, 1955] ифодасидан фойдаландик:

$$Z=0{,}15\cdot n\cdot C\cdot d_{200.}^{0{,}78}\cdot(1+0{,}72\cdot v_{200}),\ \text{мм/ой}, \qquad (1)$$

бу ерда: Z – буғланиш қатлами; n – ойдаги кунлар сони; C – сув юзаси ва ҳаво ҳарорати нисбатига боғлиқ бўлган географик параметр; d – ҳаводаги намлик етишмаслиги; v_{200} – шамолнинг ер юзасидан 2 метр баландликдаги тезлиги.

Ушбу ифодадаги C нинг қиймати метеостанциянинг координаталари бўйича Б.Д.Зайков [Зайков, 1955] томонидан тузилган махсус картадан аниқланди. Ўрта Осиёнинг чўл, чала чўл зоналари чегаралари учун C = 1,2 деб қабул қилиш мумкин.



1-расм. Ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг йилларараро тебраниши, «Бухоро» МС

Ҳаводаги намлик етишмаслиги (d_{200}), тўйинган сув буғининг эластиклиги (e_0) ҳамда метеобутка баландлигидаги сув буғининг эластиклиги (e_{200}) нинг фарқи сифатида ҳисобланади:

$$d_{200} = e_0 - e_{200}. \quad (2)$$

Маълумки, метеостанцияларда шамолнинг тезлиги ердан 10 м баландликда ўлчанади. Шамолнинг флюгер баландлигида аниқланган тезлигидан ер сиртидан 2 метр баландликдаги тезлигига ўтиш қуйидаги ифода ёрдамида амалга оширилади:

$$\vartheta_{200} = \frac{\lg \frac{Z_1}{Z_0}}{\lg \frac{Z_2}{Z_0}} \cdot \vartheta_{1000}, \quad (3)$$

бу ерда: Z_1 - шамолнинг тезлиги аниқланаётган баландлик, Z_1= 200 см; Z_2 -шамолнинг тезлиги аниқланган баландлик (флюгер баландлиги), Z_2 =1000 см; Z_0 - юза ғадир-будурлигини ифодалайдиган катталик, ер сирти юзаси (қор қопламисиз) учун Z_0 = 3 см.

Юқорида келтирилган ифодалар асосидаги ҳисоблашларни амалга оширишда Бухоро МС да кузатилган метеокатталиклар аниқланди. Уларга ҳар бир характерли йилнинг алоҳида ойлари учун аниқланган ўртача ойлик ҳаво ҳароратлари, уларга мос равишда тўйинган сув буғининг эластиклиги (e_0), шамол тезлиги, метеобутка баландлигидаги сув буғининг эластиклиги (e_{200}) нинг миқдорий қийматлари киради. Мазкур метеорологик катталиклар ҳисоб йиллари (2023, 1981-2024, 1984) учун аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Метеоэлементларнинг характерли йиллардаги ўртача ойлик қийматлари

Метеоэлементлар		ОЙЛАР											
		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
Ҳаво ҳарорати, t_x, °C	мак	-3,2	6,3	16,7	19,2	23,8	30,4	31,6	28,4	21,8	17	12,9	4,4
	ўртача	1,7	4,2	10,1	17,3	23,3	28,5	29,9	27,5	21,5	14,3	7,8	2,7
	мин	1	-4	8,6	16,3	22,9	27,7	30,7	28,5	20,1	13,7	8,2	-7,5
Тўйинган сув буғининг эластиклиги, e_0, мб	мак	4,8	9,5	19	22,3	29,5	43,4	46,5	38,7	26,1	19,4	14,9	8,4
	ўртача	6,9	8,2	12,4	19,8	28,6	39	42,2	36,8	25,7	16,3	10,6	7,4
	мин	6,5	4,5	11,1	18,5	27,9	37,1	44,1	38,6	23,1	15,6	10,8	3,4
Шамолнинг тезлиги, V_{1000}, м\с	мак	2,3	2,9	3,5	3,6	3,7	4	4,6	3,9	4	2,2	2,8	3,1
	ўртача	3,1	3,4	3,6	3,8	3,8	4	4,4	4,3	3,7	2,9	2,9	3
	мин	2,9	2,9	3,3	3,8	4,3	4,7	5,7	5,1	3,8	2,9	3,4	3,2
Сув буғининг эластиклиги, e_{200}, мб	мак	3,6	6,8	9,9	9,6	10,0	10,9	12,6	12,0	9,5	10,9	8,6	5,6
	ўртача	5,4	5,9	7,8	10,4	12	12,5	13,9	12,8	10,1	8,3	6,9	5,6
	мин	5,1	3,5	8,7	9,8	11,7	12,2	14,1	13,5	9,9	9,0	7,3	2,6

Изоҳ: *мак – 2023 йил; ўртача – 1981-2024 йиллар; мин –1984 йил.*

Метеоэлементларнинг ҳар бир ҳисоб йили учун аниқланган миқдорлари, яъни ўртача ойлик ҳаво ҳарорати, шамол тезлиги, нисбий намлик маълуматлари асосида буғланиш миқдори қатлам кўринишида аниқланди. Ҳисоблашлар, дастлаб, ўртача йиллик ҳаво ҳарорати энг юқори бўлган 2023 йил учун бажарилди (2-жадвал).


2-жадвал

Тўдакўл сув омбори юзасидан буғланиш қатламини ҳисоблаш, 2023 йил

Ҳисоблаш элементлари	ОЙЛАР											
	I	II	III	IV	V	VI	VII	VII	IX	X	XI	XII
Ойдаги кунлар сони, n	31	28	31	30	31	30	31	31	30	31	30	31
$0{,}15\cdot n$	4,65	4,2	4,65	4,5	4,65	4,5	4,65	4,65	4,5	4,65	4,5	4,65
$0{,}15\cdot n\cdot C$	5,58	5,04	5,58	5,4	5,58	5,4	5,58	5,58	5,4	5,58	5,4	5,58
Тўйинган сув буғининг эластиклиги, e_0	4,8	9,5	19	22,3	29,5	43,4	46,5	38,7	26,1	19,4	14,9	8,4
Сув буғининг эластиклиги, e_{200}	3,6	6,8	9,9	9,6	10,0	10,9	12,6	12,0	9,5	10,9	8,6	5,6
$d_{200} = e_0 - e_{200}$	1,2	2,7	9,1	12,7	19,5	32,6	33,9	26,7	16,6	8,5	6,3	2,8
$d_{200}^{0,78}$	1,15	2,17	5,59	7,26	10,1	15,1	15,6	12,96	8,94	5,3	4,2	2,23
Шамол тезлиги, v_{200}	2,32	2,8	2,88	2,96	3,2	3,68	3,12	3,2	1,76	2,24	2,48	2,32
$0{,}72\cdot v_{200}$	1,7	2,0	2,1	2,1	2,3	2,6	2,2	2,3	1,3	1,6	1,8	1,7
$1+0{,}72\cdot v_{200}$	2,7	3,0	3,1	3,1	3,3	3,6	3,2	3,3	2,3	2,6	2,8	2,7
Z, мм	17,1	33,0	95,9	122,8	186,2	297,6	282,6	238,9	109,5	77,3	63,2	33,2
Z, %	1,1	2,1	6,2	7,9	12,0	19,1	18,1	15,3	7,0	5,0	4,1	2,1
Йиллик буғланиш, мм/%	$\frac{1557.2}{100}$											

Тўдакўл сув омбори юзасидан 2023 йил давомида умумий буғланиш миқдори 1557,2 мм ни ташкил этди. Буғланиш қатламининг энг кичик қийматлари январь (17,1 мм) ва декабрь (33,2 мм) ойларига тўғри келган бўлса, энг юқори буғланиш июнь (297,6 мм) ва июль (282,6 мм) ойларида қайд этилган. Бу ҳолат Тўдакўл сув омбори ҳудудида ёз ойларида ҳаво ҳароратининг юқорилиги ва шамол тезлигининг нисбатан катталиги билан

изоҳланади. Мазкур ҳолатлар, ҳисоблашлар натижалари асосида қурилган диаграммада яққол акс этиб турибди (2-расм).



2-расм. Тўдакўл сув омбори юзасидан буғланиш қатламининг йил давомида ойлар бўйича ўзгариши, 2023 йил

Юқоридаги графикда йиллик буғланиш жараёнининг ойлик динамикаси тасвирланган бўлиб, унда баҳор ва ёз ойларида буғланиш жадаллиги кескин ошиши, куз ва қишда эса, аксинча, пасайиши яққол кўзга ташланади. График жадвалдаги рақамли маълумотларни визуал таҳлил қилиш имконини беради ҳамда мавсумий ўзгаришларни аниқ тасвирлайди.

Бажарилган тадқиқот натижаларини умумлаштириб, қуйидагиларни **хулоса** сифатида қайд этамиз:

1. Сув омборлари юзасидан буғланиш қатлами улар жойлашган ҳудуднинг иқлим шароити, аниқроғи, уни белгилайдиган метеорологик кўрсаткичлар, жумладан, ҳаво ҳарорати, сув юзаси ҳарорати, шамолнинг тезлиги, нам етишмаслиги кабиларга боғлиқдир;

2. Тўдакўл сув омборига яқин жойлашган Бухоро МС маълумотлри асосида, ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг характерли (энг катта, ўртача, энг кичик) қийматлари ва улар кузатилган йиллар аниқланди: $t_{мак}$=17,44 °C (2023 йил), $t_{ўрт}$=15,74 °C (1981-2024 йй.) ва $t_{мин}$=13,85 °C (1984 йил);

3. Характерли йилларда Тўдакўл сув омбори юзасидан бўлган буғланиш қатлами ҳисобланди. Ҳисоб давридаги ҳарорат энг катта бўлган 2023 йилда буғланиш қатлами 1557,2 мм ни ташкил этди. Ҳисоб даври, яъни 1981-2024 йиллардаги ўртача кўп йиллик ойлик ҳаво ҳароратлари асосида ҳисобланган буғланиш қатлами 1371,7 мм га тенг бўлди. Ҳарорат энг кичик бўлган 1984 йилда эса буғланиш қатлами 1450 мм бўлди;

4. Келажакда мазкур турдаги ҳисоблаш ишларини Ўзбекистон Республикаси ҳудудида барпо этилган бошқа сув омборлари мисолида такрорлаш ҳам илмий, ҳам амалий аҳамиятларга эга бўлган натижаларга эришишни таъминлаши аниқдир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. *Горелкин Н.Е., Никитин А.М.* Испарение с водоемов Средней Азии. // Труды САНИИ, 1983. вып. 102(103). – Тошкент. – С. 3-32.

2. *Зайков Б.Д.* Очерки по озероведению. – Л.: Гидрометеоиздат, 1955. Ч. 1. – 271 с., 1960. Ч. 2. – 325 с.

3. *Милькис Б.Е., Зайцев А.С* Сравнителная оценка гидрометеорологического метеда расчета испарения с водной поверхности в условиях Средней Азии. // Труды САНИИРИ, 1966. вып. 111. – Тошкент. – С. 13-37.

4. *Никитин А.М.* Водохранилища Средней Азии. – Л.:Гидрометеоиздат, 1991. – 165 с.
5. *Рейзвих В.Н., Попова А.Б.* Испарение с водной поверхности в условиях Средней Азии // Труды САРНИГМИ, 1972, вып. 62(77). – С. 57–64.
6. *Xikmatov F., Xaydarov S.A., Halimova G.S., Ziyayev R.R., Rapiqov B.R.* Ko‘lshunoslik. Darslik. – Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, – 216 b.

ТОҒ ДАРЁЛАРИ ГИДРОЛОГИК РЕЖИМИНИНГ ИҚЛИМ ИЛИШИ ШАРОИТИДАГИ ЎЗГАРИШИ (ҚАШҚАДАРЁ ҲАВЗАСИ МИСОЛИДА)

Юнусов Ғ.Х., Хўжамова М.Т., Айтбаева Н.Б., Суюнов Ж.Я.
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети

Аннотация. *Мақолада Қашқадарё ҳавзаси тоғ дарёлари гидрологик режимининг иқлим илиши шароитидаги ўзгариши ўрганилган. Шу мақсадда, ҳавзадаги дарё постларида ўлчанган сув сарфлар билан Мингчуқур метеорологик станциясида кузатилган йиллик, қишки ва ёзги атмосфера ёғинлари орасидаги боғланишлар статистик баҳоланган. Сув сарфлари билан атмосфера ёғинлари ҳамда ҳаво ҳароратларининг йиллараро тебранишлари таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *дарё, сув сарфи, атмофера ёғинлари, ҳаво ҳарорати, йиллараро тебраниши, таҳлил, корреляция коэффициенти, регрессия тенгламаси.*

Аннотация. *В статье оценено изменение гидрологического режима горных рек бассейна Кашкадарьи в условиях потепления климата. С этой целью изучена связь между расходами воды, измеренными на речных гидропостов и годовыми, зимними и летними атмосферными осадками, учтенными на метеостанции Мингчукур. Проанализированы многолетних колебания средних годовых, зимных и летных расходов воды, а также атмосферных осадков и температуры воздуха.*

Ключевые слова: *река, расход воды, атмосферные осадки, температура воздуха, многолетние колебания, анализ, коэффициент корреляции, уравнение регрессии.*

Abstract. *This article assesses changes in the hydrological regime of mountain rivers in the Kashkadarya basin under climate warming. To this end, the relationship between water discharges measured at river gauging stations and annual, winter, and summer precipitation recorded at the Mingchukur meteorological station was studied. Long-term variations in average annual, winter, and summer water discharges, as well as precipitation and air temperature, were analyzed.*

Key words: *river, water flow, precipitation, air temperature, long-term fluctuations, analysis, correlation coefficient, regression equation.*

КИРИШ.

Турли табиий географик шароитга эга бўлган ҳудудларда жойлашган дарёлар ўзанларига қўшиладиган сув миқдори мазкур дарёлар ҳавзаларининг иқлим шароити билан чамбарчас боғлиқдир. Ушбу боғлиқлик дарёдаги оқим миқдорининг иқлимнинг асосий кўрсаткичлари – ҳаво ҳарорати тебранишлари ва атмосфера ёғинлари миқдорларига боғлиқ ҳолда, йиллараро ўзгарувчанлигида ва йил давомида фасллар ҳамда уларнинг алоҳида ойлари бўйича тақсимланишда акс этади. Ҳар бир дарё ҳавзасининг сув ресурсларини аниқ ҳисобга олиш, улардан самарали фойдаланиш имкониятини яратади. Республикамизда бу борада бир қанча тадқиқодлар амалга оширилган бўлиб, муайян ижобий натижаларга ҳам эришилган. Лекин, олиб борилган тадқиқотлар бундан 40-50 йил олдин бажарилганлигини, ҳозирги иқлим ўзгаришларини ҳисобга оладиган бўлсак, дарё ҳавзаларининг гидрологик

режимини янги гидрометеорологик маълумотлар асосида баҳолашни тақоза этади. Айниқса, арид ҳудудларда жойлашган дарё ҳавзаларининг гидрологик режимини баҳолаш ва улар сувидан янада самарали фойдаланиш имкониятларини яратади.

МУАММОНИНГ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ.

Ўрта Осиё дарёларининг гидрологик режими ва сув ресурсларини дастлаб В.Л.Шульц, О.П.Щеглова, Ю.Н.Иванов, А.Р.Расулов, В.Е.Чуб, Д.Ю.Юсупова, Ф.Ҳ.Ҳикматов, Б.Е.Аденбаев, Д.М.Турғунов ва бошқалар томонидан тадқиқ этилган ва ҳозирги кунда ҳам ўрганилиб келинмоқда. Қайд этиш лозимки, юқорида санаб ўтилган олимларнинг тадқиқотлари анча олдин бажарилган бўлса, қолганлари республикамизнинг турли дарё ҳавзалари бўйича олиб борилган. Бу эса Қашқадарё ҳавзаси гидрологик режими ва сув ресурсларини ҳозирги вазиятини акс эттира олмайди. Аниқроғи, Қашқадарё ва унинг ирмоқларининг гидрологик режимини иқлим ўзгаришлари шароитида, ҳозирги ҳолатини ўрганиш ҳамда янги гидрометеорологик маълумотлар асосида ҳавзанинг сув ресурсларини миқдорий баҳолаш **долзарб** масалалардан биридир.

Ишда қўйилган масалани ёритишда **тадқиқот объекти** сифатида Қашқадарё ҳавзаси дарёлари танлаб олинди. Тадқиқот объектига мос равишда, дарёлар сув режимини иқлимий омилларга боғлиқ ҳолда ўзгаришини тадқиқ этиш масалалари ишнинг тадқиқот предмети ҳисобланади.

Мазкур ишнинг **асосий мақсади** Қашқадарё ҳавзаси дарёлари гидрологик режимига иқлимий омиллар - атмосфера ёғинлари ва ҳаво ҳароратининг биргаликдаги таъсирини статистик таҳлил қилишдан иборат.

Ушбу мақсадга эришиш учун ишда қуйидаги **вазифалар** белгиланди ва тадқиқот жараёнида ўз ечимини топди: Қашқадарё ҳавзаси дарёлари йиллик оқими билан мавсумий, яъни қишки ҳамда ёзги атмосфера ёғинлари миқдорлари орасидаги боғланишларни статистик баҳолаш; ҳавза дарёлари ўртача йиллик сув сарфлари билан ёзги ҳаво ҳароратлари миқдорлари орасидаги боғлашларни ифодаловчи жуфт корреляция коэффициентларини аниқлаш; дарёлар оқими билан қишки ҳамда ёзги атмосфера ёғинлари ва ёзги ҳамда ўртача йиллик ҳаво ҳароратининг биргаликдаги тебранишларни ўрганиш ва уларнинг тенгламаларни тузиш.


ТАДҚИҚОТ УСЛУБЛАРИ

Ишни бажариш жараёнида Қашқадарё ҳавзасида жойлашган, Ўзгидромет тасарруфидаги гидрологик постларида кузатилган ўртача кўп йиллик (1951-2020 йй.) сув сарфлари ҳамда метеорологик станцияларда қайд этилган ҳаво ҳарорати ва атмосфера ёғинлари ҳақидаги маълумотларидан фойдаланилди. Тадқиқотда географик умумлаштириш ва таққослаш, замонавий гидрологик ҳисоблашлар, эҳтимоллар назаряси ва математик статистика усуллари қўлланилди.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ МУҲОКАМАСИ.

Тадқиқот ишида ҳисоб даври сифатида 1951-2021 йилги маълумотлар тўпланди, бир тизимга солинда ва таҳлил қилинди. Тўпланган гидрометеорологик маълумотлар асосида ҳавзадаги гидрологик постларда кузатилган ўртача йиллик сув сарфлари билан Мингчуқур метеорологик станциясида (МС) шу даврлардаги атмосфера ёғинлари орасидаги боғланиш графиклари чизилди. Ушбу графиклардан Қашқадарё-Варганза гидрологик постида кузатилган сув сарфи билан Мингчуқур МС да қайд этилган атмосфера ёғинлари орасидаги боғланиш графигининг корреляция коэффициенти 0,69 га, қишки даврдаги корреляция коэффициенти 0,67 га ва ёзги даврдаги қийматлар асосида чизилган боғланиш графигида эса корреляция коэффициенти 0,64 га тенглиги аниқланди (1-расм). Ҳавзадаги барча дарёларда йиллик қийматлар асосида чизилган боғланиш графиклари яхши натижалар берди. Ушбу боғланишлар асосида аниқланган корреляция коэффициентининг максимал

қиймати (r=0,70) Яккабоғдарё ва Ўрадарёларга тенг бўлган бўлса, минимал қиймати (r=0,49) Жиннидарёнинг Жауз гидропостига тўғри келган.



	Қашқадарё-қ Варганза	Жиннидарё-Жауз	Оқсув-Хазарнова	Танхоздарё-Қатағон	Яккабоғдарё-Татар	Ўрадарё-Бозортепа	Кичик ўрадарё-Гумбулоқ
Йиллик	0,69	0,49	0,60	0,61	0,70	0,70	0,67
Қишки	0,67	0,29	0,26	0,38	0,25	0,42	0,37
Ёзги	0,64	0,49	0,49	0,54	0,56	0,66	0,66

1-расм. Сув сарфлари билан атмосфера ёғинлари орасидаги боғланишларни ифодаловчи корреляция коэффициентининг ўзгариши


Корреляция коэффициентларининг ёзги давр бўйича чизилган боғланишларда корреляция коэффициентининг энг катта қиймати Ўрадарё-Бозортепада ва Кичик Ўрадарё-Гумбулоқда бир хил яъни, 0,66 ни ташкил этган, энг кичик натижа эса Жиннидарё-Жауз билан Оқсув-Хазарновада (0,49) кузатилган.

Қишки қийматлар асосида чизилган графикларда корреляция коэффициентининг максимал қиймати Қашқадарё-Варганза гидрологик постига, минимал қиймати эса, Яккабоғдарё ва Оқсувдарёларига тўғри келди.

Юқоридагилардан, Қашқадарё ҳавзаси дарёлари сув сарфлари билан атмосфера ёғинлари орасидаги боғланишларда йиллик ёғин миқдорларининг улуши устунлигин кўришишимиз мумкин.

Дарёлар гидрологик режимига таъсир этувчи иқлимий омиллардан яна бири ҳисобланган ҳаво ҳарорати билан сув сарфлари орасидаги боғланишлар ҳам Мингчуқур МС маълумотлари асосида ўрганишга қаратилди. Шу мақсадда ҳавза дарёлари сув сарфларининг ўртача йиллик қийматлари ва Мингчуқур МСда қайд этилган ёзги ва ўртача йиллик ҳаво ҳароратлари маълумотлари асосида ўрганилди.

Ушбу боғланиш графикларида, Қашқадарё-Варганза гидрологик постида кузатилган сув сарфлари билан Мингчуқур МСда қайд этилган ҳаво ҳароратларининг ўртача йиллик қийматлари асосида чизилган боғланиш графигида корреляция коэффициенти 0,27 ни ташкил этди. Йиллик сув сарфлари билан ёзги даврдаги ҳаво ҳароратларининг ўртача қийматлари асосида чизилган боғланиш графигида эса корреляция коэффициенти 0,39 га тенг бўлди (2-расм). Юқоридаги каби боғланиш графиклари Қашқадарё ҳавзасидаги барча гидрологик постлар учун ҳам ўрганилди. Уларнинг корреляция коэффициентлари 2-расмда келтирилган.



2-расм. Сув сарфлари билан ҳаво ҳароратлари орасидаги боғланишларни ифодаловчи корреляция коэффициентлари

Графикдан кўриниб турибдики, ўзгарувчиларнинг ўртача йиллик қийматлари ва ёзги ҳароратлар асосида чизилган боғланишларда корреляция коэффициентининг энг катта қиймати Ўрадарё-Бозортепа постига тўғри келган. Минимал қиймати эса Танхоздарё-қ.Қатағонда кузатилган. Умуман олганда дарё оқими билан ҳаво ҳарорати орасидаги боғланишларда ёзги ҳаво ҳароратнинг устунлиги кўриниб турибди.

Қашқадарё ҳавзаси дарёларида кузатилган сув сарфлари билан Мингчуқур МСда кузатилган ҳаво ҳароратлари орасидаги боғланишларнинг деярли барчасида корреляция коэффициентининг қийматлари жуда кичикдир. Шу сабабли ушбу графиклар ва регрессия тенгламаларидан амалиётда фойдаланиш тавсия этилмайди.

Тадқиқотнинг кейинги босқичида Қашқадарё ҳавзаси дарёлари гидрологик режимини иқлим ўзгаришлари шароитида ўзгаришини тадқиқ этиш мақсадида ҳавзадаги барча дарёлар сув сарфлари билан Мингчуқур МСда кузатилган атмосфера ёғинлари ва ҳаво ҳароратларининг йиллараро тебранишини биргаликдаги тебраниш графиклари чизилди ва ўзаро солиштирилди. Ўртача йиллик сув сарфлари билан Мингчуқур МС да қайд этилган йиллик атмосфера ёғинлари ва ҳаво ҳароратлари қийматларининг йиллараро ўзгариш графиклардан тренд тенгламалари аниқланди (1-жадвал).

1-жадвал

Сув сарфлари билан атмосфера ёғинлари ва ҳаво ҳароратларининг йиллараро ўзгаришини ифодаловчи тренд тенгламалари

№	Гидрологик пост ва метеорологик станция номи	Ҳисоб даврлари	Тренд тенгламаси
1	Қашқадарё-қ Варганза, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,0008x + 6,6674
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = 0,0141x - 23,653
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = -0,0157x + 36,988
		$X_{йил}$, мм	y = -0,3889x + 1443,5
		$X_{қиш}$, мм	y = -0,0433x + 566,96
		$X_{ёз}$, мм	y = -0,3456x + 876,52
		$t_{йил}$, ^{0}C	y = 0,0128x - 17,351
		$t_{қиш}$, ^{0}C	y = 0,0112x - 21,152
		$t_{ёз}$, ^{0}C	y = 0,0129x - 10,735
2	Жиннидарё-Жауз, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,0177x + 47,056
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = 0,0154x - 29,181

		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = 0,0304x - 58,152
3	Оқсув-Хазарнова, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,0177x + 47,056
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = -0,0117x + 27,148
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = -0,0237x + 66,965
4	Танхоздарё-Қатағон, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,0073x + 18,454
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = -0,0029x + 6,8692
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = -0,0125x + 31,496
5	Яккабоғдарё-Татар, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,0204x + 46,155
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = -0,0177x + 36,662
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = -0,023x + 55,649
6	Ўрадарё-Бозортепа, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = -0,015x + 33,81
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = 0,0748x - 134,5
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = 0,0095x + 12,089
7	Кичикўрадарё-Гумбулоқ, Мингчуқур	$Q_{ўрт}$, м^3/с	y = 0,0025x - 3,5073
		$Q_{қиш}$, м^3/с	y = -0,0051x + 11,062
		$Q_{ёз}$, м^3/с	y = 0,0068x - 11,545

Ишда дастлаб, ҳисоб давридаги Мингчуқур МСда кузатилган ўртача йиллик ва қишки атмосфера ёғинларининг йиллараро ўзгаришининг биргаликдаги графиклари чизиб олинди ва уларнинг тренд тенгламалари ҳисобланди. Тренд тенгламаларидан Мингчуқур МСда кузатилган ўртача йиллик ва қишки атмосфера ёғинларининг камайганлигини кўриш мумкин. Чунки, ҳисоб даврида тренд тенгламалари манфий қийматни ташкил этди.

Сўнгра, МС да кузатилган ўртача йиллик, қишки ва ёзги ҳароратларнинг йиллараро ўзгариши таҳлил қилинди. Ҳаво ҳароратининг тренд тенгламаларининг барчаси мусбат қийматларни ташкил этди. Бундан кўринадики, ҳаво ҳарорати барча даврларда маълум даражада кўтарилган.

Ҳаво ҳароратининг даврлар бўйича ўзгаришини таҳлил қилганимизда ўртача ҳаво ҳарорати 1951 йилда 7,5 ^{0}C га тенг бўлган бўлса, 2021 йилга келиб, унинг қиймати 8,3 ^{0}C га тенг бўлган. Ҳисоб даврида 0,8 ^{0}C га ортган. Йилнинг илиқ даврида эса 14,4 ^{0}C дан 15,5 ^{0}C га, совуқ даврда 0,8 ^{0}C дан 1,6 ^{0}C га кўпайганлигини гувоҳи бўлдик.

Тадқиқотнинг сўнггида дарё ҳавзаларидаги сув сарфларининг ўртача йиллик, қишки ва ёзги қийматларининг йиллараро ўзгариш графиклари чизилиб, таҳлил қилинди. Барча графикларда атмосфера ёғинлари кўп бўлган йиллари билан сув сарфларининг максимал қийматларининг тебраниши бир хил кузатилди. Графиклардан тренд тенгламалари ҳисобланганда айрим гидрологик постларда у мусбат қийматни ташкил қилган бўлса, айрим постларда манфий қийматга тенг бўлди.

Ҳавзадаги Жиннидарё-Жауз, Оқсув-Хазарнова, Танхоздарё-Қатағон ва Яккабоғдарё-Татар сув ўлчаш постларида, ҳар уччала давр учун ҳисобланган тренд тенгламалари манфий қийматга тенг бўлди. Қашқадарё-қ Варганза ва Жиннидарё-Жауз эса тренд тенгламаси фақат ўртача йиллик сув сарфлари асосида чизилган графикларда манфий қийматга тенг бўлди. Варганза постида ёзги сув сарфлари асосидаги графикда манфий, қишки даврда эса мусбат қийматга тенг бўлди. Жиннидарё-Жауз постида эса унинг акси яъни, ёзги даврда мусбат, қишки даврда эса манфий қийматга тенг бўлди. Ҳавзадаги ягона Ўрадарё-Бозортепада сув ўлчаш постида ҳар уччала даврда тренд тенгламалари мусбат қийматга тенг бўлди.

ХУЛОСА

1. Дарёлар сув сарфлари билан атмосфера ёғинлари орасидаги боғланиш графиклари асосида аниқланган корреляция коэффициентларининг ўртача йиллик ва ёзги давр учун аниқланган қийматлари, қишки давр учун аниқланган миқдорга нисбатан яхши натижа кўрсатди;

2. Ўртача йиллик, қишки ва ёзги ув сарфлари ва ҳаво ҳароратлари орасидаги боғланиш графиклари учун корреляция коэффициентларининг миқдорлари асосан ёзги даврда юқори эканлиги аниқланди;

3. Жиннидарё-Жауз, Оқсув-Хазарнова, Танхоздарё-Қатағон ва Яккабоғдарё-Татар сув ўлчаш постларида сув сарфларининг қийматлари ҳар уччала давр учун камайганлиги аниқланди. Қашқадарё-қ Варганза ва Жиннидарё-Жауз постида фақат ўртача йиллик сув сарфлари камайган. Варганза постида ёзги сув сарфлари камайган, қишки даврда эса кўпайган. Жиннидарё-Жауз постида эса унинг акси яъни, ёзги даврда кўпайиб, қишки даврда эса камайган. Ўрадарё-Бозортепа гидрологик постида ҳар уччала даврда ҳам сув сарфлари кўпайган.

Албатта булар дастлабки хулосалар бўлиб, келажакда ўртача ойлик қийматлар асосида ўрганиш янада яхшироқ натижаларга эришишга сабаб бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Рождественский А.В., Чеботарев А.И. Статитические методы в гидрологии. -Л.: Гидрометеоиздат, 1977. – 423 с.
2. Рождественский А.В., Үежов А.В., Сахарюк А.В. Оценка точности гидрологических расчетов. -Л.: Гидрометеоиздат. 1990. – 275 с.
3. Турғунов Д.М. Дарёларда кам сувли йилларни ўрганишда қўлланиладиган гидрологик кўрсаткичлар ва атамалар ҳақида // Ўз ГЖ ахбороти. 46-жилд. –Тошкент, 2015. – Б. 169-173.
4. Турғунов Д.М., Ҳикматов Ф.Ҳ. Ўзбекистон тоғ дарёларида кузатиладиган ҳалокатли кам сувли йилллар ва уларни аниқлаш // Ўз ГЖ ахбороти. 55-жилд. –Тошкент, 2019. – Б. 185-190.
5. Чуб В.Э. Изменение климата и эго влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. – Ташкент: Voris-nashriyot, 2007. – 132 с.
6. Чуб В.Э. Изменение климата и эго влияние на природно-ресурсный потенсиал Республики Узбекистан. – Ташкент: САНИГМИ, 2000. – 252 с.
7. Щульц В.Л., Машрапов Р.М. Ўрта Осиё гидрографияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – 328 б.
8. Щеглова О.П. Питание рек Средней Азии. -Ташкент: Изд-во СамГУ, 1960. -243с.
9. Ҳикматов Ф.Ҳ., Юнусов Ғ.Х. Тоғ дарёлари оқими миқдорини метеорологик омилларга боғлиқ ҳолда баҳолаш масалалари //ЎзГЖ ахбороти. -Тошкент, 2017. 50 -жилд, -Б. 193-198.

BO‘Z TUPROQLARNING GUMUSI VA ORGANIK – MINERAL KARBONNING VERTIKAL TAQSIMLANISH XUSUSIYATLARI

Axatov Abdusamat, Boboyev Hasan Odilovich,
Baybaeva Nargiza Sayfutdinovna, Kamilov Shuxrat Erkinovich,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning janubiy qismida tarqalgan tipik, lalmikor, to‘q tusli bo‘z tuproqlarda gumusning va organik-mineral karbon guruhlari miqdori hamda yerdan foydalanish shaklining ush bu ko‘rsatgichlarga ta’siri. Sug‘oriladigan yerlarda gumus miqdori yuqoriroq (1,5 - 1.9%), ammotezparchalanishi, to‘q tusli bo‘z tuproqlar gumusga boy, tipik bo‘z

tuproqlar esa karbonatlarga boyligi,mineral karbonning tarqalishi asosan tuproq tarkibidagi mineral moddalar $CaCO_3$,, $MgCO_3$, Na_2CO_3, K_2CO_3 va xakazolarga chambarchas bog‘liqligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gumus, karbon, vertikal taqsimlanish, agroekologik xususiyatlar, mineralizatsiya, eroziya.

Аннотация: В статье рассматривается содержание гумуса и органо-минеральных соединений углерода в типичных, суглинистых, темных сероземах, распространенных в южной части Узбекистана, а также влияние характера землепользования на эти показатели. Отмечено, что на орошаемых землях содержание гумуса выше (1,5-1,9%), но он быстро разлагается, темный сероземы богаты гумусом, а типичный серозем– богаты карбонатами, причем распределение минерального углерода тесно связано с минеральными веществами в составе почвы, в основном $CaCO_3$, $MgCO_3$, Na_2CO_3, K_2CO_3 и др.

Ключевые слова: Гумус, углерод, вертикальное распределение, агроэкологические особенности, минерализация, эрозия.

Abstract: The article examines the content of humus and organic-mineral carbon compounds in typical, loamy, dark gray soils common in southern Uzbekistan, as well as the impact of land use on these indicators. It has been noted that humus content is higher on irrigated land (1.5-1.9%), but it decomposes quickly. Dark serozems are rich in humus, while typical serozems are rich in carbonates, and the distribution of mineral carbon is closely related to the mineral substances in the soil, mainly $CaCO_3$, $MgCO_3$, Na_2CO_3, K_2CO_3, etc.

Key words: Humus, carbon, vertical distribution, agroecological features, mineralization, erosion.

KIRISH.

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi hamda intensiv dehqonchilik jarayonlari tuproqning organik modda zaxirasini qisqartirib, gumus miqdorining pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, bo‘z tuproqlarda gumusning vertikal taqsimlanish qonuniyatlarini, organik va mineral karbon fraksiyalarining o‘zaro nisbatini o‘rganish – tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega.

Organik va mineral karbon miqdorining qatlamlar bo‘yicha o‘zgarishi tuproq hosil bo‘lish jarayonlari, irrigatsiya, meliorativ xolat, hamda agrotexnik tadbirlarning samaradorligini baholash imkonini beradi. Shu sababli, bo‘z tuproqlarda gumus va karbon shakllarining vertikal taqsimlanishini chuqur tahlil etish – ekologik barqarorlikni ta’minlash, eroziyaga qarshi kurashish va uglerod balansini boshqarish nuqtai nazaridan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bo‘z tuproqlar O‘zbekiston hududining katta qismini, ayniqsa respublikamizning janubiy mintaqalarini egallaydi. Ular o‘ziga xos morfologik tuzilish, fizik – kimyoviy xususiyatlar hamda iqlim sharoitlariga moslashgan shakllanish jarayonlari bilan ajralib turadi. Bo‘z tuproqlarda gumusning vertikal taqsimlanishi va karbon fraksiyalarining chuqurlik bo‘yicha o‘zgarishini o‘rganish – bu tuproq unumdorligi, uglerod aylanishi hamda ekologik barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazardan dolzarb masalalardan biridir.

Tuproq unumdorligining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri – gumusdir. Gumus o‘simliklar uchun ozuqa manbai bo‘lishi bilan birga, tuproqning suv sig‘imi, agregat barqarorligini va mikrobiologik faoliyatini oshiradi. Shu bilan birga, gumus tarkibidagi organik uglerod atmosferadagi CO_2 bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tuproqlarda uglerod to‘planishining (sekvestratsiyasining) tabiiy mexanizmini ta’minlaydi (Lal, 2018).

Quruq iqlim sharoitida gumusning parchalanish tezligi yuqori bo‘lganligi sababli, tuproqdagi organik modda zaxiralari tez kamayadi. Natijada, uglerod aylanishining tabiiy muvozanati buziladi va bu tuproq degradatsiyasiga olib keladi.

Mazkur holatda antropogen bosim, noto‘g‘ri agrotexnika, eroziya va namlik yetishmasligi gumus zahiralarining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, lalmi va sho‘rlanishga moyil yerlarda organik moddalarning qayta tiklanish jarayoni sust kechadi. Bunday sharoitda o‘simlik biomassasi kam bo‘ladi, natijada tuproqda organik uglerod miqdori keskin kamayadi. Shu sababli bo‘z tuproqlarda gumusning vertikal taqsimlanishi va karbon fraksiyasining o‘zgarishini o‘rganish, ularning genetik qatlamlari bo‘yicha barqarorlik darajasini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda muhimdir.

Xalqaro ilmiy amaliy manbalarga ko‘ra (FAO, 2022), quruq iqlimli mintaqalarda tuproqdagi organik uglerod miqdori 0,5-1,0 % oralig‘ida bo‘ladi. Ammo intensiv dehqonchilik yuritiladigan yerlarda bu ko‘rsatkich 0,2 % gacha kamayishi mumkin. Bu esa tuproqlarning uglerod zaxiralari qisqarishiga, demakki, ularning unumdorlik darajasini pasayishiga olib keladi.

O‘zbekistonning janubiy qismi (Kitob, Yakkabog‘ va Shaxrisabz tumanlari) o‘zining quruq va issiq iqlimi, notekis yog‘in – sochin taqsimlanishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli, bu hududlarda bo‘z tuproqlar turlicha agroekologik sharoitda shakllangan, ba’zilari sug‘oriladigan, boshqalari esa lalmi yoki tabiiy o‘simlik ostida saqlanib qolgan. Ushbu tuproq turlari gumus va karbon fraksiyalarining taqsimlanishida sezilarli farq ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bo‘z tuproqlarda gumus va organik – mineral karbonning vertikal taqsimlanish qonuniyatlarini o‘rganish orqali tuproq unumdorligini saqlash, uglerod sekvestratsiyasi jarayonlarini boshqarish hamda barqaror agroekologik tizimlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Ayniqsa, sug‘oriladigan yerlarda organik moddalarning tez mineralizatsiyasi, lalmi yerlarda esa biomassaning kamligi tufayli hosil bo‘ladigan farqlarni aniqlash, bu tuproqlarda dehqonchilik tizimini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Shu asosda tadqiqodning maqsadi – Kitob, Yakkabog‘ va Shaxrisabz tumanlari bo‘z tuproqlarida gumus, organik va mineral karbonning chuqurlik bo‘yicha taqsimlanishini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda gumus zaxiralariga iqlim va xo‘jalik omillarining ta’sirini o‘rganishdan iborat. Tadqiqot natijalari bo‘z tuproqlarda gumus zaxiralarini tiklash, organik o‘g‘itlardan samarali foydalanish va uglerod sekvestratsiyasi uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

So‘ngi yillarda dunyo miqiyosida tuproqlarda gumus zahirasining kamayishi, uglerod aylanishidagi nomutanosiblik va iqlim o‘zgarishining tezlashuvi global ekologik muammolardan biriga aylandi. Xalqaro ilmiy manbalarda ta’kidlanishicha, gumus zaxirasining saqlanish tuproqdagi karbon siklining asosiy omillaridan biri hisoblanadi (FAO, 2020: Lal 2018).

FAO (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha quruq iqlimli hududlarda joylashgan tuproqlarda organik uglerod miqdori, odatda, 0,5 – 1,0 % oralig‘ida bo‘ladi. Ammo intensiv dehqonchilik olib borilayotgan maydonlarda bu ko‘rsatkich 0,2 % gacha tushib ketishi mumkin. Lal (2018) o‘z tadqiqodlarida atmosferaga chiqayotgan CO_2 ni kamaytirishning eng tabiiy mexanizmlaridan biri sifatida tuproqda uglerod sekvestratsiyasi jarayoni deb ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, tuproqda barqaror organik modda shakllarining (gumus va gumantlar) to‘planishi nafaqat iqlimni barqarorlashtiradi, balki yer unumdorligini xam saqlab qoladi.

McBratney va boshqalar (2014) o‘z ishlarida tuproqdagi organik uglerod miqdori ko‘p jihatdan agrotexnika, biomassa qaytishi, namlik rejimi va harorat bilan belgilanadi deb ta’kidlaydi. Ularning tadqiqodlariga ko‘ra, quruq iqlimli mintaqalarda organik moddalarning parchalanish tezligi yuqori bo‘lib, bu gumus zaxiralarining kamayishiga olib keladi.

Mishra (2020) Hindistonning yarim quruq iqlimli hududlarida olib borilgan tadqiqodlarda, minimal haydash, mulchalash va kompostlash texnologiyalari gumus zaxiralarini 15-25% gacha

ko‘paytirganini qayd etadi. Shuningdek, dukkakli ekinlar bilan almashlab ekish organik moddalarning tabiiy tiklanishini tezlashtiradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilgan izlanishlar ham shunga o‘xshash natijalarni ko‘rsatadi.

Sug‘oriladigan yerlarda gumus nisbatan ko‘proq, biroq tez mineralizatsiyalanadi, lalmi yerlarda esa biomassaning kamligi sababli gumus zaxirasi past bo‘ladi.

Uzunboeva D. (2021) ma’lumotlariga ko‘ra, Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlaridagi lalmi bo‘z tuproqlarida shamol eroziyasi va biomassaning yetishmasligi natijasida gumus 0,3 – 0,5 % oralig‘ida bo‘lib, bu tuproqning degradatsiya bosqichiga o‘tganligini ko‘rsatadi. Aksincha, sug‘oriladigan yerlarda gumus 1,5 – 1,9 % gacha yetadi, ammo bu barqaror zaxira emas – intensiv dehqonchilik tufayli tez parchalanadi.

Lal (2018) hamda FAO (2022) tadqiqodlarida ta’kidlanishicha, tuproqda gumusni barqaror saqlash uchun quyida agrotexnik choralar eng samarali hisoblanadi:

- Kompost va go‘ng qo‘llash – biomassa manbasini tiklaydi;
- Minimal haydash – tuproq strukturasini saqlaydi;
- Mulchalash – namlikni ushlab turadi va haroratni barqarorlashtiradi;
- Dukkakli ekinlar bilan almashlab ekish – biologik azot manbaini oshiradi;
- Organik moddalarning qayta aylanish tizimi – karbon sekvestratsiyasini kuchaytiradi.

Yevropa olimlari ham (Schmidt et al., 2018 Panagos, 2020) tuproqda barqaror gumus zaxiralarini saqlash uchun mineral o‘g‘itlar bilan birgalikda organik moddalarning muntazam kiritilishini tavsiya etadilar. Ularning fikricha, organik uglerodning 1% ga oshishi hosildorlikni 5 -10 % gacha ko‘tarishi mumkin.

Shu asosda, adabiyotlarni umumlashtirib aytish mumkinki, gumus va karbonning vertikal taqsimlanishi:

- Iqlim (harorat, namlik, yog‘in);
- Tuproqqa ishlov berish texnologiyasi;
- O‘simlik turlari va biomassaning qaytishi;
- Eroziya jarayonlari bilan bevosita bog‘liq.

Demak, bo‘z tuproqlarda gumus zaxirlarini barqaror saqlash va organik – mineral karbonni optimal darajada tutib turish uchun tabiiy sharoit bilan uyg‘un agrotexnika tizimini qo‘llash zarur.

TADQIQOT OB’EKTI

Tadqiqot ishlari O‘zbekistonning Qashqadaryo viloyati hududida joylashgan Kitob, Yakkabog‘ va Shaxrisabz tumanlarida olib borildi. Ushbu hududlar relefi, iqlimi va tuproq xususiyatlari jihatidan bir – biridan farq qiladi, bu esa gumus va karbonatlar taqsimlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Kitob tumani – tog‘ oldi mintaqasida joylashgan bo‘lib, iqlimi quruq va kontinental. Tuproqlari asosan tipik bo‘z tuproqlardan iborat. Qishloq xo‘jaligida paxta, bug‘doy va beda asosiy ekinlar hisoblanadi. Suv ta’minoti ko‘p hollarda yomg‘ir suvlari hisobiga bo‘ladi (lalmi yerlarda).

Shaxrisabz tumani – sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqasiga kiradi. Tuproqlari o‘rta qumoqli bo‘z tuproqlar bo‘lib, sug‘orish tizimlari rivojlangan. Asosan paxta, g‘alla va sabzavot ekinlari almashilab ekiladi. Gumus miqdori yuqori qatlamda nisbatan ko‘p.

Yakkabog‘ tumani – tog‘ etaklari va vodiy qismini o‘z ichiga oladi. Tuproqlari to‘q tusli bo‘z tuproqlar, mexanik tarkibi jihatdan yengilroq, ba’zi joylarda qumoq – qumtuproqli qatlamlar uchraydi. Namlik o‘rtacha darajada, relef esa biroz tik.

Har bir tuman tuproq unumdorligi, sug‘orish darajasi va organik modda zaxiralari bo‘yicha bir – biridan farq qiladi, bu esa tadqiqot uchun qiyosiy tahlil imkonini beradi. Ushbu hududlarda

tipik bo‘z tuproq profillari ochilib, 0 – 100 sm chuqurlikkagacha tuproq namunalar olindi. Namuna olish chuqurlik bo‘yicha genetik qatlamlarga ajratilgan holda amalga oshirildi:

TADQIQOT USLUBLARI.

Namunalarda quyidagi taxlillar laboratoriya sharoitida aniqlandi:

- Gumus – Tyurin usuli bo‘yicha;
- Erkin karbonat (CO_2) – atsidometrik usulda;
- Kalsiy karbonat ($CaCO_3$) – mavjud karbonat massasini qayta hisoblash orqali;
- Organik va mineral karbon – kimyoviy tahlillar asosida aniqlangan

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.

Tajriba maydonlarining foydalanish turlari quyidagicha tasniflanadi:

1. Quruq er (lalmi) – tabiiy o‘tloq va bug‘doy etishtiriladigan maydonlar;
2. Lalmi erlar – bug‘doy etishtiriladigan, sug‘orilmaydigan erlar;
3. Sug‘oriladigan erlar – paxta, g‘alla almashilab ekiladigan, yillik suv ta’minoti bilan bog‘liq maydonlar.

Sug‘oriladigan va lalmi tipik bo‘z tuproqlarga qaraganda quruq tuproqlarda nisbatan gumus miqdori yuqoriroq chunki, bu quruq tuproqlar ag‘darib haydalmaydi. Sug‘oriladigan va lalmi tipik bo‘z tuproqlar ag‘darib haydaladi. Shu sababli bu tuproqlarda gumus miqdori kamayib boradi. Chunki tuproq ag‘darib haydalganda shu qatlam kislorodga to‘yinadi. Natijada gumus oksidlanib CO_2 va N_2O ga parchalanib kamayadi.

Tuproqdagi gumus formulalari quyidagicha:

Quruq tuproqda $C_{94}R_{354}O_{20}N_9$

Lalmi tuproqda $C_{59,2}H_{227}O_{13}N_6$

Eskitdan sug‘oriladigan tuproqda $C_{84,6}H_{323}O_{18,4}N_{8,3}$

Quruq tuproqlarga nisbatan, lalmi va qadimdan sug‘oriladigan tuproqlarda gumus formulasidagi elementlar C, H, O, N atomlar soni kamayib borishini yuqoridagi formuladan ko‘rish mumkin. Ag‘darib haydalgan lalmi tipik bo‘z tuproqlarda bu elementlarning kamayishi tabiiy holdir. Ag‘darilib haydaladigan tuproqlarda gumusning kamayishi 1,6 marta kamaygan.

Masalan: lalmi tuproqlarda quyidagicha reaksiya tenglamasi hosil bo‘ladi:

$C_{59}H_{227}O_{13}N_6 + 67\,O_2 \rightarrow 30CO_2 + 6NH_3 + 29H2\,CO_3 + 75{,}5H_2O$

Qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda gumus qayta tiklanayotganligini reaksiya tenglamasidan ko‘rish mumkin.

$C_{85}H_{333}O_{18}N_8 + 153{,}25O_2 \rightarrow 40CO_2 + 8NH_3 + 45H_2\,CO_3 + 109{,}5\,H_2O$

To‘q tusli bo‘z tuproq quruq, o‘rta qumloqli Shaxrisabz tumani tog‘ oldi balandlikda shimoliy ekspozitsiyada joylashganligi, o‘simliklar qoplami zich joylashganligi uchun undagi gumus miqdori 0–7 sm qalinlikdagi qatlamda 2,24 % ni tashkil qiladi.

Tadqiqot olib borilgan barcha tuproqlarda CO_2 miqdori 5,5 – 8,9 % atrofida tebranib turadi.

Kalsiy karbonat quruq tipik bo‘z tuproqlarda K– 1 profilida yuqori qatlamdan pastki qatlamga qarab ortib borishini 1 – jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin.

Tipik bo‘z lalmikor tuproqda K -2, $CaCO_3$ 0 – 28sm qatlamda 17,74% ni tashkil qilgan bo‘lsa, yog‘ingarchilik ta’sirida biroz yuvilgan bo‘lib, 28-39sm qatlamda to‘planib, karbonatli bar’erni hosil qilib 20,24%, undan keying pastki qatlamlarda sezilarli darajada 19,33%ga kamaygan.

Yakkabog‘ tumanidagi to‘q tusli lalmikor bo‘z tuproq profilida $CaCO_3$ 0-27sm xaydalma va xaydalma osti qatlamda 12,73% bo‘lib, bir –xil miqdorda taqsimlangan. Pastki qatlamga qarab, sezilarli darajada kamayib boradi. Bu shuni ko‘rsatadiki Yakkabog‘ tumanida ayniqsa, to‘q tusli lamikor tuproqlarga yog‘in miqdori kam tushganligidan dalolatdir. Chunki buni tuproq profilida $CaCO_3$ ning miqdori yuvilmagan. Pastki qatlamlarga nisbatan ustunlik qilishini 1 – jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin.

Tadqiqot olib borilgan tuman tuproq kesmalari profilidan organik va mineral karbonatli qatlamlarda taqsimlanishini tahlil qilib chiqamiz. Barcha tuproq turlarida organik karbon, shu tuproqlardagi gumus, organik modda massasiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turishini jadval ma’lumotlaridan kuzatish mumkin. Qaysi bir tuproq kesmasida gumus miqdori ko‘p bo‘lsa, shu joyda organik uglerod (karbon) miqdori ustunlik qiladi.

Qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproq, K - 3 (Shaxrisabz tumani) profilining xaydalma qatlamda organik karbon 1,0-1,5%ni tashkil qilinishi, qo‘riq tipik bo‘z tuproqlarni unumdorlik darajasi yaqinlashib borayotganligi keltirilgan ma’lumotlar buning isbotidir deb qarash mumkin. Chunki qadimdan sug‘orilgan tuproqlarning madaniylashganligi, tuproq profilida gumus, organik karbonlarning deyarli bir tekisda tarqalishidan ko‘rish mumkin.

Tadqiqod olib borilgan natijalarga qaraydigan bo‘lsak, mineral karbonning tarqalishi asosan tuproq tarkibidagi mineral moddalar $CaCO_3$, $MgCO_3$, Na_2CO_3, $MgCO_3$ va xokazolarga chambarchas bog‘liqigini 1 –jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkin. Jadvalda faqat $CaCO_3$ minerali tarkibidagi mineral karbon aniqlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tadqiqod o‘tkazilgan hududlarda gumus miqdori chuqurlik ortishi bilan izchil kamayib boradi. Bu holat tuproqdagi organik moddalarning asosan yuqori qatlamda to‘planishi, o‘simlik ildiz tizimi va mikroorganizmlar faoliyatining chuqurlik bo‘yicha kamayishi bilan izohlanadi.

Bo‘z tuproqlarda organik va mineral karbonlarning taqsimlanishi.

1-jadval.

Taqirligi sm	Gumus %	Karbonatlar CO_2, %	$CaCO_3$ %	Karbon	
				Organik	Mineral
Tipik bo‘z tuproq qo‘riq, o‘rta qumoqli. Kitob tumani.					
0-5	1,92	8,2	18,65	1,11	2,24
5-15	1,59	8,3	18,87	0,92	2,27
15-30	0,76	8,5	19,33	0,44	2,32
50-70	0,46	8,5	19,33	0,27	2,32
Tipik bo‘z tuproq lalmikor (bug‘doy) o‘rta qumloqli. Kitob tumani.					
0-28	1,23	7,8	17,74	0,71	2,13
28-39	0,72	8,9	20,24	0,42	1,43
39-50	0,60	8,5	19,33	0,35	2,32
50-85	0,45	8,5	19,33	0,26	2,32
Tipik bo‘z tuproq qadimdan sug‘orilgan (paxta) o‘rta qumloq. Shaxrisabz tumani.					
0-32	1,75	7,2	16,37	1,015	1,97
32-43	0,79	7,2	16.37	0,46	1,97
43-63	0,58	7,5	17,06	0,34	2,05
63-82	0,46	7,5	17,06	0,27	2,05
To‘q tusli bo‘z tuproq, qo‘riq, o‘rta qumloqli. Shaxrisabz tumani.					
0-7	2,84	5,8	13,19	1,65	1,58
7-15	2,10	7,5	17,06	1,22	1,91
15-47	1,12	7,5	17,07	0,65	2,05
47-92	0,66	8,9	20,24	0,38	2,18
To‘q tusli bo‘z tuproq lalmikor (bug‘doy) o‘rta qumoqli. Yakkabog‘ tumani.					
0-27	1,70	5,6	12,73	0,99	1,53
27-43	0,72	5,6	12,73	0,42	1,53
43-73	0,60	5,5	12,51	0,35	1,50
73-105	0,47	6,7	12,24	0,27	1,83

Ushbu jadval tahliliga ko‘ra tuproq profili bo‘yicha gumus kamayib borishi tabiiy – tuproqning organik moddalari asosan ustki qatlamda hosil bo‘ladi va parchalanuvchan.

- Karbonlarning ortib borishi pastki qatlamlarga yuvilishi va qayta to‘planish (sekundar karbonat) jarayonlari natijasi .

- Sug‘oriladigan va lalmi tuproqlar farqi: sug‘oriladiganlarda gumus nisbatan ko‘p, chunki namlik mikroorganizmlar faoliyatini oshiradi.

- To‘q tusli bo‘z tuproqlar gumusga eng boy, tipik bo‘z tuproqlar esa karbonatga boy.

- Organik C mineral C nisbati yuqorida 1:1,2 dan pastga 1:5 gacha o‘zgaradi – bu organik uglerod yo‘qotilishini ko‘rsatadi.

Natijalar bo‘z tuproqlarda gumus va organik mineral karbon (OMC)ning vertikal taqsimlanishi natijalari, tuproqning ekologik va agrotexnik holatini tushuntirishda muhimdir. Tadqiqod natijalariga ko‘ra, gumus va organik moddalar manbai ko‘proq yuqori qatlamlarda (0-10sm) jamlangan, pastroq qatlamlarda esa ularning miqdori sezilarli darajada kamayadi. Bu holat bir necha sabablar bilan izohlanadi:

Organik moddalar manbai: yuqori qatlamlarda o‘simlik qoldiqlari, ildizlar va boshqa organik materiallar ko‘proq bo‘ladi. Shu sababli, gumus miqdori yuqori qatlamlarda oshadi.

✓ Biologik faollik: Yuqori qatlamda tuproq mikroorganizmlari faoliyatining markazi bo‘lib, organik moddalarni parchalash va mineralizasiya qilish jarayonlari aynan shu qatlamlarda kuchliroq bo‘ladi.

✓ Tuproqning fizik xususiyatlari: Pastroq qatlamlarda tuproq zichligi oshishi, suv va havo rejimining o‘zgarishi organik moddalar ajralishini sekinlashtiradi. Bu OMC va gumusning pastroq qatlamlarda kamayishiga olib keladi.

✓ Iqlim va agrotexnik omillar: Cho‘l va yarim cho‘l sharoitida tuproqning yuqori qatlamidagi organik moddalarning parchalanishi tezroq bo‘lishi mumkin, bu esa vertikal taqsimlanishga ta’sir qiladi.

✓ Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bo‘z tuproqlarda organik moddalar va gumusning yuqori qatlamlarda to‘planishi tuproq unumdorligini saqlash va erozion jarayonlarning oldini olish uchun muhimdir. Shu bilan birga, pastroq qatlamlardagi organik modda etishmovchiligi o‘sish davrida o‘simliklarning oziqlanishini cheklashi mumkin. Bu ma’lumotlar tuproqni samarali boshqarish, organik modda balansini ta’minlash va er resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

XULOSALAR

1. Gumus va organik–mineral karbonning asosiy qismi 0–30 sm qatlamda to‘planadi.
2. Sug‘oriladigan erlarda gumus miqdori yuqoriroq (1,5–1,9 %), ammo tez parchalanadi.
3. Lalmi tuproqlarda gumus 0,4–0,8%, lekin nisbatan barqaror.
4. To‘q tusli bo‘z tuproqlar gumusga boy, tipik bo‘z tuproqlar esa karbonatlarga boy.
5. Tuproq unumdorligini saqlash uchun kompost, go‘ng, mulchalash, dukkakli ekinlar almashinuvi va minimal haydash kabi chora-tadbirlar zarur.

ADABIYOTLAR

1. **FAO.** (2020). Iataly. *Soil Organic Carbon Manual: Carbon management guidelines.* Food and Agriculture Organization of the United Nations.

2. **IASARDA.** (2019). United States of America. *Dryland soil fertility assessment.* International Agency for Sustainable Agriculture Research and Development Analysis.

3. **Lal, R.** (2018). *Soil health and carbon situations.* Springer.

4. **Higano, Y.** (n.d.). *Climate-smart soil management.* Elsevier.

5. **Yu, H., Zha, T., Zhang, X., & Ma, L.** (2019). Vertical distribution and influencing factors of soil organic carbon in the Loess Plateau, China. *Science of the Total Environment, 693,* 133632.

6. **Gao, C., Zhang, Z., Li, M., Feng, B., Zhou, Y., Zhang, J., & He, N.** (2024). Vertical distribution and mineralization dynamics of organic carbon in soil and its aggregates in the Chinese Loess Plateau driven by precipitation. *Applied Sciences, 14(9),* 3852.

7. **Zhang, Q., et al.** (2018). The distribution of organic carbon fractions in a typical loess–paleosol profile. *PMC (Open Access)*.

8. **Han, C. (**2023). Investigating the vertical distribution of dissolved organic matter in 5-m soil profiles in farmland and woodland on the southern Loess Plateau.

9. M. Switoniak et al. Assessment of soil organic carbon stocks differentiation in humus horizons of clay – illuvial soils. 2025. Yoldashova Dilrabo Shukrullaevna, Khafizova Matluba Kholmamatovna, Davlatova Jasmina Toychievna – Types of soils comm on in Uzbekistan and their characteristics. American Journal of Agriculture and Horticulture Innovations, Vol 02 Issue 09.

10. Musaev Iskandar Ibragimovich, Turdaliev Avazbek Turdialievich – Sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar va uzum tarkibidagi mikroelementlarning biokimyoviy xossalari. "Modern education and development" jurnali. 2022.

11. Amonov Shaxboz, Raupova Nodira Baxromovna – Koson tumani sug‘oriladigan tuproqlarning morfologik, umumfizik va agrokimyoviy xususiyatlari. Ijodkor o‘qituvchi jurnali. 2024.

12. Zafarjon Jabbarov, Tokhtasin Abdurakhmanov, Shaokhruh Abdullaev, Samad Makhmadaliev, Urol Nomozov, Guljakhan Rakhmatullaeva – Evolution of carbonate accumulation, inorganic carbon content and soil property changes in newly developed soils of degraded landscapes. Journal of Degraded and Mining Lands Management. 2025.

13. A. Axatov, N. Baybaeva, G. Almatova “Gumus tarkibidagi elementlarni hisoblash usuli bilan aniqlash” «AGRO ILM» jurnali. 2024. №1 (101) str. 68-69 betlar

14. A. Axatov, N.Baybaeva, G.Almatova “Sug‘oriladigan mintaqa tuproqlarida gumus moddasining kamayish sabablari xususida” “OZBEKISTON QISHLOQ VA SUV XOJALIGI” MAXSUS SON №2, 2024

16. A. Axatov “Gumus va uning rezerv shakllari” Toshkent 2021.

17. Axatov A., Bo‘riev S., Jo‘raev G‘. “Tog‘ jigarrang tuproqlarining gumusli xolati va uning rezerv shakllarining atrof-muhit mahofazasiga ta’siri”, AGRO ILM, 1(79) 2022.76-79b

18. Abdusamat Akhatov, Baxtiyor Gafurov, Azizjon Jakhonov and Azat Khalimbetov “Distribution of the forms of reserves of humus in typical seroms formed in geomorphological areas Tashkent-Keles” (Scopus) XXIII International Scientific Conference on Advanced in Civil Engineering CONSTRUCTION THE FORMATION OF LIVING ENVIRONMENT (FORM-2020) held on September 23-26, 2020 in Hanoi, Vietnam. 869 042018

19. Axatov A., Bo‘riev S.S “Gumus kislotalarining tuproq tarkibidagi tuzlarni kamaytirishga tasiri”. AGRO ILM jurnali, №6, 2020 yil

20. Axatov A., Nurmatova V.B “Tipik bo‘z tuproqlar gumusi tarkibidagi gumin kislotaning elementlar tarkibi”. “Ekologiya xabarnomasi” №3/2023

21. Axatov A., Nuraliev U., Buriev S., Nurmatova V. “Pokazateli gumusnogo sostoyaniya selinnых i oroshaemых sero-burых pochv Xorezmskogo viloyata Uzbekistana», Pochvovedenie i agroximiya, №2,2024

22. Axatov A. “Tipik bo‘z mintaqa tuproqlarida gumus miqdori va ularni rezervlar bo‘yicha taqsimlanishi”. Ilmiy-amaliy anjuman, Toshkent, 2003 y.

23. Abdusamat Akhatov, Victoriya Nurmatova, Bahora The Influence of Slope Exsposure, Profile Depth and Erosion Processes on Changes in the Content of Potassium, Phosphorus and Humus in Brows Soil of Mountain Pastures of Uzbekistan, Yuzuncu Yil University Journal of Agricultural Sciences, 2024/ Volume:34, Issue:2, 30.06.2024DOI: 10.29133/yyutbd.1393748

ОЦЕНКА ВКЛАДА ЗИМНИХ И ВЕСЕННИХ ОСАДКОВ В ФОРМИРОВАНИЕ СТОКА РЕКИ ЗЕРАВШАН

Б.Х. Абдурахимов
Комитет охраны окружающей среды при Правительстве Республики Таджикистан

Аннотация. В статье представлены результаты мониторинга метеорологических условий бассейна реки Зеравшан по материалам метеорологических станций бассейна реки с целью определения вклада атмосферных осадков на разных географических широтах бассейна. Широко использованы корреляционные методы по установлению взаимосвязи значений атмосферных осадков и стока реки Зеравшан. Установлено, что основной вклад в формирование стока реки Зеравшан вносят весенние и зимние осадки.

Ключевые слова: река Зеравшан, метеорологические станции, атмосферные осадки, корреляция, ледниковый сток

Abstract. This article presents the results of monitoring meteorological conditions in the Zeravshan River basin based on data from meteorological stations within the basin. This paper aims to determine the contribution of precipitation at different latitudes within the basin. Correlation methods are extensively used to establish the relationship between precipitation values and the Zeravshan River runoff. It has been established that spring and winter precipitation makes the main contribution to the formation of the Zeravshan River runoff.

Keywords: Zeravshan River, meteorological stations, precipitation, correlation, glacial runoff

Annotatsiya. Ushbu maqolada havzadagi meteorologik stansiyalardan olingan ma'lumotlar asosida Zarafshon daryosi havzasidagi meteorologik sharoitlarni monitoring qilish natijalari keltirilgan. Ushbu maqola havzadagi turli kengliklarda yog'ingarchilikning hissasini aniqlashga qaratilgan. Yog'ingarchilik qiymatlari va Zarafshon daryosi oqimi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun korrelyatsiya usullari keng qo'llaniladi. Bahorgi va qishki yog'ingarchilik Zarafshon daryosi oqimining shakllanishiga asosiy hissa qo'shishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Zarafshon daryosi, meteorologik stansiyalar, yog'ingarchilik, korrelyatsiya, muzlik oqimi

ВВЕДЕНИЕ

Атмосферные осадки в бассейн реки Зеравшан выпадают в основном зимой и весной со среднегодовым значением 115 – 500 мм [1-4]. Осадки в долине распределяются крайне неравномерно, что обуславливает различные ландшафты от альпийских лугов до пустынь. Климат Зеравшанской долины субтропический внутриконтинентальный с жарким летом при умеренно холодной зиме.

В начале горного ущелья в окружении небольших гор расположен город Пенджикент. В городе преобладают западные, юго-западные и северные ветра. Основные атмосферные осадки приносятся весною и осенью именно этими ветрами.

Предполагается, влажные массы воздуха с Атлантики являются источниками атмосферных осадков долины Зеравшан. Наблюдаемая в бассейне реки Зеравшан зональность (вертикальная), проявляющаяся в том, что декабрь-январь считаются самыми холодными месяцами года. Высотное распределение температуры в бассейне составляет 0,6-0,7 °C / 100 м. Более мягкая зима наблюдается на высотах 1400-1600 м [5,6].

В большинстве случаев для установления механизмов влияния метеорологических условий бассейнов в формирование стока рек, расчета модуля стока, влияние поверхностных вод на пополнение резервуаров подземных вод расчетами коэффициентов

инфильтрации, изменения гидрохимии подземных вод под влиянием инфильтрационных стоков широко применяются корреляционные методы.

Наряду с этим можно предположить, что выявление корреляционных зависимостей стока рек от метеорологических условий бассейнов, в особенности в бассейнах горных рек предоставляют информацию о влияние орографии местности на распространение влажных воздушных масс и горно-долинной циркуляции.

РЕЗУЛЬТАТ И ОБСУЖДЕНИЕ

Результаты корреляционных зависимостей стока реки Зеравшан от среднемноголетних зимнего сезона значений атмосферных осадков в климатических зонах бассейна реки представлены на рис. 2..




Рис.1.Корреляция расхода воды реки Зеравшан с количеством зимних осадков

Из рис.1 (а) видно, что между среднемноголетними значениями атмосферныз осадков на метеорологической станции “Анзоб” и стоком реки Зеравшан отсутствует корреляционная зависимость. Это обусловлено тем, что территория метеорологической станции “Анзоб” расположена на границе Зеравшанской и Шахристанскими перевалами и с географической точки зрения почти не относится к Зеравшанской долине на высоте более 3300 м над уровне моря и формируемой сток рассеивается по всей территории не достигая реки Зеравшан.

Коэффициент корреляции среднемноголетних зимних осадков на метеорологических самой долины Зеравшан “Дехавз”, “Искандеркуль” и “Сангистон” со значениями стока реки Зеравшан, как видно из рис.1 (б, в, г), характеризуются близкими значениями и соответствуют соответственно 0,39; 0,30; 0,37 в среднем близкие к 0,38. Наблюдаемая картина взаимосвязи атмосферных осадков и стока реки Зеравшан связано с географическими и орографическими особенностями бассейна реки Зеравшан. Бассейн реки Зеравшан расположен между Гиссарским и Зеравшанскими горными массивами и проникающая с западной части бассейна влажная воздушная масса застревает в долине

Зеравшан окруженной высокими хребтами гор и циркулирует по всем географическим широтам бассейна реки. Этому также способствует горно-долинная циркуляция. Распределение атмосферных и их выпадание по бассейну происходит равномерно с учетом высоты расположения местности над уровнем моря. Как следует из рис.2 (б) на метеорологической станции “Дехавз” расположенная на более высокой местности происходит выпадение достаточное количество осадков.

Характер корреляционных зависимостей стока реки Зеравшан с среднемноголетними весенними значениями атмосферных осадков на метеорологических станциях “Анзоб”,“Дехавз”,“Искандеркуль”, “Сангистон” и “Мадрушкат” представлено на рис.2.3.




Рис. 2. Корреляция расхода воды реки Зеравшан с количеством весенних осадков

Корреляция между атмосферными осадками и расходом воды реки Зеравшан по сезонам года по данным метеостанций бассейна представлена в таблице:

Таблица 1.Корреляция между атмосферными осадками и расходом воды реки Зеравшан по сезонам года по данным метеостанций бассейна

	Зима	Весна	Лето	Осень
Дехавз	0.39	0.37	0.005	0.31
Искандеркуль	0.30	0.31	0.0006	0.12
Пенджикент	0.22	0.23	0.003	0.09
Сангистон	0.37	0.36	0.01	0.10
Среднее	0.35	0.34	0.0057	0.17

Из таблицы 1 видно, что коэффициенты корреляции атмосферных осадков зимой и летом с расходов воды составляет 0.35 и 0.0057 соответственно.

Вклад ледникового питания верховья реки Зеравшан определяется летным стоком. Отношение средней величины коэффициента корреляции атмосферных осадков с расходом воды зимой к коэффициенту корреляции атмосферных осадков с расходом воды летом составляет более 60. Такое значение является значимым и свидетельствует о тесной связи.

Почти незначительная корреляция с нулевым значением коэффициента корреляции наблюдается в корреляции расхода воды с осадками летнего (VI-VIII) сезона (рис.3). Проявление такой картины корреляционных зависимостей расхода воды реки Зеравшан с летними осадками обусловлено тем, что незначительное количество осадков в соответствующих сезонах не в состоянии формировать стока и его прилив к реке Зеравшан из-за их расхода на увлажнение приповерхностных слоев почвы и подпитку резервуаров подземных вод.




Рис. 3. Корреляция расхода воды реки Зеравшан со среднегодовыми значениями летних атмосферных осадков в географических частях бассейна реки Зеравшан

Обобщением результатов влияния атмосферных осадков климатических зон бассейна реки Зеравшан на формирование стока реки Зеравшан можно написать выражение для определения объема ледникового стока в виде:

$$\frac{w_{л.с}}{w_0 + w_р^л} = 1 - \frac{w_р^о + w_р^з}{w_0 + w_р^л} \quad (1)$$

где $w_{л.\ с}$ – объем воды ледникового стока, $w_о$ – среднемноголетний сток реки, $w_р^л$ – среднегодовой объем воды летних атмосферных осадков, $w_р^о$, $w_р^з$ – среднегодовые объемы воды осенних и зимних осадков.

Согласно расчетам, проведенным с использованием уравнения (1), ледниковая подпитка реки Зеравшан ныне составляет 1.08 км^3, или 21% от общего стока.

Атмосферные осадки северо-западной климатической зоны бассейна (метеостанция Анзоб), как видно на рис. 2, почти не вносят вклада в формировании расхода воды реки Зеравшан. В более наглядной форме это можно видеть на рис. 4, где представлены значения коэффициентов корреляции стока реки Зеравшан с сезонными значениями атмосферных осадков, измеренными на метеорологических стациях бассейна.




Рис. 4. Коэффициенты корреляции стока реки Зеравшан с сезонными значениями атмосферных осадков на метеорологических стациях бассейна

ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

В целом, корреляция среднемноголетнего объема воды реки Зеравшан со значениями объема воды, формируемого из сезонных осадков, по климатическим зонам бассейна реки показывает, что в формирование стока реки Зеравшан, преобладающий вклад вносят зимние и весенние осадки.

ЛИТЕРАТУРА

1. Глазырин Г.Е. Прогноз изменения оледенения гор Западного Таджикистана / Г.Е. Глазырин, А.Ф. Финаев // М-лы гляциологических исследований. – 2003. – Вып. 95. - С.102-106.
2. Голосов В.Н. Влияние ирригационной эрозии на деградацию почв речных долин в высокогорном поясе Памира // Почвоведение. –2015. –№ 3. – С. 373–384.
3. Гордиенко, В.Е. Гляциологический и геоморфологический очерк верховьев реки Ягноб. В кн.: «Зеравшан» / Труды ледниковых экспедиций. – 1936. –Т. 3. – С. 113-123.
4. Давыдов, JI.K. Зеравшанский ледник / JI.K. Давыдов // Ученые записки ЛГУ. Серия география. – 1952. –Вып. 8. – С.117-123.
5. Агаханянц О. Е. Основные проблемы физической географии Памира / Душанбе. Изд. АН Таджикской ССР. – 1965. – Ч.1. –115с.
6. Аналитический отчет. Качество воды в бассейнах рек Амударья и Сырдарья. Ташкент. – 2011. – 80с.

INTELLIGENT DISPATCH OF AGRICULTURAL IRRIGATION WATER RESOURCES: A CASE STUDY OF UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF CLIMATE CHANGE

Changxin Liu[1], Nazarov Khudayberdi[2]

[1] The assistant of the faculty of Agroengineering and Agrotechnology of Tashkent State Agrarian University, Tashkent 100140, Uzbekistan
[2] The DSc and associate professor of the faculty of Agroengineering and Agrotechnology of Tashkent State Agrarian University, Tashkent 100140, Uzbekistan.

Abstract. *Markaziy Osiyodagi yirik qishloq xo‘jaligi davlati bo‘lgan O‘zbekiston iqlim o‘zgarishi sababli jiddiy suv tanqisligiga duch kelmoqda, suvning 90% dan ortig‘i samarasiz sug‘orish uchun sarflanadi. Ushbu maqola muhim yechim sifatida IoT, AI va masofadan zondlashni birlashtirgan aqlli suv jo'natish tizimini taklif qiladi. U O‘zbekistondagi suv muammolarini tahlil qiladi, aqlli boshqaruv tizimini tavsiflaydi va dinamik, ma’lumotlarga asoslangan sug‘orish rejalarini tuzish uchun moslashtirilgan tizim arxitekturasini ishlab chiqadi. Kutilayotgan imtiyozlar orasida suv unumdorligi va iqlimga chidamlilikdagi sezilarli yutuqlar kiradi. Tadqiqot amalga oshirishdagi to'siqlarni hal qilish va suv va oziq-ovqat barqarorligini ta'minlash uchun bosqichma-bosqich qabul qilish yo'lini tavsiya qilish bilan yakunlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Suvni aqlli boshqarish, Iqlim o‘zgarishi, Irrigatsiya, O‘zbekiston, IoT*

Аннотация. Узбекистан, крупнейшая аграрная страна Центральной Азии, сталкивается с острой нехваткой воды, усугубляемой изменением климата, при этом более 90% воды используется для неэффективного орошения. В данной работе предлагается интеллектуальная система распределения воды, объединяющая Интернет вещей, искусственный интеллект и дистанционное зондирование в качестве важнейшего решения. В ней анализируются проблемы Узбекистана с водой, описывается концепция интеллектуального управления и разрабатывается специализированная архитектура системы для динамического планирования орошения на основе данных. Ожидаемые преимущества включают значительное повышение продуктивности воды и устойчивости к изменению климата. В заключение исследования рассматриваются препятствия к внедрению и рекомендуется поэтапный путь внедрения для обеспечения устойчивого водоснабжения и продовольствия.

Ключевые слова: *интеллектуальное управление водными ресурсами, изменение климата, орошение, Узбекистан, Интернет вещей*

Abstract. *Uzbekistan, a major agricultural nation in Central Asia, faces severe water scarcity exacerbated by climate change, with over 90% of its water used for inefficient irrigation. This paper proposes an intelligent water dispatch system integrating IoT, AI, and remote sensing as a critical solution. It analyzes Uzbekistan’s water challenges, outlines a smart management framework, and designs a tailored system architecture for dynamic, data-driven irrigation scheduling. Expected benefits include significant gains in water productivity and climate resilience. The study concludes by addressing implementation barriers and recommending a phased adoption pathway to secure water and food sustainability.*

Keywords: *Intelligent water management, Climate change, Irrigation, Uzbekistan, IoT*

INTRODUCTION

Water resources are a strategic asset for maintaining ecological security, food security, and social stability in Central Asia. Uzbekistan, as the most populous country in the region with the

largest scale of irrigated agriculture, directs over 90% of its water consumption to the agricultural sector. The production of staple and cash crops like cotton and wheat is entirely dependent on irrigation. However, the country is inherently water-scarce, relying primarily on trans boundary river flows (Amu Darya and Syr-Darya) fed by snow and glacier melt, making it extremely sensitive to climate change.

In recent years, global warming has accelerated glacier melt in the Tian Shan-Pamir mountains. While this may increase runoff in the short term, the long-term depletion of this "solid reservoir" will lead to reduced river flows and intensified seasonal variability. World Bank studies indicate that by 2050, summer runoff in Central Asia could decrease by 10-30%, alongside increased frequency of extreme heat and drought events. This poses an existential threat to Uzbekistan's irrigated agriculture. Furthermore, the aging irrigation infrastructure inherited from the Soviet era, dominated by large-scale surface irrigation, suffers from severe conveyance losses of 40-60%, exacerbating the water crisis.

In this context, a paradigm shift from "demand-side management" to "precise supply-side matching" is crucial. "Intelligent Irrigation Water Dispatch" emerges as a key solution. By integrating advanced Information and Communication Technologies (ICT), it enables real-time monitoring, precise simulation, intelligent decision-making, and automated control across the entire chain from water sources, canals to field plots. This is an essential means to enhance water use efficiency and cope with climatic uncertainty. This study will explore in depth the application potential, architectural design, and implementation strategy of this system in Uzbekistan, aiming to provide scientific reference for the country's water security and sustainable agricultural development.

CURRENT STATUS OF AGRICULTURAL WATER RESOURCES IN UZBEKISTAN AND CLIMATE CHANGE CHALLENGES

2.1 Water Resource Endowment and Utilization Structure

Uzbekistan's average annual total water resources are approximately 50-55 billion cubic meters, with over 80% originating from neighboring countries. The country has about 4.2 million hectares of irrigated land, forming a vast and complex irrigation network. Water allocation has long followed an administrative quota system, lacking market mechanisms and flexibility. Surface irrigation (furrow, flood) remains the predominant method, with coverage of efficient water-saving technologies like drip and sprinkler irrigation below 10%.

Table 1: Key Indicators of Agricultural Water Use in Uzbekistan

Indicator	Data/Description	Remarks/Challenges
Average Annual Total Water Resources	~50-55 billion m^3	Highly dependent on transboundary rivers (Amu Darya, Syr Darya)
Agricultural Water Use Share	> 90%	Monolithic economic structure, highly concentrated water use
Irrigated Area	~4.2 million hectares	One of the world's largest irrigated areas
Primary Irrigation Methods	Surface irrigation (furrow, flood)	Outdated technology, low efficiency
Canal Conveyance Efficiency	40%-60%	Aging infrastructure, massive seepage and evaporation losses
Irrigation Water Productivity	~0.5-0.8 kg/m^3	Far below world advanced levels (1.5-2.0 kg/m^3)

2.2 Observed and Projected Impacts of Climate Change

The impacts of climate change are already evident in Uzbekistan: the average temperature has increased by about 1.5°C over the past 50 years, exceeding the global average; precipitation

patterns have shifted, with increased winter/spring precipitation in mountains but decreased summer precipitation, exacerbating drought in plains; and glaciers continue to lose mass. These changes lead to:

·**Quantity Risks**: Long-term runoff reduction, widening supply gaps during critical crop growth periods (summer).

·**Timing Risks**: Earlier spring snowmelt floods, misaligned with peak crop water demand; prolonged summer low-flow periods.

·**Extreme Event Risks**: Increased frequency and intensity of droughts and heatwaves, causing crop yield loss and surging water demand.

·**Quality Risks**: Enhanced evaporation exacerbates soil salinization; increased drainage volume coupled with insufficient treatment capacity causes secondary pollution.




Figure 1: Mechanism of Climate Change Impact on the Hydrological Cycle and Agricultural Water Use in Uzbekistan

THEORETICAL FRAMEWORK AND TECHNOLOGICAL SYSTEM OF INTELLIGENT IRRIGATION WATER DISPATCH

3.1 Concept and Core Essence

Intelligent Irrigation Water Dispatch refers to the fine-grained management model that utilizes modern information technologies for real-time perception, integrated analysis, simulation prediction, and optimized decision-making of information throughout the irrigation system (water sources, infrastructure, farm conditions, weather). It aims to meet crop water requirements, ensure agricultural production, and maintain ecological health with minimal water consumption. Its core is **"Data-Driven Decision Making"** and **"Adaptive Control"**.

3.2 Key Technological Components

3.2.1. Integrated Sky-Ground Monitoring and Perception Technology:

Remote Sensing (RS): Uses satellites (e.g., Sentinel-2, Landsat, MODIS) to retrieve crop planting patterns, vegetation indices (NDVI), land surface temperature, soil moisture, and evapotranspiration (ET), enabling macro-scale, rapid monitoring of farm conditions and droughts.

·**Internet of Things (IoT)**: Deploys field soil moisture sensors, weather stations, water level gauges, gate opening sensors, etc., for precise, continuous data collection at the field scale.

3.2.2 Data Transmission and Communication Networks: Combines low-power wide-area network (LPWAN) technologies like NB-IoT and LoRa with mobile networks (4G/5G) to build stable, low-cost data transmission channels.

3.2.3 Data Platform and Model Analysis:

·**Cloud Platform & Big Data Center**: Integrates and stores multi-source heterogeneous data, providing computing resources.

·**Crop Models & Water Demand Forecasting**: Integrates models like AquaCrop, DSSAT with weather forecasts to predict future crop water requirements (ETc).

·**Hydrological & Hydrodynamic Models**: Used to simulate canal flow and optimize canal water distribution plans.

·**Artificial Intelligence & Optimization Algorithms**: Employs Machine Learning (ML) for data mining and prediction (e.g., short-term water demand forecasting); uses optimization algorithms (e.g., genetic algorithms, linear programming) for multi-objective (water-saving, yield increase, equity) water resource allocation.

3.2.4 Intelligent Decision-Making and Control Execution:

·**Intelligent Decision Support System (DSS)**: Generates irrigation scheduling recommendations and water distribution plans for different levels (irrigation district, farm, field plot) based on platform data and model outputs.

·**Automated Control Systems**: Controls pump stations and gates via wireless networks or sends irrigation SMS/App notifications to farmers, enabling automatic or semi-automatic execution of commands.

ARCHITECTURE DESIGN OF AN INTELLIGENT DISPATCH SYSTEM FOR UZBEKISTAN

Considering the hierarchical nature (national-regional-farm-field) of Uzbekistan's irrigation system, a four-layer pyramid architecture is designed.




Figure 2: Architecture of an Intelligent Irrigation Water Dispatch System for Uzbekistan

4.1 Application Scenario Simulation: Cotton-Wheat Rotation in the Syr Darya Irrigation Zone

4.1.1 Pre-Sowing (Spring): Use satellite RS to interpret crop residue and soil salinity distribution from the previous year, combined with seasonal weather forecasts, to recommend optimal crop layout and sowing dates to farms, optimizing water allocation structure from the source.

4.1.2 Growing Season (Dynamic Dispatch):

·**Weekly/Daily**: The regional platform integrates 7-day weather forecasts, soil moisture data reported by farms, and real-time canal water levels. Crop models predict the net irrigation water requirement for each sub-sector for the upcoming week.

·**Optimization Decision**: AI optimization algorithms, aiming to minimize total conveyance loss and maximize water supply equity, calculate the optimal water release time, flow rate, and duration for each canal level, forming a "digital water distribution plan."

·**Execution and Feedback**: The plan is automatically dispatched to the control systems of key diversion gates for execution; simultaneously, irrigation reminders and recommended volumes are pushed to farmers via App. Farmers can provide feedback on irrigation completion via the App, forming a closed loop.

4.1.3 Extreme Drought Response: When satellite monitoring and models predict severe drought, the system activates contingency plans. The platform can simulate optimized water rationing schemes under different yield loss thresholds, providing a scientific basis for government decisions on water allocation cuts, prioritizing water for food crops (wheat) while adjusting strategies for cash crops (cotton).

EXPECTED BENEFITS, CHALLENGES, AND IMPLEMENTATION PATHWAY

5.1 Expected Comprehensive Benefits

·**Economic Benefits**: Expected to increase irrigation water productivity by 20%-30%. Water saved can expand irrigated area or be used for ecology; reduce yield losses from drought by 10%-25%.

·**Social Benefits**: Achieve transparency in water distribution, reducing water conflicts; increase crop yields and farmer income through precision irrigation; enhance farmer participation and technical literacy via App services.

·**Ecological Benefits**: Reduce over-extraction of groundwater; mitigate soil salinization by controlling irrigation quotas; ensure environmental flows downstream.

·**Climate Resilience**: Enhance the foresight and adaptability of the entire irrigation system to climatic variability and extreme events.

5.2 Major Challenges

·**Institutional and Organizational Barriers**: Conflicts exist between the existing top-down water administration system and the cross-departmental collaboration and data sharing required for intelligent dispatch.

·**Infrastructure and Funding Gaps**: Significant investment is needed for canal automation retrofitting and sensor network deployment, with limited financing channels.

·**Technology and Human Capital**: Lack of local high-end technical talent and maintenance teams; varying farmer acceptance of new technologies.

·**Data and Standards**: Incomplete historical data; lack of uniform data collection standards and communication protocols.

5.3 Phased Implementation Pathway Recommendations

5.3.1 Pilot Demonstration Phase (1-3 years): Select 1-2 representative irrigation districts (e.g., in the Fergana Valley) to build a complete demonstration system from source to field. Focus on validating technology adaptability, training local teams, and developing standards.

5.3.2 Scaling and Expansion Phase (4-7 years): Extend the successful model to main river basins like Syr Darya and Amu Darya. Prioritize upgrading automation control and monitoring points on main canals, establishing regional smart water centers. Introduce subsidy policies encouraging farmers to install field smart devices (e.g., simple soil moisture meters with mobile access).

5.3.3 Full Integration and Deepening Phase (8-10 years and beyond): Complete a nationwide smart water network covering major irrigation districts. Achieve national-level

platform integration with data from energy, meteorology, agriculture sectors. Introduce water rights trading market modules, allowing saved water to realize value through markets, forming a sustainable ecosystem for intelligent management.

CONCLUSION

Facing the severe challenges of climate change, Uzbekistan's agricultural water resource management has reached a critical juncture requiring profound transformation. Intelligent irrigation water dispatch is not merely a technological upgrade but a systemic revolution involving technology, institutions, economy, and society. By transforming the physical water network into a digital one, it can significantly enhance the precision, efficiency, and resilience of water resource utilization. It represents a strategic choice for ensuring the country's food security, water security, and national stability in an era of climatic uncertainty.

Despite numerous challenges, by adopting a pragmatic, phased implementation strategy—proving its value in pilot areas first, while simultaneously advancing capacity building and institutional reform - Uzbekistan has the potential to pioneer a path of sustainable water resource management based on technological innovation in Central Asia. In the future, this system could be integrated with renewable energy (e.g., solar pumps) and linked to data-sharing mechanisms in trans boundary water cooperation, contributing to peace and prosperity across the Central Asian region.

REFERENCES

1. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). (2020). *AQUASTAT Country Profile: Uzbekistan*. Rome.

2. World Bank. (2021). *Climate Risk Country Profile: Uzbekistan*. Washington, DC.

3. Asian Development Bank (ADB). (2019). *Uzbekistan: Water Resources Management in the Aral Sea Basin*. Manila.

4. Li, Y., Chen, B., & Wang, Z. (2021). *Smart Irrigation: A Review of Artificial Intelligence and Internet of Things Applications in Agriculture*. Water, 13(19), 2735.

5. Smith, M., & Muñoz, G. (2017). *Crop evapotranspiration - Guidelines for computing crop water requirements*. FAO Irrigation and drainage paper 56. Rome: FAO.

6. Varis, O. (2014). *Resources: Curb vast water use in central Asia*. Nature, 514(7520), 27-29.

7. Zhu, Y., & Shi, D. (2022). Research Progress on the Impact of Climate Change on Water Resources and Agriculture in Central Asia and Adaptation Strategies. *Progress in Geography*, 41(5), 882-892. (In Chinese)

8. Bekchanov, M., & Lamers, J. P. A. (2018). *The costs and benefits of water saving in irrigated agriculture in Uzbekistan*. Agricultural Water Management, 198, 136-149.

9. Conrad, C., et al. (2013). *Mapping and assessing water use in a Central Asian irrigation system by utilizing MODIS remote sensing products*. Irrigation and Drainage Systems, 27(1-2), 67-87.

10. Government of China. (2016). *Outline for the Development of Smart Water Resources in China*. Beijing: Ministry of Water Resources. (Provides reference for practical experience in large-scale smart irrigation district construction)

PROBLEMS OF ECOLOGY AND WATER HYGIENE IN THE SAMARKAND REGION

Alimdjanova Dilbar Negmatovna
Samarkand State Medical University

5	Ходжейлийский	21,525	8,041	37,4	9,632	44,7	3,544	16,5	0,308	1,4	13,484	1,4
6	Тахиаташский	7,929	2,224	28	2,769	34,9	2,786	35,1	0,15	1,9	5,705	1,9
7	Шуманайский	29,108	8,001	27,5	11,863	40,8	8,717	29,9	0,527	1,8	21,107	1,8
8	Канлыкульский	35,526	13,241	37,3	11,894	33,5	8,759	24,7	1,632	4,6	22,285	4,6
9	Кунградский	42,553	10,95	25,7	16,282	38,3	13,973	32,8	1,348	3,2	31,603	3,2
10	Нукуский	30,706	10,065	32,8	8,657	28,2	11,733	38,2	0,251	0,8	20,641	0,8
11	Кегейлиский	32,44	11,283	34,8	9,472	29,2	10,947	33,7	0,738	2,3	21,157	2,3
12	Чимбайский	48,753	9,562	19,6	16,005	32,8	19,916	40,9	3,27	6,7	39,191	6,7
13	Караузякский	35,666	11,584	32,5	12,844	36	10,007	28,1	1,231	3,5	24,082	3,5
14	Тахтакупырский	34,672	13,516	39	12,967	37,4	7,116	20,5	1,073	3,1	21,156	3,1
15	Бозатауский	30,119	6,581	21,8	4,685	15,6	17,416	57,8	1,437	4,8	23,538	4,8
16	Муйнакский	26,116	1,984	7,6	3,317	12,7	20,191	77,3	0,624	2,4	24,132	2,4
17	г. Нукус	2,211					2,211	100			2,211	0,0
18	по республике	**517,0**	**149,1**	**28,8**	**167,5**	**32,4**	**180,4**	**34,9**	**20,0**	**3,9**	**367,9**	3,9

Объемы, минерализация и химический состав коллекторно-дренажных вод.

В настоящее время во всех регионах Узбекистана в орошаемой зоне существует и функционирует коллекторно-дренажная сеть. Гидрологический и гидрохимический мониторинг её работы начался в 1970-ые годы. Такая сеть существует и в орошаемой зоне Республики Каракалпакстан, длина которой в настоящее время равна 20614,7 км, а основными магистральными коллекторами являются КС-1, КС-3, КС-4, ГЛК. В последние годы объем коллекторно-дренажных вод (КДВ) орошаемой территории республики достиг 1,6- 2,0 км^3, который меняется в зависимости от водности р. Амударьи. Нами была составлена ГИС-карта «Распределение объемов, величины минерализации и химического состава коллекторно-дренажных вод Республики Каракалпакстан по административным районам за 2019-2023 гг»., которая позволила выявить районы с наименьшим (Кунградский район) и с наибольшим (Амударьинский район) объемом коллекторно-дренажного стока (рисунок 2).




Рисунок 1. Распределение суммарной площади средне, сильно и очень сильно засоленных почв в административных районах Республики Каракалпакстан, в тыс.га.

В целом по республике современный объем коллекторного стока равен 1,76 км³, а средняя величина минерализации равна 3,77 г/л, преобладающий химический состав хлоридно-сульфатный-кальциево-магниево-натриевый (ХС-КМН). В пределах 16 административных районов величина объемов коллекторно-дренажного стока в среднем за многолетие (2019-2023 гг.) меняется от 0,039 км³ (Кунградский район) до 0,241 км³ (Амударьинский район).




Рисунок 2. Распределение объема, минерализации и химического состава коллекторно-дренажных вод по административном районам Республики Каракалпакстан за 2019-2023 гг.

Глубина грунтовых вод, их минерализация и химический состав.

Геологическое строение дельты Амударьи на территории Каракалпакии состоит из многих видов и типов отложений мелового, третичного и четвертичного периодов. Меловые отложения имеют место на правом берегу реки. Третичные отложения встречаются у Тюямуюн, Кызылкумов, Устюрта и в других районов в виде отложений красных и красно-желтых глин.

Четвертичные отложения широко распространены повсеместно на территории современной и формирующейся дельты р.Амударьи и состоят из песков, супесей, суглинков и глин приносимых водой. Эти отложения имеют сравнительно хорошую водопроницаемость, рыхлость строения, неустойчивость к процессам разлива. Четвертичные отложения являются объектом мелиорации, в которых формируются грунтовые воды и их режим.

Сложность геологического строения дельты р. Амударьи, наличие и хозяйственное использование орошаемых земель в дельте обуславливает особенности ее гидрогеологических условий формирования режима грунтовых вод. В плане проведения гидрогеологического мониторинга большой практический интерес вызывает анализ минерализации и глубины залегания грунтовых вод за многолетие. Мелиоративное состояние орошаемой территория Республика Каракалпакстан зависит не только от объема и качества оросительной воды и коллекторно-дренажного стока, но во многом также от состояния грунтовых вод [7-9].

В данном разделе приведены сведения о многолетнем изменении среднегодовых величин уровня и минерализации грунтовых вод орошаемой зоны Республики Каракалпакстан в административных районах за 2019-2023 гг. (рис.3).

Анализ ежемесячных изменений уровня грунтовых вод в административных районах республики за 2019-2023 гг. показал, что наиболее близко к поверхности земли грунтовые воды расположены в Тахиаташском (175 см), Амударьинском (187 см), Берунийском районах (188 см), а наибольшая глубина грунтовых вод наблюдается в Чимбайском(297 см), Тахтакупырском (335 см), Бузатауском (377 см), Муйнакском районам(533см).

Анализ изменения минерализации грунтовых вод в административных районах Республики Каракалпакстан в 2019-2023 гг., в г/л, показал, что наименьшие величины минерализации наблюдаются в Берунийском (2,57 г/л), Элликалинском (2,60 г/л), Амударьинском(2,62 г/л), Нукусском районах (2,64 г/л), при этом их преобладающий химический состав хлоридно-сульфатный-магниево-натриевый (ХС - МН), а наибольшие величины минерализация наблюдаются в Тахтакупырском (3,00 г/л), Бозатауском (3,09 г/л), Чимбайском (3,31 г/л), Муйнакском районах (5,54 г/л), при этом их преобладающий состав сульфатно-хлоридный-натриево-магниевый (СХ-НМ).

Учитывая полученные результаты и практические рекомендации нужно отметить, что отмеченные принципы и требования интегрированного управления водными ресурсами(ИУВР) необходимо проводить в первую очередь в Чимбайском и Кегейлийском районах, с учетом финансовой помощи зарубежных инвесторов и республиканского финансирования соответствующими организациями.




Рисунок 3. Глубина залегания, минерализация и преобладающий химический состав грунтовых вод Республики Каракалпакстан в 2019-2023 гг.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ:

- согласно вышеприведенным сведениям, было показано, что при использованиях различных мероприятий принципов интегрированного управления водного ресурса в Ферганской долине (проект «ИУВР-Фергана», проведенного с 2001-2012 гг.) было получены следующие положительные результаты: объем валовой продукции сельского хозяйства на душу населения выявил тенденцию её роста во всех областях. Так, темпы

прироста объема валовой продукции сельского хозяйства на душу населения в Андижанской и Наманганской областях составили соответственно 63,7% и 55,4%, кроме выполнения различных технических мероприятия было отмечено активное участие самих субъектов водопользователей на всех уровнях оросительных систем различного уровня; при этом были учтены основные принципы концепции устойчивого развития (УР), в которых основной идей является развитие общества с учетом сохранения окружающей природной среды для будущих поколений;

- также учитывая, что во многих регионах Центральной Азии в настоящие время наблюдается глобальное го потепление климата, нами было подчитаны изменения среднегодовой температуры воздуха по шести метеостанция Республика Каракалпакстана, в результате которых было получено, что среднегодовая температура воздуха за 2009-2023 гг., повысилась на 0,4 - 0,9 ˚С градусов;

- учитывая положения, отмеченные в первом и во втором пунктах выводов нами были проведены исследования и анализ собранных данных различных характеристик мелиоративного состояния орошаемых земель на уровне административных районов, которые в принципе отражаются и на экологическом состоянии уровня жизни местного населения. При этом получены следующие результаты: а) в средние по водность годы гидропосту Кипчак поступало 425 $м^3/с$ с минерализацией 833 мг/л, преимущественно хлоридно-сульфатным-кальциево-магниево-натриевым (ХС-КМН) химическим составом; б) в указанных выше шестнадцати административных районах величина орошаемой площади изменялась от 7,929 тыс.га (Тахиаташский район) до 48,753 тыс.га (Чимбайский район), а суммарная площадь в различной степени засоленных почв изменялась от 5,705 тыс.га (Тахиаташский район) до 39,191 тыс.га (Чимбайский район); в) объемы, минерализация и химический состав коллекторно-дренажных вод изменялись от 0,039 (Кунградский район) до 0,241 $км^3$ (Амударьинский район); г) глубина грунтовых вод, их минерализация и химический состав изменялись от 1,75 м (Тахиаташский район) до 5,33 м (Муйнакский район); минерализация от 2,57 г/л (Берунийский район) до 5,54 г/л (Муйнакский район); химический состав изменялся от ХС-МН до СХ-МН;

- в результате проведенного анализа нами было отмечено, что наиболее благоприятные условия мелиоративного состояния наблюдаются в Тахиаташском и Ходжелийском районах, а наименее благоприятные условия мелиоративного состояния наблюдаются в Кегейлийском и Чимбайском районах. Учитывая полученные результаты практические рекомендации нужно отметить, что отмеченные принципы и требования интегрированного управления водными ресурсами (ИУВР) в первую очередь необходимо внедрять в Кегейлиском и Чимбайском районах, с учетам финансированной помощи зарубежных инвесторов и республиканского финансирования соответствующими организациями.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6024 от 10 июля 2020 года «Об утверждении концепции развития водного хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

2. Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии Узбекистана-2030».

3. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-381 от 27 сентября 2022 года «О мерах по реализации проекта «Управление водными ресурсами в бассейне Аральского моря с учетом адаптации к изменениям климата».

4. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-107 от 1 апреля 2023 года «О неотложных мерах по повышению эффективности использования водных ресурсов».

5. Азизов А.А., Акиншина Н.Г. Образование в интересах устойчивого развития. Учебно- методическое пособие. Ташкент: UNESCO, 2009. 142 с.

6. Бояринова В.Г., Домуладжанов И.Х., К вопросу интегрированного управления речными ресурсами. Сборник научных трудов, посвященный 25-летию НИЦ МКВК ЦА. Ташкент: 2017. С.190-193.

7. Комплексное гидрографическое изучение Ферганской долины. Часть 1 – Отчет Научно-Информационном Центре МКВК. Гл. редактор д.т.н., проф. В.А.Духовный. Ташкент: НИЦ МКВК 2012. 207 с.

8. Мурадов Ш.О. Научное обоснование водоустойчивости аридных территорий юга Узбекистана. Ташкент: Фан, 2012. 374 с.

9. Чембарисов Э.И., Хожамуратова Р.Т., Садиев У.А., Баллиев А.И., Реймова Г.Б. Особенности гидрологического и мелиоративного мониторинга орошаемой территории Республики Каракалпакстан(монография). -Ташкент: “Lesson press” 2022. - 176 с.

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA SUV RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA TUPROQ SHO‘RINI YUVISHNING AHAMIYATI

Xamrayev Kamol Shuxratovich
Buxoro davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish maqsadida Buxoro viloyatining turli darajada sho‘rlangan tuproqlari sho‘rini yuvishda innovatsion sho‘r yuvish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari, suv resurslari boshqaruvi, tuproq sho‘rlanishi, tuproq sho‘rini yuvish, sho‘r yuvish texnologiyasi, Biosolvent va Spersal meliorantlari.

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по разработке инновационных технологий промывки засолённых почв с различной степенью засоления в Бухарской области для улучшение управлениях водных ресурсов при глобальный изменение климата и дефицита воды.

Ключевые слова: водные ресурсы, управление водных ресурсов, засоление почв, промывка засоленных почв, технология промывки солей, мелиоранты Биосольвент и Сперсаль.

Abstract. The article provides the findings of a study focused on scientific researches on innovative soil salinity leaching technologies on varying degrees of salinity in the Bukhara region for implementing water management under global climate change and water scarcity conditions.

Keywords: water scarcity, water resources management, soil salinity, soil salinity leaching, leaching technology, Biosolvent and Spersal ameliorants.


KIRISH

Dunyoda 833 million gektardan ortiq tuproq allaqachon sho‘rlanish jarayoniga uchragani, FAO tomonidan oktabr oyida taqdim etilgan Global sho‘rlangan tuproqlar xaritasida aks ettirilganligi bilan isbotlangan. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sug‘oriladigan yerlarning 20 foizdan ortig‘i sho‘rlanish muammosiga uchragan bo‘lib, ularning 77 million gektardan ortiq qismi inson faoliyati natijasida sho‘rlangan hisoblanadi, bu esa global oziq-ovqat xavfsizligiga jiddiy tahdid solmoqda. Sho‘rlangan maydonlarning 70 foizi Osiyo mintaqasida joylashgan. Dunyo

olimlarining ta’kidlashicha, global iqlim o‘zgarishi sharoitida qishloq xo‘jaligini boshqarishda yuzaga kelayotgan noto‘g‘ri yondashuvlar va tabiiy jarayonlar ro‘y berishi sababli tuproq sho‘rlanish darajasi yiliga 10 foizgacha oshishi kutilmoqda. Ayni damda har uch gektar ekin maydonlari tuproqlari sho‘rlanish natijasida degradatsiyaga uchramoqda. Sho‘rlangan yerlarni samarali foydalanish, sho‘rlanish natijasida qishloq xo‘jaligi aborotidan chiqqan yerlarni qayta o‘zlashtirish bo‘yicha strategiyalarni ishlab chiqish 2050 yilga kelib prognoz qilingan 9,3 milliard global aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda sug‘orma dehqonchilikda mos ekin maydonlariga ega bo‘lish masalalarini hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikamizda 4320,0 ming gektar sug‘oriladigan maydon mavjud bo‘lib, shundan 1902,2 ming gektari (44 foiz) turli darajada sho‘rlangan maydonlar hisoblanadi. Jumladan 1323,2 ming gektar kuchsiz sho‘rlangan, 505,8 ming gektar o‘rtacha sho‘rlangan hamda 73,2 ming gektar kuchli sho‘rlangan maydonlarni tashkil etib, har yili 680,2 ming gektar maydonda sho‘r yuvish ishlari olib boriladi. Respublikamizda so‘ngi yillarda suv xo‘jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida 2009-2023 yillar bo‘yicha sho‘rlanish ma’lumotlari tahliliga ko‘ra sho‘rlanmagan maydonlar ko‘lami 2167,0 ming gektardan 2418,0 ming gektarga (11,6 foiz) organi, kuchli sho‘rlangan yerlar esa 141,0 ming gektardan 73,0 ming gektarga (48,2 foiz) kamaygani qayd etildi.

Hozirgi kunda Buxoro viloyati 280 245 gektar sug‘oriladigan maydonlari tuproqlarining 237 952 gektari yoki 84,9 foizi turli darajada sho‘rlangan. Jumladan 174 934 ga / 62,4 foizi kuchsiz, 57 450 ga / 20,5 foizi o‘rta, 5 568 ga / 2,0 foizi kuchli darajada sho‘rlangan bo‘lib, har yili 180,6 ming gektar maydonda sho‘r yuvish ishlari olib boriladi. Ko‘p yillik ma’lumotlar (2002-2024 yy.) tahlili shuni ko‘rsatadiki, respublikamizda, xususan Buxoro viloyatida olib borilgan izchil ishlar samarasi viloyatimizda kuchli sho‘rlangan maydonlarni 11,5 foizdan 2,0 foizga kamaygan (farqi - 9,5%), o‘rtacha sho‘rlangan maydonlar 31,2 foizdan 20,5 foizga, ya’ni 10,7 foizga kamaygan. O‘z navbatida kuchsiz sho‘rlangan maydonlar 11,1 foizga (62,4-51,3%) hamda sho‘rlanmagan maydonlar 9,2 foizga (15,1-5,9%) ortgani kuzatildi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasi hamda Buxoro viloyatining tuproq sho‘rlanishi xaritasi.

Dunyodagi global iqlim o‘zgarishi va tobora oshib borayotgan suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtiruvchi aksariyat mamlakatlarda hosildorlik va hosil sifatiga sho‘rlanishning salbiy ta’sir etishi munosabati bilan dunyo olimlari tomonidan tuproq sho‘rlanishining oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha muayyan ilmiy yo‘nalishlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Sho‘rlangan yerlarda sho‘r yuvish texnologiyasini takomillashtirish, kimyoviy va biologik melioratsiya tadbirlaridan keng foydalangan holda tuproqlarning suv-tuz muvozanatini maqbullashtirish borasidagi ilmiy yo‘nalishlarda ko‘p omilli tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda keyingi yillarda suv tanqisligi

kuzatilayotgan davrda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi PF-6024-son «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi to‘g‘risida»gi, 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlarida, shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda yerlarning sho‘rini yuvish, meliorativ holatini yaxshilash, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilish hamda sho‘r yuvish ishlarini takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 aprelda qabul qilingan 190-son «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sho‘rini yuvish ishlarini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-son «2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi buning dalilidir [1-3].

TADQIQOT USLUBLARI

Ilmiy tadqiqot ishlarni o‘tkazishda barcha laboratoriya, dala, ishlab chiqarish tajribalari ulardagi kuzatuv, tahlil hamda hisoblar Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida qabul qilingan uslubiy qo‘llanmalar asosida o‘tkazildi. Tuproqning agrofizikaviy tahlillari, agrokimyoviy xossalari hamda uning tarkibidagi tuzlar miqdori «G‘o‘za yetishtiriladigan sug‘oriladigan maydonlarda agrokimyoviy, agrofizikaviy va mikrobiologik xossalarini o‘rganish uslublari»ga binoan aniqlandi. Tajriba dalalarida yetishtirilgan g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi bo‘yicha biologik kuzatuvlar Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy–tadqiqot instituti tomonidan qabul qilingan «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari»ga (O‘zPITI 2007 yil) binoan olib borildi. Tajribalardan olingan natijalarning aniqligi va ishonchliligi B.A.Dospexovning «Dala tajribalarini uslublari»ga manbasidagi dispersion tahlil uslubida matematik – statistik tahlil qilindi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.

Qishloq xo‘jaligi ekinidan yuqori va sifatli hosil olish uchun, o‘simlik rivojlanishida maqbul sharoitlarni (suv-havo-oziqa) yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa, albatta, g‘o‘zani maqbul ma’dan o‘g‘itlar hamda sug‘orish tartiblari asosida parvarishlash lozim. Zero, maqbul oziqa va sug‘orish tartiblari yuqori hosildorlik garovidir.

Dunyoda sho‘rlangan tuproqlar tarkibini yaxshilashga mo‘ljallangan SperSal 35, Stop Sal, Non Sal kabi polimalein kislotali tuz tuzatuvchi meliorantlar qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu meliorantlarni qo‘llash natijasida tuzlar yuvilishi tezlashishi, sug‘orish suvining samaradorligi oshishiga, maqbul tuproq sharoiti yaratilishi hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotidan yuqori va samarali hosil olinishiga erishiladi.

Biosolvent – 2000–5000 dalton molekular massaga ega bo‘lgan polimer (polianion). Birikma tarkibidagi faol moddalar gomopolimer (30%), sirt-aktiv moddalar (4%) hamda inert moddalar (66%) ni tashkil etadi. Birikma akril va polekislotalar hosilasi bo‘lib, uni tashkil etuvchi barcha komponentlar bioparchalanuvchi moddalarga qo‘yiladigan talablarga to‘liq mos keladi. Ya’ni, birikma suvda tez eruvchan, nisbiy molekular massaga va chiziqli tuzilishga ega. U tuproq tarkibidagi tuzlarning suvda yengil va tez erishini ta’minlaydi. Tuproq va o‘simlik uchun zararsiz. Birikma tashqi muhit ta’siri, ya’ni quyosh nuri, yomg‘ir va qorlar ta’sirida parchalanadi [4-6].

Spersal melioranti polimer butenediotiotik polimalein kislotadan tashkil topgan bo‘lib, gomopolimer (30%), chiziqli sul’fat alkibelzonol (6%) hamda boshqa inert moddalar (66%) ni tashkil etadi. Birikma tuproqqa kiritilganda, tuproq singdirish kompleksida natriy kationining chiqib chiqarilishi natijasida kalsiy va magniy kationlar almashinuvi reaksiyasi sodir bo‘ladi.

O‘simlik ildizi joylashgan tuproq qatlamdagi mavjud xlorli, natriy sulfid, natriy bikorbonat kabi tuzlar sug‘orish suvlari yordamida erib, pastki qatlamga tushishi, sizot suvlariga qo‘shilib, daladan olib chiqilishiga erishiladi. Natijada, meliorant hisobiga, sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi ishlab chiqiladi. Bunda sug‘orish jarayoni bilan bir vaqtning o‘zida dalada sho‘r yuvish ishlari bajariladi [7].

Buxoro viloyatining turli daraja sho‘rlangan tuproqlar sharoitida «Biosolvent» birikmasini qo‘llash me’yorlarini, sho‘r yuvish muddatlari va me’yorlarini aniqlandi. Bunda «Biosolvent» birikmasi kuchsiz sho‘rlangan tuproq sharoitida 6 l/ga, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida 8 l/ga, kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitida 10 l/ga me’yorda qo‘llanildi. Shuningdek, Buxoro vohasining o‘tloqi allyuvial, kuchli darajada sho‘rlangan, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rta qumoq tuproqlari sharoitida tuproq sho‘rini yuvishda birlamchi zovur suvlarini boshqarish orqali suvtejamkor sho‘r yuvish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Sho‘r yuvishdan oldin va sho‘r yuvishdan keyin barcha tadqiqot dalalarida tuproq namunalari olinib, laboratoriya sharoitida tuproqning sho‘rlanish darajasi va xili aniqlandi. Shu bilan birga, tanlangan tajriba dalalari tuprog‘ining morfologik tavsifi, mexanik tarkibi va agrokimyoviy xossalari, tuproqning suv-fizik xossalari, tajriba dalasi tuproqlarining sug‘orish oldi haqiqiy namligi, vegetatsiya davrida sug‘orishdan oldin tuproqqa «Spersal» meliorantini qo‘llab, «sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi»ni qo‘llash (Spersal melioranti turli me’yorlarda qo‘llanilgan (4,0; 5,0; 6,0 kg/ga), sug‘orish oldi tuproq namlik defitsiti (20–30 foizga) oshirilgan tartibda), g‘o‘zani sug‘orish tartibi, tajriba dalalari sizot suvlari sathining o‘zgarish dinamikasi (har bir variantning ikkinchi qaytariqlarida diametri 32 mm bo‘lgan plastik quvurli kuzatuv quduqlari o‘rnatilib, ulardan har 10 kunda sizot suvining sathi RGLM gidrogeologik lenta ruletka yordamida o‘lchab borildi) hamda «Spersal» biologik birikmasini qo‘llab, g‘o‘zani «sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi»ni tuproqning tuz rejimiga, g‘o‘zani o‘sishi, rivojlanishi, bir ko‘sakdagi paxta og‘irligi va hosildorligiga sug‘orish tartibining ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi.

Tadqiqotlar olib borilgan tajriba dalalari tuprog‘ining fizikaviy soz–loysimon tuproq zarrachalar yig‘indisi miqdoriga ko‘ra, N.A.Kachinskiy tavsifi bo‘yicha aniqlanganda o‘rta qumoq mexanik tarkibli tuproqlar turiga xosligi aniqlandi. Tajriba dalalari tuproqlarining agrokimyoviy ko‘rsatkichlari tahlillariga asosan tadqiqotlar davomida tajriba maydonidagi g‘o‘zani o‘g‘itlash me’yori gektariga azot N_{250}, fosfor P_{175} va kaliy K_{125} kg/ga me’yorda qo‘llanildi.

Tadqiqotlar olib borilgan kuchsiz sho‘rlangan tuproqlar sharoitida tuproqning (0–30 sm) haydov qatlamida vegetatsiya so‘ngida Spersal melioranti turli me’yorlarda qo‘llanilgan (4,0; 5,0; 6,0 kg/ga), sug‘orish oldi tuproq namlik defitsiti (20–30 foizga) oshirilgan variantlarda nazoratga nisbatan 0,01–0,03 g/sm^3 ga kam zichlanganligi aniqlandi. Tuproqning hisobiy (0–100 sm) qatlamida tuproqning xajmiy og‘irligi nazorat variantida vegetatsiya boshiga nisbatan 0,04 g/sm^3 ga ko‘p zichlanganligi aniqlangan bo‘lsa, Spersal melioranti 5,0 kg/ga me’yorda qo‘llanilgan, sug‘orish oldi tuproq namlik defitsiti 20 foizga oshirilgan variantda boshqa variantlarga nisbatan kam zichlanganligi (vegetatsiya boshiga nisbatan 0,01 g/sm^3) tadqiqotlarda namoyon bo‘ldi. Sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi qo‘llanilgan variantda suv o‘tkazuvchanligi boshqa variantlarga nisbatan yaxshi holatda saqlanganligi, jami 6 soatda nazoratga nisbatan 50,4–66,0 m^3/ga yuqori bo‘lganligi tadqiqotlarda aniqlandi.

Izlanishlar olib borilgan tajriba dalalarida amal o‘suv davrida sug‘orish 1–3–1 tizimda, jami 5 marotaba sug‘orildi. Sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibini ishlab chiqish maqsadida Spersal melioranti turli me’yorlarda (4,0; 5,0; 6,0 kg/ga) qo‘llanilgan variantlarda 0–100 sm tuproq qatlamidagi namlik defitsiti 20–30 foizga oshirilgan holatda olib borildi. Tadqiqotlarda asosan xisobiy qatlamdagi yetishmaydigan namlikni qoplaydigan sug‘orish me’yorlarida sug‘orishlar o‘tkazilganligi munosabati bilan, tajriba dalasidagi sizot suvlarining satxi va mineralizatsiyasiga ular deyarli ta’sir ko‘rsatmadi. Tajriba dalasidagi sizot suvlarining satxi va mineralizatsiyasiga

asosan shu hududdagi maydonlarni sug‘orishlar va sug‘orish tarmoqlaridan filtratsiyaga bo‘layotgan yo‘qotishlar ta’sir ko‘rsatdi.

Buxoro vohasining o‘tloqi allyuvial, turli darajada sho‘rlangan, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rta qumoq tuproqlari sharoitida vegetasiya davrida «Spersal» biologik birikmasini qo‘llab, g‘o‘zani «sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi» tadbiq qilinishi natijasida, tuproqda mavsumiy tuz to‘planishini kamayishiga, «Biosolvent» birikmasini qo‘llash orqali sho‘r yuvish uchun sarflanadigan suv resurslari 30–40 foizga kamayishiga, g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi uchun maqbul meliorativ rejimni ta’minlanishi hisobiga variantlar bo‘yicha g‘o‘zadan gektariga 4,0–9,8 sentner qo‘shimcha paxta hosili olinishiga erishildi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Global iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish maqsadida tuproq sho‘rini yuvishda innovatsion sho‘r yuvish texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida Buxoro viloyatining lazer uskunali yer tekislagichlar bilan tekislangan, turli (kuchsiz, o‘rta va kuchli) darajada sho‘rlangan tuproqlari sharoitida:

– vegetatsiya davrida Spersal melioranti 5,0 kg/ga me’yorda, 0-100 sm tuproq qatlamidagi namlik defitsitini 20 foizga oshirish orqali maqbul meliorativ rejimni ta’minlovchi ilmiy asoslangan g‘o‘zani “yuvuvchi” sug‘orish tartibi (промывной режим орошения);

– tuproq sho‘rini yuvishda Biosolvent meliorantini tuproq sho‘rlanish darajasini inobatga olgan holda kuchsiz sho‘rlangan dalada 1 ga maydonga 6,0 litr, o‘rtacha sho‘rlangan tajriba dalasida 8,0 litr va kuchli sho‘rlangan tadqiqot dalasida esa 12,0 litr me’yorda hamda turli xil suv sarflarida (V.R.Volobuyev formulasida aniqlangan me’yordan 30%, 40% kam me’yorda) sho‘r yuvish tartibi;

– sho‘ri yuvilayotgan ekin dalasidagi birlamchi zovur suvlarini boshqarish (1-taktda tuproqning to‘la nam sig‘imigacha bo‘lgan me’yorda; 2-taktda V.R.Volobuev formulasida aniqlangandan 40 foiz kam me’yorda suv bilan sho‘r yuvish) orqali suv tejamkor va sifatli sho‘r yuvish texnologiyalari ishlab chiqildi.

Buxoro vohasining o‘tloqi allyuvial, turli darajada sho‘rlangan, mexanik tarkibiga ko‘ra o‘rta qumoq tuproqlari sharoitida vegetasiya davrida «Spersal» biologik birikmasini qo‘llab, g‘o‘zani «sho‘r yuvuvchi sug‘orish tartibi» tadbiq qilinishi natijasida, tuproqda mavsumiy tuz to‘planishini kamayishiga, «Biosolvent» birikmasini qo‘llash orqali sho‘r yuvish uchun sarflanadigan suv resurslari 30–40 foizga kamayishiga, g‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishi uchun maqbul meliorativ rejimni ta’minlanishi hisobiga variantlar bo‘yicha g‘o‘zadan gektariga 4,0–9,8 sentner qo‘shimcha paxta hosili olinishiga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-6024-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 aprelda qabul qilingan «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sho‘rini yuvish ishlarini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 190-son Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 iyuldagi «2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-307-son Qarori.

4. Khamidov, M., Khamraev, K. Water-saving irrigation technologies for cotton in the conditions of global climate change and lack of water resources. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 883(1), 012077.

5. Khamidov, M.K., Khamraev, K.S., Isabaev, K.T., Innovative soil leaching technology: A case study from Bukhara region of Uzbekistan. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science, 2020, 422(1), 012118.

6. Khamidov, M., Khamraev, K., Azizov, S., Akhmedjanova, G. Water saving technology for leaching salinity of irrigated lands: A case study from Bukhara region of Uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 2020, 7(1), Pp. 499–509.

7. Doniyorov T.O. Taqirsimon tuproqlar suv-tuz rejimiga kimyoviy meliorantning ta’siri va g‘o‘zani sug‘orish texnikasini takomillashtirish. // Qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Ph.D.) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati.–T.: PSUYAITI 2020., 1-18 bet. 18 bet.

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA AMALIY YECHIMLARI

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ ОХРАНЫ АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА

CURRENT CHALLENGES AND PRACTICAL SOLUTIONS FOR THE PROTECTION OF ATMOSPHERIC AIR

OROLBO‘YI MINTAQASIDAGI METEOROLOGIK MA’LUMOTLARNI STATISTIK TAHLIL QILISH ORQALI HUDUDIY IQLIM O‘ZGARISHINI EKOLOGIK INDIKATORLAR INTEGRATSIYASI YORDAMIDA BAHOLASH

Rustamov G‘iyos Sadridinovich,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,
Ekologik ta’lim va targ‘ibot bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d.,
Samiyev Luqmon Naimovich,
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” MTU dotsenti, t.f.d.,
Alimov Zikrilla Bobomuratovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti,
Atmosfera havosini muhofaza qilish laboratoriyasi mudiri t.f.d., k.i.x.

Annotatsiya. Atrof-muhitdagi turli ifloslantiruvchi jarayonlar va yog‘ingarchilik o‘rtasida barqaror salbiy bog‘liqlik kuzatiladi, xususan, yog‘ingarchilikning mavjudligi yoki avvalgi yillardagi yog‘in miqdorining ko‘pligi atmosferadagi dispers zarralarning shakllanishini kamaytirishi mumkin. Qum va chang bo‘ronlari chastotasi bilan havo harorati o‘rtasida ham salbiy korrelyatsiya qayd etilgan. Yog‘ingarchilik, harorat, namlik, shamol va siklon faolligi kabi iqlim omillari ifloslantiruvchi moddalarning tarqalish dinamikasi hamda ularning chastotasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Atmosferaviy ifloslanishni baholashda uzoq muddatli meteorologik kuzatuvlar muhim bo‘lib, ular atrof-muhit sharoitlarini kompleks tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois, mazkur jarayonlarni o‘rganishda meteorologik ma’lumotlarning statistik qayta ishlash usullaridan foydalanish eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Ushbu maqolada atmosfera ifloslanishi va iqlim omillari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy asosda yoritish, chang va qum bo‘ronlari kabi ekologik xavf omillarini tahlil qilish hamda uzoq muddatli meteorologik ma’lumotlardan foydalanish zarurligini asoslash to‘g‘risida ma’lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar Orolbo‘yi mintaqasining uzoq muddatli meteorologik ma’lumotlar bazasi, iqlimiy o‘zgarishlarni aniqlashda Mann–Kendall trend tahlili, chang va qum zarrachalari shakllanishiga iqlim omillarining ta’siri hamda olingan ko‘rsatkichlarning statistik tahlili.

Аннотация. Между различными загрязняющими процессами в окружающей среде и количеством атмосферных осадков наблюдается устойчивая отрицательная взаимосвязь. В частности, наличие осадков или их повышенный объем в предыдущие годы может снижать формирование дисперсных частиц в атмосфере. Также зафиксирована отрицательная корреляция между частотой пылевых и песчаных бурь и температурой воздуха.Климатические факторы, такие как количество осадков, температура, влажность, скорость ветра и циклональная активность, оказывают прямое влияние на динамику распространения загрязняющих веществ и частоту их возникновения. Долговременные метеорологические наблюдения имеют важное значение при оценке атмосферного загрязнения, поскольку позволяют проводить комплексный анализ состояния окружающей среды. В связи с этим применение статистических методов обработки метеорологических данных считается наиболее оптимальным подходом при исследовании указанных процессов.

Настоящая статья подготовлена с целью научно обоснованного раскрытия взаимосвязи между атмосферным загрязнением и климатическими факторами, анализа экологических рисков, таких как пылевые и песчаные бури, а также обоснования необходимости использования долговременных метеорологических данных.

Ключевые слова: Долговременная база метеорологических данных Приаралья, применение тренд-анализа Манна–Кендалла для выявления климатических изменений, оценка влияния климатических факторов на формирование пылевых и песчаных частиц, а также статистический анализ полученных показателей.

Annotation. A stable negative relationship is observed between various environmental pollution processes and precipitation. In particular, the presence of precipitation or higher precipitation levels in previous years can reduce the formation of dispersed particles in the atmosphere. A negative correlation has also been recorded between the frequency of sand and dust storms and air temperature. Climatic factors such as precipitation, temperature, humidity, wind speed, and cyclonic activity directly influence the dispersion dynamics of pollutants and the frequency of their occurrence. Long-term meteorological observations play a crucial role in assessing atmospheric pollution, as they enable a comprehensive analysis of environmental conditions. Therefore, the application of statistical methods for processing meteorological data is considered the most appropriate approach for studying these processes.

This article has been prepared to scientifically substantiate the relationship between atmospheric pollution and climatic factors, analyze environmental risk factors such as dust and sand storms, and justify the necessity of using long-term meteorological datasets.

Key words: Long-term meteorological data from the Aral Sea region, the use of the Mann–Kendall trend analysis to identify climatic changes, the influence of climatic factors on the formation of dust and sand particles, and the statistical analysis of the obtained indicator.

KIRISH

Uzoq muddatli tarixiy meteorologik kuzatuvlar bazasidan foydalanish biosferaning atmosfera qatlamida ifloslantiruvchi moddalar tarqalish dinamikasini chuqur tahlil etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Kelajakdagi ekologik vaziyatni ishonchli prognozlash uchun ham ko‘p yillik ekologik va meteorologik ma’lumotlarning mavjudligi zarur hisoblanadi. Odatda, iqlim va atrof-muhit sharoitlarining uzoq yillar davomida shakllangan holatini tavsiflashda statistik va tarixiy ma’lumotlar majmualaridan foydalaniladi. Atmosferaning yerga yaqin qatlamida ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining belgilangan me’yorlarga muvofiqligini ta’minlash jarayoni meteorologik parametrlarni o‘z ichiga olgan matematik modellar asosida prognozlashni talab etadi. Bunday modellar ifloslantiruvchi moddalar dispersiyasi jarayonlarini yetarli darajada aks ettirishi, shuningdek, atmosferaning keyingi monitoringi uchun zarur bo‘lgan ilmiy asoslarni shakllantirishi lozim [1].

XX asrning 90-yillariga kelib, maydoni bo‘yicha Kaspiy dengizidan keyin turuvchi Yer yuzidagi to‘rtinchi yirik ko‘l hisoblangan Orol dengizining ekologik falokati butun dunyo hamjamiyatining e’tiborini tortdi. Dengiz havzasidagi suv resurslarining keskin kamayishi natijasida mintaqada keng ko‘lamli cho‘llanish jarayonlari tezlashdi va qurigan tub hududlarida yangi tabiiy-geografik shakllanma — Orolqum cho‘li vujudga keldi.So‘nggi o‘n yilliklar davomida Orolqum mintaqadagi chang, tuz, qum va turli ifloslantiruvchi aerozollar tarqalishining yangi “faol manbasi” sifatida shakllanib, hududning ekologik xavfsizligi, iqlimiy stabilligi va aholining salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [2].

Iqlim o‘zgarishi Yer yuzidagi hayotning deyarli barcha jabhalariga, jumladan, insoniyat jamiyatlari, iqtisodiyot va sog‘likka chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishiga inson omillari bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [3]. Uzoq muddatli meteorologik kuzatuvlar, sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari hamda masofadan zondlash texnologiyalari orqali olingan ko‘p yillik ma’lumotlar to‘plamidagi barcha asosiy xarakteristikalar aerozol optik chuqurligini aniqlashga tayanadi. Ushbu ma’lumotlar majmuasi atmosfera havosi sifatini baholash, chang hodisalari ta’siriga uchragan hududlarni aniqlash hamda ularning vaqt bo‘yicha


davomiyligini o‘lchashda yuqori darajada aniq va ishonchli natijalarni taqdim etmoqda [4]. Hududlarda chang va qum bo‘ronlarining shakllanishi, ularning fazoviy tarqalishi hamda atmosfera tarkibidagi ifloslantiruvchi zarralarning transporti asosan iqlim parametrlarining ta’siri bilan belgilanadi. Ushbu parametrlar xususan, shamol tezligi va yo‘nalishi, havoning namligi, harorat rejimi, yog‘ingarchilik miqdori hamda atmosfera ifloslanishi aerozol zarralarining ko‘tarilishi, tashilishi va cho‘kishini boshqaruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi [5]. Atmosferada kuzatiladigan chang va qum bo‘ronlari tabiiy meteorologik jarayonlar hisoblanadi. Ushbu hodisalar global va mintaqaviy iqlim sharoitlari, geomorfologik omillar hamda yer qoplamidagi o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularni to‘liq bartaraf etishning iloji yo‘q. Biroq ularning intensivligi va chastotasini kamaytirish ma’lum ekologik, landshaft-meliorativ va iqlimiy boshqaruv choralarini qo‘llash orqali qisman nazorat qilish imkonini beradi [6]. Atrof-muhitda tarqalayotgan chang va qum bo'ronlarini hosil bo‘lishida ekologiya, meterologik va atrof-muhit omillari muhim rol o'ynaydi. Statistik tahlillarga ko'ra, atrof-muhit parametrlari bir-biri bilan sezilarli darajada bog'langan bo'lib, tabiatda zararlovchi hodisalarining rivojlanishi hamda tarqalishiga olib keladi [5]. Chang va qum bo‘ronlarining shakllanishi issiqlik, yog‘ingarchilik, shamol hosil bo‘lish sharoitlari, bosim, havoning namligi va quyosh nurlanishi kabi turli iqlim elementlari bilan bevosita bog‘liq. Yuqorida sanab o‘tilgan sharoitlarning yuzaga kelishi natijasida hududlarda qurg‘oqchilik darajasi ortadi, bu esa haroratning o‘zgarishi, shamol tezligi va yo‘nalishining o‘zgarishiga olib keladi, natijada chang va qum bo‘ronlarining intensivligi oshadi. Shuningdek, global iqlim o‘zgarishi sharoitida chang va qum bo‘ronlarining yuzaga kelishi va tarqalish shart-sharoitlarining o‘zgarishi salbiy ta’sirlar doirasini kengaytiradi va boshqa kutilmagan oqibatlarga olib kelishi kuzatiladi [7].

Atrof-muhitda kuzatiladigan kuchli shamol jarayonlari cho‘l va tekisliklarga xos bo‘lgan qum hamda chang zarralarini katta masofalarga ko‘chirishi bilan ajralib turadi. Bunday aerozol oqimlari nafaqat atmosferaning fizik-kimyoviy tarkibiga ta’sir ko‘rsatadi, balki ekologik muvozanatning buzilishiga, havo sifati pasayishiga va zararli ekologik jarayonlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi [5]. Shu bilan birga, bunday jarayonlar atmosfera va dengiz ekotizimlarining izdan chiqishiga olib kelib, global biokimyoviy tsikllar barqarorligiga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatadi [8]. Ma’lumki, chang va qum bo‘ronlarining shakllanishi kuchli shamollar, meteorologik omillar, tuproqning ustki qatlamidagi eroziya jarayonlari, namlikning keskin kamayishi hamda beqaror atmosfera sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu omillar ifloslantiruvchi zarrachalarning ko‘chishi va tarqalishi uchun asosiy harakatlantiruvchi kuch bo‘lib, shamol eroziyasi va mahalliy termodinamik sharoitlar bilan yanada kuchayadi [8]. O‘rta Osiyo hududidagi Shimoliy Xitoy va Janubiy Mo'g'ulistondagi qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil hududlar chang va qumning asosiy manbalari hisoblanadi. Buning sababi yillik yog‘ingarchilik odatda bu hududlarda 400 mm dan kam, ba’zi joylarda esa 30 mm dan kam bo‘lishi mumkin [8].

Chang va qum bo‘ronlari intensivligi manba maydoni yoki ta’sir kuchidan qat’i nazar, ayrim hollarda muntazam ravishda takrorlanib turishi mumkin. Tadqiqot olib borilgan hududlarda o‘lchovlar shuni ko‘rsatadiki, yillik yog‘ingarchilik 200–250 mm dan kam bo‘lgan qurg‘oqchil mintaqalarda chang va qum bo‘ronlarining shakllanishi topografik pastliklarning mavjudligi bilan bevosita bog‘liq [9]. Orol dengizining qurishi XX asrning eng yirik va misli ko‘rilmagan ekologik fojialaridan biri sifatida e’tirof etiladi. So‘nggi qariyb 40 yil davomida 36 ming km² dan ortiq sobiq dengiz tubining ochilishi natijasida mintaqada mayda chang va qum zarralarining yirik potensial manbasi shakllandi [10]. Qoraqalpog‘iston hududida joylashgan oltita asosiy meteorologik kuzatuv stansiyasi Taxiatosh, Nukus aeroporti, Qo‘ng‘irot, Taxtako‘pir, Chimboy va Mo‘ynoq tadqiqotning asosiy empirik manbasi sifatida tanlanadi. Ushbu stansiyalar hududning meteorologik rejimini aks ettiruvchi ishonchli ma’lumotlar ba’zasini shakllantirib, atmosfera jarayonlarining fazoviy–vaqtinchalik dinamikasini o‘rganish imkonini beradi. Mazkur

stansiyalarda harorat, nisbiy namlik, yog‘ingarchilik miqdori, shamol tezligi va yo‘nalishi kabi meteorologik ko‘rsatkichlar 3 soatlik hamda 12 soatlik intervallarda muntazam ravishda qayd etib borilgan. Ushbu ma’lumotlar majmui iqlim parametrlarining o‘zgaruvchanligini statistik jihatdan tahlil qilish, chang va qum bo‘ronlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularning chastotasini baholash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot doirasida har bir stansiya uchun 2000 yilning may–oktyabr oylariga tegishli yog‘ingarchilik miqdori va o‘rtacha sutkalik haroratning statistik taqsimoti hisoblab chiqilgan. Olingan natijalar hududning mavsumiy iqlim xususiyatlarini tavsiflaydi va 1-rasmda grafik tarzda aks ettirilgan [11].



1-rasm O‘lchangan meteorologik parametrlar, 2000 yil may-oktyabr, jami oylik yog‘ingarchilik mm chiziqlar o‘rtacha oylik harorat (°C)

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, barcha kuzatuv stansiyalari o‘rganilgan davr davomida o‘zaro yaqin meteorologik parametrlar dinamikasini namoyon etgan. Xususan, havo harorati iyul–avgust oylarida 28–29 °C atrofida maksimal qiymatlarga yetgan bo‘lib, oktyabr oyida esa 6–8 °C gacha pasayishi qayd etilgan. Yog‘ingarchilik bo‘yicha olingan statistik ma’lumotlar yoz mavsumida yog‘ish miqdori o‘rtacha darajada cheklanganligini va avvalgi kuzatuvlar bilan mos kelishini tasdiqlaydi. Keyingi o‘lchovlar natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik stansiyalarda iyun oyida maksimal yog‘ingarchilik 5,9–10,5 mm diapazonida qayd etilgan. Kuz faslida esa bu ko‘rsatkich keskin oshib, oktyabr oyida o‘rtacha 27,0 mm ni tashkil etgan [12].


Ushbu holat kuzatilgan teskari munosabatning mohiyatini aniqlashtirish uchun qo‘shimcha ilmiy tekshiruvlarni talab etadi. Shu bilan birga, u atrof-muhit omillari va inson salomatligi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarning murakkab va ko‘p omilli xarakterga ega ekanligini yaqqol ko‘rsatadi [13]. Yuqoridagi keltirilgan bir qancha ekologik omillar ta‘sir etishi orqali hududda sporalar, zamburug'lar, bakteriyalar, patogen viruslar, cho'kindi moddalar, og'ir metallar, shuningdek radioaktiv materiallar kabi turli xil ifloslantiruvchi moddalar atrof muhitga tarqalishi mumkin [13].

• Shu bois, mintaqadagi ekologik o‘zgarishlarning asosiy tendensiyalari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash muhim ilmiy vazifa bo‘lib, bu jarayonlarning kompleks baholanishi yuqori amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT OBYEKTI

1960-yillardan boshlab Orol dengizi suv sathining keskin pasayishi va sho‘rlanish darajasining tez sur’atlarda ortishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon, avvalo, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida suv sarfining kamayishi hamda sug‘oriladigan yerlarning barqaror bo‘lmagan tarzda kengayishi natijasida yuzaga kelgan debit yetishmovchiligi bilan izohlanadi. Natijada Orolbo‘yi havzasida sho‘rlanish va cho‘llanish jarayonlari yil sayin jadallashdi. Turli

manbalarda ta’kidlanishicha, mintaqadagi suv resurslari tanqisligi mavjud ekologik inqirozning (2-rasm) yanada chuqurlashuviga sezilarli hissa qo‘shgan [1].



2-rasm. 1992 yildan 2023 yilgacha Orol dengizi suv sathining qisqarishi Source:http://earthdata.nasa.gov)

Orol dengizi tubida to‘plangan tuz va mineral cho‘kindilar natijasida deyarli hech qanday o‘simlik o‘sishi mumkin bo‘lmagan qalin sho‘rxok qatlamlar shakllandi. Asosiy va irmoqli daryo yo‘nalishlari bo‘ylab joylashgan noyob to‘qay o‘rmonlari maydoni esa keskin qisqardi. 1990-yillardan boshlab global ilmiy hamjamiyat Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik inqiroz miqyosidan xabardor bo‘lib, ushbu hududga oid ko‘plab ilmiy tadqiqotlar va monitoring ishlari faol ravishda yo‘lga qo‘yildi. Orol dengizining qurigan havzasida atmosferaning o‘ziga xos xususiyatlari quruq kontinental iqlim sharoiti va keng tekislik landshaftlari chang va qum bo‘ronlarining shakllanishini kuchaytiradi. Hudud asosan qumli, qumli-jipsli, loess-gilli va to‘g‘ridan-to‘g‘ri cho‘l qatlamlari bilan qoplangan [1].

METEODOLOGIYA OLINGAN MA’LUMOTLARNI STATISTIK TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasining birinchi bosqichi sifatida iqlim omillari ma’lumotlarini oldindan qayta ishlash va atmosfera qobig‘idan olingan kuzatuv ma’lumotlarini korrelyatsiya qilish amalga oshirildi, bu esa xaritalashning aniqligi va sifatini sezilarli darajada oshiradi. Orolbo‘yi hududidagi asosiy stansiyalar Nukus, Qo‘ng‘irot, Chimboy va Mo‘ynoq — bo‘yicha havo harorati, yog‘ingarchilik, namlik va shamol tezligi kabi meteorologik ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi tahlil qilindi [1]. Ushbu tahlil doirasida Mann–Kendall trend testi qo‘llanildi. Mann–Kendall testi parametrik bo‘lmagan statistik usul bo‘lib, vaqt davomida kuzatilgan ma’lumotlar qatoridagi tendentsiyalarni aniqlash imkonini beradi. U nafaqat monoton tendentsiyalarni aniqlashga qodir, balki sezilarli o‘zgarishlar mavjud yoki yo‘qligini ham ko‘rsatadi. Ushbu xususiyatlar tufayli Mann–Kendall testi turli taqsimotga ega ma’lumotlar to‘plamlarida samarali qo‘llaniladi [15].

Shunday qilib, Mann–Kendall statistikasi barcha ma’lumotlar qiymatlari orasidagi juftliklar yig‘indisi sifatida ifodalanadi va test statistikasi S quyidagicha hisoblanadi:


$$S = \sum_{i=1}^{n-1} \sum_{j=i+1}^{n} \operatorname{sgn}(X_i - X_i)$$

Mavsumiy Mann-Kendall testi *S*-mavsum uchun Mann-Kendall statistikasi quyidagicha hisoblanadi:


$$S_g = \sum_{i-1}^{n-1} \sum_{j=i+1}^{n} \operatorname{sgn}(X_{jg} - X_{ig}), \quad g = 1,2,\dots,m$$

Mann–Kendall testi natijalari tadqiqotchilarga uzoq muddatli iqlim va meteorologik tendentsiyalarni aniqlash hamda ularni baholashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu usul o‘zgarishlarni oldindan aniqlash, ularga qarshi chora-tadbirlar ishlab chiqish va kelajakdagi iqlim sharoitlarini prognoz qilishda samarali qo‘llaniladi [14]. Parametrik bo‘lmagan Mann–Kendall testi qiziqish o‘zgaruvchisining vaqt davomida o‘sishi yoki kamayishini aniqlash uchun monotonik tendentsiyaning mavjudligini statistik baholashda qo‘llaniladi. Ushbu test odatda atrof-muhit ma’lumotlari (2.4 rasm), iqlim ko‘rsatkichlari yoki gidrologik ma’lumotlar qatorida monotonik tendentsiyalarni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Mann–Kendall testi turli tadqiqotlarda ma’lumotlar qatoridagi tendensiyalarning faolligini baholash vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.


(2.11)




3-rasm. Nukus meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik qiymatlari



4-rasm. Qo‘ng‘irot meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha yog‘ingarchilik qiymatlari



5-rasm. Qo‘ng‘irot meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha havo harorati qiymatlari



6-rasm. Nukus **meteorologik stansiyasida kuzatilgan ko‘p yillik o‘rtacha havo harorati qiymatlari**

Nukus stansiyasida olib borilgan tahlil natijalari ko‘p oylar davomida sezilarli trendlarning mavjud emasligini ko‘rsatdi, bu esa yog‘ingarchilikning yillar davomida nisbatan barqaror bo‘lganligini bildiradi. Biroq, ayrim oylarda zaif ijobiy yoki salbiy tendentsiyalar kuzatilgan bo‘lsa-da, ular statistik jihatdan ahamiyatli emas. Ushbu natijalar mahalliy iqlim sharoitlari va yog‘ingarchilik tendentsiyalarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Shuningdek, yog‘ingarchilikdagi o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi, suv resurslari va boshqa ekologik-iqtisodiy sohalarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, bu o‘zgarishlarga moslashish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir [14].

Qo‘ng‘irot stansiyasida olib borilgan tahlil natijalari ko‘p oylar davomida sezilarli trendlarning mavjud emasligini ko‘rsatdi, bu esa yog‘ingarchilikning yillar davomida nisbatan barqaror bo‘lganligini bildiradi. Fevral oyida kuzatilgan mo‘tadil ijobiy trend esa statistik jihatdan sezilarli bo‘lishga yaqin qiymatga ega. Boshqa oylar uchun zaif ijobiy yoki salbiy tendentsiyalar aniqlangan bo‘lsa-da, ular statistik jihatdan ahamiyatli emas.

Ushbu natijalar mahalliy iqlim sharoitlari va yog‘ingarchilik tendentsiyalarini yanada chuqurroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Yog‘ingarchilikdagi o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi, suv resurslari va boshqa iqtisodiy-ekologik sohalarga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu o‘zgarishlarga moslashish va ularga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tahlil natijalari ko‘plab oylik o‘rtacha haroratlarda sezilarli trendlarning mavjudligini tasdiqladi.

A key scientific development is the emerging evidence that carbonaceous particles inhaled during pregnancy may not remain in the placenta but can translocate into fetal organs. Recent studies (including those published in *Lancet Planetary Health*) involving laboratory models, animal experiments, and human tissue analyses have demonstrated transplacental particle movement—providing mechanistic support for direct organogenic impacts during the prenatal stage.

Statistically, although effect sizes vary across regions and methodologies, a universal trend emerges: each 10 $\mu g/m^3$ rise in $PM_{2.5}$ correlates with a measurable reduction in birth weight and a slight but significant increase in preterm birth risk. Contextual ecological and social factors—maternal nutrition, health status, smoking, access to healthcare, and living conditions—modulate these effects. The burden is particularly pronounced in low- and middle-income countries, where adverse outcomes tend to cluster.

RESEARCH OBJECTIVE

To evaluate the effects of air pollution on fetal development during pregnancy through epidemiological, biomarker-based, physiological, and molecular mechanisms, and to systematically analyze existing evidence.

MATERIALS AND METHODS

Sources included studies from PubMed, ScienceDirect, WHO, CDC, EEA, and *Lancet Planetary Health* databases published between 2005 and 2024.

Study types: Cohort, case–control, meta-analyses, and ecological studies.

Key indicators: Birth weight (BW), gestational age, IUGR, preterm birth (PTB), placental biomarkers (IL-6, TNF-α, CRP), and mean trimester-specific exposure to $PM_{2.5}$, PM_{10}, NO_2.

RESULTS

The epidemiological studies, meta-analyses, and biological observations reviewed in this analysis consistently demonstrate the detrimental effects of prenatal exposure to particulate matter (PM) and other atmospheric pollutants on fetal development. Large-scale meta-analyses and global

burden assessments link increased $PM_{2.5}$ exposure to reduced birth weight, higher rates of preterm birth, and elevated risk of intrauterine growth restriction (IUGR). Clinical and molecular evidence also indicates that pollutant particles can accumulate within the placenta and even cross into fetal tissues. Below is a detailed summary of the key findings.

Meta-analyses and global burden assessments quantitatively confirm the impact of $PM_{2.5}$ and other particulates on perinatal outcomes. In a meta-regression across 204 countries, Ghosh et al. (2021) demonstrated that prenatal exposure to $PM_{2.5}$ (from both household and ambient sources) is associated with low birth weight and preterm birth, with millions of annual cases attributable to pollution-related exposures. Their global burden analysis suggests that substantial reductions in perinatal morbidity could be achieved through air-quality improvements.

Effects on birth weight have been extensively documented across individual cohort studies and meta-analyses: each 10 $\mu g/m^3$ increase in $PM_{2.5}$ is associated with an average reduction of approximately 10–25 g in birth weight. Multiple high-quality studies have shown that this effect remains significant even at relatively low PM exposure levels.

Analyses from Chinese and European cohorts frequently report trimester-specific variations, with third-trimester exposure exerting the strongest impact on birth-weight reduction.

Preterm birth associations were also consistently identified. Meta-analyses report that each 10 $\mu g/m^3$ rise in $PM_{2.5}$ increases the risk of preterm birth by approximately 5–12%. Ghosh et al.'s global assessment highlighted that pollution-induced preterm cases constitute a considerable annual burden worldwide. Socioeconomic status and additional exposures—such as household air pollution from solid-fuel cooking—amplify these effects, contributing to greater disparities in low- and middle-income regions.

Placental particle accumulation and transplacental transfer have been demonstrated through laboratory and biomaterial studies, providing strong mechanistic evidence.

Bové et al. (2019) detected black carbon particles on the fetal side of the placenta, suggesting direct materno-fetal translocation pathways.

Later analyses by Bongaerts et al. (2022) confirmed that carbonaceous particles inhaled by the mother can migrate into fetal tissues and accumulate in developing organs. These findings biologically reinforce epidemiological associations by establishing a direct exposure mechanism.

Neurodevelopmental outcomes have also been linked to prenatal $PM_{2.5}$ exposure. Several cohort studies reported associations between prenatal pollution and reduced child IQ, increased attention-deficit symptoms, and autism spectrum disorder risk. Although effect sizes vary, they consistently indicate heightened vulnerability during organogenesis and underscore the long-term consequences of perinatal environmental interference.

Summary of Key Studies and Effect Estimates (Simplified)

Author (Year) — Design	**Population / Measurement**	**Key Effect (Simplified)**
Ghosh et al. (2021) — meta-regression / global burden	204 countries, multiple datasets	$PM_{2.5}$ (household + ambient) significantly contributes to annual global preterm and low birth weight burden (millions of cases).
Bové et al. (2019) — histological analysis	Placental tissue, black carbon imaging	Black carbon detected on fetal side of placenta — evidence of materno-fetal translocation.
Bongaerts et al. (2022) — observational (two cohorts)	Maternal and fetal tissues	Carbon particles shown to cross into the fetus and accumulate in fetal organs.

Maleki et al. (2021) — systematic review	Multiple cohort and case–control studies	Consistent associations between PM exposure and reduced birth weight + increased PTB risk.
Gong et al. (2022) — term birth weight analysis	Regions / multiple cohorts	$PM_{2.5}$ negatively affects term birth weight, even at low exposure levels.

Additional Statistical Observations. Meta-analytic syntheses commonly report high heterogeneity (I^2), driven by differences in study design, exposure assessment methods (monitoring vs. modeling), covariate adjustments, and regional variation. As a result, effect sizes differ across studies—larger effects often appear in resource-limited settings where indoor air pollution is prevalent.

Trimester-specific analyses frequently show that exposure timing matters: **1st trimester** — associated with disruptions in organogenesis and early functional impairments; **3rd trimester** — associated with slowed fetal growth and lower birth weight.

This heterochronic sensitivity highlights the importance of assessing prenatal exposure windows when evaluating pollution-related risk.

DISCUSSION

The findings of this study confirm the multi-layered, complex, and scientifically grounded impact of ambient air pollution on pregnancy and fetal development. The integrated evidence from epidemiological analyses, meta-regression results, and biological mechanisms consistently shows that prenatal exposure to $PM_{2.5}$, PM_{10}, and NO_2 adversely affects fetal growth and perinatal outcomes. The fact that these associations are observed across diverse regions, socioeconomic settings, and methodological approaches underscores that this issue has become one of the major determinants in global maternal–fetal health.

Meta-analyses indicate that every 10 μg/m³ increase in $PM_{2.5}$ is associated with a 10–25 g reduction in birth weight. Although this may appear minimal at the individual level, such incremental shifts translate into a substantial increase in national low-birth-weight (LBW) burden at the population level. In particular, the meta-regression by Ghosh et al. (2021), covering 204 countries, found that air pollution contributes millions of annual preterm and LBW cases globally. Overall, these findings characterize air pollution as a “large-scale epidemiologic force” — a slow, yet consistently acting perinatal risk factor.

Trimester-specific heterogeneity is another critical conclusion. First-trimester exposure may disrupt organogenesis, gene expression, and epigenetic programming. Third-trimester exposure is often linked to impaired fetoplacental perfusion and slowed fetal growth.

Chinese and European cohort studies have repeatedly shown that third-trimester $PM_{2.5}$ exposure has the strongest influence on birth weight. This is biologically plausible because the fetus gains most of its mass during this period, and perfusion deficits can lead directly to growth restriction.

Placental mechanisms strongly support the epidemiological evidence. Black carbon accumulation on the fetal side of the placenta and the documented translocation of particles into fetal tissues provide direct mechanistic explanations for observed adverse developmental outcomes. These biological pathways reinforce the consistency of epidemiological associations and highlight the plausibility of causal relationships.

Climatic and socioeconomic conditions act as additional modulators. Large urban centers with high traffic density tend to accumulate environmental and perinatal risks. Indoor pollution—stemming from solid-fuel use, poor ventilation, and crowded living conditions—further amplifies

these risks, especially in low-income settings. This aligns with global burden analyses showing that perinatal risks more than double when ambient and indoor pollution coexist.

Despite these strong findings, several limitations must be considered.

First, many studies assess exposure at the regional rather than individual level, creating potential for exposure misclassification. Second, genetic susceptibility and epigenetic adaptation are not sufficiently captured in most models.Third, pollutant mixtures ($PM_{2.5}$ + NO_2 + O_3) and their combined effects remain understudied, although fetuses are exposed to complex aerosol mixtures rather than isolated compounds.

Nevertheless, the volume, quality, and global consistency of existing evidence clearly indicate that air pollution is a clinically meaningful risk factor for fetal development during pregnancy. It significantly influences epidemiological trends in perinatal outcomes and must take central priority in strategies aimed at protecting maternal and child health.

CONCLUSION

Ambient air pollution is one of the major ecological risk factors affecting the delicate biological processes of pregnancy. Prenatal exposure to $PM_{2.5}$, PM_{10}, NO_2, and other pollutants is consistently associated with adverse perinatal outcomes—including reduced birth weight, preterm birth, intrauterine growth restriction, and placental dysfunction—as confirmed by multiple meta-analyses, global burden assessments, and histological studies.

1. Prenatal exposure to pollutants has statistically and clinically significant effects, leading to reduced birth weight, increased risk of preterm birth, and higher incidence of IUGR. Meta-analyses show that each 10 μg/m³ rise in $PM_{2.5}$ reduces birth weight by 10–25 g and increases preterm birth risk by 5–12%, findings replicated across different climates, demographics, and regions.
2. Placental transfer and placental dysfunction mechanisms form the pathophysiological basis for developmental delays. The detection of ultrafine black carbon particles on the fetal side of the placenta—along with associated oxidative stress, inflammation, and alterations in gene expression—provides direct biological evidence of prenatal harm.
3. Environmental and socioeconomic factors jointly intensify perinatal risks, especially in large cities and low-income regions. Combined exposure to outdoor and indoor pollutants (notably from solid-fuel use) creates dual pressure on fetal development and deepens health inequities.

REFERENCES.

1. Wu CT, Wu TS, Ku MS. The Impact of Fine Particulate Matter on Embryonic Development. Int J Mol Sci. 2024 Jun 10;25(12):6399. doi: 10.3390/ijms25126399. PMID: 38928108; PMCID: PMC11204323.
2. Fussell JC, Jauniaux E, Smith RB, Burton GJ. Ambient air pollution and adverse birth outcomes: A review of underlying mechanisms. BJOG. 2024 Apr;131(5):538-550. doi: 10.1111/1471-0528.17727. Epub 2023 Nov 30. PMID: 38037459; PMCID: PMC7615717.
3. Desye, B., Berihun, G., Geto, A. K., Berhanu, L., & Daba, C. (2024). Exposure to ambient air pollutions and its association with adverse birth outcomes: a systematic review and meta-analysis of epidemiological studies. Frontiers in Public Health, 12, 1488028. https://doi.org/10.3389/fpubh.2024.1488028
4. Sundar, J. S., & Hema Priya, A. (2024). Impact of ambient and indoor air pollution on birth weight: a systematic review. International Journal of Community Medicine and Public Health. https://doi.org/10.18203/2394-6040.ijcmph20241853
5. Prenatal exposure to particulate matter and term low birth weight: systematic review and meta-analysis. (2020). Environmental Science and Pollution Research. https://doi.org/10.1007/s11356-020-09076-6

6. Maternal exposure to ambient PM2.5 and term birth weight: A systematic review and meta-analysis of effect estimates. (2021). Environmental Pollution. https://doi.org/10.1016/j.envpol.2021.118697

7. Ambient fine particulate matter and pregnancy outcomes: An umbrella review. (2023). Environmental Research. https://doi.org/10.1016/j.envres.2023.116180

8. Prenatal PM2.5 Exposure and Its Association with Low Birth Weight: A Systematic Review and Meta-Analysis. (2024). Environmental Health and Preventive Medicine. https://doi.org/10.1186/s12199-024-01551-8

9. Parasin, N., & Amnuaylojaroen, T., & Saokaew, S. (2024). Prenatal $PM_{2.5}$ Exposure and Its Association with Low Birth Weight: A Systematic Review and Meta-Analysis. Toxics, 12(7), 446. https://doi.org/10.3390/toxics12070446

10. Ghosh R, Causey K, Burkart K, Wozniak S, Cohen A, Brauer M. Ambient and household PM2.5 pollution and adverse perinatal outcomes: A meta-regression and analysis of attributable global burden for 204 countries and territories. PLoS Med. 2021 Sep 28;18(9):e1003718. doi: 10.1371/journal.pmed.1003718. Erratum in: PLoS Med. 2021 Nov 2;18(11):e1003852. doi: 10.1371/journal.pmed.1003852. PMID: 34582444; PMCID: PMC8478226.

11. Liu T, Xu Y, Gong Y, Zheng J, Chen Z. The global burden of disease attributable to preterm birth and low birth weight in 204 countries and territories from 1990 to 2019: An analysis of the Global Burden of Disease Study. J Glob Health. 2024 Jul 12;14:04109. doi: 10.7189/jogh.14.04109. PMID: 38991211; PMCID: PMC11239190.

12. Parasin N, Amnuaylojaroen T, Saokaew S. Prenatal $PM_{2.5}$ Exposure and Its Association with Low Birth Weight: A Systematic Review and Meta-Analysis. Toxics. 2024 Jun 21;12(7):446. doi: 10.3390/toxics12070446. PMID: 39058098; PMCID: PMC11280910.

13. Maleki M, Anvari E, Hopke PK, Noorimotlagh Z, Mirzaee SA. An updated systematic review on the association between atmospheric particulate matter pollution and prevalence of SARS-CoV-2. Environ Res. 2021 Apr;195:110898. doi: 10.1016/j.envres.2021.110898. Epub 2021 Feb 18. PMID: 33610583; PMCID: PMC7891063.

14. Gong C., et al. (2022). Maternal exposure to ambient $PM_{2.5}$ and term birth weight. *Science of the Total Environment*, *838*, 156012. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2022.156012

15. Ghosh R., Causey K., Burkart K., Wozniak S., Cohen A., & Brauer M. (2021). Ambient and household PM2.5 pollution and adverse perinatal outcomes: A meta-regression and analysis of attributable global burden for 204 countries and territories. *PLOS Medicine, 18*(7), e1003718. https://doi.org/10.1371/journal.pmed.1003718

16. Bongaerts E., Lecante, L. L., Bové H., Roeffaers M. B. J., Ameloot M., Fowler P. A., & Nawrot T. (2022). Maternal exposure to ambient black carbon particles and their presence in maternal and fetal circulation and organs: an analysis of two independent population-based observational studies. *The Lancet Planetary Health, 6*(10), e804–e811. https://doi.org/10.1016/S2542-5196(22)00200-5

17. Bové, H., Bongaerts, E., Slenders, E. *et al.* Ambient black carbon particles reach the fetal side of human placenta. *Nat Commun* 10, 3866 (2019). https://doi.org/10.1038/s41467-019-11654-3

18. World Health Organization. (2024, October 24). *Ambient (outdoor) air quality and health*. WHO. https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ambient-%28outdoor%29-air-quality-and-health

AHOLINING EKOLOGIK XAVFSIZLIGINI OSHIRISHDA SANITARIYA-PROFILAKTIKA CHORALARINING O‘RNI

Maxamatov Umidjon Shoirjonovich, G‘aniyeva Dilnavozxon Dilmurod qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik omillarning aholi salomatligiga ko‘rsatadigan ta’siri, atrof-muhit ifloslanishining inson organizmidagi fiziologik jarayonlarga ta’siri hamda sanitariya-profilaktika choralari orqali ushbu xavflarni kamaytirishning ilmiy asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida atmosfera havosi, ichimlik suvi va tuproqning gigiyenik holati o‘rganilib, ularning sifatsizligi bilan kasalliklar tarqalishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, aholining ekologik madaniyati va gigiyenik ko‘nikmalarining sog‘liqni saqlashdagi ahamiyati asoslab berildi. Maqolada ekologik monitoring, gigiyenik baholash, laborator-kimyoviy tahlil, statistik tahlil va sotsiologik so‘rov kabi metodlar qo‘llanilgan. Olingan natijalar asosida ekologik xavfsizlikni ta’minlash, kasalliklarning oldini olish, sanitariya-profilaktika nazoratini takomillashtirish va aholining ekologik xabardorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Mazkur ish kelajakda ekologik sog‘lom muhit yaratish, kasalliklarni erta aniqlash va ularning profilaktikasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik xavfsizlik, sanitariya-profilaktika, atmosfera ifloslanishi, ichimlik suvi, tuproq gigiyenasi, ekologik monitoring, respirator kasalliklar, ichak infeksiyalari, og‘ir metallar, pestitsidlar, gigiyenik baholash, profilaktika choralari, ekologik madaniyat.

Аннотация: В данной статье рассмотрено влияние экологических факторов на здоровье населения, а также отражено воздействие загрязнения окружающей среды на физиологические процессы организма человека. Обоснована роль санитарно-профилактических мероприятий в снижении экологических рисков и предупреждении заболеваний, связанных с воздействием неблагоприятных факторов среды. В ходе исследования изучены гигиеническое состояние атмосферного воздуха, питьевой воды и почвы, а также проанализирована взаимосвязь между их качеством и распространённостью различных заболеваний. Дополнительно оценены уровень экологической культуры населения, соблюдение гигиенических навыков и их значимость для охраны здоровья. В исследовании применялись методы экологического мониторинга, гигиенической оценки, лабораторно-химического анализа, статистического анализа и социологического опроса. На основе полученных результатов разработаны предложения по повышению экологической безопасности, улучшению системы санитарно-профилактического контроля, снижению уровня заболеваемости и повышению экологической осведомлённости населения. Работа способствует формированию научно обоснованных подходов к созданию экологически благоприятной среды и совершенствованию профилактических мер.

Ключевые слова: экологическая безопасность, санитарно-профилактические мероприятия, загрязнение воздуха, качество питьевой воды, гигиена почвы, экологический мониторинг, респираторные заболевания, кишечные инфекции, тяжёлые металлы, пестициды, гигиеническая оценка, профилактика, экологическая культура.

Abstract: This article examines the influence of environmental factors on public health and highlights the effects of environmental pollution on human physiological processes. The role of sanitary and preventive measures in reducing ecological risks and preventing diseases caused by adverse environmental conditions is substantiated. The study evaluates the hygienic condition of ambient air, drinking water, and soil, as well as the correlation between their quality and the prevalence of various diseases. Additionally, the level of environmental awareness among the population, compliance with hygiene practices, and their significance for health protection are

assessed. The research employed methods of environmental monitoring, hygienic assessment, laboratory and chemical analysis, statistical analysis, and sociological surveys. Based on the findings, proposals were developed to improve environmental safety, enhance sanitary and preventive control systems, reduce disease incidence, and increase ecological awareness among the population. This work contributes to the development of scientifically grounded approaches to creating an environmentally favourable environment and strengthening preventive measures.

Keywords: environmental safety, sanitary and preventive measures, air pollution, drinking water quality, soil hygiene, environmental monitoring, respiratory diseases, intestinal infections, heavy metals, pesticides, hygienic assessment, prevention, environmental awareness.

KIRISH.

Atrof-muhit xavfsizligi va uning aholining sog‘ligiga ta’siri zamonaviy tibbiy profilaktika va jamoat salomatligining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi o‘n yilliklarda sanoatning jadallashuvi, urbanizatsiya jarayonlari, transport vositalari sonining ortishi, intensiv qishloq xo‘jaligi faoliyati, energetika sarfining ko‘payishi natijasida ekologik muhit sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, atrof-muhit omillari aholi orasida yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning rivojlanishiga, umr davomiyligiga, immun tizimi faolligiga, bolalar salomatligiga va surunkali kasalliklar xavfiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli ekologik xatarlar sharoitida sanitariya-profilaktika choralarini takomillashtirish bugungi kunda tibbiy-biologik tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan biridir.

Adabiyotlarda havoning ifloslanishi inson sog‘lig‘iga eng ko‘p ta’sir qiluvchi omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi. PM2.5, PM10 zarrachalari, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, ozon, uglerod oksidi kabi moddalarning yuqori konsentratsiyasi nafas yo‘llari kasalliklari, astma, bronxit, yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshirishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab insonlar havoning bo‘shqa darajada ifloslanishi sababli erta vafot etmoqda. Sanoat hududlarida olib borilgan epidemiologik tadqiqotlar esa ifloslanish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan joylarda surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi, allergik kasalliklar va yurak ishemik kasalliklari uchrash tezligi yuqoriligini ko‘rsatgan. Bu esa havo monitoringi, ekologik me’yorlarga rioya etish va gigiyenik nazoratning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Suvning gigiyenik sifati ham adabiyotlarda eng ko‘p o‘rganilgan ekologik omillar sirasiga kiradi. Ichimlik suvining mikrobiologik ifloslanishi, unda nitratlar, pestitsidlar, og‘ir metallar, organik va kimyoviy moddalar mavjudligi ko‘plab yuqumli kasalliklar, metabolik buzilishlar, bolalarda rivojlanish nuqsonlari, jigar va buyrak kasalliklariga olib kelishi mumkinligi ilmiy asoslangan. Xalqaro tadqiqotlar ichimlik suvini tozalash tizimlarining eskirganligi, dezinfeksiya yetarli darajada olib borilmasligi, suv tarmoqlarining yaroqsizligi infeksion kasalliklar tarqalishiga zamin yaratishini ko‘rsatadi. Ayniqsa gepatit A, ich terlama, dizenteriya, parazitar kasalliklar suv orqali yuqish xavfi yuqori bo‘lgan kasalliklar sirasiga kiradi. Shuningdek, suvda qo‘rg‘oshin, mishyak, simob kabi toksik elementlarning mavjudligi uzoq muddatli ta’sirda saraton, endokrin buzilishlar, asab tizimi zararlanishi kabi og‘ir oqibatlarga olib kelishi haqida adabiyotlarda ko‘plab dalillar mavjud.

Tuproqning kimyoviy va biologik ifloslanishi ham ekologik xavf omili sifatida keng yoritilgan. Qishloq xo‘jaligida haddan tashqari o‘g‘it va pestitsidlardan foydalanish, sanoat chiqindilarining nazoratsiz tashlanishi, metallurgiya korxonalarining faoliyati tuproqda og‘ir metallar to‘planishiga olib keladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, bunday tuproqlarda yetishtirilgan mahsulotlarda toksik elementlarning to‘planishi kuzatiladi, bu esa odam organizmida immun, endokrin va gematologik tizimlarga zarar yetkazishi mumkin. Ayniqsa bolalar tuproq orqali yuqadigan toksinlarga ko‘proq sezgir bo‘lib, tuproqning gigiyenik holati bolalar salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ekologik gigiyena bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni oshirishning muhimligini ta’kidlaydi. Adabiyotlarda qayd etilishicha, ekologik ma’lumotga ega aholi guruhlari ichimlik suvidan foydalanishda ehtiyot choralariga rioya qiladi, chiqindilarni saralashga moyil bo‘ladi, havo ifloslanishi yuqori joylarda o‘zini himoya qilish choralarini ko‘radi. Ekologik savodxonlik past bo‘lgan hududlarda esa kasallanish ko‘rsatkichlari yuqori, gigiyenik talablar past darajada ekani aniqlangan. Shu sababli ekologik ta’lim va ommaviy gigiyena targ‘iboti sanitariya-profilaktika tizimining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda.

Oxirgi yillarda ekologik monitoringning raqamlashtirilishi va ilmiy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ham ko‘plab ilmiy ishlar chop etilgan. GIS texnologiyalari, raqamli xaritalash, masofadan zondlash, onlayn monitoring tizimlari, avtomatlashtirilgan tahlil uskunalari orqali ifloslanishning tarqalish dinamikasi, xavf zonalarini aniqlash, profilaktik choralar samaradorligini baholash ancha osonlashgan. Adabiyotlarda bunday integrallashgan monitoring tizimlari ekologik xavflarni erta aniqlash, sanitariya-gigiyena choralarini to‘g‘ri rejalashtirish va jamoat salomatligini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Ekologik omillarning surunkali kasalliklar rivojlanishiga ta’siri bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ham juda keng. Xususan, havoning ifloslanishi yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, saraton kasalliklari, gepatotoksik buzilishlar va nevrologik kasalliklar xavfini oshirishi bo‘yicha ko‘plab dalillar keltirilgan. Bu esa ekologik xavflarning faqat jadal yuqumli kasalliklar emas, balki uzoq muddatli fiziologik o‘zgarishlarga ham sabab bo‘lishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ekologik omillar tibbiy profilaktikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, samarali sanitariya-gigiyenik nazorat, monitoring tizimlarini kuchaytirish, aholi ekologik madaniyatini rivojlantirish va ilmiy asoslangan profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Ekologik xavflarning ortib borishi ushbu sohada yangi yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va kompleks tadqiqotlarga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bois ushbu tadqiqot atrof-muhit omillarining salomatlikka ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish va profilaktik choralarni takomillashtirishga qaratilgan.

TADQIQOT OBYEKTI

Ushbu tadqiqotning obyektini atrof-muhitning asosiy komponentlari — atmosfera havosi, ichimlik suvi, tuproq qatlami hamda ushbu komponentlarning gigiyenik holatiga bevosita ta’sir qiluvchi ekologik omillar tashkil etdi. Shuningdek, aholining ekologik madaniyati, sanitariya-gigiyena qoidalariga amal qilishi, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari va profilaktik choralarga munosabati ham tadqiqot obyektining muhim bo‘lagi sifatida o‘rganildi. O‘zgarayotgan ekologik sharoitda aholi sog‘ligining himoyalanganlik darajasini baholash uchun turli yosh guruhlari (o‘smirlar, kattalar, keksalar) orasida sog‘liq-xavfsizlik ko‘rsatkichlari ham monitoring qilingan. Shu bilan birga, sanoat zonalari yaqinidagi mahallalar, katta transport qatnovi mavjud hududlar, qishloq xo‘jaligida pestitsidlardan ko‘p foydalaniladigan tumanlar va ekologik toza hududlar taqqoslab o‘rganildi. Bu esa hududlar bo‘yicha ekologik xavf darajasining farqini ham aniqlash imkonini berdi.

TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot metodikasida ekologik gigiyena, tibbiy-biologik monitoring va statistik tahlilning bir nechta zamonaviy usullari qo‘llanildi. Birinchi bosqichda atmosfera havosining ifloslanish darajasi maxsus sertifikatlangan portativ gaz-analizatorlar yordamida o‘lchandi. Havo tarkibidagi PM2.5, PM10 zarrachalari, karbon monoksid, azot oksidlari, oltingugurt dioksidi, ozon kabi moddalar konsentratsiyasi o‘rganildi. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekiston Respublikasi sanitar-gigiyenik me’yorlari hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari bilan taqqoslanib baholandi. Keyingi bosqichda ichimlik suvining gigiyenik ko‘rsatkichlari (mikrobiologik holat, umumiy qattiqlik, nitratlar darajasi, temir, margumush, og‘ir metallar, mineral tuzlar, qoldiq xlor miqdori) laboratoriya sharoitida tahlil qilindi. Suv namunalarida E.coli, koliform bakteriyalar,

qo‘rg‘oshin, mishyak, simob kabi xavfli moddalar va mikroorganizmlar mavjudligi alohida aniqlab borildi. Tuproq tarkibini aniqlashda esa pestitsid qoldiqlari, og‘ir metallar, neft uglevodorodlari, nitratlar va ionlar miqdori laboratoriya uskunalarida tahlil qilindi.

Aholining gigiyenik madaniyatini aniqlash maqsadida sotsiologik so‘rovnoma ishlatildi. So‘rovnomada 16 ta savoldan iborat bo‘lib, unda odamlarning shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishi, suvni qaynatish odati, chiqindilarni saralash, havoning ifloslanishidan himoyalanish choralariga munosabat, ekologik ta’lim darajasi va profilaktika bo‘yicha bilimlari baholandi. So‘rovnoma natijalari SPSS statistik dasturi yordamida qayta ishlanib, o‘zaro bog‘liqlik va tendensiyalar aniqlanildi. Bundan tashqari, shifokorlar, epidemiologlar va ekolog olimlarning fikr-mulohazalari ekspert baholash usuli orqali o‘rganildi. To‘plangan ma’lumotlar ekologik monitoringning raqamli xaritalash modellarida aks ettirildi va xavfli hududlar maxsus GIS dasturi yordamida belgilab chiqildi.

TADQIQOT NATIJASI VA TAVFSIYALAR

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ekologik omillar va aholi salomatligi o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Atmosfera havosida PM2.5 va NO2 ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan hududlarda nafas yo‘llari kasalliklari, ayniqsa bronxit, astma va allergik kasalliklar uchrash darajasi 1,8–2,4 baravar yuqori ekani aniqlandi. Avtomobil harakati zich bo‘lgan hududlarda o‘tkazilgan o‘lchovlarda PM2.5 miqdori ba’zi kunlarda sanitariya me’yoridan 2,7 baravar oshgani qayd etildi. Bu, ayniqsa, bolalar va keksalar sog‘ligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Shuningdek, havosi nisbatan toza bo‘lgan yashil hududlar aholisi orasida yurak-qon tomir kasalliklari ko‘rsatkichi past bo‘lgani kuzatildi.

Ichimlik suvi tahlillari shuni ko‘rsatdiki, ayrim qishloq joylarda suv tarkibida nitratlar me’yoridan 3–4 baravar oshgan. Bu esa bolalarda metgemoglobinemiya va oshqozon-ichak kasalliklari xavfini kuchaytiradi. Shahardagi eski suv tarmoqlarida koliform bakteriyalar topilgan holatlar ham qayd etildi, bu esa infeksion tarqalish xavfini oshiradi. Tadqiqot hududidagi suvlarning 18 foizida qoldiq xlorning me’yordan pastligi aniqlanib, dezinfeksiya jarayoni yetarli emasligi ma’lum bo‘ldi.

Tuproq tahlillari natijalari ham ekologik vaziyatning murakkabligini ko‘rsatdi. Qishloq xo‘jaligida ko‘p miqdorda azotli o‘g‘itlar qo‘llanadigan hududlarda tuproqdagi nitratlar miqdori sanitariya me’yoridan 2–3 baravar, ayrim joylarda esa pestitsid qoldiqlari me’yordan 5 baravargacha oshgan. Sanoat korxonalari yaqinidagi tuproqlarda qo‘rg‘oshin va kadmiy darajasi yuqori ekani qayd etildi. Bu hududlarda yashovchi aholida teri kasalliklari, allergik reaksiyalar va gematologik o‘zgarishlar ko‘proq kuzatilgani aniqlangan.

Sotsiologik so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, aholining 46 foizi atrof-muhitning sog‘liq uchun xavf darajasini yetarli darajada bilmasligi, 38 foizi chiqindilarni saralamasligi, 57 foizi havoning ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlarda himoya niqobidan muntazam foydalanmasligi aniqlandi. Ekologik savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan respondentlar orasida esa yuqoridagi ko‘rsatkichlar ancha yaxshi bo‘lgan. Bu esa ekologik madaniyat profilaktika samaradorligini bevosita belgilashini ko‘rsatadi.

O‘tkazilgan monitoring natijalari asosida bir qator gigiyenik, sanitariya-profilaktik va tashkiliy choralar bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, havo sifatini yaxshilash maqsadida yashil hududlar sonini oshirish, avtoulovlar uchun ekologik toza yoqilg‘i turiga o‘tish bo‘yicha targ‘ibot kuchaytirish, suv tarmoqlarini yangilash, mikrobiologik dezinfeksiyani kuchaytirish va mahallalarda ekologik ma’rifat darslarini joriy etish tavsiya qilindi. Shuningdek, xavfli ekologik zonalarda aholiga maxsus gigiyenik tavsiyalar berish, onlayn monitoring tizimlarini joriy etish va ekologik xavf xaritalarini yangilab borish lozimligi ta’kidlandi.

XULOSA

Olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar atrof-muhit omillarining aholining umumiy salomatligiga ta’siri yuqori ekanini va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda sanitariya-profilaktika choralarining hal qiluvchi o‘rin tutishini yaqqol ko‘rsatdi. Atmosfera havosi, ichimlik suvi va tuproqning gigiyenik holati ko‘plab hududlarda sanitariya me’yorlaridan chetga chiqayotgani, havodagi mayda zarrachalar (PM2.5, PM10) miqdorining ortishi, suvdagi nitratlar va koliform bakteriyalar sonining ko‘payishi hamda tuproqdagi og‘ir metallar, pestitsidlar qoldiqlari mavjudligi aholi sog‘ligiga jiddiy xavf tug‘dirayotgani aniqlangan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ekologik ifloslanish yuqori bo‘lgan hududlarda nafas yo‘llari, allergik, yurak-qon tomir va oshqozon-ichak kasalliklari ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori. Ichimlik suvining gigiyenik talabga javob bermasligi bolalar orasida metgemoglobinemiya, ichak infeksiyalari va parazitar kasalliklar tarqalishiga sabab bo‘layotganini tasdiqladi. Tuproqdagi pestitsid qoldiqlari esa oziq-ovqat mahsulotlari orqali odam organizmiga o‘tib, uzoq muddatli toksik ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sotsiologik tahlillar aholining ekologik madaniyati yetarli emasligini, aholining yarmidan ko‘pi ekologik xavflarni to‘g‘ri baholay olmasligini va gigiyenik profilaktika choralariga to‘liq amal qilmasligini ko‘rsatdi. Bu esa profilaktika samaradorligini pasaytiradi. Raqamli monitoring va GIS texnologiyalarining ekologik gigiyenadagi qo‘llanilishi xavf zonalarini aniqlash, aholi salomatligini himoya qilish bo‘yicha tezkor choralarni ishlab chiqish uchun katta imkoniyat yaratayotgani aniqlandi.

Yuqoridagi natijalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:
— atmosfera havosining sifati bo‘yicha avtomatlashtirilgan monitoring tizimini kengaytirish;
— suv ta’minoti tarmoqlarini modernizatsiya qilish, dezinfeksiya jarayonini kuchaytirish;
— qishloq xo‘jaligi hududlarida pestitsidlardan foydalanishni qat’iy nazorat qilish;
— ekologik xavf xaritalarini muntazam yangilab borish;
— aholining ekologik madaniyatini oshirish bo‘yicha ta’lim-targ‘ibot dasturlarini kengaytirish;
— sanitariya-gigiyena xizmatlari faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida kuchaytirish.

Shunday qilib, kompleks ekologik monitoring va ilmiy asoslangan sanitariya-profilaktika choralarini amalga oshirish orqali aholining ekologik omillardan himoyalanganlik darajasini oshirish va turli kasalliklar xavfini kamaytirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Всемирная организация здравоохранения. Загрязнение воздуха и здоровье населения. Женева: WHO Press, 2022. — 145 с.
2. Министерство здравоохранения Республики Узбекистан. Санитарные нормы и правила по качеству питьевой воды. Ташкент, 2021. — 67 с.
3. Бережнова, Е. И. Экологическая гигиена: Учебное пособие. — Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2020. — 328 с.
4. Kampa, M., Castanas, E. Human health effects of air pollution. Environmental Pollution. — 2019. — №157. — С. 362–367.
5. United Nations Environment Programme. Global Environment Outlook 6. — Nairobi: UNEP, 2019. — 708 p.
6. Садыкова, Н. М., Юсупов, М. А. Гигиеническая оценка качества атмосферного воздуха в условиях городской среды. Журнал гигиены и санитарии. — 2020. — №5. — С. 22–27.
7. Landrigan, P. J., Fuller, R. Pollution and global health: A review. Lancet Public Health. — 2021. — Vol. 6(6). — P. 460–475.
8. Мирзаев, Х. М. Экология ва одам саломатлиги: монография. — Тошкент: Фан, 2018. — 254 б.

9. Tosi, M., Arriola, A. Water contamination and public health risks. Journal of Environmental Safety. — 2020. — Vol. 45(3). — P. 113–126.
10. O‘zbekiston Ekologiya vazirligi. Atrof-muhit monitoringi hisobotlari. — Toshkent, 2023. — 92 b.
11. GOST 7.1–2003. Библиографическая запись. Библиографическое описание. Общие требования и правила составления. — Москва: Стандартинформ, 2004. — 24 с.
12. European Environment Agency. Air Quality in Europe Report. — Copenhagen, 2020. — 125 p.

XORAZM VILOYATIDA KO‘P YILLIK HARORAT, YOG‘INGARCHILIKNING IQLIM O‘ZGARISHI VA ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Madrimov Rajabboy Masharipovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm viloyatida so‘nggi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan iqlim o‘zgarishi jarayonlarini ta’sir ko‘rsatishi, haroratning ko‘tarilishi, yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarishi, bug‘lanish jarayonlarining kuchayishi atrof-muhit, qishloq xo‘jaligi va suv resurslariga salbiy ta’sirlari to‘g‘risida fikrlar bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Tuproq, iqlim o‘zgarishi, harorat, yog‘ingarchilik, bug‘lanish, atrof-muhit, suv resurslari*

Аннотация. *В статье рассматриваются процессы изменения климата, наблюдаемые в Хорезмской области за последние десятилетия, их влияние, повышение температуры, изменение количества осадков и усиление процессов испарения, а также их негативное воздействие на окружающую среду, сельское хозяйство и водные ресурсы.*

Ключевые слова: *почва, изменение климата, температура, осадки, испарение, окружающая среда, водные ресурсы.*

Abstract. *The article examines the processes of climate change observed in the Khorezm region over the past decades, their impacts, the rise in temperature, changes in the amount of precipitation, and the intensification of evaporation processes, as well as their negative effects on the environment, agriculture, and water resources.*

Key words: *soil, climate change, temperature, precipitation, evaporation, environment, water resources.*

KIRISH

Global iqlim o‘zgarishi mintaqaviy darajada haroratning oshib borishi va yog‘ingarchilik rejimlarining o‘zgarishiga olib kelmoqda. Xorazm viloyati sharoitida bu o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligi va suv resurslariga katta ta’sir ko‘rsatadi [1,2]. Shu sababli, yillar bo‘yicha yog‘ingarchilik va haroratning dinamikasini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil uchun Xorazm viloyatida kuzatuv nuqtalari bo‘yicha olingan ko‘p yillik (1901-2020yy) ma’lumotlardan foydalanildi. Yog‘ingarchilik yillik yig‘indisi va haroratning o‘rtacha yillik ko‘rsatkichi aniqlandi. Olingan ma’lumotlar asosida dinamika grafiklari va korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi.

TADQIQOTNING USULLARI

Izlanishlar ko‘p yillik geostatistik, geografik va kartografik iqlim ma’lumotlarini matematik-statistik usullarda tahlil qilish orqali bajarildi. Aerokosmik materiallar va GAT texnologiyalarida foydalanilgan[6].

OLINGAN MA’LUMOTLAR VA ULARNING MUHOKAMASI.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida, Amudaryoning quyi qismi, 60^0-61^0 sharqiy, 40^0-41^0 shimoliy kenglikda joylashgan. Umumiy yer maydoni 608,2 ming gektarni

tashkil etadi. Iqlim havoning statistik ko‘p yillik rejimi bo‘lib, vohaning asosiy geografik tavsifi, tuproqqa ta’sir etuvchi atmosfera jarayonlari shuningdek, issiqlik va suv hamda tuproq paydo qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Xorazm viloyatining shimol va sharq tomonlarida tabiiy to‘siqlarning yo‘qligi, shimoldan Arktika va Sibir tomonidagi sovuq havo massalarining kirib kelishi imkoniyatlar yaratadi. Vohaning iqlimi keskin kontinental bo‘lib, yozi juda issiq va qishi sovuq, yillik harorat amplitudasi juda yuqori, eng yuqori va eng past haroratlar orasidagi farq 78°S gacha yetadi. Hudud iqlimida Qizilqum va Qoraqum cho‘llari ahamiyati nihoyatda katta bo‘lib, qumlar bilan o‘ralganligi havo haroratini 43-45°S gacha ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Shu davr mobaynida o‘rtacha eng yuqori harorat iyul oyida +35.6^{0}S ni, o‘rtacha eng past harorat esa, yanvar oyida -5.9^{0}Sni tashkil etgan. O‘rtacha eng yuqori havo harorati iyulda +28^{0}S ni, o‘rtacha eng past harorat yanvar oyida -4.1^{0}S ni tashkil etgan. Viloyatning janubiy hududlarida yanvar oyidagi o‘rtacha harorati — 3°S ni, qolganlarida esa, — 4 — 5°S dan iborat, eng past harorat — 32°S — 33°S gacha kuzatilgan (1-rasm).

Viloyatda yillik sovuqsiz kunlar o‘rtacha 200 kunni, chekka janubda 204, shimoliy hududlarda esa, 195 kundan iborat bo‘ladi. Hududning shimoldan janubga tomon cho‘zilganligidan, sovuqsiz kunlarning turlicha bo‘lishi kuzatiladi.

Xorazm viloyati iqlim va tabiati o‘ziga xos xususiyatlaridan, okean va dengiz sarhadlaridan uzoqda joylashganligi tufayli tipik kontinental o‘lkalar qatoriga kiradi. Yozning issiq, qishning sovuq kelishi, sutka davomida ob-havoning keskin o‘zgarib turishi, yog‘in-sochin kamligi va havoning quruqligi — viloyat iqlimining asosiy xususiyatlaridir. Bunday iqlim xususiyatlari viloyatning geografik o‘rniga, quyosh nurlarining tushishiga (quyosh radiatsiyasiga) va yer yuzasining tuzilishiga bog‘liq. Hududda yil davomida quyoshli kunlar ko‘p bo‘lib, yozda quyosh ufqdan ancha baland ko‘tariladi. Yoz mavsumida quyoshning ufqdan balandligi va quyoshli kunlarning ko‘pligi sababli, hudud quyosh radiatsiyasiga boy bo‘lib, har bir kv metr yer yuzasi 140 kkal issiqlikni qabul qiladi[3,4,5].

Yer yuzasi quyoshdan keladigan yillik yalpi radiatsiyaning 70-75%ini qabul qiladi, qolgan 25-30% yer yuzasidan qaytadi. Shuning uchun viloyatda yozda ob-havo o‘zgarishi kam, qishda esa, quyosh radiatsiyasini susayishi natijasida kirayotgan har bir havo massasi haroratni hamda ob-havoni tez o‘zgartira oladi. Bundan tashqari, noyabr oyi o‘rtasidan mart oyigacha yer yuzasining nur sochish yo‘li bilan yo‘qotadigan issiqligi, unga quyoshdan keladigan issiqlikdan oshib ketishi ham qish oylarida ob-havoning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Bu ham qishda sovuq bo‘lishiga ma’lum darajada ta’sir qiladi.

Quyosh radiatsiyasining iqlim tarkibida muhim rol o‘ynashi bilan birga, viloyatning eng yirik tabiiy boyligi hisoblanadi. Yilning barcha fasllarida shimoli-sharqiy shamollar ustunlik qiladi. Ayniqsa, yozda garmsel ya’ni issiq, yoqimsiz shamol esadi, havo harorati keskii ko‘tariladi, nisbiy namlik pasayadi.



1-rasm. Xorazm viloyati uzoq yillar mobaynida harorat tendensiyasi dinamik o‘zgarishi

Xorazm viloyati respublikaning yog‘in eng kam yog‘adigan hududlardan biri sanaladi. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 80-110 mm dan iborat, bug‘lanish esa, yog‘in-sochin miqdoridan 18-19 baravar yuqori, yog‘ingarchilikning 40% i bahor fasliga, 20-25% i kuz hamda 30-35% i qishga, atigi 10% i yoz mavsumiga to‘g‘ri keladi. Iyul, avgust, sentyabr oylarida o‘rtacha oylik yog‘in miqdori 2 mm ga to‘g‘ri keladi. Eng ko‘p yog‘in mart oyida (20-25 mm) yog‘adi (2-rasm).



2-rasm. Xorazm viloyati uzoq yillar mobaynida yog‘ingarchilik tendensiyasi dinamik o‘zgarishi


Viloyatda yil davomida bir havo massasi ikkinchi havo massasi bilan almashinib turadi. Havo massalari almashinishining takrorlanishi, shamolning kuchiga, yil fasllariga, ob-havo sharoitiga, umuman hudud iqlimiga katta ta’sir qiladi. masalan, sovuq havo massalari tez-tez kelib tursa havo sovuq keladi, issiq havo massalari kelsa, aksincha havoning isib ketishiga sabab bo‘ladi. Viloyatda havo massalarining almashinishi bevosita mamlakatimiz havo massalari bilan bog‘liq[6].

Havo massalarining almashinish xususiyatlari to‘g‘risida aniq tasavvur ega bo‘lish uchun yilning, bir-biridan keskin farq qiladigan yoz va kuz mavsumlarini misol tariqasida ko‘rish

maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qishda Sibirda yuqori bosim oblasti (antitsiklon) vujudga keladi. Shu tufayli, respublikamizda atmosferaning pastki qatlamlarida ko‘pincha kuchsiz shamol esadi. Havo ochiq bo‘lsa, kechasi yer nur sochish yo‘li bilan ham soviydi. Bunday sovuq havo massasi Eron, Afg‘onistondagi iliq havodan ajratib turuvchi qutb frontidan tashkil topadi. U respublikaning janubiy chegarasidan vujudga kelib, front atrofida siklonlar hosil qiladi va uning harakatini kuchaytiradi. Ana shu issiq tropik havoni olib kelishi tufayli, havo harorati oldingisiga nisbatan 10-20°S ga ko‘tarilib, bulutlar ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Viloyatda qish oylarida havoning isib ketishi,

Erondan tropik havo massasining kirib kelishi bilan bog‘liq. Yog‘inlarning ham aksariyati ana shu havo massasi (siklonlar) o‘tganda yog‘adi, shuningdek, qish kunlarining tahminan 25% ga yaqini shunday kunlar tashkil qiladi. Viloyat hududiga siklonlarning kirib kelishi bahor mavsumida ham kuzatilishi natijasida bu mavsumda ham yog‘in ko‘p yog‘adi.

Xorazm viloyatida iqlim o‘zgarishilarini uzoq yillar mobaynida dinamik o‘zgarishlari tahlillardan ko‘rinib turibdiki, vaqt davomida harorat izchil oshib borayotganligi, yog‘ingarchilikni esa yillar bo‘yicha sezilarli darajada o‘zgaruvchan bo‘lib qolganligini kuzatish mumkin (3-rasm).



3-rasm. Xorazm viloyati uzoq yillar mobaynida yog‘ingarchilik va haroratning qiyosiy tahlillari

Xorazm viloyatida so‘nggi 30–40 yil davomida o‘rtacha yillik harorat 1,5–2,0°C ga oshgani kuzatilmoqda, yoz faslida harorat 40°C dan yuqori kunlar soni ko‘paygan (3-rasm). Qish faslida sovuq kunlar soni qisqargan, bu esa tabiiy ekotizimlarning mavsumiy ritmiga ta’sir qilmoqda. Havo haroratining o‘sishi bug‘lanish jarayonlarini jadallashtirgan, bu holat suv tanqisligini yanada kuchaytiradi. Shuningdek, yog‘ingarchilik miqdori 10–15% ga kamayganligi, bahor va yoz oylarida qurg‘oqchilik tendensiyasi sezilarli darajada oshgan (3-rasm). Yog‘ingarchilikning mavsumiy notekis taqsimlanishi ba’zi yillarda yomg‘irlar qisqa vaqtda yog‘ishi va tuproq degradatsiyasini keltirib chiqarmoqda. Qishda qorning kam yog‘ishi suv zaxiralari shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Iqlim o‘zgarishi Xorazm viloyati ekotizimlarining barqarorligiga jiddiy ta’sir etmoqda ya’ni,

- *Suv resurslari:* Amudaryo hajmining qisqarishi va suvning tez bug‘lanishi natijasida irrigatsiya tizimidagi samaradorlik pasaymoqda.
- *Qishloq xo‘jaligi:* Haroratning ortishi paxta, g‘alla va sabzavotlar hosildorligiga ta’sir qilmoqda. Qurg‘oqchilik natijasida sug‘orish ehtiyoji oshmoqda.

- *Biologik xilma-xillik:* O‘simlik va hayvonot turlari arealining o‘zgarishi, ayrim turlarning yo‘qolish xavfi kuchaymoqda.
- *Tuproq degradatsiyasi:* Namlikning kamayishi va shamol eroziyasi natijasida qumli maydonlar kengaymoqda.

Iqlim o‘zgarishining salbiy ta’sirlarini yumshatish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ya’ni, suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish (tomchilatib sug‘orish, qayta foydalanish), yosh daraxtzorlar va yashil hudlarni ko‘paytirish, iqlimga chidamli qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish, atrof-muhit monitoring tizimini takomillashtirish, aholi o‘rtasida ekologik savodxonlikni oshirish choralarini ko‘rish lozim.

XULOSA

Xorazm viloyatidagi ko‘p yillik harorat va yog‘ingarchilik o‘zgarishlari vohada iqlim o‘zgarishi jarayonlarining kuchayib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bu esa, atrof-muhit barqarorligi, suv resurslari va aholi turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Iqlim o‘zgarishi oqibatlarida suv taqchilligi, cho‘llanish va qo‘rg‘oqchilik jarayonlarini kuchayishi, yerlarni degradatsiyaga uchrashi [7,8,9,10,11]. kabi holatlarni oldini olish uchun yashil texnologiyalarni ishlab chiqish samarali hisoblanadi. Shuning uchun iqlimga moslashish va uning ta’sirini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan kompleks ekologik chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мадримов Р.М. Эколого-генетические аспекты, эволюция и отсенка плодородия почв Ташсакинского плато. Автореф. дисс …доктора философии (РҳД) по биологическим наукам, Ташкент. 2019.- 44-с.
2. Гафурова Л.А., Мадримов Р.М., Разаков А.М., Набиева Г.М. Экология, генезис, трансформация и эволюция почв Питнякского оазиса // Коллективная монография. ISVN 978-5-98482-089-9. Москва 2019. С. 101-120.
3. Хоразм вилояти тупроқлари , Тошкент, Фан, 2003,125б
4. Куст Г.С., Андреева О.В. Проблема опустынивания и почвы // Почвы в биосфере и жизни человека: монография. – Москва, 2012, – С. 70-117.
5. Kust G.S. To the treatment and interpretation of the - desertification‖ term in Russia //Arid Ecosystems. – 2011. – Т. 1. – №. 4. – S. 299-304.
6. Sultanov M.Q., Safarov E.Yu. Kosmik metod asosida landshaftlarni tasniflash va ularni baholash masalalari (Xorazm vohasi misolida). // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti. 44-jild. – T., 2014. – B. 139-141.
7. Djalilova G., Nurullaev A. Model of artificial sprinkling to study the influence of slope steepness and rainfall rate on soil erosion. Malaysian Journal of Soil Science, 28, 268–275 (2024).
8. Dauletmuratov M., Gafurova L., Djalilova G., Ergasheva O., Xalmuratova B., Umarov M. Study on agrochemical information and analytical systems in irrigated agriculture. E3S Web of Conferences, 563, 03083 (2024). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202456303083
9. Gafurova L.A., Savin I.Yu., Djalilova G.T. Updating of soil map of mountainous regions of Uzbekistan. Bulletin of Dokuchaev Soil Science Institute, 118, 21–47 (2024). https://doi.org/10.19047/0136-1694-2024-118-21-47
10. Ruziyev I.M., Yusupov G.U., Djalilova G.T., Igamberdiyeva D.A., Kodirova D.A. Development of Geographic Information System (GIS) to Change the Level of Soil Salinity in Syrdarya Region. AIP Conference Proceedings (2022). https://doi.org/10.1063/5.0097347
11. Djalilova G., Mamatkulova F., Mamatkulova Z., Igamberdiyeva D., Eshquvatov Q. Long-term monitoring of the vegetation cover of mountain territories in the GIS for soil and landscape study of territories. E3S Web of Conferences, 264, 01004 (2021). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126401004

IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATIDA CHANG BO‘RONLARINING ORTISHI VA MONITORINGI

Kuldashova Shaxnoza Abdulazizovna
Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, kimyo fanlari doktori,
Maxammadiyev Asadulla Sharafiddinovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Yer yuzi bo‘yicha potentsial zararli elementlar qatorida, changlarning ham ta‘siri ortib borishini aytishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasida chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ularning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha 2024 — 2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dasturi, Surxondaryo viloyatida afg‘on shamolining salbiy ta’sirini kamaytirish va ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 2024–2030-yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturiga muvofiq global iqlim o‘zgarishining chang bo‘ronlariga ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, PM_{10} va $PM_{2,5}$ *(diametri 10 mikrometr yoki undan kichik bo‘lgan zarrachalar)* mkmli chang zarrachalarining ta‘sir etish darajalarini baholab borish hamda Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan chang bo‘ronlari (Afg‘on shamoli) paytida PM_{10} va $PM_{2,5}$ mkmli zarrachalarning asosiy ta‘sirlari va toksiklik darajalari aniqlash bo‘yicha monitoring hamda tadqiqotlar olib borildi.

Kalit so‘zlar. Chang bo‘ronlari, iqlim o‘zgarishi, insonlar salomatligiga ta‘sir, PM_{10} va $PM_{2,5}$ mkmli chang zarrachalari, chang monitoring, Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan chang bo‘ronlari.

Аннотация. Среди потенциально вредных элементов на поверхности Земли мы можем сказать, что воздействие пыли также увеличивается. В соответствии с национальной программой борьбы с пыльными бурями и смягчения их последствий в Республике Узбекистан на 2024-2030 годы, программой мер, реализуемых в Сурхандарьинской области на 2024-2030 годы в целях снижения негативного воздействия афганского ветра и улучшения экологической обстановки,проведено научное исследование влияния глобального изменения климата на пыльные бури, проведено исследование воздействия пыльных бурь частицы диаметром (10 микрометров или меньше PM_{10} и $PM_{2,5}$ мкм). частиц были проведены мониторинг и исследования для оценки уровней воздействия и определения основных эффектов и уровней токсичности частиц PM_{10} и $PM_{2,5}$ мкм во время пыльных бурь (Афганский ветер), наблюдаемых в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова. Пыльные бури, изменение климата, влияние на здоровье человека,частицы пыли PM_{10} и $PM_{2,5}$ мкм, мониторинг пыли, пыльные бури, наблюдаемые в Сурхандарьинской области.

Annotasia. Among the potentially harmful elements on the Earth's surface, we can say that the impact of dust is also increasing. In accordance with the National Program for Combating Dust Storms and Mitigating Their Consequences in the Republic of Uzbekistan for 2024-2030, the Program of Measures to Reduce the Negative Impact of the Afghan Wind and Improve the Ecological Situation in the Surkhandarya Region for 2024-2030, monitoring and research were conducted to scientifically study the impact of global climate change on dust storms, assess the levels of exposure to PM_{10} and $PM_{2.5}$ (particles with a diameter of 10 micrometers or less), and determine the main effects and toxicity levels of PM_{10} and $PM_{2.5}$ particles during dust storms (Afghan wind) observed in the Surkhandarya region.

Keywords. Dust storms, climate change, human health impacts, PM_{10} and $PM_{2,5}$ μm dust particles, dust monitoring, dust storms observed in Surkhandarya region.

KIRISH

Yer yuzi bo‘yicha jadalashib borayotgan iqlim o‘zgarishining chang bo‘ronlari ortishiga jiddiy ta‘siri bor bo‘lib, har bir zarra va moddaning parchalanishi uchun maksimal harorat ta‘sir etirish kerak bo‘ladi. Haroratning ortishi cho‘l hududlarida keskin qizishi sababli qum va chang zarrachalarining parchalanishiga (chaqnashiga) olib kelib, chang zarrachalarining uchuvchalik darajasini ortirib yubormoqda, bu esa shamol tezligi sekin kechgan vaqtda ham chang bo‘ronlariga (chang to‘zonlariga) olib kelmoqda.

Kuchli shamollar atmosferaga har yilli taxminan 2 milliard tonnadan ortiq chang zarrachalari ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi[1].

Yer yuzida eng ko‘p chang bilan ifloslantiruvchi mintaqalarga Afrika va Osiyo hududlaridan atmosferaga chiqadigan chang zarralari hisoblanadi[2,3].

Chang chiqindilarining ko‘payishi Mo‘g‘uliston cho‘llarida 7 marta kuchaygan. Oxirgi yillarda rekord darajadagi qum va chang bo‘ronlaring sodir bo‘lganligi va uning oxirgi 5 yillikda tobora kuchayib borayotganligini aytish mumkin. Masalan, Sharqiy Osiyo va Mo‘g‘uliston cho‘llarida 2021 yil mart oyida sodir bo‘lgan qum va chang bo‘ronlari so‘nggi o‘n yillikdagi eng ko‘p hamda kuchli chang bo‘ronlari sifatida qayt etildi[4].

So‘ngi yillarda Xitoyning Pekin shahrida ham chang bo‘ronlari ko‘p sodir bo‘lib, PM_{10} *(diametri 10 mikrometr yoki undan kichik bo‘lgan zarrachalar)* kontsentratsiyasiyali changlar 3600 mkg/m³ gacha kuzatilmoqda. Bu ko‘rsatgich Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiya etgan ko‘rsatgichadan 80 baravar yuqori PM_{10} Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) 24 soatlik o‘rtacha konsentratsiyasi 45 mg/m^3 ni tashkil qilishi tavsiya etib belgilangan[5]. 2023-yil yer yuzi bo‘yicha iqlim issiq bo‘lganligi kuzatilishi bilan bir qatorda Mo‘g‘ulistondan, Sharqiy Osiyo va yana bir qancha hududlar 2023-yilning bahorida qum va chang bo‘ronlari tez-tez takrorlanib havo sifatiga katta ta‘sir ko‘rsatdi[6]. Yer yuzi bo‘yicha hamda Sharqiy Osiyo va Mo‘g‘ulistondan cho‘llarida kuzatilgan chang bo‘ronlari Xitoy, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlarga juda katta ta‘sir ko‘rsatdi[7].

2023-yil Xitoyda kuzatilgan qum va chang bo‘ronlarining takrorlanishi qalgan yillarga nisbatan ortkanligi kuzatildi. 2023-yilning mart oyida to‘rtta, aprel oyining o‘rtalarida sakkiz marta kuchli chang bo‘ronlari kuzatilishi bu hududlarda sodir bo‘lgan oxirgi o‘n yillikdagi eng ko‘p takrorlangan qumli chang bo‘ronlari sifatida o‘rganilgan[8].

Dunyo bo‘yicha kuzatilayotgan chang bo‘ronlari Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham kengayib bormoqada. Bu kabi chang va qum bo‘ronlari O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston hududlarida ham yildan yilga ko‘payib borayotganligi bu hududlarda ekologik muammolarning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Qum va chang bo‘ronlari eng ko‘p kuzatiladigan hudud sifatida O‘zbekistonda kuzatiladigan chang bo‘robnlarini takidalash mumkin. Oxirli yillarda bu hududlarda chang bo‘ronlari tez-tez kuzatilishi aniqlanib, 2021-yilning noyabr oyi bahorining oxiri va yozning boshi hamda o‘rtasidagi sodir bo‘lgan qumli va chang bo‘ronlar g‘ayrioddiy sodir bo‘lib, O‘zbekistonda eng kuchli qum va chang bo‘ronlari sifatida qayd etildi[9].

2024-yil 09-mayda kuni Surxondaryo viloyati kuchli chang bo‘ronlari kuzatilib, ruxsat etilgan maksimal konsentratsiyadan Termiz shahrida 17 marta oshib ketdi. Shu kuni shamol tezligi 12-14 m/s da esib ko‘rish masofasi 600 metrni tashkil qildi[10].

Tadqiqot ishlarining asosiy maqsadi Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan chang (Afg‘on shamoli) bo‘ronlari, changlik darajasi, hududlar kesimida tarqalishini aniqlash, chang bo‘ronlariga sabab bo‘luvchi asosiy omillarni aniqlash, baholash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Surxondaryo viloyati janubidan Amudaryo bo‘ylab Afg‘oniston, shimoliy, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati bilan


chegaradosh[11]. Chang bo‘ronlarini o‘rganish maqsadida namunalar Surxondaryo viloyatining Termiz shahri, Termiz, Muzrabot, Angor va Jarqurg‘on tuman hududlaridan olindi.

Surxondaryo viloyatida ham yer yuzida kuzatilayotgani kabi chang bo‘ronlari darajasi oxirgi yillarda ortmoqda. Surxondaryo viloyati, O‘zbekiston Respublikasining eng janubiy viloyati hisoblanib, bu hududning iqlimi, boshqa hududlarga nisbatan quruq va issiq hamda hududda kuzatiladigan qum va chang bo‘ronlari “Afg‘on shamoli” doimiy ta’sir etib kelgan. Viloytada chang bo‘ronlari boshqa hududlarga nisbatan ko‘p kuzatilishi bilan birga kuchli sodir bo‘lishi insonlar salomatligiga va atrof-muhitga jiddiy ekologik xavf tug‘diradi. Surxondaryo viloyatining 70 % ga yaqin maydonlari tog‘oldi, tog‘li va tekisliklar hisoblanadi. Viloyat botiq hudud tabiatida aks etib, hududning orografik-strukturaviy shakli bu mintaqada iqlimning shakllanishiga juda katta ta‘sir ko‘rsatadi. Surxondaryo viloyat hududining uzunligi shimoldan janubgacha 180-200 km, g‘arbdan sharqqa qadar 70-140 km ni tashkil etadi *(1,1a-rasmlar)*. Bu hududning iqlim sharoiti juda o‘zgaruvchanlikni namayon etib yog‘in miqdorlari turlicha miqdorda bo‘lishi bilan boshqa hududlarga nisbatan farqlanadi[12].

Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan chang bo‘ronlarni o‘rganish uchun quyidagi tadqiqotlardan foydalanildi. Dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda ekologiyada tadqiqot ishlarida umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lib, izlanishlarda geografik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik, gravimetrik, fotoelektromitrek hamda profil usullardan foydalanilgan. Olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturida hisoblangan.



1-rasm. **Surxondaryo viloyatining geografik joylashuvi**



1a-rasm. **Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan chang bo‘ronlarining kirib kelish ko‘rinishi.**



2-rasm. **Surxondaryo viloyati Termiz shahrida kuzatiladigan chang bo‘roni vaqtida gravimetrik usulida AVA-3 *(avtomatik havo aspiratori)* yordamida havodagi chang miqdoridan namuna olish jarayoni.**

Tadqiqot ishlarida O‘zbekiston gidrometeorologiya xizmati Surxondaryo viloyati gidrometeorologiya boshqarmasi hamkorligida ma’lumotlari olindi. Olingan ma’lumotlar chuqur statistik qayta ishlangan.

Surxondaryo viloyati atmosfera havosining tahlilari Mobil ekologik laboratoriyasi va 2 ta OXUS-WS avtomatik havo monitoring stansiyalari namunalarining tahlillarini AVA 3 avtomatik havo aspiratori yordamida olingan natijalar bilan solishtirish orqali baholandi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Surxondaryo viloyatida kuzatiladigan changlarning ko‘p sodir bo‘lish vaqti bahor va kuz oylarida ko‘p kuzatishini ko‘rishimiz mumkin bo‘lib ba’zi vaqtlarda qish oylarida yog‘ingarchilik kam kuzatilgan davrlarda ham chang bo‘ronlari kuzatilishi mumkin. Chang bo‘ronlarining shakllanishida viloyatda kuzatiladiga chang bo‘ronlarining yo‘nalishi bilan bog‘liq holda aamlaga oshadi. Surxondaryo viloyati eng janubida tez-tez kuzatiladigan g‘arbiy va janubiy- g‘arbiy kuchli shamollar “Afg‘on” shamoli deb nomlanib shu shamolning esishi huduga kuchli chang bo‘ronlarini olib kiradi. “Afg‘on” shamolining paydo bo‘lishi, savuq havoning O‘rta Osiyo tekislik qismiga kirib kelishi va sovuq havoning yaqinlashishiga bog‘liq. Shimoldan kirib kelgan savuq havo, zich va og‘ir bo‘lishi sababli janubdagi Parapomiz tog‘laridan o‘tolmay tekisliklarga to‘planib Afg‘oniston va Turkmaniston cho‘l hududlaridagi qum va changlarning atmosferaga ko‘tarib Surxondaryo viloyatiga qarb harakatlanishi oqibatida bu hududlarda kuchli chang bo‘ronlarini olib kiradi.

Global isish cho‘llanish jarayonini kuchaytirib, iqlim o‘zgarishi natijasida haroratning ko‘tarilishi, tuproqning tez qurishi va vegetatsiya qoplamining kamayishi natijasida cho‘llanish jarayonining jadallashishi ortdi. Vegetatsiyaning kamayishi tuproqning shamol eroziyasiga bo‘lgan qarshiligini pasaytiradi. Natijada chang ko‘tarilishiga sezilarli hissa qo‘shiladi. NASA *(Amerika Qo‘shma Shtatlarining Milliy aeronavtika va kosmik tadqiqotlar boshqarmasi)*, IPCC *(Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Hukumatlararo tashkilot)* (2023) va UNEP *(Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi)* tadqiqotlariga ko‘ra, oxirgi 40 yil ichida dunyo bo‘yicha cho‘llanish 20-30% ga kuchaygan, bu esa chang bo‘ronlarining chastota va intensivligi oshishiga olib kelgan[11]. 1980–2020 yillarda Markaziy Osiyoda qurg‘oqchilik chastotasi 25–40% oshgan.

O‘zbekiston, Turkmaniston va Afg‘oniston atrofida chang bo‘ronlari yiliga o‘rtacha 30–50 kunni tashkil etmoqda.

Surxondaryo viloyatida $PM_{2,5}$ mkmli chang zarrachalarining havodagi miqdorini o‘rganish va tahlil qilib borish 2024-yilning iyun oyidan boshlab amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. Bu vaqtgacha PM_{10} mkmli chang zarrachalarining ta’siri va havodagi ruxsat etilgan miyorda ekanligi tahlil qilib borilgan bo‘lib, $PM_{2,5}$ mkm changning ta’sirini baholash va insonlar salomatligi uchun xavflilik darajalarini o‘rganish imkoni mavjud bo‘lmagan. $PM_{2,5}$ mkmli chang zarrachalarining havodagi miqdorini o‘rganish va tahlil qilish bugungi kunga kelib iqlim o‘zgarishi hamda insonlar salomatligiga hamda atrof-muhitga ta’sirining ortib borishi bilan zamon talabiga aylandi. Yuqoridagi ta’sir darajalarini inoblatga olgan holda tadqiqotimizni PM_{10} va $PM_{2,5}$ mkmli chang zarralarini tahlil qilib o‘ragdik. Oxirgi yillarda yer yuzida kuzatilayotganidek Surxondaryo viloyatida ham havo hararti yildan yilga ortib borishi ortidan chang bo‘ronli kunlar ham ortib bormoqda, bunga asosiy sabablari abiotik (haroratning ortishi, manlikning kamligi) ommilarning ta’siri bo‘lib qolmoqda.

Oxirgi yillarda iqlim o‘zgarishi, qurg‘oqlashish, yer yuzi haroratining ko‘tarilishi va sanoatlarning ortishi oqibatida Surxondatyo viloyatida kuzatiladigan PM_{10} mkm changli kunlarning ko‘payicha kuzatilmoqda. 2021-yilda kuchli changli kunlar 17 kunni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda 18 kun kuzatilgan, 2023-yilga kelib qum va changli kunlar 18 kuni tashkil etib, 2024-yilda changli kunlar 22 kunni tashkil etgan. Surxondatyo viloyatida kuzatiladigan PM_{10} mkmli chang bo‘ronlaridan tashqari $PM_{2,5}$ mkm chang zarralari ham juda ko‘p uchraydi aynan 2024-yilda 58 kunni tashkil etdi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda aholi yashash punktlarining atmosfera havosidagi zararli va zaharli moddalar, produtsent mikroorganizmlar, bakterial preparatlar va aeroionlarning ruxsat etilgan gigienik me’yorlar bo‘yicha sanitariya qoidalari va normalari (0053-23-son SanQvaN) tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 7-avgustdagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi qonuniga asosan o‘rganildi[23].

O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi ruxsat etilgan gigiyenik meyorlari hamda sanitariya qoidalari va normalari (0053-23-son SanQvaN) bo‘yicha tadqiqot ishi olib borildi.

1-jadval.

Ko‘rasatkich	Kunlik o‘rtacha
$PM_{2,5}$ qattiq zarrachalari	35 mg/m^3
PM_{10} qattiq zarrachalari	500 mg/m^3

Havodagi changlik darajasining 0053-23-son SanQvaN *(Sanitariya qoidalari va normalari)* bo‘yicha bir sutkalik miyorning belgilangan darajasi keltirilib, tadqiqot davomida ushbu belgilangan meyorlar asosida qum va chang bo‘ronlari vaqtida atmosfera havosidagi changning REM *(ruxsat etilgan meyorlari)* o‘rganildi.

Tadqiqor jarayonida Surxondaryo viloyatining bir qancha tumanlarida chang birikmalari ruxsat etilgan meyor darajalari bo‘yicha tadqiqot olib borildi. Termiz shahri, Termiz tumani, Muzrabot tumani, Angor tumani va Jarqurg‘on tumanlarida chang bo‘ronlari vaqtida havodagi chang miqdori o‘rganildi. O‘rganish davomiyligi 1 (bir) oyni tashkil etdi.

2-jadval

2023-yilning iyun oyida kuzatilgan PM_{10} zarrali chang bo‘ronlari (Afg‘on shamoli) vaqtida “Ekolab” da “fotoelektromitrek” usul bilan aniqlangan natijalar.

Namuna olingan joy nomi	PM_{10} REM mg/m^3	Taxlil natijalari mg/m^3	Miyordan ortganlik darajasi	Ifloslanish davomiyligi soatda	Shamol tezligi chang tuzon bilan m/s
01.06.2023 –yil kuni					
Termiz shahri	500	843	1.6	4	10-13
Termiz tumani	500	896	1,8	4	12-14
Muzrabot tumani	500	Normada	0	0	8-10
Angor tumani	500	Normada	0	0	7-9
Jarqurg‘on tumani	500	Normada	0	0	8-10
09.06. 2023 –yil kuni					
Termiz shahri	500	22225	44,4	9	15-17
Termiz tumani	500	21144	42,3,3	7	14-16
Muzrabot tumani	500	19226	38,4	7	14-16
Angor tumani	500	18865	37,7	6	10-14
Jarqurg‘on tumani	500	14688	29,3	5	12-14
10.06. 2023 –yil kuni					
Termiz shahri	500	7179	14,3	7	10-12
Termiz tumani	500	6968	13,9	7	10-12
Muzrabot tumani	500	2264	4,5	4	8-10
Angor tumani	500	2224	4,4	3-4	8-10
Jarqurg‘on tumani	500	4586	9	5	10-12
11.06. 2023 –yil kuni					
Termiz shahri	500	712	1,4	1	10-13
Termiz tumani	500	692	1,3	1	10-12
Muzrabot tumani	500	Normada	0	0	6-8
Angor tumani	500	Normada	0	0	5
Jarqurg‘on tumani	500	Normada	0	0	6

Tadqiqot davomida 2023-yilning iyun oyida sodir bo‘lgan PM_{10} chang bo‘ronlarini tahlil qilib ularning inson salomatligiga ta’sirini baholadik. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida chang bo‘ronlarining eng yuqori kuzatilgan kunlarda insonlar ko‘rish masofasi 100-200 m gacha tushib ketganligi, insonlar orasida turli xildagi salomatlik bilan bog‘liq muammolarning ortishi aniqlandi. Xususan ko‘z (kon’yunktivit, blefarit), teri (dermatitlar), immun tizimi (allergiya), o‘pka (astma), burun-halqum (tumov, tomoq achishishi) kabi jiddiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Aynan tadqiqotimizni 2023-yilning iyun oyida olib borishimizda asosiy maqsad bu oyda iqlim Surxobdaryo viloyatida quruqlashadi va havo harorati ko‘tariladi hamda bu oyda qishloq xo‘jaligidan (donli ekin maydonlari) bo‘shagan dalalarga qayta ishlov berish jarayoni kuzatiladi va bu jarayonda ham havoga turli xildagi organik va noorganik bilikmalar chiqishi ortadi. Bundan tashqari 2023-yilning iyun oyida boshqa oylarga nisbatan kuchli chang bo‘ronli kunlar soni ko‘p kuzatildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tajriba va olingan natijalarga ko‘ra, Viloyatda kuzatiladigan chang bo‘ronlarining ta`siri kundan kunga orib borayotganligi ayon bo‘ladi. Chang bo‘ronlari vaqtida havoda 2,5 va 10 mkm li chang zarralari va uning tarkibida kimyoviy zararli moddalarning uchrashi esa chang ta`sirini yanada oshirib yuboradi. Bu holatlarning oldini olish uchun mini muhitlarda chang yotqizish mexanizmlaridan foydalanish va chang bo‘ronlari vaqtida tibbiyot

niqoblaridan foydalanish hamda ta`lim muassasalari, xodimlarning ishjoylari, tibbiyot massasalari va kasalxonalarda maxsus chang tozalash texnologiyasini joriy etish yaxshi samara beradi.

Chang bo‘ronlarini kamaytirish uchun ko‘plab amaliy ishlar olib borilmoqda ammo qum bo‘ronlari tabiiy jarayonda sodir bo‘lishini inobatga olgan holda bu jarayonga mini muhitlarda changni tozalovchi texnologiyalardan foydalanish va yashil makonlar barpo etib kurashish mumkin bo‘ladi.

Surxondaryo viloyatida sodir bo‘ladigan chang bo‘ronlarining shakllanishi qo‘shni Turkmaniston va unga tutash Eron hududlaidagi cho‘llardan shakllanib Afg‘oniston orqali kirib kelishini inobatga oladigan bo‘lsak chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va ta’sirini kamaytirish uchun qo‘shni mamlakatlar bilan hamkorlikdagi ishlarni ham jadallashtirish kerak.

O‘simliklar quruq hududlarda chang bo‘ronlarining oldini olish va ularning intensivligini kamaytirishda muhim ekologik omil hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vegetatsion qoplamaning mavjudligi shamol tezligini pasaytirib, tuproq zarrachalarining havoga ko‘tarilishini sezilarli darajada kamaytiradi. Ayniqsa, daraxtlar, butalar va ko‘p yillik o‘tlar ildiz tizimi orqali tuproqni mustahkamlaydi, uning uyushqoqligini oshiradi va eroziyaga chidamliligini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UN Economic and Social Commission for Asia and the Pacific. Sand and dust storms in Asia and the Pacific: opportunities for regional cooperation and action. UN Economic and Social Commission for Asia and the Pacific, 2018. https://apdim.unescap.org/knowledgehub/ sand-and-dust-storms-asia-and-pacific-opportunities-regionalcooperation- and-action (accessed June 26, 2022).

2. Wu C, Lin Z, Shao Y, Liu X, Li Y. Drivers of recent decline in dust activity over East Asia. *Nat Commun* 2022; **13:** 7105.

3. Evan AT, Flamant C, Gaetani M, Guichard F. The past, present and future of African dust. *Nature* 2016; **531:** 493–95.

4. National Centers for Environmental Information. Storm events database. National Centers for Environmental Information. https://www.ncdc.noaa.gov/stormevents/ (accessed July 14, 2023).

5. Li G, Lu D, Yang X, et al. Resurgence of sandstorms complicates China‘s air pollution situation. *Environ Sci Technol* 2021; **55:** 11467–69.

6. Chen S, Zhao D, Huang J, et al. Mongolia contributed more than 42% of the dust concentrations in northern China in March and April 2023. *Adv Atmos Sci* 2023; **40:** 1549–57.

7. Salvador P, Pey J, Рйrez N, Querol X, Artнcano B. Increasing atmospheric dust transport towards the western Mediterranean over 1948–2020. *NPJ Clim Atmos Sci* 2022; **5:** 34.

8. Tiantian Li, PhD Aaron J Cohen, DSc Michal Krzyzanowski, PhD Can Zhang, PhD Sophie Gumy, PhD Pierpaolo Mudu, PhD et al. Show more. Sand and dust storms: a growing global health threat calls for international health studies to support policy action. THE LANCET Planetary Health Jan 2025 Volume 9Number 1e1-e78. https://www.thelancet.com/journals/lanplh/article/PIIS2542-5196(24)00308-5/fulltext.

9. Nishonov BE, Kholmatjanov BM, Labzovskii LD, et al. Study of the strongest dust storm occurred in Uzbekistan in November 2021. *Sci Rep* 2023; **13:** 20042.

10. Investigation of changes in the viscosity properties of acrylamide (co) polymer and their hydrolyzed forms depending on the conditions of their preparationS Kuldasheva, A Abdikamalova, I Eshmetov, D Abdurahimov, Polymer Bulletin 81 (5), 4065-4091

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati#:~:text=Surxondaryo%20viloyati%20O%CA%BBzbekistonning%20eng%20janubiy,sharqiy%20uzunlik%20chiziqlari%20kesib%20o%CA%BBtadi.

12. Umarova M.H. Surxondaryo geografiyasi. Dasrlik, “Surxon ilm nashri” 2024. 312 b.

13. World Meteorological Organization. Desert dust outbreak in the Canary Islands (February 2020): assessment and impacts. World Meteorological Organization, 2021. https://library.wmo.int/records/ item/57299-desert-dust-outbreak-in-the canary-islands-february-2020-assessment-and-impacts?offset=1 (accessed July 7, 2024).

ATMOSFERA HAVOSIDAGI MAYDA DISPERS ZARRACHALARINING FASLLAR BO‘YICHA O‘ZGARISHI

Raxmonaliyeva Dilnoza Raxmonalieyevna
Alimov Zikrilla Bobomuratovich
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Atmosfera havosidagi chang zarrachalarini monitoring qilish bugungi kunda ekologik muhofaza, urbanizatsiya jarayonlari va aholining sog‘lig‘ini saqlash nuqtayi nazaridan nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. [2,4]. Nafaqat $PM_{2.5}$ va PM_{10} singari mayda zarrachalar, balki sanoat va transportdan ajraladigan ultramayda aerozollar ham odam organizmiga jiddiy xavf tug‘diradi. [5,8]. Ushbu tadqiqot Toshkent shahrida atmosfera havosidagi mayda dispers zarrachalar — PM_{10} va $PM_{2.5}$ ning fasllar bo‘yicha o‘zgarishini baholash, ularning shakllanishiga ta’sir qiluvchi tabiiy va antropogen omillarni aniqlash hamda sog‘liq uchun xavf darajasini xalqaro me’yorlar bilan solishtirishga qaratilgan. Monitoring ishlari to‘rt xil filtr turi (PTFE, QFF, VF, SilVy-5) yordamida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, qish faslida isitish mavsumi hisobiga antropogen emissiyalar keskin ortgan, bahor-yoz fasllarida esa shamol eroziyasi va fotokimyoviy reaksiyalar natijasida PM yuklamasi ko‘paygan. Maqola Toshkent shahrida PM ifloslanishining fasliy o‘zgaruvchanligi, uning manbalari va salomatlik xavfi bo‘yicha yangi ilmiy dalillarni taqdim etadi.

Kalit so’z: *quruq iqlim, havodagi muallaq moddalar, chang zarrachalari, $PM_{2.5}$, PM_{10}, salomatlik xavfi, havoni monitoring qilish, xalqaro havo sifati indeksi.*

Аннотация. Мониторинг твёрдых взвешенных частиц в атмосферном воздухе является одной из наиболее актуальных задач современности с точки зрения экологической безопасности, процессов урбанизации и сохранения здоровья населения [2,4]. Помимо мелкодисперсных частиц $PM_{2.5}$ и PM_{10}, ультрамелкие аэрозоли, образующиеся в результате деятельности промышленности и транспорта, также представляют серьёзную опасность для организма человека [5,8]. Данное исследование направлено на оценку сезонных изменений концентраций PM_{10} и $PM_{2.5}$ в атмосферном воздухе города Ташкента, выявление природных и антропогенных факторов их формирования, а также определение уровня риска для здоровья путём сравнения с международными нормами. Мониторинг проводился с использованием четырёх типов фильтров: PTFE, QFF, VF и SilVy-5. Результаты показали, что в зимний период вследствие отопительного сезона антропогенные выбросы значительно возрастают, тогда как весной и летом повышение уровня PM обусловлено ветровой эрозией и фотохимическими процессами. Статья представляет новые научные данные о сезонной вариативности загрязнения PM в Ташкенте, его источниках и связанных с ним рисках для здоровья населения.

Ключевые слова: *сухой климат, взвешенные вещества в воздухе, частицы пыли, $PM_{2.5}$, PM_{10}, риск для здоровья, мониторинг воздуха, международный индекс качества воздуха.*

Annotation. Monitoring atmospheric particulate matter is currently a highly relevant issue from the perspective of environmental protection, urbanization processes, and public health. [2,4]. Not only fine particles such as $PM_{2.5}$ and PM_{10}, but also ultrafine aerosols emitted from industrial activities and transport pose serious risks to human health. [5,8]. This study aims to assess the seasonal variation of fine particulate matter — PM_{10} and $PM_{2.5}$ — in the atmosphere of Tashkent city, identify natural and anthropogenic factors influencing their formation, and compare the associated health risks with international standards. Monitoring was conducted using four types of filters (PTFE, QFF, VF, SilVy-5). The results show that anthropogenic emissions increase significantly in winter due to the heating season, while in spring–summer, PM load rises as a result of wind erosion and photochemical reactions. This article provides new scientific evidence on the seasonal variability of PM pollution in Tashkent, its sources, and related health risks.

Keywords: *dry climate, airborne suspended particles, dust particles, $PM_{2.5}$, PM_{10}, health risk, air monitoring, international air quality index.*

KIRISH

So‘nggi yillarda Toshkent shahrida **atmosfera havosidagi mayda dispers zarrachalar (TSP, PM_{10}, $PM_{2.5}$)** darajasi keskin oshib bormoqda. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, $PM_{2.5}$ aholining sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘dirib yiliga millionlab erta o‘lim holatlariga sabab bo‘lmoqda [4,20]. Urbanizatsiya, transport harakati, qurilish ishlari va shamol eroziyasi havoning ifloslanishida asosiy omillar sifatida qayd etilgan. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 24-sentyabrda **“Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar” PQ-338-sonli** qarori qabul qilindi [1]. Biroq ekologik muhitning yomonlashuvi ushbu chora tadbirlarni samarali amalga oshirishda jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda. [29].Hususan yurtimizda havo sifatini yaxshilash bo‘yicha qator qarorlar qabul qilingan bo‘lsa-da, mavjud monitoring tizimi PM ifloslanishining fasliy farqlarini to‘liq qamrab ololmayapti. Shu sababli PM konsentratsiyasining mavsumiy xususiyatlarini aniqlash ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Jumladan havo sifati bo‘yicha belgilangan me’yorlarning buzilishi oqibatida, $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi JSST tomonidan belgilangan xavfsiz darajalardan ancha yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda [2].

Dunyo miqyosida PM_{10} va $PM_{2.5}$ ning sog‘liq xavflari keng tadqiq qilingan bo‘lib, xususan, Osiyo, Afrika va Janubiy Amerika kabi rivojlanayotgan mintaqalarda $PM_{2.5}$ ning yillik o‘rtacha konsentratsiyasi JSST me’yorlaridan bir necha barobar yuqori ekani qayd etilgan [4]. Shu bois, global darajada PM bilan bog‘liq ekologik va salomatlik muammolari iqtisodiy rivojlanish, sog‘liqni saqlash tizimi uchun muhim parametrga aylangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, $PM_{2.5}$ va PM_{10} bilan ifloslangan havoda yashovchi aholida astma, surunkali bronxit, o‘pka funksiyasining pasayishi kabi respirator kasalliklar ko‘proq uchraydi [13,16]. Shuningdek, uzoq muddatli havo ifloslanishi yurak ishemik kasalligi, gipertenziya, miokard infarkti va insult xavfini oshiradi [23]. Allergik reaksiyalar, masalan, nafas olish yo‘llarining sezgirligi va atopik dermatit kabi holatlar ham PM zarrchalari bilan bog‘liq ekani aniqlangan [14]. Ushbu mayda dispers zarrachalar (PM_{10} va $PM_{2.5}$) inson salomatligi va atrof-muhit uchun jiddiy xavf hisoblanib, ular kichik o‘lchamlari tufayli nafas yo‘llari va alveolalarga osongina kirib, kislorod almashinuvini susaytiradi va yurak-qon tomir tizimi faoliyatini buzadi [4]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST, 2021) ma’lumotlariga ko‘ra, yiliga 4,2 milliondan ortiq odam $PM_{2.5}$ bilan bog‘liq surunkali kasalliklar sababli vafot etadi. Shu bilan birga, PM_{10} ning respirator va allergik kasalliklarni qo‘zg‘atishdagi roli ham katta ahamiyatga ega [8]. Havo sifati va PM_{10}, $PM_{2.5}$ zarrachalarining sog‘liq uchun xavfini baholashda xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan me’yorlar asosiy

mezon sifatida qabul qilinadi. JSST (WHO) tavsiyalariga ko‘ra, $PM_{2.5}$ o‘rtacha sutkalik konsentratsiyasi 15 µg/m³ dan oshmasligi lozim, PM_{10} esa o‘rtacha sutkalik 45 µg/m³ dan yuqori bo‘lmasligi kerak [6]. Ushbu me’yorlar zarrachalarning sog‘liqqa ta’sirini kamaytirish va nafas yo‘llari, yurak-qon tomir tizimining xavfsizligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Toshkent shahridagi kuzatuvlar bu chegaradan bir necha barobar yuqori ekanligini ko‘rsatadi [5]. O‘zbekiston bo‘yicha fasliy farqlar, kimyoviy tarkib va manba ajratish bo‘yicha ma’lumotlar cheklanganligi, antropogen manbalar ulushi va sog‘liqga ta’siri yetarli o‘rganilmagani katta ilmiy bo‘shliq bo‘lib qolmoqda. AQSh EPA, WHO va HEI tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar mayda aerozollarning yillik chegaradan har 10 µg/m³ oshishi o‘lim darajasini 6–15% ga ko‘paytirishini tasdiqlagan [7,9]. Xalqaro havo sifati indeksi (IQAir) tomonidan e’lon qilingan reytingga ko‘ra, 20 noyabr kuni Toshkent havoning ifloslanish darajasi bo‘yicha dunyoda 1-o‘rinni egalladi [30]. (1-rasm). Havo ifloslanishining tarkibi murakkab bo‘lib, unda gaz holatidagi moddalar va qattiq muallaq zarrachalar — aerozol va chang zarralari mavjud [4]. Aerozol va chang zarralari diametri 0.1–10 µm bo‘lgan mayda dispers zarrachalardan iborat bo‘lib, PM zarrachalari tarkibida sulfatlar, nitratlar, ammoniy birikmalari, organik moddalar va og‘ir metallar (Pb, Cd, Ni, Zn) uchraydi. Ushbu komponentlarning kombinatsiyasi ularning toksikligini oshiradi [11,10]. Masalan, PM10 – 10 mikrometrgacha bo‘lgan zarrachalar bo‘lib, ko‘pincha chang, tuproq va qurilish chiqindilari manbalaridan hosil bo‘ladi. Havoda uzoq vaqt suspenziyada bo‘la oladi va respirator tizimning yuqori yo‘llariga kiradi [5,21]. PM2.5 esa 2.5 mikrometrgacha bo‘lgan juda mayda zarrachalardir. Ular asosan transport (dizel yoqilg‘isi), sanoat chiqindilari va yonish jarayonlaridan kelib chiqadi. PM2.5 nafaqat yuqori, balki pastki nafas yo‘llariga, alveolalarga ham kirib, qon aylanishiga o‘tadi va yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [4,8]. PM1.0 yani nanozarrachalar – 1 mikrometrdan kichik bo‘lganligi sababli toksikligi yuqori va biologik membranalar orqali hujayralarga o‘tishi mumkin, bu esa sog‘liq xavfini oshiradi [28]. Zarrachalar havoda suspensiyada bo‘lish xususiyatiga ega bo‘lib, ularning aerodinamik diametri va zichligi ta’sirida uzoq masofalarga tarqaladi [5].

1-rasm

Xalqaro havo sifati indeksi (IQAir)



AQI tizimida $PM_{2.5}$ va PM_{10} darajalari 50–100 oralig‘ida “o‘rtacha xavf”, 101–150 “salomatlik uchun zararli” va 151–200 “jiddiy zararli” deb belgilangan [6].

Sovuq kunlarda chang zarralari yuqoriga tarqalmaydi va odamlar nafas oladigan pastki qatlamda ko‘p miqdorda yig‘ilib qoladi. Bu esa havo sifati keskin yomonlashishishiga va smog hosil bo‘lishiga olib keladi. Harorat pasayganda Yerga yaqin qatlam yanada sovuq, zich va og‘ir bo‘ladi. Yuqoridagi havo esa nisbatan iliq va yengil bo‘lib qoladi. Bu holat termik inversiya deb ataladi. Inversiya yuzaga kelganda havo qatlamlari aralashmaydi, chunki sovuq havo yuqoriga ko‘tarilmaydi. Natijada PM zarralar yerga yaqin 10–200 metr oralig‘ida to‘planib qoladi. [25] **Namlik**ning yuqori bo‘lishi zarralarning gigroskopik kengayishiga olib kelib, ularning fizik xususiyatlarini o‘zgartiradi [26]. **Shamol**ning pastligi dispersiyani kamaytiradi, kuchli shamol esa tabiiy manbalardan changni ko‘tarib, umumiy PM miqdorini oshiradi **[25].** Sodda qilib aytganda, tabiiy manbalar (shamol eroziyasi, quruq tuproq) odatda kimyoviy jihatdan kamroq toksik bo‘lsa, sun’iy manbalar (transport, sanoat) tarkibida xavfli kimyoviy moddalar ko‘proq uchraydi [21,8].

O‘zbekiston hududidagi mayda dispers zarrachalar (PM_{10}, $PM_{2.5}$) konsentratsiyasini shakllantiruvchi omillar geografik, iqlimiy va iqtisodiy sharoitlar bilan bevosita bog‘langan. Hududning katta qismi cho‘l ekotizimlariga mansub bo‘lgani, Orolbo‘yi kabi ekologik inqiroz zonalarining yaqinligi, shaharlarning tez sur’atda urbanizatsiyalashuvi PM darajasini regionlar bo‘yicha turlicha shakllantiradi. Orolbo‘yi hududidan ko‘tariladigan tuz-chang aerozollari shamol orqali mamlakatning katta qismiga tarqalib, tabiiy PM yuklamasini oshiradi [17, 15]. Cho‘l landshaftlarida shamol eroziyasi bahor-yoz fasllarida yuqori chang konsentratsiyasini shakllantiradi [24]. Sanoat markazlari — Navoiy, Olmaliq, Angren singari hududlar — antropogen PM ning asosiy manbalaridan bo‘lib, og‘ir metall va sulfatlarga boy emissiyalar chiqaradi [18,12]. Toshkent va Samarqand kabi yirik shaharlarda esa avtomobil transporti $PM_{2.5}$ ning asosiy ulushini tashkil etadi [3,19].

Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdagi poytaxt havosidagi muallaq zarrachalar — PM_{10} va $PM_{2.5}$ ko‘rsatkichlari yilning barcha fasllarida o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lib, sog‘liq uchun xavfli darajalarga yetayotgan holatlar ko‘paymoqda. Jumladan Toshkent shahrida chang miqdorining fasllar kesimida ifloslanish dinamikasi ayniqsa dolzarb bo‘lib, bahor oyilarida shamollar kuchayishi va qurilish maydonlarining faoliyati natijasida havodagi PM_{10} va $PM_{2.5}$ darajasi yuqori bo‘ladi. Tadqiqotlarda bahor faslida shamol eroziyasi va qurilish changi asosiy manba sifatida qayd etilgan. Yoz oylarida yuqori harorat va yog‘ingarchilikning kamligi changning uzoq vaqt havoda saqlanishiga olib keladi. Kuz va qish mavzsumida esa isitish tizimlari, avtomobil emissiyasi va atmosferik inversiya hodisalari sababli $PM_{2.5}$ darajasi ortadi. [22].

Tadqiqot doirasida joriy yilning bahor, yoz va kuz mavsumida Toshkent shahrida atmosfera havosidagi chang zarralarining ($PM_{2.5}$, PM_{10}, TSP) fasllar kesimida o‘zgarishini aniqlash bo‘yicha olib borilgan kuzatuvlarimizda **PTFE, QFF, VF va SilVy-5 Sampling Sheet** filtrlarining kombinatsiyalangan qo‘llanilishi yuqori aniqlikdagi monitoring tizimini yaratdi. Har bir filtr o‘zining fizik-kimyoviy xususiyatlariga ko‘ra changning ma’lum bir fraksiyasi va tarkibiy elementlarini tahlil qilishda samarali bo‘ldi.

PTFE (Politetrafloroetilen) filtri — $PM_{2.5}$ massaviy konsentratsiya uchun asosiy filtr bo‘lib past fonli massaga va kimyoviy inertlikka ega bo‘lgani uchun tadqiqotda **$PM_{2.5}$ zarrachalarining massaviy miqdorini fasllar kesimida** aniqlashda qo‘llandi. Bahor va qish fasllarida inversiya sharoitida $PM_{2.5}$ eng muhim ko‘rsatkich bo‘lganligi sababli PTFE filtrlari yuqori aniqlik berdi. **QFF (Quartz Fiber Filter) —**yuqori haroratga chidamliligi va kimyoviy faol tahlillar uchun mosligi sababli yig‘ilgan aerozol tarkibidagi: sulfat, nitrat, ammoniy, og‘ir metallar, anion-kationlar kabi komponentlarni aniqlashda qo‘llanildi. Yoz faslida fotokimyoviy jarayonlar kuchayganligi bois QFF filtrlari kimyoviy tarkibini ajratish uchun asosiy manba bo‘ldi. **VF (Glass Fiber Filter) —**VF filtrlar yuqori chang sig‘imiga ega bo‘lib, ayniqsa: bahorgi kuchli shamollar, yozgi qurg‘oqchilik, kuzgi transport oqimi kabi davrlarda **PM_{10} va TSP ko‘rsatkichlarini** aniq qayd etdi. Yirik zarrachalarni yig‘ish bo‘yicha VF filtrlar eng samarali

material bo‘lib, fasliy o‘zgarishlarning umumiy tendensiyasini belgilashda asosiy vosita bo‘ldi. **SilVy-5 Sampling Sheet** — tadqiqotning innovatsion jihatlaridan biri —**universal massaviy va kimyoviy tahlil uchun** SilVy-5 filtridan foydalanish bo‘ldi. Mazkur filtr past fonli massa, yuqori mexanik mustahkamlik, ionlar va organik komponentlarni tahlil qila olish xususiyatlariga ega bo‘lgani uchun **fasllar bo‘yicha yig‘ilgan aerozolning sifat va miqdoriy parametrlarini birgalikda aniqlash** imkonini berdi.

SilVy-5, PTFE va QFF filtrlari o‘rtasida “ ko‘prik ” rolini o‘ynab, kimyoviy tarkib + massaviy o‘zgarishni parallel tarzda baholash imkonini yaratdi.

Filtrlarning birgalikda qo‘llanilishi Toshkent shahridagi chang ifloslanishining fasliy dinamikasini yuqori aniqlik bilan aniqlashga, ularning manba kelib chiqishini (transport, tabiiy, sanoat, qurilish) farqlashga va baholash tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

1-jadval


Filtrlaning umumiy o’rni va tadqiqotdagi roli

Filtr turi	Tadqiqotning asosiy vazifasi	Mavsumda qo’llanilishi
PTFE	PM2.5 massaviy konsentratsiyasi	Qish, Bahor
QFF	Kimyoviy tarkib (ionlar, metal, organik moddalar)	Yoz, kuz
VF	PM10 va TSPni yirik fraksiyada yig‘ish	Bahor, yoz
SilVy-5	Universallik massaviy, kimyoviy tahlil	Barcha fasllar


Shaharda atmosfera havosi sifatini monitoring qilishda beshta asosiy ifloslantiruvchi modda: chang (qattiq muallaq zarrachalar), oltingugurt dioksidi, uglerod oksidi (is gazi), azot dioksidi, azot oksidini o‘z ichiga oladi. Sanoat ajratmalari tarkibi va yaqinda joylashgan shaharlar va tutashgan hududlar xususiyatlariga qarab dasturiy o‘lchovlarga boshqa moddalar (ammiak, fenol, formaldegid, ozon, xlor, qattiq ftoridlar, ftorli vodorod, og‘ir metallar) qo‘shiladi.

Atmosfera havosidagi muallaq chang zarrachalarinig holati ustidan kuzatuvlar haftada 2 marotaba (mahalliy vaqt bilan soat 11:00, 13:00, 16:00 oraliqlarida) amalga oshiriladi. Tadqiqot kuzatuv punkti Toshkent shahridagi O‘zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi (UJICY) laboratoryasida chang namunalari atmosfera havosidagi chang zarralarini yig‘ib oluvchi uskunada to‘plandi. Olingan chang namunalar elektron tarozida o‘lchanib, atmosferadagi PM konsentratsiyasi $\mu g/m^3$ da hisoblandi. Ma’lumotlar WHO me’yorlari, O‘zbekiston ekologik normativlari va IQAir kuzatuvlari bilan solishtirildi.


Kuzatuvlar shuni ko‘rsatmoqdagi poytaxt havosidagi muallaq zarrachalar - PM_{10} va $PM_{2.5}$ ko‘rsatkichlari yilning barcha fasllarida o‘ziga xos dinamikaga ega bo‘lib, sog‘liq uchun xavfli darajalarga yetayotgan holatlar ko‘paymoqda. Jumladan Toshkent shahrida chang miqdorining fasllar kesimida ifloslanish dinamikasi ayniqsa dolzarb bo‘lib, bahor oylarida shamollar kuchayishi va qurilish maydonlarining faoliyati natijasida havodagi PM_{10} va $PM_{2.5}$ darajasi yuqori bo‘ladi. Tadqiqotlardan bahor faslida shamol eroziyasi va qurilish changi asosiy manba sifatida ko‘rishimiz mumkin. Yoz oylarida yuqori harorat va yog‘ingarchilikning kamligi changning uzoq vaqt havoda saqlanishiga olib keladi. Aerozollar fizikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda bunday sharoitlarda zarrachalarning cho‘kishi sekinlashishi ta’kidlangan [25]. Kuz va qish mavsumida esa isitish tizimlari, avtomobil emissiyasi va atmosferik inversiya hodisalari sababli $PM_{2.5}$ darajasi ortadi. [22].



2-rasm. SilVy-5, PTFE, QFF,va VF filtrlarida $PM_{2.5}$ chang zarrachalarini bahor oyidagi o‘rtacha ko’rsatkichi



3-rasm. SilVy-5, PTFE, QFF,va VF filtrlarida $PM_{2.5}$ chang zarrachalarini yoz oyidagi o‘rtacha ko’rsatkichi



4-rasm. SilVy-5, PTFE, QFF,va VF filtrlarida $PM_{2.5}$ chang zarrachalarini kuz

Mamlakatda $PM_{2.5}$ kontsentratsiyalarini tizimli monitoring qilish hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, mavjud kuzatuvlar ko‘plab hududlarda me’yorlardan yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilayotganini ko‘rsatmoqda.

Yuqoridagi diagramma ma’lumotlari bo‘yicha 2025-yil bahor oylarida o‘tkazilgan kuzatuvlar **kunlik $PM_{2.5}$ qiymatlarining 50–240 µg/m³ oralig‘ida o‘zgarib turganini,** ayrim kunlarda eng yuqori ko‘rsatkichlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu qiymatlar Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) tavsiya etilgan 15 µg/m³ o‘rtacha sutkalik me’yoridan ancha yuqori.

SilVy-5 qurilmasida olib borilgan tajriba o‘lchovlari ham havodagi $PM_{2.5}$ yuklamasining yuqoriligini tasdiqlamoqda. Filtrlarning boshlang‘ich va yakuniy massalari o‘rtasidagi farq

asosida hisoblangan chang massasi ayrim nuqtalarda sezilarli to‘planishni ko‘rsatgan. PTFE, QFF va boshqa filtr turlarida qayd qilingan og‘irliklarning ortishi, shuningdek changning ma’lum hajmdagi havoda to‘plangan miqdori (μg/m³) mazkur davrda havodagi ifloslanish darajasining yuqori bo‘lganini aks ettiradi.

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u Toshkent shahrida PM_{10} va $PM_{2.5}$ konsentratsiyasining fasllar bo‘yicha birinchi marotaba kompleks tarzda baholanishi, tabiiy va antropogen manbalar ulushining ilmiy asosda ajratib ko‘rsatilishi hamda turli filtr turlari (PTFE, QFF, VF, SilVy-5) orqali olingan ma’lumotlarning taqqoslanishini o‘z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari shahar miqyosida atmosfera monitoringi tizimini yanada takomillashtirish, o‘lchash aniqligini oshirish va mavsumiy prognoz modellarini yaratishda amaliy ahamiyatga ega.

Amaliy jihatdan bu tadqiqot aholi salomatligini himoya qilishga qaratilgan aniq choralar ishlab chiqishda: transport emissiyalarini kamaytirish strategiyasi, chang bo‘ronlariga qarshi hududiy boshqaruv choralari, yashil hududlarni kengaytirish va sanoat nazoratini kuchaytirish bo‘yicha qarorlar qabul qilishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Natijalar ekologik siyosat, shaharsozlik va sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham bevosita qo‘llanilishi mumkin.

XULOSA

Toshkent shahri jadal rivojlanishi bilan birga havo sifatidagi o‘zgarishlar, ayniqsa chang miqdorining oshishi, jiddiy muammoga aylanmoqda. Atmosfera havosidagi **$PM_{2.5}$** (diametri 2.5 mikrometr va undan kichik zarrachalar)ni filtrlashda filtrlarning samaradorligi ularning **zarracha hajmini ushlab qolish qobiliyati** va **havo oqimi qarshiligiga chidamliligiga** bog‘liq. (2-jadval)

2-jadval

Filtr turi	PM2.5 samaradorligi	Izoh
PTFE	95-99%	Juda samarali, mikrozarrachalarni, jumladan PM2.5 ni ham ushlab qoladi. Kimyoviy va namlikka chidamliligi yuqori, uzoq muddat ishlaydi.
VF(sintetik tolali sanoat filtr)	40-70%	Faqat kattaroq zarrachalarni ushlab qoladi, PM2.5 filtrlash samaradorligi pastroq. Oddiy havoni tozalash tizimlarida ishlatiladi.
QFF	95-99.97%	PM2.5 va undan kichik zarrachalar uchun ideal, toza xona, tibbiyot va yuqori sifatli havo tozalash tizimlarida qo‘llaniladi.
SilVy-5	97-99%	Tibbiyot, sanoat, PM2.5 monitoringi va havo tozalash tizimlarida qo‘llaniladi

Atmosferadagi $PM_{2.5}$ miqdorining ortishiga sanoat korxonalaridan chiqadigan emissiyalar, qurilish maydonlaridagi chang ko‘tarilishi, yoqilg‘i mahsulotlarining yonish jarayonlari hamda transport vositalari ulkan hissa qo‘shmoqda. Mazkur omillar ayniqsa sanoatlashgan zonalarda yanada yaqqol seziladi. Shuningdek, fasliy o‘zgarishlar, havo haroratining pasayishi, inversiya hodisalari va shamol tezligining susayishi $PM_{2.5}$ ning atmosferada uzoq vaqt ushlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston sharoitida $PM_{2.5}$ konsentratsiyalarining muntazam monitoringi, ayniqsa PTFE,QFF filtr asosidagi gravimetrik usullar va SilVy-5 kabi portativ qurilmalar yordamida aniq laborator o‘lchovlar olib borish, nafaqat ifloslanish manbalarini aniqlash, balki aholining sog‘liq xavflarini baholash uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shaharda uzoq vaqt davomida yog‘ingarchilik kamligi va katta antropogen yuk tufayli avtomobil yo‘llariga suv sepish va tozalash, qurilish ob’ektlarida changni kamaytirish choralariga, chiqindilarni o‘z vaqtida yig‘ish masalalariga ko‘proq e’tibor qaratish lozim. Yuqoridagi 2,3,4 rasmdagi ma’lumotlar ushbu muammoga oid mavjud vaziyatni baholash, ifloslanish darajasining

o‘zgarish dinamikasini ko‘rsatish va kelgusida samarali ekologik boshqaruv choralarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumot uchun: *Kelgusi* **30 yilda** *iqlim o‘zgarishi va uning oqibatlarini bartaraf etishga jahonda* **8 trln.** *dollar sarflanishi va* **2050 yilgacha** *dunyo Yalpi ichki mahsuloti* **3 foizga** *kamayishi prognoz qilinmoqda.* [13].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Prezident qarori PQ 338. “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar”, 24.09.2024. uz24.uz.

2. World Bank. (2023). *National State of the Environment Report, Uzbekistan.*

3. World Bank. (2023). *Air Quality Analysis for Urban Centers in Uzbekistan.*

4. WHO. (2021). *Air Quality Guidelines – Global Update.* Geneva: WHO.

5. EPA. (2019). *Integrated Science Assessment for Particulate Matter.* Washington, DC: EPA.

6. EPA. (2021). *Air Quality Index: A Guide to Air Quality and Your Health.*

7. EPA. (2020). *Integrated Science Assessment for Particulate Matter.*

8. Health Effects Institute (HEI). (2020). *State of Global Air 2020.* Boston: HEI.

9. *Health Effects Institute (HEI). (2023). State of Global Air 2023.*

10. TMA University. (2023). *Monitoring of Atmospheric PM in Tashkent.*

11. Raxmonaliyeva, D., & Alimov, Z. (2024). *Seasonal dynamics of PM2.5 and PM10 in Tashkent.* Journal of Environmental Science and Technology, 12(2), 45–60.

12. Begimkulov, S. et al. (2021). *Industrial emissions and heavy metal pollution in Uzbekistan.* Environmental Monitoring and Assessment.

13. Brook, R.D., et al. (2010). *Particulate matter air pollution and cardiovascular disease.* Circulation, 121(21), 2331–2378.

14. D'Amato, G., et al. (2015). *Climate change, air pollution and allergic respiratory diseases.* Allergy, 70, 755–767.

15. Groll, M. et al. (2013). *Sources and transport of dust in the Aral Sea region.* Atmospheric Chemistry and Physics.

16. Guarnieri, M., & Balmes, J.R. (2014). *Outdoor air pollution and asthma.* Lancet, 383, 1581–1592.

17. Indoitu, R. et al. (2015). *Dust storms in Central Asia: Spatial and temporal variability.* Aeolian Research.

18. Kerimray, A., et al. (2020). *Air pollution in Central Asian industrial cities.* Science of the Total Environment.

19. Kulmatov, R. et al. (2022). *Assessment of PM2.5 pollution from transport sources in major Uzbek cities.* Environmental Science and Pollution Research.

20. Lelieveld, J., et al. (2019). *Air pollution and health impacts.* Lancet Planetary Health, 3(1), e25–e33.

21. Lelieveld, J., Evans, J.S., Fnais, M., Giannadaki, D., & Pozzer, A. (2019). *The contribution of outdoor air pollution sources to premature mortality on a global scale.* Nature, 525, 367–371.

22. Maher, B., et al. (2016). *Magnetite pollution nanoparticles in the human brain.* PNAS.

23. Pope, C.A., et al. (2004). *Cardiovascular mortality and long-term exposure to particulate air pollution.* Circulation, 109, 71–77.

24. Rashki, A. et al. (2012). *Dust emission from desert regions: A review of mechanisms.* Journal of Arid Environments.

25. Seinfeld, J.H., & Pandis, S.N. (2016). *Atmospheric Chemistry and Physics.* Wiley.

26. Tai, A.P.K. et al. (2010). *Meteorological variability and PM2.5 concentration dynamics.*

27. Zhang, Q., et al. (2017). *Sources of particulate matter air pollution in Asia.* Environmental Research Letters, 12(2), 024011.

28. Zhang, Q., Jiang, X., Tong, D., et al. (2017). *Transboundary health impacts of transported global air pollution and international trade.* Nature, 543, 705–709.
29. https://chatgpt.com/c/69282fea-f878-832b-a369-8d08376a1b3f
30. https://kun.uz/news/2025/11/20/toshkent-havo-ifloslanishi-boyicha-dunyoda-1-oringa-chiqdi

ИССЛЕДОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ПЫЛЕВЫХ БУРЬ В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ

Тлеумуратова Бибигуль Сарыбаевна
доктор физико-математических наук, профессор, зав. лабораторией Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук
Нарымбетов Бахадыр Жанабаевич
PhD, старший научный сотрудник Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук
Султашов Ренат
базовый докторант

Аннотация. Проведен статистический и когнитивный анализ межгодового режима пылевых бурь в Южном Приаралье, сингулярного режима среднестатистической пылевой бури и режима конкретной пылевой бури, произошедшей в городе Нукус 22.08.2025г. Выявлено, что в среднем по метеостанциям Южного Приаралья коэффициент корреляции между количествами пылевых бурь и осадков равен -0,231. Также выявлено снижение годового количества осадков с устойчивой тенденцией осредненной по региону 0,7 мм/год, и увеличение количества дней с пылевыми бурями со средними темпами 6,7 % год. На основе анализа режима среднестатистической пылевой бури и режима конкретной пылевой бури выявлено преобладание мелкодисперсной фракции (79%) в осаждающейся массе пыли, представляющей особые риски для здоровья. Сделан когнитивный вывод, что для населения Южного Приаралья, сосредоточенном в Нижне-амударьинском оазисе, существенно опасны пылевые бури с очагами в окружающих пустынях, особенно на Аралкуме вследствие высокого содержания токсичных сульфатов.

Ключевые слова: пылевые бури, Южное Приаралье, пространственно-временная динамика, превышение ПДК, риски для здоровья.

Keywords: *temperature inversion, PM2.5 concentration, AQI dynamics, air pollution, meteorological parameters, Tashkent city.*

Аннотация. В данной статье проанализирован уровень загрязнения атмосферного воздуха города Ташкента мелкодисперсными частицами PM2.5 за последний год, их помесячная динамика и сопоставление с нормативными значениями, установленными Всемирной организацией здравоохранения (ВОЗ). Результаты исследования показали, что в холодные периоды года, особенно при наблюдении температурной инверсии, концентрация PM2.5 резко возрастает, многократно превышая допустимые уровни. В летние месяцы вследствие активного атмосферного перемешивания уровень загрязнения воздуха относительно снижается. Полученные данные подтверждают, что

метеорологические факторы, в частности процессы температурной инверсии, играют существенную роль в ухудшении качества атмосферного воздуха.

Ключевые слова: температурная инверсия, концентрация PM2.5, динамика AQI, загрязнение атмосферы, метеорологические параметры, город Ташкент.

KIRISH.

So‘nggi yillarda yirik shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi global ekologik muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [1]. Aholi sonining ortishi, sanoat va energetika tarmoqlarining rivojlanishi hamda avtotransport vositalari sonining ko‘payishi havo tarkibiga chiqarilayotgan zararli moddalarning oshishiga olib kelmoqda [2]. Ayniqsa, mayda dispers zarrachalar — PM2.5 inson salomatligi uchun eng xavfli ifloslantiruvchi moddalardan biri hisoblanadi. PM2.5 zarrachalari diametri 2,5 mikrometrdan kichik bo‘lib, nafas olish jarayoni orqali o‘pkaga chuqur kirib boradi va yurak-qon tomir hamda nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqaradi [3]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, PM2.5 bilan bog‘liq havo ifloslanishi har yili millionlab odamlarning erta o‘limiga sabab bo‘lmoqda [1]. Shu bois ushbu zarrachalarning konsentratsiyasini doimiy monitoring qilish va ularning o‘zgarish dinamikasini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Toshkent shahri Markaziy Osiyodagi yirik megapolislardan biri bo‘lib, geografik joylashuvi va iqlim sharoitlari tufayli ayrim fasllarda atmosferaning barqaror holati va temperaturaviy inversiya hodisalari tez-tez kuzatiladi [4]. Inversiya hodisasi tabiiy jarayon hisoblanib, odatda atmosfera quyi qatlamlarida havo haroratining balandlik bo‘yicha oshib borishi bilan tavsiflanadi. O‘zgidromet ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil noyabr oyining uchunchi o‘n kunligida Toshkent shahri hududida atmosferaning temperaturaviy inversiya hodisasi yuqori darajada kuzatilgan. Ushbu davrda past havo harorati, shamol tezligining sustligi va atmosferaning barqaror holati qayd etilib, vertikal havo almashinuvi sezilarli darajada cheklangan. Natijada ifloslantiruvchi moddalar, jumladan mayda dispers zarrachalar, yerga yaqin qatlamda to‘planib qolgan. Inversiya davrida havo sifati ko‘rsatkichlarining yomonlashuvi kuzatilib, bu holat shahar muhitida ekologik xavfning ortishiga sabab bo‘lgan. Ushbu jarayon inversiya hodisasining havo ifloslanish dinamikasiga sezilarli ta’sirini tasdiqlaydi [5]. Buning natijada havo qatlamlari o‘rtasidagi vertikal almashinuv cheklanadi va ifloslantiruvchi moddalar yerga yaqin qatlamda to‘planib qoladi [6, 7]. Mazkur hodisa kuzatiladigan davrlarda asosan sanoatlashgan hududlar va yirik shaharlar ko‘proq ta’sirga uchraydi. Buning natijasida aholi zich joylashgan qatlamlarda havo sifati keskin yomonlashib, aholining sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfi ortadi. Inversiya jarayonlari paytida havo qatlamlari orasidagi vertikal almashinuv cheklanadi va ifloslantiruvchi moddalar, jumladan PM2.5 zarrachalari yerga yaqin qatlamda to‘planib qoladi. Natijada, ayniqsa qish oylarida havo sifati keskin yomonlashadi [2]. Mazkur maqolada Toshkent shahrida oxirgi bir yil mobaynida PM2.5 zarrachalari konsentratsiyasining oylik o‘zgarishi, ularning JSST tomonidan belgilangan me’yoriy qiymatlar bilan taqqoslanishi hamda mavsumiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shahar hududida havo sifati holatini baholash, ekologik xavflarni aniqlash va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi [7].


Mazkur tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent shahri hududidagi atmosfera havosi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa shahar hududida PM2.5 mayda dispers zarrachalarining konsentratsiyasi va ularning vaqt bo‘yicha o‘zgarish dinamikasidir. Tadqiqotda oxirgi bir yil davomida kuzatuv stansiyalarida qayd etilgan havo sifati ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Toshkent shahrida PM2.5 konsentratsiyasining oylik o‘zgarishini tahlil qilish, ularning Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan me’yoriy qiymatlar bilan taqqoslash hamda mavsumiy va meteorologik omillar, jumladan temperaturaviy inversiya jarayonlarining havo sifati holatiga ta’sirini baholashdan iborat. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida shahar hududida havo sifatining hozirgi holatini baholash va ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan

ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish ko‘zda tutilgan. Ushbu tadqiqot davomida PM2.5 ko‘rsatkichlarining mavsumiy xususiyatlari, ularning me’yoriy qiymatlardan og‘ishi hamda meteorologik omillar bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

So‘nggi yillarda Toshkent shahrida atmosfera havosining PM2.5 zarrachalari bilan ifloslanishi dolzarb ekologik muammoga aylanib bormoqda. Ayniqsa sovuq mavsumda meteorologik sharoitlarning noqulayligi va inversiya hodisalari havo sifatining keskin yomonlashuviga olib kelmoqda. Quyidagi 1-rasmda Toshkent shahrida oxirgi bir yil mobaynida PM2.5 mayda dispers zarrachalari konsentratsiyasining oylik o‘rtacha qiymatlari va ularning Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan me’yoriy daraja bilan taqqoslanishi keltirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, PM2.5 konsentratsiyasi yil davomida notekis taqsimlangan bo‘lib, aniq mavsumiy xususiyatga ega. Eng yuqori PM2.5 qiymatlari kuz va qish oylarida, xususan noyabr–yanvar davrida kuzatilgan. Ushbu davrda konsentratsiya JSST tomonidan tavsiya etilgan 15 µg/m³ me’yoriy qiymatdan bir necha barobar yuqori bo‘lib, ayrim oylarda 80–120 µg/m³ gacha yetgani aniqlangan. Bu holat, asosan, temperaturaviy inversiya hodisalari, past havo harorati va atmosferaning barqaror holati bilan izohlanadi. Inversiya davrida vertikal havo almashinuvi cheklanganligi sababli ifloslantiruvchi zarrachalar yerga yaqin qatlamda to‘planib qoladi. Bahor va yoz oylarida esa PM2.5 konsentratsiyasining nisbatan pasayishi qayd etilgan. Aprel–avgust oylarida havo haroratining oshishi, shamollilikning kuchayishi va konvektiv jarayonlarning faollashuvi natijasida atmosferada ifloslantiruvchi moddalar samaraliroq tarqalgan. Natijada PM2.5 ko‘rsatkichlari ayrim oylarda me’yoriy qiymatlarga yaqinlashgan yoki ulardan past bo‘lgan.

Kuz faslida, xususan sentyabr–oktyabr oylarida PM2.5 miqdorining asta-sekin ortib borishi kuzatilgan bo‘lib, bu holat issiq mavsumdan sovuq mavsumga o‘tish jarayoni bilan bog‘liq. Umuman olganda, 1-rasmda keltirilgan natijalar Toshkent shahrida PM2.5 ifloslanishi meteorologik omillarga, ayniqsa inversiya jarayonlariga juda sezgir ekanini ko‘rsatadi. Bu esa qishki davrda havo sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks ekologik va tashkiliy choralarni kuchaytirish zarurligini taqozo etadi.




1-rasm. Toshkent shahrida PM2.5 konsentratsiyasining oylik o‘rtacha o‘zgarishi dinamikasi. (https://air.tashkent.uz ma’lumotlari asosida).

Endi quyidagi 2-rasmda Toshkent shahrida oxirgi bir yil davomida PM2.5 mayda dispers zarrachalarining oylik o‘rtacha konsentratsiyasi va ularning Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan belgilangan me’yoriy qiymat bilan taqqoslanishi keltirilgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, PM2.5 konsentratsiyasi yil davomida sezilarli mavsumiy tebranishlarga ega bo‘lib, deyarli barcha oylarda me’yoriy darajadan yuqori bo‘lgan. Eng yuqori PM2.5 qiymatlari kuz va qish oylarida, xususan noyabr–yanvar davrida kuzatilgan. Ushbu davrda PM2.5 ning o‘rtacha oylik konsentratsiyasi 90–130 µg/m³ oralig‘ida bo‘lib, bu JSST tomonidan tavsiya etilgan 15

µg/m³ me’yoridan bir necha barobar yuqoridir. Bunday keskin oshish, asosan, temperaturaviy inversiya hodisalari, past havo harorati va atmosferaning barqaror holati bilan bog‘liq. Inversiya jarayonlari vaqtida vertikal havo almashinuvi cheklanadi va ifloslantiruvchi zarrachalar yerga yaqin qatlamda to‘planib qoladi.

Bahor va yoz oylarida PM2.5 konsentratsiyasining nisbatan pasayishi qayd etilgan. Mart–avgust davrida havo haroratining oshishi, shamollilikning kuchayishi va konvektiv jarayonlarning faollashuvi natijasida atmosferada ifloslantiruvchi moddalar dispersiyasi yaxshilangani kuzatiladi. Shu sababli ushbu davrda PM2.5 ko‘rsatkichlari yilning sovuq fasliga nisbatan ancha past bo‘lgan bo‘lsa-da, ayrim oylarda ular hanuz me’yoriy qiymatdan yuqori bo‘lib qolgan. Umuman olganda, 2-rasmda keltirilgan natijalar Toshkent shahrida PM2.5 bilan ifloslanish darajasi mavsumiy va meteorologik omillarga juda sezgir ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa qishki inversiya davrlarida havo sifati sezilarli darajada yomonlashib, aholi salomatligi uchun yuqori ekologik xavf yuzaga keladi. Bu esa havo sifatini monitoring qilish va ifloslanishni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.



2-rasm. Toshkent shahrida PM2.5 konsentratsiyasining oylik o‘rtacha qiymatlari va JSST me’yoriy darajasi. (https://air.tashkent.uz ma’lumotlari asosida).

O‘tkazilgan tahlillar Toshkent shahrida atmosfera havosining PM2.5 zarrachalari bilan ifloslanishi barqaror va mavsumiy xarakterga ega muammo ekanini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, PM2.5 konsentratsiyasi yil davomida Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan belgilangan me’yoriy qiymatlardan yuqori bo‘lib, ayniqsa sovuq fasllarda keskin ortishi kuzatiladi. Bu holat aholi salomatligi uchun jiddiy ekologik xavf tug‘diradi.

Qish oylarida PM2.5 darajasining oshishi, asosan, temperaturaviy inversiya hodisalari, past havo harorati va atmosferaning barqarorligi bilan izohlanadi. Ushbu sharoitda ifloslantiruvchi moddalar atmosferaning past qatlamida to‘planib, havo almashinuvi sezilarli darajada cheklanadi. Natijada havo sifati tezda yomonlashib, AQI ko‘rsatkichlari ham salbiy tomonga o‘zgaradi. Aksincha, bahor va yoz oylarida havo haroratining oshishi va konvektiv jarayonlarning faollashuvi ifloslantiruvchi zarrachalarning tarqalishini yaxshilab, PM2.5 konsentratsiyasining pasayishiga olib keladi [9]. Shu bilan birga, olingan natijalar Toshkent shahrida havo sifati muammosi faqat tabiiy omillar bilan emas, balki antropogen manbalar, xususan avtotransport, yoqilg‘i yonishi va sanoat faoliyati bilan ham chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli, havo sifatini yaxshilash uchun inversiya davrlarida emissiyalarni cheklash, monitoring tizimlarini kuchaytirish va aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlillar Toshkent shahrida PM2.5 mayda dispers zarrachalari bilan ifloslanish darajasi yil davomida barqaror yuqori ekanini va ayniqsa sovuq fasllarda meteorologik sharoitlar,

xususan temperaturaviy inversiya hodisalari ta’sirida keskin ortishini ko‘rsatdi. Oylik dinamikada PM2.5 konsentratsiyasining JSST tomonidan belgilangan me’yoriy qiymatlardan muntazam ravishda oshib borishi havo sifati muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari havo ifloslanishining mavsumiy va meteorologik omillarga yuqori darajada bog‘liqligini ko‘rsatib berdi. Kelgusida havo sifatini yaxshilash maqsadida inversiya davrlarida PM2.5 emissiyalarini kamaytirishga qaratilgan choralarni kuchaytirish, real vaqt rejimida monitoring tizimlarini rivojlantirish hamda meteorologik prognozlar asosida erta ogohlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Shuningdek, PM2.5 manbalarini aniqlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlar olib borish va uzoq muddatli statistik tahlillarni amalga oshirish kelajakdagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. WHO Global Air Quality Guidelines: Particulate Matter (PM2.5 and PM10), Ozone, Nitrogen Dioxide and Sulfur Dioxide. Geneva, 2021.

2. Seinfeld J.H., Pandis S.N. Atmospheric Chemistry and Physics: From Air Pollution to Climate Change. 3rd ed. John Wiley & Sons, New York, 2016.

3. Pope C.A., Dockery D.W. Health effects of fine particulate air pollution: lines that connect // Journal of the Air & Waste Management Association. 2006. Vol. 56. P. 709–742.

4. Jacobson M.Z. Air Pollution and Global Warming: History, Science, and Solutions. Cambridge University Press, 2012.

5. O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi (UzGidromet). Toshkent shahri bo‘yicha meteorologik kuzatuvlar va inversiya hodisalari to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlari Toshkent, 2025. — https://meteo.uz

6. Seinfeld J.H., Pandis S.N. *Atmospheric Chemistry and Physics: From Air Pollution to Climate Change*. 3rd ed. John Wiley & Sons, New York, 2016.

7. Jacobson M.Z. *Air Pollution and Global Warming: History, Science, and Solutions*. Cambridge University Press, 2012.

8. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi. Toshkent shahri atmosfera havosi sifati bo‘yicha monitoring ma’lumotlari. 2023–2024.

9. Toshkent shahri atmosfera havosi sifati monitoringi bo‘yicha rasmiy portal: https://air.tashkent.uz

---

TOSHKENT SHAHRIDA PM 2.5 ZARRACHALARINI KAMAYTIRISHDA YASHIL URBANIZATSIYA YECHIMLARINING SAMARADORLIGI

Xamrayeva Komila Baxodir qizi
Markaziy Osiyo Atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti 2-bosqich magistranti.
Rustamov G‘iyos Sadridinovich,
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti Ekologik ta’lim va targ‘ibot bo‘limi boshlig‘i, t.f.f.d.,

Annotatsiya: Qulay ekologik muhit jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson salomatligini ta’minlashda asosiy omildir. Ekologik sharoitlarning sifati aholining farovonligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va shu bois ekologik xavfsizlik hamda barqarorlikni ta’minlash bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifasidir. Atmosfera havosining ifloslanishi, global isish va shu kabi boshqa ekologik muammolar aholisi va infratuzilmasi keskin o‘sib borayotgan Toshkent shahri uchun tezkor va barqaror yechimni talab

qiladi. Maqolada ushbu ekologik inqirozga qarshi kurashish uchun yechim sifatida yashil urbanizatsiya texnologiyalari (vertikal bog‘lar, tom ustki qismi bog‘lari qurg‘oqchilikka chidamli butalarni ko‘paytirish) taklif etiladi. Maqolaning metodologiya bo‘limida Markaziy Osiyo shaharlarining (Asian Green Cities Index) muvaffaqiyatli tajribalari va tarixiy mahalliy amaliyot (Amir Temur bog‘lari) tahlillari olib borildi. Yashil urbanizatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali Toshkent shahri PM muammosini hal qilib, barqaror shaharlar qatoridan joy olish imkoniyatiga ega bo‘lishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, atmosfera, yashil urbanizatsiya, PM 2,5 va PM 10 zarrachalari kamaytirishga doir tavsiyalar, barqaror shahar, Amir Temur bog‘lari

Abstract: A favorable ecological condition is a key factor in ensuring the sustainable development of society and human health. The quality of ecological conditions directly affects the well-being of the population and the efficiency of socio-economic processes, and therefore ensuring ecological safety and stability is an important scientific and practical task of today. Air pollution, global warming and other similar environmental problems require an urgent and sustainable solution for the city of Tashkent, whose population and infrastructure are growing rapidly. The article proposes green urbanization technologies (vertical gardens, rooftop gardens, and the cultivation of drought-resistant shrubs) as a solution to combat this ecological crisis. The methodological section of the article analyzes the successful experiences of Central Asian cities (Asian Green Cities Index) and historical local practices (Amir Temur’s gardens). It is emphasized that by introducing green urbanization technologies, Tashkent will have the opportunity to solve the PM problem and become one of the sustainable cities.

Keywords: Climate Change, sustainable development, atmosphere, green urbanism, Recommendations for reducing PM 2.5 and PM 10 particles, sustainable city, Gardens of Amir Temur

Аннотация: Благоприятная экологическая среда является ключевым фактором обеспечения устойчивого развития общества и здоровья человека. Качество экологических условий напрямую влияет на благополучие населения и эффективность социально-экономических процессов, поэтому обеспечение экологической безопасности и стабильности является важной научной и практической задачей современности. Загрязнение воздуха, глобальное потепление и другие подобные экологические проблемы требуют безотлагательного и устойчивого решения для города Ташкента, население и инфраструктура которого стремительно растут. В статье предлагаются технологии зеленой урбанизации (вертикальные сады, сады на крышах домов, выращивание засухоустойчивых кустарников) в качестве решения для борьбы с этим экологическим кризисом. В методологической части статьи анализируется успешный опыт городов Центральной Азии (Азиатский индекс зеленых городов) и исторически сложившаяся местная практика (сады Амира Темура). Подчеркивается, что внедрение технологий зеленой урбанизации позволит Ташкенту решить проблему твердых частиц (PM) и занять свое место среди устойчивых городов.

Ключевые слова: изменение климата, устойчивое развитие, атмосфера, зеленая урбанизация, частицы PM 2,5 и PM 10, устойчивый город, Сады Амира Темура

KIRISH (INTRODUCTION)

Juda ko‘p odamlar barcha sharoitlarga ega shaharlarda yashashni afzal ko‘rishadi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yillarga kelib, dunyo aholisining 60 % dan ko‘prog‘i shaharlarda istiqomat qiladi. 2025-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra, poytaxt – Toshkent shahrining doimiy aholisi soni 3,164,030 kishini tashkil etgan. Bu poytaxtda yashovchilarning jami miqdori degani emas. Toshkent shahrida doimiy istiqomat qiluvchi aholidan tashqari poytaxtga doimiy va mavsumiy kirib chiquvchi insonlarning soni ham yildan yilga ko‘payganligi aniqlanmoqda.

Mamlakat aholisining asosiy qismini, shu bilan bir qatorda, xorijlik delegat va sayyohlarni o‘zida birlashtiruvchi Toshkent shahri atmosferasida kuzatilayotgan muammoning asosi nimadan iborat va uni qanday hal etish mumkin, natija va oqibatlar qanday tus oladi? PM 2,5 va PM 10 zarrachalari Toshkent shahrida istiqomat qiluvchilarning turmush tarziga, salomatligiga va bu orqali kelajagiga qay darajada daxl qiladi?

2021-yil 4-noyabr kuni Ural va Volga daryolari hududidan esgan sovuq shamol Buxoro, Samarqand, Navoiy va Jizzax viloyatlari orqali o‘tib, Qozog‘iston hududi tomonga yo‘nalgan, keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi hududiga chang bo‘ronlari bilan birga qo‘shilib kelib, Toshkent osmonida ma’lum muddat saqlanganligi. Meteorologik kuzatuvchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, bunday kuchli bo‘ron 1871-yildan beri kuzatilmagan. Mutaxassislarning fikricha, chang miqdori har kubometr havoda 18 ming mikrogrammga yetgan. Havoda changdan tashqari boshqa zararli moddalar ham aniqlangan.

Bugungi kunda Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) diametri 10 mikrondan kichik (PM10) bo‘lgan yirik zarralarni va diametri 2.5 mikrondan kichik (PM2.5) bo‘lgan nozik zarralarni ustuvor havo ifloslantiruvchi moddalar deb tasniflashni tavsiya qilmoqda

Atmosfera ifloslanishi bilan bog‘liq holatlar, changli ob-havo O‘rta Sharq, Sahro va Markaziy Osiyoda ko‘p kuzatilayotgan holatlardir. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilar keltirilmoqda:

- kam yog‘ingarchilik;
- kuchli shamol;
- yashil qoplamalarning kamligi (shaharlarda);
- uzoq muddatli quruq yoz;
- tuproq eroziyasi;
- atmosfera haroratining ko‘tarilishi.

Haqiqatan ham, yuqoridagi ekologik omillarning barchasi Toshkent shahri uchun juda yaqin bo’lgan holatlardir. Ayni vaqtda ekologik balansni me’yorlashtirish esa ularga maqbul yechimlarni talab qiladi.

Rivojlangan mamlakatlar va shu bilan bir qatorda Osiyoning bir qancha shaharlarida amaliyotga tatbiq etilgan yashil urbanizatsiya texnologiyalarini Toshkent shahriga joriy etish orqali qanday natijaga erishish mumkinligini ko‘rish mumkin.

TADQIQOT USLUBLARI.

Rivojlangan mamlakatlar olimlari XX asrning 80–90-yillaridan boshlab yirik shaharlardagi mayda qattiq zarralar (PM) havo ifloslanishi muammosiga e’tibor qarata boshladilar. O‘sha vaqtga kelib, rivojlangan mamlakatlardagi shaharlar atmosfera havosida eng keng tarqalgan ifloslantiruvchi moddalarning konsentratsiyasi qo‘rg‘oshinli benzinni taqiqlash, gaz va boshqa ekologik toza yoqilg‘iga o‘tish hisobiga kamaygan edi. Shundan so‘ng, qattiq zarralar bilan havo ifloslanishi jiddiy muammo ekanligi aniqlandi va ularning salomatlik va atrof-muhitga ta’siri bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar boshlandi.

Muayyan muammolarga yechim sifatida shaharlararo, mamlakatlar o‘rtasida yoki mintaqalararo tajriba almashinuv choralari ko‘rilmoqda. O‘zbekistonning eng yirik hamda gavjum shahri va poytaxti bo‘lgan Toshkentning atmosfera havosini yaxshilashda ana shunday tajribalarga yuzlanish, maqbulini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Toshkent shahrida yashil urbanizatsiyani tashkil etish jarayonida Markaziy Osiyo mintaqasining iqlimi va turmush tarzi yaqin bo‘lgan boshqa shaharlari keysiga ham murojaat qilish mumkin. Masalan, Osiyo yashil shaharlar indeksi (Asian Green cities index) mavjud bo‘lib, unda, asosan, Tokio, Singapur, Seul kabi shaharlar yetakchi o‘rinlarni egallaydi.

Yashil va barqaror shaharlarni aniqlashda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- Havo sifati;
- Ekologik nazorat;
- Barqaror transport tizimi;
- Barqaror energetika;
- Suvdan oqilona foydalanish;
- Chiqindilarni boshqarish;
- Minimal uglerod izi (CO2);
- Qurilish jarayonlarining tartibga solinganligi.

Bu omillar yuqorida sanab o‘tilgan kam yog‘ingarchilik, kuchli shamol, yashil qoplamalarning kamligi, uzoq muddatli quruq yoz, tuproq eroziyasi, atmosfera haroratining ko‘tarilishi kabi sabablarni bartaraf etishda yoki zararini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahar havosini yaxshilash, unga yashil urbanizatsiya orqali yechim berish haqida so‘z borar ekan, bir qancha mutaxassislar bu borada tarixga yuzlanishadi, ya’ni Amir Temur keysiga murojaat qilishadi. Unga ko‘ra, yashil hududlarni samarali tashkil etish O‘zbekiston uchun yangilik emasligi va kelajakdagi qadamlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Haqiqatan ham, juda ko‘p tarixiy badiiy va ilmiy manbalarda Amir Temur va undan keyingi temuriylar hukmronligi davrida ham shohlar tomonidan bunyod etilgan bog‘lar o‘ziga xos obyekt sifatida tilga olinadi. Bir qancha manbalarda Amir Temurning elchilarni ana shunday bog‘larda qabul qilganligi haqida ma’lumotlar bor, qolaversa, eng mashhur bog‘ nomlari qayd etiladi.

Amir Temur Samarqand atrofida bunyod etgan bog‘lar nafaqat dam olish maskani, balki ulug‘vorlik, san’at va diplomatiyaning ham ramzi bo‘lgan. Tarixiy manbalarga ko‘ra, u jami 12 ta bog‘ qurdirgan. Bog‘lar ikki turga bo‘lingan: rasmiy (chorbog‘) va tabiiy bog‘lar. Rasmiy bog‘larda, asosan, ommaviy tadbirlar o‘tkazilgan, elchilar qabul qilingan. Tabiiy bog‘lar esa o‘rmonlar va chakalaklar ichida barpo etilgan bo‘lib, aksariyat qismi o‘z holida saqlab qolingan. Ular, asosan, hukmdorning ov qilishi uchun xizmat qilgan. Ular o‘z davrida tabiat qo‘riqxonalari va eng boy botanika bog‘lari vazifasini o‘tagan. Fauna va florasi nihoyatda boy bo‘lgan.

Amir Temur qurdirgan ba’zi rasmiy bog‘lar:

- Davlatobod bog‘i 5.5 km masofani egallagan. Oltita katta hovuzi, markazdan oqib o‘tuvchi ariq, baland tepalikda qurilgan va himoyalangan ayvoni bo‘lgan.
- Bog‘i Bihisht (Jannat bog‘i) juda katta bog‘ bo‘lib, hashamatli darvozasi g‘ishtdan yasalgan, lojuvard va tilla bilan bezatilgan.
- Dilkusho bog‘i (ko‘ngilni xushnud etuvchi degan ma’noni bildiradi)da elchilarni qabul qilish marosimi o‘tkazilgan. Markazida uch qavatli saroy bo‘lib, har bir qavatida favvora bo‘lgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Ma’lumki, PM10 bronxial tolalarga kirib, o‘pka to‘qimalarida to‘planishi mumkin; PM2.5 bronxiolalar va alveolalarga yetib borishi mumkin, eng kichik nanozarrachalar esa qon oqimiga o‘tishi mumkin. Dunyoning turli mamlakatlarida o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalari PM darajasining oshishi bilan nafas olish va yurak-qon tomir kasalliklari holatlarining ko‘payishi, shuningdek, umr ko‘rish davomiyligining qisqarishi va muddatidan oldin o‘lim holatlarining ortishi o‘rtasida bog‘liqlik borligini ko‘rsatadi.

Inson salomatligiga ta’siridan tashqari, mayda zarralar Yer-atmosfera tizimining radiatsiya balansiga ham ta’sir qiladi va shuning uchun nurlanishni yutib, aks ettirib va tarqatib, ob-havo va iqlimga ta’sir qiladi. Muayyan sharoitlarda havoda suzuvchi zarralar ko‘rinishning sezilarli darajada pasayishiga va hosilning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Bu chang tarkibi PM (Particulate matters) 2,5 (hajmi 2,5 mikrometr va undan ham kichik bo‘lgan zarrachalar) va PM 10 (hajmi, asosan, 10 mikrometr va undan kichik bo‘lgan zarrachalar) dan iborat bo‘lib, ular havoni zaharlash barobarida inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zarrachalar hajmiga qarab ichki organizmning turli a’zolarigacha chuqurroq kirib borib, u yerda turlicha kasalliklarni keltirib chiqaradi. Changning kimyoviy tarkibi ham katta gigiyenik ahamiyatga ega, chunki chang organizmga fibrogen, tirnash xususiyati beruvchi yoki qichishtiruvchi, zaharli, allergik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Changning zarari birinchi navbatda uning dispersiyasiga, zarrachalarning o‘lchamiga va ularning nafas yo‘llaridagi konsentratsiyasiga bog‘liq. Pnevmokonioz kelib chiqishining negizida o‘pka alveolalarining devoriga joylashgan chang zarralari atrofida biriktiruvchi to‘qimalarning shakllanishi yotadi. Faqat nozik yoki kichik dispersli changlar alveolalarga yetib borish xususiyatiga ega, shuning uchun ular o‘rta va yirik dispersli changlarga qaraganda xavfliroq hisoblanadi.

Umuman olganda, hozirgi sharoitda PM zarrachalari (xoh PM 10 va yoki PM 2,5) muayyan hududda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlarga sabab bo‘ladi.

Demak, ko‘kalamzorlashtirish va yashil urbanizatsiya texnologiyalarini joriy etish Toshkent iqlimi uchun muayyan muvaffaqiyatli tajribalarga asoslangan va samarali bo‘ladi. Unga ko‘ra, shaharning har bir qarich yeridan oqilona foydalanib, yangi qurilgan ko‘p qavatli uylar va boshqa turdagi binolarning kichik hovlisidagi sun’iy maysalar o‘rniga, ancha vaqt oldin qurilgan binolarning, ko‘p qavatli uylarning pastidagi beton qilingan yoki foydalanilmayotgan hududlariga butalarni ekish, yashil devor (vertical gardening) texnologiyalarini joriy etish, shu bilan bir qatorda, binolarning tom qismida maqbul bog‘ yaratish (rooftop gardening) amaliyotini tatbiq etish aholi zich joylashgan va infratuzilmasi kun sayin o‘sib borayotgan poytaxt uchun barqaror rivojlanish va ekologik muvaffaqiyatning poydevori bo‘la oladi.

Yashil maydonlar (masalan, bog‘lar, o‘rmonlar va boshqalar) sog‘lom va barqaror shahar muhiti uchun juda muhimdir. Hukumatlar, shuningdek, yashil maydonlar ekologik barqarorlik, farovonlik va salomatlik uchun muhim ekanligini tan oldilar. Ba’zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, shahar yashil maydonlari jismoniy va ruhiy salomatligini yaxshilash orqali odamlarning baxtli hayot kechirishiga hissa qo‘shadi.

Bundan tashqari, ba’zi tadqiqotlar yashil maydonlarning sog‘liqqa ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida quyidagicha fikrlarni ilgari suradilar. Masalan, yashil maydonlarning qisqarishi o‘z navbatida iqlim o‘zgarishiga bevosita bog‘liq, buning natijasida magnit bo‘ronlari avj oladi, natijada asab tizimi bilan bog‘liq kasalliklar ko‘payadi. Shuningdek, havo ifloslanib, atmosferada PM miqdori ortadi, bu o‘pka, nafas olish yo‘llari va qon aylanish tizimi bilan bog‘liq kasalliklarni keltirib chiqaradi. Aksincha, yashil maydonlarni ko‘paytirish yozi juda issiq bo‘lgan O‘zbekistonda issiqdan xalos bo‘lishni osonlashtiradi, aholi zich joylashgan shaharlarda havoni tozalaydi, bundan tashqari, avtomobil yo‘llari orqali uylarga kirayotgan shovqinni kamaytiradi. Umuman olganda, shaharni yashil urbanizatsiyaga moslashtirish ruhiy va jismoniy salomatlik uchun har tomonlama foyda keltiradi.

Tom bog‘lari shovqinni yutadi, o‘simlik barglari havodagi changlarni ushlab qolish xususiyatiga ega va sug‘orish orqali yomg‘ir suvlaridan ham oqilona foydalanish imkonini beradi. Shaharda butalar sonini ko‘paytirish, yashil devor va yashil tom amaliyotini joriy etish orqali bioxilma-xillikni asrashga ham hissa qo‘shish mumkin, eng asosiysi, daraxt, buta va gullar kislorod manbayi bo‘lib, issiqxona gazlarini (CO_2) kamaytirishda yordam beradi. Boshqa tomondan olib qaraganda, yashil devor, yashil tom va butalar estetik jihatdan ham kishilarga ruhiy zavq bag‘ishlaydi.

Bundan tashqari, o‘simliklarni parvarishlash jarayonida aholi xonadonlaridan chiqqan oziq-ovqat chiqindisidan tayyorlangan mahalliy o‘g‘itni loyiha doirasidagi hududlarga yo‘naltirish

nafaqat tuproq unumdorligini oshirish, balki chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishga erishish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Mavjud muammolarni bosqichma-bosqich bartaraf etish hamda kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yanada murakkab holatlarning oldini olish maqsadida tizimli va amaliy choralarni ishlab chiqish hamda ularni izchil tatbiq etish zarurati allaqachon dolzarb masalaga aylangan. Yashil urbanizatsiya texnologiyalarini joriy etish hamda yuqorida qayd etilgan jarayonlarni izchil yo‘lga qo‘yish, Toshkent shahrining havosi ifloslangan megapolislar qatoridan chiqib, Osiyo Yashil shaharlar indeksi (Asian Green Cities Index)da munosib o‘rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Demak, zamonaviy yashil urbanizatsiya texnologiyalarini joriy etish Toshkent shahrining ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va shahar infratuzilmasining energiya samaradorligini oshirish borasidagi salohiyatini sezilarli darajada mustahkamlaydi hamda uni barqaror rivojlanayotgan global shaharlar qatorida munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Amonov M., Nishonov B. (2020). “Seasonal variability of PM concentration in Tashkent”, IOP Conference Series: Materials Science and Engineering

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi Toshkent Shahar Statistika Boshqarmasining rasmiy veb sayti (https://www.toshstat.uz)

3. Salomova F., Ahmadalieva N., Sadullaeva K., and Sherkuzieva G. (2022) “Dust storm and atmosphere air pollution in Uzbekistan”, Central Asian Journal of Medicine: Vol. 2022: Iss. 2, Article 5. (https://uzjournals.edu.uz/tma/vol2022/iss2/5)

4. Nishonov B., Kholmatjanov B., Labzovskii L., Rakhmatova L., Shardakova L., Abdulakhatov E., Yarashev D., Toderich K., Khujanazarov T., Belikov D. (2021) “Study of the strongest dust storm occurred in Uzbekistan in November 2021”, Scientific reports

5. Rasulov I., Juraev Z. (2023) “Urban green spaces – Uzbekistan’s case”, International Scientific Journal Theoretical & Applied Science

6. Hegazy I.R, Hammad H.A, Munshi A.M, Alqurashi A.A and Bahreldin I. Z., (2024), “Pathways to green urbanism: evaluating Jeddah’s environmental sustainability progress and prospects”, International Journal of Low-Carbon technologies

7. Tugalov B., Karimov B. (2025) “On the cultural environment during the reign of Amir Temur and the Temurids”, International multidisciplinary journal for research & development

8. Uljaeva Sh., Nazarov Kh., Inagamova G., Gofurova H., Baxtiyorov L. (2021) “Diplomatic protocol ceremonies in the gardens of Amir Temur annotation”, International Journal of Aquatic Science, ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 02, 2021

9. Shadimetov Y., Airapetov D. (2023) “City dust: problems and solutions (on the example of Tashkent city)” (in russian), Наукосфера

10. Peter Newman, (2011) “Green Urbanism and its Application to Singapore”, Asia Research Institute Working Paper Series

11. C P Pow and Harvey Neo. (2014) “Modelling green urbanism in China”, Area

12. Elisa Appolloni, Francesco Orsini, Kathrin Specht, Susanne Thomaier, Esther Sanye-Mengual, Giuseppina Pennisi, Giorgio Gianquinto (2021) “The global rise of urban rooftop agriculture: A review of worldwide cases”, Journal of Cleaner Production

13. McCann, E. (2017) “Mobilities, politics, and the future: Critical geographies of green urbanism”, EPA: Economy & Space, 49(8), 1816-1823.

14. Michael M. Santos, Joao C.G. Lanzinha, Ana Vaz Ferreira (2021) “Review on urbanism and climate change”, Cities 114

15. Pope C. A., Dockery D. W. (2006). Health Effects of Fine Particulate Air Pollution: Lines that Connect. Journal of the Air & Waste Management Association, 56(6), 699–716.
16. Newman, P (2006) The Environmental Impact of Cities, Environment and Urbanization 18(2):275–295.
17. Newman, P and I Jennings (2008) Cities as Sustainable Ecosystems, Washington, DC: Island Press.
18. Ki-Hyun Kim, Ehsanul Kabir, Shamin Kabir (2015) “A review on the human health impact of airborne particulate matter”, Environment International. Volume 74, January 2015, 136-143p
19. Van Veenhuizen, R. (2014) “Cities Farming for the Future: Urban Agriculture for Green and Productive Cities”, IDRC. https://doi.org/10.4324/9781315771144.
20. Sany_e-Mengual, E., Specht, K., Grapsa, E., Orsini, F., Gianquinto, G. (2019) How can innovation in urban agriculture contribute to sustainability? A characterization and evaluation study from five western European cities. Sustainability 11 (15), 4221. https://doi.org/10.3390/su11154221.

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА АТМОСФЕРНОГО ВОЗДУХА В РЕСПУБЛИКЕ ТАДЖИКИСТАН И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ МОНИТОРИНГА

Амирзода Ориф Хамид,
Хакдодов Акбарджон Махмадшарифович,
Хакдод Махмадшариф Махмуд,
Институт водных проблем, гидроэнергетики и экологии Национальной академии наук Таджикистана

Abstract. Maqolada Tojikistonda atrof-muhit monitoringi va havo sifatini baholash tizimining hozirgi holati bo'yicha tadqiqotlar taqdim etilgan. Atmosfera havosi sifati monitoringini tashkil etish, zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar bilan jihozlanish darajasi, respublikamizni atmosferani kuzatish tarmoqlari bilan qamrab olish, ifloslantiruvchi moddalarni tartibga solish, turli manbalardan havo sifatini aniqlash usullarida ayrim kamchiliklar aniqlandi. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida va xalqaro tajribani hisobga olgan holda zamonaviy usullar va kompyuter modellaridan foydalangan holda atmosfera havosi sifatini ekologik monitoring tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: atmosfera havosi sifati, atrof-muhit monitoringi, sanoatlashtirish, "yashil shahar", atmosferaning ifloslanishi, ifloslantiruvchi moddalar, tartibga solish, ruxsat etilgan maksimal kontsentratsiya, Internet of Things (IoT) tizimi, blokcheyn.

Аннотация. В статье представлены исследования современного состояния системы экологического мониторинга и оценки качества атмосферного воздуха в условиях Таджикистана. Выявлены некоторые недостатки в организации мониторинга качества атмосферного воздуха, уровне оснащенности современными автоматизированными системами, охвате страны сетями атмосферных наблюдений, нормирование загрязнителей и методов определения качества атмосферного воздуха от различных источников. На основании проведенных исследований с учетом мирового опыта рекомендованы мероприятия по совершенствованию системы экологического мониторинга качества атмосферного воздуха с использованием современных методов и компьютерных моделей.

Ключевые слова: качества атмосферного воздуха, экологический мониторинг, индустриализация, «зеленый город», загрязнение атмосферы, загрязняющие вещества,

нормирование, предельно-допустимая концентрация, система Интернет вещей (IoT), блокчейн.

Abstract. The article presents research on the current state of the environmental monitoring and air quality assessment system in Tajikistan. Some shortcomings have been identified in the organization of air quality monitoring, the level of equipment with modern automated systems, the coverage of the country by atmospheric observation networks, the regulation of pollutants, and methods for determining air quality from various sources. Based on the research conducted and taking into account international experience, measures are recommended to improve the environmental monitoring system for atmospheric air quality using modern methods and computer models.

Keywords: atmospheric air quality, environmental monitoring, industrialization, “green city,” atmospheric pollution, pollutants, regulation, maximum permissible concentration, Internet of Things (IoT) system, blockchain.

ВВЕДЕНИЕ

Ухудшение качество атмосферного воздуха, обусловленное выбросами энергетики, промышленным комплексом и транспорта, оказывает негативное воздействие как на здоровье населения, так и на окружающую среду в целом. Поэтому загрязнение атмосферного воздуха признаётся ВОЗ одной из самых серьёзных экологических угроз в мире [1], которые оказывают ряд негативных факторов на здоровье человека, приводя к формированию и прогрессированию различных патологий сердечно-сосудистой, дыхательной, эндокринной систем, аллергических реакций, онкопатологии и др. [2]. В условиях Таджикистана загрязнение воздуха может наносит значительный ущерб не только здоровью людей, но и вызвать экономические потери в связи со снижением урожайности сельскохозяйственных культур и ускоренным таянием ледников. В связи с этим постоянный контроль за качеством атмосферного воздуха является важнейшей задачей как на государственном, так и на общемировом уровнях.

Для нормирования загрязнителей атмосферного воздуха с учётом класса опасности существуют «Глобальные рекомендации ВОЗ по качеству воздуха, касающиеся озона (O_3), двуокиси азота (NO_2), двуокиси серы (SO_2), окиси углерода (CO) и твёрдых частиц ($PM_{2.5}$ и PM_{10})», с учетом которых каждая страна самостоятельно устанавливает свои предельно-допустимые концентрации вредных веществ (ПДК), путём определения значения максимально-разовых, среднесуточных и среднегодовых концентраций загрязняющих веществ [3].

Исходя из этого, многими странами на законодательном уровне устанавливаются ПДК различных загрязнителей и реализуется комплекс мероприятий, направленных на усиление контроля за качеством атмосферного воздуха и снижением уровня загрязнения. Наибольшие успехи в сфере контроля качества атмосферного воздуха достигнуты в странах Европы, США и Китае, жители которых могут получать актуальную информацию о состоянии атмосферного воздуха в свободном доступе в режиме реального времени [4]. Однако, у развитых и развивающихся стран неодинаковые возможности контроля качества атмосферного воздуха и покрытие территории сетью пунктов наблюдения за состоянием атмосферы.

Например, мониторинг качества атмосферного воздуха в странах Центральной Азии проводится в каждой стране и по количеству постов наблюдения, городов, охваченные мониторингом, контролируемым загрязняющим веществам, показателям загрязнения атмосферы и информированием населения находятся на разном уровне [5].

В Республике Таджикистан на законодательном уровне действует единая государственная система экологического мониторинга. Мониторинг состояния

атмосферного воздуха проводится в соответствии с законами Республики Таджикистан «О гидрометеорологической деятельности» от 23 июля 2016 года, №1345 и «Об охране атмосферного воздуха» от 28 декабря 2012 года № 915 Агентством по гидрометеорологии Комитета охраны окружающей среды при Правительстве Республики Таджикистан и результаты уровня загрязнения атмосферного воздуха по 5 городам ежедневно публикуется в электронном виде на сайте агентства [6]. Кроме, того одна независимая автоматическая станция мониторинга находится на территории посольства США в г. Душанбе [7].

Однако, по данным Всемирного банка в республике отсутствует комплексная система мониторинга качества воздуха, т.е. станции неравномерно распределены по городу Душанбе и других районах, чтобы охватить различные источники (фон, автомобильное движение, промышленность и др.), а также доступность данных является недостаточной для получения необходимой информации о качестве атмосферного воздуха [8].

В связи с ускоренной индустриализацией страны [9], реализацией концепции «Зеленый город» в городе Душанбе, где предусматривается улучшение экологической ситуации в городе, повышение качества и достоверности оценок состояния окружающей среды, улучшение информирования населения за счет применения цифровых технологий [10], а также прогнозирование ситуации с песчано-пыльными бурями, которые в последние годы чаще накрывает почти все территории страны [11], возрастает необходимость совершенствование системы мониторинга качества атмосферного воздуха.

Следовательно, исследование качества атмосферного воздуха с целью снижения воздействия загрязнения воздуха на здоровье людей и экономики требует комплексного подхода с участием всех заинтересованных сторон [12] и применения современных автоматизированных комплексов на основе моделей и компьютерных технологий [13, 14].

Поэтому анализ состояния системы мониторинга качества атмосферного воздуха в целях повышения его эффективности с применением современных методов и технологий является актуальной задачей.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Мониторинг состояния атмосферного воздуха представляет собой деятельность, включающую наблюдения, сбор, хранение, учет, систематизацию, обобщение, обработку и анализ данных.

Оценка качества атмосферного воздуха проводится как по данным инструментальных замеров с помощью стационарных, маршрутных и передвижных постов наблюдения, так и по расчетным данным с использованием современных компьютерных моделей [4].

В настоящее время, организация и проведение мониторинга за уровнем загрязнения атмосферы по физическим и химическим показателям на территории Республики Таджикистан осуществляются с помощью 5 стационарных наблюдательных пунктов в городах Душанбе, Бохтар, Турсунзаде, Худжанд и Гулистон. Контролируемые загрязняющие вещества - ($PM_{2.5,}$ PM_1 и PM_{10}) взвешенные частицы (пыль), CO, SO_2, NO_x, NO_2, HF и др. Проводится сбор, обработка и хранение информации как в ручном таки в автоматическом режиме, а также составляются ежегодные обзоры по качеству атмосферного воздуха. Степень загрязнения атмосферного воздуха оценивается при сравнении концентрации примесей (мг/м^3) с ПДК.

Существующая система контроля качества воздуха в Таджикистане опирается на ограниченное число стационарных постов наблюдения, что делает невозможным получение объективной информации о загрязнении в масштабе всего города. В этих условиях возрастает потребность в цифровых технологиях, способных обеспечить непрерывный и распределённый сбор экологических данных. Одними из наиболее

перспективных направлений являются технология Интернет вещей (IoT) и блокчейн (blockchain) технология, которые в комплексе позволяют создать прозрачную и достоверную систему мониторинга качества воздуха.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ

Для анализа текущего состояния качества воздуха были использованы данные со станций наблюдения, расположенных в г. Душанбе и глобальных моделей на основе спутниковых измерений и модельных оценок. Данные по распределению источников загрязнения и формирования среднегодовой концентрации $PM_{2.5}$ в г. Душанбе [8] (рис. 1) нередко превышает рекомендуемые значения Всемирной организации здравоохранения [3], что свидетельствует о высокой нагрузке на систему здравоохранения и требует внедрения новых технологических решений в сфере мониторинга атмосферного воздуха.




Рис. 1. Распределение источников $PM_{2,5}$ в г. Душанбе

Анализ сезонных изменений концентраций загрязнителей (рис. 2) показывает, что концентрации $PM_{2.5}$ и PM_{10} достигают пика в зимние месяцы (ноябрь-февраль) и снижаются в весенние и летние месяцы, что связано с увеличением использования отопления и сжигания угля в холодные месяцы. Концентрации NO_2 и SO_2 также выше в зимние месяцы за счет выбросов от отопления и транспорта (летом наблюдается снижение концентраций этих загрязнителей). Концентрация CO выше зимой напрямую связана с использованием угля и других видов топлива для отопления, а концентрация озона (O_3) достигает пика летом (июль-август), что связано с фотохимическими реакциями под воздействием солнечного света (в зимние месяцы концентрации озона снижаются).




Рис.2 Сезонные изменения концентраций различных загрязнителей воздуха в г. Душанбе

Динамика изменения общих выбросов твердых, газообразных и жидких веществ в атмосферу приведённые на рисунках 3 и 4 показывают, что наиболее высокий уровень

выбросов твёрдых, газообразных и жидких веществ в атмосферу приходится на 1991 год. Это связано, с тем, что до 1991 года на предприятиях промышленного комплекса республики применялись оборудования и технология 50-60 годов прошлого столетия, в которых в качестве энергоресурсов использовались жидкие и твёрдые топлива с большими выбросами загрязняющих веществ в атмосферу.

В период независимости в структуре промышленности произошли коренные изменения с перепрофилированием производства и применением новых технологий и оборудований, работающих на электрической энергии с меньшим выбросом в атмосферу. В результате этого, в период с 1995-2015 гг. произошел спад выбросов загрязняющих веществ в атмосферу, далее с повышением объемов производства и развитием промышленного сектора наблюдается рост выбросов в атмосферу.




Рис. 3. Динамика общих выбросов загрязняющих веществ в атмосферу по ингредиентам




Рис. 4. Динамика общих выбросов загрязняющих веществ в атмосферу по регионам

Изменение динамики общих выбросов загрязняющих веществ по регионам республики, где из общего объема выбросов вредных веществ больше всего приходится на Согдийскую область, г. Душанбе и г. Турсунзаде (рис. 4).

Следует отметить, что представленные статистические данные не отражает полную картину качества атмосферного воздуха, поскольку степень загрязнения атмосферы зависит от множества факторов: величины выбросов загрязняющих веществ, их химического состава, высоты, на которой осуществляются выбросы, географических и климатических условий, определяющих перенос, рассеивание и превращение веществ в атмосфере.

Учет всех факторов возможно тогда, когда в системе мониторинга атмосферного воздуха применяются современные автоматизированные комплексы, где для прогнозирования качества атмосферного воздуха используются различные подходы и модели.

Существует три основных вида моделей для прогнозирования загрязнения воздуха: статистические, интеллектуальные и гибридные [4]. Статистические модели в основном учитывают статистическую взаимосвязь между концентрацией загрязнителей воздуха и историческими данными о различных влияющих факторах и устанавливаются с использованием математико-статистических методов. Интеллектуальные модели учитывают источники загрязнителей (например, промышленные предприятия, транспорт, техногенные аварии, природные источники, такие как песчано-пыльные бури и т.д.). Следует отметить, что данные о состоянии атмосферного воздуха, полученные с помощью прогностического моделирования, имеют значительное сходство с данными, полученными на основе натурных измерений, поэтому использование широкой сети станций измерения позволяет получить наиболее точные данные о концентрации загрязнителей атмосферного воздуха в текущий период времени [4].

С развитием технологий Интернета вещей (IoT), искусственного интеллекта (ИИ) и облачных вычислений появились новые возможности для создания интегрированных систем мониторинга атмосферного воздуха [13].

Технология Интернет вещей (IoT) позволяет осуществить беспроводную передачу данных в центральную систему мониторинга в режиме реального времени, что обеспечивает оперативный сбор и анализ информации. В свою очередь, применение энергоэффективных технологий связи, таких как LoRa (Long Range) или NB-IoT (Narrowband IoT), позволяет сэкономить энергию сенсоров и обеспечивает долгий срок службы батарей. Объединение технологий Интернета вещей (IoT) и блокчейна позволяет создать эффективную децентрализованную систему сбора, хранения, обработки и передачи экологической информации о состоянии качества атмосферного воздуха для принятия обоснованных управленческих решений с целью улучшения экологической ситуации в городе [14]. На первом уровне будут располагаться сенсорные узлы, которые будут собирать данные о состоянии воздуха в различных районах города. Второй уровень представлен шлюзами передачи данных, обеспечивающими подключение сенсоров к облачным или периферийным вычислительным системам. Третий уровень — блокчейн-реестр, в котором фиксируются все полученные данные за счет которых обеспечивается прозрачность и неизменность экологических данных. На заключительном уровне функционируют пользовательские интерфейсы — веб-порталы и мобильные приложения, позволяющие жителям, учёным и государственным органам получать доступ к информации в режиме реального времени. Такая система обеспечивает не только контроль, но и вовлеченность общества в решение экологических проблем [15].

Обратная связь от общественности также является важным источником данных для улучшения алгоритмов и моделей мониторинга. В конечном итоге, это создает синергию между государственными органами, частным сектором и общественностью в решении проблемы загрязнения воздуха [12].

С развитием технологий и расширением сетей мониторинга можно ожидать улучшения состояния атмосферы в городах и индустриальных районах. Интегрированные подходы к мониторингу атмосферного воздуха не только предоставляют более точные данные, но и стимулируют разработку новых технологий и инновационных решений в области охраны окружающей среды.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Загрязнение атмосферного воздуха влияет не только на качество жизни, но и имеет экономические последствия. Для снижения риска ухудшения качества атмосферного воздуха, странами исходя из своих экономических возможностей реализуется комплекс мероприятий, направленных на усиление контроля за качеством атмосферного воздуха и снижением уровня загрязнения.

В Республике Таджикистан наряду с другими странами Центральной Азии на законодательном уровне организован экологический мониторинг окружающей среды. В тоже время, существующая система мониторинга качества воздуха, недостаточно комплексная, чтобы охватить различные территории и источники загрязнения, в том числе передвижных, не только по городу Душанбе, но и в других районах страны, а также улучшить доступность необходимой информации о качестве атмосферного воздуха для различных пользователей.

Поэтому совершенствование системы мониторинга качества атмосферного воздуха с применением современных моделей и технологий обеспечивает получение более точных данных и осуществление комплексного учета всех факторов окружающей среды.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Всемирная организация здравоохранения. Загрязнение атмосферного воздуха. Информационный бюллетень ВОЗ. https://www.who.int/ru/. Доступ по ссылке: https://www.who.int/ru/news-room/factsheets/detail/ambient-(outdoor)-air-quality-and-health.
2. Dominski F.H., Branco J.H., Buonanno G., et al. Effects of air pollution on health: a mapping review of systematic reviews and meta-analyses // Environ Res. 2021. Vol. 201. P. 111487. doi: 10.1016/j.envres.2021.111487
3. Всемирная организация здравоохранения. Глобальные рекомендации ВОЗ по качеству воздуха, касающиеся твердых частиц (ТЧ2,5 и ТЧ10), озона, двуокиси азота, двуокиси серы и окиси углерода, 2021. Доступ по ссылке: https://apps.who.int/iris/bitstream/hand le/10665/345334/9789240035409-rus.pdf
4. Поздняков М.В., Мазилов С.И., Райкова С.В., и др. Оценка качества атмосферного воздуха в разных странах (обзор) // Экология человека. 2023. Т. 30, № 5. С. 325–339. DOI: https://doi.org/10.17816/humeco456406
5. Анализ мониторинга качества воздуха в Центральной Азии (Аналитический доклад). Казахстан. 2021. 17 с.
6. Агентство по гидрометеорологии Комитета по охране окружающей среды при Правительстве Республики Таджикистан. https://www.meteo.tj/ru/environmental-monitoring
7. Станция наблюдения атмосферы Посольство США в г. Душанбе. https://aqicn.org/city/tajikistan/dushanbe/us-embassy/ru/
8. «Всемирный банк. 2023 год. Управление качеством воздуха в Республике Таджикистан. ©Всемирный банк».
9. Программа ускоренной индустриализации Республики Таджикистан на 2020-2025 годы. г. Душанбе, 2020 – 138 с.
10. План действий «Зеленый город» (ПДЗГ), Душанбе. © 2022 AECOM Limited.
11. Национальный план действий Республики Таджикистан по предупреждению и смягчению последствий песчаных пыльных бурь на 2022-2030 годы. Душанбе-Алматы. 2021 – 70 с.
12. Хакдод М.М., Амирзода О.Х., Хакдодов А.М. Современные научные подходы к решению экологических проблем в условиях Таджикистана/ Научный журнал

Водные ресурсы, энергетика и экология Института водных проблем, гидроэнергетики и экологии Национальной академии наук Таджикистана. – Душанбе, 2023, №3 (3), С. 193-200.

13. Zanella, A., Bui, N., Castellani, A., Vangelista, L., & Zorzi, M. Internet of Things for Smart Cities. IEEE Internet of Things Journal, 2014.

14. Khan, A., Salah, K. IoT Security: Review, Blockchain Solutions, and Open Challenges. Future Generation Computer Systems, 2018.

15. Хакдодов А.М. Применение технологии интернета вещей и блокчейна в мониторинге качества атмосферного воздуха/ Качество внутреннего воздуха и окружающей среды. Материалы XXIII международной научной конференции, (18-24 сентября 2025 г., г. Душанбе). ТТУ имени М.С. Осими, г. Душанбе, 2025, с. 216-222.

GAZ VA GAZKONDENSAT KONLARI QUDUQLARIDA YO‘QOTILAYOTGAN TABIIY GAZNING ATMOSFERAGA SALBIY TA’SIRI

Oripova Shahlo Karimovna, Ne’matov Qobiljon Qodirjon o‘g‘li
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gaz va gazkondensat konlarida quduqlarni ekspluatatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan tabiiy gaz yo‘qotilishining ekologik va iqtisodiy oqibatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Dunyo miqyosida qazib olinishi qiyin bo‘lgan gaz zahiralarining ko‘payishi, mahsuldor quduqlarning suvlanishi va murakkab sharoitlarda ishlatilishi yildan-yilga ortib bormoqda. Quduqlarni ishlatishning yakuniy bosqichida qatlam bosimi va oqim tezligining pasayishi natijasida quduq tubida suyuqlik yig‘ilishi sodir bo‘ladi. Bu jarayon bosim yo‘qotishlarining ortishiga, quduqlar debitining pasayishiga va uglevodorodlarning komponent bera oluvchanligini kamayishiga olib keladi. Hozirgi kunda quduq tubida suyuqlik yig‘ilishini bartaraf etish uchun produvka usuli keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usulda to‘g‘ridan-to‘g‘ri atmosferaga gaz chiqarilib yoqiladi, natijada gaz yo‘qotilishi sodir bo‘ladi va atrof-muhit hamda quduq tubi zonasiga salbiy ta’sir ko‘rsatiladi. O‘zbekiston Respublikasi gaz va gazkondensat konlarida quduq tubida yig‘ilgan suyuqliklarni yer yuzasiga chiqarish uchun qo‘llanilgan produvka usuli, shuningdek, gaz va gazkondensat konlari quduqlarining o‘z-o‘zidan tiqilishi natijasida yo‘qotilayotgan tabiiy gaz miqdori tahlil qilingan. Maqolada gaz yo‘qotilishining asosiy sabablari, atmosferaga salbiy ta’siri, metan emissiyasining iqlim o‘zgarishiga qo‘shayotgan hissasi va energetik samaradorlikning pasayishi yoritilgan. Shuningdek, gaz yo‘qotilishini kamaytirish bo‘yicha texnologik modernizatsiya, ekologik monitoring va xalqaro hamkorlik zarurligi haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Gaz va gazkondensat konlari, quduq tubi, quduq tubi zonasi, suyuqlik yig‘ilishi, produvka, gaz sarfi, metan emissiyasi, atmosfera ifloslanishi, energetik samaradorlik, iqlim o‘zgarishi.

Аннотация: В данной статье научно проанализированы экологические и экономические последствия потерь природного газа при эксплуатации газовых и газоконденсатных месторождений. В мировом масштабе наблюдается рост трудноизвлекаемых запасов газа, увеличение обводнённости продуктивных скважин и эксплуатация в сложных условиях. На заключительном этапе разработки месторождений снижение пластового давления и скорости потока приводит к накоплению жидкости на забое скважины. Этот процесс вызывает рост потерь давления, снижение дебита скважин и уменьшение способности углеводородов к отдаче компонентов. В настоящее время для устранения накопления жидкости на забое широко применяется метод продувки. При этом

газ напрямую выпускается в атмосферу и сжигается, что приводит к потерям газа и оказывает негативное воздействие на окружающую среду и призабойную зону скважины. В статье рассмотрено применение метода продувки на газовых и газоконденсатных месторождениях Республики Узбекистан, а также проанализированы объёмы потерь природного газа вследствие самопроизвольного закупоривания скважин. В работе освещены основные причины потерь газа, их негативное влияние на атмосферу, вклад метановых выбросов в изменение климата и снижение энергетической эффективности. Отмечена необходимость технологической модернизации, экологического мониторинга и международного сотрудничества для сокращения потерь газа.

Ключевые слова: газовые и газоконденсатные месторождения, забой скважины, призабойная зона, накопление жидкости, продувка, расход газа, выбросы метана, загрязнение атмосферы, энергетическая эффективность, изменение климата.

Annotation: This article provides a scientific analysis of the ecological and economic consequences of natural gas losses during the exploitation of gas and gas-condensate fields. Globally, the share of hard-to-recover gas reserves is increasing, productive wells are becoming more waterlogged, and operations in complex conditions are expanding year by year. At the final stage of field development, the decline in reservoir pressure and flow rate leads to liquid accumulation at the wellbore. This process results in increased pressure losses, reduced well productivity, and decreased hydrocarbon component deliverability. Currently, the blowdown method is widely used to eliminate liquid accumulation at the wellbore. In this process, gas is directly released into the atmosphere and flared, causing gas losses and exerting negative impacts on the environment and the near-wellbore zone. The article examines the application of blowdown in Uzbekistan’s gas and gas-condensate fields and analyzes the amount of natural gas lost due to spontaneous well plugging. The study highlights the main causes of gas losses, their adverse effects on the atmosphere, the contribution of methane emissions to climate change, and the reduction of energy efficiency. The necessity of technological modernization, ecological monitoring, and international cooperation to mitigate gas losses is emphasized.

Keywords: gas and gas-condensate fields, wellbore, near-wellbore zone, liquid accumulation, blowdown, gas consumption, methane emissions, atmospheric pollution, energy efficiency, climate change.

KIRISH

Tabiiy gaz bugungi kunda dunyo energetika tizimining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U ko‘mir va neftga nisbatan toza yoqilg‘i sifatida qaraladi, chunki yonish jarayonida karbonat angidrid va boshqa zararli moddalar kamroq hosil bo‘ladi. Shu sababli, ko‘plab mamlakatlar energiya xavfsizligini ta’minlashda tabiiy gazga katta e’tibor qaratmoqda.

Ammo gaz va gazkondensat konlarida qazib olish, saqlash va transport jarayonida yo‘qotilayotgan gaz muammosi mavjud. Bu yo‘qotishlar ko‘pincha quduq tubida suyuqlik yig‘ilishi, texnologik nosozliklar, produvka jarayonlari yoki quvur tizimidagi sizib chiqishlar natijasida yuzaga keladi. Natijada katta miqdorda gaz atmosferaga chiqib ketadi.

Atmosferaga chiqayotgan gazning asosiy tarkibiy qismi metan bo‘lib, u karbonat angidridga qaraganda is effekti hosil qilishda 25 baravar kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa global iqlim o‘zgarishining tezlashishiga, ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishiga va ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shu bilan birga, gazning yo‘qotilishi iqtisodiy jihatdan ham katta zarar keltiradi, chunki u energiya sifatida ishlatilmay qoladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha xalqaro tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Masalan, Global Methane Pledge dasturi metan chiqindilarini 2030-yilgacha sezilarli darajada kamaytirishni maqsad qilgan. O‘zbekiston ham ushbu

jarayonlarda faol ishtirok etib, gaz konlarida samaradorlikni oshirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qator loyihalarni amalga oshirmoqda.

Shunday qilib, gaz va gazkondensat konlarida yo‘qotilayotgan tabiiy gaz muammosi nafaqat mahalliy, balki global ahamiyatga ega. Uni hal qilish uchun texnologik modernizatsiya, ekologik monitoring va xalqaro hamkorlik zarur. Ushbu maqolada gaz yo‘qotilishining sabablari, atmosferaga ta’siri va uni kamaytirish yo‘llari batafsil tahlil qilinadi.

Gaz va gazkondensat konlarini ishlatishda quduqlarning oqim tezligini cheklaydigan ba’zi asoratlar mavjud bo‘lib, ushbu asoratlarni bilish va ularni inobatga olish quduqlarni ishlatishning texnologik rejimlarini to‘g‘ri tanlash, konni ishlatishni yanada oqilona olib borish va yer qa’rini muhofaza qilish talablariga rioya qilish imkonini beradi [1].

Gaz va gaz kondensat konlarida quduqlarni ishlatishning yakuniy bosqichida qatlam bosimi va oqim tezligining pasayishi natijasida quduq tubida suyuqlik ya’ni, suv va kondensat bug‘lari hosil bo‘ladi, shuningdek mexanik aralashmalarning yig‘ilishi tufayli quduq oqimining pasayishi ham kuzatiladi [2-3]. Quduq tubida suyuqlik ustuni yoki qum tiqinlari hosil bo‘lishi va bartaraflash quduqning texnologik ish rejimini o‘zgartirishni talab qiladi. Bu qatlamdan keladigan kondensatsiyalangan suv yoki og‘ir uglevodorod komponentlari quduq tubi zonasi va quduqdan to‘liq chiqarilmaganda sodir bo‘ladi [4].

Quduqning tubida suyuqlik tiqinlari hosil bo‘lganda quduq debiti pasayib borishi kuzatiladi. Bunday holatda quduqlarda suyuqlik tiqinlari paydo bo‘lganda yangi rejimni qo‘llash lozim. Bu ishga tushirish chuqurligini va nasos kompressor quvurining diametrini o‘zgartirishni yoki tiqinlarni olib tashlash uchun mexanik vositalarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi [5].

TADQIQOT USLUBLARI.

Tahliliy yondashuv asosida gaz yo‘qotilishining sabablari, ya’ni quduq tubida suyuqlik yig‘ilishi, produvka jarayonlari o‘rganildi. Eksperimental kuzatuvlar asosida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi (Muborak NGQCHB) va Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi (Sho‘rtan NGQCHB)ga qarashli konlarda gaz chiqindilari monitoringi olib borildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda gaz, asosan, uchta neft-gazli mintaqadan: Ustyurt, Buxoro-Xiva, Janubi-G‘arbiy Hisordan qazib olinmoqda, bu hududlardagi konlarning yarmidan ko‘pi ishlatishning oxirgi bosqichida hisoblanadi [6]. O‘zbekistonning janubi-g‘arbiy qismidagi uglevodorod konlari Chardjou va Buxoro bosqichlarida joylashgan bo‘lib, ularning aksariyati antiklinal burmalar bilan bog‘langan [7].

Ishlatishning yakuniy bosqichida, odatda, quduqlarning ish sharoitlarini yomonlashtiradigan va ishlab chiqarish imkoniyatlarini kamaytiradigan ko‘plab muammolar paydo bo‘ladi. Ko‘tarilayotgan gaz oqimining past tezliklari tufayli yer yuzasiga olib chiqilmaydigan suyuqlikning quduq tanasi va quduq tubida to‘planish jarayoni ana shunday muammolardan biridir. Quduq tubida suyuqlik yig‘ilishi bilan gidrostatik bosim ortib, gaz oqimini keltirib chiqaradi. Natijada quduq o‘z-o‘zidan to‘xtaydi, bu quduqlarning o‘z-o‘zidan tiqilishiga olib keladi [8].


Quduq tanasida yuqoriga qarab gaz oqimi tezligining pasayishi bir qator tabiiy va texnologik omillar bilan bog‘liq. Amaldagi oqim tezligining pasayishi, quduq bo‘ylab kondensatsiyalangan suyuqlik miqdorining ko‘payishi va quduqlarni ishlatishda qatlam suvining paydo bo‘lishi tabiiy sabablardir. Quduq tanasida suyuqlikning to‘planishi gaz oqimining pastligi sababli yomon kollektor xususiyatlariga ega bo‘lgan konlarda quduqda qazib olingandan so‘ng darhol sodir bo‘ladi. Quduqlarni maxsus o‘rganish va texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar suyuqlikni olib tashlash usulining samaradorligini tasdiqlaydi. Suvdan foydalanilganda quduq alohida qismlarga bo‘linadi, bu esa qazib olish qudug‘ining oqim tezligining pasayishiga, suyuqlikning to‘planishiga olib keladi. Natijada, bu quduqda o‘z-o‘zidan tiqilishga va quduqning ishdan chiqishiga olib keladi [9-10].

Ishlashning yakuniy bosqichidan o‘tgan konlar soni doimiy ravishda o‘sib borayotganligi sababli, quduq tubi suyuqligini olib tashlash muammosi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu ayniqsa, kon zaxirasini qazib olishning 80 % dan oshgan hollarda kuzatiladi [11]. Quduqda gaz oqimining kritik qiymatdan past bo‘lganida suyuqlikning to‘planishi gaz va kondensat olish jarayonini murakkablashtiradi, quduq unumdorligini pasaytiradi va o‘z-o‘zidan tiqilishiga olib keladi. Quduqlar tubidan suyuqlikni bartaraflash usulini tanlash bir nechta mezonlarga bog‘liq: suyuq tiqinlar hosil bo‘lishining geologik va geofizik parametrlari, ishlatish bosqichlari, quduq konstruksiyasi, quvurlar oralig‘ini sementlash sifati, suyuqlikning kirib borish sabablari [12-13].

Gaz va gazkondensat konlarini ishlatishda ekspluatatsiyaning kech bosqichida o‘z-o‘zidan tiqiladigan qazib olish quduqlari texnologiyasi 1-rasmda berilgan.

Bunda (5) quduqning halqasida gidroizolyatsiya pardasi yaratilgandan so‘ng (1-rasm, a) blokirovkalash eritmasining taxminiy hajmi (11) yopiq quvur maydoniga (6) haydaladi. Quvur bo‘shlig‘idan gazning energiyasi har ikkala bo‘shliqdagi bosimlarni tenglashtirish bilan aniqlanadigan quduq tubi zonasiga (1-rasm, b) yetib boradi. Mahsuldor gorizontning blokirovka qiluvchi ekranini shakllantirish uchun quduq texnologik to‘xtash holatiga keltiriladi. Bloklash eritmasi (4) bo‘shliqni (2) to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan hajmning 8-10 % ni tashkil qilishi kerak va uning quduqdagi ustuni perforatsiya oralig‘ining yuqori teshiklaridan 100-150 metr balandlikda bo‘lishi kerak, ular ham zichlik o‘lchagich bilan o‘lchanadi.

Quduqning texnologik to‘xtatilishidan so‘ng (1-rasm, s) halqa va quvur bo‘shlig‘iga tegishli zichlikdagi quduq tubi suyuqligining (12) hisoblangan hajmini qo‘shganda gidrostatik ustun blokirovkalash tarkibining texnologik xususiyatlaridan qat’iy nazar, assimilyatsiya jarayonlarini keltirib chiqarmaydi. Shuningdek, zichlik o‘lchagich suyuqlikning chuqurligini ham o‘lchaydi. Suyuqlikning quduqqa kirishining oldini olish quduq tubida gazni tanlash uchun sharoitlarni saqlash orqali erishiladi, bunda qatlamning quduqqa yaqin zonasida suv va suyuq uglevodorodlarning kondensatsiyasi sodir bo‘lmaydi. Bu sharoitlar begona va qatlam suvlarining izolyatsiyasini ham ta’minlaydi.



a) **b)** **s)**

1-rasm. Quduqni o‘z-o‘zidan tiqilishining texnologik sxemasi:
1-ekspluatatsiya quvuri, 2-NKQ ilgichi, 3-quvur va quvur orti oralig‘ini ulash uchun zulfin, 4-blokirovka, 5-6 - quvur va quvur orti oralig‘i, 7-perforatsiya oralig‘i, 8-suv konusi zonasi, 9-maxsus teshiklar, 10-zichlik o‘lchagich, 11-gidroizolyatsiya tarkibi,
12-suyuqlik tiqini, 13-bo‘shliq zonasi

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Gaz va gazkondensat konlarida quduqlarni ekspluatatsiya qilish jarayonida tabiiy gazning yo‘qotilishi ko‘plab omillar bilan bog‘liq. Har bir sabab alohida ekologik va iqtisodiy oqibatlarga ega bo‘lib, ularni chuqur tahlil qilish muammoni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhimdir.

Quduq tubida suyuqlik yig‘ilishida quduq tubida kondensat, suv yoki boshqa suyuqliklar to‘planib, gaz oqimini to‘sadi. Bu bosimning pasayishiga va gazning to‘liq chiqib ketmasligiga olib keladi. Ekologik oqibatlar gazning bir qismi atmosferaga chiqib ketadi, metan emissiyasi ortishiga olib keladi. Iqtisodiy oqibatlarda quduqning ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi, gaz hajmi kamayadi. Bularni oldini olish yo‘llari quduqni muntazam tozalash, suyuqlikni chiqarib tashlash uchun maxsus texnologiyalar qo‘llaniladi.

Texnologik nosozliklar asosan, nasos, kompressor, quvur tizimi yoki boshqa uskunalardagi nuqsonlar gazning nazoratdan tashqariga chiqishiga sabab bo‘ladi. Ekologik oqibati gazning bevosita atmosferaga chiqishi, havoning ifloslanishiga olib keladi. Iqtisodiy oqibati energiya resurslari yo‘qotiladiva texnik ta’mirlash xarajatlari ortadi. Oldini olishda uskunalarni muntazam texnik ko‘rikdan o‘tkazish va zamonaviy monitoring tizimlarini joriy etish zarur bo‘ladi.

Produvka jarayonida quduqni tozalash yoki bosimni pasaytirish natijasida katta miqdorda gaz atmosferaga chiqariladi. Buning ekologik oqibati bir zumda katta hajmda metan chiqishi va is gazlari miqdorining keskin ortishiga olib keladi. Iqtisodiy oqibati esa gaz energiya sifatida ishlatilmay qoladi va buning natijasida ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi. Oldini olish yo‘llari esa produvka jarayonida gazni yig‘ib olish va qayta ishlash texnologiyalarini qo‘llashdan iborat.

Quvur tizimidagi sizib chiqishlarda gaz transporti jarayonida quvurlardagi yoriqlar yoki nuqsonlar orqali gaz chiqib ketadi. Ekologik oqibati atmosferaga muntazam ravishda gaz chiqishi va havoning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Iqtisodiy oqibati gaz transporti samaradorligi pasayadi va yo‘qotishlar ortadi. Buning odini olishda quvurlarni muntazam nazorat qilish, bosim sensori va gaz detektorlari o‘rnatish kabi choralarni ko‘rish zarur.

Favqulodda holatlar oqibatida portlash, avariya yoki texnik xatoliklar natijasida katta hajmdagi gaz bir zumda atmosferaga chiqishi mumkin. Ekologik oqibati esa katta miqdorda metan emissiyasi va havoning keskin ifloslanishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy oqibati moliyaviy zarar, ishlab chiqarishning to‘xtashi va xavfsizlik muammolari hisoblanadi. Oldini olish yo‘llari: Favqulodda vaziyatlarga tayyorlik rejalarini ishlab chiqish va xavfsizlik texnikasiga qat’iy rioya qilishdan iborat.

Gaz yo‘qotilishining sabablari ko‘p qirrali bo‘lib, ularning har biri ekologik va iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu bois, texnologik modernizatsiya, monitoring tizimlari, gazni yig‘ish va qayta ishlash usullarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Gaz va gazkondensat konlarida yo‘qotilayotgan tabiiy gazning atmosferaga chiqishi ekologik va iqtisodiy jihatdan murakkab oqibatlarga ega. Bu tahlil qilish metan emissiyasi, iqlim o‘zgarishi, havo sifati va energetik samaradorlikning pasayishi kabi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqishni talab etadi.

Metan emissiyasi tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismi metan (CH_4) bo‘lib, u karbonat angidrid (CO_2)ga qaraganda is effektini hosil qilishda 25–28 baravar kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Atmosferadagi ta’siri metan molekulalari infraqizil nurlanishni yutib, yer atmosferasida issiqlikning saqlanishiga sabab bo‘ladi, bu esa global haroratning ortishiga olib keladi. Metan emissiyasi energetika sektorida eng katta ulushga ega bo‘lib, neft va gaz konlaridagi yo‘qotishlar umumiy chiqindilarning sezilarli qismini tashkil etadi. Atmosferaga chiqayotgan metan va boshqa gazlar is effektini kuchaytiradi. Bu global iqlim tizimida muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Oqibatda esa haroratning ortishi qurg‘oqchilik va suv tanqisligiga, muzliklarning erishi dengiz sathining ko‘tarilishiga, ekstremal ob-havo hodisalari toshqin, shamol bo‘ronlari, issiq to‘lqinlarni hosil bo‘lishiga olib keladi. Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o‘zgarishi suv resurslari tanqisligi va qishloq xo‘jaligi hosildorligining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Havo sifati pasayishida gaz yonishi jarayonida azot oksidlari, uglerod oksidlari, formaldegid va boshqa zararli moddalar hosil bo‘ladi. Ular salomatlikka ham ta’sir ko‘rsatadi, xususan, nafas olish tizimi kasalliklari, yurak-qon tomir kasalliklari xavfining ortishiga olib keladi. Atmosferadagi ozon qatlamining buzilishi natijasida ultrabinafsha nurlanishning kuchayishi sodir bo‘ladi. Havoning ifloslanishi o‘simliklar fotosintez jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, tuproq va suv resurslarining sifatini pasaytiradi.

Energetik samaradorlikning yo‘qolishi yo‘qotilgan gaz energiya sifatida ishlatilmay qoladi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Bu esa energiya resurslarining behuda sarfi, gaz ishlab chiqaruvchi kompaniyalar uchun moliyaviy zarar va milliy energetika xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro energetika agentligi (IEA) ma’lumotlariga ko‘ra, gaz yo‘qotilishini kamaytirish orqali yiliga milliardlab dollar iqtisodiy foyda olish mumkin.

Gaz va gazkondensat konlarida yo‘qotilayotgan tabiiy gazning atmosferaga chiqishi metan emissiyasi, iqlim o‘zgarishi, havo sifati pasayishi va energetik samaradorlikning yo‘qolishi kabi ko‘p qirrali muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonni kamaytirish uchun texnologik modernizatsiya zamonaviy monitoring va yig‘ish uskunalari joriy qilish, ekologik nazorat metan emissiyasini muntazam o‘lchash zarur.

Gaz yo‘qotilishining manbalarining har biri ekologik va iqtisodiy jihatdan salbiy oqibatlarini taqqoslanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Gaz yo‘qotilishining manbalarini taqqoslash jadvali

Yo‘qotish manbai	Ekologik ta’sir	Iqtisodiy ta’sir
Quduq tubidagi suyuqlik	Metan chiqishi, is effekti	Gaz ishlab chiqarish hajmi kamayadi
Produvka (blowdown)	Atmosferaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqindi	Yo‘qotilgan gaz miqdori ortadi
Quvur tizimi nosozligi	Havoning ifloslanishi	Transport samaradorligi pasayadi
Favqulodda holatlar	Katta hajmda metan chiqishi	Moliyaviy zarar va xavfsizlik muammolari

Gaz yo‘qotilishining muammolarini kamaytirishning bir nechta yo‘llari mavjud, bularga quyidagilar kiradi:

- Texnologik modernizatsiya: Quduq va quvurlarni zamonaviy monitoring tizimlari bilan jihozlash.
- Gazni yig‘ish va qayta ishlash: Produvka jarayonida chiqayotgan gazni maxsus uskunalar yordamida yig‘ib olish.
- Energiya samaradorligini oshirish: Yo‘qotishlarni kamaytirish orqali iqtisodiy foyda va ekologik barqarorlikni ta’minlash.
- Xalqaro standartlarga rioya qilish: Metan emissiyasini kamaytirish bo‘yicha global kelishuvlarga qo‘shilish.
- Ekologik monitoring: Har bir kon va quduqda gaz chiqindilarini muntazam nazorat qilish.

Gaz va gazkondensat konlarida yo‘qotilayotgan tabiiy gazning atmosferaga chiqishi iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy zararlarning asosiy manbalaridan biridir. Shu bois, texnologik nazoratni kuchaytirish, gazni yig‘ish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, hamda xalqaro ekologik standartlarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Quduqlarda gaz yo‘qotilishining asosiy manbalari suyuqlik yig‘ilishi (30%), produvka jarayonlari (45%), quvur nosozliklari (20%), favqulodda holatlar (5%) ni tashkil etadi. Atmosferaga chiqayotgan metan miqdori karbonat angidridga nisbatan is effektini sezilarli

darajada kuchaytirishi qayd etildi. Gaz yo‘qotilishi iqtisodiy jihatdan katta zarar keltiradi, ayrim konlarda yiliga yuz minglab kub metr gaz energiya sifatida ishlatilmay qolmoqda.

Perforatsiya oralig‘ida suvning yig‘ilishi quduq tanasi va quduq tubining buzilishi natijasida quduqlarning ishlashi qiyinlashadi. Ushbu muammolar bosim yo‘qotishlarining ortishiga, quduqlar debitining pasayishiga va uglevodorodlarning komponent bera oluvchanligini pasayishiga olib keladi [14].

Quduqlarni produvka qilish quduqlardan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarishning eng oddiy usuli hisoblanadi. Quduqni mash’ala chizig‘i orqali produvka qilish quduq ustidagi bosimni pasaytiradi, quduq tubida va lift quvurida gaz tezligini hamda debitni oshiradi. Debitning ortishi bilan quduq kamida 30-50 daqiqa ishlashi kerak.

Produvka har 3-4 kunda alohida quduqlarda, quduq tubida va lift quvurlarida suyuqlik to‘planishining intensivligiga qarab amalga oshirilishi kerak. Atmosferada gaz yo‘qotishlari, atrof-muhitning ifloslanishi quduqlarni produvka qilishning salbiy natijasidir. Natijada, produvka paytida qatlamdagi depressiya sezilarli darajada ortadi, bu quduq tubi zonasining buzilishiga olib keladi. Lift quvurida har bir produvkadan keyin quvur devorlari bo‘ylab suvning bir qismini quduq tubiga qaytaradi.

Suyuqlik yig‘ilishi va quduq tubidan chiqarilgan mexanik aralashmalar bilan murakkab bo‘lgan sharoitlarda ishlaydigan quduqlar uchun eng samarali ish rejimini tanlash usullari aniqlanadi. Bu usullar yordamida quduqlarni produvka sonini kamaytirish va konlarni ishlatish samaradorligini oshirish mumkin. Quduq tubi zonasidagi suyuqlikni yer yuzasiga chiqarish uchun produvka paytida mash’alada yonib ketgan gaz sarfi aniqlanadi. Bir quduqni tozalash uchun gaz sarfi quyidagi berilgan formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$V_q = q_q \cdot \tau_{pr} \qquad (1)$$

bu yerda:

q_q – berilgan rejimda produvka qilingan quduq debiti, m^3/kun;

τ_{pr} – berilgan rejimda produvka davomiyligi, kun.

Loyihaviy debitning hajmi q_l, $1 \cdot 10^3$ m^3/kun, quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$q_l = \frac{c \cdot P_{mut}}{\sqrt{p \cdot T \cdot Z}} \qquad (2)$$

bu yerda:

c – shtutser turiga qarab koeffitsiyent;

P_{mut} – diafragma oldidan mutlaq bosim, kgs/sm^2;

p – havodagi gazning nisbiy zichligi;

T – diafragma oldidagi gazning termodinamik harorati, K;

Z – P_{mut} va T da tabiiy gazning siqiluvchanlik koyeffitsiyenti.

Belgilangan rejimlarning har birida quduqning ishlash muddati (produvka) - bu suyuqlik yoki mexanik aralashmalarning quduq tubidan quduq ustiga ko‘tarilishini ta’minlagan vaqt davridir.

Produvka davomiyligi τ_{pr}, d, quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$\tau_{pr} = \frac{L_q \cdot F \cdot P_{o'r}}{q_l \cdot P_0} \qquad (3)$$

bu yerda:

L_q – quduq chuqurligi;

F – gaz-suyuqlik oqimi harakatlanadigan quvurning ko‘ndalang kesim yuzasi, m^2;

q_l – quduqning loyihaviy debiti, $1 \cdot 10^3$ m^3/kun;

P_0 – mutlaq atmosfera bosimi, MPa;

$P_{o'r}$ – quduq bo‘ylab o‘rtacha bosim, MPa.

$$P_{o'r} = \frac{P_{q.t.} + P_{q.u.}}{2} \qquad (4)$$

bu yerda:

$P_{q.t.}$ – quduq tubidagi bosim, MPa;

$P_{q.u.}$ – quduq ustidagi bosim, MPa.

NKQning maydoni F, m^2 geometrik usul bilan aylananing maydoni sifatida aniqlanadi va quyidagicha bo‘ladi:

$$F = \frac{\pi \cdot d^2}{4} \qquad (5)$$

bu yerda:

d^2 - NKQning ichki diametri.

“O‘zbekneftgaz” AJning 2019 yilda o‘z ehtiyojlari va yo‘qotishlarga sarflangan gaz miqdori sarflari ishlab chiqarilgan gaz umumiy hajmining 10,6 % ni tashkil etdi. Konlar ehtiyojlari va yo‘qotishlarga sarflangan gaz miqdorining asosiy qismi (90%) ishlab chiqarish jarayoniga, qo‘shimcha mahsulotlar (polimer mahsulotlari, suyultirilgan gaz, gazkondensat, oltingugurt) ishlab chiqarish va siquv kompressor stansiyalari uchun yoqilg‘i ehtiyojlari uchun sarflandi.

Bugungi kunga kelib, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi (Muborak NGQCHB) va Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi (Sho‘rtan NGQCHB)ga qarashli konlardagi gaz konlarining salmoqli qismi ishlatishning yakuniy bosqichiga o‘tdi [15].

Konlarni ishlatishning yakuniy bosqichida mahsuldor qatlamning suvlanishi, shuningdek, quduq tubida suyuqlikning yig‘ilishi natijasida quduqlarning ish rejimlari keskin murakkablashadi, bu esa ularning o‘z-o‘zidan tiqilishiga va gaz qazib chiqarishni to‘xtashiga olib keladi.

Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasidagi konlar quduqlari tubidan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarib tashlash uchun produvka qilish jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Muborak NGQCHBga qarashli konlarda produvka vaqtida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi, ming m^3

№	Kon nomlari	2021 yil			2022 yil			01.03.2023		
		Quduqlar soni, ta	Produvka soni, ta	Gaz hajmi, m^3	Quduqlar soni, ta	Produvka soni, ta	Gaz hajmi, m^3	Quduqlar soni, ta	Produvka soni, ta	Gaz hajmi, m^3
1	Alan	173	1141	2922,821	260	2414	4662,082	66	409	1064,077
2	O‘rtabuloq	67	641	633,493	82	1161	1820,46	18	268	350,056
3	Dengizko‘l	207	1132	2929,491	188	1229	3703,194	35	196	654,045
4	Somontepa	79	434	1607,507	231	1480	5226,608	45	244	662,339
5	Zevarda	348	2092	4642,393	358	2153	4497,382	79	463	969,183
6	Janubiy Kemachi	118	470	1041,493	114	495	1268,924	27	173	410,708
7	Kultak	84	932	2208,137	82	814	2661,194	13	127	360,614
8	Pomuq	48	248	272,314	48	250	28, 858	8	42	54,857
9	Umid	60	403	460,045	64	462	574,129	12	85	108,738
10	Muborak	31	297	88,709	33	303	112,843	6	59	19,821
Jami		1215	7790	16806,403	1460	10761	24809,674	309	2066	4654,438

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlarda produvka jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi 2021-yil uchun 16806,403 ming m^3, 2022-yil uchun 24809,674


ming m^3 va 01.03.2023 holatiga ko‘ra 4654,438 ming m^3 ni tashkil qilgan. Konlardagi quduqlar soni bo‘yicha jami 1215 ta quduqlarda 7790 marta produvka jarayoni amalga oshirilgan.

Jadval ma’lumotlariga asoslanib, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlari quduqlar tubidan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarish uchun produvka vaqtida mash’alaga yoqilgan gaz sarfining Alan, Zevarda, Kultak, Somontepa konlarida ko‘pligini diagrammadan ko‘rish mumkin. Xususan, mash’alaga yoqilgan gaz sarfi Alan, Zevarda, Kultak va Somontepa konlarida quyidagilar sabab bo‘lgan:

- Quduqlar sonining ko‘pligi,
- Suvlanish darajasining yuqoriligi,
- Qatlam bosimining pasayishi,
- Murakkab geologik sharoitlar mavjudligi gaz yo‘qotilishining ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlarda produvka jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi yildan-yilga ortib bormoqda. Bu jarayon ekologik va iqtisodiy jihatdan katta zarar keltirmoqda. Shuning uchun:

- Produvka jarayonida chiqayotgan gazni yig‘ib olish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish,
- Quduqlarda suyuqlik yig‘ilishini kamaytirish uchun zamonaviy usullar (plunger lift, gaz-lift, kapillyar naychalar, sirt faol mddalar)ni qo‘llash,
- Ekologik monitoringni kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos ravishda emissiyalarni nazorat qilish zarur.



1-rasm. Muborak NGQCHBga qarashli konlarda produvka vaqtida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinadiki, Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Alan, Zevarda, O‘rtabuloq, Dengizko‘l konlarda quduq tubidagi suyuqlikni olib chiqish maqsadida produvka jarayonida mash’alada yongan gaz sarfi ortib borgan.

Bundan tashqari, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Sho‘rtan, Zafar, Janubiy Tandircha, Buzaxur, Chunagar, Tarnasoy, Yormak, Oydin, Namozboy, Niyoz konlarda ham quduq tubida yig‘ilgan suyuqlikni bartaraf qilishda produvka yo‘li bilan amalga oshirilgan.


3-jadvalda Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlarda quduq tubidagi suyuqlikni yer yuzasiga chiqarish uchun produvka jarayonida mash’alada yongan gaz sarfi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

3-jadval

Sho‘rtan NGQCHBga qarashli konlarda produvka jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi

№	Kon nomlari	2022 yil	
		Produvka qilingan quduqlar soni, ta	Gaz hajmi, ming m^3
1	Sho‘rtan	33	63963,2
2	Zafar	1	445,0
3	Janubiy Tandircha	24	16955,8
4	Buzaxur	6	2735,9
5	Chunagar	1	829,1
6	Tarnasoy	2	1508,1
7	Yormak	3	1237,5
8	Oydin	5	251,3
9	Namozboy	3	216,6
10	Niyoz	3	418,0
Jami		81	88560,6

Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Sho‘rtan, Zafar, Janubiy Tandircha, Buzaxur, Chunagar, Tarnasoy, Yormak, Oydin, Namozboy, Niyoz konlari quduqlarida quduq tubida yig‘ilgan suyuqlikni bartaraflashda produvka usulini qo‘llaganda 2022-yil uchun jami 81 ta quduqlarda 88560,6 ming m^3 gaz mash’alaga yoqilgan.



2-rasm. Sho‘rtan NGQCHBga qarashli konlarda produvka vaqtida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinadiki, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlari quduqlar tubidan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarish uchun produvka vaqtida mash’alaga yoqilgan gaz sarfining eng katta ko‘rsatkichini Sho’rtan 63963,2 ming m^3 va Janubiy Tandircha

konida 16955,8 ming m^3 gaz sarfini, eng kichik ko‘rsatkichlar Zafar, Chunagar, Oydin, Namozboy, Niyoz konlari ko‘rsatgan [16].

Tahlillar O‘zbekiston Respublikasi Muborak va Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmalariga qarashli konlarda olib borilgan statistik ma’lumotlarga asoslanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy hisobda 2021–2022 yillarda produvka jarayonida atmosferaga chiqarilgan gaz miqdori 130 176 677 000 m^3ni tashkil etadi.

Tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismi metan (CH_4) bo‘lib, u karbonat angidridga (CO_2) nisbatan is effektini hosil qilishda 25 baravar kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun atmosferaga chiqarilgan gaz miqdori CO_2 ekvivalentida hisoblanadi. Demak, Muborak va Sho‘rtan boshqarmalarida produvka jarayonlari natijasida 3,25 trillion m^3 CO_2 ekvivalenti is gazi atmosferaga chiqarilgan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, produvka jarayonida yo‘qotilayotgan gaz miqdori ekologik jihatdan nihoyatda katta zarar keltirmoqda. Atmosferaga chiqarilgan metan global iqlim o‘zgarishini tezlashtiradi, havo sifatini pasaytiradi va energetik samaradorlikni kamaytiradi. Ayniqsa, Muborak va Sho‘rtan boshqarmalariga qarashli konlarda gaz sarfi yuqori bo‘lib, bu hududlarda ekologik monitoringni kuchaytirish zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘zbekiston Respublikasi Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Muborak, Alan, O‘rtabuloq, Dengizko‘l, Somontepa, Zevarda, Janubiy Kemachi, Kultak, Pomuq, Umid konlarida va Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli Sho‘rtan, Zafar, Janubiy Tandircha, Buzaxur, Chunagar, Tarnasoy, Yormak, Oydin, Namozboy, Niyoz kabi konlar quduqlarida quduq tubida yig‘ilgan suyuqlikni bartaraf etishda produvka jarayonidan foydalaniladi. Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlarda produvka jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi 2021-yil uchun 16806,403 ming m^3, 2022-yil uchun 24809,674 ming m^3 ni tashkil qilgan bo‘lsa, Sho‘rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli konlarda 2022-yil uchun 88560,6 ming m^3 ni tashkil qildi.

Gaz va gazkondensat konlarida yo‘qotilayotgan gazning atmosferaga chiqishi global iqlim o‘zgarishining tezlashishiga sabab bo‘ladi. Shu bois, texnologik modernizatsiya, gazni yig‘ish va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, hamda xalqaro ekologik standartlarga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda produvka jarayonida mash’alaga yoqilgan gaz sarfi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, quduqlar tubidan suyuqlikni yer yuzasiga chiqarib tashlash uchun produvka usuli o‘rnida boshqa usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi, shuningdek, gaz yo‘qotilishi va mash’alaga yoqilgan gaz sarfining ekologik salbiy ta’sirining oldi olinadi.

2021-2022 yillarda Muborak va Sho‘rtan boshqarmalarida produvka jarayonida 130 milliard m^3 gaz atmosferaga chiqarilgan. Bu miqdor 3,25 trillion m^3 CO_2 ekvivalenti is gaziga teng. Natijada, gaz yo‘qotilishi ekologik muammolarni kuchaytirib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi. Bunday muammoni kamaytirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

1) Produvka jarayonida chiqayotgan gazni yig‘ib olish va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish;
2) Quduqlarda suyuqlik yig‘ilishini kamaytirish uchun zamonaviy usullarni qo‘llash;
3) Ekologik monitoringni kuchaytirish va xalqaro standartlarga mos ravishda emissiyalarni nazorat qilish zarur.

O‘zbekiston va boshqa gaz ishlab chiqaruvchi mamlakatlar uchun bu muammo strategik ahamiyatga ega, chunki gaz yo‘qotilishini kamaytirish nafaqat ekologik barqarorlikni, balki iqtisodiy samaradorlikni ham ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ten V.V. (2020). Prichini obvodneniya gazovix skvajin i ix metodi ustraneniya // *II International scientific conference*. P. 67-69.
2. Bilyanskiy K.V. (2020). Borba s obvodneniyem skvajin. *Molodoy uchyoniy. № 7 (297)*, 16-18.
3. Gasumov E.R. (2020). Prognozirovaniye vremeni obvodneniya i samozadavlivaniya gazovix skvajin (na primere senomanskoy zaleji). *Yevraziyskiy Soyuz Uchenix*. №8(77), 19-22.
4. Sigankov M.S. (2018). Ekspluatatsiya obvodnyayushixsya gazovix skvajin na mestorojdenii. *Mejdunarodniy studencheskiy nauchniy vestnik №2.*, 111-118.
5. Chernova V.V., Verjbitskiy V.V., Maslyukov R.S. (2018). Effektivnost primeneniya siklicheskoy produvki gazokondensatnix skvajin na mestorojdeniyax Bolshogo Urengoya // *Aktualniye problemi neftegazovoy otrasli Severo-Kavkazskogo federalnogo okruga*. Stavropol. 2018. C. 267-271.
6. Vasilyev V.G., Ermakov V.I., Zhabrev I.P., Lvov M.S., Mironchev Yu.P., Orel V.E., Staroselsky V.I., Stupakov V.P., *Gazoviye i gazokondensatniye mestorojdeniya [Gas and gas condensate fields]*. 2-ye, pererab. i dop. ред. Jabreva, Moskva, Nedra, 1983, 375 p.
7. Chernov I.V. (2016). Geologicheskaya izuchennost mestorojdeniy Yugo-Zapadnogo Uzbekistana [Geological study of the deposits of South-Western Uzbekistan]. Territoriya Neftegaz, no. 6, 40-47.
8. Xujamurodov S., O. S. (2023). Complications in the operation of gas and gas condensate wells. *Международная конференция академических наук. February 7* (стр. 42-48). URL: https: //. DOI: 10.5281/zenodo.7614100.
9. Praxova M.Y., Krasnov A.N., Xoroshavina YE.A. (2016). Sposob diagnostirovaniya obvodnennosti gazovix skvajin // *SOCAR Proceedings*. № 3. C. 19–26.
10. Xaritonov A.N. (2021). Problemi ekspluatatsii gazovix skvajin zrelix mestorojdeniy Zapadnoy Sibiri i puti ix resheniya // *Neftyanaya provinsiya*. № 4(28). Chast 1: Spetsvipusk. S. 155–185.
11. Mulyavin S.F., Oblekov G.I. (2015). Proyektirovaniye razrabotki gazovix i gazokondensatnix mestorojdeniy. *Uchebnoye posobiye. Tyumen: TyumGNGU*. 171 s.
12. Ibragimov L.X. (2000). *Intensifikatsiya dobichi gaza i kondensata*. *Moskva*. *Nauka*. 414 s.
13. Mirzadjanzade A.X., Kuznetsov O.L., Basniyev K.S, Aliyev Z.S. Osnovi texnologii dobichi gaza. *Moskva*. *Nedra*. 880 s.
14. Oripova, S. A. (2024). SELECTING LIFT COLUMN DROP DEPTH AND DIAMETER TO PROVIDE LIQUID EXTRACTION CONDITIONS. *Innovatsion Texnologiyalar , 55(03)*, 7-13. Получено из Retrieved from https://ojs.qmii.uz/index.php/it/article/view/903
15. Oripova, S., Adizov, B., & Akramov, B. (2023). ANALYSIS OF THE RESULTS OF GAS HYDRODYNAMIC STUDIES OF WELLS AT ALAN GAS CONDENSATE FIELDS. *Universum: технические науки. №4-8 (109)*, 38-40. Получено из URL: https://cyberleninka.ru/article/n/anal
16. Oripova, Sh. K. (2025). Volume of natural gas loss in gas and gas condensate field wells. (In Uzbek). Science and Innovative Development, 8 (3), 8–16. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/gaz-va-gazkondensat-konlari-quduqlarida-yo-qotilayotgan-tabiiy-gaz-miqdori

THE IMPACT OF AMBIENT AIR POLLUTION ON THE PREVALENCE OF ALLERGIC RHINITIS IN CHILDREN

Jalolov Nozimjon Nodir og‘li, Khudayarova Shalola Erkinovna
Tashkent State Medical University

Abstract. Allergic rhinitis (AR) is one of the most common respiratory allergic diseases among children, affecting 20–30% of the pediatric population worldwide. Over recent decades, the increase in AR prevalence has been increasingly linked to ambient air pollution. Scientific evidence confirms that PM2.5 and PM10 particles, NO_2, SO_2, ozone, and black carbon enhance immunological sensitivity of the pediatric airways, induce nasal mucosal inflammation, and potentiate allergic sensitization. This article analyzes epidemiological, clinical, and experimental data on the impact of air pollutants on AR prevalence in children. Major associations were summarized based on international ISAAC studies, WHO reports, and cohort and cross-sectional research conducted in European and Asian cities.

Keywords: Allergic rhinitis, air pollution, pediatric health, PM2.5, NO_2, respiratory allergies, epidemiology.

Annotatsiya. Allergik rinit bolalar orasida eng keng tarqalgan respirator allergik kasalliklardan biri bo‘lib, dunyo bo‘yicha 20–30% bolalarda uchraydi. So‘nggi o‘n yilliklarda allergik rinit prevalensiyaning oshishi atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog‘liq deb hisoblanmoqda. PM2.5 va PM10 zarrachalari, azot dioksidi, oltingugurt dioksidi, ozon va qora qurum bolalar nafas yo‘llarining immunologik sezgirligini oshirishi, burun shilliq qavati yallig‘lanishiga olib kelishi va allergik senzibilizatsiyani kuchaytirishi ilmiy jihatdan tasdiqlangan. Ushbu maqolada atmosfera ifloslantiruvchilarning bolalarda AR uchrash darajasiga ta’siri bo‘yicha epidemiologik, klinik va eksperimental ma’lumotlar tahlil qilindi. Xalqaro International Study of Asthma and Allergies in Childhood tadqiqotlari, JSST hisobotlari hamda Yevropa va Osiyo shaharlarida o‘tkazilgan uzoq muddatli guruhli va epidemiologik tadqiqotlar asosida asosiy bog‘liqliklar yoritildi.

Kalit so‘zlar: Allergik rinit, atmosfera havosi ifloslanishi, bolalar salomatligi, PM2.5, azot dioksidi, respirator allergiyalar, epidemiologiya.

Аннотация.Аллергический ринит является одним из наиболее распространённых респираторных аллергических заболеваний среди детей и наблюдается у 20–30% детской популяции по всему миру. За последние десятилетия рост распространённости аллергического ринита связывают с ухудшением качества атмосферного воздуха. Частицы PM2.5 и PM10, диоксид азота, диоксид серы, озон и чёрный углерод повышают иммунологическую чувствительность дыхательных путей у детей, вызывают воспаление слизистой носа и усиливают аллергическую сенсибилизацию, что подтверждено рядом исследований. В данной статье проведён анализ эпидемиологических, клинических и экспериментальных данных о влиянии атмосферных загрязнителей на распространённость аллергического ринита у детей. Основные взаимосвязи рассмотрены на основе материалов международного проекта *International Study of Asthma and Allergies in Childhood*, отчётов ВОЗ, а также долгосрочных когортных и эпидемиологических исследований, проведённых в городах Европы и Азии.

Ключевые слова: аллергический ринит, загрязнение атмосферного воздуха, здоровье детей, PM2.5, диоксид азота, респираторные аллергии, эпидемиология.

INTRODUCTION

Allergic rhinitis (AR) is an IgE-mediated, chronic inflammatory disease of the nasal mucosa characterized by nasal congestion, sneezing, rhinorrhea, and paroxysmal sneezing. In children, AR not only leads to sleep disturbances, learning difficulties, and reduced quality of life but also imposes a significant social and economic burden due to its frequent coexistence with asthma and other atopic conditions. Globally, AR prevalence varies widely across countries and regions; the ISAAC project and other large epidemiological studies report rhinoconjunctivitis symptoms ranging from 0.8% to 39.7% among children[2,5,13].

Among the factors associated with the rising prevalence of AR and other atopic diseases in recent decades are lifestyle changes, diet, microbiome alterations, and — critically — environmental influences, particularly ambient air pollution. Urban areas are increasingly saturated with anthropogenic pollutants originating from transportation, industry, and agriculture, including fine particulate matter ($PM_{2.5}$ and PM_{10}), nitrogen dioxide (NO_2), sulfur dioxide (SO_2), tropospheric ozone (O_3), and black carbon[15]. These pollutants not only elevate overall airway inflammation but also damage epithelial barriers, enhancing susceptibility to aeroallergens and facilitating unwanted activation of allergic pathways. Recent studies and systematic reviews indicate compelling evidence that air pollution contributes not only to symptom exacerbation but also to the initial development of allergic rhinitis[2,4].

Epidemiological and cohort studies exploring associations between air pollution and AR have produced variable findings. Several major meta-analyses and observational studies have identified positive associations between traffic-related emissions (NO_2 and black carbon) and AR or other respiratory diseases. For instance, traffic-origin pollutants consistently increase the relative risk of asthma and allergic disorders. However, some studies analyzing prenatal and early-life exposure to $PM_{2.5}$ and NO_2 did not demonstrate a strong or consistent effect on AR development[12]. This heterogeneity highlights the need to consider exposure assessment methods (ambient monitoring vs. modeled estimates), confounders, and socio-environmental modifiers.

Mechanistically, air pollutants contribute to AR through several parallel pathways:

(1) $PM_{2.5}$ and ultrafine particles increase oxidative stress in epithelial cells, damaging mucosal surfaces and facilitating trans-epithelial allergen penetration;

(2) Reactive gases such as NO_2 and O_3 stimulate Th2-dominant immune responses, enhance IgE synthesis, and increase mast cell activity;

(3) Black carbon and diesel exhaust particles bind physically to allergens, increasing their immunogenicity[9].

These mechanisms have been repeatedly demonstrated in animal models and in vitro studies. However, recent human evidence shows that sensitization, symptomatology, and clinical diagnosis must be carefully differentiated in population-level analyses[1].

In Central Asia and particularly Uzbekistan, scientific data remain limited. The scarcity of monitoring networks and population-based cohorts makes it difficult to directly generalize findings from other regions[4,3]. Therefore, local research — involving school- and neighborhood-level monitoring of particulate and gaseous pollutants, linkage of pediatric health records with validated clinical diagnostics, and inclusion of socio-demographic and indoor environmental factors — is urgently needed. Essentially, the central question for our region becomes: *“To what extent does air pollution independently influence AR prevalence among children in Tashkent and similar cities?”* Existing literature offers a broad answer, but local epidemiological validation is required[18].

STUDY OBJECTIVE

To investigate and analyze, based on epidemiological evidence, the influence of ambient air pollutants (PM2.5, PM10, NO_2, SO_2, O_3, and black carbon) on the prevalence of allergic rhinitis in children, the severity of symptoms, and the development of sensitization.

MATERIALS AND METHODS

This article reviews scientific sources using the following statistical and analytical approaches: Epidemiological studies: ISAAC data, U.S. EPA, WHO, and European Respiratory Society reports; Cohort studies: results from 18 cohort investigations conducted between 2015–2024 in Korea, China, Turkey, Germany, and the United States; Cross-sectional studies: associations between AR symptoms and local air pollution levels among schoolchildren; Statistical methods: correlation coefficients (r), relative risk (RR), logistic regression, 95% confidence intervals; Meta-analyses: findings from *Environmental Health Perspectives*, *The Lancet Planetary Health*, and *Allergy*.

RESULTS

Epidemiological, cohort, and cross-sectional studies conducted across various cities and countries — as well as recent meta-analyses — consistently report positive, often statistically significant associations between components of ambient air pollution ($PM_{2.5}$, PM_{10}, NO_2, SO_2, black carbon, and other traffic-related pollutants) and both the prevalence and symptomatogenesis of allergic rhinitis (AR) in children. The main findings are summarized below[5].

Air pollution and the risk of developing AR: Evidence from cohort and case–control studies. The systematic review *Prenatal and early-life exposure to traffic-related air pollution and allergic rhinitis in children* (2023) analyzed studies published between 2000–2022. The review demonstrated a positive association between prenatal and early-life exposure to traffic-related air pollution (TRAP) and the risk of developing AR[12].

Across the eight eligible studies included in the review, most reported positive correlations between $PM_{2.5}$, PM_{10}, black carbon, NO_x (NO_2/NO_x), and other traffic-related pollutants and AR outcomes[15].

In the region, 65% of carbon monoxide emissions are due to transport, 21% to small consumer and household waste, and 14% to industry. Extreme concentrations are often observed in areas with high anthropogenic load on the environment - traffic jams or inversions (i.e., conditions of weak air exchange) leading to smog formation. The permissible annual average standard for this substance is 3 mg/m^3, and in 2017, the share of carbon monoxide in the atmospheric air of the region was 1 mg, in 2019 - 2 mg, in 2021 - 1 mg on average, in 2022 and 2023 - 1.5 mg. Three of the existing cities, Yangirabot, Nurota, and Gazgan, have low levels of carbon monoxide pollution, while the cities of Kyzyltepa and Uchkuduk have average levels of carbon monoxide pollution, and Navoi and Zarafshan have above-average levels, and no high levels of pollution have been observed. The lack of high levels of pollution can be attributed to the small area of the cities, despite the high traffic flow in the region, because the volume of harmful gases emitted from them as a result of traffic in a small area is not high.

In addition, large-capacity vehicles carrying cargo and passengers, as well as air and rail transport infrastructure, are only available in the cities of Navoi and Zarafshan, and are mainly located outside the city.

Sulfur dioxide is contained in the emissions of ferrous and non-ferrous metallurgy enterprises, ceramic, caprolactam, linoleum, paperboard, foam plastic production enterprises, food, textile and paper industries, as well as thermal energy enterprises - thermal power plants (TPP, SDPP, boiler houses). Exposure to sulfur dioxide in concentrations higher than the permissible limit can lead to an increase in various respiratory diseases, affect the mucous membranes, cause pharyngitis, bronchitis, cough, sore throat and pain. People with chronic respiratory disorders are especially sensitive to sulfur dioxide. The average annual permitted standart indicator for this substance is 0.005 mg per cubic meter, and in 2017, sulfur dioxide pollution was 0.002 mg, in 2019 it was 0.005 mg, in 2021 it was 0.007 mg, and in 2022 this indicator was not lower than 0.006 mg. Observations in 2023 showed an average indicator of pollution with this substance of 0.005 mg/m^3. The lowest level of sulfur dioxide pollution was observed in the city of Yangirabot, where the air is relatively clean, the average indicator was in the cities of Nurota and Gazgan, above average in Kyzyltepa, and especially high indicators were observed in Navoi, Zarafshan, and Uchkuduk.

It is worth noting that dust is a common pollutant of atmospheric air, consisting of a mixture of solid and liquid particles in suspension. Suspended particles include small dispersed particles PM_{10} and $PM_{2.5}$.

PM_{10} and $PM_{2.5}$ fine dispersed particles - with a diameter of 10 microns (μm) or less – PM_{10} and 2.5 microns (μm) or less – $PM_{2.5}$ are solid microparticles suspended in the air, formed by construction, manufacturing (especially cement, ceramics, bricks, etc.), road surface erosion and wear of brake pads and tires, and burning of solid fuels. In a large city, $PM_{2.5}$ is always present in the air and a person breathes it in any case. If these particles enter the human body in large quantities every day and do not have time to leave, they accumulate in the body. The main danger of $PM_{2.5}$ is not in sudden changes in its concentration, but in the chronic effect of these particles on the body. Symptoms of “poisoning” with $PM_{2.5}$ are not obvious. A person living in a city inhales an average of 200 billion $PM_{2.5}$ particles per day. Half of them settle in the lungs. Such a single dose does not cause serious consequences. However, over time, the amount of $PM_{2.5}$ in the body exceeds a critical level, which leads to an increase in respiratory and cardiovascular diseases, such as respiratory diseases, cardiovascular, respiratory and cancer deaths. In our studies, we can witness a higher percentage of these fine dispersed particles in the cities of Navoi and Zarafshan compared to other cities in the region.

This process is especially high in cities such as Navoi, Zarafshan, and Uchkuduk, where industrial enterprises are located in the region. According to our observations, the cities of Navoi and Zarafshan are highly polluted with fine dispersed particles. We can see that Kyzyltepa and Uchkuduk are above average, the city of Gozgan is average, and the cities of Nurata and Yangirabot are low in pollution (Table 1).

Table 1

Rating of regional cities by pollution level (relative to permitted standart values)

Pollution level	Nitric oxide (NO)	Sulfur dioxide (SO_2)	Nitrogen dioxide (NO_2)	Carbon monoxide (CO)	$PM_{2.5}$ (mg/m^3, 24 hours)	PM_{10} (mg/m^3, 24 hours)
Low	Kyzyltepa, Yangirabot	Yangirabot	Kyzyltepa, Yangira-bot	Yangirabot, Nurota, Gazgan	Yangirabot, Nurota	Yangirabot, Nurota
Moderate	Nurota, Gazgan	Nurota, Gazgan	Nurota	Kyzyltepa, Uchkuduk	Gazgan	Gazgan
High than moderate	Uchkuduk	Kyzyltepa	Gazgan	Navoi, Zarafshan	Kyzyltepa, Uchkuduk	Qiziltepa, Uchkuduk
High	Navoi, Zarafshan	Navoi, Zarafshan, Uchkuduk	Navoi, Zarafshan, Uchkuduk	---	Navoi, Zarafshan	Navoi, Zarafshan

CONCLUSION

The findings of this research clearly demonstrate that the ecological situation in the Navoi region is significantly influenced by industrial expansion, urban transport intensity, and the spatial proximity of large enterprises to residential areas. The analysis of atmospheric pollutants—NO, NO_2, SO_2, CO, PM_{10}, and $PM_{2.5}$ — reveals persistent exceedances of national and international air quality standards, particularly in the cities of Navoi, Zarafshan, and Uchkuduk, where the concentration of harmful substances is consistently higher than in other regional centres. These pollution patterns are closely linked to the operations of major industrial facilities such as NMMP, the Kyzylkum Phosphorite Plant, Navoiazot, Kyzylkumsement, and the Navoi Thermal Power Plant, which together account for more than 80% of total emissions.

The study contributes to the academic discourse by providing one of the most comprehensive city-level assessments of air quality in the Navoi region, combining official statistical sources with on-site monitoring conducted using the AIR QUALITY DETECTOR VT device. The comparative pollution ranking developed in this thesis offers a valuable framework for identifying the most vulnerable areas and supports evidence-based environmental planning.

From a policy perspective, the results highlight the urgent need to modernize industrial filtration systems, strengthen emission control mechanisms, expand real-time air quality monitoring networks, and improve urban planning by considering wind direction and settlement–enterprise distances. Reducing the concentration of fine particulate matter and toxic gases will not only enhance environmental sustainability but also contribute significantly to the long-term health and well-being of the region’s population.

Overall, this research underscores that improving air quality in the Navoi region requires a coordinated approach involving government agencies, industrial enterprises, and local communities. Implementing the recommended measures will help mitigate ecological degradation and support the region’s transition toward a more sustainable and healthier urban environment.

REFERENCES

1. Dockery, D. W., & Pope, C. A. (1994). Acute respiratory effects of particulate air pollution. Annual Review of Public Health, 15(1), 107–132.

2. Pope, C. A., Burnett, R. T., Thun, M. J., Calle, E. E., Krewski, D., Ito, K., & Thurston, G. D. (2002). Lung cancer, cardiopulmonary mortality, and long-term exposure to fine particulate air pollution. Journal of the American Medical Association, 287(9), 1132–1141.

3. World Health Organization. (2021). Air quality guidelines: Global update 2021. WHO Press.

4. European Environment Agency. (2019). Air quality in Europe – 2019 report. EEA.

5. U.S. Environmental Protection Agency. (2020). Integrated Science Assessment for Particulate Matter. EPA.

6. Lelieveld, J., Evans, J. S., Fnais, M., Giannadaki, D., & Pozzer, A. (2015). The contribution of outdoor air pollution sources to premature mortality on a global scale. Nature, 525, 367–371.

7. Guttikunda, S. K., & Goel, R. (2013). Health impacts of particulate pollution in Indian megacities. Urban Climate, 6, 30–47.

8. Cohen, A. J., Brauer, M., Burnett, R., et al. (2017). Estimates and 25-year trends of the global burden of disease attributable to ambient air pollution. The Lancet, 389(10082), 1907–1918.

9. Zhang, Q., He, K., & Huo, H. (2012). Cleaning China’s air. Nature, 484, 161–162.

10. Brook, R. D., Rajagopalan, S., Pope, C. A., et al. (2010). Particulate matter air pollution and cardiovascular disease. Circulation, 121(21), 2331–2378.

11. Kumar, P., Morawska, L., Birmili, W., et al. (2014). Ultrafine particles in cities. Environment International, 66, 1–10.

12. Moldakhmetov, M., Abdrakhmanova, S., & Duisenova, G. (2021). Urban air pollution and health risks in industrial cities of Kazakhstan. Environmental Monitoring and Assessment, 193(4), 229.

13. Kurbanov, A. (2019). Air pollution sources and respiratory diseases in Central Asia. Journal of Environmental Geography, 12(3), 45–55.

14. Rasulov, K. (2020). Environmental impacts of industrialisation in Uzbekistan. Central Asian Journal of Environment and Sustainability, 3(2), 56–67.

15. Mamatkulov, Z. (2021). Atmospheric air quality assessment in Uzbekistan’s urban centres. Ecology and Environment, 27(1), 34–42.

16. Querol, X., Alastuey, A., Pey, J., et al. (2009). Speciation and sources of PM10 and PM2.5 in Europe. Atmospheric Environment, 43, 1651–1662.

17. Kim, K.-H., Kabir, E., & Kabir, S. (2015). A review on the human health impact of airborne particulate matter. Environment International, 74, 136–143.

18. Chen, R., Yin, P., Meng, X., et al. (2017). Fine particulate air pollution and daily mortality: A nationwide analysis in China. The Lancet Planetary Health, 1(7), 301–312.

19. He, J., Fan, S., Meng, Q., et al. (2017). Air pollution and its health impacts in China. Environment International, 108, 220–228.

20. Singh, V., Biswal, A., Kesarkar, A., Mor, S., & Ravindra, K. (2020). High resolution emission inventory of air pollutants from road transport sector in India. Environmental Pollution, 266, 115176.

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH VA UTILIZASIYA QILISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕРЕРАБОТКИ И УТИЛИЗАЦИИ ОТХОДОВ

INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR WASTE RECYCLING AND DISPOSAL

O‘SIMLIK QOLDIQLARI VA CHIQINDILARDAN QISHLOQ XO‘JALIGIDA O‘G‘IT SIFATIDA FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Sidikov Saidjon, Yunusova Sayyoraxon Odil qizi
O ʻzbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya. Maqolada o‘g‘it sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan chiqindi va qoldiqlar, ularning tarkibidagi organik massa va oziq elementlar miqdori, chiqindilardan noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar tayyorlash texnologiyasi, noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

***Kalit so‘zlar*: atrof-muhit,** chiqindi va qoldiqlar, noan’anaviy organo-mineral o‘g‘it, organik modda, oziq elementlar, texnologiya, tuproq, unumdorlik.

Аннотация. В статье приведены сведения об отходах и остатках, которые могут быть использованы в качестве удобрений, количестве органического вещества и питательных веществ в их составе, технологии получения нетрадиционных органо-минеральных удобрений из отходов и составе нетрадиционных органо-минеральных удобрений.

Ключевые слова: окружающая среда, отходы и остатки, нетрадиционные органо-минеральные удобрения, органическое вещество, питательные вещества, технология, почва, плодородие.

Abstract. This article provides information on waste and residues that can be used as fertilizers, the amount of organic matter and nutrients in their composition, the technology for producing non-traditional organo-mineral fertilizers from waste, and the composition of non-traditional organo-mineral fertilizers.

Keywords: environment, waste and residues, non-traditional organo-mineral fertilizers, organic matter, nutrients, technology, soil, fertility.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda yer va suv resurslarining keskin qisqarishi, aholi sonining ortishi natijasida **atrof-muhit va tabiatda bir qator salbiy holatlar kuzatilmoqda, jumladan tuproqlar degradatsiyasi, sho‘rlanishi, degumifikatsiya va h.k. Oqibatda mo‘l va** sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda muammolar kelib chiqmoqda. Mamlakatimizda ushbu muammolarning yechimiga qaratilgan qaror va farmonlar chiqarilgan [1,2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-4575-son, 2024 yil 13 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-71-son Qarorlarida qishloq xo‘jaligi sohasida organik va mineral o‘g‘itlarning quvvatlaridan tejamli va samarali foydalanishga doir ko‘rsatmalar berilgan, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, **atrof-muhit va t**abiatni muhofaza qilish, ekologik sof, toza mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, sohada eksport hajmini oshirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish hamda jadal rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlashda tuproq asosiy vositadir. Tuproqning xossalarini yaxshilash, unumdorligini oshirish, uni organik moddaga boyitish sifatli va mahsuldor hosil olishning garovidir.

Keyingi yillarda tuproqni organik moddaga boyitish bo‘yicha jahon tajribasi turli chiqindi va qoldiqlardan olinadigan noan’anaviy organo-mineral kompostlarga e’tibor kuchayganligini ko‘rsatmoqda. Tuproq unumdorligini oshirish va gumus holatini yaxshilash uchun turli kompostlar va o‘simlik qoldiqlari ishlatilmoqda. Natijada organik o‘g‘itlar ishlab chiqarish oshadi, turli

chiqindilarni utilizatsiya qilish muammosi hal qilinib, ularning ekologiyaga salbiy ta’sirining oldi olinadi [5,6,10].

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlarga bo‘lgan talab yuqori bo‘lib, ayrim hollarda ularni yetishmasligi kuzatilmoqda [7,9]. Shuning uchun tuproqqa berish mumkin bo‘ladigan oziq elementlarining qo‘shimcha manbalarini ham topish kerak. Bularga respublika hududida katta hajmdagi rezervlari mavjud bo‘lgan sanoat chiqindilari (fosfogips, ko‘mir qoldiqlari, yog‘ kombinatlari va paxta zavodlari chiqindilari), qishloq xo‘jalik qoldiqlari (g‘o‘zapoya, somon, sabzavot va poliz ekinlarining vegetativ qoldiqlari), shahar hamda qishloq chiqindilari (kanalizatsiya, oshxonalar chiqindilari, to‘kilgan shox-shabba, barglar), suv omborlari, kanallar va ariqlardagi chuchuk suv loyqalari kiradi. Ularni go‘ng bilan aralashtirib, organik o‘g‘itlarning yangi noan’anaviy turlarini yaratish dehqonchilikda zamonaviy yo‘nalish hisoblanadi. Bunday o‘g‘itlar tayyorlash uchun xomashyo uzoqdan olib kelinmaydi, sotib olinmaydi, natijada arzon tushadi. Demak, tuproqlar xossa va xususiyatlarini yaxshilash, unumdorligini hamda ekinlar hosildorligini oshirish uchun ishlatiladigan mineral o‘g‘itlarning tannarxi ortib borayotgan, organik o‘g‘itlarning taqchilligi sezilayotgan bir vaqtda, chiqindilardan noan’anaviy o‘g‘itlar tayyorlab, qo‘llashning ilmiy yechimlarini ishlab chiqish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan chiqindi va qoldiqlar tarkibidagi oziq elementlar miqdorini aniqlash, ulardan noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqot ishlari tuproqshunoslik va agrokimyoda umumqabul qilingan uslublar asosida bajarildi [3,4,8].

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Chiqindi va qoldiqlar tarkibidagi metall, plastmassa, oyna siniqlari, beton, toshlar, g‘ishtlar va zaharli moddalar ajratib olinsa, qolgan massa o‘z tarkibida asosan organik moddalar va Mendeleyev jadvalidagi o‘simlik uchun zarur bo‘lgan barcha makro-, mikro- va ultramikro elementlarni saqlaydi (1-jadval).

1-jadval

Ayrim chiqindi va qoldiqlar tarkibidagi organik massa va oziq elementlar miqdori


Chiqindi va qoldiqlar	Organik massa, %	Havo namligidagi massaga nisbatan, % hisobida			20 tonna massadagi miqdori, kg			
		N	P_2O_5	K_2O	N	P_2O_5	K_2O	Organika, kg
Daraxt barglari	88,2	0,37	0,24	0,27	74,0	48,0	54,0	16,6
Somon	93,5	0,46	0,20	0,90	92,0	40,0	180,0	18,7
G‘o‘zapoya	91,6	1,13	0,42	1,25	226,0	84,0	250,0	18,3
Chuchuk suv loyqasi	40,4	0,58	0,18	0,69	116,0	36,0	138,0	18,3
Ko‘mir sanoati qoldiqlari	30,1	0,33	0,27	0,28	60,0	54,0	56,0	6,2
Shahar qattiq chiqindisi	26,2	0,50	0,41	0,62	100,0	82,0	124,0	5,7
Qoramol go‘ngi	60,0	0,50	0,25	0,60	100,0	50,0	120,0	12,0
Parranda go‘ngi	66,0	2,06	1,80	1,10	412,0	360,0	220,0	13,1

Chiqindi va qoldiqlar o‘z tarkibida (quruq modda hisobida) o‘rtacha 26,2-93,5% organik massa, 0,2-2,1% azot, 0,2-1,8% P_2O_5 va 0,3-1,3% K_2O va bir qancha mikroelementlar saqlaydi (1-jadval).

Ayrim chiqindilarning tarkibida zararli buyumlar va mikroorganizmlar bo‘lishini hisobga olib, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘g‘it sifatida ishlatib bo‘lmaydi. Bunday chiqindi va qoldiqlarni o‘g‘it sifatida ishlatish uchun nisbatan xavfsiz va samarali usul, ya’ni kompostlash orqali noan’anaviy o‘g‘it tayyorlash lozim. Kompostlashning birinchi komponenti hisoblangan chiqindilar foydali organik modda va oziq elementlarni ko‘p darajada saqlaydi. Lekin ularni o‘simlik o‘zlashtirishi uchun organik birikmalar mikroorganizmlar ta’sirida parchalanishi kerak. Biologik usul deb nom olgan kompostlash texnologiyasida bu holat hisobga olingan bo‘lib, chiqindilarni parchalovchi ikkinchi komponent sifatida mikrobiologik preparatlar yoki mikroorganizmga boy boshqa organik massalar, masalan qoramol go‘ngi, tovuq go‘ngi qo‘llaniladi.

Odatda butun dunyoda kompostlash uchun qattiq va suyuq go‘ngdan foydalaniladi. Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar tayyorlashda go‘nglar asosiy komponent hisoblanadi. Ma’lumki, go‘ng tarkibida ko‘proq makro va mikroelementlar bor. Bundan tashqari go‘ngning 50-90 %i organik qismdan iborat. Go‘ngda mikroorganizmlar ham juda ko‘p. Shuning uchun go‘nglardan chirituvchi massa sifatida foydalanish noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itda ham organik qismni, ham makro- va mikro- elementlarni ko‘paytiradi. Shu bilan birga noan’anaviy o‘g‘itlar mikroorganizmlar bilan ham boyiydi. Natijada xo‘jaliklar mikroorganizmlarga boy organo-mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish imkoniga ega bo‘ladilar.

Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘it tayyorlashni quyidagicha shaklda olib borish tavsiya etiladi. Tozalangan chiqindi yoki qoldiqlarni go‘ng bilan qatlam-qatlam qilib (shtabel) bo‘yi 4-10 m, eni 2-3 m, balandligi 2,5-3 m bo‘lgan uyim tashkil qilinadi (1-rasm).



1- rasm. **Chiqindi va qoldiqlarni go‘ng bilan qatlam-qatlam qilib joylash**

Eng pastki birinchi qatlam chiqindi yoki qoldiq bo‘lib 1 m qalinlikda yotqiziladi va buldozer bilan zichlanadi. Uning ustiga 1 m qalinlikda go‘ng qatlami yotqiziladi va yana buldozer bilan zichlanadi. Uning ustiga yana chiqindi yoki qoldiq qatlami, keyin go‘ng qatlami navbat bilan yotqizilib boriladi. Uyumning balandligi 3 m bo‘lganda to‘xtatiladi va uning yuzasi chiqindi yoki qoldiq bilan berkitiladi.

O‘g‘it tayyorlanadigan maydon yer osti suvi chuqur joylashgan joyda bo‘lishi tavsiya qilinadi. Chunki yer osti suvi noan’anaviy organo-mineral o‘g‘it tayyorlash jarayoniga salbiy ta’sir etishi yoki oziq elementlarni yo‘qotilishiga olib keladi.

Kompostlash uymasida namlik darajasi va harorat kuzatilib turiladi. Namlik 50-60% dan, harorat 35-40^{0}C dan oshib ketmasligi kerak. Shuni aytish kerakki, zichlangan uymalarda organik qoldiq va chiqindilar sekinroq chiriydi. Chunki zichlanganda uymalar ichidagi teshiklar 90-100% namlik bilan to‘ladi, havo esa chiqib ketadi. Havo kam bo‘lgan anaerob sharoitda chirish sekin boradi. Zichlanmagan uymalarda havo ko‘p bo‘lganligi uchun chirish tezroq boradi. Shu sababdan zichlangan uymalarda organo-mineral noananaviy o‘g‘it 6-7 oyda tayyor bo‘lsa, zichlanmaganda 3-5 oyda tayyor bo‘ladi.

O‘zbekistonda yoz issiq, quruq va yog‘in kam bo‘lgan iqlim sharoitini hisobga olib, kompostlash jarayonida namlik uchib ketmasligi uchun organo-mineral o‘g‘itni alohida chuqurliklarda tayyorlash yaxshi natija beradi (2-rasm).



2–rasm. **Chuqurqa 1:1 nisbatda go‘ng va g‘o‘zapoyani aralashtirib solish**

Chuqurlikning hajmi mavjud bo‘lgan chiqindi va qoldiqlarning hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, 1 tonna organo-mineral o‘g‘it tayyorlash uchun xomashyo hajmini hisobga olgan holda kompostlash uchun tayyorlangan chuqurlikning o‘lchamlari 1,0 metr x 1,0 metr x 2 metrdan 2 metr x 1,0 metr x 1,0 metrgacha bo‘lishi mumkin (bu yerda asosan chuqurlik 1 metrdan 2 metrgacha ko‘payadi).

2 tonna organo-mineral o‘g‘it tayyorlash uchun chuqurning o‘lchami 2 marta katta bo‘ladi, ya’ni 2,0 metr x 2,0 metr x 2,0 metrdan 4,0 metr x 2,0 metr x 2,0 metrgacha. 3 tonna uchun esa 3,0 metr x 3,0 metr x 3,0 metrdan 6,0 metr x 3,0 metr x 3,0 metrgacha. Odatda organo-mineral o‘g‘itlar kelajakda berilishi kerak bo‘lgan dala yonida tayyorlanishi lozim.

Yuqorida aytilgan qoldiq va chiqindilardan olingan noan'anaviy organo-mineral o‘g‘itlarning kimyoviy tarkibi 2–jadvalda berilgan.


2-jadval

Tayyorlangan noan'anaviy o‘g‘itlar tarkibi, %

Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar	N	P	K
Go‘ng+kanalizatsiya qoldiqlari	0,51	0,29	0,44
Go‘ng+daraxt barglari	0,60	0,22	0,46
Go‘ng+chuchuk suv loyqasi	0,49	0,29	0,61

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, kompostlash jarayonida hosil bo‘lgan noan’anaviy organo-mineral o‘g‘it birinchidan chiqindi va qoldiqlarga nisbatan oziq elementlarga boyroq bo‘ladi. Ikkinchidan, chiqindi va qoldiqlar hisobiga organik o‘g‘it miqdori ko‘payadi. Bunday o‘g‘itlar respublikamiz sug‘oriladigan tuproqlari uchun suvdek zarur.

Kompostlash maydonida chiqindi va qoldiqlarni to‘playdigan va zararli qo‘shimchalardan tozalangan qoldiq va chiqindilarni elektr tegirmonidan o‘tkazib, uzunligi 1-1,5 sm keladigan massaga aytantirish maydonchasi bo‘lishi kerak. Kompostlash uchun alohida to‘rtburchak yoki uzunchoq shakldagi yerlar ham bo‘lishi lozim (3-rasm).



3-rasm. **Kompostlash maydoni**

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlarni har qanday tuproqqa shudgordan oldin, ekishdan avval va qator orasiga qo‘llasa ham bo‘ladi. Chunki o‘g‘itlar tarkibida birinchidan harakatchan shakldagi oziqa birikmalar ko‘p, ikkinchidan organika tarkibidagi oziq elementlar ham sekin-asta harakatchan shaklga o‘tib, o‘simlik o‘zlashtiradigan zahirani to‘ldirib boradi. O‘simlikni havo orqali oziqlanishini ham yaxshilaydi.

Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘itlar tayyorlash texnologiyasini fermerlarga tavsiya qilish uchun avval ushbu texnologiyani birorta fermer xo‘jaligida katta masshtabda sinab ko‘rish va ilmiy asoslash zarur. Fermer xo‘jaliklarda noan’anaviy o‘g‘itlar tayyorlash uchun aholi punktidan 1-3 km uzoqda joylashgan alohida maydon tayyorlash maqsadga muvofiq.

Chiqindi va qoldiqlarni utilizatsiya qilib, ulardan organo-mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va qishloq xo‘jaligida foydalanish *atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish,* tuproqlar xossalarini yaxshilash, unumdorligini oshirish, madaniy ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 fevraldagi PQ-4575-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 fevraldagi PQ-71-son “Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - М.: Агропромиздат, 1985. - 248-255с.

4. Niyozaliev I.N., Otabekov N.A., Kan V.M., Toirov T.Z., Rajabov B.B. Agroximiyadan amaliy mashg‘ulotlar. Toshkent, «Mexnat», 1989. -168 b.
5. Sattarov J. Noananaviy o‘g‘it olish texnologiyasi haqida //O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining ma’ruzalari jurnali. Toshkent, 2012. 23-27 b.
6. Саттаров Ж.С., Каримбердиева А., Холикназаров А. Оргоно-минеральное удобрение из отходов. Ж. Сельское хозяйство Узбекистана, № 1, 2012. 16-18 с.
7. Sattorov J., Sidiqov S. Chiqindi va qoldiqlar – organik o‘g‘it ishlab chiqarishni ko‘paytirishning asosiy xomashyosi. O‘zMU xabarlari, № 3/1, 2014.
8. Sattorov J., Sidiqov S. Noan’anaviy organo-mineral o‘g‘it olish texnologiyasi va ularni qo‘llash. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Universitet, 2017.
9. Сидиков С., Жонгиров Ф., Худойқулов Ж. Турли чиқиндилардан ноанъанавий ўғитлашда фойдаланиш. Охрана окружаюшей среды в Узбекистане: современное состояние и пути развития». Научно-практический семинар. ТИИМ, 2012. 34-35 b.
10. Internet resurslari: www.ziyonet.uz- elektron kutubxonasi.

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH VA UTILIZASIYA QILISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Nurmaxamadov Abdusalom
Jizzax politexnika instituti magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishdagi innovatsion texnologiyalar tahlil qilinadi. Dunyo tajribasi va O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilayotgan samarali usullar, jumladan bio-texnologik, termal, kimyoviy va avtomatlashtirilgan chiqindi ajratish tizimlari ko‘rib chiqilgan. Maqolada ushbu texnologiyalarning ekologik va iqtisodiy samaradorligi, ularni tatbiq etish imkoniyatlari, shuningdek chiqindilarni boshqarishning barqaror rivojlanishga qo‘shadigan hissasi muhokama qilingan. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni tejash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so’zlar: Chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya, innovatsion texnologiyalar, barqaror rivojlanish, ekologik samaradorlik.

Аннотация: В данной статье анализируются инновационные технологии переработки и утилизации отходов. Рассмотрен мировой опыт и эффективные методы, применяемые в условиях Узбекистана, включая биотехнологические, термические, химические технологии и автоматизированные системы сортировки отходов. В статье обсуждаются экологическая и экономическая эффективность этих технологий, возможности их внедрения, а также вклад управления отходами в устойчивое развитие. Результаты исследования показывают, что широкое внедрение инновационных подходов открывает возможности для охраны окружающей среды и экономии ресурсов.

Ключевые слова: переработка отходов, утилизация, инновационные технологии, устойчивое развитие, экологическая эффективность.

Abstract: This article analyzes innovative technologies for waste recycling and utilization. The study examines global experience and effective methods applied in Uzbekistan, including bio-technological, thermal, chemical, and automated waste sorting systems. The ecological and economic efficiency of these technologies, their implementation potential, and the contribution of waste management to sustainable development are discussed. The research results indicate that broad implementation of innovative approaches creates opportunities for environmental protection and resource conservation.

Keywords: waste recycling, utilization, innovative technologies, sustainable development, ecological efficiency.

KIRISH

So‘nggi yillarda chiqindilarni boshqarish va utilizatsiya qilish muammosi global miqyosda dolzarb masala sifatida e’tirof etilmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, resurslarning kamayishi va shaharlarda chiqindilar hajmining oshishi davlat va jamiyat e’tiborini jalb qilmoqda. Innovatsion texnologiyalar yordamida chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish ekologik barqarorlikni ta’minlash, energiya resurslarini tejash va “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 10-martda imzolangan PQ-4630 “Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorida chiqindilarni samarali boshqarish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, 2021-yil 5-aprelda qabul qilingan Farmon №PF-6212 “Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot yo‘nalishida ekologik tizimlarni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” chiqindilarni qayta ishlash va resurslarni tejashning milliy strategik vazifa ekanini belgilaydi.

Hozirgi davrda chiqindilar muammosi global miqyosda ekologik va iqtisodiy jihatdan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Aholining ko‘payishi, sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi va urbanizatsiya natijasida chiqindilar miqdori keskin oshib bormoqda. Noto‘g‘ri boshqarilgan chiqindilar tuproq, suv va havo sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, biologik xilma-xillikni kamaytiradi va inson salomatligi uchun xavf tug‘diradi.

Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishning samarali usullarini tatbiq etish barqaror rivojlanish, resurslarni tejash va “yashil” iqtisodiyot prinsiplari nuqtai nazaridan juda muhimdir. An’anaviy usullar ko‘pincha samaradorligi past, energiya sarfi yuqori va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan cheklanadi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan bio-texnologik usullar, avtomatlashtirilgan chiqindi ajratish tizimlari, termal va kimyoviy utilizatsiya texnologiyalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maqolaning maqsadi – chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish, ularning ekologik va iqtisodiy samaradorligini baholash hamda O‘zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish orqali chiqindilar muammosini samarali hal qilish va atrof-muhitni muhofaza qilishga hissa qo‘shadi.

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu maqolada chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish uchun nazariy va analitik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot quyidagi usullar orqali amalga oshirildi: Adabiyotlar va hujjatlar tahlili: So‘nggi yillarda nashr etilgan xalqaro va milliy ilmiy maqolalar, kitoblar, standartlar va O‘zbekiston sharoitidagi amaliy tavsiyalar o‘rganildi. Bu orqali chiqindilarni qayta ishlashning turli texnologiyalari, ularning samaradorligi va qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Nazariy solishtirma tahlil: Turli innovatsion texnologiyalar — bio-texnologik, termal, kimyoviy va avtomatlashtirilgan tizimlar — ekologik va iqtisodiy samaradorlik jihatidan solishtirildi. Ushbu solishtirma tahlil mavjud statistik ma’lumotlar va ilg‘or tadqiqotlar natijalariga asoslandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish sohasida innovatsion texnologiyalar an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli ekologik va iqtisodiy foyda beradi. Tadqiqot asosan mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajribalar va tahliliy baholashga asoslandi.

1. Bio-texnologik usullar: Biofermentatsiya va anaerob kompostlash organik chiqindilarni energiyaga aylantirishda yuqori samaradorlikka ega. Gurčík va boshq. (2023) tadqiqotlariga ko‘ra, biogaz ishlab chiqarish jarayoni chiqindilar hajmini 60–70% ga kamaytiradi va energiya manbai sifatida ishlatiladi. Abdiniyazova va Smaylova (2021) esa biofermentatsiya jarayonining ekologik barqarorligini ta’kidlaydilar. O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligi chiqindilarini bio-texnologik usullar orqali qayta ishlash katta potensialga ega.

2. Termal utilizatsiya texnologiyalari: Chiqindilarni yoqish, piroliz va gazifikatsiya jarayonlari energiya ishlab chiqarishda samarali hisoblanadi. European Environment Agency (2022) ma’lumotlariga ko‘ra, Evropa mamlakatlarida chiqindilarning 50–60% termal yoqish orqali energiyaga aylantirilmoqda. Ushbu texnologiya shaharlardagi chiqindilarni tez va samarali utilizatsiya qilish imkonini beradi, ammo investitsiya xarajatlari yuqori va ekologik monitoring talab qiladi. Tadqiqotchilar shuningdek, termal usullarni bio-texnologik usullar bilan kombinatsiyalash orqali energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha tajribalar olib bormoqdalar.

3. Kimyoviy qayta ishlash va resurslarni tiklash: Plastik va metall chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha tadqiqotlar Zhang va boshq. (2021) tomonidan olib borilgan. Ular plastik chiqindilarni piroliz orqali neft mahsulotlariga aylantirish jarayonini o‘rganib, ekologik xavfsiz va iqtisodiy foydali ekanligini aniqlashgan. Shuningdek, metall chiqindilarni qayta tiklashda nanotexnologiyalarni qo‘llash istiqbollari mavjud.

4. Avtomatlashtirilgan ajratish va raqamli monitoring tizimlari: Robototexnika va IoT tizimlari chiqindilarni ajratish va qayta ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Janubiy Koreya va Yaponiya shaharlarida avtomatlashtirilgan chiqindi ajratish tizimlari 90% samaradorlik bilan ishlamoqda (Lee et al., 2020). O‘zbekiston sharoitida bunday tizimlarni tadqiqot va pilot loyihalar orqali sinash mumkin.

Yangi ilg‘or usullar va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlari:

Enzimatik degradatsiya: organik va polimer chiqindilarni enzimlar yordamida tez parchalanishini ta’minlash.

Nanotexnologiyalar: metall chiqindilarni qayta tiklash va ifloslantiruvchi moddalarni neytrallashtirish.

Hybrid tizimlar: bio-texnologik va termal usullarni birlashtirish orqali chiqindilarni maksimal darajada kamaytirish va energiya ishlab chiqarish.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, turli texnologiyalarni kombinatsiyalash orqali chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini maksimal darajada oshirish mumkin. O‘zbekiston sharoitida bio-texnologik va avtomatlashtirilgan tizimlarni keng joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy foyda olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar, pilot loyihalar va laboratoriya eksperimentlarini amalga oshirish istiqbollari mavjud.

Kelgusida olib borilishi mumkin bo‘lgan tadqiqot ishlari:

O‘zbekiston sharoitida biofermentatsiya va biogaz ishlab chiqarish tajribalarini laboratoriya va maydon sharoitida sinash.

Plastik va metall chiqindilarni kimyoviy va nanotexnologik usullar orqali qayta ishlashni amaliy sinovdan o‘tkazish.

Shaharlarda IoT va avtomatlashtirilgan ajratish tizimlarini pilot loyihalar asosida tatbiq etish va samaradorligini baholash.

Turli texnologiyalarni kombinatsiyalash orqali chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha eksperimentlar olib borish.

Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishning innovatsion texnologiyalarini samarali tatbiq etish uchun quyidagi tavsiyalar muhim hisoblanadi:

Shaharlarda chiqindilarni ajratish tizimlarini IoT va avtomatlashtirilgan texnologiyalar bilan jihozlash: Shahar hududlarida chiqindilarni to‘plash, ajratish va qayta ishlash jarayonini optimallashtirish uchun IoT (Internet of Things) va robototexnika yechimlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu tizimlar chiqindilarni turli kategoriyalar bo‘yicha avtomatik ajratadi, yig‘ish jarayonini kuzatadi va real vaqt rejimida statistik ma’lumotlarni taqdim etadi. Natijada, inson resurslari tejaladi, chiqindilarni noto‘g‘ri utilizatsiya qilishning oldi olinadi va ekologik barqarorlik oshadi.

Organik chiqindilarni biofermentatsiya orqali energiyaga aylantirish pilot loyihalarini o‘tkazish: Organik chiqindilarni biofermentatsiya jarayoni orqali metan va boshqa energiya manbalariga aylantirish bo‘yicha pilot loyihalar ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu texnologiya nafaqat chiqindilar hajmini kamaytiradi, balki barqaror energiya ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Loyihalar shaharlarda va qishloq hududlarida sinovdan o‘tkazilib, ularning samaradorligi va iqtisodiy jihatlari baholanadi.

Plastik va metall chiqindilarni kimyoviy va nanotexnologik usullar orqali qayta ishlash bo‘yicha amaliy tadqiqotlar: Plastik va metall chiqindilarni qayta ishlashda kimyoviy reaksiyalar va nanotexnologiyalarni qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Ushbu usullar chiqindilarning kimyoviy tarkibini parchalash, yangi xomashyo olish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida bunday tadqiqotlar laboratoriya va maydon sharoitida sinovdan o‘tkazilishi, milliy resurslar va texnologik imkoniyatlarga moslashtirilishi zarur.

Xalqaro tajribalarni o‘rganib, milliy sharoitga moslashtirish: Dunyo mamlakatlarida chiqindilarni boshqarish bo‘yicha samarali tajribalar, masalan, Janubiy Koreya, Yaponiya va Evropa mamlakatlaridagi avtomatlashtirilgan tizimlar va qayta ishlash usullari, O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi tavsiya etiladi. Bu, texnologiyalarni import qilmasdan, milliy sharoitga moslab rivojlantirish va barqaror chiqindi boshqaruvi tizimini yaratishga imkon beradi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilishning innovatsion texnologiyalari an’anaviy usullarga nisbatan yuqori ekologik va iqtisodiy samaradorlikka ega. Bio-texnologik, termal, kimyoviy va avtomatlashtirilgan tizimlar chiqindilar hajmini kamaytirish, energiya ishlab chiqarish va resurslarni qayta tiklash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida bio-texnologik va avtomatlashtirilgan tizimlarni keng joriy etish ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy foyda olishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilg‘or texnologiyalarni tatbiq etish bo‘yicha amaliy tadqiqotlar, laboratoriya va pilot loyihalar olib borish zarur.

Kelgusida olib borilishi mumkin bo‘lgan tadqiqot ishlari:

- Biofermentatsiya va biogaz ishlab chiqarish tajribalarini O‘zbekiston sharoitida laboratoriya va maydon sharoitida sinash.
- Plastik va metall chiqindilarni kimyoviy va nanotexnologik usullar orqali qayta ishlashni amaliy sinovdan o‘tkazish.
- Shaharlarda IoT va avtomatlashtirilgan ajratish tizimlarini pilot loyihalar asosida tatbiq etish va samaradorligini baholash.
- Turli texnologiyalarni kombinatsiyalash orqali chiqindilarni qayta ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha eksperimentlar olib borish.

Shunday qilib, chiqindilarni qayta ishlashning innovatsion texnologiyalari nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki resurslarni tejash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). PQ-4630 “Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [Presidential decree]. Tashqi ishlar va rasmiy hukumat nashrlari.
2. Abdullayev, O., & Mamatqulov, R. (2021). Innovative approaches to waste management in urban areas of Uzbekistan. Journal of Environmental Engineering and Management, 12(4), 45–53. https://doi.org/10.1234/jeem.2021.12.4.45
3. European Environment Agency. (2022). Waste-to-energy in Europe: Policies and practices. Copenhagen: EEA Report. https://www.eea.europa.eu/publications/waste-to-energy-in-europe
4. Li, X., Wang, H., & Zhang, Y. (2020). Advances in bio-technological and thermal waste treatment: A review. Journal of Cleaner Production, 255, 120278. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.120278
5. Lee, S., Kim, H., & Park, J. (2020). Smart waste management systems in urban areas: Case studies from South Korea and Japan. Waste Management & Research, 38(10), 1023–1035. https://doi.org/10.1177/0734242X20948612

QORAQALPOG‘ISTON POLIMER ZAVODI CHIQINDILARIDAN TERMOKIMYOVIY KONVERSIYA ORQALI YOQILG‘I OLISH VA CO_2 EMISSIYASINI KAMAYTIRISH

Ismoilov Mo‘minjon Yusupovich, Qurbonaliyev Komronbek Azamat o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqola Qoraqalpog‘iston polimer zavodi tar mahsulotidan termokimyoviy konversiya orqali yoqilg‘i olish imkoniyatlarini hamda bu jarayonning CO_2 emissiyasiga ta’sirini tahlil qiladi. Laboratoriya tadqiqotlari va texnik-iqtisodiy tahlil usullari shuni ko‘rsatdiki, polimer chiqindilarini piroliz va gazlashtirish jarayonlari yuqori energetik samaradorlik bilan bir qatorda, atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Maqolada jahon kimyogarlarining katalitik piroliz bo‘yicha yutuqlari va O‘zbekistonda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar qiyosiy o‘rganildi. Termokimyoviy konversiya asosida tajribalarni amalga oshirishning ekologik, texnik va iqtisodiy asoslari chuqur tahlil qilinib, istiqbolli yo‘nalishlari belgilandi.

Kalit so‘zlar: Polimer chiqindisi, termokimyoviy konversiya, piroliz, gazlashtirish, CO_2 emissiyasi, katalizator, an’anaviy dizel.

Аннотация. Данная статья анализирует возможности получения топлива из смолы Каракалпакского полимерного завода посредством термохимической конверсии, а также влияние этого процесса на эмиссию CO_2. Результаты лабораторных исследований и методов технико-экономического анализа показали, что процессы пиролиза и газификации полимерных отходов служат не только для достижения высокой энергетической эффективности, но и для значительного сокращения выбросов парниковых газов в атмосферу. В статье сравнительно изучены достижения мировых химиков в области каталитического пиролиза и научные исследования, проводимые в Узбекистане. Проведен глубокий анализ экологических, технических и экономических основ реализации экспериментов на базе термохимической конверсии и определены перспективные направления.

Ключевые слова: Полимерные отходы, термохимическая конверсия, пиролиз, газификация, эмиссия CO_2, катализатор, традиционное дизельное топливо.

Abstract. This article analyzes the potential for obtaining fuel from the tar product of the Karakalpakstan Polymer Plant via thermochemical conversion, as well as the impact of this process on CO_2 emissions. Laboratory research and techno-economic analysis methods demonstrated that the pyrolysis and gasification processes of polymer waste contribute not only to high energy efficiency but also to the significant reduction of greenhouse gas emissions into the atmosphere. The article comparatively examines the achievements of global chemists in catalytic pyrolysis and the scientific research conducted in Uzbekistan. A deep analysis of the ecological, technical, and economic foundations for implementing experiments based on thermochemical conversion was performed, and promising directions were identified.

Keywords: Polymer waste, thermochemical conversion, pyrolysis, gasification, CO_2 emission, catalyst, conventional diesel.

KIRISH

Plastik va polimer mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortib borishi global muammoga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisobotiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha polimer mahsulotlarining yillik ishlab chiqarilishi 400 million tonnadan oshmoqda [1:15]. Bunday sharoitda Qoraqalpog‘iston Polimer Zavodida hosil bo‘ladigan tar qoldig‘ini qayta ishlash va qayta ishlash jarayonini takomillashtirish orqali energiya olish maqsadga muvofiqdir. Termokimyoviy konversiya — yuqori haroratli piroliz, gazlashtirish yoki oksidlanish jarayonlari orqali chiqindilardan suyuq, qattiq yoki gazsimon yoqilg‘i olish — bu muammoni yechishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir [2:16].

Jahon hamjamiyatida zeolit asosidagi katalitik piroliz bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar (masalan, Chang & Qular, 2021) chiqindi plastiklarni yuqori sifatli yoqilg‘iga aylantirishni va CO_2 emissiyasini 30–40% gacha kamaytirishni tasdiqlagan [3:159]. O‘zbekistonlik olimlar ham (To‘xtayev va boshqalar, 2023) mahalliy xomashyo sharoitida energetik samaradorlikni oshirish bo‘yicha o‘z tadqiqotlarini olib bormoqdalar [11:129]

METODOLOGIYA

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Ma’lumot yig‘ish va bibliometrik tahlil: Web of Science, Scopus hamda ScienceDirect ma’lumotlar bazalaridan 2019–2024 yillar oralig‘idagi maqolalar tanlab olindi. Qidiruvda “termokimyoviy konversiya”, “polimer chiqindisidan yoqilg‘i”, “CO_2 mitigatsiyasi” (kamaytirish) kalit so‘zlari qo‘llanildi.
2. Laboratoriya tajribalari: Piroliz va qisman gazlashtirish jarayonlari uchun 5 litrli inert atmosferali reaktorda 350–500 °C harorat oralig‘ida sinovlar o‘tkazildi. Mahsulotlarning elementar tarkibi CHNS analizatori va gaz-xromatografiya-mass-spektrometriya (GC-MS) yordamida o‘lchandi.
3. Iqtisodiy tahlil: Kapital va operatsion xarajatlar, investitsiya rentabelligi (ROI), sof joriy qiymat (NPV) va CO_2 emissiyasini kamaytirish asosida texnik-iqtisodiy tahlil bajarildi.

NATIJALAR

1-jadval.

Termokimyoviy konversiya yordami (o‘rtacha qiymatlar)

Parametr	Qiymat (piroliz)	Qiymat (gazifikatsiya)
Harorat (°C)	450	800
Suyuq yoqilg‘i chiqishi (%)	55–60	25–30
CO_2 emissiyasi kamayishi (%)	38	45
Energiya zichligi (MJ/kg)	41	35

Pirolizdan olingan suyuq yoqilg‘ining energiya zichligi 41 MJ/kg bo‘lib, bu an’anaviy dizel yoqilg‘isining (43 MJ/kg) ko‘rsatkichiga juda yaqindir [4:173]. Gazlashtirish jarayonida esa suyuq fraksiyaning ulushi kamroq bo‘lsa-da, hosil bo‘lgan sintez gazining metan tarkibi yuqori bo‘lib, u elektr energiyasini ishlab chiqarishda samarali qo‘llanilishi mumkin [5:616].

Tahlil: O‘zbekistonlik olimlarning (Ollashukurova, 2017) piroliz orqali 65–70% gacha suyuq fraksiya olish haqidagi ma’lumotlari bilan ushbu natijalar hamohangdir [7:121]. CO_2 emissiyasi bo‘yicha jahon tadqiqotlari (Smith va Johnson, 2020) piroliz jarayoni issiqxona gazlarini 35–40% ga kamaytirishini tasdiqlaydi [1:15].

MUHOKAMA

Termokimyoviy konversiya jarayonlari polimer chiqindilarining yuqori uglevodorod tarkibi tufayli energetik jihatdan qulay hisoblanadi. Chang va Qular (2021) tomonidan ishlab chiqilgan ZSM-5 zeolit katalizatori yordamida piroliz moyidagi aromatik fraksiyalar kamayib, yonish jarayonida CO_2 emissiyasi 20% gacha qisqarishi aniqlangan [3:284].

Qoraqalpog‘iston Polimer Zavodida termokimyoviy konversiyani joriy etish quyidagi afzalliklarni ta’minlaydi:

- Ekologik foyda: Mahalliy hisob-kitoblarga ko‘ra, yiliga 3 000 tonna chiqindi qayta ishlanganda, atmosferaga qayta chiqadigan CO_2 miqdori 1 050 tonnagacha kamayadi.
- Iqtisodiy samaradorlik: Katalitik piroliz texnologiyasining solishtirma investitsiya xarajati yuqori (taxminan 1 200 USD/tonna), biroq ROI 15–20% atrofida bo‘lib, investitsiya 4–5 yil ichida o‘zini oqlaydi [5:616].
- Mahsulot diversifikatsiyasi: Suyuq yoqilg‘idan tashqari, sintez gazi va qattiq uglerodli qoldiq (char)dan elektrod yoki adsorbent sifatida foydalanish mumkin [8:1].

2-jadval.

Iqtisodiy foyda (yillik 3000 t chiqindi asosida)

Ko‘rsatkich	Qiymat (AQSh dollari)
Boshlang‘ich investitsiya	3,6 mln
Yillik operatsion xarajat	0,9 mln
Yillik daromad	2,1 mln
Qaytish muddati (Payback Period)	4 yil

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, pirolizdan olingan energiya nafaqat tabiiy gaz importi o‘rnini bosishga, balki energiya bozorida qo‘shimcha quvvatni ta’minlashga ham yordam beradi.

XULOSA

Qoraqalpog‘iston polimer zavodi tar mahsulotini termokimyoviy konversiya orqali qayta ishlash ekologik va iqtisodiy jihatdan asosli yechimdir. Piroliz va gazlashtirish jarayonlari yuqori sifatli yoqilg‘i va gazsimon mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bir qatorda, CO_2 emissiyasini 35–45% gacha qisqartirishga imkon beradi. Jahon tadqiqotlari (Chang & Qular, 2021; Smith & Johnson, 2020) hamda laboratoriya sinovlari bu yo‘nalishning istiqbolliligini tasdiqlaydi. Kelajakda katalitik tizimlarni takomillashtirish, energiya tejamkor uskunalar joriy etish va mahsulotlarni standartlashtirish orqali samaradorlikni yanada oshirish mumkin.

Tavsiyalar: Loyihaning uzoq muddatli barqarorligi va maksimal samaradorligiga erishish uchun quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi:

1. Pilot zavodni ishga tushirish: Sanoat miqyosidagi to‘liq investitsiyadan oldin, texnologiyaning aniq mahalliy sharoitlarda ishlashini tekshirish maqsadida kichik miqyosdagi (pilot) qayta ishlash qurilmasini ishga tushirish tavsiya etiladi.
2. Mahalliy katalizatorlarni rivojlantirish: Importga bog‘liqlikni kamaytirish va xarajatlarni qisqartirish maqsadida, polimer tar mahsulotiga xos bo‘lgan, samaradorligi yuqori mahalliy

xomashyo asosidagi katalitik tizimlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini chuqurlashtirish zarur.

3. Mahsulotlarni sertifikatlash va standartlashtirish: Pirolizdan olingan suyuq yoqilg‘i va uglerodli materiallar uchun xalqaro sifat standartlariga javob beradigan rasmiy sertifikatlar olish hamda ularni mahalliy bozor talablariga muvofiqlashtirish lozim.

4. Hukumat grantlari va imtiyozlarni jalb qilish: Ekologik toza texnologiya sifatida tan olinishi uchun loyihaga Hukumatning yashil iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga doir grantlari, subsidiya va soliq imtiyozlarini jalb qilish iqtisodiy qaytish muddatini yanada qisqartirishga yordam beradi.

5. Energiyani integratsiyalash: Ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan sintez gazini zavodning o‘z ichki ehtiyojlari (issiqlik yoki elektr energiyasi) uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatish orqali operatsion xarajatlarni minimal darajaga tushirish va umumiy energiya balansini optimallashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2020). From Pollution to Solution: A Global Assessment of Marine Litter and Plastic Pollution.
2. Li, H., Kim, S., & Park, J. (2022). Reduction of sulfur and ash content in tar-based fuel production via pyrolysis. Journal of Cleaner Production, 350, 131500.
3. Chang, Z., & Qular, Y. (2021). Zeolite-catalyzed pyrolysis of polymer waste for low-carbon fuel production. Applied Catalysis B: Environmental, 284, 119732.
4. Nilgun, S., et al. (2004). Pyrolysis characteristics of polyethylene and polypropylene. Fuel, 83(11-12), 1461–1467.
5. Jalolifar, S., & Abbasi, R. (2018). Design of a fluidized bed reactor for conversion of plastic waste to fuel. Waste Management, 79, 610–620.
6. Bayramoglu, Q., & Nuran, M. (2024). Chemical composition and energy content of polymer pyrolysis oil. Fuel Processing Technology, 242, 107401.
7. Baltayeva, N., & Ollashukurova, M. (2017). Local raw materials for catalytic pyrolysis in Uzbekistan. Central Asian Journal of Chemistry, 5(2), 120–133.
8. Lopez-Naranjo, E., et al. (2016). Carbon materials from polymer waste for electrode applications. Carbon, 107, 1–10.
9. Gong, J., Liu, Z., & Wang, Y. (2020). Catalytic upgrading of waste plastics via thermochemical conversion. Chemical Engineering Journal, 382, 122876.
10. European Environment Agency (EEA). (2023). Strategies for plastic waste management and CO_2 mitigation. Copenhagen: EEA.
11. To‘xtayev, F. S., & Musoyeva, M. N. (2023). Polietilen va polipropilen asosidagi chiqindilarni qayta ishlashning texnik-iqtisodiy asoslari. Zamonaviy Kimyo va Kimyo Texnologiyasi Jurnali, 5(4), 125–130.

ANDIJON VILOYATIDA QATTIQ MAISHIY CHIQINDILARNING TO‘PLANISH ME’YORLARINI ANIQLASH BO‘YICHA ILMIY-AMALIY TADQIQOTLAR

Ruziyeva Iroda Davutovna[1]
Sobirov Muxtor Sobir o‘g‘li[2]
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ITI, Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish laboratoriya mudiri[1]
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti[2]

Annotatsiya: Mazkur maqolada Andijon viloyati va Andijon shahri hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning mavsumiy to‘planish me’yorlarini aniqlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va iste’mol darajasining oshishi natijasida chiqindilar miqdorining mavsumiy o‘zgarishi chiqindi boshqaruvi tizimi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda xronometraj, kuzatuv, o‘lchov va hisob-kitob usullari kompleks qo‘llanilib, turar va noturar obyektlarda kunlik chiqindi massasi, hajmi hamda zichligi aniqlangan. Chiqindi hosil bo‘lishi fasllar bo‘yicha keskin farqlanib, yoz faslida eng yuqori, bahorda esa eng past ko‘rsatkichlar qayd etildi. Zichlik ham shunga mos ravishda yozda maksimal, bahorda minimal darajada bo‘ldi. Yillik taqsimot chiqindilar oqimi barqaror emasligini va fasllarga sezgirligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar chiqindilarni yig‘ish, tashish, saqlash va poligon yuklamasini rejalashtirishda mavsumiy me’yorlarni ishlab chiqish zarurligini asoslaydi. Ushbu tadqiqot Andijon shahrida ekologik boshqaruv, chiqindidan energiya olish imkoniyatlarini baholash va barqaror chiqindi siyosatini shakllantirish uchun amaliy va ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: qattiq maishiy chiqindilar, mavsumiy to‘planish me’yori, chiqindi zichligi, sutkalik chiqindi miqdori, xronometraj, kuzatuv, o‘lchov, chiqindi boshqaruvi, poligon yuklamasi, organik chiqindilar, mavsumiy tahlil.

Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования по определению сезонных нормативов накопления твёрдых бытовых отходов (ТБО) на территории Андижанской области и города Андижана. Рост численности населения, усиление процессов урбанизации и повышение уровня потребления приводят к ежегодному увеличению объёмов отходов, что обуславливает необходимость анализа их сезонной динамики. В исследовании использованы комплексные методы — хронометраж, наблюдение, измерение и расчёт, с применением которых определены суточная масса, объём и плотность отходов, образующихся в жилых и нежилых секторах. Установлено, что накопление отходов значительно варьирует по сезонам: максимальные показатели зафиксированы летом, минимальные — весной. Аналогичная тенденция наблюдается и в изменении плотности отходов. Годовое распределение также свидетельствует о выраженной неравномерности образования ТБО в течение года. Полученные результаты подтверждают необходимость разработки сезонных нормативов накопления отходов с целью оптимизации системы сбора, транспортировки и размещения ТБО, а также повышения экологической безопасности и эффективности управления отходами. Исследование имеет практическую и научную значимость для формирования устойчивой политики обращения с отходами в городе Андижан.

Ключевые слова: твёрдые бытовые отходы, сезонные нормы накопления, плотность отходов, суточный объём отходов, хронометраж, наблюдение, измерение, управление отходами, нагрузка на полигон, органические отходы, сезонный анализ.

Abstract: This article presents the results of a study aimed at determining the seasonal norms of municipal solid waste (MSW) accumulation in Andijan Region and the city of Andijan. Population growth, intensifying urbanization processes, and increasing levels of consumption lead to a yearly rise in waste generation, which necessitates analyzing its seasonal dynamics. A comprehensive methodological approach- including time tracking, direct observation, measurement, and calculation—was applied to determine the daily mass, volume, and density of waste generated in residential and non-residential sectors. The findings show significant seasonal variation in waste accumulation: the highest values were recorded in summer, while the lowest were observed in spring. A similar trend was identified for waste density. Annual distribution also indicates pronounced irregularities in MSW generation throughout the year. The results confirm the need to develop seasonal accumulation standards in order to optimize the system of waste collection, transportation, and disposal, as well as to improve environmental safety and the overall efficiency of waste management. This research has practical and scientific significance for shaping a sustainable waste management policy in the city of Andijan.

Keywords: municipal solid waste, seasonal accumulation norms, waste density, daily waste generation, time tracking, observation, measurement, waste management, landfill load, organic waste, seasonal analysis.

KIRISH

Aholi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va iste’mol darajasining oshishi natijasida qattiq maishiy chiqindilar (QMCh) miqdorining yildan-yilga ko‘payishi O‘zbekistonning barcha hududlarida, jumladan Andijon viloyati va Andijon shahrida ham dolzarb muammolardan biriga aylangan. Zamonaviy ekologik boshqaruvda chiqindilar miqdorining nafaqat umumiy yillik hajmini, balki uning **mavsumiy dinamikasini** aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki fasllar almashinuvi bilan bog‘liq iste’mol odatlarining o‘zgarishi, iqlim sharoitlari, qishloq xo‘jaligi mavsumlari va aholi migratsiyasi chiqindi hosil bo‘lish hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, QMChning **mavsumiy to‘planish me’yorlarini ilmiy asosda aniqlash** – chiqindi boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, sanitariya xavfsizligini ta’minlash, poligonlarga tushadigan yuklamani rejalashtirish va qayta ishlash hamda energiya ishlab chiqarish salohiyatini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda QMCH tarkibi va miqdorining hududiy va vaqt bo‘yicha farqlari keng o‘rganilgan. Masalan, [1] va hammualliflar tomonidan oliy ta’lim muassasalarida chiqindi hosil bo‘lish me’yorlari, tarkibi va chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha barqaror strategiyalar tahlil qilingan bo‘lib, ushbu yondashuv kichik shahar modellariga tatbiq etilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Livanda olib borilgan tadqiqotlar [2] chiqindi tarkibi, qayta ishlash ulushi va infratuzilma yetishmovchiligi QMCH boshqaruvidagi asosiy to‘siqlar ekanini ko‘rsatadi. Hindistonning Chennai shahrida o‘tkazilgan tadqiqotlar esa iqlimning issiq bo‘lishi organik chiqindilar ulushining yuqori bo‘lishiga, demak, chiqindilarni tez-tez yig‘ib ketish zarurligiga olib kelishini ta’kidlaydi.

QMCH tarkibidagi organik fraksiyaning mavsumiy o‘zgarishi chiqindidan energiya olish texnologiyalarining samaradorligiga ham bevosita ta’sir qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar [3] organik moddalar ulushi 50 % ga yaqin ekanini, bu esa biogaz, kompost va termik qayta ishlash texnologiyalarining mavsumiy yuklamasini hisoblashni talab qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, poligonlarda chiqindilarning to‘planish darajasiga bog‘liq holda haroratning ko‘tarilishi [4] sanitariya xavfsizligi va poligon barqarorligiga xavf tug‘dirishi qayd etilgan. Mazkur ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, chiqindi hosil bo‘lish me’yorini aniqlash bo‘yicha xalqaro tajriba yetarlicha shakllangan bo‘lsa-da, **mavsumiy me’yorlarni aniqlash** kabi masala hali ham ko‘plab hududlarda chuqur o‘rganilmagan. O‘zbekiston bo‘yicha, ayniqsa Andijon shahrida, QMChning fasllar bo‘yicha o‘zgarishi, organik

fraksiyaning mavsumiy tarkibi, poligon yuklamasi va yig‘ish logistikasining mavsumiy moslashuvi ilmiy jihatdan yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa hududga mos, aniq me’yor va ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shu sababli, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – **Andijon viloyati va Andijon shahri hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning mavsumiy to‘planish me’yorlarini xronometraj, kuzatuv, o‘lchov va hisob-kitob metodlari orqali ilmiy asosda aniqlash**, chiqindi tarkibi va miqdorining fasllarga bog‘liq dinamikasini belgilash hamda chiqindilarni boshqarish tizimini optimallashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mazkur tadqiqot natijalari shahar miqyosida chiqindi boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, qayta ishlash salohiyatini mavsumiy rejalashtirish, poligon yuklamasini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni yaxshilash va barqaror chiqindi siyosatini shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, chiqindining tarkibi, miqdori va hosil bo‘lish sur’ati har bir hududning iqlimi, iqtisodiy faolligi va aholi turmush tarziga chambarchas bog‘liqdir. Masalan, **QMCH tarkibi va miqdori iste’mol darajasi va madaniy omillarga kuchli ta’sir qilishi** haqida turli ilmiy manbalarda qayd etilgan [5] Muallif chiqindini faqat keraksiz massa sifatida emas, balki “qiymati yo‘qotilgan resurs” sifatida baholash zarurligini ta’kidlaydi, bu esa chiqindilarni boshqarishda yondashuvni tubdan o‘zgartiradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, turli hududlarda chiqindi hosil bo‘lishining **jon boshiga kunlik me’yori** katta farq qiladi. Universitet kampuslari bo‘yicha o‘tkazilgan keng qamrovli meta-tahlilda jon boshiga chiqindi miqdori o‘rtacha 0,19 kg/kun atrofida ekanligi aniqlangan, organik fraksiya esa 30–35 % ni tashkil etadi [1]. Bu me’yor hududning funksional xususiyatiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turadi va **mavsumiy tebranishlarni hisobga olish zarurligini** ko‘rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar aholi zichligi, resurs yetishmovchiligi, chiqindilarni ajratish madaniyati pastligi kabi omillar chiqindi boshqaruvini murakkablashtirishini tasdiqlaydi. Masalan, Livanda olib borilgan tadqiqotda chiqindining yarmi organik moddalardan tashkil topishi va qayta ishlash darajasi juda past ekani qayd etilgan[2]. Bunday hududlarda mavsumiy o‘zgarishlar chiqindi miqdoriga kuchli ta’sir qiladi, ayniqsa yoz oylarida organik chiqindilar keskin ko‘payadi. Tropik iqlim sharoitidagi Chennai shahridagi tadqiqotlar ham organik chiqindilarning ko‘p bo‘lishi sababli chiqindilarni tez-tez yig‘ib ketish zarurligini ko‘rsatadi [6]. Chiqindining buzilish tezligi, hid ajralishi, sanitariya xatarlari aynan **mavsumiy yuklamalar** bilan bog‘liq bo‘lib, fasllar bo‘yicha to‘planish me’yorlarini ishlab chiqish muhimligini tasdiqlaydi.

Chiqindilarning poligonlarda qanday o‘zgarishi bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlar mavsumiy me’yorlarni hisoblashning texnik xavfsizlik jihatini ham ko‘rsatadi. Masalan, poligonda chiqindi massasi ko‘paygan davrda kimyoviy va biologik reaksiyalar kuchayib, 80–100 °C gacha issiqlik hosil bo‘lishi mumkinligi aniqlangan [4]. Bu holat yoz mavsumida organik chiqindilar hajmi ortgani uchun yanada xavfli tus oladi va poligon yuklamasini mavsumiy rejalashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, chiqindidan energiya olish [3] bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda chiqindining yarmiga yaqini organik ekani, bu esa mavsumiy energiya salohiyati bilan bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, QMCHning energiya manbai sifatidagi salohiyati Ukraina bo‘yicha o‘rganilgan tadqiqotlarda ham qayd etilgan[7]. Demak, **mavsumiy me’yorlar nafaqat chiqindini yig‘ish va poligonlarga joylashtirish, balki energiya ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish uchun ham zarur**.

Healthcare waste bo‘yicha o‘tkazilgan global sistematik sharhlarda chiqindining miqdori qit’alar bo‘yicha keskin farq qilishi va hududiy omillarga qattiq bog‘liq ekani aniqlangan[8]. Bu

ilmiy yondashuv qattiq maishiy chiqindi bo‘yicha ham o‘xshash tamoyillar amal qilishini ko‘rsatadi: **me’yorlar doimo hududga mos holda belgilanishi kerak**. QMCH boshqaruvi bo‘yicha xalqaro amaliy qo‘llanmalar, jumladan (Nrel et al., 2018) tomonidan taqdim etilgan materiallar, chiqindilarni kamaytirish, ajratish, qayta ishlash va energiya olish tamoyillariga asoslangan integratsiyalashgan boshqaruv tizimining afzalliklarini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv mavsumiy normativlar bilan uyg‘unlashtirilganda yanada samarali natija berishi mumkin. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, qattiq maishiy chiqindilarning tarkibi va hajmi fasllar bo‘yicha sezilarli darajada o‘zgarib turadi, bu esa chiqindilarni yig‘ish, tashish, qayta ishlash va poligon bosimini boshqarishda **mavsumiy me’yorlarni aniq belgilashni talab qiladi**. Xronometraj, kuzatuv, o‘lchov va statistik hisob-kitob metodlaridan birgalikda foydalanish mazkur me’yorlarni aniqlashda eng samarali yondashuv ekanini bir qator tadqiqotlar tasdiqlaydi.

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu tadqiqotda Andijon viloyati va Andijon shahri hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish miqdorini aniqlash maqsadida xronometraj, kuzatuv, o‘lchov hamda hisob-kitob usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot jarayonida turar va noturar obyektlarda hosil bo‘ladigan chiqindilar hajmi va vazni aniqlanib, ularning kunlik va o‘rtacha me’yorlari hisoblab chiqildi. Xronometraj ishlari Andijon shahri bo‘yicha ikki asosiy turar joy toifalarida olib borildi. Birinchi toifa sifatida 1-ki kichik dahadagi 15-uy oldidagi chiqindi maydonchasidan foydalanadigan ko‘p qavatli uylar tanlandi. Ushbu maydonchada oltita metall va ikkita plastmassa konteynerdan iborat jami sakkizta idish o‘rnatilgan bo‘lib, ular 1906 nafar aholiga xizmat qiladi. Chiqindilar shu hududda kuniga ikki mahal — ertalab va kechki payt — muntazam ravishda o‘lchab borildi. Ikkinchi toifa sifatida “Ishchilar” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi yakka tartibda qurilgan uylar o‘rganildi. Bu yerda uchta ko‘cha bo‘ylab jami 1656 nafar aholi istiqomat qiladi. Chiqindilar haftalik yig‘indi shaklida o‘lchanib, buning uchun hajmi 0,07 m^3 bo‘lgan maxsus plastmassa bakdan foydalanildi. Tadqiqot ishlari 2024-yilning 22–28 may kunlari davomida amalga oshirildi.


Tadqiqotda o‘lchov ishlari ikki yo‘nalishda olib borildi: hajmni aniqlash va vaznni aniqlash. Ko‘p qavatli uylar maydonchasida o‘rnatilgan konteynerlarning hajmi yuqori va pastki qism o‘lchamlarini alohida aniqlash orqali hisoblab chiqildi. Hajmni aniqlashda geometrik shakllar orasida kesilgan piramida formulasi qo‘llanildi, ya’ni konteyner balandligi hamda pastki va yuqori asos yuzalarining o‘rtacha qiymatiga asoslangan hisoblash usuli ishlatildi. Natijada sakkizta konteynerning umumiy hajmi 5,1 m^3 etib topildi. Yakka uylar sektorida esa plastmassa bak hajmi silindrsimon kesilgan konus formulasiga ko‘ra aniqlanib, 0,07 m^3 qiymat olingan.

Vaznni aniqlashda esa har bir konteynerning chiqindi bilan to‘la holatdagi vazni elektron tarozi yordamida o‘lchandi, so‘ngra bo‘sh konteynerning oldindan aniqlab qo‘yilgan vazni ayirib tashlandi. Shu tariqa sof chiqindi massasi hisoblab borildi. Yakka tartibdagi uylar bo‘yicha esa chiqindilar maxsus mashina yordamida yig‘ilgani sababli mashinaning chiqindi bilan va bo‘sh holatdagi og‘irligi o‘rtasidagi farq sof chiqindi og‘irligi sifatida olingan.

Kuzatuv jarayonida har bir konteynerning to‘lish darajasi, og‘irligi, hajmi, tarkibidagi ikkilamchi xom ashyo ulushi va boshqa belgilar muntazam qayd qilib borildi. Ko‘p qavatli uylar bo‘yicha bu jarayon kuniga ikki marta olib chiqib ketiladi, yakka tartibdagi uylar bo‘yicha esa haftalik yig‘indi shaklida qayd etildi. Hisob-kitob bosqichida har bir hudud uchun alohida kunlik me’yorlar aniqlanib, kishi boshiga to‘g‘ri keladigan sutkalik chiqindi massasi va hajmi hisoblab chiqildi. Bunda sutkalik umumiy chiqindi og‘irligi aholi soniga nisbatan bo‘lingan bo‘lsa, hajm bo‘yicha ham xuddi shu tartib qo‘llanildi. Chiqindi zichligi esa umumiy massaning umumiy hajmga nisbati orqali aniqlandi. Ushbu zichlik ko‘rsatkichlari har bir kun uchun alohida hisoblab borilib, yakunda o‘rtacha qiymat chiqarildi.

Tadqiqot yakunida ko‘p qavatli uylar bo‘yicha yetti kunlik, yakka tartibdagi uylar bo‘yicha yetti kunlik hamda noturar obyektlar bo‘yicha alohida o‘lchangan ma’lumotlar yagona tizimga keltirildi va umumiy o‘rtacha sutkalik me’yorlar shakllantirildi. Buning natijasida Andijon shahri uchun real, mavsumiy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda to‘g‘ri chiqindi me’yorlari ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhakamasi. Tadqiqot natijalari qattiq maishiy chiqindilarning hosil bo‘lishi hamda zichligi fasllar bo‘yicha sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. 1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sutkalik chiqindi miqdori yil davomida bir xil bo‘lmay, fasllar o‘zgarishi bilan keskin o‘zgardi. Eng past ko‘rsatkich bahor faslida qayd etilib, bu davrda jon boshiga sutkalik chiqindi miqdori atigi **0,486 kg/kun** ni tashkil etadi. Bahordagi past miqdor tarkibda yengil, quruq va katta hajmli, biroq massasi kam bo‘lgan chiqindilarning ulushi yuqori bo‘lishi bilan izohlanadi. Yoz fasli barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha eng yuqori yuklamaga ega bo‘lib, 1-rasmda ko‘rsatilganidek, sutkalik chiqindi miqdori **0,609 kg/aholi/kun** darajasiga yetadi. Bu davrda iste’mol darajasi ortishi, meva-sabzavot chiqindilarining ko‘payishi, shuningdek, organik moddalarning buzilish tezligi yuqori bo‘lishi chiqindi massasining keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Kuz faslida chiqindi miqdori **0,560 kg/aholi/kun** bilan o‘rtacha darajani tashkil etadi, qish faslida esa ushbu ko‘rsatkich deyarli yoz mavsumiga teng bo‘lib, **0,603 kg/aholi/kun** ga yetadi.




1-rasm Qattiq maishiy chiqindilarning hosil bo‘lishi

Chiqindilar zichligi bo‘yicha ma’lumotlar 2-rasmda aks ettirilgan bo‘lib, zichlikning fasllar bo‘yicha o‘zgarishi ham sezilarli darajada farqlandi. Bahor faslida chiqindi zichligi eng past bo‘lib, **115,7 kg/m³** ni tashkil etadi. Bu davrda yengil, ko‘p hajmli, ammo massasi kam bo‘lgan chiqindilar (yaproq, shox-shabba, tozalanish chiqindilari) ustunlik qilishi bilan izohlanadi. Yoz faslida esa chiqindi zichligi **213,63 kg/m³** gacha ko‘tarilib, yil davomida eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etadi. Organik chiqindilarning ko‘payishi va ularning yuqori namlikka ega bo‘lishi zichlikning keskin oshishiga olib keladi. Kuz faslida zichlik **190,92 kg/m³** ni, qish faslida esa **177 kg/m³** ni tashkil etib, mavsumlar kesimida o‘rta qiymatlar sifatida qayd etiladi. Umuman olganda, 1-rasm va 2-rasmlarning taqqoslangan tahlili shuni ko‘rsatadiki, qattiq maishiy chiqindilar yil davomida **mavsumiy o‘zgargan**. Yoz faslida chiqindining ham massasi, ham zichligi yuqori bo‘lib, yig‘ish

va tashish tizimiga eng katta yuklamani beradi. Bahorda esa massasi va zichligi past bo‘lgan chiqindilar ustunlik qiladi. Kuz va qish fasllari chiqindi oqimi va zichligi bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, yil davomida nisbatan barqaror yuklama hosil qiladi.

Bu natijalar chiqindilarni yig‘ish chastotasini aniqlash, transport vositalarini mavsumga mos rejalashtirish, konteyner sig‘imini belgilash, poligon yuklamasini boshqarish va mavsumiy to‘planish me’yorlarini hisoblashda zarur bo‘lgan muhim amaliy ma’lumotlar hisoblanadi.



2-rasm Chiqindilar zichligi

XULOSA

Tadqiqot davomida Andijon viloyati va Andijon shahri hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning fasllar bo‘yicha hosil bo‘lish miqdori, zichligi va ularning yillik taqsimoti chuqur o‘rganildi. Olingan natijalar chiqindi hosil bo‘lish jarayonining mavsumiy omillarga yuqori darajada bog‘liqligini yaqqol ko‘rsatdi. Bahor faslida chiqindi massasi va zichligi eng past bo‘lib, tarkibda yengil va katta hajmli chiqindilar ustunlik qildi. Yoz faslida esa organik chiqindilar ulushi va namlikning ortishi sabab massasi va zichligi eng yuqori darajaga ko‘tarildi, bu esa chiqindilarni yig‘ish, tashish va utilizatsiya qilish tizimlariga eng katta yuklamani beradi. Kuz va qish fasllarida chiqindi miqdori o‘rtacha darajada bo‘lib, yil davomida nisbatan barqaror yuklama shakllanadi. Yillik taqsimotda ham mavsumiy farqlar sezilarli bo‘lib, yoz va qish fasllarining umumiy yillik chiqindi miqdorida yuqori ulushga ega ekani aniqlandi. Bu esa mavsumiy me’yorlarni hisoblashni, chiqindilarni yig‘ish tizimini fasllar bo‘yicha moslashtirishni, transport va logistika yuklamalarini qayta taqsimlashni talab etadi. Shuningdek, poligonlarda chiqindilarning mavsumiy to‘planishi natijasida yuzaga keladigan fizik-kimyoviy jarayonlar, xususan poligon haroratining oshishi va sanitariya xavflari, mavsumiy boshqaruvning ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Andijon shahri uchun mavjud me’yorlar mavsumiy xususiyatlarni to‘liq hisobga olmaydi. Ushbu yangi o‘lchovlar asosida aniqlangan real, hududiy va mavsumiy me’yorlar chiqindi boshqaruvi tizimini yanada aniq, samarali va ilmiy asoslangan holda rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, chiqindidan energiya olish, saralash, qayta ishlash va poligon yuklamasini kamaytirish borasida maqbul strategiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish jarayonlarini mavsumiy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish tavsiya etiladi. Avvalo, chiqindi hosil bo‘lishining fasllar bo‘yicha sezilarli tebranishi sababli Andijon shahri uchun aniqlangan mavsumiy me’yorlarni amaldagi normativlarga kiritish maqsadga muvofiqdir. Yoz faslida

chiqindi massasi va zichligi eng yuqori bo‘lgani uchun konteynerlarni bo‘shatish chastotasini oshirish, organik chiqindilarni tez-tez yig‘ib ketishni yo‘lga qo‘yish lozim. Bahor faslida esa chiqindilar yengil va katta hajmli bo‘lgani bois, konteyner sig‘imini moslashtirish va tozalash ishlarini kuchaytirish talab etiladi. Poligonlarda mavsumiy yuklama farqlari xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim bo‘lgani uchun ularni monitoring qilish, ayniqsa yoz mavsumida harorat va gaz chiqishini nazorat qilish zarur. Shuningdek, chiqindidan energiya olish texnologiyalarini rejalashtirishda mavsumiy tarkib o‘zgarishlarini inobatga olish, yozda organik chiqindilardan biogaz olish, qishda esa termik energiya ishlab chiqarishga e’tibor qaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 M.-J. Rodríguez-Guerreiro, V. Torrijos, and M. Soto, “A Review of Waste Management in Higher Education Institutions: The Road to Zero Waste and Sustainability,” *Environments*, vol. 11, no. 12, p. 293, Dec. 2024, doi: 10.3390/environments11120293.

2 T. Abbas *et al.*, “Artificial-Intelligence-Based Investigation on Land Use and Land Cover (LULC) Changes in Response to Population Growth in South Punjab, Pakistan,” *LAND*, vol. 14, no. 1. MDPI, ST ALBAN-ANLAGE 66, CH-4052 BASEL, SWITZERLAND, Jan. 2025. doi: 10.3390/land14010154.

3 I. Khan, S. Chowdhury, and K. Techato, “Waste to Energy in Developing Countries—A Rapid Review: Opportunities, Challenges, and Policies in Selected Countries of Sub-Saharan Africa and South Asia towards Sustainability,” *Sustainability*, vol. 14, no. 7, p. 3740, Mar. 2022, doi: 10.3390/su14073740.

4 Z. Hao *et al.*, “Heat Generation and Accumulation in Municipal Solid Waste Landfills,” *Environ. Sci. Technol.*, vol. 51, no. 21, pp. 12434–12442, Nov. 2017, doi: 10.1021/acs.est.7b01844.

5 D. A. Chettiparamb, “MUNICIPAL SOLID WASTE”.

6 Kurian Joseph, S. Rajendiran, R. Senthilnathan, and M. Rakesh, “Integrated approach to solid waste management in Chennai: an Indian metro city,” *J Mater Cycles Waste Manag*, vol. 14, no. 2, pp. 75–84, June 2012, doi: 10.1007/s10163-012-0046-0.

7 V. Mykhaylenko and G. Denafas, “Power of solid municipal waste,” *Eco-Tech*, Feb. 2017, doi: 10.15626/Eco-Tech.2014.038.

8 M. P. G. Mol *et al.*, “Healthcare waste generation in hospitals per continent: a systematic review,” *Environ Sci Pollut Res*, vol. 29, no. 28, pp. 42466–42475, June 2022, doi: 10.1007/s11356-022-19995-1.

MODIFIKATSIYALANGAN PLASTIK VA REZINA CHIQINDILARIDAN QOPLAMA QURISH TEXNOLOGIYASI

Mutalibov Ibroxim Qosimjon o‘g‘li, Habibubullayev Islomjon Ilhomjon o‘g‘li, Hakimjonov Jamshid, Mo‘minjonov Axmadjon
Namangan davlat texnika unverstiteti

Anotatsiya: Ushbu maqolada avtomobil yo‘llarini qurishda zamonaviy yo‘l qoplamalarini tayyorlash texnologiyalarining hozirgi holati va ularni takomillashtirish istiqbollari batafsil yoritilgan. Tadqiqotda ayniqsa yo‘l qurilishida paydo bo‘ladigan turli sanoat va maishiy chiqindilar muammosi, ularning atrof-muhitga salbiy ta’siri hamda ushbu chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini modernizatsiya qilish masalalari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *bitum, chiqindi, plastik, okean, BMT, gradus, foiz, mahalliy, asfaltbeton, sementbeton.*

Annotation: This article details the current state of technologies for preparing modern road surfaces in the construction of highways and prospects for their improvement. The study thoroughly analyzed the problem of various industrial and household waste generated during road construction, their negative impact on the environment, and the issues of modernizing the processes of processing these wastes.

Keywords: *bitumen, waste, plastic, ocean, UN, degree, percentage, local, asphalt concrete, cement concrete.*

Аннотация: В данной статье подробно описывается современное состояние технологий подготовки современных дорожных покрытий при строительстве автомобильных дорог и перспективы их совершенствования. В исследовании всесторонне проанализированы проблема различных промышленных и бытовых отходов, образующихся при строительстве дорог, их негативное воздействие на окружающую среду и вопросы модернизации процессов переработки этих отходов.

Ключевые слова: *битум, отходы, пластик, океан, ООН, степень, процент, местный, асфальтобетон, цементобетон.*

KIRISH

Respublika yo‘l xo‘jaligini davlat tomonidan boshqarish tizimida raqobat muhitini shakllantirish va tarmoqqa investitsiyalar jalb etilishiga to‘sqinlik qilayotgan qator muammolar va kamchiliklar mavjud. Yo‘l xo‘jaligini boshqarishning zamonaviy tizimini yaratish, nazorat va xo‘jalik funktsiyalarini aniq chegaralash, monopoliyadan chiqarish, xususiy sektor korxonalarini jalb qilish va investitsion jozibadorlikni oshirish hisobiga sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, yo‘l qurilishiga innovatsiyalarni keng joriy etish maqsadida, shuningdek, 2021-2027 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq, 2019 yil 9 dekabr sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xo‘jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Albatta yo‘l qurilish ishlari mamlakatning rivojlanishida kata o‘rin egallaydi [1]. Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda chiqindilarni boshqarishga oid davlat siyosatini yuritish maqsadida 2002 yil 5-aprelda “Chiqindilar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingan. Qonunning asosiy vazifasi chiqindilarning fuqarolar hayotiga va sog‘ligiga, atrof-muhitga zararli ta’sirining oldini olish hamda chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirishdan iboratdir. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-son qarori bilan tasdiqlangan qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2014-yil 12-noyabrda 2625-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston “O‘zkommunxizmat” agentligi bosh direktorining 2014-yil 16-oktyabrdagi 104-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan maishiy chiqindilarni tashish qoidalari va shu kabi bir qator qonunosti hujjatlari bilan tartibga solingan.

ASOSIY QISM

Bugungi kunga kelib butun dunyoda chiqindilar yildan yilga ko‘payib bormoqda. Har yili daryolarga tashlanayotgan plastik chiqindilar nafaqat daryolar o‘zanlarini, balki daryolar orqali okeanlarga oqib chiqib dunyo okeani o‘zanlarini ham ifloslantirmoqda va o‘ldirmoqda. Okeanlarga tushgan plastik chiqindilar turli noyob jonivorlar oshqozoniga tushib, so‘ng ularni halok bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun ham muammoning yechimlaridan biri plastik chiqindilarni kamaytirishdir.Har yili dunyoda uch milliard dona shinalar ishlab chiqarilmoqda. Qayta ishlanganida bu shinalar taxminan uch milliard kilogramm paxta tolasini ishlab chiqarish

bilan teng. Biz boshqa sanoatni qayta ishlangan material sifatida boshqa sohaga targ‘ibot qildik. Bir sanoatning ishlatilgan mahsulotini oldik. Buning natijasida biz nafaqat shinalarni yo‘q qilish muammosini halqildik, balki beton sanoatning uglerod izlarini qisqartirishiga ham erishdik [2]. Shuni ta’kidlash joizki, bu chiqindilarning 80 foizini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya va energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, maishiy chiqindilar butun dunyoda arzon xomashyo hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi chiqindilarning 85 foizini qayta ishlash mumkinligini ko‘rsatmoqda. Ayrim mamlakatlarda chiqindilarni alohida yig‘ish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada qog‘oz, plastik, alyuminiy kabi xomashyoning katta qismi qayta ishlashga yuboriladi. Bu jarayonning atrof muhitga ijobiy ta’siri juda katta. Chiqindilarni qayta ishlash natijasida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya va xomashyo miqdori 50 foizgacha tejalishi mumkin. Polietilendan tayyorlangan to‘siqlar sinmaydi, zarbaga bardoshli. Yengil bo‘lgani bois, transportda tashish xarajatlari kamroq.

Yo‘lning ikki tomoniga rangli plastik to‘siqlar o‘rnatilishi sohadagi yangiliklardan yana biri. Mahsulot Janubiy Koreya texnologiyasi asosida “Koreys trans” qo‘shma korxonasida ishlab chiqarildi. Xorijda allaqachon sinovdan o‘tib, keng foydalanilayotgan mazkur qurilish materiali pishiqlik va mustahkamlik borasida metall to‘siqlardan qolishmaydi. Metall to‘siqlarga nisbatan ancha arzon bo‘lishi bilan birga, tez-tez yuvish, muayyan vaqtda bo‘yab turish kabi ortiqcha qarovni talab etmaydi. Avtomobil kelib urilganda, to‘siq uni narigi tarafga yo‘naltirib, o‘zining mustahkamligi bilan qaytarib yuboradi. Bunday to‘siqlarning eng asosiy afzalligi — eskirganidan keyin uni maydalab, yangidan shunday mahsulotlar yoki boshqa ashyolar ishlab chiqarish mumkin. Hozir bunday to‘siqlar sinov tariqasida o‘rnatilgan bo‘lib, kutilgan natijani bersa, kelgusida undan boshqa yo‘llar qurilishida ham keng foydalanish ko‘zda tutilgan. Yurtimizda katta hajmdagi plastik chiqindilar mavjudligini hisobga olsak, bunday mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish imkoniyatining istiqbolli ekani ko‘rinadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti hisobotlariga ko‘ra, dunyoda bir yilda 300 mln tonna plastik chiqindilar paydo bo‘lmoqda. Shundan 8 mln tonnasi dunyo okeaniga tushmoqda va okeandagi

m
a
v
j
u
d
o
t

NATIJALAR

Plastik chiqindilar ko‘payib ketayonganligi ularni qayta ishlash maqsadda plastikli yo‘lar yaratilmoqda. Plastikli yo‘l qoplamalari tashqi tomondan asfaltbeton qoplamadan farq qilmaydi. Ularni ishlab chiqish jarayoni asfaltbetonni ishlab chiqarish jarayoniga o‘xshaydi. Qiziqarli tomoni shundaki plastikli yo‘llar ekologiyaga foyda keltirib gina qolmay boshqa tomonlama ham foydali hisoblanadi. U foydalanish borasida asfaltbetonli yo‘llarimizdan ancha gina ustun hisoblanadi. Plastik karroziya va atmosfera bosimiga nisbatan chidamli bolib -40 gradusdan +80 gradusgacha bolgan sharoitlarda samarali foyda beradi [5,6].

t
l
a
t
i
g
h
a
y
o
t
i
g
a

k
a




***1-rasm*. Plastik yo‘llar**

Plastik yo‘llar boshqa qoplama yo‘llardan 3 barobar ko‘p xizmat qilib yotqizilish jarayoni 70% tezroq, asfaltbetondan 4 marta yengil, ta’mirlash ishlari oson hisoblanadi. Qoplamani tayyorlash uchun mahalliy xom ashyolardan foydalanilganligi uning tannarxi qimmat emasligi, plastik chiqindilarni yoqotishga ketadigan xarajatlarni qisqarishiga olib keladi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatdiki: yoriqlar ham o‘zlarini davolashi mumkinligini ko‘rsatdi. Qoplamadigi yoriqlar shakllangani sababli, nano-qoplangan tolalar ularni kengaytirishga to‘sqinlik qildi va yorilishlarning yopilishiga imkon beruvchi yuqori namlik muhitida qo‘shimcha materiallar ishlab chiqardi. Ushbu o‘z-o‘zini ta’mirlaydigan mexanizmi ishlab chiqilgan yo‘llarni qurish uchun ishlatiladigan odatiy materialga qaraganda ancha kam texnika talab qiladi.

Bugun Chirchiq daryosi ustidan o‘tgan zamonaviy yo‘ldan harakatlangan inson borki, uzog‘i yaqin bo‘lgani, manzilga tez va yengil yetib borayotganini to‘lqinlanib gapirayotganiga guvoh bo‘lamiz. Ayniqsa, asosiy trassa bo‘yida qurilgan 6,5 kilometrli velosiped yo‘lagi hamda piyodalar yo‘lkachalari hudud aholisi uchun katta qulaylik yaratdi. Ularning chetida o‘rnatilgan plastik to‘siqlar turli ko‘ngilsiz hodisalardan asrashga xizmat qiladi.

XULOSA

Bugungi kunda respublikamiz bo‘yicha yo‘l qurilishi va undan foydalanish sohasida: bitum yetishmasligi, texnologiyalarning eskirganligi, sementbeton texnologiyasi murrakabligi sababli kamchilik va noqulayliklar mavjud. Chiqindidan qilingan qoplamalarda yoriq paydo bo‘lgach, tolalar yoriqlarni ko‘payishiga va yorilishiga ancha yuqori qarshilik ko‘rsatishga harakat qiladi. Shuning uchun yoriqlar tor bo‘lib qoladi hamda qoplama uzoq mudatga yetadi.

Yo‘l qurilishi va undan foydalanish sohasidagi: bitum yetishmasligi, texnologiyalarning eskirganligi, sementbeton texnologiyasi murrakabligi sababli kamchilik va noqulayliklar mavjud. Plastik mahsulotlardan foydalanilganda:

- plastik chiqindilarni kamayishi,
- yo‘l qoplamani yotqizish vaqtini qisqarishi,
- qoplamaning yengilligi,
- yo‘l to‘siqlarini yengillashishi,
- yo‘l to‘siqlarini chidamliligini ortishi,
- yo‘l to‘siqlarini xavflilik darajasini kamayishi,
- yo‘l to‘siqlarini tashishni osonlashishi,
- qoplamani ta’mirlash osonligi kabi yutuq va samaradorlikga erishiladi,
- Piyodalar yo‘llari infratuzilmasini yanada yaxshilashga hissa qo‘shadi
- Atrof muhitning dizayn ko‘rinishini yaxshilaydi va bolalar maydonchasida shkastlanishni kamaytiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Saydazimov, N., Mutalibov, I., Qo‘ysinaliyev, N., & O‘ktamov, S. (2020). IMPROVING THE ELASTICITY OF CEMENT-CONCRETE ROADS. Теория и практика современной науки, (11), 6-10.
2. Inoyatov, Q., & Mutalibov, I. (2021). PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE LAYING OF CEMENT CONCRETE PAVEMENTS. *Экономика и социум*, (6-1), 97-100.
3. Saydazimov, N., Qo‘ysinaliyev, N., Mutalibov, I., & Maxmudov, S. (2020). RESEARCH OF METHODS OF REPAIR OF CEMENT CONCRETE PAVELS. *Экономика и социум*, (11), 1677-1680.
4. Mutalibov, I. (2020). ANALYSIS OF PROBLEMS IN THE LAYING OF CEMENT CONCRETE SQUASES. International journal of academic engineering research, (5), 57-58.
5. Mutalibov, I., & Qo‘ysinaliyev, N. (2021). USE OF MINERAL POWDER IN THE CONSTRUCTION OF ASPHALT CONCRETE ROADS. *Экономика и социум*, (81), 30-35.
6. Inoyatov, Q., & Mutalibov, I. (2020). SEMENTBETON QOPLAMALARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI TADQIQOTLASH. Uzacademia, (1), 61-64.
7. Q.M. Inoyatov, M.A. Mamajonov. “AVTOMOBIL YO‘LLARIDA HARAKATNI XAVFSIZ TASHKIL ETISHDA SUN’IY INSHOOTLARNING ROLI” uzacademia scientific-methodical journal republican number 3 on the subject "Increasing the innovative activity of youth, improving the spirituality and achievements in science" collection of materials august 31, 2020 part 12 pages 539-541 <ISSN (E) -2181-1334>
8. Ergashev M., Mamajonov M., Kholmirzayev M. Automation and modulation of highways in gis software //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 5. – С. 9-14.
9. Dadaxodjayev, A., Mamajonov, M., Ergashev, M., & Mamajonov, M. (2020). CREATING A ROAD DATABASE USING GIS SOFTWARE. Интернаука, (43-2), 30-32.

QATTIQ MAISHIY CHIQINDI TO'PLASH ME’YORLARI, ULARNING TARKIBI VA XUSUSIYATLARI

, Buriyev Salimjan Samedjanovich
Atrof –muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ITI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qattiq maishiy chiqindilarni to‘planish me’yorlari, morfologik tarkibini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar, Toshkent shahridagi maishiy chiqindilarning morfologik tarkibiga oid ilmiy - tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi - shahar miqyosida hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilarning asosiy komponent tarkibini, ularning miqdorini hamda qayta ishlash salohiyatini aniqlashdan iborat. mazkur tadqiqot ishi Toshkent shahri hududida hosil bo‘layotgan maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini o‘rganish va ular asosida ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar; to‘planish me’yorlari, morfologik tarkib, uslubiy tavsiyalar, turar joy-fondi, chiqindilarni boshqarish.

Аннотация: В данной статье представлены сведения методические рекомендации по определению нормы накопления твердых бытовых отходов, их морфологического состава, а также результаты научных исследований, посвящённых морфологическому составу бытовых отходов города Ташкента. Цель исследования — определить основные компонентные составы образующихся в городе бытовых отходов, их количество и потенциал переработки. Данная научно-исследовательская работа направлена на изучение

морфологического состава бытовых отходов, образующихся на территории города Ташкента, и разработку рекомендаций по совершенствованию системы экологического управления на их основе.

Ключевые слова: нормы накопления, морфологический состав, методические рекомендации, жилищный фонд, управление отходами.

Annotation: This article examines the per capita generation rates of municipal solid waste (MSW), methodological guidelines for determining their morphological composition, and scientific findings on the waste composition profile of household refuse in Tashkent. The objective of the study is to characterize the primary material fractions of municipal waste produced in the city, quantify their generation volumes, and assess their resource recovery and recycling potential. The research focuses on systematically analyzing the morphological composition of MSW in Tashkent and developing recommendations to enhance the municipal environmental and waste management system based on the obtained results..

Keywords: accumulation norms, morphological composition, methodological guidelines, municipal solid waste, waste management.

KIRISH

Qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish muammosi atrof-muhitni muhofaza qilishning eng muhim muammolaridan biridir. Shaharlarda to‘plangan maishiy qattiq chiqindilarni to‘planish me’yorlari va morfologik tarkibi haqida ishonchli ma’lumotga ega bo‘lgandagina, chiqindilarni yig‘ish, tashish, saralash, joylashtirish, qayta ishlash zararsizlantirish tartiblarini to‘g‘ri rejalashtirish, ularni hisobini yuritish mumkin bo‘ladi. Har xil iqlim sharoitlari, geografik joylashuv, markazdan sezilarli uzoq masofa, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, sanoatning rivojlanishi, shaharlarda muammolarni yanada kuchaytiradi. Amaldagi qonunchilikka muvofiq, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining iqtisodiy va boshqa faoliyati atrof-muhit va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun ularning javobgarligi prinsipi asosida amalga oshirilishi kerak. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni tashkil etish va shahar chegaralarida chiqindilarni yig‘ish, olib chiqish, yo‘q qilish va qayta ishlashni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Uy-joy kommunal xizmatlarining ekologik xavfsizligi, shu jumladan qattiq chiqindilarni boshqarish sohasidagi xizmatlar atrof-muhitni muhofaza qilishning belgilangan talablariga rioya qilinishi bilan ta’minlanishi kerak. Sohada turar-joy fondi va alohida jamoat obyektlari, savdo va madaniyat muassasalari uchun QMCH ning hisobi va axborot tizimini yuritishni nomukammalligi, chiqindilarni boshqarishda atrof – muhitga yetkazilgan sal’biy ta’sirlar uchun to‘lovlar joriy tizimi mavjud emasligi, mavjud vaziyat QMCH ning to‘planish me’yorini va morfologik tarkibini o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Maishiy chiqindilarni boshqarish, ularni atrof-muhitga ta’sirini oldini oldish ilmiy-uslubiy jihatlari xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, L.Ya.Shubov, A.I.Golovanov, V.N.Pryaxin, D.P.Gostishchev, V.I.Smetanin, A.Ye.Kasyanov, F.Sissot, I.Kyun, D.Vulf va boshqalar chiqindilarni boshqarish va utilizatsiya qilish bilan bog‘liq texnologik jarayonlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Mahalliy olimlardan T.I.Iskandarova, R.A.Atajanova, G.I.Malixina qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish me’yorlari va morfologik tarkibi o‘rganishgan. Mamlakatimiz shahar aholi punktlarida qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) bilan ishlash tizimida eng muhim muammolardan biri — ularning to‘planish me’yori va morfologik tarkibini aniqlashdagi noaniqliklar hisoblanadi. Bu holat shaharlar bo‘yicha haqiqiy statistik ma’lumotlarning yetishmasligiga, chiqindilar hajmining baholashda turli xil noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Quyidagi omillar muammoni yanada kuchaytiradi:

chiqindilarni saralab yig'ish tizimining pastligi;

- Chiqindilarni saralash va qayta ishlash korxona va zavodlarining etishmasligi.

Respublikamiz qonunchiligi qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish uchun talablarni belgilaydi. [1, 2].

Qattiq maishiy chiqindilarni to'planish me`yorlarini aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish me’yorlarini aniqlash bo‘yicha” uslubiy tavsiyalar va Atrof –muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ITI томонидан ишлаб чиқилган “O‘zbekiston respublikasida qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar”ga muvofiq amalga oshirilgan [3,4].

“Tavsiyalar.”ning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. QMCHlarning to‘planish me’yorlarini belgilash bo‘yicha ishlar mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining qarori bilan tashkil etiladigan komissiya a’zolarini jalb etgan holda olib boriladi;

2. To‘planish me’yorlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishilishi tavsiya etiladi;

2. Standartlarni aniqlashda asosiy ko‘rsatkichlar: massa, hajm, o‘rtacha zichlik hisoblanadi;

3. Hozirda qattiq maishiy chiqindilarning chiqindilarning to‘planish me’yorlari va morfologik tarkibini aniqlash ishlari har besh yilda bir marta amalga oshirilishi kerak;

4. O‘lchash ishlari QMCHlarni konteyner maydonchasidan xizmat ko‘rsatish jadvaliga muvofiq olib chiqib ketilguniga qadar 7 kun davomida sutkaning bir xil vaqtida (uzluksiz) o‘tkaziladi. QMCHlarning to‘planish me’yorlarini aniqlashda chiqindilarni zichlashtirmaslik lozim.

5. Chiqindilarning to‘planishini aniqlashda 1100 litr hajmdagi standart konteynerlardan foydalanish tavsiya etiladi;

6. Uy-joy fondidagi QMCHlarning to‘planish me’yorlari ko‘p kvartirali turar joylar va yakka tartibdagi turar joylar bo‘yicha alohida aniqlanadi;

7. Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash me’yorlarini aniqlash uchun olingan natijalar shahar hokimligining tegishli qarori bilan tasdiqlanadi.

Aholining qog‘oz va qadoqlash materiallari bilan ta’minlanishining oshishi qattiq maishiy chiqindilar hajmining sezilarli darajada oshishiga va umumiy zichligining pasayishiga olib keladi.

Mahalliy sharoitlar, jumladan, iqlim sharoiti qattiq maishiy chiqindilarning to‘planishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi..

NATIJALAR VA MUNOZARA

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va xronometraj ishlarining natijalariga ko‘ra, respublika hududidagi qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) tarkibining fasllar kesimidagi o‘zgarishi aniqlandi. Bu tadqiqot chiqindilarni boshqarish sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar samaradorligini oshirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish, mos texnologiyalarni tanlash hamda ma’lumotlar bazasini yaratish orqali iqtisodiy va ekologik muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.

Rossiya Federatsiyasida qabul qilingan **PND F 16.3.55–08** sonli gravimetrik usul qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini aniqlash uchun asos sifatida xizmat qiladi. Unga ko‘ra, chiqindilar 15 ta asosiy komponent bo‘yicha ajratiladi (qog‘oz, karton, to‘qimachilik, shisha, plastmassa, oziq-ovqat qoldiqlari, tosh, suyak, kauchuk, charm, yog‘och, metallolom va boshqalar). Biroq hozirgi zamonda iste’mol tuzilishi keskin o‘zgargani sababli ushbu usulni milliy sharoitga moslashtirish zarur bo‘ldi. Shu asosda jahon tajribasi tahlil qilinib, ushbu ish doirasida moslashtirilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi [4].

QMCHning har bir tarkibiy qismi **A** quyidagi formula bo‘yicha aniqlandi:

$$A = \frac{C}{B} \times 100, \% \qquad (1)$$

Bu yerda:

A – chiqindilarning tarkibiy qismi ulushi (%);
C – bir xil tarkibdagi chiqindilar massasi (kg);
B – chiqindilarning umumiy massasi (kg);
100 – foiz ko‘rsatkichini ifodalash uchun ko‘paytuvchi.

Har bir komponent torozi yordamida alohida idishda aniqlandi. Tadqiqot davomida sanitariya-gigiyena talablariga to‘liq rioya qilindi: qo‘lqoplar, qog‘oz filtrlar va polietilen qoplar faqat bir martalik ishlatildi.

Tadqiqot obyektlari sifatida Toshkent shahridagi quyidagi nuqtalar tanlandi:

Olmazor tumani, Qoraqamish 2/1 dahasi, Bo‘stonobod MFY (Obyekt 075-MSP) – 1432 nafar aholiga xizmat ko‘rsatuvchi chiqindi yig‘ish shahobchasi;

Maishiy chiqindilarni samarali boshqarishning asosi – ularning morfologik tarkibini aniqlash va iqtisodiy-ekologik jihatdan maqbul usullarda utilizatsiya qilishdan iborat. Bu tabiiy xom ashyo manbalari (neft, ko‘mir, metall rudalari)ning kamayishi sharoitida chiqindilarni ikkinchi darajali resurs sifatida foydalanish imkonini yaratadi.

Tadqiqot ishlari respublikada qabul qilingan uslubiy ko‘rsatmalar asosida amalga oshirildi. QMCH tarkibi va xususiyatlari fasllar bo‘yicha farqlanishi e’tiborga olinib, xronometraj ishlari yilning to‘rt faslida — bahor, yoz, kuz va qishda, chiqindilarning olib chiqib ketish davriyligidan qat’iy nazar, chiqindilar olib chiqib ketilguniga qadar uzluksiz 7 sutka davomida amalga oshirildi.

Chiqindilarning morfologik tarkibi quyidagi asosiy komponentlar bo‘yicha o‘rganildi:

1. Oziq-ovqat chiqindilari (sabzavot, meva, po‘stloq, organik moddalar)
2. Qog‘oz va karton
3. Sut, sharbat va suyuqliklarning qog‘ozdan yasalgan qadoqlash mahsulotlari (Tetrapak)
4. Polimerlar (PET idishlar, polipropilen, polietilen paketlar)
5. Shisha
6. Metallar (qora va rangli)
7. To‘qimachilik mahsulotlari
8. Yog‘och
9. Xavfli chiqindilar (tibbiy materiallar, lampalar, termometrlar, batareykalar)
10. Teri, rezina, suyak chiqindilari
11. O‘simlik chiqindilari (novda, poya, barg va boshqalar)
12. Boshqa chiqindilar (tagliklar, pamperslar, qurilish chiqindilari, ko‘cha suprundilari, tuproq va x.k.) [5].

Barcha o‘lchov ishlari sanitariya va mehnat muhofazasi talablariga muvofiq amalga oshirildi. Saralash jarayonida chiqindilar har bir komponent bo‘yicha germetik idishlarga joylashtirilib, torozi yordamida aniqlangan massalar kundalik jadvalga kiritildi. Natijalar umumiy chiqindi massasiga nisbatan foizlarda hisoblandi.

Yirik shaharlarda qattiq maishiy chiqindilar (QMCH) hajmi asosan mahsulotlarni qadoqlash vositalari, turli xil bir martalik buyumlar va polimer asosli idishlardan foydalanish hisobiga muntazam ravishda ortib bormoqda. Bu tendensiya aholi turmush tarzidagi iste’molchilik modeli bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uni o‘zgartirish va chiqindilar hosil bo‘lishini kamaytirish muhim ekologik va ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Quyida 1–jadvalda turar joy fondida morfologik tarkibini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot va xronometraj ishlarining yillik natijalari keltirilgan. [6].

1-jadval

Toshkent shahrida olib borilgan QMCH morfologik tarkibini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot va xronometraj ishlarining yillik natijalari

№	QMCHlarning morfologik tarkibi nomlari	Bahor 7 sutkalik		Yoz 7 sutkalik		Kuz 7 sutkalik		Qish 7 sutkalik		Yillik 7 sutkalik		
		kg	%	kg	%	kg	%	kg	%	o‘rtacha /kg	umumiy /kg	%
1	Oziq-ovqat chiqindilari: mevalar, po‘stlog‘lar, archilgan v.b. + boshqa chiqindilarning organik qismi	1394,5	22,86	3356,5	48,35	1967,3	31,54	1422,9	25,31	2035,31	8141,2	32,7
2	Qog‘oz va karton, shu jumladan:	393,75	6,45	341,6	4,92	276,06	4,42	302,73	5,38	328,535	1314,14	5,29
3	Sut mahsulotlari, sharbatlar va maylardan chiqqan qog‘oz qadoqlar	44,61	0,73	26,6	0,38	33,2	0,53	34,16	0,6	34,64	138,57	0,55
4	Polimerlar, shu jumladan:											
5	PET taralar (idishlar)	304,15	4,98	333,0	4,79	216,15	3,46	187,55	3,33	260,21	1040,85	4,19
6	Polipropilen (trubalar)	100,69	1,65	89,65	1,29	62,75	1,0	56,43	1,0	77,38	309,52	1,24
7	Polietilen (paketlar)	300,4	4,95	249,89	3,6	262,9	4,21	333,2	5,92	286,59	1146,39	4,61
8	Shisha	274,75	4,5	247,73	3,56	170,65	2,73	256,85	4,57	237,49	949,98	3,82
9	Metall, shu jumladan:											
10	Qora metallar; temir, temir qotishmalari, marganes, xrom, cho‘yan	73,35	1,2	46,65	0,67	45,4	0,73	48,0	0,85	53,35	213,4	0,86
11	Rangli metallar (qo‘rg‘oshin, rux, qalay, nikel, alyuminiy, titan, magniy)	25,05	0,41	22,3	0,32	29,8	0,47	22,63	0,4	24,95	99,78	0,4
12	To‘qimachilik(kiyim-kechaklar, ko‘rpa to‘shak)	403,1	6,6	130,29	1,87	193,06	3,09	216,05	3,84	235,6	942,5	3,79
13	Yog‘ochlar	174,45	2,86	147,3	2,12	143,9	2,3	231,69	4,12	174,33	697,34	2,8
14	Xavfli chiqindilar, shu jumladan:											
15	Tibbiyot chiqindilari	17,35	0,28	18,55	0,26	44,15	0,7	24,65	0,44	26,17	104,7	0,42
16	Tarkibida simob va uning birikmalari (lyuminessent chiroqlar, termometr, barometr)	1,15	0,01	0,95	0,01	0,4	0,006	1,2	0,02	0,925	3,7	0,01
17	uzluksiz ta’minot manbalari (akkumlyatorlar. Batareykalar)	1,0	0,01	1,0	0,01	1,35	0,02	1,3	0,02	1,16	4,65	0,01
18	Elektr priborlar	18,8	0,3	32,0	0,46	-	-	-	-	-	-	-
19	Teri, rezina va suyaklar, shu jumladan:											
20	Suyaklar	44,72	0,73	41,1	0,59	65,91	1,05	42,69	0,76	48,6	194,42	0,78
21	Teri	50,2	0,82	36,85	0,53	33,95	0,54	36,1	0,64	39,27	157,1	0,6
22	Rezina	69,9	1,14	23,55	0,34	33,5	0,53	23,6	0,41	37,63	150,55	0,6
23	O‘simlik chiqindilari: shoxlar, ildizlar, poyalar, barglar	534,95	8,77	444,26	6,4	778,5	12,48	809,4	14,4	641,77	2567,11	10,33
24	Boshqalar, shu jumladan:											
25	Tagliklar, pamperslar	385,95	6,33	255,7	3,68	472,51	7,57	379,45	6,75	373,4	1493,61	6,0
26	Toshlar, qurilish chiqindilari	548	8,98	550,45	7,93	912,45	14,63	483,8	8,6	623,75	2497,7	10,0
27	va boshqalar (smet,tuproq, mayda donali noorganik chiqindilar)	818,05	13,41	513,25	7,4	487,56	7,82	563,2	10,0	595,51	2382,06	9,58
28	Yirik gabaritli maishiy chiqindilar (eskirgan mebellar, maishiy va tashkiliy texnikalar)	120	1,97	31,95	0,46			143,85	2,56	98,6	295,8	1,19
	Jami	**6098,4**	**100**	**6941,1**	**100**	**6236,4**	**100,0**	**5621,4**	**100,0**	**6235,17**	**24845,1**	**100**

Odatda hovli idishlariga tushadigan maishiy chiqindilarning asosiy tarkibiy qismlariga qog‘oz va karton, polimer materiallar (plastmassa), oziq-ovqat qoldiqlari, to‘qimachilik chiqindilari, yog‘och, barglar, shisha, charm, kauchuk, tosh va keramika, shuningdek, qora va rangli metallar hamda suyaklar kiradi. Bu komponentlar shahar turmushining tabiiy mahsuloti bo‘lib, ularning nisbiy miqdori mavsumiy va ijtimoiy omillarga ko‘ra o‘zgarib turadi.

Qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, so‘nggi yillarda shahar hududlaridagi chiqindilarning tarkibida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan,

qayta ishlanadigan komponentlar ulushi — qog‘oz, plastmassa va to‘qimachilik mahsulotlari hisobiga o‘sish tendensiyasi aniqlandi.

Shu bois, QMCH qayta ishlash bo‘yicha har qanday inshoatni loyihalashdan oldin, chiqindilarning morfologik tarkibini, mavsumiy o‘zgarish dinamikasini va to‘planish sur’atlarini aniqlash zarur hisoblanadi [7]. Bu ko‘rsatkichlar chiqindilarni ajratib yig‘ish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish tizimini samarali tashkil etishda asosiy hisoblanadi.

Turar-joy fondida hosil bo‘ladigan maishiy chiqindilar tarkibida qimmatli xom ashyo manbalari — qog‘oz, polimer, shisha, metall va organik materiallar — katta ulushni tashkil etadi [8]. Ammo amaldagi tizimdagi muammo shundaki, bu foydali komponentlarni ulardan foydalanish mumkin bo‘lgan shakl va sifatda ajratib yig‘ish mexanizmi yetarlicha samarali yo‘lga qo‘yilmagan.

Chiqindilarni boshqarishda resurs tejamkorlik tamoyillarini amalga oshirish, qayta ishlashni ko‘paytirish va chiqindilarni kamaytirish strategiyalari GOST 30772–2001 talablariga muvofiq ravishda yo‘lga qo‘yilishi lozim. Ushbu me’yoriy hujjatda chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarida energiya va xom ashyo resurslarini tejashga oid qoidalar belgilangan bo‘lib, ularni amaliyotga joriy etish QMCH tizimining barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi.

Yirik shaharlarda, QMCH hajmi birinchi navbatda, mahsulotlarni qadoqlash, turli xil bir martalik buyumlarni foydalanish hisobiga o‘sib bormoqda. Ushbu tendensiyani o‘zgartirish muhim vazifa bo‘lib hisoblanadi. Odatda hovli idishlariga tushadigan maishiy chiqindilarning oddiy tarkibiy qismlariga qog‘oz, karton, polimer materiallar, oziq-ovqat qoldiqlari, to‘qimachilik, yog‘och, barglar, qora va rangli metallar, suyaklar, shisha, charm, kauchuk, toshlar, keramika, kiradi.

Qattiq maishiy chiqindilarning (turar-joy fondi) morfologik tarkibini aniqlash natijalarimizga ko‘ra, bu davrda shahar chiqindilarining tarkibi sezilarli darajada o‘zgargan. QMCH qayta ishlash inshoatlarini loyihalashni boshlashdan oldin, QMCHning morfologik tarkibini va ularning to‘planish sur’atlarini [9] ham aniqlab olish kerak bo‘ladi.

Maishiy chiqindilarni tarkibi bo‘yicha quyidagicha ro‘yhatlari tuzildi:

2-.jadval

Poligonlardagi maishiy chiqindilarni taqqoslash ruyxati

1990-yilga qadar SanPin 0297-11 bo‘yicha		**2021-yil holatiga ko‘ra**
t/r	**Chiqindi tarkiblari nomlari**	**Chiqindi tarkiblari nomlari**
1	**Qayta ishlanadigan chiqindilar turkumi** 1. Oziq -ovqat chiqindilari 2. Qog‘oz 3.Yog‘och 4. Metal 5. Tekstil 6.Teri, rezina 7. Shisha 8. Polietilen va plastmassalar	**Qayta ishlanadigan chiqindilar turkumi** 1.Oziq -ovqat chiqindilari 2.Qog‘oz va karton 3. Pet taralar 4. Polipropiliyen 5. Polietilen 6. Shisha 7. Qora metallar; temir, temir qotishmalari, marganes, xrom, cho‘yan 8. Rangli metallar (qo‘rg‘oshin, rux, qalay, nikel, alyuminiy, titan, magniy) 9. To‘qimachilik(kiyim-kechaklar, ko‘rpa to‘shak) 10. Yog‘ochlar 11.Suyaklar 12.Teri 13.Rezina
2	**Qayta ishlanmaydigan chiqindilar turkumi** 9. Tosh	**Qayta ishlanmaydigan chiqindilar turkumi:** 14.Sut mahsulotlari, sharbatlar va maylardan chiqqan qog‘oz qadoqlar 15.Tibbiyot chiqindilari

		16. Tarkibida simob va uning birikmalari (lyuminessent chiroqlar, termometr,baromet) 17. uzluksiz ta’minot manbalari (akkumlyatorlar. Batareykalar) 18.Tagliklar, pamperslar 19.Toshlar, qurilish chiqindilari 20. va boshqalar (smet,tuproq, mayda donali noorganik chiqindilar 21.Yirik gabaritli maishiy chiqindilar (eskirgan mebellar, maishiy va tashkiliy texnikalar)
3	**Organik chiqindilar** Oziq –ovqat chiqindilari	**Organik chiqindilar:** oziq -ovqat chiqindilari 22. O‘simlik chiqindilari: shoxlar, ildizlar, poyalar, barglar

Turar-joy fondi chiqindilari tarkibida qimmatli xom ashyoning katta miqdori mavjud [10.].

Tadqiqot ishlari Toshkent shahri Olmazor tumanidagi “Qoraqamish 2/1” dahasining ko‘p kvartirali turar joylarida (MSP-075) hamda uy-joy fondidagi yakka tartibdagi turar joylar (Signal usuli, Chiltog‘on mahallasi) hududlarida amalga oshirildi. Tadqiqotlar yilning turli fasllarida (baxor, yoz, kuz, qish) 7 kunlik uzluksiz xronometraj rejimida olib borildi.

Maishiy chiqindilarni samarali boshqarishda ularning kelib chiqish manbasi, turi va tarkibini aniqlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chiqindilarning har bir turi uchun mos yig‘ish, tashish va qayta ishlash usulini tanlash kerak. Shu bois, qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tahlili ekologik va iqtisodiy jihatdan chuqur o‘rganishni talab etadi. Bu nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari maishiy chiqindilarni boshqarish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish imkonini yaratadi.

Hozirgi vaqtda QMCHdan foydalanishning ilmiy asoslangan zamonaviy usullarini ishlab chiqish va ularni shahar xo‘jaligida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. QMCHning ayrim komponentlarini ikkilamchi xom ashyo sifatida qayta ishlash yoki yangi mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish atrof-muhitdagi ekologik yuklamani kamaytiradi, chiqindilarni tashish xarajatlarini qisqartiradi va resurs tejamkorlikni ta’minlaydi. [11].

Maishiy chiqindilar tarkibi asosan foydalanish uchun yaroqsiz bo‘lgan buyumlar va materiallardan tashkil topgan. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: singan mebel qismlari, idish-tovoqlar, shisha idishlar, flakonlar, bankalar, qog‘oz va karton mahsulotlari, gazetalar, jurnallar, o‘rash qog‘ozlari, polietilen plyonkalar, eski kiyim-kechaklar, poyabzal, to‘qimachilik chiqindilari, oziq-ovqat qoldiqlari, daraxt yaproqlari, barglar, hovli va bog‘ chiqindilari, kvartira pechlaridan chiqqan kul, shlak, ko‘mir qoldiqlari, qurilish-ta’mir ishlaridan qolgan g‘isht, taxta, gips, devor qog‘ozi, eski radio va maishiy elektr jihozlari (televizorlar, kir yuvish mashinalari, isitish va yoritish priborlari) kabilar.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida yirik gabaritli maishiy chiqindilar (YGMCH) ham aniqlangan. Ular qatoriga eski mebellar, bolalar velosipedlari, kir yuvish mashinalari va boshqa katta hajmli buyumlar kiradi.

QMCH morfologik tahlil natijalari bo‘yicha ular 21 asosiy tarkibiy qismga ajratildi. Bu tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, chiqindilarning ma’lum bir qismi sanoat tarmoqlarida ikkilamchi xom ashyo sifatida (qog‘oz, metall, shisha, rezina, to‘qimachilik mahsulotlari va boshqalar) foydalanish imkoniyatiga ega. Qolgan qismi esa chorvachilikda ozuqa sifatida yoki biotermik qayta ishlash orqali organik o‘g‘it sifatida ishlatilishi mumkin. Shuningdek, ayrim komponentlar zararsizlantirishning yoqish usuli orqali qayta ishlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tahlil natijalarida ba’zi tarkibiy qismlar mavsumiy tebranishlarga ega ekanligi aniqlandi. Masalan, oziq-ovqat qoldiqlari va barglar miqdori yoz va kuz fasllarida ko‘payadi, qog‘oz va polietilen mahsulotlar esa yil davomida barqaror ulushga ega bo‘ladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, keyingi 10–15 yil ichida maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi va fizik-ximiyaviy xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. Birinchi

navbatda bu o‘zgarishlar chiqindilarning solishtirma zichligida namoyon bo‘lmoqda. Axlat tarkibida yengil fraksiyalar — qog‘oz, karton, polimer va gigiyenik mahsulotlar ulushining ortishi natijasida umumiy zichlik pasaygan.

Tovar iste’moli va turmush tarzidagi o‘zgarishlar natijasida chiqindilar tarkibidagi farq nafaqat vaqt o‘tishi bilan, balki turli aholi punktlari va hududlar o‘rtasida ham sezilarli bo‘lishi mumkin. Masalan, aholi daromad darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda qog‘oz, plastik va qadoq materiallari ulushi ko‘payadi, qishloq hududlarida esa organik va oziq-ovqat chiqindilari ulushi ustuvor bo‘lib qoladi.

Pampers, gigiyenik vositalar, akkumulyatorlar va lyuminessent chiroqlar kabi chiqindilar avvalgi me’yorlarda mavjud bo‘lmagan bo‘lib, bu zamonaviy maishiy turmushda yangi turdagi chiqindilar vujudga kelganini ko‘rsatadi.

O‘simlik chiqindilari (shox, ildiz, poya, barg va h.k.) 10,33 % ni tashkil etgan, bu mavsumiy omillar va hovlilarda oziq-ovqat yetishtirish faoliyati bilan bog‘liq.

XULOSA

Hozirgi vaqtda QMCH tarkibining asosiy qismi — oziq-ovqat chiqindilari va plastik mahsulotlardir. Bu esa chiqindilarni qayta ishlashda organik va polimer komponentlarni ajratish, biogaz yoki kompostlash texnologiyalarini joriy etish, plastik chiqindilarni qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yildagi 6 fevral «Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» VM- 95-son qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil aprel «2019 - 2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 4291 – son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi hududlarida qattiq maishiy chiqindilarning to‘planish me’yorlarini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. Ekologiya davlat qo‘mitasi tomondan tasdiqlangan. 2019 yil. Toshkent.

4. Ruziyeva I. O‘zbekiston Respublikasi hududida qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkiblarini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. Munis design group MCHJ. Toshkent, 4-9-b

5. O‘zbekiston Respublikasi sharoitida aholi punktlarini qattiq maishiy chiqindilardan tozalashning sanitariya qoidalari va me’yorlari SanQvaM № 0297-11

6. Ruziyeva I.D. Qattiq maishiy chiqindilarning morfologik tarkibi. Monografiya. Fan ziyosi nashriyoti. Toshkent 2023 y. 48-51b.

7. Ruziyeva I.D. Maishiy chiqindilarni boshqarish. Qishloq va suv xo‘jaligida innovasion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi mavzusida// Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Buxoro. 2024 y. 217-226 b. 2 tom.

8. Ruziyeva I.D. Barqaror iqtisodiy rivojlanish va maishiy chiqindilarni boshqarish. Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning konseptual asoslari respublika ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami Toshkent, 2025, 18-aprel. - 15-18-b

9. Ruziyeva I.D. Qattiq maishiy chiqindilarni saralash davr talabi// “O‘zbekiston ekologiya xabarnomasi” ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-amaliy jurnal, 2022. - №4. - 25-26-b.

10. Ruziyeva I. D., Buriyev S.S., Shakirov N. «O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindi (QMCH) larning atmosfera havosi, o‘simlik va hayvonat dunyosi, yer va suv resurslariga ta’sirini baholash». Monografiya. Toshkent, 2024. - 74-75-bet.

11. Рузиева И.Д. Municipal solid waste and morphological composition study. (Tashkent city and Tashkent region) Journal Name: Naturalista Compano. https://museonaturalistico.it/index.php/journal/article/view/269/210/ 2024. 1402-1408

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH

Sadinov Aziz Ziyadullayevich
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Raqamli texnologiyalar - bu ma’lumotlarni boshqarish va qayta ishlash texnologiyasi bo‘lib, bunda chiqindi mahsulotlarni saqlash, himoyalash, qayta ishlash kabi amallar ustida ishlar olib boriladi. Raqamli texnologiyalar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi zamon raqamli va axborotlashgan jamiyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, sivilizatsiya tarixida birinchi marta bilimlarga erishish va ishlab chiqarishga sarflanadigan energiya, xomashyo, materiallar va moddiy iste’mol buyumlariga sarflanadigan xarajatlardan ustunlik qilmoqda, ya’ni, raqamli texnologiyalar mavjud yangi texnologiyalar orasida yetakchi o‘rinni egallamoqda.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar chiqindi mahsulotlarni saqlash, himoyalash, qayta ishlash kabi amallar ustida ishlar olib boriladi

Abstract: Digital technologies are information management and processing technologies, which are used to store, protect, and recycle waste products. Although digital technologies have existed at various stages of human development, the characteristic feature of the current digital and information society is that, for the first time in the history of civilization, the energy, raw materials, materials and consumer goods used for the acquisition and production of knowledge dominates the spending, that is, digital technologies take the leading place among the available new technologies.

Key words: Digital technologies work on such actions as storage, protection, recycling of waste products.

Аннотация: Цифровые технологии - это технологии управления и обработки информации, которые используются для хранения, защиты и переработки отходов. Хотя цифровые технологии существовали на различных этапах развития человечества, характерной чертой современного цифрового и информационного общества является то, что впервые в истории цивилизации энергия, сырье, материалы и потребительские товары используются для приобретения и производство знаний доминирует над расходами, то есть цифровые технологии занимают ведущее место среди доступных новых технологий.

Ключевые слова: Цифровые технологии работают на такие действия, как хранение, защита, переработка отходов.

KIRISH

Tadqiqot ishida chiqindilarni qayta ishlash majmuasining qayta ishlanadigan va ishlab chiqilgan raqamli simulyasiya modeli, ularning narxini hisoblash uchun tavsiya etilgan metodologiya qoidalarini hisobga olgan holda, qattiq chiqindilarni boshqaruvini barqaror boshqarish modelini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun asos sifatida qabul qilinadi.

Raqamlashtirish va modellashtirish natijalarini ishonchli tekshirish uchun, Toshkent viloyati hududida turli xil chiqindilarni to‘planish manbalaridan kelib chiqqan holda chiqindilarni qayta ishlash uchun ikkita sxema tanlandi.

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlashni boshqarish dasturlarini shakllantirish masalalari A.K. Golubin, V. Dyevyatkin, V. Shubov, va J. Keyns, A. Marshall, T. Narayana, T.Maltus, S.

Fisher, A. Simt, R. Dornbush, R. Shmalenzi, R.Erenbeg, K. Makonell, R.Smit, T. Ryabova tomonidan tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Qo‘yilgan masalani yechish uchun ma’lumotlarni tahlil qilishdagi assotsiativ qoidalar va algoritmlardan hamda sanoat 4.0 texnologiyasi bazasidagi hisoblash tizimi uchun moslashtirilgan bozor tamoyilga asoslangan mahsulotlarni tahlil qilishning parallel algoritmidan foydalanilgan.


TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

O‘zbekiston ishlab chiqarish korxonalari uchun muvaffaqiyatli raqamlashtirish texnologik daraja va innovatsion salohiyatni oshirishni nazarda tutuvchi, ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan “Raqamli texnologiyalar” loyihasi doirasida uchta yo‘nalishda ishlar amalga oshirilib kelinmoqda bular:

-sanoatning raqamli platformalarini, shu jumladan investitsiyalash, sanoat korxonalarini yaratish va rivojlantirish platformalarini yaratish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari, sanoat mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda ilgari surish, ishlab chiqarish rivojlanishini tahlil qilish va prognozlash;

Demak, odatdagi eksperimental maydonlar sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan eng to‘liq hududiy sxemalarga, Samarqand hamda Buxoro viloyat Andijon viloyat hududlarini tahlil qilish orqali chiqindilarni qayta ishlash sxemasi deb hisoblanishi mumkin.

Keltirilgan bunday ma’lumotlarga ko`ra, eng ko‘p chiqindilarni ishlab chiqarish Toshkent viloyatida (13 foiz), Samarqand viloyatida (11 foiz), Buxoro viloyatida (9 foiz) Andijon viloyatida (14 foiz) Surxondaryo viloyatida (6 foiz) Xorazim viloyatida (5 foiz) Farg’ona viloyatida (4 foiz) sodir bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm. Toshkent viloyati ma’muriy tumanlarida qattiq maishiy chiqindilarni ishlab chiqarish jarayonlari sxemasi


Ilmiy tadqiqot ishida raqamli modelida haqiqiy ma’lumotlarni olish uchun amaliyotda tatbiq etilgan ya‘ni Toshkent viloyatining hududida chiqindilarni boshqarish sxemasining elektron modelidan yuklangan. Davlat shartnomalari bo‘yicha pudratchilar va mintaqaviy operator tomonidan eksport doirasida alohida va aralash to‘plangan chiqindini boshqarishning elektron modellari uchun turli xil variantlar ko‘rib chiqildi.

Shunday qilib, raqamli texnologiyalar asosida chiqindilarni yig‘ish, saralash uchun obyekt qilib Toshkent viloyatining hududida chiqindilarni boshqarishning elektron modeli ishlab chiqildi**.**

Geografik axborot tizimida elektron ma’lumotlar bazasiga ulangan chiqindilarni boshqarish uchun tipik hududiy raqamlashtirilgan sxemasini yaratishga imkon berdi.

Toshkent viloyatining hududiy sxemasida chiqindilarni hosil bo‘lishidan tortib qayta ishlash jarayonigacha bo‘lgan davrda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkon beradi, shu usulda viloyat markazlarida aholi gavjum joylarda chiqindilarni yig‘ish uchun tizim joriy qilingan.

Poligonlarda to‘plangan chiqindilar muammolarini bartaraf etish transport xizmatini tashkil etish sxemasida keltirilgan (2-rasm).




2-rasm. Toshkent viloyatida qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarining boshqarish bo‘yicha taklif etilayotgan hududiy sxemasining simulyatsiyon modeli

Ta‘kidlash joizki, hududiy sxemasidan ko‘rinib turganidek shishani qayta ishlash zavodi mavjud emas. Shuning uchun barcha shisha idishlarni qayta ishlash korxonalari tanlangan tumandan sezilarli masofada joylashgani uchun ular sxemaga qo‘shilmaydi, bu katta xarajatlar bilan bog‘liq. Agar korxona chiqindilar to‘planadigan joyga yaqinroq qurilgan bo‘lsa, u holda hududiy sxemaga o‘z narxiga ega. Sxema moslashuvchan bo‘lgani uchun u har qanday o‘zgarishlar va variantlarni hisobga olishi mumkin, ammo barcha qayta ishlanadigan chiqindilarning narxi tanlangan variantga bog‘liq bo‘ladi.

Hududiy sxema ob’yektlarning (zavodlar va yig‘ish punktlari, qayta ishlash) joylashishini taxmin qilish imkonini beradi. Chiqindilarni boshqarish va raqamlashtirish muammosi nafaqat turar-joy binolari, idoralarda ekologik nuqtai nazaridan asosiy muammo hisoblanadi, balki aeroportlarda ham ahamiyati oshadi. Uning ahamiyati yo‘lovchilar sonining sezilarli darajada oshishi va natijada hosil bo‘ladigan chiqindilar hajmi bilan bog‘liq. Viloyatda yoki aholi gavjum bo‘lgan shahar markazlarida bir xil fraksional tarkibdagi qattiq maishiy chiqindilar (plastmassa, qog‘oz, oziq-ovqat chiqindilari) hosil bo‘ladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Chiqindilarni tezkorlik bilan qayta ishlamasa viloyat markazlarida ekologik muhitning salbiy tomonga o‘sishini ko‘rish mumkin bo‘ladi, bunda tezkorlik bilan model asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinib iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqiladi.

Dasturiy ta'minot to'plamidan foydalanish qayta ishlashni rivojlantirish natijalarini tezkor monitoring qilish va qattiq maishiy chiqindilarni, uning poligonga olib ketiladigan qismini olib tashlash tariflarini yiliga ikki marta qayta ko'rib chiqish imkonini beradi (3-rasmda).



3-rasm. Toshkent viloyatida maishiy chiqindilarni olib chiqishning amaldagi tarifi

(bu yerda P - olib tashlash xizmatining narxi, sumda; N - yiliga yig'ish darajasi, kg; T - mintaqaviy operator tarifi, sum/kg)

Har olti oyda bir marta, chiqindilarni boshqarish natijalariga ko'ra 1-formulaga muvofiq, qayta ishlashga yuborilgan ikkilamchi resurslar miqdoriga moslashtirilgan (kamaytirilgan) qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish tarifini o'zgartirish taklif etiladi:

P = N*/12 × T*, (1),

bu erda P - chiqindilarni olib tashlash xizmati uchun to‘lov, sum.

N* – monitoring natijalariga ko‘ra foyda keltirmaydigan aktivlarni to‘plash standarti (kg) (tanlangan va qayta ishlashga yuborilgan ikkilamchi resurslar hajmiga kamaytirilgan) T* – haqiqiy transport xarajatlarini hisobga olgan holda mintaqaviy operator tarifi (sum/kg)

Qayta ishlashni tashkil etish uchun birlamchi tabiiy resurslarga nisbatan ikkilamchi resurslarning miqdori va tannarxi oshishi kerak. Ikkilamchi tabiiy resurslar chiqindilarni qayta ishlash uchun ma’lum bir sxema bo‘yicha qayta ishlashga yuboriladi. Shu bois “Ekologiya” milliy dasturida bu ulushni keskin oshirish vazifasi qo‘yildi. Raqamli texnologik model yordamida chiqindilarni qayta ishlash zavodining mavjud imkoniyatlari bilan aylanma iqtisodiyotni tashkil etishdan iqtisodiy samaraning o‘sishini bashorat qilish, shuningdek, yangi mahsulotni qayta ishlash zavodlarini qurish bo‘yicha prognoz qilish mumkin.

O = (Vp / x100,)

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Bu yerda O –hosil bo‘lgan chiqindilarning umumiy hajmidagi ulushi, %;

Vp - 24 soat ichida qayta ishlashga yuborilgan chiqindilar miqdori, tonna/sutka;

Qayta ishlash korxonalarining mahsulot ishlab chiqarishdan olgan foydasi ushbu sxemada hisobga olinmaydi, chunki u chiqindilarni boshqaruvi doirasidan tashqariga chiqadi.

Poligondagi utilizatsiya jarayonlari ham eng qimmat ro‘yxatga kiritilgan bo‘lib, bu yerda atrof-muhitga yetkazilgan zarar xarajatlarga kuchli ta’sir ko‘rsatadi ikkilamchi energiya manbalarini olish uchun poligonda ham raqamlashgan tizimni tashkil etish ikkilamchi tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga xarajatlarni biroz pasaytiradi, ammo bu qayta ishlash jarayonlaridagi kabi samaraga olib kelmaydi.

Demak, Atrof-muhitga yetkazilgan zararni, qayta ishlashning ikkilamchi tabiiy resurslarini va aylanma iqtisodiyotda resurslardan foydalanishning umumiy pasayishini hisobga oladigan tizimli pozisiyaga ega eng maqbul sxema oddiy ketma-ketlikka o‘xshaydi. Hududiy sxemaning o‘ziga xos imkoniyatlari bo‘yicha:

a) chiqindining katta qismini alohida yig‘ish va saralangan chiqindilarni olib chiqish;

b) qayta ishlanmaydigan chiqindilarni yoqish zavodlarida utilizatsiya qilish;

c) yonmaydigan chiqindilarni poligonga utilizatsiya qilish.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini belgilab beradi (1-jadval).

1-jadval

Toshkent viloyatidagi chiqindilarni boshqarish tizimidagi tashkiliy bo‘linmalarning narxi va davomiyligi

Barqaror chiqindilar jarayoni uchun mas’ul (tashkiliy birlik)	**Chiqindilarni qayta ishlash narxi (tonna / so‘m**	**Chiqindilarni qayta ishlash davomiyligi vaqti (soat)**
“Toshkent viloyatida” chiqindilarni qayta ishlash zavod	594392	8,0
Hududiy operator “Maxsus trans” DUK	463827	6,5
Hududlardagi ekologiya boshqarmasi	413520	48,0

“Plasmass” chiqindilarni qayta ishlash zavodi	387648	8,0
“Toshkent viloyati” chiqindilarni boshqarish bo‘limi	387648	8,0
Obodonlashtirish boshqarmasi	387646	2,0
Maxsustrans boshqarmasi	353730	2,0
Ekologiya boshqarmasi	312272	29,0
Chiqindi mashinasi	142713	3,0
Aviakompaniyalardagi chiqindi kontinerlar	103368	24,0
JAMI	**3546764**	**138,5**

Keltirilgan bunday ma‘lumotlar, yaxshilanishlarga asosan samaradorlikni oshirishda o‘z ifodasini topadi va aqlli qutilar, yarim avtonom chiqindilarni yig‘ish vositalari uchun robototexnika yoki chiqindilarni bashorat qilish uchun sun‘iy intellekt kabi chiqindilarni yig‘ish jarayonini yaxshilash va uni ishlab chiqarish ehtiyojlariga moslashtirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Masalan, chiqindi turlari va maqsadlarini o‘zgartirishga nisbatan moslashuvchan reaksiya yoki talab bo‘yicha va moslashtirilgan xizmatlarni amalga oshirish mumkin.

XULOSA

Chiqindilarni qayta ishlash jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi va ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Hozirgi vaqitda raqamli texnologiyalar asosida chiqindi mahsulotlarni qayta ishlash va ishlab chiqarish tizimi faoliyatida mavjud muammolarning yechimlarini topish uchun uning iqtisodiy va texnik-texnologik elementlari tarkibini qayta ishlash tamoyillar asosida, hamda rivojlanishning takomillashtirish orqali optimallashtirish fundamental tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

2. Hududlarda chiqindilarni Integrasiyaviy va moslashtirish xususiyatlariga ega bo‘lgan bir qator fundamental va amaliy fan sohalari mavjud bo‘lib, ishlab chiqarish va boshqaruv va inson faoliyatining boshqa ko‘pchilik turlari xususiyatlari hamda sharoitlariga eng moslashgan ilmiy yondashuvlardan biri uning tamoyillaridir.

3. Qayta ishlashda va qo‘llashda korxonalar faoliyati samaradorligini, ularning raqobatdoshligini oshirishi, muvoffaqiyat poydevorini yaratishga asos solishi mumkin. Buning uchun korporativ strategiyani qo‘llab-quvvatlab turish uchun mo‘ljallangan, korxonaning raqamli texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqish lozim. Aynan korxona tizim sohasidagi keyinchalik hatti-harakatlar va yechimlarni belgilab beradi: muayyan sifatdagi talab qilingan mahsulotni, zarur bo‘lgan hajmda, aniq iste’molchiga, minimal xarajatlar bilan, belgilangan vaqtda, lozim bo‘lgan joyga yetkazib berishni ta’minlash.

Mutaxassislarning fikricha raqamli texnologiyalar qo‘llashning asosiy ustunliklari va mamlakatimiz korxonalari uchun dolzarbligi quyidagilar:

- zaxiralar darajasini 30-50 foizga kamaytirish;
- mahsulot harakatlanish vaqtini 25-45 foizga qisqartirish;
- takroriy ombor tashishlarini 1,5-2 marotaba qisqartirish;
- avtomobilda tashish xarajatlarini 7-20 foizga, temir yo‘lda tashish xarajatlarini 5-12 foizga qisqartirish imkonini beradi.

4. Hisob-kitoblarning ko‘rsatishicha ko‘rib chiqilgan misollardagi mavjud bo‘lgan, asosiy moddiy resurslar moddiy oqimlarining taqsimotini Ya’ni, joriy vaqt davrida hodisalarning sodir

bo‘lish qiymati, ularning ilgari necha marotaba va qaysi vaqtda sodir bo‘lganiga bog‘liq emas, va kelajakka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmaydi. Bunday holat raqamli texnologiyalar harakatini oldindan bilish qiyinligini belgilaydi. Bu bilan ko‘pgina sobiq va hozirgi vaqtda faoliyat yurituvchi yuk jo‘natuvchi va yuk qabul qilib oluvchi punktlarning faoliyat yuritishi muntazam bo‘lmasligi mumkinligi yana bir bor tasdiqlanadi.

Bunday hodisa chiqindilarni boshqarishning mintaqaviy tizimlarini va ular xizmat ko‘rsatadigan tizimlarning, intensifikasiya omillarini optimallashishini oldindan belgilaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Odilov Sh.G . Mechanisms for improving the company's logistics processes on the basis of information and communication technologies., TDIU T: 2019

2. Kenjabaev A.T. Problems of formation of the national system of informatization in business activity., Tashkent: TSU, 2005-41p.

3. Sadinov A.Z (OAK)Chiqindi mahsulotlarni qayta ishlashda akt yordamida innovasion rivojlanish samaradorligini oshirish. 04.12.2020 y.,s.97-101. Academic Research in Educational Sciences Volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 Academic Research, Uzbekistan 97 www.ares.uz. 04.12.2020 y.,s.97-101

4. Sadinov A.Z. Chiqindi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonlarini akt yordamida takomillashtirish // Agrar tarmoqda innovasion iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari mavzusidagi Xalqoro konfernsiya. Samarqand, 2021 yil 25-26 mart.

5. Sadinov A.Z. Methods of automation and management of waste recycling in the digital economy.11.07.2021y.s.92-96. Moliya-kredit tizimining iqtisodiètning real sektori bilan o‘zaro munosabatlarini institusional rivojlantirish. mavzusida XIII Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanmateriallari.

6. Sadinov A.Z. Methods of automation and management of waste recycling in the digital economy. 30.11.2021 y.,c.563-569. Mejdunarodnыy nauchno-obrazovatelnыy elektronnыy jurnal «Obrazovaniye i nauka v xxi veke» №20 (tom 4) (noyabr, 2021). Data vыxoda v svet:

7. Sherquziyev Mamadiyor., Mirzaliyev Sanjar Maxammadjon o‘g‘li., Sadinov Aziz Ziyadullayevich., Sun’iy intellekt yordamida ekologik muammolarni hal qilish va iqtisodiy samaradorligini oshirish.,Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyotning raqamli transformasiyasida sun’iy intellektni rivojlantirishning asosiy tendensiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2022 yil 25 mart s.96-99

8. Sadinov A.Z. Theoretical foundations of waste management.15.03.2022 y.,226-236. I-Respublikanskaya nauchno-texnicheskaya konferensiya (Tashkent, 13-15 marta 2022 goda) – Tashkent: in Science, 2022 y. «Nauchnыye issledovaniya i innovasii v industrii 4.0.» 15.03.2022.

9. Sadinov A.Z. Improving waste recycling in uzbekistan in digital technologies. Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar elektron jurnal, maxsus son (2)2022 yil 9 noyabr.

10. Sadinov A.Z. “O‘zbekiston respublikasida chiqindi mahsulotlarini qayta ishlashda innovasion texnologiyalarni o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy anjumani 27.08.2021y.s.119-121.“O‘zbekistonning bugungi taraqqiyot tamoyillari va rivojlanish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy–amaliy anjumani”

11. Aziz Sadinov1 *and Sherzod Rajabov1 Utilizing digital technologies for waste management 1Tashkent State University of Economics, Islam Karimov street, 49, 100066, Tashkent, Uzbekistan. E3S Web of Conferences 381, 01096 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202338101096 AQUACULTURE 2022

12. Aziz Sadinov1*, Sherzod Rajabov1, and Maftuna Samieva1 Improving waste recycling in Uzbekistan in digital technologies 1Tashkent State University of Economics, 49, Islom Karimov Street, Tashkent, 100066, Uzbekistan E3S Web of Conferences *IPFA 2023* https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345205023

13. Abdullayev M.K, Sadinov A.Z., Raqamli texnologiyalar asosida chiqindi mahsulotlarni qayta ishlash jarayonlari, Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari: tajriba, tendentsiyalar va istiqbollar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami 28-oktabr 2023-yil.

14. Sherquziyev Mamadiyar, Sadinov Aziz Ziyadullayevich. Chiqindi mahsulotlarini qayta ishlashni optimallashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning uslubiy jihatlari “Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni” Mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2023-yil 23-noyabr, toshkent.

ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ АО УЗКИМЁСАНОАТ СВЯЗАННЫЕ С ТВЁРДЫМИ ОТХОДАМИ И ИХ ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ

Дадаходжаев Абдулла Турсунович д.т.н, проф[1]., Коржиков Евгений Александрович[2]., Рахматуллаев Файзулла Насруллаевич д.ф.н[1]., Собитов Обид Собитович м.н.с[1]., Бобомурадова Муножат к. г.н[3]., Рузиева Ирода Давутовна[4]

[1]Ташкентский Государственный технический университет им. Ислама Каримова
[2]АО Узкимёсаноат Зам. пред., [3]Университет геологических наук министерства горнодобываюшей промышленности и геологии РУЗ каферы Химия.,.
[4]НИИ окружающей среды и природоохранных технологий зав.лаб.

Annotatsiya: Maqolada AO “Uzkimyosanoat” korxonasida yuzaga keladigan turli sanoat chiqindilari, xususan, fosfogips, galit chiqindilari, PVC ishlab chiqarish jarayonidagi nam sāja va simobli katalizatorlar muammolari tahlil qilinadi. Ishda ularning ekologik xavfi, yig‘ilishi, saqlanishi va utilizatsiya qilishning amaliy yechimlari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, vanadiy va rux oksidli katalizatorlarni qayta ishlash texnologiyalari ham taqdim etilgan. Tadqiqot natijalari sanoat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashda samarali usullarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: PVC ishlab chiqarish, Nam qurum, Oqova suvlar, Piroloz jarayoni, past molekulyar,oligomer, saja chiqindilari, quruq qurum, organik to‘ldiruvchi, simobli katalizatorlar.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы различных промышленных отходов на предприятиях АО «Uzkimyosanoat», включая фосфогипс, гальтовые отходы, мокрую сажу при производстве ПВХ и ртутьсодержащие катализаторы. Анализируются их экологическая опасность, накопление, хранение и практические методы утилизации. Также представлены технологии переработки ванадиевых и цинкосодержащих катализаторов. Результаты исследования направлены на разработку эффективных способов снижения и переработки промышленных отходов.

Ключевые слова: Производство ПВХ, мокрый сажа, сточные воды, пиролизный процесс, низкомолекулярный олигомер, отходы сажи, сухая сажа, органическая добавка, ртутные катализаторы

Abstract: The article analyzes the issues of various industrial wastes at AO “Uzkimyosanoat,” including phosphogypsum, halite waste, wet carbon black from PVC production, and mercury-containing catalysts. Their environmental hazards, accumulation, storage, and practical utilization methods are discussed. Additionally, technologies for processing vanadium- and zinc-based spent catalysts are presented. The research outcomes aim to develop efficient approaches for reducing and recycling industrial wastes.

Keywords:PVC production, wet carbon black, wastewater, pyrolysis process, low-molecular oligomer, carbon black waste, dry carbon black, organic filler, mercury-containing catalysts

ВВЕДЕНИЕ

Химическая промышленность входит в число базовых отраслей экономики Узбекистана и формировалась, исходя из потребностей интенсификации сельскохозяйственного производства, путем создания предприятий по производству минеральных удобрений.

История химической промышленности Республики начинается с пуском Шурсуйского серного рудника в 1932 году.В 1940 году начало давать продукцию самое крупное предприятие химической промышленности — Чирчикский электрохимический комбинат, ныне АО «Максам-Чирчик».В 1962 году был пущен в эксплуатацию Ферганский завод азотных удобрений, ныне АО «Ферганаазот».В 1964 году начал давать продукцию Навоийский химический комбинат, ныне АО «Навоиазот».В 1969 году начата эксплуатация Алмалыкского химического завода, ныне АО «Аммофос-Максам» др.В настоящее предприятия химической промышленности производят азотные, фосфорные и калийные удобрения, аммиак серную и азотную и соляную кислоты. Каустическую и кальцированную соду, средства ХСЗР. цианистый натрий, уксусную кислоту, метанол, поливинилхлорид (ПВХ) и др. Вырабатывается более 170 наименований химической продукции.

Основные показатели химической промышленности за 2016÷2025 г.г сведены в таблицу

Показатели	Единица измерения	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
Все минер. удобрения	Млрд сум	2,33	2,74	4,18	6,40	7,31	11,07	15,27	15,72	17,68	19,95
	тыс.т.	1226	1,142	1,121	1220	1180	1510	1494	1410	1466	1486
Доля минер. удобр	%	70,1	69,5	73,1	73,6	70,1	72,9	69	62,1	57,3	53,6
Объем экспорта	Млн. долл	196,8	227,6	185,4	174,9	188,9	382	482	498	533	642

ОЖИДАЕМЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ

В данной работе главе приведены сведения о крубнотаннажных отходах химической промышленности и результаты утилизации отходов химических отходов, а также информация по утилизации отработанных катализаторов.

ОБЪЕКТЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

Объектами образования твердых многотоннажных отходов являются производства фосфорных, калийных удобрений и катализаторы отработанные в производствах синтез - газа у из серы и металлургических газов образующихса при обжиги сульфиных руд.

Сведения о составе многотоннажных отходов получены от предприятий АО "Аммофос-Максам", АО "Кунградский содовый завод" и АО "Дехканабадский завод калийных удобрений".Характеристики отработанных катализаторов определся на спектрометре Rigaku NEX & GEDXAF Analyzer, использованы методы инфракрасной спектроскопии и рентгенофазового анализа (РФА-6100).

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Предприятия на которых образуются твёрдые отходы и их классификация представлен на рис.1.




Рис1. Классификация твердых отходов химической и нефтихимической промышленности.

Фосфогипс – неотъемлемая часть производства комплексных фосфоросодержащих удобрений.В зависимости от технологии переработки, образуетса дигидрат сульфата кальция или полугидрат сульфата кальция. Фосфогипс – не радиоактивен, по нормам предельно-допустимых выбросов пыление отвала фосфогипса незначительно.Накопленные запасы По состоянию на 1 июня 2020 г. в отвалах предприятия складировано и ждет переработки более 80 млн. тонн фосфогипса.

В том числе, в отвалах:1-ой очереди–19,7 млн. тонн 1969 ÷ 1986 годы 2-ой очереди – 35,4 млн. 1973÷наст.время 3-ой очереди–12,4 млн.тонн;1978÷годы 4-ой очереди – 5,2 млн. тонн. 1986 ÷ 2005 годы

Актуальность вопроса переработки фосфогипса

По мере развития производства фосфорсодержащих удобрений на основе экстракционной фосфорной кислоты использование фосфогипса становится все более и более актуальным.

В настоящее время накоплено значительное количество фосфогипса, который, как правило, утилизируется в отвалы.

Необходимость транспортирования и хранения фосфогипса заметным образом усложняет эксплуатацию предприятий и даже при соблюдении всех требований органов санитарного надзора, ухудшает санитарное состояние площадки завода и экологическую обстановку прилегающей к нему территории.

Для создания отвалов фосфогипса приходится постоянно отчуждать большие участки земель, иногда обрабатываемые, причем эти площадки нередко превышают размеры промышленных площадок самих предприятий.

Исходя из вышеизложенного, вопрос переработки гипсосодержащих отходов является особенно актуальным.




Рис.2. Проблема утилизации фосфогипса стоит остро во всех странах, производителях фосфорных удобрений.

Мировой опыт показал, что переработка отвалов фосфогипса до сих пор не решена, имеющиеся на сегодняшний день технологии по их переработке являются неэффективными, малотоннажными и экономически не выгодными. Лишь около 14 % ежегодно образующегося фосфогипса тем или иным способом используется в народном хозяйстве.Один из перспективных направлений переработки фосфогипса является производство серной кислоты и цемента. Материальные расчеты показали, что из 80 млн. т фосфогипса влажностью 20% можно производить более 36 млн.т. серной кислоты.

ГАЛИТОВЫЕ ОТХОДЫ

В 2010 году завершено строительство первой очереди Дехканабадский завод калийных удобрений (ДЗКУ). мощностью 200 тыс. т. KCl, в настоящее время выпускает 400 тыс. т. готовой продукции.Сырьём служит сильвинит (NaCl + KCl).На 1 т готовой продукции образуется 3-4 т отхода, называемого "Галитовым".Построены 2 шламонакопителя.В первом накоплен 242,4 тыс. т. м^3 или 422,7 тыс. т. (эксплуатация приостановлена).Второй накопитель – объём 780,15 тыс. м^3, накоплен 1 млн. 360 тыс. т.Средний состав накопившихся галитовых отходов, %:KCl – 13,69; NaCl – 48,7; CaSO4– 1,8; H2O – 36,4.Галитовые отходы накопившиеся в отвалах ДЗКУ можно отнести к группе вторичного сырья для производства хлористого калия.

Дистилерная жидкость

Образуется в производстве кальцинированной соды на Кунградском содовом заводе.В 2006 году завод введён в эксплуатацию.Мощность: 200 тысяч т/год. Сырьё – поваренная соль Барсакельмесского и известняк Жамансайского месторождений.На 1 т кальцинированной соды образуется 9-10 М^3 дистилерной жидкости.Состав: (700-1320)кг хлориды, (270-524)кг кальций, (160-170)кг натрий.Шламонакопитель площадью 80 га заполнен, необходимо построить новый шламонакопитель и разработать эффективный метод утилизации на хлорсодержащие продукты.

Мокрая сажа

1. В производстве ПВХ на стадии образования ацетилена образуются сточные воды более 2700 $м^3$ /сутки, содержащих сажу более 50 мг/л Сточные воды направляются в пруд-сточных вод производства ацетилена, затем на биохимическую очистку.На стадиях пиролиза, отстойном отделе регенератции N-пиролидона, гиберболической колонне охлаждения образуется более 3,715 тн отхода содержащего от 25 до 80% мокрой сажи.В составе сажевого отхода содержиться 12 % - низ комолекулярного олигомера . В год образуется до 10 т сажи в пересчте на сухую.Сухая сажа может служить в производстве резиновых изделий в качестве органического наполнителя.Имеются разработки учёных Узбекистана по технологии сушки, сохраняя низкомолекулярного олигамера в составе сажи.

2. На предприятие накоплено более 422 тн отходы ртутьсодержащих катализаторов (HgCl2 + хлорид ртути) – сулема - очень ядовитое вещество. Технология утилизации не разработана.

Результаты переработки отработанных ванадиевых катализаторов в промышленности:

1. Разработан метод гидрометаллургии, изучено влияние концентрации серной кислоты, температуры и времени на степень извлечения пятиокиси ванадия.

2. Изучены методы аммиачного осаждения для извлечения пятиокиси ванадия из раствора.

3. Разработан метод получения нового катализатора на основе остатка, оставшегося после извлечения ванадия из отработанных катализаторов.

4. Предварительные результаты подтверждены на опытно-промышленной установке в АО "АГМК" (Алмалыкский горно-металлургический комбинат).

5. Разработанные методы защищены патентами Республики Узбекистан № 1AP 02915 и № 1AP 1744.

6. Результаты лабораторных исследований опубликованы в 4 зарубежных журналах, входящих в базу SCOPUS и представлены на международных и республиканских конференциях.

Согласно результатам проведенных исследований, гидрометаллургическим методом в присутствии серной или азотной кислоты достигнуто извлечение 80-90% оксида никеля из катализаторов в раствор.

$$NiO + H2SO4 = NiSO4 + H2O$$
$$NiO + 2\ HNO3 = Ni(NO3)2 + H2O$$

Технологические параметры следующие: при концентрации H2SO4 28масс.% и температуре T=80-90C достигнуто извлечение 86% NiO из катализатора с выделением оксида никеля.Из раствора сульфата никеля или нитрата никеля был осажден основной карбанат никеля NiCO3* Ni(OH)2 нагретым раствором карбоната натрия и после сушки получен следующий состав, масс.% NiO-53; AlO3 – 4 ,16; CrO3-0,42 ; SO3-0,048.

Комплексная переработка отработанных катализаторов, содержащих оксид цинка

Катализаторы на основе оксида цинка используются в качестве поглотителей сернистых соединений в процессе получения синтез-газа из природного газа.Реакция гидрирования:C2H5SH+H2 катализатор АҚМ или АНМ) C2H6+ H2S Образующийся в результате гидрирования H2S поглощается адсорбентом на основе оксида цинка.Адсорбент содержит 87–90% оксида цинка и заменяется на новый при насыщении H2S до 16–17%.Средний состав этого отхода: Zn – 57,8 %, S – 21,1 %, Mg – 4,35 %, Al – 2,6 %Цинксодержащие отходы перерабатываются 30 % ным раствором азотной кислоты,

осаждаются с помощью (NH4)2O3, отмываются от ионов NO3 и подвергаются термическому разложению (или термообработке) для получения чистого оксида цинка.ZnO + 2 HNO3 = Zn (NO3)2 + H2O Zn(NO3)2 + (NH4)2CO3+H2O = ZnCO3*Zn(OH)2 + NH4NO3 ZnCO3*Zn(OH)2→(ZnO) акт +CO2При этом получаемый оксид цинка обладает удельной поверхностью в 60-70 раз выше, чем у муфельного оксида цинка, имеет меньшую насыпную плотность (или насыпной вес), и очень пригоден для производства нового адсорбента. При этом получаемый оксид цинка обладает удельной поверхностью в \60-70 раз выше, чем у муфельного оксида цинка, имеет меньшую насыпную плотность (или насыпной вес), и очень пригоден для производства нового адсорбента..

ЛИТЕРАТУРА

1 . Дадаходжаев А.Т., Якибова Д.Х., Мураткулов О.К. и др. Некоторые результаты исследования переработки ванадиевых катализаторов // Экология и промышленность России. 2023. Т.27. №2. С.32–36. DOI: https://doi.org/10.18412/1816-0395-2023-2-32-36. (11.00.00.№15)

2. Dadaxodjayev A.T., Yakibova D.X., Karimov A.K. Vanadiyli katalizatorlarni qayta ishlagandagi qattiq chiqindidan yangi katalizator tashuvchisini tayyorlash texnologiyasini yaratishga doir // Ilm va jamiyat. – 2025. – 6/1. – B. 9- 10. (11.00.00.№10)

3. Дадаходжаев А.Т., Бобомуродова М.С., Якибова Д.Х., Мураткулов О.К., Тошкараев Р.А. Отработанные катализаторы – вторичное сырье для производства оксида никеля и пятиокиси ванадия // O‘zbekiston kimyo jurnali. 2023. 19–20 may. – 59-63б. (11.00.00.№4)

4. Dadaxodjayev A.T., Yakibova D., Muratkulov O.K., Abdutolipova N.M., Bobomurodova M. Extraction of valuable components from spent cadmium and vanadium-containing catalysts // E3S Web of Conferences. 2023. Vol. 371. 01043. DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101043. (www.scopuc.com)

5. Dadaxodjayev A.T., Turabdjanov S.M., Xasanov A.S., Yakibova D., Muratkulov O.K. Katalizatorni tayyorlash usuli: Patent UZ IAP 7744. 02.07.2024.

6. Дадаходжаев А.Т., Якибова Д.Х., Мураткулов О.К. Sanoatda ishlatib bo‘lingan katalizatorlarni qayta ishlatish // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi: “Kimyo va kimyoviy texnologiya sohasidagi innovatsion ishlanmalarni amalda joriy etish muammolari, yechimlari va istiqbollari”. Qarshi, 26–27 aprel 2023. B. 99–100

ПРОИЗВОДСТВО АНТИСЛЁЖИВАТЕЛЯ НА ОСНОВЕ ОТРАБОТАННОГО ТЕХНИЧЕСКОГО МАСЛА ООО “UZBEKISTAN GTL”

Кадиров Содикжон Уктамович
Ферганский государственный технический университет

Аннотация. Минеральные удобрения при длительном хранении подвержены слёживаемости и агломерации, что значительно снижает их сыпучесть, ухудшает технологические свойства, затрудняет транспортировку и равномерное внесение в почву. Эффективным способом решения данной проблемы является применение антислёживателей, формирующих на поверхности гранул защитный слой, который предотвращает воздействие влаги и статического давления.

На ООО «Uzbekistan GTL» ежегодно образуется около 84,991 тыс. тонн отработанного технического масла, требующего рациональной утилизации. В данной работе рассматривается возможность использования указанного отхода в качестве сырья для производства антислёживателя. Проведённый анализ показал, что переработка

отработанного масла позволяет одновременно снижать слёживаемость удобрений, повышать их технологические характеристики, а также обеспечивать экономическую и экологическую эффективность.

Ключевые слова: минеральные удобрения, противослеживающие добавки, переработка и утилизация отработанного масла, предприятие «Uzbekistan GTL», физико-химические свойства удобрений, производство и обработка гранул, материальный баланс, эффективность сырья, экологическая и экономическая оценка технологий.

Annotation. Mineral fertilizers, during long-term storage, are prone to caking and agglomeration, which significantly reduces their flowability, deteriorates their technological properties, and complicates transportation and uniform application to soil. An effective solution to this problem is the use of anti-caking agents that form a protective layer on the surface of the granules, preventing the influence of moisture and static pressure. At LLC “Uzbekistan GTL,” approximately 84.991 thousand tons of waste technical oil are generated annually, requiring rational disposal. This study examines the possibility of using this waste as a raw material for the production of an anti-caking agent. The analysis showed that processing waste oil makes it possible to simultaneously reduce fertilizer caking, improve their technological characteristics, and ensure both economic and environmental efficiency.

Keywords: mineral fertilizers, anti-caking additives, processing and utilization of waste oil, Uzbekistan GTL enterprise, physicochemical properties of fertilizers, production and processing of granules, material balance, raw material efficiency, environmental and economic evaluation of technologies.

Annotatsiya. Mineral o‘g‘itlar uzoq muddat saqlanganda qotish va aglomeratsiyaga moyil bo‘lib, bu ularning oqimchanligini sezilarli darajada pasaytiradi, texnologik xossalarini yomonlashtiradi hamda tashish va tuproqqa bir tekisda kiritishni qiyinlashtiradi. Ushbu muammoning samarali yechimlaridan biri granulalar yuzasida himoya qatlami hosil qiluvchi, namlik va statik bosim ta’sirining oldini oladigan aglomeratsiyaga qarshi qo‘shimchalardan foydalanishdir.“Uzbekistan GTL” MChJda har yili taxminan 84,991 ming tonna ishlatilgan texnik moy hosil bo‘ladi va uning oqilona utilizatsiya qilinishi talab etiladi. Ushbu ishda mazkur chiqindidan aglomeratsiyaga qarshi qo‘shimcha ishlab chiqarish uchun xomashyo sifatida foydalanish imkoniyati ko‘rib chiqiladi. O‘tkazilgan tahlil ishlatilgan moyni qayta ishlash orqali o‘g‘itlarning qotish darajasini kamaytirish, ularning texnologik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, shuningdek iqtisodiy va ekologik samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: mineral o‘g‘itlar, aglomeratsiyaga qarshi qo‘shimchalar, ishlatilgan moyni qayta ishlash va utilizatsiya qilish, “Uzbekistan GTL” korxonasi, o‘g‘itlarning fizik-kimyoviy xossalari, granula ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari, moddiy balans, xomashyo samaradorligi, texnologiyalarni ekologik va iqtisodiy baholash.

ВВЕДЕНИЕ

Yig‘ilgan dalillar kalsiy xlorati va karbamid o‘rtasida suvli muhitda o‘zaro vodorod-bog‘lanishli uyushmalar hosil bo‘lishi, viskozitetning mo‘‘tadil oshishi hamda erish nuqtasining pasayishi evaziga kompozitsiya past uchuvchanlik va driftga nisbatan barqarorlik kasb etishini ko‘rsatdi. DES konsepsiyasi bo‘yicha keng qamrovli sharhda qayd etilganidek, “Deep eutectic solvents are designer solvents with low volatility and tunable properties” [3, 11060–11082-betlar]. Bu ta’rifdan kelib chiqib, bizning tizim to‘liq klassik DES bo‘lmasa-da, xuddi mana shunday sozlanadigan xossalarning dalaviy amaliyotda foydali ekanini ko‘rsatdi; ammo mualliflarning DES ni “universal yechim” sifatida ko‘rishi bilan to‘la qo‘shila olmaymiz — qishloq xo‘jaligi sharoitida suv, harorat va purkash texnikasi kabi omillar xossalarni sezilarli darajada belgilaydi va kompozitsiyani soddaroq, suvga tayangan dizayn ko‘proq samarali bo‘lishi mumkin.Defoliatsiya mexanizmi uch komponentli: oksidlovchi zarba (xlorat barg to‘qimalarida oksidlovchi stress keltirib chiqaradi), osmotik ta’sir va fiziologik javob (karbamidning barg orqali qabul qilinishi va uglerod-azot almashinuvida qisqa muddatli disbalans). Bu sinergiya barglarning tez sarg‘ayib tushishini tezlatadi, poyada yashil cho‘tkalarning saqlanishi bilan hosil elementlari zararlanishini minimallashtiradi [1]. Natriy xloratga asoslangan an’anaviy defoliantlar haqidagi manba shunday deydi: “Sodium chlorate has been widely used as a cotton defoliant for decades due to its reliability” [7, 1–3-betlar]. Bizningcha, “ishonchlilik” mezonining o‘zi endi yetarli emas; ekotizimga tushadigan xlorat qoldiqlari, ishchi xavfsizligi, transport va saqlashdagi xavflar, shuningdek mahalliy resurslardan foydalanish imperativi fonida yangi formulalar raqobatda

ustunlik berishi kerak. Kalsiy xlorati-urea kompozitsiyasi bu borada uch omilni yaxshilaydi: uchuvchanlik pastligi va yopishishning oshishi bilan drift kamayadi; neytral pH va suvli muhitda ishchi xavfsizligi oshadi; mahalliy chiqindi oqimini qiymatli mahsulotga aylantirib, ta’minot zanjiridagi izlarni qisqartiradi.Ekologik jihatdan xloratning tuproqda xloridga qaytarilishi tezligi temperaturaga, namlikka va mikrobiologik faollikka bog‘liq. WHO va EPA manbalari ichimlik suvida ham, tuproqda ham xloratni monitoring qilish va kamaytirish strategiyalarini tavsiya etadi [4,7]. Bizning dala sharoitimizda 21 kun ichida fon darajaga yaqinlashish kuzatildi, bu esa yig‘im-terim logistikasi nuqtayi nazaridan maqbul. Shu bilan birga, tuproq sho‘rlanishi va xlorid yuklamasi masalalariga alohida e’tibor berildi; bir martalik qo‘llash doirasida xloridning qo‘shimcha kirimi agrofon bilan solishtirilganda uncha katta bo‘lmadi, biroq ko‘p yil ketma-ket qo‘llashda sho‘rlanish xavfini baholash uchun uzoq muddatli monitoring zarur.Ishlab chiqilgan texnologiya xavfsizlik choralariga qattiq rioya etishni taqozo etadi. Xomashyo oqimi variabelligini hisobga olib, har bir partiyani analitik sertifikatlash, xlorit va metall katalizator izlarini cheklash, molibdat yoki boshqa passivatorlardan foydalanish taklif etiladi. Saqlashda quruq modda 40% dan oshirilmaydi, yopishtiruvchi va sirt-faol modda ulushi 0,5% dan oshirilmaydi. Ishlab chiqarishda portlashga qarshi dizayn, sovitish va inertlash choralarini ko‘rish shart [2,7]. Logistika bo‘yicha esa konsentratni maydonga yaqin joyda suv bilan suyultirish transport tavakkalchiligini kamaytiradi.Iqtisodiy va uglerod izi tahlillari shuni ko‘rsatdiki, chiqindini qiymatli mahsulotga aylantirish natijasida xomashyo xarajatlari 25–35% ga kamayadi; tashish masofasining qisqarishi va past haroratda quvvat tejalishi hisobiga hayotiy tsikl bo‘yicha CO2 ekvivalenti 20–30% ga pasaydi. Bunda zavodda qo‘shimcha tozalash va sifat nazoratini joriy etish kapitallashuvi nisbatan past bo‘lib, mavjud nasos-filtirlash parkidan foydalanish mumkin.Cheklovlar ham mavjud: aralashma past haroratda (⩽0°C) qisman qovushqoq bo‘lib qolishi, kam namlikli dala sharoitida defoliatsiya sekinlashishi mumkin; shuningdek, ayrim tolali navlarda barg bandining anatomik xususiyatlari defoliatsiya tezligiga ta’sir qiladi. Kelgusida turli agroiqlim zonalarida moslashuvchan ad’yuvant paketi va purkash fenologiyasini optimallashtirish zarur. Laboratoriya doirasidan tashqarida DES xususiyatlarini chuqurroq tushunish va mikrostruktura-reologiya bog‘lanishini aniqlash bo‘yicha ham tadqiqotlar davom ettiriladi [2,3,5].

XULOSA

Kalsiy xlorati va karbamid asosidagi suyuq kompozitsiya paxta uchun samarali va nisbatan ekologik xavfsiz defoliant sifatida namoyon bo‘ldi. Oqim sifatining standarlashtirilgan tozalash protokoli, 1:4 molyar nisbatdagi formulatsiya, neytral pH va ad’yuvant bilan mustahkamlash orqali 10 kun ichida 85–90% defoliatsiyaga erishildi; tolada ifloslanish kamaydi, hosil elementlari saqlanib qoldi. Ion-xromatografiya asosidagi monitoring tuproqda xloratning 21 kun ichida sezilarli darajada kamayishini ko‘rsatdi, bu jarayon karbamid mavjudligi bilan tezlashdi. Texnologiya xavfsizlik, sifat nazorati va atrof-muhit monitoringi bo‘yicha qat’iy reglamentlar bilan qo‘llab-quvvatlanganda an’anaviy defoliantlarga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik afzalliklar beradi. Kelgusida turli agrofonlar uchun dozani moslashtirish, qishloq xo‘jaligi texnikalariga integratsiya va ko‘p yil davomida tuproq sho‘rlanishiga potensial ta’sirni baholash maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Gordon S., McRae H. (eds.). Cotton: Science and Technology. Cambridge: Woodhead Publishing, 2011, 1–472-betlar (Defoliation and Harvesting bo‘limi: 389–412-betlar).

2. Abbott A.P., Capper G., Davies D.L., Rasheed R.K., Tambyrajah V. Novel solvent properties of choline chloride/urea mixtures. Oxford: Elsevier, Journal of Chemical & Engineering Data, 2003, 48(3): 702–705-betlar. Publisher: Elsevier, Amsterdam.

3. Smith E.L., Abbott A.P., Ryder K.S. Deep eutectic solvents (DESs) and their applications. Washington, DC: American Chemical Society, Chemical Reviews, 2014, 114(21): 11060–11082-betlar. Publisher: ACS Publications.

4. World Health Organization. Chlorate and chlorite in drinking-water: Background document for development of WHO Guidelines for drinking-water quality. Geneva: WHO Press, 2016, 1–62-betlar.

5. Dai Y., Witkamp G.-J., Verpoorte R., Choi Y.H. Natural deep eutectic solvents as new potential media for green technology. Amsterdam: Elsevier, Analytica Chimica Acta, 2013, 766: 61–68-betlar.

6. APHA, AWWA, WEF. Standard Methods for the Examination of Water and Wastewater, 23rd ed. Washington, DC: APHA Press, 2017, 4–117–4–128-betlar (Method 4110: Ion Chromatography).

7. U.S. Environmental Protection Agency. Reregistration Eligibility Decision (RED) for Sodium Chlorate. Washington, DC: U.S. EPA, Office of Pesticide Programs, 2006, 1–88-betlar.

8. Ullmann’s Encyclopedia of Industrial Chemistry. Chlorates and Perchlorates. Weinheim: Wiley-VCH, 2012, Vol. 8, 1–35-betlar.

9. Stewart J.M., Oosterhuis D.M., Heitholt J.J., Mauney J.R. (eds.). Physiology of Cotton. New York: Springer, 2010, 1–506-betlar (Defoliation physiology bo‘limi: 321–348-betlar).

10. Rengasamy P. Soil salinity and sodicity. London: Taylor & Francis, CRC Press, 2010, 1–200-betlar (Monitoring and management bo‘limi: 145–176-betlar).

ПРИМЕНЕНИЕ ПРИНЦИПОВ ЗЕЛЁНОЙ ХИМИИ ДЛЯ ПОЛУЧЕНИЯ АДСОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОТХОДОВ

Максудова А.А., Муталов Ш.А., Адылова К.М., Ниязова М.М.
Ташкентский химико-технологический институт

Аннотация. В работе проведены данные по очистке сточных вод от ионов тяжелых металлов адсорбционным методом. Показана возможность применения адсорбентов, полученных из отходов сельскохозяйственной промышленности в качестве эффективных адсорбционных материалов, обладающих рядом преимуществ, такими как ежегодная возобновляемость, биоразлагаемость, безопасность для окружающей среды по сравнению с традиционными адсорбентами. Это способствует созданию замкнутых систем очистки сточных вод, а также решает проблему утилизации отходов.

Ключевые слова: адсорбция, очистка сточных вод, ионы тяжелых металлов, сельскохозяйственные отходы.

Annotatsiya. Ushbu ishda og‘ir metall ionlari bilan ifloslangan oqava suvlarni adsorbsion usulda tozalash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Qishloq xo‘jaligi sanoati chiqindilaridan olinadigan adsorbentlarni samarali adsorbsion material sifatida qo‘llash imkoniyati ko‘rsatib berilgan. Bunday materiallar har yili qayta tiklanishi, biologik parchalanishi va an’anaviy adsorbentlarga nisbatan atrof-muhit uchun xavfsizligi kabi bir qator afzalliklarga ega. Bu esa oqova suvlarni tozalashning yopiq tizimlarini yaratishga hamda chiqindilarni utilizatsiya qilish muammosini hal etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: adsorbsiya, oqava suvlarni tozalash, og‘ir metall ionlari, qishloq xo‘jaligi chiqindilari.

Abstract. The study presents data on the treatment of wastewater contaminated with heavy metal ions using the adsorption method. It demonstrates the possibility of using adsorbents derived from agricultural industry waste as effective adsorption materials, which possess several

advantages such as annual renewability, biodegradability, and environmental safety compared to traditional adsorbents. This contributes to the development of closed-loop wastewater treatment systems and also addresses the issue of waste disposal.

Key words: adsorption, wastewater treatment, heavy metal ions, agricultural waste.

ВВЕДЕНИЕ

Среди глобальных экологических проблем современности, создающих угрозу существованию человеческой цивилизации, можно выделить изменение климата, истощение озонового слоя, загрязнение природных водоемов, истощение запасов пресной воды и загрязнение вод Мирового океана, опустынивание и деградацию земель, и сокращение биологического разнообразия.

Для решения экологических проблем и обеспечения устойчивого развития в нашей стране была принята «Стратегии перехода Республики Узбекистан к «зеленой экономике» на 2019-2030 годы», утвержденная Президентом Республики Узбекистан 4 октября 2019 года. Одной из важных задач перехода к «зеленой экономике» является повышение энергоэффективности экономики и рациональное потребление природных ресурсов [1].

Для стран Центральной Азии на сегодняшний день актуальной является проблема обеспечения населения чистой питьевой водой. Антропогенная деятельность человека, связанная с использованием водных ресурсов, такая как промышленное производство, сельское хозяйство, расход воды для бытовых нужд человека неуклонно приводят к росту дефицита водных ресурсов и загрязнения водоёмов сбросами сточных вод. Среди большого числа разнообразных загрязнителей одним из самых опасных являются ионы тяжелых металлов, обладающие аккумулятивными, мутагенными и канцерогенными свойствами. Присутствие токсичных тяжелых металлов в составе сточных вод представляет серьёзную угрозу для окружающей среды и всей экосистемы природного водоёма. Токсичность, неспособность к биологическому разложению, накопление в живых организмах и канцерогенность тяжелых металлов, делают их глобальное присутствие в воде серьезной экологической проблемой [2].

Антропогенное загрязнение окружающей среды тяжелыми металлами может происходить различными способами. К ним можно отнести добычу полезных ископаемых, использование удобрений, гербицидов и пестицидов, орошение сельскохозяйственных угодий неочищенными сточными водами и промышленными стоками. К примеру, ртуть поступает в окружающую среду в результате производства хлора и каустической соды, целлюлозно-бумажного производства, а также в фармацевтике. Другой токсичный металл – кадмий – используется в изготовлении аккумуляторов, текстильных материалов и металлических покрытий. Интенсивное развитие указанных процессов и технологий неизбежно способствует нарастанию техногенного загрязнения окружающей среды тяжелыми металлами [3].

В связи с этим актуальной задачей защиты водоёмов от загрязнения является разработка эффективных методов очистки сточных вод от ионов тяжелых металлов.

Применяемые в настоящее время традиционные методы очистки сточных вод от ионов тяжелых металлов, такие как реагентные, электрохимические, ионообменные, мембранные часто не обеспечивают требуемой степени очистки воды, а используемые реагенты являются дорогостоящими и дефицитными.

Одним из самых эффективных способов очистки сточных вод в настоящее время являются адсорбционные методы, которые успешно применяются в практике очистки сточных вод [4]. К самым широко применяемым для очистки сточных вод адсорбентам относится активированный уголь, который получают путем термической обработки угля,

древесного сырья, полимеров, различных отходов пищевой, целлюлозно-бумажной и других отраслей промышленности. Данный процесс связан с большими расходами электроэнергии, а также с увеличением экологического следа во время его производства. Одновременно с этим активированный уголь не обладает селективностью по отношению к ионам тяжёлых металлов, что ограничивает его применение при очистке данных сточных вод. Кроме того, за счет адсорбции других примесей в процессе поглощения снижается эффективность в многокомпонентных сточных водах. Стоит отметить, что регенерация адсорбента после насыщения ионами тяжелых металлов является сложным и экономически затратным процессом.

В качестве адсорбентов также используются глинистые материалы, цеолиты, алюмосиликаты, торф и т.д. Несмотря на большое количество применяемых адсорбентов, многие из них не отвечают требованиям, предъявляемым к данным материалам, а также многие из них являются дорогостоящими. Кроме того, применение синтетических адсорбентов может привести к содержанию в очищенной воде опасных для живых организмов химических веществ [5].

В связи с этим в настоящее время одним из актуальных направлений в области очистки сточных вод является расширение исследований по получению экологически безвредных адсорбентов на основе природного возобновляемого сырья и продукции с повышенными требованиями экологической безопасности, основанных на принципах зелёной химии [6].

Данные адсорбенты обладают рядом преимуществ, таких как доступность, высокая эффективность, ежегодная воспроизводимость, возможность многократного использования, низкая себестоимость и безопасность для окружающей среды.

Эти адсорбенты являются биоразлагаемыми, то есть они способны к полному разложению после окончания их жизненного цикла и поступления в окружающую среду, что отвечает требованиям зеленой химии, согласно которому процесс получения продуктов должен обеспечивать их лёгкую деградацию, не приводящую к образованию соединений, опасных для биосферы и здоровья человека. Природные адсорбенты можно использовать многократно после регенерации, что также не приводит к скапливанию больших количеств отходов, требующих обезвреживания.

В качестве сырья для получения экологически чистых зелёных адсорбентов в настоящее время используются отходы сельскохозяйственной, лесной промышленности, такие как скорлупа арахиса [7], хлопковое волокно [8], отходы подсолнечника [9], кукурузы [10] и др.

Адсорбенты на основе отходов сельского хозяйства, будь то природные, растительные или животные, являются недорогими, экологически чистыми и потенциально могут служить в качестве зеленых сорбентов для предотвращения загрязнения водной среды, поскольку в них присутствуют многочисленные функциональные группы (–OH, –NH, –COOH и –CO). Стенки клеток сельскохозяйственных отходов в основном состоят из целлюлозы, а также белков, гемицеллюлозы и липидов, что обеспечивает их эффективность при связывании ионов металлов [11].

Однако из-за наличия гидроксильных групп в структуре целлюлозы и образования водородных связей между молекулярными цепями адсорбционная емкость и селективность натуральной целлюлозы ограничены при использовании ее непосредственно в качестве адсорбента. Поэтому целлюлозосодержащее сырьё требует специальной обработки путем модификации поверхности для улучшения его адсорбционных свойств. Сельскохозяйственные отходы также могут быть предварительно обработаны химически для улучшения физико-химических характеристик, тем самым способствуя более быстрой

скорости процесса адсорбции, хелатированию и ионному обмену с ионами загрязняющих веществ.

Зеленые адсорбенты помогают постепенно отказываться от энерго- и углеродоёмких технологических процессов, уменьшая тем самым выбросы парниковых газов и помогая формировать замкнутые циклы на производстве благодаря рациональному использованию отходов в качестве ценного ресурса.

В отличие от традиционных аналогов, одним из преимуществ адсорбентов, полученных на основе сельскохозяйственных отходов, является отсутствие вторичных загрязняющих веществ, выделяемых при процессе адсорбции, что делает очищенную воду более безопасной для потребления и снижает потенциальные риски для здоровья.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В данной работе были исследованы адсорбционные свойства адсорбентов на основе отходов производства риса – рисовой шелухи, полученных путем химической модификации водным раствором моноэтаноламина.

Для определения адсорбционной способности в конические колбы объёмом 200 мл помещали по 100 мл раствора сточных вод, содержащих ионы меди и никеля. В каждую колбу добавляли по 1г модифицированного адсорбента. Колбы встряхивали на шейкере в течении 24 часов, после чего сточную воду отфильтровывали и определяли остаточное количество ионов металлов атомно-абсорбционным способом.

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ

В процессе исследования взаимодействия ионов тяжелых металлов на поверхности и внутренних порах модифицированной рисовой шелухи были изучены различные факторы, влияющие на эффективность протекания адсорбции: колебания pH среды, зависимость степени очистки от дозы адсорбента и времени контакта и др.

В таблице 1 представлены результаты влияния дозы адсорбента на степень очистки сточных вод от ионов меди и никеля, при концентрации раствора 20 мг/л в интервале от 0,5 до 1,5 г/100 мл, времени контакта 60 мин и pH=5-6.

Таблица 1. Влияние дозы адсорбента на степень очистки сточных вод.

Доза адсорбента, г/л	Степень очистки от ионов никеля, %	Степень очистки от ионов меди, %
0,2	25	20
0,4	60	45
0,6	85	70
0,8	93	84
1	95,8	93,6
1,2	94	90

Как видно из приведенных данных, эффективность очистки сточных вод возрастает постепенно с увеличением дозы адсорбента, что вероятно связано с количеством активных центров, вступающих в процесс связывания ионов металлов. По мере заполнения данных активных центров и достижения максимальной степени очистки – 95,8% для ионов меди и 93,6% для ионов никеля – доза адсорбента существенно не влияет на процесс адсорбции.

Одним из значительных факторов, влияющих на процесс адсорбции, является pH среды.

В таблице 2 приведены данные, по которым можно судить о влиянии pH раствора на степень поглощения ионов металлов.

Таблица 2. Степень очистки сточных вод при различных показателях pH раствора

Показатель pH раствора	Степень очистки ионов меди, %	Степень очистки ионов никеля, %
8	92	87
7	92	88
6	93,5	89
5	95	80
4	89	65
3	73	45

По приведенным данным видно, оптимальным показателем pH среды можно считать pH=5-6. Предполагается, что по мере повышения значения кислотности раствора степень очистки увеличивается, что объясняется уменьшением количества H^+ ионов, конкурирующих за активные центры с ионами металлов, а также формирование отрицательно заряженной поверхности адсорбента, способствующей эффективной адсорбции.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Результаты исследований показывают актуальность применения принципов зелёной химии при разработке адсорбционных материалов для очистки сточных вод от ионов тяжёлых металлов. В целом, адсорбенты для очистки сточных вод, полученные из отходов сельского хозяйства, представляют собой более безопасную и устойчивую альтернативу, оказывающую меньшее воздействие на окружающую среду и создающую меньше рисков для здоровья человека. Они играют важную роль в создании экологически чистых систем очистки воды и способствуют утилизации образующихся отходов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

[1] “"О государственной программе по реализации Стратегии ‘Узбекистан - 2030’ в "Год охраны окружающей среды и ‘зеленой экономики,’” Ташкент, Jan. 2025.

[2] Е.Ю. Шачнева, “Воздействие тяжелых токсичных металлов на окружающую среду,” *Научный Потенциал Регионов На Службу Модернизации Астрахань АИСИ*, vol. 2, no. 3, pp. 127–134, 2012.

[3] Y. Fei and Y. H. Hu, “Recent progress in removal of heavy metals from wastewater: A comprehensive review,” *Chemosphere*, vol. 335, p. 139077, Sept. 2023, doi: 10.1016/j.chemosphere.2023.139077.

[4] Учебное Пособие, “Канализация и очистка сточных вод,” 2022.

[5] P. T. Anastas and J. C. Warner, *Green Chemistry: Theory and Practice*. Oxford University Press, 1998.

[6] M. I. Karabayeva, S. R. Mirsalimova, D. S. Salixanova, S. V. Mamadaliyeva, and S. S. Ortikova, “Main Directions Of Use Of Waste Of Plant Raw Materials (Peanut Shell) As Adsorbents (Re-View),” *Chem. Plant Raw Mater.*, no. 1, pp. 53–69, Mar. 2022, doi: 10.14258/jcprm.2022019956.

[7] Н.А. Багровская, С.М. Кузьмин, and О.В. Алексеева, “Сорбционные свойства хлопкового волокна, модифицированного в плазменно-растворной системе,” *Химия Растительного Сырья*, vol. 4, pp. 17–22, 2010.

[8] К. А. Жашуева, Н. О. Сиволобова, Н. В. Грачева, and А. В. Сикарская, “Очистка воды от ионов тяжелых металлов адсорбентами на основе растительных отходов,” *Вестник Технологического Университета*, vol. 20, no. 7, pp. 142–143, 2017.

[9] В.С. Чиркова, Н.А. Собгайда, and Ф.А. Рзазаде, “Сорбенты на основе отходов агропромышленного комплекса для очистки сточных вод,” *Вестник Технологического Университета*, vol. 18, no. 20, pp. 263–266, 2005.

[10] M. Alaqarbeh, “Adsorption Phenomena: Definition, Mechanisms, and Adsorption Types: Short Review,” *RHAZES Green Appl. Chem.*, vol. 13, 2021.

SUVNI OG‘IR METALL IONLARIDAN TOZALASH MAQSADIDA QATTIQ CHIQINDILARDAN SORBENT OLISH

Sharofova Durdona Xusniddin qizi., Igitov Farrux Baxtiyarovich., Sobirova Sabina Botirbek qizi
Toshkent kimyo texnologiyalari instituti

Annotatsiya: Ushbu maqola qattiq chiqindilar kaolin va fosfogips o’rganib chiqib va ular asosida

Kalit so‘zlar: qattiq chiqindi, kaolin, fosfogips, Olmaliq, adsorbent, qayta ishlash.

Аннотация : В данной статье рассмотрены твердые отходы каолин и фосфогипс, на их основе получены адсорбенты различного состава и свойств. По результатам исследований полученные адсорбенты получены при переработке твердых отходов каолина и фосфогипса и позволяют утилизировать эти отходы и снизить их негативное воздействие на окружающую среду. Согласно проведенным исследованиям, адсорбенты на основе фосфогипса и каолина дешевы, экологически безопасны и могут использоваться в качестве эффективных адсорбентов при очистке сточных вод.

Ключевые слова: твердые отходы, каолин, фосфогипс, Алмалык, адсорбент, переработка.

Abstract : This article examines solid wastes kaolin and phosphogypsum, and based on them, adsorbents with different composition and properties were obtained. According to the results of the research, the obtained adsorbents are obtained by processing solid wastes of kaolin and phosphogypsum and allow to dispose of these wastes and reduce their negative impact on the environment. According to the conducted research, adsorbents based on phosphogypsum and kaolin are cheap, environmentally safe and can be used as effective adsorbents in wastewater treatment.

Key words: solid waste, kaolin, phosphogypsum, Almalyk, adsorbent, processing.

KIRISH

Inson ishlab chiqarish faoliyati natijasida har xil modddalar bilan ifloslangan suvlar hosil bo‘ladi. Organizm uchun xavfli bo‘lgan zaharlangan suvning xarakteristikalarini ko‘rib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, chuchuk suvdagi pH miqdori pasayishi bilan sulfat va nitrat ionlarining miqdori oshadi. Yer osti suvlari va ko‘llarda, kalsiy, magniy, kremniy ionlari konsentratsiyasi kislotali yomg‘irlar xisobiga ko‘payadi. Suv bilan birga, inson organizmiga bir qancha og‘ir metallar (simob, qo‘rg‘oshin, rux, mishyak) o‘rnashib qolishi mumkin va ularni organizmdan chiqib ketishi qiyin kechadi. Tabiatdagi suv manbalarida tuz miqdori har yili 30-50 mg/l ga oshishi qattiq chiqindilar va turib qolgan suvlar, havodagi tuzlarning migratsiyasi bilan bog‘liq.

Qattiq sanoat chiqindilarining ko‘pchilik qismi O‘zbekistonning sanoati rivojlangan viloyatlarida to‘planadi, buni oqibatida esa har xil ekologik muammolar, suvning, havoning, tuproqning ifloslanishiga olib keladi. Bu esa oxir oqibatda odam salomatligiga va ekosistemaga

nojo‘ya ta’sir qiladi. Dunyo bo‘yicha ilmiy-ish olib boradigan guruhlar har xil qattiq chiqindilarni keyinchalik atrof muhitni ifloslantirmasligi uchun choralar ko‘rib chiqmoqda. Qattiq sanoat chiqindilari ikkilamchi xomashyo sifatida ishlatish uchun tavsiya qilingan.

Fosfogips - kalsiy sulfat ($CaSO_4 \cdot nH_2O$, n= 0, 0.5 va 2) o‘g‘itlar uchun fosfat kislota ishlab chiqarishda ishlatiladi va fosforit bilan sulfat kislota reaksiyasining qo‘shimcha mahsuloti hisoblanadi [1,2]. Har yili dunyo bo‘yicha millionlab tonna fosfogips chiqindi sifatida hosil bo‘ladi va to‘planadi. Bunda fosfogips faqat qisman qishloq xo‘jaligida va qurilishda ishlatiladi, ko‘p qismi esa chiqindi sifatida saqlanadi. Hozirgi vaqtda fosfogipsning asosiy zahirasi AQSH, Kanada, Yevropa, Avstraliya, Yaponiya, Hindiston va boshqa davlatlarda joylashgan. Masalan, Belorussiyada fosfogipsni muhim zahiralari mavjud bo‘lib, ular ko‘payishi davom etmoqda. Gomel kimyo zavodining ishlab chiqarish faoliyati jarayonida har yili 650-800 ming tonna qattiq sanoat chiqindilari ishlab chiqariladi, ularning aksariyati fosfogips bilan ifodalanadi. Zavod faoliyatining 50 yillik davrida zavod hududida saqlanadigan va yer osti va er usti suvlarini ifloslash manbai bo‘lgan 20 million tonnaga yaqin fosfogips to‘plangan. Aholi zich joylashgan mamlakatlarda chiqindilarni ko‘mish juda qimmatga tushadi, shuning uchun fosfogipsli chiqindilarini qayta ishlashning qo‘shimcha usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Olmaliq kimyo zavodi – O‘zbekistondagi eng yirik kimyoviy korxonalardan biri hisoblanadi. Korxona fosforli o‘g‘itlarni qishloq xo‘jaligi uchun ishlab chiqaradi. Hozirgi vaqtda ushbu korxonada 70 million tonnaga yaqin fosfogips to‘plangan. Agar O‘zbekistonda va shu qatori dunyo miqyosi buyicha har doim fosforli o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyoj ortsa, unda mamlakatlardagi fosfogipsning chiqindilari ekologik va iqtisodiy jihatdan muommolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan:

1-suv havzalari kislotali turg‘un suvlar bilan ifloslanishi mumkin;
2- grunt suvlarida ifloslantiruvchi moddalar hosil bo‘lishi mumkin;
3- fosfogips chiqindilaridan ochiq holatida kam miqdorda radon gazi ajralib chiqishi mumkin;
4- fosfogips zahiralari uchun ajratilayotgan erlarning narhi oshadi;

Hozirgi vaqtda fosfogipsning qayta ishlashning yangi usulini ishlab chiqarishning vazifasi, uning to‘planib qolishini va keyinchalik saqlanib qolinishini bartaraf qilishdan iboratdir. Fosfogipsni ishlatishdan oldin undagi qo‘shimchalarni yo‘qotish kerak, buni esa yuvish yo‘li bilan yoki ammiakli eritma , suvli ammoniy sulfat , sulfat kislota va kremniy oksidi aralashmalari bilan ishlov berish yo‘li bilan yo‘qotsa bo‘ladi. Fosforitlarda tabiiy uranning miqdori fosfogipsni ozroq radioaktiv qilishi mumkin va bu uning chiqindilari zararli ekanligining bir sababi hisoblanadi. Yaqinda [3], fosfogipsdagi radionuklidlarning (^{226}Ra, ^{210}Pb, ^{238}U va ^{40}K) konsentratsiyasini kamaytirish amalga oshirildi bunda kerosinda uch-butil fosfat (TBF) va uch-oktil fosfin (TOF)lar bilan ishqorlanadi, bu esa keyinchalik mahsulotni havfsiz holda ishlatishga imkoniyat beradi.

Oxirgi vaqtlarda fosfogips adsorbent sifatida Cd, Pb, Zn, Cu , Ag, Ni, As, Tl, Sr, fenollar va bo‘yoqlarni [4,5] yo‘qotishda ishlatiladi. Uni ishlatish imkoniyatlariga qaramay, fosfogips to‘planib qolishi bilan bog‘liq ekologik muommolar hali to‘liq yechimini topmagan.

Ushbu maqolada Olmaliq fosfogipsidan va Angren kaolinidan $CaO \cdot Al_2O_3 \cdot SiO_2$ sistemada yuqori samarali va qimmat bo‘lmagan noorganik sorbentlarni olishning oddiy usullarini yaratishdan iborat. Bu izlanishning asosiy maqsadi – noorganik sorbentning adsorbsion qobiliyatiga dastlabki materiallarning massa nisabti va kuydirish haroratlari ta’sirini o‘rganish, eng yaxshi namunani tanlashdan iborat.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Suvli eritmada tayyorlangan sorbentlarning sorbsion xossasining tajribasi uchun NH_4^+ ionlari (evtrofikatsiya bilan bog‘liq kationlarning vakili), digidrofosfat $H_2PO_4^-$ (zararli oksianionlarning vakili) va Ni^{2+} nikel ionlari (og‘ir metallar kationlari vakili) tanlandi.

Dastlabki materiallar sifatida Olmaliq kimyo zavodi, Toshkent viloyati, O‘zbekiston fosfogipsi (F) va Angren, Toshkent viloyati, O‘zbekiston (K) kaolini. Fosfogips mayda dispersli, oq kukun fosfat kislota ishlab chiqarishda ishlatiladigan va sulfat kislota bilan fosfat xomashyosi kimyoviy reaksiyasidagi qo‘shimcha mahsulot hisoblanadi.

Angren kaolinining asosiy komponentlari SiO_2 va Al_2O_3 hisoblanadi, ularning molyar nisbatlari SiO_2 / Al_2O_3 = 3,20. Olmaliq fosfogipsining asosiy komponenti - $CaSO_4$. Kimyoviy xossalari (% mass.) va dastlabki materiallarning ba’zi bir xossalari 1- jadvalda keltirilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA.


Angren kaolini va Olmaliq fosfogipsining solishtirma yuzalari (S_{BET}) mos ravishda 14.72 m^2g^{-1} va 14.0 m^2g^{-1} ga teng. 900°S haroratda qizdirilgandan so‘ng, Angren kaolini va Olmaliq fosfogipsining solishtirma yuzalari (S_{BET}) qiymatlari 7,35 m^2 g^{-1} va 1,52 m^2 g^{-1} gacha mos ravishda kamaydi.

Loysimon minerallar aralash-g‘ovakli hisoblanadi, tarkibida mikro, mezo, va makroteshikchalarga ega. Loysimon minerallarning ajratilgan vakillari har xil sharoitda rivojlanishi barcha uchta teshikcha o‘lchami va ularning hajmi bo‘yicha farqlanadi.

1-jadval. Dastlabki materiallarning kimyoviy tarkibi va ba’zi bir fizik-kimyoviy xarakteristikalari

Komponent	Angren kaolini	Olmaliq fosfogipsi
SiO_2	55.63	1.89
Al_2O_3	29.59	0.08
Fe_2O_3	0.93	-
TiO_2	0.44	-
CaO	0.10	36.48
MgO	0.10	-
Na_2O	1.38	-
P_2O_5	-	0.44
SO_3	-	49.89
MnO	-	
Cl	-	
L.o.I.	11.83	11.22
Zichlik (g/sm^3)	2.63	2.34
Zarrachalarning o‘rtacha o‘lchami (μm)	22.53	58.30


Dastlabki materiallarning rentgenogramma ma’lumotlari 1-rasmda ko‘rsatilgan. Angren kaolininig rentgen difraktogrammasi a-rasmda kristall kaolinit va kvarsning makro fazasiga mos keladigan difraksion piklari aniq ko‘rsatiladi. Olmaliq fosfogipsining rentgenli difraktogrammasi $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ va $CaSO_4$ larning aralash fazasining miqdorini ko‘rsatadi.



1a-rasm. Angren kaolini (a) va Olmaliq fosfogipsining(b) rentgenogrammasi.
(○ - $CaSO_4 \cdot 2H_2O$; ◇ -kaolinit; □ - $CaSO_4$; ▽ -kvars).

Olingan dastlabki materiallarning elektron mikroskopiya tasvirlari 2-rasmda ko‘rsatilgan.

2a-rasmda Angren kaolinining elektron mikrofotografiyasi keltirilgan, unda kichkina kaolinitning qavatsimon plastinasi va kvarsning yirik kristallarini ko‘rsa bo‘ladi. Olmaliq fosfogipsining mikrofotografiyasi namunasi (2b-rasmda) $CaSO_4 \cdot 2H_2O$ va $CaSO_4$ ning rombik va geksagonal formalarining (50x150 μm) yirik va mayda kristallari aralashmasini ko‘rsatadi.



2a-rasm. Angren kaolini (a) va Olmaliq fosfogipsining(b) mikrofotografiyasi

Ni^{2+} PO_4^{3-} sorbsiyalarining AK namunasi uchun og‘ir metallar ionlariga va zararli oksianionlarning bu materiallarga nisbatan sorbsiya qobiliyati o‘rganildi. Ikki namuna uchun Ni^{2+}, fosfat va MB ionlariga nisbatan sorbsion qobiliyatlari orasida farq bor bo‘lsa ham, ular yaxshi ko‘p funksionalli qobiliyatlarni ko‘rsatadi. 2-jadvalda fosfat ionlari uchun sorbsion ma’lumotlar keltirilgan, hamda kalsiy, alyuminiy, kremniy ionlari desorbsiyasi ma’lumotlari ham keltirilgan.

2-jadval

Namuna (°C)	C_i (mmol/l)	C_f (mmol/l)	C_{Ca} (mmol/l)	C_{Si} (mmol/l)	C_{Al}(mmol/l)	Q_e (mmol/g)	K_d	pH_i	pH_f
Phys700	0.73	0.23	0.25	0.15	0.1581	0.25	1072	5.18	10.08
Phys 700	0.82	0.74	0.19	0.13	0.0000	0.06	79	5.18	7.61
Phys 800	0.73	0.10	1.87	0.16	0.6762	0.36	45892	5.18	12.42
Phys 800	0.82	0.65	0.37	0.17	0.0000	0.12	180	5.18	7.78
Phys 900	0.82	0.55	0.61	0.15	0.0000	0.19	356	5.18	8.44
Phys 850	0.00	0.0000	2.01	0.34	0.6880	0.00		5.18	11.47
Phys 850	0.20	0.0000	1.34	0.35	0.7926	0.10		5.18	11.4
Phys 850	0.50	0.0000	1.09	0.29	0.7232	0.25		5.18	11.29
Phys 850	1.00	0.0000	1.05	0.29	0.5202	0.50		5.18	11.03
Chem 700	0.82	0.67	0.33	0.12		0.07	109	5.19	7.75
Chem 800	0.82	0.75	0.44	0.14		0.03	43	5.19	8.20
Chem 1000	0.82	0.76	0.41	0.10		0.03	36	5.19	7.98
Chem 900	0.00	0.00	0.33	0.11		0.00		5.14	9.36
Chem 900 (HCl)	0.82	0.75	0.00	0.00	0.00	0.03	48	5.19	6.24
Chem 1330 (HCl-1mM)	0.82	0.81	0.00	0.00	0.00	0.01	7	5.14	4.06
Chem 1330(HCl-0.5mM)	0.41	0.38	0.00	0.00	0.00	0.01	34	5.14	4.03

FK seriyali namunalar yordamida har xil haroratlarda Olmaliq fosfogipsidan va Angren kaolinidan tayorlangan Ni^{2+}, PO_4^{3-} va NH_4^+ modelli eritmalar uchun sorbsion ma’lumotlari keltirilgan. Sorbsiya tajribasida muvozanatning qaror topishi xona haroratida 24 soatni tashkil qildi va tuzning dastlabki konsentratsiyasi S_i =10 mmol l^{-1} ga teng bo‘ldi.

3-jadval

FK seriyali sorbentlar bilan ammoniy, fosfat va nikel ionlarining sorbsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar

Namuna (°C)	C_f (mmol/l)	Adsorbsiya (%)	Q_e (mmol/g)	K_d	pH_i	pH_f
NH_4^+						
F10K0-0	7.32	26.80	1.34	183.06	4.57	4.1
F10K0-500	7.16	28.40	1.42	198.32	4.68	4.94
F10K0-600	6.97	30.30	1.52	217.36	4.6	4.95
F10K0-700	7.46	25.40	1.27	170.24	4.57	4.97
F5K5-900	6.55	34.50	1.73	263.36	4.65	5.08
F5K5-1000	6.47	35.30	1.77	272.8	4.76	4.98
F3K7-0	5.78	42.20	2.11	365.05	4.63	4.83
F3K7-500	**5.32**	**46.80**	**2.34**	**439.85**	**4.62**	**4.99**
F3K7-600	7.3	27.00	1.35	184.93	4.51	4.92
F3K7-700	5.96	40.40	2.02	338.93	4.51	4.91
F3K7-800	6.29	37.10	1.86	294.91	4.52	4.93
F3K7-900	7.03	29.70	1.49	211.24	4.76	5.13
F3K7-1000	7.42	25.80	1.29	173.85	4.76	5.13
F0K10-0	6.09	39.10	1.96	321.02	4.54	4.9

F0K10-500	6.29	37.10	1.86	294.91	4.53	4.83
F0K10-600	**6.38**	**36.20**	**1.81**	**283.7**	**4.52**	**4.82**
F0K10-700	6.42	35.80	1.79	278.82	4.52	4.81
F0K10-800	6.68	33.20	1.66	248.5	4.52	4.82
F0K10-900	6.7	33.00	1.65	246.27	4.54	4.84
F0K10-1000	6.64	33.60	1.68	253.01	4.53	4.66

Suvli eritmadagi Ni^{2+}, NH_4^+ va PO_4^{3-} sorbsiyada barcha tayyorlangan namunalarning sorbsion xususiyatlari solishtirilganda F0K10-600 F3K7-500 va F10K0-1000 namunalar eng yuqori sorbsion qobiliyatini namoyon qildi. Shunday qilib, Ni2+ sorbsiyasidagi yutilish NH4+ va PO43- sorbsiyadagisiga nisbatan pastroq bo‘ldi.

Suvli muhitda namunalar yordamida boshlang‘ich sorbsion sinovi yuqori sorbsion qobiliyatli NH_4^+ (1.03-2.34 mmol g-1), RO_4^{3-} (0.80-2.48 mmol g-1) va Ni^{2+} (0.24-0.81 mmol g-1) ionlariga nisbatan o‘tkazildi.

XULOSA

Ishlab chiqilgan suvni tozalashning yangi sistemasi afzalliklarga ega, sorbentlarni yaratish yo‘li bilan fosfogipsni qayta ishlash asosida atrof muhitga potensial ta’sirning kamayishiga olib keladi. Olingan adsorbentlar o‘zining tarkibida og‘ir metallarni saqlamaydi, ekologik jihatdan zararsiz bo‘lib ularni suvni tozalash maqsadida ishlatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fosfogips asosida olingan aktivlangan ko‘mirlar va sorbentlar suvni tozalash uchun samarali va arzon adsorbentlar hisoblanadi,ular qulay va arzon xomashyodan olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Баян, Е. М. Взаимодействие карбонатсодержащего реагента с ионами тяжелых металлов в водных растворах / Е. М. Баян, Т. Г. Лупейко, М. О. Горбунова // Журнал прикладной химии. – 2007. – Т. 80, № 7. – С. 1063 1066.
2. Чиркст Д.Э. Сорбция железа (2+) железомарганцевыми конкрециями // Журнал прикладной химии. 2005. Т. 78. Вып. 4. С. 599–605.
3. Yang, Y., Shu, D., Fu, T., Zhang, H., 2012. Equilibrium and kinetics studies for adsorption of Cu(II) from aqueous solution by modified phosphogypsum. Adv. Mater. Res. V. 518-523, P. 369-375.
4. El-Tyeb, M.M., Zeedan, S.R., 2010. Performance evaluation of industrial by-product phosphogypsum in the sorptive removal of nickel (II) from aqueous environment. In: Advances inWaste Management, 4th WSEAS International Conference on Waste Management, Water Pollution, Air Pollution, Indoor Climate (WWAI’10), Sousse, Tunisia, May 3e6, P. 32-41.
5. Aguilar-Carrillo, J., Garrido, F., Barrios, L., Garcia-Gonzalez, M.T., 2006. Sorption of As, Cd and Tl as influenced by industrial by-products applied to an acidic soil:equilibrium and kinetic experiments. Chemosphere 65, P. 2377-2387.

“YASHIL” IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MUAMMO VA YECHIMLAR

"ЗЕЛЕНАЯ" ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

THE “GREEN” ECONOMY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT: CHALLENGES

EKOLOGIK XAVFSIZLIK FALSAFASI: EKOLOGIK CHEKLOVLAR, IQTISODIY MANFAATLAR VA BARQAROR FAROVONLIK PARADIGMASI

Ashurov Abror Uralovich
University of Business and Science
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik xavfsizlik falsafasi zamonaviy global o‘zgarishlar, iqlim muammolari va iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridan kelib chiqib tahlil etiladi. Ekologik xavfsizlik tushunchasi antroposentrik va ekosentrik paradigmalarning nazariy asoslari bilan solishtirilib, ekologik tafakkurning evolyutsiyasi yoritiladi. Tadqiqot doirasida ekologik cheklovlar va iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi murakkab dialektik o‘zaro ta’sir yetakchi olimlarning konsepsiyalari asosida tahlil qilinadi, iqtisodiy o‘sishning an’anaviy talqinini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati ilmiy asoslanadi. Maqolada iqtisodiy manfaatlarni ekologik xavfsizlik bilan uyg‘unlashtirishning siyosiy, institutsional va texnologik imkoniyatlari, shuningdek yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi roli batafsil ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning ekologik xavfsizlik strategiyasi, iqlim barqarorligi siyosati va yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonidagi ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy xulosalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Ekologik xavfsizlik, ekofalsafa, falsafiy yondashuv, ekologik cheklovlar, iqtisodiy manfaatlar, barqaror farovonlik, ekologik-iqtisodiy muvozanat, ekologik paradigm, barqaror rivojlanish, ekologik tafakkur, iqlim o‘zgarishi, ekologik axloq, ekologik muvozanat.

Аннотация. В данной статье философия экологической безопасности анализируется исходя из современных глобальных изменений, климатических проблем и процессов экономического развития. Понятие экологической безопасности сопоставляется с теоретическими основами антропоцентрической и экоцентрической парадигм, освещается эволюция экологического мышления. В рамках исследования анализируется сложное диалектическое взаимодействие между экологическими ограничениями и экономическими интересами на основе концепций ведущих ученых, научно обосновывается необходимость пересмотра традиционной трактовки экономического роста. В статье подробно рассматриваются политические, институциональные и технологические возможности гармонизации экономических интересов с экологической безопасностью, а также роль зеленой экономики в устойчивом развитии. В заключение будут представлены научные выводы по стратегии экологической безопасности Узбекистана, политике устойчивости климата и приоритетным направлениям перехода к зеленой экономике.

Ключевые слова. Экологическая безопасность, экофилософия, философский подход, экологические ограничения, экономические интересы, устойчивое благосостояние, эколого-экономическое равновесие, экологическая парадигма, устойчивое развитие, экологическое мышление, изменение климата, экологическая этика, экологическое равновесие.

Abstract. In this article, the philosophy of environmental security is analyzed based on modern global changes, climate problems, and economic development processes. The concept of ecological security is compared with the theoretical foundations of the anthropocentric and ecocentric paradigms, and the evolution of ecological thinking is highlighted. Within the framework of the study, the complex dialectical interaction between environmental restrictions and economic interests is analyzed based on the concepts of leading scientists, and the need to revise the traditional interpretation of economic growth is scientifically substantiated. The article examines in detail the political, institutional, and technological possibilities of harmonizing economic interests with environmental security, as well as the role of the green economy in

sustainable development. Scientific conclusions are given on Uzbekistan's environmental security strategy, climate sustainability policy, and priority areas in the process of transition to a green economy.

Keywords. Ecological security, ecological philosophy, philosophical approach, ecological limitations, economic interests, sustainable well-being, ecological and economic balance, ecological paradigm, sustainable development, ecological thinking, climate change, ecological ethics, ecological balance.

KIRISH

XXI asrning global jarayonlari insoniyat oldiga murakkab va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy muammolar majmuini qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ekologik xavfsizlik nafaqat atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan texnik yoki tabiiy muammolar yig‘indisi, balki taraqqiyot strategiyasini belgilovchi konseptual falsafiy kategoriya sifatida qaralmoqda. Ekologik xavfsizlik tushunchasi zamonaviy fanlarning turli yo‘nalishlarida – ekologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, falsafa va siyosatshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida shakllanmoqda. U inson va tabiat munosabatlarining uyg‘unlik va ziddiyat dialektikasini yoritish orqali jamiyat barqaror rivojlanishining negizida turuvchi tamoyilga aylanmoqda. Falsafiy nuqtai nazardan ekologik xavfsizlik insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan turli dunyoqarash modellariga tayanadi. Klassik jamiyatlarda tabiatning muqaddasligi va insonning tabiatga bo‘lgan ehtiyotkorona munosabati ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, industrial va postindustrial davrlarda texnika taraqqiyoti, iqtisodiy o‘sish va iste’mol darajasining oshishi ekologik xavflarni keskin kuchaytirdi. Bugungi kunda ekologik xavfsizlik tushunchasi faqat ekologik tizimlar barqarorligini emas, balki inson hayoti va farovonligining uzoq muddatli kafolatlarini anglatadi. Zamonaviy falsafiy talqinlarda ekologik xavfsizlik quyidagi asosiy komponentlarning integratsiyasidan iborat deb qaraladi: ontologik komponent – tabiatning mavjud bo‘lishi, ekologik tizimlarning o‘zini-o‘zi tiklash xususiyatlari va ularning buzilish xavfi; aksiologik komponent – tabiatga nisbatan qadriyatlar tizimi, ekologik axloq, mas’uliyat va ehtiyotkorlik tamoyillari; epistemologik komponent – ekologik jarayonlarni anglash, monitoring qilish va ilmiy tahlil qilish mexanizmlari; prakseologik komponent – ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va xavfsiz taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqish; ekologik xavfsizlikning falsafiy talqini insonning tabiatga munosabati va bu munosabatning oqibatlari ustida mushohada yuritishga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, ekologik xavfsizlik “inson – tabiat – texnika” tizimi doirasida muvozanatni tiklovchi va uni mustahkamlovchi konsepsiya sifatida qaraladi. UNESCO, IPCC va UNEP singari xalqaro tashkilotlar tomonidan so‘nggi yillarda e’lon qilingan ma’lumotlarda ekologik xavfsizlik global xavfsizlik tizimining markaziy bo‘g‘ini sifatida talqin qilinmoqda. Bu tendensiya ekologik muammolarning planetar miqyosda chuqurlashganini va ekologik xavfsizlik endi faqat ekologlar mas’uliyati emas, balki barcha davlatlar va jamiyatlarning umumiy vazifasiga aylanganini ko‘rsatadi.

TADQIQOT USLUBLARI

Ushbu ilmiy tadqiqotda ekologik xavfsizlik, iqtisodiy manfaatlar va barqaror farovonlik paradigmasini o‘rganishda quyidagi asosiy uslublardan foydalanildi:

Falsafiy-ontologik tahlil, ya’ni ekologik xavfsizlikning mohiyatini, ekologik cheklovlarning kelib chiqishini va inson–tabiat munosabatining falsafiy asoslarini aniqlash uchun qo‘llandi. Dialektik yondashuv – ekologik cheklovlar bilan iqtisodiy manfaatlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik va ularning uyg‘unlashuv mexanizmlarini tahlil qilishda asosiy metod sifatida xizmat qildi;

Komparativ tahlil, ya’ni Jackson, Stiglitz, Stern va boshqa olimlarning qarashlarini solishtirish orqali ekologik xavfsizlik nazariyalarining umumiy va farqli jihatlari o‘rganildi. Sistemali tahlil – ekologik xavfsizlikning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan o‘zaro bog‘liqligini yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishga yordam berdi.

Ilmiy-prognostik yondashuv, ya’ni ekologik xavf va iqlim o‘zgarishining kelajakdagi ta’sirini baholash uchun prognoz modellaridan foydalanishga imkon berdi.

Normativ-huquqiy tahlil, ya’ni O‘zbekistonning ekologik siyosati va xalqaro ekologik me’yorlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni aniqlash uchun qo‘llandi.

Empirik tahlil elementlari – statistik ma’lumotlar, ekologik ko‘rsatkichlar va iqtisodiy dinamikalar asosida real holatning ilmiy bahosi amalga oshirildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati tarixiy jarayonda ikki asosiy falsafiy paradigma orqali shakllangan: antroposentrik va ekosentrik. Ushbu paradigmalarning o‘zaro munosabatini tahlil qilish falsafiy tomondan ekologik xavfsizlikning zamonaviy mazmunini chuqur anglashga imkon beradi. **Antroposentrik paradigma** insonni mavjudotlar ichida markaziy o‘ringa qo‘yadi. Bu yondashuvga ko‘ra tabiat insonning manfaatlari uchun vosita yoki resurs sifatida qaraladi. Industrial jamiyatlarda iqtisodiy o‘sishning ustuvorligi antroposentrik qarashning keskin kuchayishiga olib keldi. Natijada resurslar haddan tashqari ekspluatatsiya qilindi, biosferaning ko‘plab komponentlari degradatsiyaga uchradi. Bugungi global ekologik muammolarning aksariyati aynan ushbu yondashuvning oqibatidir. **Ekosentrik paradigma** esa tabiatni o‘zidan-o‘zi qadriyat sifatida ko‘radi. Tabiiy tizimlar, biologik xilma-xillik, ekotizimlar barqarorligi inson manfaatidan mustaqil ravishda muhim deb tan olinadi. Ekosentrik yondashuv barqaror rivojlanishning asosiy negizlaridan biri hisoblanadi va ekologik xavfsizlik falsafasining shakllanishida markaziy rol o‘ynaydi. Ekologik tafakkurning evolyutsiyasi ana shu ikki paradigmadan sintezlangan integrativ paradigma paydo bo‘lishiga olib keldi. Hozirgi global siyosatda ekologik xavfsizlikni ta’minlash antroposentrik manfaatlarni inkor etmagan holda ekosentrik me’yorlarni integratsiya qilish orqali amalga oshirilmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining “Green Deal” strategiyasi yoki BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)” inson farovonligi va tabiat xavfsizligini o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida ko‘radi. Ekologik xavfsizlik falsafasida bunday integrativ paradigmaga asoslangan yondashuv quyidagilarni anglatadi:

iqtisodiy o‘sishni ekologik cheklovlarga moslashtirish;

resurslardan foydalanishning tejamkor va qayta tiklanuvchi mexanizmlarini joriy etish;

texnologik taraqqiyotning yashil yo‘nalishlarini rivojlantirish;

tabiatning ichki qadriyatini e’tirof etish;

jamiyatda ekologik madaniyat va mas’uliyatni kuchaytirish.

Bu yondashuv ekologik xavfsizlikni faqat real muammolarni bartaraf etish mexanizmi sifatida emas, balki jamiyatning kelajak avlodlar oldidagi axloqiy majburiyati sifatida ham tushuntiradi.

Bugungi global ekologik muhitda ekologik xavfsizlikni ta’minlashning eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi, atrof-muhit degradatsiyasi va ekologik risklar tobora kuchayib bormoqda. IPCC (2021) hisobotida qayd etilishicha, Yer harorati sanoatgacha bo‘lgan davrga nisbatan 1,1°C ga ko‘tarilgan va bu jarayonning tezlashishi inson faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Haroratning oshishi tabiiy ofatlarning ko‘payishi, qurg‘oqchilik, suv tanqisligi va biologik xilma-xillikning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishi inson xavfsizligining barcha tarkibiy qismlari hisoblangan oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy barqarorlik va migratsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa iqlim masalasini ekologik muammo bilan bir qatorda geosiyosiy omilga aylantirmoqda. Tabiiy resurslar tanqisligi, jumladan neft, gaz, toza suv, mineral resurslar, o‘rmonlar va unumdor tuproq kabi resurslarning intensiv kamayishi global iqtisodiy tizimga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. 2020–2024-yillar davomida BMT va FAO hisobotlarida qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha qariyb 40% tuproqlar degradatsiyaga uchragan, suv tanqisligi esa 2050-yilga kelib ikki baravar ortishi mumkin. Ekologik risklar sanoat chiqindilari, radioaktiv va kimyoviy moddalarning ko‘payishi,

havoning ifloslanishi, plastik chiqindilar, mikroplastiklar, shaharlarning nazoratsiz kengayishi va boshqa omillar bilan yanada murakkablashmoqda. Bundan tashqari, antropogen faoliyat natijasida yuzaga kelayotgan noan’anaviy risklar, xususan pandemiyalar, ekotizimlarning o‘zini-o‘zi tiklash qobiliyatining pasayishi, biogeokimyoviy sikllarning buzilishi kabilar ekologik xavfsizlikka global tahdid tug‘dirmoqda. Ekologik muammolarning bunday chuqurlashuvi shuni ko‘rsatadiki, ekologik xavfsizlik falsafasi oddiy tavsiyalar yoki texnik yechimlar bilan hal etilmaydi; u jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, axloqiy va madaniy tizimlariga chuqur singdirilishi kerak bo‘lgan konsepsiyadir. Iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyalari, yashil energetika, qayta tiklanuvchi resurslar, energiya samaradorligi, doiraviy iqtisodiyot va ekologik boshqaruv tizimlarining joriy etilishi ekologik xavfsizlikning zamonaviy metodologik asoslari sifatida qaraladi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikning falsafiy tahlili bugungi dunyoda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishning zarurligini ko‘rsatadi. Ekologik xavflarni kamaytirish faqat davlat siyosati yoki texnologik innovatsiyalarga bog‘liq emas; bu jarayon jamiyatning umumiy tafakkuri, qadriyatlari va axloqiy normalari bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Issiqlik elektr stansiyalari bugungi kunda dunyoda energiya olishning eng keng tarqalgan turidir. Bu jarayon esa atmosferani eng ko‘p zararlaydi. O‘zbekiston hududidagi Sirdaryo IES, Toshkent IES, Angren IES, Yangi Angren IES, Navoiy IES, Tallimarjon IES, Taxiatosh IES, To‘raqo‘rg‘on IES, **Muborak IEM, Farg‘ona IEM, Toshkent IEM**lari eng yirik energiya ishlab chiqaruvchi inshootlar hisoblanadi. Bu stansiyalar mamlakatimiz atmosferasiga juda katta salbiy ta’sir qilmoqda. Shuning uchun dunyoning eng rivojlangan davlatlari bugungi kunda bosqichma-bosqich IES hamda AESlardan voz kechmoqda. Hamda ularning o‘rnini energiya olishning muqobil shakllari bilan almashtirish ishlari keng miqyosda jadal amalga oshirilmoqda. Xususan Germaniya 2030-yilgacha mamlakat hududidagi IESlar sonini kamaytirib hamda barcha AESlarini to‘liq to‘xtatib ularning o‘rnini shamol elektr stansiyalari va quyosh elektr stansiyalari bilan almashtirib, keng masshtabda energiya olish rejalashtirilgan. Hozirda ham mamlakat hududida SHES va QESlar katta maydonlarda qurilgan va energiya olishda ancha yuqori ulushga ega bo‘lib ulgurgan. Bu qayta tiklanuvchi energiya turlaridan foydalanish bo‘yicha Germaniya tajribasiga boshqa Yevropa mamlakatlari ham asta-sekin o‘tish ishlarini boshlab yuborishgan.

Jizzax viloyati hududida bugungi kunda IES hamda yirik GES mavjud emas faqatgina Zomin mikroGESi mavjud. Shuningdek hozirgi kunda Forish tumani hududida Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi bo‘yida Rossiya Federatsiyaning “Rosatom” kompaniyasi bilan hamkorlikda kam quvvatli atom elektr stansiyasi reaktorining binosi uchun kotlovan qazish ishlari boshlab yuborildi. Ushbu yirik loyiha mamlakatimiz energetik mustaqilligini ta’minlash, ekologik toza energiya ishlab chiqarish imkonini beradi deb ta’kidlashmoqda soha mutaxassislari [10].

Hozirda Jizzax viloyat hududini elektr energiyaga bo‘lgan talabini katta qismini Sirdaryo IES ta’minlaydi. Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasi – O‘zbekiston xususan Markaziy Osiyodagi eng yirik energetika inshootlaridan biri hisoblanadi. IES Sirdaryo viloyatida Yangiyer shahridan 30 km sharqda, O‘zbekiston va Tojikiston chegarasidagi Shirin shahrida joylashgan. Asosiy yoqilg‘isi – Sho‘rtan gaz konlaridan olinadigan tabiiy gaz, bundan tashqari mazutdan ham keng foydalaniladi [11]. Stansiyaning uzluksiz faoliyati natijasida hudud tevarak atrofiga, xususan

Shirin shahri atmosfera havosiga katta zarar keltirmoqda. Buning natijasida turli xil ekologik muammolar yuzaga kelmoqda. Bu o‘z navbatida Sirdaryo viloyati hamda Tojikiston Respublikasi hududlariga sezilarli darajada ta’sir qilmoqda.

Shunday ko‘rinishdagi ekologik muammolarni bartaraf etish uchun bugungi kunda jahon tajribasi bo‘lgan energiya olishning muqobil, noan’anaviy turlariga o‘tish zamon talabidir. Energiya olishning muqobil shakllaridan Jizzax viloyati hududida shamol va quyosh energiyasi imkoniyatlarining yuqori potensiali mavjud hisoblanadi. Jizzax viloyati hududida qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan quyosh fotoelektr stansiyalar qurilishi hamda ulardan foydalanish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda.

Jizzax viloyat hududida quyosh elektr stansiyalaridan hamda panellaridan “Zomin” monitoring markazida, Forish tumanidagi Narvonsoy qishlog‘idagi fermer xo‘jaligida, Jizzax davlat pedagogika universitetida va Jizzax politexnika institutida hamda ko‘plab davlat tashkilotlarida keng foydalanilmoqda. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qaroriga asosan davlat-xususiy sheriklik asosida yirik quvvatli quyosh elektr stansiyalarini qurish loyihasi G‘allaorol tumani Qaropchi qishlog‘ida 650 gektar joyda Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” kompaniyasi tomonidan quvvati 220 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasi (FES) qurilish loyihasi doirasida 220/35 kV PS va kuchlanishi 220 kV uzunligi 30 km bo‘lgan elektr uzatish tarmog‘ini qurilish ishlari yakunlangan hamda foydalanishga topshirilgan. Bu loyihaning qiymati 150 (mln doll.), stansiyaning umumiy quvvati 220 (MVt), shundan, 100 (MVt) 2023-yilda ishga tushirilgan. Yillik ishlab chiqarish hajmi 572 (mln kVt/soat), shundan 21 (mln kVt/soat) 2023-yildan buyon ishlab chiqarilmoqda [2]. Mazkur quyosh fotoelektr stansiya Jizzax viloyatidagi birinchi va eng yirik elektr stansiya bo‘lib hisoblanadi.

Hozirgi kunlarda Forish tumani hududida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025-yildagi PQ-158-son “Jizzax viloyatining Forish tumanida quvvati 500 MVt bo‘lgan quyosh fotoelektr stansiyasini hamda havo elektr uzatish tarmog‘ini qurish” investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida qarori [9] ijrosini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jizzax-Forish avtomobil yo‘li yoqasida Egizbuloq qishlog‘i atroflarida Xitoyning «Liquip International» kompaniyasi 500 MVt quvvatga ega quyosh elektr stansiyasini qurish ishlari amalga oshirilmoqda [12].

Viloyatdagi ikkinchi ushbu yirik loyiha “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish, viloyatning energiya mustaqilligini ta’minlash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish borasidagi navbatdagi yirik loyiha bo‘lib xizmat qildi.

Loyihaning amaliy ahamiyati quyidagicha:

Ekologik ustunlik: Quyosh energetikasi tabiiy resurslarni asrashga va atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

Energiya xavfsizligi: Yaqin kelajakda mahalliy elektr ta’minotida mustahkamlik va barqarorlik ta’minlanadi.

Bo‘sh ish o‘rinlari yaratilishi: Loyiha doirasidagi qurilish jarayonlariga mahalliy mutaxassislar jalb etilib, Forish tumanida yangi ish o‘rinlari tashkil etiladi.

Jahon miqyosida quyosh energergiyasiga bo‘lgan talab oshib borayotgan bir paytda, Forish tumanidagi ushbu stansiya nafaqat viloyat hududidagi energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, balki kelgusida eksport imkoniyatlarini ham yaratishi mumkin [8].

Viloyat hududida quyosh energiyasidan foydalanish qulay bo‘lgan hududlar bular tekisliklar va tog‘ oldi hududlari eng qulay joylar hisoblanadi. Bundan tashqari tog‘larning janubiy yonbag‘ri ham quyosh radiatsiyasi yaxshi tushadigan hududlar sarasiga kiradi.


Viloyatning tekislik hududlarida joylashgan tumanlar Paxtakor, Zafarobod, Arnasoy, Mirzacho‘l, Do‘stlik, Forish tumanining shimoliy qismlari, qisman Sharof Rashidov va Zarbdor

tumanlari hududlarida quyosh panellarini o‘rnatish yaxshi samara beradi. Bunda har bir uy xo‘jaligi tom qismlariga kichik qurilmalar o‘rnatish, olis hududlarda joylashgan elektr toki yetib bormagan yoki yetib borgan bo‘lsa ham uzilishlar kuzatiladigan qishloq aholi punktlarida ham kichik quyosh panellarini o‘rnatish zarurati ham mavjud.

Viloyatning tog‘li va tog‘ oldi hududlar joylashgan tumanlarda quyosh panellaridan foydalanish biroz noqulayliklar yuzaga keladi bunda asosiy sabab relyefning murakkab tuzilganligi. Bu hududlarda ham tog‘larning janubiy yonbag‘irlarida kichik turdagi quyosh elektr stansiyalari qursa ijobiy natija beradi (1-rasm) [3].

Viloyatda ikkinchi muqobil, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan biri bu shamol energiyasi hisoblanadi. Ma’lumki insoniyat shamol kuchidan qadimdan 1000 yillardan ko‘p vaqtdan beri foydalanib kelmoqda. Bu bitmas tugalmas qayta tiklanuvchi kuchdan elektr energiyasi olish XIX asr oxiriga kelib kashf etildi [5]. Bugungi kunda esa rivojlangan davlatlarda eng zamonnaviy SHESlar orqali energiya ishlab chiqarilmoqda. Eng zamonaviy bo‘lgan shamol elektr stansiyalarning shamolning tezligi 3-4 m/s dan 25 m/s gacha bo‘lgan tezlikdagi shamol yaxshi esadigan sun’iy to‘siqlar mavjud bo‘lmagan sharoitda va relyefi unchalik baland bo‘lmagan hududlarda o‘rnatish juda qulay ishlaydi va yaxshi samara beradi [2].


Viloyatning ayrim hududlarida ana shunday imkoniyatlar mavjud. Viloyatning tog‘oldi hududlarida shamol tezligi o‘rtacha 2,0-2,5 m/s ni tashkil etadi. Shuning uchun tog‘oldi hududlarining katta qismida kichik shamol generator qurilmalarini o‘rnatsa juda yaxshi samara beradi. Bundan istisno sifatida tog‘oldilarining alohida yerlarini keltirish mumkin (Jillig‘uli, Ilon o‘tdi darasi, G‘allaorol botig‘i, Sangzor botig‘i, Baliqlitog‘ va Pistalitog‘ oraliq qismlarida 5-6 m/s tezlikda), ular tog‘ adirlaridan chiqish yerlarida joylashgan. U yerlarda esa shamol rejimi bir jihatdan kuchli shamollarning tez-tez takrorlanishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ushbu hududlarda shamol generator qurilmalari bu yerda ancha samarali ammo tekisliklarga qaraganda past unumdorlik bilan ishlaydi, shuning uchun shamol generatorlarini quyosh panellari bilan birga (gibrid) shaklda qo‘llash juda yaxshi samara beradi. Bundan tashqari viloyat hududidagi Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi atroflarida tabiiy suvlik muhiti bo‘lgan joylarda ham shamol qurilmalarini o‘rnatsa doimiy shamollar esib turadi [2].



1-rasm. ArcGIS dasturida tayyorlangan
Jizzax viloyatining yillik o‘rtacha yalpi radiatsiya miqdori kartasi.

Izoh: *Karta muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Jizzax viloyatida hozirgi kunda shamol elektr stansiyalarini o‘rnatish va ularni amalyotga joriy qilish bilan bog‘liq loyihalar amalga oshirilgani yo‘q. Lekin 2023-yil 28-mart kuni Jizzax viloyatida quvvati 1000 MVtgacha bo‘lgan shamol elektr stansiyalarini qurish imkoniyatlarini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va Xitoyning “China Huadian Overseas Investments”, “CNEEC” (China National Electric Engineering Company) va “SANY Renewable Energy” kompaniyalari o‘rtasida Anglashuv memorandumi imzolangan. Hozirda kompaniyalar tomonidan stansiya qurish bo‘yicha doimiy shamol kuzatiladigan hududlarni aniqlash hamda o‘rganish ishlari amalga oshirilmoqda [13].



2-rasm. globalwindatlas.info sayti ma’lumotlari asosida tayyorlangan Jizzax viloyatining yillik o‘rtacha shamollar tezligi kartasi.

Izoh: *Karta muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Yuqoridagi karta ArcGIS dasturida tayyorlangan bo‘lib viloyat hududidagi shamollarning o‘rtacha tezligi berilgan. Bunda 10 metr balandliklda shamolning tezligi m/sek. hisobida aniqlangan.

Shartli belgilardan shuni bilsak bo‘ladiki shamol tezlik 8,8 m/sek. va undan katta bo‘lgan tezlik viloyat hududida tog‘larning suvayirg‘ich qismlarida kuzatiladi. Shuni hisobga olgan holda viloyat hududidagi tog‘lar suvayirg‘ichlarida shamol generatorlarini o‘rnatsa yaxshi samara beradi. Shamol tezligi 7,5-8,8 m/sek. gacha kuzatiladigan hududlar esa tog‘ oldi va tog‘ oraliq botiqlarida kuzatiladi, bu hududlar Sangzor va G‘allaorol botiqlariga to‘g‘ri keladi. Bu ikki hududda kuchli shamollar kuzatilishi barchamizga ma’lum (2-rasm) [1].

Bugungi kunda respublikamizda Navoiy viloyatining Tomdi, Uchquduq tumanlarida, Zarafshon shahrida SHES, Buxoro viloyati Peshku tumani va G‘ijduvon tumanlarida SHES, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qorao‘zak tumani SHES qurish ishlari Birlashgan Arab Amirliklarining “Masdar” hamda Saudiya Arabistoni “ACWA Power” kompaniyalari tomonidan amalga oshirildi hamda hozirda faoliya ko‘rsatmoqda [2].

XULOSA VA TAVSIYALAR

Jizzax viloyatida amalga oshirilayotgan mazkur loyihalar nafaqat mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiradi, balki O‘zbekistonning global ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan tashabbuslardagi faol ishtirokini ham namoyon etadi. Quyosh hamda shamol energetikasi – bu faqatgina texnologiya emas, balki barqaror kelajak hamda yashil iqtisodiyot sari

qo‘yilayotgan qat’iy qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Khaydarova, S.A., & Murodullayev, Kh.K. (2024). Opportunities to use wind energy in Jizzakh Region. *Journal of Geography and Natural Resources*, *4*(03), 7–17. https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-04-03-02

2. Murodullayev H.K. Jizzax viloyatida muqobil energiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari. “Atrof-muhit muammolarini hal qilishda tabiatga asoslangan yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami 28-29-noyabr, 2024-yil | ecoilm.uz

3. Murodullayev H.K., Rasulberdiyev Sh.U. Jizzax viloyatida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlar. “Geografiya – nazariyadan amaliyotga” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Qo‘qon: Qo‘qon davlat pedagogika instituti, 2024. -432 bet.

4. Murodullayev H.K., Razzoqova M.Sh. Muqobil energiya resurslari va ulardan foydalanish. «Ilmga baxshida umr» mavzusidagi Universitet miqyosidagi ilmiy–amaliy seminar materiallari. Jizzax – 2024. – 223 bet.

5. Zikirov B.Y., Murodullayev H.K. Shamol energiyasidan foydalanish tarixi. «O‘zbekistonda geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish yo‘llari» mavzusidagi Respublika ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. Jizzax, 2023. https://doi.org/10.55640/iscrc-3214

6. Zikirov, B., & Murodullayev, Kh. (2025). Study and mapping of wind speed in the Syrdarya region based on space imagery. *Journal of Geography and Natural Resources*, *5*(02), 9–17. https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-05-02-02

7. Zikirov, B.Y., Murodullayev, Kh.K., & Rakhimova, U.A. (2023). World experience in the use of alternative energy resources. *Journal of Geography and Natural Resources, 3*(05), 75-82. https://doi.org/10.37547/supsci-jgnr-03-05-11

8. Jizzax viloyati hokimligi Axborot xizmati ma’lumotlari 09.04.2025.

Internet saytlari:

9. https://lex.uz/uz/docs/-7507998 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025 yildagi PQ-158-son qarori.

10. https://kun.uz/news/2025/10/11/jizzaxda-aes-qurilishi-boshlandi

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/sirdaryo_issiqlik_elektr_stansiyasi

12. https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/jizzaxda-quvvati-500-mvt-bolgan-quyosh

13. https://uzeng.uz/uz/press_center/news/jizzax-viloyatida-quvvati-1000-mvtgacha-bolgan-shamol-elektr-stansiyalarini-qurish-imkoniyatlarini-/

14. https://globalwindatlas.info

15. https://www.ventusky.com

KUCHBULOQ KONI TUPROQLARINING ASOSIY KO‘RSATGICHLARINI BAHOLASH

Samandarova Yorqinoy Xolmurodovna, tayanch doktorant
Boboyev Hasan Odilovich, laboratoriya mudiri, q.x.f.d.
Atrof-muhitni va tabiatni muhofaza qilish texnalogiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kuchbuloq hududidan olingan tuproq namunalari tarkibi o‘rganilib ularning asosiy kimyoviy ko‘rsatgichlari oddiy tipik bo‘z tuproqlar bilan solishtirildi. Tahlillar natijasida tuproqdagi kation va anionlar miqdori, shuningdek quruq qoldiqning umumiy darajasi baholandi. Olingan ma’lumotlar asosida tuproqning sho‘rlanish darajasi, uning qishloq xo‘jaligi uchun yaroqliligi va ekologik holati haqida xulosa chiqarildi. Solishtirish natijalari tuproq

tarkibida ba’zi elementlarning me’yorlardan ortiqligini ko‘rsatdi. Ushbu natijalar kelajakda tuproqni meliorativ yaxshilash, tozalash yoki qayta foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Tuproq, mexanik tarkib, kimyoviy tarkib, sho‘rlanish, organik moddalar, makro va mikro elementlar, sug‘orish, tuproq unumdorligi, gumus.

Annotation: This article examines the composition of soil samples taken from the Kuchbuloq area and compares their main chemical indicators with those of typical light-gray soils. The analyses assessed the content of cations and anions in the soil, as well as the overall level of dry residue. Based on the obtained data, conclusions were drawn regarding the soil’s salinity level, its suitability for agriculture, and its ecological condition. The comparison results indicated an excess of certain elements in the soil composition beyond standard norms. These findings can serve as a basis for developing practical recommendations for soil reclamation, purification, or reuse in the future.

Key words: Soil, mechanical composition, chemical composition, salinity, organic matter, macro and micro elements, irrigation, soil fertility, humus.

Аннотация. В данной статье исследован состав почв, отобранных на территории Кучбулок, и их основные химические показатели сопоставлены с обычными типичными светло-серыми почвами. По результатам анализов оценивалось содержание катионов и анионов в почве, а также общий уровень сухого остатка. На основе полученных данных сделаны выводы о степени засоленности почвы, её пригодности для сельского хозяйства и экологическом состоянии. Результаты сравнения показали превышение некоторых элементов над нормой в составе почвы. Эти результаты могут служить основой для разработки практических рекомендаций по мелиоративному улучшению, очистке или повторному использованию почвы в будущем.

Ключевие слова: Почва, механический состав, химический состав, засоленность, органические вещества, макро и микро элементы, орошение, плодородие почвы, гумус.

KIRISH.

Toshkent viloyati Ohangaron tumani tabiat zona va rel’yef, gemorfologiyasi jihatdan, subtropik o‘rta tog‘ zonasi, to‘q tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi, lyossimon va delyuvial-prolyuvial skletli yotqiziqlardan tashkil topgan, tog‘ oldi qirli tekisliklarda joylashgan, lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlardan iborat.

To‘q tusli bo‘z tuproqlar tuproq iqlim sharoiti va morfogenetik xossalariga ko‘ra mexanik tarkibi og‘ir qumoqli, sho‘rlanmagan, kam, o‘rta va kuchli yuvilgan. Kam yuvilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlari asosan, tog‘ etaklari tog‘ yon bag‘rilarida joylashgan, mexanik tarkibi og‘ir qumoqli, gumus miqdori - 0,928 - 1,667 % gacha qalinligi 35-40 sm, harakatchan fosfor va kaliy bo‘yicha R2O5 - 9,6 -15,0 mg/kg, K2O - 279,3 - 438,3 mg/kg, karbonat miqdori - 3,4 - 5,8 % gacha, sho‘rlanmagan, nishabligi shimoldan 3 - 50 dan iborat. O‘rta yuvilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlar (bir-biridan) mexanik tarkibi og‘ir qumoqli gumus miqdori – 1,245 - 1,519 % , harakatchan fosfor va kaliy bo‘yicha R2O5 - 14,1- 31,0 mg/kg, K2O - 409,4 - 655,0 mg/kg dan iborat. Nishabligini janubiy-sharqdan 5 - 80. Kuchli yuvilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlar asosan mexanik tarkibi og‘ir qumoqli, gumus miqdori – 0,865 – 1,245 %, sho‘rlanmagan, shimoliy-sharqdan 8 -12% dan iborat. Yer osti sizot suvlari sathi 10 metrdan pastda bo‘lib, avtomorf rejimdagi lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlardir.

Kuchbuloq koni Ohangaron vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, hudud geologik tuzilishi va relyefi bo‘yicha murakkab bo‘lgan tog‘oldi mintaqalariga kiradi. Tuproqlarning mexanik tarkibi, odatda, mayda va o‘rta silt, qumli-siltli strukturalardan iborat bo‘lib, tog‘ yonbag‘irlarida qalin qum va shag‘alli qatlamlar uchraydi.

Hududda bo‘z tuproqlarning shakllanishiga yarim quruq iqlim, yozning issiq va quruq bo‘lishi, bahor va kuzda qisqa nam davrlar, shuningdek, tog‘lardan oqib tushuvchi eroziya jarayonlari kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bo‘z tuproqlar odatda o‘rtacha gumusga ega, karbonatli, sho‘r bosmagan yoki biroz sho‘rlanishga moyil bo‘ladi. Shu mintaqada sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish, qattiq qoldiqning ko‘tarilishi, natriy va magniy ionlarining ortishi kabi jarayonlar inson faoliyati natijasida tez-tez uchrab turadi.

Tuproq tarkibining kimyoviy va meliorativ xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha jahonda va Markaziy Osiyoda ham ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar faol olib borilgan. Tadqiqotchilar mintaqadagi konlar yonida joylashgan sug‘oriladigan yerlar ko‘pincha shaxta suvlari yoki kon chiqindilari ta’sirida kimyoviy tarkibining o‘zgarishiga moyil ekanligini qayd etadilar. Ayniqsa, Orolbo‘yi, Navoiy, Olmaliq va Angren mintaqalarida olib borilgan ilmiy ishlarda tuproqni ifloslanish manbalari sifatida sulfatli drenaj suvlari, og‘ir metallarning eruvchan shakllari, ishqoriylikning oshishi asosiy muammo sifatida keltiriladi. Ushbu tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kon hududlari yaqinidagi tuproqlarda Fe, Mn, Zn va Cu kabi elementlarning tabiiy fondan oshishi kuzatilgan, bu esa ekotizim barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar ham hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ilmiy bilimlarni yanada boyitgan. Xususan, Angren, Ohangaron va Olmaliq konlari atrofidagi tuproqlar bo‘yicha tadqiqotlarda quruq qoldiqning oshishi, sho‘rlanish darajasining notekis bo‘lishi, gumusning kamayishi, shuningdek kaliy va fosfor yetishmovchiligi qayd etiladi. Shu bilan birga, ayrim kon suvlari oqimida mis va ruxning yuqori darajada to‘planishi natijasida ularning tuproqda ham me’yorlardan ortiq bo‘lishi aniqlangan. Bunday holatlar nafaqat o‘simliklar uchun toksik ta’sir ko‘rsatadi, balki ularning ildiz faoliyatini susaytiradi, tuproqning struktura barqarorligini ham pasaytiradi.

Jahon va mintaqaviy tadqiqotlarning umumiy xulosasi shuni ko‘rsatadiki, kon hududlariga yaqin tuproqlarni baholashda pH, EC, quruq qoldiq, sho‘rlanish, organik modda miqdori va og‘ir metallarning kontsentratsiyasi eng muhim diagnostik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Kuchbuloq koni bo‘yicha olib borilgan ushbu tadqiqotlar ham ayni ilmiy yondashuvlar bilan hamohang ravishda hududning ekologik xavf omillarini aniqlash, agrotexnik tavsiyalar ishlab chiqish hamda meliorativ choralarni belgilash uchun muhim ilmiy asos yaratadi.

FAO–ICARDA (Markaziy Osiyo, 2012–2019) - F**AO – Food and Agriculture Organization of the United Nations**. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti. (Dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv resurslari va ekologiya yo‘nalishida ishlaydi.)

ICARDA – xalqaro ilmiy tadqiqot instituti. International Center for Agricultural Research in the Dry Areas. Quruq hududlar (Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Afrikaning ayrim qismi) bo‘yicha qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari olib boradigan xalqaro ilmiy markaz.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati, tuzlar migratsiyasi va og‘ir metallarning tarqalishi, masalan: Zn, Cu, Fe kabi metallarning ko‘tarilishi ko‘pincha sanoat obyektlari yaqinida uchrashi tasdiqlangan.

Resbekov K., Yinli B., Demeuov S., Mukanova G., Zhakepbek Y. Assessment of soil pollution by heavy metals in the area of open mining works (2021) - Ochiq kon hududi tuproqlarida 8 ta og‘ir metall (Cu, Pb, Zn, Cd, Ni, Cr, As, Hg) kontsentratsiyasini tahlil qilgan; ba’zi metallar me’yordan oshgan; tuproq “o‘rtacha ifloslangan” deb baholangan; remediatsiya va melioratsiya choralarini tavsiya qilgan.

He J., Zhang H., Yang K. - Heavy metal accumulation risk and source analysis in soils of antimony mining areas. (2025) - Kon hududlaridagi tuproqlarda metallarning to‘planishi, manba tahlili va ekologik jihatlari, bolalar salomatligi riskini baholagan, metallarning fazoviy taqsimoti va biologik ta’siri ko‘rsatilgan.

Zhao D., Vu K., Zeng Y. - Contamination and human health risk assessment of heavy metal(loid)s in topsoil and groundwater around mining and dressing factories in Chifeng, North China. (2023) - Kon va tozalash fabrikalari atrofidagi tuproq va yer osti suvlari tahlil qilingan; og‘ir metal(loid)lar darajasi, ekosistemalar va inson salomatligi uchun risk bahosini bergan.

V. R. Volobuyev (O‘zbekiston tuproqshunoslik maktabi asoschisi) O‘zbekistondagi bo‘z tuproqlar, karbonatli qatlamlar va sho‘rlanish jarayonini batafsil tasniflab, tipik bo‘z tuproqlarda Ca, Mg va karbonatlarning yuqori bo‘lishi tabiiy norma ekanini isbotlagan.

Allayarova G.R., Larionova T.K., Daukaev R.A. Accumulation of heavy metals in the soil–plant system in areas with the developed mining - (2021) - Kon atrofidagi tuproq va o‘simliklarda og‘ir metallar migratsiyasini tahlil qilgan; tuproq-o‘simlik zanjirida metal bioakkumulyatsiyasi va inson, ekotizim xavfi baholangan.

Sh. Shodmonov (ToshDAU, 2005–2020)-Toshkent viloyati yarim cho‘l hududlarida tuproqning meliorativ holatini, sho‘rlanishni, Ca–Mg nisbatini o‘rgangan bo’lib, Tog‘ oldi zonalarida Cl va SO_4 ionlari sho‘rxok zonalarga qaraganda pastroq bo‘lishi kuzatilgan.

B. Jalilov va H. Raximov (O‘zR FA, 2010–2022) - Sanoat hududlari yaqinidagi tuproqlarda og‘ir metallarning (Fe, Cu, Zn, Pb) tarqalishini o‘rganib, Kon–sanoat mintaqalarida Fe va Cu eng faol migratsiyaga ega element ekanligi isbotlangan.

Ilmiy tadqiqot ishining maqsadi: Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - Kuchbuloq hududidan olingan tuproq namunalari tarkibidagi asosiy kation va anionlar (Ca^2, Mg^2, Na^+, K^+, Cl^-, SO_4, HCO_3) hamda og’ir metallar (Fe, Mn, Zn, Cu, Pb, As va boshqalar) miqdorini aniqlash, ularning tuproqdagi umumiy minerallashuv va ifloslanish darajasiga ta’sirini baholash va olingan natijalarni oddiy tipik bo‘z tuproqlar ko‘rsatgichlari bilan solishtirishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti: O‘rganish ob’ekti sifatida, Kuchbuloq koni yaqinidagi sug’orilgan hududdan olingan tuproq namunasi tanlandi. Ushbu hududda daraxt va boshqa o‘simliklar qurib qolgan bo‘lib, tuproq tarkibi va uning unumdorligidagi o‘zgarishlarini aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

Tadqiqot usuli: Tuproq namunalari kon yaqinidagi ko‘llatib sug‘orilgan hududdan olingan bo‘lib, daraxt va o‘simliklar qurib qolgan qatlamlardan olinishi bilan ajralib turadi. Namunalar 0 - 30 sm chuqurlikdan olingan bo‘lib, labaratoriyada quyidagi standart usullar asosida tahlil qilindi:

- ✓ Umumiy azot (N) - Gost 58596 - 19
- ✓ Nitrat (NO_3) - GOST 26488 - 85
- ✓ Fosfar (P_2O_5) va K_2O - GOST 26205 - 91
- ✓ Kalsiy (Ca^2), Magniy (Mg^2) , Kaliy K(K) va Natriy (Na) - GOST 26427 - 85, 26428 - 85
- ✓ pH, elektr o‘tkazuvchanlik (EC), quruq qoldiq - GOST 26423 - 85
- ✓ Xlorid (Cl), sulfat (SO_4), bikarbonat (HCO_3) - GOST 26424 -85, 26426 - 85
- ✓ Gumus va organik uglerod - GLOSOLAN SOP - 16
- ✓ Mikroelementlar (B, Cu, Fe, Mn, Zn, Mg) - ICP- OES, Mechler - 3
- ✓ Mexanik tarkib - qum, silt va loy fraksiyalari bo‘yicha klassifikatsiya qilindi.

Olingan natijalar tuproqning kimyoviy tarkibi, meliorativ ko‘rsatgichlari, organik moddalar va mexanik tuzulishi bo‘yicha umumiy xususiyatlarini baholash, shuningdek sug‘orish natijasida o‘zgarishlarni aniqlash uchun tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

Tuproq namunalari Kuchbuloq koni yaqinidagi ko‘llatib sug’orilgan hududdan olingan bo’lib, daraxtlar va o‘simliklar qurib qolgan qatlamlarni ifodalaydi. Olingan namunalar 0 - 30 sm chuqurlikdan olinib, ularning kimyoviy, meliorativ, organik va mexanik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari tuproq unumdorligini baholash, sho‘rlashish va ozuqa

moddalarining yetarliligi haqida ma’lumot beradi. Shu bilan birga, mexanik tarkib va organik moddalar tuproqning suv ushlab turish qobilyati va ozuqa moddalarini yuvilib ketish xavfini ko‘rsatadi.

Kuchbuloq koni yaqinidagi tuproqning asosiy kimyoviy va meliorativ ko‘rsatgichlari. (Namuna: 0 - 30 sm)

1-jadval

№	Parametr	O’z.DSt	Standart	Natija
1	pH	6,0 - 7,5	GOST 26423-85	5,26 -6,3
2	Elektr o’tkazuvchanlik. EC, dS/m	⩽ 2,0	GOST 26423-85	0,231 -2,171
3	Quruq qoldiq (%)	⩽15	GOST 26423-85	1,21
4	Cl (%)	⩽0,3	GOST 26426-85	0,23 - 0,27
5	NO_3 (mg/kg)	⩾2,0	GOST 26488-85	17-28,67
6	P_2O_5 (mg/kg)	⩾30	GOST 26205-91	3,93 -38
7	K_2O(mg/kg	⩾60	GOST 26205-91	50-50,2
8	Gumus %	⩾2	GLOSOLAN SOP-16	1,267 -2,061

Tuproqning pH darajasi standartga nisbatan biroz kislotalilik tomon, ya’ni 5,26 - 6,3 oralig’ida. Bu holat ayrim o‘simliklar rivojlanishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. EC ko‘rsatgichlari ayrim namunalarda 2,0 dS/m ga yaqinlashib, o‘rtacha sho‘rlikni bildiradi, lekin quruq qoldiq va Cl darajalari tuproqning umumiy sho‘r emasligini ko‘rsatadi. NO_3 va P_2O_5 miqdori ba’zi namunalarda O‘zDSt standartlaridan past bo‘lib, bu azot va fosfor yetishmovchiligi mavjudligini anglatadi. Shu bilan birga K_2O darajasi ham yetarli emas, bu esa kaliy yetishmovchiligi tufayli o‘simliklarning o‘sishini cheklashi mumkin. Gumus darajasi o‘rtacha bo‘lib, tuproq strukturasi va organik moddalar balansini saqlash uchun qo‘shimcha organik moddalar kitirish tavsiya etiladi.

Kuchbuloq koni yaqinidagi tuproq tarkibidagi makro va mikro elementlar (mg/kg)

2 - jadval

Elementlar	O‘zDSt (mg/kg)	Natija
Mg	100 - 200	145,6
B	3 - 5	5,69
Cu	30 - 100	515,85
Fe	100 - 300	193,43
Mn	50 - 300	199,88
Zn	30 - 70	67,13

Tuproqdagi makro va mikro elementlar tahlili tuproqning mineral balansini ko‘rsatadi. Mg, Fe va Mn darajalari standart oralig‘ida bo‘lib, o‘simliklar rivojlanishi uchun yetarlidir. B elementi o‘rtacha darajada, ba‘zi hollarda qo‘shimcha berish tavsiya etiladi. Zn darajasi o‘rtacha, standartga mos. Ammo Cu darajasi juda yuqori bo‘lib (515,85mg/kg), bu ko‘rsatgich o‘simliklar uchun toksik xavf tug’dirishi mumkin. Shu bilan birga K_2O va P_2O_5 yetishmovchiligi tufayli tuproq unumdorligi past bo‘lishi mumkin.

Kuchbuloq koni yaqinidagi tuproqning mexanik tarkibi

3- jadval

Tuproq qismi	O’zDSt 17.4.3.01-83 % da	Foiz (%)
Loy	0 -10	1 - 24,3
Mayda silt	7 - 10	12,7
O’rta silt	5 - 8	9,9
Qalin silt	3 - 5	48,7

Mayda qum	20 - 30	27,1
O’rta qum	25 - 35	0
Qalin qum	15 - 25	0

Tuproqning mexanik tarkibi ko‘proq qalin silt va mayda qum fraksiyalaridan iborat bo’lib, loy va mayda silt qismi pastligi bilan ajralib turadi. Bu shuni bildiradiki, tuproq suvni tez o‘tkazadi va ozuqa moddalarini uzoq vaqt ushlab turish qobilyati past. Shu sababli ko‘llatib sug‘orish natijasida suv va minerallar tez yuvilib ketishi mumkin, o‘simlik ildizlari yetarli darajada namlikni ololmasligi ehtimoli mavjud.

Loy va mayda siltning pastligi tuproqning strukturaviy barqarorligini kamaytitadi, bu esa o‘simlik ildizlari rivojlanishi va tuproqda havo aylanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Qalin silt va mayda qumning yuqoriligi tuproqning yumshoqliligini oshiradi, lekin shu bilan birga, ozuqa moddalarining tez yuvilishi xavfini kuchaytiradi. Shu sababli, hududda organik moddalarni qo‘shimcha kiritish, mulchalash va o‘g‘itlash tizimini qo‘llash zarur.

XULOSA

Kuchbuloq koni hududidan olingan tuproq namunalarining tahlillari shuni ko‘rsatdiki, hudud tuproqlari umumiy sho‘rlik darajasi o‘rtacha, pH qiymati esa biroz kislotalilik tomon, ya’ni 5,26–6,3 oralig‘ida. Bu holat ayrim o‘simliklar rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Elektr o‘tkazuvchanlik (EC) qiymatlari 0,231–2,171 dS/m oralig‘ida bo‘lib, ba’zi namunalarda 2,0 ga yaqinlashadi, bu o‘rtacha sho‘rlikni bildiradi. Shu bilan birga, quruq qoldiq (1,21 %) va xlorid (0,23–0,27 %) miqdorlari tuproqning umumiy sho‘r emasligini ko‘rsatadi.

Azot (NO_3) va fosfor (P_2O_5) ko‘rsatkichlari ba’zi namunalarda standartlardan past bo‘lib, bu o‘simliklar uchun azot va fosfor yetishmovchiligi mavjudligini bildiradi. Kaliy (K_2O) darajasi ham yetarli emas (50–50,2 mg/kg), bu esa o‘simliklarning o‘sishini cheklashi mumkin. Gumus darajasi 1,267–2,061 % oralig‘ida bo‘lib, tuproq strukturasi va organik moddalar balansini saqlash uchun qo‘shimcha organik moddalarni kiritish tavsiya etiladi.

Tuproqdagi makro va mikroelementlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Mg (145,6 mg/kg), Fe (193,43 mg/kg) va Mn (199,88 mg/kg) darajalari standart oralig‘ida bo‘lib, o‘simliklar rivojlanishi uchun yetarlidir. B elementi o‘rtacha darajada (5,69 mg/kg) bo‘lib, ba’zi hollarda qo‘shimcha berish tavsiya etiladi. Zn darajasi (67,13 mg/kg) standartga mos bo‘lsa-da, Cu miqdori juda yuqori (515,85 mg/kg), bu esa o‘simliklar uchun toksik xavf tug‘diradi. Shuningdek, kaliy va fosfor yetishmovchiligi tufayli tuproq unumdorligi past bo‘lishi mumkin.

Mexanik tarkib tahlili ko‘rsatdiki, tuproq asosan qalin silt (48,7 %) va mayda qum (27,1 %) fraksiyalaridan iborat bo‘lib, loy (1–24,3 %) va mayda silt (12,7 %) qismi past. Bu shuni bildiradiki, tuproq suvni tez o‘tkazadi va ozuqa moddalarini uzoq vaqt ushlab turish qobiliyati past. Shu sababli, sug‘orish natijasida suv va minerallar tez yuvilib ketishi, o‘simlik ildizlari yetarli namlik ololmasligi ehtimoli mavjud. Loy va mayda siltning pastligi tuproqning strukturaviy barqarorligini kamaytiradi, bu esa o‘simlik ildizlari rivojlanishi va tuproqning havo almashinuvi uchun muhim omil hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, hududdagi tuproq qisman sho‘rlik, azot, fosfor va kaliy yetishmovchiligi, shuningdek Cu elementining toksik darajada yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, organik modda darajasi o‘rtacha bo‘lib, tuproqning tuzilishi va unumdorligini oshirish uchun qo‘shimcha meliorativ chora-tadbirlar talab etiladi.

NATIJALAR

1. FAO–ICARDA va boshqa markaziy Osiyo tadqiqotlaridagi kuzatuvlar bilan mos kelib, kon hududlarida tuproqning kimyoviy tarkibining o‘zgarishi, sho‘rlanish va og‘ir metallarning ortishi kabi ekologik xavflarni tasdiqlaydi.
2. Yuqori Cu darajasi, kaliy va fosfor yetishmovchiligi tuproqning agrotexnik qiymatini pasaytiradi, shu bilan birga o‘simliklar va ekotizim uchun toksik xavf yaratadi.

3. Mexanik tarkib va past loy qismi, tuproqning suvni ushlab turish qobiliyatini kamaytirib, sug‘orish samaradorligini pasaytiradi.

4. Shu sababli, kelajakda tuproqni meliorativ yaxshilash, organik modda bilan boyitish, mulchalash, mineral o‘g‘itlar kiritish kabi chora-tadbirlar majburiy bo‘ladi.

Umuman olganda, Kuchbuloq koni hududi tuproqlari qishloq xo‘jaligi uchun ishlatilishi mumkin, lekin ularning unumdorligini va o‘sish sharoitlarini yaxshilash uchun ilmiy asosli meliorativ choralar zarur. Shu tarzda, tadqiqot natijalari hududda tuproqni samarali sug‘orish, minerallar balansini ta’minlash va ozuqa moddalarini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy poydevor hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. **Vardumyan, H., Singh, A., Singh, R.K., Sousa, J.R., & Ghazaryan, K.** *Assessment of Heavy Metals Contamination in Soils of Mining Area of Tumanyan Region, Armenia: Distribution and Environmental Risks. Journal of Innovative Solutions for Eco-Environmental Sustainability,* Special Issue No. 1, 2025.

2. Ivanova E. Transformatsiya pochvennix protsessov pod vliyaniem shaxtnix vod ugolnix mestorojdenix. Politecheskaya Universitet. 2015.

3. Kuchbuloq koniga oid lokal tahlil. Qo’qon DPI - Ilmiy xabarlar, 2025

4. Mirzayev B. Og‘ir metallar va sulfatlarga boy kon oqova suvlarining tuproqlarda migratsiyasi va akkumulyatsiya qonuniyatlari. O‘zbekiston Milliy Universiteti.2021

5. Obidjon Kodirov, Nosir Shukurov, **(temir, mis, zanglamaydigan metallar konlari yaqinida)** *Heavy metal distribution in soils near the Almalyk mining and smelting industrial area, Uzbekistan.* 2019.

6. Hakimov F. Geologicheskaya otsenka vliyaniya shaxtnix i rudnichnix vod na sostoyanie pochv promishlennix territoriy Uzbekistana. Tashkent state Technical University 2018.

7. Samandarova Y. Kuchbuloq konining kimyoviy suv tozalash inshooti: texnologik jarayonlari, suv tarkibi va ekalogik jihatlari. Environment & Science. 2025.

8. Sharipova N. Impact of mine drainage waters on soil degradation processes in Central Asian mining zones. University of Mining and Geology. - Bolgariya. 2020.

9. Rasulov M. Shaxtadan chiqayotgan oqova suvlarning kimyoviy tarkibi va uning tuproq - meliorativ holatiga ta’siri. TIIAME, Toshkent.

10. Rysbekov va boshq. (Assessment of soil pollution by heavy metals in the area of open mining works - (2021)

11. Rysbekov K., Yinli B., Demeuov S., Mukanova G., Zhakypbek Y. Assessment of soil pollution by heavy metals in the area of open mining works - (2021)

12. 12 **Zhao, D., Wu, Q., Zeng, Y.** - *Contamination and human health risk assessment of heavy metal(loid)s in topsoil and groundwater around mining and dressing factories in Chifeng, North China. 2023.*

13. **He, J., Zhang, H., Yang, K.**- *Sources analysis and risk assessment of heavy metals in soil in a polymetallic mining area in southeastern Hubei based on Monte Carlo simulation. Ecotoxicology and Environmental Safety.* 2025.

СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА ЧЕРЕЗ ПРИЗМУ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ И ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ

Курпаяниди Константин Иванович
профессор Российской Академии Естествознания (Российская Федерация), академик Международной Академии теоретических и прикладных наук (США), Международный институт пищевых технологий и инженерии

Аннотация: *В статье рассматривается стратегический переход Узбекистана к зеленой экономике в контексте провозглашения 2025 года Годом охраны окружающей среды и развития зеленой экономики. Анализируются климатические вызовы, включая водный стресс и высокую интенсивность выбросов парниковых газов, а также их влияние на устойчивость экономики страны. На основе современных международных и узбекских исследований оцениваются перспективы внедрения энергоэффективных технологий и возобновляемых источников энергии (ВИЭ) с примерами практической реализации. Подчеркивается, что комплексные реформы в энергетике и промышленности способны снизить экологические риски и укрепить конкурентоспособность Узбекистана на глобальном уровне.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, климатические изменения, устойчивое развитие.*

Abstract: *The article considers the strategic transition of Uzbekistan to a green economy in the context of the proclamation of 2025 as the Year of Environmental Protection and the development of a green economy. Climate challenges, including water stress and high intensity of greenhouse gas emissions, as well as their impact on the sustainability of the country's economy are analysed. On the basis of modern international and Uzbek studies, the prospects for introducing energy efficient technologies and renewable energy sources (RES) are assessed with examples of practical implementation. It is emphasised that comprehensive reforms in the energy sector and industry can reduce environmental risks and strengthen Uzbekistan's competitiveness at the global level.*

Key words: *green economy, energy efficiency, renewable energy, climate change, sustainable development.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning 2025 yilni “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilish kontekstida yashil iqtisodiyotga strategik o‘tishi ko‘rib chiqiladi. Iqlim o‘zgarishlari, jumladan, suv tanqisligi va parnik gazlari chiqindilarining yuqori darajadagi intensivligi, shuningdek, ularning mamlakat iqtisodiyotining barqarorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy xalqaro va o‘zbek tadqiqotlariga asoslanib, energiya samarador texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalari (QTEM)ni joriy etish istiqbollari amaliy misollar bilan birga baholanadi. Energetika va sanoat sohalaridagi kompleks islohotlar ekologik xavf-xatarlarni kamaytirish va O‘zbekistonning global miqyosdagi raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatiga ega ekani ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *Yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish.*

ВВЕДЕНИЕ

Современный мир сталкивается с беспрецедентными экологическими вызовами, включая изменение климата, истощение природных ресурсов и рост антропогенного воздействия на экосистемы. Эти факторы вынуждают страны переосмысливать свои экономические модели, делая устойчивое развитие ключевым приоритетом глобальной повестки дня. Узбекистан, как государство Центральной Азии, не остается в стороне от этих

процессов [1]. В 2025 году страна официально объявила Год охраны окружающей среды и развития зеленой экономики, что стало логическим продолжением ее долгосрочной стратегии адаптации к климатическим изменениям и снижения экологической нагрузки [2]. Данное решение отражает осознание руководством страны необходимости перехода к новым моделям хозяйствования, способным обеспечить баланс между экономическим ростом, социальной стабильностью и сохранением природного капитала.

Узбекистан сталкивается с комплексом экологических и экономических проблем, обусловленных как природными, так и антропогенными факторами [3]. Среди них — опустынивание, охватывающее более 60% территории страны, деградация почв, загрязнение воздуха и водных ресурсов, а также высокий уровень выбросов парниковых газов (ПГ), связанный с зависимостью экономики от ископаемого топлива. Согласно данным Всемирного банка (World Bank, 2024) [4], Узбекистан занимает пятое место в мире по интенсивности выбросов ПГ на единицу ВВП, что подчеркивает острую необходимость модернизации энергетического сектора. Водный стресс, усугубляемый сокращением стока рек Амударья, и Сырдарья, представляет дополнительную угрозу для сельского хозяйства, которое обеспечивает занятость более 27% населения и формирует значительную долю экспорта (FAO, 2024) [5]. Эти вызовы требуют системного подхода, включающего внедрение энергоэффективных технологий, развитие возобновляемых источников энергии (ВИЭ) и цифровизацию экономики.

Целью данного исследования является анализ экономических и экологических последствий климатических изменений для Узбекистана, оценка потенциала зеленой экономики как драйвера устойчивого роста и изучение практических примеров реализации соответствующих инициатив. В работе рассматриваются как национальные проекты, так и международный опыт, чтобы выявить наиболее эффективные стратегии адаптации и модернизации. Особое внимание уделяется роли энергоэффективности и ВИЭ в снижении углеродного следа, повышении конкурентоспособности и создании новых экономических возможностей. Исследование направлено на выработку рекомендаций для государственных органов, подчеркивая важность интеграции экологических и экономических приоритетов в условиях глобальных трансформаций.

МЕТОДЫ

Настоящее исследование опирается на междисциплинарный подход, сочетающий количественный и качественный анализ. Основу составляют современные макроэкономические данные и научные публикации ведущих международных и ученых Узбекистана. Среди ключевых источников — работы Нордхауса (Nordhaus, 2020) [6], посвященные экономическим аспектам изменения климата, и Штерна (Stern, 2022) [7], анализирующего долгосрочные последствия экологических рисков. Вклад узбекских исследователей представлен трудами Абдуллаева и Рахматуллаева (Abdullaev & Rakhmatullaev, 2020) [8], которые фокусируются на проблемах водных ресурсов и сельского хозяйства в Центральной Азии.

Для анализа использованы статистические данные из авторитетных международных отчетов, включая Всемирный банк (World Bank, 2024) [4], Институт мировых ресурсов (WRI, 2024) [9], Международное агентство по возобновляемым источникам энергии (IRENA, 2025) [10] и Программу развития ООН в Узбекистане (UNDP Uzbekistan, 2024) [11]. Эти источники предоставили информацию о состоянии окружающей среды, уровне выбросов ПГ, водном стрессе и потенциале ВИЭ. Дополнительно применены показатели глобального индекса адаптации Notre Dame Global Adaptation Initiative (ND-GAIN, 2024), отражающие готовность Узбекистана к климатическим изменениям [12].

Методология включает сравнительный анализ опыта внедрения зеленых технологий в Узбекистане и странах с развитыми моделями устойчивого развития, таких как Германия и Китай. Для изучения практических кейсов использован подход кейс-стади, охватывающий проекты солнечных электростанций (например, в Навоийской области), энергоэффективных домов (проект «Солнечный дом»), модернизации промышленных предприятий и внедрения водосберегающих технологий. Данные собирались путем анализа официальных отчетов, научных публикаций и материалов международных организаций, а также через экспертные оценки, предоставленные узбекскими и зарубежными специалистами в области зеленой экономики. Статистическая обработка проводилась с использованием программного обеспечения SPSS для выявления корреляций между инвестициями в ВИЭ и экономическими показателями.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Климатические и экологические вызовы. Анализ подтверждает, что Узбекистан находится в зоне повышенного риска из-за климатических изменений. Согласно ND-GAIN (2024), страна занимает 65-е место из 187 по уровню готовности к адаптации, что указывает на умеренную уязвимость [12]. Одним из ключевых факторов является водный стресс: WRI (2021) классифицирует Узбекистан как одну из 25 стран с наивысшим уровнем дефицита воды. За последние два десятилетия сток Амударьи сократился на 20%, что привело к снижению сельскохозяйственной продуктивности на 15–20% в регионах Каракалпакстана и Хорезма (Abdullaev & Rakhmatullaev, 2020) [8]. Экономика страны демонстрирует высокую энергоемкость: выбросы ПГ составляют 47% от общего объема в энергетическом секторе, а интенсивность выбросов на единицу ВВП ставит Узбекистан на пятое место в мире (World Bank, 2024) [4].

Потенциал ВИЭ и энергоэффективности. Внедрение ВИЭ и энергоэффективных технологий показывает значительный потенциал. Солнечная электростанция мощностью 100 МВт в Навоийской области, введенная в эксплуатацию в 2021 году, ежегодно предотвращает выбросы 150 тысяч тонн CO_2 и обеспечивает электроэнергией более 70 тысяч домохозяйств (IRENA, 2024) [10]. Проект «Солнечный дом» в Ташкентской области, реализованный при поддержке ПРООН, сократил энергопотребление на 85% благодаря использованию фотовольтаических панелей и теплоизоляции (UNDP Uzbekistan, 2024) [11]. В промышленности модернизация оборудования на хлопкоочистительных заводах Ферганской долины привела к снижению энергозатрат на 30% и увеличению производительности на 10%.

Международный опыт. Зарубежные примеры подтверждают экономическую эффективность зеленых технологий. В Германии программа Energiewende увеличила долю ВИЭ в энергобалансе до 46% к 2022 году, создав 300 тысяч рабочих мест (BMWK, 2022) [13]. В Китае масштабное развитие солнечных и ветровых установок снизило стоимость электроэнергии на 20% за десятилетие, укрепив промышленную конкурентоспособность (Liu et al., 2021) [14]. Эти достижения подчеркивают потенциал ВИЭ как драйвера экономического роста.

Дополнительные меры. В Узбекистане внедрение водосберегающих технологий, таких как капельное орошение в Хорезмской области, сократило водопотребление на 25% и повысило урожайность хлопка на 15% (WRI, 2024). Переработка отходов, поддерживаемая Всемирным банком, позволила утилизировать 1,5 млн тонн твердых отходов в 2022 году, превратив их в строительные материалы и биотопливо (World Bank,

2024). Цифровизация на Навоийском горно-металлургическом комбинате сократила потери энергии на 18% за счет SMART-систем (UNDP Uzbekistan, 2024).

ОБСУЖДЕНИЕ

Экономические и экологические последствия. Полученные данные свидетельствуют о том, что климатические изменения создают серьезные риски для экономики Узбекистана. Водный дефицит, вызванный сокращением речного стока и повышением температуры, угрожает продовольственной безопасности и социальной стабильности. Сельское хозяйство, на которое в 2024 году приходилось 19.2% ВВП (Национальный комитет РУз по статистике, 2025), особенно уязвимо: в Каракалпакстане урожайность риса сократилась на 22% за последние 15 лет (FAO, 2024). Высокая интенсивность выбросов ПГ, обусловленная зависимостью от угля и газа, усиливает глобальное потепление, создавая замкнутый круг экологической деградации.

Перспективы зеленой экономики. Переход к зеленой экономике открывает значительные возможности. Узбекистан обладает потенциалом выработки 51 млн МВт·ч солнечной энергии ежегодно благодаря 300 солнечным дням в году (IRENA, 2024) [10]. Моделирование показывает, что инвестиции в ВИЭ могут снизить углеродный след на 30–40% к 2030 году, одновременно создавая до 50 тысяч рабочих мест в секторе чистой энергетики (UNDP Uzbekistan, 2024) [11]. Пример Германии, где ВИЭ обеспечили экономический рост и занятость, подтверждает целесообразность такого подхода. В Китае снижение стоимости электроэнергии демонстрирует, как зеленые технологии повышают конкурентоспособность.

Практическая реализация. Национальные проекты, такие как солнечная станция в Навои и «Солнечный дом», иллюстрируют успешность локальных инициатив. Однако масштабирование требует преодоления барьеров, включая недостаток финансирования и технологий. Международное сотрудничество, например с IRENA и Всемирным банком, уже дало результаты: инвестиции в ВИЭ выросли с $100 млн в 2019 году до $1,2 млрд в 2023 году (World Bank, 2024) [4]. Цифровизация и переработка отходов усиливают эффект, но их потенциал пока используется лишь частично.

Ограничения и вызовы. Основными препятствиями остаются ограниченные финансовые ресурсы, недостаток квалифицированных кадров и устаревшая инфраструктура. Например, модернизация энергосетей требует инвестиций в размере $5 млрд до 2030 года (IRENA, 2024) [10]. Кроме того, социальные факторы, такие как низкая осведомленность населения о зеленых технологиях, замедляют переход. Решение этих проблем требует комплексного подхода, включая образовательные программы и государственно-частное партнерство.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Переход Узбекистана к зеленой экономике представляет собой стратегически важный шаг для обеспечения устойчивого развития в условиях климатических изменений. Интеграция ВИЭ, повышение энергоэффективности и комплексное управление ресурсами способны минимизировать экологические риски, повысить экономическую стабильность и улучшить качество жизни. Практические примеры из Узбекистана и зарубежных стран подтверждают, что такие меры создают новые рабочие места, снижают издержки и укрепляют конкурентоспособность. Однако успех зависит от преодоления финансовых и технологических барьеров, а также от усиления международного сотрудничества. Дальнейшие исследования должны сосредоточиться на оптимизации инвестиционных

моделей и разработке адаптационных стратегий для сельского хозяйства и промышленности.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ИСТОЧНИКИ

1. Михайлов, А., & др. (2023). Зеленая экономика: проблемы, перспективы и возможности для Узбекистана. *Nashrlar*, 434-437. https://sci-p.uz/index.php/editions/article/download/465/446
2. 2025 год объявлен: «Годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики». Электронный ресурс. Режим доступа URL: https://gov.uz/ru/eco/news/view/28064
3. Курпаяниди, К. И. (2023). Сценарии развития экономики Узбекистана в условиях нестабильности. *Экономика Центральной Азии*, *7*(1), 63-80. Doi: https://doi.org/10.18334/asia.7.1.117188
4. World Bank. (2024). *Uzbekistan country climate and development report*. Washington, DC: World Bank.
5. FAO. 2024. The State of Food and Agriculture 2024 – Value-driven transformation of agrifood systems. Rome. https://doi.org/10.4060/cd2616enFAO.
6. Nordhaus, W. (2020). The climate club. *Foreign Affairs*, *99*(3), 10-17.
7. Stern, N. (2022). A time for action on climate change and a time for change in economics. *The Economic Journal*, *132*(644), 1259-1289.
8. Abdullaev, I., & Rakhmatullaev, S. (2020). Water resources and agricultural sustainability in Central Asia: Evidence from Uzbekistan. *Central Asian Journal of Water Research, 6*(2), 45–62.
Kalit so‘zlar: Hisor davlat qo‘riqxonasi, endemik turlar, noyob o‘simliklar, bioxilma-xillik, balandlik mintaqalari, kamayish omillari, geobotanik kuzatuv, statistik analiz saqlash strategiyalari, ekoturizm.

Аннотация. В этой статье описывается биоразнообразие эндемичных, редких и исчезающих растений, распространённых на территории Государственного заповедника Хисар, обладающего самым богатым биоразнообразием Узбекистана, их распространение в различных районах высоты, причины сокращения растительности и потенциал экотуризма этого региона. В отчете также изложены стратегии и реформы по сохранению биоразнообразия, которые должны быть реализованы в рамках этой рамки. В то же время в исследовании использовались геоботанические наблюдения и статистический анализ.

Ключевые слова: Гиссарский государственный заповедник, эндемичные виды, редкие растения, биоразнообразие, горные регионы, убывающие факторы, геоботанические наблюдения, статистический анализ, стратегии охраны, экотуризм.

Abstract. This article presents an analysis of the biodiversity of endemic, rare, and endangered plant species naturally distributed within the territory of the Hisor State Nature Reserve, one of the most biodiversity-rich regions of Uzbekistan. It examines the occurrence of these species across different altitudinal zones and identifies the primary factors contributing to their decline. In addition, the article discusses the reforms implemented within the framework of the Republic of Uzbekistan’s biodiversity conservation strategies. The study also employs geobotanical observations and statistical analyses.

Keywords: Hisar State Nature Reserve, endemic species, rare plants, biodiversity, mountain regions, decreasing factors, geobotanical observations, statistical analysis, protection strategies, ecotourism.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining “1992 yil 5- iyunda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konventsiyaga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida” 1995 yil 6-maydagi 82-I-son qarorini ijro etish yuzasidan [1], shuningdek, biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrashi sur’atlarini pasaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklash, bioxilma-xillikni saqlab qolish sohasidagi xalqaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qabul qildi. Qarorga muvofiq 2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi tasdiqlandi [2]. Konvensiyaning 2022-yilda bo‘lib o‘tgan 15-konferentsiyasida (COP 15) dunyo hukumatlari Kunming-Monreal global bioxilma-xillik dasturini qabul qilindi. Ushbu dasturda 2050-yilgacha erishilishi kerak bo‘lgan to‘rtta asosiy maqsad qo‘yilgan bo‘lib, ular ekotizimlar va turlarning sog‘lig‘iga e’tibor qaratadi, jumladan, inson faoliyati sababli turlarning yo‘q bo‘lib ketishini to‘xtatish, biologik xilma-xillikdan barqaror foydalanish, imtiyozlarni adolatli taqsimlash, shuningdek, ularni amalga oshirish va moliyalashtirishdan iborat.[3]

Shunga asosan, yurtimizdagi o‘simliklar olamini muhofaza qilish, ko‘paytirish, barqaror foydalanish maqsadida ekoturizmni rivojlantirish masalalari bugungi kun tartibiga qo‘yilgan muhim jihatlardir. Xususan, O‘zbekistonning eng boy bioxilma-xillikka ega bo‘lgan Hisor qo‘riqxonasida o‘simliklarni muhofaza qilish maqsadida ekoturizmni yo‘lga qo‘yish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Hisor qo‘riqxonasida ekoturizmning ekologik ta’sirini o‘rganish, bunda noyob va endemik o‘simlik turlarini saqlash, buzilgan ekotizimlarni tiklash va sayyohlarning ekologik muammolar haqida xabardorligini oshirish muhimdir. Hisor davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistonning janubiy-sharqiy qismida, Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz, Yakkabog‘ va Qamashi tumanlari hududida, Hisor tog‘ tizmasining g‘arbiy yonbag‘irlarida, dengiz sathidan 1750 m dan 4366 m gacha balandlikda joylashgan. 1983 yilda ikkita qo‘riqxona – Qizilsuv va Miroqi qo‘riqxonalarining birlashishi natijasida, Hisor tog‘ tizmalarining janubiy-sharqiy qismidagi tabiiy komplekslarning tipik uchastkalarini asl holida muhofaza qilish, ulardagi tabiiy jarayonlarning borishini o‘rganish hamda shu hududda yo‘qolib borayotgan flora va fauna vakillarini saqlab qolish maqsadida tashkil qilingan.

Umumiy maydoni 80986 ga ni tashkil qiladi. Ushbu qo‘riqxona Shahrisabz tumani, Yakkabog‘ tumani va Qamashi tumanlari hududida joylashgan bo‘lib, hudud jihatidan u Markaziy Osiyoda eng katta qo‘riqxonadir. Qo‘riqxona janubiy-sharqda Surxondaryo viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh 2000 gektar ekoturizm uchun ajratilgan qo‘riqlanma zona hisoblanadi. Qo‘riqxona 4 ta bo‘limga bo‘lingan:

G‘elon bo‘limi yer maydoni18838,1 ga.
Miraki bo‘limi, yer maydoni 11821,0 ga.
Tanxozdaryo bo‘limi yer maydoni 20233,0 ga.
Qizilsuv bo‘limii yer maydoni - 30094,0 ga. [4].

Qo‘riqxona umumiy yer maydonining 37011 gektari archazor va butasimon o‘rmonlar bilan qoplangan, yaylovlar 18198,1 gektarni, daryolar va ko‘llar 171 gektarni, botqoqliklar 511 gektarni, muzliklar 3155 gektarni, qoya va jarliklar 31819 gektarni tashkil etadi. Qo‘riqxonaning asosiy o‘rmon hosil qiluvchi o‘simliklari zarafshon va yarim shar shaklidagi archalar hisoblanadi. Umuman olganda muhofaza etiladigan hududdagi o‘simliklar O‘rta Osiyo tog‘lari uchun odatiy bo‘lib, uning katta qismi tor endem o‘simliklaridir. Murakkabguldoshlar (Compositae), dukkaklilar (Leguminosae), butguldoshlar (Cruciferae), donlilar (Gramineae), soyabonlilar (Umbelliferae), labguldoshlar (Labiatae) turlari ko‘plab uchraydi. Hisor davlat qo‘riqxonasi o‘simliklar dunyosi juda boy va xilma-xil bo‘lib, ularni muhofaza qilish va o‘rganish qo‘riqxona xodimlarining asosiy vazifalaridan biridir. Qo‘riqxona hududida 970 turdagi o‘simliklar o‘sishi aniqlangan. Ushbu hududda tarqalgan O‘zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobi”ga kiritilgan o‘simliklardan. Dilband lola, ulug‘vor lola, nor shirach, sunbul kovrak, O‘zbekiston chinniguli hamda oq parpi kabilar uchraydi. Quyida ayrimlari haqida batafsil ma’lumotlar beramiz:

Dilband lola Tulipa micheliana. Kamyoblik darajasi 2. G’arbiy Pomir-Oloydagi kamayib ketgan tur. Hayotiy shakli-bo‘yi 20-30 sm oralig’idagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Mart-aprel oylarida gullab,may-iyunda mevasi yetiladi. Ko‘xitang, Hisor tizmalarida (Dehqonobod atroflari) tarqalgan. Tog’ oldi tekisliklari va adirlardagi toshli va soz tuproqli yonbag’irlarida o‘sadi. Kam,yakka holda uchraydi. Urug’idan va piyozidan ko‘payadi.

Ulug‘vor lola G‘arbiy Pomir-Oloyda kam tarqalgan endemik o‘simlik bo‘lib, bo‘yi 12-25 sm orasidagi ko‘p yillik piyozli o‘t. Aprel–may oyida gullab, mevasi iyun–iyulda yetiladi. Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari, Zarafshon, Ko‘hitang va Hisor tizmalarida tarqalgan. Tojikistonda ham uchraydi. Hisor davlat qo‘riqxonasining dengiz sathidan 1600–2000 m balandlikdagi soz tuproqli yonbag‘irlarida o‘sadi.

Nor shirach Tyan-Shan va Pomir-Oloydagi areali ajralgan va qisqarib borayotgan endemik o‘simlik, bo‘yi 100-250 sm ga yetadigan ko‘p yillik yirik o‘t. May-iyulda gullaydi, mevasi iyul-avgustda yetiladi. Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Farg‘ona, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari: G‘arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloyning barcha tizmalari, Tojikiston, Qozog‘iston, Qirg‘izistonda ham uchraydi. Hisor davlat qo‘riqxonasining o‘rta qismidagi mayda jinsli, tuproqli va toshli yonbag‘irlarda o‘sadi.

O‘zbekiston chinniguli. Mazkur o‘simlik turi Pomir-Oloyning g‘arbiy qismidagi kamyob endemik o‘simlik hisoblanadi. Bo‘yi 40 sm gacha yetadigan ko‘p yillik o‘t. May oyida gullab, mevasi iyunda yetiladi. Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari: Zarafshon tizmasida (Taxta Qoracha dovoni, Qizilolma va Tarag‘ay qishloqlari atroflari) tarqalgan. Hisor davlat qo‘riqxonasida Bog‘cha qishlog‘idan yuqoridagi tosh-shag‘alli joylarda, tosh va ohaktosh siniqlari va yoriqlari orasida o‘sadi. Populyatsiyasi tarqoq holda.

Oq parpi (Aconitum talassium Popov) – bu kop yillik o‘t o‘simlik, Tyan-Shan va Pomir-Oloy tizmasidagi son jihatdan qisqarib borayotgan, areali bo‘lingan endem o‘simlik turi.Bo‘yi 1,5 metrga yetadigan, kop yillik o‘t.. Iyun-Iyulda gullab, Iyul-Avgust oylarida mevasi yetiladi. Urug‘ bilan kopayadi.Toshkent, Farg‘ona, Jizzax, Qashqadaryo viloyatlari: Piskom, Chotqol, Qurama, Farg‘ona, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalarida tarqalgan. Tojikiston va Qirg‘izistonda ham uchraydi. Tog‘larni o‘rta va yuqori qismlaridagi nam yerlarda va yonbag‘irlardagi buloqlarning atroflarida o‘sadi. Ba’zan buloq bo‘ylarida kichik parpizorlar hosil qiladi.[5].

Pomir-Oloy tog‘ tizimida endemik hisoblangan o‘simliklarning turi 80 dan ortiq bo‘lib, ulardan qo‘riqxona hududida Kichik va Katta yuno, Aleksey piyozi, Fedchenko piyozi, Tog‘bargli

piyoz, Rozinbax piyozi, O‘zbekiston chinniguli, Bobrov va Kudryashev astragallari, Olta, Tubergen, Chimyon lolalari o‘sadi.

Qo‘riqxona hududida o‘sadigan o‘simliklarning 250 turdan ortig‘i dorivor va ozuqabob hisoblanadi. Ulardan qirqbo‘g‘im, zira, zirk, oltin tomir, chakanda, rivoch, buymadaron, shuvoq, toron, saleb, ruyan, sumbul, kiyik o‘ti, qizilpoycha xalq tabobatida, Oshanin piyozi, tog‘bargli piyoz, rivoch, zira, alqor kabilar mahalliy xalq tomonidan ozuqabob o‘simlik sifatida ko‘p ishlatiladi.

Tadqiqotchi R.X.Allayorovning ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobida o‘simlik turlariga kamyoblik darajasiga ko‘ra 4 ta maqom (status) berilgan bo‘lib, Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlarida uchraydigan 1 ta turning maqomi 0 chi (yo‘qolgan yoki yo‘qolib ketganligi ehtimoldan yiroq emas); 52 ta turning maqomi 1 chi (yo‘qolib ketish arafasida turgan); 40 turning maqomi 2 chi (kamyob); 42 ta turning maqomi 3 chi (son jihatdan kamayib borayotgan) ga mansubdir [6]. Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlarida o‘simlik turlari kamayishining asosiy sabablari inson faoliyati (qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, chorvachilik va rekreatsiya) hamda tabiiy omillar (iqlim o‘zgarishlari, tabiiy ofatlar, ekologik buzilishlar) bilan bog‘liq. Hisor qo‘riqxonasida eng ko‘p maydonni tog‘ mintaqasi ishg‘ol qiladi. Dengiz sathidan 1600-1800 metr absolyut balandlikdan boshlanib, 2500-2800 metrgacha ko‘tariladigan tog‘ landshaftlari mintaqasi hissasiga qo‘riqxona maydonning qariyb 60 foizi to‘g‘ri keladi.

Tog‘larning janubiy yonbag‘irlardagi mavjud o‘rmonlar ancha siyrak bo‘lib, o‘simlik turlariga unchalik boy emas, archazorlar shimoliy yonbag‘irlarga nisbatan 100-200 metr balandlikda joylashgan, ya’ni balandlikka chekingan. Janubga qaragan tik yonbag‘irlarda daraxt va butalar siyrak, yalang‘och qiyalari asosiy maydonni egallagan bir paytda, qiyaligi 50-70 darajadagi tikroq yon bag‘irlarda tuproq qoplami deyarli rivojlanmagan. Qo‘riqxonaning shimoliy hududlarida o‘rmonlar faqat odam borish qiyin bo‘lgan yonbag‘irlardagina qalin saqlangan. Bu yerlarda buta, chala buta va o‘t qoplami anchagina tig‘iz, tuproq qoplami qalin, o‘tlar tarkibida qaytadan yovvoyilashgan yo‘ng‘ichka, qashqarbeda kabi o‘simliklar bot-bot uchraydi. Ma’lumotlarga qaraganda, archazorlar qo‘riqxona hududining qariyb 30 ming gektarini, o‘rmon bilan qoplangan archazorlar 10-12 ming gektar maydonni egallaydi, siyrak archazor va butazorlar ikki hissa ko‘proq maydonni ishg‘ol etadi. Respublikamiz tog‘ o‘rmonlarida archaning 3 turi uchraydi. Qashqadaryo tog‘larida zarafshon archasi (qora yoki qizil archa), dengiz sathidan 1000-2500 metr balandlikda, yarimsharsimon archa (saur archa) 2600-3200 metr balandlikda, turkiston archasi (o‘rik archa) 3000 metr va undan yuqorida o‘sadi. Archa turlari har xil balandiklardagi yonbag‘irlarda ham joy tanlamay o‘saveradi. O‘rta Osiyo tog‘ o‘simliklar olamida, archa daraxti yetakchi o‘rinda turadi. Hisor tog‘ tizmasidagi do‘lanazorlar tog‘li hududlarida asosan, Siyob, Mingchinor, Matmon o‘rmonchilik bo‘limlarida keng tarqalgan. Hisor tog‘ tizmasi turli nishabliklardan tashkil topganligi sababli u yerda o‘sayotgan turkiston do‘lana, pontika do‘lana turlarining hosildorligi ekspozitsiya va nishablikka qarab o‘zgarib turadi [7]. Janubi-G‘arbiy Hisor mintaqasining adir va tog‘oldi massivlarida endem turlarning ko‘pligi, mintaqa g‘arbiy Pomir-Oloydagi o‘ziga xos bo‘lgan turlar xilma-xilligi yuqori ekanligini e’tirof etish imkonini bergan. G‘arbiy Tiyon-Shonning tog‘li qismi endem turlarga boy bo‘lib, hududda ro‘yxatga olingan 60 turdan kamida 56 turi tor tarqalish arealiga ega bo‘lgan tur sifatida qayt etilgan [8].

Hisor qo‘riqxonasi tog‘ landshaftlari mintaqasida o‘rmonlar asosan zarafshon (qizil) archasi daraxtlaridan tashkil topgan. Archa turkiston zarangi, buxoro bodomi, elchison na’matagi, uchqat, zarang kabi daraxt hamda butalar bilan aralash holda o‘sadi. Archazorlarda 600 ga yaqin o‘simlik turlari borligi aniqlangan.

Dengiz sathidan 2350-2400 metr balandlikdan boshlab o‘rmon tarkibida o‘zgarish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Zarafshon archasi tup soni jihatidan kamayib saur archasining hissasi ortib boradi. Qirsimon tog‘ qiyalarining yassi yerlarida tikonli buta va chala butalar ko‘proq uchraydi.

Dengiz sathidan 2700-2800 metr balandlikdagi tog‘lardan yaylov landshaft mintaqasi boshlanadi. Quyi qismida-tog‘ landshaft mintaqasi bilan chegaradosh pog‘onada yer bag‘irlab o‘sadigan zarafshon va saur archalar o‘sadi. Qoyalar orasida, yarimtoshlik maydonlarida buta va chalabutalardan yostiqsimon tikanli buta, na’matak turlari, uchqat va pakana zarang, kobreziya yoki tuyaqorin, ermon, shuvoq, yayloq ko‘kamaroni, tog‘ astragali, o‘tlardan arxaro‘t, ayiqtovon, gulkarrak, olchin, ovcho‘p,tangacho‘p, tilovo‘t, tog‘chalov, tulkidum, ayiqquloq, g‘ozpanja kabi turlardan iborat qoplam hosil bo‘lgan. Alp o‘tloqlari landshafti tarzida namoyon bo‘lgan bu balandlik mintaqasida qordan holi maydonlarda g‘oz yaproq, akantolimon, astragal, tilovo‘t, gulizardak kabi o‘t o‘simliklarning bir necha turlari uchraydi.

Qo‘riqxona florasi, O‘zbekistondagi florasi o‘rganilgan qo‘riqxonalar florasi bilan taqqoslanganda biologik xilma-xilligining yuqoriligi, jumladan floraning boyligi va turlar zichligi yuqori ekanligi bilan ajralib turishi ma’lum bo‘ldi.

Tadqiqotchi olim T.B.Aromovning ilmiy izlanishlarida Hisor davlat qo‘riqxonasi florasida 71 oila, 457 turkumga mansub bo‘lgan 1298 tur tarqalganligi aniqlagan va floraning zamonaviy konspekti tuzilgan [9].

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomoniddan “Hisor Davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 94-sonli qarori qabul qilindi [10]. Qarorga muvoviq umumiy yer maydoni 2000,0 gektar bo‘lgan Hazrati Sulton platosi, Suvtushar daryosining bir qismi (Suvtushar sharsharasi), dinozavr izlari va Amir Temur g‘ori obyektlarini qo‘riqxona hududidan uning qo‘riqlanma zonasiga o‘tkazildi hamda ziyorat turizmi va ekologik turizmni tashkil qilish uchun zarur infratuzilmani yaratishga jalb qilindi.

Hisor qo‘riqxonasida o‘tkazilgan ekotizim monitoringi ma’lumotlari shuni ko‘rsatdiki, eroziya va insonning nazoratsiz ta’siridan zarar ko‘rgan hududlarni tiklash asosida o‘simliklar olamini saqlab qolish va ko‘paytirish imkoniyatiga yo‘l ochiladi.

Tadqiqot davomida Hisor qo‘riqxonasi ekotizimlari holatida ko‘zga ko‘rinadigan o‘zgarishlarga olib kelgan muhim tabiatni muhofaza qilish tashabbuslari amalga oshirildi. Bunday choralar qatoriga quyidagilar kiradi:

• turistlar uchun cheklangan kirish hududlarini joriy etish, bu esa nozik ekotizimlarga antropogen bosimni pasaytirdi.

• turistlar uchun himoyasiz hududlarga borishni istisno etuvchi tartibga solinadigan marshrutlarni joriy etish.

• masofaviy texnologiyalar yordamida ekotizimlar holati monitoringini takomillashtirish.

• qurg‘oqchil zonalarni tiklash hamda barqarorlashtiruvchi o‘simliklar turlarini ekish va ularni eroziyadan himoya qilish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish.

• mahalliy hamjamiyat bilan faol ishlash va ularni atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga jalb qilish.

Bu tadbirlar qo‘riqxona ekotizimlari holatini yaxshilash, sayyohlarning salbiy ta’sirini kamaytirish va noyob o‘simlik turlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ham 1997-yilda O‘zbekiston flora va faunasining 27000 ga yaqin bioxilma-xillik vakillarini saqlash va muhofaza qilishga qaratilgan Milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqildi. So‘nggi o‘tgan davr mobaynida O‘zbekiston hududidagi flora va fauna vakillarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bo‘yicha 120 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi. Ularning aksariyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita biologik xilma-xillik masalalari bilan bog‘liq. Shu

jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 484-sonli “2019-2028-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Qarorda bioxilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni, oziq-ovqat xavfsizligini, aholi yashashi uchun qulay muhitni hamda mamlakatni barqaror rivojlantirishni ta’minlash uchun 2029-yilgacha quyidagi strategik maqsadlar belgilandi.

–Bioxilma-xillik masalalarini davlat hokimiyati boshqaruvi organlari va butun jamiyatning faoliyatiga kiritish;

–Bioxilma-xillikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuklamalarni qisqartirish, uning komponentlaridan oziq-ovqat landshaftlarida barqaror foydalanish;

–Muhofaza qilinadigan tabiiy muhitlar hududi tizimini rivojlantirish, ekotizim xizmatlari tomonidan ta’minlanadigan afzalliklar hajmini ko‘paytirish;

–Salohiyatni rejalashtirish, yaratish va moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish yo‘li bilan biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanish samaradorligini oshirish vazifalar qo‘yilgan [11].

Shuningdek, qarorning Ekoturizm nomli 2-bob 6-paragrafida mazkur sohadagi kamchiliklar ham keltirib o‘tilgan. Xususan,

- O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun noyob tabiat, har xil landshaftlar (cho‘llar, tog‘lar, plato, daryolar, ko‘llar, sharsharalar), o‘simlik va hayvonot dunyosining kamyob va yo‘qolib borayotgan turlari, arxeologik topilmalar, poleontologik qoldiqlar, petrogliflar, nodir geologik obyektlar mavjud. Shunga qaramay, respublikada turistlarni tabiiy obyektlarga jalb qilish uchun infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan.

-. Respublikaning ayrim muhofaza qilinadigan tabiiy hududlari turistlarni qabul qilish uchun eng uyushtirilgan va munosib joylar hisoblanadi, chunki ushbu hududlarda belgilangan maydon va chegaralar, turistlar tashrif buyurishi uchun ajratilgan uchastkalar, keluvchilar bilan ishlash tajribasi mavjud, ayrimlarida esa - belgilangan yo‘nalishlar hamda ushbu hudud va uning xususiyatlari bo‘yicha muayyan bilimlarga ega bo‘lgan xodimlar bor.

- Biroq qonun hujjatlariga muvofiq ekoturizmni, shu jumladan, rekreatsion faoliyatni amalga oshirish uchun davlat qo‘riqxonalariga, tabiiy bog‘larning qo‘riqxona zonalariga va biosfera rezervatlariga kirish ta’qiqlangan.

Ekoturizm sohasida keltirilgan ushbu muhim jihatlarni o‘rganish va yechimini topish yurtimizda mazkur sohaning rivojlanishiga va turistlar oqimining ko‘payishiga ijobiy ta’sir etadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR.

Hisor davlat qo‘riqxonasi O‘zbekistonning eng muhim floristik markazlaridan biri bo‘lib, Pomir-Oloy viloyatiga xos bo‘lgan ko‘plab endemik, noyob va yo‘qolib borayotgan o‘simlik turlarining tabiiy uchrash joyi hisoblanadi. Balandlik mintaqalari keskin almashuvi natijasida archa o‘rmonlari, butazorlar, tog‘ va alp o‘tloqlari kabi turli fitotsenozlar shakllangan bo‘lib, ular hududning yuqori bioxilma-xilligini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalari antropogen bosim (yaylov yuklamasi, yerlarning o‘zlashtirilishi, haddan tashqari yig‘im-terim) va iqlim o‘zgarishi tufayli ko‘plab sezgir turlar populyatsiyalari qisqarib borayotganini ko‘rsatdi. Biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha milliy strategiya talablaridan kelib chiqib, Hisor davlat qo‘riqxonasida florani muntazam monitoring qilish, Qizil kitob turlari uchun maxsus muhofaza choralarini kuchaytirish va ekoturizmni faqat ilmiy asoslangan cheklov va zonalash tamoyillari asosida rivojlantirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (MANBALAR) RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ,, O‘zbekiston Respublikasining biologik rang-baranglik to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilishi haqida” 1995-yil 6-maydagi 82-I-sonli qarori. lex.uz/ru/docs/-2666920

2. Ruzmatov E.Yu., Qo‘ziboyev SH.N., Tojiboyev.M.U. // Bioekologiya (o‘simliklar ekologiyasi) // O‘quv qo‘llanma. //Andijon – 2020. 191-bet.
3. „Biologik xilma-xillikni saqlashning Yangi Milliy Maqsadlari” 2025-yil. BMTTD, 2025 undp.org/uzbekistan
4. https://xabar.uz/uz/jamiyat/olis-toglar-ortida-hisor-davlat-qoriqxonasi
5. O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobi: 1 jild – 2009.
6. Allayorov R.X. // Janubiy-G‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘ oldi landshaftlariga antropogen ta’sir //Ekologik xabarnoma // 2024, 47-53-betlar
7. Rayimov B.N. // Indicators of natural regeneration of red hawthorn (crataegus turkestanica pojark.) in hisar mountain range. // In Archive of Conferences // 2022, 244-248-bet
8. G‘ulomov R.K. // Bioxilma-xillikni saqlash. // O‘quv qo‘llanma // «TAMADDUN», Toshkent 2025. 145-bet.
9. Aromov T.B. // Hisor davlat qo’riqxonasi florasi. // Dissertatsiya. // Qarshi 2023.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Hisor Davlat qo‘riqxonasining qo‘riqlanma zonasini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 18-fevraldagi 94-sonli qarori.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ И ОБРАЗОВАНИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ, ТЕХНОЛОГИИ И ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ДОО

Мустафаева Замира Саидкуловна, Илхомова Маърифат Сирож кизи
Джизакский государственний педагогический университет имени А.Кадыри

Annotatsiya: Maqolada MTT sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasiga innovatsion yondashuvlar yoritiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning erta ekologik madaniyatni shakllantirish, bolalarning tabiatga nisbatan ongli munosabatini rivojlantirish va ekologik faolligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Ekologik ta’lim samaradorligini oshirishda STEAM yondashuvi, loyiha faoliyati, interaktiv o‘yinlar va multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion rivojlantiruvchi muhit yaratish va pedagoglarning ekologik kompetensiyasini kuchaytirish MTTdagi ekologik tarbiya sifatini oshiruvchi asosiy omillar ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: MTT, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, innovatsion texnologiyalar, STEAM, loyiha faoliyati.

Аннотация: В статье рассматриваются инновационные подходы к экологическому воспитанию детей дошкольного возраста в условиях ДОО. Описывается роль современных педагогических технологий в формировании ранней экологической культуры, развитии познавательной активности и экологически ответственного поведения. Рассматриваются возможности использования STEAM-подхода, проектной деятельности, интерактивных игр и мультимедийных ресурсов для повышения эффективности экологического образования. Создание инновационной развивающей среды и повышение экологической компетентности педагогов являются ключевыми условиями успешного экологического воспитания в ДОО.

Ключевые слова: ДОО, экологическое воспитание, экологическая культура, инновационные технологии, STEAM, проектная деятельность.

Abstract: The article explores innovative approaches to ecological education of preschool children in Early Childhood Education Organizations (ECEO). It highlights the role of modern pedagogical technologies in developing early ecological culture, increasing cognitive engagement, and fostering environmentally responsible behavior. The study examines the application of

STEAM methods, project-based learning, interactive ecological games, and multimedia tools to enhance the effectiveness of ecological education. Creating an innovative learning environment and improving educators’ ecological competence are crucial factors in advancing ecological education in ECEO.

Keywords: ECEO, ecological education, ecological culture, innovative technologies, STEAM, project-based learning.

ВВЕДЕНИЕ

Современные изменения в системе дошкольного образования определяют необходимость обновления содержания и методов экологического воспитания детей, направленного на формирование основ экологической культуры и ответственного отношения к природе. Усиление экологических проблем, рост антропогенной нагрузки и необходимость формирования устойчивых моделей поведения требуют внедрения инновационных педагогических технологий в деятельность ДОО. Традиционные формы экологического обучения уже недостаточно эффективно мотивируют детей, поэтому всё большую значимость приобретают STEAM-технологии, проектная деятельность, интерактивные игры и мультимедийные ресурсы, развивающие познавательную активность и экологическое мышление дошкольников. Внедрение инновационных подходов позволяет сформировать в ДОО полноценную развивающую образовательную среду, где экологическое содержание органично интегрируется в игру, исследовательскую деятельность, наблюдения и творческие задания. При этом особую роль играет профессиональная готовность педагогов, их способность применять современные технологии для формирования экологической грамотности детей. В связи с этим изучение и внедрение инновационных подходов в экологическом воспитании становится важным научно-практическим направлением, способствующим повышению качества и эффективности образовательного процесса в ДОО.

МЕТОДОЛОГИЯ

Методология исследования основана на комплексном подходе, включающем теоретические и практико-ориентированные методы, позволяющие всесторонне изучить влияние инновационных технологий на процесс экологического воспитания детей дошкольного возраста в условиях ДОО. На теоретическом уровне применялись методы анализа, синтеза, сравнения и обобщения научных источников, нормативных документов и современных программ экологического образования. Это позволило определить ключевые инновационные направления и педагогические технологии, наиболее эффективно формирующие экологическую культуру детей. Практическая часть исследования включала проведение педагогического наблюдения, диагностики уровня экологической осведомлённости и познавательной активности детей, а также организация педагогического эксперимента в группах ДОО. В ходе эксперимента были внедрены STEAM-занятия, мини-проекты экологической направленности, интерактивные экологические игры и мультимедийные ресурсы. Для оценки результатов использовались качественные и количественные методы: опросы и анкетирование педагогов, наблюдение за деятельностью детей, фиксация динамики их интереса, мотивированности и практических навыков.

ЗАДАЧИ

Задачей исследования являлось всесторонне определить, насколько эффективно инновационные педагогические технологии могут повысить качество экологического воспитания детей дошкольного возраста в условиях ДОО. В рамках работы предполагалось проанализировать влияние STEAM-занятий, экологических мини-проектов, исследовательских наблюдений, интерактивных игр и мультимедийных материалов на формирование у детей устойчивого интереса к природе и осмысленного отношения к

экологическим нормам. Важной составляющей задачи было выявление того, какие именно методы наиболее успешно развивают у дошкольников элементарные исследовательские навыки, способность видеть причинно-следственные связи в природе и применять полученные знания в реальной ситуации. Дополнительно исследование стремилось определить, какие педагогические и организационные условия внутри ДОО — уровень подготовки воспитателя, доступность развивающих материалов, структура экологической среды — оказываются ключевыми для успешного внедрения инновационных подходов и обеспечения стабильной положительной динамики в экологическом воспитании.

РЕШЕНИЕ

Для решения поставленной задачи в образовательную деятельность ДОО была внедрена комплексная система инновационных технологий, включающая STEAM-модули, экологические мини-проекты, игровые и исследовательские формы работы, а также использование мультимедийных материалов для расширения восприятия экологических явлений. Реализация этих методов позволила детям активно участвовать в наблюдениях, задавать вопросы, проводить простейшие опыты и обсуждать результаты со сверстниками и педагогами, что значительно усилило их интерес и вовлечённость. Одновременно воспитатели фиксировали изменения в понимании детьми экологических ситуаций, их способность объяснять наблюдаемые процессы и проявлять инициативу в действиях, направленных на заботу о природе. Параллельно анализировались условия, влияющие на успешность внедрения инноваций: готовность педагога применять современные технологии, наличие развивающих материалов, возможность гибкой организации пространства. Полученные данные убедительно показали, что комплексное использование инновационных технологий способствует более глубокому усвоению экологического содержания, формированию устойчивой мотивации и развитию экологически ответственного поведения у дошкольников.

Таблица 1.

Инновационные технологии в экологическом воспитании детей в ДОО

	Компонент	**Краткое содержание**
1.	Цель	Повышение эффективности экологического воспитания детей дошкольного возраста в ДОО.
2.	Инновационные технологии	STEAM-занятия, экологические мини-проекты, интерактивные игры, мультимедийные ресурсы.
3.	Роль педагога	Организация экологически развивающей среды, использование инновационных методик, сопровождение исследовательской деятельности детей.
4.	Формы работы с детьми	Экологические мини-проекты, наблюдения в природе, опытно-экспериментальная деятельность.
5.	Современные технологии	Интерактивные панели, мультимедийные презентации, обучающие видеоматериалы, цифровые игры экологической направленности.
6.	Ожидаемые результаты	Повышение познавательной активности, развитие экологической культуры.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённая работа позволила глубже понять, какое значение имеют инновационные педагогические технологии в экологическом воспитании детей дошкольного возраста. Практическое внедрение различных форм — от STEAM-занятий и мини-проектов до мультимедийных материалов и интерактивных игр — показало, что дети гораздо быстрее и охотнее воспринимают экологическое содержание, когда оно представлено в наглядной, исследовательской и игровой форме. Дошкольники проявляли больше инициативы, чаще обращали внимание на природные явления вокруг, стремились объяснять свои наблюдения и обсуждать их с педагогами и сверстниками. Особенно важно отметить, что повышение интереса к природе сопровождалось постепенным формированием осознанного и бережного отношения к ней. Дети стали внимательнее относиться к растениям, животным, элементарным правилам экологического поведения, что указывает на внутреннюю мотивацию, а не только на внешнее выполнение заданий. Такой результат подтверждает значимость использования интерактивных и исследовательских форм — они создают не просто знания, а опыт личного переживания экологических ситуаций. Педагоги также отметили, что применение инновационных методик требует определённой подготовки и гибкости. Эффективность работы повышалась там, где воспитатель умел сочетать цифровые инструменты с традиционными наблюдениями, экспериментами, прогулками на природе. Это показывает, что инновации не заменяют педагога, а усиливают его профессиональные возможности, помогая сделать экологическое содержание более доступным и интересным для детей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Жукова Г.Е., Головачев В.С., Суворова В.Н. Экологическое просвещение детей дошкольного возраста в условиях совместного проектирования учреждений образования и культуры // Педагогика искусства. 2020. № 3. С. 85-94.

2. Москвина А.С., Быковская Т.Е., Пантелеева Н.Г., Балабас Н.Н., Третьяков А.Л. Особенности реализации содержания экологического образования в условиях дошкольной образовательной организации // Перспективы науки и образования. 2019. № 5. С. 271-288. DOI: 10.32744/pse.2019.5.20.

3. Николаева С.Н., Рыжова Н.А. Экологическое образование для устойчивого развития. Анализ основополагающих нормативных документов // Дошкольное воспитание. 2018. № 1. С. 4-12.

4. Дерябо, С.Д.. Экологическая педагогика и психология / С.Д. Дерябо., В.А. Ясвин. - Ростов- на- Дону: Феникс, 1996. - 478 с.

5. Маркова, ТА. МЫ: программа экологического образования детей /Т.А. Маркова, Т.А. Виноградова, Н.Н Кондратьева,Т.А. Шиленок. - Москва: ПРЕСС, 2006. - 240 с.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM ORQALI EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH: BILIM VA XULQ-ATVOR O‘RTASIDAGI TAFOVUT TAHLILI

Karimova Qizlarxon Jabberganova
"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti

Annotatsiya: Global ekologik muammolar sharoitida fuqarolarning ekologik madaniyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ta’lim esa uni shakllantirishning asosiy vositasidir. Maqolada Xorazm viloyati Urganch shahrida ekologik madaniyatni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot 200 nafar respondent o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomaga asoslangan bo‘lib, muammoni xulq-atvor nazariyalari: Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (TPB), Ijtimoiy-kognitiv nazariya (SCT), COM-B modeli va Turtki berish nazariyasi (Nudge) nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi. Natijalar ekologik ong va real xulq-atvor o‘rtasida jiddiy tafovut mavjudligini ko‘rsatdi: respondentlarning 80%i chiqindilarni saralashning foydasini tan olsa-da, faqat 20%i bunga amalda rioya qiladi. Maqolada ushbu tafovutni bartaraf etish hamda o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar va ekologik mas’uliyatni shakllantirish uchun nazariy modellarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta’lim, chiqindilarni saralash, xulq-atvor nazariyalari, TPB, SCT, COM-B, Nudge, ekologik xulq-atvor.

Аннотация: В условиях глобальных экологических вызовов экологическая культура граждан играет решающую роль, а система образования выступает основным инструментом её формирования. В статье анализируется роль образовательной системы Узбекистана в развитии экологической культуры. Исследование основано на опросе, проведённом среди 200 респондентов, и рассматривает проблему через призму теорий поведения: теории запланированного поведения (TPB), социально-когнитивной теории (SCT), модели COM-B и теории «подталкивания» (Nudge). Полученные результаты показывают существенный разрыв между экологическим сознанием и реальным поведением: несмотря на то, что 91% респондентов признают пользу раздельного сбора отходов, лишь 21% соблюдают его на практике. В статье предложены рекомендации по устранению данного разрыва, а также интеграции поведенческих моделей в образовательный процесс для формирования у учащихся практических навыков и экологической ответственности.

Ключевые слова: экологическая культура, экологическое образование, раздельный сбор отходов, поведенческие теории, TPB, SCT, COM-B, Nudge, экологическое поведение.

Abstract: In the context of global environmental challenges, citizens’ environmental culture plays a decisive role, while education serves as the primary mechanism for its development. This article analyzes the role of Uzbekistan’s education system in fostering environmental culture. The research is based on a survey conducted among 200 respondents and examines the issue through several behavioral frameworks: the Theory of Planned Behavior (TPB), Social Cognitive Theory (SCT), the COM-B model, and Nudge Theory. The findings reveal a substantial gap between environmental awareness and actual behavior: although 91% of respondents acknowledge the benefits of waste sorting, only 21% practice it consistently. The article offers recommendations aimed at reducing this gap and integrating behavioral models into the educational process to develop practical skills and environmental responsibility among students.

Keywords: environmental culture, environmental education, waste sorting, behavioral theories, TPB, SCT, COM-B, Nudge, environmental behavior.

KIRISH

Iqlim o‘zgarishi va resurslarning kamayishi kabi ekologik muammolar zudlik bilan chora ko‘rishni talab qiladi. O‘zbekistonda, butun dunyoda bo‘lgani kabi, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi, bu “Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” va “2030-yilgacha ekologik madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”da o‘z aksini topgan. Ekologik madaniyat tabiat bilan uyg‘unlikka yo‘naltirilgan qadriyatlar, bilimlar va amaliy harakatlarni o‘z ichiga oladi, ta’lim esa uni tarbiyalashning fundamental vositasidir.[1,2].

Xabardorlikni oshirish bo‘yicha sa’y-harakatlarga qaramay, e’lon qilingan qadriyatlar va real xulq-atvor o‘rtasida sezilarli tafovut kuzatilmoqda, bu ayniqsa maishiy chiqindilarni boshqarish sohasida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.[3]. Ushbu tadqiqot ushbu tafovutni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Bizning taxminimizcha, ekologik xulq-atvorni shakllantirish uchun faqat bilimning o‘zi yetarli emas; psixologik, ijtimoiy va atrof-muhit omillarini hisobga olish zarur. Tahlil uchun biz tan olingan xulq-atvor nazariyalaridan foydalanamiz:

- **Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (TPB)**, munosabat, ijtimoiy me’yorlar va idrok etiladigan nazorat niyatni qanday shakllantirishini tushuntiradi.[4]
- **Ijtimoiy-kognitiv nazariya (SCT)**, ijtimoiy o‘rganish va taqlid qilishning rolini ta’kidlaydi.[5]
- **COM-B modeli**, xulq-atvorni Imkoniyat (Capability), Sharoit (Opportunity) va Motivatsiya (Motivation) o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida ko‘rib chiqadi.[6]
- **Turtki berish nazariyasi (Nudge)**, xulq-atvorni yumshoq tarzda yo‘naltirish uchun vositalarni taklif qiladi.[7]

So‘rovnoma ma’lumotlarini tahlil qilish va ushbu nazariyalarni qo‘llash asosida biz O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun bilim va harakat o‘rtasidagi to‘siqni yengishga yordam beradigan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga intilamiz.[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun anketa so‘rovi usuli (N=200) yordamida miqdoriy tadqiqot o‘tkazildi. Anketa maishiy chiqindilarni saralash sohasidagi bilimlarni (Capability), munosabat va motivatsiyani (Motivation), real amaliyot va sharoitlarni (Opportunity) baholash uchun ishlab chiqilgan. Tanlanma tasodifiy tanlov usuli bilan shakllantirildi.

Tadqiqotda 112 nafar ayol (56%) va 88 nafar erkak (44%) ishtirok etdi. Yosh guruhlari quyidagicha taqsimlandi: 18–30 yosh (34%), 31–50 yosh (42%) va 50+ yosh (24%).

Ma’lumotlarni tahlil qilish uchun to‘rtta xulq-atvor nazariyasi qo‘llanildi:

1. Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (TPB) ta’kidlashicha, harakat qilish niyati xulq-atvorga bo‘lgan munosabat, sub’ektiv me’yorlar va idrok etiladigan xulq-atvor nazorati bilan belgilanadi.

2. Ijtimoiy-kognitiv nazariya (SCT) o‘rganish ijtimoiy kontekstda kuzatish, taqlid qilish va modellashtirish (rol modellari) orqali sodir bo‘lishini ta’kidlaydi.

3. COM-B modeli harakatni amalga oshirish uchun Imkoniyatlar (jismoniy va psixologik), Sharoitlar (jismoniy va ijtimoiy muhit) va Motivatsiya (refleksiv va avtomatik) zarurligini nazariy asos sifatida ko‘rsatadi.

4. Turtki berish nazariyasi (Nudge) taqiqlarsiz xulq-atvorga ta’sir qilish uchun “tanlov arxitekturasi”ni o‘zgartirishga e’tibor qaratadi, bunda standart variantlar va vizual ko‘rsatmalar kabi vositalardan foydalaniladi.

TADQIQOT NATIJA VA MUHOKAMALARI

So‘rov natijalari respondentlarning ekologik ongi va xulq-atvori o‘rtasida sezilarli tafovut mavjudligini aniqladi. Asosiy xulosalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

1-jadval

So’rovnomadan olingan natijalar

Savol	**Ha**	**Yo‘q**	**Bilmayman**
Chiqindilarni saralash nima ekanligini bilasizmi?	68%	20%	12%
Saralash atrof-muhit uchun foydali deb hisoblaysizmi?	**90%**	4%	6%
Agar buning uchun qulay sharoitlar (konteynerlar) yaratilsa, chiqindilarni saralashga tayyormisiz?	87%	6%	7%
Amalda uyingizda chiqindilarni saralaysizmi?	**20%**	74%	6%

Ushbu jadvaldan quyidagilarni ko’rish mumkin:


1. Yuqori darajadagi xabardorlik: respondentlarning 90%i chiqindilarni saralashning foydasini tan oladi.

2. Yuqori potentsial tayyorgarlik: so‘ralganlarning 87%i infratuzilma mavjud bo‘lganda chiqindilarni saralashga tayyor.

3. Real xulq-atvorning past darajasi: respondentlarning atigi 20%i saralashni amalda qo‘llaydi.

Eng muhim natija – bu **niyat va xulq-atvor o‘rtasidagi ulkan tafovut (Intention-Behavior Gap)**ning aniqlanishidir. Saralashni foydali deb biladigan 90% va uni amalda qo‘llaydigan 20% o‘rtasidagi farq, xulq-atvorni o‘zgartirish uchun faqat ijobiy munosabatning o‘zi yetarli emasligini yaqqol ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosiy ichki nomutanosiblikni ochib berdi: yuqori darajadagi ekologik ong juda past darajadagi real pro-ekologik xulq-atvor bilan birga mavjud. Saralashni foydali deb hisoblaydigan 91% va uni amalda qo‘llaydigan 21% o‘rtasidagi tafovut – bu tizimli muammoning alomatidir.



1-rasm. Chiqindilarni saralashda ong va xulq-atvor o'rtasidagi tafovut (So‘rovnoma ma’lumotlari (N=200))

Xulq-atvor nazariyalarini qo‘llash ushbu tafovutni tushuntirishga imkon beradi:

- **COM-B modeli** shuni ko‘rsatadiki, yuqori **Motivatsiya** va o‘rtacha **Imkoniyatlar** (amaliy bilimlar yetishmasligi) mavjud bo‘lganda, asosiy to‘siq **Sharoitlar** – qulay infratuzilma va ijtimoiy me’yorlarning yo‘qligi hisoblanadi.
- **Rejalashtirilgan xulq-atvor nazariyasi (TPB)** tasdiqlaydiki, ijobiy **munosabat** past **idrok etiladigan xulq-atvor nazorati** (konteynerlarning yo‘qligi) va zaif **sub’ektiv me’yorlar** (atrofdagilarning hech biri bunday qilmaydi) tufayli **niyatga** aylanmaydi.

• **Ijtimoiy-kognitiv nazariya (SCT)** tushuntiradiki, ko‘zga ko‘rinadigan **rol modellari** bo‘lmagan taqdirda, **kuzatuv orqali o‘rganish** mexanizmi ishlamaydi, bu esa o‘z harakatlarining samaradorligiga bo‘lgan ishonchni (o‘z-o‘zini samaradorlik) pasaytiradi.

Tadqiqotning ahamiyati shundaki, u e’tiborni aholini xabardor qilishdan ularning mavjud niyatlarini amalga oshirish uchun amaliy sharoitlar yaratishga qaratadi. Tadqiqotning cheklovlarini tan olish kerak: kichik tanlanma (200 kishi) va o‘z-o‘zini hisobot qilishdan foydalanish, bu esa xulq-atvor haqidagi real ma’lumotlarni buzib ko‘rsatishi mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

O‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ekologik madaniyatni shakllantirish yo‘lidagi asosiy to‘siq onglilikning yetishmasligi emas, balki fuqarolarning ijobiy niyatlari va ularni amalga oshirish uchun sharoitlarning yo‘qligi o‘rtasidagi tafovutdir. Haqiqiy o‘zgarishlarga erishish uchun kompleks yondashuv zarur. Jamiyatda ekologik madaniyatni kengaytirish saviyali chora-tadbirlar, jumladan ekologik ta’limni kuchaytirish, ekologik qonunchilikni takomillashtirish va ommaviy axborot vositalarida ekologik mavzularni yoritish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun, ekologik madaniyatni rivojlantirish barqaror rivojlanish strategiyasining muhim poydevoridir. Bu nafaqat tabiatni asrash, balki kelajak avlodlarga sog‘lom va barqaror muhit qoldirish, shuningdek, shaxslarning axloqiy mas’uliyatini shakllantirish yo‘li hisoblanadi. Yoshlarda va jamiyatda ekologik madaniyatni keng targ‘ib qilish ta’lim va siyosiy strategiyalarda ustuvor yo‘nalish bo‘lishi lozim.

Tahlil asosida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

1. Infratuzilmani rivojlantirish (Sharoitlar / Opportunity): Sa’y-harakatlarni o‘quv muassasalarini pilot maydonchalar sifatida ishlatib, chiqindilarni alohida yig‘ishning keng qamrovli va qulay tizimini yaratishga yo‘naltirish.

2. Ta’limda amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish (Imkoniyatlar / Capability): Ta’lim dasturlarini nazariyadan amaliyotga yo‘naltirish: mahorat darslari, loyiha faoliyati, ko‘rgazmali qo‘llanmalar yaratish.

3. Qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhitni yaratish (Motivatsiya / Nudge): Rol modellarini (eko-faollar, o‘qituvchilar) targ‘ib qilish va ijobiy qayta aloqani yaratish uchun “turtkilar”ni (konteynerlarning yorqin dizayni, jamoaviy muvaffaqiyatlar haqida xabardor qilish) joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston barqaror amaliyotlarga o‘tish uchun katta salohiyatga ega, chunki odamlarning xohishi allaqachon mavjud. Davlat va ta’lim tizimining vazifasi – fuqarolarga zarur vositalar va sharoitlarni taqdim etib, niyat va harakat o‘rtasida ko‘prik qurishdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Концепция развития экологического образования в Республике Узбекистан», 2019 г. (Национальная база данных законодательства, 22.05.2019 г., № 09/19/434/3166).
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан «Об утверждении Концепции по повышению экологической культуры населения Республики Узбекистан до 2030 года».
3. Barr, S. (2007). Factors influencing environmental attitudes and behaviors: A U.K. case study of household waste management. *Environment and Behavior*, 39(4), 435–473.
4. Ajzen, I. (1991). The theory of planned behavior. *Organizational Behavior and Human Decision Processes*, 50(2), 179–211.
5. Bandura, A. (1986). *Social foundations of thought and action: A social cognitive theory*. Prentice Hall.
6. Michie, S., van Stralen, M. M., & West, R. (2011). The behaviour change wheel: A new method for characterising and designing behaviour change interventions. *Implementation Science*, 6(1), 42.

7. Thaler, R. H., & Sunstein, C. R. (2008). *Nudge: Improving decisions about health, wealth, and happiness*. Yale University Press.
8. Kollmuss, A., & Agyeman, J. (2002). Mind the Gap: Why do people act environmentally and what are the barriers to pro-environmental behavior? *Environmental Education Research*, 8(3), 239–260.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA XALQ TA’LIMI XODIMLARINING EKOLOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Boymirzayeva Raximaxon Xoshimjonovna
Namangan davlat universiteti, Yuridik fakulteti, “Fuqarolik va iqtisodiy protsessual huquq” kafedrasi katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda malaka oshirish tizimida xalq ta’limi xodimlarining ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan samarali pedagogik metodlar tahlil qilindi. Ilmiy izlanishda malaka oshirish kurslari mazmuni, o‘quv jarayonini ekologik ta’lim talablariga moslashtirish va ta’lim xodimlarida ekologik kompetentsiyalar tuzilmasini shakllantirish mexanizmlari o‘rganildi. Taqdim etilgan model va metodlar amaliyotda qo‘llanilganda o‘qituvchilarning ekologik savodxonligi, mas’uliyati va barqaror rivojlanish tamoyillariga munosabati sezilarli o‘shishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari pedagogik kadrlar tayyorlovi va malaka oshirish kurslari uchun metodik asos sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat; malaka oshirish; pedagogik kadrlar; ekologik kompetentsiyalar; barqaror rivojlanish; ekologik ta’lim; metodik modellar.

Аннотация. В данном исследовании проанализированы эффективные педагогические методы, направленные на формирование и развитие экологической культуры работников народного образования в системе повышения квалификации. В ходе научного исследования изучены содержание курсов повышения квалификации, механизмы адаптации учебного процесса к требованиям экологического образования и формирования структуры экологических компетенций у педагогических кадров. Представленные модель и методы при их практическом применении показали значительное повышение экологической грамотности, ответственности и отношения педагогов к принципам устойчивого развития. Результаты исследования рекомендуются в качестве методической основы для подготовки педагогических кадров и организации курсов повышения квалификации.

Ключевые слова: экологическая культура; повышение квалификации; педагогические кадры; экологические компетенции; устойчивое развитие; экологическое образование; методические модели.

Annotation. This study analyzes effective pedagogical methods aimed at forming and developing the environmental culture of public education employees within the professional development system. The research examines the content of professional development courses, mechanisms for adapting the educational process to the requirements of environmental education, and approaches to developing the structure of environmental competencies among educators. The proposed model and methods, when applied in practice, demonstrated a significant increase in teachers’ environmental literacy, responsibility, and their commitment to the principles of sustainable development. The results of the study are recommended as a methodological basis for teacher training and professional development programs.

Keywords: environmental culture; professional development; teaching staff; environmental competencies; sustainable development; environmental education; methodological models.

KIRISH

So‘nggi yillarda global ekologiya muammolarining keskinlashuvi, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, tabiiy resurslardan mas’uliyatsiz foydalanish jarayoni butun dunyoda inson faoliyatining barcha sohalarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda aholining, ayniqsa yosh avlod tarbiyasi va ta’lim sifati uchun mas’ul bo‘lgan Xalq ta’limi tizimi xodimlarining ekologik madaniyati yuqori darajada bo‘lishi strategik ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi ekologik xavfsizlik printsiplarini, tabiat resurslariga munosabat etikasini, barqaror rivojlanish tamoyillarini bilishi va ularni o‘quvchilarga o‘tkaza olishi kerak.O‘zbekistonda ekologik madaniyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. «Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun , Ekologik ta’lim va ma’rifatni rivojlantirish kontsepsiyasi 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangilangan milliy ekologik dastur va boshqa me’yoriy hujjatlar bu sohada tizimli ishlarni amalga oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, ushbu hujjatlarda ta’kidlangan vazifalarning amaliy bajarilishi asosan pedagog kadrlar malakasining darajasiga bog‘liq ekani olimlar tomonidan ham e’tirof etilgan [1].

Bundan tashqari, xalqaro maydonda ham ekologik kompetentsiyalar va o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha bir qator metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. YuNESKOning «Education for Sustainable Development» (ESD) dasturi, Yevropa Ittifoqining «GreenComp» kompetentsiyalar modeli, Janubiy Koreya, Finlyandiya, Yaponiya kabi mamlakatlardagi o‘qituvchilarning ekologik savodxonligini oshirish tizimlari bu sohadagi ilg‘or tajriba sifatida e’tirof etiladi [2]. Lekin xorijiy yondashuvlarning bevosita milliy sharoitga tatbiq etilishi hamisha samara bermasligi, ularni mahalliy ta’lim tizimi, qonunchilik va madaniy muhitga moslashtirish talab etilishi ta’kidlanadi.Amalda xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish jarayonlarida ekologik madaniyat bo‘yicha o‘quv modullari mavjud bo‘lsa-da, ular ko‘pincha nazariy xarakterda bo‘lib, ekologik xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirilgan amaliy va interaktiv metodlar yetarlicha emasligi tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Olib borilgan bosqichma-bosqich baholash natijalari o‘qituvchilarning aksariyati ekologik sohadagi huquqiy asoslar, barqaror rivojlanish yechimlari, ekologik xavfsizlik standartlari bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligini ko‘rsatadi.

Shuning uchun ham ushbu tadqiqotning maqsadi — malaka oshirish jarayonida Xalq ta’limi xodimlarining ekologik madaniyatini rivojlantirish samarali metodlarini ishlab chiqish, tajriba-sinoqdan o‘tkazish va ularning ta’sirini baholashdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- ekologik madaniyat tushunchasining huquqiy va pedagogik mazmunini ochib berish;
- xorijiy ilg‘or amaliyotni tahlil qilish;
- malaka oshirish jarayoni uchun modulli o‘quv dasturini ishlab chiqish;
- interaktiv, amaliyotga yo‘naltirilgan, huquqiy-ekologik kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi metodlarni ishlab chiqish;
- metodlar samaradorligini eksperiment yo‘li bilan baholash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning yuridik va pedagogik yondashuvlar sintezi asosida maxsus metodik modelni ishlab chiqish orqali namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan o‘quv modullari va metodlar Xalq ta’limi vazirligiga qarashli malaka oshirish markazlari, pedagogika universitetlari hamda maktablarda ekologik ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik madaniyat fenomeni turli fan sohalari tomonidan — pedagogika, ekologiya, huquqshunoslik, psixologiya, sotsiologiya yo‘nalishlarida har tomonlama tadqiq etilgan. Pedagogik adabiyotlarda ekologik madaniyat shaxsning tabiat bilan muvozanatli munosabatini

ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma, qadriyatlar va xulq-atvorning yaxlit tizimi sifatida talqin qilinadi. Xorijiy mualliflar (Orr, Sterling, Tilbury va b.) ekologik madaniyatni barqaror rivojlanish ta’limining markaziy kompetentsiyasi sifatida baholab, uni amaliy faoliyatga integratsiya qilish zarurligini ta’kidlaydilar[3].YuNESKOning 2017–2030 yillarga mo‘ljallangan «Sustainable Development Goals» dasturida ekologik savodxonlik va barqaror yashash madaniyati jahon ta’lim tizimlarining strategik vazifasi sifatida belgilangan. Ayniqsa, o‘qituvchilar tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ekologik kompetentsiyalarni shakllantirish birinchi o‘ringa qo‘yilgan [4].Finlyandiya ta’lim modelida o‘qituvchilar ekologik xavfsizlik standartlari, energiya tejamkorlik, chiqindilarni boshqarish, tabiat resurslarini qayta tiklash kabi amaliy yo‘nalishlarda maxsus treninglardan o‘tkaziladi. Janubiy Koreyada esa pedagog kadrlar uchun «Green Teacher» sertifikatlash tizimi joriy qilingan bo‘lib, unda o‘qituvchilarning ekologik xulq-atvori alohida mezonlar asosida baholanadi [5]. Germaniyada ekologik madaniyatni rivojlantirish «Ökopedagogik» atamasi bilan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u amaliy faoliyat, ekologik huquq va ijtimoiy mas’uliyatni birlashtiruvchi metodlar tizimini o‘z ichiga oladi [6].O‘zbekistonda ekologik madaniyat va ekologik ta’limning huquqiy asoslari qator qonunlar bilan mustahkamlangan: «Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida», «Ekologik nazorat to‘g‘risida», «Chiqindilar to‘g‘risida», «Biologik xilma-xillikni saqlash to‘g‘risida» va boshqa qonunlar . Tadqiqotchilar (A.Qurbonov, S.To‘raev, Z.Qurbonova) milliy ta’lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirishda huquqiy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar integratsiyasi muhim ekanini ta’kidlaydilar [7].

Biroq adbiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy malaka oshirish tizimida ekologik ta’lim bo‘yicha qo‘llanmalar yetarlicha emas, mavjud treninglar asosan nazariy xarakterga ega, o‘qituvchilarning ekologik kompetentsiyalarini baholash mezonlari esa yagona standartga ega emas [8]. Xorijiy adabiyotlarda esa aksariyat tadqiqotlar amaliy mashg‘ulot, tajriba-tahlil, ekologik dizayn, keys-stadi metodlarining yuqori samara berishi haqida ma’lumot beradi [9].

Shu jihatdan, halqaro tajribani milliy huquqiy va pedagogik tizimga moslashtirgan holda o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayoniga qo‘llash zarurati tug‘iladi. Malaka oshirishda praktik vazifalar, huquqiy tahlil, ekologik ekspertiza elementlari, muhitni baholash, jamoatchilik monitoringi, servis-loyihalar kabi metodlardan foydalanish o‘qituvchilarda ekologik madaniyatning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi [10].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot pedagogik faoliyatda ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini aniqlash, ularni huquqiy va pedagogik mezonlar asosida baholash, hamda malaka oshirish jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini ishlab chiqishni maqsad qiladi. Metodologiya K. Levinning amaliy o‘zgarishlar nazariyasi, kompetentsiyaviy yondashuv, “adult learning” (andragogika) modeli va ekologik huquqning zamonaviy tamoyillari asosida shakllantirildi [11].

Tadqiqotning umumiy dizaynini tahlil qilamiz. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizaynda, ya’ni “eksperimental” va “nazorat” guruhlari ishtirokida o‘tkazildi. Eksperimental dizayn pedagogik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladigan “pre-test / post-test” modeli asosida tashkil etildi [12]. Bunda o‘qituvchilarning ekologik madaniyat darajasi tadqiqot boshida baholandi (diagnostika 1), so‘ng malaka oshirish moduli asosida metodik interventsiya amalga oshirildi, keyin esa qayta baholash (diagnostika 2) o‘tkazildi.Tadqiqot 2023–2024 yillarda Xalq ta’limi vazirligiga qarashli malaka oshirish markazlarining uchta hududiy filialida amalga oshirildi. Ishtirokchilar umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat yuritadigan 118 nafar o‘qituvchini tashkil etdi. Ularning 60 nafari ekspepimental guruh (EG), 58 nafari nazorat guruhi (NG) etib belgilandi.Qo‘llanilgan tadqiqot metodlarini belgilab olishimiz juda muhim hisoblanadi. **Tadqiqotda quyidagi metodlardan kompleks tarzda foydalanildi:**

1. Pedagogik kuzatuv

Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida o‘qituvchilarning ekologik ta’limga oid faoliyati, darslardagi metodik yondashuvi, ekologik xulq-atvorini namoyon etish xususiyatlari tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatuv jarayoni maxsus ishlangan “Ekologik xulq-atvor indikatorlari modeli” asosida olib borildi [13].

2. Yuridik tahlil

Ekologik madaniyatni rivojlantirish mavjud huquqiy asoslar bilan chambarchas bog‘liq ekani sababli milliy va xalqaro qonunchilik tahlil qilindi.

Xususan:

— O‘zbekiston Respublikasining «Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni;
— «Ekologik ta’lim va ma’rifat kontseptsiyasi»;
— YuNESKOning ESD dasturi;
— YeIning GreenComp kompetentsiyalar ramkasi.

Yuridik tahlil xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ekologik huquq me’yorlarini integratsiya qilishga imkon beruvchi bloklarni aniqlashga xizmat qildi. Hududiy pedagogik mahorat markazlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (barcha toifadagi malaka oshirish) kursi uchun “Ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar” modulining 4-mavzusi “Ekologik xavfsizlik va uni ta’minlash yo‘nalishlari” deb nomlangan.Bu esa tadqiqotimizda tahlilni kengaytirishga yo‘naltirildi.

3. Kontent tahlil.

Mavjud o‘quv-metodik qo‘llanmalar, amaldagi malaka oshirish dasturlari, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar kontent tahlil orqali o‘rganildi. Kontent tahlil natijasida milliy malaka oshirish dasturlarida amaliy ekologik kompetentsiyalarni rivojlantiruvchi modullar kamligi, xulq-atvoriy elementlar yetarlicha aks etmagani aniqlandi .

4. Pedagogik eksperiment.

Pedagogik eksperiment tadqiqotning asosiy qismi bo‘lib, ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv modulining samaradorligini baholashni o‘z ichiga oldi. Eksperiment mobaynida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

- **keys-stadi** (real ekologik vaziyatlarni tahlil qilish);
- **simulyatsion o‘quv mashg‘ulotlari** (ekologik xavfsizlik stsenariylari);
- **proekt-faoliyat** (mini-loyihalar ishlab chiqish);
- **ekologik huquq bo‘yicha debatlar**;
- **jamoatchilik ekologik monitoringi elementlari** (masalan, chiqindilarni saralash bo‘yicha amaliyotlar).

Mazkur metodlar o‘qituvchilarda faqat bilim emas, balki ekologik mas’uliyat va xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi [14].

5. Ekspert baholash usuli

Tadqiqot natijalarini hatto sub’ektivlikdan xoli qilish maqsadida 12 nafar ekspert – ekolog-yuristlar, pedagogika fan doktorlari, malaka oshirish metodistlari jalb etildi. Ekspertlar maxsus ishlab chiqilgan “Ekologik madaniyatni baholash mezonlari” asosida interventsiyaning samaradorligini baholadilar .

TADQIQOTNING MEZON VA INDIKATORLARI

O‘qituvchilarning ekologik madaniyati quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha baholandi:

1. **Ekologik bilimlar darajasi** – ekologik tushunchalar, ekologik xavfsizlik printsiplari, barqaror rivojlanish maqsadlari haqidagi bilimlar;
2. **Ekologik huquqiy savodxonlik** – milliy va xalqaro ekologik normalarni bilish, o‘quvchilarga tushuntira olish;
3. **Amaliy ekologik kompetentsiyalar** – chiqindilarni saralash, energiya tejamkorlik, tabiiy resurslarni saqlash kabi amaliy ko‘nikmalar;
4. **Ekologik xulq-atvor** – ekologik mas’uliyat, ekologik qaror qabul qilishda faollik;
5. **Metodik kompetentsiyalar** – ekologik ta’limni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish mahorati.

AXBOROTNI QAYTA ISHLASH VA STATISTIK TAHLIL

Olingan natijalar SPSS 26 dasturi asosida qayta ishlandi.Tahlilda: — **t-test** (Styudent mezoni), **korrelyatsion tahlil**, **variantli tahlil** (ANOVA) kabi statistik metodlar qo‘llanildi. Har bir o‘zgaruvchining ahamiyat darajasi $p \leqslant 0,05$ asosida belgilandi. Statistik tahlil eksperimental yo‘nalishdagi metodlarning samaradorligini ishonchli asoslashga yordam berdi [15].

Tadqiqot xalqaro etik mezonlarga muvofiq amalga oshirildi:

— ishtirokchilar ixtiyoriy ravishda rozilik berdilar;

— shaxsiy ma’lumotlar maxfiy saqlandi;

— tadqiqot jarayoni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga zid bo‘lmagan holda o‘tkazildi .

NATIJALAR

Tadqiqot malaka oshirish jarayonida Xalq ta’limi xodimlarining ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv modulining samaradorligini aniqlashga yo‘naltirildi. Olingan natijalar “pre-test/post-test” (eksperiment oldi va keyin) printsipi asosida tahlil qilindi va quyidagi yo‘nalishlar kesimida umumlashtirildi: **ekologik bilimlar, ekologik huquqiy savodxonlik, amaliy ekologik kompetentsiyalar, ekologik xulq-atvor, metodik kompetentsiyalar.**

Ekologik bilimlar darajasi bo‘yicha natijalar

Eksperiment boshlanishida ikki guruhdagi o‘qituvchilarning ekologik bilimlari o‘rtacha 2,6–2,8 ball atrofida bo‘lib, farq statistik jihatdan ahamiyatsiz edi ($p > 0,05$). Bu holat ikki guruhning boshlang‘ich imkoniyatlari deyarli teng bo‘lganini ko‘rsatadi.Eksperiment yakunlanganidan so‘ng esa Eksperimental Guruhda (EG) ekologik bilimlar o‘rtacha 4,3 ballga oshdi. Bu natija o‘qituvchilarning barqaror rivojlanish printsiplari, ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish huquqiy asoslari bo‘yicha bilimlari sezilarli rivojlanganini ko‘rsatdi. Nazorat Guruhida (NG) o‘zgarish sezilarsiz (2,9 → 3,0 ball) bo‘lib qoldi. $p \leqslant 0,001$ darajadagi ahamiyatli farq o‘quv modulining samaradorligini isbotlaydi .

Ekologik huquqiy savodxonlikning rivojlanishi

Ekologik huquqiy savodxonlik o‘qituvchilarning ekologik qonunlar, normativ hujjatlar va huquqiy talablarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati bilan bog‘liq. Dastlabki diagnostikada ishtirokchilarning aksariyati ekologik qonunchilik normalarini faqat umumiy darajada bilgani aniqlandi (o‘rtacha 2,4 ball).Interventsiyadan keyin EGda o‘rtacha ko‘rsatkich 4,1 ballga yetdi. O‘zgarishning asosiy sabablari sifatida:

• milliy ekologik qonunchilikka oid maxsus seminarlar o‘tkazilishi,
• huquqiy keys-stadi metodlarining qo‘llanilishi,
• ekologik huquq normalarini maktab ta’limiga tatbiq etish bo‘yicha amaliy topshiriqlar berilishi e’tirof etildi. NGda esa huquqiy savodxonlik deyarli o‘zgarishsiz qolgani kuzatildi (2,5 dan 2,7 ballgacha).

Amaliy ekologik kompetentsiyalarning o‘sishi

Amaliy ekologik kompetentsiyalar — ekologik bilimlarni real hayotda qo‘llash ko‘nikmalaridir. Eksperimentda amaliy mashg‘ulotlar (chiqindilarni saralash, energiya auditini tashkil etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish) muhim o‘rin tutdi.Eksperimentoldi baholashda EGda o‘rtacha ko‘rsatkich 2,1 ball bo‘lgan bo‘lsa, eksperimentdan keyin 4,0 ballgacha oshdi. Bu 89% o‘sishni tashkil etdi. Ayniqsa, o‘qituvchilarning maktabda ekologik monitoringni tashkil qilish,ekologik xavf tahlilini amalga oshirish,o‘quvchilar bilan ekologik loyihalarni ishlab chiqish kabi amaliy ko‘nikmalarining rivojlangani qayd etildi.NGda o‘zgarish minimal bo‘lib (2,2 → 2,4 ball), eksperimentning targ‘ibot-suhbat kabi umumiy omillar natijasida yuzaga kelgani ehtimol qilindi.

Ekologik xulq-atvorning shakllanishi

Tadqiqot davomida o‘qituvchilarning ekologik xulq-atvori alohida indikatorlar orqali baholandi: resurslarni tejash, qayta ishlashga munosabat, ekologik qarorlar qabul qilishda faollik va shaxsiy mas’uliyat.Eksperiment yakunlari shuni ko‘rsatdiki, EGda xulq-atvor komponentlari 2,3 balldan 4,2 ballgacha oshdi. Xulq-atvoriy o‘zgarishlarning shakllanishi, tadqiqotga ko‘ra, asosan:

• amaliy ekologik faoliyatga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlari;
• servis-loyihalarda ishtirok etish;
• jamoatchilik ekologik so‘rovlarni tashkil etish orqali ro‘y berdi.Bu natija Sterling (2014) va UNESCO ESD (2020) tadqiqotlarida qayd etilgan “amaliy faoliyat xulq-atvor o‘zgarishining asosiy drayveri” degan qarashga to‘liq mos keladi [16].

Metodik kompetentsiyalarning rivojlanishi

Metodik kompetentsiya — o‘qituvchining ekologik ta’limni darslarga integratsiya qilish, o‘quvchilarda ekologik tafakkurni shakllantirish uchun tegishli metodlarni tanlash va qo‘llash mahorati.Eksperimentdan so‘ng EGda metodik kompetentsiyalar o‘rtacha 4,4 ballga yetdi (boshlang‘ich 2,5 ballga nisbatan). Ayniqsa quyidagi sohalarda sezilarli o‘sish qayd etildi:

-ekologik keys-stadi tayyorlash va o‘tkazish mahorati;
-tabiatni muhofaza qilish huquqiy normalarini dars jarayoniga qo‘llash;
-STEM, CLIL, va proekt-ta’lim texnologiyalariga ekologik mazmun integratsiyasi;
-ekologik xulq-atvorni rivojlantiruvchi interaktiv metodlardan foydalanish [17].

NGda ko‘rsatkich 2,6 dan 2,9 ballgacha oshdi. Bu ayniqsa, umumiy axborot-ma’rifiy muhit ta’siri bilan bog‘liq ekanini anglatadi.

Statistik tahlil natijalari

SPSS 26 dasturi orqali o‘tkazilgan t-test tahlillari EG va NG o‘rtasidagi farqning barcha yo‘nalishlarda ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi ($p < 0,001$). Bu interventsiyaning samaradorligini ilmiy asoslashga imkon berdi.Korrelyatsion tahlil ekologik huquqiy savodxonlik bilan ekologik xulq-atvor o‘rtasida 0,71 koeffitsient (r) darajasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu huquqiy bilim xulq-atvorga bevosita ta’sir qiluvchi omil ekanini anglatadi.ANOVA tahlili esa amaliy ekologik faoliyatda ishtirok etish darajasi metodik kompetentsiyalarga kuchli ta’sir ko‘rsatishini ($F = 14,63$; $p < 0,001$) tasdiqladi.

Ekspert baholash natijalari

Ekspertlar tomonidan o‘tkazilgan sifat baholashda quyidagi xulosalar keltirildi:

1. Modulli o‘quv dasturi o‘qituvchilarda ekologik madaniyatning barcha komponentlarini muvozanatli rivojlantirgan.

2. Yuridik va amaliy bloklarning integratsiyasi metodning innovatsion jihatini tashkil etadi.

3. Model respublika darajasida joriy etish uchun mos va masshtablanuvchan.

Ekspertlar umumiy samaradorlikni 4,6/5 ball deb baholadi .

Xulosa sifatida asosiy natijalar

- Barcha komponentlar kesimida Eksperimental Guruhda **40% dan 85% gacha** o‘sish qayd etildi.
- Eng katta rivojlanish **metodik kompetentsiyalar** va **ekologik xulq-atvor** sohalarida kuzatildi.
- Yuridik savodxonlikning oshishi ekologik xulq-atvor rivojiga kuchli ta’sir qilgini aniqlandi.
- Malaka oshirishda amaliy faoliyat, servis-loyihalar, keys-stadi va huquqiy tahlil eng samarali metodlar sifatida namoyon bo‘ldi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari malaka oshirish tizimida o‘qituvchilarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv modullari va metodik interventsiyalar samarali ekanini ko‘rsatdi. Bu bo‘limda olingan natijalar xorijiy tadqiqotlar, ilg‘or pedagogik yondashuvlar va milliy huquqiy asoslar bilan solishtiriladi hamda ularning amaliyotga ta’siri tahlil qilinadi.

Ekologik bilimlarning o‘sishi: milliy va xalqaro tendensiyalar taqqoslamasi

Tadqiqot natijalarida o‘qituvchilarning ekologik bilimlari sezilarli ravishda oshgani aniqlandi (EGda 2,8 → 4,3 ball). Bu UNESCO, OECD, GreenComp kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qayd etilgan tendentsiyalar bilan uyg‘un. Xususan, UNESCO (2020) hisobotida o‘qituvchilarning ekologik bilimlari — barqaror rivojlanish ta’limi (ESD)ning asosiy indikatori sifatida baholangan va malaka oshirish tizimida bu yo‘nalishdagi bilimlar chuqurlashtirilishi zarurligi ta’kidlangan [18].Biroq xalqaro adabiyotlarda ekologik bilimlarni oshirish o‘zi bilan birga xulq-atvordagi real o‘zgarishlarga ham olib kelishi kerakligi urg‘u bilan qayd etiladi. Sterling (2014) [19] va Tilbury (2019) [20] tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, ekologik bilimlar faqat nazariy mazmunda qolsa, barqaror rivojlanish bo‘yicha faollikni ta’minlay olmaydi . Ushbu tadqiqotda esa bilimlar amaliy faoliyat bilan birgalikda rivojlantirilgani sababli xulq-atvor ko‘rsatkichlarida ham yuqori o‘sish qayd etildi.

Ekologik huquqiy savodxonlikning oshib borishi: milliy qonunchilikning roli

Ekologik huquqiy savodxonlik komponentlarining 2,4 dan 4,1 ballgacha oshishi o‘qituvchilarning faoliyatida huquqiy bilimlarning ahamiyati oshganini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda oxirgi yillarda ekologik huquqiy baza sezilarli darajada takomillashdi:

– «Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri,

–Ekologik nazorat to‘g‘risida Qonun,

– Ekologik ta’lim va ma’rifat kontseptsiyasi (2021),– Milliy “Yashil dastur” (2023) .

Xalqaro amaliyotda ham ekologik huquq asoslari o‘qituvchilar malakasini oshirishning muhim qismi hisoblanadi. Germaniya, Finlyandiya, Kanada kabi mamlakatlarda o‘qituvchilar atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha milliy qonunchilik va xalqaro normalarni bilishi pedagogik kompetentsiyaning bir qismi sifatida ko‘riladi.Mazkur tadqiqotda ekologik huquqiy bilimlar xulq-atvor bilan kuchli korrelyatsiya (r = 0,71) ko‘rsatgani, o‘qituvchining huquqiy ongi atrof-muhitga munosabatida hal qiluvchi omil ekanini isbotladi. Bu holat xalqaro tadqiqotlardagi (Anderson, 2020; OECD 2021) xulosalar bilan hamohang [21].

Amaliy ekologik kompetentsiyalar: faqat nazariy bilim emas, faol “qilish” ko‘nikmasi

Amaliy faoliyatga asoslangan metodlar o‘qituvchilarda eng yuqori rivojlanishni ta’minladi — 89% o‘sish qayd etildi. Bu holat ekologik ta’limni amaliy mashg‘ulotlar orqali tashkil etish samarali ekanini ko‘rsatadi.Xorijiy tadqiqotlarda keys-stadi, ekologik audit, jamoaviy ekologik monitoring, servis-loyihalar, simulyatsion mashg‘ulotlar ekologik xulq-atvorni shakllantirishda eng kuchli vosita sifatida baholanadi. Bu tadqiqotda ham xuddi shunday metodlar qo‘llanilishi natijalarning yuqori chiqishiga olib keldi. Shuningdek, amaliy kompetentsiyalar shakllanishida **andragogik yo‘nalish** — ya’ni kattalar uchun mo‘ljallangan faol va tajribaviy o‘quv modellari — ko‘proq samara bergani qayd etildi. Knowles (2015) modeliga ko‘ra, kattalar bilimni hayotiy tajriba bilan bog‘laganda tezroq o‘zlashtiradi [22].

Ekologik xulq-atvor o‘zgarishining mexanizmi: bilim — qadriyat — amaliy natija zanjiri

Ekologik xulq-atvor ko‘rsatkichlarining 2,3 dan 4,2 ballgacha o‘sishi tadqiqotning eng muhim natijalaridan biri bo‘ldi. Xulq-atvoriy o‘zgarishlarning paydo bo‘lishida quyidagi omillar hal qiluvchi o‘rin tutdi:

1.Amaliyotga qaratilgan topshiriqlar – resurs tejash, chiqindilarni saralash.

2.Ekologik loyihalarda ishtirok – o‘quvchilar bilan birgalikda mini-loyihalar.

3.Ekologik huquq normalarining tushuntirilishi – tavakkalchilikni anglash va shaxsiy javobgarlikni his etish.

4.Motivatsiya va ijtimoiy mas’uliyat – jamoatchilik monitoringi elementlari [23].

YuNESKO va UNEP tadqiqotlarida xulq-atvor o‘zgarishi bilimning o‘zi bilan emas, balki **amaliy tajriba va ijtimoiy talablar bilan** bog‘liqligi ta’kidlangan. Ushbu tadqiqotda ham aynan shunday mexanizm ishlagani ko‘rindi.

Metodik kompetentsiyalar: ekologik ta’limni integratsiya qilishning yangi modeli

Metodik kompetentsiyalarning 2,5 dan 4,4 ballgacha oshishi o‘qituvchilarni ekologik ta’limni dars jarayoniga tizimli integratsiya qilishga o‘rgatish imkoni yaxshilanganini ko‘rsatadi. Qayd etilishicha, o‘qituvchilar quyidagi metodlarni eng samarali deb topdilar:

– ekologik keys-stadi;
– ekologik huquqiy tahlil;
– STEM-ta’limga ekologik mazmun qo‘shish;
– proekt-texnologiya;
– CLIL asosida ekologik terminologiyani o‘qitish [24].

Bu natijalar Finlyandiya, Koreya va Germaniyaning ekologik pedagogika tarmoqlaridagi talablar bilan muvofiq keladi. Germaniyadagi “Ökopedagogik” modeli ham xuddi shu tartibda metodik kompetentsiyani notanish vaziyatlarda ekologik qaror qabul qilish orqali rivojlantirishni taklif qiladi .Tadqiqotda taklif etilgan modelning quyidagi jihatlari milliy ta’lim tizimiga to‘liq mos ekani aniqlandi:

1) Qonunchilikka uyg‘unlik

Ekologik ta’lim bo‘yicha milliy kontseptsiyalar va davlat dasturlari metodik model bilan chambarchas bog‘liq.

2) Malaka oshirish tizimi infratuzilmasining tayyorligi

Malaka oshirish markazlari interaktiv, amaliyotga asoslangan modullarni joriy qilish uchun zarur resurslarga ega.

3) O‘qituvchilarning talab va ijtimoiy ehtiyoji

So‘rovnomalar o‘qituvchilarning 80% dan ortig‘i ekologik ta’lim bo‘yicha maxsus modullarga ehtiyoj yuqoriligini qayd etganini ko‘rsatdi.

4) Masshtablanish imkoniyati

Model respublika bo‘yicha tatbiq etilishi mumkin, chunki u modulli, resurs jihatdan tejamkor va har bir hududga moslashuvchan.

Sheklovlar va kelgusi tadqiqotlar uchun yo‘nalishlar

Tadqiqot qator cheklovlarga ham ega:

1. Ishtirokchilar soni cheklangan (118 nafar), kelgusida kengroq qamrov talab etiladi.
2. Eksperiment muddati 3 oy bo‘lib, xulq-atvor o‘zgarishining uzoq muddatli ta’siri tahlil qilinmadi.
3. Ekologik madaniyatni baholash mezonlarini yanada aniqlashtirish talab etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi:

– Ekologik madaniyatning uzoq muddatli monitoringi;

– Maktab–oila–jamoatchilik o‘rtasidagi ekologik hamkorlik modelini ishlab chiqish;
– TSifrovizatsiya (AR/VR) asosida ekologik ta’lim texnologiyalarini joriy qilish.

XULOSA

Tadqiqot davomida malaka oshirish jarayonida xalq ta’limi xodimlarining ekologik madaniyatini rivojlantirish samaradorligini ta’minlovchi omillillar, pedagogik shartlar va metodlar tizimli ravishda o‘rganildi. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, ekologik madaniyat tarkibiy qismlari — bilim, huquqiy savodxonlik, amaliy kompetentsiyalar, ekologik qadriyatlar va ekologik mas’uliyat — o‘zaro bog‘liq holda shakllantirilsa, o‘qituvchilarda barqaror ekologik xulq-atvorning namoyon bo‘lishi sezilarli darajada tezlashadi. Bu holat UNESCO, OECD va YeU GreenComp standartlarida ko‘rsatilgan kompetentsiyaviy yondashuv bilan to‘liq uyg‘un ekani aniqlandi .

Eksperiment natijalari malaka oshirish tizimida qo‘llanilgan interfaol va amaliyotga yo‘naltirilgan metodlarning samaradorligini tasdiqladi. Ayniqsa, keys-stadi, ekologik huquqiy tahlil, servis-loyiha faoliyati, ekologik monitoring, STEM integratsiyasi kabi metodlar o‘qituvchilarning amaliy ekologik kompetentsiyalarini shakllantirishda asosiy omil bo‘ldi. Bu xalqaro pedagogik modellar — Finlyandiyaning kompetentsiyaviy yondashuvi, Germaniyaning «Ökopedagogik» kontseptsiyasi va Koreyaning amaliy ESD dasturlari bilan o‘xshash bo‘lib, o‘quvchilarga emas, avvalo o‘qituvchilarga ekologik madaniyatni shakllantirishga asoslangan yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi .Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ekologik huquqiy savodxonlik o‘qituvchilarda ekologik xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Milliy huquqiy baza — «Atrof muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonun, «Ekologik nazorat to‘g‘risida»gi Qonun, Ekologik ta’lim kontseptsiyasi (2021) va Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi — o‘qituvchilar uchun ekologik mas’uliyatni huquqiy asosda anglash imkonini beradi. Tadqiqotda huquqiy bilimlar ham nazariy, ham amaliy mashg‘ulotlarda birgalikda qo‘llanilgani sababli huquqiy ong va xulq-atvor o‘rtasida kuchli bog‘liqlik shakllangani kuzatildi (korrelyatsiya r = 0,71), bu xalqaro tadqiqotlardagi xulosalar bilan muvofiq keladi.Malaka oshirish jarayonida ishlab chiqilgan ekologik ta’lim moduli o‘qituvchilarda ekologik madaniyatning barcha komponentlari bo‘yicha ijobiy dinamikani ta’minladi. Hosil bo‘lgan o‘sish quyidagicha namoyon bo‘ldi:

- ekologik bilimlar — 53% ga;
- ekologik huquqiy savodxonlik — 58% ga;
- amaliy ekologik faollik ko‘rsatkichlari — 89% ga;
- metodik kompetentsiyalar — 76% ga;
- ekologik xulq-atvor indikatorlari — 82% ga oshdi.

Bu natijalar malaka oshirish jarayonida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus modullarning ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **xulosalar** shakllantirildi:

1.Ekologik madaniyatni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi — ekologik bilim, huquqiy savodxonlik va amaliy faoliyatni bir-biriga integratsiya qilish o‘qituvchilarda barqaror ekologik ongni shakllantiradi.

2.Amaliyotga yo‘naltirilgan metodlar nazariy bilimlarga nisbatan ko‘proq samara keltiradi, chunki o‘qituvchi ekologik masalalarni o‘z tajribasi orqali anglaydi va qayta ishlaydi.

3.Ekologik huquqiy savodxonlik o‘qituvchida ekologik mas’uliyatning asosiy omillaridan biri bo‘lib, uni malaka oshirishning ajralmas qismi sifatida joriy etish zarur.

4.Metodik kompetentsiyalar (integratsiya, keys tahlili, STEM-ekologiya, loyihalash) ekologik ta’limni amaliyotga to‘g‘ri yo‘naltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

5.Taqdim etilgan pedagogik modelь milliy ta’lim tizimiga to‘liq mos, resurs jihatdan tejamkor va malaka oshirish markazlarida keng ko‘lamda joriy etilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar xalq ta’limi tizimi pedagoglari, metodistlari, malaka oshirish o‘qituvchilari va ta’lim siyosati tashkilotchilari uchun amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi. Ushbu modelni respublika darajasida tatbiq etish ekologik madaniyatni oshirish, o‘qituvchilar va o‘quvchilarda ekologik javobgarlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qurbonov A. Ekologik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik asoslari. — T.: Fan, 2020.
2. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. Paris, 2017
3. Tilbury D. Environmental Education Research. London, 2019.
4. Tilbury D. Environmental Education Research. London, 2019.
5. Ministry of Education of Korea. Green Teacher Program. Seoul, 2021
6. Müller S. Ökopedagogik. Berlin, 2018.
7. Qurbonova Z. Ekologik ta’limda huquqiy yondashuv. — T., 2021.
8. Karimov A. O‘qituvchilar malakasini oshirishda ekologik modullarni takomillashtirish. — Toshkent, 2022
9. Orr D. Ecological Literacy. NY: SUNY Press, 2013
10. EU GreenComp Framework. Brussels, 2022
11. Lewin K. Field Theory in Social Science. — New York, 1951.
12. Creswell J. Educational Research. Pearson, 2018.
13. Xaritonova Ye.V. Ekologicheskoe povedenie i yego indikatorы. — M., 2019
14. Tilbury D. Environmental Education Research. London, 2019
15. Field A. Discovering Statistics Using SPSS. London, 2017
16. Saidova, N. Ekologik madaniyat va uning shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2020
17. Axmedov, D. Ekologik ta’limda innovatsion metodlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021
18. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris: UNESCO Publishing, 2020
19. Sterling, S. Sustainable Education: Re-visioning Learning. – London: Routledge, 2014
20. Tilbury D. Environmental Education Research. London, 2019
21. Anderson, A. Environmental Law and Policy in Education. – New York: Springer, 2020.
22. Knowles, M. The Adult Learner: Andragogy in Practice. – New York: Routledge, 2015
23. Jickling, B., Wals, A. Global Environmental Education Research. – Springer, 2018.
24. Reid, A. Researching Education and the Environment. – London: Routledge, 2020

ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕБОВАНИЙ

Нигматов Аскар Нигматуллаевич
Академия труда и социальных отношений

Аннотация: *В статье раскрыты понятие, содержание и сущность экологического требования. В ней, путём социологических исследований, обосновывается необходимость разработки и реализации экологических требований с учетом объекта и предмета экологии, а также путём внедрения правовых, религиозных и национального этикета.*

Ключевые слова: *экология, требование, нормы, правовые, религиозные, этические, социологический опрос, возрастная, профессиональная, заключение, рекомендации.*

Annotation: *The article reveals the concept, content and essence of an environmental requirement. Through sociological research, it substantiates the need to develop and implement environmental requirements, taking into account the object and subject of ecology, as well as through the introduction of legal, religious and national etiquette.*

Keywords: *Ecology, requirements, norms, legal, religious, ethical, sociological survey, age, professional, conclusion, recommendations.*

Аннотация: *Maqolada ekologik talab tushunchasi, mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Unda sotsiologik tadqiqotlar orqali, ekologiyaning ob'ekti va predmetini hisobga olgan holda, ekologik talablarni ishlab chiqish va amalga joriy qilishda huquqiy talablar bilan bir qatorda diniy va milliy odob-axloq qoidalarini inobatga olish zaruriyati asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Ekologiya, talab, normalar, huquqiy, diniy, axloqiy, sotsiologik so'rov, yoshi, kasbiy, xulosa, tavsiyalar.*

ВВЕДЕНИЕ

Эксперты пришли к выводу, что для решения экологических проблем необходимо разработать и внедрить в жизнь требования по охране окружающей среды, рациональному использованию природных ресурсов и восстановления нарушенных экосистем [1,2,3]. К сожалению, понятие, содержание и сущность экологического требования не однозначно и научно не обосновано. *Целью* данной статьи является – провести исследования для научного обоснования этих словосочетаний, провести социологический опрос, сделать заключение и дать рекомендации по их практическому применению.

МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ.

Для литературного анализа по соответстующей тематике были использованы методы: систематизация и классификация источников; критический, сравнительный и контекстуальный анализы; синтез информации; использование баз данных и каталогов как национальных, так и международных источников.

Социологические исследования проводились методом анкетного опроса среди различных возрастов и профессий в городе Ташкенте, Ташкентской, Наманганской, Ферганской, Кашкадарьинской, Самаркандской, Бухарской областях Узбекистана. В опросе приняли участие 342 респондента. В нем 62 анкеты не были включены в программу анализа из-за их недействительности. Анкетированы старшеклассники средней школы до населения, достигшего пенсионного возраста. 280 респонденты, признанных подходящими по возрастному составу населения, были разделены на 3 группы. Молодёжь в возрасте до 30 лет составили 33% (92 человека) участников; 30-50 лет, средний возраст – 49% (100 человек), выше 50 лет, старший возраст – 18% (51 человек). Анкета состояла из 6 вопросов по теме «Экологическая безопасность и требования»:

- ✓ *Какая проблема является наиболее важной в вашей повседневной жизни?*

✓ *Что вы подразумеваете под экологическим требованием?*
✓ *Каких экологических норм, по вашему мнению, лучше придерживаться?*
✓ *Какие правила лучше включить в экологические требования?*
✓ *Какие правила, по вашему мнению, необходимо ужесточить для обеспечения экологической безопасности в будущем?*
✓ *Решение какой проблемы вы считаете необходимым для будущего поколения?*

Исходя из содержания и сути каждого вопроса, респондентам была предоставлена возможность выбрать один из 4–7 вариантов ответа. Полученные данные методом сравнительного анализа были сопоставлены по классифицируемым группам для выявления различий и сходств.


РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ И ОБСУЖДЕНИЕ

Одним из способов решения экологических проблем может стать разработка и внедрение системы строгих *экологических требований* к каждой классифицируемой экосистеме, которые должны учитывать их специфические особенности. Для этого нужно сначала четко определить понятия «*Экология*» и «*Требования*».

Обобщая различные мнения ученых, можно сказать, что ***экология*** – *отрасль науки, изучающая законы, закономерности и механизмы взаимоотношений организмов между собой и их изменяющейся окружающей природной средой в определенной экосистеме; образовательная и воспитательная деятельность, направленная на формирование знаний, умений и навыков; практическая отрасль, регулирующая этих взаимодействий* [4]. Почему *«изменяющейся»*? Потому что если среда обитания организмов, то есть ***экосистемы,*** являющиеся ***объектом изучения науки об экологии,*** изменяются, их виды тоже приспосабливаются к изменчивой окружающей природной среде [5]. Изменение одного типа организмов также может привести к изменению другого. *Предметом исследования экологической науки является*: ***охрана, рациональное использование природных ресурсов и восстановление нарушенных экосистем*** [6].

Что такое требование? Толковый словарь узбекского языка определяет 6 различных значений слова «требование»: *лингвистический* – настойчивый запрос, просьба, фраза, требующая пояснения; *управленческий* – приказ или поручение, которые должны быть выполнены; *социальный* – потребность, желание; *экономический* – покупатель, стремление потребителя приобрести на рынке определенный товар, блага; *филологический* – тот, кто, присоединяясь к существительным, хочет того, что понимается от этого существительного, нуждается в нем, требователен; *хозяйственный* – объем воды для нормального роста растений и т.п. [7]. Таким образом «требование» различаются по принадлежности к определенной области или категории знаний.

Но с 70-годов XX века среди основных направлений деятельности человеческого общества наряду с экономикой, политикой, общественной жизнью, правовым статусом первостепенное значение приобретают экологические требования. В национальной и зарубежной литературе экологический характер «требования» не раскрыт полностью (табл.1). Например, известный ученый-юрист Ж.Т.Холмуминов предметом и целью экологического права считает сохранение и правовое регулирование отношений между природой, обществом и человеком [8,9]. А российские правоведы считают, что предметом исследования Экологии являются: право собственности на природу; охрана природы; управление окружающей средой; защита экологических прав и законных интересов людей [10].



Инфографика 1. Анализ отношения различных возрастных групп населения к экологическим требованиям

Таблица 1

Определения словосочетания «экологическое требование " в литературом источнике

Определение	***Источник***
Экологическое требование – не дано	Национальная энциклопедия Узбекистана. – Ташкент: «ГНИ УзНЭ», 2013
Экологическое требование – не дано	Толковый словарь узбекского языка. – Ташкент: «ГНИ УзНЭ», 2020
Экологическое требование – предъявляемые к хозяйственной и иной деятельности обязательные условия, ограничения или их совокупность, установленные законами, иными нормативными правовыми актами, природоохранными нормативами, государственными стандартами, техническими регламентами и иными нормативными документами, которые направлены на охрану окружающей среды, восстановление природной среды, рациональное использование и воспроизводство природных ресурсов, обеспечение экологической безопасности в интересах настоящего и будущих поколений.	Гогаева М.Т. Правовой механизм принятия экологически значимых решений. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук.– Москва, 2011. 28 с.
Экологические требования — это совокупность норм и правил, установленных в целях охраны окружающей среды и обеспечения рационального использования природных ресурсов..	Экологические требования. https://www.google.com/search

Экологические требования – являются критерием оценки экологической чистоты поведения человека, учитывающим выполнение экологических требований, выражающих меру уважения к природе, в частности к законам природы, соблюдение их людьми в повседневной практике взаимодействия с ней, меру не только прав, но и религии, морали, этики эффективности всей окружающей среды.	Бринчук М.М. Внешние методологические основания развития экологического права: закономерности развития // Экологическое право. – Москва, 2011. № 1. С. 2-7.
Экологические требования — это обязательные требования, установленные в законодательстве и нормативных документах, направленные на обеспечение рационального природопользования, охраны окружающей среды, здоровья человека и сохранения генетического фонда.	Muqimov A.M. Yerdan foydalanish ekologiyasi.– Tashkent, 2022.–129-b .
Требования экологической безопасности — это требования, которые устанавливаются и являются обязательными для выполнения в целях предотвращения нанесения ущерба окружающей среде.	O‘zR Vazirlar Mahkamasining “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi 19.02.2020-yildagi 95-son qarori
Экологическая безопасность — состояние защищенности окружающей природной среды и жизненно важных интересов человека от возможного негативного воздействия хозяйственной и иной деятельности, от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера и от их последствий.	Морозов В.В., Несоленое Г.Ф. Основы экологической безопасности: Учебное пособие. – Самара: Самарский ГАУ, 2003. - 365 с.

Исторически экологические требования, хотя и не назывались экологическими, были правомерны с юридической точки зрения. Например, в XIII–XIV веках «Волоцкая хартия» литовского князя Сигизмунда II, отражавшая требования по охране лесов, видов, зубров и тарпанов Мазовии, запрещала охоту в период нереста. В XIV веке во Франции был создан специальный департамент «Воды и леса», задачей которого была охрана лесов. Во времена правления древнего короля Вильгельма II за убийство оленей, кабанов и даже зайцев наказывали смертной казнью. Однако эти законы были направлены скорее на сохранение и защиту феодальной собственности, чем на природную среду [6]. Исходя из концепции экологических требований, любое из этих требований можно выразить в трех формах, в соответсвии предмета Экологии. Например:

1. *Требования по охране экосистем,* отраженные в правовых нормах, можно рассмотреть на примере Постановления Кабинета Министров РУз от 14 августа 2018 года №657. Постановление устанавливает экологические требования к государственным заповедникам в охраняемой зоне природного парка. В этой зоне запрещаются любые рекреационные, хозяйственные и иные виды деятельности, за исключением научных исследований, направленных на мониторинг естественного хода биоразнообразия и природных процессов, охрану и воспроизводство природных объектов и комплексов.

2. *Требования по рациональному использованию* ресурсов *экосистем*. В рекреационной зоне природного парка: вырубка деревьев и кустарников (за исключением вырубки в рекреационно-оздоровительных и санитарных целях); действия, изменяющие гидрологический и гидрогеологический режим; действия, вызывающие эрозию почвы, деградацию флоры и фауны и т.п.

3. *Требования к восстановлению нарушенных экосистем*: В соответствии со статьями 17–23 Закона РУз «Об охране природы» от 9 декабря 1992 года «О регулировании использования природных ресурсов»: снятие гумусового слоя почвы под сооружениями для повышения продуктивности в других местах; рекультивация земель, изменивших свое состояние в процессе добычи полезных ископаемых; местные, природоохранные и водохозяйственные органы обязаны восстанавливать и увеличивать древесные насаждения

в местах формирования речных притоков и прибрежных зонах водных объектов, а также обеспечивать их сохранность и т.п.

Но некоторые ученые считают, что экологические требования могут быть не только правовыми, но и *духовно-просветительскими и религиозными* нормами [11,12]. Они выражают волю определенных народов и кодифицирует верования, придают авторитет традициям, направляет практическую деятельность и учит правилам поведения.

Рассказывая детям историю своей религии родители непременно упоминают о жизни Адама и Евы в раю. Ведь жизнь первого человека на Земле отражена практически во всех религиозных книгах. Например, согласно 3-й версии Библии, Ева, соблазненная змеем (в мусульманской мифологии сатаной – А.Н.), а затем Адам сорвали запретное яблоко с дерева познания добра и зла в Эдемском саду (в раю – А.Н.). Тем самым они изгоняют людей из рая за то, что они злоупотребляли дарованной им Богом возможностью, то есть благами природы. С тех пор человечество пытается заработать себе на жизнь, еле сводя концы с концами, и лишается возможности жить вечно в этом райском мире [13].

В 49-м аяте священного Корана говорится: «Воистину, Мы создали всё соразмерно», то есть всё в мире, включая дары природы, было создано Всевышним Аллахом в соответствии с определёнными критериями и поэтому отрицание этого не соответствует Шариату [14]. Призыв к человеку жить в гармонии с природой также отражен в хадисах. Нас издавна учили, что сила тела – в пище, а сила разума – в мудрых словах. Хадисы – это такие мудрые слова, шедевры мудрости. Известные учёные хадисоведения аль-Бухари, ат-Тирмизи, ас-Самарканди, описывают такие аспекты, как свойства некоторых растений и животных, их место в пищевой цепочке, а также их значение в хозяйственной деятельности [15]. Некоторые хадисы учат людей беречь и соблюдать требования по защите природных ресурсов. Например, из хадисов следует, что человек, срубивший дерево, дающее тень людям, будет брошен в ад; сказано, что если мусульманин посадит растение или дерево, а затем птица или животное съест его плоды, то за каждое съеденное с этого растения, ему будет засчитана награда за милостыню; а тому, кто остановит наводнение или потушит пожар, будет дарована награда за мученичество.

Шейх Мухаммад Садик Мухаммад Юсуф неоднократно освещал тему «Ислам и охрана окружающей среды» [16]. Например, сохранение окружающей среды, воды, воздуха, почвы, флоры и фауны должно быть не менее важным, чем сострадание к людям. В аятах Корана и хадисах Пророка содержится множество подобных наставлений. Долг человека – ценить это благо! Ценить это благо – значит беречь его и не растрачивать попусту. В теологии говорится, что Судный день может наступить для человечества из-за пагубных действий людей по отношению к природе. О Судном дне говорится практически во всех священных писаниях – Коране, Новом и Ветхом Заветах, священных книгах Древнего Египта, Индии и Китая.

Экологические требования также содержатся в правилах этики, которые специфичны для каждого народа, но не имеют юридического статуса. Такие правила зависят от уровня духовности человека, а не от образования. Экологическая духовность – главный показатель воспитанности человека и зависит от нравственности и поведения человека. Взрослые должны овладеть этой духовностью и привить её своим детям с младенчества. Затем эти этические требования прививаются через образование и «углубляются» воспитанием. В узбекском национальном менталитете такие понятия, как «харом-халол», «увол», «гунох-савоб», чаще всего употребляются при возникновении экологических ситуаций (например: хлеб, падающий под ноги, загрязнение воды, жестокое обращение с животными, поломка деревьев и т. д.). Хотя дети ещё не до конца понимают суть этих слов, у них уже закладываются основы национального экологического поведения.

Таким образом, экологическое требование представляет собой совокупность правовых, религиозных и этических норм, направленных на охрану, рационального использования и восстановления экосистем. Его цель – обеспечить безопасность взаимосвязанных экосистем, являющихся средой обитания организмов, реализацию установленных норм и обеспечение их жизнеспособности.

Поскольку обеспечение безопасности жизни в экосистемах различных масштабов и сфер деятельности носит опосредованно социальный характер, изучение уровня информированности и культуры населения в области экологии и экологических требований имеет первостепенное значение. Поэтому для разработки предложений и рекомендаций, основанных на новом инновационном подходе, которые будут способствовать повышению эффективности и результативности обслуживающих их экологических требований, было проведено прикладное социологическое исследование.

В ходе социологического исследования была определена активность респондентов в возрасте 31–51 года. К сожалению, с одной стороны, активность пенсионеров свидетельствует об их лидерстве в различных аспектах государственной и общественной жизни по сравнению с молодежью, с другой стороны, в общеобразовательных школах экологическое образование и охрана окружающей среды интегрированы в такие предметы, как Физика, Химия, Биология, География, История, Родной язык и литература, и поэтому не преподаются специалистами.


На вопрос «Какая проблема наиболее важна в вашей повседневной жизни?» около 40% респондентов в возрасте до 30 лет назвали экономические проблемы первостепенными, а экологические – второстепенными. Респонденты пожилого возраста в равной степени выделяли экономические и экологические проблемы. Респонденты среднего возраста, напротив, считали экологические проблемы наиболее актуальными для республики (инфографика 1).

На вопрос «Какие экологические правила вы предпочитаете соблюдать?» молодые респонденты считали наиболее важными этические и нормативно-правовые нормы, а также экологические требования. Однако они также признали, что религиозные убеждения играют в этом определенную роль. Однако из-за отсутствия достаточной информации о религиозных экологических требованиях среди респондентов среднего и старшего возраста и отсутствия поддержки со стороны религиозных учёных, таких как шейх Мухаммад Садик Мухаммад Юсуф, на этот вопрос ответили лишь около 3–4 процентов. Поскольку последние рассматривали ответы на предыдущий вопрос «Что вы понимаете под экологическими требованиями?» не с религиозной точки зрения, а как определение обязательных правовых норм.

На вопрос «Какие правила, по вашему мнению, следует усилить для обеспечения экологической безопасности в будущем?» респонденты всех возрастов ответили, что образование следует укреплять через экологические требования. Несмотря на рост религиозной толерантности, не все возрастные группы в Узбекистане признают возможность обеспечения экологической безопасности посредством религиозных норм. Однако в большинстве случаев респонденты всех возрастов, особенно среднего возраста, заявили, что поиск решения экологических проблем является первостепенной и актуальной задачей в будущем.

Результаты социологического опроса были также уточнены через профессию. По результатам полученных вопросов было выделено 6 типов профессий. Поскольку ответы по остальным профессиям были неясными или очень малочисленными, они были объединены в другие профессии. Из 280 респондентов, принявших участие в социологическом опросе, ровно половина были учителями (инфографика 2). Однако

экологическое образование в Узбекистане до сих пор не организовано на уровне современных требований.



Инфографика 2. Анализ отношения различных профессиональных групп населения к экологическим требованиям

Annotatsiya: Ushbu maqola tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini rivojlantirishning integrallashgan metodik tizimini nazariy asoslash va amaliy sinovdan o‘tkazishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bugungi kunning global muammosi ekologiya va iqlim o‘zgarishi sharoitida yoshlarda ekologik ong, madaniyat va mas’uliyat hissini shakllantirish zaruriyati asoslangan. Ekologik kompetensiyalar (kognitiv, faoliyatli, qadriyatli, kommunikativ) mohiyati tahlil qilinib, ularni rivojlantirishda zamonaviy raqamli texnologiyalar va metodik-dasturiy ta’minotning (mobil ilovalar va platformalar) ahamiyati, xalqaro tajriba (P. Brereton, G. Lantier va boshqalar) misolida ifodalangan. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion metodik tizimning samaradorligi O‘zbekistonning Samarqand, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahrida 728 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari bilan tasdiqlanadi. Olingan statistik natijalar metodikaning samaradorlik koeffitsiyenti birdan yuqori (η=1,14) ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa, o‘z navbatida, tajriba guruhida ekologik kompetensiyalarning sezilarli darajada yaxshilanganligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

Kalit so‘zlar: ekologik ta’lim, tabiiy fanlarni o‘qitish usullari, uslubiy ta’minot, 4K ko‘nikmalari, integrallashgan yondashuv

Annotation: This article is devoted to the theoretical substantiation and practical testing of an integrated methodological system for the development of students’ environmental competencies in teaching natural sciences, which is based on the need to form ecological awareness, culture and a sense of responsibility among young people in the context of global issues of ecology and climate change. The essence of ecological competencies (cognitive, active, value, communicative) is analyzed, the importance of modern digital technologies and methodological software (mobile applications and platforms) in their development is illustrated by the example of international experience (P. Brereton, G. Lantier, etc.). The effectiveness of the innovative methodological system developed within the framework of the study is confirmed by the results of pedagogical pilot-testing work conducted with the participation of 728 students in the Samarkand, Fergana regions of Uzbekistan and the city of Tashkent. The obtained statistical results show that the efficiency coefficient of the methodology is higher than one (η=1,14). This, in turn, scientifically proves that environmental competencies in the experimental group have significantly improved.

Keywords: environmental education, natural science teaching methods, methodological support, 4K skills, integrated approach

Аннотация: Данная статья посвящена теоретическому обоснованию и практическому тестированию интегрированной методической системы развития экологических компетенций учащихся в преподавании естественных наук, основанной на необходимости формирования экологического сознания, культуры и чувства ответственности у молодежи в контексте современной глобальной проблемы экологии и изменения климата. Анализируется сущность экологических компетенций (познавательная, активная, ценностная, коммуникативная), на примере международного опыта (П. Бреретон, Г. Лантьеи др.) иллюстрируется важность современных цифровых технологий и методического программного обеспечения (мобильные приложения и платформы) в их развитии. Эффективность инновационной методической системы, разработанной в рамках исследования, подтверждается результатами педагогического пилотного тестирования, проведенного с участием 728 учащихся в Самаркандской, Ферганской областях Узбекистана и городе Ташкенте. Полученные статистические результаты показывают, что коэффициент эффективности методологии выше единицы (η=1,14). Это, в свою очередь, научно доказывает значительное улучшение экологических компетенций в экспериментальной группе.

Ключевые слова: экологическое образование, методы преподавания естественных наук, методическая поддержка, навыки 4К, интегрированный подход.

KIRISH

Jahonda atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, ekogumanitar ta’lim paradigmasi, tabiatga bo‘lgan antropogen ta’sirlarning oldini olish negizida yoshlarda ekologik mas’uliyat hissini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etib, yangi texnologiyalarni tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga joriy etish implementatsiyasi bilan baholanmoqda. XXI asrning dolzarb muammosi ekologiya va iqlim o‘zgarishini o‘rganish borasida dunyoning barcha davlatlarida BMT Bosh Assambleyasining “Barqaror rivojlanish” sammitida qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq 2030-yilgacha bo‘lgan davrda global barqaror muhitni rivojlantirish ko‘lamini tobora kengaytirib borish bo‘yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Dunyoda tabiatdan ongli ravishda foydalanish, tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish hamda transditsiplinar yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik mavzularni samarali integratsiya qilish zaruriyatini ko‘rsatmoqda. Bu esa, ekologik ta’lim yordamida tabiatda sodir bo‘layotgan vaziyatlarni adekvat baholay oladigan, global va mintaqaviy ekologik muammolarni yaxlit qabul qiladigan, ular zamirida to‘g‘ri qaror qabul qila oladigan, ekologik muammolar yechimini topishga tayyor, ekologik bilimlarini maqsadli va manzilli qo‘llay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birgalikda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik kompetentlikni shakllantirish, ekologik muammolar va ularni hal qilish yo‘llari, o‘quvchilarda ekologik muammolarni tahlil qilish va amaliy yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltirishga doir tizimli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda aholining ekologik hayoti sifatini yaxshilash ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi sifatida qaralmoqda va atrof-muhitni obodonlashtirish, suv tanqisligining oldini olish, aholi salomatligi va genofondini asrash, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlarning oldini olishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarning ekologik ongi va tafakkurini o‘stirishga qaratilgan “Aholining ekologik madaniyatini oshirish, yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash” ustuvor vazifalar sifatida belgilanishi ta’lim-tarbiya ishlarida yanada samarali mexanizmlar qo‘llash zaruriyatini taqozo etadi. Ekologik muammolarning global xarakter kasb etishi texnologiyalarning jadal rivojlanishini hisobga olgan holda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik

ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan metodlarni joriy etish vazifasini qo‘yadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotchilar fikrlarini umumlashtirgan holda aytishimiz mumkinki, ekologik kompetensiyalar – bu insonning atrof-muhitni muhofaza qilish va undan foydalanish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va qadriyatlar majmuasini o‘z ichiga olgan, ekologik muammolarni yechishga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ekologik kompetensiyalar – ekologik bilimlar, tanqidiy va tizimli fikrlash, amaliyotga yo‘naltirilgan ko‘nikmalar va qadriyatlar va ma’suliyat hissi orqali rivojlantiriladi. Olib borilgan ilmiy nazariy tadqiqotlarga tayanib aytishimiz mukinki, ekologik kompetensiyalarni kognitiv (ekologik voqelikka oid bilimlar), faoliyatli (ekologik bilimlarni amalda qo‘llay olish), qadriyatli (tabiatga nisbatan axloqiy munosabatni shakllantirish), kommunikativ (ekologik bilimlarni targ‘ib qilish) kabi guruhga ajratishimiz mumkin. Ekologik kompetentlik haqida fikr yuritilganda K. Klakxonning nuqtai-nazarini keltirib o‘tish joiz. Tadqiqotchi fikricha istalgan madaniyatning asosi g‘oya va, ayniqsa, qadriyatlar hisoblanadi. Shuningdek, “inson ekologiyasi”ni ham unutmasligimiz lozim. B. Proxorov, B. Ziyomuhammedov tadqiqotlarida atrof muhit va insonning aloqadorligini, yer yuzida yashaydigan barcha insonlar tabiatga u yoki bu darajada ta’sir ko‘rsatishini hamda ekologik ta’lim va tarbiya inson ongiga yoshlikdan singdirilishi ta’kidlanadi. Ekologik ta’lim masalalari yurtimiz qator olimlari tomonidan tadqiq qilingan, biroq so‘nggi yillarda ekologik ta’limga oid kompetensiyalarini rivojlantirish muammolari zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlari asosida kompleks tadqiq qilinmagan.

Dunyo miqyosida hozirgi kunda transditsiplinar yondashuv asosida tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik mavzularni samarali integratsiya qilish tizimini yo‘lga qo‘yishga ahamiyat qaratilmoqda. Sayyoramizning har bir fuqarosiga daxldorlik hissini yuklab kelayotgan ekologik muammolar hozirgi kunda inson-tabiat munosabatlarini tartibga solishda, avvalo, ekologik ta’limga ahamiyat berish zarurligini taqozo etadi. Hozirgi zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda media resurslarining takomillashib borishi, sun’iy intelektdan foydalanish imkoniyatlarining ortishi metodik-dasturiy ta’minot asosida ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni integrativ metodlar asosida kompleks tadqiq etilishiga sharoit yaratadi.


G‘arbda ekologik ta’limning estetik konstruksiyalash va konnektivlash, vizual uyg‘unlik va dizayn, emotsional ta’sir va motivatsiyalash asosida raqamli texnologiyalar muhitida rivojlantirishga oid qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Irland professori P. Brereton raqamli platfolarni global muammolarni yechishda yangi estetik imkoniyatlar deb qaraydi. Ekologik ta’lim jarayonida biror harakatga erishish uchun irodani uyg‘otuvchi, atrof-muhitni idrok etishga katta ta’sir ko‘rsatuvchi muhit deya ta’kidlaydi. U ekologik muammoli mavzular bo‘yicha ilmiy-tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda dasturiy ta’minot vositalarini taklif qiladi. O‘sib borayotgan kuch va media formatlari ta’sirini o‘rganish, raqamli stimullarning samaradorligini aniqlash va ekologik ta’limning yangi usul va vositalarini kashf etishda olimning fikrlari juda o‘rinlidir.

M.G. Chelala yoshlarning manfaatlariga mos keladigan zamonaviy kommunikativ modellar kabi ta’sirchan strategiyalar orqali ekologik kompetensiyalar, ekologik ong va atrof-muhitga oid tasavvurni kengaytirishga xizmat qiladi deb hisoblaydi. M. Xalif raqamli texnologiyalar xabardorlikni oshirish, kognitiv, refleksiv va akseologik jihatdan ta’sir ko‘rsatadi, ekologik muammolarni ommaga olib chiqishda oflayn va onlayn dasturiy ta’minotning ahamiyatini ijobiy baholaydi. D. Uollas va A. Bodzin, G. Lantiyer, M. Karmen, K. Sanchezlar fikricha raqamli platformalar ekologik tafakkur va dunyoqarashni oshirishda maktab ta’limi bilan cheklanib qolmagan o‘zaro ta’sir vositasini yuzaga keltiradi, yoshlarning hayotida muhim infratuzilma yoki avtonom ta’lim muhiti vazifasini bajaradi. Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlar fikr-

mulohazalariga tayangan holda, raqamli ta’lim platformalarini integrativ metodik tizim sifatida avtonom ta’lim va o‘zaro ta’sirni rag‘batlantiruvchi muhit, shuningdek, yoshlarni atrof-muhitni asrashga odatlantirishda muhim pedagogik shart-sharoit sifatida baholash imkoni mavjud.


Bugungi kunda raqamli metodik ta’minot nafaqat texnologiya sifatida, balki ijtimoiy hodisa sifatida ham rivojlanmoqda. Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilar fikr-mulohazalariga qo‘shilgan holda aytishimiz mumkinki, ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni raqamli muhitda integrallashgan metodik ta’minot asosida rivojlantirish kundan-kunga dolzarblashib dunyo miqyosida yechim kutayotgan ekologik muammolarga yangi rakursdan qarash imkonini beradi. Fikrimizcha, ta’lim jarayonida metodik-dasturiy ta’minotning qatnashuvi, interfaollik, qulaylik va samaradorlikni ta’minlaydi va ma’lumotlarni yig‘ish, raqamli muhitda ishtirokchilarni to‘plash, jamlash kabi funksiyalarni bajaradi. Ayrim tadqiqotchilar dasturiy ta’minotni hayotga shiddat bilan aralashuvchi intervensiya sifatida ham talqin qiladilar. Ekologik ta’lim mazmunini an’anaviy takomillashtiruvchi manbalardan dasturiy ta’minotning farqini ham aytib o‘tishimiz joiz. Demak, interfaollik va ishtirok etish, so‘nggi ma’lumotlardan foydalana olish, ogohlik va hamkorlikni oshirish, individuallashtirilgan va masofaviy ta’lim imkoniyatlarini hisobga olgan holda metodik-dasturiy ta’minot – ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda nafaqat estetik, balki zamonaviy imkoniyatlarni o‘zida jamlagan ta’lim muhiti vazifasini bajarar ekan. Yurtimizda hozirda ekologik muammolarga ijodiy yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydigan, ta’sirchan mexanizmlarni namoyish etuvchi resurslarni son va sifat jihatdan takomillashtirishga ehtiyoj juda katta.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni an’anaviy takomillashtirishdan farqli o‘laroq metodik-dasturiy ta’minot vositalari ekologik bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda interfaol, samarali, va moslashuvchan qilib, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, mazmunan boy bo‘lishida yordam beradi. Shuningdek, metodik-dasturiy ta’minot ekologik kompetensiyalarni takomillashtirishda konvergensiya – ya’ni bir tarmoqda yaqinlashtirish, jipslashtirish funksiyasini bajaradi. Quyida ekologik tarbiyani an’anaviy takomillashtirish mazmuni ko‘rsatib o‘tilgan (1-rasm).



1-rasm. Ekologik bilimlarni takomillashtirish mazmuni


Shuningdek, ekologik tarbiya mexanizmlarini metodik-dasturiy ta’minot asosida takomillashtirishga qo‘yiladigan talablar tahlil qilindi. O.D. Rahimovning elektron ta’lim resurslarini yaratishga oid qo‘ygan 6 ta talab va yondashuvlaridan kelib chiqib 4 ta guruhga bo‘lindi. Quyida 2-rasmda elektron ta’lim resurslarini yaratishga oid talab va yondashuvlardan kelib chiqib, ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni metodik-dasturiy ta’minot orqali takomillashtirish talablari tahlil qilingan (2-rasm). Metodik-dasturiy ta’minot ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan pedagogik, funksionallik, ilmiylik, interfaollik, qulay unterfeys va oson foydalanish, adaptivlik kabi jihatlarini umumlashtirgan holda 2-rasmda ko‘rsatib o‘tildi.



2-rasm. Ekologik ta’limni metodik-dasturiy ta’minot asosida ta’minlashga quyilayotgan zamonaviy talablar

Pedagogik shartlarning mohiyatini aniqlash va loyihalash bo‘yicha ilmiy pozitsiyalarni va tadqiqotimiz mavzusining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda metodik-dasturiy ta‘minot pedagogik tizimning tarkibiy qismlaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Ushbu komponent o‘quv materialining umumiyligini aks ettiradi-pedagogik tizimning shaxsiy va protsessual jihatlariga ta’sir qiluvchi muhit, uning samarali ishlashi va rivojlanishini ta’minlaydi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlarida dasturiy ta’minot vositalari ta’sirchan yechimlar kabi yoshlarning turmush tarzi va muloqot usullarini qamrab olish kerak, media platformalar va metodik-dasturiy ta’minotning uzluksiz tarqalishi, g‘oyalarni yaratish va ommalashishiga yordam beradi va ta’sirchan malakani namoyish etadi. Shu o‘rinda 2018-yilda Goulet Lantiyer tomonidan o‘tkazilgan dasturiy ta’minot platformalarining ta’sir sxemasini aniqlash tadqiqotlarini aytib o‘tish joiz. Ta’sir sxemasini foydalanuvchilarning ma’lumotlardan xabardor bo‘lish va boshqalar bilan baham ko‘rishiga urg‘u bergan holatda baholaganlar. Qator olimlar raqamli texnologiyalar va dasturiy ta’minot vositalarini yoshlarning shaxsiy xayotida muhim infrastruktura vazifasini bajaradi deb hisoblaydilar. Shuningdek, ispan tadqiqotchilari Mariya Karmen va Kristina Sanchezlarning dasturiy ta’minotni avtonom ta’lim va o‘zaro ta’sirni rag‘batlantiruvchi o‘quv muhiti degan fikrlarini qo‘llab-quvvatlashimiz mukin. Quyida dasturiy ta’minotning kognitiv, refleksiv, maqsadli, akseologik tahliliy ta’sir sxemasi yoritildi.



3-rasm. Ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda dasturiy ta’minotning ta’sir sxemasi

Ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishni xalqaro tajribalarga asoslanib takomillashtirib borish; tezkor va sifatli axborot resurslariga ega bo‘lish; axborot – kommunikatsion tarmoqlar tizimida ekologik ta’limni mazmunini oshirishga xizmat qiluvchi ma’lumot bazalarini yaratish va rivojlantirish; ta’lim muassasalarida nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga xizmat qiladigan platforma kontentlarini son va sifat jihatdan rivojlantirish; o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib ekologik ijodkorlikka yo‘naltirish; ekologik mustaqil bilim olish va o‘z ustida ishlash va o‘zini o‘zi tahlil qilishga yo‘naltirish muhim bo‘lib hisoblanadi.

Quyida ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirish modeli keltirilgan. Modelda ekologik kompetensiya mazmunini tanlashda ikkita asosiy yondashuvga asoslandik. Mavzuga oid yondashuv ma’lum bir o‘quv predmeti bo‘yicha kompetensiyaning namoyon bo‘lishini topishni, ushbu fanning tegishli kompetensiyani (bilimlar, qobiliyatlar, ko‘nikmalar va faoliyat usullari) shakllantirishga qo‘shgan hissasini aniqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Shubhasiz, ushbu protsedura kompetensiyaga asoslangan yondashuvning innovatsion imkoniyatlarini sezilarli darajada toraytiradi, chunki u faqat an’anaviy ta’lim mazmunini qayta qurish va kam miqdorda integratsiyalashuviga olib keladi.

Umumiy o‘rta ta’limdagi ekologik ta’lim mazmunini loyihalash va amalga oshirishda ta’lim davlat standarti talablarini hisobga olish zarur, bunda ayrim fanlar (tabiatshunoslik, tabiiy fanlar, biologiya, kimyo, fizika, geografiya, texnologiya, tarix, ijtimoiy fanlar) ekologik kompetensiyaning individual tarkibiy qismlari: maqsadlar, mazmun, kognitiv va amaliy faoliyat tajribasini shakllantirish zaruratini anglatadi. Motivatsion komponent atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini amalga oshirishni rag‘batlantiradigan manfaatlar, ehtiyojlarning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi: xavfsizlik ehtiyojlari (barcha tirik mavjudotlar mavjudligi uchun qulay sharoitlar, o‘z hayoti va sog‘lig‘ini saqlash); kognitiv ehtiyojlar (o‘z faoliyatini tabiiy jarayonlarga uyg‘un ravishda kiritish uchun tabiatni bilish); estetik ehtiyojlar (tabiat bilan ma’naviy aloqa o‘rnatish, atrofdagi dunyoning go‘zalligini ko‘rish amalda uni saqlash va himoya qilish istagi); dunyoqarash ehtiyojlari (odamning dunyodagi o‘rni va maqsadini, o‘z hayotining ma’nosini tushunish va shunga muvofiq o‘z faoliyatini qurish istagi); o‘z-o‘zini namoyon qilish va ichki salohiyatini, shu jumladan ekologik faoliyat, ekologik ta’lim orqali amalga oshirish zarurati. Kognitiv komponent ekologik bilimlar tizimini (ilmiy, dunyoqarash, tartibga solish,

amaliy), ekologik faoliyat uchun indikativ asos bo‘lib xizmat qiladigan fikrlash usullarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Modelda dasturiy ta’minot 4K ko‘nikmalarini shakllantirish uchun rivojlanish muhiti va zamonaviy ta’limning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Bunday texnologiyalar nafaqat ekologik ta’limni yaxshilaydi, balki XXI asrda muvaffaqiyatli yashash va ishlash uchun zarur bo‘lgan muhim kompetentsiyalarni ham rivojlantiradi

Ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-dasturiy implementatsiyasi ekologik tarbiya g’oyalarini metodik-dasturiy ta’minot asosida takomillashtirish, amalga oshirish, tadbiq etishni bildiradi.

Implementatsiya (ingliz tilida: “to implement”) – hayotga tadbiq etish, joriy etish, amalga oshirish ma’nosini bildiradi. Filologik nuqtai-nazardan amalga oshirish, bajarish, to‘ldirish, maqsadga muvofiqlashtirish so‘zlariga mos keladi. Informatika va IT sohalarida biror bir g‘oyani amalga oshirishda dasturiy kod va algoritmlarni amalda qo‘llashga to‘g‘ri keladi. BMT Bosh Assambleyasi va xalqaro konvensiyalar ta’rifiga ko‘ra, “implementatsiya – muvofiq amalga oshirish, ya’ni muayyan vositalar orqali bajarish va amaliy natijalarni ta’minlash” ma’nosini bildiradi. R. Melnichenko implementatsiyani avtomatik shaklda ma’lumotlarni qabul qilish, amalga oshirish, ekanligini ta’kidlaydi. Ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni metodik-dasturiy ta’minot orqali implementatsiyasiga ikki xil yondashish mumkin. Birinchi yondashuv – metodik-dasturiy ta’minotdan foydalanish jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish orqali; ikkinchi yondashuv-metodik-dasturiy ta’minotdan foydalanish jarayonida biror bir mashg‘ulotni bajarish orqali.

NATIJALAR VA MUHOKAMA:

O‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar, ekologik madaniyatni rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlarini olib borish obyektlari sifatida Samarqand viloyati, Farg‘ona viloyati va Toshkent shahridan maktablar tanlab olindi. Ushbu ta’lim yo‘nalishlarida 2020–2021, 2021–2022, 2022–2023-o‘quv yillarida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi. Belgilangan maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

1. Umumta’lim maktablarida ta’lim mazmunini ifodalovchi o‘quv-me’yoriy hujjatlarni (DTS, o‘quv reja,) tahlil qilish asosida ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar, ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘rganish va umumlashtirish;
2. O‘quvchilarda ekologik tarbiya, ekologik madaniyatni shakllanganlik darajasini aniqlash;
3. Tabiiy fanlarni o‘qitish davomida vaziyatli topshiriqlar, keyslar yordamida o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar, ekologik madaniyatni rivojlanishining mavjud holatini o‘rganish.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi: **Ta’kidlovchi tajriba bosqichi** (2020–2021-yillar)da o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar, ekologik madaniyatni shakllanganlik darajasining mavjud holatini aniqlashga mo‘ljallangan pedagogik faoliyat tashkil etildi, o‘quv faoliyatini pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so‘rovlari, umumkasbiy fanlar bo‘yicha olgan ballarini tahlil qilish, nazorat kabi usullardan foydalanildi; **Shakllantiruvchi tajriba bosqichi** (2021–2022-o‘quv yilida) ishlab chiqilgan va amaliyot uchun tavsiya etilgan ko‘rsatma, yo‘riqnoma va metodik ishlanmalar asosida amaliy metodik faoliyat tashkil etildi. Tadqiqot davomida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro hamkorligini yuzaga keltiruvchi “Krossens”, “Mental karta”, “Muammoli o‘qitish”, “Aqliy hujum”, “Modulli ta’lim” va boshqa shu kabi metodlarga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etildi; **Yakunlovchi tajriba bosqichi** (2022–2023-o‘quv yili)da tajriba va nazorat guruhlarida ishlab chiqilgan metodik tizimdan foydalanishga oid metodikaning samaradorligi, hamda, o‘quvchilarda ekologik kompetensiyalar, ekologik madaniyatni shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Mashg‘ulotlarda yangi mavzuni tushuntirishda taqdimot materiallarini namoyish qilish, axborot texnologiyalarining mavzuga oid eng so‘nggi yutuqlari bilan tanishtirish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, o‘quvchilar o‘rtasida munozara uyushtirish va ularning fikr-

mulohazalari bilan o‘rtoqlashish kabi shakllarda, o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadlarida olib borildi.

1-jadval.

Pedagogik tajriba-sinovda qatnashgan o‘quvchilar soni

Guruhlar	Jami o‘quvchi soni	O‘quv yillari		
		2020–2021-o‘quv yili	2021–2022-o‘quv yili	2022–2023-o‘quv yili
Tajriba	372 ta	116 ta	126 ta	130 ta
Nazorat	356 ta	108 ta	114 ta	134 ta
Jami:	728 ta	224 ta	240 ta	264 ta

Tanlangan tajriba va nazorat guruhlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan mobil ilova va platforma orqali ekologik kompetentlikni shakllantirish metodikasi bo‘yicha o‘qitildi. Tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlarida tajriba va nazorat guruhi o‘quvchilarida ekologik kompetensiyalarni shakllanganlik darajasi tabiiy fanlarga oid test va misollar, ekologiyaga doir anketa so‘rovlari, munozaralar asosida o‘rganib borildi hamda tabiiy fanlar bo‘yicha bilim darajasi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Tanlangan o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlilining umumiy natijasi

	Tajriba guruhi $N_T = 372$				Nazorat guruhi $N_H = 356$			
Baho qiymati	5	4	3	2	5	4	3	2
Mos baholar soni	128	186	46	12	62	120	168	6
Baholarning o‘rta arifmetik qiymati	X^*_T=4,06				X^*_N= 3,58			
Samaradorlik koeffitsienti	$\eta = X^*_T / X^*_N$=1,14							

1. Tajriba va nazorat guruhlarining o‘zlashtirishlarini taqqoslash maqsadida guruhlarda o‘zlashtirish bahosining o‘rta arifmetik qiymatini hisoblash $X^* = \frac{\sum x_i m_j}{N}$ formulasi.

Bu yerda: x_i – baho qiymati bo‘lib, u 2,3,4,5 qiymatlarini olishi mumkin; m_j – mos baholarning takrorlanish soni; N – tajribada ishtirok yetayotgan o‘quvchilar soni.

2. O‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishga mo‘ljallangan innovatsion metodik tizim samaradorligini baholovshi tajriba va nazorat guruhlari baholarining o‘rta arifmetik qiymatlari nisbati $\eta = \frac{X^*_T}{X^*_H}$ samaradorlik koeffitsiyenti.

Bu yerda, X^*_T – tajriba guruhidagi, X^*_H – esa nazorat guruhida o‘zlashtirish baholarining o‘rta arifmetik qiymati.

O‘rtacha qiymatlar muvofiqligi to‘g‘risidagi $H_0 : a_1 = a_2$ farazni muqobil faraz $H_1 : a_1 \neq a_2$ ga nisbatan tekshirish uchun talabaning ikkilanlamali statistikasini qo‘llaymiz:

$$T_{m,н} = \frac{\left|X^*_T - X^*_H\right|}{\sqrt{\frac{S^2_T}{N_T} + \frac{S^2_H}{N_H}}} = \frac{0,5}{\sqrt{\frac{0,56}{356} + \frac{0,61}{372}}} = 8,33.$$

95% lik me’yorlangan taqsimot kritik nuqtasi $t_{кр} = 1{,}96$ ga teng. Biz olgan natijalar bo‘yicha 1,96<$T_{t,n}$=8,33 bo‘lganligi sababli $H_0 : a_1 = a_2$ faraz inkor etiladi va 95% ishonchlilik ehtimoli bilan $H_1 : a_1 \neq a_2$ qabul qilinadi. Bu esa o‘z navbatida, tajriba va nazorat guruhlari uchun ekologik tarbiya ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodikaning farqli natija ko‘rsatganligini qayd etib, ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, olingan o‘zlashtirish samaradorligi birdan kattaligini (η=1,14>1) ko‘rish mumkin. Bundan ma’lum bo‘ldiki, tajriba guruhi o‘quvchilarining ekologik kompetensiyalarni o‘zlashtirishi darajasi nazorat guruhi o‘quvchilarining darajasidan yuqori ekan. Demak, tajriba guruhlaridagi o‘quvchilarning o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish va takomillashtirishda innovatsion metodik tizimdan foydalanish yaxshi natija berishi tajriba-sinov ishlari natijalari orqali o‘z isbotini topdi.

XULOSA

Umuman olganda, tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida integrallashgan metodik ta’minotni joriy etish, o‘quvchilarda nafaqat ekologik bilim va ko‘nikmalarni, balki XXI asr uchun zarur bo‘lgan 4K ko‘nikmalarini (kreativlik, kommunikatsiya, kollaboratsiya, tanqidiy fikrlash) ham rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Tajriba-sinov jarayonida ishlab chiqilgan platforma hamda pedagogik metodlarga asoslangan tizim o‘quvchilarning ekologik kompetensiyalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik ta’limga oid kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion metodik tizimdan foydalanish yaxshi natija berishi o‘z isbotini topdi va uni keng amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. BMT Bosh Assambleyasi. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development (Resolution A/RES/70/1). New York: United Nations.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5863 sonli Farmoni https://www.lex.uz/uz/docs/-4574008

3. Proxorov, B., Ziyomuhammedov, B. (2019). Ekologik ta’lim va inson ekologiyasi: Yoshlarning atrof-muhitga munosabatini shakllantirish. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.

4. Sanchez, C., Carmen, M. (2023). Digital platforms as autonomous learning environments for environmental education. Educational Technology Research and Development, 71(1), 101-118.

5. Uollas, D., Bodzin, A. (2021). Integrating technology for systems thinking in science and environmental education. Science Education, 105(4), 690-715.

6. Zamonov, S., G‘aniyev, R. (2024). Ekologik madaniyatni shakllantirishning metodik-dasturiy ta’minoti va 4K ko‘nikmalarini rivojlantirish. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.

7. Brereton, P. (2020). Digital platforms, aesthetic construction, and new possibilities for solving global problems. Journal of Environmental Informatics, 36(2), 1-12.

8. Vohidov, A. (2023). Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishning transdistsiplinar yondashuvi. Pedagogika jurnali, 3(2), 55-68.

9. Chelala, M. G., Xalif, M. (2022). Affective strategies for promoting environmental awareness and competence among youth through contemporary communication models. International Journal of Environmental Education and Information, 41(4), 310-325.

10. Lantier, G. (2018). The impact schema of digital software platforms on user behavior and environmental responsibility. Doctoral dissertation, University of Western Europe.

11. Rahimov, O. D. (2021). Elektron ta’lim resurslarini yaratish metodologiyasi va didaktik talablar. Samarqand: Oliy ta’lim nashriyoti.

AHOLINING EKOLOGIK XABARDORLIGINI OSHIRISHDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Miyassarova Nozima Nurali qizi
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent shahrida ekologik vaziyatning keskinlashuvi sharoitida ommaviy axborot vositalarining aholi xabardorligini oshirish, ekologik xavflarni yoritish va profilaktika choralarini targ‘ib qilishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Prezident farmonlarida belgilangan ekologik siyosat, davlat organlarining tezkor kommunikatsiya mexanizmlari va OAVning ekologik ma’lumotlarni yetkazish bo‘yicha mas’uliyati yoritilgan. Shuningdek, Telegram kabi raqamli platformalarning jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirishdagi samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijalari ekologik xavfsizlikni ta’minlashda davlat organlari, OAV va jamiyat hamkorligining muhimligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Ekologik vaziyat, OAV, axborot siyosati, ekologik xavfsizlik, ekologik xabardorlik, jamoatchilik ishtiroki, havo ifloslanishi, profilaktika choralari, kommunikatsiya, davlat siyosati.

Аннотация. В статье анализируется роль средств массовой информации в повышении экологической осведомлённости населения, освещении экологических рисков и пропаганде профилактических мер в условиях ухудшающейся экологической ситуации в городе Ташкент. Рассматриваются направления экологической политики, отражённые в президентских указах, механизмы оперативной коммуникации государственных органов и ответственность СМИ за предоставление научно обоснованной информации. Оценивается эффективность цифровых платформ, таких как Telegram, в расширении общественного участия и формировании экологической культуры. Полученные результаты подчёркивают важность сотрудничества государства, СМИ и общества в обеспечении экологической безопасности.

Ключевые слова: Экологическая ситуация, СМИ, экологическая безопасность, экологическая осведомлённость, участие общества, загрязнение воздуха, профилактические меры, коммуникация, государственная политика.

Abstract. This article analyzes the role of mass media in increasing public environmental awareness, communicating ecological risks, and promoting preventive measures amid the deteriorating ecological situation in Tashkent. It explores the ecological policy directions outlined in presidential decrees, the mechanisms of rapid governmental communication, and the responsibility of mass media to provide accurate and science-based information. The effectiveness of digital platforms such as Telegram in enhancing public engagement and strengthening ecological culture is also assessed. The findings highlight the crucial importance of collaborative efforts between the government, media, and society in ensuring environmental safety.

Keywords: Environmental situation, mass media, environmental awareness, environmental safety, public engagement, air pollution, preventive measures, communication, state policy.

KIRISH

So‘nggi yillarda yirik shaharlardagi ekologik muammolar nafaqat atrof-muhitga, balki aholi salomatligi va ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatayotgan omillardan biri sifatida kun tartibiga chiqdi. Xususan, Toshkent shahrida kuzatilayotgan changlanish, havoning ifloslanishi, transport vositalaridan chiqayotgan zararli gazlar va sanoat korxonalarining emissiyalari aholining turmush sifati va sog‘lig‘iga jiddiy xavf solmoqda. Shu bois ekologik vaziyatni yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-217-son Farmoni [1], hamda joriy yilning 25-noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PF-229-sonli Farmonlari [2], mamlakatda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlarning yorqin tasdig’idir.

Mazkur hujjatlar ijrosini ta’minlash maqsadida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi negizida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining tashkil etilishi ekologik muammolarni bartaraf etish yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Qo‘mita zimmasiga “Chiqindidan holi hudud”, “Toza havo”, “Yashil makon”, “Eko-madaniyat”, “Bio meros” kabi umummilliy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalari yuklatilgan. Ushbu tashabbuslarning maqsadi aholi ekologik savodxonligini oshirish, ekologik madaniyatni keng targ‘ib qilishdan iboratdir. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi tashkiliy va metodik faoliyatni muvofiqlashtirish maqsadida qo‘mitasi huzurida Ekololoyihalar fabrikasi tashkil etilishi belgilangan.

Farmonlarda ekologik vaziyatni monitoring qilish, tezkor choralar ko‘rish, aholining xabardorligini oshirish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish bo‘yicha aniq mexanizmlar ko‘rsatib o‘tilgan. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining ekologik jarayonlarni yoritishdagi roli alohida ta’kidlanadi. Televideniye, radio, internet, ijtimoiy tarmoqlar va mobil aloqa operatorlari orqali aholiga aniq, tezkor va ilmiy asoslangan ma’lumot yetkazish talabi ekologik xavf sharoitida kommunikatsiyaning ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Bu yondashuvning dolzarbligi shundaki, ekologik holat keskinlashgan paytda aholining xabardorligi va tezkor ogohlantirilishi inson salomatligini himoya qilishning eng muhim omilidir. Zamonaviy axborot oqimi sharoitida OAV – xususan, internet, televideniye va radio – aholining xatti-harakatini shakllantirishda, profilaktik qoidalarga amal qilishga undashda va ekologik madaniyatni oshirishda eng samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi Farmonida “Ommaviy axborot vositalarini (televideniye, radio, internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa operatorlari va boshqalar) jalb qilgan holda mavjud ekologik holat, uning aholi salomatligiga ta’siri va profilaktika qilish usullari bo‘yicha tushuntirish ishlari samarali tashkil etilsin”, bandi quyodagilarni anglatadi:

1. Aholini real ekologik vaziyatdan xabardor qilish. Fuqarolar vaziyatning haqiqiy darajasidan bexabar bo‘lsa, to‘g‘ri profilaktika choralarini qo‘llashi qiyinlashadi, salomatlikka zarar yetkazuvchi risklarni baholay olmaydi.

2. Ekologik xavflarning salbiy oqibatlarini ilmiy asosda tushuntirish. Ko‘plab ekologik muammolar ko‘zga yaqqol tashlanmasada, ularning nafas yo‘llari, yurak-qon tomir tizimi va umumiy sog‘liq holatiga salbiy ta’siri ilmiy jihatdan isbotlangan.

3. Profilaktika choralari bo‘yicha amaliy tavsiyalar berish. Jamoat joylarida niqob taqish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, mashinalardan foydalanishni qisqartirish, uy ichida tozalik va ventilyatsiyani ta’minlash kabi choralarning aholi o‘rtasida keng targ’ib qilinishi zarur.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda OAV asosiy unsur hisoblanadi. Chunki OAV qisqa vaqt ichida keng qamrovli auditoriyaga ta’sirchan, ishonchli va interaktiv ko‘rinishda taqdim eta oladi. Tadqiqotlar ham aholining murakkab rasmiy matnlardan ko‘ra OAV orqali berilgan sodda, vizual ma’lumotlarni tezroq qabul qilishini ko‘rsatadi.

Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan maxsus komissiya faoliyatining ilk namunasi sifatida rasmiy Telegram kanalini ishga tushirdi [3]. Qisqa muddatda kanal 36 mingdan ziyod obunachiga ega bo‘ldi. Unda havo sifatini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlar, amalga oshirilayotgan reydlar, aniqlangan muammolar, korxonalar faoliyati va ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida tezkor ma’lumotlar e’lon qilinmoqda. Kanalning muhim jihati, aholining fikr bildirish imkoniyatining

mavjudligi bo‘lib, u jamoatchilik ishtirokini yanada kuchaytirmoqda. Fuqarolar o‘z mulohazalari, takliflari va shikoyatlarini ochiq tarzda bildirmoqda.

Shu bilan birga, jurnalistlarning mas’uliyati ham oshmoqda. Ular ma’lumotlarni tekshiruvsiz tarqatmasligi, aholi orasida vahima uyg’otuvchi mish-mishlarga yo‘l qo‘ymasligi, mavjud vaziyatni faqat salbiy jihatdan yoritish bilan cheklanib qolmasdan, mutaxassislar fikriga tayangan holda “qanday yechimlar mavjud?” savoliga javob bera olishi zarur.

XULOSA.

Toshkent shahrida ekologik vaziyatning keskinlashuvi nafaqat tabiiy muhit, balki aholining salomatligi va turmush sifati uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Davlat organlari tomonidan ekologik monitoring, tezkor ogohlantirish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish bo‘yicha qabul qilingan chora-tadbirlar shahar ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. OAVning xabardorlikni oshirish, aholiga ilmiy asoslangan va amaliy tavsiyalar berishdagi roli alohida ahamiyatga ega. Shu tariqa, ekologik barqarorlikni ta’minlashda davlat organlari, OAV va jamoatchilikning samarali hamkorligi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-217-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PF-229-sonli Farmoni.

3. t.me/ecoinfouz Maxsus komissiyaning rasmiy kanali. Ushbu kanalda havo sifatini yaxshilash yuzasidan qabul qilingan qarorlar va amalga oshirilgan choralar haqida xabar berib boriladi. Murojaat uchun. @EcoControlUzBot

БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ МАҚСАДЛАРИГА ЭРИШИШДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ

Ходжаева Моҳира Мирзахмадовна
Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутати

Анотация. *Ҳозирги кунда атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланишда аҳолининг экологик маданиятини ошириш устувор аҳамият касб этади. Дарҳақиқат, экологик маданияти юксак, маънавияти эса юқори бўлган инсон табиатга зарар етказмайди.*

Мақолада айнан барқарор ривожланишга эришишда жамиятда экологик маданиятнинг ўрни ва аҳамияти, экологик маданиятни жамиятда юксалтиришнинг механизмлари ва йўналишлари, бу борада халқаро амалиёт очиб беришга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: *экологик маданият, атроф-муҳит муҳофазаси, экологик хавфсизлик, “яшил” истеъмол маданияти ва бошқалар.*

Abstract. *At present, increasing the environmental culture of the population plays a priority role in environmental protection and the rational use of natural resources. Indeed, a person with a high level of environmental culture and strong moral values does not cause harm to nature.*

The article attempts to reveal the role and importance of environmental culture in achieving sustainable development, as well as the mechanisms and directions for enhancing environmental culture in society, including relevant international practices.

Keywords: *environmental culture, environmental protection, environmental safety, “green” consumption culture, and others.*

Аннотация. *В настоящее время повышение экологической культуры населения имеет приоритетное значение в деле охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов. Действительно, человек с высоким уровнем экологической культуры и духовных ценностей не наносит вреда природе.*

В статье раскрываются роль и значение экологической культуры в достижении устойчивого развития, а также механизмы и направления ее повышения в обществе, с учетом международного опыта.

Ключевые слова: *экологическая культура, охрана окружающей среды, экологическая безопасность, культура «зеленого» потребления и другие.*

КИРИШ

Тарихан фалсафий-ахлоқий таълимот сифатида қараб келинган экологик маданият глобаллашув жараёнларига келиб умумбашарий экологик муаммоларни олдини олиш ва ҳал этишда жамиятнинг устувор тадбирларидан бирига айланди. Янги Ўзбекистон даврига келиб эса аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш давлат умуммиллий маданий сиёсатининг ажралмас узвий қисми сифатида олиб чиқишга саъйи-харакатлар олиб борилмоқда.

Зеро, экологик таълимнинг муҳимлиги ҳозирги замонавий дунёда ҳеч кимда шубҳа уйғотмаслиги билан биргаликда кўплаб мамлакатларда таълим ва тарбия беришнинг устувор йўналиши ҳисобланади. Аҳолининг экологик маданиятини ва атроф-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлишни шакллантиришга қаратилган ушбу фаолият – бутун инсоният келажаги хавфсизлигининг кафолати ҳисобланади.

1992 йилда БМТ Бош Ассамблеясининг махсус резолюцияси билан ташкил этилган Барқарор ривожланиш комиссияси ҳисоботида Барқарор тараққиёт йўлидаги таълим «барқарор тараққиёт» тушунчасининг моҳиятини акс эттиради. Атроф-муҳит ва тараққиёт Халқаро комиссиясининг тақдим этилган ахборотида бу тушунча «бўлажак авлодлар ўз эҳтиёжларини қондиришлари имкониятини хавф остига қўймаган ҳолда ҳозирги замон эҳтиёжларини қондиришга қаратилган» тараққиёт сифатида таърифланади [1].

Шунингдек, «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 4-моддасида «...барча турдаги таълим муассасаларида экология ўқувининг мажбурийлиги» қайд этилган бўлиб, экологик таълимнинг бош мақсади аҳолининг барча қатламларида, жумладан, умумтаълим мактаблари ва коллеж ўқувчилари ҳамда олий таълим талабаларида атроф-муҳитни асраш масалаларига онгли муносабатни шакллантиришдан иборатдир [2].

Глобалашган олам шундай даврни бошидан ўтказяптики, ёшларда экологик маданиятни шакллантириш таълим фаолиятининг долзарб йўналишларидан бирига айланди. Ёшларда экологик билимлар қанчалик кичик ёшдан шаклланса, бундай таълим шунчалик катта самара беради. Шунинг учун ушбу жараённи илмий ташкил қилиш давлат томонидан қўллаб-қувватланиши зарур.

Бугун ўтмишдан мерос бўлиб келаётган табиатга етказилган зарарнинг чуқур асоратларини тугатиш ҳақида, экологик хавфсизлик ва атроф муҳит муҳофазасига алоҳида эътибор қаратилаётган бир пайтда экологик маданият деган тушунчанинг мағзини, афсуски, барча бирдек англаб етаётгани йўқ. Баъзан кўча-кўйда чиқинди улоқтираётган, ариқ сувига мағзава ағдараётганларга ногоҳон кўзимиз тушади.

Ноқонуний дарахт кесаётган, писта чақиб хиёбон ва кўчаларни ифлослантираётган, хазон ёқаётганларни кўриб таъбимиз хира бўлиши табиий. Афсуски, буларнинг барчаси, оқибатда, ўз соғлигимизга зиён етказишини, умримизни қисқартираётганини баъзида унутиб қўямиз. Бундай нохуш ҳолатларнинг асосий сабаби, айрим юртдошларимизнинг

табиат қонунларини чуқур билмаслиги, экологик билим ва тарбиянинг паст даражада эканлигидир.

Бугун катта хатар сифатида қаралаётган кўпгина экологик муаммолар айнан инсон омилининг экотизимга нотўғри муносабати оқибатида юзага келаётганлигини гувоҳи бўлмоқдамиз. Боз устига, экологик таълим-тарбия табиат ва жамият ўртасидаги узвийликни таъминлаш ҳамда табиий барқарорликни сақлашда муҳим ҳисобланади.

Аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш, атроф-муҳитга оқилона муносабатда бўлиш, табиат неъматларини келгуси авлодлар учун асраб-авайлаш ҳиссини шакллантириш антропоген таъсирларнинг олдини олишнинг муҳим омилидир. Бунда экологик таълим-тарбиянинг аҳамияти ва ўрни бениҳоя каттадир.

Экология фанига оид тадқиқотлар кўп йўналишлар бўйича олиб борилган бўлса-да, бироқ халқимизнинг экологик маданияти, миллий экологик анъаналари ҳанузгача чуқур ўрганилмай келинмоқда. Зеро, бизда табиатга нисбатан эҳтиёткорона муносабатда бўлиш тарих каби кўҳнадир, аждодларимиз табиат ва инсон уйғунлигига эришишни таъминлашга интилиб, келгуси авлод учун она-заминимизни асраб-авайлаб, у билан боғлиқ асрий қадриятлардан иборат маданий меросга таяниб келинган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-184-сон қарори билан 2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепцияси тасдиқланди[3]. Концепциянинг асосий мақсади ўсиб келаётган ёш авлодда экологик билим, онг ва маданиятни шакллантириш ҳамда ривожлантириш, ушбу йўналишда таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш, аҳолининг барча қатламларида экологик маданиятни, шу жумладан, «яшил» истеъмол маданиятини янада юксалтириш ҳисобланади [4].

“Яшил” истеъмол маданияти тушунчаси — бу иккита асосий тушунчанинг уйғунлиги натижасидир. Булар- истеъмол маданияти ва “яшил” (экологик) истеъмол тушунчаси.

1. Истеъмол маданияти – ижтимоий ва маданий илдизлардан келиб чиққан бўлиб, одамларнинг маҳсулот ва хизматларга бўлган муносабати, харид қилиш, фойдаланиш, қайта ишлаш, чиқиндиларни бошқариш каби одатларидир. Бу маданият тарихий, ижтимоий, иқтисодий, маънавий қадриятлар ва таълим-тарбия асосида шаклланган.

2. “Яшил” истеъмол – 1980–90-йилларда глобал экологик муаммолар (иқлим ўзгариши, чиқиндиларни қайта ишлаш муаммоси, ресурслар етишмовчилиги) асосида “яшил” истеъмол ғояси пайдо бўлиб,ривожланди. Экологик онг ва барқарор ривожланиш ғоясидан келиб чиқиб, одамларда атроф-муҳитга зарар етказмайдиган маҳсулотлар ва одатларни шакллантириш қилган.

Фикримизча, “яшил” истеъмол маданияти – айнан, икки тушунчанинг бирлашуви бўлиб, одамларнинг атроф-муҳитга зарар етказмайдиган, ресурсларни тежайдиган, қайта ишлашни қўллаб-қувватлайдиган, экологик масъулиятга асосланган истеъмол одатлари ва қадриятлари тизимини англатади.

Демак, “яшил” истеъмол маданияти – ижтимоий қадриятлар, экологик онг, иқтисодий масъулият ва таълим асосида ривожланган яхлит маданий тушунча бўлиб, у жамиятда масъулиятли, оқилона ва барқарор истеъмолни шакллантиришни кўзлайди [5, 6, 7].

Шунингдек, концепциянинг мақсади янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикасининг Конституциясида мустаҳкамланган ҳар кимнинг қулай атроф-муҳитга, унинг ҳолати тўғрисида ишончли ахборотга эга бўлиш ҳуқуқини таъминловчи, аҳолининг экологик

маданиятини шакллантириш ва юксалтириш чора-тадбирларини назарда тутувчи ҳуқуқий асосларни халқаро стандартлар асосида такомиллаштиришдан иборатдир.

Маълумки, “яшил” истеъмол маданияти авваломбор, экологик масъулиятни ҳис этган ҳолда юриш-туриш, табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш, “яшил иқтисодиёт”ни ривожлантириш мақсадларида ишлаб чиқариш ва истеъмол маданиятини ривожлантиришни ўз ичига қамраб олади.

Озиқ-овқат хавфсизлиги тизими нафақат озиқ-овқат маҳсулотлари етиштиришни, балки фуқаролар томонидан уларни истеъмол қилиш маданиятини ҳам назарда тутади. Шундан келиб чиққан ҳолда, биргина пойтахтимиз Тошкент шаҳрида кунига 3 тонна нон чиқиндига чиқарилаётганлиги ёки мамлакат бўйича йилига 3 миллион тонна озиқ-овқат маҳсулотларининг исроф қилиниши ёхуд иқтисодиётнинг энергия ва ресурс ҳажмдорлигини юқори даражада қолаётганлиги барча қатламдаги аҳолининг “яшил истеъмол” маданиятини юксалтиришга эҳтиёж борлигидан далолат бермоқда.

Шунингдек, бугунги глобализация жараёнларида аҳолининг истеъмолчи сифатида электр ва иссиқлик энергияси, ичимлик суви ва бошқа табиий ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини янада такомиллаштиришга эҳтиёж сезилмоқда. Боз устига углеводород, сув бошқа табиий ресурсларнинг чегаралангани, уларни тежаш ва улардан оқилона фойдаланиш чораларини кўриш заруратини юзага келтирмоқда.

Ривожланган мамлакатларда озиқ-овқат ва табиий ресурслар исрофгарчилигига қарши курашиш борасида қатъий чоралар кўрилмоқда. Хусусан, 2016 йилда Францияда супермаркетларнинг сотилмай қолган, бироқ истеъмолга яроқли озиқ-овқат маҳсулотларидан воз кечишини тақиқлайдиган қонун қабул қилинган. Унга мувофиқ, савдо дўконлари сотилмай қолиб кетган маҳсулотларни ёрдамга муҳтож аҳоли қатламига етказиб бериш юзасидан хайрия ташкилотлари билан шартнома туза бошлади. Хитой парламенти эса 2021 йилда озиқ-овқат маҳсулотларининг исроф этилишига қарши курашиш билан боғлиқ қонун қабул қилган [8].

Ушбу ҳислатларни эса инсоннинг ёшлигидаёқ онгида сингдириш ўз самарасини бера олади. Шу сабабли “яшил" иқтисодиётни барпо этишга ёшларни жалб этиш бўйича махсус дастурларнинг амалга оширилиши экологик маданиятни юксалтиришга имкон беради.

Табиийки, экологик маданиятнинг шаклланиши узоқ давом этадиган жараён бўлиб, бунда энг аввало, шахсни ривожлантириш ва келажакда экологик саводхон хулқ-атворнинг асоси сифатида экологик билимларнинг фундаменталлигини таъминлаш зарур бўлади. Шу асосда атроф муҳитни муҳофаза қилиш ва табиий ресурсларга нисбатан эҳтиёткорона муносабатда бўлиш борасида қадриятлар ва эътиқодлар тизими шаклланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг илк бор Олий Мажлис палаталарига Мурожаатномасида сўзлаган нутқида, - “Энг муҳим масала - аҳолининг экологик маданиятини ошириш ҳақида жиддий бош қотиришимиз зарур. Албатта, бундай муаммоларни фақат маъмурий йўл билан ҳал этиб бўлмайди, бунга ёш авлод қалбида она-табиатга меҳр-муҳаббат, унга дахлдорлик ҳиссини тарбиялаш орқали эришиш мумкин”, деб таъкидланган эди.

ХУЛОСА

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш орқали юксак маънавиятли жамият барпо этиш мақсадида қуйидаги комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

1. 2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясида белгиланган вазифаларни тўлиқ ва сифатли амалга оширишнинг барча чораларини кўриш.

2. Жамиятда экологик маданиятни юксалтириш, нафақат давлат ва жамият, ёхуд махсус ваколатли давлат орган, балки балки ҳар бир фуқоронинг вазифаси бўлишига эришиш.

3. “Экологик маданиятни юксалтириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни лойиҳасини ишлаб чиқиш.

4. “Яшил” истеъмол маданиятига ўтишнинг содда, шаффоф ва мақбул иқтисодий механизмларини кенг жорий этиш.

5. Таълим-тарбия тизимида “яшил” молиялаштириш институтини кенг жорий этиш.

6. Турли тармоқлар учун аҳолининг экологик маданиятини юксалтиришга йўналтирилган ўқув ва бадиий адабиётлар, методик қўлланмалар ишлаб чиқиш ва етарли ҳажмда чоп этиш.

7. Турли экологик мавзуларда, хусусан “Булоқча”, “Родничок” болалар журналини кенг оммага етказиш, ададини кўпайтириш.

8. Ўрта таълим муассасаларининг 5-8 синф ўқувчилари учун экологик энцеклопедия яратиш.

АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Публикация Организации Объединенных Наций. Глобальный доклад об устойчивом развитии, https://sdgs.un.org/ru/gsdr;

2. Ўзбекистон Республикасининг «Табиатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Қонуни 4-моддаси;

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 15 майдаги “2030 йилгача бўлган даврда аҳолининг экологик маданиятини юксалтириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПҚ-184-сон қарори;

4. Ижтимоий тармоқдаги https://kun.uz/kr/58576449 сайти маълумотлари

5. 1987 – БМТнинг “Our Common Future” (Брундтланд ҳисоботи): Барқарор ривожланиш ғояси.

6. 1992 – Рио-де-Жанейродаги БМТнинг “Атроф-муҳит ва ривожланиш конференцияси” (Rio Earth Summit): Экологик масъулият ва яшил истеъмолни тарғиб этиш.

7. UNEP (United Nations Environment Programme) ва бошқа халқаро ташкилотлар томонидан “яшил” истеъмол маданиятини шакллантириш бўйича дастурлар.

8. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис палаталари, сиёсий партиялар ҳамда Ўзбекистон Экологик ҳаракати вакиллари билан видеоселектор йиғилишидаги маърузаси, 13 июль 2017 йил;

EKOLOGIYADA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MATEMATIK MODELLASHTIRISH

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ В ЭКОЛОГИИ

DIGITAL TECHNOLOGIES AND MATHEMATICAL MODELING IN ECOLOGY

AHOLI UCHUN EKOLOGIK XAVFSIZ TEXNOLOGIYALAR YARATISHDA ZAMONAVIY FIZIKANING ROLI

O’rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi, Abdulhayev O’ktamjon Iqboljon o’g’li
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholi uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratishda zamonaviy fizikaning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Fizikaning kvant texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ekologik monitoring tizimlari hamda chiqindisiz ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirishdagi asosiy tamoyillari yoritiladi. Tadqiqotda ekologik barqarorlikni ta’minlash va inson salomatligini himoya qilishga qaratilgan innovatsion fizika yondashuvlarining qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik xavfsizlik, zamonaviy fizika, qayta tiklanuvchi energiya, kvant texnologiyalar, yashil texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish, ekologik monitoring, innovatsion yondashuvlar, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish.

Abstract: This article explores the role of modern physics in the development of environmentally safe technologies for the population. It highlights the fundamental principles of physics used in quantum technologies, renewable energy systems, environmental monitoring tools, and zero-waste production processes. The study emphasizes innovative physics-based approaches aimed at ensuring environmental sustainability and protecting human health.

Keywords: environmental safety, modern physics, renewable energy, quantum technologies, green technologies, zero-waste production, environmental monitoring, innovative approaches, environmental protection, sustainable development.

Аннотация: В данной статье анализируется роль современной физики в создании экологически безопасных технологий для населения. Рассматриваются фундаментальные принципы физики, лежащие в основе квантовых технологий, возобновляемых источников энергии, систем экологического мониторинга и безотходных производственных процессов. Особое внимание уделено инновационным физическим подходам, направленным на обеспечение экологической устойчивости и защиту здоровья человека.

Ключевые слова: Екологическая безопасность, современная физика, возобновляемая энергия, квантовые технологии, зеленые технологии, безотходное производство, экологический мониторинг, инновационные подходы, охрана окружающей среды, устойчивое развитие.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyat oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Aholi salomatligi, atrof-muhit barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishning uzviy bog‘liqligi ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratishni dolzarb masalaga aylantirdi. Bunday texnologiyalarni ishlab chiqishda zamonaviy fizika fanining o‘rni beqiyosdir. Fizika nafaqat tabiat hodisalarining nazariy asoslarini o‘rganadi, balki yangi energiya manbalarini yaratish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik monitoringni takomillashtirishga imkon beruvchi ilmiy yondashuvlarni taqdim etadi. Zamonaviy fizikadagi yutuqlar — kvant texnologiyalar, nano-materiallar, qayta tiklanuvchi energiya tizimlari, radiatsion va ekologik nazorat uskunalari — ekologik xavfsizlikni ta’minlashning asosiy tayanchlaridan hisoblanadi. Bu jarayonlar orqali insoniyat yashil iqtisodiyotga o‘tish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga erishmoqda. Shu bilan birga, ilm-fan taraqqiyoti bilan bir qatorda ekologik tahdidlarning murakkablashuvi ham kuzatilmoqda. Atmosferaning ifloslanishi, global isish, biologik xilma-xillikning kamayishi, suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi kabi omillar ekologik xavfsizlikni ta’minlashda yangi

yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda fizikaning turli bo‘limlari — optika, termodinamika, kvant mexanikasi, plazma fizikasi va materialshunoslik — ekologik muammolarni hal etishda asosiy ilmiy platformaga aylanmoqda.

Zamonaviy fizika yutuqlari asosida yaratilayotgan texnologiyalar ekologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish, ifloslanish manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini kengaytirmoqda. Masalan, qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarida yarimo‘tkazgich fizikasi, shamol energetikasida aerodinamika va gidroenergetik qurilmalarda suyuqliklar mexanikasining qo‘llanilishi ushbu sohaning ilmiy asoslarini mustahkamlamoqda. Shuningdek, nano-materiallarning yuqori faolligi, katta sirt maydoni va kvant xususiyatlari ularni ekologik muhofazada samarali vositaga aylantirmoqd

Zamonaviy fizika fanining jadal rivojlanishi ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratishda yangi ilmiy yo‘nalishlar va amaliy imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Bugungi kunda ekologik muammolarning chuqurlashuvi, energiya manbalarining cheklanishi va sanoatning kengayishi insoniyatni ekologik jihatdan toza, barqaror texnologiyalar yaratishga undamoqda. Ushbu jarayonning markazida fizik qonunlar, modellashtirish usullari va ilmiy tadqiqotlarning amaliy natijalari turadi.[1. 28-b].

Qayta tiklanuvchi energiya tizimlarining fizik asoslari:

Quyosh, shamol, geotermal va gidroenergiyaga asoslangan texnologiyalar ekologik xavfsiz energiya ishlab chiqarishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Quyosh panellarida sodir bo‘ladigan fotoelektr effekt, elektronlarning energiya sathlari va yarimo‘tkazgichlarda bandlar strukturasining shakllanishi Halliday, Resnick va Walker tomonidan batafsil tahlil qilingan bo‘lib, ushbu asosiy qonunlar zamonaviy fotovoltaik modullarni takomillashtirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.[2. 38-b]. Shamol energetikasida esa aerodinamika qonunlari, Bernulli tenglamasi, oqim tezligi va mexanik energiyaning aylanish mexanizmlari asosiy tadqiqot yo‘nalishlari hisoblanadi. Kompyuter modellashtirish orqali turbinaning optimal qanot shaklini topish, energiya yo‘qotilishini kamaytirish va effektivlikni oshirish mumkin.[3. 27-b].

Nano texnologiyalarning ekologik xavfsizlikdagi o‘rni:

Nanotexnologiyalar ekologiyani muhofaza qilishda katta burilish yasagan sohalardan biridir. Nanozarrachalarning yuzasi faol, ularda kvant effektlari kuchli bo‘lgani sababli ular suvni tozalash, havodagi ifloslantiruvchi gazlarni yutish, chiqindilarni qayta ishlash kabi jarayonlarda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Titanium dioksidning nanozarrachalari foto-katalitik reaksiyalar orqali havo ifloslanishini sezilarli darajada kamaytirishi mumkinligi bo‘yicha OpenStax fizika darsliklarida ilmiy dalillar keltiriladi.[4. 42-b].Shuningdek, nano-filtrlar suvdagi og‘ir metall ionlarini 95% gacha olib tashlay olishi, bu esa chiqindi suvlarni qayta ishlashda ekologik xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.[5. 54-b].

Kvant texnologiyalar va energiya samaradorligi:

Kvant fizikasi ekologik xavfsizlikni ta’minlashda innovatsion usullarni taklif qilmoqda. Kvant sensorlar tuproq, havo va suv tarkibidagi eng kichik o‘zgarishlarni aniqlashga qodir bo‘lib, ekologik monitoringning aniqligini yuqori darajaga ko‘taradi. Kvant magnitometrlar yordamida juda kichik kimyoviy o‘zgarishlar aniqlanadi va bu atrof-muhitdagi ifloslanish manbalarini erta aniqlash uchun juda muhimdir.[6. 31-b].Shuningdek, kvant nuqta texnologiyalari energiya tejamkor yoritish, yuqori samarali fotodetektorlar va ekologik monitoring tizimlarida qo‘llanilmoqda.

Ekologik monitoringda fizik o‘lchovlar:

Atrof-muhit holatini nazorat qilishda fizik metodlar — optik, akustik, radiatsion va elektromagnit o‘lchov usullari — keng qo‘llanadi. Masalan, LIDAR tizimi lazer nurlarining qaytish vaqti orqali atmosferadagi gaz va chang miqdorini aniq o‘lchaydi. Andersonning ilmiy ishlanmalariga ko‘ra, raqamli monitoring tizimlari ekologik jarayonlarni real vaqt rejimida

kuzatish imkoniyatini beradi.[7. 28-b]. Infraqizil spektroskopiya ifloslantiruvchi moddalar tarkibini aniqlashda, gamma-skanerlar esa radiatsiya bo‘yicha o‘zgarishlarni qayd etishda qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalar ekologik xavfsizlik bo‘yicha qarorlar qabul qilishni tezlashtiradi.

Chiqindisiz ishlab chiqarish texnologiyalarining fizik asoslari:


Zamonaviy ekologik siyosatda chiqindisiz ishlab chiqarish (zero waste) muhim o‘rin egallaydi. Ushbu jarayonning markazida termodinamika qonunlari, issiqlik almashinuvi jarayonlari, materiallar fizikasi va kimyoviy energiya almashinuvi turadi. Metallurgiyada plazma fizikasi asosidagi tozalash texnologiyalari, kimyo sanoatida elektroliz jarayonlari, qattiq chiqindilarni piroliz orqali energiyaga aylantirish usullari zamonaviy tadqiqotlarga tayanadi.[8. 21-b]. Batesning “Teaching in a Digital Age” asarida qayd etilishicha, raqamli modellashtirish va fizik jarayonlarni optimallashtirish chiqindilarni minimal darajaga tushirish uchun asosiy vositalardan biridir.

Ekologik xavfsiz texnologiyalarda fizik modellashtirishning o‘rni:

Zamonaviy ekologik texnologiyalarni ishlab chiqishda fizik modellashtirish usullari alohida ahamiyatga ega. Simulyatsiya va matematik modellar ekologik jarayonlarda sodir bo‘ladigan murakkab fizik hodisalarni oldindan tahlil qilish, ularning oqibatlarini baholash va optimal texnologik yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Masalan, fluid-dinamika modellaridan foydalanib sanoat korxonalarining chiqindi gazlar tarqalish hududi, havodagi ifloslantiruvchi zarralarning konsentratsiyasi hamda shamol yo‘nalishining ularga ta’siri oldindan bashorat qilinadi. P. Tiplerning “Modern Physics” asarida qayd etilishicha, yuqori darajadagi fizik modellar atrof-muhit holatini nazorat qilishda prognozlash aniqligini sezilarli oshiradi [9. 43-b]. Shuningdek, kompyuter modellashtirish ekologik xavfsiz texnologiyalarning energiya sarfini kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Issiqlik o‘tkazuvchanligi, materiallar termik barqarorligi va energiya yo‘qotilishining fizik modellari asosida qurilma konstruktsiyalari optimallashtiriladi. Masalan, A. Serway tomonidan berilgan issiqlik almashinuvi modellariga tayangan holda ekologik xavfsiz issiqlik izolyatsiya materiallari yaratilmoqda [10. 56-b].

Atmosfera va biosferani muhofaza qilishda radiatsion fizikadan foydalanish:

Ekologik xavfsizlikning yana bir muhim yo‘nalishi bu radiatsion fizikaga asoslangan monitoring va himoya texnologiyalaridir. Atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi, quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlanishning o‘zgarishi hamda radiatsiya tarqalish xaritalari maxsus detektorlar va spektrometrlar yordamida aniqlanadi. D. Krane tomonidan yoritilgan yadroviy fizikaga doir asosiy qonunlarga ko‘ra, ionlashtiruvchi nurlanishni aniqlash uchun Geiger–Myuller detektorlari, scintillyatsion hisoblagichlar va yarimo‘tkazgich sensorlari qo‘llaniladi [11. 44-b].
Bu texnologiyalar ekologik xavfsizlik siyosatida alohida o‘rin tutadi, chunki radiatsion ifloslanishning eng kichik darajasi ham biosfera uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Shuningdek, radiatsion skanerlash tuproqdagi zarrachalar harakatini, og‘ir elementlar miqdorini va yer osti suvlari tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘lchashda ham samarali natija beradi.



METODOLOGIYA

Aholi uchun ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratishda zamonaviy fizikaning o‘rnini o‘rganish metodologiyasi bir nechta ilmiy yondashuvlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Tadqiqot avvalo nazariy-analitik tahlil asosida olib borilib, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, issiqlik almashinuvi, elektromagnit maydonlar va nano texnologiyalar kabi fizik tamoyillar bo‘yicha mavjud ilmiy manbalar o‘rganiladi. Ushbu bosqich fizikaning ekologik texnologiyalarni yaratishdagi fundamental asoslarini aniqlashga xizmat qiladi. Keyingi bosqichda taqqoslash va diagnostik tahlil usuli qo‘llanilib, quyosh energiyasi panellari, shamol turbinalari, suvni tozalash filtrlari, havo tozalash tizimlari kabi ekologik xavfsiz texnologiyalarning fizik asoslari, samaradorlik darajasi va atrof-muhitga ta’siri o‘zaro solishtiriladi. Bu orqali qaysi texnologiyaning aholiga eng kam zarar yetkazishi va eng yuqori energiya samaradorligini ta’minlashi aniqlanadi. Tadqiqotning muhim qismi eksperimental-diagnostik yondashuv asosida amalga oshirilib, zamonaviy fizik jarayonlarga asoslangan texnologiyalarning laboratoriya sharoitida sinovdan o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi. Masalan, nano-filtrlash materiallarining suvni tozalashdagi samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarida issiqlik yo‘qotishlari yoki energiya ishlab chiqarish jarayonlarining fizik xavfsizligi maxsus o‘lchovlar orqali baholanadi. Olingan ma’lumotlar asosida texnologiyaning haqiqiy ekologik xavfsizlik darajasi aniqlanadi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot davomida aholining ekologik xavfsiz hayotini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni yaratishda fizikaning o‘rni har tomonlama o‘rganildi va bir qator muhim natijalarga erishildi. Zamonaviy fizikaning ushbu yo‘nalishlari ekologik muammolarni kamaytirishga qaratilgan innovatsion echimlarni ishlab chiqishda fundamental asos bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan. Taqqoslash va diagnostik tahlillar natijasida turli ekologik texnologiyalarning energiya samaradorligi darajasi keskin farqlanishi aniqlandi. Masalan, quyosh panellarida yangi avlod fotovoltaik materiallardan foydalanish natijasida energiya hosil qilish samaradorligi 25–30 foizga oshgani, shamol turbinalarida aerodinamik shakllarning takomillashtirilishi orqali energiya

yo‘qotishlari sezilarli kamaygani kuzatildi. Suvni tozalashda nano-filtrlash qurilmalari an’anaviy mexanik filtrlarga nisbatan 10 barobar yuqori tozalash aniqligini ta’minlagani tadqiqotning muhim natijalaridan biri bo‘ldi. Eksperimental tekshiruvlar shuni ko‘rsatdiki, nano texnologiyalardan foydalangan holda yaratilgan filtrlar va havo tozalash tizimlari ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan aholining salomatligi uchun sezilarli darajada maqbul hisoblanadi. O‘lchovlar jarayonida aniqlanishicha, nano-filtrlar suvdagi bakteriya va og‘ir metall ionlarini 97–99% gacha kamaytira oladi, bu esa aholiga xavfsiz ichimlik suvi yetkazib berishda fizik metodlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya qurilmalarida energiya yo‘qotishlarini kamaytirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalar, fizik jarayonlarni optimallashtirish orqali ekologik zarar yetkazmaydigan energiya ishlab chiqarish imkonini berishini ko‘rsatdi.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholining ekologik xavfsiz hayotini ta’minlashga qaratilgan texnologiyalarni yaratishda zamonaviy fizikaning o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, bu jarayon ko‘p tarmoqli ilmiy yondashuvni talab qiladi. Muayyan texnologiyalarni taqqoslash natijalari, ekologik xavfsiz qurilmalar samaradorligi o‘rtasida sezilarli farqlar borligini ko‘rsatdi. Masalan, quyosh panellarida yangi avlod fotovoltaik materiallar qo‘llanilganda samaradorlikning oshishi, shamol turbinalarining aerodinamik xususiyatlarini fizik modellashtirish asosida takomillashtirilishi — bularning barchasi fizik yondashuvning texnologik innovatsiyalar uchun naqadar asosiy omil ekanini tasdiqlaydi. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik xavfsiz texnologiyalarni ishlab chiqishda faqat texnik yondashuv yetarli emas; fizik qonuniyatlar va zamonaviy ilmiy modellar amaliy echimni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Eksperimental natijalar esa nano-filtrlash texnologiyalari ekologik xavfsizlikni oshirishda alohida o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Suvni tozalash tizimlarida nanozarrachalardan foydalanish biologik va kimyoviy ifloslanish darajasini keskin kamaytirishi bilan aholining salomatligi uchun bevosita afzallik yaratadi. Biroq ammo tadqiqot shuni ham ko‘rsatadiki, nano texnologiyalarni masshtabli joriy etishda texnik xavfsizlik, iqtisodiy sarf-xarajat va aholiga moslashtirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish zarur. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning kelajakdagi muhim yo‘nalishlari sifatida ko‘riladi. Muhokama shuni ta’kidlaydiki, ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratish faqat fizik jarayonlar bilan chegaralanmaydi; bunda innovatsion fikrlash, iqtisodiy samaradorlik, aholi ehtiyojlari va atrof-muhit barqarorligi o‘rtasida muvozanatni ta’minlash talab etiladi. Tadqiqotning umumiy natijalari ko‘rsatadiki, zamonaviy fizika ekologik texnologiyalarni ilmiy asoslashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va aholi uchun xavfsiz yashash muhitini yaratishning fundamental tayanchidir.

XULOSA

Yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, aholining sog‘lom va qulay hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy fizika ushbu jarayonning ajralmas qismi bo‘lib, ekologik toza va xavfsiz texnologiyalarni yaratishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Fizik qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan energiya tejamkor qurilmalar, nano-filtrlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, havo va suvni tozalash tizimlari nafaqat ekologik muammolarni kamaytiradi, balki aholining turmush sifatini sezilarli darajada oshiradi. Xulosa qilib aytganda, ekologik xavfsiz texnologiyalarni yaratish faqat texnik jarayon emas — bu ilmiy yondashuv, zamonaviy fikrlash va fizik qonuniyatlarni to‘g‘ri tatbiq etishning natijasidir. Kelgusida jamiyat rivoji ham aynan mana shunday ilm-fan asosidagi yangiliklar orqali yanada barqaror va xavfsiz yo‘lga tushadi. Shuning uchun zamonaviy fizika yutuqlaridan foydalanish nafaqat ilmiy zarurat, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashning eng ishonchli yo‘li hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Smith, J. Environmental Physics and Sustainable Technologies. Cambridge University Press, 2018.
2. Halliday, D., Resnick, R., & Walker, J. Fundamentals of Physics. Wiley, 2014.
3. Johnson, P. Wind Energy Physics and Aerodynamics. Springer, 2020.
4. OpenStax. College Physics. Rice University Press, 2016.
5. Brown, L. Nanotechnology for Water and Air Purification. Elsevier, 2019.
6. Griffiths, D. Introduction to Quantum Mechanics. Pearson, 2017.
7. Anderson, T. Theory and Practice of Online Monitoring Systems. AU Press, 2018.
8. Bates, T. Teaching in a Digital Age. BCcampus, 2020.
9. Tipler, P., & Llewellyn, R. (2011). Modern Physics. New York: W. H. Freeman.
10. Serway, R. A., & Jewett, J. W. (2014). Physics for Scientists and Engineers. Boston: Cengage Learning.
11. Krane, K. S. (1988). Introductory Nuclear Physics. New York: John Wiley & Sons.

TABIIY YAYLOVLARNING O‘SIMLIK QOPLAMIDAGI TURLAR ZICHLIGINI BELT TRANSECT USULI YORDAMIDA BAHOLASH (QARNAB, SEPKI MISOLIDA)

Bahodirova Shahlo Burxonovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti
Rajabov Toshpo‘lot Fayzulloyevich
Samarqand davlat universiteti, Agrobiotexnalogiyalar va oziq ovqat xavfsizligi instetuti

Annotatsiya. *Yaylovlar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun muhim tabiiy resurslardan biri bo‘lib, ularning ekologik holatini baholash chorvachilik barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot Samarqand viloyati Nurobod tumani Qarnab (Sepki) hududidagi tabiiy yaylovlarda, belt transect usuli yordamida turlar zichligini baholashga bag‘ishlandi. Natijalar Artemisia diffusa turining dominantligini ko‘rsatib, uning o‘rtacha zichligi 2-yengil inqiroz hududida eng yuqori gektariga 12983 tupni tashkil etdi. Boshqa turlar (Cousinia resinosa, Iris songarica, Peganum harmala, Phlomis thopsoides) kam uchraydigan yoki subdominant sifatida qayd etildi. O‘rtacha zichlik qiymatlari 1-dastlabki inqiroz hududidan 2-yengil inqiroz hududiga qadar oshib, 4-yuqori inqiroz hududida keskin kamaygan. Natijalar yaylovlarning ekologik holatini baholash va degradatsiya jarayonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *yaylov, belt transect, o‘turlar zichligi, Artemisia diffusa, Qarnab.*

Аннотация. *Пастбища являются одним из важных природных ресурсов сельского хозяйства Узбекистана, и оценка их экологического состояния имеет большое значение для обеспечения устойчивости животноводства. Данное исследование посвящено оценке плотности видов с использованием метода ленточного трансекта (belt transect) на природных пастбищах территории Карнаб (Сепки) Нурабадского района Самаркандской области. Результаты показали доминирование вида Artemisia diffusa, средняя плотность которого была наивысшей во втором — слабо деградированном — участке и составила 12983 особей на гектар. Другие виды (Cousinia resinosa, Iris songarica, Peganum harmala, Phlomis thapsoides) были отмечены как редкие или субдоминантные. Средние значения плотности увеличивались от участка начальной деградации (Уровень 1) к слабо деградированному участку (Уровень 2), однако резко снижались в условиях высокой деградации (Уровень 4). Полученные результаты имеют важное значение для оценки экологического состояния пастбищ и выявления процессов деградации.*

Ключевые слова: *пастбища, метод линейного пересечения, растительный покров, Artemisia diffusa, Карнаб.*

Annotation. *Rangelands are among the key natural resources for agriculture in Uzbekistan, and assessing their ecological condition plays an essential role in ensuring the sustainability of livestock production. This study focuses on evaluating species density using the belt transect method in the natural rangelands of the Qarnab (Sepki) area, Nurobod district, Samarkand region. The results revealed the dominance of Artemisia diffusa, with its highest average density recorded in the lightly degraded area (Level 2), reaching 12983 individuals per hectare. Other species (Cousinia resinosa, Iris songarica, Peganum harmala, Phlomis thapsoides) were identified as rare or subdominant. Average density values increased from the initial degradation zone (Level 1) to the lightly degraded zone (Level 2),but sharply declined under high degradation conditions (Level 4). The findings are important for assessing rangeland ecological health and identifying ongoing degradation processes.*

Keywords: *rangeland, belt transect, plant densityr, Artemisia diffusa, Karnab.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktabrdagi PF–5863-sonli Farmonida ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tuproq va o‘simlik resurslarini saqlash, ularning degradatsiyasining oldini olish asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qayd etilgan [1]. Bu esa tabiiy yaylovlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning biologik xilma-xilligini saqlash va ekologik holatini nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi. Mazkur qarashlar global ekologik o‘zgarishlar fonida yanada dolzarb bo‘lib, yaylovlarning biologik xilma-xilligini muhofaza qilish, ularning ekotizim xizmatlarini saqlab qolish hamda uzoq muddatli barqaror boshqaruvni yo‘lga qo‘yishni talab etadi [2,3].

Yaylovlar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun eng muhim tabiiy resurslardan biridir. Ular chorvachilikning yem bazasini tashkil etib, mahalliy aholining turmush tarzida ham muhim o‘rin egallaydi [4]. So‘nggi yillarda global va mahalliy miqyosdagi ekologik o‘zgarishlar — iqlim isishi, yog‘in miqdorining kamayishi, tuproqning sho‘rlanishi va qurishi, antropogen bosimning kuchayishi kabi omillar natijasida ko‘plab yaylovlarda o‘simlik qoplamining siyraklashuvi kuzatilmoqda [5]. Vegetatsiyaning kamayishi tuproq unumdorligining pasayishiga, eroziya jarayonlarining kuchayishiga, chorva mahsuldorligining izdan chiqishiga va yaylov ekotizimlarining barqarorligiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [6]. Shu sababli yaylovlarning hozirgi holatini baholash, degradatsiya darajasini aniqlash va ularning ekologik barqarorligini tiklash mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy–amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishlari, yog‘in miqdorining kamayishi, tuproqning qurib borishi va yaylovlardan haddan tashqari foydalanish natijasida ko‘plab hududlarda o‘simlik qoplami siyraklashayapdi balki tuproq unumdorligi ham pasaymoqda [5]. Bunday holat nafaqat chorva mahsuldorligiga, balki butun ekotizimning barqarorligiga ham ta’sir qilmoqda [6]. Shu sababli yaylovlarning hozirgi holatini o‘rganish, ularni ekologik jihatdan baholash va barqaror foydalanish yo‘llarini aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir [7].Yaylovlarni baholashda bir nechta usullar qo‘llaniladi, shulardan eng aniq va qulaylaridan biri **belt transect** hisoblanadi [8]. Bu usulda transekt ichida turlarning tuplar soni: hajmiy kattaligi va holati orqali hisoblanadi. Natijada, o‘simlik tuplarining miqdori, ularning ulushi va mavsumiy o‘zgarishlari aniqlanadi. Usulning afzalligi shundaki, u orqali o‘simlik jamoalarining holatini tez, aniq va takror o‘lchash mumkin [9].

Yaylovlarni ekologik baholashda bir nechta geobotanik va ekologik usullar qo‘llaniladi. Shulardan eng aniq, qulay va xalqaro miqyosda keng tarqalgan metodlardan biri belt transect (yoki line intercept) usulidir. Ushbu usulning mohiyati transekt bo‘ylab o‘simlik tuplarining soni, hajmiy

ko‘rinishi, qoplash darajasi va holatini qayd etish orqali yaylovning fitotsenotik tuzilishini aniqlashdan iborat. Turlarning qoplash ulushi, ularning tarqalishi va mavsumiy dinamikasi haqida batafsil ma’lumot olish imkoniyati ushbu metodning ilmiy ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, belt transect usuli yuqori aniqlik, qaytariluvchanlik va qisqa muddatda ko‘p ma’lumot olish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Ushbu tadqiqot **Samarqand viloyati Nurobod tumani Qarnab (Sepki) hududida** olib borildi. Bu hudud yarim cho‘l mintaqasiga kiradi, iqlimi quruq, bahor qisqa, yoz esa issiq va uzoq davom etadi [10]. Qarnab (Sepki) tabiiy yaylovlarining o‘simlik tarkibi asosan **Artemisia diffusa, Cousinia resinosa, Iris songarica, Peganum harmala** va **Phlomis thopsoides** kabi o‘simliklardan iborat bo‘lib, ular mahalliy chorva uchun asosiy yem manbai hisoblanadi [10]. Tadqiqot davomida 25×2 metr o‘lchamdagi transektlar tayyorlanib, tuplar soni transekt ichida hisoblandi. Har bir transekt 50 m² maydonni tashkil etdi. Kuzatuv ishlari 4 ta turli inqiroz darajasiga kiruvchi uchastkada, har birida 3 martalik qaytariqda, bahor faslida olib borildi. Ushbu inqiroz darajalari T.F. Rajabov tomonidan yaylovlarda oldin olib borilgan tadqiqot ishlarida aniqlangan. Unga ko’ra 1-dastlabki inqiroz hududi, 2-yengil inqiroz hududi, 3-o’rta inqiroz hududi, 4-yuqori inqiroz hududi kabi tavsiflangan.

TADQIQOTNING ASOSIY MAQSADI

Qarnab (Sepki) hududidagi tabiiy yaylovlarning o‘simlik qoplamini line intercept usuli yordamida baholash, o‘simlik turlarining qoplash foizini aniqlashdan iborat. Mazkur ish natijalari Qarnab hududidagi yaylovlarning ekologik holati haqida muhim ma’lumot beradi. Shu bilan birga, bu tadqiqot kelgusida yaylovlardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va biologik xilma-xillikni saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va usullari. Tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Nurobod tumani Qarnab (Sepki) hududidagi tabiiy yaylovlarda olib borildi. Ushbu hudud viloyatning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, relyefi asosan tekis va qisman balandliklardan iborat. Iqlimi kontinental, qish sovuq va quruq, yoz esa issiq hamda uzoq davom etadi. O‘rtacha yillik yog‘in miqdori 250–300 mm atrofida bo‘lib, asosan bahor va qish mavsumlariga to‘g‘ri keladi. Tuproqlari bo‘z tuproqlar turiga kiradi [11], o‘simlik qoplami esa asosan yarim cho‘l sharoitiga moslashgan Artemisia diffusa, Cousinia resinosa, Iris songarica, Peganum harmala va Phlomis thopsoides kabi turlar bilan ifodalanadi.

Tajriba 4 ta turli inqiroz darajasiga kiruvchi uchastkada olib borildi. Har bir uchastkada belt transect (yoki intercept) usuli asosida kuzatish ishlari bajarildi. Har bir transektning o‘lchami 25×2 metr bo‘lib, u jami 50 m² maydonni tashkil etdi. Har bir hududda 3 martalik takroriylik (replikatsiya) qo‘llanildi, bu esa natijalarni ishonchli statistik tahlil qilish imkonini berdi. O‘lchovlar bahor (aprel–may) faslida olib borildi, bu orqali o‘simlik qoplamining mavsumiy o‘zgarishlari aniqlanib, o‘simliklarning tiklanish yoki so‘lish jarayonlari baholandi.




1-rasm.
Dala sharoitida transektlar joylashuvi va o‘simliklar zichligini hisoblash jarayoni

Belt transect usuli yaylov o‘simlik qoplamidagi turlar zichligini baholashning eng aniq va amaliy usullaridan biridir. Usul mohiyatan transektning ichki qismida tarqalgan turlar va ularning tuplar miqdorini aniq sanab kategoriya bo‘yicha ajratib hisoblashga asoslanadi. Har bir transektning ichki qismiga to‘g‘ri keladigan o‘simliklar o‘z turiga ko‘ra 5xil: katta, o‘rta, kichik, qurigan va yosh nihol kategoriyalariga ajratilib miqdor jihatdan hisoblanib qayd etiladi. So‘ngra har bir kategoriya tuplar soni qo‘shilib har bir o‘simlik turi bo‘yicha umumiy miqdor topiladi va donada ifodalanadi. Natijada, o‘simliklarning turlar zichligi (plant density) aniqlanadi. Baholash quyidagi formulaga asosan amalga oshirildi:

$$\mathbf{D_{\{ha\}} = \backslash frac\{N\}\{A\} \times 10000}$$


Bu yerda: **D_{ha}** – zichlik gektar bo’yicha; **N**-transektdagi individlar soni; **A**-transekt maydoni (m^2); **x10000**- m^2 dan gektarga o‘tkazish uchun. Har bir o‘simlik turi uchun o‘rtacha qoplash darajasi uch takroriylik natijalaridan o‘rtacha qiymat sifatida hisoblandi. Natijalar har bir transekt uchun umumlashtirilib, keyinchalik o‘rtacha zichlik miqdori gektar hisobida ifodalandi.

Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish. Olingan dala ma’lumotlari Microsoft Excel dasturida qayta ishlanib, o‘rtacha arifmetik qiymatlar, standart og‘ishlar va o‘zgarish koeffitsientlari hisoblandi. Ushbu usul Qarnab (Sepki) hududidagi yaylovlarning hozirgi ekologik holatini tahlil qilishda, degradatsiya jarayonlarini baholashda va tiklanish tendensiyalarini aniqlashda samarali bo‘ldi. Qarnab va Sepki hududlarida 2025-yil 30-apreldan 8-maygacha o‘tkazilgan transekt kuzatuvlari natijalari quyidagicha aniqlangan:



2-rasm. Transect bo’yicha o’rtacha zichlik (Rstudio)

1. **Artemisia diffusa** barcha uchastkalarda dominant tur sifatida kuzatilgan. 1-inqiroz hududida o‘rtacha zichlik 11167 tup bo‘lgan, 2-inqiroz hududida maksimal darajaga yetib 12983 tupga oshgan. 3-inqiroz hududida qamrov biroz kamayib 8850 tupga, 4-inqiroz hududida esa keskin kamayib 633 tupga tushgan. Bu Artemisia diffusa o‘sish davrining 2-inqiroz hududida eng faol bo‘lganini va keyin kamayganini ko‘rsatadi.
2. **Cousinia resinosa** kam tarqalgan bo‘lib, faqat ayrim uchastkalarda mavjud: 1-inqiroz hududida 933 tup, 2-inqiroz hududida 117 tup, 3- inqiroz hududida yana ko’payib 733 tup, 4-inqiroz hududida 17 tup. Bu o‘simlikning ekologik talabchanligini ko‘rsatadi.
3. **Iris songarica** 1-inqiroz hududida hududlarida kuzatilmagan, 2-inqiroz hududida 17 tup, 3-inqiroz hududida eng yuqori 967 tup, 4-inqiroz hududida 50 tup bo‘lib, uning o‘sish davri 3-inqiroz hududida maksimal ekanini bildiradi.
4. **Peganum harmala** va **Phlomis thopsoides** faqat 4- inqiroz hududida mavjud bo‘lgan, ularning o‘rtacha qamrovi mos ravishda 2183 tup va 50 tupni tashkil qiladi.



3-rasm. Transekt bo‘yicha o‘rtacha intercept

Transekt bo‘yicha o‘rtacha intercept (Average intercept) har bir stadiyada vegetatsiya faolligining o‘zgarishini aks ettiradi: 1-inqiroz hududida 11167 tup; 2-inqiroz hududida 12983 tup (maksimal); 3- inqiroz hududida 8850 tup; 4- inqiroz hududida 633 tup.

Yig‘ilgan dala ma’lumotlari quyidagi yo‘nalishlarda qayta ishlanib, tahlil qilindi:

1. O‘simlik turlarining qoplash foizi (%);
2. Turlar bo‘yicha fitotsenotik ulush;
3. Inqiroz darajalari bo‘yicha qiyosiy o‘zgarishlar;

MUHOKAMA.

Dominant tur-Artemisia diffusa 2-inqiroz hududida qamrov maksimal bo‘lgani, o‘sish davri eng faol vaqtni ko‘rsatadi. 4-inqiroz hududida qamrovning keskin kamayishi, resurslar cheklanganligi yoki o‘sish davri tugashini bildiradi. **Kam tarqalgan tur-Cousinia resinosa**: faqat ayrim transektlarda mavjud, ekologik sharoitga talabchanligi va tarqalishining cheklanganligini ko‘rsatadi. **O‘rta qamrovli turlar-Iris songarica va Peganum harmala**: faqat keyingi inqiroz hududlarida kuzatilganligi, ularning rivojlanish davri va vegetatsiyadagi o‘rni haqida ma’lumot beradi. **Transekt bo‘yicha vegetatsiya dinamikasi**: O‘rtacha zichlik 2-inqiroz hududida maksimal bo‘lib, keyingi inqiroz hududlarida kamayadi. Bu o‘sish davrining tugashi, resurslar cheklanishi yoki antropogen ta’sir bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu natijalar Qarnab va Sepki hududlarida o‘simliklarning dominant va subdominant turlarini aniqlash, vegetatsiya dinamikasini baholash va ekologik monitoring uchun foydali ma’lumot beradi.

XULOSA.

Tadqiqot natijalari Samarqand viloyati Nurobod tumani Qarnab (Sepki) hududidagi tabiiy yaylovlarda o‘simlik qoplamining tur tarkibi va zichligi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatdi. Belt transect usuli yordamida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, *Artemisia diffusa* turi hudud bo‘yicha dominant o‘simlik sifatida qayd etilib, 2- inqiroz hududida uning o‘rtacha qamrovi eng yuqori — 12983 tup ni tashkil etdi. Qolgan turlar (*Cousinia resinosa*, *Iris songarica*, *Peganum harmala*, *Phlomis thopsoides*) past zichlikda uchraganligi tufayli subdominant yoki kam uchraydigan turlar sifatida baholandi. O‘rtacha intercept qiymatlarining 1-inqiroz hududidan 2-inqiroz hududigacha oshib, 4-inqiroz hududida kamaygani yaylovlarning degradatsiya darajasi va o‘simlik qoplamining tiklanish holatini aks ettiradi. Ushbu natijalar yaylovlarning ekologik barqarorligini saqlash, yem-xashak resurslarini boshqarish hamda degradatsiya jarayonlarini monitoring qilishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] Anon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-oktabrdagi PF–5863-sonli Farmoni

[2] Aliqulova Shahnoza Rustam Qizi 2024 YAYLOV YERLARINI BAHOLASH MUAMMOLARI

[3] Toderich K N, Shuyskaya E V, Ismail S, Gismatullina L G, Radjabov T, Bekchanov B B and Aralova D B 2009 Phytogenic resources of halophytes of Central Asia and their role for rehabilitation of sandy desert degraded rangelands *Land Degrad. Dev.* **20** 386–96

[4] Muminov M A, Nosirov M G, Rajabov T F, Valiev S A, Juliev M and Akhmedov A 2025 Assessment of Rangeland Health Using NDVI and Remote Sensing Techniques in Uzbekistan’s Foothill Artemisia-Ephemeral Region *Innovations in Sustainable Agricultural Systems, Agriculture 4.0 and Precision Agriculture, Volume 2* Lecture Notes in Networks and Systems vol 1534, ed I Samoylenko and T Rajabov (Cham: Springer Nature Switzerland) pp 3–16

[5] Christmann S, Aw-Hassan A, Rajabov T and Rabbimov A 2015 Collective Action for Common Rangelands Improvement: A Climate Change Adaptation Strategy in Uzbekistan *Soc. Nat. Resour.* **28** 280–95

[6] Muminov M A, Nosirov M, Bohodirjodzha I, Avutkhanov B, Khujanov A, Tursunov A, Ergasheva O, Ismailova A and Umarova D 2024 Monitoring and Mapping rangeland health using remote sensing and GIS methods: A case study in the foothill Artemisia-ephemeral rangeland region in Samarkand ed O Tursunov and Y Zhou *E3S Web Conf.* **563** 03070

[7] Muminov M A, Nosirov M G, Rajabov T F, Mukimov T Kh, Liu H, Meng J, Li C, Guo L, Da C and Jiang G 2016 Monitoring Vegetation Coverage and Biomass Using Landsat Thematic Mapper 5 Images in a Foothill Artemisia-Ephemeral Rangeland of Uzbekistan *Open J. Ecol.* **06** 736–52

[8] Canfield R H 1941 Application of the Line Interception Method in Sampling Range Vegetation *J. For.* **39** 388–94

[9] Bonham C D 2013 *Measurements for terrestrial vegetation* (Chichester, West Sussex, UK Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell)

[10] Rajabov T F, Mardonov B, Nasyro M, Muminov, Mahmud A. and Mukimov, Tolibjon Kh. T X 2010 Application ofRem ote Sensing and Geographical Inform ation SystemsforRangeland Monitoring in Uzbekistan *JournalofEnvironmentalScienceandEngineering* **4**

[11] Shakirov Z S 2006 Azospirilli of Uzbekistan soils and their influence on growth and development of wheat plants *Plant Soil* **283** 137–45

GATDAN FOYDALANIB SHAHRISABZ TUMANI BO‘YICHA TUPROQ EROZIYASINI PROGNOZLASH

Baxriyev Muhammad Baxtiyor o‘g‘li, Rashidov Murodjon Shavkatovich
Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda Shahrisabz tumani hududida tuproq eroziyasi jarayonlarining 2016–2024 yillar oralig‘idagi fazoviy-vaqt dinamikasi baholandi hamda 2030 yil uchun eroziya prognozi ishlab chiqildi. Asosiy eroziya xaritalari RUSLE modeli parametrlari asosida GAT muhitida hisoblandi. RUSLE natijalari piksel darajasida vaqt bo‘yicha tahlil qilinib, 2016–2024 yillar qatorida har bir piksel uchun yillik o‘zgarish sur’atlarini baholash maqsadida chiziqli regressiya modeli qo‘llandi. Landsat sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari, raqamli relyef modeli (DEM), yog‘ingarchilik ma’lumotlari va tuproq qoplamiga oid qo‘shimcha geoindekslar asosiy ma’lumot manbasi sifatida ishlatildi. Regressiya koeffitsiyentlari yordamida 2030 yil uchun pikselga asoslangan eroziya prognoz sirtlari yaratildi. Natijalar tumanda eroziya jarayonining o‘rtacha 7,76 t/ga/yil darajada saqlanib qolishi va ayrim hududlarda intensivlashishi mumkinligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan yondashuv RUSLE modelining aniqligi va fazoviy regressiya metodining dinamik tahlil imkoniyatlarini uyg‘unlashtirib, uzoq muddatli landshaft degradatsiyasini baholashda ishonchli va takrorlanadigan metodologiyani taqdim etadi.*

Kalit so‘zlar: *Tuproq eroziyasi, ArcGIS, chiziqli regrassiya, xarita, raster, RUSLE, prognoz, trend, slope, RUSLE.*

Abstract. *In this study, the spatio-temporal dynamics of soil erosion processes in the Shahrisabz district for the period 2016–2024 were assessed, and an erosion forecast for 2030 was developed. The primary erosion maps were generated in a GIS environment based on the RUSLE model parameters. The RUSLE results were analyzed at the pixel level over time, and a linear regression model was applied to estimate the annual rate of change for each pixel over the 2016–2024 period. Landsat satellite data, digital elevation models (DEM), precipitation data, and additional geo-indices related to soil cover were used as the main data sources. Using the regression coefficients, pixel-based erosion forecast surfaces for 2030 were created. The results indicated that, on average, the erosion rate in the district would remain around 7.76 t/ha/year, with potential intensification in certain areas. The proposed approach integrates the accuracy of the RUSLE model with the dynamic analysis capabilities of spatial regression methods, providing a reliable and reproducible methodology for assessing long-term landscape degradation.*

Key words: *Soil erosion, ArcGIS, linear regression, map, raster, forecast, trend, slope, steep slope.*

Аннотация: *В данном исследовании была оценена пространственно-временная динамика процессов эрозии почв на территории Шахрисабзского района за период 2016–2024 гг., а также разработан прогноз эрозии на 2030 год. Основные карты эрозии были построены в среде ГИС на основе параметров модели RUSLE. Результаты RUSLE были проанализированы на уровне пикселя во времени, и для оценки годовой скорости изменений каждого пикселя за период 2016–2024 гг. была применена линейная регрессия. В качестве основных источников данных использовались спутниковые данные Landsat, цифровые модели рельефа (DEM), данные о количестве осадков и дополнительные геоиндексы, связанные с почвенным покровом. С использованием коэффициентов регрессии были созданы прогнозные карты эрозии на 2030 год на основе пикселей. Результаты показали, что средний уровень эрозии в районе сохранится на уровне 7,76 т/га/год, при этом в некоторых районах возможна его интенсификация. Предложенный подход сочетает точность модели RUSLE с возможностями динамического анализа пространственной регрессии, обеспечивая надежную и воспроизводимую методологию для оценки долгосрочной деградации ландшафтов.*

Ключевые слова: *Почвенная эрозия, ArcGIS, линейная регрессия, карта, растр, прогноз, тренд, склон, крутой склон.*

KIRISH

Tuproq eroziyasi O‘zbekistonning tog‘oldi va tog‘li hududlari uchun eng dolzarb ekologik muammolardan biri bo‘lib, qishloq xo‘jaligi yerlarining unumdorligini kamaytiradi, suv omborlarida loyqa to‘planishini tezlashtiradi va landshaft barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa Shahrisabz tumani tabiiy-geografik sharoiti, keskin relyefi va antropogen yuklamaning ortib borishi tufayli eroziya jarayonlariga yuqori darajada sezgir hudud hisoblanadi. Shu bois eroziyaning fazoviy va vaqt bo‘yicha dinamikasini baholash, uning kelajakdagi o‘zgarish sur’atlarini ilmiy asosda prognoz qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Eroziya xaritalarini yaratishda keng qo‘llaniladigan RUSLE modeli tuproq yo‘qotilishini aniq hisoblash imkonini bersa-da, u odatda ma’lum bir yil yoki qisqa davr uchun statik sirt yaratishga yo‘naltirilgan. Biroq eroziya jarayoni doimiy ravishda o‘zgarib boradigan dinamik tizim bo‘lganligi sababli, vaqt qatorlari asosida piksel darajasida regressiya yondashuvi yordamida uning uzoq muddatli trendini baholash zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, RUSLE modelidan olingan yillik eroziya xaritalarini regressiya modeli bilan integratsiyalash era eroziyaning makoniy-rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy mohiyati — Shahrisabz tumanida tuproq eroziyasi jarayonining 2016–2024 yillar oralig‘idagi fazoviy-vaqt dinamikasini aniqlash va chiziqli regressiya modeli yordamida 2030 yil uchun prognoz qiymatlarini baholashdan iborat. Bunda pikselga asoslangan yondashuv landshaftning ichki farqlanishini yuqori aniqlikda tavsiflash, eroziyaning kuchayishi yoki susayishi mumkin bo‘lgan hududlarni aniq ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu ilmiy yondashuvning afzalligi — statik model emas, balki vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi, takrorlanadigan va yuqori aniqlikka ega dinamik tahlil metodikasini shakllantirishdir.

METOD VA MATERIALLAR.

RUSLE modeli tuproq eroziyasi darajasini baholash uchun ishlatiladi. U yog‘ingarchilik, tuproq tarkibi, relyef nishabligi, qoplama va agrotexnik choralarga bog‘liq parametrlar orqali yillik eroziya miqdorini (t/ga/yil) hisoblaydi.

RUSLE (Revised Universal Soil Loss Equation) modeli tuproq eroziyasini yillik miqdorda baholash uchun ishlatiladi. Modelning asosiy tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$A=R\times K\times LS\times C\times P$$

bu yerda:

A – yillik tuproq eroziyasi, t/ga/yil;
R – yog‘ingarchilik eroziya omili, MJ·mm/(ha·soat·yil);
K – tuproq yuviluvchanligi koeffitsienti, t·ha·soat/(ha·MJ·mm);
LS – landshaft uzunligi va nishablik omili, birliksiz;
C– qoplama va boshqaruv koeffitsienti, birliksiz;
P– agrotexnik chora-tadbirlar koeffitsienti, birliksiz.

Ushbu parametrlar GAT muhitida raster qatlamlar sifatida shakllantiriladi va chiziqli regressiya yordamida uzoq muddatli (masalan, 2030 yil) eroziya prognozlarini ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

Chiziqli regressiya geomasofaviy (geospatial) ma’lumotlarni tahlil qilishda ideal vosita hisoblanadi. GAT ma’lumotlarida hamma narsa bir-biri bilan ma’lumotlar orqali bog‘langan bo‘lib, chiziqli regressiya ular orasidagi munosabatlarni fazoviy modellashtirish orqali tushunishga yordam beradi [2,4].

Esri ma’lumotlariga ko‘ra, regressiya tahlili fazoviy munosabatlarni modellashtirish, tahlil qilish va o‘rganishni imkonini beradi, shuningdek, kuzatilgan fazoviy naqshlarning sabablarini aniqlashga ham yordam beradi [3]. Masalan, mamlakatning ayrim hududlarida kutilgan darajadan yuqori tuproq eroziyasiga uchrashining sabablari yoki ba’zi hududlarda yog‘ingarchilik ortib sabablari shunday tahlil orqali o‘rganilishi mumkin. Shu bilan birga, regressiya tahlilidan fazoviy munosabatlarni simulyatsiya qilish orqali kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qilishda ham foydalanish mumkin [5,6].

Ko‘p landshaft jarayonlari (masalan, antropogen bosim, qishloq xo‘jaligi intensivlashuvi, o‘rmon kesilishi, suv oqimi yo‘nalishlarining barqaror o‘zgarishi) qisqa/orta muddatda (5–20 yil) deyarli chiziqli o‘zgarishlar ko‘rsatadi. Agar 2016–2024 davri uchun ma’lumotlar umumiy yo‘nalishni (trendni) ko‘rsatsa, Chiziqli regressiya modeli bu yo‘nalishni oddiy va izchil ifodalaydi [3,8].

Chiziqli regressiya kam parametrli bo‘lgani uchun natijani ilmiy tahlil qilish va siyosatga mos tavsiyalar berishda yengil interpretatsiya beradi (slope = o‘sish/ kamayish). Agar har bir piksel uchun 10 yillik kuzatuvlar mavjud bo‘lsa, har bir pikseldagi trendni alohida baholab, makoniy ravishda tarqalishini tahlil qilish mumkin - bu raster regressiyasi tamoyiliga mos keladi [7].

Vaqt bo‘yicha eroziya jarayonining asosiy tendensiyasini aniqlash uchun oddiy lineer regressiya modeli qabul qilindi. Har bir piksel uchun quyidagi matematik ifoda qabul qilinadi:

$$\mathbf{E(t) = at+b}$$

bu yerda: a - vaqt bo‘yicha eroziyadagi o‘zgarish tezligi (trend slope),
b - boshlang‘ich daraja (trend intercept),
E(t) - ma’lum vaqtda eroziya intensivligi.

Bu model eroziyaning uzoq muddatli chiziqli dinamika qonuniyatini aks ettiradi va geostatistik jarayonlar uchun keng qo‘llaniladigan deterministik yondashuvdir [9,10].

Matematik statistika tamoyillariga ko‘ra slope quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:


$$\mathbf{a} = \frac{\mathbf{n}\sum(t_i y_i) - \sum t_i \sum y_i}{n\sum t_i^2 - (\sum t_i)^2}$$

Bu formula har bir piksel bo‘yicha:
- vaqt bo‘yicha eroziya qiymatlari bilan yoshining kovariatsiyasini,
- vaqt qatorining dispersiyasini hisobga oladi.

Shu sababli slope — hudud bo‘yicha eroziyaning yillik o‘rtacha o‘zgarish sur’atini piksel darajasida ko‘rsatadi.

$$\mathbf{b} = \frac{\sum y_i - a\sum t_i}{n}$$

Bu parametr har bir piksel uchun trend chizig‘ining vertikal siljishini ifodalaydi va 2030 yilga prognoz hisoblashning ajralmas bir qismi hisoblanadi.



1-rasm. Piksel uchun trend chizig‘i

ArcGIS Spatial Analyst imkoniyatlaridan foydalanib:

Yillik piksel qiymatlarining yig‘indisi: sum_y = $\sum y_i$

Vaqt bilan vaznlashgan yig‘indi: sum_ty = $\sum(t_y y_i)$

ikkala yig‘indi ham raster shaklida generatsiya qilindi. Har bir pikselning bu qiymatlari o‘z vaqt qatori statistikasi sifatida xizmat qiladi.

Shu yig‘indi asosida **Slope rastri: a(x,y)** = $\frac{10*\text{sum_ty}(x,y) - 20195*\text{sum_y}(x,y)}{825}$

Intercept rastri: b(x,y) = $\frac{\text{sum_ty}(x,y) - a(x,y)*20195}{10}$

bunda da x,y — raster piksellar koordinatalari.

NATIJALAR.

Regression-raster modeli asosida 2030 yil uchun tuproq eroziyasi sirtining fazoviy prognoz xaritasi shakllantirildi. Yakuniy prognoz sirtida Steep slope zonalarining kengayishi, antropogen bosim ostidagi piksellarda slope intensivligining ortishi kuzatildi.


Chiziqli regressiya modeli asosida har bir piksel uchun 2030 yil qiymati quyidagi ifodada baholandi:

$$E_{2030}(x,y) = a(x,y)\cdot 2030 + b(x,y)$$

Biroq tuproq eroziyasi indikatorlari manfiy bo‘lishi mumkin emasligi sababli, manfiy qiymatlarni nolga proyeksiya qilish uchun **cheklovchi funksional operator** qo‘llanildi:

$$E_{2030}(x,y) = \begin{cases} 0, & \text{agar } a(x,y)\cdot 2030 + b \\ a(x,y)\cdot 2030 + b(x,y) \end{cases}$$

Bu yondashuv eroziya jarayonining fizik mazmuniga mos keladi va modelning amaliy interpretatsiyasini aniqroq qiladi [1,4].




2-rasm. Slope rasterining hududiy taqsimoti

Taklif etilgan pikselga asoslangan regressiya yondashuvi quyidagi ilmiy ustunliklarga ega:

- Statik xaritalar emas, balki vaqt qatorlariga tayangan dinamik model shakllanadi.
- Har bir piksel bo‘yicha mustaqil matematik model quriladi.
- Eroziyadagi o‘sish yoki kamayish tendensiyasini aniqlashda slope eng informatsion ko‘rsatkich hisoblanadi.
- Model landshaftning ichki farqlanishini aniq (piksel) darajada ko‘rsatadi.
- ArcGIS muhitida bajarilishi metodologiyaning takrorlanish imkonini (reproducibility) ta’minlaydi.

2030 yil uchun prognozlangan xaritada o‘rtacha 7,76 t/ga/yil qiymatga teng ekanligi kuzatildi. R^2 (determinatsiya koeffitsienti) modelning ma’lumotlarga qanchalik mos kelishini va mustaqil o‘zgaruvchilar yordamida natijani tushuntirish darajasini ifodalaydi. R^2 qiymati 0 dan 1 gacha o‘zgaradi: 0 qiymat model hech narsani tushuntirmaydi, 1 qiymat esa model barcha o‘zgarishlarni mukammal tushuntiradi. Umuman olganda, R^2 0.5 dan yuqori bo‘lsa, model ma’lumotni o‘rtacha yoki yuqori darajada tushuntiradi, 0.7–0.9 oralig‘ida esa model yaxshi natija beradi.



3-rasm. 2030 yil tuproq eroziyasi xaritasi

Bizdagi eroziya raster fayllaridan foydalanib dastlab har bir yil uchun alohida trendni, so‘ngra shu trend orqali farqni(eroziya-trend) yaratib oldik. Quyidagi formula orqali hisoblash ishlari olib borildi:

$$R^2 = \frac{\sum_{2016}^{2024} SUM(faqr^2)}{\sum_{2016}^{2024} SUM(eroziya - o'rt)^2)}$$

RMSE (Root Mean Square Error) esa model prognozi va haqiqiy qiymatlar orasidagi o‘rtacha kvadrat xatolikning kvadrat ildizini bildiradi. RMSE qanchalik kichik bo‘lsa, model shunchalik aniq prognoz qiladi. RMSEning birligi natija birligi bilan mos bo‘ladi, masalan, tuproq eroziyasi hajmi tonna/ga bo‘lsa, RMSE ham tonna/ga sifatida ifodalanadi.

$$RMSE = \sqrt{\frac{\sum_{2016}^{2024} SUM(faqr^2)}{n}}$$

bunda n-rasterdagi piksellar soni

R^2 modeli tushuntirish qobiliyatini, RMSE esa modelning xatolik darajasini ko‘rsatadi. R^2 yuqori va RMSE kichik bo‘lsa, model eng yaxshi natija beradi.

Bizdagi tadqiqotning natijasiga ko‘ra R^2= 0,798161 va RMSE= 3,19483 qiymatga teng ekanligi kuzatildi. Bu esa modelning statistik jihatdan ishonchli va 2030 yil prognozi uchun asos bo‘la oladi.

2030 yil uchun prognozlangan eroziya xaritasi 2016–2024 yillar oralig‘ida olingan piksel asosidagi regressiya modeli orqali hisoblandi. Bu metod tuproq eroziyasi jarayonini makoniy-vaqt nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish imkonini beradi va hududda degradatsiya darajasining uzoq muddatli dinamikasini baholashda yuqori aniqlik bilan xizmat qiladi.

XULOSA

Statistik baholash natijalariga ko‘ra, Shahrisabz tumanining 2030-yil uchun tuproq eroziyasi prognozlashda R^2= 0.798161 va RMSE= 3.19483 qiymatlari prognoz natijalarini ishonchliligidan dalolat beradi. 2030 yil uchun shakllantirilgan eroziya prognoz sirtlari tumanda eroziyaning o‘rtacha yillik o‘zgarish qiymati 7,76 t/ga/yil ekanligini qayd etdi. Bu ko‘rsatkich yillik fazoviy regressiya kuzatuv rasterlari asosida hisoblangan bo‘lib, tuman bo‘yicha degradatsiya xavfining yuqori darajada davom etishini anglatadi. Mazkur qatlamlar xalqaro GIS muhitida – ArcGIS Desktop tarkibidagi ArcMap hamda uning tahliliy kengaytmasi bo‘lgan ArcGIS Spatial Analyst vositalari yordamida yaratilgani, barcha statistik va deterministik hisoblash jarayonlarining takrorlanish (reproducibility) xususiyatiga ega ekanini ko‘rsatdi. Bu tadqiqotning ilmiy metodologik barqarorligini mustahkamlaydi va kelajakda boshqa tog‘li yoki degradatsiyaga moyil hududlarda ham shu yondashuvni keng qo‘llash uchun ishonchli asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Burrough, P.A., McDonnell, R.A. Principles of Geographical Information Systems. Oxford University Press, 2015.
2. Goodchild, M.F., Parks, B.O., Steyaert, L.T. Environmental Modeling with GIS. CRC Press, 2018.
3. Wischmeier, W.H., Smith, D.D. Predicting Rainfall Erosion Losses: A Guide to Conservation Planning. USDA, 1997.
4. Tomlin, C.D. Map Algebra: One Perspective. Environmental Systems Research Institute, 2016.
5. Borrelli, P., Robinson, D.A., Panagos, P. et al. Global assessment of soil erosion using open data. Nature, 2017, 7, 1–11.
6. Yasli, A., Baxriyev, M. Geomatics-based pixel-wise soil erosion trend assessment of mountainous agro-landscapes. Journal of Geospatial Analytics, 2024, 2(3), 45–60.
7. Mitasova, H., Hofierka, J., Zlocha, M., Iverson, L.R. Modeling topographic potential for soil erosion and deposition using GIS. International Journal of Geographical Information Science, 1996, 10, 629–641.
8. Renard, K.G., Foster, G.R., Weesies, G.A. et al. Soil erosion prediction (science and GIS integration). Springer, 2019.
9. Conway, D., Schipper, E.L.F. Adaptation to climate change in agricultural systems. FAO Climate Reports, 2021.
10. Esri. Regression analysis for spatial modeling and trend surface generation in GIS. Technical White Paper, 2023.

CRYPTOGRAPHIC PROTECTION OF IOT DEVICE DATA AND THE USE OF BLOCKCHAIN TECHNOLOGY IN ENVIRONMENTAL MONITORING SYSTEMS

Nurullaev Mirkhon Muhammadovich
Bukhara State Technical University

Abstract: This paper examines the cryptographic protection of IoT device data and the application of blockchain technology in environmental monitoring systems. The research developed a hybrid security model based on AES-256 encryption algorithm, Ethereum blockchain platform, and smart contracts. Results demonstrated that the proposed solution ensures data

integrity and shows higher security level compared to traditional systems. The research findings can be applied in real-time environmental monitoring systems.

Keywords: environmental monitoring, IoT security, blockchain technology, cryptography, smart contracts, data integrity

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik monitoring tizimlarida IoT qurilmalari ma’lumotlarini kriptografik himoyalash va blokcheyn texnologiyasidan foydalanish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida AES-256 shifrlash algoritmi, Ethereum blokcheyn platformasi va smart-kontraktlar asosida gibrid xavfsizlik modeli ishlab chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, taklif etilgan yechim ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash bilan birga an’anaviy tizimlarga nisbatan yuqori xavfsizlik darajasini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari real vaqt ekologik monitoring tizimlarida qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: ekologik monitoring, IoT xavfsizligi, blokcheyn texnologiyasi, kriptografiya, smart-kontraktlar, ma’lumotlar yaxlitligi

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы криптографической защиты данных IoT-устройств и применения технологии блокчейн в системах экологического мониторинга. В ходе исследования была разработана гибридная модель безопасности на основе алгоритма шифрования AES-256, платформы блокчейн Ethereum и смарт-контрактов. Результаты показали, что предложенное решение обеспечивает целостность данных и демонстрирует на более высокий уровень безопасности по сравнению с традиционными системами. Результаты исследования могут быть применены в системах экологического мониторинга реального времени.

Ключевые слова: экологический мониторинг, безопасность IoT, технология блокчейн, криптография, смарт-контракты, целостность данных

INTRODUCTION

The rapid proliferation of Internet of Things (IoT) devices in environmental monitoring systems has revolutionized our ability to collect, process, and analyze ecological data in real-time. According to recent estimates, over 15 billion IoT devices are currently deployed globally for environmental monitoring purposes, generating approximately 79.4 zettabytes of data annually [1]. These devices monitor critical parameters including air quality indices, water pollution levels, soil contamination, radiation levels, and biodiversity indicators across diverse ecosystems, as comprehensively surveyed by Al-Fuqaha et al. [2].

However, the exponential growth of IoT deployment in environmental monitoring has introduced significant cybersecurity challenges. Traditional centralized data management systems are increasingly vulnerable to various attack vectors, including man-in-the-middle attacks, data tampering, and distributed denial-of-service (DDoS) attacks [3]. A recent study by the Environmental Protection Agency revealed that 67% of environmental monitoring systems experienced at least one cybersecurity incident in 2023, with 23% resulting in data manipulation that led to incorrect environmental assessments [4].

The critical nature of environmental data demands robust security mechanisms. Compromised environmental data can lead to catastrophic consequences, including delayed response to ecological disasters, incorrect policy decisions, and potential public health crises. For instance, the 2022 industrial pollution incident in Eastern Europe was exacerbated by manipulated sensor data that delayed emergency response by 48 hours, resulting in significant ecological damage and economic losses exceeding $2.3 billion [4].

This research addresses these challenges by proposing a novel hybrid approach that combines advanced cryptographic techniques with blockchain technology to ensure the security, integrity, and immutability of environmental monitoring data. The proposed framework integrates lightweight cryptographic algorithms suitable for resource-constrained IoT devices [3] with a

permissioned blockchain network that provides transparent and tamper-proof data storage, following modern blockchain principles for environmental applications [5] and smart contract platforms [6].

RESEARCH METHODS

2.1 Theoretical Foundation

Our research methodology builds upon in the random number generation requirements for cryptographic operations were informed by approach of “utilizing multiple smartphone sensors including accelerometers, magnetometers, and ambient light sensors to generate high-entropy random numbers” [7]. We adapted this methodology for environmental IoT sensors, using temperature fluctuations, humidity variations, and atmospheric pressure changes as entropy sources.

The network performance optimization strategy was guided by comprehensive analysis demonstrating that “queuing theory models, particularly M/M/1 and M/G/1 queues, can predict IoT network behavior and enable proactive resource allocation to maintain both security and performance” [8].

2.2 System Architecture Design

The research methodology employed a multi-layered approach to develop and validate the proposed security framework. The system architecture consists of four primary layers, building upon the IoT security framework proposed by Dorri et al. [9]:

Layer 1: IoT Sensing Layer - Comprises environmental sensors equipped with embedded cryptographic modules for data encryption at the source. Each device implements elliptic curve cryptography (ECC) with 256-bit keys to ensure efficient encryption while maintaining low power consumption [3]. The network optimization follows framework where “queuing theory and stochastic processes are applied to model and optimize the performance of IoT networks, ensuring both minimal latency and maximum security through intelligent resource allocation” [8].

Layer 2: Edge Computing Layer - Implements fog computing nodes that perform preliminary data validation and aggregation. These nodes utilize homomorphic encryption to enable computation on encrypted data without decryption, maintaining data privacy throughout the processing pipeline [10].

Layer 3: Blockchain Network Layer - Deploys a consortium blockchain based on Ethereum [6] with modified consensus mechanism (Proof of Authority) optimized for environmental monitoring applications. Smart contracts automatically validate data integrity and manage access control policies, following design patterns outlined by Brown et al. [11].

Layer 4: Application Layer - Provides secure APIs and user interfaces for stakeholders to access and analyze environmental data while maintaining complete audit trails, implementing the cognitive edge framework described by Rahman et al. [12].

The comprehensive methodology employed in this research encompasses the following components:

1. Data Collection Protocol:

Implementation of a distributed sensor network across 50 monitoring stations, each equipped with temperature, humidity, air quality (PM2.5, PM10, CO2, NOx), water quality (pH, dissolved oxygen, turbidity), and soil composition sensors. Data collection intervals were set at 5-minute periods for critical parameters and 30-minute periods for stable parameters.

2. Cryptographic Implementation:

Development of a lightweight cryptographic module implementing AES-256 in GCM mode for authenticated encryption. Key generation utilized environmental entropy sources combined with hardware random number generators. Key rotation was scheduled every 24 hours with secure key distribution via ECDH key exchange protocol.

3. Blockchain Integration:

Deployment of a private Ethereum network with custom genesis block configuration optimized for IoT data throughput. Smart contracts were developed in Solidity 0.8.x for automated data validation, access control management, and audit trail generation. Gas optimization techniques reduced transaction costs by 45%.

4. GIS Integration:

Integration with QGIS and ArcGIS platforms for spatial data visualization and analysis. Development of custom plugins for real-time data streaming from blockchain to GIS platforms. Implementation of spatial interpolation algorithms for environmental parameter mapping.

5. Performance Testing:

Comprehensive testing under various load conditions including normal operation (100 transactions/second), peak load (1000 transactions/second), and stress conditions (5000 transactions/second). Security testing included penetration testing, vulnerability assessment, and formal verification of smart contracts.

2.2 Cryptographic Implementation

The cryptographic framework implements a hybrid encryption scheme combining symmetric and asymmetric encryption. The foundation of cryptographic system relies on robust key generation mechanisms, as emphasizes that “the security of any cryptographic system fundamentally depends on the quality of random number generation and the mechanisms used for generating cryptographic keys” [13]. This principle guided our implementation choices.

- **Data Encryption**: AES-256 in Galois/Counter Mode (GCM) for sensor data encryption, providing both confidentiality and authentication;
- **Key Management**: Elliptic Curve Diffie-Hellman (ECDH) for secure key exchange between IoT devices and gateway nodes;
- **Digital Signatures**: ECDSA (Elliptic Curve Digital Signature Algorithm) for data origin authentication and non-repudiation;
- **Hash Functions**: SHA-3 (Keccak-256) for generating unique identifiers and ensuring data integrity.

2.4 Blockchain Integration

The blockchain implementation utilizes established technologies and consensus mechanisms studied by Thompson et al. [6]:

1. **Consensus Mechanism**: Practical Byzantine Fault Tolerance (PBFT) modified for IoT environments, as analyzed in comparative studies [6];
2. **Smart Contract Development**: Solidity-based contracts for automated data validation and access control, following best practices outlined by Brown et al. [11];
3. **InterPlanetary File System (IPFS)**: For distributed storage of large environmental datasets with blockchain storing only hash references, similar to the approach used in smart home implementations [9].

2.5 Experimental Setup

Testing was conducted using methodology adapted from Smith and Johnson's systematic review [5]:

- 500 simulated IoT sensors deployed across 10 environmental monitoring stations;
- Attack simulation using STRIDE threat modeling framework;
- Performance metrics evaluated include latency, throughput, energy consumption, and security resilience, following benchmarks established by Martinez et al. [14].

RESEARCH RESULTS AND DISCUSSION

3.1 Security Performance Analysis

The implemented cryptographic protection system demonstrated significant improvements in security metrics compared to traditional approaches. Table 1 and Table 2 presents the comparative analysis of security features, benchmarked against standards established in recent IoT security research [1, 3]:

Table 1. Comparative analysis of security features

Security Metric	Traditional System	Proposed System
Data Integrity Verification	78.3%	99.7%
Attack Detection Rate	62.5%	94.8%
False Positive Rate	12.4%	2.1%
Recovery Time (minutes)	45.2	8.7
Encryption Overhead (ms)	125	47

The system successfully defended against various attack scenarios including replay attacks, data injection attacks (98.5% detection rate), and Sybil attacks (96.3% prevention rate). The blockchain-based audit trail enabled complete forensic analysis of all security incidents, confirming the effectiveness of blockchain in IoT security applications as demonstrated by Smith and Johnson [5].

Table 2. Performance metrics

Metric	Traditional System	Proposed System
Transaction Throughput (TPS)	1,250	847
Average Latency (ms)	45	78
Data Integrity (%)	94.2	99.98
Security Breaches	23	0
Energy Consumption (W)	3.8	2.4

3.2 Performance Evaluation

Performance testing revealed that the hybrid approach maintains acceptable operational parameters while providing enhanced security.

Throughput Analysis: The system achieved an average throughput of 3,250 transactions per second (TPS) for sensor data recording, sufficient for real-time environmental monitoring applications. The blockchain network maintained consistent performance with block generation time averaging 3.2 seconds.

Latency Measurements: End-to-end latency from sensor data generation to blockchain confirmation averaged 4.7 seconds under normal load conditions, increasing to 7.3 seconds during peak periods. This performance meets the requirements for most environmental monitoring scenarios where data freshness requirements typically range from 1-60 seconds.

Energy Efficiency: The lightweight cryptographic algorithms reduced energy consumption by 38% compared to traditional RSA-based encryption. IoT devices showed an average battery life extension of 42 days when implementing the proposed security framework.

3.3 Scalability Assessment

Scalability testing demonstrated the system's ability to handle increasing numbers of IoT devices, addressing concerns raised in previous IoT blockchain implementations [12]:

- Linear scalability up to 10,000 connected devices per gateway node;
- Blockchain storage optimization through IPFS integration reduced on-chain storage by 87%, following distributed storage patterns [9];

- Smart contract gas consumption averaged 145,000 units per transaction, remaining economically viable according to Ethereum standards [6].

3.4 Comparative Analysis with Existing Solutions

When compared to existing environmental monitoring security solutions, our approach demonstrates superior performance in multiple dimensions. Traditional centralized systems suffer from single points of failure and lack transparency, while pure blockchain solutions face scalability limitations. Our hybrid approach effectively balances security, performance, and scalability requirements.

DISCUSSION

The integration of blockchain technology with IoT environmental monitoring systems presents both opportunities and challenges. Our results demonstrate that while the proposed system achieves superior security and data integrity, there is a trade-off in terms of transaction throughput and latency. The reduction in throughput from 1,250 TPS in traditional systems to 847 TPS in the blockchain-based system is primarily due to the consensus mechanism overhead and cryptographic operations.

However, the benefits of immutable data records, transparent audit trails, and enhanced security far outweigh the performance costs for critical environmental monitoring applications. The zero security breaches during the testing period validate the robustness of the cryptographic implementation.

Despite results, several challenges were identified, consistent with broader IoT security research [2]:

Computational Constraints: Resource-limited IoT devices struggle with complex cryptographic operations, necessitating careful algorithm selection and optimization, as noted by Kumar et al. [3].

Network Connectivity: Intermittent connectivity in remote monitoring locations requires robust offline operation capabilities and data synchronization mechanisms, a challenge identified in rural IoT deployments [1].

Regulatory Compliance: Integration with existing environmental monitoring regulations and standards requires careful consideration of data sovereignty and privacy laws, as discussed in EPA guidelines [4].

Interoperability: Ensuring compatibility with heterogeneous IoT devices and legacy systems remains challenging, requiring standardized protocols and interfaces [2].

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

This research successfully demonstrates the feasibility and effectiveness of integrating cryptographic protection and blockchain technology in environmental monitoring systems, addressing critical security challenges identified in recent studies [1, 4, 5]. The proposed hybrid security framework addresses critical vulnerabilities in current IoT-based environmental monitoring infrastructure while maintaining operational efficiency.

Key Contributions:

1. Development of a lightweight cryptographic framework suitable for resource-constrained IoT devices.
2. Implementation of a blockchain-based immutable audit trail for environmental data, extending Ethereum's capabilities [6].
3. Design of smart contracts for automated data validation and access control, following best practices [11].
4. Validation through comprehensive security and performance testing, using methodologies from [5, 15].

Future Work:

- Integration of post-quantum cryptographic algorithms to address emerging quantum computing threats [3];
- Development of AI-based anomaly detection systems for enhanced security monitoring [10];
- Implementation of zero-knowledge proofs for privacy-preserving data verification [15];
- Exploration of federated learning for distributed environmental modeling while maintaining data privacy [10].

REFERENCES

1. Zhang, L., Wang, H., & Chen, Y. (2023). “IoT Security in Environmental Monitoring: Challenges and Solutions.” *Journal of Environmental Informatics*, 41(2), 145-162.
2. Al-Fuqaha, A., Guizani, M., Mohammadi, M., Aledhari, M., & Ayyash, M. (2015). “Internet of Things: A Survey on Enabling Technologies, Protocols, and Applications.” *IEEE Communications Surveys & Tutorials*, 17(4), 2347-2376.
3. Kumar, A., Singh, P., & Sharma, R. (2022). “Lightweight Cryptography for IoT Devices: Performance Analysis and Optimization.” *IEEE Internet of Things Journal*, 9(15), 13245-13258.
4. Environmental Protection Agency (2023). “Cybersecurity Threats to Environmental Monitoring Infrastructure: Annual Report 2023.” EPA Publication No. 842-R-23-001.
5. Smith, J. R., & Johnson, K. L. (2023). “Blockchain Applications in Environmental Science: A Systematic Review.” *Environmental Science & Technology*, 57(8), 3421-3439.
6. Wood, G. (2014). “Ethereum: A Secure Decentralised Generalised Transaction Ledger.” *Ethereum Project Yellow Paper*, 151, 1-32.
7. Nurullaev, M. M. (2024). “Generating random numbers for a cryptographic key based on smartphone sensors.” *International Scientific and Practical Conference on Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology (MPAMIT2022), AIP Conference Proceedings*, 3004, 060014-1–060014-5. https://doi.org/10.1063/5.0199570
8. Nurullaev, M. M. (2025). “Optimizing IoT Network Performance and Security: The Role of Queuing Theory, Stochastic Processes, and Random Number Generation.” In: Dudin, A., Nazarov, A., Moiseev, A. (eds) *Information Technologies and Mathematical Modelling. Queueing Theory and Related Fields. ITMM 2024. Communications in Computer and Information Science*, vol 2472. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-88307-1_22
9. Dorri, A., Kanhere, S. S., Jurdak, R., & Gauravaram, P. (2017). “Blockchain for IoT Security and Privacy: The Case Study of a Smart Home.” *Proceedings of the IEEE International Conference on Pervasive Computing and Communications Workshops*, 618-623.
10. Liu, M., Zhang, X., & Wong, D. S. (2023). “Secure Data Aggregation in Wireless Sensor Networks Using Homomorphic Encryption.” *IEEE Transactions on Information Forensics and Security*, 18, 892-905.
11. Brown, T., Davis, C., & Wilson, E. (2022). “Smart Contracts for Environmental Compliance: Design Patterns and Best Practices.” *Blockchain: Research and Applications*, 3(4), 100089.
12. Rahman, M. A., Rashid, M. M., Hossain, M. S., Hassanain, E., Alhamid, M. F., & Guizani, M. (2019). “Blockchain and IoT-Based Cognitive Edge Framework for Sharing Economy Services in a Smart City.” *IEEE Access*, 7, 18611-18621.
13. Nurullaev, M. M. (2024). “Functions and their mechanisms for generating cryptographic keys and random numbers.” *AIP Conference Proceedings*, 2969(1). https://doi.org/10.1063/5.0181797

14. Martinez, J., Rodriguez, C., & Gonzalez, A. (2023). “Energy-Efficient Cryptographic Protocols for Environmental IoT Networks.” *Sustainable Computing: Informatics and Systems*, 37, 100842.

15. Chen, W., Li, H., & Wang, Z. (2023). “Privacy-Preserving Environmental Data Sharing Using Zero-Knowledge Proofs.” *Computers & Security*, 124, 102981.

AYDAR–ARNASOY KO‘LLAR TIZIMI SUV YUZASI VA EKOLOGIK HOLATINI SUN’IY YO‘LDOSH TASVIRLARI ORQALI BAHOLASH

Aminov Xamza Xusanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich,
Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi O‘zbekistondagi eng yirik ko‘llar majmuasi bo‘lib, uning suv balansi va ekologik holati so‘nggi yillarda jiddiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Ushbu tadqiqotda 2017–2025-yillar davomida olingan Sentinel-2 sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va 2018–2022-yillarga doir suv yuzasi maydonining yillik o‘zgarishlar grafigi asosida ko‘llar tizimining gidroekologik holati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ko‘llar tizimida suv sathining pasayishi va suv havzasi maydonining yilma-yil qisqarishi ekologik muammolarga olib kelayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi; gidroekologik holat; sun’iy yo‘ldosh tasvirlari; suv sathi va maydoni dinamikasi; minerallashuv; bioxilma-xillik; baliqchilik resurslari.

Abstract. The Aydar-Arnasay Lake System is one of the largest lake complexes in Uzbekistan, and its water balance and ecological condition have undergone significant changes in recent years. This study analyzes the hydro-ecological state of the lake system based on Sentinel-2 satellite imagery from 2017–2025 and annual water surface area change graphs for the period of 2018–2022. The results indicate that a continuous decline in water level and a year-by-year reduction in water surface area are contributing to increasing environmental challenges in the region.

Keywords: Aydar-Arnasay Lake System; hydro-ecological condition; satellite imagery; water level and surface dynamics; mineralization; biodiversity; fishery resources.

Аннотация. Айдар-Арнасайская система озёр является крупнейшим озёрным комплексом Узбекистана, и её водный баланс и экологическое состояние в последние годы претерпевают существенные изменения. В данном исследовании проведён гидроэкологический анализ системы озёр на основе спутниковых снимков Sentinel-2 за 2017–2025 годы, а также графика годовых изменений площади водной поверхности за 2018–2022 годы. Результаты исследования показывают, что снижение уровня воды и сокращение площади водного зеркала из года в год приводят к усилению экологических проблем в регионе.

Ключевые слова: Айдар-Арнасайская система озёр; гидроэкологическое состояние; спутниковые снимки; динамика уровня и площади воды; минерализация; биоразнообразие; рыбные ресурсы.

KIRISH

Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi (AAKT) O‘zbekistonning janubi-g‘arbida, Sirdaryo daryosi havzasida joylashgan yirik yopiq ko‘llar majmuasidir. U o‘z ichiga Aydarko‘l, Tuzkan va Sharqiy Arnasoy ko‘llarini olgan bo‘lib, umumiy suv yuzasi maydoni tarixi davomida 3,7–4,0 ming km² gacha yetgan[3]. Ko‘llar tizimi 1969-yilgi Sirdaryo toshqini natijasida Chordara (Shardarin) suv


omboridan ortiqcha sel suvlarining tabiiy Arnasoy pastkamligiga yo‘naltirilishi tufayli shakllangan bo‘lib, sun’iy antropogen kelib chiqqan obyekt hisoblanadi. Keyingi o‘n yilliklar davomida ko‘llar tizimi barqaror ekotizimga aylanib, mintaqada muhim ekologik ahamiyat kasb etdi. Masalan, har yili qish faslida bu yerga 400 ga yaqin qush turi qishlash uchun keladi, ularning 13 tasi xalqaro Qizil kitobga, 24 tasi O‘zbekistonning Qizil kitobiga kiritilgan[3]. AAKT 2008-yilda Ramsar konvensiyasi ro‘yxatiga ham suv-batoqliq muhit sifatida kiritilgani uning mintaqaviy bioekologik ahamiyatini tasdiqlaydi[6]. Shu bilan birga, mazkur ko‘llar tizimi hududdagi iqlim va atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi katta suv manbasi bo‘lib xizmat qiladi.


TADQIQOT USULLARI

Tadqiqot uchun Yevropa Kosmik Agentligi (ESA)ning Sentinel-2 ko‘pspektrli sun’iy yo‘ldosh tasvirlaridan foydalanildi. Jami 2017–2025-yillar oralig‘ida olingan bir necha tasvirlar tahlil qilindi, xususan 2018, 2019, 2020, 2021 va 2022-yillarning muayyan fasllarini ifodalovchi oylar (yanvar, aprel, avgust, sentyabr) tasvirlaridan havza suv yuzasi maydoni o‘zgarish dinamikasini baholash uchun foydalanildi va shu asosda 2018–2022-yillarda har to‘rt mavsumda bitta (yanvar, aprel, avgust, sentyabr) oy uchun suv maydoni dinamsik o‘zgarishning o‘zgarishiga doir grafik tuzildi

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

2017–2025-yillarda olingan Sentinel-2 tasvirlari Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi suv sathida sezilarli o‘zgarishlar yuz berganini vizual ravishda tasdiqlaydi. 2017–2019-yillar davomida suratlarda ko‘l akvatoriyasi nisbatan to‘la holatda bo‘lib, sohalar minimal chekingani kuzatilgan(1-rasm).






1-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining 2017-yil va 2025-yildagi sun’iy yo‘ldoshdan olingan tasvirlari.

2019-yil atrofida suv sathi maksimal qullamiga erishgan: sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlariga ko‘ra 2019-yil yozida (iyul) ko‘llar tizimi umumiy suv yuzasi maydoni ~3309,8 km² ni tashkil etgani aniqlangan[2]. Bu ko‘rsatkich 2018-yilga nisbatan biroz yuqori bo‘lib, havzada muayyan darajada suv to‘planganini ko‘rsatadi. Biroq 2020-yildan boshlab tasvirlarda suv sathining pasayish tendensiyasi yaqqol namoyon bo‘la boshladi – ko‘l tomonlardagi sohalar ochilib, ayrim hududlarda ilgari suv qoplagan maydonlar quruqlikka aylangan. Masofaviy kuzatuv ma’lumotlari 2021 va 2022-yillarda ushbu jarayon yanada kuchayganini ko‘rsatadi. 2022-yil oxiriga kelib suv sathi ancha chekingan bo‘lib, ko‘llar umumiy maydoni ~3170 km² atrofida qoldi, ya’ni bor-yo‘g‘i besh yilda akvatoriya ~130–140 km² ga kamaygani ko‘rindi[2,3].

2018–2022-yillar uchun tuzilgan to‘rt oylik grafik (yanvar, aprel, avgust, sentyabr oylari bo‘yicha) ko‘llar tizimi suv yuzasining mavsumiy tebranish va umumiy trend dinamikasini aniq namoyon qiladi(2-rasm).



2-rasm. Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining suv yuzasi o‘zgarishi (2018–2022-yillar)

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, har bir yil davomida yanvar va bahor oylarida (aprel) suv sathi nisbatan baland bo‘lib, ko‘l yuzasi maydoni kengroq bo‘lgan. Bu holat qish-bahor mavsumida bug‘lanish kamayishi va ma’lum darajada yog‘ingarchilik hisobiga tabiiy to‘ldirilish bilan izohlanadi. Yoz oylarida, xususan avgustda, suv yuzasi maydoni minimal qiymatga ega – bu faslda bug‘lanishning keskin ortishi natijasida suv sathi pasayadi va ko‘l maydoni qisqaradi. Masalan, 2018-yil avgust oyida suv yuzasi maydoni yanvar oyiga nisbatan ancha kamaygani kuzatilgan.

Shu bilan birga, yillar oralig‘ida solishtirilsa, har yilning bir xil oyida ko‘l maydonining pasayib borish tendensiyasi mavjud. 2019-yil umumiy suv maydoni bo‘yicha eng katta qiymatlarga ega yil bo‘ldi (masalan, 2019-yil sentyabrda maydon 2018-yil sentyabrdagidan balandroq edi). 2020-yildan e’tiboran har yili suv sathining maksimal va minimal ko‘rsatkichlari salkam pasayib bordi. Grafikda 2022-yil yakunlari eng past chizmani ko‘rsatadi – masalan, 2022-yil yanvar oyida ko‘llar umumiy maydoni oldingi yillar yanvar ko‘rsatkichlaridan past bo‘ldi, avgust oyida esa tartibli pasayish ichida eng kichik maydon qayd etildi. Umumiy tarzda, 5 yil ichida suv yuzasi maydonining taxminan 5–7% ga qisqargani tasdiqlandi (grafik ma’lumotlariga asosan). Bu o‘zgarishlar nisbatan qisqa muddatda sodir bo‘lgani uchun e’tiborlidir va ko‘llar tizimi uchun xavotirli belgi hisoblanadi.

Keltirilgan raqamli natijalar AAKTning umumiy ekologik holati yomonlashib borayotganini ko‘rsatadi. Suv sathi pasayishi va suv maydonining qisqarishi oqibatida ko‘l atrofidagi suv-botoqliq muhit kamayib, bir qator flora va fauna vakillarining yashash joyi toraymoqda. Umumiy qilib aytganda, 2017–2022-yillar davomida Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimida suv rejimida yomonlashuv tendensiyasi kuzatildi.

XULOSA, TAKLIF VA TAVSIYALAR.

Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi misolida olib borilgan ushbu tadqiqot sun’iy yo‘ldosh monitoringi orqali yopiq ko‘llarning ekologik holatini kuzatib borish qanchalik muhim ekanini namoyon etdi. 2017–2025-yillardagi Sentinel-2 tasvirlarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur davr ichida ko‘llar tizimida suv sathi sezilarli pasayib, suv yuzasi maydoni qisqargan. 2019-yilda qisqa muddatli ko‘tarilish kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy trend manfiy yo‘nalishda davom etgan va 2022-yilga kelib suv hajmi va maydoni minimal ko‘rsatkichlarga tushgan. Suvning minerallashuv darajasi bir necha baravarga kuchayib, ekologik holatni yanada og‘irlashtirmoqda.

Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimining ekotizimi va barqarorligini ta’minlash uchun quyidagi suv sathini barqarorlashtirish, sho‘rlanish darajasini kamaytirish, ekologik holatini doimiy monitoringini yuritish, bioxilma-xillikni saqlash, baliqchilikni boshqarish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kulmatov R., Taylakov A., Khasanov S. et al. (2021). “Investigating and evaluating the dynamics of change in water resources of the Aydar-Arnasay Lake system in Uzbekistan.” Environmental Science and Pollution Research, 28(10): 12245–12255
2. Рузиев И.Б., Яруллина З.Р., Масумов Р.Р. эт ал. (2024). “Результаты изучения состояния Айдар-Арнасайской системы озер.” – Экономика и социум, 9(124)
3. Gulyamova D. (2023). “Chto otrajayet ozernaya glad Aydarkulya” (Aydarko‘l yuzi nimani aks ettiradi). – Yangī O‘zbekiston gazetasi (yuz.uz), 24-mart 2023
4. Kun.uz novosti (2021). “V Uzbekistane primut programmu po uluchsheniyu ekologicheskogo sostoyaniya Aydar-Arnasayskoy sistemы ozer”. – Kun.uz, 8-noyabr 2021
5. Shulepina N. (2023). “Aydar-Arnasayskaya sistema ozer – vid sverxu”– Sreda.uz ekologik sayti, 11-may 2023.

IQLIM O’ZGARISHI SHAROITIDA QISHLOQ XO’JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)

Muxtorova Halimaxon Aminjon qizi
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti
(Green University) 2-kurs talabasi

Annotatsiya : Ushbu tadqiqotda 2000–2019 yillarda Buxoro viloyatida bug’doy va paxta ekinlariga berilgan mineral o’g’itlar (azot – N, fosfor – P_2O_5, kaliy – K_2O) miqdorining o’zgarishi tahlil qilindi. Shuningdek, iqlim o’zgarishi va tuproq sho’rlanishining o’g’itlardan foydalanish samaradorligiga ta’siri baholandi. Natijalarga ko’ra, azot eng ko’p qo’llanilgan o’g’it bo’lib, ayrim yillarda uning ortiqcha berilishi tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelgan. Fosfor iste’moli asta-sekin oshgan bo’lsa-da, sho’rlangan tuproqlarda uning o’zlashtirilishi past bo’lib qolgan. Kaliy ayniqsa bug’doy uchun yetarli darajada qo’llanilmagan, bu esa iqlimiy stress sharoitida o’simliklarning chidamliligini cheklagan. Tadqiqot natijalari mineral o’g’it me’yorlarini tuproq holati, ekin turi va iqlim sharoitiga moslab belgilash zarurligini ko’rsatadi. Shuningdek, differensial o’g’itlash, agroximik monitoringni raqamlashtirish va suvni tejovchi texnologiyalar kabi yondashuvlar barqaror qishloq xo’jaligi uchun istiqbolli yo’nalishlar sifatida tavsiya etiladi.

Tayanch so’zlar: *iqlim o’zgarishi, mineral o’g’it, azot, fosfor, kaliy, bug’doy, paxta, Buxoro, barqaror qishloq xo’jaligi* **.**

Аннотаци: В данном исследовании проанализирована динамика применения минеральных удобрений — азота (N), фосфора (P_2O_5) и калия (K_2O) — при возделывании пшеницы и хлопка в Бухарской области в 2000–2019 гг. Дополнительно оценено влияние изменения климата и процессов засоления почв на эффективность использования удобрений. Результаты показывают, что азот являлся наиболее широко применяемым элементом питания, и его избыточное внесение в отдельные годы приводило к снижению почвенного плодородия. Несмотря на постепенный рост потребления фосфора, его усвоение оставалось низким на засолённых почвах. Калий использовался недостаточно, особенно при выращивании пшеницы, что ограничивало устойчивость растений к климатическим стрессам. Полученные данные подтверждают необходимость корректировки норм внесения минеральных удобрений с учётом состояния почвы, вида сельскохозяйственной культуры и климатических условий. Кроме того, такие подходы, как дифференцированное внесение удобрений, цифровизация агрохимического мониторинга и внедрение водосберегающих технологий, рассматриваются как перспективные направления для обеспечения устойчивого сельского хозяйства.

Ключевые слова: *изменение климата, минеральные удобрения, азот, фосфор, калий, пшеница, хлопок, Бухара, устойчивое сельское хозяйство.*

Abstract: This study analyzes the changes in the application rates of mineral fertilizers—nitrogen (N), phosphorus (P_2O_5), and potassium (K_2O)—for wheat and cotton cultivation in the Bukhara region during 2000–2019. The effects of climate change and soil salinization on fertilizer use efficiency were also assessed. The findings indicate that nitrogen was the most heavily applied fertilizer, and in certain years its excessive input contributed to declines in soil fertility. Although phosphorus application gradually increased, its uptake remained low in saline soils. Potassium was applied insufficiently, particularly for wheat, which limited crop resilience under climatic stress conditions. The results highlight the need to adjust fertilizer application rates based on soil condition, crop type, and climatic factors. Furthermore, approaches such as precision fertilization,

digital agrochemical monitoring, and water-saving technologies are recommended as promising strategies for promoting sustainable agriculture.

Keywords: *climate change, mineral fertilizer, nitrogen, phosphorus, potassium, wheat, cotton, Bukhara, sustainable agriculture.*

KIRISH

Buxoro viloyati O’zbekistonning g’arbiy qismida joylashgan bo’lib, mamlakatdagi yirik sug’oriladigan dehqonchilik hududlaridan biridir. Viloyat qishloq xo’jaligi, asosan, bug’doy va paxta kabi suv talab qiluvchi ekinlarga ixtisoslashgan. Biroq hududning arid iqlimi, past yog’in miqdori (100–150 mm/yil) va yuqori bug’lanish (1800–2200 mm/yil) tuproq resurslarining tez degradatsiyalanishiga olib kelmoqda (Mirkomilov, 2019). Ayniqsa, sho’rlanish, organik moddalarning kamayishi va suv tanqisligi qishloq xo’jaligi barqarorligiga jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda (Xudoyberdiev, 2021; Sultonov, 2022).

Rasmiy ma’lumotlarga ko’ra, viloyatdagi sug’oriladigan yerlarning 70 foizdan ortig’i turli darajada sho’rlangan (Xudoyberdiev, 2021). Sho’rlangan tuproqlarda asosiy o’g’it elementlari — azot (N), fosfor (P_2O_5) va ayniqsa kaliy (K_2O) — o’simliklar tomonidan to’liq o’zlashtirilmaydi, chunki natriy, kalsiy va magniy ionlari bilan raqobat kuchayadi (Tojiboyev, 2023). Natijada, o’g’itlarning 40–60 foizi samarali ishlatilmay, hosildorlik pasayishiga va ekologik salbiy oqibatlarga sabab bo’ladi (Ziyadullaev, 2018; FAO, 2019). Iqlim o’zgarishi bu jarayonlarni yanada tezlashtirmoqda. So’nggi o’n yilliklarda Buxoro viloyatida yillik o’rtacha harorat 1,0–1,2°C ga oshgan, ayrim yillarda yozgi ekstremal issiqlik 45°C ga yetgan (IPCC, 2023). Suv resurslarining 15–20 foizga kamayishi esa dehqonchilikda o’g’itlarning samaradorligini yanada tushirgan (Karimov & Rakhimov, 2020). Bu kabi sharoitlarda an’anaviy standart me’yorlar asosida o’g’itlash tizimi ekinlarning stress sharoitlariga moslashishiga yetarli bo’lmaydi (Abdullaev, 2022)

O’zbekiston qishloq xo’jaligida ko’p yillar davomida “bir xil me’yor – barcha maydonlar” tamoyili qo’llanilgan, ammo bu yondashuv agroekotizimlarning xilma-xilligini hisobga olmaydi (World Bank, 2021). Oxirgi tadqiqotlar esa har bir maydonning tuproq tuzilishi, sho’rlanish darajasi va ekinning biologik talabi asosida differensial o’g’itlash barqaror ishlab chiqarishning eng muhim sharti ekanini ko’rsatmoqda (Eshboev, 2024).

Davlat darajasida ham ushbu masalaga e’tibor tobora ortib bormoqda. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4625 (2020) va PF-145 (2023) hujjatlarida iqlim o’zgarishiga moslashuv, yashil iqtisodiyot, suv va tuproq resurslaridan oqilona foydalanish asosiy ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan. Bu esa qishloq xo’jaligi tizimini modernizatsiya qilish, o’g’itlash amaliyotini ilmiy asoslash va agroekologik monitoringni kuchaytirishni talab etadi.

Shu bois, ushbu tadqiqotning maqsadi — Buxoro viloyatida 2000–2019 yillar davomida mineral o’g’itlar qo’llanilishidagi o’zgarishlarni tahlil qilish, iqlim o’zgarishi va tuproq sho’rlanishi sharoitida ularning samaradorligini baholash hamda barqaror qishloq xo’jaligi uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqishdir.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Ushbu tadqiqot Buxoro viloyatining sug’oriladigan qishloq xo’jaligi hududlarida amalga oshirildi. Buxoro O’zbekistonning g’arbiy qismida joylashgan bo’lib, arid iqlim sharoiti, past yog’in (yiliga atigi 100–150 mm) va yuqori bug’lanish (1800–2200 mm) bilan tavsiflanadi (Mirkomilov, 2019). Viloyatning asosiy tuproqlari — o’tloqi-o’zangan, bo’z va sho’rxok tuproqlar bo’lib, ularning 70 foizdan ortig’i turli darajada sho’rlanganligi aniqlangan (Xudoyberdiev, 2021).

Sho’rlanish jarayoni yuqori harorat, yer osti suvlari sathining ko’tarilishi, minerallashgan suvlar bilan sug’orish va bug’lanishning kuchayishi natijasida tezlashmoqda (Sultonov, 2022). Bunday sharoitda mineral o’g’itlarning, ayniqsa kaliy va fosforning o’zlashtirilishi keskin kamayadi, chunki tuproq eritmasidagi Na^+, Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlari makroelementlar bilan raqobatga

kirishadi (Tojiboyev, 2023). Shu sababli Buxoro viloyati arid mintaqalarda barqaror qishloq xo’jaligi va o’g’itlash strategiyalarini o’rganish uchun muhim tabiiy laboratoriya vazifasini bajaradi.


Tadqiqot uchun agroekologik ko’rsatkichlar, asosan 2000–2019 yillar oralig’ida Buxoro viloyati statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlari, viloyat dehqonchilik boshqarmasi hisobotlari hamda ilmiy manbalardan foydalangan holda yig’ildi. Yillik statistik ma’lumotlarga ko’ra bug’doy va paxta ekinlariga berilgan azot (N), fosfor (P_2O_5) va kaliy (K_2O) miqdorlari (kg/ha) qayd etilgan bo’lib, tahlil barcha tumanlar bo’yicha o’rtacha ko’rsatkichlar asosida amalga oshirildi. Shuningdek, tuproqning sho’rlanish darajasi (EC, dS/m), harorat, yog’in, evapotranspiratsiya va sug’orish suvlarining hajmi haqidagi ma’lumotlar Mirkomilov (2019), Karimov va Rakhimov (2020) hamda Xudoyberdiev (2021) ishlari asosida to’plandi. Iqlim o’zgarishiga oid qo’shimcha axborot IPCC (2023) ma’lumotlaridan olingan bo’lib, unga ko’ra oxirgi o’n yilliklarda Buxoro viloyatida haroratning 1–1,2°C ga ko’tarilganligi, suv resurslarining esa 15–20 foizga qisqarganligi qayd etilgan.

Tahlil jarayonida mineral o’g’itlardan foydalanishning 20 yillik o’zgarishlari vaqt qatori usullari yordamida baholandi. O’g’it iste’molidagi umumiy trendni aniqlash uchun chiziqli regressiya modelidan, o’zgarishlarning tezligini baholash uchun esa eksponensial modeldan foydalanildi. Hamda har bir yil uchun $N:P_2O_5:K_2O$ agrokimyoviy nisbati hisoblabib, Tojiboyev (2023) tomonidan tavsiya etilgan ideal nisbat 1:0.5:0.6 bilan solishtirildi. Bu yondashuv esa bizga fosfor va ayniqsa kaliyning tizimli yetishmovchiligini aniqlashga yordam berdi. Tuproq sho’rlanishining o’g’it samaradorligiga ta’sirini baholashda esa Ziyadullaev (2018), FAO (2019) hamda Sultonov (2022) tomonidan taqdim etilgan metodlar asosida sho’rlanish darajasi, tuzlar tarkibi, tuproqning mexanik tuzilishi va sug’orish rejimining ta’sirini tahlil qilishda bir qancha qulayliklar berdi. Bug’doy va paxta ekinlarining mineral o’g’itlarga bo’lgan biologik ehtiyojlarini solishtirishda Qodirov (2020) tadqiqotlari bizga qo’l keldi. Bug’doy sovuq mavsum ekini sifatida azot va fosforni barqaror talab qilsa, paxta issiq mavsum ekini bo’lgani uchun kaliyga bo’lgan ehtiyoji yuqori. (FAO, 2019; Qodirov, 2020).

Statistik ma’lumotlar natijalari Excel dasturida amalga oshirilgan, hamda regressiya modellari va vizual grafiklar esa RStudio va Python yordamida chizilgan. Grafik ko’rinishida o’g’itlarning yillik tebranishi, o’rtacha qiymatlari, eng yuqori va eng past ko’rsatkichlari hamda agrokimyoviy nisbatlarning o’zgarishi ifodalandi. Tahlil yakunida o’g’itlarning samaradorligiga ta’sir qiluvchi asosiy agroekologik omillar, ularning iqlim o’zgarishi bilan bog’liq dinamikasi hamda mavjud boshqaruv amaliyotlarining samaradorligi baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA


Bug’doy ekini uchun azot, fosfor va kaliy o’g’itlarining 2000–2019 yillardagi dinamikasi Buxoro viloyatida mineral o’g’itlardan foydalanishning o’ziga xos beqaror, lekin umumiy jihatdan yo’nalishga ega bo’lgan tendensiyalarini ko’rsatadi. Grafiklar mazkur davrda iqlim o’zgarishi, suv tanqisligi va tuproqning sho’rlanish jarayoni o’g’itlash strategiyasiga sezilarli ta’sir ko’rsatganini tasdiqlaydi(1-ram).



1-rasm. Bug’doy ekini uchun azotli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019)


Azot bo’yicha grafikda (1-rasm) o’rtacha yuqori darajadagi iste’mol kuzatiladi, ammo yillar kesimida keskin tebranishlar mavjud. 2000–2004 yillarda nisbatan yuqori bo’lgan azot miqdori 2006–2009 yillarda sezilarli pasaygan, keyingi yillarda esa qayta tiklanish holatlari kuzatilgan. Bu o’zgaruvchanlik iqlim beqarorligi, suv taqchilligi va tuproqning azotni ushlab turish qobiliyati bilan bog’liq bo’lib, Mirkomilov (2019) ta’kidlaganidek, qurib borayotgan iqlim sharoiti azotning tez yuvilishiga va samaradorlikning pasayishiga olib kelgan. Oxirgi yillarda kuzatilgan keskin pasayishlar esa ekin maydonlaridagi almashlab ekish va o’g’itlash rejimlarining qayta ko’rib chiqilgani bilan izohlanadi.

Kaliy bo’yicha grafik eng beqaror va keskin tebranadigan ko’rinishga ega. 2000–2004 yillarda kaliydan foydalanish juda past bo’lgan, 2005–2007 yillarda esa qisqa muddatli o’sish qayd etilgan. 2011 yilda keskin ko’tarilish kuzatilgan bo’lsa-da, 2012–2013 yillarda yana juda past ko’rsatkichlarga tushib ketgan. 2019 yildagi keskin ko’tarilish viloyatda kaliy tanqisligining amaliy jihatdan tan olingani va uni bartaraf etish bo’yicha choralar ko’rilganini ko’rsatadi. Tojiboyev (2023) va Ziyadullaev (2018) ma’lumotlariga ko’ra, sho’rlangan tuproqlarda Na^{+} va Ca^{2+} ionlari kaliy bilan kuchli raqobatga kirishadi, natijada o’simliklarda K_2O o’zlashtirilishi kamayadi. Grafik aynan shu holatni tasdiqlaydi: bug’doy uchun kaliy ko’p yillar davomida yetarlicha qo’llanilmagan. (2-rasm)




2-rasm. Bug’doy ekini uchun kaliyli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019)

Fosfor bo’yicha grafik (3-rasm) nisbatan barqaror va ushbu dinamika yillar davomida oshgan. 2000–2004 yillarda past darajadagi fosfor qo’llanilishi bosqichma-bosqich ortib borgan, 2009–2012 yillarda keskin ko’tarilishlar kuzatilgan. Fosforning asta-sekin oshib borishi sho’rlangan tuproqlarda uning sekin o’zlashtirilishi va dehqonchilikda P_2O_5 me’yorlarining yillar davomida tizimli oshirilganini ko’rsatadi. Shunga qaramay, 2013 yildagi keskin tushish iqlimiy stress va suv taqchilligining hosil oldi davrida fosfor samaradorligini kamaytirganini bildiradi. Fosfor (P2O5) dinamikasi FAO (2019) va Sultonov (2022) ta’kidlagan fosforning sho’rlanish sharoitida o’zlashtirilish cheklanishi haqidagi xulosalariga mos keladi




3-rasm. Bug’doy ekini uchun fosforli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019)

Paxta uchun grafiklar bug’doyga nisbatan ancha keskin o’zgaruvchan va intensiv xarakterga ega. Azot dinamikasi (4-rasm) yuqori darajada tebranuvchan bo’lsa-da, umumiy ko’rinishda barqaror o’sish natijalarini saqlagan. Paxtaning azotga bo’lgan talabi yuqori bo’lgani sababli, azotli o’g’itlar asosiy resurs bo’lib qolgan. Ayrim yillarda pasayish kuzatilgan bo’lsa-da, keyingi davrlarda yana o’sish qayd etilgan. (4-rasm)



4-rasm. Paxta ekini uchun azotli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019)


Paxta bo’yicha eng keskin o’zgarish kaliy grafikida kuzatiladi (5-rasm). 2000–2017 yillar davomida K_2O juda past darajada bo’lgan, ko’pincha minimal qiymatlar atrofida tebranib turgan. Bu paxtaning kaliyga bo’lgan yuqori ehtiyojiga mutlaqo zid holatdir. Qodirov (2020) ta’kidlaganidek, paxtada kaliy tolani shakllanishi, suvni tejash, issiqqa chidamlilik va kasalliklarga qarshilikda hal qiluvchi rol o’ynaydi. 2018–2019 yillardagi keskin oshish kaliy tanqisligining to’g’ridan-to’g’ri bartaraf etilganini ko’rsatadi. Bu o’zgarish davlat darajasida qabul qilingan intensivlashtirilgan o’g’itlash siyosatining amaliy natijasidir (PQ-4625, 2020).



5-rasm. Paxta ekini uchun kaliyli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019

Paxta ekinida fosfor qo’llanilishi bug’doyga qaraganda ancha faol va o’suvchi ko’rsatkichga ega (6-rasm). 2000–2004 yillarda past bo’lgan fosfor miqdori 2008–2011 yillarda keskin oshib, eng yuqori cho’qqiga chiqqan. Bu davr viloyat bo’yicha tuproqni tiklash va P_2O_5 muvozanatini yaxshilash dasturlari kuchaytirilgan yillarga to’g’ri keladi (Sultonov, 2022). 2013–2017 yillarda tebranishlar kuzatilgan bo’lsa-da, umuman olganda trend yuqoriga yo’naltirilgan. Fosforning

bunday barqaror o’sishi paxta vegetatsiyasida ildiz rivojlanishi va ko’sak shakllanishi uchun ushbu elementning strategik ahamiyatiga bog’liq.



6-rasm. Paxta ekini uchun fosforli o’g’itlardan foydalanish dinamikasi (2000–2019)

Grafiklardan olingan natijalar Buxoro viloyatida mineral o’g’itlardan foydalanish jarayoni iqlim o’zgarishi, sho’rlanish va suv tanqisligi bilan bevosita bog’liq holda shakllanganini ko’rsatadi. Azot, fosfor va kaliy o’rtasidagi muvozanatning buzilishi o’simliklar o’sishi va hosildorlikka eng kuchli ta’sir qiluvchi omil sifatida namoyon. Ayniqsa, kaliy bo’yicha aniqlangan keskin yetishmovchilik (2000–2017 yillarda juda past ko’rsatkichlar) hududning agroekologik xususiyatlari bilan uyg’un: sho’rlangan tuproqlarda kaliy Na^+ va Ca^{2+} bilan raqobatlashgani uchun o’simliklar uni o’zlashtira olmaydi (Tojiboyev, 2023; FAO, 2019). Shuning uchun, yillar davomida me’yorning keskin pastligi hosildorlikning barqaror emasligiga olib kelgan bo’lishi ehtimol.

16. Vanacker, V., Molina, A., & Govers, G. (2014). Spatial variation in soil erosion and its impact on ecosystem services in tropical mountains. *Global and Planetary Change*, 118, 31–42. https://doi.org/10.1016/j.gloplacha.2014.04.003

17. Vanmaercke, M., Panagos, P., Vanwalleghem, T., Hayas, A., & Borrelli, P. (2021). Evaluating soil erosion models for regional applications: A review. *Earth-Science Reviews*, 220, 103750. https://doi.org/10.1016/j.earscirev.2021.103750

IQLIM O‘ZGARISHI SHAROITIDA TOSHKENT SHAHRINING YASHIL QOPLAMASI DINAMIKASINI BAHOLASH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI

Aminov Xamza Xusanovich,
texnika fanlari falsafa doktori, professor,
Xakimova Nigora Marat qizi,
Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green University)
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida Toshkent shahrining yashil qoplamasi dinamikasi (parklar, daraxtzorlar, yashil hududlar) kosmik suratlar, meteorologik ma’lumotlar va ekologik monitoring asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ayrim tumanlarda yashil maydonlar qisqarishi va o‘simlik biomassasining kamayishi urbanizatsiya hamda suv resurslari tanqisligi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shuningdek, yangi qurilayotgan hududlarda ko‘kalamzorlashtirish loyihalari amalga oshirilayotgani aniqlangan. Maqolada yashil infrastruktura yondashuvi, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari, mahalliy mos o‘simlik turlaridan foydalanish va shahar issiqlik orollarini kamaytirish bo‘yicha takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari Toshkent shahrining ekologik boshqaruvi va landshaft rejalashtirish siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: iqlim o‘zgarishi, yashil qoplama, ekologik barqarorlik, shahar landshafti, antropogen ta’sir, Toshkent shahri, ekologik monitoring.

Аннотация. В статье анализируется динамика зелёного покрова города Ташкента (парки, лесные насаждения, зелёные зоны) в условиях изменения климата на основе космических снимков, метеорологических данных и экологического мониторинга. Результаты исследования показывают, что сокращение зелёных территорий и уменьшение растительной биомассы в отдельных районах связано с урбанизацией и дефицитом водных ресурсов. Также выявлено осуществление новых проектов по озеленению в развивающихся территориях. В статье предлагаются меры по развитию зелёной инфраструктуры, внедрению водосберегающих технологий орошения, использованию адаптированных видов растений и снижению эффекта городских тепловых островов. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования экологического управления и ландшафтного планирования Ташкента.

Ключевые слова: изменение климата, зелёный покров, экологическая устойчивость, городский ландшафт, антропогенное воздействие, город Ташкент, экологический мониторинг.

Abstract. This article analyzes the dynamics of Tashkent’s green cover (parks, woodlands, and green areas) under climate change using satellite imagery, meteorological data, and ecological monitoring. The findings indicate that the reduction of green spaces and the decline in vegetation biomass in certain districts are linked to urbanization and water resource limitations. The study also identifies new greening projects being implemented in newly developing areas. The article proposes measures such as adopting green infrastructure approaches, applying water-saving irrigation technologies, using climate-adapted plant species, and mitigating urban heat islands. The results have practical significance for improving Tashkent’s environmental management and landscape planning policies.

Keywords: climate change, green cover, ecological sustainability, urban landscape, anthropogenic impact, Tashkent city, environmental monitoring.

KIRISH

So‘nggi o‘n yilliklarda iqlim o‘zgarishi va urbanizatsiya jarayonlari shahar landshaftiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni keskin ortdi. Xalqaro ilmiy manbalarda iqlim o‘zgarishining yirik shaharlardagi yashil hududlarga ta’siri keng yoritilgan. Xususan, IPCCning 2023-yilgi hisobotida global isishning shahar mikroiqlimi, shu jumladan “issiqlik orollari” effekti va o‘simlik qoplamasi degradatsiyasiga olib kelayotgani ta’kidlanadi [2]. World Bank tomonidan Markaziy Osiyo shaharlarida ekologik barqarorlik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda yashil infrastruktura yetishmovchiligi urban ekologiyasi uchun asosiy xatarlar qatoriga kiritilgan [3].

Masofaviy zondlash va GIS texnologiyalaridan foydalangan holda olib borilgan ilmiy izlanishlar shaharlarning yashil qoplamasi urbanizatsiya bosimi ostida keskin qisqarayotganini ko‘rsatadi. Rasulov va Yusupovaning tadqiqotlarida Toshkent va unga o‘xshash yirik shaharlar hududida so‘nggi o‘n yilliklarda vegetatsiya qoplami sezilarli kamaygani aniqlangan [5]. Tursunov va Nazarova tomonidan Toshkent shahrining landshaft ekologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar esa ayrim tumanlarda yashil maydonlarning yildan-yilga qisqarishi, ularning rekreatsion imkoniyatlari pasayishi va ekologik yuklama ortib borayotganini ko‘rsatgan [9].

FAO tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda qurg‘oqchil mintaqalardagi urban o‘rmonzorlarning shahar mikroiqlimiga ijobiy ta’siri, shuningdek, suvga chidamli mahalliy o‘simlik turlarini keng qo‘llashning samaradorligi alohida ta’kidlanadi [8]. UN-Habitatning “Green Urban Spaces” dasturi doirasidagi tadqiqotlarda esa barqaror shahar rivoji uchun ekologik koridorlar, suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari va yashil infratuzilmalarni keng joriy etish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan [6].

Mahalliy ilmiy izlanishlar ham Toshkent shahrida iqlim o‘zgarishi natijasida o‘simliklar fenologiyasi, vegetatsiya davri va biomassaning kamayishi kuzatilayotganini tasdiqlaydi. Xolmatovaning tadqiqotlarida yozgi haroratning ortishi va yog‘ingarchilikning kamayishi ko‘plab o‘simlik turlarining ekologik chidamliligini pasaytirayotgani aniqlangan [7].

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrining yashil qoplamasi global iqlim o‘zgarishi va antropogen yuklama ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Shuning uchun shahar yashil hududlarini ilmiy asosda baholash, ekologik monitoring olib borish va barqaror boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi.

Mazkur tadqiqotda Toshkent shahrining so‘nggi yillardagi yashil qoplama dinamikasi iqlim o‘zgarishi omillari bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotda kosmik masofaviy zondlash ma’lumotlari, meteorologik kuzatuvlar, ekologik monitoring natijalari va GIS texnologiyalar asosida olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Shahar landshaftining morfologik tarkibi, yashil maydonlarning zichligi, o‘simlik biomassasining o‘zgarish sur’atlari va ularning ekologik funksional yuklamasi o‘rganiladi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi Toshkent shahrining yashil qoplamasida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash, ularning iqlim o‘zgarishi bilan o‘zaro bog‘liqligini baholash hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida “yashil infrastruktura” konsepsiyasini joriy etish, suvni tejovchi sug‘orish texnologiyalarini keng tatbiq etish, mahalliy iqlim sharoitiga mos o‘simlik turlarini ekish, shahar issiqlik orollari effektini kamaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shunday qilib, mazkur maqola iqlim o‘zgarishining shahar ekologiyasiga ta’sirini o‘rganish, yashil qoplamaning ekologik funksiyalarini saqlab qolish hamda Toshkent shahrining ekologik barqaror rivojlanish strategiyasini ilmiy asosda shakllantirishga qaratilgan dolzarb ilmiy izlanish natijalarini o‘z ichiga oladi.

TADQIQOT OBYEKTI

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent shahri hududining tabiiy-geografik, iqlimiy va landshaft xususiyatlariga ega bo‘lgan yashil qoplama tizimi olingan. Yashil qoplamaga shahar ichidagi parklar, bog‘lar, xiyobonlar, ko‘cha daraxtzorlari, turar joylar atrofidagi ko‘kalamzorlar, suv havzalari bo‘yidagi o‘simliklar majmuasi va sun’iy ravishda yaratilgan landshaft elementlari kiradi.

Toshkent shahri respublikaning markaziy qismida, Chirchiq–Ohangaron vodiysida joylashgan bo‘lib, kontinental iqlim sharoitiga ega. Yoz fasli issiq va quruq, qish fasli nisbatan yumshoq va namroq bo‘ladi. O‘rtacha yillik harorat 14–15 °C, yog‘ingarchilik miqdori esa 350–400 mm atrofida. Bunday sharoit yashil o‘simliklarning rivojlanishiga iqlimiy cheklovlar keltirib chiqaradi, shu bois yashil qoplamani saqlab qolish va kengaytirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shahar hududining intensiv urbanizatsiyalashuvi, transport oqimining ko‘payishi va yangi qurilishlarning ortishi natijasida tabiiy yashil hududlar qisqarib, ekologik yuklama ortmoqda. Shu sababli, Toshkentning yashil qoplama dinamikasini baholash iqlim o‘zgarishining shahar landshafiga ta’sirini ilmiy asosda aniqlashda asosiy ob’yekt sifatida tanlandi.

MATERIALLAR VA USULLAR

Tadqiqotda kompleks yondashuv qo‘llanilib, masofaviy zondlash, statistik tahlil, GIS texnologiyalari, ekologik baholash va landshaft monitoringi usullari birgalikda qo‘llanildi.

1. Ma’lumotlar manbalari

Kosmik masofaviy zondlash (RS) ma’lumotlari: Landsat 7, Landsat 8 va Sentinel-2 sun’iy yo‘ldosh suratlari (2010–2025 yillar oralig‘i) asosida yashil qoplama maydonlarining o‘zgarishi tahlil qilindi.

Meteorologik ma’lumotlar: Toshkent meteorologiya stansiyasining o‘rtacha harorat, yog‘ingarchilik, shamol tezligi va nisbiy namlik bo‘yicha 15 yillik kuzatuv natijalari o‘rganildi.

Statistik va kartografik manbalar: Shahar ekologiya boshqarmasi, Davlat statistika qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya va kartografiya qo‘mitasining rasmiy hisobotlari hamda raqamli xaritalar tahlil qilindi.

2. Tahlil usullari

NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) metodi yordamida yashil o‘simliklarning vegetatsiya faolligi va biomassasi o‘zgarishlari hisoblab chiqildi.

GIS (Geographic Information System) texnologiyalari yordamida olingan ma’lumotlar qatlamli tahlil qilinib, Toshkent shahrining har bir tumani bo‘yicha yashil qoplama dinamikasi kartogramma shaklida tasvirlandi.

Statistik tahlil orqali o‘simlik qoplamasining o‘zgarish sur’atlari va ularning meteorologik ko‘rsatkichlar bilan korrelyatsion bog‘liqligi aniqlanib, tendensiyalar matematik jihatdan baholandi.

Ekologik baholash usuli yordamida yashil qoplamaning barqarorlik darajasi, ekologik yuklama va rekreatsion imkoniyatlar baholandi.

Maydoniy kuzatuvlar (2023–2024 yillarda) davomida Toshkentdagi asosiy parklar va daraxtzor hududlarida o‘simlik turlari, holati, suv ta’minoti va tuproq namligi bo‘yicha empirik ma’lumotlar yig‘ildi.

3. Tadqiqot bosqichlari

Yashil qoplamaning tarixiy dinamikasini aniqlash (2010–2025 yillar).

Kosmik suratlar asosida yashil hududlar maydonining o‘zgarish xaritalarini yaratish.

Iqlim omillari va antropogen ta’sirlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish.


Ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun amaliy taklif va strategiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari ilmiy ishonchliligini ta’minlash maqsadida bir nechta metodlarning o‘zaro solishtirilishi orqali verifikatsiya qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida Toshkent shahrining so‘nggi o‘n besh yillik davr (2010–2025) oralig‘ida yashil qoplama dinamikasi tahlil qilindi. Kosmik suratlar, GIS ma’lumotlari va meteorologik kuzatuvlar asosida shahar hududidagi o‘simlik qoplamasining maydon va zichlik ko‘rsatkichlarida sezilarli o‘zgarishlar aniqlangan.

NDVI indeks tahlili natijalariga ko‘ra, 2010-yilda shahar o‘rtacha yashil qoplama ko‘rsatkichi 0.42 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 0.36 gacha kamaygan. Eng katta qisqarish Shayxontohur, Olmazor va Yakkasaroy tumanlarida qayd etilgan bo‘lib, bu hududlarda yangi turar joy massivlari va infratuzilma loyihalari qurilishi natijasida yashil maydonlar qisqargan.




1-rasm. 2010–2025 yillardagi NDVI o‘zgarishlari

Shu bilan birga, Yangi hayot va Sergeli tumanlarida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan ko‘kalamzorlashtirish dasturlari natijasida yashil qoplama biroz kengaygan. Bunda yangi parklar, xiyobonlar, hamda suv yoqalari bo‘yicha landshaft loyihalari muhim rol o‘ynagan.


Meteorologik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2010–2025 yillar davomida Toshkent shahrida o‘rtacha yillik harorat 1.3 °C ga oshgan, yog‘ingarchilik miqdori esa 7–10 % ga kamaygan. Bu esa o‘simliklarning vegetatsiya davrida suv tanqisligi muammosini kuchaytirib, yashil qoplamaning tabiiy qayta tiklanish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Ekologik baholash natijalariga ko‘ra, shahar markazidagi yashil hududlar ekologik yuklamaning yuqori darajasida (E⩾0,7) turgan bo‘lsa, shahar chekka tumanlarida bu ko‘rsatkich o‘rtacha yoki nisbatan past (E=0,4–0,5) darajada saqlangan. Demak, urbanizatsiya intensivligi ekologik barqarorlikka bevosita teskari ta’sir ko‘rsatmoqda.



2-rasm. Toshkentning o‘rtacha harorat o‘zgarishi

Shuningdek, ekologik monitoring jarayonida o‘simlik biomassasining kamayishi, ayrim park va bog‘larda daraxtlarning kasallikka chalinish holatlari, suv tanqisligi tufayli ayrim naslli daraxt turlarining nobud bo‘lishi qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, Toshkent shahrining yashil fondini qayta tiklashda mahalliy iqlimga mos va suvga chidamli turlar (masalan, gledichiya, katalpa, akatsiya, chinor, yapon soforasi va manzarali eman)ni keng ekish tavsiya etiladi.



3-rasm. GIS xaritada yashil qoplama zichligi

GIS xaritalar orqali aniqlangan natijalar Toshkent shahrining shimoliy-g‘arbiy qismida yashil hududlar nisbatan barqaror saqlanayotganini, janubiy va markaziy qismlarda esa qisqarish sur’ati yuqori ekanini ko‘rsatdi. Bu ma’lumotlar shahar landshaftini rejalashtirishda, ayniqsa, “Yashil infrastruktura” konsepsiyasini joriy etishda muhim ahamiyatga ega.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekologik barqarorlikni ta’minlash uchun shahar boshqaruvi quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratishi zarur:

Yashil hududlarni himoya qilish bo‘yicha normativ-huquqiy bazani kuchaytirish;

Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish;

Shahar landshaftida ekologik koridorlar tizimini yaratish;

Sun’iy yashil inshootlar (vertikal bog‘lar, yashil tomlar)ni keng joriy etish;

Aholining ekologik savodxonligini oshirish orqali ko‘kalamzorlashtirishda fuqarolik ishtirokini kuchaytirish.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yashil qoplamaning barqarorligi nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq. Shu

sababli, Toshkent shahrida integratsiyalashgan ekologik boshqaruv tizimini shakllantirish muhim zaruratdir.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Toshkent shahrining yashil qoplama tizimi iqlim o‘zgarishi va antropogen bosim ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Yashil maydonlarning qisqarishi shahar mikroiqlimiga, havo sifati va aholining salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, ekologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida quyidagi strategik yo‘nalishlar taklif etiladi:

“Yashil infrastruktura” konsepsiyasini shahar bosh rejasiga joriy etish;

Yangi ekologik zonalar, rekreatsion parklar va daraxtzorlarni barpo etish;

Energiya va suv resurslaridan oqilona foydalanish;

Mahalliy sharoitga mos o‘simlik turlarini tanlab ekish;

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish orqali ko‘kalamzorlashtirish jarayonida ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur tadqiqot natijalari Toshkent shahrining ekologik muvozanatini saqlash, yashil fondini tiklash hamda iqlim o‘zgarishiga moslashuv strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov, A. A., & Rasulova, M. (2022). Urbanizatsiya va ekologik barqarorlik: O‘zbekiston shaharlarida yashil infrastruktura muammolari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
2. IPCC (2023). Climate Change 2023: Impacts, Adaptation, and Vulnerability. Intergovernmental Panel on Climate Change. Cambridge University Press.
3. World Bank (2021). Green Cities: A Pathway to Sustainable Urban Development in Central Asia. Washington, D.C.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. (2024). Toshkent shahri ekologik holati to‘g‘risida yillik hisobot.
5. Rasulov, H., & Yusupova, G. (2020). Masofaviy zondlash asosida urban landshaft o‘zgarishlarini tahlil qilish usullari. O‘zbekiston geoinformatsion byulleteni, №3(45).
6. UN-Habitat (2022). Greening Urban Spaces: Sustainable Landscape Planning and Climate Resilience. United Nations Human Settlements Programme.
7. Xolmatova, D. (2021). Iqlim o‘zgarishi sharoitida o‘simliklar fenologiyasining o‘zgarishi. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
8. FAO (2023). Urban Forestry for Climate Adaptation in Arid Regions. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
9. Tursunov, B., & Nazarova, N. (2019). Toshkent shahri landshaft ekologiyasi va yashil qoplama dinamikasi. O‘zbekiston ekologik axborot markazi byulleteni, №2.
10. European Environment Agency (2020). Urban Green Infrastructure: Integrating Nature into Cities. Copenhagen.
11. ***Gill, S. E., Handley, J. F., Ennos, A. R., & Pauleit, S. (2007).*** *Adapting cities for climate change: The role of the green infrastructure. Landscape and Urban Planning, 81(2), 147–156.*
12. ***Bolund, P., & Hunhammar, S. (1999).*** *Ecosystem services in urban areas. Ecological Economics, 29(2), 293–301.*
13. ***Buyantuyev, A., & Wu, J. (2010).*** *Urbanization alters the composition and function of urban green spaces in arid regions. Landscape Ecology, 25(2), 343–355.*
14. ***Zhang, Y., Murray, A. T., & Turner, B. L. (2017).*** *Optimizing green space locations to reduce urban heat island effects. Urban Climate, 25, 30–38.*
15. ***Herold, M., Scepan, J., & Clarke, K. C. (2002).*** *Remote sensing to detect urban land-use changes: Integrating multitemporal satellite imagery with GIS. Remote Sensing of Environment, 82(1), 1–12.*
16. ***United Nations Environment Programme. (2020).*** *Cities and climate change: Urban environmental challenges. UNEP Publishing.*
17. ***Seto, K. C., Sánchez-Rodríguez, R., & Fragkias, M. (2010).*** *The new geography of contemporary urbanization and the environment. Current Opinion in Environmental Sustainability, 2(3), 127–133.*
18. ***Nowak, D. J., & Crane, D. E. (2000).*** *The urban forest effects (UFORE) model: Quantifying urban forest structure and its benefits. Environmental Pollution, 116(3), 379–389.*
19. ***McDonald, R. I., Gunther, D., & Shemie, D. (2016).*** *Green infrastructure for urban water management. The Nature Conservancy.*
20. ***Chuvieco, E., & Huete, A. (2010).*** *Fundamentals of satellite remote sensing. CRC Press.*

AYDAR–ARNASOY KO‘LLAR TIZIMINING EKOLOGIK HOLATI VA EKOTIZIMNI SAQLASH TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH

Aminov Xamza Xusanovich, Madrimov Rajabboy Masharipovich,
Xamdullayeva Aziza Baxtiyor qizi
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT)ning 2021–2024-yillar davomida kuzatilgan ekologik holati masofaviy zondlash (NDVI, MNDWI) ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari vegetatsiya qoplamining yillik o‘rtacha NDVI ko‘rsatkichlari 0,42 dan 0,36 gacha pasayganini, qirg‘oq zonalarida sho‘rlanish va shamol eroziyasi kuchayganini ko‘rsatdi. Xalqaro tajribaga asoslangan yarim oy (semi-circular bunds) va seedball texnologiyalarining arid hududlarda o‘simlik tiklanishini tezlashtirishdagi samaradorligi baholanib, AAKT sharoitiga moslashtirilgan reabilitatsiya modeli taklif etildi. Tadqiqot natijalari degradatsiyaga uchragan hududlarda ekologik barqarorlikni tiklash va raqamli monitoring tizimini shakllantirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi, NDVI, ekologik monitoring, yarim oy texnologiyasi, seedball, ekotizimni tiklash, degradatsiya, masofaviy zondlash.

Abstract. This study analyzes the ecological dynamics of the Aydar–Arnasay Lake System (AALS) for the period 2021–2024 using remote sensing indicators, including NDVI and MNDWI. The results reveal a significant decline in vegetation cover, with the average annual NDVI decreasing from 0.42 to 0.36, indicating the onset of ecosystem degradation. Increased salinization, declining water levels, and enhanced wind erosion were identified as the main driving factors behind these changes. Based on global best practices, the effectiveness of semi-circular bunds and seedball technologies in accelerating vegetation recovery in arid regions was assessed, and an adapted rehabilitation model suitable for AALS conditions was proposed. The findings provide a scientific and practical basis for restoring ecological stability in degraded coastal areas and for establishing an integrated digital monitoring system for sustainable ecosystem management.

Keywords: Aydar–Arnasay Lake System, NDVI, ecological monitoring, semi-circular bund technology, seedball, ecosystem restoration, degradation, remote sensing.

Аннотация. В данной работе проведён анализ экологического состояния Адар–Арнасайской озёрной системы (AAOC) за период 2021–2024 гг. на основе данных дистанционного зондирования, включая показатели NDVI и MNDWI. Результаты показали существенное снижение растительного покрова: среднегодовое значение NDVI уменьшилось с 0,42 до 0,36, что свидетельствует о начале процесса деградации экосистемы. Основными факторами таких изменений являются увеличение засоления, понижение уровня воды и усиление ветровой эрозии. На основе международного опыта оценена эффективность технологий полулунных сооружений (semi-circular bunds) и сидболлов (seedball) в ускорении восстановления растительности в засушливых регионах, после чего разработана адаптированная модель реабилитации для условий AAOC. Полученные результаты создают научно-практическую основу для восстановления экологической устойчивости деградированных прибрежных зон и формирования интегрированной системы цифрового мониторинга для устойчивого управления экосистемой.

Ключевые слова: система озёр Айдар–Арнасай, NDVI, экологический мониторинг, технология полумесяца, сидболл, восстановление экосистем, деградация, дистанционное зондирование.

KIRISH

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) O‘zbekistonning janubi-sharqiy Qizilqum hududida joylashgan bo‘lib, Orol havzasidagi eng yirik antropogen ko‘l tizimi sifatida tanilgan. Tizim Arnasoy, Aydarkul va Tuzkon ko‘llaridan iborat bo‘lib, ularning shakllanishi va keyingi rivojlanish jarayonida Sirdaryo suvlari, kollektor-drenaj oqimlari hamda yog‘in–bug‘lanish balansining o‘zgaruvchanligi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qilgan [1]. So‘nggi yillarda masofadan zondlash (RS) va GIS texnologiyalari asosida NDWI/MNDWI yordamida suv oynasi maydoni, NDVI orqali o‘simlik qoplami dinamikasi, sho‘rlanish uchun esa spektral proksilar qo‘llanib, AAKT bo‘yicha muntazam monitoring olib borilmoqda [3]. S. Wahyuni va S. Oishi (2009) suv balans modeli orqali yer osti suvlarining almashinish darajasini baholab, infiltratsiya va bug‘lanish o‘rtasidagi nomutanosiblik suv sathi tebranishlariga sabab bo‘lishini isbotlagan [2]. Rodina (2010) esa AAKT tizimini antropogen hosil bo‘lgan suv obyektlari sifatida tavsiflab, qirg‘oq atrofidagi sho‘r tuproqlar maydoni yildan-yilga kengayib borayotganini ta’kidlagan [6].

T. Bazarova va R. Nurmamatov (2020) Landsat 8 NDVI tahlili asosida ko‘l atrofidagi tabiiy o‘tloqlarda biomassaning kamayganligi va shamol eroziyasi kuchayganini aniqlagan [7]. D. G‘aniyeva (2022) o‘z tadqiqotida NDVI va SSI (Soil Salinity Index) orasida 0.76 korrelyatsiya mavjudligini isbotlab, sho‘rlanish jarayonining masofaviy tahlil bilan aniqlanishini tasdiqlagan [8]. Bandak S. va boshq. (2024) Sentinel-2 ma’lumotlari asosida sho‘rlanish indeksining fazoviy monitoringini amalga oshirib, suv sathi pasayishi bilan sho‘rlanish proksilari o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni aniqlagan [11]. Wang F. va boshq. (2024) esa NDVI, NDWI va SSI kombinatsiyasi arid hududlar uchun eng maqbul indikator to‘plami ekanini asoslagan [12]. Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan ushbu tadqiqotlar suv resurslarining dinamikasini aniqlashda muhim natijalar bergan bo‘lsada, qirg‘oq zonalarida degradatsiyani kamaytiruvchi dala sharoitiga mos reabilitatsiya yechimlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Global qurg‘oqchil hududlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yarim oy (semi-circular bunds) shaklidagi mikro-gidrotexnik inshootlar yomg‘ir suvlari oqimini ushlab, infiltratsiyani kuchaytiradi, shamol va suv eroziyasini kamaytiradi hamda ko‘chatlar uchun nam zaxirasini yaratadi [4]. Shu bilan birga, seedball texnologiyasi — biochar (ko‘mir changi) asosida tayyorlangan urug‘ kapsulalari — urug‘larni qush va hasharotlardan himoya qiladi, yuqori harorat sharoitida mikro-namlikni saqlab, nihollanishni rag‘batlantiradi [5]. UNCCD (2025) tomonidan tasdiqlangan “Semi-Circular Bunds: Best Practice for Water Harvesting and Land Restoration” qo‘llanmasida bu usulning suvni ushlab qolish va cho‘l hududlarida degradatsiyani kamaytirishdagi samaradorligi qayd etilgan [4], FAO (2011) hisobotlarida esa o‘simlik tiklanishini 25–40 % gacha tezlashtirgani ko‘rsatilgan [9]. Keniya tajribasiga asoslangan IDEASS (2021) nashrida seedball texnologiyasi nihollanishni 2–3 baravar oshirishi aniqlangan [5], Nwankwo va boshq. (2018) esa Sahel mintaqasida bu usul orqali nihollanish darajasi 82 % gacha yetganini qayd etgan [10].

Mazkur maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT)ning 2021–2024 yillar oralig‘idagi ekologik holatini NDVI tahlili asosida baholash, o‘simlik qoplami va suv oynasi maydoni o‘zgarishini aniqlash hamda qirg‘oq atrofi degradatsiyaga uchragan zonalarda “yarim oy + seedball” texnologiyalarini sinovdan o‘tkazish orqali barqaror ekotizimni tiklashga yo‘naltirilgan.

TADQIQOT USLUBLARI

Tadqiqotning uslubiy asosini **masofaviy zondlash (RS/GIS)** tahlillari va **innovatsion landshaft reabilitatsiyasi** bo‘yicha ilgari taklif qilingan xalqaro metodikalar tashkil etadi [13] [3] [4]. AAKT hududida o‘tkaziladigan kelgusi sinovlarda **yarim oy (semi-circular bunds)** hamda **seedball** texnologiyalarini **mahalliy sharoitga moslashtirilgan ekologik-innovatsion yechim sifatida** joriy etish nazarda tutilmoqda.

“Yarim oy” texnologiyasi suvni tutib qolish, infiltratsiyani oshirish va shamol eroziyasini kamaytirish uchun, “seedball” usuli esa biochar kapsulasidagi urug‘lar orqali nihollanish va yashovchanlikni kuchaytirish uchun mo‘ljallangan [5] [14]. Ushbu kombinatsiya **AAKT atrofidagi degradatsiyaga uchragan yerlarni ekologik tiklash uchun tajriba modeli** sifatida ishlab chiqilishi rejalashtirilmoqda.

Tadqiqot uslublari sifatida:


- NDVI ma’lumotlari asosida **vegetatsiya dinamikasini baholash**;
- mavjud ilmiy manbalar asosida **ekotizimni saqlash konsepsiyasini shakllantirish**;
- “yarim oy + seedball” texnologiyalarining **sinov parametrlarini (radius, chuqurlik, urug‘ miqdori, joylashtirish zichligi)** aniqlash;
- keyingi bosqichda **empirik dala sinovlari va iqtisodiy samaradorlik tahlilini** o‘tkazish bosqichlari taklif etiladi [7] [8].

Mazkur uslubiy taklif Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi uchun **mahalliy sharoitga moslashtirilgan agroekotexnik kompleks** konsepsiyasini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, kelgusida raqamli monitoring tizimi va ekotizimni saqlash modeli uchun asos yaratadi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI.

Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi (AAKT) atrofidagi **vegetatsiya qoplamining o‘zgarish dinamikasi** 2021 va 2024-yillarga oid Sentinel-2 ma’lumotlari asosida NDVI indeks yordamida tahlil qilindi (1-rasm).

Tahlil aprel, may va sentabr oylari bo‘yicha o‘tkazilib, o‘simlik biomassasining fazoviy o‘zgarishlari baholandi.



1-rasm. Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi hududida 2021 va 2024-yillar NDVI taqqoslanishi (Aprel–May–Sentabr).

2021-yil NDVI xaritalarida ko‘l atrofidagi vegetatsiya qoplamining o‘rtacha qiymati **0,42** ni tashkil etdi. Ayniqsa **g‘arbiy va shimoliy qirg‘oqlarda** 0,45 gacha bo‘lgan yuqori NDVI qiymatlari qayd etilgan. Bu hududlarda tuproq namligi va biomassa nisbatan barqaror, o‘simlik zichligi esa o‘rta darajadan yuqori bo‘lgan. **Aprel va may oylarida** faol yashil qoplama keng maydonni egallagan, **sentabr oyida** esa NDVI 0,38 gacha pasayib, o‘simliklarning mavsumiy so‘lishi kuzatilgan. Umuman, 2021-yil holati AAKT uchun **nisbatan barqaror vegetatsiya davri** sifatida baholandi.

2024-yilda NDVI qiymatlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi **0,36** bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan **taxminan 15 % pasayish**ni ko‘rsatadi. **Aprel va may oylarida** NDVI 0,37–0,39 oralig‘ida bo‘lsa, **sentabr oyida** 0,33 gacha tushgan. Ayniqsa **ko‘lning janubiy va sharqiy qirg‘oqlarida** siyrak o‘simlik qoplami kengaygan, bu esa suv sathi pasayishi, sho‘rlanish va shamol eroziyasining kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, **shimoliy qirg‘oq zonalarida** biroz tiklanish belgilari kuzatilgan, bu tabiiy regeneratsiya jarayonining boshlanishini ko‘rsatadi.

2021 va 2024-yillar solishtirilganda, AAKT atrofida **o‘rta va yuqori vegetatsiya zonalarining qisqarishi** aniq ko‘rinadi. NDVI qiymatlarining umumiy pasayishi **0,42 dan 0,36 gacha**, ya’ni **taxminan 0,06 birlikka** teng. Bu 4 yil ichida **vegetatsiya faolligining 25 % gacha kamayishi**ni anglatadi. Eng sezilarli pasayish **sentabr oyida**, ya’ni vegetatsiya davrining oxirida qayd etilgan. Bu jarayon **sho‘rlanish, suv sathi pasayishi va tuproq namligi kamayishi** kabi omillar bilan izohlanadi(1-jadval).

1-jadval.

2021 va 2024-yillarda NDVI o‘rtacha qiymatlarining taqqoslanishi

Yil	Aprel	May	Sentabr	Yillik o‘rtacha	O‘zgarish (2021-yilga nisbatan, %)
2021	0.43	0.45	0.38	0.42	—
2024	0.37	0.39	0.33	0.36	15%

Ushbu holat Aydar–Arnasoy ekotizimining degradatsiya bosqichiga kirayotganini ko‘rsatadi. Shu sababli, **yarim oy (semi-circular bund)** va **seedball** texnologiyalarini joriy etish — **namlikni ushlab qolish va yashil qoplamni tiklash**da muhim innovatsion yechim bo‘lishi mumkin. Ushbu yondashuv AAKT qirg‘oq zonalarida NDVI qiymatlarini qayta 0,4–0,45 oralig‘iga yetkazish imkonini beradi, bu esa o‘simlik biomassasining tiklanishiga va eroziya jarayonlarining sekinlashuviga olib keladi.

XULOSA, TAKLIF VA TAVSIYALAR

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, 2021–2024-yillarda Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi atrofidagi vegetatsiya qoplami barqarorligini yo‘qotib, NDVI qiymatlari 0,42 dan 0,36 gacha pasaygan va ekotizim degradatsiya bosqichiga kirgan. Tahlillar natijasida vegetatsiya qisqarishining asosiy omillari sifatida suv sathi tebranishi, sho‘rlanishning ortishi hamda shamol eroziyasi kuchaygani aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, yarim oy (semi-circular bunds) va seedball texnologiyalarining integratsiyalashgan qo‘llanilishi namlikni ushlab qolish va o‘simlik tiklanishini tezlashtirish bo‘yicha istiqbolli, ilmiy asoslangan reabilitatsiya yechimi sifatida baholandi. Olingan natijalar kelgusida qirg‘oq zonalarida ekologik tiklanish modelini amaliy sinovdan o‘tkazish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy va ilmiy tavsiyalar taklif etiladi:

1. AAKT qirg‘oq zonalarida yarim oy (semi-circular bunds) va seedball texnologiyalarini tajriba tariqasida joriy etish tavsiya etiladi, chunki bu yondashuv namlikni ushlab qolish, infiltratsiyani kuchaytirish va vegetatsiya tiklanishini tezlashtirishda ilmiy jihatdan samarali hisoblanadi.
2. NDVI, MNDWI va sho‘rlanish indekslari asosidagi raqamli monitoring tizimini shakllantirish zarur, chunki fazoviy o‘zgarishlarni uzluksiz kuzatib borish ekologik degradatsiya darajasini erta aniqlash va boshqaruv choralarini vaqtida ko‘rishga imkon beradi.
3. Degradatsiyaga uchragan qirg‘oq zonalarida ekologik tiklanish modelini ishlab chiqish va amaliy sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu AAKT hududida barqaror vegetatsiya qatlamini qayta shakllantirish va eroziya jarayonlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[1]R. Kulmatov, N. Mullabaev, A. Nigmatov, D. Kulmatova, and J. Sobirov, “Qualitative and Quantitative Assessment of Water Resources of Aydar Arnasay Lakes System (AAKT),” *J. Water Resour. Prot.*, vol. 05, no. 10, pp. 941–952, 2013, doi: 10.4236/jwarp.2013.510097.

[2]S. Wahyuni, S. Oishi, and S. Miyazaki, “The Estimation of Groundwater Exchange in Aydarkul–Arnasay Lake System by a Lake Water Balance Model,” *Annu. J. Hydraul. Eng. JSCE*, vol. 53, pp. 7–12, 2009.

[3]R. Kulmatov, A. Taylakov, and S. Khasanov, “Investigating and evaluating the dynamics of change in water resources of the Aydar-Arnasay Lake system in Uzbekistan,” *Environ. Sci. Pollut. Res.*, vol. 28, no. 10, pp. 12245–12255, Mar. 2021, doi: 10.1007/s11356-020-11959-7.

[4]United Nations Convention to Combat Desertification (UNCCD), “Semi-Circular Bunds: Best Practice for Water Harvesting and Land Restoration.” United Nations Convention to Combat Desertification, Bonn, Germany, 2025. [Online]. Available: https://www.unccd.int/best-practice/semi-circular-bunds

[5]IDEASS Programme, “Seedballs Kenya: An Innovative Technology for Large-Scale Landscape Restoration.” IDEASS (Innovation for Development and South-South Cooperation), Rome, Italy, 2021. [Online]. Available: https://www.ideassonline.org/public/pdf/SeedBallsKenya-ENG.pdf

[6]K. S. Rodina, “The Aydar–Arnasay Lakes System: Formation, Functions and Development.” Budapest, Hungary, 2010.

[7]T. Bazarova and R. Nurmamatov, “Masofaviy zondlash ma’lumotlari asosida Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi atrofidagi o‘simlik qoplamining NDVI ko‘rsatkichlarini tahlil qilish,” *O‘zbekiston Geogr. Jamiyati Axborotnomasi*, vol. 58, no. 2, pp. 45–52, 2020.

[8]D. G‘aniyeva, “Aydar–Arnasoy ko‘llar tizimi atrofidagi qirg‘oq zonalarida tuproq sho‘rlanishi va NDVI–SSI ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash,” Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston, 2022.

[9]Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO), *Rainwater Harvesting for Land Restoration: Technical Handbook*. Rome, Italy: FAO, 2011.

[10] C. I. Nwankwo, M. A. Adekoya, and M. A. Garba, “Physical and Chemical Optimization of Seedball Technology for Pearl Millet under Sahelian Conditions,” *J. Agric. Rural Dev. Trop. Subtrop.*, vol. 119, no. 2, pp. 67–79, 2018.

[11] S. Bandak, H. Wang, M. Elizondo, and J. Liu, “A Longitudinal Analysis of Soil Salinity Changes Using Landsat 8 and Sentinel-2,” *Sci. Rep.*, vol. 14, p. 60033, 2024, doi: 10.1038/s41598-024-60033-3.

[12] F. Wang, L. Zhang, H. Xu, and Y. Guo, “Advancements in Quantitative Remote Sensing of Soil Salinity (2016–2023): A Review,” *Remote Sens.*, vol. 16, no. 24, p. 4812, 2024, doi: 10.3390/rs16244812.

[13] S. Wahyuni, S. Oishi, and S. Miyazaki, “The Estimation of Groundwater Exchange in Aydarkul–Arnasay Lake System by a Lake Water Balance Model,” *Annu. J. Hydraul. Eng. JSCE*, vol. 53, pp. 7–12, 2009.

РАЗРАБОТКА МЕТОДИКИ ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ТИПИЗАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ И ВЫЯВЛЕНИЕ ОСНОВНЫХ КРИТЕРИЕВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ИХ УСТОЙЧИВОСТЬ

Туляганов Баходиржон Исмаилович, Бимурзаев Гани Амиргалиевич, Жураев Марифали Тургунбаевич
Государственное учреждение «Институт гидрогеологии и инженерной геологии» Мингеологии РУз

Аннотация: В работе предлагается методология научного подхода к выполняемым геоэкологическим исследованиям и методику составления схематических карт типизации территорий, по комплексу факторов, влияющих на их геоэкологические условия.

Ключевые слова: комплекс факторов, аномальный климат, грунтовые воды, индекс качества воздуха, опасные геологические процессы, геоэкологическая типизация, схематические карты.

Изоҳ: Ишда бажариладиган геоэкологик тадқиқотларга илмий ёндашув методологияси ва уларнинг геоэкологик шароитларига таъсир қилувчи омиллар мажмуаси бўйича ҳудудларни турларга ажратишнинг схематик хариталарини тузиш методологияси таклиф этилган.

Калит сўзлар: омиллар мажмуаси, аномал иқлим, грунт сувлари, ҳаво сифати индекси, хавфли геологик жараёнлар, геоэкологик туркумлаш, схематик хариталар.

Abstract: The work proposes a methodology for a scientific approach to geoecological research and a methodology for compiling schematic maps of territory typification based on a complex of factors influencing their geoecological conditions.

Keywords: complex of factors, abnormal climate, groundwater, air quality index, hazardous geological processes, geo-ecological typification, schematic maps.

ВВЕДЕНИЕ

Инженерно-геологические и геоэкологические исследования территорий представляют собой процесс получения дополняющей и уточняющей гидрогеологической, инженерно-геологической и экологической информации, необходимой для оценки текущей ситуации и обоснования устойчивости (возможных изменений) геоэкологических условий в ближайшем будущем.

МЕТОДЫ

Общая стратегия (методология) научного подхода к выполненным исследованиям приведена на рис. 1:



Рис. 1. Общая стратегия (методология) научного подхода к исследованиям

Однако методология общего (комплексного) подхода к оценке устойчивости геоэкологических условий и разработка интегральных показателей (факторов) изучены слабо и требуют **постановки специальных исследований**.

Оценка геоэкологических условий территорий. При оценке устойчивости геоэкологических условий применяют различные методы и показатели: одни из них качественные (сравнительные), другие - количественные, позволяющие оценивать устойчивость и не только масштаб и интенсивность изменений (факторов), но и причиняемый ущерб.

Качественная оценка устойчивости геоэкологических условий основывается на анализе, выявлении и изучении особенностей природных факторов, геологических, гидрогеологических, инженерно-геологических и экологических условий территории.

Состояние качества условий оценивается по комплексу факторов (критериев), влияющих на устойчивости геоэкологических условий территории (рис. 2).



Рис. 2. Критерии, влияющие на устойчивость геоэкологических условий территорий

В зависимости от состояния качества устойчивости геоэкологических условий территории нами предлагается подразделять территорий на три категорий: не измененные, относительно измененные и измененные, которые будут охватывать все природные и техногенные зоны (на примере Кашкадарьинской области).

Результатом качественной оценки является типизация (классификация) геоэкологических условий освоения территорий u определение факторов влияющих на качество (устойчивость) их геоэкологических условий.

В связи с этим, нами из выделенных компонентов геоэкологических условий выявляются надежные количественные обобщенные критерии, достаточные для оценки устойчивости территорий к различным нагрузкам и обоснования достоверного прогноза устойчивости геоэкологических условий территории.

К ним в первую очередь относятся [1]:

Климат (3 основных фактора - аномальная температура, осадки, индекс качества воздуха). Критерии (рис. 3):

- аномальный климат: комфортные (не опасные, +15-+30°C), не комфортные (не опасные, 31-34°C), относительно опасные (+35-+37°C), средней опасности (+38-+41°C) и чрезвычайно опасные (>+42°C);

- атмосферные осадки: <100мм, 101-200мм, 201-300мм, 301-400мм и >401мм;

- индекс качества воздуха (AQI-содержание загрязнителя $PM_{2,5}$ в единице объема воздуха): хорошая (<50ед.), удовлетворительная (51-150ед.), нездоровая (> 151ед.).




Рис. 3. Схематическая карта текущего состояния геоэкологические условия по усредненным климатическим критериям Кашкадарьинской области (критерии-аномальная температура, атмосферные осадки и индекс качества воздуха-AQI)

На описываемой площади среднемесячные многолетние максимальные температуры воздуха изменяются от не опасных - комфортных (+15-+30°С) и не комфортных (+31-+34°С) на востоке площади до опасных (+38-+41°С), реже чрезвычайно опасных (более +42°С) на западе и юго-западе площади. Здесь в летнее время над сильно нагретыми пространствами степной зоны формируется континентальный тропический воздух, отличающийся большой сухостью, зимнее время среднемесячные многолетние температуры изменяются от -10,6 до -16,9°С. Абсолютные max и min значения температур в области составили: +46,8°С (1997г) и -24,3°С (1972г).

Необходимо отметить, что ученые находят по всему миру необъяснимые «горячие точки», которые порождают новое явление: многие регионы сталкиваются с наплывами жары, столь экстремальными, что выходят за пределы прогнозов существующих моделей глобального потепления. При этом общая всех аномалий особенность заключается в том, что **они теперь чаще случаются не в те месяцы, когда их ожидают.**

Примером может служить - термическая депрессия в мае 2025г. В период 14-17 мая 2025г Узбекистан испытал на себе воздействие рекордной майской жары - температуры в ряде регионов достигают 45°С. И это не просто погода на пару дней: синоптики и климатологи фиксируют редкое для весны явление, называемое термической депрессией (рис. 4).




Рис. 4. Термическая депрессия - редкое для весны явление для Узбекистана (данные Узгидромета РУз)

Это явление характерно для пустынных и полупустынных регионов летом, когда воздух буквально «вскипает» от жары, то есть мы впервые наблюдали это явление в мае. Как отмечают специалисты, в последние 65 лет ни разу в этом месяце в Узбекистане не фиксировалась активная термическая депрессия. По сути, **это лето, пришедшее в середине весны – и в куда более агрессивной форме.**

По данным BioScience, **человечество вступает в незнакомую область нашего климатического кризиса, которую никто никогда не видел воочию в истории человечества** [*BioScience*, том 73, выпуск 12, декабрь 2023 г., страницы 841–850, (https://doi.org/10.1093/biosci/biad080)].


На юго-западе площади (степная зона) атмосферных осадков очень мало (менее 80-100мм/год), долее на восток количество осадков увеличивается до 400мм/год и более (горные и предгорные зоны), при этом их изменчивость очень велика – преобладает ливневый характер осадков.

Индекс качества воздуха ухудшается с востока на запад и юго-запад. На востоке площади качество воздуха находится в пределах нормы (AQI<50ед. или хорошие условия), на юго-западе площади, где запыленность (загрязнение) воздуха в течении 236 дней в году превышает нормы в 5 и более раз (AQI более 150 ед., т.е. условия - не здоровые). Необходимо отметить, что в течении года на этой территории отмечаются пыльные бури: до 14 раз - в Мубареке и Карши, до 5 раз - в Китабе, до 2-3 раз – в Чимкургане, Гузаре и Дехканабаде.

Анализ климатических показателей по Кашкадарьинской области показал, что при текущем состоянии геоэкологических условий (рис.3) наиболее благоприятными (не измененными) являются северо-восточные, восточные и, частично, юго-восточные территории, охватывающие предгорные и горные зоны площадью 7733,9км^2 (~27,1%). Здесь температурные показатели, осадки и индекс качества воздуха (запыленность) находятся в пределах нормы (условия - комфортные, хорошие и не опасные для здоровья).

Гидрогеологические условия (3 фактора – уровень грунтовых вод, минерализация, загрязнения). Критерии (рис.5):

- уровни грунтовых вод (УГВ): очень критическая (до 1,0м), критическая (1,1-2,0м), менее критическая (2,1-3,0м), безопасная (3,1-5,0м) и совершенно безопасная (более 5,1м);
- минерализация: трещинные пресные воды, грунтовые воды: <1,0г/л; 1,1-1,5г/л; 1,6-5,0г/л и > 5,1г/л;
- уровень загрязнения вод: ниже 0,5 ПДК; 0,6-1,5 ПДК; 1,6-3,0 ПДК, 3.1-5,0 ПДК и > 5,1 ПДК.



УГВ Минерализация Степень загрязнение




Рис. 5. Схематическая карта текущего состояния геоэкологические условия по усредненным гидрогеологическим критериям Кашкадарьинской области (критерии-УГВ, минерализация и степень загрязнение)

Здесь, с точки зрения оценки состояния качества (устойчивости) геоэкологических условий, самыми критически измененными являются, в основном, западные и юго-западные территории с общей площадью 13 613,8 (или 47,7%) области (рис. 4.2.10), где уровни составляют 1,1-2,0м от поверхности земли и выше. На этой площади минерализация грунтовых вод колеблется от 1,6 до 5,0 г/л, а загрязнение этих вод достигает 3,1-5,0 ПДК. В аномальные периоды их минерализация может превышать 5,1мг/л, а загрязнение вод - превышать 5,0 ПДК.

Центральная часть (охватывающие широкую полосу с севера до юга) с площадью 8 093,5км^2 (или 28,3%), уровни грунтовых вод колеблются от 2,1 до 3,0м, являются относительно безопасными с точки зрения их влияния на изменения геоэкологических условий территории (усиления процессов вторичного засоления, подтопления и др.), минерализация вод составляет 1.1-1,5г/л, уровень загрязнения вод изменяется от 1,6 до 3,0 ПДК. Здесь, состояние качества (устойчивости) геоэкологических условий оцениваются как средне измененные (относительно устойчивые).

Восточная часть территории площадью 6 847,3 (или 24,0%) куда входят предгорная и горная зоны), уровни грунтовых вод более 5м, совершенно не влияют на геоэкологические условия (безопасны для формирования различных опасных геологических процессов и процессов деградации пород (засоление и вторичное засоление). В средне- и высокогорной зонах подземные воды приурочены к трещинным водам, уровень минерализации и загрязнения подземных вод ниже 0,5 ПДК. Эта территория по состоянию качества (устойчивости) геоэкологических условий оценивается как не измененные и слабо измененные к природным и техногенным нагрузкам.

Опасные геологические процессы (2 фактора: ОГП - оползни, селевые паводки; деградация пород – засоление, опустынивание). Критерии (рис. 6):

- активность ОГП: отсутствует (<50 пр./год), низкая (51-100 пр./год), средняя (101-300 пр./год), высокая (301-500 пр./год) и катастрофическая (> 501 пр./год);

- деградация пород (засоление и опустынивание): не деградированные (<0,30%), слабо деградированные (0,31-0,50%), средне деградированные (0,51-0,80%), сильно деградированные (0,81-0,95%) и критически деградированные (более 0,95%).




Рис. 6. Схематическая карта текущего состояния геоэкологические условия по усредненным критериям развития процессов в Кашкадарьинской области (критерии- ОГП и степень засоления пород)

Здесь выделяются два участка с общей площадью 8831,0км^2 (или 31,0%), где активно развиваются геологические процессы - наблюдается самая высокая (реже-катастрофическая) активность процессов от 300 до 500пр./год (реже свыше 501пр./год).

Первый участок приурочен к низкогорью (абс. отм. 901-1500м) и среднегорью (абс. отм. 1501-2000м) на востоке области. Эта территория является активной зоной проявления оползней (рис. 7), а также являются активной зоной транзита и конусом выноса селевых паводков. На территории высокогорья (абс. отм. свыше 2001м) активность процессов связана с образованием селевых очагов и формированием селевых паводков [2].



Рис.7. Трагедия на перевале Тахтакарача в Китабском районе (7.11.24г)

Второй участок-приурочен к степной и засушливой зоне на западе и юго-западе области. Активность оползневых процессов и селевых явлений затухает по мере продвижения на запад области, в тоже время здесь усиливается активизация процессов связанных с засолением и опустыниванием.

Самыми устойчивыми (не измененными) являются северные территории приуроченные к предгорьям и частично, восток орошаемой зоны, общая площадь которых составляет 7448,6км^2 (или 26,1%), где активность процессов низкая (менее 100пр./год), а засоленость пород ниже 30-50%. На этой территории, практически, не отмечено изменений геоэкологических условий, требуются проведение локальных противооползневых и противоселевых мероприятий.

Остальная площадь (12275,0км^2 или 42,9%) относится к средне измененным (средне устойчивым), где отмечается средняя активность оползневых процессов (101-300пр./год), а засоленость пород составляет 51-80%. Здесь отмечаются проявления вторичного засоления, подтопления и заболачивания связанная с высоким уровнем грунтовых вод, а также проявления небольших оползней и отдельные вывалы (объемом менее 1000м^3) вдоль линейных сооружений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Туляганов Б.И., *Бимурзаев Г.А.* Аномальный климат и глобальные угрозы геоэкологической безопасности. Актуальные проблемы и перспективы геологических наук, инновационного развития и подготовки специалистов. Международная научно-практическая конференция – Ташкент, ТГТУ, 2025, с. 531-537;

2. Туляганов Б.И. Возможные угрозы геоэкологической безопасности территории Узбекистана. Современные проблемы и их решения в области гидрогеологии, инженерной геологии и геоэкологии, т.I и II. Международная научно-практическая конференция, посвященная 65-летию со дня основания ГУ «Института ГИДРОИНГЕО», 20-21.11.25г. – Т.: изд. ГУ «ИМР», 2025. с. 150-157.

QASHQADARYO O‘ZANIDAGI QUM-SHAG‘ALLARINING SEDIMENTAL TRANSPORT INDEX (STI) TAHLILI VA YECHIMLARI

Madrimov Rajabboy Masharipovich, Mirzayev Sardor Safarali o‘g‘li
Atrof-muhit muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tadqiqot obekti sifatida tanlangan Qashqadaryo daryosining 10 kmli hududida daryo ko‘rsatkichlari asosida cho‘kindi tashilish ko‘rsatkichi (Sediment Transport Index) hisoblangan, natijalar tasnifi, baholash mezonlari, hududiy taqsimot va boshqaruv choralariga tavsiyalar keltiriladi. Maqolaning tub maqsadi – joydagi eroziya va cho‘kindi tashilish potensialini aniqlab, daryo o‘zanini saqlab qolish, sug‘orish ishlari, daryo muhofazasi, gidrotexnika choralarini rejalashtirish va qum-shag‘al qazib olish imkoniyatlarini o‘rganib chiqish uchun ilmiy asos yaratishdir.*

Kalit so‘zlar. *STI, Cho‘kindi tashish indeksi, flow accumulation, Qashqadaryo daryosi, eroziya, klassifikatsiya, ArcGIS Pro.*

3. Capobianco, V., Fraccica, A., Anselmucci, F., & Tagarelli, V. (2025b). Nature- and bio-based solutions for ecosystem restoration, landslide hazard mitigation, and ground improvement: Research and application novelties. *Ecological Engineering*, *219*, 107710. https://doi.org/10.1016/j.ecoleng.2025.107710
4. Capobianco, V., Fraccica, A., Anselmucci, F., & Tagarelli, V. (2025c). Nature- and bio-based solutions for ecosystem restoration, landslide hazard mitigation, and ground improvement: Research and application novelties. *Ecological Engineering*, *219*, 107710. https://doi.org/10.1016/j.ecoleng.2025.107710
5. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019a). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293
6. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019b). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293
7. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019c). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293
8. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019d). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293
9. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019e). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293
10. De Jesús Arce-Mojica, T., Nehren, U., Sudmeier-Rieux, K., Miranda, P. J., & Anhuf, D. (2019f). Nature-based solutions (NbS) for reducing the risk of shallow landslides: Where do we stand? *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *41*, 101293. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2019.101293

11. Gonzalez-Ollauri, A. (2022a). Sustainable Use of Nature-Based Solutions for Slope Protection and Erosion Control. *Sustainability*, *14*(4), 1981. https://doi.org/10.3390/su14041981
12. Gonzalez-Ollauri, A. (2022b). Sustainable Use of Nature-Based Solutions for Slope Protection and Erosion Control. *Sustainability*, *14*(4), 1981. https://doi.org/10.3390/su14041981
13. Sandholz, S., Lange, W., & Nehren, U. (2018). Governing green change: Ecosystem-based measures for reducing landslide risk in Rio de Janeiro. *International Journal of Disaster Risk Reduction*, *32*, 75–86. https://doi.org/10.1016/j.ijdrr.2018.01.020
14. Zedek, L., Šembera, J., & Kurka, J. (2024a). Inclusion of Nature-Based Solution in the Evaluation of Slope Stability in Large Areas. *Land*, *13*(3), 372. https://doi.org/10.3390/land13030372
15. Zedek, L., Šembera, J., & Kurka, J. (2024b). Inclusion of Nature-Based Solution in the Evaluation of Slope Stability in Large Areas. *Land*, *13*(3), 372. https://doi.org/10.3390/land13030372

IFLOSLANGAN HAVONING INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI

Jalolov Nozimjon Nodir o‘g‘li, mustaqil izlanuvchi
Soliyeva Iroda Azizbekovna, talaba
Abdumannonov Elbek Ulug‘bekovich, talaba
Toshkent davlat tibbiyot unoversiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola havo ifloslanishining bolalar va qariyalar salomatligiga ta’sirini ijtimoiy-gigiyenik nuqtai nazardan kompleks tahlil qiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, State of Global Air (2024-2025), UNICEF va boshqa nufuzli manbalarning so‘nggi ma’lumotlari asosida havo ifloslanishi global miqyosda har yili 8,1 million erta o‘limga, shundan 709 ming nafari 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar va 4,9 milliondan ortig‘i qariyalarga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Maqolada Toshkent shahrining 2025-yil noyabr oyidagi keskin havo ifloslanishi hodisasi alohida misol sifatida keltirilib, mahalliy darajada bolalar va qariyalarning real vaqt xavfi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qisqa muddatli epizodik ifloslanish ham astma hujumlari, yurak-qon tomir kasalliklari va kognitiv buzilishlarni keskin oshiradi.

Kalit so‘zlar: havo ifloslanishi, PM2.5, AQI, harorat inversiyasi, astma, ekologik tengsizlik, gigiyenik profilaktika,

Kirish. Zamonaviy shaharlashtirish va sanoatlashtirish jarayonlari atmosferaga antropogen ifloslantiruvchi moddalarning chiqishini keskin oshirib, havo sifatini global miqyosda jiddiy muammoga aylantirdi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, faqat tashqi havo ifloslanishi har yili 4,2 million erta o‘limga sabab bo‘lmoqda [1], umumiy havo ifloslanishi (tashqi + ichki) esa 2021-yilda 8,1 million o‘limga yetgan [2]. Ushbu o‘limlarning 15 % i 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarga (709 000 holat), 60 % dan ortig‘i esa 60 yoshdan yuqori qariyalarga to‘g‘ri keladi [2,3].

Bolalar va qariyalar havo ifloslanishiga eng sezgir populyatsiya guruhlari hisoblanadi. Bolalarning daqiqada nafas hajmi kattalarga nisbatan 2–3 baravar yuqori bo‘lib, bir xil konsentratsiyada ular 3 barobar ko‘proq ifloslantiruvchi modda oladi [4]. Qariyalarda esa o‘pka

elastikligining 30–50 % ga pasayishi va birgalikda kechadigan kasalliklar (arterial gipertoniya, qandli diabet) iflos havo ta’sirini 6–13 % ga kuchaytiradi [5,6].

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ko‘plab epidemiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, PM2.5 zarralarining har 10 μg/m³ oshishi bolalarda astma rivojlanish xavfini 15–38 % [7], muddatidan oldin tug‘ilish ehtimolini 34 % [8], qariyalarda demensiya xavfini esa 20–30 % ga oshiradi [9]. Shuningdek, uzoq muddatli ta’sir bolalarda IQ ni o‘rtacha 2,5–4 ballga pasaytirishi [10], qariyalarda depressiya belgilari esa 18–25 % ga ortishi aniqlangan [11].

O‘zbekiston, xususan Toshkent shahri ham ushbu global muammodan chetda qolmadi. 2025-yil 20-noyabr kuni shaharda harorat inversiyasi va antropogen emissiyalarning birgalikda ta’siri natijasida PM2.5 konsentratsiyasi 170 μg/m³ gacha ko‘tarilib, AQI 239 ga yetdi va Toshkent bir kun davomida dunyodagi eng iflos shahar bo‘ldi [12]. O‘zbekiston Respublikasi me’yoridan (35 μg/m³) 4,8 baravar yuqori bo‘lgan ushbu epizodik hodisa bolalar va qariyalar salomatligiga real vaqt xavfini yaqqol namoyon qildi [13].

Tadqiqotning maqsadi. Yuqoridagi global va mahalliy dalillar asosida ushbu tadqiqotning maqsadi havo ifloslanishining bolalar va qariyalar salomatligiga ta’sirini zamonaviy ilmiy ma’lumotlar yoritig‘ida ijtimoiy-gigiyenik nuqtai nazardan tahlil qilish hamda profilaktika choralarining dolzarbligini asoslab berishdan iboratdir.

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqot ijtimoiy-gigiyenik tahlil xarakteriga ega bo‘lib, global va mahalliy rasmiy manbalarning zamonaviy ma’lumotlari asosida amalga oshirildi.

Ishda State of Global Air 2024–2025, WHO Ambient Air Quality Database 2025, UNICEF Special Report 2024, IQAir real-vaqt monitoringi hamda 2024–2025 yillarda nashr etilgan 15 ta asosiy ilmiy maqola (The Lancet Planetary Health, Environmental Health Perspectives, Frontiers in Pharmacology va boshqalar) ishlatildi.

Mahalliy darajada O‘zgidrometning Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi 10 ta avtomatik monitoring stansiyasining soatlik va kunlik ma’lumotlari ($PM_{2.5}$, PM_{10}, NO_2, SO_2, O_3), xususan 2025-yil 16–23 noyabr epizodik hodisasi, shuningdek O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024–2025 yillardagi statistik shakllari (bolalar va qariyalar o‘rtasida nafas olish kasalliklari va kasalxonaga yotqizish bo‘yicha) tahlil qilindi.

Havo sifati bahosi $PM_{2.5}$ va PM_{10} konsentratsiyasini WHO 2025 me’yorlari (yillik $PM_{2.5} \leqslant 5$ μg/m³; kunlik $PM_{2.5} \leqslant 15$ μg/m³; kunlik $PM_{10} \leqslant 45$ μg/m³) va O‘zbekiston SanPiN me’yorlari ($PM_{2.5} \leqslant 35$ μg/m³) bilan taqqoslash hamda AQI (Air Quality Index) hisoblash orqali amalga oshirildi.


Salomatlikka ta’siri 0–14 yosh bolalar va 60 yoshdan yuqori qariyalar guruhlarida o‘tkir nafas yo‘llari infeksiyalari, astma hujumlari, yurak-qon tomir kasalliklari va kognitiv buzilishlar bo‘yicha murojaatlar sonining o‘sishi deskriptiv tahlil qilindi. Ijtimoiy-gigiyenik baholash aholi guruhlari bo‘yicha tengsizlik darajasini aniqlash va profilaktika choralarining samaradorligini WHO va EPA tavsiyalari asosida tahlil qilish yo‘li bilan olib borildi.

Natijalar. O‘tkazilgan ijtimoiy-gigiyenik tahlil Toshkent shahrida 2025-yil noyabr oyining o‘rtalaridan boshlab havo sifatining keskin yomonlashganini yaqqol ko‘rsatdi. Ushbu holat asosan harorat inversiyasi, transport emissiyalari, issiqxonalar va qurilish changi bilan bog‘liq bo‘lib, global miqyosda $PM_{2.5}$ zarralarining yuqori konsentratsiyasi bolalar va qariyalar salomatligiga jiddiy tahdid solmoqda. Quyida O‘zgidromet, IQAir, AQI.in va Jahon banki kabi rasmiy manbalarga asoslangan aniq statistik ma’lumotlar keltirilgan. Ma’lumotlar 16–23 noyabr kunlari (so‘nggi hafta) oralig‘iga asoslangan. Havo sifati indeksi (AQI) bo‘yicha: 0–50 – yaxshi, 51–100 – o‘rtacha, 101–150 – noqulay, 151–200 – yomon, 201+ – jiddiy xavfli.

Noyabr oyining boshidan beri Toshkentda havo sifati “noqulay” darajadan “jiddiy xavfli”ga o‘tdi, ayniqsa 18–23 noyabr kunlari. $PM_{2.5}$ konsentratsiyasi O‘zbekiston me’yoridan (35 μg/m³) 2–4 baravar, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (JSST) yillik me’yoridan (5 μg/m³) esa


6–10 baravar yuqori bo‘ldi. 20-noyabr kuni Toshkent dunyodagi eng iflos shaharlar ro‘yxatida 1–3-o‘rinlarni egalladi (IQAir reytingi bo‘yicha AQI 200+). Prognozga ko‘ra, inversiya jarayoni 24-noyabrgacha davom etishi mumkin, shuning uchun havo sifati yomonligi saqlanib qoladi.

1-rasm. IQAir (World Air Quality Index), 23-noyabr holatiga ko‘ra




Kunlik statistikalar quyidagi jadvalda jamlangan (manbalar: IQAir, AQI.in, O‘zgidromet). $PM_{2.5}$ darajasi JSST me’yoridan 6–10 baravar yuqori bo‘lgan.

Sana (2025)	**O‘rtacha AQI**	**$PM_{2.5}$ (µg/m³)**	**Kasallik ehtimoli**
17-noyabr	173	120–130	Astma xuruji: +20.4 %, RR_{10} ≈ 1.015 (1.5% per 10 µg/m³). Nafas yo‘li kasalliklari: +34.9%, RR ≈ 1.349
18-noyabr	186	130–150	Astma xuruji: +23.3%, RR ≈ 1.233 Nafas yo’li kasalliklari: +38.7%, RR ≈ 1.387
19-noyabr	181	99–197	Astma xuruji: +25.1%, RR ≈ 1.251 Nafas yo’li kasalliklari: +41.0%, RR ≈ 1.410
20-noyabr	239	132–170 (3,4 baravar me’yordan yuqori)	Astma xuruji: +25.1%, RR ≈ 1.251 Nafas yo’li kasalliklari: +41.0%, RR ≈ 1.410
21-noyabr	181	98–120	Astma xuruji: +17.0%, RR ≈ 1.170 NaY kasalliklari: +31.0%, RR ≈ 1.310
22-noyabr	98–181	98–224,5 (kechqurun cho‘qqi)	Astma xuruji: +26.9%, RR ≈ 1.269 NaY kasalliklari: +43.7%, RR ≈ 1.437
23-noyabr	19–288 (o‘zgaruvchan)	50–100	Astma xuruji: +11.8%, RR ≈ 1.118 NaY kasalliklari: +18.9%, RR ≈ 1.189



2-rasm. Toshkent shahrida PM_{10} ko’rsatkichi, 22-noyabr [IQAir]



3-rasm. Toshkent shahrida PM2,5 ko’rsatkichi, 22-noyabr [IQAir]

Eng yuqori nuqta 20-noyabr soat 09:00 da $PM_{2.5}$ 132–170 µg/m³ (3,4 baravar me’yordan yuqori), AQI 239 bo‘lib, shahar dunyodagi eng iflos shaharga eng past nuqta 19-noyabr tushidan keyin $PM_{2.5}$ 99 µg/m³ (baribir noqulay). Boshqa ifloslantiruvchi moddalar orasida PM_{10} ham oshgan (masalan, 16-noyabrda 373 µg/m³, me’yordan 1,2 baravar yuqori), ammo asosiy muammo $PM_{2.5}$. NO_2 va SO_2 darajalari past (AQI 1–3), O_3 va CO – o‘rtacha.

Muhokama. Olingan natijalar shuni yaqqol ko‘rsatadiki, 2025-yil noyabr oyida Toshkent shahrida ro‘y bergan havo ifloslanishining epizodik yuqori darajasi (AQI 239–288, $PM_{2.5}$ 170–224,5 µg/m³) insonlar ayniqsa bolalar va qariyalar salomatligiga bevosita va jiddiy tahdid solmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlar nafaqat O‘zbekiston me’yorlaridan ($PM_{2.5}$ ⩽ 35 µg/m³), balki JSSTning 2025-yilda qat’iy tavsiya etilgan kunlik me’yoridan (⩽ 15 µg/m³) 11–15 baravar oshib ketdi. Bunday qisqa muddatli (7–10 kunlik) yuqori konsentratsiyalar xalqaro tadqiqotlarda “o‘tkir salomatlik effekti” (acute health effect) deb ataladi va bolalarda astma hujumi xavfini 2,1–2,8 baravarga, qariyalarda yurak-qon tomir o‘tkir hodisalari xavfini 1,8–2,2 baravarga oshirishi ilmiy jihatdan isbotlangan (State of Global Air 2024; The Lancet Planetary Health 2025).

Toshkentdagi 2025-yil noyabr hodisasi Janubiy Osiyo (Dehli, Lahore) va Sharqiy Osiyoning qishki smog epizodlariga o‘xshab ketmoqda: harorat inversiyasi + ko‘mir va gaz bilan isitish + transport emissiyasi kombinatsiyasi qisqa vaqt ichida $PM_{2.5}$ ni 10–15 baravar oshiradi. Farqi shundaki, O‘zbekistonda monitoring stansiyalari soni hali yetarli emas (10 ta), real vaqtli ogohlantirish tizimi va “havo ifloslanishi kunlari” bo‘yicha qat’iy choralar yo‘q. Natijada, aholining eng zaif qatlami – bolalar va qariyalar – o‘z vaqtida himoya choralarisiz qolmoqda.

Profilaktika choralarining samarasizligi ham muhokama qilinishi kerak. Yo‘llarni namlash va yashil zonalar sug‘orish kabi tadbirlar qisqa muddatli yengillik bersa-da, asosiy manbalarni (isitish – 28 %, chang – 36 %, transport – 16 %) bartaraf etmaydi. Xalqaro tajribaga ko‘ra (Pekin 2013–2017, Dehli 2020–2024), faqat quyidagi kompleks choralar real natija beradi:

– qisqa muddatda – maktablarda “havo ifloslanishi kunlari”ni joriy etish va onlayn o‘qitish;

– o‘rta muddatda – jamoat transportini elektrlashtirish va ko‘mirli isitishni gazga o‘tkazish;
– uzoq muddatda – milliy havo sifati strategiyasini ishlab chiqish va JSSTning 2025-yilgi qat’iy me’yorlariga bosqichma-bosqich o‘tish.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yil noyabr hodisasi O‘zbekiston uchun “signal” bo‘ldi: agar hozir jiddiy tizimli choralar ko‘rilmasa, havo ifloslanishi bolalar va qariyalar salomatligiga, mamlakatning demografik va iqtisodiy rivojlanishiga uzoq muddatli va qaytarib bo‘lmaydigan zarar yetkazadi. Ushbu muammoni hal qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi zarur.

Xulosa. Havo ifloslanishi bolalar va qariyalar salomatligiga eng katta tashqi tahdidlardan biri bo‘lib qolmoqda.

1. 2025-yil noyabr oyida Toshkent shahrida kuzatilgan o‘ta yuqori $PM_{2.5}$ darajasi (170–224,5 $\mu g/m^3$) va AQI 239–288 ko‘rsatkichlari bu muammoning nafaqat uzoq muddatli, balki bir necha kunlik epizodik ta’siri ham hayot uchun xavfli ekanligini yaqqol namoyon etdi. Ushbu hodisa bolalarda o‘tkir nafas kasalliklari va astma hujumlarini, qariyalarda yurak-qon tomir o‘tkir holatlarini keskin oshirib, ularning eng zaif guruhlar ekanligini yana bir bor tasdiqladi.
2. O‘zbekiston uchun bu nafaqat ekologik, balki jamoat salomatligi sohasidagi favqulodda signal bo‘ldi. Mavjud monitoring va profilaktika choralarining yetarli emasligi, erta ogohlantirish tizimining yo‘qligi va ijtimoiy himoya mexanizmlari zaifligi muammoni yanada og‘irlashtirmoqda.
3. Shunday ekan, bolalar va qariyalar salomatligini himoya qilish uchun davlat darajasida zudlik bilan tizimli choralar ko‘rish zarur. Faqat real vaqtli monitoring, qisqa muddatli favqulodda tadbirlar va uzoq muddatli strategik islohotlar orqali biz kelajak avlodni bu xavfdan to‘liq himoya qila olamiz. 2025-yil noyabr hodisasi so‘nggi ogohlantirish bo‘lib qolmasligi kerak – endi harakat qilish vaqti keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Health Effects Institute. State of Global Air 2024. Boston: Health Effects Institute; 2024.
2. World Health Organization. WHO global air quality guidelines: particulate matter ($PM_{2.5}$ and PM_{10}), ozone, nitrogen dioxide, sulfur dioxide and carbon monoxide. Geneva: WHO; 2025.
3. World Health Organization. Ambient (outdoor) air quality and health. Fact sheet. Geneva: WHO; October 2024 (updated 2025).
4. UNICEF. The Toxic Truth II: Children’s exposure to air pollution. New York: UNICEF; 2024.
5. IQAir. World Air Quality Report 2024 & Real-time Air Quality Index (Tashkent, November 2025). Available at: https://www.iqair.com
6. O‘zgidromet. Toshkent shahri havo sifati monitoringi kunlik va soatlik ma’lumotlari (16–23 noyabr 2025). Toshkent: O‘zgidromet; 2025.
7. American Lung Association. State of the Air 2024. Chicago: American Lung Association; 2024.
8. Environmental Protection Agency (EPA). Our Nation’s Air: Status and Trends through 2024. Washington, DC: EPA; 2025.
9. Khreis H, et al. Exposure to traffic-related air pollution and risk of childhood asthma: a systematic review and meta-analysis. Breathe 2024;20:230124.
10. Peters R, et al. Air pollution and incident dementia: a systematic review and meta-analysis. The Lancet Planetary Health 2025;9(7):e512-e523.
11. UC Davis Health. Systematic Review: Long-term exposure to air pollution and childhood brain outcomes. Environmental Health Perspectives 2024;132(8).

12. Borroni E, et al. Psychological repercussions of PM air pollution in aging populations: evidence from longitudinal studies. Frontiers in Pharmacology 2025;16:1345821.
13. Jahon banki. Air Quality Management in Uzbekistan: Assessment and Policy Recommendations. Washington, DC: World Bank; 2024.
14. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. 2024–2025 yillar bolalar va qariyalar o‘rtasida nafas olish tizimi kasalliklari statistik shakllari (ichki ma’lumot). Toshkent; 2025.
15. Gazeta.uz va Kun.uz. Toshkentda havo ifloslanishi: noyabr 2025 yilgi epizodik hodisa bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar va sharhlar. Toshkent; 2025.

O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING BOSQICHLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Xidiraliyev Komil Esanovich
Yo‘lchiyeva Nasiba Akram qizi
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizm tushunchasining vujudga kelish asoslari va uning mazmuni ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Jumladan, xalqaro ekoturizm jamiyati tahliliga ko‘ra, qaysi hollarda sayyohlar ekoturizm yo‘nalishi talablariga javob berishi ko‘rib chiqilgan. O‘z navbatida, O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanish asoslari, uning bosqichlari tadqiqot natijari asosida bayon qilingan. Maqolada mualliflarning mazkur mavzu doirasidagi xulosa va takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: Ekoturizm, atrof-muhit, sayyoh, Xalqaro ekoturizm jamiyati, tabiiy muhit, madaniy muhit, iqtisodiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik.

Аннотация. В данной статье научно исследуются основы возникновения понятия «экотуризм» и его содержание. В частности, на основе анализа международного экотуристского сообщества рассматривается, в каких случаях туристы соответствуют требованиям экотуристского направления. В свою очередь, по результатам исследования описываются основы развития экотуризма в Узбекистане, его этапы. В статье представлены выводы и предложения авторов в рамках данной темы.

Ключевые слова: Экотуризм, окружающая среда, турист, Международное общество экотуризма, природная среда, культурная среда, экономическая устойчивость, экологическая устойчивость, социальная устойчивость.

Abstract. This article provides a scientific examination of the origins and content of the concept of "ecotourism." Specifically, based on an analysis of the international ecotourism community, it examines when tourists meet the requirements of ecotourism. Furthermore, the study describes the foundations and stages of ecotourism development in Uzbekistan. The article presents the authors' conclusions and proposals on this topic.

Keywords: Ecotourism, environment, tourist, International Ecotourism Society, natural environment, cultural environment, economic sustainability, environmental sustainability, social sustainability.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida turizm industriyasiga e’tibor va e’tirof kuchaymoqda. Uning o‘ziga xos yo‘nalishlari zamon bilan hamnafas holda, vaqt va makon doirasida shakllanmoqda va rivojlanib bormoqda. Bu yo‘nalishlar ichida ekoturizm jamiyat e’tiborini o‘ziga tortmoqda. CHunki, tabiatga ozor bermagan holda, uning saxovatidan

foydalanishda ekoturizmning roli beqiyosdir. Agar biz ekoturizm tushunchasi tarixiga e’tibor bersak, quyidagilarni guvoxi bo‘lamiz.

Ekoturizm (*ekoturizm, yashil turizm*)-antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli. G'arbdagi "ekoturizm" atamasi XX asrning 80-yillari birinchi yarmida meksikalik ekolog Ektor Ceballos-Laskurain (ispancha Hector Ceballos-Laskurain) tomonidan konferensiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan. U dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirdi va katta Shuhrat qozondi. Ushbu ta'rifning variantlaridan biri ekoturizm tabiiy imtiyozlardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shaklidir.

Tadqiqot uslublari. So‘nggi yillarda turizm sohasi faol ravishda o‘zgarmoqda. Aytaylik, bundan bir necha yil oldin pandemiya bilan bog‘liq karantin cheklovlari, uning ortidan mehmonxonalar va aviachiptalar narxining o‘sishi sayohatni tobora qimmat ko‘ngilxushlikka aylantirdi. Bugungi kunda esa turizmning o‘zi esa global iqtisodiyotda eng tez o‘sayotgan tarmoq bo‘lib turibdi. Ushbu doirada, zamonaviy turizmning etuk ko‘rinishi ekoturizm sohasi ham o‘sib boryapti. Ekoturizm deganda jahon amaliyotida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib, tabiat qo‘ynida dam olish nazarda tutiladi. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) **ma’lumotlariga ko‘ra**, 2023–2028-yillarda ekoturizm bozorining o‘rtacha yillik yalpi o‘sish sur’ati 16,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda [1].

O‘zbekistonda ekoturizm yangi rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekistonga 4,2 mln xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, ularning oqimi 2023-yilga nisbatan 15,3 foizga oshgan. YUqorida aytib o‘tilganidek, ekoturizm qat’iy tabiat qo‘yniga sayohat qilishni nazarda tutadi. Bunday tajribadan asosiy maqsad-tabiatdan bahra olish. Xalqaro ekoturizm jamiyati-The International Ecoturism Society (TIES) butun dunyo bo‘ylab ekoturizmni targ‘ib qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot bo‘lib, uning ta’rifiga ko‘ra, ekoturizm-bu tabiat qo‘yniga mas’uliyatli sayohat bo‘lib, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish**,** mahalliy aholining farovonligini qo‘llab-quvvatlash va yangi tajribalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi **[2].**

TIES tamoyillariga ko‘ra, quyidagi hollarda sayohatlar ekoturizm hisoblanadi:
-belgilangan joyda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida insonning hududga ta’siri kuzatib boriladi va tashrif buyuruvchilar oqimi boshqariladi;
-yaratilgan infratuzilma tabiatga minimal ta’sir ko‘rsatadi;
-joylarning egalari “yashil” standartlar va texnologiyalarni joriy etadi;
-tadbirlar mahalliy aholining an’anaviy madaniyatini saqlash va qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutadi **[3]**.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Bundan kelib chiqadiki, ekoturizm tabiiy va madaniy muhitni saqlab qoladi, sayyohlar uchun ma’rifiy ahamiyatga ega va mahalliy aholi uchun iqtisodiy jihatdan foydali. Biroq bularning barchasi tashkilotlarning turli barqaror rivojlanish dasturlari va missiyalarida mustahkamlangan tamoyillardir. Ushbu tamoyillar amalda qanday tatbiq etilishini ko‘rib chiqamiz. Ekoturizmni barqaror rivojlantirish, muayyan qiyinchiliklar bilan bo‘lsa-da, real voqelikdir. Bu sohadagi muvaffaqiyat iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi to‘g‘ri muvozanatga bog‘liq.

Iqtisodiy barqarorlik mahalliy jamoalarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi. Ekoturizm ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy jamoalarning daromadlarini oshirish orqali iqtisodiyotni rag‘batlantirishi mumkin, ayniqsa chekka va qishloq joylarda. Masalan, MDH davlatlarida BMTTD ko‘magida qishloq xo‘jaligi dehqon va fermerlari, ijtimoiy soha xodimlari, ta’lim muassasalari, muzeylar, tabiiy qo‘riqxonalar vakillari alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ekologik ekskursiyalarni tayyorlash va tashkil etish xususiyatlari bo‘yicha o‘qitilmoqda.

Ekologik barqarorlik-qat’iy tartibga solish va rejalashtirish yordamida insonning tabiiy hududlarga salbiy ta’sirini minimallashtirishning imkoni bor. Jumladan, qisman ekoturizm hisobidan moliyalashtiriladigan ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali. Masalan, ayrim alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda oqova suvlarni nazorat qilish uchun datchiklar o‘rnatiladi.

Ijtimoiy barqarorlik-ekoturizm nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi, jumladan, bolalar orasida ham ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantirish va tarbiyalashga yordam berishi mumkin. Misol uchun, BMT sayohatlarga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish maqsadida “Inson va biosfera” ta’lim dasturini ishlab chiqdi. Dastur butun dunyo bo‘ylab 25 ta qo‘riqxonada, shu jumladan, Qozog‘istonning ikkita-Olmaota va G‘arbiy Oltoy biosfera qo‘riqxonalarida hamda Rossiyaning “Kologriv o‘rmoni” qo‘riqxonasida amal qilmoqda. Yana bir misol-Avstraliyada mahalliy aholini ekoturizm sohasida ish bilan ta’minlashga ko‘maklashadigan ikkita davlat agentligi faoliyat yuritadi **[4,5]**.

O‘zbekistonda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” davlat dasturi doirasida ichki turizmni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilyapti. 2026-yilga kelib mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshishi, xorijlik sayyohlar soni esa 9 millionga yetishi kutilmoqda. O‘zbekistonda turizmning asosiy turi madaniy-ma'rifiy bo‘lib qolmoqda. Biroq mamlakatning boy diniy merosini hisobga olgan holda, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surilgan. Shuningdek, hozircha aniq tafsilotlar mavjud bo‘lmasa-da, faol turizmni (sport va ekoturizm) rivojlantirish rejalari haqida ham gapirsak bo‘ladi.

Yirik loyihalar qatoridan Zomin, Forish va Baxmal tumanlarida, shuningdek, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida yangi turistik zonalar barpo etish joy olgan. 300 mln dollarlik loyihalar doirasida 25 mingta ish o‘rni tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish dasturining yana bir farqi shundaki, bu yerda Qozog‘iston yoki Rossiyadagi kabi turistik makrohududlar va klasterlarni yaratish tendensiyasi mavjud emas. Ekoturizmni rivojlantirish dasturlari mamlakatning har bir viloyatida amalga oshirilmoqda.

Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orolbo‘yida Mo‘ynoq yangi aeroporti imkoniyatlaridan foydalangan holda ekologik va ziyorat turizmi loyihalari ishga tushirilmoqda. Xorazm viloyatini turizm sohasida ish o‘rinlari yaratishning asosiy “harakatlantiruvchi kuchi" ga aylantirish choralari ko‘rilmoqda. Buxoro viloyatida esa turizmni jadal rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishga aylanmoqda. 2021-yilda ishga tushirilgan Tourism. Path to Innovation tanlovi startaplarni qo‘llab-quvvatlash va mamlakatning turizm salohiyatini ochib berishga qaratilgan. Shu bilan birga, BAA investitsiya kompaniyasi ko‘magida Toshkentda yangi turizm akademiyasini ochish rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning o‘ziga xos mexanizmi mavjud. Ekoturizmni rivojlantirish ham tabiiy hududlar salohiyatini baholash, ham strategik rejalashtirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. MDH davlatlarida, xususan, O‘zbekistonda buni anglagan holda kompleks choralar ko‘rilyapti. Masalan, so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hudud **(METH)** lar maydoni mamlakat umumiy maydonining 5,2 foizidan 14 foizigacha kengaytirildi. Bugungi kunda mamlakat METH tizimiga 8 ta qo‘riqxona, 2 ta biosfera qo‘riqxonasi, 3 ta milliy bog‘ va boshqa tabiatni muhofaza qilish obyektlari kiradi [6]**.**

Shunga qaramay, mamlakatda ekoturizm sohasi hozircha salohiyatni anglash va baholash bosqichida. Atlas kompaniyasi barqaror ekoturizmni rivojlantirish sohasidagi jahon amaliyotini tahlil qilib, to‘rtta asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatdi. O‘zbekistonda ham ekoturizm, katta ehtimol bilan, ushbu bosqichlardan o‘tadi.

Tabiiy hududlarning salohiyatini baholash. Birinchi navbatda, bioxilma-xillik darajasini baholash zarur. Bu noyob flora va faunaga, kamyob turlarga yoki muhim ekotizimlarga

ega bo‘lgan joylar soni bilan o‘lchanadi. Bunday joylar ko‘proq sayyohlarni jalb etishi mumkin (Masalan, *Yozyovon qumliklari*). Shuningdek, ekoturistik yo‘nalishlarga kiritilishi mumkin bo‘lgan madaniy yoki tarixiy obyektlar mavjudligini aniqlash muhim ahamiyatga ega (masalan, O‘zbekistondagi singari an’anaviy qishloqlar, tarixiy yodgorliklar).

Ustuvor turistik loyihalar xaritasini yaratish. Tabiiy hududlar to‘g‘risida barcha ma’lumotlarni to‘plash, ayni paytda ekologik, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatlarni hisobga olish lozim. Ustuvor loyihalarni aniqlash mezonlarini belgilab olish ham muhim, chunki barcha tashabbuslarni bir vaqtning o‘zida amalga oshirib bo‘lmaydi. Yana bir muhim omil-turistik obyektlarni qurishda ekologik cheklovlarni hisobga olish. Rossiyada alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda qurilishni tartibga solishga qaratilgan qonun kuchga kirdi, chunki ekoturizmning rivojlanishi shunchalik tezlashdiki, bu muhim ekotizimlarga xavf sola boshladi.

Manfaatdor tomonlarni jalb etish. Tomonlarni jalb qilishga yorqin misol-YUNESKO ning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Arxangelsk viloyatidagi Kenozere milliy bog‘i. 1996-yili, bog‘ endigina shakllana boshlagan vaqtdan beri, unga Norvegiyaning bir nechta tashkilotlari, jumladan Riksantikvaren madaniy merosni muhofaza qilish boshqarmasi yordam berib kelgan. Hamkorlik shartlaridan biri shuki, bog‘ni tashkil etish va madaniy obyektlarni ta’mirlash bo‘yicha barcha ishlarda mahalliy aholi ishtirok etishi shart. Darya Kovalenkoning fikricha, bu bosqichda boshqaruvning ikki darajasida o‘zaro hamkorlik qilish vositalarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rta darajadagi hamkorlik vositalarini, birinchi navbatda, investorlar bilan ishlash va ekoturizm salohiyatiga ega hududlarni aniqlash haqida o‘ylab ko‘rish muhim. Shuningdek, mahalliy darajadagi vositalar-joylarda kichik biznes uchun ekoturizmni rivojlantirish uchun, jamoalar bilan ishlash uchun, infratuzilma, so‘qmoqlar, yo‘l ko‘rsatkichlarini tashkil etish uchun yo‘riqnomalar ham zarur.

Doimiy monitoring va moslashtirish. Qayta aloqa shuning uchun ham muhimki, prognozlarga ko‘ra, 2033-yilga kelib turizm sohasi global YAIM ning 11,6 foizini tashkil etadi, butun boshli tarmoq esa 2019-yilga nisbatan 50 foizga o‘sadi. Demak, ekotizimlarga va mahalliy madaniyatga ta’sir faqat ortib boradi. 2030-yilga kelib turizm sanoatida karbonat angidrid gazi chiqindilari ham 2016-yilga nisbatan 25 foizga oshadi **[7,8]**.

Yechimlar turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, Xorvatiyaning Dubrovnik shahrida sayyohlarni madaniyat va tabiatga ongli munosabatda bo‘lishga undovchi reklama ishga tushirildi, shahar hokimiyati esa g‘ildirakli chamadonlarni tosh yo‘laklar bo‘ylab olib yurishni taqiqladi. Barselonada sayyohlar uchun qisqa muddatli turar joy ijarasi butunlay taqiqlandi.

Hozircha bu yordam bermayapti. Dunyo bo‘ylab sayohat statistikasini o‘rganuvchi Murmuration startapi hisob-kitoblariga ko‘ra, sayyoramizdagi sayyohlarning aksariyati barcha yo‘nalishlarning atigi o‘ndan bir qismidan foydalanmoqda. Biroq ijobiy jihatlar ham mavjud. Turar joy ijarasiga ixtisoslashgan xizmatlardan biri o‘tkazgan so‘rovnoma mijozlarning yarmidan ko‘pi “ommalashmagan” yo‘nalishlarda sayohat qilishga tayyor ekanini aniqladi. Bunday vaziyatda O‘zbekiston kabi mamlakatlar dunyoning eng gavjum va “toliqqan” hududlaridagi yuklamani kamaytirish bilan bir vaqtda, o‘z hududlarida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi mumkin **[9]**.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o‘rnida aytish lozimki, **ekoturizm**-ekologik ta’lim va ma’rifat dasturlarini o‘z ichiga olgan va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo‘naltirilgan turizmdir. Ekologik turizm-mahalliy madaniyat va ekotizimning yaxlitligini buzmaydigan tabiiy muhitni yaxshiroq tushunish maqsadida tabiiy hududlarga maqsadli sayohat, tabiiy resurslarni himoya qilish esa mahalliy aholi uchun foydali bo‘ladi.

Ekoturizm-atrof-muhitga ta’sirni, iste’molni va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan axloqiy me’yorlarga muvofiq tashkil etilgan va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga qaratilgan

ekologik jihatdan barqaror tabiiy turizmning bir shakli bo‘lib, u atrof-muhitga, iste’molga va xarajatlarga (nazorat qilish nuqtai nazaridan, o‘lchovlarning afzalliklari), odatda, turizmning bunday shakli himoyalangan hududlarda rivojlanib boradi, bu hududlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Ekoturizm-tabiatni muhofaza qilish va rivojlanishga hissa qo‘shishi mumkin, u kamida sayyohlik faoliyati, biologik xilma-xillik va mahalliy aholi o‘rtasida ijobiy sinergik munosabatlarni o‘z ichiga oladi, bu esa tegishli tashkilot va ushbu faoliyatni boshqarish tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Ekoturizmning asosiy xususiyatlari:

-nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarda sodir bo‘ladi;

-tabiiy muhitni yo‘q qilishga, uning sifati yomonlashishiga olib kelmaydi;

-foydalaniladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va boshqarishga bevosita hissa qo‘shadi;

-yetarli va vakolatli boshqaruvga bo‘ysunadi.

Ekoturizm asosida, turizm madaniyati yotadi, turizm madaniyatini rivojlantirishda ekologik madaniyatning o‘rni muhim hisoblanadi. Chunki, turizmning Ekoturizm sohasi ekologiya bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, turizmning ushbu yo‘nalishlarini rivojlantirishda turizm ob’ekti hamda tashrif buyuruvchi turistning ekologik madaniyati qanchalik darajada shakllanganligiga bog‘liq. Haqiqatdan ham, ekoturizm-turizmning yangi sohasi bo‘lib, ikkinchi nomi «tabiatga yumshoq teguvchi turizm», ya’ni atrof-muhitga eng kam ta’sirini ta’minlovchi turizmdir. Ushbu yo‘nalish doirasida ishlab chiqilgan ekoturizm dasturi odatda ekologik toza joylarga borishni nazarda tutadi va tabiat qo‘riqxonalariga uyushtiriladi. Turizmning bu turi tabiiy hududlarga mas’uliyat bilan sayohat qilishni hamda tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия Кенгашининг 99 сессияси. – Тошкент, «Ўзбекистон», 2014. –Б. 14.

2. Ward N.K. Ecotourism: Reality or Rhetoric//www.ecotouris m.org, March, 1997.

3.Экологический туризм: учебно-методическое пособие для студентов бакалавриата направления «Туризм». Сост. Е.Л. Пименова. - Ижевск: Издательство «Удмуртский университет», 2012. - 78 с.

4.Храбовченко В.В. Экологический туризм: Учебнометодическое пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. – 208 с

5.Эйтингон А.И. Экологический туризм. – М.: РИБ “Турист”, 2001. – 40 с.

6. Е. В. Грачевой «Экологический туризм. Учебное пособие для вузов». 2025. 161-стр.

7.Нигматов А.Н. «Экотуризм ва унинг географик хусусиятлари» (Наманган вилояти мисолида). Монография.-Т.: «Наврўз» нашриёти,

2019. – 148 б.

8.Нигматов А. Экологик туризм. «Соғлом авлод», №33.17–23.08.2006.

9.Нигматов А. Экологик туризм келажакда нуфузли соҳага айланади. «Ma’rifat». № 39.– 17.05.2008.

AVTOMOBIL YUVISHDAN HOSIL BO’LGAN QOVA SUVLARNING FIZIK, KIMYOVIY, BIOLOGIK TARKIBI VA ULARNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Xolov Alisher Faxriddin o’g’li, Igitov Farrux Baxtiyorovich
Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil yuvish shoxobchalaridan hosil bo‘ladigan oqova suvlarning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari hamda ularning atrof-muhitga ta’siri keng yoritilgan. Tadqiqotda oqova suv tarkibidagi ifloslantiruvchi moddalar — neft mahsulotlari, yuzaki faol moddalar, og‘ir metallar, organik birikmalar va suspenziyalangan zarrachalarning o‘zgaruvchanligi tahlil qilingan. Shuningdek, ularning suv havzalari, tuproq, yer osti suvlari va biologik xilma-xillikka ko‘rsatadigan ekologik xavflari ilmiy asosda baholangan. Oqova suvlarning yuqori toksikligi, eutrofikatsiya jarayonini kuchaytirishi, gidrobiotsenozlarga salbiy ta’siri hamda sanitariya-epidemiologik xavflari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada bunday oqova suvlarni samarali tozalash, ekologik monitoring va xavfsiz boshqaruv zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Avtomoyka oqova suvlari, kimyoviy tarkib, og‘ir metallar, neft mahsulotlari, yuzaki faol moddalar, ekologik xavf, eutrofikatsiya, toksiklik, yer osti suvlari, biologik xilma-xillik.

Аннотация. В статье рассмотрены физические, химические и биологические свойства сточных вод, образующихся на автомобильных моечных станциях, а также их воздействие на окружающую среду. Проанализирован состав загрязняющих веществ — нефтепродуктов, поверхностно-активных веществ, тяжелых металлов, органических соединений и взвешенных частиц, а также их вариация в зависимости от условий. Оценено экологическое влияние таких стоков на водные объекты, почвы, подземные воды и биологическое разнообразие. Особое внимание уделено токсичности сточных вод, усилению процессов эвтрофикации, нарушению гидробиоценозов и санитарно-эпидемиологическим рискам. Обоснована необходимость эффективных технологий очистки, экологического мониторинга и безопасного управления сточными водами.

Ключевые слова. *Сточные воды автомоек, химический состав, тяжелые металлы, нефтепродукты, ПАВ, экологическая опасность, эвтрофикация, токсичность, подземные воды, биологическое разнообразие.*

Abstract. This article examines the physical, chemical, and biological characteristics of wastewater generated at car wash facilities and evaluates their environmental impact. The study analyzes variations in major pollutants—including petroleum products, surfactants, heavy metals, organic compounds, and suspended solids—under different operational conditions. The ecological risks posed by such wastewater to surface water bodies, soil, groundwater, and biodiversity are assessed. Special emphasis is placed on wastewater toxicity, acceleration of eutrophication processes, disruption of aquatic ecosystems, and sanitary-epidemiological hazards. The paper highlights the necessity of applying advanced treatment technologies, implementing environmental monitoring, and ensuring safe wastewater management.

Keywords. *Car wash wastewater, chemical composition, heavy metals, petroleum products, surfactants, environmental risk, eutrophication, toxicity, groundwater, biodiversity.*

Kirish. Avtomobil yuvish shahobchalaridan chiqadigan oqova suvlari tarkibi u yerda amalga oshirilayotgan texnologik jarayonlarning murakkabligiga, ishlatiladigan yuvish vositalariga, transport vositalarining texnik holatiga va ob-havo sharoitiga bog‘liq holda sezilarli darajada farqlanadi. Ushbu oqova suvlar tarkibida turli xil fizik, kimyoviy va ba’zan biologik ifloslantiruvchi moddalarning mavjudligi ularni tozalashda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shuning uchun ularning xossalarini chuqur tahlil qilish, samarali tozalash texnologiyalarini tanlash va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Fizik xossalar. Avtomoyka oqova suvlarining fizik xususiyatlari ularning tashqi ko‘rinishi, fizik holati va ba’zi muhim parametrlar asosida tavsiflanadi. Quyidagi ko‘rsatkichlar eng muhim fizik ko‘rsatkichlar hisoblanadi:

Rang va loyqalilik. Yuvish jarayonida avtomobil sirtidan ajralib chiqadigan chang, tuproq, metall parchalar va boshqa muallaq zarrachalar oqova suvni quyuq kulrang yoki qoramtir rangda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, kuz va qish fasllarida bu holat yaqqolroq kuzatiladi. Oqova suvlar ko'pincha quyuq kulrang yoki qoramtir rangda bo'lib, loyqalilik darajasi yuqori. Odatda avtomoyka oqova suvlari yuqori loyqalikka ega bo‘ladi. Suspensiyalangan zarrachalar miqdori 100–500 mg/l atrofida bo‘lishi mumkin. Masalan, ba'zi tadqiqotlarda loyqalilik 1000–2000 NTU (nefelometrik loyqalilik birligi) oralig'ida bo'lganligi qayd etilgan [1].

Hid: Neft mahsulotlari, texnik suyuqliklar (surtma, antifriz) va detergentlar oqova suvda o‘tkir texnik hid paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Temperatura: Oqova suvning harorati tashqi muhitga va ishlatilgan suv haroratiga bog‘liq bo‘lib, 10°C dan 40°C gacha o‘zgaradi.

Elektr o‘tkazuvchanlik: Kimyoviy reagentlar, tuzlar va yuvish vositalari mavjudligi oqova suvning elektr o‘tkazuvchanligini oshiradi va bu ko‘rsatkich 500–2000 µS/cm atrofida bo‘lishi mumkin.

Kimyoviy tarkib. Avtomobil yuvish jarayonida ishlatiladigan yuvish vositalari, texnik suyuqliklar va avtomobil sirtidagi ifloslantiruvchilar oqova suv tarkibiga turli kimyoviy moddalarning tushishiga olib keladi. Kimyoviy tarkib quyidagi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

pH: Yuvish vositalarining ishqoriy tabiati tufayli oqova suvning pH darajasi odatda 6.5–10 oraliqda bo‘ladi [2].

Umumiy qattiqlik: Suvda kalsiy va magniy ionlari mavjudligi uning qattiqlik darajasini belgilaydi. Bu ko‘rsatkich 5–15 mg-ekv/l gacha yetishi mumkin.

Umumiy suspenziya (US): 100–500 mg/l oralig‘ida bo‘lib, qum, tuproq, bo‘yoq, metall qoldiqlari va boshqa noorganik zarrachalarni o‘z ichiga oladi. Ba'zi tadqiqotlarda Umumiy suzuvchi moddalar (USM) miqdori 905–4887 mg/L oralig'ida bo'lganligi aniqlangan [3].

Kimyoviy kislorod talabi (KBKT): Yuvish vositalaridagi surfaktantlar va neft mahsulotlari KBKTni ortishiga sabab bo’ladi. KBKT qiymatlari 230–1413 mg/L oralig'ida bo'lishi mumkin [1].

Biokimyoviy kislorod talabi (BKT5): Odatda 50–500 mg/l atrofida bo‘lib, oqova suvdagi organik ifloslantiruvchilarning biologik parchalanish darajasini ko‘rsatadi.

KBKT/KBBT nisbati: Bu nisbat odatda 2.5–4.5 bo‘lib, bu suvdagi organik moddalarning murakkabligi va past biologik parchalanish qobiliyatini ko‘rsatadi.

Neft mahsulotlari va moylar: Oqova suvdagi moy va yog' miqdori 5–24 mg/L oralig'ida aniqlangan bo‘lib, avtomobil dvigateli, tormoz va uzatmalar tizimidan chiqadi.

Yuzaki faol moddalar (YFM): Anionik va nonionik surfaktantlar yuvish vositalarining asosiy komponentlari bo‘lib, ularning miqdori 1–50 mg/l oralig‘ida bo‘ladi.

Og‘ir metallar: Pb, Cu, Zn, Cr, Fe kabi metallar avtomobil qismlarining oksidlanishi natijasida oqova suvga tushadi. Ularning umumiy miqdori 1.15–3 mg/L oralig‘ida bo‘lishi mumkin [2].

Biologik tarkib. Odatda avtomoyka oqova suvlari yuqori darajada toksik bo‘lganligi sababli biologik faol komponentlar kam miqdorda bo‘ladi. Shunga qaramay, quyidagi holatlar kuzatiladi:

Koliform bakteriyalar: Odatda tashqi muhitdan kelib tushadi; biologik ifloslantirish darajasi boshqa oqova turlariga nisbatan pastroq.

Biologik parchalanish darajasi: Yuzaki faol moddalar va boshqa organik komponentlarning parchalanish qobiliyati turlicha. Agar KBKT/KBBT nisbati > 3 bo‘lsa, bu moddaning yomon parchalanishini bildiradi.

Toksiklik: Oqova suv tarkibidagi og‘ir metallar, fenollar va detarjenlar suvdagi mikroorganizmlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, tabiiy biologik muhitda ularning o‘z-o‘zini tiklash qobiliyati pasayadi. Oqova suvlarda Aeromonas va Pseudomonas turidagi bakteriyalar mavjudligi aniqlangan. Heterotrofik bakteriyalar soni 2800 dan 4600 CFU/100 ml gacha bo'lishi mumkin [2].

Tarkibdagi moddalarning o‘zgaruvchanligi. Oqova suv tarkibidagi moddalarning konsentratsiyasi bir nechta omillarga bog‘liq holda doimiy ravishda o‘zgarib turadi:

Yil fasllari: Qishda yo‘lga sepilgan tuzlar (asosan NaCl, $CaCl_2$) va reaktivlar oqova suv tarkibidagi xloridlar miqdorini oshiradi. Bahor va kuzda esa yomg‘ir va loy tuproq oqimlari tufayli suspenziyada saqlanuvchi qattiq moddalar (SSQM) miqdori yuqori bo‘ladi. Qishda, shuningdek, past harorat tufayli yog‘lar qattiqlashib, ularni ajratish qiyinlashadi [3; 709-b].

Kun davri: Tonggi va kechki paytda avtomoykalarga bo‘lgan talab yuqori bo‘ladi. Bu vaqt oralig‘ida oqava suvlar oqimi ko‘payadi, oqibatda ifloslantiruvchilar konsentratsiyasi keskin o‘zgaradi. Shuningdek, bu soatlar yuklama piklarida oqova tozalash tizimining ish faoliyatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4; 521–525-b].

Transport turi: Yengil avtomobillar nisbatan kam miqdordagi ifloslanish, asosan chang va yog‘. Yuk avtomobillari ko‘proq yog‘-moy, og‘ir metallar va SSQM keltirib chiqaradi**.** Ixtisoslashgan texnika (masalan, qishki yo‘l xizmatlari mashinalari) – yo‘l reagentlari va yuqori abraziv moddalarga boy oqova suv hosil qiladi.

Bu o‘zgaruvchanliklar oqova suvlarni tozalash tizimlarini loyihalashda ularning moslashuvchanligi **va** yuklama o‘zgarishiga bardosh berishini talab qiladi. Tozalash inshootlari pik yuklamalar uchun maxsus rezervuarlar, modulli tozalash bosqichlari yoki avtomatik monitoring tizimlari bilan jihozlanishi lozim. Bunday yondashuv tizimning samaradorligini yil davomida ta’minlashga yordam beradi [5; 1137–1147-b].


Oqova suvlarning atrof-muhitga ta’siri. Avtomobil yuvish shoxobchalarida hosil bo‘ladigan oqova suvlar tarkibidagi turli ifloslantiruvchi moddalar (neft mahsulotlari, YFM, og‘ir metallar, fenollar, sintetik organik birikmalar) atrof-muhit uchun jiddiy ekologik xavf tug‘diradi (1.3-rasm). Bunday oqova suvlar yetarlicha tozalanmagan holda chiqarilsa, ular yer osti suvlari, tuproq unumdorligi, ochiq suv havzalari va biotsenozga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [6; 1-9-b].

Suv resurslariga ta’siri. AYShlardan oqib chiqadigan suvlar ko‘pincha yuqori miqdordagi KBBE, KKBT va yuzaki-aktiv moddalarni o‘z ichiga oladi. Agar bunday suvlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochiq suv havzalariga tushsa, ularning fizik-kimyoviy xossalari sezilarli darajada o‘zgaradi:

Eutrofikatsiya jarayonining jadallashuvi — ortiqcha azot va fosfor moddalarining suvga tushishi fitoplankton (ayniqsa, suv o‘tlari va algalar) o‘sishini rag‘batlantiradi. Bu esa suvdagi kislorod miqdorining kamayishiga va gidrobiologik muvozanatning buzilishiga olib keladi [7];

Turbidlik (loyqalilik) oshadi — yuvishdan chiqqan mayda zarrachalar va dispers moddalarning yuqori kontsentratsiyasi suvning optik xossalarini yomonlashtiradi;

Toksik ta’sir — og‘ir metallar (masalan, Zn, Pb, Cr), neft mahsulotlari va fenollar suv hayvonotiga zarar yetkazadi, ayniqsa plankton va baliqlarda bioakkumulyatsiya kuzatiladi [8; 6-b]. Neft mahsulotlari va ularning tarkibiy qismlarining tabiiy muhitga tushishi uning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlari va xarakteristikalarini o‘zgartiradi hamda tabiiy biokimyoviy jarayonlarni buzadi. Neft mahsulotlarining istalgan sinfi suvni ifloslantiruvchi xavfli aralashmaga aylanishi mumkin [9; 4-6-b].



1-rasm. Avtomobil yuvishdan hosil bo’lgan oqova suvlarni atrof-muhitga ta’siri

Tuproq va yer osti suvlari uchun xavf. Yer yuzasida yuzaga kelgan preferensial oqim oqibatida suv va undagi eritmalar faol ildiz zonasini chetlab o‘tib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuproq qatlamlari orqali yer osti suvlariga o‘tishi mumkin. Bu esa ifloslantiruvchi moddalar, ayniqsa yuzaki-aktiv birikmalar va pestitsidlarning yer osti suvlariga sezilarli darajada tezroq yetib borishiga olib keladi va atrof-muhit xavfsizligiga xavf soladi [10; 142-148-b].

Yer osti suvlariga xavf quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

YFMlar va benzin komponentlari (masalan, BTEX — benzol, toluol, etilbenzol, ksilollar) filtratsiya jarayonida erkin harakatlanib, chuqur gorizontlarga yetib borishi mumkin;

Og‘ir metallar tuproq orqali adsorbsiyalanmaydi, balki suvli qatlamlarga o‘tib, ichimlik suvi sifatini yomonlashtiradi;

Biologik xilma-xillikka ta’siri. Yuvish suvlarida mavjud bo‘lgan biologik parchalanmaydigan surfaktantlar va fenollar ko‘plab suvdagi mikroorganizmlar, zooplankton va bentos hayvonlari hayot faoliyatini izdan chiqaradi. O‘z navbatida bu trofik zanjirlarning uzilishiga olib keladi va butun ekotizimda o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Fransiyada yer usti suvlari tarkibidagi aralash ifloslantiruvchi moddalarning umumiy toksikligiga surfaktantlar tomonidan qo‘shiladigan hissani aniqlash bo‘yicha zamonaviy ekologik tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar, xususan, biologik turg‘unlik va yuqori konsentratsiyalarda aniqlanadigan surfaktantlarning aralashmalardagi xavf indeksiga (HI) ta’sirini baholashga qaratilgan. Shuningdek, oqova suvlar tarkibidagi gidrokarbonlar va sintetik moddalar suvda mavjud bo‘lgan kislorodni kamaytirib, anaerob sharoitlarni yuzaga keltiradi. Bu esa organik moddalar to‘liq parchalanmasdan, metan, sulfidlar va ammiak kabi toksik gazlar ajralishiga sabab bo‘ladi [11].

Ijtimoiy va sanitariya-epidemiologik tahdidlar. Ekotizimga salbiy ta’sirdan tashqari, bunday ifloslangan oqova suvlar orqali infeksion kasalliklar xavfi ortadi. Yuvish joylarining yomon sanitariya holatida bo‘lishi, oqova suvning ochiqda to‘planishi masalan, entyerobakteriyalar, E. coli yoki patogen zamburug‘larning tarqalishiga olib kelishi mumkin. Bu holat ayniqsa aholi zich yashaydigan shaharlarda yoki suv tanqis hududlarda dolzarb hisoblanadi. Oqova suvni tozalash, sanitariya-gigiyena va oqava suvlarni boshqarish infektsiyalarni oldini olish va antibakterial qarshilik tarqalishini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. **S. Ducey, A. Sapkotalar** tomonidan o’tkazilgan tadqiqotlar kanalizatsiya ishchilari ustida o‘tkazilgan, kanalizatsiyada ular teri va nafas orqali yuqori darajada ta’sirlanishi mumkin. Ushbu ishchilar orasida saraton kasalligi xavfi oshgani qayd etilgan, ammo saratonning qaysi organlarda paydo bo‘lishi haqidagi natijalar

